RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI: XALQARO TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

THE INFLUENCE OF INTER-DISCIPLINARY INTEGRATION IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT ON THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND DEVELOPMENT PERSPECTIVES

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

ВЛИЯНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

GULISTON-2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SIRDARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI: XALQARO TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2024-yil 15-16-mart

“THE INFLUENCE OF INTER-DISCIPLINARY INTEGRATION IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT ON THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND DEVELOPMENT PERSPECTIVES”

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

March 15-16, 2024

«ВЛИЯНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

15-16 март 2024 г.

GULISTON-2024

Raqamli ta’lim muhitida fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Sirdaryo viloyati pedagogika markazi.

Ushbu konferensiya to‘plamida Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi tomonidan tashkil etilgan – “Raqamli ta’lim muhitida fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari ” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish, ularning malakasini oshirish, raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda ta’lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to‘plash, tajribalarni o‘rganish, aniqlash, ta’lim samaradorligini ta’minlashda life-long learning – hayot davomida o‘qish tamoyilining o‘rni, o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ta’lim bosqichlari uzviyligini ta’minlashda masofaviy ta’lim sifatini tubdan oshirish va takomillashtirishga oid xorijiy tajribalar bo‘yicha to‘plangan materiallar joy olgan.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, umumta’lim maktab o‘qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin

Mas’ul muharrir: markaz direktori v.v.b. G.Berdaliyeva

Tahrir hay’ati: filologiya fanlari doktori, professor T.Mirzaqulov;
pedagogika fanlari bo‘yicha PhD, dotsent G.Berdaliyeva;
filologiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent A.Uralov;
Aniq va tabiiy metodikasi kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n. K.Eshkuvatov
katta o‘qituvchilar: A.Nizamov, U.Bekmatova, B.Atayeva, O.Shirinov, I.Biybalayev, M.Nazarova, E.Rahmonov.

Taqrizchilar: A.Uralov – SVPYMO‘MM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent.
M.B.Niyozov – Guliston davlat pedagogika instituti p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 29-fevraldagi o‘tkazilgan 2-sonli yig‘ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldir.

© SVPYMO‘MM, 2024

SO‘Z BOSHI

XXI asr fan-texnika, axborotlashtirish asri bo‘lishligi bilan bugungi jadallashib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo‘yilgan rejalarning natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida ko‘plab vazifalar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentabr kuni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash haqidagi PF – 158-sonli farmon imzolandi. Bu esa ta’lim sohasida ham ko‘plab vazifalarni amalga oshirish shartini qo‘ydi.

Uchinchi Renessans davriga kelib yurtimizda ko‘plab ta’lim muassasalari yangidan qurildi, ta’mirlandi, eng zamonaviy o‘quv anjomlari bilan ta’minlandi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda ham jadal davom etmoqda, mustaqil fikr, intellektual jihatdan rivojlangan, o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta’lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo bu, ta’lim sifatini ta’minlash eng muhim o‘rin tutadigan o‘qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish, jarayonga eng zamonaviy va ilg‘or axborot hamda ta’lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolarda ko‘rinmoqda.

Muvaffaqiyatli ta’lim tizimlarida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Misol tariqasida Norvegiyada o‘qituvchining yillik ish vaqtining 6 kuni malaka oshirish uchun ajratilsa, Yaponiyada bu ko‘rsatgich 10 kunni, Singapurda 12, Shanxayda 33 kunni tashkil etadi.

E’tiborlisi, o‘quvchilarining ta’limdagi yutuqlarini baholashga qaratilgan xalqaro PISA tadqiqotlarida Shanxay, Singapur, Yaponiya yuqori o‘ntalikka kirishini hisobga olsak, o‘qituvchining malaka oshirishi va o‘quvchilarining ta’limdagi yutuqlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bor.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi yillik ish rejasiga asosan tashkil etilayotgan xalqaro anjuman – Raqamli ta’lim muhitida fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari masalasini hal etishni rejalashtirib, o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydi: r*aqamli ta’lim muhitida fanlararo integratsiyani qo‘llash imkoniyatlari; fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri; ta’lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati; yangi avlod darsliklari: ilg‘or tajribalar va rivojlanish.*

Ta’lim tizimi tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv jarayonida internet tizimi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yangi bilimlarni egallash, saqlash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Endi xalq ta’limi tizimi xodimlari masofadan turib ham malaka oshirishlari mumkin. Buning uchun ularda telefon yoki kompyuter va internet bo‘lishining o‘zi kifoya qiladi. Axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan masofaviy ta’limda foydalanish avvalo ta’lim sifati, ijtimoiyligi, ommabopligi hamda iqtisodiy jihatdan hammaga maqbul bo‘lishligini ta’minlaydi. Bulardan tashqari masofaviy ta’limni bir qator afzalliklari hamda ijobiy jihatlari ham mavjud.

O‘ylaymanki bugungi konferensiya a’zolari tomonidan ishlab chiqiladigan ilmiy maqolalar, ishlab chiqiladigan tavsiyalar maktabgacha va maktab ta’limi tizimini va rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Milliy markaz direktori v.v.b. G.Berdaliyeva

1-SHO‘BA. RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TA’LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Boqiyev Farxod Esanovich
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari

Annotatsiya: *Ta’lim tizimida o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli, zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlari, masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ijobiy tomonlari, sinxron va asinxron elektron ta’lim, masofaviy ta’lim texnologiyalari, raqamli texnologiyalar haqida so‘z yuritilgan.*

Annotation: *The role of innovative technologies in shaping the educational process within the education system, possibilities of modern digital technologies, positive aspects of teaching utilizing distance technologies, synchronous and asynchronous e-learning, distance learning technologies, and discussion on digital technologies are highlighted.*

Аннотация: *Роль инновационных технологий в организации учебного процесса в системе образования, возможности современных цифровых технологий, положительные стороны обучения с использованием дистанционных технологий, синхронного и асинхронного электронного образования, технологий дистанционного обучения, цифровых технологий. поддерживается.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim, masofaviy ta’lim, sinxron elektron ta’lim, asinxron elektron ta’lim.*

Key words: *education system, information technologies, digital technologies, electronic learning, distance learning, synchronous e-learning, asynchronous e-learning.*

Ключевые слова: *система образования, информационные технологии, цифровые технологии, электронное образование, дистанционное образование, синхронное электронное образование, асинхронное электронное образование.*

Respublikamizda ta’lim tizimi va zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasini ilg‘or mamlakatlar tajribalari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqish, barcha sohani jahon standartlari darajasida rivojlantirish, ta’lim tizimi faoliyatini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Kelajak avlodni jismonan sog‘lom, intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilib tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari 2022 – 2026 – yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Ta’lim tizimida o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatidan foydalangan holda ta’lim olish mumkin. Zero an’anaviy ta’lim o‘z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o‘qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta’lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Axborot texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda. Raqamli texnologiyalar - ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. Raqamli texnologiyalar - bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta’minotga ega bo‘lgan kompyuterlar va ma’lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir.

Hozirgi davr ta’lim bosqichining yangi talablariga ehtiyoj yuqoriligini ko‘rsatmoqda. Bunda masofaviy ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash va uni boshqarish ham muhim o‘rin tutadi. Bu borada, Respublikamizda qator dolzarb ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2012 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi barcha oliy ta’lim muassasalari (OTM) o‘rtasida yagona videokonferensiya ta’lim texnologiyasi amalga oshirildi va hozirgi kunda bu borada elektron ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunda OTMlarga yangi imkoniyatlar va istiqbollar ochib berish borasida rejali ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga hududlardagi kadrlar malakasini masofadan boshqarish bunga misol bo‘la oladi. Elektron yoki masofaviy ta’limning yangi bosqichida nafaqat axborot texnologiyalarini qo‘llash, balki elektron shakldagi ta’lim manbalarini bilan ta’minlashni ko‘zda tutiladi.

Elektron va masofaviy texnologiyalar – ta’limning axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llangan variantlaridir.

Elektron ta’lim (E-Learning). Dastlab «Elektron ta’lim» atamasi kompyuter yordamida o‘qitish deb tushunilgan, biroq axborot texnologiyalari rivoji bilan bu tushuncha yanada kengaytirildi.

Bugungi kunda elektron ta’lim ko‘pgina ta’lim texnologiyalarini qamrab olmoqda, ularni shartli ravishda, 2 xil turga, ya’ni sinxron va asinxron turlarga bo‘lish mumkin.

Sinxron elektron ta’lim – masofaviy ta’lim hisoblanadi, lekin bu real vaqtda amalga oshiriladigan ta’limdir. U oddiy kunduzgi ta’limga o‘xshaydi, farqi shundaki, ishtirokchilar birbiridan uzoq masofada bo‘ladi. Kundan-kunga keng tarqalib borayotgan vebinarlar mazkur ta’lim shaklining eng yorqin ko‘rinishidir. Ma’ruzalarni tashkillashtirishda maxsus dasturiy ta’minotlar qo‘llaniladi.

Asinxron elektron ta’lim – bu talaba barcha kerakli ma’lumotni onlayn-manbalardan yoki elektron axborot tashish vositalari (CD, DVD yoki flash-

kartalar)dan olishi va materialni o‘zlashtirish sur’ati va jadvalini o‘zi mustaqil tashkil etishdir. Asinxron elektron ta’lim tizimiga barcha turdagi CD-kurslar va elektron o‘qitish kurslari, ostkastlar vaskrinkastlar kiradi. Bugungi kunda elektron ta’lim ko‘pchilik OTMlarda ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib qolgan, u shuningdek, malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ham o‘z o‘rnini topgan, ba’zi korporatsiyalarda bo‘linmalar mavjud bo‘lib, ularning vazifasi xizmatchilar uchun elektron kurslar tashkil etishdir.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari. Masofaviy ta’lim bu E-Learningga qaraganda kengroq tushunchadir, u interfaol mustaqil ta’limning va qo‘llab-quvvatlashning intensiv maslahat sintezi hisoblanadi. Shunday qilib, elektron ta’lim masofaviy ta’limning bir bo‘lagi hisoblanadi. Masofaviy ta’lim asosiy o‘quv materialini o‘quvchilarga yetkazib berish va o‘quv jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi orasida interfaol ishlashni ta’minlaydi. Bunda qo‘llanmalarni yetkazib berish kompyuter va Internetsiz ham amalga oshirilishi mumkin.

Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning juda ko‘p ijobiy tomonlari mavjud:

- yashash joyidan turib, o‘qish imkoniyati – chekka qishloqlarda yashovchilarda katta

shaharlarga borib, universitetga kirib-o‘qish imkoniyati har doim ham bo‘lavermaydi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari ularga o‘z shahridan ketmasdan turib, o‘qish imkoniyatini yaratib beradi;

- o‘qish va ishni birga qo‘shib olib borish - o‘quvchilar ishdan ajralmagan holda ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladilar, bu, ayniqsa, malaka oshirish yoki ikkinchi oliy ma’lumot oluvchilarga juda qo‘l keladi;

- sifatli texnologiyalar va o‘quv mazmunini egallash - talaba sifatli o‘quv materiallari yordamida o‘qitilishi, o‘qituvchi bilan muloqat qilishi va o‘z individual o‘quv rejasini tuzishi mumkin;

- baholashning xolisligi - masofaviy ta’lim texnologiyalari bilim sifatining doimiy nazorati, natijalarning baholanishi, inson omilidan xoli bo‘lgan xolis avtomatlashtirilgan baholash joylarda moddiy manfaatdorlikni yo‘qotishni ko‘zda tutadi;

- ta’limda individual yondashuv - o‘zgaruvchan grafik, ish va o‘qishni birga qo‘shib olib borish, shuningdek, o‘zlashtirilayotgan materialni ma’lumotni individual o‘zlashtirish tezligiga moslash masofaviy ta’limni barcha uchun qulay qilib qo‘ymoqda;

Raqamli texnologiyalardan o‘quv jarayonida foydalanish natijasida quyidagi asosiy didaktik funktsiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyasini qo‘llash evaziga o‘quvchilarda fanlarga qiziqish rivojlanadi;

- ta’limning interfaolligi tufayli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o‘quv materialini o‘zlashtirilishining samaradorligi oshadi;

- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini berishi bilan muhim hisoblanadi;

- o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;

- masofadan turib ta’lim olishni faqat o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar yoki internet ta’limi uchungina emas, balki sababsiz dars qoldirgan o‘quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi;

- o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi;

- o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar echishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi.

Ta’limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, bunda:

- o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

- uzoq hududlarda joylashgan yetakchi ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari bilan tanishadilar;

- turli mavzularda videokonferentsiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishiladi;

- o‘qituvchilarning o‘zaro seminar va treninglari o‘tkaziladi;

- masofaviy ta’lim, axborotlar almashinish va shunga o‘xshash juda ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. PF-5653-son. Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2019.02.02.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Ибраимов Холбой Ибрагимович

директор научно-исследовательского института имени Т.Н.Кари-Ниязи, доктор педагогических наук, академик

В современное развитие цифровых технологий выдвигает перед педагогической наукой и практикой междисциплинарную интеграцию в качестве необходимого процесса в образований. Это связано с появлением большого числа новых учебных дисциплин, что вызывает необходимость усвоения студентами разрозненных теоретических знаний и их применение на практике. Анализ различных исследовании указывают на возрастающую актуальность междисциплинарной интеграции в условиях компетентностного подхода в образовании и связывают это с тем, что современный выпускник – это специалист, который не только эффективно анализирует, проектирует, выбирает оптимальные пути решения профессиональных проблем, но и владеет коммуникационными технологиями, ставит и решает задачи в разнообразных ситуациях. Проблему междисциплинарности поднимали многие ученые прошлого века, а актуальной она стала в процессе осознания того, что перегрузка студентов в потоке учебной информацией развивает главным образом их память а, не мышление и личность.

Особое значение междисциплинарная интеграция приобретает в связи с процессами цифровизации всех уровней образования. Подготовка будущих педагогов требует, с одной стороны, высокого уровня педагогической компетентности для успешной реализации профессиональной деятельности, с другой - выпускник должен владеть цифровыми технологиями, позволяющими осуществлять эффективное взаимодействие со всеми субъектами образовательного процесса.

Исследование различных проблем междисциплинарной интеграции в высшем образовании охватывает многие её аспекты, в частности:

межпредметные связи как принцип интеграции дидактики и воспитания;

междисциплинарная интеграция как условие повышения качества профессиональной подготовки студентов;

как условие формирования различных компетенций студентов.

В разрезе различных специальностей мы видим реализацию междисциплинарной интеграции в учебном процессе медицинского, гуманитарных и экономических вузов, а также в подготовке будущих учителей к профессионально-педагогической деятельности и другие.

Изучение научных работ показало недостаточность исследований проблемы междисциплинарной интеграции в подготовке и переподготовке педагогических кадров в условиях цифровизации образования, что вызывает необходимость более глубокого рассмотрения психолого-педагогического явления.

В настоящее время ученые, изучая различные аспекты междисциплинарной интеграции, используют определения, указывающие на

обязательное использование интегрированных занятий, в процессе которых осуществляются межпредметные связи, с одной стороны, и сохраняется целостность базовых учебных дисциплин - с другой. В работах исследователей подчеркивается роль междисциплинарной интеграции в развитии гармоничной личности, интеллектуальных и творческих способностей будущего специалиста и в формировании его профессиональной компетенции. По мнению Е.А. Бушковской, интеграция является важным принципом развития современного образования. Ученый указывает, что междисциплинарная интеграция предполагает разработку содержания дисциплины на основе глобальных, основополагающих тем. Интересным является метод Л.В. Львова, использующего уровневый подход при рассмотрении междисциплинарной интеграции. Ученый исследует междисциплинарную интеграцию на методологическом уровне как подход к проблеме, на теоретическом уровне в качестве возможного педагогического условия и на практическом уровне как форму организации обучения. При этом ученый дифференцирует понятие «межпредметные связи», связывая этот процесс с координированием и комбинированием дисциплин с сохранением содержательной и функциональной самостоятельности каждой. В то время как при междисциплинарной интеграции происходит взаимопроникновение содержания дисциплин, ведущее к появлению качественно новой образовательной единицы.

Вышесказанные позволяют предположить, что междисциплинарная интеграция образовании – это сложное, комплексное, системное и разноуровневое явление, предполагающее использование интегрированных занятий, содержанием которых становится новая, с точки зрения цели и задач, дисциплина. При этом междисциплинарная интеграция должна не только сводить учебные дисциплины в блоки, комплексы или модули, но согласовывать все компоненты учебного процесса, в том числе цели, результаты, содержание, формы и методы обучения и характеризоваться связью учебных дисциплин с профессиональной деятельностью будущих специалистов.

Литература:

1. Шестакова Л.А. Междисциплинарная интеграция как методологическая основа современного образовательного процесса // Вестник Московского университета им. С.Ю. Витте. Серия 3: Образовательные ресурсы и технологии. 2013. №1 (2). С.47-52.

2. Колесников А.В., Сиренко С.Н. Междисциплинарная интеграция в процессе изучения веб-технологий и компьютерной графики // Открытое образование. 2013. №3(98). С.68-77. DOI: 10.21686/1818-4243-2013-3(98)-68-77.

3. Бушковская Е.А. Междисциплинарная интеграция как феномен философии и стратегия обучения // Молодой ученый. 2009. № 5 (5). С. 178-182.

4. Баляйкина В.М., Маскаева Т.А., Лабутина М.В., Чегодаева Н.Д. Межпредметные связи как принцип интеграции обучения // Современные проблемы науки и образования. 2019. № 6. URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=29320 (дата обращения: 06.04.2023).

5. Киприянчик Т.В. Междисциплинарная интеграция как методологическая основа современного образовательного процесса // Образовательные ресурсы и технологии. 2013. №1 (2). С.168–172.

6. Жук О.Л. Междисциплинарная интеграция на основе принципов устойчивого развития как условие повышения качества профессиональной подготовки студентов // Весн. Белар. дзярж. ун-та. Сер.4, Філалогія. Журналістыка. Педагогіка. 2014. №3. С.64–70.

7. Гильмеева Р.Х., Зеленкова Е.В. Междисциплинарная интеграция как условие формирования педагогической компетентности студентов музыкального вуза // Казанский педагогический журнал. 2013. №5 (100). С.43-50.

8. Гоголева И.В., Семенова Г.Е., Иванова А.В. Междисциплинарная интеграция в учебном процессе по экономическому направлению подготовки бакалавриата // Педагогический журнал. 2017. Т.7(3А). С.90-97.

9. Ландарь Л.Н., Жежа В.В., Кузьмин О.Б. Междисциплинарная интеграция в учебном процессе медицинского вуза // Педагогические и социологические аспекты образования: материалы Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 25 апр. 2018 г.). Чебоксары: ИД «Среда», 2018. С. 89-90.

10. Листунов О.Д. Междисциплинарная интеграция в подготовке будущих учителей к профессионально-педагогической деятельности: автореф. дис. … канд.пед.наук. Ижевск, 2003. 31с.

11. Пахомова Т.Е. Формирование икт-компетентности студентов педагогического колледжа с учётом междисциплинарной интеграции в условиях цифровизации образования: автореф. дис. … канд.пед.наук. Улан Удэ, 2020. 24 с.

12. Биккинина Л.И., Шарипова А.Д., Святова Н.В. Междисциплинарная интеграция в образовательном пространстве как одно из условий развития интеллектуальных и творческих способностей студентов // Современные проблемы науки и образования. 2020. № 4. URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=30024 (дата обращения: 06.04.2023).

13. Львов Л.В., Кадочников А.И. Междисциплинарная интеграция как условие эффективного формирования навигаторской компетентности // Образование и наука. № 9(57). 2008. С. 41–51.

14. Golding Cl. Integrating the disciplines: Successful interdisciplinary subjects was developed. Centre for the Study of Higher Education, 2009 P. 27.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINI ZAMONAVIY KASBLARGA O‘QITISHNING MILLIY MODELI

Murodov Erkin Ergashevich
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti “Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasi dotsenti v.b p.f.f.d., (PhD), Tel.: +998 90 348 56 65

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish va tayyorlash jarayonida yaratilayotgan milliy tizimning amaliyotga joriy etish tartibi, uni amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, bugungi kunda respublikaning har bir hududida yuqori sinf o‘quvchilarini kasb hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tashkil etilgan tayanch maktablar faoliyati va undagi ta’lim jarayonlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish, biznes va kasb-hunarga o‘rgatish, amaliy kasblar, zamonavaiy kasblar, kreativ industriya, kasb-hunar o‘rgatish bo‘yicha tayanch maktablar.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining xorijiy tillar va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ushbu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish hamda mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida 1-4-sinflarda o‘quvchilarga boshlang‘ich, 5-9-sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari joriy etilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, kelgusi 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinov tariqasida o‘quvchilarni zamonavaiy kasblarga tayyorlash borasida quyidagi tartibni joriy qilish belgilandi:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflarida tayanch o‘quv rejasi asosida o‘qitish bilan bir qatorda **“Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish”** hamda **“Biznes va kasb-hunarga o‘qitish”** yo‘nalishlari bo‘yicha ham ta’lim dasturlarini joriy qilish;

“Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yo‘nalishi doirasida - o‘quv jarayonini tashkil etishda asosiy e’tiborni aniq, tabiiy fanlar yoki xorijiy tillarga qaratish, “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishi doirasida esa - o‘quvchilarni ishchi yoki raqamli texnologiyalarga oid kasblarga o‘qitish.

Shu bilan birga, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishning quyidagi tartibi joriy etilishi nazarda tutilmoqda:

5-9-sinflarda xorijiy tilga o‘qitish intensivligini oshirish orqali o‘quvchilarda bazaviy bilim va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

10-11-sinflarda xorijiy tilni o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning akademik yozuv va so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratish.

«Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish» yo‘nalishi doirasida xorijiy til fanini tanlagan o‘quvchilar 10-11-sinflarda ikkinchi xorijiy tilga o‘qitiladi.

Buning uchun 2024-yil 1-mayga qadar mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda xorijiy til fani bo‘yicha o‘quv reja va dasturlar takomillashtiriladi. Bunda, o‘quvchilar tomonidan 11-sinfda ikkinchi xorijiy tilning kamida A2 darajada o‘zlashtirilishini nazarda tutiladi.

2024-yil yakuniga qadar xorijiy tilni o‘qitish bo‘yicha xalqaro nashriyotlar darsliklarini xarid qilish va mahalliylashtirish hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tilni o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari bo‘yicha malakali mutaxassislarni jalb qilish choralari ko‘riladi.

Ayni vaqtda respublika umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 500 nafar ingliz, fransuz va nemis tillaridan xorijlik mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Kelgusi yilda ularning sonini 1500 nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, yangi o‘quv yiliga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xorijiy til o‘qituvchilari bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkaziladi hamda zamonaviy ta’lim metodikalar asosida ularning malakasini oshirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etiladi.

Bugungi kunda, o‘quvchilarni zamonaviy kasblarlarga o‘qitish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta’lim tizimi bilan uzviylik ta’minlanmagan. Ta’limning uzviyligini ta’minlash maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalarining o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirib, ularni umumiy o‘rta ta’limning xorijiy tilni o‘qitish dasturiga muvofiqlashtiriladi.

2024/2025 -o‘quv yilidan boshlab xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalari talabalarining umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan, xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga bir vaqtning o‘zida ham o‘qish, ham pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi moslashuvchan dars jadvali joriy etiladi.

O‘quvchilarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida «Biznes va kasb-hunarga o‘qitish» tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bunda o‘quvchilar Milliy malakalar ramkasining 2-darajasiga mos bo‘lgan kasblarga o‘qitiladi.

O‘quvchilarni kasblarga o‘qitish ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ustaxonalar tashkil etiladi va oylik ish haqi oliy ma’lumotli umumta’lim maktabi o‘qituvchisiga tenglashtirilgan «Kasbiy ta’lim ustasi» lavozimi joriy qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini zamonaviy kasblarga tayyorlashda quyidagi yo‘nalishlarning biri bo‘yicha kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitiladi:

birinchi yo‘nalish - tadbirkorlik sub’ektlari va hunarmandlarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb qilish orqali o‘quvchilarni ishchi kasblarga o‘qitish;

ikkinchi yo‘nalish - umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan kurslarda o‘quvchilarni axborot texnologiyalariga oid zamonaviy kasblarga o‘qitish.

Bu borada tadbirkorlarni keng jalb etish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh binolarini **“20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis”** dasturi ishtirokchilariga amaliy monomarkazni tashkil qilish va keyinchalik o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida tekin foydalanishga berishga ruxsat beriladi.

Ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun uning moliyaviy manbaalari ham hal etilgan. Xususan,

ustaxonalarni yirik jihozlar (kompyuter texnikasi, elektron doska, tikuv mashinasi va hokazo) bilan ta’minlash hamda kasbiy ta’lim ustalari mehnatiga haq to‘lash - O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga qo‘shimcha ajratiladigan mablag‘lar hisobidan;

mavjud ustaxonalarni joriy ta’mirlash, zarur hollarda yengil tipdagi ustaxonalarni qurish hamda ular uchun kichik asbob-uskunalarni xarid qilish - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasi hamda Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan;

kasb-hunarga o‘qitishda talab etiladigan zarur xomashyo materiallarini xarid qilish - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

2024-yil 1-aprelga qadar o‘quv jarayoni “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yoki “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun amaldagi tayanch o‘quv rejasi doirasida moslashuvchan o‘quv reja tasdiqlanadi.

2025-yil 1-iyulga qadar tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqib, “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yoki “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish amaliyotini boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga tatbiq etish bo‘yicha takliflar tayyorlanadi.

Hududiy hokimliklar bilan birgalikda 208 ta umumta’lim maktablari tanlab olinib, mazkur maktablarda 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab 7-sinflarda ikkinchi xorijiy til va 10-sinflarda kasb-hunar o‘rgatish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Maktablarda o‘rgatiladigan jami 6 ta xorijiy til va 27 turdagi kasb-hunarlarning o‘quv dasturlari va taqvim-mavzu rejalari, shuningdek, kasb-hunar xonalarini jihozlashga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi.

Bugungi kunda o‘quvchilarga ikkinchi xorijiy til sifatida 4 ta maktabda ingliz tili, 107 ta maktabda nemis tili, 62 ta maktabda fransuz tili, 7 ta maktabda yapon tili, 24 ta maktabda koreys tili va 4 ta maktabda xitoy tili o‘rgatilmoqda.

Shuningdek, o‘quvchilarga ishchi kasb yo‘nalishida 15 ta, tadbirkorlik sohasida 4 ta, axborot texnologiyalari sohasida 8 ta turda kasb-hunarlarni o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», Toshkent sh., 2019-yil 24-aprel, PF-5712-son, https://lex.uz/docs/4312785

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” Toshkent sh., 2023-yil 28-fevral, PF-27-son, https://lex.uz/docs/4347851

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Toshkent sh, 2024-yil 2-fevral, RQ-53-son, https://lex.uz/docs/6787995

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 14-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tizimli tashkil etish to‘g‘risida”gi 238-sonli buyrug‘i.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 14-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini ikkita xorijiy til va bitta kasbga o‘rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 239-sonli buyrug‘i.

6. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarini hunarga tayyorlash bo‘yicha 46 ta kasb ro‘yxati tuzildi, 12.08.2022-yil. https://kun.uz/news/2022/08/12/bitiruvchi-sinf-o‘quvchilarini-hunarga-tayyorlash-bo‘yicha-46-ta-kasb-ro‘yxati-tuzildi.

7. 21st Century Competencies, https://www.moe.gov.sg/education-in-sg/21st-century-competencies.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHGA YANGICHA YONDASHUVLAR

B.K.Xaydarov

Toshkent shahar pedagoglarini yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi professori, f.-m.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida jahon ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’limning yangi ustuvor yo‘nalishlari, ilg‘or xalqaro tajribalar tahlillari, o‘quvchilarning maktablarda funksional savodxonligini rivojlantirish haqida so‘z yuritilgan.

Abstract. In this article, in the current period of the development of our country, there is talk about the new priority directions of education in the directions of world education, the analysis of advanced international experiences, the development of functional literacy of students in schools.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida jahon ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’limning yangi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Maktab ta’lim sifatini yaxshilashning asosiy yo‘naltiruvchi nuqtasi sifatida maktab o‘quvchilari funktsional savodxonligini rivojlantirish, ularning jamiyatda faol ishlash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini takomillashtirish hamda o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

Ilg‘or xalqaro tajribalar tahlillaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning maktablarda funksional savodxonligini rivojlantirish amaliy faoliyat standartlarining quyidagi yo‘nalishlarini qamrab oladi:

- matematikaga oid ta’riflar, formulalar va boshqa faktlarni o‘quv va ma’lumotnomalardan qidirish va foydalanish;
- turli hayotiy vaziyatlarda algebraga doir bilim, ko‘nikma va grafik malakalarini qo‘llash;
- ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, qayta ishlash, sintez qilish;
- matematik formuladan foydalanish, muayyan xususiy hollarni umumlashtirish asosida miqdorlar orasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi formulalarini mustaqil ravishda tuzish;
- o‘zlashtirilgan algebraik almashtirishlarni va funktsional grafik tasvir va tasavvurlarni tevarak-atrofdagi yoki boshqa fanlardagi tegishli obektlarni ifodalash va tahlil qilishda qo‘llash;
- o‘z nuqtayi nazarini asoslay olish, uning muhokamasida ishtirok etish va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri xulosa chiqarish;
- matematik matn bilan ishlash (tahlil qilish va kerakli ma’lumotlarni chiqarib olish), o‘z fikrini matematik atamalar, timsollar va ramzlar yordamida aniq va to‘g‘ri yozish hamda og‘zaki va yozma izhor qila olish;
- amaliy xarakterdagi hayotiy masalalarni yechish, zarur hollarda ularni yechishda kerakli ma’lumotnomalar va hisoblash vositalarini qo‘llay olish,
- jadvallar, diagrammalar, grafik ko‘rinishdagi real raqamli ma’lumotlarni hamda statistik xarakterdagi ma’lumotlarni tahlil qilish;
- amaliy xarakterdagi matematik muammolarini hal qilish vositasi sifatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Buning uchun matematika fanini o‘qitishda quyidagilarga e’tibor berish tavsiya etiladi:

- an’anaviy va zamonaviy o‘qitish usullarini uyg‘unlashtirib olib borish;
- puxta tanlangan topshiriqlar va mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish va rivojlantirish;
- o‘rganishni baholash orqali o‘quvchilarning bilim olishini qo‘llab -quvvatlash;
- o‘quvchilarning kichik o‘quv kashfiyotlari asosida faol o‘rganishni rag‘batlantirish;
- o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- butun sinf ishini, individual va guruh faoliyatini tashkil etish orqali o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- matematik nutqni to‘g‘ri va aniq shakllantirish;
- matnli masalalarini yechishda matematik mazmun va usullarni ajratib ko‘rsatish va yangi holatga qo‘llash;
- masala shartlarini matnli ko‘rinishdan matematik tilga o‘girish va bu shakl almashtirishlarning mazmun va mohiyatini ochib borish;
- o‘quvchilarga mavzuni chuqurroq o‘rganish imkonini beradigan tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o‘quvchilarda ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va faol aqliy harakatlarni amalga oshirishlari uchun muammoli vaziyatlarni yaratish;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tabaqalashtirilgan individual shug‘ullanish trayektoriyalarini yaratish;
- darsda interfaol va faol ta’lim texnologiyalari: loyiha, tadqiqot, evristik, keys, muammoli o‘qitish kabi metodlardan o‘rnida foydalanish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, matematika fanini o‘qitishda quyidagi metodik jihatlarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

1. Ta’lim jarayonining mohiyati katta hajmdagi o‘quv materialini o‘rganishga emas, balki kiritilayotgan matematik atama va faktlarni o‘quvchilarning teran tushunishiga e’tibor berish lozim. Odatdagi, xususan bizning maktab matematika fani o‘quv dasturlarimizda buning aksi: dasturlarimiz o‘quv yuklamasi juda katta, o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzular juda ko‘p, vaqtimiz esa cheklangan. Buning oqibatida bu mavzularni chuqur o‘rganish imkoniyatlari cheklanib qoladi. Har bir mavzuni chuqurroq o‘rganilishi lozim. O‘quvchilar oldin o‘rganilgan mavzuga uni takrorlash uchun emas, balki chuqurroq o‘rganish maqsadida qayta-qayta murojaat qilishi kerak ya’ni mavzuga uni jiddiyroq darajada chuqurroq o‘rganish uchun yana qaytish lozim. O‘quvchilar o‘zlashtirish darajasining yuqori bo‘lishini darsdan keyingi mashg‘ulotlar evaziga ushlab turish lozim. Sinfda mavzularni o‘zlashtirmagan qoloq o‘quvchi bo‘lmasligi lozim. Hamma e’tiborni barcha o‘quvchilar tomonidan mavzuning ma’lum darajada o‘zlashtirilishiga qaratish kerak bo‘ladi. Bu darajani oldinroq o‘zlashtirgan o‘quvchilar, boshqalar ham bu darajaga yetishgunga qadar mavzuni chuqurroq o‘rganishga o‘tishadi.

2. Ta’lim jarayonini muayyan amaliy tajribadan boshlab abstrakt tushunchalarga tomon borish lozim. Tushunchalarni o‘rganish uch bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar kiritilayotgan tushunchaga doir turli amaliy faoliyat bilan shug‘ullanadilar, tushunchaga doir turli moddiy narsalarni qo‘llari bilan ushlab ko‘radilar yoki ulardan turli modellarni yasaydilar.

Ikkinchi bosqichda yangi tushunchani timsollar yordamida ifodalaydilar. Ularni turli rasmlarda, diagramma yoki chizmalarda tasvirlaydilar.

Shundan keyingina uchinchi bosqichga, yangi tushunchaga oid abstrakt ta’rif, matematik timsol va belgilashlarga o‘tiladi. Boshqacha qilib aytganda matematik tushunchalar bilan tanishish ko‘rgazmali misoldan boshlanadi, uning asosida abstrakt tushunchani “ushlash” va “ko‘rish” imkoniyati beriladi.

Ta’limning amaliy tajribadan abstrakt tushunchalarga tomon borishi o‘quvchilarda har bir mavzu bo‘yicha muayyan assotsiatsiyalar (yorqin, xotirada chuqur va mustahkam o‘rnashuvchi taassurotlar) hosil qilinadi. Bu taassurotlar eslanganda mavzuning turli jihatlari yodga tushishi ta’minlanadi.

Ta’lim jarayonining boshidan amaliy ishga yo‘naltirilganligi u yoki bu matematik tushunchaning nima sababdan o‘rganilayotganligi va uning hayotiy vaziyatlarda qachon va qayerda kerak bo‘lishini oldindan bilishga va ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyani (qiziqishni) oshiradi. Bu esa, matematika fani hayotda kerakli va foydali bo‘lishi bilan birga, uning jozibador fan ekanligini ham ta’minlaydi.

3. Matematik modellashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu bilan berilgan masala sharti ko‘rgazmali qilib vizuallashtiriladi. Masala modellashtiriladi va berilganlardan qulay ravishda foydalanish tashkil qilinadi va bosqichma-bosqich masalani yechishga kirishiladi.

4. Hamkorlikda o‘rganish va o‘zaro muloqotga katta e’tibor berish lozim. Masallalarni yechishda o‘quvchilarga matematik tushunchalarni va masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishi, ularni birgalikda muhokama qilish va boshqalar fikrini ham tinglash imkoniyati yaratiladi. Natijada o‘quvchilar tushunchani yaxshiroq o‘zlashtirishadi, matematika tilidan to‘g‘ri foydalanishga o‘rganishadi, ba’zi hollarda u yoki bu masalaning bir necha yechimi bo‘lishi mumkinligini tushunib yetishadi. O‘quvchilarni har safar masala yechayotganda masala sharti, uni yechish usullari va yechimi haqida sinfdoshlariga ovoz chiqarib so‘zlab berishga undash lozim. Bu esa o‘z navbatida mavzuni, masalani yechish yo‘llarini yaxshiroq eslab qilishlarini ta’minlaydi. Suningdek, o‘quvchilar bir necha kishilik kichik guruhlarda masalani jamoa bo‘lib yechish, mavzuni qanday tushunganliklarini bir-birlariga aytib berish, yechimlarni muhokama qilish hamda jamoaviy ishlarni bajarish kabi interfaol ishlar bilan shug‘ullanshlarnini tashkil qilish lozim.

5. O‘quvchilarni eslab qolishga emas, masala (muammo)ni yechishga o‘rgatish lozim. Odatda dars yangi turdagi masalani yechish qoidasidan emas, balki bevosita notanish masalani yechishdan boshlash tavsiya qilinadi. O‘quvchilar oldingi bilim va ko‘nikmalari asosida intuitiv ravishda masalani yechishga urinib ko‘radilar. Ular birgalikda “urinish, xato qilish va uni tuzatish” orqali mulohaza yuritadilar, xatolar qiladilar hamda bu xatolar ustida ishlashadi, shu asosida to‘g‘ri yechimga bosqichma-bosqich yaqinlashib borishadi. Bu o‘rinda, o‘quvchilar xato qilish unchalik yomon ish emasligini, aynan turli xato yechimlarni tahlil qilish va tekshirish (kichik tadqiqot) jarayoni bora-bora ularni to‘g‘ri yechimga olib borishini o‘z tajribalari asosida tushunib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Schoenfeld, A.H. “Learning to think mathematically: Problem solving, metacognition, and sense-making in mathematics”, in D. Grouws, (ed.) *Handbook for Research on Mathematics Teaching and Learning*, MacMillan, New York, 1992, pp. 334-370.
2. Ten Questions for Mathematics Teachers ... and how PISA can help answer them, OECD, 2019 (http://dx.doi.org).

ОБРАЩЕНИЕ К НАЦИОНАЛЬНОМУ КУЛЬТУРНОМУ КОДУ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РКИ (НА МАТЕРИАЛЕ ТЕМЫ «РУССКИЕ ПРАЗДНИКИ»)

Александра Павловна Иванова

кандидат филологических наук, доцент РГПУ им. А.И. Герцена (Санкт-Петербург) Alexandra Pavlovna Ivanova Ph. D. of philological science, Associate Professor (St. Petersburg)

Annotation. The article is devoted to the use of the cultural code on the example of the topic "Holidays of Russia" in Russian as a foreign language classes. It is noted that the formation of linguocultural competence seems to be necessary in teaching foreign students. The author offers a methodical development of the topic "Holidays of Russia" and tells in detail how it is expedient to study it in groups of different language levels. Emphasis is placed on the use of modern interactive teaching methods.

Key words: Russian as a foreign language, cultural code, Russian holidays, linguocultural competence, modern teaching methods.

Изучение взаимоотношений языка и культуры, начатое в работах таких крупных исследователей, как М. В. Ломоносов, Ф. И. Буслаев, В.фон Гумбольдт, И. И. Срезневский, К. Д. Ушинский, А. А. Потебня, Г. О. Винокур, В. Г. Костомаров, В. В. Колесов, Е. М. Верещагин, Ю. Д. Апресян, Ю. С. Степанов и др., получило активное развитие на рубеже XX—XXI вв. В современном научном мире всё больше специалистов интересуется взаимосвязью языка, мышления, культуры и этноса, в частности понятием «культурный код». Однако общепринятого определения «культурного кода» пока нет. Так, В. А. Маслова называет культурным кодом нации язык [6], Г. В. Зубко — исходную знаковую структуру, своего рода матрицу, содержащую как бы в еще не проявленном виде все компоненты культурной парадигмы народа и его поведения [4], Н. В. Букина — закодированную в определенной форме информацию, позволяющую идентифицировать культуру [1], а также «совокупность информационных маркеров, позволяющих человеку адекватно воспринимать и реагировать на происходящие в культуре пространственно-временные процессы» [2, с. 236]. Коды культуры также можно определить как явления, наполненные национальным содержанием.

В.В. Красных считает, что набор кодов культуры для человечества универсален, однако их проявления, удельный вес каждого из них в определенной культуре, а также метафоры, в которых они реализуются, всегда национально детерминированы и обусловлены конкретной культурой [5].

На наш взгляд, обращение к национальному коду культуры в практике преподавания РКИ представляет особую ценность. Принцип изучения иностранного языка путём познания культуры изучаемого языка является весьма эффективным. В этой связи формирование лингвокультурологической компетенции представляется необходимым в обучении иностранных учащихся. Лингвокультурологическая компетенция понимается как «знание идеальным говорящим или слушающим всей системы культурных ценностей, выраженных в языке» [3, с. 114].

Усвоение языка невозможно без знакомства с национальной культурой. Использование на занятиях по РКИ культурологических материалов (в том числе, фотографий, репродукций, кадров из кинофильмов, презентаций, видеороликов, таблиц лексики с переводом и т.д.) создает у обучающегося представления о русском образе жизни, в определенной степени о русском характере, способствует формированию умения анализировать внеязыковые ситуации, отражающие русский быт, традиции, ценности, и в целом развивает лингвокультурологическую компетенцию. Лингвокультурологию можно назвать дисциплиной, изучающей специфику национальной ментальности. В процессе лингвокультурологического обучения языку и коммуникации необходимо учитывать взаимосвязь языка и культуры, используя эту связь на занятиях в иностранной аудитории [7, с. 46].

Research on personalized learning has shown promising results. A study by Pane et al. (2015) conducted by the RAND Corporation found that personalized learning approaches improved student achievement across various subjects and grade levels (11). Similarly, a meta-analysis by Kulik and Fletcher (2016) revealed positive effects of computer-based personalized instruction on student learning outcomes (12).

Conclusion:

As education evolves to meet the demands of the modern world, embracing creative and modern methods becomes increasingly crucial. Gamification, project-based learning, technology integration, creative arts, and personalized learning are just a few examples of innovative approaches that can enhance the effectiveness of education. By harnessing the power of these methods, educators can create engaging, student-centered learning environments that foster critical thinking.

References:

1. Landers, R. N., & Callan, R. C. (2014). Casual social games as serious games: The psychology of gamification in undergraduate education and employee training. Frontiers in Psychology, 5, 1-17.
2. Landers, R. N., & Callan, R. C. (2014). Casual social games as serious games: The psychology of gamification in undergraduate education and employee training. Frontiers in Psychology, 5, 1-17.
3. Sailer, M., Hense, J. U., Mayr, S. K., & Mandl, H. (2017). How gamification motivates: An experimental study of the effects of specific game design elements on psychological need satisfaction. Computers in Human Behavior, 69, 371-380.
4. Bell, S., Urhahne, D., Schanze, S., & Ploetzner, R. (2010). Collaborative inquiry learning: Models, tools, and challenges. International Journal of Science Education, 32(3), 349-377.
5. Krajcik, J. S., Czerniak, C. M., & Berger, C. F. (2014). Teaching science in elementary and middle school classrooms: A project-based approach. Routledge.
6. Lee, J. J., Hsu, Y. C., & Shen, P. D. (2020). Using immersive virtual reality to support learning: Lessons learned from designing and implementing science lessons in virtual reality. Journal of Science Education and Technology, 29(3), 329-341.
7. Radu, I. (2014). Augmented reality in education: A meta-review and cross-media analysis. Personal and Ubiquitous Computing, 18(6), 1533-1543.
8. Schlaug, G., Norton, A., Overy, K., & Winner, E. (2005). Effects of music training on the child's brain and cognitive development. Annals of the New York Academy of Sciences, 1060(1), 219-230.
9. Schellenberg, E. G. (2004). Music lessons enhance IQ. Psychological Science, 15(8), 511-514.
10. Hetland, L., Winner, E., Veenema, S., & Sheridan, K. M. (2007). Studio thinking: The real benefits of visual arts education. Teachers College Press.
11. Pane, J. F., Steiner, E. D., Baird, M. D., & Hamilton, L. S. (2015). Continued progress: Promising evidence on personalized learning. RAND Corporation.
12. Kulik, C. L., & Fletcher, J. D. (2016). Effectiveness of intelligent tutoring systems: a meta-analytic review. Review of Educational Research, 86(1), 42-78.

RAQAMLI TA’LIM MUHITI NAZARIYASI: RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY DARAJASI

Berdaliyeva Gulasal Abdukunduzovna
Q.Niyoziy nomidagi O‘zPFITI mustaqil tadqiqotchisi, (PhD) dotsent

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini takomillashtirish, raqamli ta’lim muhitini yaratish, raqamli texnologiyaning xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о совершенствовании процесса непрерывного профессионального развития учителей, создании цифровой образовательной среды, особенностях цифровых технологий.

ANNOTATION

The article presents information on improving the process of continuous professional development of teachers, creating a digital educational environment, and features of digital technologies.

Hozirgi raqamlashgan jamiyatda o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini takomillashtirish ta’lim sifatini ko‘tarishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

“Raqamli ta’lim” o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’lim jarayonining asosan raqamli texnologiyalar bilan ishlaydigan hamda ta’lim metodlari raqamli mahsulotlar bo‘lgan elektron darslik, elektron ma’ruzalar to‘plami, virtual laboratoriya ishlanmalari, mustaqil ishlar nazoratini tashkil etish mexanizmining elektron bazasi va masofaviy xizmatlarga asoslangan tizimlardan iborat qismi hisoblanadi. Ma’lumki, hayotni anglash, uni o‘rganish informatsiyalarni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan informatsiyalarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish, ta’lim tizimini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi.

S.Usmanov, Z.Abduraxmonovlarning “raqamli ta’lim muhitini yaratish konsepsiyasi”da yangicha ta’lim muhitlarini yaratish tamoyillari tahlil qilingan va uning mazmuni ochib berilgan[6].

Z.L.Umarov ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish pedagogikasi fani asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan[7].

Mark Prenskining “Digital Natives, Digital Immigrants” (“Raqamli dunyo sohiblari, raqamli dunyo muhojirlari”) nomli maqolasida bugungi kun pedagoglariga quyidagi ta’rifni beradi: “Hozirda o‘qituvchilarimiz batamom o‘zgargan. Zamonaviy o‘qituvchilar endilikda biz ishlab chiqqan ta’lim tizimimizga ko‘ra o‘qitiladigan kishilar emas”. Maqolada bugunning tinglovchilari “Digital Natives” – “Raqamli dunyo sohiblari”– bugungi kunda kompyuter, video o‘yinlari va internetning raqamli tilida o‘z ona tiliday so‘zlashuvchi yoshlar sifatida ta’rif beriladi. Ta’lim sohasi

vakillari o‘qituvchilarga esa “Digital Immigrants” – “raqamli dunyo muhojirlari” – raqamli, elektron dunyoga moslashayotgan, yangi texnologiyalarning ko‘pgina qirralarini endi qabul qilayotgan kishilar sifatida baho beriladi[8].

Raqamli texnologiyalardan foydalanish va uni biror-bir sohaga tatbiq etish o‘z ichiga qator vazifalarni oladi.

Pedagogikada bir qancha metodologik yondashuvlar mavjud: tizimli, faoliyatli, kompetentli va boshqalar.

Yondashuv pedagogika metodologiyasining kategoriyasi sifatida, pedagogik paradigma va ta’lim nazariyasi o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib tasavvur qilinadi va muayyan belgilarning: - ta’lim jarayonida foydalaniladigan asosiy tushunchalar; ta’lim faoliyatini amalga oshirishning tayanch qoidalari sifatidagi tamoyillar; ta’lim jarayonini qurishning usullari va metodlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Raqamli texnologik yondashuv axborotlarni olish, o‘zgartirish, undan foydalanish jarayonlarini ko‘rib chiqish bilan va sub’ektlarni bir-birlari, shuningdek, raqamli ta’lim muhitida ularning bilish ob’ektlari bilan o‘zaro raqamli bog‘lanish tizimini ajratib olish harakatlari bilan bog‘liq.

1. Umumiy ko‘rinishda raqamli texnologik yondashuv ob’ektni muayyan tomondan o‘rganishni, tadqiqot natijalarini u yoki bu nazariy sohaga qo‘llagan holda qilingan xulosalarni maxsus ilmiy atamalar bilan taqdim etishni ko‘zda tutadi. Shundan kelib chiqib, uning asosiy vazifasi A.V.Slavinning ta’kidlashicha, raqamli ta’lim jarayonlarining umumiy tuzilmasini yoritish, ta’limni sifatli o‘zgartirish usullari va amallarini ishlab chiqishdan iboratdir [5]

2. Metodologik ko‘rsatma sifatidagi raqamli texnologik yondashuv, barcha jarayonlarni raqamli qayta ishlashning ham ketma-ket, ham parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Bu jarayonlarning har bir bosqichida ta’lim muayyan o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechiradi, uni kodlashtirish, filtrlash, anglash, fikrlash, qaror qabul qilish, javob harakatlarini ishlab chiqish amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning natijalari, Yu.F.Abramovning fikricha, “raqamli borliqning o‘ta abstraktli modeli, tamoyillar darajasida umumlashtirilgan nazariy-axborotli-raqamli bilim tizimi”ni qurishdan iboratdir [2].

3. Raqamli ta’lim muhiti nazariyasi doirasida raqamli texnologik yondashuvning metodologiyasi R.F.Abdeev, V.G.Afanasev, V.B.Guxman, I.V.Melik-Gaykazyan, V.I.Shtanko va boshqalar tomonidan faol ishlab chiqilmoqda [7] Abdeev R.F. Filosofiya informatsionnoy sivilizatsii. -M.: VLADOS, 1994. - 336 s.

Ilmiy bilish muammolariga to‘xtalganda, raqamli texnologik yondashuv metodologik ko‘rsatma sifatida hali endigina shakllanmoqda: uning mohiyati ochilmoqda, imkoniyatlari, rivojlanish kelajagi, qo‘llanish doirasiga baho berilmoqda. Shunga qaramay, bugunning o‘zida undan foydalanish tabiatni, jamiyatni, shuningdek, inson va uning ta’limi va tarbiyasini o‘rganish bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarni yechishda ancha samarali bo‘lib ko‘rinadi.

4. Biz V.I.Shtankoning raqamli texnologik yondashuvni “murakkab tizimlar, kommunikativ aloqalar va munosabatlarning faoliyat olib borishi va tuzilma tashkil qilishining kommunikativ tomonlarini *raqamli ta’lim nazariyasi* tilida abstraktli-

umumlashtiruvchi tavsiflash va o‘rganish usuli” deb bergan tavsifiga amal qilamiz. [3]

Raqamli ta’lim muhiti nazariyasi rivojlanishining zamonaviy darajasi *raqamli texnologik yondashuvning* bazaviy tushunchasi bo‘lgan *raqamli ta’lim* tushunchasi barcha uchun umumiylik xususiyatiga egaligi sababli so‘zsiz ravishda falsafiy kategoriyaga taalluqliligini isbotlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda axborot juda keng ma’noda tushuniladi. *Raqamli ta’lim muhiti* nazariyasi rivojlanishining tarixiy aspekti mavjud ekanligiga qaramay, fanda hozircha ushbu tushunchaga yagona tavsif mavjud emas. *Raqamli ta’lim muhiti* turlilik, noaniqlik, aks etish, energiya, tuzilma, tartiblilik va shu kabilar orqali talqin qilinadi.

5. N.Vinerning *raqamli ta’lim muhitini* tashqi dunyodan unga moslashish jarayonida olinadigan mazmunni aks ettiruvchi sifatida tushunishi, K.E.Shennonning noaniqliklar bartaraf qilinadigan kommunikatsiya va aloqa jarayoni sifatida, U.R.Eshbining – turli tumanliklarning uzatilishi , A.Molning – tuzilmalar murakkabligining o‘lchovi tushunchalari klassik tushuncha deb hisoblanadi. Bu tushunchalardan har biri aniq raqamli ta’lim muhiti nazariyalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Raqamli texnologik yondashuvning metodologlari *axborot* tushunchalari mavjud talqinlarining ob’ektiv asoslarini tan ola turib, shu vaqtning o‘zida ularning nisbatan haqiqiyligi to‘g‘risida fikr bildiradilar. Yagona talqin qilishning murakkabligi “klassik” fanning atamalari orqali “noklassik” fenomenni uning o‘ziga mos ravishda aks ettirishning mumkin emasligi; axborotli jarayonni tushunishda uning alohida qismlari, murakkablik darajalari va boshqalar nuqtai nazaridan qamrab olmaydigan o‘ta tor empirik asosdan foydalanish bilan tushuntiriladi.

Falsafiy adabiyotlarda raqamli ta’lim muhiti to‘g‘risidagi tasavvurlar atributiv (tomonli) yoki funksional-kibernetik (ko‘rinishli) yondashuvga asoslanadilar. Birinchi nuqtai nazar *raqamlashgan axborotni* harakatlanayotgan materiyaning xossasi, ob’ektiv reallikning xossasi sifatida talqin qiladi. [7].

Ikkinchi nuqtai nazar raqamlashgan axborotni mustaqil boshqariladigan, mustaqil tashkil qilinadigan tizimlarning xossasi sifatida ko‘rib chiqish bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, raqamlashgan axborot o‘z mohiyatiga ko‘ra, raqamli mazmunlar va ma’nolarning o‘zaro almashuvi va o‘zaro to‘ldiruvi jarayonini aks ettiruvchi shaxslararo va guruhli kommunikatsiya va kooperatsiya asosida yotishi tan olinadi. Umuman olganda esa, raqamli va samarali axborot almashinuvi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy manbalari va resurslari bo‘lib xizmat qilishi ilmiy va amaliy darajada yagona ma’noda tan olingan.

Qarashlarda turli farqlar va o‘xshashliklar bo‘lsa ham, oqibat natijada munozaralar “raqamli texnologiya” atamasini borliqning u yoki bu ob’ektlarini o‘rganishda qo‘llashning qonuniyligini asoslashga kelib taqaladi.

Bu munozara pedagogika predmeti doirasidan tashqarida qolib ketmoqda, chunki ta’lim jarayoni barcha tadqiqotchilar tomonidan raqamli ta’lim jarayonlariga kiritiladi, ular uchun esa axborot bosh tashkiliy va boshqaruv mezoni bo‘lib qoladi.

“....raqamli texnologiyaning xususiyatlarini tushunish va o‘rganish, raqamli ta’lim jarayonlarining umumiy qonuniyatlarini va ularning turli sohalarda ko‘rinishining alohida tomonlarini o‘rnatish uchun hozirgi kunda ilmiy bilimlarning turli sohalarida qo‘llanadigan, lekin hozircha raqamli ta’lim jarayonlarining umumiy nazariyasi yagona ilmiy metodologiyasi bilan bog‘lanmagan, taqamli ta’lim jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan hozirgacha shakllangan bir qancha tasavvurlarni qaytadan ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi” degan fikrga qo‘shilmasdan bo‘lmaydi.

Shunga ko‘ra, pedagogik hodisalarni ko‘rib chiqish uchun raqamli texnologiya tushunchasini doimiy harakatda bo‘lgan, yig‘iladigan, qayta ishlanadigan, saqlanadigan, uzatiladigan va tizim tomonidan foydalaniladigan (yoki foydalanish mumkin bo‘lgan) ma’lumotlar deb hisoblash mumkin.

Raqamli texnologiyaning metodologik qiymati, fundamentalligi, universalligi undan asos bo‘luvchi g‘oya sifatida foydalanish imkonini beradi. Aynan shu yondashuv raqamli ta’lim jarayonlarini yagona nuqtai nazardan ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Shaxsning barcha ko‘rinishlari *raqamli texnologiyaga* tayanadi va raqamli ta’lim jarayonlarini o‘zida aks ettiradi. N.A.Sirelchukning xaqqoniy ravishda ta’kidlashicha: “Raqamli texnologiyaning o‘zini bilish subektidan tashqarida tasavvur ham qilish mumkin emas, u.... raqamli texnologiyani, bilimlarni, ma’nolarni yaratuvchi va foydalanuvchi hamda ularning asosida rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirishning amaldagi agenti bo‘lib qoladi....”

Raqamli ta’lim muhiti nazariyasining yuqori evristik imkoniyatlari pedagogik hodisalarning raqamlili tabiatini ochish, ta’lim jarayonining uslubiy-didaktik ta’minotining xususiyatlarini aniqlash, pedagogik raqamlashgan axborotlarni baholashni amalga oshirish va uning asosida ta’lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Ta’limiy faoliyat boshqa har qanday pedagogik asosdagi jarayon kabi, o‘z tabiatiga ko‘ra raqamlidir, chunki u turli xil *raqamlashgan axborotlar* bilan amallar bajarishni nazarda tutadi. Bundan tashqari *ta’limiy faoliyat* uni qayta ishlashdan iborat bo‘lib, V.Gasparskiyning fikricha, voqe’likni o‘zgartirishning *raqamli* tayyorgarligidir.

Fan va amaliyot rivojlanishining hozirgi sharoitlarida pedagogikaning fan sifatidagi chegaralarini aniqlash va pedagogik hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun ishonchli vositaga ega bo‘lish bilan birga har bir pedagogik tushunchani aniqlashtirish lozim Bu maqsad uchun pedagogik vosita sifatida biz tomonimizdan *raqamli texnologik yondashuv* tanlandi.

Shunday bo‘lsa-da, olimlarning bu muammoga yuqori darajadagi qiziqishlariga qaramay, hozirgi kunga kelib, ta’limga raqamli texnologik yondashuvning ilmiy asoslari va uning evristik salohiyati hozircha aniqlanmagan, ilmiy izlanish metodlari ishlab chiqilmagan, hal qilinishida raqamli ta’lim muhiti nazariyasining qoidalari qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik muammolar doirasi aniqlanmagan.

O‘qitishga bo‘lgan axborotli yondashuv nuqtai nazardan uning tashqi (o‘qitishning kommunikativ tomonlarini ta’minlovchi *raqamli ta’lim jarayonlar*) va

ichki ko‘rinishi (atrofning ta’sir ko‘rsatishi ostida tinglovchilarning mental darajasida yuz beruvchi *raqamli ta’lim jarayonlar*) ko‘rib chiqilishi lozim.

Ta’lim jarayoni raqamli tomonining qiymati zaruriy turli-tumanlikning ob’ektiv qonuniyati bilan aniqlanadi, u esa, har qanday o‘qitish tizimi faqat olingan raqamlashgan axborot asosidagina maqsadli faoliyat ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Tinglovchilarning bilish faoliyatini boshqarishning muammolari orasida quyidagilar ayniqsa qiziqroq: o‘quv axborotlari hajmini aniqlash, o‘quv mehnatining sarfi, o‘quv predmetlarini o‘rganishning ketma-ketligi, o‘qitishga sarflanadigan vaqtni me’yorlashni asoslash.

Bundan tashqari, raqamli texnologik yondashuv, raqamli ta’lim jarayonining turli bosqichlarini tanlashda tinglovchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etish usullari sifatidagi o‘qitish metodlari tushunchasini kengaytirish imkonini beradi.

Ta’kidlash muhimki, pedagogikada raqamlashtirishning umumiy konsepsiyasining qo‘llanilishi, ta’lim jarayonini pedagogik tadqiq qilishning an’anaviy yo‘nalishini uning ishtirokchilarining raqamli-ta’limiy muammolari jarayoni bilan almashtirish imkonini beradi.

Belgilash lozimki, hozircha raqamli-ta’limiy faoliyatning ozgina bo‘lsa ham to‘liq va bir butun konsepsiyasi mavjud emas. U o‘zining rivojlanish bosqichida turibdi.

Pedagogik hodisalardagi raqamli ta’lim jarayonlarni ta’lim jarayonida axborotni olish, o‘zgartirish, uzatish va o‘zlashtirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz. Raqamli texnologik yondashuvni nazariy umumlashtirish sifatida asos (bazis), g‘oya va natijalarni ajratib olamiz.

Raqamli texnologik yondashuvning nazariy asoslarining bu tuzilmasini quyidagicha tavsiflaymiz:

– Hozirgi zamon jamiyatini raqamlashtirish tendensiyalari;

– Empirik negiz (raqamli axborotni uzatish, qayta ishlash, saqlash, o‘zgartirish tajribasi, uni umumlashtirish va qonuniyatlari);

– Nazariy negiz: konseptual qoidalar, falsafiy, didaktik, psixologik, informatika va h.k. tushunchalar.

Raqamlashtirish ilmiy-texnika rivojlanishining ilg‘or tendensiyalaridan biri sifatida zamonaviy jamiyatning ko‘pgina tomonlarini qamrab olgan. Raqamlashgan axborot industriyasi, raqamli texnologiyalari jadal ravishda yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. -М.: ВЛАДОС, 1994. - 336 с.

2. Абрамов Ю.Ф. Формирование общенаучного характера понятия информации (логико-гносеологический аспект): Дис.... канд. филос. наук. -М., 1979. - 166 с.

3. Штанько В.И. Информация. Мышление. Целостность: Моногр. - Харьков, 1992. - 144 с

4. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. - М.: 2003. -416 с.

5. Славин А.В. Проблема возникновения нового знания. - М.: Наука, 1976.-295 с.
6. https://scienceweb.uz/publication/2318
7. https://znanio.ru/media/raamli-tehnologiyalarni-talim-zharayoniga-tatbi-etishning-ustuvor-vazifalari-2711560
8. https://uza.uz/uz/posts/ra-amli-talim-u-nima-va-bizga-nima-beradi--05-04-2020

PEDAGOG XODIMLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Gaffarov Azizbek Muhammadsaidovich
Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Maqolada pedagog kasbiy kompetentligi uning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi – mustaqil ta’lim ola bilishiga bog‘liqligi, mustaqil ta’limining samaradorligi shaxsiy rivojlanish va o‘zini rivojlantirishga ehtiyojning mavjudligi hamda mazkur ehtiyojni ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar mavjudligi kabi omillarga bog‘liqligi amaliy misollar bilan yoritilgan.

АННОТАЦИЯ

В стате изложены практические примеры того, как профессионалная компетентност педагога зависит от его саморазвития-способности к самостоятелному обучению, эффективност его самостоятелного обучения зависит от таких факторов, как наличие потребности в личностном развитии и саморазвитии, а также наличие условий для реализатсии данной потребности.

ANNOTASION

The article covers practical examples of whether the professional competence of an educator depends on factors such as his self-development - his ability to receive independent education, the effectiveness of his independent education-the presence of a need for personal development and self-development, and the presence of conditions for realizing this need.

Mustaqil ta’lim shaxsning qobiliyatlari va o‘ziga xosliklarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, insonning o‘z ixtiyori bilan amalga oshiriladigan, o‘zi tomonidan boshqariladigan va kasbiy fazilatlarni takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan faoliyatlarini birlashtiradi. Mustaqil ta’lim, avvalo, ixtiyoriyligi va izchilligi bilan tavsiflanadi hamda uzluksiz pedagogik ta’lim g‘oyasini amalga oshiishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

Agar o‘quv muassasasida o‘qituvchining o‘zini o‘zi o‘qitishi hech kim tomonidan uyushtirilmasa, monitoring o‘tkazilmasa va rag‘batlantirilmasa, mustaqil ta’limga bo‘lgan intilish susayadi. Kadrlar salohiyatini takomillashtirishning muhimligini hisobga olgan holda, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini tashkil etish boshqarishning muhim vazifalaridan biriga aylananib qoladi.

Ta’lim muassasasining rahbari har bir pedagogning o‘ziga xos kasbiy imkoniyatlarini va o‘sish istiqbollarini aniqlash imkoniyatini beruvchi samarali mexanizmni yaratish vazifasiga duch keladi. Pedagogning mustaqil ta’limi uchun sharoitlarni yaratish, ta’lim jarayonini samarali rivojlantirishga qodir pedagoglarning malakali jamoasini shakllantirish kadrlar strategiyasining birinchi navbatdagi vazifasiga aylanadi, zero, ta’limiy natijalar barchaning birgalikdagi faoliyati va sayi-harakati orqali qo‘lga kiritiladi.

Pedagog mustaqil ta’limining samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq: birinchidan, shaxsiy rivojlanish va o‘zini rivojlantirishga ehtiyojning mavjudligi,

ikkinchidan, mazkur ehtiyojni ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar mavjudligi yoki yo‘qligi. Birinchi shart bajarilishi uchun o‘qituvchida fikrlash va o‘zini-o‘zi baholash qobiliyati bo‘lishi kerak, ya’ni, faoliyati natijalari va kasbiy qiyinchiliklarini xolis tasxishlash asosida o‘z faoliyatini tahlil qila olishi lozim. Ikkinchi shartni ro‘yobga chiqarish uchun pedagog xodimlarga quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanish imkoniyatini berish kerak:

o‘qitayotgan fani sohasida;

pedagogika-psixologiya bilimlari sohasida (o‘quvchilarning shaxs sifatdagi xususiyatlari to‘g‘risida);

metodik imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha (pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning shakl, usul va uslublari);

axborot kompetentliligini oshirishda (kompyuter texnologilari, internet-resurslar);

muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda (ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri);

shaxsiy kompetensiyalarni takomillashtirishda (imij, muloqot madaniyati, yetakchilik qobiliyati, pedagogik takt).

Pedagogning mustaqil ta’limi jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan boshqaruv dasturi quyidagilarga asoslanishi lozim:

pedagogning professional faoliyatini tizimli tahlil qilishga;

pedagog shaxsiga individual yondashishga;

pedagog xodimlarning motivatsiyasiga;

ma’muriyat va pedagoglarning o‘zaro munosabatlaridagi insonparvarlik va erkinlikka;

pedagog iehnati natijalarini muntazam kuzatish va baholashga;

pedagoglar turli toifalarining kasbiy o‘sishi, shaxsiy rivojlanishi va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlariga nisbatan tabaqalashgan yondashuvga.

Pedagoglarning mustaqil ta’limi jarayonini tashkil etishdagi eng katta to‘siq – buning uchun rag‘batning yetarli emasligi va uni amalga oshirish uchun tayyor emaslik. Shu bois, bizning mamlakatimizda o‘qituvchining o‘z kasbiy mahoratini rivojlantirishiga intilishini uyg‘otish, mazkur rivojlanishning mexanizmlari bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan pedagoglar kasbiy kompetentligini uzluksiz oshirib borish tizimini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kasbiy rivojlanishning muhim mexanizmi – bu o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan mustaqil ta’limning mavzusini belgilashdir. Har bir pedagog o‘z pedagogik amaliyotini tahlil qilish asosida faoliyatiga doir muammoli sohalarni aniqlaydi va bir necha yil davomida ishlaydigan mavzuni belgilaydi, muammoning sabablarini o‘rganadi va yechimlarni izlaydi.

Kasbiy tanlovlarda qatnashish ham pedagogning mustaqil ta’limiga hissa qo‘shadi, chunki mazkur tanlovlarda ishtirok etish o‘z faoliyati, pedagogik e’tiqodi, kasbiy mavqei va o‘zining ish uslublari tizimi haqida fikr yuritish zaruriyati tug‘iladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida aytib o‘tilgan ishlar pedagoglar tomonidan ma’lum darajadagi qarshilik bilan kutib olinadi. Shubhasiz, mazkur qarshilik pedagoglarning ish yuki ko‘pligidan (bu asosiy dalil bo‘lsa-da) emas, balki ularning

bunday faoliyatni amalga oshirish koʻnikmasiga ega emasligidan dalolat beradi.

Mustaqil ta’lim jarayonini uslubiy jihatdan qoʻllab-quvvatlashni tashkil etilishi ushbu vaziyatda katta rol oʻynaydi. Istalgan natijalarga erishish uchun naffaqat pedagogni mustaqil mutolaaga qiziqtirish, balki butun jarayon (mavzuni tanlash, uning ifodalash, tadqiqot natijalarini ommaviy taqdimotini amalga oshirish) davomida unga amaliy yordam
koʻrsatilishini ta’minlash kerak.

Shu maqsadda maktab quyidagi metodik ishlarni amalga oshirishi lozim: ta’lim natijalarini tashxislash asosida pedagogning kasbiy faoliyatini tahlil qilish, darslarga qatnashish, maktab ma’muriyati bilan suhbat oʻtkazish, maktab hujjatlarini oʻrganish, pedagogning kasbiy faoliyatini individual metodik qoʻllab-quvvatlash va maktabda pedagoglarning doimiy faoliyat yurituvchi amaliyotga oʻnaltirilgan uslubiy seminari mashgʻulotlarini tashkil etish.

Suhbat, har bir pedagogning oʻzi bilan oʻquv yilining oxirida oʻtkaziladi. Pedagoglarga nafaqat amalga oshirilgan ishlar, ularning yutuqlari, balki kelgusidagi faoliyatning istiqbollari haqida alohida hisobot taqdim etish imkoniyati beriladi. Mazkur suhbat rahbarlar uchun zarur, chunki ular pedagoglarning kasbiy faoliyati, qanday maqsadlar qoʻyganligi, ular uchun nimalar koʻproq ahamiyatga ega ekanligi haqida ma’lumot oladilar. Suhbat pedagoglar uchun ham kerak, chunki u pedagogning shaxsiy nuqtai-nazarini shakllantiradi, fikrlash va tahlil qilish darajasini oshiradi va oʻz kasbiy faoliyatni tushunishga qaratilgan.

Seminar metodologik kengashda qabul qilingan umumiy mavzu boʻyicha tashkil qilingan qator mashgʻulotlardan iborat boʻladi. Mashgʻulotlar nazariy materiallarni, psixologik va pedagogik bilimlarni oʻzlashtirishga, pedagogik loyihalashga, oʻz loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan. Muhokama qilinayotgan tushunchalarning asosiy jihatlari va umumiy yondashuvlar koʻrib chiqiladi, har bir pedagogning vazifasi esa oʻz olingan bilimlarni oʻz faniga mustaqil ravishda joriy qilish, ularni aniqlashtirish, oʻzgartirish va qoʻllanilishi mumkin boʻlgan sohalarni aniqlashdir.

Ushbu ish shaklining faoliyatga yoʻnaltirilganligi, shuningdek, turli fan oʻqituvchilarining umumiy pedagogik muammolarni hal qilish uchun ijodiy guruhlarga birlashish imkoniyatining mavjudligi uning afzalligi sifatida qaralishi mumkin.

Guruhda ishlash shakllaridan foydalanish, faol va interfaol uslublar, interaktiv muloqot, teskari aloqani tashkil qilish oʻrganilayotgan materialning shaxsiy ahamiyatini oshiradi, seminar qatnashchilarida tahliliy, kommunikativ va refleksiv koʻnikmalarni shakllantiradi.

Seminar mashgʻulotlari turli shakllarda oʻtkaziladi: nazariy, amaliy, maslahat mashgʻulotlari. Masalan, seminar mashgʻulotlari doirasida kompetensiyalarga asoslangan vazifalarni ishlab chiqish, oʻquvchilarning oʻzlashtiraolmaslik holatlarini bartaraf etish yoʻllari, sinfda tarbiyaviy muhitni shakllantirish va boshqa shu kabi muammolarni muhokama qilish mumkin.

Albatta, pedagoglarning mustaqil ta’limini tashkil qilinishi maktabdagi barcha muammolarni hal qilmaydi. Biroq, pedagogik amaliyotni oʻz-oʻzini tahlil qilish, kasbiy muammolarni aniqlash va shakllantirish, qiyinchiliklarni tushunish,

ularni bartaraf etish usullarini topish va nazariyani o‘rganish uchun qiziqtiruvchi, tashkiliy-mohiyatli sharoitlarni yaratish mumkin bo‘ladi. Muhimi, pedagoglarning birgalikdagi mustaqil ta’limi ta’lim muassasasidagi ta’limiy muhitni o‘zgartirishning ta’sirchan omiliga aylanadi. Pedagog o‘z kasbiy faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini tushunib, nomukammalliklarni tan olsa – o‘zgarishga moyil bo‘ladi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha yuqorida qayd etilganlarning amalga oshirilishi pedagogik jamoaning metodologiya, pedagogika, metodika va psixologiya masalalariga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Pedagogning mustaqil ta’limi jarayonini boshqarish faoliyatining asosini quyidagi holatlar ketma-ketligi orqali ifodalanadi:

• pedagogni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, uning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ushbu strategiyani rivojlanish dasturi va innovasion loyihalar orqali amalga oshirish;

• kasbiy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va uni yangi sifat darajasiga ko‘tarish;

• innovasion ta’lim faoliyatini faol ravishda targ‘ib qilish, har bir pedagogning innovasion faoliyatini o‘rganish va qo‘llab-quvvatlash;

• shaxsni rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishning maxsus dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hisobiga har bir pedagogga o‘zini shaxsiy va kasbiy takomillashtirishi uchun imkoniyatlarni ta’minlash;

• pedagogik faoliyat sifatini baholash bo‘yicha monitoringni tashkil etish.

Bunda eng oqilona yo‘l – pedagogni o‘z-o‘zini rivojlantirishning metodologik asoslari bilan qurollantirish, zero mazkur bilimlar o‘quv ishlarining tegishli ko‘nikmalarida, ijodiy mehnat madaniyatida o‘zining davomini topsin. Pedagogni kursdan keyingi davrda sohaga oid yangiliklardan iborat axborotlar bilan ta’minlash quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq:

• zamonaviy ta’lim strategiyalari;

• ta’lim sifatini oshirish yuzasidan me’yoriy-huquqiy ta’minot;

• ta’limni rivojlantirishga doir ilmiy va amaliy tadqiqot natijalari;

• yangi pedagogik texnologiyalarni va o‘qitishning noan’anaviy shakllarini rivojlantirish;

• ta’lim sohasidagi jahondagi yutuqlar, an’analar va boshqalar.

Fanlar bo‘yicha pedagoglarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish

Ushbu yo‘nalishdagi ishlar umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining o‘zlari o‘qitayotgan fanning nazariyasi va metodikasiga oid bilimlarini oshirish, amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishga oid metod va usullar bilan tanishtirish, fanlar bo‘yicha yaratilgan metodik qo‘llanmalar, resurslardan o‘quv jarayonida samarali foydalanishlariga yordam berish, o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tishga tayyorlash, shuningdek, ularning doimiy tarzda mustaqil ta’lim olishlarini yulga qo‘yish, fan o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish bo‘yicha metodistlar tomonidan harakatdagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadida tashkil etiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini uzluksiz oshirib borishning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratish

nazarda tutiladi:

- Davlat ta’lim standarti, o‘quv reja va dasturlari bilan ishlay olish, yangi yaratilayotgan adabiyotlar asosida darslarni tashkil etish;
- dars mavzulariga mos o‘qitishning zamonaviy usullari, metodlarini tanlash;
- axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, mavjud multimedia materiallarini qo‘llash va yangilarini yaratish;
- o‘quv-laboratoriya jihozlarini saqlash, ularning o‘rnini to‘ldirib borish;
- laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni bajarish ko‘nikma, malakalarini oshirish;
- “Bilimlar bellashuvi”, olimpiada, monitoring natijalari asosidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish;
- o‘quv dasturi asosidagi masala-mashq, topshiriklarni sodda va qulay usullarda bajarish ustida ishlash;
- mavzularni o‘rgatishda boshqa fanlar bilan bog‘liqligini ko‘rsata bilish;
- darsliklar, o‘quv dasturlari, qo‘shimcha metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- mavzulashtirilgan murakkab testlarni yechish usullarini tanlash va fandagi yangiliklar bilan muntazam tanishtirib boradigan kasbiy mahoratga ega bo‘lgan, malakali pedagoglarni tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglar uzluksiz kasbiy rivojlanishida mustaqil ta’limining zarurligi, bir tomondan, pedagogik faoliyatning xususiyatlari, uning ijtimoiy roli bilan, boshqa tomondan, pedagogik mehnatning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlari, jamiyatning ehtiyojlari, ilm-fan va amaliyotning evolyusiyasi, pedagogga bo‘lgan talablarning oshib borishi, uning jamiyatdagi jarayonlar va holatlarning o‘zgarishiga tezkor moslashishi qobiliyati, o‘z faoliyatini qayta qurishga, yangi, murakkabroq kasbiy masalalarni samaradorlik bilan yechishga tayyorligi bilan bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tendensiyalari orqali asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2003.
2. Гаргай В.Б. Повышение квалификации учителей в США и Великобритании: интерактивная модел. //Педагогика. - №8. - 2004 - С.
3. Илина Н.Ф. Раскрытие инновационного потенциала педагога в ходе непрерывного образования. //Инновации в образовании. - № 9 - 2010.
Калинникова Н.Г. Непрерывное педагогическое образование как парадигма /Высшее образование и мировая культура— №3 2005

ELEKTRON TA’LIMNING UMUMTA’LIM MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Nizamov Akmal Shoxobiddinovich
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Umumta’lim maktab pedagog xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish (malakasini oshirish) tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, soha xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimida islohotlarning zarurati, “Hayot davomida o‘qish” tamoyili, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi, maktab o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining istiqbollari, pedagogik ta’lim jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish tamoyillari ijtimoiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan.*

Abstract: *Reforms implemented in the system of continuous professional development (improvement of skills) of pedagogic staff of general education schools, the need for reforms in the system of professional development of field employees, the principle of "Lifelong learning", electronic platform "Continuous professional education", school death The prospects of the system of continuous professional development of teachers, the principles of effective organization of the pedagogical education process based on modern information technologies are justified from a socio-pedagogical point of view.*

Аннотация: *Реформы, реализуемые в системе непрерывного профессионального развития (повышения квалификации) педагогических кадров общеобразовательных школ, необходимость реформирования системы профессионального развития полевых работников, принцип «Непрерывное обучение», электронная платформа «Непрерывное профессиональное образование», смерть школы. С социально-педагогической точки зрения обоснованы перспективы системы непрерывного профессионального развития учителей, принципы эффективной организации процесса педагогического образования на основе современных информационных технологий.*

Kalit so‘zlar: elektron platforma, umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlari, uzluksiz kasbiy ta’lim, malakasini oshirish, tamoyil, tizim.

Key words: electronic platform, general secondary school teachers, continuous professional education, professional development, principle, system.

KIRISH

Yurtimizda maktabgacha va maktab ta’limi tizimi malaka oshirish jarayonidagi islohotlar rahbar va pedagog xodimlarning malaka darajasi, boshqaruv-pedagogik salohiyati, individual kasbiy rivojlanishi va ish tajribasidan kelib chiqib, ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish dasturlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan. Islohotlarda “umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ularning individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish va dasturga muvofiq malakasini oshirish tartibini amaliyotga kiritish” vazifalari belgilangan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz

kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarorlarida mazkur muammoning yechimi ko‘rsatib berildi. Unda umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarining malaka oshirishga doir ehtiyojlarini o‘rganish, ularning har biri uchun individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish va shunga ko‘ra malaka oshirish o‘quv jarayonlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Mazkur qarorlar maktabgacha va maktab ta’limi tizimida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berish bilan birgalikda “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirish, xususan, pedagog kadrlar malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarni olib borishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan pedagog kadrlarni davriy belgilangan muddatda emas, uzluksiz malakasini oshirish, ularning kompetentligiga qo‘yiladigan davlat va jamiyat talablarini klassifikatsiyalash, boshqaruv samaradorligini oshirishda ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida qayd etilgan qarorlar soha xodimlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Jumladan:

- umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarining har yili malaka oshirishini nazarda tutuvchi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini amaliyotga joriy etish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil qilishda ta’limning turli (ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan, masofaviy, dual, mustaqil ta’lim) shakllaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- kasbiy ehtiyojlarni tashxis qilish asosida xodimning individual rivojlanish dasturini shakllantirish va mazkur dastur asosida malaka oshirishni tashkil qilish;
- malaka oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish;
- xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini beruvchi “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini ishga tushirish;
- nodavlat ta’lim tashkilotlari va pedagogik yo‘nalishdagi OTMlarga umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarining malakasini oshirish huquqini berish;
- sohani rivojlantirishning ilmiy va ilmiy-metodik muammolarini tadqiq qilish va tadqiqot natijalarini ta’lim amaliyotiga joriy etish kabi qator dolzarb masalalarni hal qilish orqali yuqorida qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

“Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalardan biri “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish e’tibor va mas’uliyat bilan yondashishni taqozo qiladi. Ya’ni uzluksiz ta’lim tizimini, jumladan, uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini joriy etish, barcha xodimlarning mustaqil ta’lim olishini yo‘lga qo‘yish lozim. Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog

xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi ishlab chiqildi va ishga tushirildi. Mustaqil ta’lim olish shakli yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni uzluksiz ravishda mustaqil o‘zlashtirishni nazarda tutib, o‘quv dasturi ta’lim oluvchi tomonidan uzluksiz kasbiy ta’lim trayektoriyasi asosida tuzildi va mustaqil o‘qish vositasida o‘zlashtirish joriy qilindi.

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarining moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, takomillashtirilgan o‘quv dasturlari, ma’ruzalar matnlari va boshqa amaliy materiallarni yaratish ko‘zda tutilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlanish mazmunini takomillashtirishda, tashkiliy-metodik jihatdan ta’minlashda bir qator darajalarga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Ular quyidagilar:

- dasturiy-mazmuniy daraja;
- malaka oshirish mazmuni jarayonini aks ettiruvchi tashkiliy-metodik daraja;
- mazkur jarayonning namoyon bo‘lishini ifodalovchi texnologik daraja.

Dasturiy-mazmuniy daraja o‘zida malaka oshirish tuzilmasi, pedagog xodimlar malakasini oshirishning tegishli dasturlari ko‘rinishida mazmun va hajmni, o‘quv-mavzuviy reja va o‘quv dasturlarini qamrab oladi.

Tashkiliy-metodik daraja malaka oshirish jarayonida ta’lim mazmunini ifodalovchi shakl va vositalar (blok-modulli, integratsiyalashgan kurslar; muammoli-mavzuviy (maxsus) kurslar; o‘quv kurslarini qamrab oluvchi alohida blok va modullar; kurs mazmuniga daxldor alohida materiallar)ni namoyon etadi.

Texnologik daraja quyidagilarni ifodalaydi: pedagog kompetentligi darajasiga mos ta’lim mazmunini o‘rganishning shakl, usul va vositalari majmui; hududiy ahamiyatga molik ehtiyoj va qiziqishlar (ma’ruza, seminar, amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ish, pedagogik amaliyot, konferensiya, trening, ochiq darslar va h.k.).

Ayni o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlanishning tashkiliy-metodik masalalarini yo‘lga qo‘yish jarayonida yuqoridagi darajalarning o‘zaro bir-biri bilan chambarchas aloqadorlikda ekanligiga e’tiborni qaratish zarur. Bu esa ularga alohida-alohida emas, balki bir butun holda murojaat qilish maqsadga muvofiqligini anglatadi.

Pedagoglik kasbining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o‘qituvchilar o‘z bilimlari, malaka va ko‘nikmalarini muntazam to‘ldirib borishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagog tadbirkor tarbiyachi, ma’naviy-mafkuraviy ishlarni ijobiy faol qatnashchisi, o‘qitayotgan fanining chuqur bilimdoni, fani bo‘yicha ilmiylikni yosh avlodga san’atkorona o‘rgatadigan shaxs bo‘lishi lozim. Hozirgi ilm-fan shiddat bilan yuksalib borayotgan davrda pedagoglar ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish – birinchi navbatda ularning zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta

o‘zlashtirishini, bu borada ilmiy metodik ko‘nikmalarini rivojlantirishni, ilmiy texnikaviy axborotlar va o‘quv ilmiy adabiyotlarni o‘rganib borishni taqozo qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi pedagoglar va rahbarlar tomonidan yangi ma’lumot, bilim, ko‘nikma va malakalarni olishning bosh manbasi hisoblanadi, shuning uchun ham, aynan mazkur tizim, ma’lum ma’noda, tizim xodimlarining sohada amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlariga tayyorligi uchun mas’ul va shu bois alohida e’tiborga loyiq.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimidagi ta’lim olish natijalarini baholashda kredit-modul tizimini joriy etish belgilandi. Unga ko‘ra, xodim tomonidan bir yilda yig‘ilishi lozim bo‘lgan kreditlar (akademik soatlar)ning eng kam hajmi nazarda tutiladi. Har bir xodim yuqorida qayd etilgan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi orqali unga taqdim etilgan o‘quv modullarini o‘zlashtirgach, platforma tomonidan baholanadi va yig‘ilgan kreditlar xodimning shaxsiy kabinetida jamlanadi. Unga ko‘ra, xodim malaka oshirish dasturini xohlagan vaqt, muddat va sur’atda o‘zlashtirishi va belgilangan kreditlarni to‘plashi mumkin. Belgilangan kredit ballarini nafaqat tasdiqlangan malaka oshirish kurslarida, balki o‘zlarining kasbiy ehtiyojidan kelib chiqib maqsadli, muammoli va mualliflik kurslarida ham o‘qish orqali to‘plashi mumkin. Kreditlarning belgilangan miqdorini yiqqan xodim shu yil uchun malaka oshirish kursini to‘la o‘tagan hisoblanadi [7].

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi joriy qilinishi pedagoglarni o‘z ehtiyojlariga mos ravishda malaka oshirishlarini ta’minlamoqda. Natijada umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarining kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart -sharoitlar yaratildi va malaka oshirish tizimi “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirildi.

Xulosa: Keng qamrovli va jadal islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish tizimini rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarish muhim masala hisoblanadi. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida elektron ta’lim muhitini joriy etish axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish jarayonini takomillashtiradi. Shuningdek, mazkur jarayonda turdosh muassasalarning o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, o‘qitishning yangi uslub va shakllarini joriy etish, zamonaviy adabiyotlar yaratish, malaka oshirishning dolzarb muammolarini aniqlash va yechimini topishga qaratilgan aniq, maqsadli chora-tadbirlarni muntazam o‘tkazib turishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884 son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-

quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-son qarori.

4. Mustafaqulov A.S., Uralov Sh.A. Pedagog kadrlarning kasbiy va boshqaruvchilik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi / “Kasb-hunar ta’limi” Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2023-yil, 2-son 259-264 b.

5. Sharifxodjayev U.U. Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlari malakasini oshirish tizimini isloh qilishning dolzarb masalalari / «Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning dolzarb masalalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent: - 2021-y, 5-7 b.

6. Umarov L.M. Elektron axborot ta’lim resurslari asosida pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish boshqaruvini takomillashtirish / «Umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning dolzarb masalalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent: - 2021-y, 182-185 b.

7. Radjiyev A. “Hayot davomida o‘qish” tamoyili amalda https://yuz.uz/news/hayot-davomida-oqish-tamoyili-amalda.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AXBOROT-TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Toshtemirov Doniyor Eshbayevich
Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. E-mail: doniyor120373@gmail.com

Annotation. The article discusses the creation of information and educational resources and automated systems based on digital technologies and their use in the educational process.

Key words: digital technologies, information, computer, automated systems, education, distance learning.

KIRISH. O‘quv jarayonida ta’limning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammolarni hal etishda zamonaviy talablar darajasida yaratilgan elektron axborot-ta’lim resurslari alohida ahamiyatga egadir.

METODLAR. Masofali o‘qitish - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shaklidir. O‘qitishning bu shaklida o‘quvchilarga mos ta’lim predmetini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan muloqat qilish sharoitlarini ta’minlaydigan an’anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchining qaerdaligi va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi. Masofali o‘qitishda o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o‘qitish vositalari va hokazo) Internet texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi [1]. Tadqiqotda kuzatish, ilmiy-metodik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR. O‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterlardan foydalanilsa jarayon avtomatlashtirilgan tizim ositida faoliyat olib boradi. Bunda kompyuter o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda pedagogik xodimlarga ko‘makchi vazifasini bajaradi.

O‘quv jarayoni uchun tavsiya etilgan biz ishlab chiqqan elektron o‘quv-uslubiy majmuadan foydalanish va uning imkoniyatlari to‘g‘risida fikr yuritamiz. O‘quv jarayonida elektron axborot-ta’lim resurslari kompyuter tarmoqlari vositasida talabalarni o‘quv-axborot bazasi bilan ta’minlaydi va ularning ta’lim tizimida olgan bilimlarini baholash va nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Zamonaviy o‘quv jarayonini shu jumladan, masofali o‘qitishni tashkil qilishda ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot makonining o‘rni juda katta. Ta’lim muassasalarida fanlardan axborot makonini yaratish Internet va Intranet tarmoqlarida ta’lim portallari, elektron o‘quv-uslubiy majmualar tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Elektron axborot-ta’lim resurslari asosida o‘qitishni tashkil qilishda

umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlari yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlariga elektron axborot-ta’lim resurslarida joylashtirilgan o‘quv dasturlari, rejalar, darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Elektron axborot-ta’lim resurslari masofali ta’lim tizimining rivojlanishiga, shu bilan birga uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta’limning tashkiliy-uslubiy va me’yoriy-huquqiy bazasining rivojlanishiga, ta’lim oluvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi vositalar bilan ta’minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Elektron axborot-ta’lim resurslari asosida masofali o‘qitish amalga oshiriladigan ta’lim muassasalarida majmuaga o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo‘jalik ishlarini yuritish, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv materiallari, testlar va boshqalar haqida ma’lumotlar joylashtiriladi.

Elektron axborot-ta’lim resurslarining asosiy o‘quv-uslubiy qismi elektron darslik tizimiga asoslangan. Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi [2].

Elektron axborot-ta’lim resurslari o‘quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg‘ulotlarida repititor, mustaqil ta’lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta’minlovchidir.

Elektron axborot-ta’lim resurslari o‘quvchilarga axborotni o‘qish, ma’ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan vazifalarni bajarish, o‘z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to‘ldirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Elektron axborot-ta’lim resurslari o‘z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o‘zida bilim berish va ularni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta’minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o‘quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo‘ljallangan mashqlar, o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi [3].

Elektron axborot-ta’lim resurslaridagi mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari uchun yaratilgan elektron o‘quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy materiallar ta’lim oluvchilarga kerakli mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta’lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy ta’lim vositalari yordamida ta’lim oluvchilar o‘qituvchining yordamisiz ham o‘z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin.

O‘quv jarayonida mustaqil ta’limini tashkil etish uchun elektron axborot-ta’lim resurslari yaratish va joriy etishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi [4]:

- talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olish va uni amalga oshirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berish;
- ta’lim tizimining turli yo‘nalishlarida talabalarning faol ta’lim olish shakllariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va uni joriy qilish;
- talabalar tomonidan ta’lim mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasi bilan mukammal tanishtirish va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish;
- oliy ta’lim muassasalarining elektron axborot-ta’lim muhiti va integrallashgan o‘quv-ilmiy resurslarini yaratish;
- ta’lim jarayonini axborotlashtirish borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish imkonini beruvchi elektron o‘quv-metodik majmualar yaratish;
- talabalar mustaqil ta’lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o‘quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar ishlab chiqish va boshqalar.

O‘quv jarayoni uchun elektron axborot-ta’lim resurslar yaratishning asosiy maqsadi – ta’lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillari asosida tashkil etishni ta’minlash, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan etakchi professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatlariga tayangan holda, ta’lim sifatini oshirish, talabalar uchun uzluksiz ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ta’limning turli shakllarini o‘zaro bir-biriga muvofiqlashtirishdan iborat.

O‘quv jarayoni uchun elektron axborot-ta’lim resurslari asosida mustaqil ta’limni tashkil etish an’anaviy ta’lim shaklidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- talabalar mustaqil ishlash imkoniyatining kattaligi;
- o‘quv-metodik ta’minotning rang-barangligi;
- ta’lim olishni individuallashtirish;
- yetakchi oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda faoliyat ko‘rsatayotgan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar hamda olimlar salohiyatidan keng foydalanish;
- talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga sharoit yaratish;
- talabalarning keng auditoriyasini qamrab olish va uning natijasi sifatida o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish;
- o‘quv jarayonida talabalar guruhini faollashtirish va muvofiqlashtirish;
- talabalarni kuzatish, yordam ko‘rsatish hamda ular bilan ishlashni individuallashtirish va tabaqalashtirishga qaratilgan axborot muhitini yaratish;
- multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarda o‘qishga qiziqishni orttirish;
- ta’limning interfaol xususiyati asosida talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantish va o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning samaradorligini oshirish;
- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni

modellashtirish va kuzatish imkoniyatlarini yaratish;

- an’anaviy hamda masofali ta’lim o‘quv-metodik ta’minotining samarali integratsiyasini ta’minlash;
- talabalarga mustaqil izlanish orqali o‘quv materiallarini topish, o‘rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma’lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- talabalarning amaliy kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda o‘quv trenajer vazifasini bajarish;
- o‘quv jarayonida nazorat tahlilini sifatli tashkil etish;
- talabalarning kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, turli ma’lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirish.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini takomillashtirishning asosiy omillari sifatida kompyuter bilan muloqotni, elektron ta’lim resurslari orqali o‘quv-metodik ta’minotni yaratish, o‘quv jarayonini kompyuterli axborot-ta’lim muhiti va zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish, ta’lim berishda gipermatn, multimedia, axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanish kabilarni qayd etish mumkin [4].

O‘quv jarayonida elektron axborot-ta’lim resurslardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat [5]:

- ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar.

XULOSA. O‘quv jarayonini raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan elektron o‘quv-uslubiy ta’minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan, 2009. -146 b.
2. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi. Toshkent: Sharq, 2002.- 20 b.

3. Toshtemirov D.E. Masofali o‘qitishning uslubiy vositalari. // Kasb-hunar ta’limi, 2008. № 5. - 23 b.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
5. Toshtemirov D.E. Ta’lim portalining tarkibiy tuzilishi va uslubiy ta’minoti. // Kasb-hunar ta’limi, 2010. № 2. –B. 10-11.

NOMUTANOSIBLIKNING SHAKL VA MA’NODA YUZAGA CHIQISHI

Uralov Azamat Begnarovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Maqolada nomutanosiblikning morfologik shakllarda yuzaga kelishi tadqiq etilgan. Unda nomutanosiblik shakl, ma’no, vazifa jihatiga ko‘ra turlanib tahlil qilingan. Ma’no jihatiga ko‘ra nomutanosiblik asosan ikki xil ko‘rinishda kuzatiladi: ko‘p ma’nolilik va shakldoshlik. Shakl jihatiga ko‘ra esa nomutanosiblik to‘rt holatda kuzatiladi: ma’nodoshlikda, tejash tamoyillarida, allomorflarda va invariantlarda. Vazifa jihatiga ko‘ra esa ko‘p vazifalilik va ko‘chish (konversiya va transpozitsiya)da namoyon bo‘ladi.

Аннотация: В статье рассматривается возникновение диспропорции в морфологических формах. В ней диспропорция анализируется по форме, смыслу и задачному аспекту. По смысловому аспекту диспропорция преимущественно наблюдается в двух формах: многозначности и формализме. По аспекту формы диспропорция наблюдается в четырех случаях: в семантике, принципах сохранения, алломорфах и инвариантах. По аспекту задачи это проявляется в многозадачности и миграции (конверсии и транспозиции).

Abstract: The article examines the occurrence of disproportion in morphological forms. In it, disproportion is analyzed according to form, meaning, and task aspect. According to the aspect of meaning, disproportion is mainly observed in two forms: polysemy and formalism. According to the aspect of the form, the disproportion is observed in four cases: in semantics, conservation principles, allomorphs and invariants. According to the aspect of the task, it is manifested in multitasking and migration (conversion and transposition).

Nomutanosiblik ma’no jihatiga ko‘ra, shakl jihatiga ko‘ra, vazifa jihatiga ko‘ra bo‘lishi mumkin. Ma’no jihatiga ko‘ra nomutanosiblik asosan ikki xil ko‘rinishda kuzatiladi: ko‘p ma’nolilik va shakldoshlik. Shakl jihatiga ko‘ra esa nomutanosiblik to‘rt holatda kuzatiladi: ma’nodoshlikda, tejash tamoyillarida, allomorflarda va invariantlarda. Vazifa jihatiga ko‘ra esa ko‘p vazifalilik va ko‘chish (konversiya va transpozitsiya)da namoyon bo‘ladi.

1-jadval.

Egalik va shaxs-sonda nomutanosiblikning ko‘rinishi.

Nomutanosiblikning yuzaga chiqishi		
Ma’no jihatidan	**Shakl jihatidan**	**Vazifa jihatidan**
Ko‘p ma’nolilik	Ma’nodoshlik	Ko‘p vazifalilik
Shakldoshlik	Tejash tamoyili	Ko‘chish:
	Allomorflar	1. Konversiya
	Invariantlar	2. Transpozitsiya

R.Sayfullayeva so‘z yasovchi shakllar xususida fikr yuritib, “*-chilik* affiksini ... darslik va qo‘llanmalarda quyidagi 3 ma’nosi farqlanadi: 1. Asosdan anglashilgan

narsani yetishtiradigan sohani ifodalovchi ot: *paxtachilik, urug‘chilik, chorvachilik, uzumchilik.* 2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiruvchi ot: *pishiqchilik, mo‘lchilik, arzonchilik.* 3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog‘liq bo‘lgan ishni bildiruvchi ot: *ulfatchilik, tirikchilik, dushmanchilik*. Aksariyat morfema polisemantik tabiatli”[1] ekanligini aytadi. Affikslarda ko‘p ma’nolilik so‘z yasovchilarda ko‘p uchraydi, ammo obyektimiz shakl yasovchilar bo‘lganligi sababli bu jarayonga e’tibor qaratmadik.

-ga shaklining ham ko‘p ma’noliligi kuzatiladi. “*Ukamga oldim”* birikmasida *-ga* shakli bajarishga maqsadlilikni ifodalasa, “*ukamga tikildim”* birikmasida yo‘nalganlikni ifodalamoqda. Ko‘p vazifalilik orqali bir shaklning turli ma’nolarda kelishi nomutanosiblikning yuzaga chiqishiga asos bo‘lmoqda.

Bizga ma’lumki, ko‘p ma’nolilik shakldoshlikdan farq qiladi. Ko‘p ma’nolilikda shakllar orasidagi bog‘lanish sezilib turishi lozim, shakldoshlikda esa bu bo‘glanish uzilib ketgan bo‘ladi, ya’ni ikki shaklning orasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Bugungi kunda ayrim shakllarning orasidagi bog‘lanish hali sezilib turgan bo‘lsa-da shakldosh affikslar deb yuritilmoqda. Quyida shunday morfologik shakllarni ko‘rib chiqamiz hamda *-m, -imiz, -ng* egalik shakllari haqida fikr yuritamiz.

-m morfologik shakli. *-m* egalik shakli tashqi tomondan shaxs-son shakli bilan bir xil. Qaysidir ma’noda shakldosh. Ammo bu shakldoshlik orasida ichki bog‘lanish saqlanib qolgan. Bu shunday aloqaki, har ikkisida ham shaxs ko‘rsatkichiga, har ikkisida ham son ko‘rsatkichiga ega. Demak, bu shakllar tashqi tomondan bir xil bo‘lganligi bilan ichki tomondan shaxs va sonda bog‘lanadi: xona+m – bordi+m. Bu holat shakldoshlikdan ko‘ra ko‘p ma’nolilikka yaqin turadi.

-miz morfologik shakli. Birinchi shaxs, ko‘plik shaklidagi *-miz* egalik ko‘rsatkichining kelasi zamonda shaxs-son ko‘rsatkichiga aloqasi bordek, chunki har ikkisida ham shaxs va son ifodalanadi va bu ifoda yaqqol sezilib turibdi. Bu shaklni shakldoshlikdan ko‘ra ko‘p ma’noli deb aytsak, o‘rinli bo‘ladi.

-ng morfologik shakli. Ikkinchi shaxs birlikni ifodalovchi *-ng* egalik shakli fe’llardagi o‘tgan zamonning ikkinchi shaxs, birlik shaklini ifodalovchi *-ng* shaxs-son shakli bilan ichki bog‘lanishi mavjud. Chunki bu shakllarning har ikkisida ham shaxs va son ko‘rsatkichi bor. Shu sababli bunday shakl ko‘p ma’nolilikni ko‘rsatmoqda. Qolgan egalik shakllarida shaxs-songa nisbatan bu holat kuzatilmaganligi sababli ularni shaxs-son va egalik shakllari o‘rtasida ko‘p ma’noli yoki shakldosh deyish noo‘rin.

Aslida, affikslar o‘rtasidagi shakldoshlik ko‘p ma’nolilikdan ham kelib chiqadi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, “morfemik polisemiya keng tarqalgan hodisa. Bu morfemaning polifunksionalligiga bog‘liqdir”[2]. Bizningcha, ko‘p ma’nolilikni ko‘p vazifalilikka bog‘lab o‘rganish lozim. Ko‘p ma’nolilik shakldoshlikka yaqin turadi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ko‘p ma’nolilik o‘rtasidagi aloqa uzilib ketsa, shakldoshlik yuzaga chiqadi.

2-jadval.

[1] Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2009. –B.142.

[2] Sayfullayeva R. va b. Yuqoridagi asar, 2009. –B. 142.

Egalik va shaxs-sonda nomutanosiblikning ko‘rinishi.

Shaxs	**Birlik**	**Egalik**	**Shaxs-son (o‘tgan z.)**	**Ko‘plik**	**Egalik**	**Shaxs-son (kelasi z.)**
I	**-(i)m**	Xulosa+**m**	Keldi+**m**	**-(i)miz**	Xulosa+**miz**	Kela+**miz**
II	**-(i)ng**	Xulosa+**ng**	Keldi+**ng**	-(i)ngiz	Xulosa+ngiz	Kela+siz
III	-i, si	Xulosa+si	Keldi+ Ø	-(lar)i	Xulosa+lari	Keldi+ Ø

-m, -imiz, -ng egalik shakllari bir vaqtning o‘zida yoki bir so‘z tarkibida (yoki bir so‘z turkumi doirasida) boshqa-boshqa vazifa bajarmayotganligi sababli bu holatni ko‘p vazifali deb bo‘lmaydi. *-m, -imiz, -ng* shakllarni ichki bog‘lanishlarini hisobga olib, shakldoshlikdan ko‘ra ko‘p ma’noli shakllar deb hisoblash kerak. Bu uch affiks ikki so‘z turkumida turli shakllarning (egalik va shaxs-son) turli ma’nolariga nisbatan nomutanosibdir. Demak, morfologik shakllar tizimida ko‘p ma’nolilik ma’noga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Ko‘p ma’noli affikslar o‘zi ifodalayotgan ma’noga yaqin ma’no kasb etib tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida birinchi shakldan farq qilib boradi. Bu holat vaqtlar o‘tishi bilan bir shaklning ikki ma’no ifodalab qolishiga asos bo‘lishi mumkin. Morfemalarda ko‘p ma’nolilik ma’no tovlanishining bir ko‘rinishi sifatida qaralsa-da, o‘zlari ifodalagan ma’nodan uzoqlashib borishi evaziga keyinchalik shakldoshlik xususiyatini keltirib chiqaradi.

Nomutanosiblikning shakldoshlikda yuzaga chiqishi morfologik shakllar tizimida ham kuzatiladi. Tilda bir xil shaklga ega bo‘lgan morfologik shakllar ko‘p. Chunonchi, otlarda *-m* egalik shakli (ruchkam) yasovchi shaklga (to‘g‘ram) nisbatan, fe’llarda *-ma* bo‘lishsizlik shakli (borma) otlarda yasovchi shaklga (suzma, bostirma, qichima) nisbatan shakldosh hisoblanadi. Yuqoridagi holat morfologik shakllarning so‘z yasash shakllariga nisbatan shakldoshlikni hosil qilayotgan bo‘lsa, *-ish* shaklli morfologik shakllar o‘rtasida shakldoshlikni ham, so‘z yashash shakllariga nisbatan shakldoshlikni ham yuzaga keltiradi.

Nomutanosiblikning vazifa jihatiga ko‘ra farqlanishini ko‘p vazifalilik va ko‘chish masalasida kuzatish mumkin. Uning ko‘chish: konversiya va rtanspozitsiya jihati birinchi bobda ifodalandi. Quyida nomutanosiblikning ko‘p vazifalilikka aloqadorlini, uning ko‘p vazifalilik orqali namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilshunosligida ko‘p vazifalilik masalasida Y.Tojiyev, J.Eltazarov, N.Qodirova, G.Sulaymonova, A.Botirova singari olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, “tilshunos olimlar polifunksionallikni grammatik shaklning o‘z tabiatiga mos bo‘lmagan mohiyat kasb etishi, deya baholashadi[3], chunki ko‘p vazifalilik ko‘p ma’nolilikka o‘xshaydi. Shaklda ma’no ko‘paygan sari vazifa ham ko‘payib boradi. Ayrim adabiyotlarda bu ikki hodisani aralashtirib berishadi. Ko‘p vazifalilikda shaklni ikki so‘z tarkibida tekshirish orqali emas, ayni

[3] Botirova A. O‘zbek tilida so‘z turkumlarining birlamchi vazifalari. –Toshkent: Turklad. 2018. –B. 429.

bir so‘z tarkibida ikki (ba’zan undan ko‘p) vazifani bajara olish asnosida belgilash lozim. Ko‘p ma’nolilikda esa bir shaklning bir ma’nosi, boshqa so‘zlar tarkibida boshqa ma’nosi ifodalanishi kerak. “…til birliklarining polifunksionalligi masalasida tilshunoslar yakdil fikrda emas. Ba’zi tilshunoslar til birliklariga xos polifunksionallikni polisemiya doirasida o‘rganishsa, bu muammo ayrim olimlar tomonidan polisemiya va omonimiya oralig‘idagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida e’tirof etiladi. Uchinchi toifa olimlar esa polifunksionallikni so‘z semantik strukturasidagi turli so‘z turkumlariga xos ma’nolarning sinkretizmi sifatida baholaydi”[4]. Tadqiqotchi A.Ataxanovaning fikricha, polifunksionallik hodisasi turkiy tillarda, asosan o‘zbek tilida ko‘p kuzatiladi. Hozirgi o‘zbek tilida mavjud grammatik shakllarning ko‘pchilik qismi polifunksionallik xususiyatiga ega. Grammatik shakllarning funksional imkoniyatlari kengayishi natijasida, ularda birlamchi va ikkilamchi ma’nolar farqlanadi[5].

Bu borada oliy ta’lim talabalari uchun mo‘ljallangan darslikda (2022) affiksal ko‘p ma’nolilik haqida gapirilib, unga *-gan* shakli misol qilib keltiriladi: “*-gan*. Bu affiks fe’l o‘zaklariga qo‘shilib: a) sifatdoshning aniqlovchi vazifasida keluvchi o‘tgan zamon shaklini yasaydi: o‘ril-gan (soch), o‘qil-gan (kitob), yozil-gan (insho) va b.; b) sof fe’lning kesim vazifasida keluvchi o‘tgan zamon shaklini yasaydi: (kitob) yo‘qol-gan, (ukam) kel-gan, (kanal) qazil-gan va b.”[6]. Bunday qayd etilish ko‘p ma’nolilik emas, aksincha ko‘p vazifalilikdir. “*Bu kitob hamma tomonidan o‘qilgan”* gapidagi *-gan* shakli bir vaqtning o‘zida sifatdosh vazifasini ham, zamon vazifasini ham, kesimlik shakli vazifasini ham bajarmoqda. Demak, *-gan* shakli ko‘p vazifali shakl hisoblanib, ma’no anglatish jihatiga ko‘ra nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda. Shuningdek, *bormoqchi, kelmoqchi* singari fe’llarda *-moqchi* shakli ham bir vaqtning o‘zida maqsad mayli va kelasi zamonni ifodalab ko‘p vazifalilikni ko‘rsatmoqda.

Prof. V.A.Bogorodiskiy tilning mazmun jihati haqida shunday deb yozgan: “Genetik ma’noning real ma’nolarga o‘rin berishi tafakkur uchun katta tejamkorlik (ekonomiya) va muhim ahamiyat kasb etadi. Agar so‘zning real ma’nosi har safar ongimizda genetik ma’nolarga tortilaversa, bu holat tafakkur uchun, shu bilan birga, madaniyat uchun ham haddan tashqari to‘siq (tormoz) bo‘lgan bo‘lar edi”[7]. Shunday ekan, nomutanosiblik har bir tilda, jumladan, o‘zbek tilida ham, tabiiy ravishda amal qiladigan, shakl va mazmunning o‘ziga xos bog‘lanishi, uzviy aloqadorligi, shakl va ma’noning o‘zgarishi, bir shaklning turli ma’nolar anglatishi, ko‘chishi, o‘zaro o‘tishi jarayonlarini aks ettiradigan muhim qonuniyatning nomi hisoblanadi. Sinxroniya diaxroniyaning qonuniy davomchisi, vorisi bo‘lar ekan, har bir sinxron bosqichdagi shakldoshlik, ma’nodoshlik, ko‘p ma’nolilik, ko‘p vazifalilik ham o‘z izohi, sabablariga ega. Ana shu jarayon va hodisalar tufayli til jamiyat ehtiyojlariga hozirjavob tizim qobiliyatini to‘liq namoyon qiladi. Tilning ana shu xususiyati haqida mashhur fransuz tilshunosi Sh.Balli quyidagicha fikr bildirgan edi: “O‘z

[4] Исломов И. Ўзбек тили географик терминларида полифункционаллик // Халқ таълими. 2021, 6-сон. –Б. 56.

[5] Ataxanova A. Hozirgi o‘zbek tilida polifunksionallik // Journal of universal science research. 2023, 1-son. –B. 95-96.

[6] Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 43-44.

[7] Богородицкий В.А. Введение в татарское языкознание. – Казань, 1953. –С. 153.

doiralariga o‘ralgan belgi (ramz, ishora)lar tilning ko‘plab ehtiyojlarini qondirishda juda cheklangan manba sifatida xizmat qilgan bo‘lar edilar. Ammo kategoriyalararo almashinuv tufayli fikr erkinlikka erishadi, ifoda yanada boy va turli jilo (ottenka) larga ega bo‘ladi”[8]. Shunday ekan har bir shakl o‘z o‘rni bilan almashinib keladigan mazmunga xizmat qilishi lozim. Shaxs-son ko‘rsatgichining bir vaqtning o‘zida zamonni ham ifodalashi nomutanosib bo‘lsa-da, til qonuniyati uchun tabiiy holdir.

Ayrim izlanuvchilar ko‘p vazifalilikni asosning affiks bilan birgalikdagi harakati tufayli yuzaga kelishini ta’kidlaydi va “Polifunksionallik ba’zan torroq, ba’zan juda keng tushuniladi. Morfemaning polifunksionalligi bir vaqtning o‘zida affiks va o‘zak sifatida harakat qilish qobiliyati”,[9] deb tushuntiradi. Bu mantiqan olib qaraganda to‘g‘ri, ammo asosni harakatidagi vazifani affiks bajarayotganligini ham ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Chunki ko‘p vazifalilik affikslar o‘rtasida ham mavjud bo‘lib, uni asosga tayangan holda morfologik shakl yuzaga chiqaradi.

Masalan, *boring* fe’l shakli asosida yuzaga kelayotgan ko‘p vazifalilikni *-ing* shaxs-son shakli yuzaga chiqarmoqda. *-ing* shakli bu yerda bir vaqtning o‘zida ikkita vazifani bajarmoqda: *boring* – shaxs-son va zamon. Yanada aniqlik kiritish mumkin: *bor+ing* – II shaxs, ko‘plik sonda; kelasi zamon mazmunida.

Ko‘p vazifalilik nol shaklda ham mavjud bo‘ladi: bor – buyruq istak mayli, I shaxs birlik sonda, bo‘lishli shaklda, kelasi zamon mazmuni. Ko‘p vazifalilik asosan leksemada – so‘zlarda ifodalanadi. Terminlar borasida tadqiqot olib borgan A.N.Tatarinova sistemalararo quyidagi terminlar guruhlarini aniqlaydi: 1) polifunksional so‘zlar – bir-biri bilan obrazli o‘xshatishlar bilan bog‘langan tushunchalarni bildiruvchi terminlar; 2) sistemalararo omonimlar – teskari bog‘lanishni yo‘qotgan tushunchalarni bildiruvchi so‘zlar. Terminlarni sohalararo darajasiga qarab esa quyidagicha guruhlaydi: 1) turli, lekin o‘zaro aloqadorlikni bildiruvchi polifunksional so‘zlar, bir xil ma’noli turli terminosistemalarda ishlatiladigan atamalar; 2) aloqasizlikni ifodalovchi sohalararo omonimlar[10]. Fikrdan anglashiladiki, ko‘p vazifali so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlarga yaqinlik darajasi mavjud, bu terminlarda yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Aslida, ko‘p ma’nolilikni turli leksik va sintaktik tarkibdagi bir qator so‘zlarning turli sintaktik vazifalarni bajarish qobiliyati deb tushunish va talqin etish lozim.

Ko‘p vazifalilik muammosini affikslar misolida tadqiq qilgan N.Qodirova affikslardagi ko‘p vazifalilik bilan ulardagi ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik bir xil hodisalar emasligini ta’kidlaydi[11]. Ular o‘rtasida umumiylik jihatlari bo‘lsa ham, har biri alohida-alohida hodisalar ekanligi bizga ma’lum. Morfologik shakllarning shakldoshligida turli affikslarning shakl munosabati haqida, affiksal ko‘p vazifalilikda esa bir affiksning turli xil vazifa bajarishi haqida gap borsa, affiksal ko‘p ma’nolilikda bir affiksning ma’lum bir vazifada qo‘llanganda, turli xil ma’nolarni ifodalashi xususida fikr yuritiladi. Tilshunos olim Kurilovich o‘z

[8] Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. –М., 1955. –С. 143.

[9] Исломов И. Ўзбек тили географик терминларида полифункционаллик // Халқ таълими. 2021, 6-сон. –Б. 55.

[10] Татаринова А.Н. Опыт системного исследования немецкой химической терминологии: на материале общей и неорганической химии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –М., 2005.

[11] Қодирова Н. Ўзбек тилидаги аффиксларда полифункционаллик. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент; 2002. –Б. 16.

tadqiqotlarida grammatik shaklning bosh ma’nosi birlamchi funksiya, grammatik shaklning hosila holatiga esa ikkilamchi funksiya muvofiq kelishini ta’kidlab o‘tgan[12]. Buni quyidagi misolda yanada aniqroq ko‘rish mumkin: *-di* o‘tgan zamon shakli, ayni damda shaxs-sonni ham ifodalaydi (III shaxs birlikda).

-ma shaklining ko‘p vazifaligi xususida adabiyotlarda quyidagicha fikr keltirilgan: “Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasini tasdiq-inkor kategoriyasidan farqlash lozim. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik fe’lga xos va uning nokesimlik shakli. Bunda bo‘lishsizlik shakli bo‘lgan *[-ma]* ko‘rsatkichining o‘rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa (masalan, *[-gan]* shakli sifatdosh shakli sifatida boshqa paradigmadan, kesimni shakllantirishi bilan boshqa paradigmadan joy olganligi kabi) grammatik shakllardek ko‘p vazifali. U gap kesimi tarkibida kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosidagi “gap kesimini shakllantirish” ma’nosini xususiylashtirganligi bilan bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasidagidan boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. Bu serqirra mohiyatli, ko‘p funksiyali lisoniy birliklar kabi *[-ma]* shakli ham birdan ortiq paradigmadan o‘rin olishini ko‘rsatadi”[13].

Demak, morfologik shakllar tizimidagi *-ing* shakli shaxs-son va zamon (o‘rni bilan mayl) shakllarida, *-gan* shakli sifatdosh va zamon shakllarida, *-man, -san* shakllari shaxs-son va kesimlik shakllarida, *-di* shakli zamon va shaxs-son shakllarida, *-sa* shakli mayl shakli va bog‘lovchi vositasida, *-cha* kichraytirish shakli (o‘rni bilan piching shakli: askarcha, shoircha, blogercha) va so‘z yasovchi shakl (*o‘zicha*) (o‘rni bilan o‘xshatish yuklamasi: *moshcha aqli yo‘q*) sifatida, *-lar* shakli (fe’llarda) ko‘plik va hurmat shakllarida, *-ma* shakli bo‘lishsizlik va so‘z takrorini bog‘lash evaziga so‘z yasovchi (*yuzma-yuz, qo‘lma-qo‘l, ko‘chama-ko‘cha* (o‘rni bilan so‘z yasovchilik: *ko‘chma*)) shakllarda, *-v* shakli harakat nomi va so‘z yasovchi (saylov, o‘lchov) shakllarida ko‘p vazifalilikni ko‘rsatadi hamda vazifa jihatidan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

[12] Elov B, Axmedova X. O‘zbek tilidagi polifunksional so‘zlarni semantik farqlovchi biznes-jarayonlarni modellashtirish / O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. –Toshkent, 2022. –B. 87.

[13] Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. –B. 212-213.

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TIZIMINI JORIY ETISH NATIJASI

Otamurodov G‘olibjon Ro‘zimurodovich
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi p.f.f.d., (PhD) dotsent, e-mail: foniy_02_03@mail.ru, tel: +998977329994

ANNOTATSIYA

Ta’lim tizimida malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda, malaka oshirish ta’lim sifati ko‘rsatkichlari va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash orqali ta’lim sifatini ta’minlash, xorij tajribasini joriy etishga nazariy va ilmiy yondashuvlarini, hamda xorijiy malaka oshirish kurslari, masofay ta’lim dasturlari, tajribalari va tahlili asosida milliy malaka oshirish tizimida mutaxassis kadrlar sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari shuningdek, xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlili haqida taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlari: *masofaviy ta’lim, xorij tajribasi, masofaviy malaka oshirish, uzluksiz, xayot davomida ta’lim olish*

ANNOTATION

Taking into account the need for qualified personnel in the education system, priority areas for improving the quality of training of specialists in the national system of advanced training are identified on the basis of indicators of the quality of education and training of competitive personnel, theoretical and scientific approaches to the introduction of foreign experience, as well as foreign qualification courses, distance education programs, experience and analysis.

Key words: *distance learning, foreign experience, distance learning, continuous, lifelong learning*

Ta’lim sohasini tubdan isloh qilish maqsadida bugungi kunda ko‘plab farmonlar va qarorlar chiqarilmoqda. Bularni ijrosini ta’minlashni inobatga olish, albatta birinchi navbatda ta’lim sohasini rivojlantirish uchun sifatli, malakali kadrlarga ehtiyoj kuchayadi. Bunda xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda milliy muhitni nazarda tutgan holda dasturlar tayyorlash lozim. Ta’limning barcha bosqichlariga malakali kadrlar tayyorlab berish davr talabidir. Raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlashda xorij tajribalarni qiyosiy tahlil qilish va o‘rganish zarur.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya, ilm-fan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilm-fan jadal rivojlanayotgan bir paytda, ta’lim sohasida pedagog xodimlar malakasini oshirish maqsadida chet davlatlar tajribasini o‘rganishi dolzarb masaladir. Bugungi kunda chet davlatlarda masofaviy malaka oshirish kurslari mavjudligini alohida ta’kidlash mumkin. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan malaka oshirish, qayta tayyorlash va uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimiz sharoitida bosqichma-bosqich tarzda o‘qituvchilarning malakasini masofadan o‘qitishni joriy qilishning bir qancha ijobiy jihatlari mavjudligi, shuningdek, xorijiy

tajribalarni milliy tizimimizga joriy kilish, ularni qo‘llash bugungi kun talabidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6108-son Farmoni hamda “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4884-son qarori, shuningdek mazkur farmon va qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvarda qabul qilingan “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4963-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvarda qabul qilingan “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-son qarori bilan xalq ta’limi xodimlarining, jumladan, pedagog kadrlarning 5 yillik davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimi “hayot davomida o‘qish tamoyili”ga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilindi.

Hozirgi, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon va unga mos bo‘lgan ta’lim tizimida o‘qituvchi bir marta 144 soat (1 oy) malaka oshirib, keyingi 4 yilu 11 oy davomida malakasini oshirmasligi ta’limni turg‘un holatga keltirishi muqarrar.

Shuning uchun ham yuqoridagi farmon va qarorlar ijrosini ta’minlash maqsadida maktab ta’limi xodimlari, xususan maktab o‘qituvchilarining har yili kamida 6 kun majburiy malaka oshirishi belgilab qo‘yildi.

Malaka oshirish o‘qituvchini tayyorlamaydi, unga ta’lim va o‘qitish metodikasidagi yangiliklarni beradi. O‘qituvchini maktabidagi ta’lim jarayonidan (ba’zan - yashash joyidan) ajratib, majburiy tarzda 144 soat (ya’ni 1 oy) o‘qitish maktablarimizdagi ta’lim sifatini oshirishga olib kelmagani o‘tgan 30 yillik tajribadan ko‘rinib turibdi.

Aksincha, o‘qituvchini 1 oy davomida maktabdagi ta’lim jarayonidan va yashash joyidan ajratib olib o‘qitish maktabda u dars bergan sinflardagi ta’lim jarayoni sifatini pasaytirish bilan bir qatorda uning moddiy va ma’naviy jihatdan aziyat chekishiga va oilasida muammolar kelib chiqishiga olib kelar edi.

Pedagoglarning har yili malaka oshirishi hududlardagi Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari (2022 yil 11-maydagi PF-134-son farmoni bilan hududiy qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari shu nom bilan qayta nomlangan) professor-o‘qituvchilarining ham har yili o‘quv dasturlari va ulardagi mavzularni yangilashga majbur qiladi

O‘qituvchining har yili kamida 6 kun (36 soatlik dastur asosida) malaka oshirishi bilan uning uzluksiz kasbiy rivojlanishi tugamaydi va faqat shundangina iborat emas.

Hududlardagi malaka oshirish markazlari, oliy ta’lim muassasalar, tuman (shahar) MMTBlari tomonidan tashkil etilayotgan qisqa muddatli maqsadli o‘quvlar, malakali trenerlarni jalb qilib tashkil qilinayotgan “mobil” va “sayyor” kurslar, o‘qituvchilarning har haftaning bir kuniga belgilangan metodika kunlaridagi o‘quvlar majburiy malaka oshirishga qo‘shimcha amalga oshiriladigan uzluksiz

kasbiy rivojlantirish tadbirlari tizimini tashkil qiladi.

Maktab ta’limi xodimlari malakasini oshirish sohasida monopoliyaga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida yuqorida qayd etilgan meyoriy hujjatlar bilan oliy ta’lim muassasalari va nodavlat ta’lim tashkilotlariga ham tizimdagi malaka oshirish tashkilotlari bilan teng huquqiy asosda xodimlarning malakasini oshirish bilan shug‘ullanishga imkoniyatlar yaratib berildi.

Maktab ta’limi xodimlarining ehtiyoji, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda umumiy o‘rta ta’lim maktab direktori va o‘qituvchisi kasb standarti asosida o‘qituvchilar kasbiy faoliyatiga doir 8 ta, maktab direktorlari uchun 8 ta kompetensiya belgilab olindi va maktab ta’limi xodimining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash bo‘yicha diagnostika mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu diagnostika mexanizmi tinglovchilarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda va ularga o‘z ehtiyojlariga asoslangan malaka oshirish kurslarini taklif etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta’lim olishning quyidagi shakllari belgilangan:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish;
- masofaviy ta’lim;
- dual ta’lim;
- mustaqil ta’lim;
- malaka oshirishning muqobil shakllari.

2023-yil holati bo‘yicha “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali 500 ming nafardan ziyod xodimlar ro‘yxatdan o‘tib, shundan 490 573 nafari (98,1%) uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari sertifikatiga ega bo‘lishgan. Jumladan, ishdan ajralgan holda malaka oshirish (an’anaviy shaklda hududiy markazlarda) shaklida – 242 690 nafar, shundan 705 nafari nodavlat ta’lim tashkilotlarida, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali mustaqil ta’lim shaklida – 247 178 nafar pedagog xodimlar malaka oshirgan.



Faoliyatga doir muhim sanalgan kompetensiyalari bo‘yicha diagnostika va o‘zlashtirish natijalari tahlillari o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 39,2 va 36,8% ga ortganini ko‘rsatmoqda.

Davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimidan (11 oyda 100 000 nafarga yaqin tinglovchi) uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi (490 573 nafar tinglovchi) orqali malaka oshirgan tinglovchilar soni qariyib 4 barobar (400%) ko‘p.

Maktab ta’limi xodimlari uchun tashkil etilgan 40 dan ziyod uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurs yo‘nalishlari bo‘yicha 2 152 ta kontent (ma’ruza, taqdimot, videodars, topshiriqlar) yaratilgan va elektron platformaga joylashtirilgan.

Malaka oshirish shakllarining ko‘payishi, 500,0 ming nafardan ziyod xodimlarning bir yilda to‘liq malaka oshirish kurslariga ishtirokini ta’minlash uchun albatta zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalnish hamda halqaro, maxalliy ta’lim platformalarni ilmiy tahlillar qilgan holda yaratilgan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi muhim vosita sifatida xizmat qildi.

Birgina misol Platformaga Google kompaniyasining platforma yuzasidan bergan sarhisobiga ko‘ra, 2023-yil davomida foydalanuvchilar platformaga 326,0 million marotaba tashrif buyurgan. Bu degani har bir foydalanuvchi platformadan o‘rtacha 572 marotaba foydalangan. Googlega ko‘ra har bir foydalanuvchi platformaning 12 ta ruknidan (shundan 7 tasi kurslarga tegishli) foydalanib, har bir ruknga 16 daqiqa vaqt sarflagan. Foydalanuvchilarning 78 foizi smartfondan, 22 foizi personal kompyuterdan hamda 1 foizdan kamrog‘i esa planshetdan foydalangan.

Institutning Onlinedu.uz/Rasmiy 24/7 Chati LMS platformasiga oid savollarga javob olish chati orqali 2023-yil davomida 2,0 mln.dan ziyod kelib tushgan murojatlarning eng muhimlari va ko‘p berilganlari o‘rganilib, kelgusida tashkil etiladigan kurslarda buni hisobi olindi va ushbu murojatlar mexanizm sifatida platformarga orqali raqamlashtirish ishlari olib borildi. Bu ham albatta o‘qituvchilarimizni malaka oshirish kurslariga qiyinchiliklarsiz ishtirokini ta’minlaydi. Jumladan,

Ikki va undan ortiq fandan dars beradigan o‘qituvchilarni ikkinchi fanlaridan malaka oshirishlarini avtomatlashtirish, videodars mashg‘ulotini bir marotaba majburiy ko‘rish funksiyasi, bitta qurulmadan ikkitadan ortiq akkuantga kirishga uringan qurulmani aniqlash va boshqa bir qancha yangi funksiyalar yaratilgan bo‘lib, bu ta’lim sifatining oshirishga hamda o‘qituvchilarning AKT

kompetentsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. E’tirozlarga sabab bo‘ladigan funksiyalar barchasi hozirgi kunda to‘liq bartaraf etilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonilari faqatgina malaka oshirish kurslarida o‘z aksini topmasligi, aksincha o‘qituvchilarimiz o‘z ustida muntazam, kerak bo‘lsa har kuni ilmiy adabiyotlar hamda internet manbaalaridan samarali foydalangan holda bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirib borishlari zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020-yil. https://lex.uz/docs/5085887

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021 yil. https://lex.uz/docs/5239538

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiing 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-25-son Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-yil. https://www.lex.uz/docs/-5828765

4. Nishonov A.X., Anarbayeva F.O‘., Babamuxamedova M.A. // 2012. Ta’limda erkin va ochik kodli dasturiy ta’minotlar – Toshkent [Tashkent]: “Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-texnik konferensiya materiallari to‘plami. – Pp 121–123.

5. Abdukodirov A.A., Pardayev A.X. // 2009. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti – Toshkent [Tashkent]: Fan nashriyoti. – 146 P.

6. Alkarov E.M. // 2021. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent [Tashkent]: Pp. 9-22.

7. Otamurodov G‘. R. // 2020. Oliy ta’lim muassasalari rahbar kadlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrallashgan axborot-metodik tizimi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Pp. 11-18.

8. T.T.Shoymardonov, Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati mazmuni va uning monitoringi. Monografiya. “Yangi kitob”. – Toshkent: 2016. – 196 b

9. Elektron ta’lim // Ta’limda yangi texnologiyalar portali **http://elearning.zn.uz**

10. Onlayn ta’lim olish ochiq portfali web sayti http://www.atutor.ca

11. A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti web sayti http://www.avloniy.uz

12. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi https://onlinedu.uz/

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDA DASTURLASH TILLARINING TUTGAN O‘RNI VA UNING MAQASAD VA VAZIFALARI

Shamsiddinov G‘iyosjon Husniddin o‘g‘li, Murodulloyeva Jasmina Najim qizi, Nurmaxmatova Umida Abdiqahhor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Informatika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi; Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Matematika va informatika” yo‘nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Dasturlash tillari, kompyuter dasturlarini yaratish va ishga tushirish uchun ishlatiladigan formal tillardir.Bu tillar,dasturchilar tomonidan yozilgan kodlarni kompyuter tushunchalarini tushurish uchun interpretatsiya yoki kompilyatsiya qilish imkonini beradi.

Tayanch so‘zlar: Java, PHP, JavaScript, Python, HTML

Аннотация: Языки программа-ето формальные языкибиспользуемые для создания и запуска компьютерныхпрограмм.Ети языки позволяют интерпреировать код, написанный программистами, для расшифровки компьютерных концепций.

Ключевые слова: Java, PHP, JavaScript, Python, HTML

Annotation: Programming languages are formal languages used to create and run computer programs.These languages allow interpreting or compiling codes written by programmers to infuse Computer Concepts.

Keywords: Java, PHP, JavaScript, Python, HTML

Kompyuterda dasturlash bu – kompyuter mikroprotsessori uchun turli buyruqlar berish, qachon, qayerda nimani o‘zgartirish va nimalarni kiritish yoki chiqarish haqida buyruqlar berishdir. Ushbu maqolada, qanday dasturlash tillari borligi, eng keng tarqalgan dasturlash tillari va ularning farqi hamda dasturlashni o‘rganish yo‘llari haqida suhbatlashamiz. Kompyuter dunyosida ko‘plab dasturlash tillari mavjud bo‘lib, dasturlash va unga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Bir xil turdagi ishni bajaradigan dasturlarni Basic, Pascal, C va boshqa tillarda yozish mumkin. Pascal, Fortran va Cobol tillari universal tillar hisoblanadi, C va Assembler tillari mashi tiliga ancha yaqin tillar bo‘lib, quyi yoki o‘rta darajali tillardir. Algoritmik til inson tillariga qanchalik yaqin bo‘lsa, u tilga yuqori darajali til deyiladi. Mashina tili esa eng pastki darajali tildir. Mashina tili bu sonlardan iboratdir, Masalan: 010110100010101 Dasturlash tillari ikki katta guruhlarga bo‘linadi, quyi va yuqori darajali dasturlash tili. Quyi darajali dasturlash tili ancha murakkab bo‘lib ular juda maxsus sohalarda ishlatiladi va ularning mutaxassislari ham juda kam. Chunki quyi dasturlash tillari (masalan: assembler) ko‘pincha miktoprotsessorlar bilan ishlashda kerak bo‘lishi mumkin. Odatda turli dasturlash ishlari uchun yuqori darajali dasturlash tilidan keng foydalaniladi. EHM (Elektron Hisoblash Mashinasi) endi yuzaga kelgan paytda programma tuzishda, faqat mashina tillarida, ya’ni sonlar yordamida EHM bajarishi kerak bo‘lgan amallarning kodlarida kiritilgan. Bu holda mashina uchun tushinarli sanoq, sistemasi sifatida 2 lik, 6 lik, 8 lik sanoq sistemalari bo‘lgan. Programma mazkur sanoq sistemasidagi sonlar vositasida kiritilgan. Yuqori darajali dasturlashda, mashina tillariga qaraganda mashinaga moslashgan

(yo‘naltirilgan) belgili kodlardagi tillar hisoblanadi. Belgilar kodlashtirilgan tillarning asosiy tamoyillari shundaki, unda mashina kodlari ularga mos belgilar bilan belgilanadi, hamda xotirani avtomatik taqsimlash va xatolarni tashhis qilish kiritilgan. Bunday mashina moslashgan til - Assembler tili nomini oldi. Odatda dasturlash yuqori saviyali dasturlash tillari (Delphi, Java, C++, Python) vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi tufayli dastur tuzish jarayoni ancha oson kechadi. Biz hozir biladigan va ishlatadigan tillarning barchasi shu guruhga mansub. Ular insonga “tushunarli” tilda yoziladi. Ingliz tilini yaxshi biluvchilar programma kodini qiynalmasdan tushunishlari mumkin. Lekin, hozirgi web texnologiya orqali ishlaydigan tillarda(PHP, ASP.NET, JSP) bunday dasturlar tuzilmaydi. Chunki bunday dasturlarning ishlashi uchun yana bir amaliy dastur ishlab turishi kerak. Hozirda, amaliy dasturlar, asosan, Visual C++, C#, Borland Delphi, Borland C++, Java, Phyhon kabi tillarda tuziladi.

Java dasturlash tili - eng yaxshi dasturlash tillaridan biri bo‘lib unda korporativ darajadagi mahsulotlarni(dasturlarni) yaratish mumkin. Java Obyektga Yo‘naltirilgan Dasturlash(OOP-object oriented programming) tili va u C++ ga ancha o‘xshash. Eng ko‘p yo‘l qo‘yildigan xatolarga sabab bo‘luvchi qismalari olib tashlanib, Java dasturlash tili ancha soddalashtirildi. Java kod yozilgan fayllar(*.java bilan nihoyalanuvchi) kompilatsiyadan keyin bayt kod(bytecode) ga o‘tadi va bu bayt kod interpretator tomonidan o‘qib yurgizdiriladi.

C++ (talaffuzi: si plyus plyus) — turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan dasturlash tili. 1979-yili Bell Labsda Biyarne Stroustrup tomonidan C dasturlash tilining imkoniyatlarini kengaytirish va OOP(object Oriented Programming) xususiyatini kiritish maqsadida ishlab chiqarilgan. Boshida „C with Classes" deb atalgan, 1983-yili hozirgi nom bilan ya’ni C++ deb o‘zgartirilgan. C++ C da yozilgan dasturlarni kompilyatsiya qila oladi, ammo C kompilyatori bu xususiyatga ega emas. C++ tili operatsiyon tizimlarga aloqador qisimlarni, klient-server dasturlarni, EHM o‘yinlarini, kundalik ehtiyojda qo‘llaniladigan dasturlarni va shu kabi turli maqsadlarda ishlatiladigan dasturlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Internet Web Server. Web dasturlash vositalari (tillari) Malumki, yuqori darajadagi dasturlash tillarida yozilgan dasturlarni kompyuterga tushuntirish uchun kompilyator degan qo‘shimcha dastur kerak bo‘ladi. Web dasturlashda ham huddi shunday jarayon sodir bo‘ladi. Siz internetdagi saytlarni ko‘rishlik uchun ishlatadiganingiz Brauzerlar - web dasturlash tillarining bazilarini kompilyatori hisoblanadi. Web dasturlashda yana shunday tillar ham borki ularni brouzer kompyuterga tarjima qilib tushuntirib bera olmaydi, lekin bunday tillar web saytni asosini tashkil etadi.

Ana shunday tillarni brouzer tushunadigan qilib berish uchun ham Web server ga o‘xshagan dasturlar (kompilyator yoki interpretatorlar) to‘plami kerak bo‘ladi. Bunday dasturlar esa sayt joylashgan serverlarda turadi, qachonki unga so‘rov yuborganingizda (istalgan biror ssilkani bosganingizda, birinchi marta saytni ochganingizda va hokazo) shu sayt joylashgan serverdagi Web server dasturlari sizning brauzeringizga saytni brauzer tushunmaydigan tillarda yozilgan joylarini tarjima qilib jo‘natadi. Shunday qilib klient - yani siz tomondagi web saytni kodlarini kompyuteringizga tushuntirib beradigan tarjimon bu - Brauzer, server

tomonidagi web saytni sizning brauzeringiz tushunmaydigan joylarini unga tarjima qilib jo‘natadigan tarjimon bu Web Server hisoblanadi.



Bu yerda Klient yani siz tomonda sizning brauzer va u tushunadigan web dasturlash tillari (HTML, CSS, JavaScript) turgan bo‘lsa, server tomonda Apache- Web server, PHP - PHP tili uchun interpretator va malumotlar ombori bilan ishlash uchun vosita (bu MYSQL, Oracle va boshqalar bo‘lishi mumkin) turibdi. Bundan tashqari server tomonida yana boshqa tillar ham bo‘lishi mumkin. Xullas, siz qachonki brauzerdan kerakli sayt nomini kiritganingizda bu so‘rovingiz DNS serverdan saytga mos IP bo‘yicha kerakli serverga boradi, so‘rovingiz Brauzerda kiritilgani uchun ham ko‘pincha standart HTTP protokoli bo‘yicha yuborilgani uchun uni Web server kutib oladi va so‘rovingizga mos papkadan index faylni qidirib topadi. Undagi bog‘lanishlardan kelib chiqib kerakli fayllarni yuklaydi, bu fayllarni kengaytmasiga qaraydi, agar kengaytmasi .html bo‘lsa uni shundoq, aks holda masalan .php bo‘lsa PHP serverdagi interpretator orqali brauzer tushunadigan tilga tarjima qildiradi(shuni ichida ma’lumotlar bazasidan ham kerakli malumotlar yuklab olinadi) va natijani sizni brauzeringizga jo‘natadi. PHP dasturlash tili yordamida sayt yaratish uchun avvalo o‘z shaxsiy komputeringizda Virtual server o‘rnatishingiz lozim. Masalan Denwer, yoki XAMPP yoki WAMPP Brauzeringiz o‘zi tushunadigan tilda kelgan sayt kodlarini natijasini ekraningizda sizga ko‘rsatib beradi va siz tayyor saytni ko‘rasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khayitkulov B.Kh. Numerical solution of the non-stationary problem of choosing the optimal placement of heat sources in a parallelepiped. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 2021, Vol. 11, No. 1, pp. 29–34.
2. Хайиткулов Б.Х. Численное решение нестационарной задачи об оптимальном выборе источников тепла в стержне. Проблемы вычислительной и прикладной математики. – 2020. – № 5(29). – С. 141–146.
3. G‘iyosjon Shamsiddinov. Стерженда иссиқлик манбаларини оптимал жойлаштиришнинг стационар масаласини сонли ечиш. “O‘zbekiston Milliy universiteti talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarining ilmiy konferensiyasi” O‘zbekiston Milliy Universiteti 24.03.2022 b. 86-87
4. G‘iyosjon Shamsiddinov. Численное решение стационарной задачи оптимального размещения источников тепла в стержне “Zamonaviy fan va ta’lim-tarbiya: muammo va yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy

anjuman materiallari. Qo‘qoqn davlat pedagogika instituti Qo‘qon – 2022 yil, 25-noyabr b. 81-83
5. G‘iyosjon Shamsiddinov. Chiziqli dasturlash nazariyasi usullari “Fizika, matematika va informatsion texnologiyalarning innavatsioan rivojlanishdagi o‘rni” Respublika ilmiy-nazariy anjumani Buxoro 2023 yil 22-dekabr b. 59-63
6. Кодиров, Акбар. «Важность и преимущества использования информационных технологий в образовании». Сборник научных статей Scienceweb (2022 г.).
7. Raxmatov, Sh. "TA’LIM JARAYONIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI." *PEDAGOGS jurnali* 35.2 (2023): 157-161.
8. Kodirov Akbar, Choriyeva Xursanoy Xusanovna, and Mirqobilov Bekzod Abdulla o‘g‘li. "O‘RTA TA’LIM MAKTABLARNING BOSHLANG‘ICH TA’LIM SINFLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA MUAMMO, YECHIM VA TAKLIFLAR." *Journal of new century innovations* 43.4 (2023): 96-98.
9. Raxmatov Sherqo‘zi Olimovich. "MASOFAVIY TA’LIM DASTURLARINING TA’LIM TIZIMIDA AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI (MOODLE, SCORM, TUTOR DASTURLARI MISOLIDA)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.11 (2021): 1263-1270.
10. Yaxiyaxonova, Muhiba, and Marjona Yusupova. "OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “INFORMATIKA VA AT” FANLARIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH." International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. 2023.
11. Yaxiyaxonova, Muhiba. "TALABALARNING MUSTAQIL TOPSHIRIQLAR BAJARISHDA INTELLEKT XARITA YORDAMIDA IJODIY FIKRLASH KO ‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI." International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. 2023.
12. Yakhiyakhonova, Mukhiba. “The Urgency of Improving the Methods of Developing the Skills of Independent Learning of Future Teachers (on the Example of Information Technology in Education).” Academicia Globe 2.03: 47-51.
13. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. “Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies.” Academicia Globe 2.04 (2021): 206-211.
14. Mahmudjonovna, Yaxiyahonova Muhiba. "Technologies of formation of students’ independent work organization skills." (2021).

TA’LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH SIFATLI BILIM OMILI SIFATIDA

D.Samatova
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

“Agar biz kecha o‘qitganimiz kabi bolalarimizni o‘qitsak, biz ularni kelajagini o‘g‘irlagan bo‘lamiz.
JON DYU. Faylasuf va ta’lim islohotchisi

Annotatsiya. Maqolada siz Oliy ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar kabi normativ asoslarda mamlakatimizda yosh avlodga sifatli ta’limni ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart-soatlari paydo bo‘ldi. O‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, kasblari klassifikatori, inson kapitali, zich raqamli muhit.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА КАК ФАКТОР КАЧЕСТВА ЗНАНИЙ. *Преподаватель Гулиустонского государственного педагогического института Д.Саматова Dilrabosamatova316@gmail.com*

Аннотатция В статье речь идет об обеспечении качественного образования молодого поколения в нашей стране на нормативной основе мер, направленных на развитие высшего образования до 2030 года. В Узбекистане появилось поколение цифрового поколения – телевизор, компьютер, планшет, планшет, смартфон и умные часы. Репутация преподавателя и эффективность его деятельности кроются не только в уровне знаний по содержанию курса и его педагогических способностях, но и в таких вопросах, как сбор конкретного учебного материала.

Ключевые слова: цифровизация образования, цифровые технологии, классификатор профессий, человеческий капитал, плотная цифровая среда.

DIGITALIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS AS A FACTOR OF KNOWLEDGE QUALITY. *Teacher at Guliuston State Pedagogical Institute D. Samatova*

Annotation. The article is about ensuring quality education for the younger generation in our country on a regulatory basis of measures aimed at developing higher education until 2030. A seven-screen digital generation has appeared in Uzbekistan - TV, computer, tablet, tablet, phablet, smartphone and smart watch. The reputation of a teacher and the effectiveness of his activities lie not only in the level of knowledge of the course content and his teaching abilities, but also in such issues as the collection of specific educational material.

Keywords: digitalization of education, digital technologies, classifier of professions, human capital, dense digital environment.

Kirish. Ma’lumki, bugun davlat siyosatining ustuvor va kechiktirib bo‘lmas siyosati ta’limni tubdan isloh qilish masalasi sifatida qarolmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ta’lim tiziminig barcha bosqichlarida uzviylik, bog‘liqlik va sifatni yangicha dunyoqarashda tashkil etish masalasi ko‘rsartilib berildi. Shu bilan

birga ta’lim islohatlari yo‘lida bir qancha qaror farmoyishlar qabul qilindi. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri, maktabgacha ta’lim tizmini isloh qilishga qaratilgan qonunlar, Oliy ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar kabi normativ asoslarda mamlakatimizda yosh avlodga sifatli ta’limni ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” srtategiyasi to‘g‘risidagi Farmonda ham ta’limni raqamlashtirish masalasi ham alohida e’tibor qaratilgan. Farmonda ta’lim tizimiga har bir ta’lim darajasi uchun raqamli iqtisodiyotning asosiy vakolatlariga qo‘yiladigan talablarning shakllanishi va joriy etilishi, (vakolatlar modelini hisobga olgan holda) ularning uzluksizligini ta’minlash, shuningdek davlat organlari xodimlarini malakasini oshirish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan va xodimlarning malakasini baholashning yangi mexanizmlaridan foydalangan holda masofadan o‘qitish bo‘yicha yagona elektron platformani yaratish, davlat va mahalliy hokimiyat organlari raqamli rivojlanish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmalarining mas’ul xodimlari bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadlariga erishishga asoslangan moddiy rag‘batlantirish tizimini (KPI) joriy etish, raqamli iqtisodiyot, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarni minimal ma’lumot darajasi va kasblar malakasi nuqtai nazaridan xodimlarning asosiy lavozimlari va ishchilarning kasblari klassifikatoriga rioya qilmasdan jalb qilish. Ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi. Ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berishga qaratilgan.

“Kelajakning raqamli sanoatini yaratish” - inson kapitalini rivojlantirish darajasini oshirish orqali mamlakatni raqamli transformatsiyasini ishga tushirishni, ta’limda tezkor sur’atlarda raqamli o‘zgartirishni talab qiladi. Bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart-soatlari paydo bo‘ldi. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli

avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda Kelajakning inson kapitalini rivojlantirish darajasini oshirish orqali mamlakatni raqamli transformatsiyasini ishga tushirishni, ta’limda tezkor sur’atlarda raqamli o‘zgartirishni talab qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz¬ning har sohada jahon maydonida yetakchilik qilayotgan g‘oya va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatiga ega qudratli davlatga aylan¬ganligini faxr bilan e’tirof etish mumkin. Jumladan, raqamli iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarda o‘zining cheksiz imkoniyatlar maydoni ekanligini namoyon qilganligi bois, bizning davlatimizda ham bu yo‘nalishlarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’¬lumki, iqtisodiyot har sohaning asosi, richagi va harakatlantiruvchi kuchidir. Shu jumladan, pedagogikaning ham. Chunki ta’lim-tarbiya jarayonining iqtisodiyotga bog‘liqligi, ishlab chiqarishning muhim omilligi barcha davlat hujjatlarida yaqqol belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart- soatlari paydo bo‘ldi. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi. o‘qituvchining qanchalik zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi o‘zgartirilishi shart, chunki talabalarga ortiq an’anaviy uslsubda o‘qishni hohlaydilar va o‘qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o‘qitishni davom ettirishlari kerak emas.

Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy

tadqiqotda talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va IT- kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlar ini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda Professor-o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasi va qanchalik zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi ta’lim va tarbiya birligi prinsipi asosida o‘zgartirilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси – Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.- 76 б.

2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008.-176 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик –ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. -Т.: Ўзбекистон, 2017.-102 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847- Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-с

5. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. - Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.- 88 б.

6. Конституция ва қонун устуворлиги–ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятнинг энг муҳим мезонидир. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 27 йиллигига бағишланган тантанали мажлисдаги маърузаси. // Халқ сўзи.2019 йил 8 декабрь, 6, 254 (74 84)- сон.

7. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8. февраль ПФ-4947-сон Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами.-Тошкент, 2017.-№ 6. –Б. 25-28.

8. Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрь ПҚ-3261-сон қарори. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами.-Тошкент, 2017.-№ 37.- Б.154-158 б.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. // Халқ сўзи. 2017 йил, 21 апрель, 79 (6773) - сон.

YUQORI SINFLARDA GEOMETRIYA FANINI O‘QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLANILISHI

Imomnazarova Nurjaxon Toktaboyevna
“University of Business and Science” nodavlat universitetining matematika fani o‘qituvchisi

Izoh: Ushbu maqola o‘qituvchilarga metodik tavsiya sifatida bo‘lib, 11-sinf matematika darsligidagi “Shar va uning kesimlari” mavzusini fanlararo integratsiyalash haqida. Mavzuga doir masalalarni fizika, tarix, chizmachilik fanlariga, turmushga, iqtisodga bog‘lash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek har bir tushunchalar rasmlar yordamida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: geometriya, shar, hajm, sektor, segment, zichlik, massa, integratsiya, radius, diametr, sfera.

Использование межпредметной интеграции в преподавании геометрии в старших классах.

Преподаватель математики негосударственного университета University of business and science Имомназарова Нуржахон Токтабоевна

Аннотация: Данная статья представляет собой методическую рекомендацию для учителей и посвящена межпредметной интеграции темы «Сфера и ее разделы» в учебнике математики для 11 класса. Показаны способы связи вопросов, связанных с предметом, с физикой, историей, рисованием, браком, экономикой. Также каждая концепция показана с помощью картинок.

Ключевые слова: геометрия, сфера, объем, сектор, сегмент, плотность, масса, интегрирование, радиус, диаметр, сфера.

The use of interdisciplinary integration in the teaching of geometry in higher grades.

Teacher of Mathematics at the non-governmental University of business and science Imomnazarova Nurzhakhon Toktaboyevna

Note: This article is a methodical recommendation for teachers and is about interdisciplinary integration of the topic "A sphere and its sections" in the 11th grade mathematics textbook. Ways to connect issues related to the subject to physics, history, drawing sciences, marriage, economy are shown. Also, each concept is shown with the help of pictures.

Key words: geometry, sphere, volume, sector, segment, density, mass, integration, radius, diameter, sphere.

Ta’lim sifatiga e’tibor qaratilayotgan ayni paytda, sifatni oshirish uchun olib boradigan yo‘llar izlanadi. Ta’lim sifatini oshirishga yaxshi samara beradigan omillardan biri fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish hamda fanni o‘qitishda kreativ va zamonaviy metodlarni o‘ylab topish va amalda qo‘llashdir. Umumiy o‘rta ta’limning o‘qitish jarayoniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda va o‘rta sinflarda kreativ va zamonaviy metodlar juda ko‘p. Yuqori sinflarda esa aksincha. Shu bois fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish, zamonaviy metodlar o‘ylab topish, ko‘rilayotgan masalani real hayotga tatbiq etish yoki bog‘lash yuqori sinflarda o‘quvchilar qiziqishini oshirish bilan birgalikda ta’lim sifatini oshiradi. Hozirgi kunda fanlararo integratsiyani tubdan yo‘lga qo‘yib olsak, bu kreativ va

zamonaviy metodlar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Yuqori sinflarda matematika fanini o‘qitishda dastlab fanlararo integratsiyani yaratish kerak. Bu yillik ish rejalarni o‘quv dasturi asosida tuzish jarayonida e’tiborga olinishi kerak. Fanlarning haftalik dars soatlarining mavzularida uyg‘unlik bo‘lishi shart. Quyi sinflarda o‘qish darslarida qish fasli ifodalangan bo‘lsa, matematikada ham masalalar qish mavzusida bo‘ladi. Tabiiy fanlarda esa yurtimizda qishlaydigan qushlar haqida so‘z boradi. Fanlar orasidagi bunday bo‘g‘lanish o‘quvchilarni tashqi dunyo bilan bevosita bog‘lab boradi. Ularning dunyoqarashini shakllantiradi.

Yuqori sinflarda ham fanlararo integratsiya yo‘lga qo‘yilishi, o‘qituvchi turli fandagi mavzular orasida bog‘lanishni yo‘lga qo‘yilshiga qulaylik yaratadi. Geometriya fanida fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yishni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. 11-sinf geometriya fanidagi “**Shar va uning kesimlari**” mavzusini fanlararo integratsiya qilaylik. Dastlab geografik nuqtai nazardan qaraymiz.

O‘quvchilar yerning shar shaklida ekanligini va uni birinchi bo‘lib Abu Rayxon Beruniy aniqlaganligini muhokama qilishadi. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanish globus yordamida ko‘rsatib beriladi. Quyosh atrofida yerning aylanishini, oy esa yer atrofida aylanishi va aylanish uchun ketadigan vaqtlar aytib o‘tiladi.



O‘quvchilarga shar chizmasini va chizma asosida ta’rifini keltiramiz.

Fazoning berilgan nuqtadan, berilgan masofadan katta bo‘lmagan uzoqlikda yotgan hamma nuqtalaridan iborat jismga *shar* deyiladi. Berilgan nuqta sharning *markazi*, berilgan masofa esa sharning *radiusi* deb ataladi. Shar hajmi $V=\frac{4}{3}*\pi R^3$.



O‘quvchilar shar, sfera, segment, sektor tushunchalarini tushunishi va farqlashi uchun kitobdagi rasmlar, hayotiy misollar keltiriladi. O‘quvchilar ongida saqlanib qolishi uchun segment va sector tushunchalari tarvuz kesish misolida aytib o‘tiladi.

Shar segmenti deb uning markazidan o‘tmaydigan tekislik bilan uni kesganda hosil bo‘lgan shar bo‘laklariga aytiladi.

Shar segmentining hajmi $V=\frac{1}{3}*\pi h^2(3R-h)$



Shar sektori deb shar segmenti va uchi shar markazida, asosi esa shar segmenti asosidan iborat konusdan tashkil topgan shar bo‘lagiga aytiladi.

Shar sektorining hajmi: $V=\frac{2}{3}*\pi R^2 h$

Tarixga bog‘lasak quyidagi tushunchalarni beramiz. Abu Rayhon Beruniy “Astronomiya san’atidan boshlang‘ich ma’lumot beruvchi kitob” nomli asarining geometriyaga tegishli qismida fazoviy jismlar, jumladan, aylanish jismlari haqida qator ma’lumotlar keltirgan.

Shuningdek, Beruniy shar va sferaga ham ta’rif berib ularning qator xossalarini o‘rgangan. Xususan, u doira o‘zining qo‘zg‘olmas diametri atrofida aylantirilsa, shar hosil bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan. Sharga ichki chizilgan beshta jism – beshta

muntazam ko‘pyoq: kub, ikosaedr, oktaedr, tetraedr va dodekaedrlar haqida ma’lumot bergan. Sharni tekislik bilan kesganda hosil bo‘ladigan kesimlar **haqida batafsil ma’lumotlarni keltirgan. Jumladan, kesimda hosil bo‘ladigan katta** doira yuzi shar sirti yuzining to‘rtdan biriga tengligi, xuddi shu singari, agar sharning diametri katta doira aylanasining yuziga ko‘paytirilsa, shar sirtining yuzi hosil bo‘lishini aytib o‘tadi. Bu xossalar qadimgi yunon olimi Arximedning “Shar va silindr haqida” degan asarida ham uchraydi. Demak, Beruniy Arximedning shu asari bilan tanish bo‘lgan.

O‘quvchilar tasavvurini va tafakkurini oshirish maqsadida mavzuni real hayotdagi moddiyat bilan bog‘lash kerak. Mustahkamlash uchun dastlabki masala turmushdan olinishi ularning qiziqishlarini oshiradi.

Masala: Diametri 30 sm, po‘stlog‘ining qalinligi 3 sm bo‘lgan tarvuzning qancha qismi chiqitga chiqib ketadi. O‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi. Dastlab diametr 30 sm bo‘lgan holatda tarvuzning umumiy hajmi topiladi.

$$V=\frac{4}{3}*\pi R^3 \qquad V=\frac{4}{3}*\pi 15^3=4500\,\pi\,sm^3$$

Ikkinchi qadam po‘stlog‘ining qalinligi 3 sm bo‘lgani uchun radisidan 3 sm ni ayirib yuboramiz. 12 sm radiusli tarvuzning hajmini hisoblaymiz. $V=\frac{4}{3}*\pi 12^3=2304\,\pi\,sm^3$

Tarvuzning umumiy hajmidan po‘stloqsiz hisoblangan hajmini ayrisak tarvuzning chiqitga chiqqan qismining hajmi topiladi.

$4500\,\pi sm^3-2304\,\pi sm^3=2196\,\pi sm^3$

Navbatdagi masalani tabiiy fanlarga bog‘langan.

Masala: Shishadan yasalgan globusning radiusi 15 sm, qalinligi esa $1sm$ ga teng. Globusga ketgan shishaning hajmini va og‘irligini toping.

Masalani yechishda bizga hajmni topish formulasi, shishaning zichligi va zichlikni topish formulasi kerak bo‘ladi.

$V=\frac{4}{3}*\pi R^3$, shishaning zichligi $\rho=2{,}7gr/sm^3$, $\rho=m/V$.

$V=\frac{4}{3}*\pi R^3$, $V=\frac{4}{3}*\pi 18^3=7776\,\pi\,sm^3$,

$V=\frac{4}{3}*\pi 17^3=6550{,}7\pi\,sm^3$

Globusga sarflangan shishani hajmini topamiz:

$$V=7776\,\pi\,sm^3-6550{,}7\,\pi\,sm^3=1225{,}3\pi\,sm^3$$

Bizda shishaning zichligi va hajmi bor , $\rho=m/V$ formuladan $m=\rho*V$ kelib chiqadi. $m=2{,}7\frac{gr}{sm^3}*1225{,}3\pi\,sm^3=3308{,}31\pi$ gr

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Matematika. Algebra va analiz asoslari-11-sinf. **B.Q. Xaydarov**, Toshkent-2018.

2.https://m.ok.ru/fizikaolim/topic/62998125475203

3.https://znanio.ru/media/fazoviy-geometrik-shakllar-2773562

4.https://yandex.uz/images/touch/search?

PEDAGOGLARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINING AHAMIYATI

E.M.Alkarov

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya*. Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, o'quv jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish, o'qituvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish hamda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va loyihalar yaratish uchun raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, raqamli texnologiya, raqamli transformatsiya, raqamli didaktika, raqamli ta'lim muhiti, masofaviy ta'lim, mediata'lim, inklyuziv ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы повышения профессионального мастерства учителей, успешной организации образовательного процесса, формирования цифровой компетентности учителей, расширения возможностей учащихся по использованию цифровых образовательных технологий для логического мышления и создания проектов.*

Ключевые слова: *цифровизация, цифровые технологии, цифровая трансформация, цифровая дидактика, цифровая образовательная среда, дистанционное образование, медиаобразование, инклюзивное образование.*

Abstract. *This article discusses the issues of improving the professional skills of teachers, the successful organization of the educational process, the formation of digital competence of teachers, expanding the capabilities of students to use digital educational technologies for logical thinking and creating projects.*

Key words: *digitalization, digital technologies, digital transformation, digital didactics, digital educational environment, distance education, media education, inclusive education.*

Butun dunyoda hozir katta e'tibor ostida turgan tushunchalar bular "raqamli savodxonlik", "raqamli ta'lim", "raqamli ta'lim muhiti", "raqamli didaktika" bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda raqamlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini ishonch bilan tezkor egallab bormoqda. Jamiyat oldida endi ana shu raqamli kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tarbiyalash vazifasi turibdi.

O'quvchilarga zamonaviy ta'lim berishda raqamli texnologiyalardan foydalanish davr talabi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning muammoni hal qilish, mantiqiy fikrlash, loyihalar yaratish va jarayonni tushunish kabi professional faoliyatni talab qiladigan qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, texnologiya muhim rol o'ynaydigan, oldindan aytib bo'lmaydigan va o'zgaruvchan kelajakka tayyorlaydi. Shu bilan birga axborot texnologiyalari ta'lim islohotlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mobil qurilmalar, aqlli doskalar, planshetlar, noutbuklar, simulyatsiyalar, dinamik vizualizatsiya va virtual laboratoriyalar kabi yangi texnologiyalar yordamida o'qitish vositalarining joriy etilishi ta'lim muassasalardagi ta'limni o'zgartirdi. Bu, butun jahon miqyosida hamma uchun ta'limni integratsiyalashning asosiy mexanizmi hisoblanadi,

shuningdek, ta’lim resurslari va raqamli vositalar dars jarayonini yaxshilashga va samardorlikning oshishiga yordam beradi.

Bunday samaradorlikka erishish uchun o‘qituvchilarning kasbiy muvaffaqiyati, egallagan fazilatlari va qobiliyatlari muhim rol o‘ynaydi. Biroq raqamli muhitda o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilar tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak. Chunki, raqamli texnologiyalar ta’limni turli yo‘llar bilan yaxshilashga yordam beradigan katta imkoniyat hisoblanadi. Raqamli texnologiya o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini ishlab chiqish hamda ularni o‘quvchilarga yetkazish va hamkorlik qilish uchun yangi usullarni taqdim etadi.

Shunday qilib, samarali ta’lim barcha uchun hamma joyda mavjud bo‘lishi ilg‘or raqamli texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish albatta o‘qituvchilarga bog‘liq. Raqamli ta’lim texnologiyalari ijodkorlikni rivojlantiradi va o‘quvchilarga muvaffaqiyat tuyg‘usini beradi, an’anaviy usullardan tashqari fikrlash orqali qo‘shimcha o‘rganishni rag‘batlantiradi.

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarining kiritilishi qanday afzaliklarni olib keladi?

– ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. O‘quvchilarning kengroq ma’lumot olish uchun resurslardan foydalanishga imkoniyat yaratadi;

– raqamli texnologiya ta’limni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi va o‘quvchilarning faolligi ortadi;

– dars jarayonlarida o‘quvchilar o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan mavzularni tushunish, tasavvur qilish va oson o‘zlashtirish uchun sharoit yaratadi;

– o‘quvchilarning raqamli resurslardan mustaqil foydalanish, ko‘proq ma’umotlar olish, saralash, tahlil qilish yangilarini kashf qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ta’limni raqamlashtirish – bugungi kunning haqiqati, ta’lim muhiti esa raqamli muhitni rivojlantirish hisobiga o‘sib bormoqda va kengaymoqda: yangi raqamli ta’lim resurslari yaratilmoqda, ta’lim platformalari ishlab chiqilmoqda, ochiq onlayn kurslar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shunday ekan, ta’limning global tendentsiyalarga mos ravishda modernizatsiya qilinishi nafaqat o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yanada yaxshi tizim yaratadi, buning ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash uchun quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘qitish samaradorligini oshirish. Darsni rejalashtirish, mavzuni oson va amaliy o‘rganish, o‘quvchilarni tezkor baholash, raqamli resurslardan foydalanish, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ilg‘or texnologik yordam vositalaridan foydalangan holda o‘qitish samaradorligini oshirish mumkin.

Masofaviy ta’lim. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masofaviy ta’limni kuchaytirdi. U barcha o‘quv resurslariga oson kirishni ta’minlaydi va muassasaga o‘qituvchi bilan qulay muloqot qilish imkonini beradi. O‘qituvchilar ta’lim platformalari orqali o‘quv vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda boshqarishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim muhitini yaratish. Inklyuziv ta’lim muhiti har xil qobiliyat darajasiga ega bo‘lgan har bir o‘quvchiga bir joyda o‘rganish uchun teng imkoniyat yaratadi. Virtual sinflar, video, kengaytirilgan reallik, robotlar va boshqa texnologik

vositalar sinfni hayajonli qiladi va o‘qituvchilarga o‘quvchilar faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash imkonini beradigan hamkorlik va qiziqishni uyg‘otadigan inklyuziv o‘quv muhitini yaratadi.

Maxsus ta’lim. Jismoniy yoki o‘rganishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga tushunchalarni tez o‘zlashtirishga va darslarida faol ishtirok etishga yordam beradigan qancha yordamchi texnologiyalardan foydalanish. Nutqni aniqlash, ekranni o‘qish vositalari, Brayl displeylari va matnni nutqqa o‘tkazish yechimlari ko‘rish qobiliyati past odamlar uchun inqilobiy texnologiyalardandir. Eshitish qobiliyati zaiflar uchun, yopiq taglavhali ilovalar, ovoz kuchaytirgichlar va videokonferensiya aloqa texnologiyalari imo-ishora tili va labda o‘qishni osonlashtiradi.

Jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘quvchilarning jamoada ishlash va muloqot qobiliyatlari rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini mustaqil tashkil etish imkoniyatlardan kelib chiqib, ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

– ta’lim berishni samarali tashkil etish uchun o‘quv dasturlarini yaratishda bugungi zamonaviy axborot vositalaridan keng foydalanish;

– ta’lim berishga asoslangan raqobatbardosh, ko‘p tarmoqli Veb-saytlar tayyorlash;

– o‘qituvchilar mustaql foydalanishlari uchun uslubiy va didaktik materiallarni kreativ fikrlash, axborot madaniyatini shakllantirish maqsadlari asosida ishlab chiqish;

– ta’lim oluvchilarning axborotlardan foydalanishda uning realligini ta’minlash imkoniyatlarini oshirish;

– virtual modellar bilan kompyuter tajribalarini tashkil etish va o‘tkazish;

– maqsadli axborot izlashni tizimli tashkil etish.

Raqamlashtirilgan muhitda to‘g‘ri yo‘nalishni olishda pedagoglarga qo‘shimcha bilimlar, malakalar zarur bo‘ladi. Raqamli ta’lim va raqamli ta’lim muassasida faoliyat yuritish uchun raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalari **Yevropa modeli Digital Competenct of Educator (DigCompEdu) 22** da sanab o‘tilgan. Shulardan 6 ta yo‘nalishda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ko‘rsatib o‘tilgan. Ularning har birini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi yo‘nalish - samarali kasbiy hamkorlik uchun - raqamli kasbiy ta’lim muhitini yaratish.

Ikkinchi yo‘nalish - raqamli ta’lim resurslarini izlash, yaratish va hamkorlikda ishlash shartlarini shakllantirish.

Uchinchi yo‘nalish - raqamli asboblar jihozlarni qurollarni ta’lim samarali jarayonida qo‘llash.

To‘rtinchi yo‘nalish - samarali baholash maqsadida raqamli usullardan foydalanish strategiyasi.

Beshinchi yo‘nalish-raqamli usullar bilan o‘rganuvchilarning ta’lim olish

imkoniyatlarini yanada kengaytirish.

Oltinchi yo‘nalish – o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlanishini pedagog tomonidan nazorat qilish va kuzatish.

Ikkinchi, uchunchi, to‘rtinchi va beshinchi yo‘nalishlar raqamli ta’lim modulining o‘zgarishini tashkil qiladi. Mutaxassislar zamonaviy pedagog qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerakligini chuqur tahlil qilib bergan. Shu orqali o‘qituvchi faoliyati davomida raqamli ta’lim muhitidan samarali foydalanishni ko‘rsatgan.

Xulosa shuki, bugungi kunda ta’limining asosiy tendentsiyasi - bu raqamlashtirish. Bu boradagi ta’lim tizimining maqsadlari o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashish va raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlashdan iborat. Ta’limdagi asosiy tendentsiya raqamli inqilob bilan bog‘liq bo‘lib, u allaqachon mehnat bozorida tub o‘zgarishlarga, yangi kasblarning paydo bo‘lishiga, hamkorlikni yaxshilashga, odamlarning mas’uliyatini oshirishga, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirishga olib keladi. Kundalik hayotda raqamli texnologiyalardan foydalanish fuqarolarning zarur kompetensiyalarni egallashi va raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishda ishtirok etishi uchun motivatsiya tizimini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni.

2. J.Keengwe, M.Bhargava, B.Collis. Information technologies for education and training Handbook of Information Technology for Teaching and Learning, Springer, Berlin, Heidelberg (2002).

3. A.Karimova, Aetdinova R and Aetdinov E 2018 The Risk Management of The Continuous Pedagogical Education System Modern Journal of Language Teaching Methods 8(11).

4. E.Alkarov, “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi: islohotlar, tahlillar va tavsiyalar”, Qoraqalpoq davlat universiteti Axborotnomasi, №1, Nukus-2023.

5. https://cyberleninka.ru/article

ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI MA’LUMOTLAR BAZASINI JORIY ETISHDAGI MUAMMOLAR VA FIKRLAR

G.Joldasova
Nukus Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Raqamli asrda ta’lim muassasalari o‘qitish va o‘rganish tajribasini yaxshilash uchun elektron resurslarga tobora ko‘proq murojaat qilmoqdalar. Ushbu resurslarni boshqarish va ulardan foydalanishning asosiy jihatlaridan biri ularni samarali saqlash va tartibga solish uchun ma’lumotlar bazasini joriy etishdir. Shu bilan birga, elektron ta’lim resurslari ma’lumotlar bazasini joriy etish jarayonida turli muammolar va mulohazalarni hal etish zarur.
Kalit so‘zi: masshtablilik, interfeys, minimallashtirish, multimedia dasturlari, elektron darslik
Аннотация: В эпоху цифровых технологий образовательные учреждения все чаще обращаются к электронным ресурсам для повышения качества преподавания и обучения. Одним из основных аспектов управления и использования этих ресурсов является внедрение базы данных для их эффективного хранения и организации. В то же время необходимо решить различные проблемы и соображения в процессе внедрения базы данных электронных образовательных ресурсов.
Ключевые слова: масштабируемость, интерфейс, минимизация, мультимедийные программы, электронный учебник.
Annotation: In the digital age, educational institutions are increasingly turning to electronic resources to enhance the teaching and learning experience. One of the main aspects of the management and use of these resources is the implementation of a database for their efficient storage and organization. At the same time, it is necessary to solve various problems and considerations in the process of introducing the database of electronic educational resources.
Key word: scalability, interface, minimization, multimedia programs, electronic textbook.

Elektron resurs yaratishda ma’lumotlar xavfsizligin ta’miyinlash muhimdir. Ya’niy ma’lumotlar xavfsizligi deganimiz bu- elektron ta’lim resurslari ma’lumotlar bazasini joriy etishda asosiy masalalardan biri ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashdir. Ta’lim muassasalari talaba yozuvlari, baholash ma’lumotlari va mulkiy kontent kabi nozik ma’lumotlarni himoya qilishi kerak. Shifrlash, kirish nazorati va muntazam xavfsizlik tekshiruvlarini o‘z ichiga olgan mustahkam xavfsizlik choralarini qo‘llash ma’lumotlar buzilishi va ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun juda muhimdir.

Amalga oshirishdagi muammolar

Ma’lumotlar xavfsizligi - elektron ta’lim resurslari ma’lumotlar bazasini joriy etishda asosiy masalalardan biri ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashdir. Ta’lim muassasalari talaba yozuvlari, baholash ma’lumotlari va mulkiy kontent kabi nozik ma’lumotlarni himoya qilishi kerak. Shifrlash, kirish nazorati va muntazam xavfsizlik tekshiruvlarini o‘z ichiga olgan mustahkam xavfsizlik choralarini qo‘llash ma’lumotlar buzilishi va ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun juda muhimdir.

Masshtablilik - yana bir qiyinchilik - bu ma’lumotlar bazasi o‘sib borayotgan elektron resurslar hajmini sig‘dira olishini ta’minlashdir. Ko‘proq kontent qo‘shilganligi sababli, ma’lumotlar bazasi ortib borayotgan saqlash talablari va yuqori trafik yuklarini ishlashga putur etkazmasdan boshqarishi kerak. Ma’lumotlar bazasini loyihalash va infratuzilmani o‘rnatishda miqyoslash imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Ma’lumotlar yaxlitligi va sifati - ma’lumotlarning yaxlitligi va sifatini ta’minlash ta’lim resurslarining ishonchliligi va aniqligi uchun muhim ahamiyatga ega. Noto‘g‘ri yoki eskirgan ma’lumotlar foydalanuvchilar o‘rtasida chalkashliklarga olib kelishi va o‘rganish tajribasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ma’lumotlarni tekshirish mexanizmlarini, ma’lumotlarni muntazam tozalash jarayonlarini va versiyalarni boshqarish tizimlarini amalga oshirish ma’lumotlar bazasi yuqori sifatli va dolzarb tarkibga ega bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi.

Mavjud tizimlar bilan integratsiya - elektron ta’lim resurslari ma’lumotlar bazasini ta’limni boshqarish platformalari, talabalar axborot tizimlari va kontentni boshqarish tizimlari kabi mavjud tizimlar bilan integratsiya qilish murakkab jarayon bo‘lishi mumkin. Turli tizimlar o‘rtasida uzluksiz ma’lumotlar almashinuvi va o‘zaro ishlashini ta’minlash uchun ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish, standartlashtirilgan ma’lumotlar formatlari va mustahkam integratsiya mexanizmlari talab qilinadi.

Amalga oshirish uchun mulohazalar

Foydalanuvchi interfeysi va tajribasi – ma’lumotlar bazasining foydalanuvchi interfeysi ta’lim resurslarini oson navigatsiya qilish, qidirish va qidirishni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Intuitiv dizayn xususiyatlari, ilg‘or qidiruv funksiyalari va sozlanishi afzalliklarga ega foydalanuvchilarga qulay interfeys umumiy foydalanuvchi tajribasini yaxshilashi va ma’lumotlar bazasidan foydalanishni rag‘batlantirishi mumkin.

Foydalanish imkoniyati va muvofiqlik - ma’lumotlar bazasi WCAG yo‘riqnomalari kabi mavjudlik standartlariga mos kelishini ta’minlash barcha o‘quvchilarga, shu jumladan nogironlarga teng kirishni ta’minlash uchun juda muhimdir. Tasvirlar uchun alternativ matn, klaviatura navigatsiyasini qo‘llab-quvvatlash va semantik HTML belgilarini qo‘llash ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaxshilashi va inklyuzivlikni oshirishi mumkin.

Zaxiralash va tiklash - ma’lumotlar bazasini ma’lumotlar yo‘qolishi va tizim nosozliklaridan himoya qilish uchun mustahkam zaxira va tiklash strategiyasini amalga oshirish juda muhimdir. Inqiroz holatlarida uzluksiz vaqtni minimallashtirish va elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning uzluksizligini ta’minlash uchun muntazam zaxira nusxalari, saytdan tashqarida saqlash va falokatlarni tiklash rejalari amalga oshirilishi kerak.

Ta’lim sohasida elektron resurslarni yaratishga ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar hissa qo‘shdilar. Bu shaxslar axborotni saqlash, olish va raqamli formatlarda tarqatish usullarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Elektron resurslarni yaratishga katta hissa qo‘shgan bir nechta taniqli olimlar:

- Greys Xopper -amerikalik kompyuter olimi va kompyuter dasturlash sohasida

kashshof edi. U kompyuter dasturlash tili uchun birinchi kompilyatorni ishlab chiqish va yuqori darajadagi dasturlash tillaridan foydalanishni ommalashtirishga hissa qo‘shgan. Xopperning ishi elektron resurslarni samarali boshqarish va taqdim etish uchun zarur bo‘lgan dasturiy vositalarni yaratish uchun asos yaratdi.

- Duglas Engelbart -amerikalik muhandis va ixtirochi bo‘lib, inson va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga oid ishlari bilan tanilgan. U kompyuter sichqonchasini ixtiro qilgan va gipermatn va hamkorlikda hisoblash kabi kashshof tushunchalarni yaratgan. Engelbartning tadqiqotlari va ixtirolari elektron resurslarga kirish uchun qulay interfeyslarni ishlab chiqishga katta ta’sir ko‘rsatdi.
- Ted Nelson - amerikalik sotsiolog va faylasuf bo‘lib, u “gipermatn” atamasini yaratgan va Xanadu deb nomlanuvchi o‘zaro bog‘langan elektron hujjatlarning global tarmog‘ini tasavvur qilgan. Uning chiziqli bo‘lmagan axborotni tashkil etish va interaktiv multimedia interfeyslari haqidagi kontseptualizatsiyasi elektron resurslar va raqamli kutubxonalar dizayniga ta’sir ko‘rsatdi.
- Tim Berners-Li - Butunjahon Internetni ixtiro qilgan britaniyalik kompyuter olimi. Uning birinchi veb-brauzer, server va protokollarni yaratishi zamonaviy internet va onlayn resurslarga asos soldi. Berners-Lining ishi elektron ma’lumotlarga kirish va almashish usullarini tubdan o‘zgartirib, butun dunyo bo‘ylab foydalanuvchilar uchun yanada qulayroq bo‘ldi.
- Vinton Serf - amerikalik kompyuter olimi, ko‘pincha "Internet otalari" dan biri deb ataladi. U internet aloqasining asosini tashkil etuvchi TCP/IP protokollarini birgalikda ishlab chiqdi. Serfning tarmoq texnologiyalarini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi global miqyosda elektron resurslarni yaratish va tarqatishda muhim rol o‘ynadi.

Bu olimlar, boshqalar qatori, ta’lim va undan tashqarida elektron resurslarni yaratish va rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan. Ularning innovatsion g‘oyalari, tadqiqotlari va texnologiyalari raqamli davrga yo‘l ochdi va biz elektron formatdagi ma’lumotlarga kirish va ular bilan o‘zaro aloqada bo‘lish usullarini shakllantirishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, elektron ta’lim resurslari ma’lumotlar bazasini joriy etish tizimning ishonchliligi, xavfsizligi va foydalanish qulayligini ta’minlash uchun turli muammolar va mulohazalarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni faol hal qilish va ma’lumotlar bazasini boshqarish bo‘yicha ilg‘or tajribalarga rioya qilish orqali ta’lim muassasalari raqamli o‘quv materiallarini samarali saqlash va ulardan foydalanish uchun mustahkam platforma yaratishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Begimkulov U.Sh., Djuraev R.X., Isyanov R.G.,Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot,Toshkent: - 2011

2.Begimqulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta,,limni tashkil etish. Pedagogik ta,,lim‖ jur, № 1, 2004 – 25-25 -b

3.Zokirova F.M. va boshqalar. Elektron o‟quv – metodik majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo‟llanma. – T.:OO‟MTB, 2010,64-b

4.V.Jo‘rayev “Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyalari” Ma’ruza matnlari.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Abduxolikova Marhabo

Qashqadaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazini Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasining katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola integrativ yondashuv asosida ta’lim mazmunini boyitish parametrlari mazmuniga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada ta’lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish orqali o‘quv-biluv jarayoni natijasida samaradorlikka erishish nazarda tutilar ekan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *integratsiya, integratsiyalashgan ta’lim, integrativ yondashuv, integrativ dasturlar, mavzulararo integratsiya, ta’lim-tarbiya, dars, o‘quv materiali, darslik.*

Аннотация. *Данная статья посвящена параметров обогащения содержания образования на основе комплексного подхода. Также в статье предусматривается достижение эффективности в результате образовательного процесса через организацию образовательного процесса на основе интегрированных программ и учебников, при этом дается представление о целесообразности использования различных уровней интеграции.*

Базовые слова и фразы: *интеграция, интегрированное образование, комплексный подход, интегрированные программы, межпредметная интеграция, образование, урок, учебный материал, учебник.*

Annotation. *This article is devoted to the content of educational content enrichment paremeters based on an integrated approach. Also, the article provides for the achievement of efficiency as a result of the educational process through the organization of the educational process on the basis of integrated programs and textbooks, while it provides an idea of the expediency of using different levels of integration.*

Base words and phrases: *integration, integrated education, integrated approach, integrated programs, Inter-topic integration, education, lesson, educational material, textbook.*

Jamiyatda ta’lim darajasi va ijtimoiy ehtiyojlar o‘sib borishi bilan mutaxassisning malakasiga qo‘yiladigan talablar o‘zgarib boradi. Ko‘plab tadqiqotlar natijalariga ko‘ra yuqori malakali kasb egalariga talab tobora ortib bormoqda. Bo‘lajak mutaxassisdan keng profilli tayyorgarlik, yuksak madaniyat, murakkab ko‘nikmalarni rivojlantirish, mavjud vaziyatni tahlil qilish, mehnat jarayonida o‘z ma’naviy va ijodiy qobiliyatlarini boyitib borishni talab qiladi.

Agar ushbu talablar darajasida mutaxassis tayyorlashga erishilsa, bo‘lajak kadrning mehnatga nisbatan motivlar va rag‘batlantirishlarning tarkibi sezilarli darajada o‘zgaradi; mehnatning mazmuni, uni tashkil etish va boshqarish darajasiga ta’sir qiladi va intellektual tarkibi birinchi o‘ringa chiqadi.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini tanlashga innovatsion nuqtai nazardan yondashish, o‘quv materiallarini integrativ yondashuv asosida tanlash ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim mazmunini tanlash va muntazam boyitishning o‘ziga xos yo‘nalishlari, parametrlari belgilab berilgan.

O‘qituvchining ijodiy tafakkuri va innovatsion faoliyati o‘zgarayotgan jamiyat talablariga mos o‘quv jarayonini qayta qurishni ta’minlovchi va har qanday maqsadni samarali egallashda hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib yuzaga chiqmoqda.

O‘qituvchilar esa integrallashgan yondashuvlar haqida yetarlicha ma’lumotga ega emaslar. Bu hol istiqbolda Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va milliy dasturda ko‘zda tutilganidek, integratsiyalashtirilgan ta’limni ilmiy metodik jihatdan ta’minlagan holda tashkil etishni taqozo qilmoqda.

«O‘quv fanlarini integratsiyalashtirgan holda o‘qitish kerakmi? Agar zarur bo‘lsa nima uchun?» Berilgan javoblardan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchilar fanlarni integratsiyalash zarur, chunki bunda o‘quvchilarning dunyoqarashi o‘sadi, bilim berish samaradorligi oshadi, ularning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi, degan javobni berganlar. Shuningdek, fanlarni integratsiyalash kerak emas, faqat ayrim fanlar bo‘yichagina zarur, bunga joylarda sharoit yo‘q, deb javob bergan o‘qituvchilar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu hol o‘qituvchilarning o‘quv fanlarini integratsiyalash, integratsiyaning mohiyati haqida etarli tasavvurga ega emasliklaridan dalolat beradi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchilarning bilim saviyasi, kasb mahoratini rivojlantirish, islohotlarning mohiyatini anglash darajasini jadallashtirish, ularni shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonining boshqaruvchisi, hamkorlikdagi pedagogik faoliyatning ishtirokchisi, birinchi sub’ekt darajasiga ko‘tarish uchun keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish talab etilmoqda.

Darhaqiqat, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini demokratik tamoyillar asosida tashkil etmasdan turib, o‘quv-biluv jarayonini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish mumkin emas. Buning uchun o‘quvchilarning o‘quv-biluv jarayoniga rahbarlik qilish, dars jarayonida o‘quvchining huquqlarini hurmat bilan e’tirof etish shakllari, usullari, yo‘l va metodlari chuqur tadqiq etilishi lozim. Bunda, birinchi navbatda, darsda va darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-yoshlarda milliy-g‘oyaviy hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qodir bo‘lgan hozirgi zamon o‘qituvchisi ish faoliyatini tashkil etishning pedagogik qonuniyatlari, tamoyillarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish fursati etdi.

Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70-75 foizi ta’lim jarayonida integratsiyalashgan o‘quv dasturlari va darsliklardan foydalanib kelmoqda. Har bir mamlakat ayni shu davlatning ta’lim tizimiga qo‘yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda integratsiyaning turli darajalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda. Bizda bu sohada dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standartlarida «Ona tili va o‘qish savodxonligi + matematika + tabiat hamda inson va jamiyat» ta’lim sohalari belgilab berilgan.

Inson va jamiyat ta’lim sohasi o‘zida bir qator o‘quv fanlariga oid tushunchalarni mujassamlashtirgan. Jumladan, axloq, nafosat tarbiyasi, iqtisodiy

bilimlarga oid tushunchalar, jismoniy tarbiya, badiiy ta’lim, huquqiy bilimlar va h.k. Ta’lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish orqali o‘quvbiluv jarayoni natijasida samaradorlikka erishish nazarda tutilar ekan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

1. Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya. Bunda o‘quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya’ni oldingi o‘quv materiali keyingisini to‘ldiradi, ular orasida uzviy aloqadorlik vujudga keladi. Lekin hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Bunday integratsiya natijasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam rivojlanib, boyib boradi.

2. O‘quv dasturlarida o‘zaro uyg‘unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya. Bunda ham takror beriladigan taftalogiya asosidagi o‘quv materiallarining oldini olish uchun dasturlarda mavzulararo uyg‘unlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, 1-sinfda «Fasllar» haqida «Atrofimizdagi olam», «O‘qish», «Ona tili» darsliklarida turli xildagi, ammo, mohiyati va ma’lumot berish darajasi bir xil bo‘lgan matnlar o‘rniga faqat «O‘qish» kitobining o‘zida biron-bir faslning barcha xususiyatlarini ochib bera oladigan badiiy matn va rasmlarni berish maqsadga muvofiqdir. Buning afzalligi shundaki, o‘quvchining vaqti va kuchi tejaladi, darsliklarning hajmi ixchamlashadi va tannarxi arzonlashadi.

3. Modullashgan integratsiya. Bunday integratsiya doirasida turdosh o‘quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda, uzviy tarzda o‘quvchilarga taqdim etiladi. Jumladan, aniq fanlar blokida «Matematika», «Algebra», «Geometriya» va “Chizmachilik”ka oid bilim va tushunchalar muayyan bir tizimga solinadi va ayni bir mavzu mazkur tizim doirasida o‘quvchiga bir marta, ammo uzviy tarzda taqdim etiladi.

4. Integrativ dasturlar. Ushbu tipdagi dasturlar bir necha o‘quv predmeti yoki o‘quv fanlariga oid mavzularni uyg‘unlashtirgan holda taqdim etishni nazarda tutadi.

Bugungi kunga kelib, o‘quv rejasida o‘quv fanlarining soni maksimum darajada ko‘payib ketganligini hisobga oladigan bo‘lsak, bunday tipdagi dasturlar yaratishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Dastur va darsliklarni o‘rganish, tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflardagi Yo‘l harakati qoidalari, Odobnoma, Konstitutsiya saboqlari, Salomatlik darslariga oid tushunchalarni yagona holda «Ona tili va o‘qish savodxonligi» dasturlariga boshqa fanlarni uyg‘unlashtirish lozim. Bunday tadbirni amalga oshirish ayni bir vaqtning o‘zida ham pedagogik, ham tejamkorlik nuqtai nazardan samaralidir.

5. Mavzulararo integratsiya. Bunda ayni bir o‘quv kursi doirasida beriladigan o‘quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan o‘quv materiallari bilan uyg‘unlashtiriladi. Masalan, matematik muloqot madaniyatini shakllantirishta oid mashqlarni «Ona tili va o‘qish savodxonligi» darsliklarida, iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yunaltirilgan masalalar, mashq va matnlarni «Matematika» darsliklarida ham berish mumkin.

Ta’limga integratsiyani kiritishni amalga oshirish jarayoni quyidagilarga asoslanadi:

— ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi o‘quvchi shaxsi ustivorligini ta’minlash;

— ta’lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;

— ta’lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;

—ta’lim mazmunini ta’minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Ta’limda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy jihatdan, ham pedagogik, gigienik va fiziologik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati

1.N.S.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar–T:Moliya, 2003.

2.O‘.Tolipov, M.Usmonboeva .Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.

3. M.B.Urazova, SH.N.Eshpulatov Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014 yil.

4. Ernazarova G.O., Isroilov Q.T. Pedagogical development technology creativity of future teachers of history in the conditions of higher education/ Academicia an International Multidisciplinary Research journal, Vol.11., Vol 11, Issue 2, February 2021 (ISSN: 2249 - 7137) page

5. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.

Elektron ta’lim resurslar

1. http://www.allbest.ru - Internet resurslari electron kutubxonasi
2. http://www.istedod.uz – “Istedod” jamg‘armasi sayti.

Ishtirokchi anketasi

Muallifning F.1.Sh.	Abduxolikova Marhabo
Ish joyi	Qashqadaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazini Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasining katta o‘qituvchisi
Maqola nomi	BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA nomi	“RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI: XALQARO TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ” mavzusida XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
Telefon	998 (91) 958-41-05

ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ К МЕЖДУНАРОДНЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ PISA-25

Аекеева Гулжахон Узбекбаевна; Мырзамбетова Замира Даулетмуратовна
ст.преподаватель кафедры «Методика преподавания языков», Национальный центр обучения педагогов новым методикам, г. Нукус, Республика Каракалпакстан; Каракалпакский государственный университет имени Бердаха. г. Нукус, Республика Каракалпакстан

Аннотация: В данной статье отмечено, что участие Узбекистана в системе международного мониторинга качества общего образования PISA обусловлена следующими факторами как использования результатов международных исследований для реформирования системы образования; возможности оценить качество образования в сравнении с другими странами; качественное совершенствование национальных исследований в области образования; отработки новых методик и технологий в области оценки качества образования.
Ключевые слова: мониторинг, международное исследование, качество образование, методика, оценка.

PREPARING STUDENTS FOR PISA-25 INTERNATIONAL STUDIES

Aekeyeva Gulzhakhon Uzbekbaevna - senior teacher of the department "Methods of teaching languages", The Regional Center for Retraining and Qualification Upgrading of Public Education Staff, Nukus, The Republic of Karakalpakstan
Myrzambetova Zamira Dauletmuratovna – senior teacher. Karakalpak State University named after Berdakh. Nukus, Republic of Karakalpakstan

Annotation: This article notes that Uzbekistan's participation in the PISA system of international monitoring of the quality of general education is due to the following factors: the use of international research results to reform the education system due to the high scientific and technical quality of the research conducted; opportunities to evaluate the quality of education in comparison with other countries; qualitative improvement of national educational research; development of new methods and technologies in the field of assessing the quality of education.
Key words: monitoring, international research, quality education, methodology, evaluation.

На всех этапах истории человечества образование выполняло весьма важную функцию-подготовку кадров для всех сфер жизни общества и государства. Это предопределяло постоянную необходимость соответствия систем образования интересам и запросам общества. Образовательная система просто обязана идти в ногу со временем, поэтому создание современной школы, способной сформировать из ученика высокоразвитого и подготовленного к жизни человека, всегда остаётся приоритетной задачей всех государственных программ развития сферы образования.

Одна из важнейших задач, стоящих перед школой Узбекистана, – подготовка ответственного гражданина, способного самостоятельно мыслить и оценивать происходящее, строить свою жизнь и деятельность в соответствии с собственными интересами и с учетом интересов и требований окружающих его людей и общества в целом.

Различные современные международные и отечественные исследования в области оценки качества образования показывают, что большинство систем образования не успевают за быстро меняющейся экономикой и не дают обучающимся необходимых навыков, таких как способность к критическому, творческому мышлению, способность к совместной работе и способность адаптироваться к постоянно меняющейся технологии, используемой в быту и на производстве. Реформирование методов оценки знаний крайне необходимо для реализации любых системных изменений в сфере образования, причем сегодня нужны не просто изменения, а преобразования глобального характера. Только они могут вооружить школьников навыками, необходимыми для успеха.

В Концепции развития образования на 2019-2030 годы предусматривается участие Республики Узбекистан в следующих международных исследованиях: PIRLS, PISA, TIMSS и TALIS.

Поставленная цель — вхождение в топ-30 стран в рейтинге приведет Узбекистан к долгосрочной высокой финансовой экономике. В этом смысле связь между образованием и экономикой очень тесная. Образование служит не только рынку труда и экономике. При проведении международного исследования PISA 20 лет назад, под грамотностью в основном понимали просто чтение книги или текста. Сегодня грамотность можно увидеть в каждой отрасли. Уровень грамотности позволяет управлять процессом, обдумывать информацию. Это основные потребности, которые должны быть у каждого из нас.

Исследование PISA 2022 года, в котором Узбекистан участвовал впервые, было направлено на проверку навыков математической, читательской и естественно-научной грамотности 15-летних школьников из 81 страны. Из Узбекистана в исследовании участвовали более 7200 учащихся из 202 школ. 83% из них учились в 9-м классе, то есть заканчивали базовое образование.

Актуальность участия Узбекистана в системе международного мониторинга качества общего образования обусловлена следующими факторами: использование результатов международных исследований для реформирования системы образования ввиду высокого научного и технического качества проводимых исследований; возможность оценить качество образования в сравнении с другими странами;качественное совершенствование национальных исследований в области образования;отработка новых методик и технологий в области оценки качества образования.

PISA- это международная программа оценки учебных достижений 15 -летних учащихся по математике, чтению, естествознанию и ряду других направлений. Главный исследовательский вопрос в PISA: обладают ли учащиеся 15-летнего возраста, получившие обязательное общее образование, знаниями и умениями, необходимыми им для полноценного функционирования в современном обществе, т.е. для решения широкого диапазона задач в различных сферах человеческой деятельности, общения и социальных отношений?

Одним из направлений в исследованиях PISA является оценка уровня читательской грамотности. *Читательская грамотность* - это способность понимать и использовать те формы письменного языка, которые требуются обществу и ценятся человеком. Это способность находить и извлекать смысл из текстов различного уровня сложности. Одни читают чтобы учиться, другие, чтобы участвовать в сообществах или для удовольствия.

Читательская грамотность включает следующие моменты: найти и извлечь информацию из текста, интегрировать и интерпретировать сообщения текста, осмыслить и оценить сообщения текста.

Рассмотрим трудности каждого из них:

1.Найти и извлечь информацию из текста - между текстом вопроса и ответом нет взаимно- однозначного лексического соответствия. Ответ нельзя найти по ключевым словам вопроса. Фрагмент или фрагменты текста, содержащие ответ на вопрос, необходимо вычленить из текста, содержащего избыточную информацию, часть которой может противоречить искомой.

2. Интегрировать и интерпретировать сообщения текста- ответить на вопрос, имеющий несколько правильных ответов, найти сходство в противоположных точках зрения, различить общепринятую и оригинальную,авторскую трактовку события.

3.Осмыслить и оценить сообщения текста – задание предполагает использование внетекстового знания читателя в ситуации, допускающей разные, взаимоисключающие точки зрения.

В тестах PISA особо не обращается внимание на полученные знания. Они нацелены на проверку вашей способности применять свои знания в жизни. Поскольку сам мир требует этого от человечества. Мы видим, как страны действуют для достижения этого и ищут возможности перенять опыт государств с хорошими показателями. Мир — прекрасная лаборатория. И проведение исследования PISA даёт возможность увидеть сильные стороны разных стран и поделиться опытом с этими странами. PISA является в основном международным сообществом, и Узбекистан теперь является частью этого сообщества.

Подготовительные работы к международным исследованиям в нашей стране идут повсеместно. Учителя школ имеют большие теоритические знания по этим программам. Но с какими трудностями сталкивается учитель при подготовке к этим исследованиям?

Наше образование в основном направлено на передачу информации когнитивные навыки низкого уровня. Эта проблема непосредственно связана с предыдущей. Так как нет чёткого понимания, какие навыки мы хотим видеть в выпускнике средней школы**,** учителя видят свою задачу в основном в «прохождении учебника» от корочки до корочки, а задача ученика сводится в основном к запоминанию и воспроизведению информации (фактов, правил), заложенных в учебнике. К примеру, анализ новых учебников для начальной школы показывает, что несмотря на заявления о «модели 4К», они также в основном нацелены на развитие когнитивных навыков низкого уровня (запоминание информации, её понимание и применение**).**

PISA – уникальный мониторинг оценки качества образования в школе, фиксирующий не только результаты усвоения учебного материала, но и умение использовать полученные навыки и знания в решении жизненных проблем. В современном мире нужно уметь их использовать, например, чтобы сформулировать свою точку зрения. Ныне мало просто знать факты и правила.

Неотъемлемой частью урока русского языка и литературы является развитие четырех видов речевой деятельности. Чтение (смысловое, просмотровое, поисковое) и аудирование – одни из важных рецептурных функциональных умений, необходимых в повседневной жизни для выполнения самых разных задач, а также говорение и письмо.

Читательская грамотность рассматривается как одна из самых важных компетентностей, которая характеризует готовность человека к жизни в современном социуме. Под читательской компетентностью подразумевается достаточный уровень развития у учащихся таких навыков и умений как пользование письменной информацией: поиск необходимых текстов, их прочтение, устное и письменное представление прочитанного. Из этого следует, что читательская компетентность включает в себя такие понятия как *«минимальная грамотность»* (способность читать и писать простые сообщения), *«грамотность»* (навыки чтения, письма, счета и работы с документами), *«функциональная компетентность»* (способность человека использовать навыки и умения чтения и письма в условиях его взаимодействия с окружающим миром).

Рассмотрим для начала, чем же отличаются тестовые задания PISA от тех, с которыми мы работали до сегодняшнего дня. До сих пор мы использовали тестовые вопросы, направленные на проверку способности запоминания, то есть проверяли насколько ученик запомнил тот или иной материал. Если у ученика хорошая память, то он с лёгкостью справляется с тестовыми материалами. К тому же ограничивались только изученным материалом. При знакомстве с вопросами PISA мы обнаруживаем, что вопросы требуют более глубокого анализа, критического мышления, не всегда можно найти ответы в самом тексте «в открытом виде». Например, в тексте «Слово в тексте» имеется следующий вопрос: «Почему важно учитывать точное значение слова при использовании его в речи? Запиши и обоснуй свой ответ». Всё вышеперечисленное в полной мере относится и к текстам на русском языке для биллингвов, так как текст на русском языке является средством обучения для ознакомления с другой предметной областью. Чтение, которое ориентировано на страну изучаемого языка, соответствует созданию условий не только для воспитания уважения к чужой культуре, но и развивает чувство патриотизма к своей собственной. Чтение - это активный процесс. Ученик должен быть заинтересован в содержании текста. В нём должны пробудиться и интерес и стремление к познанию. Но далеко не секрет, что сегодня учащиеся не любят читать. И тут перед учителем возникает вопрос: как сделать чтение текста на уроках русского языка и литературы занимательным и интересным.

Возникает вопрос: ***как же готовить тогда учащихся к международным***

исследованиям? Специально готовить учащихся к заданиям PISA нельзя. Нам нужно научить учащихся критическому мышлению и креативному мышлению, (точнее «модели 4К»), умению грамотно выражать свои мысли в письменной форме.

Как же добиться этого? Нельзя сказать, что мы не готовы к этим исследованиям. Мы знаем, что есть учителя, которые регулярно используют интерактивные методы и приёмы на своих уроках, дают возможность детям свободно выражать свои мысли. И такие ученики справятся с вопросами заданий PISA. Сегодня на уроках нужно больше использовать те интерактивные методы, которые направлены на развитие критического мышления и креативного мышления. Для этого можно использовать следующие методы и приемы: ***Метод «Двухчастный дневник».***

Учащиеся должны заполнить таблицу, в которой даны цитаты из текста и прокомментировать их. Например:

Цитата	**Комментарии**
«Всё что есть у меня хорошего, всем этим я обязан ему»	

Метод «Толстые и тонкие вопросы»

Учащиеся должны записать ответы на «тонкие», где можно ответить одним предложением, и на «толстые», требующие более глубокого размышления и фактов. Например:

Тонкие вопросы	**Толстые вопросы**
Где учился Гоголь?	Какую оценку дал его произведениям Белинский?
Какую историческую повесть написал Гоголь?	О чём хотел рассказать Гоголь в повести «Тарас Бульба»?

Метод «Диктант-фантазия»

Учитель диктует начало истории (текста). Затем ученикам предлагается продолжить историю одним-двумя предложениями. Ученикам следует расширить и приукрасить продиктованное. В конце упражнения каждый учащийся зачитывает свой вариант истории, дополненный одним-двумя предложениями, затем учитель читает вслух сам оригинал.

«Читай и угадывай»

Учащиеся получают задание читать и угадывать. Нужно взять линейку или лист бумаги, и положить на текст, оставив открытой лишь часть строки. Затем нужно попытаться угадать слова и прочесть несколько предложений. После этого, учащиеся читают и пересказывают весь текст.

«Текст с пропущенными словами»

Учитель раздает лист с текстом, где пропущены слова. Учащиеся работают в парах и заполняют пропуски самостоятельно. Работа с текстовым материалом при правильной организации, в достаточной мере развивает

учащихся, развивает интерес к изучаемому языку, повышает мотивацию к предмету, к процессу чтения. Таких методов множество.

Такой подход так или иначе будет готовить учащегося к будущей самостоятельной жизни, а такая подготовка и есть своего рода подготовка к будущим PISA исследованиям. Основная цель исследования PISA – оценить, обладают ли учащиеся 15-летнего возраста знаниями, умениями и компетенциями, необходимыми им для полноценного функционирования в современном обществе, т. е. для решения широкого круга задач в различных сферах человеческой деятельности, общения и социальных отношений. Читательская грамотность–способность человека понимать и использовать письменные тексты, размышлять по теме текста и заниматься чтением для того, чтобы достигать своих целей, расширять свои знания и возможности, участвовать в социальной сфере, формировать свою гражданскую позицию.

Сегодня задача каждого педагога - это проведение качественных уроков с применением интерактивных методов и приёмов, направленных на развитие логического, критического мышления и креативного мышления. Четко и творчески распланированный, правильно организованный учебный процесс должен стать тем фундаментом, опираясь на который наши ученики добьются высоких показателей в международных исследованиях PISA-25. Автор исследования PISA Андреас Шляйхер говорит об этом так: «Качество образования никогда не может быть выше качества учителя».

И задача учителя - поддержать интерес учащихся к чтению и всесторонне подготовить их к достойному принятию участия в мониторинге PISA-2025.

Использованная литература

1. Задачи на грамотность чтения (сборник задач). Москва, 2009

2. Презентации по PISA Ковалевой Г.С., кандидата пед.наук, руководителя Центра оценки качества образования Института стратегии развития образования Российской академии образования.

3. Ўқитувчилар саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотлар дастури. Қўлланма. Тошкент -2019.

2. Центр оценки качества образования ИСРО РАО.http://centerok

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TALIM MUHITINI YARATISHNING AHAMIYATI

To‘rabayev Orif Abdumajid o‘g‘li
Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i. Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

“Dunyo raqamlar asosida qurilgan”
Pifagor - Yunon faylasufi

Annotatsiya. Maqolada siz ta’lim jarayonida raqamli talim muhitini yaratishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Umum ta’lim maktablarida bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni sezilarli ravishda oshgan. Ma’lumotlar oqimi misli ko‘rilmagan hajimda katta va ularnning qaysi biri ta’lim jarayoniga ijobiy-yoki salbiy ta’sir qilishi haqida ko‘plap munozaralar haligacha davom etmoqda. Maqolada asosan pedagoglar va ta’lim oluvchilarga XXI-asr texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim resursi, raqamli texnologiyalar, inson kapitali, inson kapitali, kundalik.com, eMaktab.

Абстракт. В статье подчеркивается важность и эффективность создания цифровой среды обучения во время занятий. Сегодня роль современных технологий в общеобразовательной школе значительно возросла. Поток информации беспрецедентно велик, и до сих пор ведется много споров о том, какой из них окажет положительное или отрицательное влияние на образовательный процесс. В статье главным образом описаны методы эффективного использования технологий XXI века для педагогов и учащихся.

Ключевые слова: цифровой образовательный ресурс, цифровые технологии, человеческий ресурс, kundalik.com, eMaktab.

Abstract. The article emphasizes the importance and effectiveness of creating a digital learning environment during classes. Today, the role of modern technologies in elementary schools has increased significantly. The flow of information is unprecedentedly large, and there are still many debates about which of them will have a positive or negative impact on the educational process. The article mainly describes the methods of effective use of 21st-century technologies for educators and students.

Keywords: digital educational resource, digital technologies, human resource, kundalik.com, eMaktab.

Kirish. Ma’lumki, 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoniga 1-ilovasiga muvofiq:

- ✓ Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash.

✓ Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta’minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish.

✓ 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish.

✓ Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratishhaqida to‘xtalib o‘tilgan va raqamli ta’lim muhitini yaratishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Avvalam bor raqamli ta’lim nima ekanligi va ta’lim sohasida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida savol tug‘iladi. **Raqamli ta’lim resursi**(RTR)-ta’lim berishda kompyuterni talab qiladigan mahsulotidir. RTRdan foydalanish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlar yaratadi. RTR - bu o‘qitishda vizualizatsiyaning tezkor vositasi, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda, maktab o‘quvchilarining so‘rovi va monitoringini tashkil etish va o‘tkazishda, shuningdek uy vazifalarini kuzatish va baholashda, diagrammalar, jadvallar, grafiklar, belgilar bilan ishlashda yordamchi, matnlarni tahrirlash va talabalarning ijodiy ishlari xatolarni tuzatishda operativ vosita hisoblanadi.[14]

Ta’lim sifatini oshirish uchun raqamli ta’lim muhiti bir qancha afzalliklarini ko‘rishimiz mumkin. Umum ta’lim maktablarida dastlab Kundalik.com (eMaktab) platformasiga o‘tishi dastlab pedagoglarda amaliy muammolarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Natijada muayyan vaqt o‘tishi bilan pedagoglar bu platformani yaxshi o‘zlashtira oldilar va bugungi kunda ortiqcha qog‘ozbozlik va hisob kitoblardan xalos bo‘lishdilar va har bir ta’lim oluvchining qaysi fanda qanaqa o‘zlashtirayotgani yoki tengdoshlaridan ortda qolayotganini shu platforma orqali ortiqcha qiyinchiliklarsiz aniqlash imkoniyatini yaratdi.

eMaktab platformasi ta’lim muassasasining biznes kartasi, ma’muriyat xodimlari, aloqa uchun ma’lumotlar, yangiliklar, huquqiy va boshqa hujjatlar, e’lonlar, fotogalereya va forum. Maktab sahifasi va uning bo‘limlarini ommalashtirish uchun sozlash mumkin.



	5	4	3	2 va 1	Bilimlar sifati foizi	Reyting
v	8	67	76	8	47,17	13
	19	87	46	8	66,25	9
	10	78	59	9	56,41	10
	25	113	20	3	85,71	8
	8	74	63	6	54,30	11
	128	33	3		98,17	2
	50	92	12	2	91,03	7
	46	99	8	1	94,16	6
	11	68	68	12	49,69	12
	105	49	5		96,86	4
	94	61	9		94,51	5
	101	52	2		98,71	1
	119	51	3	1	97,70	3

[14] N.V. Juraeva RAQAMLI TA’LIM RESURSLARI VA ULARNING TAQDIMOTI VA MAZMUNI BO‘YICHA TURLARI Чирчиқ давлат педагогика институти, Чирчиқ, Ўзбекистон Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 3 | 2021 77-B

O'zlashtirish		Soni	Sinfda %
A'lochilar		4	30,77%
Yaxshi o'zlashtruvchilar	Jami	1	7,69%
	Bitta «4» li	1	7,69%
Muvaffaqiyatlar	Jami	8	61,54%
	Bitta «3» li	3	23,08%
yaxshi o'zlashtirmaydigan		0	0%

Buning natijasida o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasida ta’lim oluvchining imkoniyatlari, muofaqiyyatlari, qiziqishlari va kamchiliklari to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarni ko‘rib chiqish o‘rganish va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga ta’lim oluvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti yaratilishiga asosiy sabab bo‘lmoqda.

Raqamli talim muhitining ta’lim jarayonidagi afzalliklari:

- ✓ Ma’lumotlarning to‘g‘ri va aniqligi (aftomatik hisob yuritilishi)
- ✓ Ortiqcha sarf harajatlarning keskin kamayishi (qog‘oz jurnalga nisbatan)
- ✓ Ma’lumotlar xavfsizligi va ishonchliligi (jurnal yo‘qolib qolmaydi va fan egasining o‘rniga hech kim baho qo‘yolmaydi)
- ✓ Bir vaqtning o‘zida keng auditoriya foydalana olishi (maktab ma’muryati, fan o‘qituvchilari, ota-onalar yoxud ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar va ta’lim oluvchilar)
- ✓ Ta’lim oluvchilarni internet tarmog‘idan unumliy foydalanish ko‘nikmasini shalillantirishda yordam beradi.

Nobel mukofoti laureati Teoder Shuls ta’kidlaganidek “Odamning bilim va malakalari kapitalning o‘ziga hos shaklidir. Odam iqtisodiy qiymatga ega bilim va malakalarga ega bo‘lgani uchun mulkdorga aylanadi”[15] degan edi. Tabiy resurslar, iqtisodiyotning sanoat va agrar sektorlari, oltin valyuta zahiralari va boshqa milliy boylikar doimiy kamayib boruvchi va jarayon hisoblanadi. Biz insonni kapital darajasiga chiqara olsak iqtisodiy sohada kuchliy davlatlar qatoriga kirgan bo‘lar edik. Bugungi kunda jamiyatimizda ro‘y berayotgan har qanday kamchiliklar ta’lim sohasiga borib taqaladi. Bugun biz maktablarni quyi pag‘onadan yuqori darajaga olib chiqish masalalariga jiddiy yondashmasak, pedagoglarning maqomi va ilmiy salohiyatiga jiddiy e’tibor qaratmasak muammolar o‘z-o‘zidan ko‘payib boraveradi. Inson kapitalini shakillantirishda dastlab ta’lim jarayonida raqamli talim muhitini samarali joriy qilish va asosa ijrochilar ya’niy pedagoglarning zamon talablariga mosh keladigan ko‘nikmalarni rivojlantirish va mavjud muammolarga ijobiy yechim topa olish, raqamli ta’lim resurslarini amalda qo‘llay oladigan kadrlar salmog‘ini oshirishimiz kerak.

Xulosa o‘rnida **Raqamli talim**-ta’lim jarayoni ishtirokchilariga, ta’lim sifatini oshiruvchi zamonaviy vositalar hisoblanadi desak adashmagan bo‘lamiz. Bugungi kunda yoshlarimizning zamonaviy bilimlarni puxta o‘rganishi uchun elektron kutubxona, elektron ko‘rgazmali qurollar kutubxonasi, elektron ensiklopediya, multimedia darsliklari, virtual laboratoriyalardan foydalanaoladigan malakali pedagog kadrlarga ehtiyoj katta hisoblanadi.

[15] Ibragimov.X, Quronov M, Umumiy pedagogika darslik “Sahhof” 2023. 11-B

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoniga
2. Ibragimov.X, Quronov M, Umumiy pedagogika darslik “Sahhof” 2023.
3. N.V. Juraeva RAQAMLI TA’LIM RESURSLARI VA ULARNING TAQDIMOTI VA MAZMUNI BO‘YICHA TURLARI Чирчиқ давлат педагогика институти, Чирчиқ, Ўзбекистон Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 3 | 2021 77-B

YANGI AVLOD TEXNOLOGIYA FANI DARSLIKLARIDA UZVIYLIKNING AHAMIYATI

O‘ktamjon Toxirov
Yangi asr universiteti, Umumta’lim fanlari kafedrasi dotsenti

Ta’lim sohasi mamlakat taraqqiyotining eng muhim strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Strategik maqsad va vazifalarni aniq belgilab olinishi ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga asos bo‘ladi. Bu esa ta’lim oluvchilar uchun zamonaviy talablar asosida sifatli ta’lim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Ta’lim tizimini jamiyatda va xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda bugungi kun o‘quvchisi dunyoqarashini inobatga olgan holda modernizatsiyalash dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu borada ta’limning uzviyligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2020-yilning 23-sentabrida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida **maktabgacha ta’limdan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’limning uzviyligini, mazmun jihatdan ketma-ketligini ta’minlashga** alohida ahamiyat berilgan.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan fan dasturlarini mazmunan **uzluksiz va uzviylik tamoyili** asosida tayyorlashga erishsak, ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir qiladigan pedagogik tizimni amaliyotga joriy eta olgan bo‘lamiz. Ma’lumki, samarali dars o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liq. Bu tayyorgarlik esa uzluksizlik va uzviylik tamoyiliga asoslanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan Texnologiya fani darslari uzluksizligi fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Bu jarayonda uzviylikni ta’minlash muhimdir. Uzviylik – bog‘liqlik, bog‘langanlik, chambarchas bog‘langanlik kabi tushunchadir.

Texnologiya fanida uzviylikni ta’minlash quyidagi shaklda keltirilgan (1-shakl).

1-shakl



1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “**Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida**”dagi 187-sonli qarori 1-ilovasining 4-bobida Davlat ta’lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi belgilangan: *umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi; umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi; umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari; baholash tizimi*.

2. Qarorning 3-ilovasi 18-§ da umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Texnologiya o‘quv fanini o‘rganish bosqichlari, maqsad va vazifalari, malaka talablari belgilangan.

Texnologiya fanining **maqsadi** – zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, innovatsion va milliy xalq hunarmandchiligi usullari asosida ishlab chiqarishni o‘rgatish orqali o‘quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, ongli ravishda kasb tanlashga yo‘llashga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Texnologiya fani umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 3 ta yo‘nalishda hududlar imkoniyati va milliy xalq hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha tanlov asosida amalga oshiriladi.

1. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi
2. Servis xizmati yo‘nalishi
3. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi

Bu yo‘nalishlarni o‘qitilishi natijasida o‘quvchilar turli asbob-uskunalar, texnologik xaritalar bilan ishlash, ro‘zg‘orbop va xaridorgir buyumlarni ishlab chiqarishni, qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil qilishni o‘rganish bo‘yicha nazariy, amaliy, loyiha ishini tayyorlashga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar hamda kompetensiyalarga ega bo‘ladigar.

Yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tilgan mavzular asosida sohalarga oid kasblar bilan tanishadilar.

3. Qarorda va yangidan ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturida o‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan **domenlar** belgilab berilgan. Bu yerda **domen** tushunchasi – bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar majmui sifatida qaraladi.

Fanga oid *estetik madaniyat va ijodkorlik; shaxsiy rivojlanish va o‘zini-o‘zi asrash; amaliy faoliyat kompetensiyalar* belgilangan.

Texnologiya fanidan Milliy dastur ishlab chiqilishi natijasida fanning o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar kiritildi. Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturi dastlabki loyihasi, Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 9-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturini dastlabki loyihasini tasdiqlash va tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 298-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlandi hamda bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o‘tkazildi.

Texnologiya fani o‘quv dasturi, domenlar (bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya), malaka talablari asosida ta’lim turlari asosida fanning uzviyligi ham tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Ta’lim turlari bo‘yicha Texnologiya fani uzviyligi tahlili

Ta’lim turlari	Yo‘nalish va obyektlar	Maqsadi	Jarayon	Natija
Maktabgacha ta’lim va tarbiya	Mashg‘ulot va o‘yin holatida	Bola shaxsini sog‘lom va yetuk, ma’naviy, aqliy hamda jismoniy rivojlanishini mustahkamlash orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.	Bola shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bola yoshiga mos holda amaliy va o‘yin mashg‘ulotlarini	Bolaning ijtimoiy moslashuvini va ta’lim olishni davom ettirishga tayyorgarligini ta’minlash orqali umumiy o‘rta

			noan’anaviy usullar orqali tashkil etiladi.	ta’limga tayyorlashga erishiladi.
Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim	Texnologiya fani (barcha yo‘nalishlari)	Zamonaviy texnika va texnologiyalari, milliy xalq hunarmandchiligi usullarini o‘rgatish orqali o‘quvchi texnik tafakkuri va ishlab chiqarish mustaqilligini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish.	Nazariy, amaliy va loyiha ishi mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda ijtimoiy hayot uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, kompetensiyalarini shakllantirish.	Kasb-hunar ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishini ta’minlashga yordam beradigan zarur kompetensiyalar shakllantiriladi.
Professional ta’lim	Kasb hunar maktablari (umumiy)	O‘quvchilarning tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishini, amaliy ko‘nikma va malakasini rivojlantirilishini ta’minlash.	O‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, mustaqil tanqidiy fikrlashni, shaxsga hamda kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishni ta’minlash.	Kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha ishlash hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish huquqiga ega bo‘ladi.
Oliy ta’lim	Texnologiya ta’lim yo‘nalishi	Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash.	Xalqaro tajribalar asosida texnologiya ta’limida ilg‘or standartlarini joriy etish, dasturlarda nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish	Yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi.
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim	Texnologiya ta’limini rivojlantirish misolida	Texnologiya ta’limini modernizatsiyalash	Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.	Ilmiy-tadqiqot natijalari asosida fan yanada rivojlantiriladi.
Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	Texnologiya (pedagogik, nompedagogik) ta’lim yo‘nalishi misolida	Kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni zamonaviy talablar asosida chuqurlashtirish hamda yangilab borish.	Barcha sohalardagi tarkibiy o‘zgarishlarni inobatga olgan holda kasbiy faoliyatning qo‘shimcha turlari (turdosh yo‘nalishlarga mos holda) amalga oshiriladi.	Hududlar kesimida oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ta’minlanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim	Ilmiy, texnikaviy va boshqa yo‘nalishlar misolida	Bolalar va o‘smirlarning iste'dodi hamda qobiliyatini rivojlantirish, ularning manfaatlari, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish.	Barkamol avlod markazlarida amaliy holda ilmiy, texnikaviy to‘garaklar tarzida amalga oshiriladi.	Bolalarning ma'naviy, aqliy hamda jismoniy rivojlanishini mustahkamlash va atrof muhitga ongli munosabat shakllantiriladi.

Hozirda fanning Milliy o‘quv dasturi asosida darsliklarning yangi avlodi yaratilmoqda. Maktab o‘quvchilari uchun tayyorlangan yangi darsliklarda sinflar kesimida "Oddiiydan murakkabga" tamoyili asosida belgilangan yo‘nalishlar uzviyligi ta'minlangan. Shuningdek, XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rgatiladi (misol tariqasida 2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sinflar kesimida Texnologiya fani uzviyligi

1-sinf	**2-sinf**
turli materiallardan (barg, qush, hayvon, parranda) shakllar yasaydi; tabiiy urug‘larda (naqsh, parrandalar, qo‘ziqorin) shakllar yasaydi; qog‘ozni buklash texnikasi asosida mashina, kema, samolyot yasaydi, sodda ko‘rinishdagi tabriknomalar tayyorlaydi; mustaqil oddiy shakllarni yasaydi; kasb turlarini biladi.	mozaika usulida hayvon va qushlarni yasaydi; applikatsiya usulida buyumlar (manzara, hayvon, parranda) yasaydi; urug‘lardan turli (manzara, meva, poliz ekinlar) shakllar yasaydi; turli bayramlar uchun niqoblar tayyorlaydi; polimer materiallardan suvenir yasaydi; kasb turlarini biladi.
5-sinf (Texnologiya va dizayn yo‘nalishi bo‘yicha)	**6-sinf (Texnologiya va dizayn yo‘nalishi bo‘yicha)**
zamonaviy texnika va texnologiya turlarini o‘rganadi; yog‘och, metal va kompozit materiallar bilan tanishadi, ularning bir-biridan farqlay oladi; materiallarga texnologik ishlov beradi va buyum yasaydi; texnologik xarita tuza oladi va u asosida sodda buyumlar tayyorlaydi; buyumlarni yasashda texnologik xaritadan foydalanadi; loyiha ishini bajarish tartibini ishlab chiqadi va uni amaliy mashg‘ulotda qo‘llaydi; elektr montaj ishlari bilan tanishadi; robototexnika va elektronika asosida sodda harakatlanuvchi robotlar yig‘adi; sohaga oid kasb-hunarlarni farqlaydi.	zamonaviy texnika va texnologiya turlarini inson hayotidagi o‘rni hamda ulardan foydalanish ish usullarini o‘rganadi; Buyum tayyorlashda yog‘och, metall va kompozit (polimer) materiallarga ishlov berish texnologiyasini qo‘llay oladi; sodda elektr montaj ishlarini bajara oladi; zamonaviy asbob-uskuna va moslamalardan foydalanishni o‘rganadi, yog‘och, metall va kompozit (polimer) materiallarning fizik, mexanik va texnologik xossalarini farqlay oladi; harakatlanadigan robot yasaydi; sohaga oid kasb-hunarlarni farqlaydi.
5-sinf (Servis xizmati yo‘nalishi bo‘yicha)	**6-sinf (Servis xizmati yo‘nalishi bo‘yicha)**
sabzavotlarga ishlov berish usullarini texnologiya asosida bajaradi; issiq ichimliklarni texnologiya asosida tayyorlaydi; texnologik xarita tuza oladi va u asosida taomlar tayyorlaydi; materiallarga texnologik ishlov beradi va sodda buyum yasaydi; tikuvchilik haqida bilimlar oladi, ip va gazlama turlari bilan tanishadi; asbob-uskuna va moslamalarni o‘rganadi; sodda	xamirli taomlarni tayyorlaydi, dasturxonga tortish qoidalariga amal qiladi; parxez taomlarni tayyolaydi; tikuv mashinasining asosiy mexanizmlarini biladi; kichik nosozliklarini bartaraf qila oladi; buyumni texnologiya asosida tikadi; buyum tikishda zardo‘zlik san‘ati ish usulini qo‘llaydi; texnologik xarita asosida buyum

usullarda bichish va tikish, o‘lchov olish va hisoblash ishlarini o‘rganadi; loyiha ishini bajarish tartibini ishlab chiqadi va uni amaliy mashg‘ulotda qo‘llaydi; robototexnika va elektronika asosida sodda harakatlanuvchi robotlar yig‘adi; sohaga oid kasb-hunarlarni farqlaydi.	yasaydi; andaza tayyorlaydi, modellashtiradi; eskizni loyihalaydi; milliy xalq hunarmandchiligi ishlarini o‘rganadi; harakatlanadigan robot yasaydi; sohaga oid kasb-hunarlarni farqlaydi.
5-sinf **(Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi bo‘yicha)**	**6-sinf** **(Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi bo‘yicha)**
agrotexnologik tadbirlarni o‘rganadi; qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalardan foydalana oladi; agrotexnik mashinalar bilan tanishadi; tuproq shudgorlash mulchalash ishlarini o‘rganadi; sabzavot va poliz ekinlarining navlari va guruhlari, urug‘chilik haqida ma’lumotlar oladi; zararkunanda va begona o‘tlarga qarshi kurashish usullarini biladi; bog‘dorchilik bo‘yicha gulchilik ishlarini o‘rganadi; chorvachilik sohasi bilan tanishadi; qoramolchilik, qo‘ychilik, parrandachilik chorvachiligi bilan tanishadilar; yem-xashak tayyorlashning zamonaviy (gidroponik kabi) usullarini o‘rganadi; obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish; tomorqa ekinlarini yetishtirish ishlarini o‘rganadi; sohaga oid kasb-hunarlar bilan tanishadi.	tuproqning turi va sifatini, hosildorligini aniqlash usullarini biladi; mahalliy hududda keng tarqalgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining agrotexnika jarayonlari, o‘simliklarni parvarish qilish va oziqlantirish qoidalarini o‘rganadi; issiqxona tayyorlash texnologiyasini o‘rganadi; qishloq xo‘jaligi asbob-uskunasi, avtomatlashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan hamda raqamlashtirilgan mexanizm va mashinalarni o‘rganadi; ularning tuzilishi va ishlash tamoyillarini o‘rganadi; mahalliy hududda kengroq tarqalgan bog‘dorchilik, uzumchilik tadbirlari va qo‘llaniladingan mashina va moslamalar haqida bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarni egallaydi; chorva hayvonlarini saqlash va parvarish qilishni o‘rganadi; hayvonlarga ozuqa tayyorlash va ularni boqish usullarini o‘rganadi; otlar, quyonlar o‘stirish, baliqchilik xo‘jaliklaridagi ish jarayonlarini o‘rganadi; sohaga oid kasb-hunarlar bilan tanishadi.

Texnologiya fani yangi avlod darsliklari mazmunida o‘quvchilarda 4K ko‘nikmalarini ya’ni, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash, ijodkorlik (kreativlik) va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan.

Hozirgi kunda Texnologiya fani yangi avlod darsliklari o‘quv-metodik majmua sifatida yaratilmoqda. Ya’ni, darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat.

Bugungi kunda Texnologiya fanining maqsad va vazifalari, mazmuni va o‘qitish metodikasi yangi aspektda ishlab chiqilib, fanni rivojlantirish bo‘yicha yaratilgan konsepsiyasi asosida yangilanib bormoqda.

Texnologiya fanining rivojlanishi nafaqat o‘quv dasturlarini o‘zgarishi, darsliklarning yangi avlodlarini yaratilishi bilan cheklanib qolmagan. Balki, davlatimiz rahbari ta’kidlagandek, “Maktablarda kasb-hunar ustaxonalari tashkil etiladi, Ular jihozlanadi va zarur ashyolar bilan ta’minlanadi. Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug‘i, bilmagani muommo”. Shu maqsadda fanni rivojlantirish va moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-241-sonli qarori

qabul qilingan. Qarorning 7-bandi 5-6-xatboshida “Xalq ta’limi vazirligi (B.Saidov), Qurilish vazirligi (B.Zokirov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.Xusanov) 2022-yil 1-avgustga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining **texnologiya fani ustaxonalari hamda kasb-hunar amaliyoti xonalari namunaviy loyihalarini** ishlab chiqish va tasdiqlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining **texnologiya fani ustaxonalarini hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarini bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlash** choralarini ko‘rish” vazifalari belgilangan.

Shuningdek, Prezidentimiz tashabbuslari bilan o‘quvchilarga hayot amaliyoti bilan bog‘liq kasblarni o‘rgatish ham belgilab berilgan. Belgilab berilgan kasblar ro‘yxatiga 64 ta kasb kiritilgan bo‘lib, shundan 51 ta kasb aynan Texnologiya fanida o‘rgatiladi (1-slayd).

1-slayd



Yangi avlod Texnologiya fani darsliklarida uzviylikni ta’minlashda nafaqat mahalliy tajribalar balki xorijiy tajribalar ham muhim hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Izrail, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida ham Texnologiya fani umumiy ta’limning asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Shu bois, bugungi kunda Texnologiya fanini o‘zlashtirgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilari sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injiniring, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik bazalarining yanada rivojlanishi, boshqacha qilib aytganda yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida “drayver” rolini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (23.09.2020.) – T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-241-sonli qarori. – T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023 y., 07/23/422/0994-son.

3. Tohirov O‘.O. Texnologiya o‘quv fani davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturini ta’lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017. - 72 b.

4. Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturi. – T.: RTM, 2023.-80 b.

5. Tohirov O‘.O. va boshqalar. Texnologiya: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2020.-240 b.

6. Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A., Tohirov O‘.O. va boshqalar. Texnologiya: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: “RTM”, 2021.-240 b.

FIZIKA DARSLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARI, AMALIY TOPSHIRIQLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Ximmatova J.K, Jumaniyazov A.U
SVPYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi;
SVPYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim jarayonida vertual laboratoriya ishlari, amaliy topshiriqlar tajribalarining yangi bilimlar manbai, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari, o‘qitish usuli, o‘rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish – illustrasiya qilish, o‘quvchilarning fizikaviy tafakkurini rivojlantirish, amaliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish vositalari ekanligi maqolada yoritib berishga harakat qilingan.
Kalit so‘zlar: Laboratoriya tajribalari, eksperimental tajriba, deduktiv xarakter, fizikaviy qonuniyat, jarayon, fizikaviy tushuncha, dars, fizik hodisa.

Аннотация: В статье разъясняется мысль о том, что виртуальные лабораторные работы в учебном процессе являются инструментом и источником новых знаний, фундаментальных положений физических теорий, метода обучения, визуализации – иллюстрации изучаемых явлений, развития физического мышления учащихся, а также развития практических навыков и умений.
Ключевые слова: Лабораторные эксперименты, экспериментальный опыт, дедуктивный характер, физический закон, процесс, физическое понятие, урок, физическое явление.

Abstract: The article explains the idea that virtual laboratory works in the educational process are a tool and a source of new knowledge, fundamental provisions of physical theories, a method of teaching, visualization - illustration of the studied phenomena, development of physical thinking of students, as well as the development of practical skills and abilities.
Keywords: Laboratory experiments, experimental experience, deductive character, physical law, process, concept, lesson, physical phenomenon.

Fizika eksperimental fandir. Fizika - fani va fizika - o‘quv predmeti o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud bo‘lganligi sababli, fizikani o‘qitish jarayoni tajribaga asoslangan bir nechta fundamental qoidalar asosida o‘quvchilar uchun yangi fizik tushunchalar va nazariyalarni izchil shakllantirishdan iborat.

Fizikadan o‘quv jarayonida tajribadan foydalanish bizga quyidagilarga imkon beradi: · o‘rganilayotgan hodisalarni pedagogik jihatdan o‘zgartiriladigan shaklda ko‘rsatish va shu bilan ularni o‘rganish uchun zarur eksperimental bazani yaratish;
· fanda o‘rnatilgan qonun va qonuniyatlarni talabalar uchun qulay shaklda ko‘rsatish va ularning mazmunini o‘quvchilarga tushunarli qilish;
· o‘qitishning ko‘rgazmaliligini oshirish;
· talabalarni fizik hodisalarni o‘rganishning eksperimental usuli bilan tanishtirish;
· o‘rganilayotgan fizik hodisalarning texnika, texnologiya va kundalik hayotda

qo‘llanilishini tushuntirish;
· o‘quvchilarning fizika fanini o‘rganishga qiziqishini oshirish;
· bilim va eksperimental ko‘nikmalarni shakllantirish.
Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda o‘quv eksperimenti ikki turga bo‘linadi: ***ko‘rgazmali (namoyish)va laboratoriya(amaliy topshiriq).***

Laboratoriya tajribasining tuzilishi

Laboratoriya eksperimentini o‘qituvchi va talabalar faoliyatining xarakterini to‘liq aks ettiruvchi tashkiliy xususiyatlariga ko‘ra tasniflash qulay. Ushbu tasnifga ko‘ra o‘quv laboratoriya tajribasining to‘rt turi mavjud:
· frontal laboratoriya ishi;
· ustaxonalar;
· uyda kuzatishlar va tajribalar;
· eksperimental vazifalar.

Ko‘rgazmali eksperiment o‘qitish usuli sifatida illustrativ usullarga mansub. Ko‘rgazmali eksperimentda asosiy boshlovchi o‘qituvchi bo‘lib, u nafaqat o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, balki tajribalar namoyishini ham o‘tkazadi. Ko‘rgazmali eksperimentning sezilarli kamchiligi bor - o‘quvchilar qurilmalar bilan ishlamaydilar (garchi ularning ba’zilari ko‘rgazmalar tayyorlashda ishtirok etishlari mumkin).

Maktab fizika kursining har bir mavzusidan majburiy ko‘rgazmalar ro‘yxati dasturda mavjud. U, birinchi navbatda, zamonaviy fizikaning eksperimental bazasini tashkil etuvchi tajribalarni o‘z ichiga oladi, ular fundamental deb ataladi, bular, birinchi navbatda, Galiley, Kavendish, Shtern, Ersted, Faraday, Gers, Stoletov va boshqalar. Ulardan ba’zilari maktab sharoitida yetarlicha ishonchlilik bilan namoyish etilishi mumkin, boshqalari esa murakkab va qimmatbaho jihozlarni talab qiladi (Lebedev, Milliken, Rezerford tajribalari) va shuning uchun ularni faqat kino, televizor yoki kompyuter texnologiyalari yordamida modellashtirish mumkin.

Bu tajribalarni sahnalashtirish imkon qadar aniq, tushuntirish esa o‘ylangan bo‘lishi va tajribaning nafaqat fizik mohiyatini, balki uning fizika fanlari tizimidagi o‘rnini ham aks ettirishi kerak.

O‘rganilgan fizik hodisalar va nazariyalarni texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo‘llashnilishini ko‘rsatish. Bunday tajribalarni namoyish qilish nafaqat fizika va texnika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, balki talabalarni zamonaviy texnologik jamiyat sharoitida hayotga tayyorlash uchun ham zarurdir. Texnik va texnologik xarakterdagi ob’ektlar bilan tanishish fizikani o‘rganish motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, talabalarning ilgari o‘rganilgan jismoniy hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi.

Jismoniy hodisalar va nazariyalarga kognitiv qiziqishni qo‘zg‘atish va faollashtirish uchun. Samarali ko‘rgazmali eksperiment o‘quvchilarning faol kognitiv faoliyatiga turtki bo‘lishi mumkin, ayniqsa muammoli xarakterga ega bo‘lsa. (Masalan, po‘lat ignaning suv yuzasida suzishini namoyish qilish suyuqlikning sirt qatlamining xususiyatlarini o‘rganish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatni yaratadi).

Vertual laboratoriyalarni tashkil etishning boshqa uslubiy talablari quyidagilardan iborat:

1. Talabalar tajriba o‘tkazishga tayyor bo‘lishlari kerak. Eksperiment g‘oyasi, uning borishi va olingan natijalar talabalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Shu maqsadda o‘qituvchi o‘rnatish sxemasini, uning barcha tarkibiy qismlarini tushuntirishi, o‘lchov vositalariga yoki kuzatilgan ta’sir sodir bo‘lgan elementlarga e’tibor berishi kerak.

2. Iloji bo‘lsa, tajribalar bir nechta usullarda o‘tkazilishi kerak (ayniqsa, bu o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishga hissa qo‘shsa).

3. Darsdagi namoyishlar soni juda ko‘p bo‘lmasligi kerak. Namoyish eksperimenti o‘quv materialini o‘rganishga hissa qo‘shishi va darsdagi asosiy maqsaddan chalg‘itmasligi kerak.

4. Agar uskuna imkon bersa, ko‘rgazmali tajribalar miqdoriy nisbatlarni o‘rnatish bilan amalga oshirilishi kerak (raqamlar oldindan tanlangan va ularning ishlashi uchun qulay bo‘lishi kerak!).

5. O‘quv materialini o‘rgatish jarayonida ko‘rgazmali blok o‘quvchilar oldida yig‘ilishi kerak. Faqat juda murakkab uskunalar ishlatilsa, o‘rnatishni oldindan yig‘ish mumkin (shuning uchun tayyor stendlardan foydalanmaslik kerak).

6. O‘rnatish imkon qadar ishonchli bo‘lishi kerak va namoyish qilish texnikasi yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak.

7. O‘rnatish muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, nosozlikni topish va tezda bartaraf etish va ijobiy natijaga erishish uchun tajribani takrorlash kerak. Agar berilgan sharoitda buning iloji bo‘lmasa, o‘quvchilarga rad etish sababini tushuntirish kerak va keyingi darsda namoyishni takrorlashni unutmaslik lozim.

8. Maktab sharoiti uchun mavjud bo‘lgan ko‘rgazmali eksperiment tegishli kino kliplar yoki kompьyuter animatsiyalari namoyishi bilan almashtirilmasligi kerak.

Vertual laboratoriya ikkita talabga javob berishi kerak:

· Vertual laboratoriyalar b.n ishlash usuli iloji boricha ilmiy usulga mos kelishi va ishonchli natijalar berishi kerak;

· Vertual laboratoriyalarni bajarish davomida o‘rgatishning kutilgan va muhim tarkibiy qismlarining maksimal ko‘rinishiga erishish kerak.

Ta’lim jarayonida laboratoriya tajribalari quyidagi funksiyalarni bajaradi: - yangi bilimlar manbai, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari; - o‘qitish usuli; - o‘rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish, illustrasiya qilish vositasi; - olingan bilimlarni amaliy qo‘llanilishini tushuntirish vositasi; - o‘quvchilarning fizikaviy tafakkurini, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi; - amaliy malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalash va rivojlantirish vositasidir.

Adabiyotlar:

1. Бугаев А.И. Методика преподавания физики. Теоретические основы. - М.: Просвещение, 1981.- 288с.

2. Хорошавин С.А. Физический эксперимент в средней школе. -М.: Просвещение, 1988. - 175 с.

3. Niyazxonova B.Э. Dars jarayonida internet axborot resurslaridan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlari.

GYOLDER FAZOLARIDA KOMPAKT OPERATORLAR

Sh.Q. Mamatov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti

E-mail: ***mamatov_shamsiddin@samduuf.uz*** **+99893 232-42-75**

Annotatsiya: Ma'lum Banax fazosida aniqlangan, obrazi yopiq bo'lib, yadrosi va koyadrosi o'lchovlari chekli bo'lgan chiziqli chegaralangan operatorlar sinfi Nyoter operatorlari deb ataladi. Siljishli singulyar integral operatorlarni Nyoter operatori bo'lishlikka tekshirishda ba'zi kommutatorlarni kompaktligi muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada ko'rsatilgan Banax fazosida bitta kommutatorning ma'lum shartlarda kompakt operatori ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Banax fazosi, chegaralangan operator,Nyoter operatori,integral operator, yadro,koyadro.

Compact operators in generalized Hölder spaces

Annotation: As is known,in some Banach spaces a linear bounded operator U is called Noetherian if the operator U is closed and the defect numbers,that is,the dimension of the kernel and cokernel,are finite. When studying whether singular integral operators with a shift are Noetherian,the compactness of some commutators is impotant. The article proves the compactness of one commutators in the specified spase.

Keywords: Banach spase,bounded operatorNoetherian operator,integral operator,defect numbers, kernel, cokernel.

Компактные операторы в обобщенных пространствах Гёльдера

Аннотация: Как известно, в некоторых банаховых пространствах линейный ограниченный оператор U называется нетеровым,если образ оператора U замкнут, а дефектные числа, то естъ размерностъ ядра и коядра, конечны. При исследовании на нетеровость сингулярных интегральных операторов со сдвигом является важной компактность некоторых коммутаторов. В статье доказывается компактность одного коммутатора в указанном пространстве.

Ключевые слова*:* Банахово пространство, ограниченный оператор, нетеров оператор,интегральный оператор,дефектные числа ,ядро,коядро.

Kirish: Matematika yo'nalishida faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilar funksional analizning muhim tushunchalaridan biri bo'lgan chiziqli operatorlarning ma'lum Banax fazolarida kompakt(to'la uzluksiz) operator bo'lishligi masalasiga duch kelishadi. O'tgan va hozirgi asrda bu sohaning singulyar integral operatorlar yo'nalishi jadal rivojlanib bormoqda. Shu jihatdan bu yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan talabalar va magistrantlar uchun foydali bo'lgan bir operatorning ko'rsatilgan Banax fazosida kompakt operatori bo'lishligi o'rganiladi.

Faraz qilaylik Γ-kompleks tekislikda oddiy yopiq, silliq, yo'naltirilgan chiziq bo'lib, uni diametri d bo'lsin. [4] ga ko'ra, Φ orqali (0,d] da aniqlangan, aynan nolga teng bo'lmagan, nomanfiy va

a) ω(δ)-uzluksizlik moduli,

b) $sup_{\delta\in(0,d]}\ \frac{\delta}{\omega(\delta)}\int_0^d \frac{\omega(t)}{t(t+\delta)}dt < +\infty$

shartlarni qanoatlantiruvchi ω(δ) funksiyalar sinfini belgilaymiz.

Γ da uzluksiz funksiyalarni xarakteristikasi sifatida

$$sup_{|t-\tau|\le\delta}\omega(\varphi,\delta) = |\,\varphi(t)-\varphi(\tau)\,|, \delta \in (0,d] \qquad (1)$$

uzluksizlik modulini tanlaymiz.

[4] ga ko‘ra umumlashgan Gyolder fazolari deb ataluvchi $H_\omega(\Gamma), \omega \in \Phi$ *da aS – SaI* va *WS –SW* kommutatorlarni qaraymiz. Bu yerda *a*(t)∈ $H_\omega(\Gamma)$, *S* –singulyar integral operator bo‘lib, u

$$(S\varphi)(t)=\frac{1}{\pi i}\int_\Gamma \frac{\varphi(\tau)}{\tau-t}d\tau, t \in \Gamma \qquad (2)$$

tenglik bilan aniqlanadi. W esa bir varaqli bo‘lmagan siljish operatori bo‘lib, u (Wφ)(t)=φ(α(t)) tenglik bilan aniqlanib, α (t) Γni o‘ziga akslantiruvchi N (2≤N<∞) varaqli akslantirish bo‘lib, $\alpha'(t)\neq 0,\ t \in \Gamma, \alpha'(t)\in H_\omega(\Gamma), \omega \in \Phi$, ([3] ga qarang). Ta’rif bo‘yicha ([4]ga qarang) Γ da aniqlangan $\varphi(t)$ funksiya

$$sup_{0<\delta\le d}\frac{\omega(\varphi,\delta)}{\omega(\delta)} = C_\varphi \le +\infty \qquad (3)$$

shartni qanoatlantirsa, H_ω sinfga qarashli deyiladi. Ma’lumki, agar $\varphi(t) \in H_\omega$ bo‘lsa

$$C_\varphi = sup_{t,\tau\in\Gamma, t\neq\tau}\frac{\varphi(t)-\varphi(\tau)}{\omega(|\,t-\tau\,|)} = C_\varphi^* \qquad (4)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Xususiy holda, agar $\omega(\delta)=\delta^\mu$ $(0<\mu<1)$ bo‘lsa, H_ω bizga ma’lum bo‘lgan H_μ sinfga aylanadi.

H_ω da normani

$$\|\varphi\|_{H_\omega} = \|\varphi\|_{C_{(\Gamma)}} + sup_{0<\delta\le d}\frac{\omega(\varphi,\delta)}{\omega(\delta)} \qquad (5)$$

ko‘rinishda belgilasak, H_ω banax fazosidan iborat bo‘ladi.

Singulyar va integral operatorning $H_\omega(\Gamma)$ da chegaralanganligi [6] da isbotlangan. Bir varaqli bo‘lmagan W siljish operatorining $H_\omega(\Gamma)$ da chegaralanganligi uni quyidagi baholanishidan kelib chiqadi:

$$\|W\varphi\|_{H_\omega(\Gamma)} = max_{t\in\Gamma}\,|\,\varphi[\alpha(t)]\,| + sup_{\substack{t,\tau\in\Gamma\\ t\neq\tau}}\frac{|\varphi[\alpha(t)]-\varphi[\alpha(\tau)]}{\omega(|t-\tau|)} \le$$

$$\le max_{t\in\Gamma}\,|\,\varphi(t)\,| + \sup_{\substack{t,\tau\in\Gamma\\ t\neq\tau}}\frac{|\varphi(t)-\varphi(\tau)|}{\omega(|t-\tau|)}\cdot sup_{\substack{t,\tau\in\Gamma\\ t\neq\tau}}\omega\frac{\omega(|\alpha(t)-\alpha(\tau)|)}{\omega(|t-\tau|)} \le$$

$$\le \max\left\{1;\ sup_{\substack{t,\tau\in\Gamma\\ t\neq\tau}}\omega\frac{\omega(|\,\alpha(t)-\alpha(\tau)\,|)}{\omega(|\,t-\tau\,|)}\right\}\cdot\|\varphi\|_{H_\omega(\Gamma)}$$

Bu tenglikni hisobga olgan holda,

$\omega(|\,\alpha(t)-\alpha(\tau)\,|) \le \omega(k\,|\,t-\tau\,|) \le (k+1)\omega(|\,t-\tau\,|),\ k-$ o‘zgarmas son. Tengsizlikka ko‘ra W siljish operatori normasi uchun

$\|W\|_{H_\omega(\Gamma)} \le \max\left\{1;\ sup_{\substack{t,\tau\in\Gamma\\ t\neq\tau}}\omega\frac{\omega(|\alpha(t)-\alpha(\tau)|)}{\omega(|t-\tau|)}\right\}$ tengsizlikni hosil qilamiz.

V_n orqali Γ ni o‘zini o‘ziga bir varaqli bo‘lmagan α(t), t∈Γ, akslantirishga o‘ngdan teskarilanuvchi bo‘lgan $\bar{\alpha}(t)=\langle n,t\rangle$ akslantirish yordamida hosil bo‘lgan siljish operatorini belgilaymiz: $(V_n\,\varphi)(t) = \varphi[\bar{\alpha}(t)] = \varphi(\langle n,t\rangle)$.

Shuni ta’kidlash lozimki, ([3] ga qarang), bir varaqli bo‘lmagan siljish operatori W faqat chapdan teskarilanuvchidir. Aniqrog‘i α Γ ni qoplovchi akslantirish bo‘lgani uchun $\frac{1}{N}\sum_{n=1}^{N}V_n$ operator $H_\omega(\Gamma)$ fazoni o‘ziga o‘tkazadi va

$(\frac{1}{N}\sum_{n=1}^{N} V_n)W = I$ (I-birlik operator) tenglik bajarilib, W o‘lchovi cheksiz bo‘lgan koyadroga ega bo‘ladi.

Qaralayotgan $H_\omega(\Gamma)$ fazoda $aS - SaI$ kommutatorning kompaktligi [5] maqolada isbotlangan. Bir varaqli bo‘lmagan $\alpha(t), t \in \Gamma$ akslantirish yordamida qaralgan siljish operatori W bilan tuzilgan WS-SW kommutatorning kompaktligini isbotlash uchun quyidagi yordamchi tasdiqni qaraymiz. Faraz qilaylik, z=σ(t) Γni birlik aylanaga o‘zaro bir qiymatli akslantiruvchi funksiya bo‘lsin. S_Γ va S_T lar mos ravishda $H_\omega(\Gamma)$ va $H_\omega(T)$ fazolardagi singulyar integrallash operatorlari bo‘lsin. B bilan $H_\omega(\Gamma)$ fazodan $H_\omega(\Gamma)$ fazoga $(B\varphi)(z)=\varphi(\sigma^{-1}(z)), \sigma^{-1}(\sigma(t)) = t$, $\sigma'(t) \in H_\omega(\Gamma)$ qoida bilan akslantirish bajaruvchi chiziqli chegatalangan teskarilanuvchi operatorni belgilaymiz.

Teorema-1. Agar $(T \times T)\, da$ noldan farqli $\frac{\sigma^{-1}(\xi)-\sigma^{-1}(z)}{\xi - z} \in H_\omega(T \times T)$ berilgan funksiya bo‘lsa, S_T uchun quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi:

$$S_T = BS_\Gamma B^{-1} + K \qquad (6)$$

Bu yerda K $H_\omega(T)$ fazoda aniqlangan to‘la uzluksiz operatordir.

Isbot. Faraz qilaylik $\psi \in H_\omega(T)$, $\varphi = B^{-1}\psi$ va $K = S_T - BS_\Gamma B^{-1}$ bo‘lsin. U holda

$(K\psi)(z) = \frac{1}{\pi i}\int_T \frac{\psi(\xi)}{\xi - z} d\xi - \frac{1}{\pi i}\int_\Gamma \frac{\varphi(\tau)}{\tau - \sigma^{-1}(z)} d\tau$ tenglik bajariladi. Ikkinchi integralda $\tau = \sigma^{-1}(\xi)$ almashtirish bajarib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$(K\psi)(z) = \frac{1}{\pi i}\int_T \left(\frac{1}{\xi - z} - \frac{\sigma^{-1'}(\xi)}{\sigma^{-1}(\xi) - \sigma^{-1}(z)}\right)\psi(\xi) d\xi \qquad (7)$$

$b(\xi, z) = \frac{\sigma^{-1'}(\xi)(\xi - z)}{\sigma^{-1}(\xi) - \sigma^{-1}(z)}$ belgilash kiritib (7) tenglikni

$$(K\psi)(z) = \frac{1}{\pi i}\int_T \frac{b(\xi, z)}{\xi - z}\psi(\xi) d\xi \qquad (8)$$

ko‘rinishga keltiramiz. [2] da (8) ko‘rinishdagi operator $H_\omega(T)$ da kompaktligi isbotlangan. Teorema isbot bo‘ldi. Endi $H_\omega(\Gamma)$ da WS-SW kommutatorni kompaktligini isbotlaymiz.

Teorema-2. Faraz qilaylik α-oddiy yopiq, silliq Γ chiziqni o‘ziga akslantiruvchi N varaqli ($N \geq 2$) siljish funksiyasi bo‘lib, $\alpha'(t) \in H_\omega(\Gamma)$ shartlarni qanoatlantirsin va Γ ni yo‘nalishini saqlasin. Agar α Γni yo‘nalishini saqlasa, $WS \simeq SW$, agar α yo‘nalishini o‘zgartirsa, $WS \simeq -SW$ munosabatlar o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda “$\simeq$ " belgi to‘la uzluksiz operatorgacha aniqlikdagi tenglikni bildiradi.

Isbot. Faraz qilaylik σ Γ ni T birlik aylanaga o‘tkazuvchi diffeomorfizm, $(\Gamma \times \Gamma)$ da noldan farqli $\frac{\sigma(t)-\sigma(\tau)}{t-\tau} \in H_\omega(\Gamma \times \Gamma)$ funksiya berilgan bo‘lsin.

U holda [7] maqolani 1-lemmasiga ko‘ra T ni shunday β diffeomorfizmi topilib, $\beta' \in H_\omega(T)$ shartda α akslantirishni $\alpha = \sigma^{-1'} \circ \omega_{\pm N} \circ \beta \circ \sigma, \omega_{\pm N}(t) = t^{\pm N}, t \in T$ ko‘rinishda tasvirlash mimkin. Bu yerda “+”, “-“ ishoralar α Γni yo‘nalishini saqlashiga yoki o‘zgartirishiga qarab tanlanadi. Osongina ko‘rish mumkin $W_{\omega_{-N}} = W_C \cdot W_{\omega_N} \cdot (W_C\varphi)(t) = \varphi(\bar{t})$. $\bar{t}$ t ga qo‘shma kompleks son. Bunga ko‘ra, [1] ni

35-betidagi 3.1. teoremasidan va mazkur maqolani 1-teoremasidan foydalanib, teoremani isbotlash uchun $W_{\omega_N}S \simeq S \cdot W_{\omega_N}$ munosabatni ko‘rsatish yetarli.

Haqiqatan ham, faraz qilaylik α yo‘nalishini saqlaydigan akslantirish bo‘lsin (agar α yo‘nalishini o‘zgartirsa, fikrlash aynan takrorlanadi). $W_{\omega_N}S_T \simeq S_T \cdot W_{\omega_N}$tenglik bajarilganda [2] 4-xossasiga ko‘ra $S_T W_{\beta^{-1}} \simeq W_{\beta^{-1}} \cdot S_T$ bajarilib,

$S_T W_{\beta^{-1}} \simeq W_{\beta^{-1}\omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N}$ va $S_T \simeq W_{\beta^{-1}\circ\omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N\circ\beta}$

munosabatlar o‘rinli bo‘ladi. Bundan mazkur maqolaning 1-teoremasiga ko‘ra $W_\sigma S_\Gamma W_{\sigma^{-1}} \simeq W_{\beta^{-1}\circ\omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N\circ\beta\circ\sigma} W_{\sigma^{-1}}$ bo‘lib,

$$W_\sigma S_\Gamma \simeq W_{\beta^{-1}\circ\omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N\circ\beta\circ\sigma} \simeq W_{\beta^{-1}\circ\omega_N^{-1}} \cdot W_\sigma S_\Gamma W_{\sigma^{-1}} W_{\omega_N\circ\beta\circ\sigma} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow W_{\beta^{-1}\circ\omega_N^{-1}\circ\sigma} \cdot W_{\sigma^{-1}\circ\omega_N\circ\beta\circ\sigma} S_\Gamma \simeq W_{\beta^{-1}\circ\omega_N^{-1} S_\Gamma\circ\sigma} W_{\sigma^{-1}\circ\omega_N\circ\beta\circ\sigma}$$

$W_{\sigma^{-1}\circ\omega_N\circ\beta\circ\sigma} S_\Gamma \simeq S_\Gamma W_{\sigma^{-1}\circ\omega_N\circ\beta\circ\sigma} \simeq W_\alpha S_\Gamma \simeq S_\Gamma W_\alpha$ munosabatni hosil qilamiz. Bunda foydalanilgan $W_{\omega_N}S_T$-$S_T W_{\omega_N}$kommutatorning kompaktligi isboti [3] maqolaning 7.1. lemmasiga o‘xshash bo‘lgani uchun keltirilmadi. Teorema isbot bo‘ldi.

Shuni ta’kidlaymizki, agar $\omega(\delta)\sim\delta^\mu$, (0< μ<1) bo‘lsa, oddiy Gyolder fazosi $H_\mu$da silliq chiziqning $\alpha'(t) \in H_\mu$ shartda chekli varaqli endomorfizmi uchun WS - SW kommutatorning kompaktligi [8] maqolaning 1.1. lemmasi va 1-teoremadan kelib chiqadi.

Xulosa.

Siljishli singulyar integral operatorlarni Nyoter operatori bo‘lishlik shartlari tekshirilganda, Koshi integrali bilan bog‘liq bir kommutatorning umumlashgan Gyolder fazolarida kompaktligi muhim rol o‘ynaydi. Maqolada ma’lum shartlarda qaralayotgan kommutatorning kompakt operatori bo‘lishligi isbot qilindi.

Adabiyotlar:

[1]. Litvinchuk G.S. Chegaraviy masalalar va siljishli integral tenglamalar. – M., 1977.

[2]. Karlovich Yu.I., Tursunqulov B.M. Umumlashgan Gyolder fazolarida karlemansiz siljishli funksional intrgral operatorlar, 1983., – Qo‘lyozma SamDu tomonidan tavsiya etilgan. 1983 yil 20 iyunda OzNIINTI da 89-83 nomer bilan depponent qilingan.

[3]. Latushkin Yu.D. O‘zaro bir qiymatli bo‘lmagan siljishli singulyar integral operatorlar nazariyasi. – Nomzodlik dissertatsiyasi. Odessa 1981 y.

[4]. Guseynov A.I., Muxtorov X.Sh.Chiziqli bo‘lmagan singulyar integral tenglamalar nazariyasiga kirish – M., 1980.

[5]. Tursunqulov B.M. Umumlashgan Gyulder fazosida to‘la uzluksiz operatorlar haqida. O‘zbekiston Respublikasi FAD, T., 1982, № 12.

[6]. Salayev V.V. Yopiq chiziq bo‘ylab Koshi integrali uchun to‘g‘ri va teskari baholashlar. Mat.zametki, 1976 y., 19, № 3.

[7]. Kats B.A. Analitik funksiyalarning ba’zi qo‘shmalik masalalari haqida. Sibirskiy mat. Jurnal., T 17., № 6.

[8].Dudachova R.B. Og‘irlikli funksiyalar Gyolder fazolarida bir argumentli singulyar integral operatorlar algebrasi. Tbilisi matematika instituti ilmiy ishlari. 1973., 43.

HOZIRGI KUNDA RAQAMLI TA’LIMNING AHAMIYATI

Saidova Gulyora Abduhakimovna, Mamayeva Marjona Abdurazzoqovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjimonlik fakulteti, Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedra katta o‘qituvchisi; O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjimonlik fakulteti, Ingliz tili tarjima nazariyasi 4 kurs talabasi

Annotatsiya:

Raqamli ta’lim bu - o‘quv jarayonini yaxshilash va osonlashtirish uchun raqamli texnologiyalar va vositalardan foydalanishdir. U elektron ta’lim, onlayn kurslar, virtual sinflar, ta’lim dasturlari va interaktiv multimedia resurslari kabi texnologiya vositasida o‘qitishning turli shakllarini o‘z ichiga oladi. Raqamli ta’lim ko‘plab afzalliklari mavjud bo‘lib, jumladan, keng foydalanish imkoniyati va moslashuvchanligi, shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasi va istalgan vaqtda istalgan joydan o‘quv materiallari va resurslariga kirish imkoniyati. U videolar, interaktiv viktorinalar va virtual simulyatsiyalar kabi multimedia elementlarini birlashtirishga imkon beradi, bu esa ma’lumotni jalb qilish, tushunish va saqlashni kuchaytiradi. Bundan tashqari, raqamli ta’lim hamkorlikda o‘rganish, global aloqalar va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar beradi. O‘qituvchilar interaktiv va qiziqarli ta’lim tajribasini yaratish, muloqot va hamkorlikni osonlashtirish, talabalar taraqqiyotini kuzatish va fikr-mulohazalarni taqdim etish va o‘quv natijalarini kuzatish uchun raqamli vositalar va platformalardan foydalanishlari mumkin. Shuningdek, u umrbod ta’lim olish, kasbiy rivojlanish va turli fanlar bo‘yicha yangi ko‘nikmalarni egallash uchun keng yo‘l ochadi.

Kalit so‘zlar: Elektron ta’lim, onlayn ta’lim, masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, gibrid, edtech, MOOC, gamifikatsiya, virtual haqiqat (VR), sun’iy intellekt (AI), shaxsiylashtirilgan ta’lim

Аннотация:

Цифровое образование подразумевает использование цифровых технологий и инструментов для улучшения и облегчения процесса обучения. Оно включает в себя различные формы обучения с использованием технологий, такие как электронное обучение, онлайн-курсы, виртуальные классы, образовательные приложения и интерактивные мультимедийные ресурсы. Цифровое образование предлагает множество преимуществ, включая повышенную доступность и гибкость, персонализированный опыт обучения, а также возможность доступа к образовательным материалам и ресурсам из любого места и в любое время. Он позволяет интегрировать мультимедийные элементы, такие как видео, интерактивные викторины и виртуальные симуляции, что может повысить вовлеченность, понимание и сохранение информации. Более того, цифровое образование предоставляет возможности для совместного обучения, глобальных связей и развития навыков цифровой грамотности. Преподаватели могут использовать цифровые инструменты и платформы для создания интерактивного и увлекательного обучения, облегчения общения и сотрудничества, отслеживания прогресса учащихся и предоставления обратной связи, а также отслеживания результатов обучения. Это также открывает возможности для непрерывного обучения,

профессионального развития и приобретения новых навыков в различных дисциплинах.

Ключевые слова: Электронное обучение, онлайн-обучение, дистанционное образование, смешанное обучение, гибридное обучение, образовательные технологии, МООК, геймификация, виртуальная реальность (VR), искусственный интеллект (ИИ), персонализированное обучение.

Annotation:

Digital education refers to the use of digital technologies and tools to enhance and facilitate the learning process. It encompasses various forms of technology-mediated learning, such as e-learning, online courses, virtual classrooms, educational apps, and interactive multimedia resources. Digital education offers numerous benefits, including increased accessibility and flexibility, personalized learning experiences, and the ability to access educational materials and resources from anywhere at any time. It allows for the integration of multimedia elements, such as videos, interactive quizzes, and virtual simulations, which can enhance engagement, understanding, and retention of information. Moreover, digital education provides opportunities for collaborative learning, global connections, and the development of digital literacy skills. Educators can leverage digital tools and platforms to create interactive and engaging learning experiences, facilitate communication and collaboration, monitor student progress and provide feedback, and track learning outcomes. It also opens up avenues for lifelong learning, professional development, and the acquisition of new skills in various disciplines.

Key words: E-learning, online learning, distance education, blended learning, hybrid, edtech, MOOC, gamification, virtual reality (VR), artificial intelligence (AI), personilized learning.

Digital education refers to the use of digital technologies or resources to support and enhance teaching and learning processes. Right now, digital education has become more important than ever due to the COVID-19 pandemic, as it enables students and teachers to continue their educational activities remotely. It includes various online platforms, educational apps, virtual classrooms, video conferencing tools, and other digital resources that facilitate interactive and engaging learning experiences. Digital education allows for personalized learning, access to a vast amount of educational content, collaboration among students, and the development of essential digital skills. Digital education is of utmost importance in today's world for several reasons.

Enhancing access to education: Digital education bridges the gap between privileged and underprivileged communities by providing access to quality education materials and resources. It allows students from all backgrounds to access educational content, regardless of their geographical location or financial constraints.

Enabling personalized learning: Digital education provides opportunities for personalized learning, allowing students to learn at their own pace and according to their individual needs and preferences. This flexibility helps students to understand concepts better and enhances their overall learning experience.

Fostering critical thinking and problem-solving skills: Digital education encourages students to engage in interactive learning experiences that promote critical thinking and problem-solving skills. Through various online platforms and tools, students can actively participate in discussions, analyze information, and develop their analytical abilities.

Preparing students for the future workforce: In an increasingly digital world, digital literacy and skills are essential for career success. Digital education equips students with the necessary technical skills and knowledge required in today's job market. It prepares them to adapt to new technologies and work effectively in digital environments.

Enhancing collaboration and global connectivity: Digital education enables students to collaborate with peers and experts from around the world. It breaks down the barriers of distance and facilitates virtual connections, allowing students to learn from diverse perspectives and cultures.

Promoting lifelong learning: Digital education encourages lifelong learning by providing various online courses, webinars, and resources that are accessible to individuals of all ages. It promotes continuous skill development and empowers individuals to stay updated with the latest knowledge and trends.

Digital education is the use of digital technologies and resources to facilitate and enhance teaching, learning, and educational experiences. It encompasses a wide range of tools, platforms, and digital resources, including online learning platforms, educational apps, multimedia content, virtual classrooms, video conferencing tools, and more. Digital education allows for remote learning, personalized learning experiences, collaborative learning, and the development of essential digital skills. It provides flexibility in terms of time and location, making education more accessible and inclusive. With digital education, learners can engage with educational content in interactive and immersive ways, fostering a deeper understanding and higher level of engagement. It also enables continuous learning and professional development beyond traditional educational institutions. Digital education plays a crucial role in modern education, preparing learners for the digital age and equipping them with the skills they need to thrive in a rapidly evolving world.

The main purpose of digital education now Is to provide accessible and flexible learning opportunities for individuals of all ages and backgrounds. It aims to leverage technology to deliver educational content, facilitate interactive learning experiences, and enhance skills development. Digital education helps overcome geographical barriers, promotes lifelong learning, fosters digital literacy, and prepares individuals for the evolving job market in the digital age.

Reference:

1. Абдуганиева.Ж.Р. Анализ невербальной культуры последовательного переводчика. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – Тошкент, 2023. − №1. – Б. 36-42
2. Abduganiyeva.J.R. Some aspects of online interpreting: current state and prospects for the future. 2022. Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va

istiqbollar. Халқаро илмий конференция. 30 май.Тошкент,2022. – Б.15-20
3. Abadzi, H. “Training the 21st-century Worker: Policy Advice from the Dark Network of Implicit Memory”. 2015.
4. Bellos, David. “The Power of Translation in Literature.” The Guardian. 2021.
5. Blok, Sherry. “Translation in Academia: The Importance of Written Translation in Research and Education.” Translation Directory. 2020.
6. Dam, Helle V. “Translation and Diplomacy: The Role of Translation in International Relations.” Translation Directory. 2019.
7. Goodman, A. “Social and emotional skills in childhood and their long-term effects on adult life”. 2015.
8. Musayev. K. Fundamentals of translation theory T. 2005.
9. Naeb, Rola. “The Role of Translation in Cross-Cultural Communication.” Translation Directory. 2020.
10. Salomov F., Language and translation. – T.: Science, 1966.
11. Salomov. F. Literary tradition and artistic translation. – T.: Science, 1980.
12. Salomov F. Translation concerns. – Toshknet: Literature and Art Publishing House. 2019.
13. Saidova. G. “The problematic issues of teaching foreign languages and finding possible solutions on this actual task” (article) 2021.
14. Saidova G. “Teaching english as a second language to youngsters” (article) 2021.
15. Translingua. “The Importance of Written Translation in Business.” Translingua Global. 2020.

COURSERA OMMAVIY ONLAYN OCHIQ KURSLAR TA'LIM PROVAYDERINING IMKONIYATLARI

Abdullaeva Fayoza Naimjonovna
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada MOOC **(**Massive open online courses**)** platformalarining xarakteristikalari va imkoniyatlari yoritib berilgan. Undan tashqari maqolada *Udacity ta'lim platformasi imkoniyatlari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: Coursera, MOOC, ta'lim plaformalari, online ta'lim, axborot texnologiyalari.

Аннотация: В статье освещаются характеристики и возможности платформ MOOC (массовые открытые онлайн-курсы). Кроме того, в статье упоминаются возможности образовательной платформы Udacity.

Ключевые слова: Coursera, MOOC, образовательные платформы, онлайн-обучение, информационные технологии.

Abstract: This article highlights the characteristics and capabilities of MOOC (massive open online course) platforms. In addition, the article discusses the capabilities of the Udacity educational platform.

Keywords: Coursera, MOOC, educational platforms, online education, information technology.

Kirish

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor qaratilib, bunda ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish va jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan qator vazifalar belgilangan.

Respublikamizda boshqa ilg'or mamlakatlar qatori zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'limda faol foydalanishga kirishildi. Lekin elektron ta'limni joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi/1/:

- pedagogik jamoalarning elektron ta'limni joriy etilishiga yetarli darajada tayyor emasligi;
- elektron ta'lim imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qo'llash bo'yicha metodik ishlanmalarning kamligi;
- elektron ta'limda foydalaniladigan kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi;
- elektron ta'lim bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi.

Ushbu ta'lim oldidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun oliy ta'lim tizimiga mas'ul davlat idoralari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan keng ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda.

Asosiy qism

Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC, Massive oren online courses) XXI asr boshlari ya'ni 2000 yillarda Internet tarmog'ida alohida qo'yilgan ochiq ta'lim

kurslarining davomchisi sifatida paydo bo‘ldi. Bu terminni 2010 yilda Shaxzoda Eduard oroli universiteti (UEPI, Kanada) professori Devid Kormer (D.Cormier) tomonidan kiritildi. U MOOCni “ochiq, jamoaviy, tarqalgan, uzluksiz tarmoqdagi o‘qitish” sifatida ta’riflagan. MOOC abbreviaturasi to‘rtga alohida terminlardan tashkil topgan (1-rasm):



1-rasm. MOOC abbreviaturasi terminlarining mazmuni

MOOC asosiy platformalarining xarakteristikalari. Ommaviy ochiq onlayn-kurslarini topish va undagi kurslarda o‘qish uchun foydalanuvchilarga so‘nggi uch yil mobaynida juda ko‘p yangi MOOC-platformalar - veb-saytlar paydo bo‘ldi. Bunday platformalarni adabiyotda startap (startup) atamasi bilan ham yuritiladi. Bu platformalar o‘z vazifalari, hamkor universitetlari, interfeys tili va boshqa ko‘rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi. Onlayn-kurslari platformalarining to‘liq ro‘yxati ko‘p bo‘lganligi sababli, quyida ularning eng yirik va ko‘p tarqalgan platformalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Hozirgi kunda universitet darajasidagi onlayn-kurslar uchun uchta yirik platformalar mavjud: Coursera, Udacity va edX. Ularning barchasi AQShda joylashgan va 2012 yildan boshlab o‘z faoliyatini boshlagan/2,3/.

edX va Coursera platformalari 2016 yildan boshlab biznes - modelga o‘tmoqda. Ya’ni talabalar ixtisoslik bo‘yicha bir necha kurslarga qo‘shimcha xizmatlar olishlari bo‘yicha alohida mablag‘ to‘lash imkoniyatini yaratmoqda. Bu xizmat turida talabalarga instruktorlar bilan bog‘lanish, talabalar o‘rtasida hamkorlikni yanada intensivlashtirish kabi xizmatlar kiradi. Bunda xizmatlar oddiy holda ko‘rsatilmaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, onlayn-kurslarni sekin-asta mablag‘ bilan ta’minlash tendensiyasiga qarab ketmoqda.

Udacity platformasi



2-rasm. Udacity platformasi veb-portalining ko‘rinishi

Udacity **(http://www.udacity.com) xususiy notijorat ta’lim kompaniyasi bo‘lib (2-rasm), Stenford universiteti professorlari Sebastyan Trun, Devid Stavens va Maykl Sokolski tomonidan tashkil etilgan, va unga venchur investorlarining 20 mln AQSh dollari sarflangan. Ushbu startapning maqsadi ta’lim sohasini demokratizatsiyalash va o‘zgartirishdan iboratdir. Boshqa shunga o‘xshash platformalardan farqi shundaki,** *Udacity* **platformasidagi onlayn-kurslarini yaratishda universitet professor**laridan tashqari, yetakchi soha ekspertlari ham jalb qilinmoqda. Masalan, kompyuter ilmi, dizayni, matematika, texnologik biznes. Bundan tashqari, har bir kurs turli darajada taqdim etilmoqda: boshlovchilar, asosiy va iqtidorli tinglovchilar uchun.

Davomati: 2,5 mln. foydalanuvchilar.

Hamkor-ta’lim muassasalari soni: 4 ta universitet va 13 ta kompaniyalar.

Onlayn-kurslar soni: 58 ta onlayn-kurslar.

Kurslar yo‘nalishlari: Udacity platformasidagi aksariyati kurslar axborot texnologiyalariga bag‘ishlangan. Chunki ushbu platforma Stenford universiteti bazasida olib borilgan AKT bo‘yicha bepul kurslardan tashkil topgan. Bundan tashqari, platforma tadbirkorlik, dizayn, matematika va fizikadan kurslarni taklif etadi.

Hamkorlari: San-Xose davlat universiteti, Djordjiya (Ga Tex) texnologiya instituti. Bundan tashqari, Google, G‘asebook, Twitter, AT&T, S1oudera, MongoDB, Salesforse, Autodesk, Nvidia, 23andMe, zIPFIAN, Cadence va Nask Reactor kompaniyalari ham hamkor hisoblanadi.

Kurslarning muddati: qo‘yilmagan, foydalanuvchining xohishiga bog‘liq. Har bir kursning ta’rifida haftada 6 soat hisobida taxminiy muddatlar berilgan. Agar ushbu hisob bo‘yicha ko‘rilsa, u holda, kurslarni o‘rtacha 6-10 haftada o‘tash mumkin.

O‘qitish tili: ingliz tilida, ba’zi kurslar ispan, fransuz, portugal yoki xitoy tillarida subtitrlar orqali berilgan.

Qatnashish sharti: Kirish imtihonlari yo‘q, talabgorning saytda ro‘yxatdan o‘tishi kifoya. Vazifalarni bajarish muddatlari ham belgilanmagan. Qachon va qanday o‘tishni foydalanuvchining o‘zi belgilaydi. Platformada taklif etilgan kurslar

tayyorlash darajasi bo‘yicha bir nechta guruhlarga bo‘lingan: New to Tesh guruhidagi kurslar AKTni umuman bilmaydiganlar uchun, Veginner guruhi boshlang‘ich, Intermediate guruhi - o‘rtacha, Advanced guruhi yuqori darajada biluvchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quv shakli: Har bir kurs videoma’ruzalardan tashkil topgan bo‘ladi, ularga test savollari biriktiriladi. Ba’zi kurslarda loyihalarni bajarish kerak, bu qatnashchilarning yangi bilimlar olishiga sabab bo‘ladi. *Udacity* platformasining yana bitta vazifalaridan - tinglovchilarning loyiha portfoliosini yaratishidir. Tinglovchi bir nechta loyihalarni (5-7 loyiha) topshirgandan so‘ng Nanodegree sertifikatini olishi mumkin. Bu ilmiy daraja bo‘lmasa ham, ushbu sertifikat AKT sohasidagi kompaniyalarga ishga kirish vaqtida hisobga olinishi mumkin. Bundan tashqari, *Udacity* - bu hamjamiyat bo‘lib, kurs tinglovchilari forumda o‘zaro o‘rganishlari mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish shakllari: testlar (javoblaridan tanlab olish variantlari bilan), uy vazifalari va shaxsiy loyihalari. Bir xil kurslarda shaxsiy murabiy (Soash) belgilanishi mumkin, uning funksiyasiga vazifalarni tekshirish, savollarga javob berish va loyiha ishlarida yordam berishlar kiradi.

Sertifikat mavjudligi: bor. Kurslarni tugatgan tinglovchilarga elektron guvohnoma beriladi. Bu elektron guvohnoma rasmiy hujjat hisoblanmaydi. Ayrim kurslarda tasdiqlangan sertifikat (Verified Certificate) olish imkoniyati mavjud.

Akkreditatsiya: *yo‘q*.

Qiymati: bepul. Kurslarga kirish barcha uchun bepul. Shaxsiy murabbiy mavjud bo‘lgan kurslar (Soash) bo‘yicha tasdiqlangan sertifikat (Verified Certificate) olish imkoniyati mavjud. Buning uchun yakuniy loyihani topshirish, yakuniy suhbatdan o‘tish va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish zarur. Ushbu kurslarga qo‘shimcha 300 AQSh dollari to‘lash kerak. Nanodegree - oyiga 200 AQSh dollari.

Mobil ilovalar: bor (iOS, Android).

Coursera onlayn-kurslarining ta’lim modeli. Coursera onlayn-kurslarining ta’lim modeli, quyidagi elementlardan iborat: o‘quv video ma’ruzalar, topshiriqlar, interfaol forumlar va nazorat.

Coursera onlayn-kurslarining ta’lim modeli quyidagi sxema asosida tuzilgan:

1. *O‘quv video ma’ruzalar*. O‘quvchi Coursera platformasida kursning ma’ruzasini tinglaydi. Ma’ruza qo‘shimcha ravishda infografika va turli uslubiy materiallar bilan to‘ldirilgan slaydlarni ko‘rsatish bilan olib boriladi.
2. *Topshiriqlar*. Har haftada yangi video ma’ruza bilan birgalikda unga mos ravishda topshiriqlar (quizzes) beriladi. O‘quvchi bu topshiriqlarni belgilangan muddatda (mustaqil ravishda, o‘ziga qulay bo‘lgan vaqtda) bajarishi kerak bo‘ladi. Topshiriqlar tarkibiga qo‘shimcha darsliklarni o‘qish, internet-resurslari bilan ishlash, esse yozish, katta hajmda bo‘lmagan tadqiqot yoki testdan o‘tish kiradi.
3. *Interfaol forumlar*. O‘quvchiga maslahat berish va o‘tilgan o‘quv materiallarini muhokama qilish uchun interfaol forumlar ishlatiladi.
4. *Nazorat.* Har haftada test savollariga javob berish kerak bo‘ladi. Test savollari random-tasodifiy ko‘rinishda beriladi.

Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarda aniq fanlarni mustaqil o‘rganishda talabalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratmoqda:

fanlar bo‘yicha taklif etilayotgan dasturlar va kurslarning xilma-xilligi. Bugungi kunda masofaviy ta’lim tizimlari tanlab olish uchun juda keng spektrdagi onlayn-kurslarini taklif etmoqda. Bugun talaba o‘ziga qiziqarli bo‘lgan barcha mavzularni topishi mumkin, masalan, qishloq xo‘jaligidan boshlab, to nanotexnologiyalargacha.

o‘qish uchun shart-sharoitlarning yaxshiligi. O‘quv ma’ruzasi va boshqa materiallar talabaga elektron variantda yetkazib beriladi. Talaba esa vazifalarni bajaradi va javoblarni elektron variantda ortga yuboradi, bu esa o‘quv muassasasiga borishni istisno etadi. Bundan tashqari, vazifalarni talaba xohlagan vaqtida bajarish imkoniyatiga ega.

o‘qituvchilar bilan ko‘proq birgalikda ishlash. Talaba o‘qituvchi bilan birga sayt orqali ochiq muloqotga kirishishi mumkin: onlayn rejimida o‘quv jarayonidagi so‘rovnomalar, taklifnomalarda, muhokamalarda ishtirok etishi, qiyin materiallar bo‘yicha bahslashishi mumkin. Bunday muloqotlar, ayniqsa, kamtar va kamsuxan talabalar uchun qo‘l kelishi mumkin. Onlayn-kurslarini o‘qishda diqqatni to‘plash osonroq. Chunki boshqa talabalar bo‘lmaganligi sababli diqqatni to‘plash uchun sharoit bo‘ladi. Yana bitta ijobiy tomonlardan biri - bu ta’lim jarayonidagi hamkorlik ruhiyatidir. Talabalar o‘z g‘oyalari va takliflari bilan muhokamalarda ishtirok etishadi hamda o‘zaro fikr almashishadi. Bu esa bilim va malaka olishda katta ahamiyatga ega.

Qo‘shimcha ta’lim olish. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarda talabalar bir vaqtning o‘zida ham ishlash, ham o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uning karyerasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Malaka oshirish. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslari malaka oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ishdan bo‘shamagan holda mavjud kasblar bo‘yicha yoki qo‘shimcha, chuqurlashtirilgan bilim olish bo‘yicha malaka oshirish mumkin.

Turli talablarning yo‘qligi. Ro‘yxatdan o‘tish uchun faqat Internet xizmati kerak bo‘ladi xolos. Bundan tashqari, yoshi, ma’lumoti va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha cheklash yo‘q.

Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslari ham kamchiliklardan holi emas. Ularning asosiylarini ko‘rib chiqamiz:

Rasmiy kurs sifatida tan olinmasligi. Dasturlar attestatsiya va akkreditatsiyadan o‘tmaganligi sababli Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslari va dasturlari universitet fanlari sifatida hisobga olinmaydi.

Individual yondashuvning yo‘qligi va kurslarning ommaviyligi. Universitetda o‘qituvchi o‘zlashtirishi past bo‘lgan talabalarni topish va ular bilan ishlash imkoniyatiga ega. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarida bunday imkoniyat yaratilmagan, chunki kursga yozilgan talabalar soni yuqori darajada ko‘p. Bunday katta omma bilan ishlash shtatdagi o‘qituvchilarning qo‘lidan kelmaydi - iqtidorli talabalarni va sust o‘zlashtiradigan talabalarni aniqlash imkoniyati bo‘lmaganligi sababli, talaba o‘qish jarayonida o‘z-o‘ziga tashlab qo‘yiladi. Bu esa Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslari tizimida individual yondashuv yo‘qligini bildiradi.

Da’vat bo‘yicha kamchiliklar. O‘qishni tugatmaganligi uchun ma’lum miqdorda ma’naviy va moddiy jarima yo‘qligi.

Kurslarni tugatmaslik. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, kursga yozilganlardan 90 foizi kursni tugatmasdan tashlab ketishmoqda. Buning sabablaridan biriga – ko‘pchilikni qiziqib yozilganligini keltirish mumkin. Kurs oxirida esa o‘qishga qiziqish yo‘qolganligi sababli kursdan ketishmoqda.

Xulosa

Oliy ta’lim tizimida Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslarini olib boruvchi professor-o‘qituvchilar va mutaxassislarning kamligi hamda ko‘pchilik professor - o‘qituvchilar ommaviy o‘qitish tizimiga o‘tish bo‘yicha kasbiy va ma’naviy tayyor emasligi bugungi kundagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, elektron o‘qitish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlarni zamonaviy talab darajasiga keltirish zarur. Onlayn-dasturlarda o‘qish qiymat jihatdan ozroq bo‘lganligi uchun ularda o‘qish imkoniyati yaratilgan. O‘quv ta’lim muassasalariga qatnashish xarajati yo‘qoladi, o‘quv materiallari onlayn rejimi bo‘lganligi sababli sarf-harajatlar bo‘lmaydi bu albatta kursning ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

[1] Xamidov V.S., Otaqo‘ziyeva Z.M, Gulyamov S., Ravshanov M., Sattarov O., Absattarov N. Oliy ta’lim sifatini ta’minlashda internet xizmatlaridan foydalanishning muammo va yechimlari. Toshkent, «Aloqachi». 2016 y.

[2] Xamidov V.S. Erkin va ochiq kodli LMS tizimlar tahlili, «Infocom.uz» jurnali, 2013 yil, №7, 8. 14-bet.

[3] Nishonov A.X. va boshqalar. Ta’limda erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotlar, Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya muammolari, respublika ilmiy-texnik konferensiyasi. Toshkent, 2012y. 121-123.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI:XALQARO TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tulibayeva Shaxlo Shavkatovna

Toshkent viloyati Chinoz tumani ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi rivojlangan davlatda,har tomonlama yetuk, jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvini ta’minlashda har tomonlama kamol topgan ma’naviyatli kadrlarni yetishtirish,uni ilmiy va dunyoviy ilmlarinini kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.Ushbu maqolada fanlararo integratsiyani qo‘llashning samaradorligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: integratsiya, innovatsiya,ona tili, adabiyot, matematika, tarix, fanlararo aloqadorlik, integratsion ta’lim.

Annotatsion: In today’s developed country,it is very important to ensure the integration of the global scienty,the development of moral personnel,the development of scientific and secular knowledge.This article talks about the effectiveness of the application of interdisciplinary integration.

Keyword:integration,mother tongue,innovation,interdisciplinary,literature,mathematics,integrated education

Аннотаця: В современной развитой стране важно воспитывать вполне зрелые и духовные кадры, совершенствовать их научные и светские знания, чтобы обеспечить интеграцию мирового сообщества. В данной статье рассматривается эффективность междисциплинарной интеграции.

Ключевые слова - интеграция, инновации, родной язык, литература, математика, история, меж дисциплинарность, интегрированное образование.

Hozirgi rivojlangan jamiyatda asosiy e’tibor ta’limni yuksaltirish va samaradorligini oshirishga qaratilmoqda.Ilm-fandagi o‘zgarishlar,turli xil interfaol metodlar,axborot maydonining kengayib borishi o‘quvchilar ongiga ta’sir ko‘rsatib,idrok etishini,tasavvur va fikrlash,aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga olib kelmoqda.Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyalashuvi o‘quv jarayonini sifatli tashkil etilishiga,ta’limning modernizatsiyalashishiga,innovatsion o‘qitish imkoniyatlarining kengayishiga sabab bo‘lmoqda.Bugungi kunda har bir pedagogdan pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishi ham innavatsiya va inntegratsiyaning yaqqol misolidir.Ta’limda integratsion tomondan yondashishga alohida e’tibor berilmoqda.O‘zbekison Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida Qonuni”,”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ida ta’lim samaradorligini oshirish masalasi nazarda tutiladi.Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlar qatori O‘zbekiston ham ta’lim jarayonini turli ilg‘or texnologiyalar orqali tashkil qilmoqda.Bunga sabab darsni tashkil etishda yangi mazmun va yangi shaklda yo‘lga qo‘yilgan integrative yondashuvdir.”Integratsiya” so‘zi lotincha integration-tiklash,to‘ldirish,”inter” butun so‘zidan kelib chiqqan.(2:21) Integratsiya g‘oyasi XVIII asrda ingliz olimi G.Spenser tomonidan fanga olib kirilgan.(2:32) Ko‘plab rivojlangan davlatlarda ta’lim jarayoni integratsion shaklda olib boriladi. Jumladan, Angilya, Yaponiya, Vengirya, Gong Kong davlatlarida ta’lim jarayonlari

integratsion yo‘sinda olib borilib,yuqori natijalarga erishildi. (2:32) O‘quvchilarga ta’lim bilan bir qatorda tarbiya ham berilsa,ularning ma’naviy-axloqiy ongi ham shakllanadi.Fanlararo bog‘liqlik,integratsiya orqali ta’lim berishdan ko‘zlangan maqsad bilimlarni samarali o‘zlashtirish emas, balki olayotgan bilimlarini eng oddiy,oson hayotiy misollar bilan o‘quvchiga yetkazish.Bunda mavzular oddiydan murakkab tomon boradi.Ana shu orqali inson hayotidagi turli to‘siqlardan chiqib ketishiga zamin yaratadi.(4:87) Integratsiyaning ta’lim sistemasida muhim ekanligini birinchilardan bo‘lib mashhur pedagog – I.F.Gerbart tushuntirib bergan.U ta’limda integratsiyani qo‘llashning to‘rt yo‘nalishini sanab bergan.Bular quyidagilar:

- Aniqlik
- Asotsiatsiyaviylik
- Tizim
- Metod

Integratsiyaning birinchi va ikkinchi yo‘nalishlari bilim olishga,ikkinchi va uchinchi yo‘nalishlari oldingi olgan va keying oladigan bilimlarni bir-biriga uzviy bog‘lashga qaratilgan. I.F.Gerbart bu yo‘nalishlar orqali integratsiyalashuv jarayoni mukammal ravishda sodir bo‘ladi deb aytib o‘tgan. (2:53)

Uzluksiz ta’lim tizimida ona tilini o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi. Ona tili darslarida noan’anaviy ta’lim shaklini qo‘llash o‘quvchilarda darsga qiziqishini oshiradi.Bu orqali boshqa fanlarni ham bog‘lanishini ko‘rishimiz mumkin. Birgina ona tili emas, adabiyot, tarix, texnologiya, geografiya, xorijiy tillarni ham qo‘shib dars o‘tilsa,dars qiziqarli bo‘ladi va ko‘zlangan natijaga erishiladi. Birinchi navbatda ona tilini adabiyot bilan birga bog‘lanishini ko‘rishimiz mumkin. Adabiyot so‘z san’ati hisoblanib,ana shu so‘zning joylashish o‘rni ona tili fanida chuqur o‘rganiladi. Yuqori sinfda badiiy asarning tili o‘rganilayotganda stilistik tahlil mashg‘uloti o‘tkaziladi. Masalan, Oybekning “Navoiy” romani bo‘yicha amaliy mashg‘ulot bo‘ladigan bo‘lsa,unda shoir tomonida qo‘llangan so‘zlarning ma’nodoshligi, so‘z qo‘llash mahorati, tinish belgilarining ishlatilishi,imloviy jihatlari tahlil qilinadi. Ona tili bilan adabiyotni bir-biriga bog‘lab dars tashkil qilinsa, o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantiradi. Masalan, ona tilidan bitta grammatik mavzu o‘tilsa darsda uyga vazifa sifatida shu mavzu bo‘yicha adabiyot kitoblarimizdan misollar topib kelish topshirig‘i berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qo‘yilgan muammo har ikkala darsga ham aloqasi bor bo‘lishi kerak.

Davlat ta’lim standartlarida o‘quv fanlari orasidagi aloqadorlik,ona tili fanining boshqa o‘quv fanlarini o‘rganilishida ta’siri qayd etilib,”Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda aniq fanlar yo‘nalishidagi fanlarni o‘rganishning ijobiy ta’sir” ko‘rsatishi uqtirilgan(5:35)

Itegratsiya orqali biz vaqtdan unumli foydalanishimiz mumkin.Ona tili bilan bir qatorda adabiyotni ham o‘rganishimiz hamda o‘tilgan mavzuni savollar orqali takrorlab olishimiz mumkin.Bunday darsni tashkil etishda bizga integratsion metodlar yordam beradi.Bir darsda bir nechta metod qo‘llash darsni yanada qiziqarli tashkil qilinishini ta’minladi.

Maktabda ona tili va matematika darslari o‘rtasida predmetlararo aloqani o‘rnatish uchun potensial imkoniyatlar mavjud.(5:63) Jumladan,ona tili darslarida

Technology adoption: Educators and students may require training and support to effectively use new technologies.

Digital divide: Access to technology and reliable internet can vary among students.

Assessment: Evaluating student learning in technology-enhanced environments can be complex.

CONCLUSION

In conclusion, innovative methods and tools in higher education are revolutionizing the learning experience, making it more accessible, engaging, and personalized. From online learning platforms to virtual reality and AI-powered tools, these advancements are transforming how students learn and educators teach. By embracing these innovations, higher education institutions can prepare students for the challenges of the future and equip them with the necessary skills to thrive in a rapidly evolving world.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son // URL: https://lex.uz/ru/docs/-4545884

2. What are Online Learning Platforms? // www.mycomputercareer.edu URL: https://www.mycomputercareer.edu/news/what-are-online-learning-platforms/#:~:text=An%20online%20learning%20platform%20is,teacher%20to%20monitor%20student%20progress.

3. Gamification In Education: Advancing 21st-Century Learning // elearningindustry.com URL: https://elearningindustry.com/gamification-in-education-advancing-21st-century-learning

4. Zhao, X., Ren, Y., & Cheah, K. S. L. (2023). Leading Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) in Education: Bibliometric and Content Analysis From

the Web of Science (2018–2022). SAGE Open, 13(3). https://doi.org/10.1177/21582440231190821

5. Artificial Intelligence In Education: Teachers' Opinions On AI In The Classroom // www.forbes.com URL: https://www.forbes.com/advisor/education/it-and-tech/artificial-intelligence-in-school/#:~:text=How%20is%20artificial%20intelligence%20used,provide%20individualized%20support%20for%20learners.

6. Collaboration Tools // teaching.cornell.edu URL: https://teaching.cornell.edu/learning-technologies/collaboration-tools#:~:text=Collaboration%20tools%20allow%20students%2C%20instructors,as%20well%20as%20web%20conferencing.

7. Omirzakov, R. (2023). SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS AND ITS ROLE IN THE STATE POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION. *International Journal Of Law And Criminology*, *3*(07), 89-93.

8. Tursinbaev, M., & Rustem, O. (2023). IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMINING ASOSIY BO 'G 'INI SIFATIDA VAZIRLIKLARNING EKOLOGIK DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDAGI VAKOLATLARI. *SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI*, *2*(7), 31-35.

9. Tuuelbay, K. (2022). PROBLEMS OF DETERMINING THE SUBJECT AND MEANING OF THE CORPORATE AGREEMENT. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, *2*(1.4 Legal sciences).

TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHI

Gulshan Yusupova
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi

Annotasiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan. Ta’limni raqamlashtirishga oid tizimning asosiy komponentlari yoritilgan va tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, raqamli ko‘nikmalar.

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты развития цифровых технологий. Выделены и проанализированы основные компоненты системы, связанные с цифровизацией образования.

Ключевые слова: цифровизация, цифровые технологии, цифровая грамотность, цифровая компетентность, цифровые навыки.

Annotation. This article reveals the theoretical and practical aspects of the development of digital technologies. The main components of the system related to the digitalization of education are identified and analyzed.

Key words: digitalization, digital technologies, digital literacy, digital competence, digital skills.

Raqamli texnologiyalarni rivojlanishi ta’limga yondashuvlarni o’zgartirmoqda. Zamonaviy umumta’lim maktabi zamonaviy hayotning barcha talablariga va raqamli jamiyatda zamonaviy hayot uchun zarur bo‘lgan raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga to‘liq javob beradigan darajada bo‘lishi kerak.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, ta’lim va o‘qitish sifatini oshirish, uzluksiz o‘qituvchilar ta’limini o‘zgartirishdagi eng muhim qadam bo‘lib hisoblanadi.

Yangi texnologik inqilob sun’iy intellekt, robototexnika va virtual haqiqat kabi raqamli texnologiyalarning keng tarqalishiga olib keldi. Raqamlashtirishning bunday sur’atlari aksar insonlarning raqamli muhit vositalarini qo‘llash sohasidagi malaka va ko‘nikmalarini rivojlanishini oshiradi. Aynan shundan raqamli savodxonlik, zamonaviy insonning raqamli ko‘nikmalarini rivojlanish masalalari ayniqsa professional muhitda dolzarb bo‘lib bormoqda.

Raqamli savodxonlik (digital fluency) raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmui bilan belgilanadi. Bu insonning zamonaviy raqamli texnologiyalardan ish joyi va hayotida ishonch bilan qo‘llay olishi, bir nechta manbalardan olingan ma’lumotlarni qidirish va baholash universal qobiliyatini belgilaydi. Bunday raqamli savodxonlik raqamli asrda umumbashariy umuminsoniy ahamiyatga molik xususiyatga ega bo‘lib, bu jamiyatning barcha a‘zolariga kerak va shaxsning muhim axborot madaniyatini shakllantiradi.

Raqamli savodxonlik tagida **raqamli kompetensiya** (digital competencies)

yotadi-raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasidagi turli xil muammolarni hal qilish qobiliyati: raqamli texnologiyalardan foydalanib kontent yaratish va foydalanish, shu jumladan ma'lumotlarni qidirish va almashish, savollarga javob berish, boshqa odamlar va kompyuter dasturlari bilan o'zaro aloqa qilish. Raqamli kompetentsiya raqamli hamkorlik, xavfsizlikni ta'minlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini o'z ichiga olishi kerak.

Raqamli ko'nikmalar (digital skills) - aholining shaxsiy kompyuterlar, Internet va raqamli texnologiyalarning boshqa turlaridan foydalanish sohasidagi malakasi, shuningdek, insonlarning tegishli bilim va tajribaga ega bo'lish istaklari. Raqamli ko'nikmalar insonlarga raqamli kontentni yaratish va almashish, muloqot qilish va o'rganish, ish va umuman ijtimoiy faoliyatda samarali va ijodiy o'zini o'zi anglash uchun muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Raqamlashtirish zamonaviy maktab ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan, rivojlanayotgan "raqamli dunyo"da raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish uchun zarur. Shu bilan birga, zamonaviy yosh avlodning raqamli madaniyati hamda raqamli ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish uchun asosiy mas'uliyat o'z o'quvchilaridan farqli o'laroq, zamonning so'nggi muammolariga kamroq moslashgan, yetarlicha harakatchanlikka, mobillikka ega bo'lmagan o'qituvchilar tarkibiga tushadi.

Shuning uchun zamonaviy maktab va o'qituvchi o'zining raqamli kompetentsiyasini qanday oshirishligini, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish jarayonini qanday boshqarish kerakligi va bu texnologiyalar maktabga nima olib kelishi mumkinligini bilishi muhim. Zamonaviy o'qituvchi har qachongidan ham ko'proq, uning raqamli madaniyatini belgilaydigan va o'z sinfida yangi texnologiyalardan ishonchli foydalanishga imkon beradigan tizimli bilim va ko'nikmalarga, yangi professional kompetensiyalarga muhtoj.

Zamonaviy hayot uchun zarur raqamli jamiyatda Internet-texnologiyalarni rivojlantirish va tarqatish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va o'quv jarayonining texnologik samaradorligini oshirish ta'lim dasturlarini hamda joriy bilim, ko'nikma va yangi raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirishni sifatini oshirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, yangi raqamli texnologiyalar bilan qanday ishlashni bilmagan o'qituvchilar, ta'limning yangi mazmuni, o'qitish uslublari, baholashning zamonaviy yondashuvlarini o'zlashtirmaganlar taklif qilingan innovatsiyalarni amalga oshirilishini ta'minlay olmaydi.

Yangi axborot voqeligi, zamonaviy insonning turmush tarzi zamonaviy mutaxassisning axborot madaniyati va axborot texnologiyalari kompetentsiyasini rivojlantirish talablarini ilgari suradi. Shu bilan birga, umuman axborot madaniyatining past darajasi raqamli texnologiyalarni sifatli rivojlantirish, modernizatsiya qilish, butun mamlakat, uning raqobatbardoshligi va milliy xavfsizligi, aholi turmush

darajasi va sifatini oshirish uchun jiddiy to'siq bo'ladi. Shuning uchun yangi raqamli kompetensiyalarni shakllantirish asosiy bilimlar bilan bir qatorda tarmoqdagi o'zaro ta'sirga asoslangan zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning maxsus madaniyati turli xil ma'lumotlarning hajmi va mavjudligini sezilarli darajada oshirish sharoitida O'zbekiston ta'lim tizimining strategik

vazifasidir.

Tadqiqotchilar ta’limda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotning paydo bo‘lishi sharoitida O‘zbekistonda ta’lim tizimining transformatsiya maqsadlarini belgilashning asosiy shartlarini aniqladilar:

– uzluksiz ta’limning samarali tizimini shakllantirish zarurati;

– ta’lim xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishning umumiy tendentsiyasi.

Ta’limni raqamlashtirish jarayoni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amalga oshirish va rivojlantirish bilan bog‘liq. Shu bilan birga tadqiqotlarda zamonaviy raqamli texnologiyalar jamiyatni axborotlashtirish davrida pedagogika va predmet usullarining bir qismiga aylanib borishini qayd etadi. Ta‘lim metodologiyasi axborotga, pedagogikaning predmeti esa shaxsning axborot madaniyatiga, shu jumladan axborot xavfsizligi, media kompetentlik va media madaniyat aspektlariga aylanadi.

Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi zamonaviy ta’lim standartlarini amalga oshirish uchun didaktik vosita va tadqiqot vositalari to‘plami sifatida qaraladi.

Birinchidan, boshqa ko‘plab faoliyat sohalarida bolalar va kattalar tomonidan faol foydalaniladigan samarali raqamli texnologiyalar va vositalar ta’lim tashkilotlarida yetarli emas.

Ikkinchidan, ta’lim tashkilotlari ta’limni shaxsiylashtirish uchun raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanmaydi (traektoriyani tanlash, o‘quv materiallarining xilma-xilligi, o‘rganishda qiyinchiliklar bo‘lsa), o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish (interfaol o‘quv materiallari, ta‘lim o‘yinlari), pedagoglar va boshqaruvchilarning muntazam faoliyatini osonlashtiradi (monitoring, hisobot berish, ishlarni tekshirish).

Yangi raqamli texnologiyalar an’anaviy texnologiyalarga asoslangan zamonaviy maktab tomonidan hal etilmaydigan yoki yomon hal qilinadigan asosiy ta’lim vazifalarini hal qilish imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, zamonaviy maktablar oldida turgan ushbu vazifalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga intellektual va hissiy jalb qilish;

- bir guruh “ortda qolgan” maktab o‘quvchilari (idrok va xulq-atvorning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar) tomonidan ta’lim natijalariga barqaror erishish;

- yuqori qobiliyatli o‘quvchilarni mutanosib va o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash;

- o‘qituvchilarning kundalik vazifalar bilan ortiqcha yuklanishini bartaraf etish, ularning vaqtini ijodiy va tarbiyaviy ishlarga bo‘shatish;

- maktab ta’limida mavjud cheklangan ta’lim resurslarini bartaraf etish;

- zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish, birinchi navbatda ularni qo‘llashda, keng ko‘lamli texnologiyalarni tanlash imkoniyati;

- umumta’lim maktablari metodikalarini qayta qurish, xususan, raqamli vositalardan foydalanishga asoslangan o‘yin, loyiha, raqobatbardosh va jamoaviy usullarni joriy etish.

Qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimini sifat jihatidan qayta qurish va o‘qituvchi, “kelajak” o‘qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish sharti bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga faol joriy etish mumkin.

O‘zbekistonda maktab ta’limini sifat jihatidan yangilash va raqamlashtirish quyidagi majburiy shartlar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1) ta’limda yangi raqamli texnologiyalarni tarqatish orqali raqamli ta’lim muhitini yaratish, shu bilan birga mobil texnologiyalardan foydalanishni ta’minlash orqali;

2) zamonaviy raqamli ta’lim kontentini, yangi o‘quv-uslubiy majmualarini rivojlantirish;

3) o‘qituvchining sifatli kasbiy rivojlanishini ta’minlashni, yangi raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun motivatsiyani oshirishni, raqamli ta’lim kontentidan foydalanishni uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini o‘zgartirishni transformatsiya qilish orqali.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ta’limni raqamlashtirishni, umumiy ta’lim tizimida o‘sib kelayotgan avlodning yangi raqamli ko‘nikmalarini shakllantirishni davlatning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun yuksak ahamiyati va ustuvorligini ta’kidlashadi.

Xulosa. Ta’lim jarayonining texnologik samaradorligini, ta’limning moslashuvchanligini, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirishni ta’minlaydigan kontseptual qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish butun o‘qituvchilar jamoasiga talablarni oshiradi, o‘qituvchilardan yangi kasbiy va raqamli ko‘nikmalarni, raqamli kontentni ishonchli o‘zlashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 sonli ““Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. A. X. Maxmudov. Zamonaviy ta’limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. 2020 y.

3. Цифровые технологии в образование // https://www.uchportal.ru/publ/30-1-0-10201#:~:text

TA’LIM JARAYONIDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Lutfillayev Maxmud Hasanovich[1], Meliyeva Mohinur Baxromovna[2]
[1]Samarqand Davlat Universiteti professori, pedagogika fanlari doktori,
[2]Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning ahamiyati, o‘qitish jarayonida kompyuterga asoslangan imitatsion modellarning roli tasvirlangan. Kompyuterli modellashtirish texnologiyalari asosida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyasini rivojlantirish muammolari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Kompyuter imitatsion modellar (KIM), model, modellashtirish, tayanch kompetensiya, vizuallashtirish, AKT, elektron ta’lim.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF USING COMPUTER SIMULATION MODELS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Lutfillaev Makhmud Hasanovich[1]
Melieva Mohinur Bakhromovna[2]
[1]Professor of Samarkand State University, Doctor of Pedagogical Sciences,
[2]Doctoral student of Samarkand State University

Abstract. Annotation. This article describes the importance of using computer imitation models in the educational process, the role of computer-based imitation models in the teaching process. On the basis of computer modeling technologies, the problems of developing student base competence have been studied.

Key words: Computer simulation models (KSM), model, modeling, basic competence, visualization, ICT, e-learning.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ МОДЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Лутфиллаев Махмуд Хасанович[1]
Мелиева Мохинур Бахромовна[2]
[1]Профессор Самаркандского государственного университета, доктор педагогических наук,
[2]Докторант Самаркандского государственного университета

Аннотация. В данной статье описывается значение использования компьютерных имитационных моделей в образовательном процессе, роль компьютерных имитационных моделей в процессе обучения. Исследованы проблемы развития базовых компетенций учащихся на основе технологий компьютерного моделирования.

Ключевые слова: Компьютерные имитационные модели, модель, моделирование, базовые компетенции, визуализация, ИКТ, электронное обучение.

Kirish. XXI asr ilmiy-texnikaviy axborotlar asri deb atalishi axborot texnologiyalarining o‘rni yangi bosqichga ko‘tarilishi orqali amalga oshirilmoqda. Binobarin, fan o‘qituvchilarining, o‘quvchilarini axborot madaniyati ham bir necha

pog‘ona yuqorilashi, insonlarning kompyuter texnikasi bilan aloqalari mustahkam bog‘lanishi jarayonlarida ko‘rinmoqda. Bugungi kunda ta’limda o‘quv jarayonlarini AKTni qo‘llamasdan tasavvur etish amri mahol. Pedagoglarning tobora yangilanib borayotgan dasturiy vositalardan foydalana olish va dars jarayonida qo‘llay olishi, uning bevosita axborot bilan ishlay olish kompetensiyasiga bog‘liqligi bilan belgilanmoqda.

O‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish fanga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan o‘quvchilarning darsdan olgan bilimlari asosida ularni kompetensiyalarini shakllantirish, darajalarini belgilash va baholash orqali doimiy ravishda rivojlantirib borish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda ta’lim jarayonida bajarish imkoniyati cheklangan amaliy tajribalar, turli jarayonlar va ularning amalga oshirish kabi ko‘rsatkichlarni kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshirish dars samaradorligini oshirishga olib keladi. Kompyuter imitatsion modellardan foydalanish asosida fanni o‘quvchilar yanada to‘liqroq tushunishlariga erishish mumkin.

Kompyuterli modellashtirish murakkab jarayonlar, tajribalarni amalga oshirish imkoniyati bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladigan samarali usullaridan biridir. Kompyuter modellarining mohiyati o‘rganilayotgan asl obyektning (yoki obyektlarning butun sinfining) xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillarni aniqlashga, xususan, parametrlari va imitatsiya qilingan obyekt yoki jarayonlarni o‘rganishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta’lim tizimida kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish metodologiyasi bo‘yicha olimlar o‘z qarashlarini quyidagicha izohlaydi. Jumladan Omarov M.D. o‘z tadqiqot ishida kompyuterli imitatsion modellashtirish metodologiya sifatida ko‘plab ilmiy fanlarda sintezlovchi rol o‘ynaydi, fanning turli sohalariga yangi qo‘shimcha imkoniyatlar beradi, intuitiv aqliy-vizual "modellashtirish" ni cheklash va ratsional usullarni qo‘llashni kengaytirishga yordam beradi, zamonaviy intellektual tahlil esa turli xil ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarning ayrim qismlariga xos bo‘lgan namunalarni avtomatik ravishda qidirish uchun ma’lumotni qayta ishlaydi, gipotezalarni tavsiflash va nostandart uslublarni aniqlashning murakkabligini kompyuterga o‘tkazadi, deb aytgan.[1]

Elberg esa o‘zining “Imitatsionnoye modelirovaniye” nomli o‘quv qo‘llanmasida murakkab tizimlarni modellashtirishni o‘rgatishda ushbu tizimlarning analitik va imitatsion modellarini ishlab chiqish uchun turli muhitlar va metodologiyalardan foydalanish mumkinligini, jumladan: MvStudium, MATLAB, Arena, GPSS, Extend, iThinkAnalyst, ProcessModel va boshqalar muhitlardan foydalanish mumkinligini, xususan murakkab tizimlarning kompyuter imitatsion modellarini ishlab chiqish muhitlari orasida ko‘p yondashuvli muhit -AnyLogic alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi. [2] Elbergning fikricha, model yaratilgandan so‘ng va ba’zan ishlab chiqish jarayonida, tuzilmani o‘rganish va tizimning xatti-harakatlarini tushunish boshlanadi, uning muayyan sharoitlarda qanday harakat qilishi sinab ko‘riladi, turli xarakatlar solishtiriladi va optimal yechim topilgach, uni

real dunyoda qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Kompyuter imitatsion modellarni yaratish jarayonida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- o‘quv maqsadlarini aniqlash: imitatsion modellaridan foydalanish orqali erishiladigan o‘quv maqsadlari va natijalarini aniq belgilash;
- imitatsion model yaratish dasturini tanlash: o‘quv maqsadlariga mos keluvchi imitatsion model yaratish dasturi yoki platformalarni tanlash, hamda ushbu dasturning foydalanish qulayligi, mavjud texnologiya infratuzilmasi bilan mosligi va imitatsion model yaratish uchun talab qilinadigan aniqlik darajasi kabi omillarini ko‘rib chiqish;
- imitatsion modelni loyihalash: real dunyo tizimi yoki jarayonni to‘g‘ri ifodalash uchun imitatsion model yaratish ssenariysini ishlab chiqish;
- imitatsion model parametrlarini, o‘zgaruvchilarni va o‘zaro ta’sirlarni aniqlash;
- o‘quv natijalarini baholash;
- takomillashtirish: ta’lim tizimida kompyuter imitatsion modellaridan foydalanishni doimiy ravishda baholash va takomillashtirish;

Ushbu vazifalar bajarilgach, kompyuter imitatsion modellarni o‘quv jarayoniga tizimli ravishda integratsiyalash, o‘quvchilarning fanni teran anglashi, tushunishi, ko‘nikmalarni takomillashtirishi, shuningdek tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishga olib keladi.

Kompyuter imitatsion modellardan foydalanish o‘zida bir qancha xususiyatlarni jamlaydi. Xususan:

xavfsizlik: kompyuter imitatsion modellari tajribalar uchun xavfsiz muhitni ta’minlashi orqali ko‘plab tadqiqot o‘tqazish va o‘rganish imkonini beradi;

boshqariladigan muhit: kompyuter imitatsion modellari tadqiqotchilarga boshqariluvchi muhitda turli parametrlar va o‘zgaruvchilarni qo‘llash orqali, murakkab tizimlar va hodisalarni yanada kengroq tushunishga yordam beradi;

takrorlanuvchanlik: kompyuter imitatsion modellari takrorlanuvchanlik imkoniyatini taqdim etib, tadqiqotchilarga bir xil tajribani izchil natijalar bilan bir necha marta bajarishga imkon beradi, hamda tajribalarning ishonchliligini oshiradi;

tezlik va samaradorlik: kompyuter imitatsion modellari jarayonlar yoki hodisalarni real vaqtga qaraganda tezroq taqlid qilishi natijasida, tadqiqotchilarga nisbatan qisqa vaqt ichida uzoq muddatli jarayonlarni yoki uzoq vaqt davomida yuzaga keladigan hodisalarni o‘rganish imkonini beradi;

moslashuvchanlik: imitatsion modellar juda moslashuvchanligi tufayli, tadqiqotchilarga turli tadqiqot masalalari yuzasidan modelni o‘zgartirish, kengaytirish yoki takomillashtirish imkonini beradi;

vizual ko‘rinish: kompyuter imitatsion modellari murakkab tizimlar yoki jarayonlarning vizual tasvirini taqdim etib, tushunishni kuchaytirishi, ma’lumotlarni tahlil qilishni osonlashtirish va tadqiqot natijalarini kengroq auditoriyaga, o‘quvchilarga sodda tushuntirish imkonini beradi;

bashorat va prognozlash: kompyuter imitatsion modellari bashoratlash prognozlash imkoniyati orqali, tadqiqotchilarga mavjud sharoitlar va tarixiy ma’lumotlar asosida kelajakdagi voqealar yoki natijalarni taxmin qilish imkonini beradi;

Kompyuter imitatsion modellaridan ta’limda foydalanish iqtisodiy samaradorlik, xavfsizlik, nazorat, takrorlanuvchanlik, moslashuvchanlik, bashorat qilish kabi afzalliklarni o‘zida mujassamlashtirib, bugungi o‘zaro bog‘liq dunyoda murakkab muammolarni hal qilish uchun qimmatli vositaga aylantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda kompyuter imitatsion modellardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu modellarni o‘quv jarayoniga tadbiq etish orqali quyidagi natijalarga erishish imkoniyati paydo bo‘ladi:

murakkab tizimlarni tushunish: kompyuter imitatsion modellar talabalarga murakkab tizimlarni soddalashtirilgan, ammo tizimli tarzda o‘rganishga imkon beradi;

ko‘nikmalarni rivojlantirish: kompyuter imitatsion modellardan amaliy tajriba muhim bo‘lgan sohalarda foydalanish ahamiyatlidir;

jarayonlar tahlili: imitatsion modellar talabalarga turli jarayonlarni tahlil qilish va turli sharoitlarda potensial natijalarni baholash imkonini berish natijasida, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

o‘zaro aloqadorlik: KIMlar bir nechta fanlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘p qirrali vositalar bo‘lib, fanlararo o‘rganish va hamkorlikni rivojlantiradi. Talabalar turli sohalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganishlari va murakkab hodisalar haqida yaxlit tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin.

Masalan Phet saytida keltirilgan ushbu imitatsion modelda inson ko‘zi orqali ranglarni ko‘rish va idrok etish jarayoni ko‘rsatilgan:



Rasm-1. RGB. Inson ko‘zining ranglarni qabul qilish jarayoni.

Umuman olganda, ta’lim tizimida kompyuter imitatsion modellarini qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda faollik va fanni chuqurroq o‘rganish borasida o‘z natijalarini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Омаров М.Д. Аналитический обзор методологии компьютерного моделирования. Вестник Дагестанского государственного технического университета. Технические науки. №1 (36), 20152.
2. Эльберг, М. С., Цыганков Н. С. Имитационное моделирование: учеб. пособие – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2017. –128 с.
3. Lutfillayev, M., Meliyeva, M. (2023, May). Informatika fani o‘qituvchilarini kompyuter imitatsion modellar asosida kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish.

In international scientific and practical conference on algorithms and current problems of programming.
4. Lutfillayev, M., & Meliyeva, M. Kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitish texnologiyasi. Pedagogik mahorat jurnali. 11-son (2023-yil, dekabr) 69-74 bet.
5. M.X. Lutfillayev, O.O. Narkulov. Methodology of improving the educational process on the basis of mobile applications in higher educational institutions (with reference to solid state physics). Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security: Volume 2, 2023, 2, stranitsi 712–718.
6. Husain, Noushad. (2010). Computer–Based Instructional Simulations in Education: Why and How. Edutracks. Vol.10.

Internet saytlari:

1. https://phet.colorado.edu
2. https://ru.wikipedia.org

TA’LIM NATIJALARINI BAHOLASH VA DIAGNOSTIKA QILISHNING TURLI USUL VA VOSITALARI

Norbekov Doston Keldibekovich
Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi +998943418525 norbekovdoston@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim natijalarini baholash va diagnostika qilish usullari, **axborot-ta’lim muhitida** elektron-onlayn testlardan foydalanishga asoslangan ta’limni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. bilim darajalari, o‘quvchilar yutuqlari, insoniy qobiliyatlar, test sinovlari va natijalar, portfoliyalar, baholash, diagnostika.

Аннотация. В данной статье описаны методы оценки и диагностики образовательных результатов, теоретические и практические основы образования, основанные на использовании электронно-онлайн-тестов в информационно-образовательной среде.

Ключевые слова. уровни знаний, достижения учащихся, навыки межличностного общения, тесты и результаты, портфолио, оценка, диагностика.

Annotation. This article describes the methods of evaluating and diagnosing educational results, the theoretical and practical foundations of education based on the use of electronic-online tests in the information-educational environment.

Keywords. knowledge levels, student achievement, interpersonal skills, tests and results, portfolios, assessment, diagnostics.

Kirish. Ta’lim tizimi har bir o‘quvchining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning o‘zlashtirilishini ta‘minlash uchun turli sinovlar, imtihonlar, va amaliyot ishlari tashkil etiladi. Albatta, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari natijalari tahlil qilinib borilishi lozimdir.

O‘quvchilar o‘z ta’lim yo‘nalishlarida va umumiy hayotlarida o‘zlari muhtoj bo‘lgan bilim va yutuqlarni olishlari mumkin. Bu bilim va yutuqlar ta’lim natijalariga, ijodiy faoliyatiga, jamiyatda qatnashishiga va insoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar o‘z bilimlari natijasida erishgan yutuqlari turli xil bo‘lishi mumkin:

1. Akademik yutuqlar: Sinovlar va imtihonlar natijasida olingan bilim darajalari.

2. Ijodiy yituqlar: O‘quvchilarning turli xil loyihalardagi, hamkorliklarda va sportda erishgan yutuqlari.

3. Insoniy va qo‘mitaviy yutuqlar: O‘quvchilar o‘z o‘ziga ishonish, jamiyat bilan hamkorlik va insoniy qobiliyatlarini rivojlantirish yutuqlari.

Yutuqlar tahlili: O‘quvchilar erishgan yutuqlarini tahlil qilish uchun bir nechta jarayonlarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Ijodiy yutuqlar: Loyihalar, maslahatlar, ijodiy ishlar va hamkorliklar natijasida o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini tahlil qilish.

2. Jamiyatda qatnashish: O‘quvchilar jamiyat, jamoat va maktab tashkilotlari bilan qatnashish natijasida erishgan yutuqlarni baholash.

3. Insoniy qobiliyatlar: O‘quvchilar o‘zlarining insoniy qobiliyatlarini, liderlik xususiyatlarini va jamoatga foydali bo‘lishlari natijasida erishgan yutuqlarini tahlil qilish.

Yutuq natijalari: Tahlil natijalari o‘quvchilarning yutuqlarini rivojlantirish, ta’lim tizimini mustahkamlash, va ularning keyingi maqsadlari uchun ilhomlanishga qanday o‘zgarishlar kiritish kerakligini ko‘rsatishi mumkin.

“Ta’lim natijalarini baholash va diagnostika qilishning turli usul va vositalari” haqidagi maqola o‘z ichiga ta’lim jarayonining baholanishi va diagnostikasi bo‘yicha turli usullar va vositalarni qamrab oladi. Bu mavzu, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, tushunarli ravishda o‘rganishlari, va yangi bilimlarni amaliyotga o‘tkazish ya’ni tadbiq qilish jarayonini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Quyidagi shakllarda bu mavzuni ko‘rib chiqamiz:

Muvofiqlashtirilgan dars jarayonlarini baholash: Ta’lim natijalarini baholashda eng muhim usullardan biridir, o‘qituvchilar va murabbiylar tomonidan o‘rgatilgan darslar, mashg‘ulotlar va boshqa ta’lim jarayonlarini baholashdir. Bu baholash o‘quvchilarning fikr-mulohazalari, darslarda faol qatnashganlik darajalari, va amaliyotda tadbiq qilishlarini tushuntiradi.

Test sinovlari va imtihonlar: O‘quvchilar bilim darajasini aniqlash uchun test sinovlari va imtihonlar o‘rganish jarayonida keng qo‘llaniladi. Bu, o‘quvchilarning darslarni o‘zlashtirishlariga va tushunishlariga yordam beradi. Imtihonlar individual o‘quvchilar uchun yaratilgan bo‘lib, ularning ma’lum bir fan yoki mavzu bo‘yicha bilimlarini tekshirishda yordam beradi.

Proyektlar va amaliyot ishlari: O‘quvchilar amaliyotda bilimlarini namoyon etish va o‘z fikrlarini ifodalash jarayonida foydalanadi. Bu, o‘quvchilar uchun qiziqarli va maqsadli bo‘lgan mashg‘ulotlarni o‘rganishda, ularning mahoratini ko‘rsatishda va amaliyotda ish qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydalanishlari mumkin.

Portfoliyalar: O‘quvchilarning mahoratini, muvofiqligini va o‘zlashtirilish jarayonidagi rivojlanganliklarini ko‘rsatish uchun portfoliyalar qo‘llaniladi. Bu, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini qamrab olish, yangi bilim va ko‘nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirish uchun muhim vosita sifatida ishlaydi.

Elektron ta’lim platformalari: Texnologiya sohasidagi yangiliklar ta’lim jarayonini o‘zgartirib, elektron ta’lim plataformalari yordamida online sinovlar, vebinarlar va online baholar tashkil etiladi. Bu usul, o‘quvchilarning masofaviy ta’lim olish jarayonida va bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun yaxshi bir vosita sifatida xizmat qiladi.

O‘quvchilar va o‘qituvchilar orasidagi baholash muloqotlari: O‘quvchilar bilan o‘qituvchilar o‘rtasida amaliy muloqotlar o‘tkazib, ularning ta’lim natijalari, muammolari, va rivojlanishlari haqida ma’lumot olish imkonini yaratadi. Bu, o‘quvchilar bilan aloqani rivojlantirish, ularning qiziqishlarini aniqlash va ularni rag‘batlantirish uchun samarali usul va vosita bo‘ladi.,

Ta’lim tizimida baholashni amalga oshirish davomida ta’limdagi quyidagi tushinchalarni mohiyatini tushinish zarur:

Mezon - buning asosida biror narsani baholash, aniqlash yoki tasniflash amalga oshiriladigan belgi - baholash o‘lchovi.

Kasbiy tayyorgarlik (ishlab chiqarish ta’limi) sifatini baholash mezoni parametrlarning raqamli ifodasidir:

- mavzuning to‘liqligi,
- faoliyatni o‘zlashtirish darajasi,
- mavhumlik darajasi,
- avtomatlashtirish,
- o‘zlashtirishdan xabardorlik.

Ko‘nikmalar - mashqlar natijasida shakllangan va ongli faoliyatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismlari bo‘lgan harakatlarni bajarish usullari.

O‘rganish - bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, kognitiv faoliyat usullarini uzatish va faol o‘zlashtirish jarayoni.

Ishlab chiqarish ta’limi – kasb-hunar ta’limi davlat standarti talablariga muvofiq kasbhunar maktablari (litseylar) o‘quvchilarini kasb bo‘yicha ma’lum turdagi unumli mehnatga amaliy tayyorgarligi. Ishlab chiqarish ta’limi o‘quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida aniq maqsad va vazifalar, o‘qitishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalari bilan tavsiflanadi.

Kasbiylik - o‘quv va amaliy faoliyat jarayonida olingan, qo‘llanadigan funktsional vazifalarni malakali bajarish qobiliyati; bajarilgan vazifalarning murakkablik darajasiga mos keladigan ma’lum bir kasb bo‘yicha malaka va mahorat darajasi.

Kasbiy ta’lim standarti – ma’lum bir faoliyat sohasida va ma’lum bir malaka darajasida kadrlar tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan minimal majburiy talablarning diagnostik tavsifi, ta’lim sifatining standart ko‘rsatkichlarida ifodalangan va nazoratning standart usullariga mos keladigan.

Test – ta’lim oluvchilar bilimi sifatini nazorat qilishning ob’ektiv usuli; assimilyatsiya faktini ochib beruvchi vosita. Test ma’lum darajadagi va standartning faoliyati uchun topshiriqdan iborat, ya’ni, harakatning to‘liq va to‘g‘ri bajarilishiga misol. Standart testni hal qilish uchun zarur bo‘lgan muhim operatsiyalar sonini (ma’lum bir assimilyatsiya darajasida baholangan faoliyatdagi harakatlar) belgilanadi.

Malaka - bilim va ko‘nikmalarga asoslangan va ular bilan birga takomillashib borayotgan shaxsning ma’lum bir faoliyatni amalga oshirish qobiliyati (tayyorligi).

Assimilyatsiya darajasi - faoliyat haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasi; o‘quv jarayonida o‘quvchining berilgan fan bo‘yicha tajribasining rivojlanishini aks ettiradi.

Assimilyatsiyaning to‘rt darajasi mavjud: tan olish, algoritmik faoliyat, evristik faoliyat, ijodiy faoliyat. Ta’lim samaradorligi - bu haqiqatda erishilgan natijalarning ta’lim dasturida ko‘zda tutilgan maqsadlarga mos kelishining o‘lchovidir.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqola, ta’lim natijalarini baholash va diagnostika qilishda muhim bo‘lgan ko‘nikmalarni va vositalarni tushuntiradi. Bu usullar, o‘quvchilarning o‘zlashtirishini rivojlantirish va ta’lim natijalarini yaxshi baholashda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun juda muhimdir.

O‘quvchilar erishgan yutuqlarni tahlil qilish maqsadida o‘quv markazlarida va ta’im muassasalari ichida xususiy tahlil tizimlarini o‘rnatish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini mustahkamlash, ularni insoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy faoliyatlarini yaxshi va qo‘llab-quvvatlash uchun zarurdir.

Adabiyotlar:

1. 1Abduraxmonov Sultonali Mukaramovich, Ibragimov Shavkat Mamirovich “Ta’lim tizimida baholashning asosiy mezonlari va uning axamiyati” FarDU. Ilmiy xabarlar- 2-2022
2. Ястребов Г.А., Пинская М.А., Косарецкий С.Г Использование контекстных данных в системе оценки качества образования: опыт разработки и апробация инструментария // Вопросы образования - 2014 - № 4 с.58- 92.(Yastrebov G.A., Pinskaya M.A., Kosaretsky S.G. Using contextual data in the system of assessing the quality of education: experience in the development and testing of tools // Educational Issues)

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI TUSHUNCHALARI

O.M.Halvaevna, Sh.S.Normatov

Toshkent viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, Chet tillarni ommalashtirish bo‘yicha bosh mutaxassis, UzDJTU mustaqil tadqiqotchisi. Angren shahar 2-son kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlashda media va axborot savodxonligi muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, media va axborot savodxonligi insonlarning o‘zaro axborot va media ulashuvida shu bilan birga o‘quv maqsadlari hamda ta’lim muhitida o‘ta zarur hisoblanishi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot, axborot texnologiyalari, media savodxonlik, axborot savodxonlik, raqamli ta’lim muhiti.*

Аннотация. *Данная статья предлагает рассмотреть ряд ключевых моментов такого комплексного понятия как медийно-информационная грамотность, представляющей собой эффективный инструмент для обеспечения качественного и доступного образования на всех жизненных этапах. Медийно-информационная грамотность включает в себя различные компетенции, способствующие развитию медиа и информационной грамотности, наряду с цифровой грамотностью.*

Ключевые слова: *информация, информационные технологии, цифровая образовательная среда, медиа грамотность, информационная грамотность.*

Abstract. *This article proposes to consider a number of key points of such a complex concept as media and information literacy, which is an effective tool for providing high-quality and accessible education at all stages of life. Media and information literacy includes various competencies that contribute to the development of media and information literacy, along with digital literacy.*

Key words: *information, information technology, information literacy, media literacy, digital educational environment*
ology, information literacy, media literacy, digital educational environment

Ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlashda media va axborot savodxonligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli YuNESKO “Raqamli pedagogika va o‘quv materiallari” bo‘limi media va axborot savodxonligini targ‘ib qilish sohasida izchil ishlarni olib bormoqda. Media va axborot savodxonligi 2007 yilda YuNESKO tomonidan taklif etilgan umumlashma tushuncha bo‘lib, media va axborot savodxonligi hamda raqamli yoki texnologik savodxonlik bilan bog‘liq barcha kompetentsiyalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Media va axborot savodxonligi kontekstida turli xil o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi ya’ni insonlarning o‘zaro axborot va media ulashuvida shu bilan birga o‘quv maqsadlari hamda ta’lim muhitida o‘ta zarur hisoblanadi. Media va axborot savodxonligi “XXI asar ko‘nikmalari” ning ajralmas qismi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Axborot - biron voqea haqidagi batafsil xabar yoki ma'lumot bo‘lib, o‘z ichiga ma'lumotlar, o‘qish jarayonida egallangan bilim, tajriba, ko‘rsatma, belgi va ramzlarni qamrab oladi.

Axborotning ko‘pligi voqea va hodisalarni yuzaki, tez hamda chala idrok etishimizga sabab bo‘ladi. Axborot olami orqali biz ko‘p narsani egalladik deb hisoblaymiz, lekin bilganlarimizning aksariyat qismi yuzaki yoki vaqtinchalik. Bugungi axborot-bugunniki. “yaqin o‘n yil ichida birorta yangi xabar uzatilmasagina biz qolgan axborotlarni o‘zlashtirishga ulguramiz”.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish jadal olib borilmoqda. Mana shunday vaziyatda biz o‘zimizda axborotni saralash, to‘g‘ri to‘liq, kerakli mag‘lumotlarni keraksizlaridan farqlay olish ko‘nikmasini shakllantirishimiz juda muhim.

Nima uchun axborotlar olamining ahamiyati tobora ortib bormoqda? So‘nggi yillarda axborot oqimining jadal surhatlar bilan tezlashishi, ijobiy axborotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi bizning oldimizga media va axborot savodxonligiga ega bo‘lish zaruratini qo‘ymoqda. Bugun mediasavodxonlik – axborotlarning kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilayotganligini bilish demakdir. O‘qituvchi ma'lumotning ishonchliligini tekshirishning asosiy tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirishi lozim: o‘zidan hech narsa qo‘shmaslik, o‘quvchilarni aldamaslik, usul va sabablar maksimal darajada tushunarli bo‘lishi lozim, o‘zining xabar tayyorlash uslubiga tayanishi, kamtar bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mediasavodxonlik o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘yadi. Mediasavodxonlik - har bir medianing muhim o‘rni va kamchiliklarini anglagan holda:

- shaxslar tomonidan tarqatilayotgan axborotlarni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanish;
- odamlarga axborot va uning muhimlik rolini anglay bilish kabilarni tushunishga yordam berishdir.

Media - ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funktsiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir.

Mediasavodxonlik - insonning jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mashuliyatini his qilgan holda faol va savodli bo‘lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushina olishi demakdir.

Media savodxonlik nima?

- mediadan *foydalanish, tahlil qilish, baholash va uzatish* ko‘nikmalari;
- mediadan *passiv* emas, aksincha *aktiv* foydalanish jarayoni;
- Stereotip va og‘ishmalarni anglash;
- Haqiqiy dunyo va media dunyo orasidagi farqni tushunish;
- Yangiliklar qanday yaratilishi haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- oddiy foydalanuvchilar uchun mediamatn yarata olish.

Media savodxonlik ko‘nikmalari:

- utilitar, funktsional va pragmatik ko‘nikmalar
- tanqidiy tahlil ko‘nikmalari
- estetik va kreativ ko‘nikmalar
- interfaollik ko‘nikmalari
- xavfsizlik ko‘nikmalari

Mediasavodxonlik nima uchun kerak?

- Huquqiy demokratik jamiyatimizning to‘laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushinish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo‘l qo‘ymaslik va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- Insonning vizual obrazlar tahsiri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas mahlumotlarni “o‘qiy olish”;
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;
- Axborot qaerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o‘zida aks etayapti degan savollaga javob topa olish uchun zarurdir.

Yangiliklar, media va axborotning etik jihatlari

Internet keng muloqotga imkon yaratadi, ammo undan foydalanishning o‘ziga xos me’yorlariga rioya etish zarur.

Quyida keltirilgan qoidalar infoetikaning umumiy qabul qilingan me’yorlari hisoblanadi:

- Boshqa insonlar tomonidan yaratilgan ob’ekt(masalan, tasvir, qo‘shiq yoki film)larni ruxsatsiz tarqatish yoki nusxa ko‘chirish orqali mualliflik huquqini buzish mumkin emas.
- Internetda tuhmat, ishonchsiz va tekshirilmagan axborotni tarqatish mumkin emas. Bunday axborotga grafik tahrirda qayta ishlangan tasvir va o‘zida tuhmatni aks etgan, elektron pochta orqali yuborilgan matn, bir zumlik xabar va ijtimoiy tarmoqlarda berilgan xabarlar kiradi.
- Jinsiy qarash va diniy ehtiqodga oid ijtimoiy, siyosiy va diniy mavzulardagi xususiy axborot va tasvirlarni tarqatish noqonuniydir.
- Balog‘at yoshiga yetmagan shaxsning jinsiy hayotiga oid tasvirlarni tarqatish noqonuniydir.

Global mediamuhitda quyidagi axloqiy tamoyillar mavjud:

- axborotni to‘plash va tarqatishda halollik va kasbiy mahorat;
- fikr va sharhda erkinlik;
- irqi, jinsi, millati, diniy qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi, kasbiy sohasi, jismoniy imkoniyatlari va boshqa shaxsiy sifatlaridan qathiy nazar tenglik;
- axborot manbalari va foydalanuvchilariga hurmat va shaxsiy hayotga daxlsizlik;
- tashqi har qanday tahsirga nisbatan mustaqil bo‘lish va pora olmaslik.

Taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkarning fikriga ko‘ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam, bu to‘g‘ri savol bera olishdir. Bugungi kunda Internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy hurujlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylandi va u kiberxavfsizlik nomini oldi. Zero, virtual va haqiqiy dunyoning qo‘shilishi, aynan virtual dunyo orqali yoshlar tomonidan haqiqiy dunyoni noto‘g‘ri tushunilishi, turli xil salbiy kuchlar va oqimlar tomonidan bir qarashda ijobiy ko‘ringan, ammo mohiyatan inson ongiga salbiy tahsir qiluvchi axborotning tarqatilishi ko‘payib borayotganligi hech kimga sir emas. Aynan jamiyat hayotiga tahsir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur, degan fikrlar ko‘paymoqda.

Ayni paytda axborot savodxonligi, media savodxonlik bo‘yicha har bir ta’lim muassasida fakultativ o‘quv kurslarini tashkil etish hamda bu kurslar orqali o‘quvchi yoshlar ongida shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini shakllantirishdir. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni.
2. Jennings Bryant, Susan Thompson,Bruce W.Fundamentals of Media Effects: Second Edition. 2013.-p. 22
3. Mediaobrazovanie//Rossiyskaya pedagogicheskaya entsiklopediya. T.1/Gl. red. V.V.Davqdov. — M.: Bolg‘shaya rossiyskaya entsiklopediya, 1993. — S. 555.
4. Sharikov A.V. Mediaobrazovanie: mirovoy i otechestvennqy opqt. — M.: Izd-vo Akademii pedagogicheskix nauk, 1992. — S.50-51.
5. Mediasavodxonlik va mediata’lim / N.Qosimova/

ANALYSIS OF DATA COLLECTION METHODS FOR AN IMAGE RECOGNITION PROGRAM WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGY

Makhmudova Shakhzoda Yorkinovna, Sharopova Barno Abdunabiyevna
Tashkent University of information technologies named after Muhammad al Khwarizmi; Institute of counter-irrigation and agro technologies of the national research university

Abstract. The majority of individuals have the ability to recognize faces quickly, interpreting expressions and emotions automatically. While humans are skilled in facial recognition, Computer Vision (CV) is advancing rapidly, sometimes outperforming humans in this area. Advances in CV and Machine Learning have led to efficient and accurate solutions surpassing human capabilities. The potential uses of this technology are broad, including applications in marketing and retail, driven by large datasets of faces with diverse features.

Keywords: Machine learning, computer vision, datasets, methods, image.

Аннотация. Большинство людей обладают способностью быстро распознавать лица, автоматически интерпретируя выражения и эмоции. В то время как люди обладают навыками распознавания лиц, компьютерное зрение быстро развивается, иногда опережая людей в этой области. Достижения в области компьютерного зрения и машинного обучения привели к созданию эффективных и точных решений, превосходящих возможности человека. Потенциальные области применения этой технологии широки, включая приложения в маркетинге и розничной торговле, основанные на больших наборах, данных о лицах с разнообразными чертами.

Ключевые слова: машинное обучение, компьютерное зрение, наборы данных, методы, изображение.

Annotatsiya. Aksariyat odamlar ifoda va his-tuyg‘ularni avtomatik ravishda talqin qilish orqali yuzlarni tezda tanib olish qobiliyatiga ega. Odamlar yuzni aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, kompyuter ko‘rishi tez rivojlanmoqda, ba’zida bu sohada odamlardan oldinda. Kompyuter ko‘rishi va mashinali o‘qitishdagi yutuqlar inson imkoniyatlaridan yuqori bo‘lgan samarali va aniq echimlarni yaratishga olib keldi. Ushbu texnologiyaning potentsial ilovalari keng, jumladan, marketing va chakana savdoda turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar haqidagi katta to‘plamlarga asoslangan ilovalar.

Kalit so‘zlar: mashinali o‘qitish, kompyuter ko‘rishi, ma’lumotlar to‘plami, metodlar, tasvir.

Introduction

Facial recognition is a subset of image recognition that utilizes AI/ML models. Collecting data for facial recognition involves gathering face images to enhance FRSs by training them with annotated images of various individuals. The process of facial recognition software starts with gathering facial recognition data and processing images through Computer Vision. Images receive thorough digital screening to distinguish between a human face, a photo, a sculpture, or a poster. Machine learning is employed to detect patterns and similarities in the dataset. The ML algorithm recognizes facial features to identify a face in an image.

To achieve optimal performance, the facial recognition model needs training on diverse datasets. The software should be able to accurately read, identify, and recognize each unique face, including changes in facial contours caused by emotions. A solution is to gather photos of people from around the world with various angles, perspectives, and expressions to create a diverse database. This database, when uploaded to a centralized platform with clear annotations, allows for efficient quality control checks. Collecting high-quality images of different individuals is crucial for the software's effectiveness. Facial data collection is essential for the performance of facial recognition software, providing valuable details on facial features for accurate identification in dynamic environments using AI training data.

Machine learning algorithms have achieved high accuracy in face recognition systems. These algorithms consist of two components: data and the algorithm. However, machine learning-based face recognition techniques need many labeled samples, which are costly and time-consuming to acquire. The effectiveness of these techniques typically increases with better quality and quantity of data. Two ways to gather a significant amount of data include gathering face data from users and augmenting data from a limited dataset. Gathering a large number of face images is crucial for successful face recognition, and a method to enhance datasets by introducing variations in facial appearance was suggested. "One-to-many augmentation" methods can help overcome data collection challenges and expand datasets.

Data Collection Process

O‘yin dizayni shundayki, o‘yinchilar o‘z qurilmalariga tez-tez qarashlari kerak. O‘yin jarayoni oddiy. Barcha o‘yinchilar umumiy ekranda ko‘rsatilgan yaratilgan o‘yin PIN kodi yordamida ulanadi va o‘qituvchi, biznes rahbari yoki boshqa shaxs tomonidan yaratilgan savollarga javob berish uchun qurilmadan foydalaniladi. Bu savollar mukofot ballariga o‘zgartirilishi mumkin. Yaratuvchi o‘yinchilar 0, 1000 yoki 2000 ball olishlarini tanlashlari mumkin. O‘yinchi olgan ballar o‘yinchi qancha olishi mumkinligi va o‘yinchining javob berish uchun qancha vaqt ketishiga qarab hisoblanadi. O‘yinchi qanchalik tez javob bersa va o‘yinchi to‘g‘ri javob bersa, shuncha ko‘p ball oladi. Ballar har bir savoldan keyin peshqadamlar jadvalida ko‘rsatiladi. O‘yinchi ham ketma-ketlikni qo‘lga kiritishi mumkin, ya’ni ular ko‘proq savollarga ketma-ket javob berishadi. Ularning chizig‘i qanchalik yaxshi bo‘lsa, savolga to‘g‘ri javob berganda shuncha ko‘p ball oladi.

Kahoot! veb-brauzer orqali yoki mobil qurilmalardagi ilovada o‘ynash mumkin.

2017-yil mart oyida Kahoot! bir milliard ishtirokchi o‘yinchilarga yetdi va may oyida kompaniya 50 million oylik faol foydalanuvchilarga ega ekanligi xabar qilindi. 2017-yil sentabr oyida Kahoot! mobil ilovani ishga tushirdi.

2017-yildan boshlab Kahoot! Northzone, Creandum va Microsoft Ventures kompaniyalaridan 26,5 million dollar mablag‘ to‘pladi. 2018-yil 11-oktabr holatiga ko‘ra, Kahoot! 300 million dollarga baholangan. 2020-yil 11-iyun holatiga ko‘ra, Kahoot! 1,5 milliard dollarga baholangan va Shimoliy zonadan qo‘shimcha kapital jalb qilingan.

2020-yildan boshlab Kahoot! foydalanuvchilari endi turli savol turlaridan foydalanishi mumkin. Viktorina savolning asosiy turidir. Bu savol kamida 2 variantni talab qiladi, ulardan biri to‘g‘ri javob sifatida belgilanishi kerak. Ixtiyoriy pulli obuna „bitta tanlash” yoki „ko‘p tanlov“ o‘rtasida tanlov qilish imkoniyatini qo‘shadi. Yagona tanlash oýinchi faqat bitta variantni tanlashi mumkinligini bildiradi va ko‘p tanlov foydalanuvchiga taqdim etilgan to‘rtta variantdan istalgan sonini tanlashi mumkinligini bildiradi. Haqiqiy yoki noto‘g‘ri variant ham mavjud, asosiy farqi shundaki, faqat ikkita variant (to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri) o‘zgarmasdir va ularni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ushbu ikki tur hisobni yangilashni talab qilmaydi.



Keyingi savol turi ochiqdir, ya’ni o‘yinchilar ochko olish uchun to‘g‘ri javobni kiritishlari kerak. Yaratuvchi qabul qilingan javobni tanlashi kerak, biroq ular bir nechta qabul qilingan javoblarni ham belgilashlari mumkin. Savolning oxirgi turi *Puzzle(boshqotirma – bu fikrlash va mantiq yordamida bajarilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriqlardir)* bo‘lib, o‘yinchi to‘rtta variantni yaratuvchi to‘g‘ri deb belgilagan tartibda tekislashni talab qiladi. Masalan: Mamlakatlarni aholi soni bo‘yicha eng kam aholidan tortib eng ko‘p aholiga qadar tekislang.

O‘yin oxirida g‘oliblar podiumida 3 ta eng yaxshi o‘yinchining animatsiyasi mavjud. O‘yinchilar o‘zlarining tajribalariga asoslanib Kahootni baholashlari mumkin.

XULOSA. Asosiy xulosa shuki, Kahoot! ta’lim samaradorligiga, sinf dinamikasiga, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sharhga kiritilgan tadqiqotlar miqdoriy va sifatli tadqiqot usullarining aralashmasidan foydalanadi, ular boshqa narsalar qatorida Kahoot! an’anaviy o‘qitish va boshqa vositalar bilan solishtirganda ta’lim samaradorligida statistik sezilarli yaxshilanishga ega, talabalar va o‘qituvchilarning ma’ruzalarni idrok etishlarida statistik jihatdan sezilarli yaxshilanish, sinf dinamikasida statistik jihatdan sezilarli yaxshilanish va Kahoot! an’anaviy o‘qitish va boshqa vositalar bilan solishtirganda talabalarning tashvishlarini kamaytirishi mumkinligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jaeva.N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.–T.:2003.-174 b.
2. Bugatov V.M. Pedagogicheskie tainstva didakticheskix igr. Ucheb.-metodicheskoe posobie. 2-e izd.. – M.: Flinta, 2003. -152 s.
3. Gromkova M.T Pedagogika obrazovaniya vzroslx (uchebnoe posobie) – M.: TOO. Intl.Tex. 1995 g. - 96 s.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kahoot!
5. Kahoot.com

KREDIT-MODUL TIZIMIGA ASOSLANGAN O‘QUV JARAYONIDA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Ergashev Baxtiyor Baxriddinovich
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: baxtiyor-ergashev2024@gmail.com

Annotation. The article discusses the features of the use of intelligent technologies in the educational process based on the credit-module system. Today, developed countries of the world attach special importance to organizing education using intelligent technologies.

Key words: intelligent technologies, independent education, information and communication technologies, intelligent systems.

KIRISH. Biz texnik va texnologik yangilanishlar asosida axborotlashgan va globallashgan davrda yashamoqdamiz. Bunday sharoitda intellektual salohiyatni oshirish, ilg‘or loyihalar va ishlanmalarni amaliyotga tez hamda samarali tatbiq qilish mamlakat taraqqiyotida alohida ahamiyatga egadir. Buning uchun bugungi talaba yoshlarga zamon talabi darajasida bilim berishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik tizimni yaratishimiz kerak.

METODLAR. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga samarali qo‘llashda ular asosida yaratilgan intellektual tizimlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Itellektual tizimlar o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, test asosida baholash va nazorat qilish ishlarida pedagogik xodimlar va rahbarlarga ko‘makchi vazifasini bajaradi. Tadqiqotning ob’ekti sifatida oliy ta’lim jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish, suhbat, so‘rovlar o‘tkazish usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR. Hozirgi vaqtda intellektual tizimlarni tadqiq etish va yaratish bo‘yicha bir qancha yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bilimlarni taqdim etish, bilimlardan foydalanish (inson fikrlashiga o‘xshash modellar), muloqot (inson va sun’iy intellekt o‘rtasida), qabul qilish (vizual tarzda), ta’lim berish va ta’lim olish (muammoli vaziyatlarni tashkil etish) kabilar shular jumlasidandir [1].

Intellektual tizim deganda aqliy hatti-harakatlarga nisbatan kompyuter tizimining qobiliyati tushuniladi. Bu tizim yordamida kompyuter imkoniyatlari orqali ta’lim oluvchilarni o‘qitish va bilim darajalarini baholash mumkin [2].

Dars jarayoni uchun tavsiya etilgan, o‘quv maqsadlari uchun mo‘ljallangan intellektual tizimlarni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin. Ular quyidagi guruhlarni tashkil qiladi:

- axborot-ma’lumotlar tizimi;
- intellektual mashq va masalalar uchun mo‘ljallangan tizimlar;
- boshqarish tizimlari [1], [3].

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’lim olishini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, o‘quv materiallarining turli shakllari, jumladan o‘rganiladigan jarayon va hodisalarni virtual shaklda aks ettiradigan elektron o‘quv-metodik resurslar, yangi mavzularni o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtda

to‘la javob olish imkoniyatini beradigan integrallashgan elektron lug‘at-ma’lumotnoma, tabiiy fanlarni yo‘nalishlari bo‘yicha virtual laboratoriya va namoyish-tajriba mashg‘ulotlari talabalar tomonidan o‘quv fanlarini mustaqil o‘rganishga zarur bo‘ladigan resurslardan sanaladi. Mustaqil ishni tashkil etishda yuqorida sanab o‘tilgan axborot resurslardan foydalanish tartibi har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadi.

Hozirgi kunda kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda ta’lim olishning intellektual tizimini yaratish va joriy etish dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olish va uni amalga oshirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berish;
- ta’lim tizimining turli yo‘nalishlarida talabalarning faol ta’lim olish shakllariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va uni joriy qilish;
- talabalar tomonidan ta’lim mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasi bilan mukammal tanishtirish va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish;
- oliy ta’lim muassasalarining elektron axborot-ta’lim muhiti va integrallashgan o‘quv-ilmiy resurslarini yaratish;
- ta’lim jarayonini axborotlashtirish borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish imkonini beruvchi elektron o‘quv-metodik majmualar yaratish;
- talabalar mustaqil ta’lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o‘quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar ishlab chiqish va boshqalar [4].

Ta’lim olishning intellektual tizimini joriy etishning asosiy maqsadi – ta’lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillari asosida tashkil etishni ta’minlash, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan etakchi professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatlariga tayangan holda, ta’lim sifatini oshirish, talabalar uchun uzluksiz ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ta’limning turli shakllarini o‘zaro bir-biriga muvofiqlashtirishdan iborat.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini takomillashtirishning asosiy omillari sifatida kompyuter bilan muloqotni, elektron axborot-ta’lim resurslari orqali o‘quv-metodik ta’minotni yaratish, o‘quv jarayonini kompyuterli axborot-ta’lim muhiti va zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish, ta’lim berishda gipermatn, multimedia, axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanish kabilarni qayd etish mumkin.

Intellektual tizimning asosiy tashkil etuvchilari talabalarga tanlangan mavzular haqida to‘liq axborot berish, mashq va masalalar bilan ta’minlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun baholash tizimlaridan iborat. Intellektual tizimlar elektron darsliklar va ta’lim portallari orqali ta’lim oluvchilarga xizmat qiladi.

Intellektual tizimlar asosida mustaqil ta’limni tashkil etishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- talabalar mustaqil ishlash imkoniyatining kattaligi;

- o‘quv-metodik ta’minotning rang-barangligi;
- ta’lim olishni individuallashtirish;
- etakchi oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda faoliyat ko‘rsatayotgan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar hamda olimlar salohiyatidan keng foydalanish;
- talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga sharoit yaratish;
- multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarda o‘qishga qiziqishni orttirish;
- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatlarini yaratish;
- talabalarning amaliy kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda o‘quv trenajer vazifasini bajarish;
- talabalarning kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, turli ma’lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirish va boshqalar.

Intellektual tizimlar uchun tayyorlanadigan didaktik materiallarni ishlab chiqishga bir necha pedagog-o‘qituvchilar va muxandis-texnik xodimlar jalb qilinadi. Ularga qo‘yiladigan talablar va vazifalar quyidagilardan iborat:

O‘qituvchi, muallif - o‘quv materialining mazmuni va o‘quv kursini to‘ldirish bilan bog‘liq masalalarni bajaradi.

Texnik mutaxassislar - o‘quv kursida texnik vositalarni qo‘llash muammolari bilan shug‘ullanadi (yuklash, tarmoqqa kirish, texnik xatolar va h.k.).

Psixolog - muammoli vaziyatlar muhokamasi, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, o‘qitish strategiyasini tanlash, o‘quvchilarning psixologik monitoringini muhokama qilish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Talabalar – intellektual tizimdan foydalanuvchi, o‘quv faoliyati yakka va guruh shaklda tashkil qilinishi mumkin.

Pedagogik jamoa - tajriba almashish, muammoli vaziyatlarni hamkorlikda echish, talabalar faoliyatini baholashda faoliyat ko‘rsatadi.

XULOSA. Bugungi kunda olib borilgan pedagogik tajribalarda o‘quv jarayonida o‘qitishni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish omilini quyidagilar belgilashini ko‘rsatmoqda: avtomatlashtirilgan axborot-ta’lim resurslari yordamida o‘quv-metodik ta’minotni yaratish, o‘quv jarayonini kompyuterli axborot-ta’lim muhiti vositasida tashkil qilish, ta’lim jarayonida gipermedia, multimedia, axborot-kommunikatsiya vositalari, intellektual tizimlardan keng foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рыбина Г.В. Основы построения интеллектуальных систем. – М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М. 2010. с.432.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildli, T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2007. – 592 b.
3. Toshtemirov D., Qulmamatov S. Mustaqil o‘qishda intellektual tizimlardan foydalanish. Kasb-hunar ta’limi. 2013 y. № 3., 30-32 bet.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Aliboyeva Dildora Baxodir qizi
Guliston davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi
E-mail:dildora-aliboyeva2024@gmail.com

Abstract: The article highlights the issues of using an integrative approach in training future specialists in the digital educational environment. The importance of integrated technologies in the educational process and its content is revealed. Information is provided about the systems that make up the integrated technologies.

Key words: digital technologies, computer, information technologies, educational technologies, integration.

KIRISH. Bugungi globallashgan jamiyatda har qanday sohada ijobiy natijalarga erishish uchun yuqori samaradorlikka yo‘naltirilgan raqamli texnologiyalar va jamiyatning intellektual salohiyatidan foydalanishga alohida ahamiyat berish talab etiladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish yo‘lida bir qancha amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunday tadqiqot ishlarining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- ta’lim mazmunini xorijiy tajribalar asosida yangicha mazmunga olib kelish va ular asosida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, o‘quv predmetlarini o‘qitish jarayonini takomillashtirish;
- o‘quv jarayoniga yangi avlod axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik, innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy etish va hokazo.

METODLAR. Tadqiqotning maqsadi ta’lim tizimida integratsiyalashgan texnologiyalar va ulardan foydalanish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ta’lim tizimida integratsiyalashgan texnologiyalar va ulardan foydalanish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqish masalalari bayon etiladi. Tadqiqotda kuzatish, ilmiy-metodik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR. O‘quv jarayonida sifatli va kafolatlangan ta’lim berishda ta’limning usullari va vositalari alohida ahamiyatga ega. Zamon talabi darajasida o‘quv jarayonini tashkil etishda integratsion ya’ni integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

Integratsiya so‘zi, lotincha “integratio” so‘ziga mos kelib, o‘zbek tilida tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish ma’nolarini ifodalaydi. Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqliq holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi [1].

Integratsiya so‘zidan fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayonini ifodalashda ham foydalaniladi.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy terminlardan biri bo‘lib, u umumlashtirish, xulosalar chiqarishda metodologik vosita hisoblanadi. Fan va

texnikada ushbu metodologik vosita yordamida biror jarayon yoki hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg‘unlik modellari va algoritmlari yaratiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida beriladigan ta’lim mazmunidagi uyg‘unliklarni ta’minlash muammolarini echishda ham integratsiyalashning mohiyati alohida ahamiyatga ega. Integratsiyalash orqali o‘qitiladigan o‘quv predmetlarining asosiy tushunchalari umumlashtiriladi. Biror tadqiqot ob’ekti va metodologiyasiga oid ma’lumotlar o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rnatishda ham integratsiyalash tushunchasidan foydalaniladi.

Integratsiyalashgan texnologiya deganda, ikki va undan ortiq texnologiyalarni birlashtirish, umumlashtirish va ular orasidagi aloqadorlikni o‘rnatishdan hosil bo‘lgan texnologiyalar tushuniladi.

O‘quv jarayonida integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish deganda, pedagogik, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirish, umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rnatish orqali faoliyat olib borish holati tushuniladi.

Ta’lim oluvchilarning o‘quv predmetlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi darsning sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ta’limning sifatini oshirishda darsni to‘g‘ri rejalashtirish va maqsadni to‘g‘ri va aniq belgilab olish muhimdir. Maqsadni belgilashda natijaga erishish uchun ketadigan vaqt, ta’lim oluvchining ehtiyoji va imkoniyatlari, ta’lim oluvchining maqsadga erishishga harakat qilishga yo‘naltirilgan metodlar va natijani aniqlaydigan nazorat turlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday maqsadga erishish uchun o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zarur.

Pedagogik texnologiya ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik va texnologik yondashuvlarning integratsiyasi mahsulidir. Pedagogik texnologiya tushunchasiga turli pedagog olimlar turlicha yondashib, unga turlicha ta’rif berganlar. YuNESKO tashkiloti pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif bergan: “Pedagogik texnologiya – ta’lim berish va o‘zlashtirish usullarini yaratish, qo‘llash, ularni yagona tizimga keltirish yo‘li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o‘zlashtirilishining eng maqbul jarayonidir” [2].

Pedagogik texnologiya - ta’lim metodlari, usullari hamda tarbiyaviy vositalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya bu o‘z oldiga ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi butun o‘qitish va bilimlarning o‘zlashtirish jarayonini texnik resurslar va insonlarning o‘zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya - ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o‘zlashtirish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya - o‘quvchining mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi, o‘zlashtiradi [2].

Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iboratdir.

Axborot texnologiyasi – axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va

jarayonlar. Axborot texnologiyalari – ma’lumotlarni to‘plash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonida kompyuterdan foydalanish yo‘llari, usullari va uslublari. Axborot texnologiyasi – axborotga ishlov berish uchun ushbu axborotdan foydalanuvchi jarayonlarning sermehnatligini kamaytirish va ularning ishonchliligini va tezkorligini oshirish maqsadida zamonaviy kompyuterdan foydalanish bilan bog‘liq jarayonni ifodalaydi [3].

Demak, axborot texnologiyalari deganda axborotni yig‘ish, saqlash, uzatish, o‘zgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yig‘indisi tushuniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga yangicha yondashishlar asosida, bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq o‘quv jarayonini tashkil etib, ta’limni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish imkonini berishi mumkin bo‘lgan texnologiyadir.

Kommunikatsiya so‘zi, inglizcha “communication” so‘ziga mos kelib, o‘zbek tilida aloqa, xabar, aloqa vositasi, axborot vositasi, tutashma, muloqot, ulanish, axborot uzatish usullari va vositalari ma’nosida qo‘llaniladi. Kommunikatsiya tizimi – boshqa tizimlar orasida axborot uzatish bilan bog‘liq yordamchi vazifalarni bajaradigan tizimdir [3].

Kommunikatsion texnologiyalar – tarmoqdagi kompyuterlar orasida axborotlarni uzatish uchun marshrutlash (xarakterlarni belgilash) va bog‘lanishlarni kommutatsiya qilish vazifasini bajaradigan texnologiyalardir.

Ta’lim tizimining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagi asosiy funktsiyalar va talablarni bajaradi [4]:

- ta’lim oluvchilar va ularning axborot muhitidan foydalanish faoliyatlarini qayd etish;
- ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning faoliyatini maslahat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni hisobga olish;
- ta’lim oluvchilarga zaruriy o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish uchun tavsiya qilish;
- o‘quv jarayonida, ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning test yordamida, shuningdek, og‘zaki va yozma usuldagi nazoratini tashkil qilish;
- axborot bazasida ta’lim oluvchilarga tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan, qo‘shimcha adabiyot va boshqa vositalardan foydalanishi uchun o‘quv muassasasi axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkonini yaratish;
- virtual laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy topshiriqlarni bajarishda masofadan turib ta’lim muassasasi xodimlarining maslahati va boshqa yordamlarini uyushtirish va hokazo.

Integratsiyalashgan texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o‘quv jarayonida o‘quv predmetlarining asosiy mazmuni quyidagi o‘quv-uslubiy materiallardan iborat bo‘ladi:

- elektron darsliklar, elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron metodik qo‘llanmalar va boshqa qo‘shimcha materiallar;
- elektron o‘quv-uslubiy majmualar;
- o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun test dasturlari va savollar majmuasi;
- virtual laboratoriya ishlari va ularning tavsifi;

- mustaqil ishlar va nazorat ishlari;
- hisoblash dasturlari, elektron ma’lumotnomalar, elektron ilovalar;
- qo‘shimcha dasturiy ta’minotlar.

Integratsiyalashgan texnologiyalarning qo‘llanilishi natijasida o‘quv mashg‘ulotlari masofadan turib tarmoq texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etishga olib keladi. Bu esa masofali o‘qitishni tashkil etishning asosidir. Masofali o‘qitishda tarmoq texnologiyalarining asosiy vazifasi o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqotni ta’minlashdan iborat. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi doimiy muloqotsiz tashkil qilingan o‘quv jarayoni ko‘zlangan samarani bermaydi. Ta’lim tizimining kunduzgi shaklida o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqot bir vaqt, bir joyda o‘quv auditoriyasida amalga oshiriladi. Masofali o‘qitishda esa bu jarayon telekommunikatsion vositalar asosida kompyuterning tarmoq texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan, uchta texnologiyalarning integratsiyalashgan holati ta’lim berish va o‘zlashtirishning eng maqbul texnologiyasi deb qarash mumkin. Pedagogik va axborot texnologiyalari imkoniyalaridan foydalangan holda ta’lim oluvchilar uchun axborot-ta’lim muhitini yaratib, kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida ta’lim oluvchilarga etkazib berish jarayonlari integratsiyalashgan texnologiyalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XULOSA. Zamonaviy talab darajasida o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim mazmunlarini umumlashtirish va to‘ldirishda integratsiyalashgan texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etib, ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 2-tom. – 396 b.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T. Fan va texnologiya. 2012. – 44 b.
4. Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T. Fan va texnologiya. 2012. – 104 b.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxmudova Nodirabonu Jamoliddinovna
Guliston davlat universiteti doktoranti
E-mail: maxmudova-nodirabonu2024@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta’lim muhiti asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limni tashkil etishga dunyoning rivojlangan davlatlari alohida ahamiyat bermoqda. Ta’lim oluvchilarning axborotdan foydalanish, axborotning rang barangligini ta’minlashda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish masalalari muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, ta’lim, multimedia, media, mediata’lim, kommunikatsiya, kompitentlik, axborot, Internet.

KIRISH. Respublikamizda ta’lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta’lim, jumladan, oliy ta’lim tizimida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, olib borilgan islohotlar bugun o‘z samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish o‘qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish samaradorligiga erishish katta ahamiyat kasb etadi [1].

METODLAR. Tadqiqotning ob’ekti sifatida oliy ta’lim jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish, suhbat, so‘rovlar o‘tkazish usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida “media” atamasi paydo bo‘ldi. “Media” atamasi lotin tilidan (media, medium so‘zidan) olinib, qo‘llanma, vositachi ma’nolarini anglatadi. Media – bu jamiyatda to‘g‘ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo„lib, insonlar bilan vaqtincha o‘zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg‘ituvchi makondir. “Media” atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo‘llangan. [2]

Ta’lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan, multimediyali o‘quv kurslarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro interfaol aloqalarini ta’minlashda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo‘ladi. Shu munosabat bilan texnologik ta’limi o‘kituvchilarini oliy ta’lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta’minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yunalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Multimedia texnologiyalarida an’anaviy axborotlar matn ko‘rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalangani uchun o‘quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo‘lishga o‘rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Aynan darslarda multimediali vositalardan foydalanish haqida to‘xtaldik, lekin o‘sha multimediali vositalardan samarali foydalanib dars o‘tadigan pedagog tayyorlar ekanmiz, qanaqa qilib darslarda multimediali vositalardan foydalanamiz? Demak, zamonaviy talablarga ko‘ra, biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kompyuter texnologiyalaridan unumli va samarali foydalana oladigan qilib tayyorlashimiz kerak. Avvalombor, kompyuter texnologiyasining bugungi ahamiyatini talaba ongiga chuqur singdirish kerak. Shu bilan bir qatorda, kompyuter kurslari ham ochilib, unga bo‘lajak kadrlarni jalb qilib borish o‘rinlidir. Kompyuter kurslarini tashkil qilish uchun oliy o‘quv yurtlarida kompyuter bilan jihozlangan xonalar mavjud. Faqat darslardan keyin shug‘ullanadigan o‘qituvchi tayinlansa kifoya.

Axborot kompetentliligi. Audio-video ko‘rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, taxdil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o‘zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o‘quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o‘zlashtirishini ta’minlaydi [3].

Ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish mashg‘ulotlarni interfaol rejimda olib borishga imkon beradi. Multimedia (ingl. so‘z multi - ko‘p, media - muhit) – bu turli ko‘rinishdagi axborotlardan (matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya) iborat yahlit bir ko‘rinishga aytiladi. Multimedia texnologiyalari - bu multimediali maxsulot yaratish jarayonidagi texnik va dasturiy vositalarni tanlash va qo‘llash jarayoniga aytiladi [3].

Multimedia texnologiyalarining asosiy maqsadi - axborotni qabul qilishda sodda va qulay bo‘lgan multimedia maxsulotini yaratishdan iborat. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari inson faoliyatida, ya’ni biznes, ta’lim, tibbiyot, xarbiy va boshqa sohalarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bu faoliyat yo‘nalishlarida multimedia maxsulotlarini yaratish uchun keng ko‘lamdagi dasturiy vositalar mavjud.

Barchaga ma’lumki bugungi yoshlarning telefon, kompyuter va televizor oldida o‘tkazadigan vaqtlari maktabda yoki boshqa ta’lim muassasalarida o‘tkazadigan vaqtlaridan ancha ko‘proqni tashkil etadi. Bu ularning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli buzuq, ziddiyatli dasturlar, shoular, saytlarni doimiy ko‘rishlariga ko‘proq imkon beradi, uning nozik ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ular esa bularning turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘pincha tushunmaydi. Agar e’tiborimizni qaratsak, faqat ko‘ngilochar saytlar, turli shoularni tanlaydigan va ko‘radigan yoshlar deyarli yurtimizda va dunyoda bo‘layotgan ta’limiy-tarbiyaviy, ma’naviy-madaniy teledasturlar, ijtimoiy tarmoqlarni ko‘rishdan o‘zlarini chetga olishadi. Hozirda urf bo‘lgan majoziy iboraga ko‘ra, “inson o‘zining “axborot pillasi”ga o‘ralib olishi, o‘zini real dunyodan ajratib qo‘yishi, illyuzion axborot makonida yashashi mumkin.

Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarning tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya ob’ekti bo‘lib ko‘proq yoshlar tanlanadi, chunki:

• ular axborotning muhim qismini, to‘liq idrok etmaydilar, chunki ular xali uni idrok etishga tayyor emaslar;

• ular xabarlarning ma’nosini yoki bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini qisman tushunadilar;

• ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan passiv pozitsiyani egallaydilar, o‘zlarini ularning ta’siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko‘pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar. [4]

Bugungi kunda axborot xavfsizligi va inson ongini ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish davrimizning eng asosiy muammosiga aylandi, va bu hozirda ota-onalar, shifokorlar, psixologlar va o‘qituvchilarni tashvishga solmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo‘li sifatida maktab va ta’lim muassasalarida mediata’lim va mediamadaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish taklif etilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan mediata’lim bu - pedagogikaning ommaviy axborot qonuniyatlarini o‘rganish asosida yoshlarni axborot xurujlaridan o‘zini himoya qilish va odamlar bilan muloqot qilish va o‘zligini namoyon qilishning zamonaviy shakllari bilan tanishtiradigan yo‘nalishdir.

Mediata’limni o‘rganish natijasida inson quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

- o‘zi bilan qabul qilinuvchi axborot o‘rtasida “psixologik masofa” o‘rnatish mexanizmlarini yaratish, o‘zining ongini manipulyatsiya qilinishidan psixologik himoya qilish, axborotlarni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini egallash;

- audiovizual idrok etishning ongli tajribasini egallash; idrok etish qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish;

- amaliy darajada noverbal xabarlar tillarini (teletasvirlar tahlili, kino tili, reklama tili va boshqalar) o‘zlashtirish, bu esa ularnga axborotlarning mazmuni anglashga va o‘zini namoyon etish imkonini beradi.

Mediata’limning o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun quyidagi faoliyat yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

•maktabda shakllangan bilimlar tizimiga sinfdan tashqari qabul qilinadigan axborotni kiritish, bu bilimlardan turli mediadagi axborotlarni idrok etish va ularni tanqidiy tushunishda foydalanish;

•axborotni talqin qilish, uning mohiyatini anglash, uni maqsadli yo‘naltirish, axborot tarqalishining maqsadi, axborotlardagi yashirin ma’nolarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; kerakli ma’lumotlarni turli manbalardan topa olish, belgilangan mezonlar asosida ularni tizimlashtira olish;

•axborotlarning kommunikativ jihatdan o‘zaro ta’sir maqsadini va mo‘ljallangan auditoriya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni hajmini, shaklini, belgilari tizimini, tashuvchisini o‘zgartira olish;

•o‘z fikrlari yuzasidan bahslasha olish, olingan ma’lumotlarda kamchiliklar va ma’nolarni topa olish va ularni tuzatish bo‘yicha takliflar kirita olish;

•axborotlardagi turli muqobil nuqtai nazarlarni qabul qilish va ularning har biriga «yoqlash» va «qarshi» bo‘lgan asosli dalillar keltira olish;

•axborot xabarlari o‘rtasida maqsadli assotsiativ va amaliy aloqalarni o‘rnatish; axborot xabaridagi eng muhim jihatlarni ajrata olish [4].

Yoshlarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarida mediata’limdan foydalanishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati shundaki, ularga o‘zini namoyon qilish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishda ham hisoblanadi, chunki hamma bola ham o‘qish jarayonida o‘zini namoyon qila olmaydi. Bunday sabablar sirasiga yoshlarda etakchilik, turli qobiliyatlarini va o‘zlashtira olmaslik kabi muammolarni ko‘rsatish mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda yoshlar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy motivlar va ehtiyojlarlarini amalga oshiradigan ulkan imkoniyat bilan ta’minlanadilar. Zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni to‘g‘ri tanlash ta’lim-tarbiya vazifalarini yanada to‘liq amalga oshirishga yordam beradi. Bu jarayonda eng ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, yoshlarning o‘zlari ularni rivojlantirishning yangi shakllarni taklif qilishlari ham mumkin.

Mediata’limning tarbiyaviy salohiyatidan foydalangan holda, yoshlar ongni media vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish va ularning bu boradagi qobiliyatini rivojlantirish maqsadida samarali zamonaviy usullar ishlab chiqilmoqda, jumladan:

- talabalarni media vositalar va muassasa kutubxonasidan axborotlarni axborot markazi sifatida mustaqil izlab topish va foydalanish qobiliyatini shakllantirish,

- muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini bir necha usulda topish, mavjud vaziyatni modellashtirishga o‘rgatish, ya’ni, yoshlarni vaziyatdan chiqish yechimning alternativ tanlovini to‘g‘ri topish vazifasini oldiga qo‘yadi. Ushbu xarakatlar usulini tanlash yoshlarning o‘zida qoladi, lekin shu bilan birga u o‘z harakatlarini asoslashi lozim bo‘ladi;

- ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda o‘qilgan maqolalar, tele va radio hikoyalar muhokamasi; - turli xil media vositalaridan foydalangan holda o‘z ma’lumotlarini tayyorlashga o‘rgatish. Bunda media usullaridan qaysi birini tanlash unchalik muhim emas (oddiy qog‘oz varag‘idan Internetdagi veb-saytgacha): chunki zamonaviy yoshlar murakkab texnik vositalardan foydalanishni afzal ko‘rishadi, ya’ni, kameralar, videokameralar, kompyuterlar, telefonlar. Ushbu zamonaviy texnikalardan foydalanishda topshiriqni shunday tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladiki, u fanni o‘qitish va tarbiya vazifalarini o‘zida mujassamlashtirsin;

- bir vaqtning o‘zida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan turli xil uslubiy usullardan foydalanishga imkon beradigan Internetning axborot resurslaridan foydalanish.

Yoshlarning Internetga qiziqishi to‘rtta asosiy omil tufayli rivojlanadi deya hisoblanadi:

•turli xildagi ma’lumotlarga kirishga imkoniyatning mavjudligi;

• keng interaktivlik, doimiy muloqotning mavjudligi;

• o‘zi haqidagi ma’lumotlar ustidan shaxsiy nazorat, ma’lum bir “obraz”ni yaratish imkoni;

• uzatilayotgan ma’lumotlarning anonimligi [5]

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog‘i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko‘rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo‘lganligi sababli, katta sahnada — Mediata’lim tushunchasining paydo bo‘lishi, uning kelajakda ta’lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi.

XULOSA. Raqamli ta’lim muhiti asosida talabalarning pedagogik mahoratni rivojlantirish — ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediamadaniyat pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatan o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-158-son, Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr.
2. Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Toshkent, 2018. – B. 36-37.
3. Mediakultura i obrazovanie: osobennosti vzaimodeystviya i razvitiya. – // https://topuch.ru/referat-mediakuletura-i-sovremennoe-obshestvo/index.html
4. Kirillova N.B. Mediakultura: ot moderna k postmodernu. - M.: Akademicheskiy Proekt, 2005. – 448 s.
5. Fateeva I.A. Mediaobrazovanie: teoreticheskie osnovi i opit realizatsii. Chelyabinsk: Izd-vo Chelyab. gos. un-ta, 2007. 270 s.

ФОРМИРОВАНИЕ 4К-КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА – ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ЧЕРЕЗ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Аблязова Милана Руслановна, Ахмедова Махфуза Садыковна
студентка первого курса факультета начального образования Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами. Доцент кафедры «Родной язык и методика его преподавания в начальном образовании» Ташкентского государственного педагогического университета.

Аннотация : данная статья рассматривает важность формирования читательской грамотности у учеников начальных классов на уроках родного языка с использованием интерактивных методов обучения. Автор рассматривает концепцию "4К-компетенций" (креативность, коллаборация, критическое мышление, коммуниция), выделяя их ключевую роль в развитии языковых навыков у младших школьников. В заключении статьи делаются выводы о значимости использования интерактивных методов для эффективного формирования читательской грамотности у младших школьников на уроках родного языка.

Ключевые слова: *4К-компетенций, креативность, коллаборация, критическое мышление, коммуниция, системно-деятельностный подход.*

Annotation : This article discusses the importance of developing reading literacy among elementary school students in their native language lessons using interactive teaching methods. The author examines the concept of "4K competencies" (creativity, collaboration, critical thinking, communication), emphasizing their key role in the development of language skills in younger schoolchildren. In conclusion, the article draws conclusions about the importance of using interactive methods for the effective formation of reading literacy among younger schoolchildren in their native language lessons.

Keywords: 4K competencies, creativity, collaboration, critical thinking, communication, system-activity approach.

В современном образовательном процессе акцент смещается от передачи фактической информации к развитию ключевых компетенций, которые обеспечивают глубокое понимание и успешное применение знаний в различных сферах жизни. На уроках русского языка в начальных классах особенно важно формирование четырех важных компетенций: коллаборации, критического мышления, креативности и коммуникации.

Основы читательской грамотности закладываются в начальных классах. Именно в этот период происходит интенсивное обучение различным видам речевой деятельности — чтению и письму, говорению и слушанию. Базовым навыком функциональной грамотности является читательская грамотность.

1.Коллаборация (Сотрудничество)

На уроках русского языка важно создавать среду, способствующую совместной работе учеников. Это может быть осуществлено через групповые

проекты, обсуждения текстов, совместное решение грамматических и лексических задач. Например, ученики могут вместе создавать сказки, где каждый участник отвечает за определенный аспект текста, что развивает не только навыки языка, но и социальные навыки

2.Критическое мышление:

Развитие критического мышления на уроках русского языка можно осуществить через анализ текстов, обсуждение тем, проведение дебатов. Ученики могут анализировать тексты на предмет достоверности информации, выявлять ключевые идеи, аргументировать свою точку зрения. Примером может служить обсуждение темы "Изучение русского языка - почему это важно?".

3.Креативность:

Применение креативности на уроках русского языка способствует разнообразию подходов к изучению материала. Ученики могут создавать свои стихи, рассказы, использовать творческие методы для запоминания слов и грамматических правил. Например, учитель может предложить создать коллективный рассказ, где каждый ученик добавляет свой отрывок, продолжая предыдущий.

4.Коммуникация:

Развитие коммуникативных навыков на уроках русского языка включает в себя не только умение грамотно и четко выражать свои мысли, но и активное слушание и взаимодействие с другими учениками. Проведение дискуссий, ролевых игр, интервью способствует формированию навыков успешного общения на родном языке.

А теперь рассмотрим с практическим взглядом на формирование 4К-компетенций на уроках родного языка-читательской грамотности в начальных классах. В современном мире образование должно не только передавать знания, но и развивать ключевые компетенции, необходимые для успешной адаптации в обществе. На уроках русского языка в начальных классах формирование 4К-компетенций - коллаборации, критического мышления, креативности и коммуникации - является приоритетом. Рассмотрим, как эти компетенции могут быть внедрены на примере конкретных тем.

1.Тема «Мой лучший друг»

1.Коллаборация Ученики могут работать в парах или маленьких группах, чтобы создать коллективный рассказ о своем лучшем друге. Каждый участник отвечает за часть рассказа, что требует сотрудничества и координации

2.Критическое мышление: После завершения рассказа, ученики могут обсудить и анализировать, какие черты характера делают друга "лучшим". Это способствует развитию критического мышления и оценочных навыков.

3.Креативность: Дети могут придумывать необычные приключения для своего героя или использовать творческие методы, такие как рисунки или коллажи, чтобы представить своего друга.

4.Коммуникация: В конце урока каждая группа может представить свой рассказ перед классом, что развивает умение ясно и четко выражать свои мысли.

2.Тема: «Сказочные персонажи»

1.Коллаборация Ученики могут работать в группах для создания своего сказочного персонажа. Каждый член группы может придумать свою часть описания персонажа.

2.Критическое мышление: После создания персонажей, дети могут обсудить, какие черты делают персонажей интересными и какие аспекты сказок являются важными для понимания сюжета.

3.Креативность: Ученики могут создавать иллюстрации для своих персонажей, а также придумывать продолжение сказки, демонстрируя свою креативность.

4.Коммуникация: Каждая группа может представить своего сказочного персонажа, объясняя выборы, сделанные в процессе создания, и обсуждая, как их персонажи могли бы взаимодействовать внутри сказочного мира.

3.Тема : «Путешествие в прошлое »

Для успешного развития читательской грамотности школьников и достижения ключевых и предметных компетенций необходимо использовать такие приемы, чтобы обучение на уроке носило деятельностный характер. Поэтому я организую деятельность ученика так, чтобы он осмысленно решал значимые для себя вопросы: что я хочу сделать? зачем я это делаю? как я это делаю? как я это сделал?

Предлагаю учащимся задания, при выполнении которых, учащиеся не скованны жесткими рамками одного решения, а им открывается возможность для поисков, размышления, исследования, открытий. При изучении нового материал, я не задаю прямых вопросов, а создаю ситуации, в которых дети анализируют, рассуждают, высказывают свое мнение, самостоятельно ищут пути решения.

Одним из этапов урока при системно-деятельностном подходе в обучение является: включение в содержание обучения решение значимых жизненных задач. Формируя читательскую грамотность учащихся, использую вопросы и задания, связанные с жизненным опытом обучающихся, направленные на развитие рефлексии: «Как бы поступил ты? Почему?», «Вспомни, не было ли в твоей жизни такой ситуации? Расскажи об этом», «Где тебе пригодятся эти знания?».

1.Коллаборация Ученики могут работать в группах, чтобы исследовать и представить информацию о русской культуре и традициях в разные исторические периоды.

2.Критическое мышление: Дети могут анализировать, как изменения в культуре влияли на язык, и представлять свои выводы.

3.Креативность: Ученики могут использовать креативные методы, такие как создание временной линии событий, ролевые игры или даже театральные постановки.

4.Коммуникация: Группы могут представлять свои исследования классу и обсуждать, как изменился русский язык в разные исторические периоды.

Как видим, эти примеры демонстрируют, как формирование 4К-компетенций может быть интегрировано в уроки русского языка, делая обучение не только

эффективным, но и увлекательным для учеников. В итоге, интеграция 4К-компетенций на уроках русского языка в начальных классах не только обогащает образовательный процесс, но и готовит учеников к успешному функционированию в современном информационном обществе. Эти компетенции становятся основой не только для усвоения знаний, но и для их креативного применения в повседневной жизни

Литература

1. М.Р.Львов. «Справочник по методике русского языка». Москва - 1988 год
2.Trends in the development of communicative and speech competence of teachers in the system of continuing education.
M.S. Akhmedova Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022
3. Роль народных языковых средств в развитии речевой Компетенции младших школьников в процессе Махфуза Ахмедова, и.о. Доцента журнал «преподавание Языка и литературы». №5, 2023 г.

ELEKTROTEXNIKA FANLARIDAN RAQAMLI TA’LIM MUHITINI YARATISHDA MOBIL ILOVALARNI O‘RNI

D.X. Xalmanov[1], N. J. Tairova[2] , S.A. Dusmuxamedova[3], I. K. Nuriddinov[4]

*[1,2,3,4] **Toshkent davlat texnika universiteti,** [1]xalmanov1983@mail.ru, [2]tairova@gmail.com, [3]saidadusmuhamedova87@gmail.com, [4]ixtiyornuridinov@gmail.com*

ANNOTATSIYA. Maqolada “Elektrotexnika” fanlaridan raqamli ta’lim muhitini tashkil etishda mobil aloqa vositalaridan foydalangan holda, ta’lim samaradorligini oshirishning dolzarbligi bayon qilinadi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar davomida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasi e’lon qilinadi.

Kalit so‘zlar. *Oliy ta’lim, masofaviy o‘qitish, elektrotexnika fanlari, ta’lim samaradorligi, mobil ilovalar, o‘zlashtirish darajasi, pedagogik tajriba-sinov.*

АННОТАЦИЯ. В статье описана актуальность повышения эффективности образования с использованием средств мобильной связи при создании цифровой образовательной среды по направлению «Электротехника». Также будут оглашены результаты педагогических экспериментов, проведенных в ходе научных исследований.

Ключевые слова. *Высшее образование, электротехнические дисциплины, дистанционное образование, эффективность образования, мобильные приложения, уровень мастерства, педагогический эксперимент-тест.*

ABSTRACT. The article describes the relevance of increasing the efficiency of education using mobile communications when creating a digital educational environment in the field of Electrical Engineering. The results of pedagogical experiments conducted during scientific research will also be announced.

Keywords. *Higher education, electrical engineering disciplines, distance education, educational effectiveness, mobile applications, skill level, pedagogical experiment-test.*

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida aholining barcha qatlamlarida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan:

yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish[1].

Ta’lim sohasida gap borar ekan, eng avvalo, ta’lim texnologiyalarini, shu jumladan, masofaviy hamda elektron ta’limni rivojlantirish va amaliyotga joriy etish nazarda tutiladi. Oliy ta’lim tizimining raqamlashtirish va masofaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish kompyuter texnologiyalari va jadal rivojlanayotgan axborot muhitining o‘zgarishi bilan belgilanadi. Oliy ta’lim tizimining ustuvorligi,

albatta, bo‘lajak mutaxassislarning egallagan kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari bilan izohlanadi.

USULLAR. Talabalarga elektrotexnika fanlarini o‘zlashtirishda qulaylik yaratish maqsadida dastlab, Elektrotexnika va elektronika fani mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallangan mobil ilovani yaratish loyihasi ishlab chiqildi va u orqali talabalarga taqdim etilishi kerak bo‘lgan Elektrotexnika va elektronika faniga oid nazariy ma’lumotlar saralab olindi(1-rasm).

Elektrotexnika va elektronika fanini mustaqil o‘rganish uchun mobil ilovadan quyidagi tartibda foydalaniladi:

-ilovani smartfon, android yoki planshet qurilmasiga o‘rnatiladi;

-ilova ishga tushgach ishchi oyna ochiladi, unda fanga oid 15 ta ma’ruza ko‘rinadi;

-birinchi ma’ruzani tanlagandan so‘ng ma’ruza ochiladi va mavzuga oid ma’lumotlar taqdim etiladi, ma’lumotlar yakunida o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun xizmat qiluvchi mavzuga oid test savollari havolasi chiqadi;

-havolaga o‘tilgach mavzuga oid testni yechish imkoni beriladi, test sinovidan muvaffaqiyatli natijaga erishilgandan so‘ng, ikkinchi ma’ruzaga o‘tish imkoni beriladi, natija 60 % dan kam bo‘lgan hollarda birinchi ma’ruza ma’lumotlarini qayta o‘zlashtirish uchun ortga qaytariladi;

Shu ketma-ketlikda yettinchi ma’ruzaga qadar boriladi, so‘ngra yettita ma’ruza ma’lumotlari asosida tayyorlangan 1-oraliq nazorat testi ochiladi, bundan muvaffaqiyatli o‘tilgach sakkizinchi ma’ruzaga o‘tish imkoni beriladi va hokazo. O‘n beshinchi ma’ruzadan muvaffaqiyatli o‘tilgach, 2-oraliq nazorat testi ochiladi. Agar 2- oraliq nazorat testidan o‘ta olmasa, kursni qaytadan boshlashi va berilgan ma’lumotlarni diqqat bilan o‘rganish tavsiya etiladi.

Nazoratlardan muvaffaqiyatli o‘tgan talaba yakuniy nazorat test sinovidan ham yaxshi natija bilan o‘ta olish kafolatiga erishadi[6].



1-rasm. Elektrotexnika va elektronika fanini mustaqil o‘rganish mobil ilovasining algoritmi.

NATIJALAR. 2023-2024 o‘quv yilining kuzgi semestrida pedagogik tajriba-sinov ishlari Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, “Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya” fakulteti 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo‘yicha) bakalavriat, sirtqi ta’lim yo‘nalishining 5Sa-22 MMTX (o‘z) va 5S-22 MMTX (o‘z) guruhlarida o‘tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida 5Sa-22 MMTX (o‘z) guruhidan 46 nafar talaba tajriba guruhi sifatida, 5S-22 MMTX (o‘z) guruhidan 46 nafar talaba nazorat guruhi sifatida tanlab olindi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan talabalar tomonidan Elektrotexnika va elektronika fanidan tajriba yakunida bilimlarining rivojlanganlik darajasi (1-jadval).

1-jadval

№	Guruhlar va tajriba ishtirokchilari soni	Darajalar va ularga mos talabalar soni			
		A’lo (5)	Yaxshi (4)	Qoniqarli (3)	Qoniqarsiz (2)
1	Tajriba guruhi (x) 5Sa-22, 46 nafar	**5**	**25**	**16**	**0**
2	Nazorat guruhi (y) 5S-22, 46 nafar	**0**	**20**	**24**	**2**

Ishtirokchi talabalar tomonidan Elektrotexnika va elektronika fanidan bilimlarining rivojlanganlik darajasini o‘rtacha koeffitsiyenti quyidagicha hisoblangan va 2-jadvalga kiritilgan bo‘lib unga mos diagramma 2-rasmda keltirilgan[7].

Tajriba guruhlari uchun:

5Sa-22 guruh uchun o‘rtacha qiymati $x = \frac{5\cdot5+4\cdot25+3\cdot16}{46} = 3{,}76$

o‘rtacha kvadrat qiymati $x^2 = 3{,}76^2 = 14{,}14$

Miqdor $m = \frac{14{,}14}{46} = 0{,}31$

Nazorat guruhlari uchun:

5S-22 guruh uchun o‘rtacha qiymati $y = \frac{4\cdot20+3\cdot24-2\cdot2}{46} = 3{,}22$

o‘rtacha kvadrat qiymati $y^2 = 3{,}22^2 = 10{,}37$

Miqdor $m' = \frac{10{,}37}{46} = 0{,}22$

Demak, tajriba guruhining o‘rtacha o‘zlashtirishi nazorat guruhining o‘rtacha o‘zlashtirishidan katta bo‘ldi: $X = 3{,}76 > Y = 3{,}22$.

Samaradorlik koeffitsiyenti $\eta = \frac{3{,}76}{3{,}22} = 1{,}2$

2-jadval

№	Guruhlar va tajriba ishtirokchilari soni	Darajalar va ularga mos talabalar soni				Koeffitsiyent	Samaradorlik koeffitsiyenti
		A’lo (5)	Yaxshi (4)	Qoniqarli (3)	Qoniqarsiz (2)		

1	Tajriba guruhi (x) 5Sa-22, 46 nafar	**5**	**25**	**16**	**0**	**3,76**	**1,2**
2	Nazorat guruhi (y) 5S-22, 46 nafar	**0**	**20**	**24**	**2**	**3,22**	



1-diagramma. Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining o‘zlashtirish natijalari va samaradorlik koeffitsiyenti.

MUHOKAMALAR. Talabalar masofaviy ta’limda yoki darsdan tashqari vaqtlarida mustaqil ta’lim olishda mobil vositalar, internet tarmoqlaridan foydalanishga harakat qilishlari bilimlarini va izlanuvchan qobiliyatlarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi amaliyotlarda isbotlanib kelmoqda.

Ta’limni mobil ilovalar asosida o‘qitish ko‘proq ta’limning individuallashishiga olib keladi. Buning natijasida, talaba o‘zini mustaqil izlanishi samarasida individual ishlash qobiliyati rivojlanadi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari rivojlanadi. Mobil ilovalar tarkibiga kiritilgan nazorat ishlari talabani o‘zlashtirish jarayonini monitoringini olib borishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi [8]

XULOSALAR. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish maqsadida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo‘yicha) bakalavriat, sirtqi ta’lim yo‘nalishi 5S-22 MMTX (o‘z) va 5Sa-22 MMTX (o‘z) guruhlari talabalari tanlab olindi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida nazorat guruhi sifatida 5S-22 MMTX (o‘z) guruhidan 46 nafar talaba, hamda tajriba guruhi sifatida 5Sa-22 MMTX (o‘z) guruhidan 46 nafar talaba ishtirok etdi. Tajriba guruhi talabalariga semestr boshlanishidan avval Elektrotexnika va elektronika fanini mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan mobil ilova berildi va talabalar mobil ilova yordamida fanni mustaqil o‘rganishga kirishdilar. Nazorat guruhi talabalariga mobil ilova berilmadi. Semestr boshlangach xar ikkala guruhda ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tildi. Semestr yakunida har ikkala guruh talabalari yakuniy nazorat testlarini topshirdilar.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari yakuniy natijalariga ko‘ra 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo‘yicha) bakalavriat, sirtqi ta’lim yo‘nalishining Pedagogik tajriba-sinov ishlarida nazorat guruhi sifatida ishtirok etgan 5S-22 MMTX (o‘z) guruhi talabalariga nisbatan, tajriba guruhi sifatida ishtirok etgan 5Sa-22 MMTX (o‘z) guruhi talabalarining “Elektrotexnika va elektronika” fanidan bilimining rivojlanish darajasi samaradorlik koeffitsiyentiga ko‘ra 1,2 ya’ni 12 % ga oshgani ma’lum bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tavsiya etilayotgan mobil ilova nafaqat masofaviy ta’limni tashkil etishda bir vosita, balki kunduzgi, kechki va sirtqi talim yo‘nalishlari talabalarining ham “Elektrotexnika va elektronika” fanlaridan bilimlarini mustahkamlashda hamda ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // 05.10.2020 yil. PF-6079-son.
2. Xalmanov D.X. Pedagogik texnologiyalar asosida elektrotexnika fanlaridan ma’ruza mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uslubiyati // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi *Xalqaro ilmiy elektron jurnal* 11-son 9-to‘plam 2023 y. 100-106 b.
3. Khalmanov D.Kh. Effective use of mobile applications in improving the teaching of electrical sciences // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 11 november 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337|scientists.uz.418-423p. https://doi.org/10.5281/zenodo.10206277;
4. Xalmanov D.X. Elektrotexnika fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati // “Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi” mavzusida o‘tkazilgan respublika onlayn ilmiy amaliy konferensiyasi to‘plami №2 2023. www.tadqiqotlar.uz 544-548 b.
5. Xalmanov D.X. Elektrotexnika fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli va kompyuter texnologiyalarni qo‘llash. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 4 | 30 aprel 2023 yil. 417-428 b. https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/elektrotexnika-fanlaridan-amaliy-mashgulotlarni-tashkil-etishda-raqamli-va-kompyuter-texnologiyalarni-qollash
6. Xalmanov D.X., Xushvaktov D. Sh., Ashurov D.X. Elektrotexnika va elektronika fanini mustaqil o‘rganish uchun mobil ilova. № DGU 28804. O‘zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrida 03.11.2023 y. ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
7. Xalmanov D.X. Elektrotexnika fanlaridan ma’ruza mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy Universiteti ilmiy jurnali. Tashkent, 2023. - № 1/8/1. 253-257 b.
8. Zakir Shakirovich Tulaganov “Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan mobil qurilmalar” // Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 6 | June 2023 yil https://cyberleninka.ru/article/n/masofaviy-ta-limda-qo-llaniladigan-mobil-qurilmalar

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Дехконова Зилолахон Мирзаевна

Учитель Ферганского областного националного центра обучения педагогов новым методам, e-mail: zilolaziyo@umail.uz,

Dekhkonova Zilolahon Mirzaevna, Teacher of the Fergana Regional National Center for Training Teachers in New Methods, e-mail: zilolaziyo@umail.uz, telefon: (998) 918687575.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности применения междисциплинарной интеграции в цифровой образовательной среде. Обсуждаются преимущества объединения различных дисциплин для решения сложных задач, а также роль цифровых технологий в этом процессе. Приводятся примеры успешной практики и выявляются вызовы, с которыми сталкиваются педагоги. В заключении подводятся итоги и обсуждаются перспективы развития данного подхода в образовании.

Abstract: The article explores the possibilities of applying interdisciplinary integration in the digital educational environment. The advantages of combining various disciplines to solve complex problems are discussed, as well as the role of digital technologies in this process. Successful practice examples are provided, and the challenges faced by educators are identified. The conclusion summarizes the findings and discusses the prospects for the development of this approach in education.

Ключевые слова: Междисциплинарная интеграция, цифровая образовательная среда, образовательные технологии, мультимедийное обучение, виртуальная реальность, проектное обучение, сотрудничество, мотивация, вызовы и перспективы, развитие компетенций.

Keywords: Interdisciplinary Integration, Digital Educational Environment, Educational Technologies, Multimedia Learning, Virtual Reality, Project-Based Learning, Collaboration, Motivation, Challnges and Prospects, Skill Development

POSSIBILITIES OF APPLYING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT.

Введение

В наше время образование становится все более интердисциплинарным, а цифровые технологии играют ключевую роль в этом процессе. Цифровая образовательная среда предоставляет уникальные возможности для интеграции различных дисциплин и предметов, расширяя горизонты обучения и подготавливая студентов к сложным вызовам современного мира. В данной статье рассмотрим возможности применения междисциплинарной интеграции в цифровой образовательной среде, выявим преимущества этого подхода и рассмотрим вызовы, с которыми сталкиваются педагоги.

Определение междисциплинарной интеграции

Междисциплинарная интеграция представляет собой подход, при котором различные дисциплины объединяются для решения сложных задач или проблем. Она позволяет студентам увидеть взаимосвязи между различными областями знаний и применять их в практических ситуациях.

Преимущества междисциплинарной интеграции включают повышение мотивации студентов, развитие критического мышления и способности к сотрудничеству.

Цифровая образовательная среда

Цифровая образовательная среда охватывает широкий спектр технологий, включая интерактивные доски, онлайн-курсы, виртуальные лаборатории и т.д. Эти инструменты предоставляют уникальные возможности для обучения и создания междисциплинарных проектов. Однако, внедрение цифровых технологий также вносит свои вызовы, такие как необходимость обеспечения доступности и безопасности данных.

Возможности междисциплинарной интеграции в цифровой образовательной среде

Использование цифровых технологий позволяет создавать интерактивные и многомерные учебные материалы, которые объединяют знания из различных областей. Например, проекты в формате виртуальной реальности могут объединять исторические события, литературные произведения и географические данные, предоставляя студентам возможность погружения в учебный материал.

Вызовы и перспективы

Несмотря на многочисленные преимущества, внедрение междисциплинарной интеграции в цифровую образовательную среду сталкивается с вызовами, такими как необходимость обучения педагогов новым технологиям и разработка качественных учебных материалов. Однако, перспективы развития этого подхода огромны, и он может значительно повысить эффективность образования в цифровой эпохе.

Заключение

Междисциплинарная интеграция в цифровой образовательной среде представляет собой мощный инструмент для современного образования, позволяющий студентам развивать широкий спектр навыков и готовиться к сложным вызовам будущего. Этот подход требует совместных усилий со стороны педагогов, разработчиков и образовательных учреждений, но его потенциал велик и необходим для развития образования в цифровой эпохе.

Список литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4884-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026-

yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

8. O.Qo‘ysinov, A.Nosirov. Chizmachilik fani konsepsiyasi. – T.: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.

9. O.Qo‘ysinov, A.Nosirov. Chizmachilik fanidan uzluksiz ta’limning Milliy o‘quv dasturi. – T.: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.

10. Z.Teshaboev. “Texnologiya fanini o‘qitish metidikasi”. O‘quv qo‘lanma, “Klassik” nashriyoti 2023.

11. I.Karimov, D.Mamatov. “Umumta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Klassik” nashriyoti

12. Z.M. Dehqonova. Bulutli texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

13. Z.M.Dehqonova. The role of electronic educational manuals in the field of ict

14. D.X.Mamatov. Chizmachilik darslarida o‘qitishning zamonaviy uslublarini joriy qilish

TA’LIMDA 5E MODELI

Badalova Maqsuda Umarovna, Azamatova Dilafruz Saydig‘aniyevna
Avloniy nomidagi MTI “Tabiiy va iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikalarini takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot bo‘limi mudiri. Avloniy nomidagi MTI Tabiiy va iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikalarini takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot bo‘limi, katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada o‘quv materiallarini loyihalash jarayonini soddalashtirish uchun konstruktivizm nazariyasiga asoslangan 5E ta’lim modeli yoritilgan. Model tarixi haqida qisqacha to‘xtalib otilgan. 7- sinf kimyo darsi misolida modelni amaliyotda qo‘llashga oid namuna keltirilgan.

Kalit so‘zlar: konstruktivizm g‘oyalari, 5E ta’lim modeli, 5E ta’lim modeli bosqichlari.

Annotation. The article describes the 5E educational model based on the theory of constructivism to simplify the process of designing educational materials. The history of the model is briefly discussed. An example of the practical application of the model is presented in the example of the 7th grade chemistry lesson.

Key words: ideas of constructivism, 5E educational model, stages of 5E educational model.

Konstruktivizm pedagogikada psixolog Jan Piaje tufayli paydo bo‘ldi. Uning fikricha: “Ilm uzatilmaydi, u yaratiladi”.

Agar biz uning bilimga bo‘lgan yondashuvini konstruktivizm g‘oyalari bilan birgalikda o‘rganish ta’rifiga o‘tkazsak, o‘rganish - bu bilimlarni shakllantirishning faol jarayoni bo‘lib, uning ma’nosi turli xil variantlardan tanlash orqali real sharoitlarda olingan individual tajribadan shakllanadi deb ta’riflagan bo‘lardik.

Konstruktivizm - gnoseologik yondashuv bo‘lib, bunda bilish sub’ektning dunyoni oddiy aks ettirish sifatida yemas, balki talqinini (modelini) faol qurishi sifatida qabul qilinadi.

Inson miyasi o‘z xotirasida turli nuqtai nazarlardan tanlangan diskret ma’noni qoldiradi, uning aniqligi tajribali hodisalarning qo‘shimcha aloqalari bilan quvvatlanadi. Shuning uchun konstruktivizm tamoyillari asosida qurilgan darslar ko‘pincha jonli o‘rganish deb ataladi.

O‘quv materiallarini loyihalash jarayonini soddalashtirish uchun konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, 5E ta’lim modeli (The 5E Instructional Model) taklif qilindi.

1962 yilda amerikalik o‘qituvchi Myron J. Atkin va amerikalik fizik Robert Karplus “tadqiqot”, “terminologiya” va “tushunchalarni qo‘llash” ni o‘z ichiga olgan yaxshi o‘rganish tsiklini ishlab chiqdilar. Natijada o‘quvchilarda fanlarga qiziqish paydo bo‘ldi, savollar bera boshladi va ular o‘z fikrlariga tanqidiy nazar bilan qarash zarurligini aniqladilar. Atkin-Karplus modeli 5E ta’lim modelining asosidir. U 1987 yilda Amerikaning Bscs Science Learning ta’lim va tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

STEM yondashuviga asoslangan yoki biror tabiiy fanlarga oid darsni rejalashtirish sxema bo‘yicha amalga oshiriladi – dars 5 bosqichga bo‘linadi. Har bir

bosqichning o‘z maqsadi bor. Ingliz tilida bosqichlarning nomlari E harfi bilan boshlanadi:

Engage – qiziqtirish - Ushbu bosqichda o‘tilgan va yangi mavzuni bir-biri bilan bog‘lash kerak. Bu bosqichning maqsadi o‘quvchilarga bilimlarni egallashning ahamiyatini anglashiga yordam berishdan iborat. Materialni tayyorlashda “Bu nima uchun?” degan savolga javob bering. o‘rganish jarayonida olingan bilimlar qaerda yoki qachon foydali bo‘lishi.

Exploration – tadqiqot. Ushbu bosqichda o‘qituvchi amaliy faoliyatni taklif qiladi. O‘quvchilar muammoni o‘rganadilar va savollar berishni, farazlarni ishlab chiqishni va o‘zgaruvchilarni sinab ko‘rishni boshlaydilar. Mavzuning asosiy tushunchalari aniqlanadi va o‘quvchilar ularni tadqiq qilishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bu bosqichda o‘quvchilar ilmiy uslub haqidagi tushunchalari bilan bir qatorda laboratoriya malakalarini ham oshiradilar. O‘quvchilar guruhlarda hamkorlikda ishlaydi va o‘z tadqiqotlari haqida fikr yuritishni o‘rganadilar. O‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalar bermayapti - aksincha, u so‘rovga asoslangan savollar orqali jarayonni boshqaradi.

Explanation – tushuntirish. O‘quvchilar oldingi bilimlarini tadqiqot orqali olingan tajribalar bilan bog‘laydilar. O‘qituvchi tushunchalarni tushuntiradi, o‘quvchilar esa o‘z tadqiqotlari asosida xulosa chiqaradilar.

Elaboration – ishlab chiqish yoki mustahkamlash. O‘quvchilar yangi bilimlarni oladilar va ularni yangi vaziyatlarda qo‘llaydilar. O‘qituvchi yangi savollarni qo‘yadi va o‘quvchilarga javob izlash imkoniyatini beradi. Bu vaqtda aniq mavzular bo‘yicha bilimlar umumlashtirilib, o‘quvchilar ongida chuqurlasha boshlaydi.

Evaluation – Baholash. O‘quvchilar o‘zlarining o‘quv jarayonini baholaydilar. Ular bilganlarini topshiriqlar, norasmiy va rasmiy baholash orqali ko‘rsatishlari mumkin. O‘qituvchilar muvaffaqiyatni o‘quvchilarning jarayondagi harakatlarini, norasmiy va rasmiy baholash orqali baholaydilar. Ular mavzuni o‘rganish davomida aniqlangan noto‘g‘ri tushunchalarini ko‘rib chiqadilar va barcha noto‘g‘ri tushunchalar tuzatilishini ta’minlaydilar. O‘qituvchi o‘quvchilar yangi bilimlarini qo‘llashlari kerak bo‘lgan muammoni hal qilish stsenariysini taqdim etadi. O‘quvchilar ilmiy tushunchalarni tushunishning yozma yoki og‘zaki dalillarini taqdim etishlari mumkin.

7-sinf uchun quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz.

Engage – qiziqtirish bosqichi. Ayting-chi, quyidagi holatlarning qaysi birlarida kimyoviy reaksiyalar sodir bo‘ladi? Javobingizni asoslang.

a) yog‘och yonganda qipiqlarning hosil bo‘lishi;

b) yonayotgan Bengal olovi;

c) vaqt o‘tishi bilan kumush zanjirning qorayishi;

d) tovada go‘shtning qovurilishi.

Exploration – tadqiqot. Bunda “Kimyoviy vulqon” nomli tajriba qilib ko‘rsatiladi yoki tajribaga oid videolavha namoyish etiladi. Jarayon kuzatilgach, nega aynan “Kimyoviy vulqon” deb atalganligini tahlil qilinadi.

Explanation – tushuntirish. Yangi mavzu o‘rganiladi. Kimyoviy reaksiya uchun olingan boshlang‘ich va reaksiya natijasida hosil bo‘lgan moddalar soni hamda

tarkibiga asoslanib, kimyoviy reaksiyalarni 4 asosiy turga ajratib olishimiz mumkin. Har bir reaksiya turi bilan tanishib chiqiladi.

Kimyoviy reaksiyalar davomida issiqlik (energiya) chiqishi yoki yutilishiga qarab ham ekzotermik va endotermik reaksiyalarni farqlash mumkin. Bu tushuncha ham tajribalar orqali tushuntiriladi.

Elaboration – ishlab chiqish yoki mustahkamlash. Oldingi bosqichda berilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun ko‘rgazma-namoyishli tajribalar o‘tkaziladi. 4 ta tajribani taklif qilinadi. Bular:

1. Birikish reaksiyasi – so‘ndirilmagan ohakning suv bilan ta’siri.
2. Parchalanish reaksiyasi – malaxitning parchalanishi
3. O‘rin olish reaksiyasi – temir mix bilan mis sulfat yoki mis (II) xlorid eritmasining o‘zaro ta’siri.
4. Almashinish reaksiyasi – NaOH bilan sulfat kislota orasidagi almashinish reaksiyasi.

Tajribalar bajariladi, reaksiya tenglamalar yozilib, javoblar izohlanadi.

Evaluation – Baholash. **1-topshiriq.** Tarqamadagi sxemalar kimyoviy reaksiyalarning qaysi turiga mansub ekanligini aniqlang.Reaksiya tenglamalarini tuzing.



2-topshiriq. Quyida e’tiboringizga havola etilgan tanish jarayonlarga tegishli tasvirlarni diqqat bilan kuzating hamda ular orasida qaysilarida kimyoviy reaksiyalarning belgilari uchramasligini aniqlang.

Uy vazifasi sifatida kundalik turmushda, xususan yoz mavsumida ko‘p foydalaniladigan muzlatkich, kondisionerlarning ishlash mexanizmiga bir qiziqib ko‘ring. Nega ularning ichki qismi sovuq bo‘lsa, tashqi qismi issiq bo‘ladi? Bunda qaysi turdagi reaksiyalar sodir bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Javobingizni daftaringizga qisqa izohlar orqali yozing, keyingi darsda sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 5E modeli kabi o‘quv modellarini o‘z sinflariga kirita oladigan o‘qituvchilar faol ishtirok etish orqali o‘quvchilarga mustahkam bilim poydevorini yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Namdar, M.Kucuk. Preservice Science Teachers’ Practices of Critiquing and Revising 5E Lesson Plans. Journal of Science Teacher Education. 2018, May.
2. Fatchul Fauzi, Ali Mustadi. Learner autonomy using 5e learning cycle. Universitas Negeri Yogyakarta, Indonesia, 2019.
3. II -Ustozlar Forumi materiallari, 2023.

IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA IT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Xurramova Sarvinoz Erkin qizi, Xurramova Sitora Erkin qizi
Angor tuman ixtisoslashtirilgan maktab, Kadrlar bo‘yicha menejer; Jarqo‘rg‘on tuman ixtisoslashtirilgan maktab, Maktab maslahatchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarida fanlararo aloqadorlik asosida axborot kompetentsiyasini shaklantirishda o‘sib kelayotgan avlodga axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash, ulardan samarali foydalanish jarayonlarini puxta o‘zlashtirishni ta’minlashdan iborat. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyati, ijodiy faoliyatini shakllantirish, aqliy rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash, intellektual salohiyatini o‘sishi ko‘p jihatdan axborot kompetentsiyasini rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: IT-industriya, axborot kompetentsiyasi, raqamli ta’lim, raqamlashtirish, axborot savodxonlik, integratsiyalashgan axborot-ta’limi, onlayn platformalar.

Аннотация. Данная статья призвана обеспечить подрастающему поколению основательное овладение процессами работы со средствами информационных технологий и их эффективное использование при формировании информационной компетентности на основе междисциплинарной коммуникации у студентов специализированных школах. Научное мировоззрение студентов специализированных школ, способность к логическому мышлению, формирование творческой активности, умственное развитие, самосознание, рост интеллектуального потенциала во многом связаны с развитием информационной компетентности.

Ключевые слова: ИТ-индустрия, информационная компетентность, цифровое образование, цифровизация, информационная грамотность, интегрированное информационное образование, онлайн-платформы.

The development of students’ information competence and the role of IT technologies in specialized schools

Abstract. This article aims to provide the growing generation with thorough mastery of the processes of working with information technology tools and their effective use in the formation of information competence based on interdisciplinary communication among students of higher educational institutions. The scientific outlook of students of higher educational institutions, the ability to think logically, the formation of creative activity, mental development, self-awareness, and the growth of intellectual potential are largely related to the development of information competence.

Keywords: IT industry, information competence, digital education, digitization, information literacy, integrated information education, online platforms.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarida fanlararo aloqadorlik asosida axborot kompetentsiyasini shaklantirishda o‘sib kelayotgan avlodga axborot

texnologiyalari vositalari bilan ishlash, ulardan samarali foydalanish jarayonlarini puxta o‘zlashtirishni ta’minlashdan iborat. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyati, ijodiy faoliyatini shakllantirish, aqliy rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash, intellektual salohiyatini o‘sishi ko‘p jihatdan axborot kompetentsiyasini rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topmoqda.

Inson o‘z hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishida kasbiy va axborot kompentsiyasini rivojlanmaganligi uchun turli muammolarga uchraydi. Shu sababli jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Axborot kompetentsiyasini shaklantirishning maqsadi o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish kompetentsiyalarini shakllantirish orqali ularni mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan shaxs etib tarbiyalashdan iborat.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash, ijodiy qobiliyatilarini rivojlantirib olgan bilimlarini hayotda tadbiq etishga o‘rgatishdan iborat.

Ma’lumki, Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va ta’lim muassasalari ham bu jarayonlardan chetda qolmadi, ularni o‘quv jarayoniga faol kiritmoqda. Texnologiyalar ta’lim jarayonining turli jabhalarida: ma’muriy vazifalarni hal qilishdan tortib, onlayn tarzda uy vazifalarini bajarishgacha qo‘llaniladi. Raqamli qurilmalarning aniq afzalliklari ularni sinfda zarur elementga aylantiradi. Bugungi o‘quvchilar raqamli dunyoda ulg‘ayishyapdi va kundalik hayotlarida va o‘qishlarida gadjetlardan foydalanishni yoqtirdilar. Bugungi kunda o‘quv jarayonini moslashtiradigan ko‘plab "aqlli" elektron darsliklar va noutbuklar mavjud - har bir o‘quvchi o‘zining hozirgi bilim darajasiga mos keladigan topshiriq va mavzular bilan ishlaydi. O‘quvchi ma’lum bir mavzuni o‘zlashtirar ekan, raqamli darsliklar unga o‘rganish va mustahkamlash uchun yangi vazifalarni ochadi yoki joriy mavzu doirasidagi vazifalarning murakkabligini oshiradi.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sabablari orasida ko‘plab tadqiqotchilar sinfdagi yuklamaning kamayishi va mustaqil ishlar ulushining ko‘payishini ta’kidlashadi. Shu bois ta’lim sifatini saqlab qolish va yaxshilash maqsadida o‘quvchilarning bilim olishidagi kamchiliklarini o‘z vaqtida bartaraf

etish uchun o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi raqamli ta’lim texnologiyalari faol joriy etilmoqda.

Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining ajralmas qismidir, shuning uchun olimlar ta’kidlashicha, ular o‘quv jarayoniga osongina integratsiyalashgan, chunki o‘quvchilar o‘z hayotlarida turli xil elektron vositalardan foydalanishga odatlangan va bu ularga turli xil texnologiyalar bilan ishlashni osonlashtiradi. Elektron vositalar va ma’lumotlarni osonroq qabul qilish va materiallarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini farqlash, uni har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos ravishda qurish, tayyorgarlik darajasiga mos keladigan vazifalarni berish va shu bilan o‘quv sifatini oshirish imkonini beradi. Raqamli vositalardan foydalanish talabaning o‘quv jarayonining faol sub’ektiga aylanishi uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Passiv idrokdan u faol harakatlarga o‘tadi va vazifalarni bajarishda ishtirok etadi.

Aynan shuning uchun ham hozirgi zamonaviy ta’limning raqamlashtirish davrida Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tizimi o‘quvchilarining interaktiv texnologiya va multimedia vositalari yordamida ularning raqamli kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri sanalmoqda. Olimlar Ye.Ye.Shyerbik, A.A.Kondakova ta’kidlashicha raqamli kompetentsiyalarning shakllanishini baholashda uchta darajani aniqlash mumkin:

– yuqori. Raqamli va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan to‘liq foydalanish qobiliyati (shu jumladan raqamli mahsulotni yaratish) bilan tavsiflanadi;

– o‘rta. Bu barcha raqamli kompetentsiyalarning mavjudligini bilish, ammo ularni faqat qisman qo‘llash sifatida tavsiflanishi mumkin;

– past. Raqamli komponentlar haqidagi bilimlarning mavjudligidan farq qiladi, bilimni tarkibiy qismlarini kasbiy vazifalar bilan o‘zaro bog‘lash mumkin emas.

Shuning uchun raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun nafaqat fanlararo bog‘lanishlardan foydalanish, balki o‘rganilayotgan fanlarga individual interfaol metodlardan foydalangan holda zamonaviy dars olib borish metodlarini ham kiritish kerak. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, raqamli kompetentsiya hayotning barcha sohalarida axborot jamiyati texnologiyalaridan ishonchli va tanqidiy foydalanishni nazarda tutadi. Raqamli kompetentsiya axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi asosiy ko‘nikmalarga asoslanadi (kompyuterlarda ma’lumot izlash, baholash, taqdim etish, saqlash va almashish, elektron vositalar va Internet orqali muloqot qilish uchun).

Ta’limda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun quyidagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmog‘i dakor: Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va eng muhimi aholining, ayniqsa o‘quvchi yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘ngi yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berish lozim;

Ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor o‘quvchilarni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga

soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha ta’lim muassasalarida qo‘llash;

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integrasiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;

To‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, darslar uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish;

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferesaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqeylik, kengaytirilgan voqeylikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun loyihalar, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim sifatini tushirmagan holda o‘quvchi yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.

2. Ярмахов Б.Б., Сотникова А.Л., Патаракин Е.Д. Базовые фреймворки ИКТ-компетентности в структуре профессионального стандарта учителя //Психологическая наука и образование 2018. Т. 23. //№ 3. С. 67—76//doi: 10.17759/pse.2018230306, ISSN: 1814-2052, ISSN: 2311-7273 (online), © 2018 ФГБОУ ВО МГППУ

3. Тоджибаева К. С. К. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся //Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27). – С. 14-16.

4. Хасанов А.А. Межпредметные связи как дидактическое условие повышения эффективности учебного процесса / А.А.Хасанов, К.З.Маматкаримов. // Молодой ученый. – 2016. – № 20 (124). – С. 738-741.

5. B.N.Raxmonov. Talabalarning AKT kompetensiyasini shakllantirishda fanlararo aloqadorlikni hisobga olib mustaqil ta’limni tashkil etish modeli. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5 UIF -2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. September 2022, Paje.285-288 https://doi.org/10.5281/zenodo.7036657

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISHNI TA’MINLOVCHI TA’LIM TRAYEKTORIYALARI

Mamarajabov Shavkat Ergashevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor v.b., p.f.n

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quv jarayonida talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini qurish, uning o‘ziga xos xususiyatlari va individual ta’lim traektoriyasini qurish masalasi bo‘yicha tadqiqotlarning izohlari keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены построение индивидуальной образовательной траектории обучающихся в образовательном процессе, её особенности и разъяснения исследования по вопросу построения индивудальной образовательной траектории.

Annotation: This article describes the construction of the individual educational trajectory of students in the educational process, its peculiarities, and the explanations of the research conducted on the issue of constructing an individual educational trajectory.

Kalit so‘zlar: o‘qitish jarayoni, o‘quv jarayoni, ta’lim trayektoriyasi, ta’lim trayektoriyasini qurish, individual ta’lim trayektoriyasi

Ключевые слова: образовательный процесс, процесс преподавания, образовательная траектория, построение образовательной траектории, индивидуальная образовательная траектория

Key words: teaching process, educational process, educational trajectory, construction of educational trajectory, individual educational trajectory

Kirish

Kredit-modul tizimining asosini bir qator ko‘rsatkichlar tashkil etadi, ya’ni: majburiy, tavsiyaviy va fakultativ.

Tavsiyaviy ko‘rsatkichlar, tabiiyki, tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, kredit-modul tizimi tamoyillarini amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning yana bir asosiy jihatlaridan biri talabalarning ta’lim jarayonida shaxsiy faol ishtiroki bo‘lib, bunda talabalarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish lozim bo‘ladi.

Shaxsni ta’lim-tarbiyasini amalga oshirish nuqtai nazaridan bilish faoliyatining maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish uchun ham ta’lim oluvchi, ham ta’lim beruvchilarning bu jarayonda o‘zaro bilim va shaxsiy tajribalarini almashishida hamkorligiga asoslanib, o‘z-o‘zini rivojlantirishni aks ettirishi lozim. Buning uchun esa ta’limning samarali metodlari va shakllari tanlanadi, baholash mezonlari ishlab chiqiladi va aniqlashtiriladi.

Mazkur masalani tahlil etishdan oldin uning bir jihatiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Metodik adabiyotlarda ikkita tushunchaga duch kelinadi va aksariyat mualliflar ularni bir xil narsa deb hisoblashadi va sinonimlar sifatida qarashadi: “o‘qitish trayektoriyasi” va “ta’lim trayektoriyasi”.

Agar lug‘atlarga e’tibor qaratilsa, shuni aniqlash mumkinki, ular bir-biri bilan

bog‘liq bo‘lsa-da, baribir farqli jihatlari mavjud: “o‘qitish – pedagogik jarayon bo‘lib, uning natijasida o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida umumiy va maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar”.

“O‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining hamkorlikdagi murakkab faoliyatini o‘zida aks ettirib, u umumiy maqsadga – ta’lim oluvchilarni bilim bilan qurollantirish, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va tarbiyalashga yo‘naltirilgan. O‘qitish – ikkiyoqlama jarayon”.

“Ensiklopedik lug‘at”da mazkur ta’rifning kengaytirilgan shaklini uchratish mumkin: “O‘qitish – pedagogik jarayon, uning natijasida o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida umumiy yoki maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. O‘qitish jarayonida o‘quvchilar ma’lum bir ma’lumotni egallaydilar”.

“Ta’lim” atamasiga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: “Ta’lim (o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish; ma’lumot) – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi”.

“Ta’lim – ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma’lumot va ko‘nikmalar majmui”.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tushunchasiga jarayon sifatida quyidagicha ta’rif berib o‘tilgan: “ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”.

Shunday qilib, “ta’lim” tushunchasi “o‘qitish” tushunchasiga nisbatan kengroq bo‘lib, yuqoridagi keltirib o‘tilganlardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, uni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish natijasi, va ta’limiy natijalarga erishish jarayoni deb xulosa qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot davomida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me’yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi ta’lim jarayonida talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini qurish imkoniyatlarini yoritib beruvchi adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari

Ta’limda trayektoriya (ta’lim trayektoriyasi) deganda biz ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyati elementlarining ma’lum ketma-ketligini tushunamiz.

Talabalarning individual ta’lim trayektoriyalarini qurish “ta’lim jarayoni ishtirokchilari uchun shaxsan tanlash imkonini beradigan egiluvchan ta’lim muhitini yaratilishi bo‘lib, unda individuallikni rivojlantirilishi rag‘batlantiriladi, yaxlit o‘z-o‘zini anglash, refleksivlik, kreativlik, qobiliyatni rivojlantirish bilan bog‘liq holda sub’ektiv tajribani shakllantirilishiga olib keladigan sharoit yaratiladi”.

Ta’kidlash joizki, individuallashtirish tushunchasi pedagogikada yangilik

emas. Ta’limni individuallashtirish usullarining zarurligiga e’tibor o‘tgan asrning boshlaridan e’tibor qaratilgan edi. S.T.Shatskiy “har bir ta’lim oluvchi uchun eng mos ish sur’ati va usulini topish muhim bo‘lardi...bu juda foydali bo‘lishi mumkin” degan fikrni bergan edi.

Ya’ni, talabalarning individual xususiyatini inobatga olish uchun ta’lim jarayonining variativligini ta’minlash zarur bo‘lib, tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olishda maksimal darajada ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishi lozim.

A.G.Asmolov “variativ ta’lim – shaxsning hayot yo‘li, o‘z-o‘zini rivojlatirishi uchun kompetentli tanlash imkonini kengaytirishga yo‘naltirilgan jarayon” deb hisoblaydi.

Ta’limning variativligi, pirovardida, ta’lim oluvchilarning individual ta’lim trayektoriyasini tanlash imkoniyatiga olib keladi. Bu esa, individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasini aniqlashtirish zarurligini vujudga keltiradi.

Pedagogik adabiyotlarda ushbu tushuncha yetarli darajada ko‘p qo‘llanilgan bo‘lsada, V.I.Andreev fikriga ko‘ra, yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Umuman olganda, mualliflar o‘quvchilarning shaxsiy xarakteristikasiga mazmun, shakl, usullarni yo‘naltirish lozimligini uqtiradi, bu esa tushunchalarning o‘ziga xosligiga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin.

Xususan, B.S.Gershunskiy individual ta’lim ta’lim trayektoriyasini shaxsning qiziqishlari, imkoniyatlari, qobiliyatlari bilan bog‘laydi: “Va bunda qobiliyatlarini to‘laqonli ochib berish, maksimal darajada o‘zini namoyon etish va o‘zini bag‘ishlash, o‘z-o‘zini har tomonlama rivojlantirish, o‘zi shaxsining MENligini tashkil etishda o‘ziga xos shaxsiy trayektoriyasida harakatlanishini qidirib topishi” ro‘y beradi.

N.V.Gaskova, Ye.A.Genike, Ye.O.Ivanovalar individual ta’lim trayektoriyasini ta’lim oluvchilarning “ta’limning ba’zi individual erishish mumkin bo‘lgan darajasida “qulay” his qilishi lozim..., o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashning ma’lum darajasiga erishishi, ya’ni bilimlarni o‘rganishni o‘z tajribasiga kiritgan, u bilan qanday ishlashni biladigan, qanday qilib ma’lum bir natijaga erishishi mumkinligini tushunadigan” muhit sifatida talqin qiladilar.

V.V.Guzeev “Har bir o‘quvchi o‘quv materiali bo‘yicha uning maqsadlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beradigan shaxsiy trayektoriyasiga ega bo‘lishga haqlidir” deb yozadi.

A.V.Xutorskoy individual ta’lim trayektoriyasini ta’limda har bir o‘quvchining o‘z shaxs potensialini amalga oshirishning shaxsiy yo‘li sifatida qarab chiqadi. Shaxs potensiali deganda bu yerda uning tashkiliy faoliyat, bilish, ijodiy va boshqa qobiliyatlarini yig‘indisi tushunilib, u ta’limda individual trayektoriya bo‘yicha harakatlanishi natijasida yuzaga keladi, amalga oshadi va rivojlanadi.

A.V.Xutorskiy tomonidan o‘quvchi faoliyatining 5 bosqichi ajratib ko‘rsatilib, ular ma’lum sohada individual ta’lim trayektoriyasini ta’minlash imkonini beradi: maqsadlar – reja – faoliyat – refleksiya, maqsadlar bilan olingan natijani mos kelishi sifatida, - o‘z-o‘zini baholash.

Ye.A.Aleksandrovaning dissertatsiya tadqiqotida individual ta’lim trayektoriyasi deganda “nafaqat ta’limda o‘quvchining shaxs potensialini amalga oshishining shaxsiy yo‘li (A.V.Xutorskiy pozitsiyasi), balki yuqori sinf

o‘quvchisining pedagog bilan hamkorlikda shaxsiy ta’lim faoliyatini ishlab chiqilishi ham bo‘lib, unda jamiyatning maqsadlari va qadriyatlarini, ta’limni yaxlit va shaxsiy ta’limni tushunishi, ta’limiy qiziqishlarning fanga yo‘nalganligi va ularning jamiyat talabalari bilan muvofiq kelishi, ta’lim mazmuni va shaklini erkin tanlanishi natijalarining uning individual o‘qish va muloqot usuliga, o‘quv faoliyati natijalarini taqdim etish variantlariga muvofiq kelishi” tushuniladi.

Individual ta’lim texnologiyasi tushunchasi N.N.Surtayeva tomonidan quyidagi shaklda beriladi: “Bu har o‘quvchining o‘quv faoliyati elementlarining ma’lum ketma-ketligi bo‘lib, uning qobiliyatlari, imkoniyatlari, motivatsiyasi, qiziqishlariga mos keladi, pedagogning ota-onalar bilan yo‘naltiruvchi, tashkil etuvchi, maslahat berishi faoliyati orqali amalga oshiriladi”.

Tahlil va natijalar

Kredit-modul tizimi ta’lim mazmuni, o‘quv dasturlarini xilma-xilligiga o‘tishga imkon beradi, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual ta’lim trayektoriyasini tanlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Psixologo-pedagogik adabiyotlarda imkoniyatlari sifatida o‘quv faoliyatida individning ma’lum potensialini xarakterlovchi sub’ektiv va ob’ektiv omillar yig‘indisi tushuniladi.

A.A.Budaronovning fikricha, o‘quv imkoniyatlari o‘rganish darajasi bilan ishlash darajasining uyg‘unlashini ifodalaydi.

O‘rganish o‘quvchilarning bilim olish bilim olish qobiliyatiga u yoki bu tarzda ta’sir qiluvchi ko‘plab omillarni belgilaydi, bundan tashqari, u o‘qishga bo‘lgan qobiliyatni belgilaydi va aqliy qobiliyatlarni tavsiflaydi.

Shunday qilib, o‘quv imkoniyatlari o‘rganishni ya’ni o‘qish qobiliyatini belgilaydi, ehtiyojlar esa motivatsiyaning tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi.

S.A.Vdovinaning dissertatsiya ishlarida individual ta’lim trayektoriyasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Har bir o‘quvchining o‘quv faoliyati uslubining namoyon bo‘lishi bo‘lib, uning motivatsiyasi, o‘rganishi bilan bog‘liq bo‘ladi va o‘qituvchi bilan hamkorligida amalga oshiriladi”.

Yuqorida keltirib o‘tilgan pedagogik va metodik adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, “individual ta’lim trayektoriyasi”ga oid barcha ta’riflar asosan ta’lim oluvchilar (o‘quvchilar)ga oid bo‘lib, bu tushuncha umumiy o‘rta ta’limda keng qo‘llaniladi degan xulosaga olib keladi.

Keyingi davrda oliy ta’lim bilan bog‘liq individual ta’lim trayektoriyasi haqidagi bir qator ishlar yuzaga keldi. Bir qator tadqiqotchilar mazkur tushunchani aniqlashtirishga uringanlar (O.A.Plaksina, T.A.Matveeva, V.A.Mayaskaya, M.A.Dubik, Yu.V.Tolbatova, A.N.Stroganova va b.)

Turli mualliflar tomonidan taklif etilgan fikrlarni tahlil etamiz.

V.A.Mayasskaya individual ta’lim trayektoriyasini “o‘qituvchining pedagogik qo‘llab-quvvatlashi, o‘z-o‘zini anglashi va o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta’minlagan holda talabaga ta’lim standartini tanlash, ishlab chiqish va amalga oshirish sub’ekti pozitsiyasini ta’minlaydigan maqsadli ta’lim dasturi” deb talqin qiladi. Muallif talabaning individual ta’lim trayektoriyasini qurish jarayoniga diqqatni qaratish lozimligiga e’tiborni qaratib, bunda “qo‘yilgan ta’lim maqsadiga albatta erishishda shaxsning o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini namoyon etishi uchun” sharoit yaratish

bilan belgilanishini, va ta’lim oluvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etish orqali talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini qurish usulini qayd etib o‘tadi.

O.A.Plaksina va T.A.Matveeva individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasining mohiyatini tahlil qilib, individual ta’lim trayektoriyasini kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish sharoitida yetarli emas deb hisoblaydi va ushbu tushunchaga oid o‘zlarining ta’rifini taklif qiladilar: “individual o‘quv dasturini amalga oshirish natijalarini to‘plash jarayonining nusxasi”, qaysiki “asosiy o‘quv dasturining har bir talabaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlarining modullar mazmuni muhitida ularning aniq kompetensiyalari bilan bog‘liq holda hamda individual natijalarini namoyish etishiga bog‘liq bo‘lgan” holda rivojlanib boradigan proeksiyasini namoyon qiladi.

M.A.Dubik texnik OTM talabasining individual ta’lim trayektoriyasidagi harakatini hozirgi rivojlanish hududidan keyingi rivojlanish hududiga o‘tishi sifatida “shaxsga yo‘naltirilgan uzluksiz fizika darsligi”da ko‘radi va bu darslik alohida darsliklar tuzilmasidan iborat bo‘lib, ularning har biri alohida modullar, ya’ni alohida mavzular birikmasidan tashkil topadi.

S.L.Kliminskaya o‘z tadqiqotlarida A.P.Tryapitsina, Ye.I.Kazakova va N.N.Surtayevalarning individual ta’lim texnologiyasini “o‘quv faoliyatining individual usuli” deya tushuntirib bergan fikrlariga tayanib va ularni birlashtirgan holda “o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari asosida amalga oshadigan rivojlanish darajasiga muvofiq keladigan ta’limiy qadamlarining ketma-ketligi”, shuningdek, “individual ta’lim yo‘nalishidan ko‘ra kengroq ma’noga ega bo‘lib, oliy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni belgilab beradi” deb tushuntirib beradi.

Individual ta’lim yo‘nalishi – bu individual ta’lim trayektoriyasining bir qismi sifatida ta’limning ma’lum bir belgilangan, cheklangan vaqt oralig‘ida talaba uchun tuzilgan harakatlar dasturi.

Shuningdek, muallif individual ta’lim trayektoriyasini qurish uchun quyidagi tamoyillarni e’tiborga olish lozimligini uqtirib o‘tadi:

- Ta’lim olish jarayonida o‘zining shaxsiy imkoniyatlari va istiqbollarini anglashi;
- Mehnat bozori talabalariga muvofiq holda ta’lim tizimining egiluvchanligi va dinamikligi;
- O‘qituvchi-ustoz bilan ishlash jarayonining individual va ijodiy tuzilganligi.

OTMda talabalarning individual yo‘nalgan ta’lim modelini qurishda A.N.Stroganova quyidagi texnologik qolipni tavsiya etadi: “o‘quv jarayonini tezlashtirish yoki sekinlashtirish imkonini beruvchi harakatlantiruvchi vaqt doiralari; ma’lum bir sohada minimal ta’lim standartini kengaytirish variantlari bilan tanlash; har bir talabaga faoliyatning samarali tartib va shaklini tanlash imkonini beruvchi axborot texnologiyalari qo‘llash asosidagi virtual-trening ta’lim; muhitga nisbatan qat’iy qoidalar bo‘lmaganda joyni tanlash; bo‘lim-modullarni o‘zlashtirishda talaba o‘tishi kerak bo‘lgan individual ish shakllarining xilma-xilligi”.

Yu.V.Tolbatova individual ta’lim trayektoriyasini “har bir talabaning o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari, motivatsiyasi, qiziqishlariga mos keladigan va o‘qituvchi yoki o‘qituvchilar guruhi bilan o‘zaro bir-biri bilan aloqada muvofiqlashtiruvchi, tashkiliy, maslahat faoliyati bilan amalga oshiriladigan o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘quv faoliyati tarkibiy qismlarining ma’lum ketma-ketligi” deb ta’riflagan. Shuningdek muallif individual ta’lim trayektoriyasini qurish uchun ham o‘qituvchi, ham talabaning xatti-harakatlari belgilab berilgan individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashtirish algoritmi va texnologiyasini taqdim etgan.

Bundan tashqari tadqiqotchi individual ta’lim trayektoriyasini qurish texnologiyasi “talabalar qobiliyatining dastlabki ko‘rsatkichlarini, ularning ilmiy salohiyatini, qiziqishlari, ehtiyojlari, motivatsiyasini hisobga olgan holda fan bo‘yicha individual o‘quv dasturini shakllantirish; fan bo‘yicha nazariy, amaliy va nazorat mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishning tashkiliy shakllarini tanlash (o‘quv jadvaliga muvofiq, talabaning shaxsiy jadvaliga muvofiq, fakultativ; o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashish uchun individual jadval yaratish” kabilarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi.

E.P.Chernyaevaning tadqiqot ishida talabaning individual ta’lim trayektoriyasi “talabaning o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatida maqsadlar, mazmun, shakllar, usullar, vositalar, refleksiya usullari va o‘rganish tezligini tanlash erkinligiga asoslangan kasbiy ta’limni individuallashtirish va differensiallash shakli” deb ta’riflanadi.

Xulosa va takliflar

Shunday qilib, berilgan ta’riflarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, individual ta’lim trayektoriyasini qurish talabalarning individual xususiyatlarini yetarli darajada kengroq e’tiborga olishni amalga oshirishga imkon beradi, biroq bir qator tadqiqotlarda o‘quv materiallarini individual o‘quv rejasiga muvofiq individual sur’atda o‘tkazish imkoniyati qayd etiladi, bunda mashg‘ulotlarga qatnashish uchun individual grafik tuzilishi qayd etib o‘tiladi.

Bunday yondashuvni majburiy fanlar sikliga kiruvchi fanlar, xususan “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi”ni o‘rganishda qo‘llash mumkin emas, chunki ushbu o‘quv modulini o‘rganish uchun aniq vaqt oralig‘i ajratilgan bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Павлуцкая Н.М. Дифференциация обучения физике бакалавров технических направлений подготовки как условие формирования их общекультурных и общепрофессиональных компетенций дис...д-ра пед.наук: 13.00.02 / Павлуцкая Нина Максимовна. – М., 2016. – 311 с.
2. Mamarajabov Sh.E. Ta’lim jarayonining differensiallashtirishning imkoniyatlari/ J. Maktab va hayot №1, 2022.- Б.38-40.
3. Mamarajabov Sh.E. Ta’lim jarayonida talabalarning chiziqsiz ta’lim trayektoriyasini qurishga sinergetik yondashuv / J. O‘zMU xabarlari. 1/12/2, 2023.-Б.125-127.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi
Navoiy DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta’lim olishning shart-sharoitlari, auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limni tashkil etish bosqichlari, pedagogik innovatsiyalarning maqsadlari hamda talabalarning mustaqil o‘qishlari yuzasidan Respublikamiz olimlarining pedagogik qarashlari borasidagi fikr-mulohazalar keltirilgan.

Annotation: this article provides feedback on the conditions of Independent Education, stages of organizing independent education outside the audience, goals of pedagogical innovation and pedagogical views of scientists of the Republic on independent studies of students.

Аннотация: В данной статье представлены отзывы об условиях самостоятельного обучения, этапах организации самостоятельного обучения вне аудитории, целях педагогических инноваций и педагогических взглядах ученых нашей республики на самостоятельное обучение студентов.

Kalit so‘zlat: Mustaqil ta’lim, mustaqil o‘qish, auditoriyadan tashqari mustaqil ta’lim, talaba, o‘quv jarayoni, maqsad, shart-sharoit, axborot, kredit-modul tizimi, innovatsion texnologiyalar.

Keyword: Independent Education, independent study, independent education beyond the audience, student, educational process, purpose, conditions, information, credit-module system, innovative technologies.

Ключевое слово: самостоятельное обучение, самостоятельное чтение, внеаудиторное самостоятельное обучение, студент, учебный процесс, цель, условия, информация, кредитно-модульная система, инновационные технологии.

Jahonda ro‘y berayotgan texnika, axborot texnologiyalar va boshqa ko‘plab sohalardagi taraqqiyot zamonaviy ta’limda yanada yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘quv jarayonida ta’limning mustaqil ta’lim shaklidan keng foydalanish (Simulations), masofaviy ta’lim (Moodle, Ilias, Dokeos va hokazo) shakllarini keng tatbiq etish, axborot-ta’lim muhiti (e-learning) sharoitida ta’limning uzluksizligi va amaliy yo‘nalganligini ta’minlash, ta’lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar mustaqil faoliyati va mustaqil ishlari muammolari borasida olib borilgan tadqiqot ishlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, talabaning mukammal shaxsga aylanish jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirishdagi eng muhim omillardan biri mustaqil faoliyatdir. Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limi uchun har bir oliy ta’lim muassasida yaratilishi kerak bo‘lgan shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni sanash o‘rinli bo‘ladi.ular quytidagilar:

- Yetarli axborot bazasi va undan foydalanish imkoniyatini berish (talabalarning o‘zaro hamda o‘qituvchi bilan muloqotini ham innovatsion

texnologiyalarda ta’minlash);

- Talabalar qo‘shimcha ma’lumot olishlari uchun alohida xonalarning mavjudligi;

- Ishchi dastur asosida mustaqil ta’lim olish uchun ajratilgan mavzular va ularni muvofiqlashtirish;

- Talabalar mustaqil ta’limda o‘zlashtirgan mavzulardan, egallagan bilimlardan oraliq, yakuniy nazoratlarni topshirish jarayonida foydalanish. Talabalarga axborot ta’lim muhitini yaratish bilan ularga erkin axborot olish va ulardan foydalanish imkonini berish;

Mustaqil ishlarni tashkil etishda, talabalarga topshiriqlarni berishda “oddiydan-murakkabga” tamoyiliga amal qilgan holda bosqichma-bosqich harakatlanish lozim. Kredit-modul tizimida har bir talabaga kurslarni tanlashda, shaxsiy ta’lim xaritasini tuzishda qisman erkinlik beriladi. Bu esa o‘qituvchiga ayniqsa auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limni nazorat qilishni qiyinlashtirib qo‘yadi. Bunda talabalar faoliyati individual holda tashkil etiladi va ular o‘tilayotgan kurs bo‘yicha auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limni tashkil etish jadvalini to‘ldirib kurs rahbariga taqdim etadilar.

1.1-rasm. Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limni tashkil etish bosqichlari quyidagilar:

Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limda asosiy metod adabiyotlar ustida individual ishlash orqali bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lish va sohaga doir kompitensiyalarni shakllantirish hisoblanadi. Talaba mustaqil ravishda adabiyotlar ustida ishlash orqali o‘zining tashkiliy tafakkurini ham rivojlantirib boradi. Borgan sari talabada axborotlarni saralash qobiliyati ham rivojlanib boradi va bu unga kasbiy faoliyatida ham asqotadi. Nazariy bilimlarni mustaqil kengaytirish va mustahkamlashdan tashqari talabalar ijodiy yondashadigan kurs ishlari, referat, kurs loyihalarini bajarish malakasini shakllantirish hamda talabalarning biror muammoni yechishdagi ijodiy izlanishlarini: muammoni atroflicha o‘rganish, uni nazariy jihatdan chuqur tahlil etish va amaliy holatdagi chetga chiqishlarni aniqlash, xatolar va ularni yo‘qotish yo‘llarini izlash usullarida olib borish mumkin [1]. Mazkur faoliyatning yutug‘i shundaki, u talabalarni ijodiy izlanishlar, mulohazalar yuritish, yangi yechimlarni ishlab chiqishga undaydi. Demak, mustaqil ta’lim hozirgi axborot

davrida talabani kurs bo‘yicha yangi bilimlarni o‘zlashtirishi uchun qulay innovatsiya bo‘libgina qolmay, talabalarda ko‘plab fazilatlarni shakllanishiga va mustahkamlanishiga olib keluvchi ta’lim shaklidir [2].

Sh.Mustafaqulov va M.Sultonovlar “Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik” nomli “Xalq so‘zi Online” ga bergan intervyusida quyidagicha fikr yuritadilar: “Kredit-modul tizimi, bu – ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash, talabalar bilimini reyting asosida baholash”.

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda ta’lim tizimi rivojlangan davlatlarning bu sohadagi amaliyotidan unumli foydalanish samarali bo‘lib, oxirgi yillarda bu bo‘yicha ham keng qamrovli ishlar amalga oshdi va oshyapdi. Bunda ham o‘qituvchi, ham talabalar oliy o‘quv yurtida tahsil olish vaqtida, qolaversa, hayoti – kasbiy faoliyati davomida uzluksiz ta’lim olishi va bilimlarini oshirishi asosan mustaqil ravishda ta’lim olish bilan o‘zlashtirish orqali bo‘lishiga e’tibor qaratiladi [3].

Ma’lumki, har qanday sohada isloh qilish jarayoni soha rivoji uchun qilinayotgan ishlar zamonaviy talablarga javob bermaganda boshlanadi. Sohalarda qo‘yilayotgan maqsad, vazifalar va erishilayotgan natijalar ma’naviy eskirganda shu soha yangicha yondashuvga, islohotga ehtiyoj sezadi. Biroq avvalo shuni tushunish kerakki, bu doim ham oldingi ish tizimining kamchiligi bo‘lavermaydi, balki zamonaviy sharoitning o‘z optimal qoidalari mavjudligidan kelib chiqadi. Ta’lim tizimida ham yangicha ish prinsiplariga o‘tishni boshlar ekanmiz, avvalo bu jarayonni zamona zarurati va zamonaviy imkoniyatlar tufayli deb qarash kerak. Qolaversa, albatta ta’lim tizimi ham rivojlanyapdi va rivojlanishda davom etishi kerak. Insoniyatga eng kerakli bilimlarning mohiyatini yetkazishda eng qulay usullardan foydalanishni o‘rganish jarayoni uzluksiz bo‘lishi zarur. Masalan, yuz yil oldin ham hozirgiga nisbatan ko‘pgina tabiat hodisalari, ularning fizik qonuniyatlari noma’lum edi. Bu sharoitda shu noma’lum hodisaning qonuniyatini kashf qilib ommaga yetkazish va bundan ishlab chiqarishda, texnikada va hokazolarda foydalanish eng asosiysi deb qaralgan. Hozirgi davrda esa bir vaqtlar “o‘ta sirli” deb hisoblangan ko‘pgina hodisalarning qonuniyatlari ochildi. Insoniyat qo‘lida ulkan bilimlar zahirasi yig‘ilib qoldi. Hatto bu bilimlarning “eng asosiy” larini o‘rganishga ham biror bir insonning umri yetmaydi. Bu vazyatda sovol berish ham mumkinki, “shu bilimlarni o‘rganish kerakmi”?! Ikkinchidan, “Axborot asri” deb ataladigan hozirgi davrda biror fikrning to‘g‘riligini bilishdan ham ko‘ra, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qilish qobiliyati muhimroqdir. Bu ta’lim mazun-mohiyatiga ham yetarlicha o‘zgartirishlar kiritish kerakligini, zamonaviy innovatsiyalar bu sohada ham yetakchi bo‘lishi zarurligini anglatadi. Ta’lim oluvchilarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularning tahliliy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish hamda bu jarayonda ularning erkinligini, mustaqilligini ta’minlash masalalari hozirgi davr ta’limi uchun eng asosiy vazifalarga aylangani bejizga emas. [4]

Pedagogik innovatsiyalarga odatda ta’lim jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishishning samarali usullarini ishlab chiqish va ularni bu jarayonga tadbiq etish sifatida qaraladi. Pedagogik innovatsiyalar quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yadi:

- “Ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish – ta’lim qandaydir tor doiradagi dunyoqarashlarga emas, umuminsoniy g‘oyalarga: insoniyat taraqqiyoti, moddiy va ma’naviy, ijtimoiy xavfsizligi, tibbiyot xavfsizligi, texnika, ishlab chiqarish rivoji, bir so‘z bilan aytganda butun insoniyat yer yuzida baxtliroq bo‘lishiga xizmat qilishi kerak”.

- Ta’lim jarayonini demokratlashtirish – ta’limdan asosiy maqsad insoniyatning baxtliroq bo‘lishi va albatta inson mustaqil, erkin bo‘lmay baxtli bo‘lolmaydi. Har bir hur fikrli inson o‘zida tanlash imkoni bo‘lishini xohlaydi. Qandaydir obro‘li hisoblangan g‘oyalar uning erkini bo‘g‘ishini xohlamaydi va bu to‘g‘ri ham. Shunday ekan, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarga shaxsiy ta’lim xaritasini tuzish, kerakli bilimlarni olishda vaqt va makonni tanlash va hokazolarda erkinlik berish zarur.

- Talabalarning kognitiv faolligini oshirish – ta’lim jarayonida berilgan yuqoridagi erkinlik oliy ta’limda talabaga qo‘chimcha motivatsiya bilan birga ma’suliyat yuklaydi. Endi u qandaydir nazoratlar uchun emas, avvalo egallayotgan bilimlarning tub mohiyatiga yetib borishga harakat qiladi. Bu bilimdan boshqa bilimlarini mustahkamlash – ko‘nikma, yangi bilimlarni olishni faollashtirish – malaka, kasbiy faoliyatida, kerak bo‘lsa oddiy turmush tarzida foydalanish – kompitensiya haqida o‘ylash imkoniyati yuzaga keladi [5].

- O‘quv materialining metodika va didaktika nuqtai nazaridan zamonga moslashtirish hamda ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligi – bu aynan hozirgi davr talabidan kelib chiqib eng muhim bo‘lgan kurslarni o‘quv dasturlarga kiritish va hozirgacha amalda bo‘lgan fanlarning na’munaviy va fan dasturlarini zamonaviy talablardan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqishdan boshlanib, ta’lim jarayoniga barcha zamonaviy texnika-texnologiyalarni jalb qilishgacha bo‘lgan ishlarning natijasi bo‘ladi.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalar turlari. Hozirda talabaning bilim hajmi emas, balki uning ma’lumotlarni tanlash qobiliyati ko‘proq qadrlanadi. Bu esa ta’limni tashkil etish tamoyillari va uni baholash tizimini butunlay qayta ko‘rib chiqilishiga, ta’lim jarayoniga yangidan-yangi innovatsiyalarni taklif qilinishiga olib keldi. Zamonaviy pedagogika taklif etadigan bir nechta innovatsion pedagogik texnologiyalarni ko‘rib chiqamiz:

- O‘yin texnologiyasi. Bu texnologiya bilim berish bilan birga talabalarning ijtimoiylashishiga hamda erkin fikr yuritish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

- Loyiha ishi. Loyiha ishlaridagi vazifalar bitta fan yoki kurs kesimida bo‘lmasligi mumkin. Bu jarayon talabalarda fanlardagi qonuniyatlarni yaxlit ko‘ra olish qobiliyatini rivojlantirishi bilan foydalidir. Odatda bunday qobiliyatga ega insonlar ma’lumotlarni saralashda, tahlil qilishda kamroq muammoga duch kelishadi.

- Interfaol texnologiyalar. Bunda ta’lim oluvchilar asosiy faol bo‘lishadi, o‘z madaniyati ham shakllanadi va rivojlanadi. Shuningdek bu jarayonda talabalar bir-

birlarining bilimlari, real imkoniyatlaridan ham xabardor bo‘lishadi. Bu esa talabalarning o‘z ustida ishlashga undaydi.

- Portfel. Bunda talabalarning ta’lim jarayonida erishgan yutuqlari, loyiha ishlari, ijodiy faoliyati jamlanadi. Bu talabalarni ta’limda doimiy yuqori darajada faol bo‘lishga undaydi.

- Masofaviy ta’lim. Shu bilan birga hozirda AQSh va Yevropada ommalashayotgan masofaviy ta’limni ham muhim innovatsion texnologiya sifatida qarash mumkin, albatta. Bizda ko‘plab qulayliklar yaratib beruvchi masofaviy ta’limga kelajak innovatsion texnologiyasi sifatida qarash yuqori. Chunki bu ko‘rinishdagi ta’limda bilimlarning juda katta ulushi mustaqil o‘zlashtiriladi. Masofaviy ta’limda, mustaqil o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan talabalar bilan hech qanday ijobiy natijaga erishib bo‘lmaydi. Yuqoridagi fikr pandemiya davrida Respublikamizda joriy etilgan karantin cheklovlari vaqtida masofaviy ta’lim olgan talabalarning o‘zlashtirish ko‘ratkichlarida o‘z isbotini topdi.

- Mustaqil ta’lim. Haqiqatan talabaga erkinlik beradigan, ta’lim olishda makon va zamonni tanlashiga imkon beradigan ta’limning bu ko‘rinishi hozirgi kundagi eng muhim ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. Respublikamiz oliy ta’lim muassalariga joriy qilinayotgan kredit-modul tizimida birgina auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limga to‘liq ta’limning 50-60 foiz ulushi berilgani bejizga emas.

- Inklyuziv ta’lim – umumiy sog‘lig‘i yomonlashgan, tayanch yoki nutq apparatida nuqsoni bo‘lgan ta’lim oluvchilar uchun mo‘ljallangan masofaviy ta’lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Masalan, skype, zoom va shunga o‘xshash dasturlar orqali o‘qituvchi dars o‘tishi,vazifalar berishi, nazorat qilishi va baholashi mumkin. Bu jarayon psixologik nuqtai nazardan ham foydali bo‘lib, ta’lim oluvchi o‘zini jamiyatning teng a’zosi sifatida his qilishiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi esa odatda ikkita komponentiga ko‘ra aniqlanadi. Bular:

1. “Talaba faoliyatini tashkil qilish – o‘qitish shakl va usullarini aniqlash” [6; 392-b.].

2. Talabaning faoliyatini nazorat qila olish, uni kerakli ko‘rsatmalar bilan ta’minlab borish.

Xulosa o‘rnida shuni ham ta’kidlash kerakki, aksariyat inson o‘zi o‘rganib qolgan va natijada yaxshi moslashgan sharoitdan oson voz kechishga odatlanmagan. O‘zgarishlarga moslashish, o‘rganib olgan qulaylikdan voz kechishdan ko‘ra, ayrim ehtiyojlardan tiyilishni ma’qul ko‘rish ko‘pgina insonga xos. Ular yangiliklarni xavotir va qarshilik bilan kutib olishadi. Ammo biz tushunishimiz kerakki, ertami-kechmi har qanday sohaga innovatsiyalar kirib keladi. Kimlar tezroq yangi muhitga moslashsa, o‘shalar global raqobatda yutib chiqadi. Chunki butun jamiyat manfaati qandaydir “qattiq fikrlovchi”, o‘zgarishlarga toqati yo‘q kadrlar manfaatidan ustun turadi, hatto ular iqtidorliroq bo‘lishsa ham. Yuqorida biz tomonimizdan keltirib o‘tilgan shart-sharoitlardan foydalanilsa, talabalarning mustaqil o‘qishi va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarish jarayoni samarali kechadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Галимова Р.А. Организация самостоятельной работы как педагогическая проблема. Сибирский педагогический журнал. –2008. -№13. – С. 248-256.

2. Maxmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Ped.fan.nomz. diss. Avtoreferati. -T., 2018. – B. 146.

3. To‘rayev Sh.F. Mustaqil ta’lim samaradorligida talabalar uchun mo‘ljallangan kun tartibi va sportning roli // Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. BuxDU xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 28-29.04.2022y. – B. 548-549.

4. To‘rayev Sh.F. O‘qitishning kredit modul tizimida mustaqil ta’limni innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish // International Scientific Forum. UzMU. 22.06.2022. – B. 1161-1164.

5. Баластов А.В. Практическое применение информационных технологий при обучении взрослых профессионально ориентированному иноязычному общению в условиях неязыкового вуза // Вестн. Том. гос. пед. ун-та. – 2012. – № 4. – С. 167-170

6. Измерова Н.Ф., Э.И.Денисова Профессиональный риск для здоровья работников: руководство / под ред. – М.: Тровант, 2003.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL O‘QISHINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI

Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi
Navoiy DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta’lim olishda innovatsion texnologiyalarining mazmun-mohiyati, innovatsion ta’lim texnologiyalarining turlari, innovatsion ta’lim texnologiyalari uchta asosiy komponentalari, auditoriyadagi mustaqil ta’limni tashkil etish bosqichlari, ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalarni asosiy xususiyatlariga ko‘ra guruhlari yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Annotation: this article presents information on the content of innovative technologies in independent education, types of innovative educational technologies, three main components of innovative educational technologies, stages of Organization of Independent Education in the auditorium, groups of innovative technologies in the field of education according to the main characteristics.

Аннотация: В данной статье представлена информация по содержанию инновационных технологий в самостоятельном обучении, видам инновационных образовательных технологий, трем основным компонентам инновационных образовательных технологий, этапам организации самостоятельного обучения в аудитории, группам инновационных технологий в сфере образования по основным признакам.

Kalit so‘zlat: Mustaqil ta’lim, mustaqil o‘qish, auditoriyadagi mustaqil ta’lim, innovatsion ta’lim texnologiyasi, komponent, o‘quv jarayoni, didaktik texnologiya, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya.

Keyword: Independent Education, independent study, independent education in the audience, innovative educational technology, component, educational process, didactic technology, personality-oriented technology.

Ключевое слово: самостоятельное обучение, самостоятельное чтение, самостоятельное обучение в аудитории, инновационная образовательная технология, компонент, учебный процесс, дидактическая технология, личностно-ориентированная технология.

Fanlar insoniyatning o‘z davridagi real ehtiyojlari tufayli paydo bo‘lsada, fanlarning evolyusiyasi va insoniyatning yangi davr ehtiyojlari doim ham parallel rivojlanmaydi. Ta’lim tizimi taraqqiy etgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, eng ahamiyatlisi biz egallayotgan bilimlar, birinchi navbatda ayni davr uchun dolzarb bo‘lib turgan masalalarga qaratilishidir. Demak, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini zamonaviy ehtiyojlarga ko‘ra qayta ko‘rib chiqish, keraklicha o‘zgartirish, bu tabiiy va o‘ta ma’suliyatli jarayondir.Biz zamonaviy, yangi avlod talabalariga o‘zining nuqtai nazarini, fikrini yagona, yakuniy, qayta ko‘rib chiqilmaydigan deb bilishdan voz kechishni o‘rgatishimiz zarur. Ular hamma soha rivojlanishda va taraqqiyot, katta yutuqlar muqobil g‘oya hamda fikrlarni hazm qila oladigan zamonaviy kadrlar qo‘lida ekanligini his qilib borishlari kerak. Yoshlarni psixologik to‘siqlardan xalos qilishimiz kerak.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati va turlari quyidagilardir. Innovatsion ta’lim texnologiyasiga – ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, uning mazmunmohiyatini zamonaviy talab-takliflarga ko‘ra ko‘rib chiqish, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalariga eng mos keladigan ta’lim faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, mavjud usullar va vositalarni yangilashni yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan ta’lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi deyish mumkin [1].

Innovatsion ta’lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Ma’lum bir sohaning davomiyligi va rivoji uchun egallanayotgan bilimlarning hozirgi kun bozor munasabatlarida muhim o‘rin tutishi. Ma’naviy eskirgan sohalardagi bilimlar soha qanchalik obro‘li bo‘lmasin amaliyotda passiv qo‘llanilishi tufayli, o‘zlashtiruvchini zeriktirib qo‘yadi, asosiysi, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu bilimlarni egallashga ketgan xarajatlarni ham qoplamaydi [2].

2. O‘quv jarayonida talabalar faolligining oshishi, amaliyot bilan hamnafasligi va asosiysi ta’limning bo‘lajak mutaxassislarning kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilishi. Zamonaviy mutaxassisilar o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘libgina qolmay, kasbiy faoliyatidagi muammoli vaziyatlarni samarali hal qilishi uchun sohasidagi kompetentligi yuqori bo‘lishi, o‘z sohasidagi barcha jarayonlarni, kerak bo‘lsa, barcha hayotiy qonuniyatlarni bir butun, yaxlit holda ko‘ra olishi kerak.

3. Zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi, ta’limning yangi shakllarini qo‘llash uchun tashkiliy va texnologik komponentlarning mavjudligi. Yuqoridagi ikkita maqsadga erishishning osonlashuvi uchun ham bu komponent mavjud bo‘lishi kerak. Chunki mustaqil ta’lim, yoki kelajak pedagogik texnologiyasi sanaliyotgan masofaviy ta’lim texnologiyalarini samarali tashkil qilish uchun ham texnologik, komnukativ komponentlar mavjud va zamonaviy bo‘lishi shart. Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib boradi, albatta. Yangidan-yangi texnologiyalar zamonaviy talablardan kelib chiqib ishlab chiqilmoqda. Shunday bo‘lsada, ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalarni ma’lum xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha guruhlarda ko‘rish mumkin. O‘qituvchi mustaqil ishlar va topshiriqlarni tuzishda auditoriyadagi talabalarning holatini, darajasini, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini hisobga olishi ham uning mahoratidan darak beradi. Ya’ni har xil darajadagi topshiriqlar orqali barcha talabalarga o‘zini namoyon qilishiga imkon berish, bu jarayoning samaradorligini oshishiga va bu o‘z navbatida talabalarning natijalardan motivatsiya olib yanada yaxshiroq faoliyat olib borishiga turtki bo‘ladi. Shuningdek, yana bir motivatsion omil bu – auditoriyada bajarishga mo‘ljallangan mustaqil ishlar uchun tuzilgan topshiriqlarni bajarishga talabalardagi mavjud bilimlar majmuining yetarliligi, ya’ni o‘qituvchi topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar manbalari (uslubiy va adabiyotlar) bilan talabalarni ta’minlagan bo‘lishi kerak.[3].



1.1-rasm. Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalarni asosiy xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish.

Har xil darajadagi topshiriqlar orqali barcha talabalarga o‘zini namoyon qilishiga imkon berish, bu jarayonning samaradorligini oshishiga va bu o‘z navbatida talabalarning natijalardan motivatsiya olib yanada yaxshiroq faoliyat olib borishiga turtki bo‘ladi. Shuningdek, yana bir motivatsion omil bu – auditoriyada bajarishga mo‘ljallangan mustaqil ishlar uchun tuzilgan topshiriqlarni bajarishga talabalardagi mavjud bilimlar majmuining yetarliligi, albatta. Har qanday ta’lim texnologiyalaridagi asosiy shartlardan biri bu maqsadning aniqligi va kafolatlanganligi ekan, mustaqil ish va topshiriqlar aniq reja asosida boshlanib, nazoratlar bilan tugashi kerak. Ma’lumki, fanning ayrim bo‘limlari yoki mavzulari bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat turlarining umumiy natijasiga ko‘ra yig‘ishi mumkin bo‘lgan maksimal ballning 56%-100% qismini to‘plagan talabalar fanning shu bo‘lim yoki mavzularini o‘zlashtirgan hisoblanadilar. Mustaqil ishlar va topshiriqlarni tuzishda talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi turlicha ekanligidan kelib chiqib topshiriqlar bir necha murakkablikda tuzilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, umumiy pedagogikaning Pedagogika tarixi bo‘limidan uch xil murakkablikda mustaqil ish topshiriqlarini tuzish bo‘yicha tavsiyalar keltirsak:

1-tur topshiriqlari darslarda berilgan ta’riflardan bevosita foydalangan holda bajariladigan bo‘lishi lozim. Masalan, Pedagogik so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi?

2-tur topshiriqlari ma’lum bir mavzuni yoritishda kerak bo‘lgan g‘oyalar va usullardan foydalana bilishiga asoslangan bo‘lishi kerak. Masalan, Afinada qadimgi ta’lim tizimi qanday bo‘lgan?

3-tur topshiriqlarni bajarishda talaba masalani hal qilish yo‘llarini qo‘shimchasiga mustaqil izlashga ham majbur bo‘ladi. Yunonlarda qadimda qizlar maktablarga borib o‘qimaganlar. Maktablarga o‘g‘il bolalar borib o‘qishgan. Bunga sabab nima deb uylaysiz va qanday yechimlar keltiraolasiz? Bunday masalalarni hal qilishda talaba qo‘shimcha adabiyotlardan va internet tarmoqlaridan foydalanadi va asosiysi ko‘proq mantiqiy mulohaza yuritadi. Shu bilan birga bunday masalalar yuqori darajadagi tahliliy tafakkur orqaligina ijobiy yechim topar ekan, bu

darajadagi tahliliy tafakkurga esa mustaqil izlanish orqali erishilar ekan demak, mustaqil ta’lim - ta’lim tizimining ajralmas va eng asosiy qismi ekanligi oydinlashadi. Bundan tashqari, xar xil murakkablikdagi topshiriqlar o‘rgatuvchi xususiyatga ega bo‘lgani bois topshiriqlar soddadan murakkabga tomon tartiblangan holda talabalarga taqdim qilinishi kerak. Bundan kelib chiqib, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
mustaqil o‘zlashtirish uchun zaruriy qobiliyat quyidagi uchta tarkibiy qismlarga ajratildi va ijtimoiy-gumanitar fanlarda bu qismlar alohida tahlil qilindi. Ko‘zlangan natijaga erishish uchun esa, talabada yuqoridagi xususiyatlardan tashqari, bilim olishga doir ma’suliyati yuqori bo‘lishi zarur, albatta.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, talabalarning mustaqil ta’limi o‘qituvchining mahorati bilan birgalikda ijobiy shart-sharoitlar bilan birlashib talabalarni bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarida qulay ta’lim muhiti yaratilishi asosida ularda shaxs sifatida ko‘plab ijobiy xususiyatlar shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun oliy ta’limda mustaqil ta’lim hatto asosiy o‘rinni egallaydi va mustaqil ta’limni tashkil etishda saviyali, malakali yondashuv talabalarning o‘z-o‘zini tartibga solish, boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi va hatto irodasini mustahkamlashga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Maxmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Ped. fan.nomz. diss. Avtoreferati. -T., 2018. – B. 146.

2. http://lib.convdocs.org/docs/index-15025.html .

3. Sh. F. To‘rayev “Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni innovatsion texnologiyalardan foydalanib takomillashtirish metodikasi”. Dessertatsiya ishi. Buxoro-2023.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA 3D GRAFIK TURDAGI MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI

Nazarov F.M., Murtozayev M., Pardayev M.
Samarqand davlat universiteti, fayzulla-samsu@mail.ru

Annoatasiya. Mazkur tadqiqot ishida raqamli ta’lim muhitida 3D grafik turdagi ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim jarayoniga tadbiq qilish masalasi qarab o‘tilgan. 3D grafik turdagi ma’lumotlarni qayta ishlashning dasturiy vositalari va imkoniyatlari keltirilgan.

Kalitli so‘zlar. 3D grafika, Raqamli ta’lim muhiti, 3D Max, AutoCAD, Lumion.

Аннотация. В данной исследовательской работе был рассмотрен вопрос использования технологий обработки 3D-графических данных в цифровой образовательной среде и их применения в образовательном процессе. Представлены программные средства и возможности обработки 3D-графических данных.

Ключевые слова. 3D-графика, Цифровая среда обучения, 3D Max, **AutoCAD, Lumion.Abstract**. In this research work, the issue of using 3D graphic data processing technologies in the digital educational environment and its application to the educational process was considered. Software tools and possibilities of 3D graphic data processing are presented.

Key words. 3D graphics, Digital learning environment, 3D Max, AutoCAD, Lumion.

Raqamli ta’lim muhitida 3D grafik turdagi ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim jarayoniga tadbiq qilish samarali natijalarni beradi. 3D grafik turdagi ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari asosida o‘quv kontentlarini tayyorlash talabalarni tasavvur qilish darajasini keskin oshishiga olib keladi. Hozirgi kunda 3D grafik turdagi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun bir qancha dasturiy vositalar mavjud. Tadqiqotda 3D grafik turdagi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun quyidagi bir qancha dasturiy vositalari tahlil qilingan.

- **3ds Max** – 3D bo‘yicha eng ommalashgan dastur;
- **AutoCAD** - uy dizaynlarini loyihalash uchun eng yaxshi dasturiy vosita;
- **Cedreo** - pudratchilar uchun eng yaxshi dasturiy vosita;
- **V-Ray** - HD dizaynlar uchun eng yaxshi dasturiy vosita;
- **SketchUp** - biznes uchun eng yaxshi dasturiy vosita;
- **Lumion** - me’morlar uchun eng yaxshi dasturiy vosita;
- **Menards Visualizer** - uy egalari uchun eng yaxshi dasturiy vosita.

3D Maxda murakkab chizmalarni shakllantirish. 3ds Max dasturini o‘rganish yangi o‘rganuvchilar uchun biroz ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin. Oddiy dizayndan tortib eng murakkab uylarning tashqi ko‘rinishigacha bo‘lgan barcha talablarni bajara oladigan dastur ilovasini istasangiz, 3d maxni eng samarali dasturiy ilovadir. 3ds Max uyning tashqi va ichki ko‘rinishini ajoyib tarzda loyihalash uchun ilg‘or ilovaga ega bo‘lishni xohlaydigan dizaynerlar uchun eng

yaxshisi hisoblanadi. Tashqi uy dizayn ko‘rinishi ichki uy dizayn ko‘rinishi o‘xshaydi, faqat ular uylar va korxonalarning tashqi maydonini obodonlashtirishga ixtisoslashgan bo‘ladi.

AutoCAD dasturi autodesk kompaniya sifatida 1982-yil boshida dasturchilarga yo‘naltirilgan korxona sifatida tashkil etilgan. AutoCAD dasturi yordamida 3 o‘lcovli ob’ektlarni shakllantirish va atyyorlashni loyihalashtirish mumkin. AutoCAD dasturidan asosan uy qurilish sohalarida ko‘proq loyihalarni boshqarish jarayonida foydalaniladi. AutoCAD dasturida dastlab loyihani 2D ko‘rinishini keyin 3D ko‘rinishini ham loyihalash imkoniyati mavjud.



1-rasm. AutoCad dasturidagi 2D va 3D chizmani loyihalash.

Lumion dasturi yaratilayotgan ob’ektni tasavvur qilganingizdek ko‘rish imkonini berishga mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Lumion sezilarli darajada o‘zgarishlarni ko‘rsatadi, chunki u rasterlashtirish va nurlarni kuzatishni birlashtirgan qayta ishlangan renderlash mexanizmini o‘z ichiga oladi. Lumionning nurlarni kuzatish effekti oddiy bosish orqali renderlaringizga jonli yorug‘lik, soyalar va ko‘zgularni qo‘shish imkonini beradi. Bu xususiyat sizga sakrashlar va namunalar sonini tartibga solish imkonini beradi va yakuniy natijaga nisbatan aniqroq bo‘ladi.

2-rasm. Lumion dasturidagi 3D ob’ektni tashqichizmasini loyihalash.

Lumion shuningdek bino va avtomobil, kutubxonalar, daraxtlar, o‘simliklar va o‘tlar, odamlar va hayvonlar, yo‘llar, piyodalar yo‘laklari, toshlar, hovuzlar va boshqalarni jonli tarzda tabiiy ko‘rinishda loyihalash imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan 3D grafik turdagi ma’lumotlarni qayta ishlashning dasturiy vositalari asosida o‘quv kontentlarini tayyorlash talabalarni tasavvur qilish darajasini keskin oshishiga xizmat qiladi, bu esa albatta ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Nazarov F., Sabharwal M. Masofaviy ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. SamDU – 2022 y.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING AXBOROTGA NISBATAN KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Djumanov Jahongir Abdivaliyevich
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ***jahongir-djumanov2024@gmail.com***

Annotation. The authors of the article discuss the theoretical foundations of developing students’ competence in relation to information communication technologies and methodological systems of developing the competence.

Key words: the information, communications, technology, information-communication technologies, educational process, the competence, exercise, tasks.

KIRISH. Ta’lim jarayonini axborotlashtirish masalasi XX asrning 90-yillaridan e’tiboran dolzarb masalalar sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Shu davrdan boshlab ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha juda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim muassasalari ham zamonaviy kompyuter sinflari bilan jihozlanib, o‘quv predmetlaridan elektron o‘quv resurslari yaratildi va ulardan ta’lim jarayonida foydalanib kelinmoqda. Hozirgi kunda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik sohalardagi o‘zgarishlarga sababchi bo‘lgan globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Globallashgan jamiyatda zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish, olingan bilimlarni tahlil qilish va amaliyotga qo‘llash muhimdir.

METODLAR. Tadqiqotning maqsadi ta’lim oluvchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga nisbatan kompetentligini rivojlantirish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ta’lim muassasalarida Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda axborotga nisbatan kompetentligini rivojlantirish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqish masalalari bayon etiladi. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, ilmiy-metodik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR. Ta’lim muassasalarida olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni kompetentsiyalarga aylantirish orqali ta’lim oluvchilar jamiyatning iqtisodiy salohiyatiga o‘z hissalarini qo‘shish bilan birga shaxsiy hayotlarida ham farovonlikka erishadilar. Jamiyatda yoshlar muvaffaqiyatli hayot kechirishlari, o‘z o‘rnini topishlari hamda ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi uchun qanday kompetentsiyalarga ega bo‘lishlari kerak degan savolga javob berish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida o‘tkazilgan kuzatishlarga ko‘ra axborotga nisbatan kompetentsiyani egallash birinchi masalalardan hisoblanadi. Shu sababli ta’lim muassasalarida Tarbiya fanini o‘qitishga alohida ahamiyat berish, ta’lim standartlarni yangilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kompetentsiya so‘zi ko‘zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish qobiliyatini namoyish eta olishni bildiradi [1].

Ta’limiy kompetentsiyalar tayanch (umumiy) va maxsus (fanga oid)

kompetentsiyalarga bo‘linadi. Tayanch kompetentsiyalar kommunikativ kompetentsiya, axborot bilan ishlash kompetentsiyasi, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, umummadaniy kompetentsiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi kabilardan tashkil topadi [2].

Kommunikativ kompetentsiyaning asosiy mazmuni jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va biror xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish, ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish, turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish kabilardan iborat.

Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi mavjud axborot manbalari internet materiallari, televizor, radio, audio-video yozuvlar, telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqalardan foydalana olish, multimedia vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish, ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish, kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish masalan, tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd eta olishi va boshqalarda o‘z aksini topadi [3].

Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish, hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z hatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish, o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish masalalaridan iborat bo‘ladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish, kasbiy mavqeining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish kabilardan iborat.

Umummadaniy kompetentsiyalar Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish, orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar, urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va boshqalarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalarga nisbatan

mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish, xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish kabilardan tashkil topadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish kabilardan iborat.

Maxsus kompetentsiyalar ya’ni fanga oid kompetentsiyalarning asosiy mazmuni informatika fani misolida quyidagilardan iborat bo‘ladi: axborotlarni elektron vositalarda yig‘ish kompetentsiyasi, axborotlarni elektron vositalar orqali qayta ishlash kompetentsiyasi, axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish kompetentsiyasi, informatikaga oid bilimlarni amaliyotda qo‘llash kompetentsiyasi kabilardan iboratdir.

Axborotga nisbatan kompetentlilik insonlar uchun muhim kompetentsiya hisoblanib, u kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va Internet imkoniyatlaridan foydalangan holda turli muammo va masalalarni hal etishda namoyon bo‘ladi.

Axborotga nisbatan kompetentlilik deganda, ta’lim oluvchilarning axborotlashgan jamiyatda o‘z o‘rnini munosib egallash va muvaffaqiyatli mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun axborotga ega bo‘lish, uni izlash, qayta ishlash, baholash, yaratish va uzatishni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olish qobiliyati va layoqati tushuniladi.

Ta’lim oluvchilarda axborotga nisbatan kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ta’lim muassasalarida Tarbiya faniga oid kompetentsiyalarni hamda foydalanuvchilik kompetentsiyalarni, ya’ni hamkorlik qilish, muloqotni amalga oshirish, bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliyotda qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari Tarbiya ta’limi jarayonida axborot hosil qilish va uning ustida turli amallar bajarish bo‘yicha kompetentsiyalar shakllantiriladi. Masalan: O‘quvchining yashash joyi haqida ma’lumotlarni Internet foydalanuvchilariga taqdim etish uchun darslik va boshqa bosma adabiyotlardagi ma’lumotlarni skaner qurilmasi yordamida kompyuter xotirasiga o‘tkazish va internet resurslari bazasiga joylashtirish talab etiladi. Bu jarayonda ma’lumotlarni kompyuter xotirasida saqlash, ma’lumotlarni elektron axborot resurs sifatida joylashtirish, ma’lumotning mazmuni yoki tayyorlangan dasturiy ta’minotdan foydalanishga bo‘lgan kompetentsiyalar shakllantiriladi.

Axborotlarni elektron vositalar orqali qayta ishlash kompetentsiyasi orqali ta’lim oluvchilarda matnli axborotni tahrirlash, formatlash, grafik elementlarni yasash, jadvallar hosil qilish, formulalar kiritish, grafik axborotni tahrirlash, grafik

fayllarda matn kiritish va uni formatlash, grafik shakllarni o‘zgartirish, ranglar bilan ishlash, animatsiya stsenariylarini yoza olish, fayllarni arxivlash layoqati shakllantiriladi. Xususan, Tarbiya darslarida Internetdan olingan axborotlardan foydalanib taqdimot materiallari yaratish uchun grafik muharrirlar, matn muharrirlari, jadval protsessorlari, multimedia dasturlari va taqdimot dasturlari, animatsiya tayyorlash, veb-tarmoqqa joylashtirish, axborot hajmini kichraytirish uchun qayta ishlash dasturlaridan foydalanish masalalari o‘rganiladi.

Axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish kompetentsiyasini shakllantirish natijasida ta’lim oluvchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborotlarni uzata olish, axborot xavsizligini ta’minlay olish, elektron pochta bilan ishlay olish, faksda axborot uzata olish, video konfrentsiya orqali axborot uzata olish, huquqiy va ahloqiy me’yorlarni bilish, mualliflik huquqlarini bilish, erkin foydalaniladigan dasturlar, tijorat dasturlari, dasturlar litsenziyalarini farqlash kabi layoqatni hosil qilish.

XULOSA. Axborotga nisbatan kompetentsiyalarning shakllantirilganligini aniqlashda savol-javob, izlash, qayta ishlash, didaktik materiallar asosida test topshiriqlari, jadvallar bilan ishlash, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilib o‘z-o‘zini baholash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2-jild.- T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. – 672 b.

1. 2. Xlobistova I.Yu., Tutolmin A.A. Ot informatsionnoy kompetentnosti k formirovaniyu informatsionnoy kulturi // Informatika i obrazovanie, 2006. №2.- S.109-111.

3. Tojiyev M. va boshq. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. - T.: 2001. - 148 b.

O‘QUV JARAYONIDA RAQAMLI TA’LIM MUHITIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Niyozov Muhammad Baxronovich
Guliston davlat pedagogika instituti p.f.b.f.d. (PhD), dotsent. e-mail: niyozov_info@bk.ru

Abstract: This article provides information about the use of digital educational environment, conditions for their implementation, effectiveness and importance in the educational process. There were also opinions about the purpose and tasks of digitalization of educational processes and its use in the educational process.

Key words: digital education, educational process, electronic education, environment, educational system, digitalization.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayoniga raqamli ta’lim muhitidan foydalanish, ularni amalga oshirish shartlari, samaradorligi va ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish maqsadi, vazifalari hamda o‘quv jarayonida foydalanish to‘g‘risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, o‘quv jarayoni, elektron ta’lim, muhit, ta’lim tizimi, raqamlashtirish.

Kirish. Ta’lim sohasida fan va texnologiyalari integratsiyasining mexanizmlarini ishlab chiqish, uni o‘quv jarayoniga joriy etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash bugungi kun ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ta’lim tizimini raqamlashtirishda o‘qituvchidan elektron ta’lim texnologiyalari asosida o‘quv mashg‘ulot jarayonlarni tashkillashtirish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiyaning asosini axborot texnologiyasi tashkil etadi. Chunki, ta’lim jarayonlari texnologiyasining tarkibi o‘quv axborot olish va uni qayta ishlashdan tashkil topadi. Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talab bu sifatli bilim berishdir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanishda har xil manbalarda turli ko‘rinishlarda: “Raqamli ta’lim”, “Elektron ta’lim”, “Axborotlashgan ta’lim”, “Masofali ta’lim”, “Virtual ta’lim”, “Ta’limda multimedia texnologiyalari” va boshqa shakllarda bir-biriga sinonim bo‘lgan ko‘rinishlarda uchraydi. Bularning barchasini umumiy ma’noda - o‘qitish jarayonini yuqori sifatli axborot va o‘quv-uslubiy ta’minot bilan ta’minlashga imkon beradigan elektron va masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim resurslarini to‘plash, tizimlashtirish, saqlash va undan foydalanishga mo‘ljallangan axborot texnologiyalari va vositalar to‘plamidir. Oldingi yillarda ta’lim jarayonida raqamli ta’lim muhiti sifatida elektron ta’lim resurslaridan, xususan, elektron darslik, elektron o‘quv materiallari, elektron nashrlar, elektron majmualar, multimedia vositalaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilgan bo‘lsa, endilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri masofali ta’lim tizimida xam keng

foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: Raqamli ta’lim muhitini tashkil etish va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, funktsional imkoniyatlari hamda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish bo‘yicha bir qator olimlar, jumladan mamlakatimizda A.Abduqodirov, U.Begimqulov, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov, F.M.Zakirova, M.Aripov, M.E.Mamarajabov, S.Tursunovlar, D.Mamatov, xorijiy mamlakatlarda E.S.Polat, A.Andreev, I.Zaxarova, V.V.Kuznetsov, M.P.Lapchik, B.Andresen, M.Burns, M.Hendersonlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

U.Begimkulov tomonidan pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi ilmiy ishida ta’lim jarayoniga zamonaviy masofaviy kurslar yaratishning kontseptual pedagogik asoslarini muxumligini quyidagicha asoslash mumkin:

1 O‘quv jarayoninig markazida tinglovchining mustaqil bilim olish faoliyati turadi

2 Tinglovchi bilimlarni mustaqil egallashi, turli axborot manbaalari bilan ishlashi va ulardan foydalanish malakasiga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi.

3 bilimlarni mustaqilegallash passiv harakterga ega bo‘lmasligi aksincha tinglovchi faol bo‘lishi faoliyatga jalb qilinishi kerak.

4 Tinglovchilarni kompyuter tarmoqlari orqali o‘qitish yangi pedogogik texnologiyalarni talab qiladi. Bunday pedogogik texnologiyalar loyixalar metodi, muammoli o‘qitish metodlarini keltirib chiqarishi mumkin.

5 Masofaviy o‘qitish tinglovchining o‘qituvchi bilan faol muloqatdan tashqari boshqa tinglovchilar bilan xam muloqatni nazarda tutadi.

Muhokama: Bugungi kunda raqamli ta’limning mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘rni beqiyos bo‘lib, bunda ta’lim oluvchilarning fanni o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda, ular bir vaqtning o‘zida qanday o‘qiyotganini, fanlarni qanday o‘rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o‘z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘rganish, shaxsiy o‘rganishga moslashish va o‘z ustida ishlash kabi qobiliyatlari yanayam rivojlanadi. Dars jarayonlarini raqamli kontentda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish ta’lim oluvchilarning o‘zlari qiziqqan sohada kompetensiyalarini rivojlanishiga ham yordam beradi.

Raqamli ta’lim elektron ta’lim mazmuniga bepul kirishni nazarda tutib, u har bir ta’lim oluvchining qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini individuallashtirishga keng imkoniyatlarni yaratadi.

Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish maqsadlari:

- ta’lim faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash;
- ta’lim tizimida o‘quv, ilmiy, ma’naviy va tashkiliy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- tahliliy ma’lumotlarni sahkllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish;
- ta’lim sub’ektlari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;
- ta’lim jarayonini boshqaruvchi (ish beruvchi), pedagog va ta’lim oluvchilar o‘rtasida uzviylikni ta’minlash;
- ta’lim jarayonida byurokratik to‘siqlar yuzaga kelishini oldini olish va

moliyaviy harajatlarni qisqartirish;

- Boshqaruv jarayoni uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish.

Raqamlashtirish ta’lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish, o‘zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Raqamlashtirishning afzalliklari samaradorlikni oshirish, talabalar faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta„lim va yangi o‘qitish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish universitetlar, o‘quv dasturlari, professor-o‘qituvchilar, xodimlar va resurslarni boshqarishni osonlashtiradi. Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri - bu talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar o‘quvchilarni motivatsiya va yo‘lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta’lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish universitetlarga o‘yin va virtual haqiqat kabi yangi o‘qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullardan talabalarga murakkab tushunchalar va nazariyalarni tushunishni osonlashtiradigan interaktiv ta’lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin. Talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko‘rsatkichlarini ko‘paytirish hamda turli vositalar orqali ma’lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo‘llagan universitetlar nufuzi oshishi hamda ularda mazkur imkoniyatlar orqali qo‘shimcha foyda olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi orqali boshqalarga nisabatan ustunlik shakllanadi.

Xulosa: Raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi hozirgi tendensiyada davom etsa yaqin yillar ichida insonlar hayot tarzida keskin o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bu esa barcha sohalarning yanada mobil bo‘lishini va kadrlar bilim va salohiyati jamiyat talabiga javob bera olishini ta’minlaydi. Xulosa sifatida ta’limni raqamlashtirish jarayoni samaradorligini oshirish uchun:

- ta’lim subyektlarining mediakompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish;

- AKTning turli mavjud dasturlaridan foydalanish, shuningdek videodarslar kontentini yanada boyitish;

- ta’lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlash jarayonini amaliy qo‘llab-quvvatlash;

- ta’limni raqamlashtirishga oid barcha ilmiy jurnallar va ishlanmalarni web-saytlarga muntazam joylab borish;

- yaratilgan elektron boshqarish tizimlarini faoliyatga keng joriy etish;

- masofaviy ta’lim platformasida, shuningdek barcha ijtimoiy tarmoqlarda ham ta’lim subyektlarining mas’uliyatliligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asoslari. Monografiya. –T.: Fan, 2007. -160 b.

3. Dzhumoboeva, Y. E., Niyozov, M. B., Saidboev, B. J., & Kamilov, M. A. (2020). Problems of teaching computer science and information technology in universities. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(5), 245-250.

4. Niyozov M.B. Effectiveness of web technology teaching computer science and information technologies // Middle European Scientific Bulletin Volume 12, May 2021, Pages 435-439

5. Niyozov, M. B. (2021, May). TECHNOLOGIES OF ELECTRONIC INFORMATION AND EDUCATIONAL RESOURCES. In" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 24-26).

6. НИЁЗОВ, М., & НИЁЗОВА, Г. (2023). ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, *1*(1), 128-133.

THE INTEGRATION OF BIG DATA WITH AI SUBJECTS

Saydazimov Javlonbek
Tashkent University of Information Technology named after Muhammad Al-Khwarizmi, E-mail: javlonbek2020@gmail.com

Abstract: The integration of big data and artificial intelligence (AI) has emerged as a transformative force across industries, offering unprecedented opportunities for data-driven insights and decision-making. This article provides a comprehensive exploration of the integration between big data and AI, highlighting its significance, challenges, and potential applications.

Key words: big data, artificial intelligence, AI systems, machine learning, AI algorithms.

KATTA MA'LUMOTLAR VA SUN'IY INTELLEKT FANLARINING O'ZARO INTEGRATSIYASI

Saydazimov Javlonbek
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
E-mail: javlonbek2020@gmail.com

Annotatsiya: Katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt (SI) integratsiyasi barcha sohalarda o'zgartiruvchi kuch sifatida paydo bo'ldi va ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar va qarorlar qabul qilish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etdi. Ushbu maqola katta ma'lumotlar va sun'iy intellektning integratsiyasi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotni o'z ichiga oladi, uning ahamiyati, muammolari va potentsial ilovalarini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, SI tizimlari, mashinali o'qitish, SI algoritmlari.

ВЗАИМНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ БОЛЬШИХ ДАННЫХ И НАУКИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Ташкентский университет информационных
технологий имени Мухаммада ал-Хоразми
Сайдазимов Жавлонбек
E-mail: javlonbek2020@gmail.com

Аннотация: Интеграция больших данных и искусственного интеллекта (ИИ) стала преобразующей силой во всех отраслях, предлагая беспрецедентные возможности для анализа и принятия решений на основе данных. В этой статье представлено всестороннее исследование интеграции больших данных и искусственного интеллекта, подчеркнуто ее значение, проблемы и потенциальные применения.

Ключевые слова: большие данные, искусственный интеллект, системы ИИ, машинное обучение, алгоритмы ИИ.

Introduction: The integration of big data and artificial intelligence (AI) has become a major focus in recent years, with the potential to revolutionize various industries and improve our lives in numerous ways. This article aims to provide an

overview of the integration of big data and AI, discussing its significance, challenges, and potential applications.

Methods: The integration of big data and AI involves the use of large datasets and AI algorithms to extract valuable insights and make informed decisions. This integration can be achieved through various techniques, including machine learning, natural language processing, and predictive analytics. These techniques allow for the analysis of vast amounts of data, enabling AI systems to learn from the data and make predictions or decisions based on that learning.



Figure1: Big data and AI integration.

Big data and artificial intelligence (AI) are closely related and often go hand in hand. Here's how they intersect and complement each other:

1. **Data as Fuel for AI**: AI algorithms rely heavily on data to learn and make predictions or decisions. Big data provides vast amounts of structured and unstructured data that AI algorithms can analyze to uncover patterns, trends, and insights.
2. **Data Processing**: Big data technologies like Hadoop, Spark, and others are used to store, manage, and process large volumes of data. AI algorithms often require massive datasets for training, and big data technologies enable efficient processing and analysis of these datasets.
3. **Feature Engineering**: Big data techniques are used to preprocess and extract features from raw data before feeding it into AI models. Feature engineering is crucial for improving the performance of AI algorithms by selecting the most relevant and informative features from the data.
4. **Machine Learning Models**: AI encompasses various techniques such as machine learning, deep learning, and natural language processing. Big data plays a vital role in training and fine-tuning these models using large-scale datasets, resulting in more accurate predictions and insights.
5. **Real-Time Analytics**: Big data platforms enable real-time data processing and analytics, which is essential for applications like fraud detection, recommendation systems, and predictive maintenance. AI algorithms deployed on big data infrastructure can continuously analyze streaming data and provide timely insights or actions.

Results: The integration of big data and AI has already shown significant results in various industries. For example, in healthcare, AI systems can analyze medical records and patient data to identify patterns and make predictions about patient outcomes. In finance, AI algorithms can analyze market trends and make investment decisions based on that analysis. In transportation, AI systems can optimize routes and improve traffic flow.

Discussion: While the integration of big data and AI has the potential to transform numerous industries, there are also challenges that must be addressed. One major challenge is the need for large amounts of high-quality data. Without accurate and reliable data, AI systems may make incorrect predictions or decisions. Additionally, there are concerns about privacy and security, as large amounts of data must be stored and processed securely.

Conclusion: In conclusion, the integration of big data and AI has the potential to revolutionize various industries and improve our lives in numerous ways. However, there are also challenges that must be addressed, including the need for high-quality data and concerns about privacy and security. Despite these challenges, the integration of big data and AI is an exciting and promising field, with the potential to transform our world in ways we can only begin to imagine.

References

1. R. Rosati, L. Romeo, G. Cecchini, et al. From knowledge-based to big data analytic model: a novel IoT and machine learning based decision support system for predictive maintenance in Industry 4.0. J. Intelligent Manufacturing. 2023, 107–121.
2. Mori S., Nishida H., Yamada H. Optical character recognition. — Hoboken, New Jersey: Wiley, 1999. 560 p.
3. Cheriet M., Kharma N., Liu C-L., Suen C. Y. Character recognition systems: A guide for students and practitioners. — Hoboken, New Jersey: Wiley-Interscience, 2007.326 p.
4. Воробель, Р. А. Повышение контраста изображений с помощью модифицированного метода кусочного растяжения. Отбор и обработка информации/ Р.А. Воробель, И.М. Журавель -М.: 2000, -№14 (90), -С. 116-121.

KASBIY RIVOJLANISHIDA TA’LIMDAGI MUHITINING AHAMIYATI

Rixsiboyev Behzod Alisherovich
Sirdaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi davlat va huquq asoslari fani metodisti
(Gmail: b.rixsiboyev3118@gmail.com)

Annotatsiya*. Ushbu maqolada raqamli ta’lim va sunniy intellektning o‘quvchilarni real hayotga tayyorlashning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sunniy intellekt, 4K modeli, raqamli texnologiya, ijtimoiy ko‘nikmalar*

Аннотация. *В этой статье рассматривается важность цифрового образования и искусственного интеллекта для подготовки учащихся к реальной жизни.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, модель 4K, цифровые технологии, социальные навыки.*

Abstract. *This article discusses the importance of digital education and artificial intelligence in preparing students for real life.*

Keywords: *Artificial intelligence, 4C model, digital technology, soft skills*

Bugungi informatsion axborot-texnologiyalar zamonida sohalar jadallik bilan rivojlanib bormoqda va bu holatda raqamli texnologiyalarsiz harakat qilish bizni o‘z mutaxassisligimiz doirasida ortda qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu o‘z navbatida pedagog kadrlar uchun ham o‘ziga xos mas’uliyat yuklaydi.

Hozirda darslarni samarali tashkil etishda raqamli texnologiya hamda interfaol metodlardan faol ravishda qo‘llash orqali o‘quvchilarning diqqatini o‘zimizga qaratishimiz mumkin. O‘quvchi rang-barang o‘yinlar va effektlar olamida sayohat qilib yurgan bir paytda eski usul bilan ularning e’tiborini qozonib bo‘lmaydi.

Hech bir inson o‘zi hayotda qo‘llashiga ishonmagan narsani o‘rganishni xohlamaydi. Shu sabali o‘qituvchi berilayotgan ma’lumotlarni qanday va qay ko‘rinishda qo‘llashi mumkinligi haqida aniq tushunchalar bermog‘i kerak.

Talim muassasasini tamomlagan har bir shaxs bevosita mehnat bozoriga kirib borar ekan, ularning maktabda olgan bilimlari yetarli bo‘lmasligi hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi bu ta’lim jarayonida o‘rgatilayotgan bilimlar shaxslararo munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga qaratilmaganligidir.

Shu o‘rinda “shaxslararo” so‘zi orqali aynan qaysi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar nazarda tutilayotganini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilar:

1. Ijtimoiy maqomi teng bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi aloqalar.

2. Ijtimoiy maqomi teng bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi aloqalar.

Shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun “soft skills” ingliz tildan tarjima qilinganda “ijtimoiy ko‘nikmalar” zarurdir.

Shu sababdan ham hozirda ta’lim sohasiga 4 K modeli joriy etildi.

Kollaboratsiya: *O‘quvchilarning jamoada ishlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.*

Kommunikativlik: *O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va samarali ifodalashga o‘rgatadi.*

Kreativ fikrlash: *O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangicha yondashuv bilan tez va samarali erishishga o‘rgatadi.*

Kritik (tanqidiy) fikrlash: *O‘quvchilarning u yoki bu masalada o‘z mustaqil dunyo qarashning shakllanishiga yordam beradi.*

Shuni ham aytish zarurki biz “sunniy intellekt”davlarida yashamoqdamiz va bu bizga juda katta imkoniyatlarni berishi bilan birga, o‘z kasbining yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqarish vazifasi oldimizda turibdi. Aytish kerakki sunniy intellekt ishlatilishi oson. Misol tariqasida captions.ai orqali siz o‘z videolaringizni boshqa tilda xuddi o‘zingiz gapirayotganday tahrirlashingiz,. bing.com da esa xohlagan ko‘rinishingizdagi rasmlarni tuzilishini yozish orqali chizishingiz hamda bir qancha soha mutaxassislari qilishi mumkin bo‘lgan amallarni bajara oladi. Ammo shu bilan birga inson omilini o‘rnini bosishi ham mumkinligi hech kimga sir emas. Lekin shuni aytish joizki sunniy intellektni boshqarish uchun sizdan faqat g‘oya zarur bo‘ladi ya’ni kelajakda katta ehtimollar bilan g‘oyalar eng qimmat omillardan biriga aylanishi mumkin. Shunday ekan biz o‘quvchilarni kreativlik, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilayotganimiz bejizga emas.

Biz shu bilan birgalikda sunniy intellektini ta’lim jarayonida ham qo‘llashimiz mumkin. Misol uchun qandaydir tarixiy shaxsni gavdalantirishni so‘rasangiz yoki qaysidir mavzuda to‘liq ma’lumot kiritgan holda buyursangiz sunniy intellekt sizga bergan ma’lumotingizga ko‘ra video va rasmlar chizib berishi, qaysidir mavzuda prezentatsiya yasab berishi qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki farzandlarimizda kreativlik, mantiq, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash hamda shaxslar aro muloqotga o‘rgatishimiz bugungi optimal yechim sifatida qabul qilshimiz kerak. Bu sohalarda ortda qolish bu yashahshadan va bugungi kun talablaridan ortda qolish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni.
2. R. Kuchkarov, fil.f.n., Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasi dotsenti v.b. (Kirish, 1-, 7-, 11-, 12-, 15-mavzular); G.A. Nosirxodjayeva, fal.f.n., Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasi dotsenti (3-, 5-, 9-mavzular); D. Tadjibayeva, Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasi dotsenti v.b. (4-, 13-, 14-mavzular); X. Oblomuradova, fal.f.f.d.(PhD), Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasi dotsenti v.b. (2-, 8-, 16-mavzular); F.T. Xusainova, Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasi dotsenti v.b. (6-, 10-mavzular). Huquqiy ko‘nikma va metodologiya © Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022-yil
3. https://captions.ai
4. https://bing.com

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSI ISHTIROKCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN IMKONIYATLAR

Xoshimova Feruzaxon Baxodirovna
"University of Economics and Pedagogy" NOTM o'qituvchi, Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
xoshimovaf@gmail.com, https://orcid.org/0009-0003-8546-5922

ANNOTATSIYA: Boshlang'ich ta'limda ijodkorlikning ahamiyati juda yuqori, chunki ijodkor o'qituvchi o'quvchilarni yangicha yondashuvlarni topishga, o'z fikrlarini ifoda etishga, muammoni yechish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ilhomlantiradi va yo'naltira oladi. Maqolada zamonaviy raqamlilashtirish sharoitida o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va uzluksiz malaka oshirish jarayonida bir nechta usullar tizimini ishlab chiqish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

KALIT SO'ZLAR: raqamli texnologiyalar, ta'limda ijodkorlik, onlayn resurslar, masofaviy ta'lim, yangi yondashuvlar, muammolarni hal qilish**.**

АННОТАЦИЯ: Значение творчества в начальном образовании очень велико, поскольку творческий учитель может вдохновлять и направлять учащихся к поиску новых подходов, самовыражению, развитию навыков решения проблем и творческого мышления. В статье представлены возможности развития творческой деятельности педагогов и разработки системы нескольких методов в процессе непрерывного профессионального развития в современных условиях цифровизации.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: цифровые технологии, креативность в образовании, творчество, онлайн-ресурсы, дистанционное обучение, новые подходы, решение проблем.

ABSTRACT: The importance of creativity in primary education is very high, because a creative teacher can inspire and guide students to find new approaches, express themselves, develop problem solving and creative reasoning skills. The article presents the possibilities of developing creative activities of teachers and the development of a system of several methods in the process of continuous professional development in the current digitalization environment.

KEYWORDS: digital technologies, creativity in education, creativity, online resources, distance learning, new approaches, problem solving.

KIRISH: Boshlang'ich ta'limda ijodkorlikning ahamiyati juda yuqori, chunki ijodkor o'qituvchi o'quvchilarni yangi yondashuvlar topishga, o'z fikrini ifodalashga, masalalarni hal qilish va ijodiy xulosa olish qobiliyatlarini rivojlantirishga ruhlantiradi va yo'naltira oladi. Hozirgi raqamlashtirish sharoitida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida ham o'qituvchilarning ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirish uchun bir qancha usullar tizimini ishlab chiqish mumkin.

Ta'limda ijodkorlik quyidagi sabablarga ko'ra ahamiyatli:

1. Yangi yondashuvlarni topish: Ijodkorlik o'qituvchilarga ta'lim jarayonida yangi yondashuvlar topish va samarali o'rgatishda yordam beradi. Bu, ularning masalalarga yangi yondashuvlar qo'llash va kreativ fikrlar yaratish faoliyatlarini rivojlantiradi.

2. Javobgarlik va o'zlashtirilgan xulosa: Kreativlik, o'qituvchilarning javobgarlik

va o‘zlashtirilgan xulosa qilish qobiliyatlari ustida samarali ta’sir qiladi. Ular o‘z fikrlarini ifodalaydilar va masalalarga o‘z o‘zlarini o‘rganish orqali tahlil qilishadi.

3. Yangi texnologiyalardan foydalanish: Kreativlik, o‘quvchilarga yangi texnologiyalardan foydalanish va ularni o‘z fikrlarini amaliyotga o‘tkazish uchun ilhomlantiradi. Bu, ularning informatsiyani to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashi, yangi yondashuvlarni topish va amaliyotga o‘tkazishlari uchun muhimdir.

4. Jamiyatda kreativ fikrlashni oshirish: Kreativlik o‘quvchilarni jamiyatda kreativ fikrlash va bir-biriga fikrlarni ifodalash uchun tayyorlashda o‘z vazifasini bajaradi. Bu, har bir shaxsning ijtimoiy muhitda kreativ faoliyatda ishtirok etishini ta’minlaydi.

5. Proyekt bajara olish: Kreativlik, o‘quvchilarning proyektlar yaratish va ularni bajarish bo‘yicha salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, ularni tahlil qilish, masalalarni hal qilish va ijodiy yondashuvlar topish uchun jasoratlanishiga yordam beradi.

6. Samarali ijtimoiy faoliyat: Kreativlik, o‘quvchilarni jamiyatdagi muammolarni hal qilish, yangi yondashuvlar va tajribalarga intilish, ijodiy jamiyat faoliyati va ijtimoiy masalalar bo‘yicha fikrlash uchun tayyorlaydi.

Kreativlik, o‘quvchilar uchun iste’dodli, talabgor va muvaffaqiyatli fuqarolarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu, ularni kreativ, ijodiy, tajribaviy, va ijtimoiy o‘zgarishlar bo‘yicha tayyorlash va ularni muvaffaqiyatli va samarali hayot uchun tayyorlashda katta rol o‘ynaydi.

METODLAR: Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida o‘quv jarayoni va tajribani yanada rivojlantirish uchun muhim bir qo‘llanma hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning o‘zlashtirish va o‘rganish jarayonlarini qulaylashtiradi, ularning motivatsiyasini oshiradi va o‘quv jarayonida interaktivlikni oshiradi.

Raqamli texnologiyalar ta’limda o‘quvchi-talaba bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish, o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish, o‘quvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish uchun samarali usullardan biridir.

Raqamli texnologiyalar pedagogik amaliyotni rivojlantirish uchun bir nechta usullar va metodikalar mavjud. Bu usullar o‘quv jarayonini qulaylashtirish, talabalarning qiziqtirganlik darajasini oshirish, tushunchalarni mustahkamlash va o‘quvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida pedagoglarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning bir nechta muhim metodikalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1.Interaktiv darsliklar va o‘quv dasturlaridan foydalanish: Raqamli texnologiyalar orqali interaktiv darsliklar va o‘quv dasturlarini ishlatish o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali bo‘ladi. Bu darsliklar va dasturlar o‘quvchilarga o‘ziga xos o‘rganish yo‘li beradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

2.Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar: Raqamli texnologiyalar o‘quvchilar uchun virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yaratish imkonini beradi. Bu usullar orqali o‘quvchilar ma’lumotlarni amaliyotda mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va yangi texnologiyalarni qo‘llashadi.

3.Online ta’lim platformalari: Bugungi kunda bir nechta online ta’lim platformalari mavjud. Bu platformalar o‘quvchilarga interaktiv darsliklar, sinov tashkilotlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa ta’lim materiallariga kirish imkonini beradi. Pedagoglar bu platformalar orqali o‘quvchilarga bireysel yoki guruhlar shaklida vazifalar

berishi va baholashlarini amalga oshirishi mumkin.

4.Masofavıy ta’lim: Raqamli texnologiyalar pedagoglar uchun uzaktan ta’lim jarayonini tashkil etishga imkon beradi. Videokonferensiyalar yordamida pedagoglar o‘quvchilarga dars berish, masalalar yechish va talabalar bilan interaktiv tartibda muloqot o‘tkazishlari mumkin.

5.O‘quvchi monitorlari va baholash tizimlari: Raqamli texnologiyalar o‘quvchi monitorlari va baholash tizimlarini yaratishda ham yordam beradi. Bu tizimlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining o‘zlashtirish darajasini, yutuqlarini va kamchiliklarini kuzatib borishlari mumkin bo‘ladi.

6.Ma’lumotlar bazalari va onlayn resurslar: Raqamli texnologiyalar pedagoglarga keng qamrovli ma’lumotlar bazalariga va onlayn resurslarga kirish imkonini beradi. Bu imkonlar orqali pedagoglar o‘quvchilarga yangi va tajribali materiallarni taqdim etishi va o‘quv jarayonlarini yanada boyitishlari mumkin.

Bu metodikalarning amaliyotga tatbiqi o‘quvchilar bilan kompyuterlarda, smartfonlarda yoki planshetlarda ishlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Pedagoglar bu imkonlardan foydalanib o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, tushunchalarni mustahkamlash va o‘zlashtirish imkoniyatlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

NATIJALAR:

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning qanday natijalarga erishilishi bilan bog‘liq ko‘plab shakllanishi muhim bo‘lgan odatlar mavjud. Bu odatlarni amalga oshirish orqali, o‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘z fikrlarini ifoda qilishga, muammo yechishga, yangiliklarni topish va ularni ishlab chiqishga, tahlil qilishga, loyihalarni boshqarishga va boshqalar bilan hamkorlik qilishga qaratiladilar. Bu natijalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quvchilarning kreativlik va ijodiylik qobiliyatlarini rivojlantirish: Ijodiy faoliyat o‘qituvchilar va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro munosabatlarni kuchaytiradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda qilish, yangiliklarni topish va ularni ishlab chiqish bilan bog‘liq mashg‘ulotlar, masalalar va loyihalar asosida kreativlik va ijodiylik qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

2. O‘quvchilarning muammo yechish va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish: Ijodiy faoliyat o‘quvchilarga muammo yechish va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda qilish bilan bog‘liq masalalar va loyihalar yordamida muammo yechish, alternativ yechimlarni qidirish va boshqa yondashuvlarni topishni o‘rganishadi.

3. O‘quvchilarning ishbilarmonlik va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirish: Ijodiy faoliyat o‘quvchilarni ishbilarmonlik qilishga, oddiy va murakkab masalalar yechishga, jamoatchilik bilan hamkorlik qilishga o‘rgatadi. Ular guruh bilan ishlash, fikr almashish, o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazish va jamoatchilikda qatnashish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

4. O‘quvchilarning kognitiv va o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish: Ijodiy faoliyat o‘quvchilarning kognitiv va o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular fikrlarini tahlil qilish, masalalar va loyihalarni tahlil qilish, yangiliklarni o‘rganish, ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish kabi kognitiv va o‘zlashtirish jarayonlarini o‘rganishadi.

5. O‘quvchilarning o‘zini baholash va o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish:

Ijodiy faoliyat o‘quvchilarning o‘zini baholash va o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishda ham foydali bo‘ladi. Ular o‘z faoliyatlarini baholash, o‘zlarining yaxshi va yomon tomonlarini aniqlash, o‘zlarini takomillashtirish uchun kerakli o‘zgarishlarni qilishni o‘rganishadi.

Bular faqat bir nechta natijalar hisoblanadi va boshlang‘ichta’lim o‘qituvchilarining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning eng asosiy natijalari bo‘lib, bu natijalar o‘quvchilarning ijodiylik, muammo yechish va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirish, ishbilarmonlik va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish qobiliyatlarini oshirish, kognitiv va o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘zini baholash va o‘zlashtirish qobiliyatlarini oshirishga olib keladi. Bu natijalar o‘quvchilarning o‘zlarini kengaytirish, yaratuvchanligi va o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishiga yordam beradi.

MUNOZARALAR:

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda raqamlashtirishning bir nechta afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Afzalliklar:

1. Ko‘proq ma’lumot va resurslarga kirish: Raqamlashtirish, ijodkorlik faoliyatlarini o‘rganish va rivojlantirish uchun ko‘proq ma’lumot va resurslarga kirish imkonini beradi. Internet, onlayn darslar, interaktiv o‘quv dasturlar, foydalanish uchun bir necha platformalar mavjud. Bu, ijodkorlikning ko‘proq ixtisoslashgan va yuqori sifatli loyihalar yaratishga imkon beradi.

2. Ishbirlik va hamkorlik: Raqamlashtirish muhitida ishbirligi oshirish oson bo‘ladi. Ijodkorlar, o‘qituvchilar, talabalar va boshqa sohalardagi mutaxassislar o‘zaro aloqada bo‘lishlari, fikrlarini almashtirishlari va birgalikda loyihalar ustida ishlashlari mumkin. Bu, yangi yondashuvlar va yaratqanlikni rag‘batlantiradi.

3. Ta’limning samarali va individual muhitda o‘tkazilishi: Raqamlashtirish, o‘quvchilarga samarali va individual ta’lim imkoniyatlarini yaratadi. O‘quvchilar, o‘zlariga mos keladigan dasturlardan foydalanish, o‘zlarining o‘ziga xos yo‘nalishlarini rivojlantirish va ustama-talabaga mos keladigan vaqt rejalarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. Kreativlik va ijodiylik: Raqamlashtirish, ijodkorlik faoliyatlarini o‘rganish va amalga oshirishda kreativlik va ijodiylikni oshiradi. O‘quvchilar, raqamli vositalar yordamida o‘z fikrlarini ifodalash, masalalar yechish va yangi yondashuvlarni topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu, ijodkorlikning o‘rni va o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Kamchiliklar:

1. Teknologik muhitning ustunliklari: Raqamlashtirishning amaliyotga o‘tishida, texnologik vositalarning mutlaqo mavjud bo‘lishi kerak. Bu, texnikalar va vositalar bo‘yicha bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish va ularga investitsiya qilish talab etishi mumkin.

2. O‘quvchilar va o‘qituvchilar bilimining kamligi: Raqamlashtirish muhitida o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilimining kamligi kamchilik bo‘lishi mumkin. Raqamlashtirishning foydalanishiga o‘rganish, ta’lim, va o‘qitish jarayonida qiziqish va tajribalar to‘plamini talab qiladi.

3. Infrastruktura va ulkan miqdordagi ma’lumotlar: Raqamlashtirishning imkoniyatlari va muvaffaqiyati uchun yirik miqdordagi ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur.

Infrastruktur qurish, ma’lumotlarni saqlash, ulashish va ulardan foydalanishning samaradorligini ta’minlash muhimdir.

4. Amalga oshirish va qabul qilish jarayonlari: Raqamlashtirishning amalga oshirish jarayonlari va qabul qilish jarayonlari kutilgan o‘zgarishlarni talab qiladi. Bu, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va institutsiyalar, hukumatlar va tadbirkorlar tomonidan qo‘llanilishi, siyosiy va huquqiy muammo va tartiblarni hal qilishni talab qiladi.

Bular faqat ba’zi afzalliklar va kamchiliklar hisoblanadi va har bir holat uchun o‘zining xususiyatlari mavjud bo‘lishi mumkin. Raqamlashtirishning afzalliklarini amalga oshirishning kamchiliklari bilan muqobil ravishda tahlil qilish va ularga mos keladigan hal qilish usullarini topish, rivojlantirish faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlayadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida .“ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

2. . Андрианова Г.А. Основные этапы технологии организации творческой деятельности учащихся в дистанционном обучении // ТехноОБРАЗ ‘99: Технологии непрерывного образования и творческого саморазвития личности: Материалы международ, конференции. - В 2 ч. - 4.1. / Отв. ред. проф. Тарантей В.П. - Гродно: ГрГУ, 1999. - С. 10 - 14.

3. 31. Paxmatova F. Bo‘lajak boshlang‘ich cinf o‘qituvchilapining tadqiqotchilik kompetensiyalapini pivojlantipish. Jamiyat va innovatsiyalap – Obshectvo i innovatsii – Society and innovations. Issue – 1 (2021) / ISSN 2181-1415

МЕРА ИНТЕРНЕТА

К.С.Ортиков

Янгиерский филиал Ташкентского химико-технологического института

Преподаватель и независимый исследователь кафедры «Общие науки и физический культуры»

Аннотация

Сегодня в век информационных технологий важно обращать внимание на различные идеологические угрозы различных группы, поощряющие самоповреждения и суицид. В статье дается информация о пропаганде подобных деструктивных действий через социальные сети, что может серьезно повлиять на уязвимых участников, особенно подростков и детей.

Ключевые слова: Интернет, технологии, молодежь, социальные сети

Abstract

In today’s era of information technology, it is important to pay attention to various ideological threats from different groups that promote self-harm and suicide. The article provides information on the propagation of such destructive actions through social media, which can significantly impact vulnerable individuals, especially teenagers and children.

Keywords: Internet, technology, youth, social media

Никому не секрет, что в настоящее время человечество сделало огромный шаг в сфере коммуникации, особенно в сфере информационных технологий. Сегодня информационные технологии позволяют достичь огромного потенциала, которая преумножается ежедневно. К сожалению, как бы наши информационные технологии не развивалась, находятся деструктивные силы, которые используют эти технологии во имя зла и разрушения.

Интернет — это инструмент, где каждый имеет возможность взаимодействовать между собой и в то же время иметь доступ к огромному источнику информаций. Данный информационный поток имеет две стороны – как положительный, так и негативный. Также, в настоящий момент мы можем наблюдать, что во всем мире происходит процесс, где молодое поколение все больше и больше вовлекаются, и становятся активными пользователями сети Интернет через социальные сети как Фейсбук, Телеграм и др. Конечно, с первого взгляда мы можем подумать это нормально, но как показывает статистика, Интернет медленно, но верно все больше влияет на образ жизни миллионов людей во всем мире, и в данном случае наблюдается, что Интернет влияет на жизнь индивида в негативном аспекте, что позже может негативно отразится на общество. Негативность проявляется в том, что все больше людей становятся заложниками сети Интернет, что в свою очередь приводит психологическим расстройствам, а также к синдрому общественной изоляции. Общественная активность заменяется виртуальной, где пользователь вступает

в различные виртуальные группы. Как не парадоксально, но у вы, иногда Интернет открывает двери к суицидальным исходам среди молодежи.

Как уже было сказано Интернет предоставляет широкий спектр различного типа веб-сайтов, предоставляющих неограниченный доступ к информации. Тем не менее, следует помнить о том, что является ли информация, которую люди получают из сети всегда правильной или же безопасной? Как показывает статистика, в настоящее время существуют огромное количество сайтов, которые пропагандируют суицид, и они часто занимают высокое место в результатах поисковых систем[16]. Эти сайты часто связаны друг с другом.

Характеристики предложения содержания, при котором суицидальные действия поощряются и обычно используются как средства для людей, чтобы справиться с проблемами в жизни. В некоторых случаях, хотя мотивация не дается, принятие жизни поощряется как форма восстания против запрета самоубийства[17]. Беккер и Шмидт[18] назвали этот аспект явным «антипсихиатрическим» взглядом, который проявляется путем распространения информации о наиболее эффективных способах совершения самоубийств, а также что самоубийство должно отражаться как индивидуальный выбор. На суицидальных сайтах, можно понять одно, содержания сайтов имеет психологическое влияние и может охватывать большое количество уязвимых лиц, с социальными и психологическими проблемами, а также для тех, кто ищет помощи в сети Интернет, чаще всего ими оказываются молодежь.

Как показывают исследования, суицидальные сайты в основном сосредоточены на классификации веб-сайтов содержание, которого выполняется путем ввода ключевых слов или фраз, связанных к суициду в поисковой системе.

Сайты, занимающие самые высокие места в рейтинге, тщательно проверяются на предмет суицидального контента и описываются как суицидальное, суицидально-нейтральное и антисуицидное[19].

Биддл и его коллеги[20] провели исследование, в ходе которого они исследовали различные поисковые системы - Google, Yahoo!, MSN и ASK. Согласно результатам исследования, при вводе ключевых фраз связанные суицидом было получено 480 результатов только 2008 году. Данный результат показывает то, что почти 30% содержимого веб-сайтов были вовлечены материалами о методах реализации суицида, и всего лишь 25% веб-сайтов сосредоточены на предотвращении суицидальных актов уже в то время.

---

[16] Biddle, L.; Donovan, J.; Hawton, K.; Kapur, N.; Gunnell, D. Suicide and the Internet. BMJ 2008, 336, 800-802.
[17] Westerlund, M.; Wasserman, D. The role of the Internet in suicide prevention. In The Oxford Textbook of Suicidology and Suicide Prevention: A Global Perspective; Wasserman, D., Wasserman, C., Eds.; Oxford University Press: UK, 2009; pp. 525-532.
[18] Becker, K.; Schmidt, M.H. Internet chat rooms and suicide. J. Am. Acad. Child Adolesc. Psychiatry 2004, 43, 246-247.
[19] Westerlund, M.; Hadlaczky, G.; Wasserman, D. The representation of suicide on the internet and the future of psychiatry. BMJ 2011. Submitted for publication.
[20] Biddle, L.; Donovan, J.; Hawton, K.; Kapur, N.; Gunnell, D. Suicide and the Internet. BMJ 2008, 336, 800-802.

Но сегодня с развитием различных социальных сетей как – Facebook, odnoklassniki, Instagram и др., возникает новая угроза – суицидальные группы. Одна из которых назывался «Синий кит». Альтернативные названия - игра море китов, тихий дом. Вступить в группы которого может любой желающий, хоть взрослый, хоть ребенок. После того, как подтверждается согласие участвовать в игре синий кит, начинаются «испытания». Так называемые инструкторы (или администраторы) групп смерти направляют задания от сообщества игры синий кит. Их нужно выполнять оффлайн, в реальной жизни. Первое задание - нарисовать на руке кита, символа игры синий кит. Многие подростки, участвующие в группах смерти, вырезают кита лезвием. Второй этап - квэст, поиск различных сообщений от сообщества синий кит. Третий, заключительный этап - суицид, логический финал игры в группах смерти. Подробнее о правилах игры синий кит. Игра синий кит (альтернативные названия море китов, тихий дом) была запрещена во многих странах еще 2012 году как пропагандирующая суицид. После запрета во многих социальных сетей, кампании синего кита стали распространяться в Instagram, однако и там позже были заблокированы[21].

В заключении необходимо подчеркнуть, что единственная самозащита от вышеуказанных негативных влияний Интернета или социальных сетей это – правильный образ жизни, развитие здорового общества, интерес посещение общеобразовательных и общественно-культурных мероприятий, а также умение правильно распределять время в сети Интернет и использовать данное благо эффективно и рационально.

[21] Игра «Синий кит»- http://www.kp.ru/daily/26653/3673837/

O‘QUV JARAYONIDA ELEKTRON TA’LIM MUHITIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xudayberdiyev Mansur Zakirjanovich
Guliston davlat pedagogika instituti “Aniq va tabiiy fanlar” kafedra o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi, e-mail: hudojberdievmansur506@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron ta’lim muxitining o‘ziga xos hususiyatlari, ta’lim samaradorligini oshirishdagi jarayonini yuqori sifatli axborot va o‘quv-uslubiy ta’minot bilan ta’minlashga imkon beradigan elektron o‘qitish texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim resurslarini to‘plash, tizimlashtirish, saqlash va undan foydalanish yo‘llari va imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv jarayoni, elektron ta’lim muhiti, axborotlashtirish, raqamli texnologiyalar, axborot texnologiyalari, ta’lim resursi, foydalanuvchi

Kirish. Axborotlarning tezkor yangilanishi davrida xar bir mamlakatning ta’lim muassasalarida ta’lim sifati masalasi, ta’limning so‘nggi yangiliklari, texnik vositalar va texnologiyalar bilan boyitilishi, ta’limning zamonaviy ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi muhim axamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta’lim kontseptsiyasida “Ta’lim - taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga etkazuvchi muhim faoliyat” [22], deb e’tirof qilingan. Sifatli ta’lim berish, o‘rganuvchi va talabalarning malaka hamda qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish, masofaviy ta’limda elektron resurslarni yaratish, ta’lim jarayonini modellashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda axborot-kommunikatsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Ta’lim tizimida elektron ta’lim resurslaridan foydalanib, fanlarning metodik ta’minotini takomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, mashg‘ulotlarda multimedia, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko‘lamda va ommaviy foydalanish masalalari tadqiq qilinmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanish jarayoni har xil manbalarda turlicha: “Elektron ta’lim muhiti”, ”Masofali ta’lim”, “Ta’limda axborot texnologiyalari”, “Kompyuterli o‘qitish texnologiyalari”, “Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari”, “Ta’limda multimedia texnologiyalari” va boshqa shakllarda bir-biriga sinonim bo‘lgan ko‘rinishlarda uchraydi.

Elektron ta’lim muhiti - o‘qitish jarayonini yuqori sifatli axborot va o‘quv-uslubiy ta’minot bilan ta’minlashga imkon beradigan elektron va masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim resurslarini to‘plash, tizimlashtirish, saqlash va undan foydalanishga mo‘ljallangan axborot, telekommunikatsiya texnologiyalari va vositalar to‘plamidir. Oldingi yillarda ta’lim jarayonida elektron ta’lim muhiti sifatida elektron ta’lim resurslaridan, xususan, elektron darslik, elektron o‘quv materiallari, elektron nashrlar, elektron majmualar, multimedia

[22] https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs

vositalaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilgan bo‘lsa, endilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri masofali ta’lim tizimidan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilmoqda [1].

Adabiyotlar taxlili: Elektron ta’lim muhitini tashkil etish va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, funktsional imkoniyatlari hamda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish bo‘yicha bir qator olimlar, jumladan mamlakatimizda A.Abduqodirov, U.Begimqulov, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov, F.M.Zakirova, M.Aripov, M.E.Mamarajabov, S.Tursunovlar, D.Mamatov, xorijiy mamlakatlarda E.S.Polat, A.Andreev, I.Zaxarova, V.V.Kuznetsov, M.P.Lapchik, B.Andresen, M.Burns, M.Hendersonlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov va A.Pardaevlarning “Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiyasida chet ellik hamda Respublikamiz olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilinib, unda masofali o‘qitish orqali: o‘quv jarayonini yakkalashtirish, tabaqalashtirish, talabalarga o‘z-o‘zini nazorat qilish, murakkab hisoblash ishlarini kompyuter amalga oshirganligi hisobiga o‘qish va vaqtni tejash, ta’lim oluvchilarga aniq bir ko‘rinishdagi fikrlashni rivojlantirish, motivatsiyasi, bilish faoliyatini kuchaytirishga imkoniyat beradi degan xulosaga kelingan [2].

R.Hamdamov, U.Begimqulov va N.Tayloqovlarning “Ta’limda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanmasida Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish, ulardan ta’lim tizimida, xususan masofali ta’limda foydala nish pedagogik muammo sifatida ilmiy tahlil qilinishi, oliy ta’lim tizimi uchun elektron darsliklar yaratish va ulardan masofali ta’limda foydalanish mexanizmi yaratilishi kerakligi ko‘rsatilgan [3].

D.Mamatovning “Elektron axborot-ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish” nomli dissertatsiya ishida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida elektron axborot ta’lim muhitini loyihalashtirishi ko‘rsatilgan [4].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’limda elektron ta’lim muhitini tashkil etish va axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv predmetlarini o‘qitish jarayonini axborotlashtirish muammolari bilan bog‘liq holda elektron ta’limning talabalar aqliy taraqqiyotiga ta’siri; aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi; dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi; axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan foydalanuvchi muloqotini tashkil qilish; o‘quv jarayonini loyihalash; dasturiy vositalardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar kabi qator muammolar tadqiq qilingan

Muhokama: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079- son farmonida “oliy ta’lim tizimi uchun elektron ta’lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalanishni ta’minlash”, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son farmonida “ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng

joriy etish” kabi vazifalarning belgilanishi esa mazkur yo‘nalish doirasida qator ishlar amalga oshirilayotganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Elektron ta’lim muhitini axborotlashgan ta’lim muhitining sinonimi sifatida foydalanuvchilarning ta’limiy manbalariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, mutaxassislikka tayyorlash jarayonining shaxsiy kompyuterlar, telekommunikatsiya, metodik va tashkiliy muhiti sifatida ta’riflash mumkin [5].

Olib borilgan tadqiqotlardan elektron ta’lim muhiti tarkibiga quyidagilarni keltirishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Elektron ta’lim muhiti tarkibi

AKT (Axborot kommunikatsion texnologiyalari) – bu foydalanuvchilarga qulay dasturiy ta’minot bilan jihozlangan, shaxsiy foydalanish uchun mo‘ljallangan texnologiyalardir. Insonlar AKTdan internet tarmog‘ida ishlashda, ta’lim olish jarayonida, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda, korxona ishlarini avtomatlashtirishda, multimedia ilovalarini yaratishda va hokazolarda foydalanadilar.

Telekommunikatsiya - signal, belgi, matn, tasvir, ovoz va boshqa turdagi axborotlarni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash tizimlari majmui. Simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlaridan foydalanib amalga oshiriladi. Bir yoki bir necha turdagi kompyuterlararo axborotlar almashinuviga mo‘ljallangan texnika vositalari to‘plami deb ataladi.

Elektron ta’lim muhitida telekommunikatsiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

• talabalarga matn, grafik va ovozli axborotlarni yetkazib berish;

• elektron pochta, moodle, chat orqali talaba va o‘qituvchi o‘rtasida fan sohasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;

• talabalarni o‘z tengdoshlari, boshqa oliy ta’lim muassasasi talabalari bilan forumlar, konferensiyalar, telekonferensiyalar va turli axborot almashinuvlarini tashkil etish.

Metodik ta’minot - mutaxassislarni o‘qitishning didaktik vositasi bo‘lib, uning tarkibiy qismini aniqlaydi va muayyan shaklda ko‘rsatib beradigan pedagogik tizimning integratsiyalashgan axborot modelidir.

Tashkiliy muhit – o‘quv dasturida ko‘rsatilgan mavzuning maqsadiga mos ma’ruza, amaliy, seminar va mustaqil ta’limni tashkil etish jarayoni. Uning asosini texnologik xarita, mashg‘ulot ishlanmasi hamda kalendar rejalar tashkil etadi [7].

Elektron ta’lim muhitini yaratish pedagoglar uchun elektron adabiyotlari, o‘quv-uslubiy majmualar, vebsayt, portallar ishlab chiqish va ularni amaliyotga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglarning o‘zlari ham turli platforma va dasturlardan unumli foydalangan holda elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish, veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlarda bloglarini yuritish hamda ulardan o‘quv mashg‘ulotlarida samarali foydalanishlari kasbiy faoliyatlarining ajralmas bo‘lagiga aylanishi zaruriy ehtiyojni ifodalaydi.

Natijalar: Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar u yoki bu darajada kadrlar tayyorlash jarayonlarining axborot ta’minotini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydi. Axborotlar ularni saqlash, qayta ishlash va etkazib berish, axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘qitish va tarbiyalashga bo‘lgan yondashuvlar ko‘pchilik ilmiy tadqiqotlar va davlat dasturlarida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Elektron ta’lim muhitini yaratish ta’limda axborotlashtirish jarayonini rivojlantirishning ob’ektiv natijasi bo‘lib hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirishning maqsadi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni jalb qilish va qo‘llash hisobiga intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat.

Elektron ta’lim muhitinin asosiy mohiyatidan biri shuki, uning ishtirokchilari faqat bir guruhdagi ta’lim oluvchilar emas, balki boshqa mintaqa yoki boshqa davlatdagilar ham bo‘lishi mumkin.

Elektron ta’lim muhiti – bu ta’limiy axborotlarni uzatish va tez almashishni ta’minlovchi vosita hisoblanadi. Bu zamonaviy ta’lim jarayoni uchun o‘ta muhimdir. Ushbu muhit asosida ta’lim oluvchilarni bir-birini tushunishga, o‘zgalar fikrini hurmat qilishga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o‘rgatishga imkoniyat yaratiladi. Natijada xalqaro yagona ta’lim sohasiga kirib boriladi.

Elektron ta’lim muhitini samarali tashkil etish uchun quyidagilar e’tiborga olinishi zarur:

- qo‘yilgan muammoni echish uchun tabiiy, fizik, ijtimoiy va boshqa hodisalar ustidan ko‘p, tizimli, bir martalik yoki uzoq davomli kuzatish, turli mintaqalardan ma’lumotlar to‘plash;
- turli joylarda yuzaga keladigan hodisalar, dalillar, voqealarning aniq tendentsiyasini aniqlash uchun taqqoslab o‘rganish, qarorlar qabul qilish va takliflar ishlab chiqish;
- tarmoq qatnashchilarining madaniy, etnik, geografik shartlari o‘rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda bir muammo yoki masala echimi yo‘llarining (alternativ yoki turli usullarini) samaradorligini taqqoslab o‘rganish;
- o‘ziga xos madaniy, an’anaviy, diniy xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy va madaniy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish;
- birgalikda ma’lum bir muammoni hamkorlikda tadqiq qilish sharti bilan biror bir (amaliy, ijodiy, ilmiy va b.) ijodiy g‘oyani ishlab chiqish;
- ta’limi mummmolarni o‘rganish va hal etish bo‘yicha musobaqalarini o‘tkazish va bunda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni madaniy, ta’limdagi an’analar va boshqa sohalar bilan bog‘liq bo‘lishiga qaratish.

Xulosa: Ta’lim tizimida elektron ta’lim muhitini yaratishning asosiy maqsadi ta’lim muassasalaridan ta’lim darajasi, axborot, ta’lim resurslari bo‘yicha ta’lim oluvchilarning qayerda yashashidan, shuningdek, unga ta’limning zaruriy xizmatlaridan qat’iy nazar, eng zamonaviy axborot va telekommunikasion texnologiyalardan foydalangan holda ulardan keng ko‘lamdagi mutaxassisliklarni egallashi bo‘yicha bilim olishga bo‘lgan talablarini qondirishdan iboratdir. Shuningdek elektron ta’lim muhitidan foydalanish tezkor aloqani ta’minlaydi, qisqa vaqt ichida kerakli ma’lumotlarni tezda topish, vaqtni tejash, bilimlarni tezda tekshirish va internet orqali o‘quv-ma’lumotlarini yangilash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kayumova N.A. Oliy ta’limda elektron ta’lim muhitini tashkil etishda yangi texnologiyalar / Zamonaviy ta’lim, 2021, 2 (99) 64-73 b.

2. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. -T.-“FAN” nashriyoti, 2009.-145 b.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asoslari. Monografiya. –T.: Fan, 2007. -160 b.

4. Mamatov D.N. Elektron axborot-ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Diss... dok (PhD). –T.: 2017.-185 b.

5. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

6. Khudoiberdiev M.Z. Improving the methodology of organizing self-directed learning of students in the electronic education environment / Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 11 november 2023, pp 235-237

TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADSANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Abdumajid85@inbox.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "media", "savodxonlik", "mediasavodxonlik" tushunchalarining mazmuni va mohiyati, talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik zaruriyat ekanligi xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *media, savodxonlik, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, media ta'lim, media kompetensiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение и сущность понятий «медиа», «грамотность», «медиаграмотность», а также то, что формирование медиаграмотности у учащихся является педагогической необходимостью.*

Ключевые слова: *медиа, грамотность, медиаграмотность, СМИ, медиаобразование, медиакомпетентность.*

Abstract: This article examines the meaning and essence of the concepts "media", "literacy", "media literacy", as well as the fact that the formation of media literacy among students is pedagogical necessity.

Keywords: media, literacy, media literacy, media, media education, media competence.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda axborot xizmatlari tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug'lik tezligida butun dunyo bo'ylab sayohat qilishi, yolg'on, fitna nazariyalari, noto'g'ri ma'lumotlar ham shunday bo'lishi mumkin. Internetda yolg'on haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin. Ba'zilar soxta yangiliklar balosiga qarshi kurashish uchun texnologiya qoidalariga e'tibor qaratsada, eng kuchli himoya bu mediasavodxonligi kuchli bo'lgan fuqarolarni shakllantirishdir. Mediasavodxonlik hozir har qachongidan ham muhimroq. Mediasavodxonlikning eng oddiy ta'rifi: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda mediasavodxonlik an'anaviy savodxonlik poydevoriga asoslanadi va o'qish hamda yozishning yangi shakllarini taklif qiladi. Mediasavodxonlik odamlarga tanqidiy fikrlovchi va ijodkor, samarali muloqotchi va faol fuqarolar bo'lish imkonini beradi.

Savodxonlik so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida (o'rganuvchi, o'quvchi) o'qish, yozishni biladigan, xat savodli, savodxon odam ta'rifi berilgan.

Savodxonlikni aniqlash, izohlash, tushunish va muloqot qilish qobiliyati deb ta'riflashimiz mumkin. Savodxonlik ko'nikmalariga samarali o'qish, yozish, gapirish va tinglash qobiliyatlari kiradi.

Media atamasi lotincha "medium" ya'ni "vosita", "vositachi", "usul" turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositalari tushunchasini anglatadi. Yanada aniqrog'i "ommaviy axborot vositalari" degan ma'noni anglatadi. Mazkur atama zamonaviy qo'llanishida bir necha ma'noga ega.

Birinchidan, “media” so‘zi “OAV”ni; radio, kitob, televidenye, gazeta, internetni anglatadi.

Ikkinchidan,undan mediakontentni – yangiliklar, reklama, e’lonlarni, elektron o‘yinlar va filmlarni belgilash uchun foydalaniladi.

Uchinchidan, u mediakontentni ishlab chiqaruvchilar, jurnalistlar, fotosuratchilarni, mediakompaniyalarni va hakozalarni ham bildirishi mumkin.

Mediasavodxonlik haqida turli fikrlar bildirilgan. Mediasavodxonlikning zarurligi, maqsadi va ehtiyojlari kabi media ta’lim asosini tashkil etuvchi masalalar bilan bir qatorda yuradi. Turli xil olimlar tomonidan medisavodxonlikning zamini, rivojlanish jarayoni va hozirgi holatiga oid turli nazariy va amaliy yondashuvlar ilgari surilgan.

“Mediasavodxonlik” atamasi ko‘pincha ommaviy axborot vositalari va media texnologiyalar bilan bog‘liq boshqa atamalar bilan o‘zaro almashtiriladi. Mediasavodxonlik haqida gapirayotganda nimani nazarda tutayotganimizni aniqlashtirish uchun mediasavodxonlik bo‘yicha quyidagi ta’riflarni keltirib o‘tamiz:

- Ommaviy axborot vositalari deganda xabarlarni uzatish uchun foydalaniladigan barcha elektron yoki raqamli vositalar hamda bosma yoki badiiy tasvirlar tushuniladi.
- Savodxonlik- bu belgilarni kodlash, dekodlash, xabarlarni sintez qilish va tahlil qilish qobiliyati.
- Mediasavodxonlik- bu ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan belgilarni kodlash va dekodlash qobiliyati hamda vositachi xabarlarni sintez qilish, tahlil qilish va ishlab chiqarishni o‘rganish.
- Media ta’lim- bu ommaviy axborot vositalarini, shu jumladan “amaliy” tajriba va media ishlab chiqarishni o‘rganish.

Rossiyada pedagogika fanlari doktori, professor A.V.Fedorov 20 yildan ortiq vaqt davomida Rossiyada va xorijda media-ta’limning nazariy va uslubiy kontseptsiyalarini tizimlashtirish va tahlil qilish bilan shug‘ullanadi.

A.V.Fedorov talabalar, universitet o‘qituvchilari va maktab o‘qituvchilari uchun media ta’lim dasturlarini ishlab chiqdi. A.V.Fedorovning fikricha, media kompetensiyalari shaxsiy rivojlanish darajasini tavsiflovchi asosiy kompetensiyalardir. Ularning barchasi quyidagicha tasniflanadi.

1. Media kompetentsiyasining motivatsion ko‘rsatkichiga ko‘ra: ommaviy axborot vositalari va media matnlari bilan janr, tematik, hissiy, gnoseologik, gedonistik, intellektual, psixologik, ijodiy, axloqiy, estetik motivlarning keng doirasi.
2. Kontakt ko‘rsatkichiga ko‘ra: har xil turdagi ommaviy axborot vositalari va media matnlari bilan tez-tez aloqa qilish.
3. Axborot ko‘rsatkichiga ko‘ra: eng asosiy atamalarni bilish, media va media ta’lim nazariyalari, media tilining o‘ziga xos xususiyatlari, janrlar konventsiyalari, media madaniyati rivojlanish tarixining asosiy faktlari, media madaniyat arboblari ijodi va boshqalar.
4. Pertseptiv ko‘rsatkichga ko‘ra: o‘z pozitsiyasini muallifning pozitsiyasi bilan bog‘lash qobiliyati, bu, xususan, media matndagi voqealar rivojini bashorat qilish

imkonini beradi.

5. Sharhlovchi/baholovchi (tahliliy) ko‘rsatkich bo‘yicha: yuqori darajada rivojlangan tanqidiy fikrlash asosida turli omillarni hisobga olgan holda, jamiyatdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyat ko‘rsatish jarayonini tanqidiy tahlil qilish qobiliyati.

6. Amaliy faoliyat ko‘rsatkichi bo‘yicha: mustaqil tanlashning amaliy ko‘nikmalari, turli xil va janrdagi media matnlarni yaratish / tarqatish, media sohasida faol o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalari.

7. Ijodiy ko‘rsatkichga ko‘ra: ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liq turli xil faoliyat turlarida (pertseptiv, o‘yin, badiiy, tadqiqot va boshqalar) aniq ijodkorlik darajasi.

Mediata’lim termini tor mazmunda ta’limning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida qo‘llaniladi. U umumiy ta’limning maqsadlariga muvofiq keladi. Mediata’lim so‘zining sinonimi sifatida pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so‘zlari ham qo‘llaniladi. Ta’limning yangi yo‘nalishi, bir so‘z bilan aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiya sohasidagi ta’limdir.

Media ta‘lim natijasida mediasavodxonlik faqat o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishi yoki axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmaydi. Media ta‘lim konseptsiyasiga kengroq qarash talab etiladi. Axborotdan samarali va tezkor foydalanishda talaba muayyan muammoni hal qilishda zarur bo‘lgan ma‘lumotlar turini aniqlay oladi, bu ma‘lumotlarga samarali va tez kirishi mumkin; qiziqtirgan malumotlarga kirish uchun kalit so‘z va tegishli atamalarni aniqlashi; potensial axborot manbalarining turli xil turlarini, formatlarini aniqlashi va yana ko‘plab ishlarni bajarishi mumkin.

Media ta’limni rivojlantirish ishlari yuzasidan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda tadqiqotlarda, ilg‘or pedagogika va psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida yillar davomida sayqal torib kelgan, talabalarda mediata’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish myammosi pedagogikaning muayan nazariy-metodologik bazasiga ega bo‘lsa-da, ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar olib borilayotganligi ma’lum bo‘ldi. Mediata’limning mukammalligi yoshlarning kelajagini so‘zsiz belgilaydi. Ana shu keng qamrovli pedagogik jarayon ta’lim tamoyillariga mos holda, darsda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashni, takomillashtirishni, interfaol, interaktiv usullarni keng ko‘lamda bosqichma-bosqich amalda joriy etishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatova Ya, Sulaymanova S O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida O‘quv qo‘llanma T-2015

2. Xudayberdiyev A. TALABALARNING MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 1.

3. Namazov B., Fayzieva M., Sharofaddinov Sh. Media va axborot savodxonligi o‘quv qo‘llanma Toshkent- 2017, 140 b.

4. Xudayberdiyev, A. (2023). AXBOTOR TEXNOLOGIYALARINI KASBIY FAOLIYATDA QO‘LLASH FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH. *Research and Implementation*.

3. Фёдоров А.В, Левитская А.А “Media ta’lim markazlari: ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyat. Saarbrucken (Germaniya): Lambert Akademik nashriyoti, 2011 yil.

4. Umurzakova B.A. Mediata’lim orqali mediamadaniyatni rivojlantirish ilmiy-pedagogik asoslari va zarurati. / Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi mart 2022. №3

5. Khudoiberdiev A. GENERAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION CULTURE OF STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 6. – С. 356-361.

6. Samarov R, Sattorov O. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliy ahamiyati. / Zamonaviy ta’lim jurnali. 2014, 1-son.

7. Xudayberdiyev A.A. Talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish omillari./ Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. 1/12 son 2023. 261-264 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MUAMMOLI TA’LIM VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ORQALI O‘QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna
Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda muammoli ta’lim texnologiyalari , muammoli metodlar, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o‘quvchilarning ko‘nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan . Muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari inobatga olingan holda yondashish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, metod ,vaziyat ,usul,mantiq,

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПУТЕМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Абстрактный. В основе данной статьи лежат технологии проблемного обучения, проблемные методы, проблемные ситуации и активация умений и знаний учащихся начальных классов. Освещены способы подхода учителя и ученика к решению проблемных ситуаций с учетом логических операций мышления.

Ключевые слова: начальный класс, метод, ситуация, способ, логика.

DEVELOPING STUDENTS’ LOGICAL THINKING SKILLS THROUGH THE USE OF PROBLEM-BASED LEARNING AND INFORMATION TECHNOLOGY IN ELEMENTARY EDUCATION.

Abstract. This article is based on problem-based learning technologies, problem-based learning, problematic situations, and the activation of skills and knowledge of elementary school students. The ways of teachers’ and pupils’ approaches to solving problem situations taking into account logical operations of thinking are highlighted.

Keywords: elementary class, method, situation, way, logic.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023–2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-son buyrug‘iga ko‘ra umumiy o‘rta ta’limning 1–4-sinflari uchun ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etildi. Unga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish yolga qo‘yildi. XXI asrda dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasini shakllantirishda informatika va zamonaviy axborot ,muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanmagan holda tasavvur etib bo‘lmasligi hammamizga ma’lum.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning

fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi – o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak.

Muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob’ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish.Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o‘quvchilarning ko‘nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi. Muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo‘naltiradi.

Muammoli ta’lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o‘quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehqtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta’lim va o‘qitishning ilgari ma’lum bo‘lgan usullarini qo‘llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta’lim ko‘proq o‘quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e’tiqodining shakllanishini ta’minlaydi.

“Mantiq” so‘zi grekcha – logike so‘zidan olingan bo‘lib so‘z va fikr, aql ma’nosini anglatadi. Fikr – mulohazalarni asoslash mantiqiy to‘g‘ri fikr yuritish demakdir. Asoslash uchun esa yetarli dalillar bo‘lishi lozim.

Fikrlashni aniq obyektlarini idrok qilishdan boshlash lozim. Fikrlashga chorlovchi topshiriq yoki ma’lumot mustaqil fikrlovchining salohiyatiga mutanosib bo‘lishi kerak.

Mantiqiy fikrlashning asosiy shakli, xulosa chiqarishdan keng foydalanamiz. Bilimlarimizning ko‘p qismi ham xulosa chiqarish shaklida tuzulgan chunki har qanday yangi bilim xulosa chiqarishning natijasidir.

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi maktabga kelganda, keng lug‘at boyligiga ega bo‘lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob’ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so‘zlar bo‘lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o‘rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi.

Duradgorda 9 ta yog‘och taxta bor edi. U bir nechta taxtaning har birini 5 bo‘lakka bo‘lib arraladi. Shunda taxtalar soni 33 taga yetdi. Duradgor nechta taxtani bo‘laklarga bo‘lib arraladi?

Bu narsa insonga 2 marta beriladi. Uchinchisida sotib olinadi.

Dangasa bola bir sutkaning yarmini uxlash va ovqatlanish, choragini maktabda bo‘lish ga, yana bir choragini o‘yin va televizor ko‘rishga sarfladi. Sutkaning qolgan qismida dars tayyorladi. U necha soat dars tayyor lagan?

Qiyin savollarga oson javoblar

G‘o‘la 3 bo‘lakka bo‘lindi. G‘o‘la nechta joyidan arralangan?

(2 ta)

Bir haydovchi o‘zi bilan haydovchilik guvohnomasini olmagan edi. Bir taraflama harakat belgisi turgan joyda qarama-qarshi tomonga harakatlanib borardi. Politsiyachi uni ko‘rdi, lekin to‘xtatmadi. Nima sababdan?

(Haydovchi piyoda ketayotgan edi)

Yomg‘ir ketma-ket ikki kun yog‘ishi mumkinmi?

(Yo‘q, ikki kunning orasida bitta tun bor)

Unga sakrab chiqish mumkin, lekin undan sakrab tushish mumkin emas. U nima? **(Samolyot)**

Ikki marta tug‘iladi, bir marta o‘ladi. U nima?

(Tuxumdan chiquvchi barcha jonzotlar)

Nimani polda turgan vaqti dumidan tortmaymiz?

(Kalava ip)

Kim o‘tirgan holatda yuradi?

(Shaxmatchi)

Nima o‘sib boraveradi, sira kamaymaydi?

(Yosh)

Undan qancha ko‘p olishsa, u shunchalik kattaraveradi. U nima?

(Chuqur)

Qizcha 2-etajdan tushib ketdi va bir oyog‘ini sindirib oldi. Agar u 4-etajdan tushib ketsa, nechta oyog‘i sinadi?

(Ko‘pi bilan bitta. Chunki bitta oyog‘i allaqachon singan)

Chiroq o‘chdi. Men shamni yoqdim. Men shamni yoqqan payt qaerda edim?

(Qorong‘ida)

9 qavatli uyda lift bor. Birinchi qavatda 2 ta odam yashaydi, ikkinchi qavatda 4 ta, uchinchisida 8 ta, to‘rtinchisida 16 ta va hk. Shu uy liftining qaysi tugmasi eng ko‘p bosiladi?

(Birinchi qavat tugmasi)

Nima tog‘ga boradi, tog‘dan keladi, lekin joyida turaveradi?

(Yo‘l)

Yarimta apelsin bo‘lagiga eng ko‘p nima o‘xshaydi?

(Apelsinning ikkinchi bo‘lagi)

Uyingizga mehmonlar kelishdi. Muzlatgichingizda limonad, ananasli sok va mineral suv bor. Birinchi bo‘lib nimani ochasiz?

(Muzlatgichni)

Nimani xomligida yemaydilar, lekin qaynasa, pishgandan so‘ng olib tashlaydilar?

(Lavr yaprog‘i)

Eng qisqa oy qaysi?

(May, unda bor-yo‘g‘i uchta harf bor)

Qizil koptok Qora dengizga tushib ketsa nima bo‘ladi?

(Xo‘l bo‘ladi)

Choyni qaysi qo‘lda aralashtirgan yaxshiroq?

(Umuman olganda choyni qoshiq bilan aralashtirgan yaxshiroq)

Qaysi savolga hech qachon "ha" deb to‘g‘ri javob berib bo‘lmaydi?

(Uxlayapsanmi?)

Qaysi savolga "yo‘q" deb to‘g‘ri javob berib bo‘lmaydi?

(Tirikmisan?)

Och qoringa nechta tuxum yeyish mumkin?

(Bitta. Qolganlari och qoringa yeyilgan hisoblanmaydi)

Qanday idishdan ovqat yeb bo‘lmaydi?

(Bo‘sh idishdan. Chunki unda ovqat yo‘q)

U seniki, lekin sendan ko‘ra boshqalar ko‘proq foydalanadi. Nima u?

(Ism)

Tuyaqush o‘zini qush deb atashi mumkinmi?

(Yo‘q, u gapirishni bilmaydi-ku)

Qanday quloq eshitmaydi?

(Qozonning qulog‘i)

Ko‘zlar yumuq holda nimani ko‘rish mumkin?

(Tush)

Quyon katta tezlik bioan bo‘ridan qochib o‘rmonga kirib ketmoqda. Quyon o‘rmonga qachongacha kirib boradi?

(Yarmigacha, yarmidan uyog‘iga o‘rmondan chiqayotgan hisoblanadi)

Qushlar galasi uchib kelib daraxtga qo‘nishdi. Ikkitadan qo‘nganida bitta daraxt ortib qoldi, bittadan qo‘nganida bitta daraxt yetmadi. Galada nechta qush bor? Nechta daraxt bor?

(4 ta qush, 3 ta daraxt)

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta’kidlangan o‘quvchilarni mantiqiy mashqlar bajarish asosida tafakkur doirasini kengaytirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Buni mantiqiy topshiriqlar, ta’limiy o‘yinlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning amaliy ishlay olish ko‘nikmalari rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zamonaviy dars. Ilmiy-metodik to‘plam. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI.- T., 2007 y.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: T.: «O‘qituvchi», 2004 y.
3. Колеченко А.Э. Энциклопедия педагогических технологий: Пособие для преподавателей. – СПб.: КАРО, 2002.
4. Питюков В.Ю. Основы педагогической технологии.- М.: «Гном-Пресс», 1999

RAQAMLI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI

Yusupov Musurmon Maxmud o‘g‘li
Преподаватель кафедры «Химия и методика ее преподавания» ТГПУ им.Низами. e-mail: eisenmannyusupov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada *raqamli ta’limni rivojlantirish* muhitida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Oliy ta’lim muasassalarida ta’lim faoliyatini raqamli ta’lim faoliyatiga o‘tkazishga va yangi bilimlarni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda, kompyuter texnologiyalari va turli raqamli vositalardan foydalanishda talabalarning pedagogik mahoratini rivojlantirish haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, kasbiy kompetensiya, kognitiv faoliyat, raqamli savodxonlik, kasbiy kompetent, kasbga tayyorgarlik, raqamli kompetensiya, bo‘lajak kimyo o‘qituvchisi, raqamli ta’lim tendensiyalari.

Аннотация: В данной статье развитие информационной компетентности будущих учителей химии в условиях развития цифрового образования является важным направлением их профессиональной подготовки. В высших учебных заведениях возникают мысли о переводе образовательной деятельности в цифровую образовательную деятельность и освоении новых знаний с использованием средств информационных технологий, развитии педагогических навыков студентов по использованию компьютерных технологий и различных цифровых инструментов.

Ключевые слова: цифровое образование, профессиональная компетентность, когнитивное функционирование, цифровая грамотность, профессиональная компетентность, профессиональная подготовка, цифровая компетентность, будущий учитель химии, тенденции цифрового образования.

Abstract: In this article, the development of information competence of future chemistry teachers in the context of the development of digital education is an important area of their professional training. In higher educational institutions, thoughts arise about the transfer of educational activities into digital educational activities and the development of new knowledge using information technology tools, the development of students’ pedagogical skills in the use of computer technologies and various digital tools.

Keywords: digital education, professional competence, cognitive functioning, digital literacy, professional competence, professional preparation, digital competence, future chemistry teacher, digital education trends.

Ta’limda zamanoviy tedensiyalarning biri bu raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga kirishi. Globallashuv jarayonida oliy ta’limning modernizatsiya qilinishi ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bevosita raqamli sharoitning tashkil etilishi bilan uzviy bog‘liqdir: aynan shu sohada ijtimoiy rivojlanish uchun psixologik, ijtimoiy, umumiy madaniy va kasbiy shart-sharoitlar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Raqamli ta’limni rivojlantirish muhitida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining

axborot kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Axborot kompetensiyasi, S.V. Trishina fikriga ko‘ra - bu shaxsning integrativ sifati bo‘lib, u ma’lumotni tanlash, o‘zlashtirish, qayta ishlash, o‘zgartirish va yaratish jarayonlarini mavzuga oid bilimlarning maxsus turiga aks ettirish natijasi bo‘lib, faoliyatning turli sohalarida maqbul yechimlarni amalga oshirish va bashorat qilish, qabul qilish imkonini beradi[1].

Axborot jamiyatiga o‘tish zamonaviy dunyoning tendentsiyasidir. O‘z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi rivojlanishi va takomillashishi kerak. O‘qituvchining ta’lim muammolarini qanday hal qilish samaradorligi ham axborot kompetensiyasining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Albatta, axborot kompetensiyasi o‘qituvchining malakasini oshirish va har tomonlama kamol topishining asosiy shartlaridan biridir.

Bugungi kunda bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari axborot oqimi bilan kurashish, shuningdek, materiallar va resurslar bilan ishlashda raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun bilim va ko‘nikmalarga ehtiyoji oshadi. Shu sababli oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida axborot kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kimyo o‘qitish metodikasi - bu o‘quv jarayonini yangi usulda tashkil etish hamda o‘quvchilarning faol kommunikativ faoliyatga, ularning hissiy va intellektual salohiyatini kognitiv faoliyatga kiritishga qaratilgan[10].

Bugungi ta’limni axborotlashtirish sharoitida vujudga kelgan “ axborot kompetensiya”da shaxs o‘z faoliyatini axborot – kommunikatsiya texnologiya vositalari bilan bog‘lashda kognitiv faoliyat ko‘lamining oshishiga, bilimlarni ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi hamda raqamli texnologiyalari vositalarining kasbiy faoliyatda qo‘llanilishi bilan talabalarda axborot kompetensiyasiga bo‘lgan ehtiyoj oshib boradi. Ushbu shartlar kasbiy masalalarni hal qilish uchun foydalaniladigan ma’lumotlar hajmining davriy ravishda bir necha marta ortib borishini boshqarishga imkon beradi hamda talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda va jamiyat o‘rtasida ijtimoiy ma’lumotlar bilan samarali o‘zaro aloqada bo‘lishni taminlaydi[2]. Shu munosabat bilan oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning axborot kompetensiyasining rivojlantirishda axboriy ong va tasavvurni kengaytirish uchun kimyo faniga bog‘lab o‘qitishda turli laboratoriya mashg‘ulotlari mexanizmini, kimyoviy moddalarni fazoviy shakllarni talabalar ko‘z o‘ngida vizualizatsiya qilish yaxshi samara beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim faoliyatini raqamli ta’lim faoliyatiga o‘tkazishga va yangi bilimlarni axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo‘llagan holda kompyuter va turli raqamli vositalardan foydalanishga olib keldi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi nafaqat kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilimlar majmuasiga ega bo‘lishi, balki ta’lim faoliyatida quyidagilardan unumli foydalana olishni bilishi lozim:

-kognitiv faoliyat maqsadlarini aniqlash; oldinga qo‘yilga rejalarga erishishning optimal usullarini topish;

-turli axborot manbalaridan foydalanish; kerakli ma’lumotlarni qidirish va topish, olingan natijalarni baholash;

-faoliyatini tashkil etishda axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari bilan

hamkorlik qilish imkoniyatlaridan foydalanish ahamiyatlidir[6].

Zamonaviy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g‘oyalar, maktablar, yo‘nalishlar, yondashuvlar qatoriga e’tibor qaratmasdan turib, barkamol mutaxassis bo‘lishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Kasbiy faoliyatda axborot kompetentsiyaga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli, texnologik va boshqa yondashuvlarga tayanib talabalarning kasbga tayyorgarlik holati o‘rganilmoqda.

Axborot kompetensiyasini rivojlantirishning jihatlaridan biri axborotni izlash, baholash va tanlash qobiliyatidir. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari o‘z fanlari bo‘yicha tegishli va ishonchli ma’lumotlarni topish uchun qidiruv tizimlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa onlayn resurslardan foydalanishni o‘rganishlari kerak. Shuningdek, ular olingan ma’lumotni uning dolzarbligi va ishonchliligini aniqlash uchun tanqidiy baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Muhim jihat, talabalarda axborot kompetensiyasi ma’lumotlarni qayta ishlash va taqdim etish uchun raqamli vositalar va ilovalardan samarali foydalanish qobiliyati va ko‘nikmalarning rivojlanganligi bilan baholanadi. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari o‘quvchilar uchun ko‘rgazmali materiallar va topshiriqlar yaratishda elektron jadvallar, grafik muharrirlar va boshqa kimyo yo‘nalishiga doir dasturlar bilan ishlay olishlari kerak.

Bundan tashqari, axborot kompetentsiyasini rivojlantirish aloqa va hamkorlik uchun raqamli vositalardan foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan elektron pochta, videokonferensiya va boshqa vositalar orqali samarali muloqot qila olishlari kerak. Shuningdek, ular hamkasblari bilan hamkorlik qilish va o‘quv materiallarini yaratish uchun onlayn platformalar va vositalardan foydalanishlari kerak [2].

Oliy ta’lim muassasalarining rivojlanish jarayoni raqamli ta’lim sharoitida kimyo yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy faoliyatida muammolarni qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatini rivojlanganligi va talabalarning kasbga tayyogarliklari bilan izohlanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning kasbiy muvaffaqiyatlarining muhim sharti bu raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalana olish qobiliyatining rivojlantirish, kimyo yo‘nalishida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar uchun dasturlar va o‘quv materiallariga raqamli muhitda ularning axborot kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradigan tegishli modul va vazifalarni kiritish muhimdir [7].

Yangi ijtimoiy tuzum strukturasida axborot kompetensiyasining o‘rni juda muhim sanaladi, axborot manbalaridan keng foydalanish, yuqori darajadagi avtomatlashtirishni ta’minlaydigan kompyuterlashtirish asosida inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni ishlab chiqarish va keng tarqatish bilan sanoat tuzulmalarida sezilarli darajada o‘zgarish va rivojlanish islohotlarini joriy qilinishi o‘z samarasini bermoqda. Sanoat va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishlash, axborotlardan unumli foydalanish, talabalarning kasbiy faoliyatida qiyinchiliklarni bartaraf eta olishi ya’ni kasbiy kompetentligi va axborot kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’lim tashkilotlari oldida muhim vazifa sanaladi. Bunday sharoitda dunyo rivojlanishida raqamli faoliyatning joriy etilishi axboriy ongni

rivojlanishi zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining eng maqbul yo‘llarini izlashda hal qiluvchi vosita va texnologiyalardan hisoblanadi [8].

Odatda, “axborotli yondashuvlar” faoliyatini tahlil qilishda muayyan faoliyatni rivojlantirishning maxsus davrlarida, xususan, ta’limda fundamental bilimlar qayd etilganda yoki mavjud vositalar bilan hal etilmaydigan muammolar paydo bo‘lganda amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida G.K.Selevkoning fikrlariga tayangan holda muayyan uslubiy yondashuvlardan foydalanishni talab etadi, chunki yondashuvning o‘zi pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan faoliyatning mazmuni, usullari, vositalari va usullarining butun majmuiga jamlagan holda o‘quv platformalari tashkil etiladi [6].

Ta’lim innovatsiyalari bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribaning keng va boy materiallarini tahlil qilish har bir zamonaviy yondashuvda kontseptual asoslarni, qo‘llaniladigan mazmun va usullarning xususiyatlarini, ta’lim rivojlanishining mohiyatini tushunish uchun zarur material mavjudligini ko‘rishga imkon beradi.

A.I. Rakitov axborotiy jamiyatining shakllanishini o‘rganar ekan, axborot texnologiyalarining tarqalishi fikrlash uslubi, turmush tarzi va insonni ijtimoiy makonga yo‘naltirish usullarini o‘zgartirishga yordam berishini ta’kidlaydi [3].
N.O Yatsishina o‘qituvchining axborot kompetentsiyasini shakllantirishda uchta asosiy yo‘nalishni belgilaydi:
- umumiy, ma’lumotlarni tahlil qilish , qayta ishlash va tanqidiy tushunish uchun yangi bilim, ko‘nikma va malakalarning topishga qaratilgan;
- texnologik, zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya tizimlarini o‘zlashtirishga qaratilgan;
- metodologik, oldingi ikkitasiga asoslangan ,bo‘lajak o‘qituvchini eng yangi ta’lim texnologiyalarini, o‘quv va kognitiv faoliyat shakllari va usullarini yaratish va ulardan foydalanishda tayyorlashga qaratilgan [4].

Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish usulidan foydalanish (N.A.Alekseev, E.V.Bondarevskaya, M.V.Klarin, V.V. Serikov, I.S.Yakimanskaya va boshqalar) o‘quvchiga o‘zini shaxs sifatida anglashga, o‘zini o‘zi rag‘batlantiradigan imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish bilan ularning axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasini malaka talablariga asoslangan holda kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim sanaladi [9].

V. F. Burmakina, T. S. Vinogradova, L. V. Voronin, G. B. Parshukova, S. Yu. Proxorova, S. V. Trishina, T. P. Xilenko, A. V. Xutorskaya kabi o‘qituvchilar va psixologlarning tadqiqotlarida shaxsning axborot kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat kompyuter texnologiyalari vositalariga, balki ular bilan ishlash usullariga ham ega bo‘lish orqali amalga oshiriladi deb takidlaydilar [1].

Tadqiqotchilar ta’lim yo‘nalishlarini individuallashtirish va o‘qituvchi va pedagoglarning mustaqilligini oshirish zarurligini ta’kidlaydilar va o‘qituvchining ta’lim jarayonida sifat va funktsional yangi maqomi faqat kompetensiyadan keng foydalanish yaxshi samara beradi deb izohlaydilar. Axborot kompetentsiyasini shakllantirish juda uzoq jarayon bo‘lganligi sababli, o‘qituvchilar unga o‘rta maktabning boshlang‘ich bo‘g‘inidan boshlashni maslahat berishadi, chunki erta rivojlanish kelajakda kompetentsiyani rivojlantirish samaradorligiga hissa qo‘shadi.

Kompetensiyaviy yondashuvlarda, ularning fikriga ko‘ra, faqat bilimga yo‘naltirilgan tarkibiy qismga qisqartirilmagan, balki o‘qituvchi tomonidan amalda qo‘llaniladigan muayyan ko‘nikmalarni egallashni o‘z ichiga olgan ta’lim mazmunining bir turi ko‘rsatilgan[7]. Bu vazifalardan biri ta’limda raqamli xizmatlar sifatini ta’minlash, jumladan, zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, o‘qish muddatlarini saqlab qolgan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan kompetensiyalarni kengaytirishni ta’minlashdan iborat [8].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tushunchalarni eng aniq talqini va farqlarini A. V. Xutorskaya tomonidan berilgan. U kompetentsiyani "shaxsiy fazilatlarni o‘zaro bog‘liqlik (bilim, ko‘nikma, malaka, faoliyat usullari) to‘plami deb ta’riflaydi, ularga nisbatan yuqori sifatli samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan ob’ektlar va jarayonlarning ma’lum bir doirasiga nisbatan belgilanadi". Kompetensiya deganda" shaxsning unga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatini o‘z ichiga olgan tegishli kompetentsiyaga ega bo‘lishi, egalik qilishi tushuniladi"[1].

Axborot kontseptsiyalarning yuqorida keltirilgan talqinlariga asoslanib, axborot kompetentsiyasi - shaxsning o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini taqdim etilgan ma’lumotlar bilan ishlashda turli xil shakllarda qo‘llash qobiliyati , shuningdek uni amaliy faoliyatda samarali ishlatish imkoniyati hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasining mohiyati va mazmunini aks ettirish, ularda axborot kompetentsiyasini shakllantirish metodologiyasini nazariy jihatdan asoslangan , umumiy fikrlarni birlashtiradigan va qarashlar tizimi bo‘lgan, pedagogik sharoitlarni yaratish usulini ko‘rsatadigan faoliyat mahsuli [5].

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining raqamli muhitda axborot kompetentsiyasini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida malaka talablariga asosan axborot kompetensiyasini kasbiy kompetensiyaga uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirish hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Тришина С.В., Хуторской А.В. Информационная компетентность специалиста в системе дополнительного профессионального образования // Интернет-журнал «Эйдос». 2004. 22 июня // URL: http://www.eidos.ru/journal/2004/0622-09.htm.

2.Raxmonov, B. (2022). Fanlararo aloqadorlikda talabalarning axborot kompetentsiyasini rivojlantirishda it-texnologiyalarining imkoniyatlari. Science and innovation, 1(B8), 509-514.

3. Ракитов А.И. Прогноз развития науки и технологии в России на период до 2025 года // Вестник РАН. - М., 1998. - № 8. - С.746-753.

4. Яцишина Н.О. Інформаційна компетенція як складова фахової підготовки майбутнього вчителя // Інформаційні технології в освіті, науці і техніці / Матеріали IV Всеукраїнської конференції молодих науковців ІТОНТ-2004:Черкаси, 28-30 квітня 2004р. – Черкаси: ЧНУ, 2004. –Ч. 2. – С. 53-54.

5. Комиссарова, А. В. (2008). К проблеме формирования информационной компетентности студентов. Актуальные вопросы современной науки, (3), 175-181.
6. Г.К. Селевко 2 Энциклопедия образовательных технологий. В 2 т. Т. 1. (обл) livelib.ru: https://www.livelib.ru/author/17848/top-g-k-selevko
7.В.В. Давыдов Теория развивающего обучения. - М., 1996
8 А.А. Леонтьев Психология общения: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений I - Изд.5-е стереотипное. - М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 2008. - 368 с
9.В.П. Беспалько Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Институт развития проф. образования. - М.: Изд-во ин-та проф. образования Министерства образования России, 1995. - 336с.
10. Alimova, F., & Yusupov, M. (2022). К ВОПРОСУ ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИНТЕРНЕТ-ТЕСТИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ. Science and innovation, 1(B8), 1017-1022.
11. Алимова Ф. А., & Юсупов М. М. (2023). МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ КОНТРОЛЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ ПО ХИМИИ НА ОСНОВЕ ИНТЕРНЕТ ТЕСТ-ТРЕНАЖЕРОВ. Science and innovation, 2 (Special Issue 3), 1030-1036. doi: 10.5281/zenodo.7861669
12. Yusupov Musurmon Maxmud o‘g‘li. (2024). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ. https://doi.org/10.5281/zenodo.10678179

XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Mamatkulova Nigora Sherbekovna
Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasining mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni, afzallik va kamchiliklari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasining ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ tafakkur, loyiha, loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasi, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье на основе научных источников анализируется сущность проектной технологии обучения, ее роль в образовательном процессе, ее преимущества и недостатки. Также описывается значение проектной технологии обучения в развитии творческого мышления у будущих учителей.

Ключевые слова: креативность, творческое мышление, проект, проектная технология обучения, эффективность.

Abstract: This article analyzes the essence of project-based teaching technology, its role in the educational process, its advantages and disadvantages based on scientific sources. Also, the importance of project-based teaching technology in the development of creative thinking among future teachers is described.

Key words: creativity, creative thinking, project, project-based teaching technology, efficiency.

Bugungi Milliy o‘quv dasturi va ta’lim tizimi o‘qituvchilar oldiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi.

So‘nggi yillarda boshlang‘ich ta’limga loyiha texnologiyalarini integratsiyalashuviga katta e’tibor qaratilmoqda, chunki o‘qituvchilar yosh o‘quvchilar uchun dinamik va qiziqarli ta’lim muhitini yaratishga intilmoqda. Loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) o‘quvchilarni real dunyo muammolari va muammolarini faol ravishda o‘rganishni, yechimlarni ishlab chiqish uchun hamkorlikda ishlashni va o‘z ta’limlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Loyiha texnologiyalarini boshlang‘ich ta’limga kiritish orqali

o‘qituvchilar o‘quvchilarning faolligini, ijodkorligini va ta’lim natijalarini oshirish uchun raqamli vositalardan foydalanishlari mumkin.

Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda boshlang‘ich ta’limda loyiha texnologiyalarini integratsiyalash o‘quvchilarning faolligini, tanqidiy fikrlashni va hamkorlikni rivojlantirishning kuchli yondashuvi sifatida namoyon bo‘ldi. Loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) amaliy, so‘rovga asoslangan tajribalarni ta’kidlaydi, bu yerda oquvchilar real dunyo muammolarini faol ravishda o‘rganadilar va yechimlarni ishlab chiqadilar. Raqamli vositalar va resurslardan foydalangan holda, o‘qituvchilar o‘rganish tajribasini boyitib, uni yanada interaktiv, dolzarb va yosh o‘quvchilar uchun ta’sirli qilishlari mumkin.

Maktabda turli fan doirasida o‘quvchilar bilan ishlashda loyihaga asoslangan o‘qitishni qo‘llab ko‘rayotgan tadqiqotchi Laurens Xeyvudning ta’kidlashicha, o‘quvchilar loyihada qo‘yilgan ulkan muammoni bosqichma-bosqich hal qiladilar, jarayonda to‘xtalishlar paydo bo‘ladi, ya’ni har bir bosqichda kichik muvaffaqiyatsizliklar yuzaga kelishi mumkin. Duch kelingan har bir muvaffaqiyatsizlik o‘quvchilarning bilimsizlik sohalarini, nimani xato bajarganliklarini va uni to‘g‘rilash uchun qanday xatti-harakatni amalga oshirishlari kerakligini bilishga yordam beradi. Ya’ni loyihaga asoslangan o‘qitish (PBL) maktabda asosiy bilimlarni egallash uchun qayta murojaat qilishni, o‘rganishni vujudga keltiruvchi tabiiy jarayondir. Uning uqtirishicha, sinfni va o‘quvchilarni birdaniga loyihaga asoslangan o‘qitishga o‘tkazib bo‘lmaydi, buning uchun o‘qituvchi eng kichik darajadan boshlashi va keyinchalik keng hajmdagi, uzoq muddatli loyihalarga olib borishi mumkin.

Bu texnikaning o‘zi yangi emas. Ammo agar ilgari u darsdan tashqari mashg‘ulotlar (olimpiadalar, musobaqalar) doirasida ishlatilgan bo‘lsa, endi loyihalar muntazam kundalik darslarda tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda. Bu shuni anglatadiki, ta’lim standartlari tez o‘zgarib bormoqda.

Menimcha, biz bolalarda dizayn tafakkurini rivojlantirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday holda, deyarli har qanday darsda ushbu texnikani qo‘llashda hech qanday muammo bo‘lmaydi. Biz bolalarga har bir vazifani loyiha sifatida ko‘rishga o‘rgatamiz. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan biz Suv haqida loyihani yoritamiz. Bu yerda bizning loyihamiz tabiatning muhim tarkibiy qismi - suv, uning xususiyatlari;

- odamlar, hayvonot dunyosi, o‘simliklar hayotida suvning roli,- suv sifati inson faoliyatiga qanday ta’sir qilishi mumkinligi haqida bo‘ladi.

Bu usulning asosiy afzalligi shundaki, loyiha bo‘yicha asosiy ishni o‘quvchining o‘zi bajaradi: u ma’lumot to‘playdi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. O‘qituvchi bu yerda maslahatchi yoki rahbar sifatida ishlaydi. Ushbu texnika tufayli bola nafaqat o‘z-o‘zini tarbiyalashning eng muhim ko‘nikmalarini egallaydi, balki kelajakdagi kasbni tanlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi.

2.https://infourok.ru/prezentaciya-proekty-v-sovremennom-mire-uchebnye-shkolnye-proekty-istoriya-uspeha-4345284.html

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI TARIX FANI DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Biybalayev Islombek Abdunazarovich
Guliston Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, Sirdaryo viloyati pedagogika markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktabi tarix fani darsliklarini bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, raqamli texnologiyalardan foydalanib, sifatli va qiziqarli tarzda ishlab chiqilishi haqida fikr va takliflar yuritilgan.

Аннотация. В данной статье представлены идеи и предложения, как разработать качественные и интересные учебники истории для общеобразовательных школ исходя из требований сегодняшнего дня, с использованием цифровых технологий.

Annotation. In this article, there are ideas and suggestions on how to develop high-quality and interesting history textbooks of general education schools based on today’s demands, using digital technologies.

Kalit so‘zlar: Milliy o‘quv dasturi, QR-kod, raqamli texnologiya, umumbashariy qadriyatlar, ko‘nikma.

Ключевые слова: Национальная учебная программа, QR-код, цифровые технологии, универсальные ценности, навыки.

Keywords: National curriculum, QR-code, digital technology, universal values, skills.

Dunyo miqyosida fan va texnika taraqqiyotining keskin suratlar bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o‘zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o‘z navbatida ta’lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda. Buning natijasida eng tog‘ri kapital sifatida qadrlanayotgan ta’limning barcha bosqichlarida, ta’lim-tarbiya berish va natijalarni baholash sifat samaradorligini oshirish, o‘qitish usullarini takomillashtirib borish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish muhim hisoblanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda umumta’lim maktablari tarix fani darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ulardan foydalanish inson hayotini o‘zgartirib, uning kasbiy va hayotiy faoliyati samaradorligini oshirishga yo‘l ochadi. Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti, jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa yoshlarning fikrlash darajasining kengayishga va axborot olish imkoniyatini osonlashtirishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tarixiy ong va taffakkurini shakllantirish, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rniga ega yoshlarni tayyorlash jarayonlarini tashkil etishga e’tibor qaratilmoqda.

Umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va

intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish kabi vazifalarni belgilab berdi.

Mamlakatimizda o‘qitish va tarbiyalash milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari bosh g‘oyasi va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni – umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturini bosqichma-bosqich joriy etish, o‘quvchi-yoshlarda ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil rivojlanishga o‘rgatish, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishni nazarda tutadi.

2022-2023-o‘quv yilida tarix fani Milliy o‘quv dasturi asosida 6-, 7-, 10-sinf O‘zbekiston tarixi va jahon tarixi fani yangi avlod darsliklari nashr etildi. Ushbu chop etilgan darsliklardan 10-sinf O‘zbekiston tarixi fani darsligida o‘quvchi yoshlar uchun “Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta’siri”, “Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati”, “Turkistonda ilm-fan va madaniyat” va boshqa bir qancha mavzularida QR-kod orqali qo‘shimcha tarzda tarixiy manbalar berilgan. Jumladan, “Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta’siri” mavzusidagi QR-kod orqali Birinchi jahon urushiga davrida insonlarning og‘ir turmushini o‘zida aks ettirgan “Shum bola” videofilmi berilgan. O‘quvchilar ushbu videofilmni tomosha qilish orqali o‘sha davr insonlarning ijtimoiy hayoti haqida tasavvurlarga ega bo‘ladi va urushning insonlar hayotiga salbiy ta’sirini anglaydi. “Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati” mavzusidagi “Mulohaza uchun” ruknida jadid namoyondasi Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatiga doir videofilm berilgan. Videofilmdan o‘quvchilar jadidchilar tomonidan xalqni ilm-ma’rifatli qilishga bo‘lgan harakatlari zamirida yangi usul maktablarini tashkil etilishi va ularda o‘qitiladigan fanlar haqida yanad ko‘proq bilimlarga ega bo‘ladi. “Turkistonda ilm-fan va madaniyat” mavzusidagi QR-kodda o‘quvchilar o‘zbek romanchiligi asoschisi, o‘zbek adabiyoti namoyondasi bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasini o‘qib, o‘sha davr jamiyat hayotiga baho beradi.

Yangi darsliklar orqali raqamli texnologiyalarni qo‘llanilishi o‘quvchilarning tasavvur olamini kengayishiga va ularning fanga nisbatan qiziqishini uyg‘otishiga yordam berishini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashabbusi bilan fan mutaxassislari ishtirokida O‘zbekiston tarixi fani mavzulari yuzasidan videokontentlar tayyorlanmoqda. Albatta, bu harakatlarning barchasi ta’lim tizimini sifat jihatidan yaxshilanishiga va o‘quvchilarda Vatanga muhabbat ruhini shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Tarix fani darsliklarida QR-kod manbalari orqali o‘quvchilarda quyidagi qobiliyat va ko‘nikmalarni rivojlanishini rag‘batlantiradi:

- O‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishi va mavzuni ongli o‘zlashtirishi;
- O‘quvchilar materialni tizimli, izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlari;
- O‘quvchi avvaldan olgan bilimlarini esga tushirishi, yangi bilimlarni mustahkamlanishi;

- Tarix darslarida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish orqali o‘quvchini mantiqiy fikr yuritishida qunt va irodasini tarbiyalash, nutq madaniyatini rivojlantirish, tegishli ko‘nikma va malakalarni amalda tahlil eta olishi;

- Tarix darslari jarayonida o‘quv materialining boshqa fanlar bilan aloqadorligi hisobga olinishi va mavzular bir-birini to‘ldirib, mustahkamlab borish.

- o‘quvchi nafaqat fanni chuqur o‘rganishga, balki o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’limda bunday raqamli texnologiyalardan foydalanib dars tashkilllashtirish xorijiy davlatlar tajribalaridan ham ko‘rib o‘tish mumkin. Jumladan, dunyo miqyosida ta’lim sifati yuqori deb tan olingan davlatlardan biri Finlandiya ta’lim tizimida tarixni o‘qitish va o‘rganishda asosan o‘quvchilar turli manbalardagi ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilishga e’tibor berishadi. O‘quvchilar, shuningdek, tarixiy tadqiqotlar asoslarini ko‘rib chiqishga qaratilgan bo‘lib, unga muvofiq mavjud dalillarga asoslanib, o‘tmish haqidagi eng ishonchli g‘oyalarni shakllantirishi lozim bo‘ladi. Finlandiya maktablarida ham raqamli texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Masalan, tarix darslarida, mavzularni tushuntirishda turli xil videoroliklar va video ko‘rinishidagi xaritalardan foydalaniladi, muzeylar hamda tarixiy hududlarga virtual sayohatlar tashkil etiladi. Maktablarda o‘quvchilarning mustaqil izlanishi, ya’ni o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan bilimlarni olishlariga keng imkoniyatlar yaratib beriladi, hamda o‘qituvchi bunda yo‘naltiruvchi vazifasini o‘tab beradi. Dasturning asosiy maqsadi, tarixiy shaxslar tomonidan taqdim etilgan manbalarni o‘qish va tahlil qilish, ularning mazmuni va ahamiyatini to‘g‘ri talqin qilishdan iborat. Tarixni o‘qitish o‘quvchilarga ijtimoiy qadriyatlarni yoki kamchiliklarni hamda ularni vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini tushunishga yordam beradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etish, birinchidan o‘quvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalariga oid bilimlarini o‘zlashtirishlariga, ikkinchidan, o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalana olishlariga; uchinchidan, mazkur egallangan bilim va ko‘nikmalar yordamida mustaqil fikrlashini shakllantirish imkoniyatini hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. – T.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-6008663?ONDATE=11.05.2022%2000

3. O‘zbekiston tarixi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf darslik / S. Tilabayev va boshqalar. – Yangi nashr. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

2-SHO‘BA. FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna
Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri v.v.b

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning maqsadi, vazifalari, fanni o‘qitishda bolalalarning psixofiziologik qobiliyatlari inobatga olingan holda yondashish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani, kompyuter, raqamli iqtisodiyot, raqamli salohiyat.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье показаны цель и задачи преподавания предмета “Информатика и информационные технологии” в начальных классах, способы подхода к предмету с учетом психофизиологических способностей детей.
Ключевые слова: начальная школа, наука “Информатика и информационные технологии”, компьютер, цифровая экономика, цифровой потенциал.

PECULIARITIES OF TEACHING THE SUBJECT "COMPUTER SCIENCE AND IT" IN PRIMARY SCHOOLS

Abstract. This article shows the purpose and tasks of teaching the subject “Computer Science and IT” in elementary school, and ways of approaching the subject taking into account the psycho-physiological abilities of children.
Keywords: elementary school, science “Computer Science and IT”, computer, digital economy, digital potential.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023–2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-son buyrug‘iga ko‘ra umumiy o‘rta ta’limning 1–4-sinflari uchun ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etildi. Unga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish yolga qo‘yildi.

XXI asrda dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasini shakllantirishda informatika va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanmagan holda tasavvur etib bo‘lmasligi hammamizga ma’lum.

Boshlang‘ich sinflardanoq “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘rganish atrof-olamning ko‘plab hodisa va jarayonlarini tushunish kalitini taqdim etadi. Informatika tomonidan ishlab chiqilgan ko‘plab qoidalar, umuman axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy taraqqiyotning eng muhim texnologik yutuqlarini yaratish va ulardan foydalanishning asosi hisoblanadi. Informatika fanida metafan maqomiga ega bo‘lgan ko‘plab faoliyat turlari va imkoniyatlar shakllanadi va ular o‘sib kelayotgan yosh avlodning “raqamli salohiyatini”ning asosini tashkil qiladi.

Jamiyatda boshlang‘ich umumiy ta’limning asosiy o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijalariga qo‘yiladigan talablariga muvofiq, o‘qitish mazmuni “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan o‘quvchilarning metafandan va fanlardan shaxsiy natijalarga erishishiga qaratilgan bo‘lishi shart.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini boshlang‘ich sinflarda o‘qitish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida nafaqat kasbiy salohiyatni, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlaydigan mutaxassisga xos bo‘lgan asosiy qobiliyatlarni mujassam bo‘lishini ham talab qiladi. Boshlang‘ich ta’lim keying ta’lim bosqichlari uchun poydevor hisoblanadi, shu bois kichik yoshdagi o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Boshlang‘ich sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani ikki jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Birinchisi, axborot olami, jonli tabiat, jamiyat va texnikadagi axborot jarayonlarining umumiyligi haqida yaxlit va tizimli qarashni shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida maktab o‘quvchilari insonning axborot faoliyati haqida zarur birlamchi tushunchalarni olishlari kerak.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning birlamchi bosqichidagi ikkinchi jihat – bu axborotni olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va foydalanish, o‘quv va amaliy muammolarni kompyuter va boshqa axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda hal qilish usullarini o‘zlashtirish va vositalarini ishlab chihiqishdan iborat. Bu jihat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini uzluksiz ta’limga tayyorlashda o‘quv axborot resurslaridan: musiqa kutubxonalari, video kutubxonalar, multimedia o‘quv dasturlari, boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha elektron ma’lumotnomalar va ensiklopediyalar, ijodiy va boshqa loyihaviy ishlarni amalga oshirishda faol foydalanish uchun tayyorlash bilan bog‘liq.

Shu munosabat bilan boshlang‘ich sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani kompleks xarakterga ega. Bir tomondan, nazariy va amaliy ravishda kompyutersiz o‘qitish amalga oshiriladi, bu insonning axborot faoliyati, ijtimoiy ahamiyatga ega axborot resurslarini (kutubxonalar, arxivlar, internet saytlari, elektron omborlar va boshqalar) tashkil etish to‘g‘risida birlamchi tushunchalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlar bilan ishlashning axloqiy va axloqiy me’yorlari haqida gapirganda esa, boshqa tomondan, foydalanuvchilarni amaliy o‘qitish va ularda kompyuter, AKTdan amaliy muammolarni hal qilish uchun foydalanish to‘g‘risida birlamchi g‘oyalarni shakllantirish muhimligini qayd etish joiz.

Shunday qilib, boshlang‘ich maktabda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishdan asosiy maqsad – raqamli iqtisodiyot amal

qilishi sharoitida jamiyat talablariga javob beradigan zaruriy shaxsiy xislatlarni, jumladan, quyidagi raqamli salohiyat asoslarini o‘quvchilarga singdirish muhim vazifa hisoblanadi:

- o‘quvchilarda axborot haqidagi, jonli tabiat, jamiyat, texnikadagi axborot jarayonlarining umumiyligi haqidagi g‘oyalar yaxlitligini anglash tasavvurlarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda raqamli jamiyatda shaxsning xavfsiz axborot faoliyati qobiliyatini shakllantirish;
- o‘quvchilarda axborotni olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va undan foydalanish, kompyuter va boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘quv va amaliy masalalarni hal qilish usullari va vositalaridan foydalanish qobiliyatini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan natijalarga erishishga qaratilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilar har bir dars mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarning mohiyatini tushunishi;
- o‘quvchilar axborot, kompyuter va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ishlashning xavfsiz va samarali modelini tushunishi;
- dars jarayonida qo‘llanadigan zamonaviy metodlar va o‘quv qo‘llanmalarini qo‘llash orqali o‘quvchilar dunyoqarashni kengaytirish;
- o‘quvchilarda algoritmik va tanqidiy fikrlash (axborotni tahlil qilish, sintez qilish, tasniflash hamda umumlashtirish) qobiliyatini rivojlantirish;
- o‘quvchilar muammoli ta’lim (muammo, faraz, yechim variantlari) qobiliyatini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kun bolalari raqamli dunyoda yashar ekanlar, bu erta yoshdan boshlab raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug‘i.
2. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Toshkent – 2023.

YOSH MAKTAB O‘QUVCHILARINING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI

Raxmonova Dilfuza Maxmudovna, Hamdamova Adolat
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi; Sport faoliyati va pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya – *maqolada maktab o‘quvchilarining intellektual rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga maktab o‘quvchilarining intellektual rivojlanishida badiiy adabiyotning o‘rni ham batafsil tushuntirilgan, bilim salohiyatini rivojlantirishda muhim omillar sanab o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktab o‘quvchilarini, intellektual rivojlanish, badiiy adabiyot, nutq, savodxonlik, axloqiy tarbiya.*

Abstract *- the article provides general information about the factors affecting the intellectual development of schoolchildren. At the same time, the role of fiction in the intellectual development of schoolchildren is explained in detail, important factors in the development of knowledge potential are listed.*

Key words: *schoolchildren, intellectual development, fiction, speech, literacy, moral education.*

Аннотация *- в статье даны общие сведения о факторах, влияющих на интеллектуальное развитие школьников. При этом подробно объясняется роль художественной литературы в интеллектуальном развитии школьников, перечисляются важные факторы развития познавательного потенциала.*

Ключевые слова: *школьники, интеллектуальное развитие, художественная литература, речь, грамотность, нравственное воспитание.*

I. Kirish

Axborot va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli bugungi kunda badiiy adabiyotga qiziqish pasaymoqda. Bolalar o‘qishni xohlamaydilar. Binobarin, nutq, savodxonlik, axloqiy tarbiya, ta’sir doirasi, eng muhimi, intellekt zarar ko‘radi. Kichik maktab o‘quvchilarining aqliy rivojlanishidagi badiiy adabiyotning roli mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan juda ehtiyotkorlik bilan va mazmunli o‘rganilganligi bejiz emas: N.N. Cherevichnaya, V.P. Yagunkova, A.V. Piontek, Z.N. Klopertanets, P.M. Jeykobson, G. Neal va boshqalar.

A.S.Makarenko ta’kidlagani bejiz emas: “Bu davr bola hayotida katta ahamiyatga ega. Bola kitob va bosma so‘z maydoniga kiradi, ba’zida u istamay kiradi va xat va o‘qish jarayoni unga tug‘diradigan texnik qiyinchiliklarni yengishda qiynaladi”. O‘qishga bo‘lgan ishtiyoq hayotning birinchi yillaridanoq bolalarga hamroh bo‘ladi va adabiyot bilan tanishish natijasi maktabgacha yoshda olingan syujetlar va rollarning hissiy tajribasiga asoslanadi.

II. Asosiy qism

O‘qishga bo‘lgan ishtiyoq, o‘qishga doimiy qiziqish oilada shakllanadi va uning asosini bolaning o‘qish odati tashkil etadi. Ko‘pgina o‘qituvchilar kichik maktab o‘quvchilarida she’riy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish muvaffaqiyati ota-onalarning ushbu muammoni hal qilishdagi ishtirokiga bog‘liqligiga aminlar. Bolalar “o‘qish” muhitini, kitob muhitini talab

qiladi. Faqat shu asosda o‘qish istagi paydo bo‘ladi. Bolalar mutolaasi tadqiqotchilarining ta’kidlashicha, adabiy ijod bolaga o‘zining syujeti va she’riy shaklining yaxlitligida namoyon bo‘ladi. Agar bola adabiy asarga moyil bo‘lsa, uning idroki yuz foiz bo‘ladi.

Buning uchun bolalar e’tiborini nafaqat syujetga, balki ertak, hikoya, elegiya va boshqa she’riy adabiyot asarlari tilining intellek usullariga ham qaratish kerak. Vaqt o‘tishi bilan kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida adabiy asarlarga nisbatan ustuvor munosabat, shuningdek, she’riy did paydo bo‘ladi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy asarlarni o‘qish doimo kognitiv, estetik va tarbiyaviy funktsiyalarni bajaradi va bolaning hissiy sohasini, axloqiy va estetik ideallarini, qarashlari va munosabatlarini shakllantiradi.

Ularning bugungi muvaffaqiyati va ertangi taqdiri, umuman olganda, mamlakatning taqdiri, uning kelajagi bolalarning o‘qishi, nimani va qanday o‘qishiga bog‘liq. Bolalar kitobxonligi mamlakatning intellectual resursi, xalqning insoniy salohiyatini rivojlantirishning asosiy zaxirasi deb ataladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, imkon qadar ertaroq kitob va o‘qish bilan tanishtirish kerak – bilim, g‘oyalar, donolik va tajribalar ombori. Boshlang‘ich maktab ta’limning umumiy asosiy maqsadi – o‘quvchi shaxsini shakllantirishni birinchi bo‘lib amalga oshira boshlaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, she’riy adabiyotlarni o‘qish estetik saodatga ega bo‘lishga yordam beradi va shuning uchun yosh o‘quvchini hissiy jihatdan tarbiyalaydi.

Sensor taassurotlar tufayli intellektual idrok ham aniqlanadi. Shu munosabat bilan, O.V.Tkachenko, badiiy asarlarni o‘qish quyidagi muammolarni hal qiladi, deb hisoblaydi: bolaning dunyoqarashi kengayadi va chuqurlashadi, uning bilimi va hissiyotlari boyib boradi; kitob orqali bolaga tarbiyaviy ta’sir kuchayadi; kitoblar tilni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Muallifning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishga adabiyotning ta’siri idrok orqali amalga oshiriladi. Idrok tushunish bilan chambarchas bog‘liq – o‘quvchi idrok etgan narsalarni tahlil qilish va sintez qilish orqali erishiladigan badiiy obrazning mohiyatini tushunish.

Badiiy adabiyotni bilish bolaning ijodiy moyilligini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotni idrok etish chuqurligi badiiy obrazni badiiy adabiyot yordamida yaratilgan va estetik ahamiyatga ega bo‘lgan inson hayotining umumlashtirilgan tasviri sifatida tushunishni aks ettiradi. Adabiy ma’lumotlar va o‘z kuzatishlarimiz tahlili she’riy adabiyot ko‘p qirrali rivojlanish vositasi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlash imkonini beradi.

Badiiy adabiyot o‘qish tufayli, deb ta’kidlaydi I.N.Chakova, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi nutqini rivojlantiradi, so‘z boyligini boyitadi, bu esa o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ifodalashga, boshqalarning gaplarini tushunishga, gaplarni ma’noli qurishga yordam beradi. Badiiy adabiyot asarlarini o‘qish jarayonida, deb ta’kidlaydi tadqiqotchi, bolada mantiqiy fikrlash rivojlanadi, o‘ziga xos tushuncha va g‘oyalar shakllanadi; u mavhum tushunchalarni o‘rganadi va o‘z dunyosi ufqlarini kengaytiradi, hayotni tushuntirishga va bir hodisaning boshqa hodisa bilan bog‘liqligini ko‘rishga o‘rganadi, bu esa voqelikni bilishni ta’minlaydi.

Badiiy adabiyotni o‘qish ijodiy tasavvurni uyg‘otadi, tasavvurni ishlashga

imkon beradi va bolalarni tasvirlarda fikrlashga o‘rgatadi. Kitob o‘qish kognitiv qiziqishlarni rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Bola o‘zini qiziqtirgan hamma narsani kitoblardan o‘rganadi. She’riy adabiyot obrazli xotiraning rivojlanishiga va ish xotirasining takomillashishiga va diqqatning barqarorligiga ta’sir qiladi, bu aqliy faoliyatga bog‘liq. Badiiy adabiyot bilan tanishish orqali bolalarda faollik, qiziquvchanlik, umumiy madaniyat va bilimdonlik rivojlanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining aqliy rivojlanishida she’riy adabiyotning o‘rni inkor etib bo‘lmaydi. Biroq, shu bilan birga, zamonaviy bolalar tomonidan kitob o‘qish muammosi paydo bo‘ladi. Pedagoglar, psixologlar, filologlar televidenie asrida kitoblar bilan muloqot video va kompyuter mahsulotlarini tomosha qilish bilan almashtirilayotganidan xavotirda. Boshlang‘ich maktabda bu muammoni hal qilishga alohida e’tibor berilishi kerak, chunki adabiyotga barqaror qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. Bolani bosma so‘z bilan tanishtirishda ko‘p narsa kattalarga, shu jumladan o‘qituvchiga bog‘liq. O‘quvchining kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi, qobiliyati va barqaror odatini shakllantirishda o‘qituvchining yordami uning kelajakdagi hayoti uchun nihoyatda muhim bo‘lib, uning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadi, bilimdonlik va umumiy madaniyatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, kitob o‘quvchilarning o‘zlari haqida o‘ylash, kuchli va zaif tomonlarini, talab va intilishlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan haqiqiy vositaga aylanadi. Pedagogik psixologlar uzoq vaqtdan beri «yaxshi o‘qigan» bolalarda og‘zaki va yozma nutqda savodxonlik bilan bog‘liq muammolar kamroq ekanligini isbotladilar. Ayni paytda, «tug‘ma savodxonlik» deb ataladigan narsa ham insonning yaxshi o‘qiganligining natijasi ekanligi isbotlangan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, o‘qish jarayonida vizual xotira so‘zlarning vizual tasvirlarini yozib oladi va yozish paytida bu tasvirlar avtomatik ravishda «boshida paydo bo‘ladi» va odam hech ikkilanmasdan to‘g‘ri yozadi va qog‘ozdagi imlo xatolarini darhol payqaydi.

Shu munosabat bilan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatidagi asosiy maqsad bolalarni kitob va she’riy adabiyot sohasi bilan tanishtirish, o‘qishga qiziqishni, ertak, she’r, hikoyalar tinglashga ishtiyoqini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich maktab yoshida bolalar ertak, hikoya, bolalar qofiyalarini diqqat bilan tinglashni, shuningdek, ertakdagi syujetning rivojlanishini kuzatishni, qahramonlar haqida qayg‘urishni o‘rganishlari kerak. Boshlang‘ich maktab yoshida hissiy intellect deb ataladigan hissiy sohaning juda tez rivojlanishi mavjud. Boshlang‘ich maktab yoshining ana shu xususiyatiga katta e’tibor berib, o‘qituvchi o‘qishga qiziqishni rivojlantirish borasidagi ishida yuqori samaradorlikka erisha oladi.

III. Xulosa

She’riy adabiyot ko‘p qirrali rivojlanish vositasi bo‘lib xizmat qiladi: u xotirani, nutqni, ijodiy tasavvurni rivojlantiradi, bolalarni tasvirlarda fikrlashga o‘rgatadi, ularning so‘z boyligi va dunyoqarashini kengaytiradi. Shuningdek, majoziy xotira operativ xotirani va diqqatning barqarorligini rivojlantiradi va yaxshilaydi, aqliy faoliyat bunga bog‘liq. Badiiy adabiyot bilan tanishish orqali bolalarda faollik, qiziquvchanlik, umumiy madaniyat va bilimdonlik rivojlanadi. Yosh maktab o‘quvchilari kitoblar odamlar hayotida alohida ma’noga ega

ekanligini, kitob o‘qishga qiziqish har bir inson madaniyatining zarur elementi ekanligini tushunishlari kerak. Bu o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Shular munosabati bilan o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarni badiiy adabiyot o‘qishga jalb etishlari va rag‘batlantirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vasinskaya N.V., Shcherbinina N.A. Samarali o‘qish texnologiyasi // Tr. xalqaro konf. “Pedagogika va psixologiya shaxsiyatni rivojlantirish muammolarini zamonaviy tadqiqotlar kontekstida”. – Maxachqal’a, 2014. - 33–34-betlar.
2. Isaeva O.V., Slon O.V. Samarali o‘qish kichik maktab o‘quvchisining shaxsiy yutuqlarini rivojlantirish usuli sifatida // Fundamental tadqiqotlar. - 2014. - No 9–10. - 2308–2311-betlar.
3. Maksimova A.A., Savvinova R.V. Kichik maktab o‘quvchilarining o‘qish faoliyatini rivojlantirish // Tr. xalqaro konf. “Zamonaviy dunyoda ilmiy izlanish”. - Saratov, 2014. - 178–179-betlar.
4. https://moluch.ru/archive/102/23242/ (дата обращения: 31.01.2024).

СУЩНОСТЬ ИНТЕГРАЦИИ УЧЕБНОГО ПРЕДМЕТА «ТЕХНОЛОГИЯ» С ДРУГИМИ УЧЕБНЫМИ ПРЕДМЕТАМИ

Балтабаев Жаксылык Оразбаевич, Жумабаев Жаксылык Базарбаевич
PhD. НГПИ им. Ажинияза; ассистент, НГПИ им. Ажинияза

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimini isloh qilish, umumta’lim maktablarida integratsiyalashgan darslarni joriy etish, "texnologiya" fanining bloklari va modullarini boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim tizimi, o‘quv jarayoni, integratsiya, integratsiyalashgan dars, fanlararo aloqa, "texnologiya" fani.

Аннотация. В данной статье даны реформированию системы образования Узбекистана, рекомендации по внедрению интегрированных уроков в общеобразовательных школах, взаимной интеграции блоков и модулей предмета «технология» с другими учебными предметами.

Annotation. This article provides reform of the education system of Uzbekistan, recommendations for the introduction of integrated lessons in secondary schools, mutual integration of blocks and modules of the subject “technology” with other academic subjects.

Ключевые слова. Система образования, учебной процесс, интеграция, интегрированный урок, межпредметных связь, предмет «технология».

Keywords. Education system, educational process, integration, integrated lesson, interdisciplinary communication, subject “technology”.

В настоящее время общество нуждается в школе, которая может подготовить делового современного человека, отличающегося высоким уровнем творчества и профессионализма, обладающего нравственной позицией, широтой компетенции.

Уже стало очевидным то, что традиционная система образования, реализующая лишь стандартные и однотипные образовательные программы, всё больше и больше входит в противоречие с объективной реальностью – тенденцией расширения образовательного спроса людей различных социальных категорий, уровней и групп. Поэтому основной задачей образования на современном этапе является формирование конкурентоспособной личности. Новые образовательные стандарты, направлены именно на реализацию этой задачи. Перед школой возникает необходимость перестраивать учебный процесс в соответствии с запросами общества.

Государственный образовательный стандарт Узбекистана предполагает не только формирование у обучающей универсальных учебных действий, но и требует от учителя компетентности, педагогического мастерства, рефлексивной составляющей своего самообразования. Без такой обширной теоретической базы у ученика трудно развить познавательный, исследовательский потенциал к учебной деятельности. Одним из таких новшеств современной методики является интегрированный урок. Эта

технология активно внедряется в школьные программы и связывает, на первый взгляд, несовместимые предметы [1].

Задачу использования межпредметных связей в учебном процессе в разные периоды выдвигали Коменский Я.А., Локк Д., Гербарт И., Дистервег А., Ушинский К.Д. В современной педагогике имеется более 40 определений категории межпредметные связи.

Г.Ф. Федорц предлагает такое определение: «Межпредметные связи есть педагогическая категория для обозначения синтезирующих, интегративных отношений между объектами, явлениями и процессами реальной действительности, нашедших свое отражение в содержании, формах и методах учебно-воспитательного процесса и выполняющих образовательную, развивающую и воспитательную функции в их органическом единстве».

Средства реализации межпредметных связей могут быть различны: вопросы, наглядные пособия, тексты, проблемные ситуации и познавательные задачи, конференции, «интегрированные» учебные дни, факультативные занятия и олимпиады [3].

Особенно эффективным средством реализации межпредметных связей является интегрированный урок. Многие общеобразовательные предметы имеют интегративный характер, в том числе и предмет «Технология».

Интеграция ускоренно моделирует личность, служит импульсом мироощущения учащихся, перестраивает мышление учителей, расширяя их научный диапазон [2].

Интегративные связи отдельных блоков и модулей предмет «Технология» с другими общеобразовательными предметами.

Название основных блоков и модулей предмет «Технология»	Интеграция с предметами
Основы домоводства, технология обработки материалов (металлы, древесины, полимеры, ткани и др.)	ИЗО, графика, химия, физика, биология, литература, история и др.
Производство и окружающая среда	Биология, экология, физика, химия, география и др.
Электротехника, робототехника	Физика, информатика, математика, история и др.

Можно указать следующие несколько способов интеграции:

Математика: Учащиеся могут использовать математические навыки для измерения ингредиентов в кулинарных проектах или для расчета размеров и пропорций в дизайне одежды или строительстве.

Искусство и дизайн: Учащиеся могут применять технологические навыки для создания цифровых и художественных проектов, таких как анимация, графический дизайн.

История и обществознание: Учащиеся могут исследовать историю развития технологий в различных обществах и их влияние на культуру, экономику и политику.

Языки и литература: Интеграция технологии может включать создание мультимедийных презентаций, цифровых историй или блогов на иностранном языке.

В месте вывода можно сказать, что интеграция учебного предмета «технология» с другими предметами может быть очень продуктивной, поскольку она помогает учащиеся увидеть связи между различными областями знаний и применить их на практике.

Используемые литературы

1. Бабина С.Н. интегрирующая и систематизирующая функции образовательной области «Технология»./Наука и школа 2002.-№1 -40-41.

2. Гурьев А.И. Статус межпредметных связей в системе современного образования./Наука и школа 2002 № 2.

3. Груздева.Н.В. Возможности интегрированного курса «Окружающий мир: мироздание» в развитии экологической культуры школьников/Наука и школа 1997 №6

INTEGRALLASHGAN TA’LIM MUHITIDAN FOYDALANISH ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Lutfillayev M.X.[1], Lutfillayev U.M.[2], Chorshanbiyev Ch.I.[3]
[1]Samarqand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, [2]Samarqand davlat universiteti doktoranti, [3]Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi elektron qo‘llanmalar, virtual stendlar, masofaviy ta’lim, virtual kutubxona va virtual o‘qitish kabi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat kompleks pedagogik tizimning paydo bo‘lishiga bog‘liq yechimlar yoritilgan. Bu tizimda, o‘z navbatida, ta’lim maqsadlari, shakllari, usullari, vositalari, ta’lim oluvchi, o‘qituvchi kabi boshqa komponentlar bilan mustahkam aloqaga kirishib, tizim oldiga qo‘yilgan umumiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal eta oladigan pedagogik ta’limning tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan.

Abstract. In this article, illuminated today’s rapid development of information technology solutions depend on the emergence of a complex pedagogical system consisting of interrelated components such as electronic manuals, virtual stands, distance learning, virtual library and virtual teaching. In this system, in turn, the components of pedagogical education that can successfully solve the general tasks set before the system, entering into a strong relationship with other components such as educational goals, forms, methods, tools, learner, teacher, etc.

Аннотация. В данной статье освещено, что современное развитие информационных технологий зависит от появления сложной педагогической системы, состоящей из взаимосвязанных компонентов, таких как электронные пособия, виртуальные стенды, дистанционное обучение, виртуальная библиотека и виртуальное обучение. В этой системе, в свою очередь, выделяются те компоненты педагогического образования, которые могут успешно решать общие задачи, поставленные перед системой, вступая в прочную взаимосвязь с другими компонентами, такими как образовательные цели, формы, методы, средства, обучающийся, педагог и т. д.

Kalit so‘zlar. Pedagogik tizim, elektron qo‘llanma, virtual stend, axborot texnologiyalari, virtual kutubxona, virtual o‘qitish, masofaviy ta’lim.

Keywords. Pedagogical system, electronic manual, virtual stand, information technologies, virtual library, virtual teaching, distance education.

Ключевые слова. Педагогическая система, электронное пособие, виртуальный стенд, информационные технологии, виртуальная библиотека, виртуальное обучение, дистанционное образование.

Integrallashgan ta’lim ma’lumotlar muhitidan foydalanish, o‘quv-uslubiy tomondan qo‘llab-quvvatlanadigan o‘quv jarayoni va masofadan o‘qitish usullari, talabaga to‘liq javob beradigan o‘qitish tizimini shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga, talabalarda mustaqil shug‘ullanish uchun ko‘nikma paydo bo‘lishiga, o‘qish shakliga bog‘liq holda ma’lumotlar muhitini yengil tashkil qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuni ta’kidlash lozimki bugungi kunda axborot texnologiyalarini jadal suratlar bilan rivojlanishi elektron qo‘llanmalar, virtual stendlar, masofadan o‘qitish, virtual

kutubxona va virtual o‘qitish kabi bir-biri bilan bog‘liq komponentlardan tashkil topgan yaxlit pedagogik tizimni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu tizim, o‘z navbatida, o‘zidan kattaroq pedagogik ta’lim tizimining komponenti bo‘lib, uning ta’lim maqsadi, shakllari, metodlari, vositalari, ta’lim oluvchi, ta’lim beruvchi kabi boshqa komponentlari bilan mustahkam o‘zaro aloqaga kirisha oladi va tizim oldiga jamiyatimiz tomonidan qo‘yilgan umumiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga o‘zining hissasini qo‘shadi.

Mazkur pedagogik tizim xuddi boshqa dinamik ravishda rivojlanib borayotgan ochiq tizimlar kabi uni takomillashtirishga qaratilgan barcha innovatsiyalarni o‘ziga qabul qilish xususiyatiga ega. Axborot texnologiyalari vositalarini o‘qish-o‘qitishga joriy etish jarayoni integrativ xarakterga ega. Integratsion jarayonning muvaffaqqiyatli o‘tishi uchun unga kerak bo‘lgan sharoitni aniqlash katta ma’noga ega. Bu yerda, muhim jihat shundan iboratki, mazkur integratsion tizim doirasidagi elementlarning bir-biriga mos kelishi va ularning tizimli rivojlanish jarayonida nazariy jihatdan moslashganligi asosiy o‘rin tutadi.

Integratsion tizim elementlarining qo‘shimcha mosligi sifatida aytish mumkinki, har xil elementlarning o‘zaro bir-birini to‘ldirish evaziga yagona yaxlit tizim sifatida tarkib topishi nazarda tutiladi. Ularning funktsional mosligi bo‘lsa, integratsion tizimning shakllanish jarayonidagi shunday mosligini bildiradiki, bu yerda har bir navbatdagi bosqich keyingi bosqichga ma’lum bir darajada bog‘liq bo‘ladi. Shu bois axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida yaratilgan pedagogik tizimning tarkibini, komponentlarini, ularning o‘zaro aloqalarini va hakazolarni qarashga o‘tamiz.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida tashkil bo‘lgan pedagogik tizimning o‘zagini elektron qo‘llanmalar va virtual stendlar tashkil etadi. Shu bois elektron qo‘llanmalar va virtual stendlarni o‘quv jarayoniga qo‘llashning o‘ziga xos jiatlariga to‘xtalib o‘tamiz. EQ haqida gapirilganda, ularning psixologik, estetik, gigenik, va tibbiy-psixologik tomonlarini ham e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Buning sababi inson organizmi elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlarni qabul qilishda o‘ziga xos xususiyatlarni talab qiladi. Ma’lumotlarni qabul qilishga uning faqat mazmuni emas, balki o‘lchami, harflarning ko‘rinishi, rangi va tasvirning harakati kabi faktorlar ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun elektron qo‘llanma (EQ) ning matni muayyan xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Talabalarning ma’lumotlarni qabul qilishda EQ dagi o‘ziga xos xususiyatlar, ya’ni o‘chib-yonish, rangni ajratib ko‘rsatish, tagiga chizib qo‘yish, ovoz kabi vositalar ta’sir etishi tabiiydir.

EQ larni o‘quv jarayoniga qo‘llash o‘qituvchilar, talabalarga bir qator afzaliklar yaratadi. EQ va virtual stend (VS) lar yordamida dars o‘tish birinchidan, o‘qituvchilar uchun o‘quv-materiallarini, mavzular bo‘yicha savol-javoblarni tayyorlash, nazariy materiallarga doir amaliy mashg‘ulotlarini tanlash, laboratoriya mashg‘ulotlariga tegishli ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, ikkinchidan dars jarayonida mavzuga tegishli ob’ektlar uchun yaratilgan kompьyuter imitatsion modelidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. EQ lar va VS lar yordamida dars o‘tishning yana bir afzallik tomonlaridan biri talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini, faolligini oshishi, aqliy rivojlanish va ongli ravishda munosabatda

bo‘lishini ta’kidlash lozim. EQ va VS lar yordamida dars tashkil etilishi o‘qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqishni takozo etadi. Bu yerda o‘quv materialining mazmuni jihatdan va mantiqiy mulohazaning yangi usul va vositalarini shakllantirish murakkab bo‘lishi mumkin. Talabalarni sezgi organlari orqali bilishga o‘rgatish va o‘quv jarayonida ko‘rgazmali qurollardan iloji boricha ko‘proq foydalanish EQ va VS lar aosida dars o‘tishning muhim talablaridan biridir. Talabaning o‘quv mashg‘ulotlariga ongli munosobatda bo‘lishi, o‘quv materiali mazmunini ongli ravishda tushunishi, undagi bilish faolligi va qiziqish darajasining o‘sishi o‘qituvchining yaratayotgan ko‘rsatmali quroli-kompyuterdagi imitatsion modeli va uni o‘qituvchi tomonidan naqadar tushuntirish metodlariga bog‘liq. Ta’lim metodlari oldiga qo‘yiladigan talablardan yana biri bilimlarni asosi va puxta bo‘lishidir. EQ va VS lar yordamida o‘quv jarayoni tashkil etishda talabalarni o‘zlashtirish usullari rejalashtirilgan ya’ni mo‘ljallangan natijani berishi kerak.

Ta’lim usullaridan talablarni bilish faoliyati shakllarni shaxsga yo‘naltirish va guruhlash talab qilinishi sababli EQ lar va VS lar bu ishlarni amalga oshirishda juda qo‘l keladi. Bu degan so‘z EQ va VS lardan talabalar mustaqil shug‘ullanishliklari natijasida olingan bilimlar asosida darsga faol ishtirok etishliklari va baxs munozoraga tayyor holda kelishlariga zamin yaratiladi. EQ va VS lar yordamida dars o‘tishning yana eng muhim jihatlaridan biri nazariya bilan amaliyotini birga qo‘shib olib borish orqali ta’lim metodlarida ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishdir.

Ma’lumki, talabalarga ta’lim berishning muayyan yo‘llarini taklif qilganda masalaga bir yoqlama qarab yo faqat nazariyaga yoki faqat amaliyotga asoslanish yaramaydi. O‘qitish metodlarini nazariy asoslaganda amaliy maqsadlarni ko‘zlash kerak. Amaliy tavsiyalar, maslahatlar, fikrlar, ilmiy, nazariy jihtdan asoslangan bo‘lishi kerak. EQ va VSlar asosida ta’lim berishda yuqorida ta’kidlangan fikrlarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa qilib aytish mumkinki, axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashning o‘ziga xos jihatlaridan biri uning asosida o‘quv materiallarini компьyuterda imitatsion modelini yaratish va bunda pedagogik va psixologik tomonlarini e’tiborga olib tatbiq etish lozim ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Teshabaev T,, Gulyamov S.S. Xaitmatov Yu.T., Ayupov R.X. Osnoviy sifrovoy ekonomiki i programmirovaniya: Annotirovanniyy slovar. Tashkent. 2021 OOO « Period Najimat Torgovlya », 15,5 b.t.

2. Gulyamov S.S., Shermuxamedov A.T., Xayitmatov U.T. Statisticheskiy analiz sifrovoy ekonomiki v Uzbekistane: «Aktualniye voprosiy ekonomicheskoy effektivnosti sifroviyx i innovatsionniyx texnologicheskix i transportniyx sistem v Uzbekistane». Sbornik statey respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. Tashkent, 2021, ul. 6-11.

3. Gulamov S.S., Shermuxamedov A.T., Xaitmatov U.T. Metodologicheskie aspektiy statisticheskogo analiza sifrovoy ekonomiki v Uzbekistane. // Mejdunarodniyy nauchniyy jurnal «Teoreticheskaya i prikladnaya nauka». 2021, Viypusk 03, Tom – 70-76 s. SKOPUS 2.0

4.https://pikabu.ru/story/kak_iskusstvennyy_intelekt_mozhet_izmenit_mir_805683

5. https://gb.ru/blog/sfery-primeneniya-iskusstvennogo-intellekta/

6. https://www.google.com/search?

7. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a32

8. Dyachenko S.A. Ispolzovanie integrirovannoy simvolnoy sistemiy Mathematica pri izuchenii kursa viysshey matematiki v vuze. http://www.exponenta.ru/educat/news/avtoref/1/asp

9. Egorova Yu.N. Multimedia kak sredstvo obucheniya v obsheobrazovatelьnoy shkole: Dissertatsii na soiskanie ucheniy stepeni kand. ped. nauk. –Cheboksariy: 2000. –137 s.

10. Efimenko V.N., Konovalov S.N. “Ispolzovanie texnologiy distantsionnogo obrazovaniya v uchebnom protsesse severo-kavkazskogo filiala moskovskogo texnicheskogo universiteta svyazi i informatiki”, Severo-Kavkazskiy filial Moskovskogo texnicheskogo universiteta svyazi i informatiki, g.Rostov-na-Donu. http://ito.edu.ru/2003/III/2/III-2-1894.html

11. Zaynutdinova L.X. Sozdanie i primenenie elektronniyx uchebnikov na primere obщetexnicheskix distsiplin. –Astraxan: 1999. – 357 s.

12. Zaytseva J.N., Soldatkin V.I. Genezis virtualьnoy obrazovatelьnoy srediy na osnove intensifikatsii informatsionniyx protsessov sovremennogo obщestva // J. Informatsionniye texnologii. -2000. -№3. -C. 44-48.

13. Zmitrovich A.I. Intellektualьniye informatsionniye sistemiy. –Mn.: NTOOO "TetraSistems", 1997. –368 s.

14. Iskusstvenniyy intellekt: V 3-x kn. Kn.1. Sistemiy obщeniya i ekspertniye sistemiy: Spravochnik / Pod red. E.V.Popova. –M.: Radio i svyaz, 1990. –464

INTEGRATION OF DISCIPLINES IN THE TRAINING OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

M.K.Kamilova, S.T.Eshanova
Nukus State Pedagogical Institute email:marjan.kamilova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limni takomillashtirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida texnologik ta'lim fanlarini integratsiyalash masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, kasbiy va shaxsiy rivojlanish, fanlararo integratsiya

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности междисциплинарной интеграции в улучшении образования. Рассмотрены вопросы интеграции предметов технологическое образования в педагогических вузах.

Ключевые слова: интеграция, профессиональное и личностное развитие, междисциплинарная интеграция

Abstract: This article provides information on the importance of interdisciplinary integration in improving education. The issues of integration of technological education subjects in pedagogical universities are considered.

Key words: integration, professional and personal development, interdisciplinary integration

Today, there is a growing need for personnel who can quickly and competently navigate the constantly changing demands of society. Therefore, in modern educational institutions, education is aimed at developing the training of competitive, competent specialists in accordance with the requirements of the economy and labor market.

One of the most important methodological foundations of science, along with the use of modern technologies in preparing students, promotes interdisciplinary integration as a necessary educational process.

Integration is the unification, interpenetration, synthesis of sciences and scientific disciplines, combining them into a single whole. Integration is one of the most actively developing features of various spheres and processes of the modern world.

The introduction of interdisciplinary integration is associated with an increase in the volume of academic subjects, which in no way affects the decrease in knowledge acquired by the student and personal development.

This helps to form a holistic worldview of students and preserve a creative, emotional and value-based culture of thinking.

Integration eliminates repetition of topics, saves time, and provides a complete and clear explanation of the main or additional phenomena and processes presented in given topics in different disciplines. Therefore, an important task in the educational field of "Technology" is the organization of a set of educational disciplines that ensures the achievement of personal, scientific and interdisciplinary educational results.

The connection between academic subjects is one of the most important

fundamental requirements of modern didactics.

It is possible to show the integration of the discipline of training bachelor students in the direction of "Technological Education":

1. Electrical engineering, electronics and electric drives and alternative energy sources;

2. Robotics and mechatronics;

3. Food processing and basic home economics and others.

In the integration of some disciplines, the regional and national aspects can be taken into account. The culture of each nation has a beneficial effect on the spiritual and moral formation and development of the personality of students.

Discipline integration reduces the number of subjects that students have to study and allows them to have a clear understanding of the same topic or phenomenon.

Despite the undeniable effectiveness of using integration between various academic disciplines and courses being studied, the university teacher himself intuitively determines the extent of its reasonable application in a specifically chosen lesson[i].

In conclusion, in the field of technology education, the scope of training for students in vocational and technical sciences should cover a wide range of subjects. When reducing the volume of subjects studied through integration, it is necessary to take into account the technical, professional orientation and national craft.

BIBLIOGRAPHY:

1. Kulikova Victoria Viktorovna, Volivok Olga Aleksandrovna "Integration of science and education at a university using the example of scientific and educational groups" ANI: pedagogy and psychology. 2021. No. 2

2. Pelenkov A. I., Lobanova O. B., Kolokolnikova Z. U. Methods of integrating educational disciplines in the professional training of students of a pedagogical university // Man and language in the communicative space: a collection of scientific articles. Publishing house Sib. Federal University. – 2017. – No. 8. – P. 272.

FAZOVIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA CHIZMACHILIK FANINING AHAMIYATI

F.N.Alkarova

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot bo‘limi yetakchi mutaxassisi, p.f.f.d. (PhD). (e-mail: alkarovaf@gmail.com)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chizmachilik fanining o‘quvchilarda fazoviy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati, grafik savodxonlikning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi zaruriyati haqida so‘z boradi. Raqamlashgan dunyoda o‘quvchilarda grafik savodxonlikni shakllantirishning dolzarb muammolari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *chizma, sxema, shartli belgilar, grafik savodxonlik, fazoviy tafakkur, muhandislik, eskiz, texnik rasm, texnik hujjatlar.*

Аннотация. *В данной статье говорится о значении предмета черчения в развитии пространственного мышления учащихся, необходимости графической грамотности в успешном осуществлении профессиональной деятельности. Обсуждаются актуальные проблемы формирования графической грамотности учащихся в цифровом мире.*

Ключевые слова: *чертеж, схема, условные знаки, графическая грамотность, пространственное мышление, инженерное дело, эскиз,технический рисунок, техническая документация.*

Abstract. *This article talks about the importance of the subject of drawing in the development of spatial thinking of students, the need for graphic literacy in the successful implementation of professional activities. Current problems of developing students’ graphic literacy in the digital world are discussed.*

Key words: *drawing, diagram, symbols, graphic literacy, spatial thinking, engineering, sketch, technical drawing, technical documentation.*

Asrlar osha qad rostlagan me’morchilik obidalariga nazar solar ekanmiz, ajdodlarimiz ilm-fan va tafakkurda qanchalik yuqori cho‘qqilarni zabt etganlarini tushuna boshlaymiz. Xeops piramidasi dunyoning hozirgi kungacha saqlanib qolgan yagona mo‘jizasi hisoblanadi, uning yoshi taxminan 4500 yil deb hisoblab kelinadi. Olimlarning yozishlaricha, Misr ehromlari o‘ta haybatli, har birining og‘irligi 2 tonnadan ortiq bo‘lgan taxminan 2 million ohaktosh bloklaridan qurilgan ekan. Bu harsanglar orasi shunchalar zich terilganligidan biron tirqish yo‘q ekan.

2017 yilda bir guruh arxeologlar tomonidan Xeops piramidasini qurish rejasi tasvirlangan va batafsil bayon etilgan qadimiy papirus topilgan. 2022-yilning avgust oyida esa Fransiyaning Eks-Marsel universiteti tadqiqotchilari bahaybat bloklarni tashishda misrlik muhandislar Nil daryosi va uning yillik suv toshqinlaridan foydalanganliklarini, ular kanallar va havzalarning sun’iy tizimini ishlab chiqqanliklarini aniqlaganlar. Bu qadimda fizik, matematik bilimlar bilan bir qatorda chizmachilikka oid bilimlar ham o‘ta yuqori saviyada egallanganligidan darak beradi.

Hozirgi kunda chizmalarsiz na qurilishni va na ishlab chiqarishni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Atrof grafik ma’lumotlar, sxemalar, chizmalar va shartli belgilarga to‘la bu zamonda grafik savodxonlikni egallash juda muhimdir. Oddiygina misol,

yangi maishiy texnikalarni ekspluatatsiya qilish qoidalari ham chizmalar, sxemalar va shartli belgilar ko‘rinishida beriladi. Bu esa chizmalar tilini tushunish xuddi xorijiy tilni bilish kabi suv va havodek zarur ekanligini anglatadi. Bejizga chizmachilikni muhandislik tili deb aytishmaydi. Chizmalar va sxemalar xalqaro muloqot tili hisoblanadi. Chet ellik muhandislarning chizmalarini hech qanday tilni bilmasdan tushunishingiz mumkin. Buning uchun faqat bitta til – grafiklar, chiziqlar, shartli belgilar va raqamlar tilini bilish kifoya.

Chizmachilik fani o‘quvchilarda chizmalarni o‘qish va bajarish qobiliyatini shakllantiradigan, ya’ni grafik savodxonlikni o‘rgatadigan texnik fan hisoblanadi. Texnik bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning asosi nimada? Inson miyasi organizmda sodir bo‘ladigan barcha funksiyalarning asosiy regulyatori hisoblanadi. Chap yarim shar asosan mantiqiy fikrlash, til qobiliyatiga javobgar bo‘lib, u nutqni, o‘qish va yozish qobiliyatlarini nazorat qiladi, faktlarni, ismlarni, sanalarni va ularning imlosini eslab qoladi. O‘ng yarim shar ma’lumotni qayta ishlashga ixtisoslashgan bo‘lib, u so‘zlarda emas, balki belgilar va tasvirlarda ifodalanadi. U joylashuv va fazoviy orientasiyani idrok etish uchun javobgardir. Aqliy faoliyatning bu turi fazoviy tafakkur, inson ongida makon tasvirlarini yaratish va ulardan amaliy va nazariy muammolarni hal qilish jarayonida foydalanish uchun javobgardir. Fazoviy tafakkurning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning o‘lchov birligi makonning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga olgan tasvirdir: hajmi, shakli, uning qismlari o‘rtasidagi munosabatlar, joylashuvi va boshqalar.

Fazoviy fikrlash insonning o‘quv va keyingi mehnat faoliyati uchun poydevordir, shuning uchun aqliy faoliyatning ushbu turini rivojlantirish va shakllantirish shaxsning kasbiy muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Bu, ayniqsa, sxemalar, grafik tasvirlar va belgilarning roli oshgan paytda dolzarb bo‘lib qoldi.

Chizmalarni chizish, ishlab chiqish va o‘qish jarayonida miyaning ikkala yarim sharlari faol ishlaydi va shuning uchun ham tez rivojlanadi. Zamonaviy maktab o‘quvchilari yuqori darajada tabiiy, texnikaviy va axborot texnologiyalari fanlarini uyg‘unlashtira olishlari, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishlari, ijodiy shaxs bo‘lishlari, og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Ular jamiyatda fuqaro bo‘lishga tayyor bo‘lishlari va qanday hissa qo‘shishlarini tushunishlari kerak. Shuning uchun chizmachilik nafaqat maktabda, balki kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarida ham o‘rgatiladi. Texnik yo‘nalishga ega bo‘lgan kasbni tanlayotgan o‘quvchilar (elektrik, mexanik, avtomexanik, quruvchi, arxitektor, geodezik va boshqalar), ular uchun chizmachilik yetakchi fanlardan biri ekanligini tushunishlari kerak. Bu dizayn sohasini (interyer dizayneri, libos dizayneri, landshaft dizayneri, grafik dizayner va hokazo) tanlamoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga ham tegishli bo‘lib, chizmachilik ular uchun ham tanlagan kasbini o‘rganishning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki, oddiy misol, libos dizayneri ma’lum bir fazoviy shaklga ega libos dizaynini, ya’ni eskizini yaratdi deylik. Lekin tikuvchi uni tika olishi uchun avval bu libosning chizmalari kerak bo‘ladi, bu esa muhandis-konstruktorning vazifasi hisoblanadi. Muhandis-konstruktor dizaynerning fantaziyasi maxsulini eskizdan haqiqiy mahsulotga aylantirish uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. U eskizga qarab turib, avvalo kiyimning texnik rasmini, keyin asos chizmasini chizadi, ya’ni fazoviy shaklning tekislikdagi-qog‘ozdagi

yoyilmasini loyihalaydi, unga kerakli model chiziqlarini kiritib modellashtiradi, andozalar komplektini tayyorlaydi va texnik hujjatlarini tayyorlaydi. Bu boshidan oxirigacha chizmachilik bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, chuqur bilim va malakani talab etadi. Maktabda chizmachilik darslarida olingan bilim va ko‘nikmalar oliy o‘quv yurtlarida va kollejlarda chizma geometriya, muhandislik grafikasi, matematik modellashtirish va nazariy mexanikani o‘rganishda yordam beradi va o‘rganishni osonlashtiradi.

Grafik savodxonlikni qo‘llash sohalari ro‘yxatini yana ham davom ettirish mumkin. To‘g‘ri, bular asosan texnik mutaxassisliklar bo‘ladi, ammo chizmachilikning tibbiyotdagi o‘rni haqida nima deyish mumkin?

Har qanday faoliyat sohasida bo‘lgani kabi, tibbiyotda ham fazoviy fikrlashni rivojlantirish va ob’ektlarning uch o‘lchovli fazoda joylashuvini to‘g‘ri aniqlash va olingan ma’lumotlarni tekislikdagi proyeksiyasini to‘g‘ri tasavvur qilish ham kerak. Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan dunyoda biron bir shifokor grafik savodxonlik va texnik bilimlarsiz faoliyat yuritishi o‘ta murakkab va deyarli imkonsizdir.

Chizmachilik fani deyarli barcha o‘quv fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir va uni yaxshi bilish geometriya, geografiya, fizika, texnologiya va informatikani yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, chizmachilik fanida chizmalarni toza, aniq va sifatli bajarish orqali o‘quvchilarda o‘z ishini toza va ozoda bajarish, ishiga sidqidildan yondashuv, sabr va mas’uliyat bilan faoliyat yuritish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, chizmachilik fani maktab o‘quvchilariga atrofdagi dunyoni tushunish vositalaridan birini o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘quvchilarning umumiy va politexnik ta’limi uchun katta ahamiyatga ega, maktab o‘quvchilarini zamonaviy texnologiyalar sohasidagi muhandislik-texnik bilimlar elementlari bilan tanishtiradi. ishlab chiqarish, o‘quvchilarning texnik fikrlash va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, chizmachilik darslari maktab o‘quvchilarida umumiy mehnat madaniyatining eng muhim unsurlari bo‘lgan mustaqillik va mushohadakorlik, mehnatda aniqlik, o‘quvchilarda fazoviy tafakkur va grafik savodxonlikni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Chizmachilik darslari nafaqat grafik savodxonlikni egallash, balki fazoviy, mantiqiy, texnik tafakkurni rivojlantirish, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish, badiiy did va estetik sezgirlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. I.Rahmonov, N. Qirg‘izboyeva, A. Ashirboyev, A.Valiyev, B.Nigmanov. Chizmachilik. “Voris-nashriyot”, T., 2016.
2. X.M.Karimov. Chizmachilik (geometrik va proyeksion chizmachilik). O‘quv qo‘llanma. T., 2013.
3. https://www.unian.net/science/tayny-egipetskih-piramid

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA MUAMMOLI VAZIYATLAR TAHLILI

M.A.Ahtamqulov, H.F.Xursandov, M.A.Mustaffaqulov, A.S.O‘sarov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Assistent o‘qituvchi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti Intelektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari yo‘nalishi talabasi

E-mail: muhriddinahtamqulov@gamil.com, +998 93 243-03-60

Annotatsiya: Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda har bir o‘qituvchi, o‘quvchi yoki tadqiqotchining ko‘p qiyinchiliklari bor. O‘qitish va o‘rgatish vositalari, usullari o‘quvchilarning bilim olishida muhim omil sifatida qaraladi. Axborot texnologiyalari fanini o‘qitish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bu maqolada, biz axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda ko‘p qiyinchilikka duch kelgan holatlarni tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: Muammoli vaziyatlar, motivatsiya, tahlil qilish, qobiliyat, ma’lumot, detal, mustahkamlash, dinamik, muammoli o‘qitish.

Analysis of problematic situations in teaching information technology science

Abstract: Every teacher, student or researcher faces many challenges in teaching information technology. Teaching and learning tools and methods are considered as an important factor in students’ learning. Nowadays, teaching information technologies is one of the urgent problems. In this article, we analyze many challenges faced in teaching information technology

Key words: Problem situations, motivation, analysis, ability, information, detail, reinforcement, dynamic, teaching problematic.

Анализ проблемных ситуаций в преподавании информатики

Аннотация: Каждый преподаватель, студент или исследователь сталкивается со многими проблемами при обучении информационным технологиям. Инструменты и методы преподавания и обучения считаются важным фактором обучения студентов. В настоящее время обучение информационным технологиям является одной из актуальных проблем. В этой статье мы анализируем многие проблемы, с которыми сталкиваются при обучении информационным технологиям.

Ключевые слова: Проблемные ситуации, мотивация, анализ, способность, информация, детализация, реинформация, динамика, педагогическая проблема.

Kirish: Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarga o‘qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o‘quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta’lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda[1].

O‘zbekistonning axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishlari hayratlanarli muammolar va muhim hal qilish usullarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston bu sohada o‘zgarishlarni kuzatib boradigan, biznes va ta’lim sohalariga ko‘proq ixtisoslashtirilgan, turli sohalardagi muammolarni yechish uchun xalqaro standartlarga rioya qilishga intiladigan mamlakat. Bundan tashqari, O‘zbekiston hukumatining informatika sohasida amalga oshirgan qo‘shimcha islohotlar va siyosiy qarorlari ham, sohani yanada rivojlantirishga yo‘naltirgan. Bu kengayishlar natijasida, O‘zbekiston elektron hukumatning o‘rni yanada kuchayib bormoqda va axborot kommunikatsiyasi sohasida yuqori tezlikli internet ulanishlari va mobil kommunikatsiya tarmoqlari faollashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiysiyosiy mustaqillikka erishganligiga yigirma olti yil to‘lmoqda. Kishilik jamiyati tarixi uchun bu davr nisbatan qisqa vaqt hisoblansa-da, mustaqillik yillarida Respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshdi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida qaror topgan munosabat mazmuni o‘zgarib, yangicha qarashlar vujudga keldi. Iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonida rivojlangan bozor munosabatlari ustuvor o‘rin egallayotgan bo‘lsa, madaniy sohada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish – ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida olib borilayotgan harakat davlat va jamiyat qurilishining umumiy mohiyatini ifodalaydi. Bugungi kunda ta’limga ko‘rsatilayotgan e’tibor o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi[2].

Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda muammoli vaziyatlar va ularning sabablarining aniq tahlili qilinishi kerak. O‘qituvchilar bu vaziyatlarni tushuntirib, ularni hal qilish usullarini topish uchun o‘zlashtirishlari lozim. Bu bo‘yicha ko‘plab sabablarga e’tibor berilishi kerak.

Muammoli ta’lim – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub’ektiv shaklidir. U muammoli vaqtning, yangi jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida ob’ektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Muammoli vaziyat bolaning ma’lum ruhiy holati bo‘lib, bu holat ma’lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. “Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning bir qancha echimini topish, eng to‘g‘ri xulosaga kela olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. Eng avvalo “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi darajasi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi lozim. “Muammoli vaziyat” lar

tanlanganda bolaning yosh jihati, bilim darajasi inobatga olinishi muhimdir. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi[3].

“Informatikani o‘qitish” – bu sohada talaba muvaffaqiyatga erishmaguncha zaruriy innovatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan: “mashqlar taqdimoti (tarqatma materiallar)” talabalarga berilgan topshiriqlarni bajarish uchun qo‟llanma sifatida berilishi mumkin*[4].*

Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish muhimdir. Dars davomida albatta talabalarning o‘zlashtirishini tekshirish muhim hisoblanadi[5].

AKT sektorini jadal rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy siyosatini ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida ta’kidlaganidek, – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyotga, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga tatbiq etish kerak[6].

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash muammolari ta’limni modernizatsiyalashning zamonaviy vazifalaridan biri bo‘lib, lekin u harqanday ta’lim tizimi rivojlanishining barcha bosqichlarida u yoki bu darajada mavjud bo‘lib kelgan va ta’limga tabaqalashtirilgan va individual yondashish orqali hal etilgan. Ustozning burchi va ne’mati shundan iborat, deb bilaman. Talabaning o‘zini namoyon qilishi va o‘zini anglash yo‘lini ko‘rsatishi uchun sharoit yaratish. Mening fanlarim informatika va matematika shaxsni har tomonlama rivojlantirish, shuning uchuni qtidorli bolalarni aniqlash uchun katta imkoniyatlarga ega, chunki bu yerda boshqa hechqanday joyda bo‘lmaganidek, fanlararo aloqalar amalga oshiriladi[7].

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning muhim bir qismidir. Bu usullar o‘qituvchilar uchun talab qilgan vaqt va tajribaga ega bo‘lishni talab qiladigan jarayonlardir. Bu usullar orqali o‘qituvchilar, talabalarining muammolarni tushunish, ularning o‘zlashtirish va yechish qobiliyatlarini oshirish, va fan bilimlarini samarali tarzda o‘rgatishga intiladilar.

Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda muammo va vaziyatlar tahlili sohasida ma’lumot topish uchun bir nechta yo‘llari mavjud. Bu tahlil o‘quv jarayonining muhim bir qismini tashkil etadi, chunki axborot texnologiyalari har bir sohada o‘zining muammolarini va rivojlanayotgan yondashuvlarni o‘rganishga muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Quyidagi muhim nuqtalarni keltirib o‘tamiz:

Birinchi muammoli vaziyat o‘quvchilarning ilmiy bilimlarga qiziqishini yo‘qotishi bo‘lishi mumkin. Axborot texnologiyalari fanining mutaxassisligi va kerakli ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun, o‘quvchilar o‘zlarini qanday qilib o‘rganishlari kerakligini tushunmaydilar. Bu esa o‘quvchilarda motivatsiyani pasaytirishi mumkin va bu vaziyatning hal qilinishi uchun o‘qituvchining o‘quvchilarga qiziqishlarni oshirish, ilmiy bilimlarning amaliyotga ta’sir qilishini ko‘rsatish va qiziqishlarini o‘zlashtirish uchun qiziqarli darslar va mashg‘ulotlar tashkil etish talablarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi muammoli vaziyat o‘qituvchilarning ma’lumotlarini to‘g‘ri va samarali ko‘rsatish qobiliyatidan mahrum bo‘lishi bo‘ladi. Axborot texnologiyalari sohasining o‘zgaruvchanligi bilan birga, yangiliklarni barqaror tarzda o‘rganish va o‘qitish talab qilinadi. O‘qituvchilar esa o‘zlarining munosabatlari va ko‘rsatish usullarini yangilashlari lozim. Bu esa o‘qituvchilar uchun qiziqishlarni oshirish, o‘zlarining bilimlarini doimiy ravishda yangilash va rivojlantirish, yangi texnologiyalardan foydalanish va o‘quvchilarga axborot texnologiyalari faniga qiziqishlarini oshirish uchun ilmiy yutuqlar va namunaviy darslar bilan olib borilishi kerak.

Uchinchi muammoli vaziyat o‘qitish jarayonida tashqi faktorlarning ta’siri bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilarni, o‘zinining o‘ziga xos sharoitlari, maslahatlari yoki tashqi olam tasiridan chiqarib ola bilmaslik talabalar darslarni yaxshi o‘zlashtirishga qarshilik qilishi mumkun.

1. **Soat hajmi va kurs:** O‘qitish jarayonining soat hajmi va kurslarni tahlil qilish muhimdir. O‘quv jarayoni tashkil etilgan bo‘lishi kerak, va bu darsliklar, laboratoriya ishlari, amaliyotlar, loyihalar va boshqa ta’lim vositalarini qamrab olgan kurslarga ega bo‘lishi lozim.

2. O‘qituvchi tayyorlashi: O‘qituvchi, axborot texnologiyalari sohasida mutaxassis bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni o‘rganishda va talabalarga o‘rgatishda ko‘p qat’iyatga ega bo‘lishi kerak.

3. Texnik vositalar va resurslar: O‘quv jarayoni texnik vositalar, laboratoriya, kompyuterlar, internet, dasturlar va boshqa resurslar bilan yaxshi ta’minlanishi kerak. Talabalar o‘zlarini eng so‘nggi axborot texnologiyalari bilan tanishtirish uchun kerakli jihozlardan foydalanishi kerak.

4. Amaliyotlar va loyihalar: O‘quv jarayonida amaliyotlar va loyihalar o‘tkazish, talabalar uchun texnik mahoratni amaliy ko‘rinishda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bu shuni anglatadi ki, talabalar o‘rganish jarayonini o‘zlashtirish orqali axborot texnologiyalarini o‘rganadilar.

5. Sozlamalar va yangi texnologiyalar: Axborot texnologiyalari tez-tez yangilanib borayotgan soha. O‘quv jarayonida sozlamalar va yangi texnologiyalarni integratsiyalash talabalarga so‘nggi rivojlanayotgan texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatini beradi.

6. Hamkorlik va tajribali o‘qituvchilar: Hamkorlik, o‘quv jarayonida ishonch va tajriba olishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘quvchilar bilan baham ko‘rishlari, amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etishlari, texnologik muammolarga jamoaviy yechim topishda ulug‘lanish keltiradi.

7. **Murojaat va maqsadlarni aniq qilish:** O‘qituvchilar va o‘rganuvchilar o‘quv jarayonining maqsadlarini aniq va umumiy ta’riflashlari kerak. O‘qitish jarayonida texnologiyalarni o‘rganishni hamkorlik va maqsadlar bilan muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aniq murojaat qilish zarur.

Birinchi qadam, muammoli vaziyatni tahlil qilish uchun muhim ma’lumotlarni to‘plashdan iboratdir. Bu ma’lumotlarni o‘qituvchi o‘quvchilardan olishi mumkin, masalan, ularning muammolarini yoki tushunmovchiliklarini haqiqiy misollar bilan tushuntirishlari so‘ralish orqali. O‘qituvchi muammoli vaziyatni tushunish uchun o‘quvchilar bilan muloqot qilib muhim detallarni aniqlab,

ularga bir xil savollarni berishga intiladi. Bu usul orqali, o‘qituvchi muammoli vaziyatni tahlil qilish uchun kerakli ma’lumotlarni to‘plab oladi.

Ikkinchi qadam, muammoli vaziyatni tahlil qilish uchun ma’lumotlarni tahlil qilishdir. O‘qituvchi muammoli vaziyatdagi tushunchalarni, muammolarni yoki kamchiliklarni aniqlab, ularni tahlil qilish uchun yo‘l harakatlarini belgilayadi. Bunda, o‘qituvchi o‘quvchilarni muammoli vaziyatini tahlil qilishni qanday qilib ishlab chiqadi va uni hal qilishda qanday yordam berishadi, fikrlash va maslahat bera oladi. Tahlil jarayoni o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchi qadam, muammoli vaziyatni hal qilish usullarini belgilashdir. Bu usullar o‘qituvchining o‘quvchilarni muammolarini yechish uchun maslahat berishini, o‘quvchilarning o‘zlarini rivojlantirishlari uchun qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi.

O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda muhim bir qismdir. Bu fan, tezroq yangiliklar va o‘zgarishlar bilan o‘zgartirilayotgan dinamik sohalaridan biridir. Bu esa, o‘quvchilarning ilg‘orligini va qiziqishini saqlab turishni talab qiladi.

Motivatsiya oshirish uchun bir qator usullar mavjud. Birinchi navbatda, o‘quvchilarga fan haqida qiziqarli va maqbul ma’lumotlar taqdim etish kerak. Bu, o‘quvchilarning fan bilimlarini rostdan ham oshirish uchun muhimdir. O‘qish materiallarini qiziqarli va o‘quvchilarning amaliyotda qo‘llashga imkoniyat beruvchi resurslarni tuzish juda muhimdir. Misol uchun, o‘quvchilarga qiziqarli video darslar, interaktiv testlar, loyihalar va boshqa amaliy mashg‘ulotlar taklif qilish, ularga o‘rganish jarayonida motivatsiyani oshirishi mumkin.

Ikkinchi navbatda, o‘quvchilarning shaxsiy maqsadlarini tushunish va ularga muvofiq murojaat qilish juda ahamiyatli. Har bir o‘rganuvchi o‘zining o‘ziga xos maqsadlari va istaklari bilan o‘qishni davom ettiradi. Bu sababli, o‘qituvchi o‘quvchilarning maqsadlarini tushunish va ularga qo‘llab-quvvatlash uchun ilg‘or usullar topishga intilishi kerak. O‘quvchilarga o‘z faniga bo‘lgan qiziqishlarini qondirish va ularga qiziqtirgan mavzularda qo‘shimcha materiallar taqdim etish, ularga o‘quv jarayonida xayollarini rivojlantirishga imkoniyat berishi mumkin.

Barcha shunday chora-tadbirlar bilan birga, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularni axborot texnologiyalari faniga qiziqtirish osonlashadi. Bu esa o‘quvchilarning fan bilimlarini yaxshilash va o‘zlashtirish jarayonini yanada yengillashtiradi. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish har bir o‘qituvchi uchun muhim bo‘lib, ularga o‘quvchilarga fanni o‘zlashtirishlari uchun kerakli kuchni topa olishiga yo‘l ochib beradi.

Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda muammoli vaziyatlar bilan uchrashish odatda o‘zgartirib boradigan bir masaladir. O‘qituvchi uchun qo‘llanmalar va dars materiallarini to‘liq va aktual yangilash muhimdir. Bu, talabalarga fan bilimlarini to‘liq o‘rgatish va ularni texnik yangiliklarga tayyorlashda juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu misol bilan, o‘qituvchi yangi dars materiallarini yaratishga va mavjud bo‘lganlarni yangilashga vaqt va energiya sarf qilishi mumkin. Yangilash jarayonida, o‘qituvchi yangi ma’lumotlarni qo‘shish,

sohalarni yanada tafsilotli o‘rganish va talabalarni aktual muammolarga bag‘ishlangan yangi mashq va vazifalarni taklif qilishga fikr qilishi kerak.

Bundan tashqari, qo‘llanmalar va dars materiallarini yangilashning bir qismini har yili taqvimli tarzda amalga oshirish ham muhimdir. Bu, fan sohasidagi eng so‘nggi texnologik yangiliklarni va o‘qituvchining ko‘nikmalari va tajribalarini talabalarga o‘rgatishga imkoniyat beradi. O‘qituvchilar uchun web-saytlar, onlayn platformalar, ilova va dasturlar orqali dars materiallarini yangilash hamda talabalarga didaktik materiallar taqdim etish imkoniyatlarini oshirish zarur bo‘ladi.

Qo‘llanmalar va dars materiallarini yangilash jarayonida o‘qituvchilar hammasini bir xil ko‘rinishida olishi hamda kollektiv ish tizimi bilan ishlashi muhim bo‘ladi. Bu, ularning fikr va tajribalarini almashtirish, yangi fikrlar va usullarni kashf qilish va o‘zaro himoya va yordamlashuvni oshirishga imkon beradi. O‘qituvchilar bir-biriga ko‘maklashish, yangi materiallarni tahlil qilish, o‘zaro fikrlashish va o‘qitish usullarini baholash orqali, qo‘llanmalar va dars materiallarini yangilashda yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlashga erishishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda muammoli o‘qitish texnologiyasining maqsadi ta’lim olayotgan talabalar bilan ishlash jarayonida ham psixologik ham tarbiyaviy ham ta’limiy masalalar, muammolar ularni tahlil qilish, turlicha savollariga javob qidirish, muammoli vaziyatlar ularni hal etish yo‘llari bilan yangi ko‘nikma va bilimlarni o‘zlashtirib, kasbiy-faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga kelganda bilimlarga tayanish va hal etishga o‘rgatish ko‘nikmasini shakllantirishdan, axborot texnologiyalari faniga qiziqish uyg‘ota olishdan iborat. Bu qarashlar o‘quv jarayonini rivojlantirishga va texnologiyalarni o‘rganish jarayonlarini muvaffaqiyatli tashkil etishda yordam beradi. O‘rganish jarayoni, yangi axborot texnologiyalariga mos ravishda o‘quvchilarni tayyorlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish jarayonida rivojlanishga va yangidan-yangi axborot texnologiyalari faniga oid bilimlarni egallashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020 yil 6-oktabr, PQ-4851-son qarori
2. Suyunov I Informatika ta’limiga yangicha yondashuv asosida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. dissertatsiya.
3. Qodirova H.Y "Science and Education" Scientific Journal Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘qitishning eng samarali usuli sifatida August 2023 / Volume 4 Issue 8 (249 b)
4. Xursandov. H.F (2023). Ta’lim jarayonida turli xil dasturiy vositalarning qo‘llanilishi. Miasto Przyszłości, 36, 442.
5. Azizkulov Baxtiyor, Xursandov Hamidillo, & Meliboyev Ibroxim. (2023). Axborot texnologiyalari fanini samarali o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 516 b
6. R.R. Majidov Informatika fanini o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma. Toshkent-Iqtisodiyot 2019 yil 14 b

7. Ergashev. E.E “Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida ”mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda o‘quvchilar bilan ishlashning zamonaviy metodlari.296 b
8. M. Aripov, B. Begalov, U. Begimquloy, U. Mamarajabov Axborot texnologiyalari “O‘quv qo‘llanma” T-2009.
9. O.Kenjaboyev, M,Jumaniyazova, M.Tillashayxova—Informatika va axborot texnologiylari “O‘quv qo‘llanma” T-2013
10. T.S.Safarov, SH.U.O‘roqov,R.R.Baxromov Informatika va axborot texnologiyalari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirli tomonidan tibbiyot oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan T-2006

FARMATSEVTIK OLIY TA’LIM O‘QUV JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA UNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Shamsiyev Rahim Najmiddinovich
Alfraganus University nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

Annotatsiya: Mazkur maqolada farmatsevtik oliy ta’lim tizimida matematika va farmatsevtik fanlar o‘rtasidagi fanlararo integratsiya haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fanlararo integratsiya, farmatsevtik fanlar, matematika, zamonaviy ta’lim, tajriba, dori vositalari, matematik statistika.

Аннотация: Данная статья посвящена междисциплинарной интег-рации математики и фармацевтических наук в системе фармацевтического высшего образования.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, фармацевтичес-кие науки, математика, современное образование, опыт, лекарственные препараты, математическая статистика.

Abstract: This article is about the interdisciplinary integration between mathematics and pharmaceutical sciences in the pharmaceutical higher education system.

Key words: interdisciplinary integration, pharmaceutical sciences, mathematics, modern education, experience, drugs, mathematical statistics.

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta’lim o‘quv jarayonidagi fanlararo integratsiyaning ahamiyatini ochib berish, kadrlar tayyorlashda farmatsevtik soha mutaxassislarining e’tiborini farmatsevtik texnologiyalarda matematik bilimlarni amaliy qo‘llashga qaratishdir. Maqolada fanlararo integratsiyaning shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga ta’siri, shuningdek, o‘qituvchilarning fanlar mazmuni integratsiyasiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonidagi yondashuvlari muhokama qilinadi. Natijada oliy o‘quv yurtlar farmatsevtika yo‘nalishining o‘quv jarayonida fanlararo integratsiyaning ahamiyati, fanlararo integratsiya metodologiyasining o‘rni, farmatsevtik texnologiyani takomillashtirish sohasida matematik terminologiya va metodikadan foydalanish ochib berildi.

Tadqiqot maqsadidan quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

1) oliy ta’lim o‘quv jarayonida fanlararo integratsiyaning ahamiyatini ochib berish; 2) oliy o‘quv yurtlar farmatsevtik soha mutaxassislarining matematik bilimlarini amalda qo‘llash usullarini yoritish; 3) fanlararo integratsiyaning shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga ta’siri haqida xulosa chiqarish.

Asosiy qism

Fanlararo integratsiya oliy ta’lim didaktikasi tamoyillaridan biri sifatida oliy ta’limda samarali amalga oshirilmoqda. Bunday integratsiyalarning tahlillarini ko‘pgina adabiyotlarda ko‘rish mumkin [1,2,3]. Barcha talabalar ham zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiyaning ahamiyatini tushunmaydilar va nega siz bo‘lajak mutaxassis sifatida fanning turli sohalaridan bilimga ega bo‘lishingiz kerak degan savolga javob berishga tayyor emaslar. Masalan, farmatsevtika yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislar, turli fanlarni o‘rganayotgan holda, o‘z hamkasblari tomonidan amaliyotda qo‘llaniladigan matematik usullarning ahamiyati haqida hali yetarlicha tushunchaga ega emaslar. Farmatsevtlar o‘tkazilgan tajribalar natijalari

asosida yaratilgan dori vositasining ishonchlilik darajasini, bemorlarning yangi dori vositalarini qabul qilish jarayonida noxush ta’sirlari darajasini matematik statistika usullari yordamida hisoblab chiqadilar. Mehnatni optimallashtirish muammolari matematik usullarni bilish bilan ham bog‘liq (hisobotlar, analitik ma’lumotlar, ma’lumotlarni qayta ishlash modelidan foydalanish va boshqalar).

Matematik fikrlash ham majoziy fikrlash bo‘lishi mumkin, chunki bo‘lajak mutaxassis grafik tasvirlarni (masalan, funksiya grafigining turi) qurishni, fazoviy tasvirdagi konfiguratsiyalarni tasavvur qilishni va boshqa ko‘p narsalarni o‘rganishi kerak. Shu bilan birga, matematika mantiqiy va assotsiativ fikrlashni, algoritm bo‘yicha harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi va xulosa qilish jarayonini optimallashtiradi. Farmarsevtika mutaxassisligini tanlaganlar o‘quv jarayonida nafaqat tajriba o‘tkazish va tahlil qilish ko‘nikmalarini, balki natijani oldindan ko‘ra bilish va nihoyat, tajribalar natijalari bo‘yicha kerakli xulosalar chiqara bilishlik xususiyatlarini rivojlantirishlari kerak. Shunday qilib, matematika inson faoliyatining turli sohalarida ilmiy va amaliy muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi.

Matematik statistikaning fundamental xususiyatlaridan foydalangan holda, farmatsevtik jarayonni tahlil qilish davomida matematik usullar nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlarni, balki ular yordamida o‘rganilayotgan hodisaning tuzilishi va parametrlarini aniqlash imkonini beradi. Ta’kidlash joizki, farmatsevtikada fanlararo integratsiya Davlat standarti tomonidan yangi yaratiladigan dori vositalariga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda quriladi.

Aniqlik farmatsevtika sohasining ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda juda muhim tushuncha hisoblanadi. O‘tkazilgan tajriba natijalarining aniqlik darajasini aniqlash o‘ta muhim masala bo‘lib, u yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarni aniqlash va tahlil qilish hisobiga hal qilinadi. Xatoliklar darajasi esa matematik statistikaning usullari bilan aniqlanadi.

Farmatsevtik tajribalar natijalari bo‘lgan tasodifiy miqdorlarning o‘rtachasi, tasodifiy miqdorning tarqoqlik darajasini ifodalovchi dispersiyasi statistik usullar bilan hisoblanadi. Uning taqsimot funksiyasi va noma’lum parametrlari haqidagi taxminlar (gipoteza) ham matematik statistikaning taxminlarni tekshirish usullari yordamida tekshiriladi. Bu usul ayniqsa farmatsevtik texnologiyalarning biokimyo, toksikologik kimyo kabi fanlarida keng qo‘llaniladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, matematika va matematik statistika farmatsevt mutaxassislarga shaxsning kasbiy fikrlash darajasini aks ettiruvchi matematik fikrlash va matematik amallar ko‘nikmalari tamoyillariga asoslangan fikrlash algoritmlarini amaliyotda qo‘llay olishi uchun zarurdir.

Ta’kidlab o‘tamizki, bo‘lg‘usi mutaxassislar uchun sifat tahlilining farmatsevtik fanlarda tutgan o‘rnini tushunishi yanada muhimroqdir, ayniqsa, farmatsevtik matematika o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlar mohiyatining umumiy nazariyasiga asoslanadi. Aytishimiz mumkinki, matematik usullar qo‘llanilmaydigan farmatsevtika sohalari deyarli yo‘q. Masalan, dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi farmakognoziya fanida o‘simlikning pishib yetilish jarayonini o‘rganish ham matematik modellashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, "jarayonni matematiklashtirish" barqaror matematik tuzilmalarni aniqlash

bilan bog‘liqdir.

Statistik yondashuv va statistik usullardan farmatsevtika masalalarining muhim doirasini nazariy va empirik tadqiq qilishda samarali foydalanish mumkin. Shuni esda tutish kerakki, o‘rganilayotgan jarayonlarning ob’ektiv tabiati ularning miqdoriy o‘zgarishi va matematik modellashtirishga to‘sqinlik qilmaydi.

Matematik usullardan foydalanishning yana bir dolzarb yo‘nalishi bu farmatsevtika ishini tashkil qilish fanida yaqqol nomoyon bo‘ladi. Bu fanda jumladan dorixonalarda hisob-kitob olib borish usullari o‘rgatiladi. Bunday hisob-kitoblarni olib borish esa buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimlarida amalga oshiriladi. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining asosiy vazifalaridan biri bunday tizimlarni loyihalashning nazariy asoslarini ishlab chiqish, farmatsevtik statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va izlash, shuningdek, bunday tizimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun tashkiliy va texnik shartlarni yaratishdir.

Xulosa.

Shunday qilib, tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy ilmiy bilimlarning rivoji bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv jarayoniga fanlararo integratsiyani tadbiq qilish zaruriyati kundan-kunga oshib borayotganligini inobatga olish kerak. Fanlararo integratsiyani joriy etish jarayoni dinamik, o‘zgaruvchan, ijodiy bo‘lib, fanning turli sohalaridagi bilimlarni sintez qilish va uni oliy ta’lim bitiruvchilari tomonidan kasbiy faoliyatda samarali qo‘llashni oldindan belgilab beradi. Fanlararo integratsiya shaxsning fanlararo professional harakatchanligini shakllantiradi va shuning uchun uning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

2. Hozirgi kunda farmatsevtik fanlarning boshqa tabiiy fanlar bilan yaqinlashuvi kuzatilmoqda, bu esa farmatsevtik oliy ta’lim amaliyotida fanlararo integratsiyani joriy etish masalalarini dolzarb qiladi. Bundan tashqari, farmatsevtik fan kompyuter texnologiyalaridan faol foydalanib, zamonaviy matematikaning kibernetika tushunchalari va kategoriyalari va usullaridan foydalanadi. Matematik vositalarni farmatsevtik texnologiyalar tizimida sinovdan o‘tkazish farmatsevtik fanining rivojlanishini ham, fanlarning matematik blokini ham fanlararo integratsiya nuqtai nazaridan boyitib, ularni oldindan belgilab beradi.

3. Oliy talim fanlarini o‘qitishda amalga oshirilgan fanlararo integratsiya bo‘lajak mutaxassislarning o‘z-o‘zini rivojlantirishning mantiqiy asosiga aylanadi.

Adabiyotlar

1. U.A.Azimova. Oliy ta’lim tizimida fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish vositasi sifatida adabiyot va tarix //“PEDAGOGS” international research journal, 2022, V. 23, 14-22 b.

2. N.A.Jumayev, A.N.Kazakov, D.Q.Turdiyev. Dasturlash va fizika: fanlararo integratsiya //Hududlarda raqamli raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish: muammolar va yechimlar, Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami, Qarshi sh. 2021, 131-133 b.

3. Е.В.Пшенникова, Н.В.Борисова, И.Ш.Малогулова. Междисциплинарная интеграция в рамках модульного образования в медицинском институте //Вестник северо-восточного федерального университета имени М.К.Амосова, серия Медицинские науки, №1 (06), 2017.

INKLYUZIV TA’LIM -MUVAFFAQIYAT TA’LIMI

To‘xtamatova M.I. [1] , *To‘yqulova G.M.* [2] , *Burxonova X.D*[3]

[1]***Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi Boshlang‘ich ta’lim metodisti,magistr,A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot intituti mustaqil tadqiqotchisi***

[2]***Namangan viloyati Norin tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabining Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi***

[3]***Namangan viloyati Norin tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi***

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi, inklyuziv ta’limda zamonaviy metodlarni qo‘llash samaradorligi va istiqbollari yoritilgan.Maqola imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim - tarbiyasiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, raqamli texnologiya, kreativ fikrlash,rag‘batlantirish, masofaviy ta’lim va interaktiv xizmatlar, elektron pedagogika.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование цифровых технологий в инклюзивном образовании.результативность, результативность использования современных методов в инклюзивном образовании и освещены перспективы.Статья посвящена вопросам образования студентов с ограниченными возможностями здоровья.

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровые технологии, креативное мышление, мотивация, дистанционное образование и интерактивные услуги, электронная педагогика.

Abstract: This article discusses the use of digital technologies in inclusive education. effectiveness, efficiency of using modern methods in inclusive education and prospects are highlighted. The article is devoted to the issues of education of students with disabilities.

Key words: inclusive education, digital technologies, creative thinking, motivation, distance education and interactive services, electronic pedagogy.

Inklyuziv ta’lim nima?

O‘quvchilaringiz, farzandlaringiz orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor. Bizning sog‘lom o‘quvchilarimiz ular bilan do‘stlashib, birga dars tayyorlaydimi, birga o‘ynaydimi?

Axir ular ham biz kabi jamiyatda baxtli bo‘lishga haqli, shunday emasmi? Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi va kafolatlaydi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola bilan sog‘lom bolalar bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga doim qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangandir.

Xo‘sh nega inklyuziv ta’lim bugungi kunda zarur?

Ba’zan o‘quvchilarimiz tengdoshlari, maktabdoshlari orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko‘rib qolsa, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo‘yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qiladi. Bu noto‘g‘ri, aslida ular bilan

o‘rtoq bo‘lib, bir jamoa bo‘lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo‘shishimiz mumkin.
Jamiyatda har bir bola baxtli bo‘lishga haqlidir!
Ma’lumot uchun: Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladilar. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingandir. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilishi kerakligi rejalashtirilmoqda.
Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-son qaror qabul qilindi. Hujjat 13.10.2020 yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan. 2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilandi: alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash;
alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash va boshqalar.

Qaror bilan Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:
inklyuziv ta’limning maqsadi va vazifalari;
alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;
o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;
inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari. Shuningdek quyidagilar tasdiqlandi:
Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizom;
Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizom;

Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta’lim berish tartibi to‘g‘risidagi nizom. Bundan tashqari qaror bilan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida kasbga o‘qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Inklyuziv ta’limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalardan “nogiron” degan tamg‘ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlililikni ta’minlash, jamiyatga to‘laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari tizimida o‘qitishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasida ham davlat siyosat darajasiga ko‘tarildi. Natijada inklyuziv ta’limga doir xalqaro huquqiy meyoriy hujjatlar, rivojlangan chet el davlatlarning inklyuziv ta’lim tajribalari o‘rganib chiqildi va ularga asoslangan holda yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘risida”gi Qonunning 20-moddasi, “Inklyuzi ta’lim” deb nomlanib, “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilmaxilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan”ligi qonuniy asos bilan mustahkamlandi.

Inklyuziv ta’lim masalasi Respublikamiz Prezidenti tomonidan davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi sifatida qaralib, PQ-4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda Vazirar mahkamisining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 638-sonli qarorida o‘z aksini topdi. Mazkur ishlarning natijasi sifatida inklyuziv ta’limning barcha jihatlari, joriy etish yo‘llari, maqsad va vazifalari, bu sohadagi islohatlar “Umimiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘grisida”gi Nizom, 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi, 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”DA belgilab olinib, amaliyotga joriy etish borasida ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta’limdagi bir o‘quvchi bilan ishlangandfagi tajriba va xulosalar:

-Unga kòproq yaxshi kòrishingizni kelajakda ota onasi uchun u kop ishlar qilishini.

-Raġbatlantib borasiz ularni tez tez.

-Ularda kuzatuvchanlik yaxshi rivojlangan bo‘ladi.

-Taqlitni kòp qiladi, qogan o‘quvchilarga qarab Alifbe bilan ishlaydi, hozir ham rasmga qarab biladi.

-Ko‘proq she’r yod oldirasiz uni she;riga hech kim tushunmasa ham nutqi rivojlanadi. Umuman gapirmas edi endi gapiryapdi . Men tushunaman,-deydi sinf rahbari Мамадалиева Замира.

Inkluziv òquvchilar bilan ishlashda:

-Ularga mehr kòrsatasiz, ular sizni qalb kechinmalaringizni sezadi sohtalikni yoqtirmaydi.

-Quchoqlab turasiz.

-Unga e’tiborli bòlishingiz kerak, ya’ni kòzdan qochirmaysiz.

-Jamoa bilan ishlashda albatta uni yoningizga qo‘yib har bir òyinda ishtirok ettirasiz.
-Tez- tez raġbatlantirib turishingiz lozim, arzimagan biror buyummi,òquv qurolmi masalan yozuv taxtachalar ,ròchka ,rangli qalamlar ,shashka,biror bir shirinliklar bilan taqdirlab turishimiz ularga yoqadi.

Undan tashqari onasini umidi kattaligini, uni nimalar qilishi kelajakda ota-onasi uchun zarurligini vazifalarini ,jamiyatga ular kerakligini vatan hissini ko‘proq qòshiqlar orqali tushuntirib boriladi.Undan tashqari rasm ,fotosuratlar orqali ular ongiga singdiriladi.

Ularda nutq o‘stirishni yana bir usuli she’r yod oldirish kerak .Qisqa ,4 qatorli: hayvonlar, buyum, narsa, transportlar, mevalar, sabzavotlar haqidagi she’rlarga qiziqadi ular kòproq.

Tadbirlarda doim bolalar òrtasida ishtirok ettirish zarur. Ayniqsa òyin va raqslarga harakatli musobaqalarga .

Takliflar.

Hozirgi 21 asr bolalari telfonni yaxshi òzlashtiryapti shu sababdan shu inkluziv talimdagi òquvchilarga planshet sovġa qilinishini taklif etar edim .Sababi ular uchun qulay va qiziqadi.Sababi inklyuziv ta’limdagi o‘quvchimizga kichik electron doska sovg‘a qildik.U ana shu doska bilan har doim birga ishlaydi,yozadi,chizadi.Shu orqali o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.(http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm)
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
3. BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni
rivojlantirish Konsepsiyasi.(https://lex.uz/docs/-5044711)
Podrobneye:
https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/bolalar_uchun_inklyuziv_talim_qanday_tashkil_etiladi

INKLYUZIV TA’LIMDAGI O‘QUVCHILARINING MAKTABDAGI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Tojibayeva I.T, Yo‘ldasheva Z.X , Qodirova D.O

Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 16-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabning Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari.

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida boshlang‘ich sinf o‘kuvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish, kreativlik ko‘nikmalarini yuzaga chiqarishning ahamiyati bayon etilgan. Unda asosiy e’tiborni kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘kuvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlanganligini aniqlash mezonlari va mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Interaktiv o‘qitish metodlari va texnologiyalari vositasida o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimini takomillashtirish, kreativlik qobiliyatlarning rivojlanganlik darajalarini aniqlash haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kreativlik, shaxs, qobiliyat, interaktiv metodlar, ijodkorlik, texnologiyalar, mezonlar, darajalar, omillar*

Annotation*:This article describes the importance of developing the creative activity of primary school students and bringing out their creativity skills based on modern pedagogical technologies and interactive methods. It focuses on improving the criteria and mechanisms for determining the development of creative abilities in primary school students based on the competence approach. Creativity skills in students through interactive teaching methods and technologies improving the integrated methodical system of development, creativity is about determining the levels of development of abilities.*

Key words: *. creativity, ability, interactive methods, technologies, criteria, levels, factors,person,*

Аннотация: В данной статье описывается значение развития творческой деятельности младших школьников на основе современных педагогических технологий и интерактивных методов, вывода на поверхность творческих умений и навыков. Основное внимание в ней уделяется совершенствованию критериев и механизмов определения развития творческих способностей у младших школьников на основе компетентностного подхода. Речь идет о совершенствовании комплексной методической системы развития творческих способностей учащихся средствами интерактивных методов и технологий обучения, выявлении уровней развития творческих способностей.

Ключевые слова: креативность, личность, способности, интерактивные методы, креативность, технологии, критерии, уровни, факторы

KIRISH

Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan hozirgi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a’zolarining kreativ faollik darajasi e’tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “bilimning mustahkam poydevoriga ega bo‘lish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish” dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go‘zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o‘lkasiga qadam qo‘yganda, o‘z yurtida o‘rgangan tosh yo‘nish hunarini ishlatib, og‘ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O‘z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og‘ir mehnatini yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo‘ladi.Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o‘z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi.Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o‘rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko‘rsatadi. Dehqonlar to‘g‘risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, ycrni yormoq bilan rizq yo‘lin ochar. ... Olam ma’murlig‘i alardin va olam ahli masrurligi alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkum, ham barakot», - deb dehqonlarni, ya’ni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo‘rlarni, nojo‘ya ish tutuvchi kishilarni, ochko‘z va ta’magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.Shunga o‘hshash allomalarimiz qoldirgan qadryatli me’roslardan yoshlarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda unumli foydalanishimiz lozim.

O‘quvchilarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatning xilma-xil turlarida o‘z kuchini amaliy sinab ko‘rishini faollashtirish ham kasbga yo‘naltirishning muhim vazifasidir, chunki mehnat shaxsni shakllantirishning asosiy va xal qiluvchi omilidir.O‘quvchilarda kasbga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish – bu tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning birinchi, zarur, lekin yetarli bo‘lmagan qismidir: o‘quvchi ishlab chiqarishda tanlangan kasbni tezroq egallashi uchun ijodiy va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, unga maktabda dastlabki “kuchini sinab ko‘rish” imkoniyatini berish muhimdir .

Ishlarni to‘g‘ri tashkil etib, ularning xususiyati va mazmunini to‘g‘ri belgilaganda, bu shakllarning hammasi o‘quvchilarning kasbiy jihatdan o‘zini anglashida g‘oyat samarali bo‘ladi.Kasbga doir maslaxatda eng muhimi –kasb tanlashning keng g‘oyaviy va ijtimoiy sabablarini shakllantirishdir. Shaxsiy jixatdan bu o‘quvchilarda ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, mehnatsevarlik, umumiy ish rolida mehnat qilishga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalashdir. Kasbga doir maslaxat jarayonida o‘quvchining mazkur kasbni tanlash barqarorligi darajasiga ishonch xosil qilish ham muhimdir. Bu tanlash tasodifiy, o‘ylanmagan bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun kasbga doir maslaxatning vazifasi o‘quvchining o‘ziga xos psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari u yoki bu kasbning o‘ziga xos talablariga mos kelishini belgilashdan iboratdir. U muayyan kasbni eng muhim ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlarni eng ko‘p darajada xisobga olgan holda tanlashni ta’minlaydi. Kasbga doir maslaxat odatda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarda kasb tanlash chog‘ida vujudga keladigan qiyinchiliklardan kelib chiqadi. Tabiiyki, yakka tartibdagi maslahat har bir o‘quvchiga ham kerak

bo‘lavermaydi. Lekin bunday maslaxat zarur bo‘lgan o‘quvchi bilan jiddiy ravishda alohida ish olib borish kerak. Ma’lumki, yakka tartibda o‘tkaziladigan kasbga doir maslaxatga kamida 50 % o‘quvchi muhtoj bo‘ladi. Ular qatoriga:

1) U yoki bu sabab bilan mustaqil kasb tanlay olmagan o‘quvchilar;
2) Ota – onalari bilan ziddiyat vujudga kelgan o‘quvchilar;
3) O‘zlari tanlagan kasb yo‘lining to‘g‘riligini tasdiqlashni istaydigan o‘quvchilar;
4) Rivojlanishda va hatti-harakatida og‘ishlar bo‘lgan o‘quvchilar kiradi.

Kasbga doir maslaxat ma’lumot berish axborot tusida bo‘lib, o‘quvchilarning mehnat va kasb faoliyati to‘g‘risidagi bilimlarini kengaytirishga, maxsus ma’lumot olish va ishga joylashish imkoniyatlari xususidagi ma’lumotlarni xabar qilishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.Psixologik-pedagogik maslaxat o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish negizida unga eng mos keladigan faoliyat soxasini tanlashga yordam berishni, shaxsning kasb tanlashga tayyorgarlik ko‘rishida o‘z faoliyatini faollashtirishni nazarda tutadi. Bunday maslaxat berish uchun o‘quvchini o‘qish va sinfdan tashqari ishlar jarayonida kuzatish,suhbatlashish, kasblarni hayotda o‘z o‘rni borligini kundalik turmushga zamon talabiga bog‘lab tushuntirish ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan er yuzida kasblar juda xilma-xil xar bir kasbnio‘z o‘rni va vazifasi bor.Eng muhimi bajarilayotgan kasblarni qonun-qoidasiga,odob-axloq normalarida bajarilishiga o‘quvchilarimizning o‘rgatishdir.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Mardonov Sh.Q. Xodjayev B. Va boshqalar Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma– T.: 2013. – 170 bet.
2.Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.: “O‘qituvchi” 1996. 154 bet.
3.Mo‘ydinov R. Xushnazarova M. Ma’naviy meros va yoshlar tarbiyasi fan: 2006.86 bet.
4.Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2003. – 138-bet
5.Raxmatova X.A.Pedagogikdiognostika va korreksiya.darslik Namangan.2021.-329-bet

MAKTAB TA’LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERNETDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Dedaxonova Moxira Oltmishboyevna
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishi maktab ta’limi samaradorligini oshirishda internetdan foydalanishning ahamiyatini o‘rganadi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan internet katta resurslar, interfaol ta’lim platformalari va hamkorlik imkoniyatlarini taklif etuvchi ta’lim muassasalarida ajralmas vositaga aylandi. Ushbu maqola internet integratsiyasining maktab ta’limining turli jihatlariga, jumladan, o‘quvchilarning faolligi, o‘quv yutuqlari, o‘qituvchilarning samaradorligi va umumiy o‘quv muhitiga ta’sirini o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *Internet, maktab ta’limi, samaradorlik, o‘quvchilarning faolligi, akademik, raqamli qurilmalar, resurslar, multimediya, institutsional, strategiya, korreksiya, diagnotika, interaktiv*

Аннотация: *В этом исследовании рассматривается важность использования Интернета в повышении эффективности школьного образования. С быстрым развитием технологий Интернет стал незаменимым инструментом в образовательных учреждениях, предлагая большие ресурсы, интерактивные платформы обучения и возможности для сотрудничества. В этой статье рассматривается влияние интеграции Интернета на различные аспекты школьного образования, включая вовлеченность учащихся, успеваемость, эффективность учителей и общую среду обучения.*

Ключевые слова: *Интернет, школьное образование, успеваемость, вовлеченность учащихся, учебный процесс, цифровые устройства, ресурсы, мультимедиа, институциональный, стратегия, коррекция, диагностика, интерактивный.*

Abstract: *This research study examines the importance of using the internet in improving the effectiveness of school education. With the rapid development of technology, the Internet has become an indispensable tool in educational institutions, offering great resources, interactive learning platforms and collaboration opportunities. This article examines the impact of Internet integration on various aspects of school education, including student engagement, academic achievement, teacher effectiveness, and the overall learning environment.*

Keywords: *Internet, school education, performance, student engagement, academic, digital devices, resources, multimedia, institutional, strategy, correction, diagnostics, interactive*

Kirish: Internet-texnologiyalarning ta’lim sharoitlariga integratsiyasi an’anaviy o‘qitish va o‘qitish paradigmalarini o‘zgartirib, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etdi. Internetga ulanishning keng tarqalganligi, raqamli qurilmalarning ko‘payishi bilan birgalikda butun dunyo bo‘ylab sinflarda onlayn resurslar, multimedia kontenti va interaktiv platformalarning qabul qilinishiga olib keldi. Ushbu maqola maktab ta’limi samaradorligini oshirishda internetdan foydalanishning ko‘p qirrali rolini o‘rganishga, uning o‘quvchilar bilimiga, o‘qituvchilar amaliyotiga, o‘quv

dasturlarini ishlab chiqishga va institutsional strategiyalarga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.

“Ayni paytda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz turli ma’lumotlarni asosan Internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug‘atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib, o‘zbek tilini keng targ‘ib etish bo‘yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim.” [1] deya internet orqali ona tilimizni yuksaltirishga e’tibor qaratilganligini pirezdentimiz Sh. Mirziyayev ma’ruzalarida aytib o‘tdi.

Ushbu tadqiqot internetdan foydalanishning maktab ta’limi samaradorligiga ta’sirini o‘rganish uchun sifat va miqdoriy usullarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim ma’murlaridan ma’lumotlarni to‘plash uchun so‘rovlar, suhbatlar va kuzatuv tadqiqotlari o‘tkaziladi.[3] Bundan tashqari, Internetdan foydalanish va ta’lim natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash uchun standartlashtirilgan test ballari va bitiruv stavkalari kabi akademik samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Shunday ekan o‘sib kelayotga yosh avlodlarimizni har tomonlama komil inson bo‘lib voyaga yetishida biz yondashgan mavzu so‘g‘lom turmush tarzida yashashga va ijod qilishga qaratilgandir.

Ushbu tadqiqot natijalari internetdan foydalanish va maktab ta’limi samaradorligining turli jihatlari, jumladan, o‘quvchilarning faolligi, o‘quv yutuqlari, o‘qituvchilar samaradorligi va o‘quv dasturlarini yaxshilash o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Biroq, teng huquqli foydalanishni ta’minlash va ta’limda internet integratsiyasining potentsial afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun raqamli tafovut, internetga kirish muammolari, onlayn xavfsizlik va maxfiylik bilan bog‘liq muammolar kabi muammolarni hal qilish kerak. Bunda yoshlar ongiga internetdan foydalanish madaniyatini maktabda, oilada, jamoat joylarida hamkorlikda yondoshib ish olib borish oldimizga qo‘yilgan maqsadning ijobiylashtirishga olib keladi. Jumladan: umum ta’lim maktablarida fanlarini o‘qitishda internetdan foydalanishning bir necha usullari mavjud:

1. Onlayn manbalar va ta’lim veb-saytlari: Muayyan fanlarga moslashtirilgan onlayn resurslar va ta’lim veb-saytlarini birlashtiring. Khan Academy, Coursera va TED-Ed kabi veb-saytlar turli mavzular bo‘yicha keng ko‘lamli videolar, qo‘llanmalar va interaktiv darslarni taklif qiladi. (O‘qituvchilar uchun bir nechta qulayliklar yaratadi. O‘quvchilar uchun mavzularni keng-ko‘lamda qabul qilib, taqqoslaydilar va o‘zlariga kerakli ma’lumotni osonlik bilan o‘zlashtiradilar.)

2. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar: Tabiat, matematika va geografiya kabi fanlarni amaliy o‘rganishni osonlashtirish uchun virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalardan foydalaning. PhET Interactive Simulations va Labster kabi platformalar tajribalar o‘tkazish va kontseptsiyalarni o‘rganish uchun immersiv virtual muhitni ta’minlaydi. (Bunda o‘quvchilar kompyuter orqali labarato‘riya ishlarini amalga oshirishiradilar, masalan quyonni chatishtirib, undan qanday nasl paydo bo‘lishini aniqlash uchun vaqt kerak bo‘ladi. Bu platformada esa turli quyonlarni bemalol chatishtirish orqali nasl paydo bo‘lishini kuzatishlari mumkin bo‘ladi.)

3. Interaktiv multimedia taqdimotlari: Prezi, Google Slides yoki Microsoft

PowerPoint kabi vositalar yordamida interaktiv multimedia taqdimotlarini yarating. O‘quvchilarning faolligini oshirish va murakkab mavzularni tushunish uchun rasmlar, videolar, animatsiyalar va audio kliplarni qo‘shing. (O‘quvchilarni dunyoqarashini boyitish dars qiziqarli va tushunarli bo‘lishi uchun rasmlar, videolar, audio kiliplar juda ham kata ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o‘quvchilar ko‘radilar, eshitadilar va anglab yetadilar.)
4. Onlayn hamkorlik vositalari: Google Workspace (sobiq G Suite), Microsoft Teams, Zoom yoki Telegram kabi onlayn hamkorlik vositalaridan foydalangan holda hamkorlikdagi o‘quv muhitini rivojlantiring. Ushbu platformalar real vaqt rejimida muloqot qilish, hujjatlar almashish va o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida guruh muhokamalarini o‘tkazish imkonini beradi. (O‘quvchilar vaqtlarini unumli o‘tkazish uchun bir-birlari bilan o‘zaro fikr almashadilar. Tushunmagan mavzulari haqida baxs va munozara yuritadilar. Muomala madaniyati o‘zaro hurmat, e’tibor hamda dunyoqarashlari rivojlanib boradi. Darsga kelishga imkoniyati bo‘lmagan o‘quvchilar darslarni masofadan turib o‘qish, ko‘rish, eshitish orqali o‘zlashtirishlari mumkin bo‘ladi.)
5. Raqamli baholash va testlar: Google Forms, Kahoot! yoki Quizizz kabi platformalar yordamida raqamli baholash va viktorinalarni amalga oshiring. Bu vositalar zudlik bilan fikr-mulohaza yuritish, avtomatlashtirilgan baholash va o‘quvchilarning faoliyati asosida shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini o‘tkazish imkonini beradi. (Bu orqali fanga bo‘lgan qiziqish va izlanishlar vujudga kelib, o‘quvchilar ko‘proq ball olishga, tezkorlik bilan harakatlanib, birinchi o‘rinni egallashga intiladilar.)
6. Flipped Classroom Approach: Dars vaqtida ko‘proq interfaol va qiziqarli mashg‘ulotlar o‘tkazish imkonini beruvchi o‘quv mazmuni darsdan tashqari onlayn tarzda taqdim etiladigan teskari sinf modelini qabul qiling. Edpuzzle va Flipgrid kabi platformalar o‘qituvchilarga interaktiv video darslar yaratish hamda ularni munozaralar va hamkorlikdagi faoliyatga jalb qilish imkonini beradi. (Darsdan tashqari hollarda qiziqarli vidyo darslar yaratish va buning tarbiyaviy tomonlarini ochib berish, milliyligimizni aks ettiruvchi videolar namoyish qilish mumkin.)
7. Onlayn tadqiqot va loyihaga asoslangan ta’lim: o‘quvchilarni onlayn tadqiqot o‘tkazishga va loyihaga asoslangan o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanishga undash. Tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ishonchli manbalardan foydalanish, ma’lumotlarning ishonchliligini baholash va topilmalarni sintez qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar bering. (O‘quvchilarga masofadan turib ullarni tarbiyaviy tomonini rivojlantirish uchun ibratli voqealar, hikoyalar, hadislar taqdim etish orqali tanqidiy fikrlashni o‘stirish, insoniy fazilatlarini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.)
8. Ta’limga oid ilovalar va o‘yinlar: Ta’limni qiziqarli va interaktiv qilish uchun darslarga o‘quv ilovalari va o‘yinlarini qo‘shing. Kahoot!, Quizlet va Duolingo kabi platformalar faol ishtirok etish va bilimlarni saqlashga yordam beruvchi turli fanlar bo‘yicha o‘yinlashtirilgan o‘rganish tajribasini taklif etadi.(Bunda o‘quvchilarni bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish, aql-zakovati va dunyoqarashini kengaytirish uchun katta yordam beradi. Turli illatlar bekorchilikdan kelib chiqqanidek, o‘quvchilarni qanchalik fanga oid o‘yinlar bilan jalb qilsak, ularning fanga bo‘lgan qiziqishi

rivojlanib, ongi o‘sadi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga imkon yaratadi.)
9. Virtual dala sayohatlari: Google Earth, Nearpod VR yoki Explore.org kabi platformalar yordamida virtual sayohatlarni tashkil qiling. O‘quvchilarni geografik va tarixiy tushunchalar haqidagi tushunchalarini kengaytirib, tarixiy diqqatga sazovor joylar, tabiiy mo‘jizalar va madaniy joylarga chuqur sayohatga olib boring. (Bu orqali o‘tmishimizdagi buyuk allomalarimizni ma’naviy me’roslari, tarixiy obidalari, ilm yo‘lidagi jadidlarimizning harakatlaridan o‘zlariga o‘rnak oladilar. Tabiiy mo‘jizalar va madaniy joylarga sayohat esa tabiatga muhabbat, ularni asrab-avaylash bilan birga yuksak ekalogik madaniyatni yuzaga keltiradi.)
10. Ijtimoiy media va onlayn muhokamalar: Onlayn munozaralar, munozaralar va hamkorlikdagi loyihalarni osonlashtirish uchun Twitter, Facebook yoki Instagram kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalaning. O‘quvchilarning ishtirokini va sinfdan tashqarida tengdoshga o‘rganishni rag‘batlantirish uchun mavzuga oid hashtaglar yoki guruhlar yarating. (O‘quvchilarni bu saytdan unumli foydalanish mantiqsiz va mazmunsiz narsalarga vaqtlarini behuda sarf etmasdan hayot yo‘lida rivojlanishga undash, pedagogik diagnostika va korreksiyalash orqali ularni tashxislash muhim ahamiyat kasb etadi.)

Ushbu usullarni o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar turli fanlar bo‘yicha o‘rta maktab o‘quvchilarining turli ehtiyojlari va o‘rganish uslublarini qondiradigan dinamik va qiziqarli o‘quv tajribalarini yaratish uchun internet kuchidan foydalanishlari mumkin. Yuqoridagi ma’lumotlarni aniqlashtirish uchun pedagogik diagnostika va korreksiya metodlaridan foydalanib ishni amalga oshirish ijobiy natijalarga olib keladi.[2]

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda turmushimizni internet tramoqlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan internet turli xil ta’lim resurslaridan foydalanishni ta’minlash, interaktiv ta’lim tajribasini osonlashtirish hamda o‘qituvchilarni innovatsion o‘qitish vositalari bilan ularni bilim va aql-zakovatini kengaytirish orqali maktab ta’limi samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Internetdan foydalanish ko‘plab afzalliklarni taqdim etsa-da, ta’lim sharoitida uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun raqamli tenglik va onlayn xavfsizlik kabi muammolarni hal qilish juda muhimdir. Kelajakdagi tadqiqotlar ta’lim natijalarini yaxshilash va umrbod ta’limni rag‘batlantirish uchun internetdan foydalanishning rivojlanayotgan texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar va siyosat asoslarini o‘rganishga qaratilishi kerak. Shuning uchun hozirgi kunda internetdan foydalanish madaniyati yuqoridarajadagi muammoli ko‘rsatkichlarni tashkil qilyapdi. Agar bu muammoning hamkorlikda oldi olinmasa kechirib bo‘maydigan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. «Internet imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish kerak» - Prezident o‘zbek tili targ‘iboti haqida. Mirziyoyev Sh o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda o‘zbek tili targ‘ibotida internet imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi haqida gapirdi. 22.10.2019
2. Pedagogik diagnostika va korreksiya Raxmatova X. Namangan 2022
3. Количественные и качественные методы в научных исследованиях в сфере медицинского образования: Руководство AMEE № 90: часть 2

FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA *TA’SIRI*

Matyakubova Madina Xabibullayevna
Xiva shahridagi Ogahiy ijod maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri haqida fikr yuritilgan. O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamoll insonlar qilib tarbiyalashda fanlararo bog‘lik va badiiy, ilmiy asarlarning o‘rni, ahamiyati tajribalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar : o‘qitish metodlari, zamonaviy dars, loyihalash, fanlararo bog‘lanish, qo‘shimcha adabiyot, integratsilashgan ta’lim, hissiyot, nazmiy daqiqa, axborot vositalari, estetik did, dars shakllari, konferensiya darsi, miniatyura, maqola.

Annotation. This article discusses the impact of interdisciplinary integration on the educational effectiveness of literature. The role and importance of integration of artistic and scientific works in educating students to become mature and well-rounded people in all respects is highlighted on the basis of experience .

Key words: methods of teaching, modern lesson, project work, interdisciplinary, extra resources, interdisciplinary education, sense, poetry moment, mass media, esthetics, lesson forms, conference , miniature , article.

Аннотация. Данная статья обсуждает влияние межпредметной связи на образовательную эффективность преподавания литературы . Роль и значимость интеграции творческих и научных работ в обучении и развитии зрелого и всесторонне развитого поколения научно доказаны .

Ключевые слова: методы преподавания, современный урок, проектная работа, междисциплинарный, эстетический вкус, формы урока, средства информации, урок-конференция, поэтическая минутка, миниатюра, статья.

Kirish.

Dars jarayonini loyihalashda o‘qitish metodlarini t ‘g ‘ri tanlash ta’lim sifatini yaxshilashning muhim omilidir. O‘qituvchi darsning loyihasini ishlab chiqishda talab qilinadigan sakkizta topshiriqni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi lozim. Ma’lumki, zamonaviy darslarga qo ‘yiladigan asosiy talablardan biri darsni puxta rejalashtirish va loyihalashtirishdir.

Asosiy qism.

Adabiyot darslarini shaklan turfa xilligi (oyin texnologiyalari asosidagi, muammoli, modulli, integratsiyalashgan, bahs- munozara, mushohada , sharh, ifodali o‘qish darslari) , darslarda fanlararo bog‘lanish, qo‘shimcha adabiyotlardan unumli foydalanish bu maqsadlarni amalga oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Ta’limda integratsiyalashgan darsni tashkil etishning uchta bosqichi bo ‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta’limda fanlararo aloqalardan foydalanish;
2. .Fanlararo aloqalarni qo ‘llash;
3. Metapredmet aloqalardan foydalanish.

Shuningdek, o‘qituvchi badiiy adabiyot turlarining har birida o‘quvchini hayratlantira oladigan darajada ifodali o‘qiy olishi, tinglovchining hissiyotlariga

ta’sir qilishi va tuyg‘ularini qo‘zg‘ata olishi zarur. Adabiyot darslarida mavzuga oid nazmiy daqiqalar uyushtirish, taniqli sah’atkorlarning ovozi yozilgan nutqlari , she’rni o‘qish mahorati, turli video ko‘rsatuvlar, kinofil’mlar va ommaviy axborot vositalaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchilarni faqatgina fanga qiziqtirib qo‘ymay, qalbiga ruhiy orom berish, estetik didni o‘stirish barobarida dunyoqarashlarini kengaytirish, olamni bir butunlikda anglash negizida nutq madaniyatini rivojlantirishi ham, shubhasiz.

Bugungi fan-texnikaning jadallashuvi asnosida o‘quvchilarning badiiy kitobga qiziqmasligining asosida o‘qituvchining ham kamchiligi bor.

Aslida kitob o‘qishga havas oiladan boshlanadi. O‘qituvchi har bir bolaning psixologiyasini bilib, uning qiziqishini nazarga olgan holda biror kitobni tavsiya qilmog‘i yaxshi natija beradi. Adabiyot darslarida o‘quvchilarga oldindan turli fanlarga oid kitoblar tavsiya qilish, topshiriqlar berish yaxshi samara berishini o‘z tajribalarim asosida ‘rtoqlashmoqchiman.

Jumladan, konferensiya darslari uchun 20-25 kun oldin o‘quvchilarga mavzu bo‘icha turli fanlarga oid ilmiy, badiiy asarlar tavsiya qilinib, (hatto kitobni topib berish) topshiriqlar berilsa, maqsadga aniq erishiladi. Masalan,

9-sinflarda Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asari bo‘yicha o‘tkaziladigan bir soatlik dars konferensiya shaklida bolishini aytib, darsni tarix, geografiya, botanika, astronomiya, matematika, musiqa fanlariga

bog ‘lash maqsadida o‘quvchilarga quyidagi kitoblarni o ‘qish va topshiriqlarni bajarishni tavsiya qildim. :

1.A.Ahmedov “ Ulug‘bek”;

2.Ibodov, G. Matvievskaya “Ulug‘bek shogirdi- Ali Qushchi”

3. M.Mamadazimov “Mirzo Ulug‘bek va uning akademiyasi”maqolasi (‘Ma’rifat “ gazetasi 2009-yil 3-iyun)’

4. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi”

5 Ifodali o‘qish ushun tavsiya qilingan she’rlar yozilgan kitobcha (M.X.Matyakubova to‘plagan)

6 Mirzo Ulug‘bek haqida ommaviy axborot vositalarida chiqqan maqolalar.

7. Naql va rivoyatlar to‘lami (M.X.Matyakubova to‘plagan)

8. “Olam va odam”enseklopediyasi.

9.Mirzo Ulug‘bek. “To ‘rt ulus tarixi”

10.Mirzo Ulug ‘bekning matematika faniga oid qarasglari va sh.k.

O‘quvchilarga qo‘shimcha topshiriqlar berdim :

Mirzo Ulug‘bek , Abdullatif, Ali Qushcihlarning qanday shaxs ekanligini qo‘shimcha materiallardan topish va shu tarixiy shaxslar haqida aniq ma’lumotlar topishga qulaylik yaratish uchun yordam tariqasida

“ Bilasizmi?” ruknidagi to‘plagan materiallarimni sinfning ko‘rinarli joyiga ilib qo‘ydim va o‘qishni tavsiya qildim. O‘quvchilar tavsiya qilingan kitoblar va qo‘shimcha materialni o‘qib chiqdilar va darsga tayyorgarlik uchun kirishdilar .Jumladan, Mirzo Ulug‘bek kim? So‘rog‘i uchun :

-Adolatli hukmdor va ijod sohibi bolish bilan birga ilm-fan ravnaqiga homiylik qilgan; Buxoro, G‘ijdivon va Samarqandda madrasalar qurdirgan, bu madrasa eshigi tabaqalariga “Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun

farzdir”, - degan iborani o‘yib yozdirgan. Madrasalarga borib, talabalarga sovg‘a va in’omlar hadya qilgan ;
-Tarix faniga oid (“4 ulus tarixi ”asarini yozgan ;
- Ulug‘bek Samarqandda qurdirgan madrasa va rasadxona bilan birgalikda tarixga “Ulug‘bek akademiyasi” nomi bilan kirgan. U yerda asosiy ma’ruzalarni Qozizoda Rumiy, Ulug‘bek, Koshiy va Ali Qushchilar o‘qishgan;
-Ilmiy- madaniy markaz barpo qilgan (jaholatga qarshi kurashgan , ayrim sayidzodalarni , mutaasiflarni reaksion faoliyati uchun qattiq jazoladi);
-O‘z davrining mashhur matematik olimlari va astronomlaridan Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiylar unga ustozlik qilganlar,
-Davrining yetuk shoirlari Lutfiy va Sakkokiylarga homiylik qilgan, o‘zi ham she’rlar yozgan, lekin ular bizgacha yetib kelmagan;
-Bobosi Amir Temur uni munajjimlar orqali uning yuksak iste’dodidan xabardor bo‘lgan va uni “Ulug‘im” deb erkalan.Asli ismi Muhammad Tarag‘ay bo‘lishiga qaramay u tarixda bobosining erkalab aytgan Mirzo Ulug‘bek nomi bilan shuhrat qozongan ;
- Ulug‘bek osmon jismlarini kuzatish uchun rasadxona qurdirgan, uning ichidagi katta asbob yordamida quyosh, Oy sayyoralari va ayulduz holati o‘rganilgan. Olib borilgan kuzatishlar natijasida “Ulug‘bek ziji” degan dunyoga mashhur asari yozilib, unda 1018 ta yulduz ning o‘rni va holati sharhlab berilgan.

Abdullatif haqida :

Abdullatif arlotlardan bo‘lgan Ruqiya sulton ismli 6 xotinidan 1428 –yilda tug‘ilgan. Bolaligidan 13 o‘g‘ilning ichida eng g‘ayratli, qat’iyatlisi edi.
U dunyoviy ilmlar bilan birga diniy bilimlarni ham o‘rgangan edi. Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda she’rni yaxsi aytar edi. U she’rlar ham mashq qilgan. Bu haqda Navoiy “Majolis un- nafois”asarining ettinchi faslida ‘Abdullatif Mirzo tab’i nazm erdi “,-deb yozadi va forsiy g‘azalining matlasini beradi. Navoiy yana davom qilib : “ Shu bilan birga savdoiy mijoz va vonasar kishi erdi”,-deydi.

Ali Qushchi haqida :
(Abdusodiq Irisov) dan

Ali Qushchi asli samarqandlik bo‘lgan. Taxminana 1402,1404 –yillarda tug‘ilgan. Otasi temuriylar saroyida ishlagan. Amirning ov qushchisi bo‘lgan.
Ali Qushchi ham Ulug‘bek saroyida xizmat qilgan. Ulug‘bek unga O‘g‘lim”deb murojaat qilgan. Ovga chiqsa ham uni yonida olib yurgan..
Ali Qushchi –ilm-fanni o‘rganishga astoydil harakat qilgan, ko‘p kitob o‘qigan. Bir marta Kirmon yurtiga borganda u yerdagi falakiyot ilmi bilan qiziqadi.Bu shaharda uning qo‘liga yirik olm Nosiriddin at- Tusiyning “Tajrid ul kalom (“So‘z abstratsiyasi”) asari tushib qoladi. Kitobni o‘qigach, unga “Sharhi jadidi tajrid “, ya’ni “ Yangi tajrid sharhi”degan s mavzu bilan sharh bitadi. Bu asar unga obro‘ olib keladi. Ali Qushchi shu asari bilan ilk bor olimlar nazariga tushadi mazkur kitob “Tajrid sharhi” degan nom bilan shuhrat topadi. Ali Qushchi Eronning Kirmon yurtiga borib bir oz qolib ketadi. Yurtiga qaytgach, ustozi oldiga boradi. Ustozi undan qanday sovg‘a keltirganini so‘raydi. Ali Qushchi ustoziga “Oy sathi”” haqida bir kitob olib kelganini aytib , kitobini

sovg‘a qiladi .”Kitob “” Risolat xall al- ashkal al qamar “ (“Oy shakllarini hal qilish risolasi”) bo‘lib, shogird ustozi oldida juda hayonlanadi. Ulug‘bek uni boshdan oyoq o‘qib chiqadi va juda qattiq ta’sirlanadi. O‘rnidan turib shogirdini quchoqlaydi. Uni bu yutug‘i, zafari bilan qutlaydi.

“Turon tarixi”jurnalidagi ushbu maqola meni hayajonga soldi va Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi haqida “Dialog” deb atalgan ushbu satrlar yozildi.

Ulug‘bek : Xo‘sh, Kirmon eliding ne xabarlar bor?
Bizga ne sovg‘alar keltirdingiz bot?
Ali Qushchi : Olimga ne maqbul bo‘lsa shu-da,
Sizga bir risola keltirdim, ustod!
Ulug‘bek ; Bu ne risola, undan ne tuygum.
Ali Qushchi : Risolaki men bir fikrga nuqta qo‘ygum.
Ikkimizni ko‘pdan qiynagan savol,
Oy sathi xususida to‘xtamga keldim.
Sizga bundan ortiq sovg‘a bo‘lgaymu,
Uni etkizmoqqa xo‘p shoshdim, eldim.
Ulug‘bek : Qani, keltir ko‘ray, nelar bitibsen,
Balki haqsen, balki xato qilibsen.
Muallif : Ulug‘bek kitobni olarkan qo‘lga,
Qushchi hayajoni tiqildi dilga.
Katta ketganidan yuzi qizardi,
Ustod ne derkin deb rangi bo‘zardi.
Ulug‘bek kitobni varaqlab asta,
Boshdan oyoq qunt-la o‘qidi, yopdi,
Ustoz ko‘zlarida chaqnagan nurdan,
Ali Qushchi dili xo‘p taskin topdi.
Endi bor hayajon ko‘chdi sultonga.
Entikdi, o‘rnidan shahd turib ketdi,
Quchog‘in keng ochgan ustoz bag‘riga
Shogirdi quvonch-la o‘zini otdi.
Ulug‘bek ulug‘vor kalom boshladi,
Qushchi elkasiga qo‘lin tashladi
Ulug‘bek : -Endi xotirjamman, sendek o‘g‘lim bor,
Abdullatif bergan g‘am-sitam bekor.
Ulug‘ maslakdoshim, ilm posbonim,
Mudom yorug‘ erur tole-osmonim.
Seningdek fozil bor, xazinabon bor,
Adl, iymon mulkim bo‘lg‘ay barqaror.
Mening armonlarim tugal eltgaysen,
Avlodlarga xazinam omon eltgaysen.

O‘quvchilarga to‘garakda bu she’rni o ‘qib berdim va bu ularga ma’qul bo‘ldi . Belgilangan muddatda “Shoh bo‘lolmas otasin o‘ldirgan odam…” mavzusida anjuman darsni o‘tkazdim. Darsga o‘quvchilar puxta tayyorgalik ko‘rishdi va dars juda mazmunli o‘tdi. Konferensiya darsining “Uyga vazifa”shartida o‘quvchilar she’rdan o‘rinli foydalana olishdi. O‘quvchilarning mavzu

bo‘yichagi bilimlari oshdi.

Integratsiyalashgan konferensiya dars uchun quyidagicha reja tuzdim.

1.Guruhlarni shakllantirish.

2.Nazmiy daqiqa “Mirzo Ulug‘bekni ulug ‘laymiz”

3.Mavzuga oid qo ‘shimcha materiallar tahlili. Qurbon Muhammadrizo so ‘zi bilan Soyibjon Niyozov ijrosida “Otasini yig ‘latganni” qo ‘shig ‘ini tinglash.

4.Ko ‘ngil ochish daqiqasi (Videolavha)

5.Asar haqidagi mulohazalar.

6.Asardan keltirilgan parchalar asosida rolli-syujetli o‘yin.

7.Jadvallar tilga kirganda

8.Xulosa.

Rejani sinfdagi ko ‘rinarli joyga ilib qo ‘ydim.

Darsning mavzusi “Asardagi Mirzo Ulug ‘bek, Abdullatif, , Ali Qushchi timsollari va ularning ruhiy holati” bo ‘lganligi bois o‘quvchilarni uch guruhga ajratdim va guruh nomini qahramonlarning xarakteridan kelib chiqqan holda biror gulni ramz qilishni taklif qildim. O‘quvchilar “Olam va odam”ensiklopedsiyasi kitobini o ‘qiganliklari bois qiynalishmay o ‘z guruhlariga darrov nom qo‘yib, izohlab berishdi.

1-guruh -Mirzo Ulug‘bek guruhi, o‘zlariga ramz sifatida dunyodagi eng go ‘zal gul- ildizi hovuz tuprog‘ida bo ‘lsa ham, gul va barglari suv ustiga chiqib turadigan Nilufar gulini ramz qilganliklarini, zero, Mirzo Ulug‘bek adolatli hukmdor va olim sifatida shu gulga o ‘xshashligini aytishdi.

2-guruh-Abdullatif guruhi . Abdullatif xarakteriga mos, kattaligi bo ‘yicha dunyoda rekordchi Raffleziya gulini tanlaganliklari, zero bu gulning diametric bir metrgacha yetuvchi parazit o‘simlik b’ olib, liana ildizlari bilan butunlay hamma yoqqa chirmashib o‘sishiishi barobarida undan aynigan go ‘sht hidi kelib turishi sababli xuddi Abdullatif fe’liga mos ekanligini izohladilar.

3.—guruh.. Ali Qushchi guruhi o ‘zlari uchun hovuzlar qiroli bo ‘lgan ko ‘zacha gulni ramz qilganliklari, bu gulning oqmas va sekin oquvchi hovuzlarni bezatib turishi ,bois uning o ‘simlik amfibiya deb atalishi, ildizlari suv tubida bo ‘lib, yurak nusxa barglari va oq qorga o ‘xshash gullari suzib yurishi, barglari mum qatlami bilan o ‘ralgani uchun ho ‘l bo ‘lmasligi bois ilm-fanga fidoyi, sadoqatli, katta qalb egasi, xolis va pok niyatli Ali Qushchiga o ‘xshatishganliklarini aytishdi.

Shuningdek, 9-sinflarda Alisher Navoiyning hayoti va ijodi uchun bir necha soat ajratilgan. Har bir dars uchun dars turini tanladim va bu darslarda biri-birini takrorlamaydigan qo‘shimcha materiallardan foydalandim. Jumladan, o‘quvchilarga ommaviy axborot vositalarida chiqqan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga ishlangan miniatyura va uning o‘qilishi haqidagi maqoladan (“Ma’rifat” gazetasi 2013 –yil 13-fevral “Ko‘zimga ul eshik qulfin padid et” maqolasi),Filiologiya fanlari doktori Homidjon Homidiyning “Farhod va Shirin “ dostoni xotimasining talqini” maqolasi

(“Ma’rifat” gazetasi 2011-yil 15-fevral)va Xisrav va Shirin haqidagi tarixiy manbalarni o‘qishni tavsiya qildim . “Farhod va Shirin” dostoniga ishlangan videolavhani ko‘rsatdim.

8-sinflarda Alisher Navoiy lirikasi o‘tilgach, ifodali o‘qish darsi uchun ajratilgan darsda “Nazm va navo” darsini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsda Navoiyning musiqashunoslik ilmiga oid qarashlari va uning ahli hunarga bo‘lgan homiyligi, tarbiyalagan sozandalari, musiqa asboblari haqidagi fikrlari , shoir g‘azallari bilan aytiladigan qo‘shiqlar va ularning mohir ijrochilari haqidagi fikrlar o‘quvchilarni qiziqtirishi tabiiy.Ana shunday darsda qo‘shimcha materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, o‘z tajribamda ana shunday dars tashkil qildim va “Navoiy xazinasi” ruknidagi g‘azallardan namunalar qo‘ydim. Navoiy g‘azallari bilan aytiladigan qo‘shiqlar va ularning mashhur ijrochilari haqida aytib, qo‘shiqlardan namunalar eshittirdim.

. Shuningdek, o‘quvchilarga quyidagi ma’lumotlarni aytdim :

Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoe’ ul – vaqoye’,Muhammmad Mirxondning “Ravzat ut -safo”, G‘iyosiddin Xondamirning ‘Makorim ul-axloq”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Zaynalobiddin Husayniyning “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy “ asarlarida Alisher Navoiyni ulug‘ musiqashunahqiqios sifatida ta’riflaydilar. Shuningdek, shoirning o‘zbek musiqa madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi haqida Fitrat va Ishoq Rajapovlarning ilmiy tadqiqotlarida ham aniq dalillar keltirilgan.

Navoiy o‘z asarlarida bir qator cholg‘u-sozlar tasvirini beradi. Jumladan, nay, chang, g‘ijjak tanbur, ud, rubob,qobuz, daf, chag‘na, rud,nog‘ora, musiqaor, ayolg‘u va shu kabi biz bilgan va bilmagan sozlar shular jumlasidandir.

Navoiyning “Navodir un- shabob” devoniga kirgan bir g‘azalida shuhnday bayt bor : Noyu nafir unidin mag‘rur bo‘lma, ey shah,

Kim, bu navoni tuzgan ko‘si fano choliptur .

Baytning mazmunidan : Ey shoh, nay va karnay ovozidan mag‘rur bo‘lma, cholg‘uvchi bu dunyoning foniy ekanligidan darak beruvchi nog‘orasini chalmoqda,- degan mazmun kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2020-yil 27-fevraldagi O ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantish chora-tadbirlari to ‘g ‘risida”gi PQ-4623-son Qarori.
2. M.Mamadazimov “Mirzo Ulug‘bek va uning akademiyasi”maqolasi (‘Ma’rifat “ gazetasi 2009-yil 3-iyun)
3.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.-1-jild,-T.:“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi redaksiyasi”-2000.
4. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi.-T.: Sharq.2008
5. “Olam va odam”enseklopediyasi.
6.Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga ishlangan miniatyura va uning o‘qilishi haqidagi maqoladan (“Ma’rifat” gazetasi 2013 –yil 13-fevral “Ko‘zimga ul eshik qulfin padid et” maqolasi)

MATEMATIKA TO‘GAKLARI ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ne’matova Shohida Bobojon qizi
Buxoro innovatsiyalar universiteti, Pedagogika, psixologiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Yoshlarni hozirgi zamon fani bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta’lim – tayanch maktablar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani hal etishda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni benihoya katta. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning matematika faniga qiziqishini, bilim samaradorligini oshirishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni judda katta ahamiyatga ega.

Matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda o‘quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg‘ulotlatlarni tushunamiz. Matematikadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni dars mashg‘ulotlarida egallangan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishda qaratilgan bo‘lishi kerak.

Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan foydalanish mumkin. Quyidagi ishimizda ana shunday mashg‘ulot formalari haqida to‘xtalamiz.

Ushbu maqolada matematika to‘garaklarining turlari, asosiy vazifalari keltirib o‘tilgan bo‘lib ushbu vazifalar to‘laqonli ochib berilgan. To‘garaklar ikki turga bo‘linishi aytib o‘tilgan, hamda ular to‘liq keltirilgan. To‘garak ishini rejalashtirish va to‘garak mashg‘ulotlari tematikasini aniqlash prinsiplari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z: sinfdan tashqari ish, to‘garak, tematika, pedagogik mahorat, kasbiy mahurat, konsultatsiya, matematik fikrlash.

Аннотация. Вооружая молодежь современной наукой, добиваясь ее максимального интеллектуального развития, является одной из важнейших задач, стоящих перед общим образованием - основной школой. В решении этой задачи важную роль играет внеклассная деятельность. В общеобразовательных школах очень важна роль внеклассной деятельности в повышении интереса учащихся к математике и эффективности знаний.

Под внеклассной деятельностью по математике мы понимаем деятельность, организуемую с целью расширения и углубления математических знаний учащихся. Содержание внеклассной деятельности по математике должно быть направлено на расширение и углубление знаний, полученных на уроках.

Основная цель внеклассной работы – развить интерес учащихся к науке, вооружить их математическими знаниями, навыками и умениями, дополняющими знания, полученные ими на уроке. В нашей работе ниже мы остановимся именно на таких формах обучения.

В данной статье упомянуты виды и основные задачи математических кружков и полностью раскрыты эти задачи. Круги делятся на два типа, и они перечислены полностью. Были затронуты принципы планирования работы кружка и определение принцип тематики кружков.

Ключевые слова: внеклассная работа, кружок, тема, педагогическое мастерство, профессиональные навыки, консультирование, математическое мышление.

Annotation. Arming young people with modern science, achieving their maximum intellectual development, is one of the most important tasks facing general education - the basic school. Extracurricular activities play an important role in solving this problem. In secondary schools, the role of extracurricular activities is very important in increasing students' interest in mathematics and the effectiveness of their knowledge.

By extracurricular activities in mathematics we mean activities organized with the aim of expanding and deepening students' mathematical knowledge. The content of extracurricular activities in mathematics should be aimed at expanding and deepening the knowledge acquired in class.

The main goal of extracurricular work is to develop students' interest in science, equip them with mathematical knowledge, skills and abilities that complement the knowledge they acquired in class. In our work below we will focus on these forms of training.

This article mentions the types and main tasks of mathematical circles and fully discloses these tasks. Circles are divided into two types, and they are listed in full. The principles of planning the work of the circle and determining the principles of the theme of the circles were touched upon.

Key word: extracurricular activities, club, topic, teaching skills, professional skills, counseling, mathematical thinking.

KIRISH

Sinfdan tashqari ishlar deganda – maktab o‘qituvchilari yoki chetdan taklif qilingan mutaxassislar rahbarligi ostida maktabda darsdan tashqi vaqtda o‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yiladigan va olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlari nazarda tutiladi. Maktabdan tashqari ishlar o‘quvchilar bilan olib boriladigan, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan uyushtiriladigan ta’lim-tarbiya va madaniy ishlardan iboratdir.

To‘garaklarning asosiy vazifalari ushbulardan iborat: o‘quvchilarning bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirish; o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish; matematikaga qiziqishlarini orttirish; qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish; talabchanlik; irodani tarbiyalash; mehnatga muhabbatni; mustaqillikni; uyushqoqlikni va jamoatchilikni tarbiyalash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston mustaqilligining kelajagi yuqori malakali, ma’rifatli, el-yurtiga sadoqatli mutaxassislarni tayyorlashga bevosita bog‘liq. I.A.Karimov muxbirlarning "Sizning siyosatingizda ta’lim-tarbiya masalasiga katta e’tibor berishning sabablari nimada?", deb so‘ragan savoliga ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib yangi jamiyat qurib bo‘lmaydi, ong, g‘oya, tafakkur ta’lim-tarbiya bilan uzviy bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi, deb javob beradi. 1997 yil 29 avgustda respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I.A.Karimovning "Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori" ma’ruzasi asosida yangi tahrirda "Ta’lim to‘g‘risida" qonun va "Kadrlar

tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi [1].

Istiqlol yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiya ishlariga e’tibor kuchaytirilib, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari tizimida litseylar, kollejlar, biznes maktablari ochildi, 8 ta institutlar asosida universitetlar tashkil qilindi. 2000 yil boshlariga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 258 ta o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, shu jumladan, 75 ta kollejlarda 360 mingdan ortiq talaba bilim olmoqda. Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo‘lida ekan bilimdon, ma’naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni, yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, millatimizning intellektual, aql-zakovat boyligi bo‘lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa etib qo‘yilmoqda.

Ma’lumki, o‘quvchilar sinfdan tashqari mashg‘ulotlami samarali va qiziqarli olib borishlari uchun material topishda qiynalardilar. [2] qo‘llanmada ana shu masala bo‘yicha o‘quvchilarga yordam beradi deb o‘ylaymiz. [2] ishda tavsiya etilgan materiallar mazmuni o‘quv dasturi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni to‘ldirishga va chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Har bir mashg‘ulot turi, beriladigan material sinflar bo‘yicha alohida - alohida ajratilgan bo‘lib, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining imkoniyatiga qarab, ularning kuchiga loyiq tarzda tanlab olish mumkin.

[3] ishda talabalarning matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha oligan bilimlarini amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida qo‘llash kabi ishlarining tavsifini va namunalarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi o‘qitadigan fanlarda foydalanadigan o‘yinlarda qaysi mantiqiy yoki matematik tushunchalar modellashtirilishini bilishi lozim.

A.Xoliqovning “Pedagogik mahorat” darsligida [4] hozirgi paytda o‘qituvchi mahoratini zamon talablari darajasida rivojlantirish yuzasidan tadqiq qilingan so‘nggi ilmiy yangiliklar axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘qituvchi kasbiy mahoratini oshirishdag ma’lumotlar bilan boyitilgan. Mazkur ma’lumotlar oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchi va talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR

Maktabda matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ushbu turlari uchraydi: matematik o‘n minutliklar, soatliklar va qiziqarli matematika kechalari, matematika to‘garaklari, ertaliklari, viktorinalar, konkurslar, olimpiadalar. Shuningdek, sinfdan tashqari ishga matematikadan gazeta chiqarish, matematika burchaklarini rasmiylashtirishlar ham kiradi.

Matematika to‘garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turidir. To‘garak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Har qaysi matematika to‘garagida qatnashadigan o‘quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o‘qituvchilarning o‘zlashtirishida qiyinchilik tug‘diradi va o‘quvchilar to‘garakda faol ishtirok eta olmaydilar. To‘garak a’zolarining soni ko‘payib ketsa, ularni ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Guruhlar bilan bir hafta, ikkinchisi bilan ikkinchi hafta shug‘ullanish mumkin. Mashg‘ulot 30 – 40 minut davom etsa yetarli. Ma’lum vaqt oralig‘ida guruhlarni qo‘shib mashg‘ulot o‘tkazish va mashg‘ulotlarni musobaqa yoki viktorina o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Matematika to‘garigining asosiy vazifalari:

- o‘quvchilarni bilimlarini va amaliy malakalarini chuqurlashtirish va kengaytirish;
- mantiqiy tafakkurni, topqirlikni, matematik ziyraklikni rivojlantirish;
- iqtidorli va qobilyatli bolalarni aniqlash va ularni yanada o‘sishiga yordam berish;
- matematika faniga qiziqishini shakllantirish;
- o‘quvchilarni intizomli bo‘lishga, mehnatga mehr qo‘yishga, jamoa bilan ishlay olish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga, ularda umuminsoniy fazilatlarini shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Ba’zi bir o‘qituvchilar hamda matematika to‘garaginig rahbarlari to‘garakka faqat matematikaga qiziquvchi o‘quvchilarnigina jalb qilmoq kerak deb o‘ylaydilar. Bunday nuqtai nazar to‘g‘ri emas, chunki pedagogik jarayon sinfdan tashqari ishning yaxshi tashkil qilinishigina o‘quvchiga qiziqish uyg‘otishi mumkin.

To‘garakning har bir a’zosi ma’lum bir ishni bajarishi, to‘garakning faoliyatida aktiv ishtirok etishi lozim. Boshidanoq to‘garak a’zolari shu to‘garakning tashkilotchilari ekanliklarini anglab yetishlari kerak.

To‘garakning bir maromda ishlash muvaffaqiyat garovidir. Tajriba parallel sinf o‘quvchilari uchun ayrim – ayrim to‘garaklar tashkil etish va mashg‘ulotlarni har oyda ikki martadan o‘tkazish maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatadi.

To‘garakning muntazam ishlashini ta’minlovchi shartlardan biri mashg‘ulotlarning qat’iy belgilangan kunlarda va soatlarda o‘tkazishidir. Mashg‘ulotlar 1,5 soat davom etadi. Matematika to‘garagining mahg‘uloti 5 qismga bo‘lib o‘tiladi.

1. Doklad (ma’ruza) 5-10 minut davomida .
2. Qiyinroq va qiziqarli masala yechish.
3. O‘ziga xos xarakterga ega bo‘lgan misol va masalalarni yechish.
4. Oliy o‘quv yurtiga kiruvchilar uchun axborotnomadan misollar yechish
5. O‘quvchilarni turli xil savollariga javob berish.

To‘garak ishini rejalashtirishda uning barcha a’zolari faolligini nazarda tutish bilan birga materialning ortiqcha bo‘lib ketmasligini ham nazarda tutish lozim.

To‘garakning ish rejasi to‘garak mashg‘ulotlarining mazmuninigina aks ettirib qolmay balki ommaviy tadbirlarni ham o‘z ichiga olmog‘i lozim.

Ma’ruzalar tayyorlash, o‘quvchilar mustaqil ishlarini 1 ko‘rinishidir. O‘qituvchi material tanlashi va ma’ruzachiga yordam berishi lozim.

O‘quvchi ma’ruzani tayyorlayotganda undan ijodiy zavq olinadigan qilib tanlash kerak. Ma’ruzani tayyorlash va uni o‘rtoqlariga so‘zlab berish o‘quvchida chuqur hissiyotlar bilan bog‘liq bo‘ladi va ko‘pincha bir umrga uning esida saqlanib qoladi.

Bizning fikrimizcha maktab matematika to‘garagi mashg‘ulotlari temetikasini aniqlashda quyidagi ma’lum prinsipial fikrlarga amal qilish lozum:

1. Tanlangan temalar programma materiali bilan bevosita bo‘lsin. Sinfdan tashqi mashg‘ulotlarning sinfda o‘tiladigan mashg‘ulotlar bilan bog‘lanishi va mosligi o‘quvchilarning bilim darajalarini oshishiga hamda uning ahamiyatini ortishiga imkon beradi. Shuningdek o‘quvchilarning to‘garak ishlarida qatnashishi

jalb etadi.

2. Programma masalalarini boshqacharoq nuqtayi nazardan hal qiladigan mavzular foydali va qiziqarlidir.

3. To‘garak ishlari rejasiga fan haqida, jumladan Lobachevskiy geometriyasi haqida, topologiya haqida, nazariy arifmetikaning ba’zi masalalari haqida, tarixiy masalalar va hokazolar haqida to‘liq tasavvur beradigan temalarni kiritmoq kerak.

4. Maktabda olingan ma’lumotlarning amalda tadbiq qilinishiga bag‘ishlangan temalar o‘quvchilar bilimlarining chuqurlashuviga va kengayishiga yordam beradi.

5. Nihoyat, o‘qituvchi foydali deb topgan matematik muammolar ham sinfdan tashqi mashg‘ulotlarning temasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

MUHOKAMA

To‘garaklarning ikki turini bir biridan farq qilish lozim. Uning birinchisi programma materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, unda qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi, ikkinchisi, matematikani o‘rganishda qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkazuvchi mashg‘ulotlar.

Birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3 – 4 o‘quvchidan iborat kichkina gruppalar bilan haftada 1 marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Odatda sinfdan tashqari ishlar ko‘proq ikkinchi turdagi ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi.

1. O‘quvchilarga matematikaga va uning tatbiqlariga qiziqish uyg‘otish.

2. O‘quvchilarning matematikadan programma bo‘yicha bilimlarini kengaytirish.

3. O‘quvchilarda ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarini hosil qilish.

4. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash.

5. O‘quvchilarga matematikadan ilmiy ommabop adabiyot bilan ishlashga o‘rgatish.

6. O‘quvchilar matematikaning tarixiy ilmiy qimmati haqidagi matematika maktabining dunyo fani orasida yetakchilik roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bu maqsadlarning bir qismi dars paytida amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralangandan, uning anchagina qismini, sinfdan tashqi mashg‘ulotlarda amalga oshirishga to‘g‘ri keladi.

XULOSA

To‘garak dastlabki paytlarda barcha o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladigan – qiziqarli, imkoni boricha soddaroq bo‘lishi kerak. Shundagina tugarak a’zolarining soni kundan- kunga ortib, sinfdan tashqari ish ommaviy tus olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: O‘zbekiston, 1997.

2. Boltayev J, Qodirov A .Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar . Toshkent, 2002, 52 bet.

3. M.E. Jumaev va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma) – T.: Ilm-Ziyo, 2003, 240 b.

4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil, 350 b.

FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Nazarova Charos Farxodovna

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tuman ixtisoslashtirilgan maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Xorazm, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot- ta’lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari bilan fanlararo integrallashishining ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda.

Kalit so‘zlar: integratsiya, yaxlitlik, birlashuv, tamoyil, fanlararo uzviylik, kreativ fikrlash, xalqaro tadqiqotlar, kasbiy kompetentlik

АННОТАЦИЯ

Сегодня в нашей стране создается образовательная система, нацеленная на интеграцию в новую мировую информационно-образовательную среду. Это наблюдается при существенных изменениях в организации учебного процесса, отвечающих современным техническим возможностям. Междисциплинарная интеграция современных информационных технологий в сферу образования позволяет качественно облегчить и изменить методы обучения и формы организации учебного процесса на основе нового подхода.

Ключевые слова: интеграция, целостность, интеграция, принцип, междисциплинарность, творческое мышление, международные исследования, профессиональная компетентность.

ANNOTATION

Today, an educational system aimed at integration into the new world information-educational environment is being established in our country. This is observed with significant changes in the organization of the educational process that meet modern technical capabilities. The interdisciplinary integration of modern information technologies into the field of education makes it possible to qualitatively facilitate and change the methods of education and the forms of organization of the teaching process based on a new approach.

Key words: integration, integrity, integration, principle, interdisciplinarity, creative thinking, international studies, professional competence

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimiga e’tibor berilib, o‘quvchi yoshlarimizning jahon andozalariga mos ravishda zamonaviy bilim va kasb-hunarli bo‘lishi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini yuzaga chiqarish ularning qalbida vatanparvarlik, insoniylik, kasbiga fidoiylik tuyg‘ularini rivojlantirish kabi ulkan ishlar rejalashtirilib,ketma-ketlikda amalga oshirilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil

etish davr talabi hisoblanadi. Zamonaviy darsda pedagogik texnologiya metodlarini qo‘llash orqali dars davomida qo‘shimcha ma’lumot (tarqatma material, test, masala, topishmoqlar, savol-javoblar, turli krossvordlar, tajribalar va fanlararo bog‘liqliklar.) lar asosiy mavzuni qamrab olishi kerak. Buning uchun har bir darsda pedagogik texnologiyaning o‘tilayotgan mavzuga mos va qulay bo‘lgan metodlaridan foydalanish kerak. Bu faoliyatni amalga oshirishda esa o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

XXI asr intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etilishi taraqqiyot yo‘lidan izchil rivojlanishning hal qiluvchi muhim omili sifatida zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mamlakat istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Jamiyat taraqqiyoti va kishilarning turmush tarzidagi yuksalishlarni ta’lim, fan va ishlab chiqarishning faol integratsiyalashuvisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda integratsiya terminiga izoh berib o‘tadigan bo‘lsak, u lotin tilidagi “integration” so‘zidan olingan bo‘lib, muayyan birliklarni tiklash, to‘ldirish ma’nolarini bildiradi. Amaliyotda bu termin ikki va undan ortiq sub’yektlarning bir maqsad atrofida birlashishi bilan bog‘liq jarayonlarni anglatadi. Integratsiyalashuv jarayoni turli xil kengayish darajalariga ta’sir qiluvchi kompozitsion va kommunikativ tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Kompozitsion qismlar tarkib va tuzilish bilan bog‘liq bo‘lib, birlashuvchi sub’yektlarning norasmiy va me’yoriy chegaralarini aniqlashni talab qiladi. Kommunikativ qismi esa sub’yektlar o‘rtasidagi aloqadorlikning shakli, yangi sharoitda ularning tamoyil va mexanizmlarining o‘zgarishlarini nazarda tutadi. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimida integratsiyaning o‘rni ortib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quv faoliyati, oliy o‘quv yurti talabasining shaxsiy rivojlanishi natijasida, ularning ijodiy va ilmiy qobiliyatlarida namoyon bo‘lmoqda.

Aytib o‘tish kerakki, faqat zarur bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan cheklangan An’anaviy ta’lim strategiyasi shaxsning umuminsoniy va madaniy qadriyatlarni qabul qilishdagi ehtiyojlarini kamaytirib, uni madaniyatli va kompetentli shaxs sifatida rivojlanishiga etarli darajada javob bermaydi. Mazkur masalaning echimlaridan biri ta’lim jarayonidagi integratsiya muammosi bo‘lib, u ko‘plab tadqiqotlarda, ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan. Ta’lim tizimining amaliy jarayonlariga integratsion yondashuvlarni joriy etish. Integratsion ta’limni tashkil etishda uning umumiy tuzilmalarini qayta isloh qilish, ta’lim oluvchilarni berilgan axborotni tushunish, idrok etishga yo‘naltirish, ularga butun dunyodagi barcha jarayonlarning o‘zaro aloqasi haqidagi tushuncha va g‘oyalarini shakllantirishga yordam berish lozim. Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e’tibori pedagogik jarayon sharoitida o‘quvchi shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatik asoslarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi va bu esa pedagogikaning yangi innavotsion yo‘nalishi ya’ni kreativ pedagogikaga va integratsiga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

Integratsiya terminining ilmiy holati birinchi marta XVII asrda integral hisoblash nazariyasida keltirilgan. Bu erda integratsiya bir tomondan, differentsiyatsiyaga teskari jarayon sifatida ko‘rib chiqilgan, ikkinchi tomondan esa, birlashtirishning o‘ziga xos turi sifatida qaralgan. Ta’limda esa integratsiya g‘oyasi Ya.A.Komenskiy tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, bu ko‘p ma’noli tushuncha XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan. Integratsiya ijtimoiy pedagogikadagi eng muhim tushuncha sifatida uning nazariy asoslarini rus olimlari B.M.Kedrov, N.V.Kuz’mina, V.A.Lektorskiy, V.N.Maksimova, A.P.Ogurtsov,A.I.Rakitov, V.S.Stepin, M.G.Chepikov, B.G.Yudin va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ko‘rish mumkin. Bugungi kunda bu ilmiy kategoriya pedagogika fanining kontekstiga moslashtirilgan. Integratsiya “yaxlitlik, butunlik, tizimlilik, umumiylik” o‘rnida “tamoyil, jarayon va natija”, “butun tarqoq bo‘laklarning birlashuvi” sifatida tavsiflanadi. Fanlararo integratsiyalashishning asosiy mohiyati darsliklardagi qaysidir mavzu yoki jarayonni to‘liq tushunishga yordam beradi.

Integratsiyalashishsiz har qanday soha o‘zining faoliyatining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi barcha jihatlarni birlashtira olmaydi, u har doim boshqa sohalar bilan hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi. Turli sohalardagi mazkur jihatlarning birlashtirilishi samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. B.M.Kedrov fanlar integratsiyasini ularning o‘zaro aloqalari shakli sifatida tushunish kerakligini ta’kidlab o‘tgan, bilimlarning turli sohalarida umumiy tadqiqot maqsad va vazifalari mavjudligini, undagi muammolarni hal qilish va amalga oshirish uchun muayyan yagona bilim vositalari tizimi zarur degan fikrga kelgan.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini samarali amalga oshirish uchun pedagogik salohiyat, innovatsion muhit, innovatsion ta’lim hamda “maktab laboratoriya”lar muhim hisoblanadi. Ushbu komponentlarda kadrlar tayyorlashda ilmiy-pedagogik salohiyatning o‘rni, rivojlanish tamoyiliga asoslanganlik, zamonaviylik, yangilanish, modellashtirish, nazariya va amaliyot uyg‘unligi kabi integratsiya jarayoni uchun muhim bo‘lgan jihatlar o‘z aksini topgan. Integratsion ta’limning rivoji ta’lim shakli va mazmunini to‘g‘ri, pedagogik asoslangan tarzda olib borish bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarning chuqur tahlili talab qilinadi. Ta’limda fanlararo integratsiyani, sog‘lom muhit, o‘zaro hurmat va ijodiy hamkorlik mavjud bo‘lgan pedagogik jamoada amalga oshirish mumkin. Bunda o‘quv jarayonlarini integratsion yondashuv asosida olib borishning quyidagi muvaffaqiyatli tomonlarini keltirib o‘tish mumkin: integratsion yondashuvda o‘uvchilar bilimi har tamonlama mukammal bo‘lib xayotda bemalol qo‘llay olish imkoni ortadi. Bir moddaning ham kimyoviy,ham fizik xossasi bo‘lad, biologik tarkibi, marfalogik tuzilishi, shakli va o‘lchami bu faktlar bir necha fanlarni o‘zaro bog‘liqliklarini ko‘rsatadi. Integratsion yondashuvda mantiqiy fikrlab, mavjud xodisalar, sabablar va ularning echimlari bo‘yicha mustaqil mushohada yuritadi, natijada uning muloqot, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlari, nostandart fikrlash darajasi shakllana boshlaydi; bunday o‘quv jarayonlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajalari ham ortadi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Demak, darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat dars sifatini, o‘quvchilar dunyoqarashini ham har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Integratsion o‘quv jarayonlarini olib borishda birinchi navbatda, o‘quvchiga fanlararo, mavzulararo bog‘liqlikni etkazib berish maqsadga muvofiq, aks holda o‘quvchi idrok qilmagan integratsiya davomida tushunmovchilikka duch kelishi, mavhum holatga tushib qolishi, jarayon oxirida ham noto‘g‘ri xulosa taqdim qilishi mumkin. Ta’lim turlariaro kompetentsiyaviy talablarni ishlab chiqish va joriy etilishida ta’lim jarayoni integratsiyasi klaster yondashuvi asosida tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Demak, ta’lim tizimidagi integratsiya jarayoni har bir sub’yektning quyidagi maqsadlarga erishishiga imkon beradi: ta’limga yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqarish va tatbiq etishda bundan manfaatdor bo‘lgan barcha hamkorlar imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z mavqeyini yanada oshirish; umumiy maqsadlardan kelib chiqqan holda, xususiy maqsadlariga erishish uchun hamkorlardagi mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish. Bu bilan sohalarning har biri alohida va umumiy maqsad atrofida birlashib, faqat o‘z samaradorligini oshirishdangina emas, shuningdek, boshqa sohalarning ham yuqori samaraga erishishidan manfaatdor bo‘ladi.

Ta’lim samaradorligining ustuvor omili hisoblangan integratsiyani turli darajalarda va yo‘nalishlardagi quyidagi faoliyatini sanab o‘tish mumkin: mamlakat ilm-fanining jahon ilm-fani bilan integratsiyasi; ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi; davlat, hudud va muassasa darajasidagi integratsiya; turli xil sohalardagi ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi; ta’lim maydonida ta’lim turlarining barchasini uzluksiz ta’limning yagona tizimiga integratsiyalash (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, maxsus va qo‘shimcha ta’lim va b.); ta’limning turli bosqichlaridagi (umumta’lim nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, yuqori sinf) uzviylik; turli sohalardagi bilimlar integratsiyalashuvi (fan, madaniyat, san’at, iqtisodiyot va hokazo);
kasbiy bilimlarning ilmiy tadqiqot bilan integratsiyalashuvi (tanlov nazariyasi asosidagi kasbiy bilimni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish);
fanlararo integratsion ta’lim (umumta’lim o‘quv rejalaridagi fanlarning uzviyligi);
mavzulararo va mavzu ichidagi bilimlar integratsiyasi (muayyan fan negizidagi mavzular uzviyligi va izchilligi)va hokazo.
Ta’lim tizimini integratsiyalashtirish jarayoni klaster asosida amalga oshirilib, uni isloh etishga doir bir qator ilmiy, uslubiy, tashkiliy va amaliy ishlar olib borilgan.
Bu harakatlar natijasida barkamol avlodni shakllantirish va bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilmoqda.
Ta’lim sifatini quyidagi integratsion usullarda samaradorligi ortadi:

- ✓ Ta’lim oluvchi olgan nazariy bilimlarini amaliy jarayonlarda qo‘llashi orqali inson-texnika, inson-jamiyat, fan-tabiat munosabatlarining keng qamrovli jarayon ekanligiga ishonadi va uning ichki dunyosi bilan jamiyat o‘rtasidagi muhim kompetentsiyalar shakllanadi. Ta’lim turlari o‘rtasidagi integratsiya natijasida ta’lim oluvchi egallagan kompetentsiyalar uning ta’limdan keyingi

faoliyatida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishida, kasbning turli sohalariga tayyor bo‘lishga yordam beradi.

- ✓ Integratsiya sharoitida ta’lim sifatini boshqarishda o‘qituvchi faoliyatining barcha kompetentsiyalarini yaxlit holda takomillashtirish va yuqori natijaga erishish uchun o‘quv jarayonini rejalashtirish, loyihalashtirish, texnologiyalashtirish, qo‘yilgan natijaga erishish uchun tanlangan usul va vositalarni o‘zaro uzviylik va izchillikda olib borishi ta’lim sifatini yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi.
- ✓ O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini chuqurlashtirish va takomillashtirish fanlararo, mavzulararo individuallashgan va tabaqalashtirilgan ta’lim asosida amalga oshirilishi uning kelajakdagi muvaffaqiyati garovi bo‘lib xizmat qiladi.
- ✓ O‘quv jarayoni tashkiliy shakl va usullari, uni samarali tashkil etuvchi sharoit va qo‘llaniladagan uslub va texnologiyalar bilan birgalikda integratsiya sharoitida olib borilsa sifatli ta’lim ta’minlanadi.
- ✓ Integratsiya jarayonida o‘quvchi tafakkurini, kreativligini rivojlantirish uchun individual ishlash, motivatsiyani kuchaytirish, mustaqil ta’limga yo‘naltirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, nazorat qilish, baholash kabi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tarkibiy qismlarini o‘zaro izchil olib borish orqali o‘quvchi iqtidori rivojlanadi hamda sifatli bitiruvchi ta’minlanadi.

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim– bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlarini olib borish yoki bashqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda butun tarqoq bo‘laklarning birlashuvi “Inegratsiya” sifatida tavsiflanadi. Bundan tashqari interfaol usullar orqali ta’lim samaradorligi oshadi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik; o‘quvchilarda erkin ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi va shakllanadi. Bu innavatsion yondashuvda o‘quvchi shaxsi ta’limda markaziy figuraga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Shavkat Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/
2. Muhamedov G‘.I., Xodjamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta’lim
3. Innovatsion klasteri // Monografiya. – Toshkent, 2020. 280 b.
4. 2. Коменский Я.А. Буюк дидактика. –Т.: Ўқитувчи. 1977. –Б. 338.
5. Toshtemirova S.A. Umumta’lim muassasalarida ta’lim klasterini joriy qilishning nazariya asoslari va amaliy jixatlari // Uslubiy qo‘llanma.–T.: 2020. 75 b
6. The development issues of private higher education in new Uzbekiston— Saparova Mohira Fayzullayevna. Mamun Science-2023.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI (TEXNOLOGIYA FANI MISOLIDA)

K.B.Masharipov

T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada fanlararo integratsiyani doimiy qo‘llash o‘quvchilar bilimini mustahkamlash bilan birga ta’lim sifatini oshirishga ham yordam berishi, oquvchilarning bilimlarni ongli ozlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy tayyorgarligini oshirishda muhim orinni egallashi, texnologiya fani har bir narsani yasayotganida o‘quvchilarning ruhiy jarayonini hisobga olish zarurligi.

Kalit so‘zlar: Интеграция, materialshunoslik, polimerlar, interfaol, texnologiya, raqobatbardosh, instruksion kartalar, kompozit materiallar.

Аннотация: В статье отмечается, что постоянное применение междисциплинарной интеграции может помочь укрепить знания учащихся, а также повысить качество образования, сознательное усвоение знаний учащимися, что играет важную роль в развитии целостного представления о мире и повышении их практической подготовки, а также необходимость учитывать умственный процесс учащихся на уроках технологии.

Ключевые слова: Интеграция, материаловедение, полимеры, интерактивные, технологические, конкурентные, учебные карты, композитные материалы.

Abstract: The article points out that the continuous application of interdisciplinary integration can help to strengthen students’ knowledge, as well as improve the quality of education, and students’ conscious assimilation of knowledge, which plays an important role in the development of a holistic view of the world and improve their practical training, as well as the need to take into account the mental process of students in technology lessons.

Keywords: Integration, material science, polymers, interactive, technological, competitive, learning maps, composite materials.

Respublikamizda ta’lim sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirmoqda. Bularni zamirida ta’lim sifatini oshirish,shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlar yetishtirish yotadi.Umumta’lim maktablarini mashg‘ulotlarni innovatsion metodlar yordamida tashkil etish,fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish yuqoridagi natijalar uchun qo‘yilgan qadam hisoblanadi.

Bugungi kunda texnologiya hayotimizning barcha jabhalarini, jumladan, texnologiya tomonidan o‘zgartirilgan ta’limni inqilob qildi. Hozirgi zamonda texnologiya ta’limning ajralmas qismiga aylandi va texnologiyaning turli fanlar bilan integratsiyalashuvi yangi imkoniyatlarga yo‘l ochmoqda. Ta’limning an’anaviy, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondashuvi asta-sekin o‘quvchilarga

yo‘naltirilgan, interfaol yondashuvga almashtiriladi, bunda texnologiyadan rag‘batlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish uchun foydalaniladi.

Texnologiya darslarini maktabda o‘tiladigan barcha fanlar bilan bog‘lash mumkin. Amalda esa texnologiya darslari ko‘proq chizmachilik, tasviriy san’at, matematika, fizika, ona tili va adabiyot, informatika asoslari, kimyo, tarix, biologiya, geografiya kabi fanlar bilan bog‘lanadi. Quyida fanlararo integratsiyani texnologiya fani misolida qo‘rib chiqamiz:

Texnologiya, biologiya va fizika. Texnologiya fanini fizika fanisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki amaliy mashg‘ulotlarda materiallarni fizik xossalarin bilmasdan ishlatilsa, kutilgan natijaga erishish qiyin bo‘ladi. Misol uchun 7-sinf texnologiya darsligida fanlararo integratsiyani texnologiya fani misolida qo‘rib chiqamiz:

Yog‘ochlarga ishlov berish texnologiyasi bo‘limida o‘quvchilar yog‘ochlarni quritish va saqlash qoidalari, yog‘och va yog‘och matkriallarga ishlov berishning zamonaviy usullari, yog‘ochga ishlov beruvchi qo‘l asboblarini sozlash va ta’mirlash, yog‘ochga ishlov beruvchi tokarlik stanogi va undan foydalanish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarga yog‘ochga ishlov berishdan oldin ular qanday yetishtirilishi bo‘yicha 5-sinf botanika fanidan olgan bilimlaridan integrativlikka yondoshuv asosida daraxtlarni yetishtirish, daraxtlarni xossalari, turlari, mevasi, shoxlari va yaproqlaridan qanday mahsulotlari olinishi haqida ma’lumotlar beriladi. O‘quvchilar yog‘och materiallarga ishlov berishda yog‘ochning fizik xosslarini yaxshi bilishlari kerak. Shuning uchun bu jarayonda fizika fanidan olgan bilimlari juda muhim o‘rin tutadi.

Texnologiya va kimyo. O‘quvchilarga materialshunoslik haqidagi bilimlar berish ularning shu sohadagi tushunchalarini kengaytirishda kimyoviy usulda olinadigan materiallar, jumladan, plastmassalar, polimerlar, polietilen plyonkalar, sun’iy kauchuk va shu kabilar haqida ham ma’lumot berishga to‘g‘ri keladi. Bunda shu xildagi materiallarning olinishi va ishlatilishini moddalarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari orqali tushuntirish yaxshi natija beradi. Bulardan tashqari yelim, bo‘yoq, lak, aseton kabi biriktiruvchi, pardoz va erituvchi materiallarning hosil qilinishi, ishlatilishi hamda ulardan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish zarur. Shuningdek darslikning kompozit materiallarga ishlov berish texnologiyasi bo‘limida oq sementning tarkibi va xossalari mavzusini o‘tishda bu mahsulot portland sementning navlaridan biri ekanligi, u kliner aralashmasining tarkibi, ishlab chiqarish xususiyatlar hamda ko‘lami bo‘yicha sementning boshqa turlaridan farq qilishini tushunishlarida kimyo fanidan olgan bilimlari asqotadi.

Texnologiya va matematika. Amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda ya’ni biron bir buyumni yasashdan oldin uning o‘lchamlarini o‘lchash va shu o‘lchamlarni qirqib olish kerak, bu jarayonda matematika fani bilan integratsiya qilib o‘tilgan dars mashg‘ulot muhim ahamiyatga egadir. Texnologiya darslarida o‘quvchilarga to‘g‘ri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar, to‘g‘ri burchakli uchburchak va to‘g‘ri to‘rtburchak kabi shakllarni hosil qilishga oid tushunchalarni bilishlari zarur. Bulardan tashqari o‘quvchilar darslarda simmetriya o‘qishakllarni simmetrik joylashtirish, aylana uni bo‘laklarga bo‘lish urinmalar, o‘tkazish chizg‘ich, go‘niya,

transportir, burchak o‘lchagich, sirkul kabi turli asboblar yordamida detal yoki buyumlarning burchaklarini yoy markazlarini, to‘g‘ri va egri chiziqli boshqa o‘lchamlarini aniqlashlariga to‘g‘ri keladi. Bunday paytlarda geometriyaga oid bo‘lgan bilimlar zarur bo‘ladi. Binobarin, maktab geometriya kursida chizish va o‘lchash qurollaridan foydalanish, yuzalarni almashtirish kabilarni bajarishda katta imkoniyatlar mavjud.

Texnologiya va chizmachilik. Texnologiya darslarini chizmachilik fanisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Texnologiya darslarida chizmachilik ham o‘z o‘rnida juda zarurdir. Chunki har qanday detalni yasash uchun uning chizmasini o‘qishdan boshlanadi va bu jarayonda o‘quvchida bo‘lajak buyum, uning qismlari to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘ladi. Binobarin, mehnat darslaridagi muhim ko‘rgazmalardan biri bo‘lgan texnologik va instruksion kartalarni chizish va ulardan foydalanish ham chizmalardan qanday foydalanishga bog‘liqdir.

Adabiyot darslarida masal, ertak, sh’er, hikoya o‘qishadi. O‘rganilganlar asosida texnologiya darsida applekatsiya yasash mavzusi bo‘ladi. Masalan: quyi sinflarda „Bo‘g‘irsoq", „Sholg‘om" ertaklari asosida applekatsiya yasaladi. Applekatsiyani bajarishdan oldin o‘quvchi tomondan ertak so‘zlab beriladi. Tabiiy fan bilan bog‘liqligi darslarda o‘quvchilar tabiat in’om etgan barglar, urug‘lar, mevalar, postloq, daraxt shoxlari, parranda patlari, loylardan o‘yinchoqlar, aplekatsiyalar yasashadi.

Tarix fani bilan bog‘liqligi qog‘oz mavzusini o‘tishda uning kelib chiqishi tarixi, kuiolchilk, naqqoshlik, kashtachilik, misgarchilik, yog‘ochsozlik tarixi haqida oquvchilarga tushuncha beriladi. Bunda o‘quvchilarga milliy an’analarimizga nisbatan muhabbat uyg‘otishadi. Tasviriy san’at darsi bilan texnologiya darsi chambarchars bog‘liqdir. Bu ikki fan har doim bir-birini to‘ldirib boradi. Chunki yasalgan narsa tasviri awal chiziladi. Shu chiziqlar asosida kerakli shakllar qirqiiadi.

Texnologiya fanini o‘qitishda yana ko‘pgina fanlar bilan aloqadorlikka erishish mumkin. Bunda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshibgina qolmasdan ta’lim sifati ham oshadi.Bu esa albatta o‘qituvchining pedagogik mahorati va bilim saviyasiga bog‘liq.

Adabiyotlar.

1. Sharipov Sh.S, Qo‘ysinov O.A, Mamatov V.N, Tohirov O‘.O, Bozorov U.A, Nasrullaeva F.A, Miraxmedova D.S, Alovdinova N.M, Madaipov A.A. Texnologiya: Umumiy orta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.Toshkent:Respublika ta’lim markazi,2022 yil.
2. Karimov I ва бошқалар. Mehnat ta’limi darslarida fanlararo bog‘lanishlar.-T.:RTM,2008
3. www.ziyonet.uz.tstu_info@edu.uz info.com.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi mudiri Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani qo‘llashning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy maktabda integratsiyani amalga oshirishning yo‘nalish va turli darajalari batafsil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, fanlararo aloqadorlik, integrativ yondashuv, motivatsion bosqich, uslubiy funksiya.

Abstract. This article describes the didactic possibilities of using interdisciplinary integration in the process of primary education. Also, the direction and different levels of implementation of integration in a modern school are presented in detail.

Key words: integration, interdisciplinarity, integrative approach, motivational stage, methodological function.

Аннотация. В данной статье описаны дидактические возможности использования межпредметной интеграции в процессе начального образования. Также подробно представлены направления и разные уровни реализации интеграции в современной школе.

Ключевые слова: интеграция, междисциплинарность, интегративный подход, мотивационный этап, методическая функция.

O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlik ta’minlangan sharoitda o‘quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Shunga muvofiq, 1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari integrativ yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi ko‘zda tutilgan.

Integratsiya (lot.dan) – qayta tiklash, tizimning alohida differensiyalangan qismlari va funksiyalarining bir butunga o‘zaro bog‘lanish holati, shuningdek, maqsad va ta’lim vositasi sifatida o‘zaro bog‘lanishga olib keladigan jarayon. Ko‘rinadiki, integratsiya – bu nafaqat o‘quv materialining maxsus kombinatsiyasi, balki o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli bo‘lib, o‘quv materialini turli pozitsiyalarda tahlil qilish, asosiy axborot va ma’lumotlarni ajratib olish, ma’lum va yangi aspektda operatsiyalarni bajarish, o‘quv muammolarini hal qilish va amalga oshirish, ijodiy xarakterdagi vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Integratsiya dars mashg‘ulotlarini hamkorlik asosida tashkil qilish hamda quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi: boshqasini tinglash, uning dalillarini o‘rganish, birovning nuqtai nazarini o‘z nuqtai nazari bilan solishtirish qobiliyati.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, integratsiya o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi. Integrativ yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchi

shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi. Ta’limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalarini ko‘rib chiqish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang‘ich, muayyan fan haqidagi elementar bilimlarni birlashtirish; oraliq – fanlar bo‘limlarini bo‘lish integratsiyasi; yakuniy – fanni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limning oxirgi bosqichi integratsiyasi.

Integratsiya jarayonida har bir bolaning qobiliyati rivojlanadi, o‘qituvchi quyidagi pedagogik g‘oyalarni amaliy va maqsadli amalga oshiradi [1]:

1. Ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, shaxsning bilimlar hajmini o‘zlashtirish, faol shaxsiy pozitsiya va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish;

2. Rivojlanishning barcha bosqichlarida ta’lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash;

3. Har bir ta’lim oluvchining intellektual va badiiy-estetik salohiyatini oshirish va takomillashtirish uchun teng sharoitlarni yaratish.

Darsning intellektual vazifalari bilan bir qatorda, fanlararo integratsiyadan foydalanib, murakkab vazifalarni hal qilish mumkin:

- dunyoning uyg‘un birligi va undagi insonning o‘rni haqida tasavvurni shakllantirish;
- axloqiy fazilatlar, predmet va hodisalarga axloqiy va estetik baho berishni shakllantirish, atrof-muhitga ehtiyotkorlik va hamdardlik bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash;
- shaxsning ijodiy imkoniyatlarini, uning umumiy ijodiy salohiyatini rivojlantirish.

Integratsion yondashuvga asoslangan o‘qitish jarayonida quyidagi asosiy didaktik va psixologik tamoyillarga asoslanish ko‘zlangan natijaga erishish imkonini beradi:

- shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillar (moslashuvchanlik prinsipi, yaxlit rivojlanish prinsipi, psixologik tayyorlik prinsipi);
- madaniy tamoyillar (dunyo qiyofasi prinsipi, ta’lim mazmunining yaxlitligi prinsipi, dunyoga semantik munosabat tamoyili).

Mazkur muammoga doir adabiyotlar tahlili natijalarini umumlashtirib, biz integratsiyaning quyidagi ta’rifini shakllantirdik: integratsiya – bu ta’lim

jarayonining mazmuni, shakllari va usullarida o‘z aksini topadigan va ularning cheklangan birligida ta’lim, rivojlantiruvchi va tarbiyalash funksiyalarini bajaradigan obyektlar, hodisalar va voqelik jarayonlari o‘rtasidagi sintezlovchi, integrallashtiruvchi munosabatlarni belgilashga doir pedagogik kategoriya hisoblanadi. Shunga muvofiq, tanlangan qismlarni bir butunga birlashtirgan holda bir mavzuning materialini boshqasining materiali bilan to‘ldirish lozim. Bundan tashqari, o‘quv materiallari kombinatsiyasi hamda mavzu g‘oyasi yetakchi va asosiy bo‘lib qolishi muhim hisoblanadi.

Zamonaviy maktabda integratsiya bir necha yo‘nalishda va turli darajalarda amalga oshiriladi [2]:

1. Intra-predmet – individual o‘quv fanlari doirasida tushunchalar, bilim, ko‘nikmalar va boshqalarni birlashtirish;

2. Fanlararo – ikki yoki undan ortiq fanlarning faktlar, tushunchalar, tamoyillar va boshqalarni sintez qilish;

3. Mavzulararo – o‘ziga xos predmetlararo bo‘lib, muayyan predmetning boshqa o‘quv predmetlari bilan oxirigacha bog‘lanishini bildiradi.

Fanlararo integratsiya – boshqa fanni o‘rganishda bir o‘quv fanining qonunlari, nazariyalari, usullaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Bu darajada amalga oshirilayotgan mazmunni tizimlashtirish o‘quvchilar ongida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish kabi kognitiv natijaga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, sifat jihatidan yangi turdagi bilimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi va umumiy ilmiy tushunchalar, kategoriyalar va yondashuvlarda ifodalanadi. Fanlararo integratsiya intradisplinarni sezilarli darajada boyitadi.

Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy ho‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlah chiqish va sinovdan o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vosilalari hilan ta’minlanishi lozim.

Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limda fanlararo aloqalarni qo‘llagan holda gorizontal mavzularni integratsiyalab o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda fanlararo aloqalar ilmiy bilimlar tarkibiga ko‘ra (faktik, konseptual, konkret) o‘rnatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda fanlararo integratsiya o‘qituvchi (o‘qitish) va o‘quvchilar harakatlarining (o‘quv-kognitiv) muvofiqligini nazarda tutadi. Har ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, motivlar, mazmun, vositalar, natija, nazorat. Mazkur jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining mazmunida farqlar mavjud:

1. Maqsadli bosqichda o‘qituvchi fanlararo maqsadni belgilaydi, o‘quvchilar esa o‘qituvchi rahbarligida fanlararo mohiyatni anglab yetishlari, turli fanlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, diqqatini faqat umumlashtirilgan bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki o‘ylashga, ko‘nikma va sintez, shaxsiy xususiyatlar, qobiliyat va qiziqishlarni rivojlantirishga ham qaratishlari kerak.

2. Motivatsion bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni bilimlarini egallashga, turli fanlardan tushunchalarni umumlashtirishga undaydi. O‘quvchilar ixtiyoriy sa’y-harakatlarini safarbar qiladilar, ularni umumlashtirilgan bilimlarga kognitiv qiziqishga yo‘naltiradilar.

3. Faoliyatning mazmuniy tomoni bosqichida o‘qituvchi yangi o‘quv materialini kiritadi, shu bilan birga, boshqa fanlardan asosiy bilimlarni jalb qiladi. O‘quvchilar umumiy fan tushunchalarini, muammolarni umumlashtirilgan bilim darajasida o‘rganadilar.

4. Vositalar tanlash bosqichida o‘qituvchi ko‘rgazmali qurollar, darsliklar, jadvallar, sxemalar, anketalar, topshiriqlarni belgilaydi. Vizualizatsiya yordamida integral muammolarni hal qilishda kichik yoshdagi o‘quvchilar uzatish, sintez, umumlashtirish harakatlarini bajaradilar.

5. O‘qituvchi pedagogik mahoratni qo‘llaydi, o‘quvchilar esa tizimli bilim, umumlashtirish, amaliyotda qo‘llash qobiliyatidan foydalanadi.

6. Nazorat bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarning tayyorgarligini o‘zaro baholash, o‘zaro nazoratni amalga oshirish, assimilyatsiya sifatini baholaydi. O‘quvchilar bilimlarini o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini nazorat qilishni ko‘rsatadilar.

Elementlarni integratsiyalash quyidagi shartlarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. O‘rganish obyektlari mos kelishi yoki yetarlicha yaqin bo‘lishi kerak;

2. Integratsiyalashgan subyektlar bir xil yoki o‘xshash tadqiqot usullaridan foydalanadi;

3. Integratsiyalanadigan predmetlar umumiy qonuniyatlar, umumiy nazariy tushunchalar asosida quriladi.

Didaktik integratsiyaning funksiyalari: shaxsning yaxlit rivojlanishi; dunyoning shakllangan tasvirining yaxlitligi; harakatlar uchun indikativ asosni shakllantirish va yuqori darajada umumlashtirish; bir vaqtning o‘zida fikrlashni rivojlantirish; integrativ ongni va integrativ faoliyat usullarini rivojlantirish.

Zamonaviy pedagogikada integratsiya funksiyalarining umumiy qabul qilingan ro‘yxati mavjud emas, shuning uchun pedagogik integratsiyaning barcha turlari bilan bog‘liq bo‘lgan eng keng tarqalgan, o‘zgarmas funksiyalari ajralib turadi. Bular: uslubiy, ishlab chiquvchi, texnologik funksiyalar bo‘lishi mumkin.

Pedagogik integratsiyaning funksiyalari – bu ma’lum bir vazifa yoki rolni bajarayotganda o‘z faoliyatini namoyon qilish usullari.

Ularning har biri bir qator kichikroq funksiyalarni umumlashtiradi [3].

1. Uslubiy funksiya. Pedagogik integratsiyaning uslubiy funksiyasining uchta jihatini ajratib ko‘rsatish mumkin: evristik (yangi pedagogik tushunchalarni ishlab chiqish uchun boshlang‘ich asos bo‘lib xizmat qiladi), g‘oyaviy va aksiologik (pedagogik jarayon ishtirokchilarining intellektual va ma’naviy boyitish vositasi), instrumental (vosita sifatida harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi: bilim va

o‘zgartirish pedagogika fani; bilim va ta’lim amaliyotini o‘zgartirish; yangi va eski, nazariy bilim va amaliy tajribaning uzluksizligini ta’minlaydi).

2. Rivojlanayotgan funksiya. Rivojlanish yaxlitlikni farqlash, undagi funksiyalarni, xatti-harakatlarni taqsimlash va ularning yangi integratsiyalashuvi, yangi bir butunga birlashishi orqali amalga oshiriladi. Differensiya yangi harakatlarning paydo bo‘lishiga – idrok, mnemonik, aqliy va boshqalarning paydo bo‘lishiga, aqliy faoliyatning ko‘payishiga, boyishiga va takomillashishiga, integratsiya – ularning natijalarini tartibga solishga olib keladi. Integratsiya yangi aqliy shakllanishlarni, faoliyatning yangi tuzilmasini shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

3. Texnologik funksiya. Uning mazmuniga quyidagilar kiradi: axborot va vaqtni tejash; bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishda takroriylikni bartaraf etish va uzluksizlikni o‘rnatish; ba’zi fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning boshqa fanlarga tarqalishi va o‘zaro kirib borishi; tushunchalarni, faktlarni, malakalarni tizimlashtirish, olingan bilimlarning ayrim qismini inkor etish, umumlashtirilgan yaxlit xususiyatlarni shakllantirish ko‘nikmalari, bo‘ysunish va muvofiqlashtirishni o‘rnatish.

Pedagogik integratsiyaning aniqlangan va tavsiflangan invariant funksiyalari ichida rivojlanayotgan funksiya markaziy o‘rinni egallaydi, bu ta’lim nazariyasi va amaliyotining barcha sohalariga, shu jumladan, inson tarbiyasining o‘ziga xos predmetiga taalluqlidir. Shu bilan birga, bu integratsiyaning salbiy imkoniyatlarini inkor etmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, integratsiya va uning fanlararo varianti, shuningdek, ba’zi qo‘shimcha materiallar haqida aytilganlarga asoslanib, biz o‘qitishning eng muhim integral tarkibiy qismlarini ajratib olamiz va ularni yaxlit modelga birlashtiramiz.

1. Integratsiya – bu bir mavzu yoki jarayonda turli mazmun komponentlarining yaqinlashishi, bog‘lanishi va birlashishi. Kesishgan, xilma-xil tarkib umumiylikni tashkil qiladi. Turli mazmunlar tutashgan joyda, chegara hududlarida muammoli vaziyatlarni yaratish, tizimlararo kognitiv vazifalarni, bir mavzu, blok yoki mavzu mazmunini boshqa mavzu, blok yoki mavzu mazmuniga aylantirish uchun vazifalarni hal qilish mumkin.

2. O‘quv jarayonini integral asosda qurish oliy darajadagi bilimlarni shakllantirishga olib keladi, harakatlarning indikativ asosining radiusini oshiradi, o‘quvchilarning har tomonlama intellektual rivojlanishiga yordam beradi. Chegara hududlarda o‘quvchilar o‘zlari o‘rganayotgan obyektning ma’nosini ajratib olishlari mumkin bo‘lgan vaziyatlar shakllanadi va bu holat o‘qituvchini “ma’noga oid vazifalar”ni ishlab chiqishga va o‘quv jarayoniga kiritishga undashi kerak.

3. Fanlararo integratsiya, uning fanlararo (kengroq aytganda, tizimlararo mazmuni) kichik yoshdagi o‘quvchilarda allaqachon shakllanish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. maktab yoshi bir vaqtda fikrlash deb ataladi. Bir vaqtning o‘zida fikrlash deganda uning tashqi ko‘rinishdagi har xil sifatdagi hodisa va jarayonlar ortida umumiy nima borligini ko‘rish qobiliyati tushuniladi: daryodagi suv to‘lqini; tovush to‘lqini va b.

4. Fanlararo integratsiyaning muhim tarkibiy qismi turli predmetlar mazmunini

o‘z atrofida birlashtirgan integrallashtiruvchi omil hisoblanadi. Qoida tariqasida, ma’lum bir mavzu doirasida u o‘ziga xosdir va fanlararo o‘qitish sharoitida boshqa fan bo‘yicha bilimlar bilan birlashib, u kattaroq bilimdagi o‘ziga xoslikning bir qismini yo‘qotadi, lekin o‘zi qisman bilim bilan turlanadi.

5. Konsepsiya, fanlararo o‘zaro bog‘liq g‘oyalar. O‘zaro ta’sirli kurslarni o‘qitish (o‘zaro ta’sirda, masalan, matematika va san’at, fanlararo integratsiyaning bunday omili uyg‘unlik g‘oyasi bo‘lishi mumkin).

6. Vaziyatga qarab, ahamiyati kam bo‘lmagan boshqa integrallashtiruvchi omillardan faoliyat usullari (turli rakurslardan, shu jumladan, turli o‘quv fanlari, shu jumladan, boshlang‘ich sinflar nuqtai nazaridan kuzatish), muammolar (har qanday muammolarni hal qilish uchun)ni muammoli vaziyatlarga aylantirib, turli fanlar materiallarini jalb qilish va hatto darsdan tashqari materiallarga murojaat qilish kerak), ma’nolar (ular, qoida tariqasida, boshqa o‘xshash materiallarni jalb qilish asosida).

7. Ta’lim texnologiyalari birlashtiruvchi omil sifatida harakat qilishi mumkin. Yuqoridagi integratsiya omillari ko‘proq mazmunli xususiyatga ega bo‘lib, texnologiyalarning fanlararo o‘zaro ta’siridagi rolni, ya’ni kontentni amalga oshirish tartib-qoidalarining ketma-ketligini ko‘zda tutadi. Bu omillar o‘yinni o‘z ichiga oladi. Agar teatrlashtirilgan komponentni o‘yinga kiritsak va o‘yin maktabda, ayniqsa, ta’limning dastlabki bosqichida yetakchi faoliyat sifatida davom etishini hisobga olsak, unda boshlang‘ich ta’limda uning integrativ ahamiyati oydinlashadi.

Xulosa shuki, o‘quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar – integratsiyalash uchun fanlarning o‘zaro birlashishi, o‘qituvchi va o‘quvchi harakatlarining mos kelishi, o‘quvchilarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.

2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.

3. Мироненко С.Н. Интеграция педагогического и технического знания как условие подготовки педагога профессионального обучения к диагностической деятелтности: Дисс. ... канд. пед. наук. – Череповец, 2014.

ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA FANLARARO BOG‘LIQLIKNING AHAMIYATI

Xamrayeva Mavjuda Abduxakimovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiyot fanini o‘qitishda fanlararo bog‘liqlikning ahamiyati haqida so‘z boradi. Xususan, 7-sinf adabiyot darslarida fanni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitishga doir amaliy ko‘rsatmalar to‘g‘risida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, tarix, musiqa, tasviriy san’at, dunyoqarash, tarbiya, badiiy asar, badiiy to‘qima, peyzaj.*

ABSTRACT

This article talks about the importance of interdisciplinarity in teaching literature. In particular, practical instructions for teaching science in integration with other subjects in the 7th grade literature classes were discussed.

Key words: *integration, history, music, fine art, worldview, education, artwork, artistic texture, landscape.*

Keyingi yillarda ta’limda integrativ yondashuvning kengayganligi dars jarayonlarining yanada qiziqarli va mazmunli tashkil etilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi dunyoqarashining yanada o‘sishiga, hayotda o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlashiga, kelajakda turli qiyinchiliklarga duch kelganda to‘g‘ri yechim qabul qilishiga turtki bo‘lishi tabiiy. Chunki o‘quvchi maktabda nafaqat bilim, balki tarbiya ham oladi, hayot saboqlarini o‘rganadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi farmonida ta’kidlab o‘tilganidek, ta’lim va tarbiya jarayonlariga vatanparvarlik ruhi, milliy g‘urur va iftixor, o‘z xalqiga muhabbat va sadoqat, O‘zbekiston tarixi, ilmiy-ijodiy hamda ma’naviy-ma’rifiy merosga hurmat, o‘zlikni anglash, mehnatsevarlik va mas’uliyatlilik, qat’iyat va shijoatlilik g‘oyalari singdirilishiga alohida e’tibor qaratish bugungi kun ta’lim tizimining asosini tashkil etmoqda. Ushbu tushunchalarni o‘quvchi ongiga singdirishda, albatta, adabiyot fanining o‘rni beqiyos. Chunki adabiyot orqali o‘quvchining dunyoqarashi o‘sadi, ma’naviy olami kengayadi. Adabiyot fanini boshqa fanlar bilan uyg‘un holatda o‘qitish esa dars sifatining yanada o‘sishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchining fanga qiziqishi ortadi.

Ma’lumki, adabiyot fani birinchi navbatda ona tili fani bilan uzviy bog‘liq. Chunki badiiy matnlarni tahlil qilish, ulardagi leksik birliklarni aniqlash, matn uslubiga diqqatini qaratish, yozuvchining badiiy matndan ko‘zlagan maqsadini aniqlash badiiy tahlilning asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, adabiyot darslarida tarixiy mavzuda yozilgan asarlar tarixiy ma’lumotlar bilan uyg‘unlikda tahlilga tortiladi. Jumladan, 7-sinf darsligida keltirilgan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon”, Pirimqul Qodirovning

“Yulduzli tunlar” romanlaridan berilgan boblarni o‘qish va tahlil qilishda O‘zbekiston tarixi fanini bilish muhim hisoblanadi. Ushbu asarlarni tahlil qilish va o‘rganishda tarixiy shaxslarni bilish, shuningdek, badiiy asardagi ma’lumotlar bilan tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish o‘quvchidan tarix fanida olgan bilimlariga tayanishni talab etadi. Jumladan, badiiy asardagi tarixiy qahramon bilan badiiy to‘qima obrazlarni ham tahlil qilish lozim. Badiiy asarda yozuvchi tomonidan kiritilgan badiiy to‘qimaning asar mazmunini va tarixiy qahramon xarakterini ochib berishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor berish kerak. Bu borada muhokama darslari ham tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, biror bir badiiy to‘qima qahramonning ushbu asarda tutgan o‘rni yoki uning asarga kiritilishi yuzasidan turli xil muhokama darslarini tashkil etish o‘quvchilarning fikrlashi va dunyoqarashining o‘sishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, 7-sinf adabiyot darsligida ushbu fanning tasviriy san’at bilan bog‘liq jihatlariga ham e’tibor berilgan. Bu esa darsning yanada mazmunli o‘tishiga ta’sir qiladi. Xususan, darslikda berilgan “Lobo” hikoyasida peyzaj tasviri tasviriy san’atdagi peyzaj bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Bunda o‘quvchilar o‘z tasavvurlaridagi tabiat tasvirini chizishlari ham topshiriq sifatida berilganda ularning tasviriy san’atga bo‘lgan qizishlari asosida adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortishi kuzatildi.

Bundan tashqari, portret janri har ikkala fanda ham qo‘llanishi barchaga ma’lum. Tasviriy san’atda portret tushunchasi va badiiy asardagi portret tushunchalari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarini qiyoslash asosida o‘quvchilar har ikkala fanga oid bilimlarini umumlashtiradilar. Jumladan, 7-sinf adabiyot darsligida “Fanlararo aloqa: adabiyot va tasviriy san’at” bo‘limida berilgan ma’lumotlar va topshiriqlarda o‘quvchilar yakka holda va guruh bo‘lib ishlash asnosida muallif ijodkorlarning tashqi ko‘rinishi va ichki qiyofasini yaratishda qanday vositalardan foydalanganligini tahlil qiladilar. Bu esa o‘quvchilarning integrativ qobilyatini oshirishga, mushohada yuritishiga undaydi.

O‘quvchilarning mumtoz kuylarni sevib tinglashi bugungi kun yoshlarida deyarli uchramaydigan holat ekanligi barchamizga ma’lum. Biroq adabiyot darslarida o‘tilayotgan mumtoz adabiyot namunalarini kuyga solib ijro etilgan variantini tinglash va uni tahlil qilish o‘quvchilarning mumtoz qo‘shiqlar va musiqalarimizga bo‘lgan qiziqishlarining oshishiga turtki bo‘lishi mumkin. Jumladan, darslikda berilgan “Alisher Navoiy qit’alari va fardlari” hamda “Uvaysiy g‘azallari va chistonlari” mavzularida ushbu ijod namunalarining kuyga solib ijro qilingan shaklini tinglash va tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning mumtoz musiqalarimizga bo‘lgan mehr-muhabbatlari oshadi. Milliy qadriyatlarimiz bo‘lgan mumtoz musiqa va ashulalar ularning ma’naviy olamini yanada boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, 7-sinf adabiyot darsligida “Falararo aloqa: adabiyot va musiqa” bo‘limida berilgan musiqaning she’r mazmunini ochib berishdagi ahamiyatini tadqiq qilishga qaratilgan topshiriqlar ham o‘quvchining adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshiribgina qolmay, balki o‘zbek musiqa san’atiga ham havas uyg‘otishi tabiiy.

Bundan tashqari, darslikning “Fanlararo aloqa: adabiyot va tabiatshunoslik” bo‘limida adabiyot va san’atda hayvonlar yoki o‘simliklar obrazini tadqiq qilishga

qaratilgan topshiriqlar ham o‘quvchining ona tabiatga bo‘lgan mehrini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda tabiat, jonivorlar va o‘simliklar tasviri yoki ular aks etgan obrazlarni tahlil qilganda o‘quvchining ona tabiatga bo‘lgan mehri shakllanib boradi.

Bugungi kunda maktablarda fan sifatida o‘tilayotgan tarbiya fani ham bevosita adabiyotning uzviy bir qismini tashkil etadi. Chunki adabiyot odoblar yig‘indisi demakdir. Biz o‘quvchilarning ma’naviy ongini boyitishda, dunyoqarashini kengaytirishda barcha fanlarning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlagan holda, adabiyot va tarbiyaning ham alohida ahamiyatini e’tirof etib o‘tishimiz joiz.

Umuman olganda, adabiyot fani barcha fanlar bilan aloqadorlikda ekanl, dars mashg‘ulotlarida ushbu fanning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuviga alohida e’tibor berish lozim. Ayniqsa, yangi yaratilgan darsliklarda bu yaqqol namoyon bo‘lgan, deb ayta olamiz. Bu esa o‘quvchining Vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada kuchaytiradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Axmedxanova G.B. Ona tili va adabiyot darslarida integrative yondashuvning ahamiyati. “CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH”. VOLUME 2/ISSUE 1/2022.
Shu sababli ham bugungi kunda umumiy o‘rta ta’limda texnologik ta’limga jiddiy e’tibor qaratilmoqda va davlat rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining oldiga muhim vazifalar belgilab berildi. Avvallari o‘quvchilarni ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlash maktablarning birinchi navbatdagi vazifasi hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning asosiy maqsadi etib bolalarni hayotga tayyorlash, maktabni tamomlab chiqayotgan har bir bitiruvchi kamida bitta kasbning egasi bo‘lib chiqishi kerakligi belgilab berildi. Maktablar joylashgan hududlarning mahalliy ehtiyojlaridan kelib chiqib, har bir maktabda turli xil kasblarni o‘rgatish uchun tegishli imkoniyat va tegishli shart-sharoitlar yaratib berish mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklatildi. Bu esa o‘z navbatida maktablarda faoliyat ko‘rsatayotgan texnologiya fani o‘qituvchilari zimmasiga ham juda katta mashuliyat yuklaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda o‘quv jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda qo‘llaniladigan metodologiya va strategiyalar pedagogik tizimning asosiy elementlari hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida olib boriladigan o‘quv va darsdan tashqari ta’lim jarayonlari pedagogika fanlari kontekstida murakkab tizimlar sifatida qaraladi. Bu pedagogik fan asoslari asosida va ilmiy yutuqlarni hisobga olgan holda o‘quv jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini tahkidlaydi.

O‘quv muassasalarida darslar va darsdan tashqari o‘quv jarayonlarini tashkil etishda qo‘llaniladigan usul va strategiyalar pedagogik tizim bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning mavzuni chuqur o‘rganishi, to‘liq tushunishi va tizimli rivojlanishini tahminlaydi. Ushbu usullar o‘quvchilar o‘rtasida faol o‘zaro munosabatlarni rag‘batlantirish, o‘zlashtirish va o‘rganish jarayonlarini kuchaytirish, ijodiy fikrlash va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Ularni qo‘llashda ilmiy tamoyillar va nazariy asoslar hisobga olinadi, o‘quv jarayonining ilmiyligi va samaradorligini tahminlaydi.

Pedagogik tizimning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq o‘quv jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlari o‘quvchilarni assimilyatsiya qilish va rivojlantirish jarayonlarini birlashtirishga qaratilgan. Ushbu mexanizmlar sirasiga o‘quvchilar o‘rtasida samimiy munosabatlarni rivojlantirish, har bir o‘quvchining o‘quv taraqqiyotini rag‘batlantirishga qaratilgan individual o‘qitish usullarini muntazam ravishda amalga oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalangan holda o‘quv jarayonini samarali boshqarish kiradi. Ushbu mexanizmlar

ta’lim, psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilar shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishi va ularning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishi uchun maqbul sharoitlarni tahminlaydi.

Innovatsiyalar va ularni tatbiq etish texnologiyalari texnologik ta’limni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish mexanizmlaridan biri sifatida nafaqat o‘zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki ta’lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham maydonga chiqadi. Bu, o‘z navbatida, innovatsiyalarning qanchalik ahamiyatliligini belgilash bilan bir qatorda, vaziyatlarga ko‘ra boshqaruvni takomillashtirish mexanizmlarini tatbiq etish zaruratini ham belgilaydi.

Ta’lim jarayonlarini muvofiqlashtirish va boshqarish mexanizmlari, pedagogik tizimning xususiyatlariga ko‘ra, o‘quvchilarning bilimlari va o‘zlashtirishining rivojlanishini kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu mexanizmlar o‘quvchilar o‘rtasida chuqur munosabatlarni shakllantirish, o‘quvchilarni mahlum bir yo‘nalishda rivojlantirishga yo‘naltirish, shuningdek ularning umumiy rivojlanishini har tomonlama boshqarishni tahminlashni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, texnologik ta’lim jarayonlari samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qonunlar, boshqaruv usullari va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali erishilgan ta’lim faoliyati samaradorligini tahkidlash kerak. Shuningdek, maktablarda texnologik ta’lim jarayonlarining samaradorligini baholash doirasida o‘quvchilarning turli fanlar bo‘yicha bilimlarini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanish darajasi, shuningdek o‘qituvchilar va rahbarlarning pedagogik va kasbiy mahoratini rivojlantirish darajasi ko‘rib chiqilishi kerak. Shunday qilib, texnologik ta’lim jarayonlarining samaradorligini tahminlash vositalariga strategik rejalashtirish, loyihalash, modellashtirish va turli vaziyatlarda o‘quv jarayonlarini boshqarish usullari va tamoyillari kiradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar ham muhim ahamiyatga ega, CHunki ularni amalga oshirish amalda sinovdan o‘tgan va o‘qituvchilarni o‘qitish va kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Binobarin, ta’lim jarayonlarining tizimli xususiyatlaridan biri – mahlum maqsadlarga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarining umumiy maqsadlarga erishishga hissa qo‘shishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘quv jarayonlari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, shuningdek o‘qituvchilar faoliyatini takomillashtirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Binobarin, ushbu ta’lim jarayonlari kasbga yo‘naltirish, ijodiy fikrlash va o‘quvchilarning atrof-muhitiga ongli munosabatini shakllantirishda, shuningdek, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan tegishli ta’lim yo‘nalishi va kelajakda egallaydigan kasbini tanlashda muhim rol o‘ynaydi.

Texnologik ta’limda pedagogik jarayon samaradorligini tahminlashda dars hamda darsdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlar hamda o‘quvchilar mustaqil o‘rganadigan tushunchalarning bog‘liqligini tahminlash, dars mashg‘ulotlari va darsdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning mazmuni, ushbu tadbirlar jarayonida beriladigan tushunchalar o‘quvchilar mustaqil o‘rganadigan tushunchalarning to‘ldiruvchisi, aniqlashtiruvchisi va rivojlantiruvchisi sifatida xizmat qilishiga,

shuningdek, ularning izchilligi va uzviyligiga hamda o‘rganiladigan tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligiga ehtibor qaratish zarur.

Maktabda texnologik ta’lim potensialni rivojlantirishda samarali deb tan olingan bo‘lsa-da, belgilangan maqsadlarga erishish o‘quv jarayonining barcha qatnashchilarining o‘quv mazmuni va natijalariga tahsiri yetarli emasligi sababli qiyin. Shu munosabat bilan maktablarda texnologik ta’limni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy sharti o‘quv jarayonining barcha qatnashchilarining vizual faoliyat sohasidagi darslarga qiziqishini faol jalb qilishdir.

“Qiziqish” tushunchasiga (lotincha "interest" – ahamiyatga ega, muhim) bunday tahrif beriladi: shaxsning faoliyat maqsadlarini aniqlash va ularga yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, yangi dalillar bilan tanishish va mo‘ljallangan shu faoliyatlar orqali haqiqiy bilimni chuqur va to‘liq tushunishga imkon beruvchi bilish ehtiyojining namoyon bo‘lish shaklidir. “Rag‘bat” tushunchasini esa, biz anhanaviy talqin qilishda – harakat qilish uchun tashqi tomondan undovchi sabab sifatida tushunamiz va unga ehtibor beramiz.

Maktablarda konstruktorlik ta’limiga qiziqish yaratish o‘qituvchiga, texnologiya darslariga ijobiy munosabatni shakllantirish va ularning ijodiy shaxsni rivojlantirish uchun ahamiyatini tan olish uchun o‘quv jarayonining barcha qatnashchilariga tizimli tahsir ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Bunda texnologiya fani o‘qituvchisining samarali tahsiri individuallashtirilgan va o‘quv jarayoni qatnashchilarining ehtiyojlari va motivatsiyasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. SHu nuqtayi nazardan, o‘quv jarayonining qatnashchilari ham o‘qituvchilar, ham fan o‘qituvchilari, shu jumladan sinf o‘qituvchilari hisoblanadi.

Umumta’lim maktabida fan o‘qituvchilari odatda ham sinf rahbari, ham tarbiyachi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu sifatda ularning o‘quvchilar o‘rtasida avvalo ahillik va do‘stona jamoaning shakllantirishi mashg‘ulotlar samarasini oshiradi. Agar texnologiya mashg‘ulotlarining o‘quvchilar jamoasida ijobiy kayfiyat va ijodiy muhitga tahsiri to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilsa, u holda tarbiyachi va sinf rahbarlarining ijobiy munosabati ancha ortadi. Biz yana bir toifani ajratamiz, u rasman umumta’lim maktabida o‘quv-tarbiyaviy jarayonning ixtirochisi bo‘lmasa ham uni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar uchun bolalarning jismoniy sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilish, ularning ijodkorligini rivojlantirish, aql-idrokni saqlash, ijtimoiy mashuliyat va sinfdoshlari orasida o‘z tarbiyalanuvchilarining "raqobatbardoshligini" tahminlashga intilish muhim motivatorlardir. SHunday qilib, o‘quvchilarning texnologiya darslariga doimiy qiziqishini shakllantirish, maktab o‘qituvchilari va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni tahminlash uchun fan o‘qituvchisi uchun quyidagi zarur shart-sharoitlarni tahminlash muhimdir:

– har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini ifoda etish va rivojlantirish imkoniyatini tahminlash o‘zini namoyon qilish, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z taqdirini o‘zi belgilash jarayonlarini rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish;

– tasviriy faoliyat malakalarining ahamiyati va zarurligining amaliy tasdig‘ini namoyon qilish (turmushda, fan va texnikaning turli sohalarida, hayotiy muammolarni hal etishda tasviriy vositalardan foydalanish namunalari);

– fanlararo aloqalarni amalga oshirish (ikki yoki undan ortiq o‘quv fanlari negizida har xil "ijodiy birlashmalar" va boshqalar);

– o‘quvchilarning ijodiy ahamiyatga ega sifatlarini rivojlantirish dinamikasini aniqlovchi tadbirlarni tashkil etish (har birining alohida va sinf jamoasi to‘liq holda);

– ota-onalar bilan tizimli va maqsadli ishlarni amalga oshirish, shu jumladan ijodiy shaxsni shakllantirishda vizual faoliyatning ahamiyati to‘g‘risida suhbatlar va mahruzalar o‘tkazish, ochiq darslarni tashkil etish, jamoaviy ijodiy tadbirlar va o‘zaro tahsirning boshqa shakllari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4884-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
8. O.Qo‘ysinov, A.Nosirov. Chizmachilik fani konsepsiyasi. – T.: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.
9. O.Qo‘ysinov, A.Nosirov. Chizmachilik fanidan uzluksiz ta’limning Milliy o‘quv dasturi. – T.: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.
10. Z.Teshaboev. “Texnologiya fanini o‘qitish metidikasi”. O‘quv qo‘lanma, “Klassik” nashriyoti 2023.
11. I.Karimov, D.Mamatov. “Umumta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Klassik” nashriyoti 2021
12. Z.Dehqonova. The role of electronic educational manuals in the field of ict
13. D. X. Mamatov. Chizmachilik darslarida o‘qitishning zamonaviy uslublarini joriy qilish

AN’ANAVIY METODDAN FOYDALANIB INFORMATIKA FANIGA DOIR DARSLARNI O‘TISH METODIKASI

Sh.O.Xolmurodov
Termiz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada an’anaviy metoddan foydalanib informatika faniga doir darslarni o‘tish metodikasini yoritishda kreativ yondashuv amalga oshirilganligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: an’anaviy, metod, tizim, mustaqil, fikr, tashabbus, xotira, reproduktiv, jarayon, aql, faoliyat,samara, aloqa, qoida.

The article states a creative approach to explaining the methodology of computer science lessons using the traditional method.

Key words: traditional, method, system, independent, thought, initiative, memory, reproductive, process, mind, activity, effect, communication, rule.

Ma’lumki, an’anaviy metodda o‘qituvchi axborotni tushuntiradi, tizimli yonlashuvda esa mantiqiylik, aniqlik mavjud bo‘ladi. O‘quvchining tashabbuskorligi, mustaqil fikrga egaligi tadqiqiy – kreativ yondashuvda amalga oshadi.

Ilmiy jihatdan asoslangan metodlarni qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligiga xizmat qiladi. Psixolog Z.I.Kalmekova tavsiya etgan metodlar shu jihatdan birmuncha asosli. U o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarida tafakkurni reproduktiv va produktiv (mahsuldor) turlarga ajratib o‘rgangan edi [5].

O‘ziga xos fikr yaratish yoki muhim ilmiy ahamityaga molik bo‘lgan, kashf qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv darajadagi tafakkur deyiladi. Insonning tayyor mulohazalarni o‘zlashtirib olishga qaratilgan tafakkuri reproduktiv tafakkur hisoblanadi.

Bir necha yillardan buyon o‘qitishga an’anaviy yondashuv bilan noan’anaviy yondashuvlar o‘rtasida bahs yuritilmoqda. O‘qitishga an’anaviy yondashuvga tushuntiruvchi, reproduktiv metodlar kiritiladi. Chunki bunda o‘quvchilarga tayyor bilimlar beriladi; o‘qituvchi bilimlarni uzatish hamda singdirish yo‘llarini tashkil qiladi. O‘quvchilar bilimlarni qabul qilib, uni o‘z xotiralarida saqlab qoladilar hamda olgan bilimlarini xotirada qayta tiklab aytib beradilar.

An’anaviy tizimda, ya’ni reproduktiv metodda o‘quvchi olgan ma’lumotlarini ma’lum vaqt o‘tib tiklay olsa (vazifa so‘raganda, imtihonda) o‘zlashtirish ijobiy baholanadi. Chunki bu tizimda bilimlar o‘lchovi, asosan, eslab qolish, xotiraning o‘tkirligi bilan o‘lchanadi. Bizningcha, reproduktiv metodning kamchiligi shundaki, unda o‘quvchilar izlanmaydi, topmaydi; fikrlar xilma-xilligi yuz bermaydi, berilgan bilimlarning esa hamisha hammasi esda qolavermaydi.

O‘quvchilar reproduktiv metod orqali o‘qitilganda ko‘p bilim egallashlari mumkin, ammo ularda o‘rganish quvvati nofaol bo‘ladi, tafakkur va nutq rivojlanishi yuksak bo‘lmaydi. Reproduktiv metodni biz to‘la inkor qila olmaymiz. Chunki bunda bilimlar o‘zgalar (o‘qituvchi) vositasida egallanadi, masalaga kreativ yondashi uchun zamin tayyorlanadi.

An’anaviy o‘qitishda o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri – bu

o‘quvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni tarkib toptirish,ularga eslab qolishning usullarini, fikr yuritish jarayonlarini o‘rgatishdan iborat. Reproduktiv metodda o‘qitishning afzal tomonlari aql-zakovat insonning xotirasi bilan bog‘liq holda olib borilishida. Inson xotirasining mustahkamligi aqliy zukkolikning qaror topishi muhim sharti.

Insonlarning xotirasini mustahkamlash uchun asosan, quyidagi shartga rioya qilish lozim.

Eng avvalo, o‘tkir zehnli bo‘lish, fahm – farosat yordamida uqib olish, idrok qila olish, o‘qigan narsalarni bir necha marta esga olish hamda ko‘rish orqali eslab qolish. Demak, xotira – aql – zakovat, zehn, iste’dod bilan bog‘liq jarayon ekan.

Psixolog olim V.Karimova xotira eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog‘liq murakkab jarayon ekanligini ta’kidlagani holda, inson xotirasining yaxshi bo‘lishini bir necha omillarga bog‘liq deb ko‘rsatsa [2], psixolog olim E.G‘oziev [3] xotira tushunchasiga turli nuqtai nazaridan qaraydi. Jumladan, u xotirani bilish jarayoni, produktiv yoki reproduktiv mnemik faoliyat, amaliyotga zarur bilimlar fondi [3] deb ataydi. Bizningcha, xotira reproduktiv (produktiv emas) faoliyat bo‘lib, materilani eslab qolish, esga tushirish, tushunilgan va anglanilgan holat.

Eslab qolishning samaradorligi o‘quvchilarning aqliy faoliyat darajasi bilan bog‘liq, ya’ni bu mnemik xotira usuli hisoblanadi. “aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishini tashkil etish va boshqarish usullarini egallashiga uzqiy aloqadordir. Mnemik xotira usullariga ta’rif yoki qoidani so‘zma-so‘z eslab qolish ham kiradi [3].

Esda saqlash, esga tushirish kabilar xoirani charxlaydi hamda bilishga qiziqish uyg‘otadi, hozirjavoblik hissini rivojlantiradi, qonun -qoidalarni o‘rganishda ahamiyatli sanaladi.

Xotirada ma’lumotlarni saqlash bir necha xil yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Birin-ketinlik, mantiqiylik, anglanganlik holatlarda esda olib qolish mustahkamroq bo‘ladi, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan ma’lumotning xotirada saqlanishini amerikalik psixolog V.Kvinn quyidagicha tasnif qiladi [4].

Censor xotira bloki	Ma’lumot tushdi, lekin saqlanmadi	Qisqa muddatli xotira bloki	Ma’lumot saqlanmali	Uzoq muddatli xotira bloki	Muhim ma’lumot ajratib olinli

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, biz amaliyotda qo‘llagan xotirani sinash hamda muschtahkamlashga qaratilgan noan’anaviy metodik usuli V.Kvinn ta’kidlaganidek, uzoq muddatli xotira blokiga hamda muhim ma’lumotni ajratib olishga asoslangan bo‘lib, unda asosiy zarur ma’ulmotlar bir necha marta takrorlanib, amaliyotda mustahkamlanadi. Chunki inson tafakkuri uzoq muddatli xotiradagi ma’lumotlar, shuningdek, ko‘p narsa ichidan alohidani tanlab olish hisobiga rivojlanadi, bu esa o‘z navbatida reproduktiv tafakkurni taqozo etadi.

Biz qo‘llagan noan’anaviy metod, albatta, o‘quvchi-yoshlarning fiziologiyasi hamda psixologiyasiga bog‘liq. Insonning o‘spirinlik davri aqliy imkoniyatlarni ishga solishning samarali vaqti hisoblanadi. Chunki bu vaqtda ularda o‘qib, uqib olishlik san’ati rivojlangan bo‘lib, uquvlikning qulay imkoniyati vujudga keladi.

Adabiyotlar

1. Kalmekova Z.N. Produktivnoe meshlenie kak osnove obuchaemosti. –M.: “Pedagogika”, 1981. – 117 s.
2. Karimova V. Psixologiya. – T., 2002. –B. 96-97s.
3. Prikladnaya psixologiya. Spb. – 2000. – S. 37.
4. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: “Chinor YeNK”, 2002. –B. 76.
5. G‘oziev E. Tafakkur psixologiyasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1990. –176 b.
6. Холмуродов, Ш. О. (2021). РОЛЬ ИННОВАЦИИ В ТЕХНОЛОГИИ
7. ВОСПИТАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НФОРМАТИКИ. Вопросы науки и образования, (18), 11-19.
8. Kholmurodov Shuhrat Okboevich. (2021). MATHCAD SYSTEM AS A MEANS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF PHYSICS.
9. Archive of Conferences, 138-141. Retrieved from https://www.conferencepublication.com/in dex.php/aoc/article/view/1458
10. Kholmurodov S. A. Mechanisms for improving the professional andcreative
11. activity of a computer science teacher //Asian Journal of Research in Social
12. Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 153-157.
13. Kholmurodov S. A., Kabilovich X. N. The State of Multimedia Software Today //Eurasian Journal of Media and Communications. – 2022. – T. 12. – C. 10-14.
14. Kholmurodov S. O. DIGITAL INFORMATIONAS A MEANINGFUL ELEMENT OF DIGITAL INDUSTRY COMPONENTS //Thematics
15. Journal of Business Management. – 2021. – T. 10. – №. 7.
16. Kholmurodov S. O. IMPROVING THE STRUCTURE AND CONTENT OF THE COURSE THEORY AND METHODS OF TRAINING AND EDUCATION IN COMPUTER SCIENCE IN ACCORDANCE WITH THE STATE STANDARDS OF EDUCATION OF UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 7. – C. 89-92.
17. Xolmurodov S. O. METHODOLOGICAL ASPECTS, CONTENT AND
18. ORGANIZATIONAL FORMS OF TEACHING A COMPUTER SCIENCE COURSE AT HUMANITARIAN FACULTIES OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 239-
19. 241.
20. Холмуродов Ш. О. ОСНОВА РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА ПРОЦЕССЫ
21. ИНФОРМАТИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 179-184.
22. 15. Холмуродов Ш. О. СИСТЕМА ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ СТУДЕНТОВ ИНФОРМАТИКОВ //Digital. – 2021. – T. 3. – №. 1.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ В ПРОЦЕССЕ ИНТЕГРИРОВАННОГО УРОКА

Аннаева Лола Расуловна
старший преподаватель НЦОНМП Кашкадарьинской области

Аннотация: В статье рассматриваются проблема интеграции, которая по-прежнему остается актуальной в наше время в процессе обучения, системный подход являющийся основой интеграции знаний, а также методические особенности реализации межпредметных связей в процессе интегрированного урока, так как на интегрированных уроках формируются важные компетенции: ценностно-смысловые; информационные; коммуникативные, а при интеграции возрастает темп изложения учебного материала, что концентрирует внимание обучаемых и стимулирует их познавательную деятельность.

Ключевые слова: межпредметные связи, система, интеграция, интегрированный урок

Annotatsiya: Maqolada o‘quv jarayonida hozirgi davrda dolzarb bo‘lgan integratsiya muammosi, bilimlarni integratsiyalash uchun asos bo‘lgan tizimli yondashuv, shuningdek, integratsiyalashgan jarayonda fanlararo aloqalarni amalga oshirishning uslubiy xususiyatlari ko‘rib chiqilgan, chunki integratsiyalashgan darslarda muhim kompetensiyalar shakllanadi: qiymat-semantik; axborot; kommunikativ, integratsiyalashgan holda o‘quv materialini taqdim etish tezligi oshadi, bu o‘quvchilarning diqqatini jamlaydi va ularning bilim faolligini oshiradi.

Tayanch so‘zlar: fanlararo aloqalar, tizim, integratsiya, integral dars

Abstract: The article discusses the problem of integration, which still remains relevant in our time in the learning process, a systematic approach that is the basis for knowledge integration, as well as methodological features of the implementation of interdisciplinary connections in the process of an integrated lesson, since the following competencies are formed in integrated lessons: value-based - semantic; general cultural; informational; communicative, etc., and with integration, the pace of presentation of educational material increases, which concentrates the attention of students and stimulates their cognitive activity.

Key words: interdisciplinary connections, system, integration, integrated lesson

Успех обучения во многом зависит от количества необходимых взаимосвязанных фактов, событий, явлений, помогающих развивать способности учащихся быстро и точно воспроизводить в памяти ранее усвоенные знания. В формировании этой способности межпредметным связям принадлежит важная роль. Естественно, что реализация межпредметных связей не может решить всех сложных задач обучения. Поэтому активная работа каждого учителя по усилению, расширению и углублению межпредметных связей является одним из важнейших путей в комплексном решении проблем обучения и воспитания школьников, формирования у них диалектического образа мышления.

Понятие "межпредметные связи" в литературе характеризуется по-

разному. В "Педагогической энциклопедии" оно определяется как взаимная согласованность учебных программ по различным предметам. Межпредметные связи взаимно учитывают общее между предметами, как в содержании, так и в учебно-воспитательном процессе. При их систематическом и целенаправленном осуществлении перестраивается весь процесс обучения, то есть они выступают как современные принципы, которые ведут к интеграции (объединению, слиянию в известных пределах в одном учебном предмете обобщенных знаний той или иной области).

Под интеграцией понимается сближение и связи наук, составление отдельных системы в единое целое. Проблема интеграции по-прежнему остается актуальной в наше время в процессе обучения. Системный подход является основой интеграции знаний. Понятия "система" и "интеграция" близки. Интеграция предполагает создание у школьника целостного представления об окружающем мире.

Частным случаем проблемы интеграции выступают интегрированные уроки, призванные обеспечить единый подход учителей данных учебных предметов к решению общих учебно-воспитательных задач на основе обобщения. Это позволяет решать существующие в предметной системе противоречия между разрозненным усвоением по предметам, знаниями учащихся и необходимостью их комплексного применения в практике, трудовой деятельности и в жизни человека.

Идея интеграции образования все настойчивее заявляет о себе и заставляет педагогов искать эффективные пути ее реализации. На сегодня обозначился ряд различных подходов и направлений в данной области: интеграция через поиск межпредметных связей; тематическое планирование по принципу одновременного прохождения сходных тем в разных учебных дисциплинах; разработка новых учебных курсов, соединяющих в себе информацию из разных предметов. Все это свидетельствует о необычной актуальности самой проблемы интеграции.

Предметная система обучения в школе ориентирует учащихся на дифференцированное усвоение знаний из различных областей. Потоки информации и её объёмы так велики, что становится трудно своевременно и качественно отслеживать необходимую информацию по любому из направлений научного знания. Большая часть информации остается невостребованной.

При организации интегрированного обучения появляется возможность показать мир во всем его многообразии с привлечением разных знаний: литературы, музыки, живописи, что способствует эмоциональному развитию личности ребенка и формированию его творческого мышления. Методика интегрированного урока обеспечивает деятельность учителя и ученика на уровне субъектных отношений, в результате которых возникают возможности для совместного творчества и саморазвития участников образовательного процесса. Перестройка процесса обучения на основе осуществляемых межпредметных связей сказывается на его результативности: знания приобретают качества системности, умения становятся обобщенными,

комплексными, усиливается мировоззренческая направленность познавательных интересов учащихся, более эффективно формируется их убежденность и достигается всестороннее развитие личности.

Таким образом, актуальность проблемы интеграции социально обусловлена и вызывает необходимость изменений в обучении подрастающего поколения, повышения качества знаний, практических умений, формирования определённых компетенций, уровня воспитанности, познавательной потребности.

За основу интеграции может быть взят любой урок с его установившейся структурой и логикой поведения, на этот урок привлекаются знания, результаты анализа понятий с точки зрения других наук, других учебных предметов. Например, группы понятий "зима", "мороз", "стужа", "вьюга" рассматривается на уроках чтения, русского языка, природоведения, музыки, изобразительного искусства, но интегрированным будет тот урок, на котором для анализа понятий привлекаются знания, усвоенные на других учебных предметах. Сам же урок остается цельным, логически последовательным, с присущей ему методикой поведения, хотя более творческим, раскрепощенным.

В методике обучения термин "интеграция" - это наука о закономерностях обучения, воспитания и развития учащихся средствами определенного учебного процесса, предмета и их совокупностью.

Понятие "интеграция" - это создание у школьников целостного представления о мире, окружающем их, с одной стороны, и нахождения возможности для сближения межпредметных знаний, с другой. В связи с этим актуальной и перспективной явилась мысль К.Д.Ушинского о связи между предметами.В.А.Сухомлинский писал: "Процесс обучения будет легким, если это станет для детей ярким, захватывающим, наполненным живыми образами, звуками, мелодией то, что ребенок обязан запомнить прежде всего". Интеграция должна иметь количественный характер: "Немного обо всем". Дети получают все новые и новые представления о понятиях, систематически дополняя и расширяя круг уже имеющихся знаний. С помощью интегрированных уроков появляются большие возможности развивать у ребенка интеллект. Прежде чем объединить два предмета нужно глубоко предварительно их анализировать. Предложенный подход к проблеме интеграции обучении требует детализации.

Рассмотрим основные положения методики интегрированного урока:

1. Четкое определение цели проведения интегрированных уроков и задач, заданные с позиции интегрирования.

2. Пересмотр содержания изучаемого материала.

Мы предлагаем строить интегрированные уроки на базе имеющихся предметов и того материала, который предлагается учащихся и учителю в учебных программах и действующих учебниках. Для проведения интегрированных уроков необходимо: а) проанализировать программы по учебным предметам; б) выявить одинаковые темы; в) объединить их с позиции ведущей идеи и ведущих положений. При отборе материала для

интегрированного урока учителю следует руководствоваться тем, что содержание разных предметов, объединенных в одной теме, - не простая сумма знаний. Необходимо помнить, что входящие в нее компоненты функционируют как подсистемы, обеспечивающие единое целое в данной системе. В местах взаимодействия содержания учебных предметов (на их пересечении) возникает поле взаимодействия и активные точки, которые могут обеспечить переход на качественно новый уровень функционирования интегрированного урока как системы.

3. Учителю следует пересмотреть методы и средства обучения, формы организации учебной деятельности школьников, поскольку интегрирование знаний предполагает детальную проработку всех единиц учебного материала, входящих в тему данного урока. Взаимосвязанная деятельность учителя и учащихся на уроке способствует созданию творческих ситуаций, которые поднимают систему на новый уровень интегрированных знаний. На интегрированном уроке происходит сочетание методов обучения разных учебных предметов, реализации которых помогают средства обучения. Средствами обучения являются все ресурсы, приспособления и источники, помогающие учителю учить, а ученику учиться. Интегрированный урок наряду с сочетанием методов и средств обучения предполагает сочетание форм организации учебной деятельности школьников на уроке, а именно: индивидуальной, групповой, фронтальной.

4. С позиции заданных целей интегрированного урока обозначаются его результаты: - повышение уровня знаний по предмету; - изменение интеллектуальной деятельности; - развитие речи школьников, обусловленное взаимовлиянием разных учебных предметов; - эмоциональное развитие учащихся, основанное на привлечении музыки, живописи, литературы; - рост познавательного интереса школьников, проявляемого в желании активной и самостоятельной работы на уроке и во внеурочное время; - включение учащихся в творческую деятельность, результатом которой могут быть их собственные стихотворения, рисунки, панно, поделки, являющие отражение личностного отношения к тем или иным явлениям и процессам.

Возникновение идеи интеграционного обучения определено прогрессом человеческого развития, повышением требований при воспитании подрастающего поколения. Науке необходимы дополнения и изменения, направленные на эффективность учебно-воспитательного процесса. Современная педагогика реализует идею интеграции через поиск межпредметных связей и введения интеграционных курсов.

Таким образом, актуальность проблемы интеграции социально обусловлена и вызывает необходимость изменений в обучении подрастающего поколения, повышения качества знаний, практических умений, формирования определённых компетенций, уровня воспитанности, познавательной потребности.

На основании требований к интегрированному уроку и сформулированному выше определению «межпредметные связи» нужно отобрать средства, этапы и особенности организации проведения

интегрированного урока для реализации межпредметных связей, так как интегрированный урок – это довольно сложная форма организации учебно-когнитивной деятельности обучающихся, которая требует большой и тщательной подготовки от педагога и от школьников. Задача же педагога, планирующего интегрированный урок, - научить обучающихся мыслить собственными категориями, сопоставлять обобщенные выводы с конкретными явлениями. А для этого нужно, чтобы обучающиеся пытались взглянуть на вещи, явления заново, как на непривычные для них. Подготовка к интегрированному уроку начинается с составления подробного конспекта урока, составления технологической карты занятия. Каждый этап урока расписывается и указывается время, затраченное на этот этап. Педагог заранее продумывает ход урока и прогнозирует все возможные паузы, связанные с наглядностями и раздаточным материалом и др. Обычно на интегрированных уроках немало учебного оборудования: от карточек до мультимедийного оборудования. Учителя, которые работают в паре, даже если в определѐнный момент ведущую роль играет один педагог, второй не должен сидеть в тени. Он либо готовится к следующему этапу, либо наблюдает за работой обучающихся, помогает им. Можно привлекать обучающихся к подготовке интегрированного урока, заранее предлагая им подготовить некую часть нового материала. Таким образом, интегрированный урок может стать ролевым. Каждый педагог постоянно ищет такие формы и методы организации учебной деятельности, которые позволят при минимальных затраченных усилиях добиться положительной динамики в результатах обучения всей группы, в этом может помочь грамотно построенный интегрированный урок. Интеграция дает возможность показать учащимся «мир в целом», преодолев разобщенность научного знания по дисциплинам, а также высвобождаемое за этот счет учебное время использовать для полноценного осуществления профильной дифференциации в обучении. Иначе говоря, с практической точки зрения, интеграция предполагает усиление межпредметных связей, снижение перегрузок обучающихся, расширение сферы получаемой информации обучающимися, подкрепление мотивации обучения. Методической основой интегрированного подхода к обучению являются формирование знаний об окружающем мире и его закономерностей в целом, а также установление внутрипредметных и межпредметных связей в усвоении наук. Межпредметные связи можно успешно использовать для дополнения, подтверждения или восполнения знаний обучающихся в родственных предметах. Интеграция является источником нахождения новых фактов, которые подтверждают или углубляют определенные наблюдения, выводы обучающихся в различных предметах. Она снимает утомляемость, перенапряжение школьников за счет переключения на разнообразные виды деятельности. Интегрированные уроки помогают решить большее количество задач, применять разные методы и формы обучения. Интегрированные уроки можно организовать между разными учебными дисциплинами, которые, на первый взгляд, кажутся несовместимыми. На интегрированных уроках формируются следующие

компетенции: ценностно-смысловые (понимание цели урока); общекультурные (культура речи); информационные (работа с компьютером, умение самостоятельно подбирать необходимый материал); коммуникативные (умение работать в группах, выслушивать, общаться, лояльно относиться к людям с другой точкой зрения). При интеграции возрастает темп изложения учебного материала, что концентрирует внимание обучаемых и стимулирует их познавательную деятельность. Снимается проблема отношения обучаемых к «главному», "второстепенному» предмету и существенно облегчается система контроля.

Таким образом, интеграция учебных предметов представляется весьма перспективным средством совершенствования учебного плана и тем самым – всей системы образования. Интегрирование в процессе образовательной подготовки обучающихся позволяет решить проблему разобщѐнности учебных предметов, что даѐт возможность: устанавливать связи между различными понятиями и определять их практическую направленность; исключить повторы в содержании учебных дисциплин; углубить и детализировать изучение материала без дополнительных временных затрат; повысить мотивации учебно-познавательной деятельности обучающихся за счет нестандартной формы урока; повысить творческий потенциал обучающихся.

Литература

1.Беленький Г.И. Некоторые теоретические аспекты межпредметных связей // Взаимосвязи предметов гуманитарного цикла. — М.: Педагогика, 1979.

2. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Под. ред. В.В. Давыдова. — М.: Педагогика-Пресс, 1996.

3.Зверев И.Д. Межпредметные связи как педагогическая проблема // Советская педагогика. — 1974. — № 12. — С. 10—16.

4.Кулагин П.Г. Межпредметные связи в процессе обучения. — М.: Просвещение, 1980.

5. Колягин Ю.М. Интеграция школьного обучения // Начальная школа-1990. – № 90.

6.Павлов И.П. Избранные труды / Под общ. ред. М.А. Усиевича. — М.: Учпедгиз, 1954.

7.Российская педагогическая энциклопедия; в 2т.М.: Изд. Большая Российская энциклопедия.

8.Сухаревская Е.Ю. Интегрированное обучение в начальной школе: Ростов на /Д: Феникс 2003 г. 1 серия “Учение с увлечением.

9.Ятайкина А.А. Об интегрированном подходе в обучении // Школьные технологии.2001 – № 6.

MARKAZIY OSIYO ALLOMALARINING HUNAR TA’LIMI HAQIDA QARASHLARI

Qlichev Ulug‘bek Abdumavlonovich
IIV Sirdaryo akademik litsey Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqola milliy hunarmandchilikda ta’lim-tarbiya masalalari, yoshlarga hunar o‘rgatish, ustoz-shogird an’analari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: hunarmand, milliy hunarmandchilik, ustoz-shogird, temirchilik, pichoqchilik, to‘quvchilik, ma’naviy meros, yoshlar tarbiyasi, odob-axloq.

Annotation: This article provides information about the issues of education and training in national handicrafts, teaching young people, and the traditions of the master-apprentice.

Keywords: handicraftsman, national handcraft, master-apprentice, blacksmithing, knives, weaving, spiritual legacy, youth education, modesty-ethics.

Аннотация: В данной статье представлена информация о вопросах воспитания и обучения национальным ремеслам, обучении молодежи, традициях мастера-подмастерья.

Ключевые слова: ремесленник, народные промыслы, мастера-подмастерья, кузнечное дело, ножеделие, ткачество, духовное наследие, воспитание молодежи, нравы.

Inson har doim ma’lum bir hunarga ega bo‘lish g‘oyalari muqaddas kitob Qur’oni Karim, hadislarda ilgari surilgan va buyuk allomalar tomonidan hunarli bo‘lishga da’vat qilib kelganlar. Tarixdan, Dovud payg‘ambar – temirchilik, Forobiy – bog‘bonlik, shoir Sakkokiy – pichoqchilik, shoir Zavqiy – mahsido‘zlik, Hoja Bahovuddin Naqshband ham hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, insonlarni hunar o‘rgatishga va hunar bilan shug‘ullanishga chorlagani yaxshi ma’lum. Jumladan, Yusuf Xos Hojib hunarmandlar haqida: “Juda zarur kishilardir..... temirchi, tikuvchi, etikchi, suvchi, to‘quvchi, egarchi, toshchi, o‘qchi, kamonchilarning foydasi katta..... bu dunyoda ular yaxshilik keltiradilar”-deya, ta’kidlagan edi.

Milliy hunarmandchilik sohalarida ajdodlar tomonidan yaratilgan ulkan meros, usta – shogird an’analarini qayta tiklash istiqlolning birinchi kunlaridanoq davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Natijada hunarmandchilik uyushmalari qoshida “Ustoz-shogird” maktabi qayta tiklandi.

Hozirgi kunda joylarda 115 ta “Ustoz – shogird” maktablari faoliyat olib bormoqda. Ustoz-hunarmandlar esa 886 nafar shogirdlariga o‘z hunar sirlarini o‘rgatmoqdalar.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda ajdodlarning qoldirgan milliy hunarmandchilik an’analari va ustoz-shogird ta’lim odatlaridan oqilona foydalanish lozim. Yoshlarga hunar o‘rgatish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ajdoddan – avlodga o‘tib kelayotgan ajdodlarning milliy hunarmandchilik sohalariga oid moddiy va ma’naviy merosi ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hunarmandlarning mehnati mashaqqatli ko‘rinishga ega bo‘lib u sabr – bardosh, chidam talab qiladigan kasb hisoblanadi. Shunga qaramasdan bugungi kunda kasbning ajdoddan – avlodga o‘tishi uchun usta jiddiy e’tibor qaratadi. O‘g‘il, qizi yoki yaqin qarindoshiga usta o‘z kasbining barcha sir – asrorlarni o‘rgatishga harakat qiladi.

Tarixdan ma’lumki, usta ustoz darajasiga erishish oson bo‘lmagan. Buning uchun ustoz o‘z sohasidan tashqari ko‘plab ism sohalaridan xabardor bo‘lishi kerak. Misol uchun dunyoqarashi keng, ma’lum borada diniy va dunyoviy fanlarni tushunishi lozim bo‘lgan. Ustozga, talabgorlar ko‘p bo‘lib, u yillar davomida murakkab sinovlardan o‘tib borganlar.

Tasavvuf allomalaridan biri Bahouddin Naqshband shogirdlariga qattiqqo‘l, talabchan bo‘lib, o‘zlarining maxsus odob qoidalarini ishlab chiqqanlar. Shu bilan bilan birga, hunarmandlarning axloq – odobi, hunarmand va xaridor o‘rtasida munosabatlar, ustozga hurmat, shogirdning odob qoidalari, shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari, ustozning shogird oldidagi burch va vazifalari, hunarmandning kasb madaniyati va boshqa mezonlar o‘rgatilib borgan. Ustoz shogirdlarga nafaqat hunar o‘rgatish bilan kifoyalanmay, balki unga hayot saboqlaridan ham o‘gitlar beradi, shogirdning ma’naviy tarbiyasiga katta ahamiyat beradi.

Albatta ustoz tarbiyasini ko‘rmagan shogird o‘z ish faoliyatini tashkil qilishi ancha qiyin bo‘ladi. Shuning uchun xalqda “ustoz ko‘rmagan shogird ming maqomga yo‘rg‘alar” degan naql bejizga aytilmagan.

An’anaviy ustoz – shogird munosabatlarida yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq ko‘plab jihatlar aks etadi. Shogird odobida noloyiq ishlarni qilmaslik, o‘z ishini sidqidildan bajarishi, shogirdning eng yaxshi xususiyatlariga ustozga itoatli bo‘lish, sabr – toqat va iroda, halollik va pokizalik kabi xislatlar asta-sekinlik bilan singdirilib boriladi. Shu bilan birga, ustozning kasbiy fazilatlariga oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni shogirdlariga o‘rgata olish, shogirdlarni uyushtira olish, muomala madaniyati va boshqalardan iboratdir. Shuningdek, hunarmand odobiga o‘z ishining ustalariga hurmatda bo‘lish, nopok yo‘llar bilan boylik to‘plamaslik, tarozini to‘g‘ri ishlatish va boshqa ko‘plab qoidalar kiradi. Ota - bobolar azal – azaldan ustoz – shogirdlar uchun ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan odob – axloq, maxsus qoidalar, milliy an’analar shaklini ishlab chiqib, ushbu qoidalarga qat’iy amal qilganlar.

Ilmiy manbalar tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, ajdodlarning ustoz-shogird an’analaridan foydalanish natijasida yoshlarning odob-ahloq qoidalari va hunarlarni chuqur egallashlariga yordam beradi. Chunki, uning ahamiyati asrlar davomida to‘plangan tajribalarga asoslangan.

Masalaning mohiyatiga ma’lum xulosa tarzida shuni ta’kidlash lozimki, milliy hunarmandchilik sohasini kadrlar bilan ta’minlash masalasida bir qator ijobiy siljishlar yuzaga keldi. An’anaviy ustoz-shogird tizimi esa o‘zining yangi, mustaqillik sharoitida takomiliga yetgan shakl-shamoyiliga ega bo‘la boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qur’oni Karim. (Tarjima va izohlar, muallif Alovuddin Mansur).-Toshkent.: Cho‘lpon, 1992.

2. Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis qism. –Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 607 b.

3. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o‘rgatishning milliy an’anaviy asoslari (metodik tavsiyanoma). – T.: RUMS, 1999.

4. Muxtorov A. Usta va shogird odobi. – T.: Mehnat, 1999. 78 b.

5. Xo‘jaev M., Madiyorov B. Usta Hakim maktabi. – T.: Farg‘ona, 2001. 96 b

6. Yuldashev X.A., Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. / O‘quv uslubiy qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston, 2005. 239 b.

7. Yuldashev X.A. Ustoz va shogird odobi mavzusidagi o‘quv tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish metodikasi. /Metodik qo‘llanma. –T.: O‘MKHTKMO va O‘QTI, 2005. 82 b.

8. Abu Nasr Farobiy.Fozil odamlar shahri. –Toshkent.: Xalq merosi,1993. 224 b;

9. Abu Rayhon Beruniy. Minerologiya. Izb.soch. –Toshkent.:Fan,1968. 68 b;

10. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. –Toshkent.: O‘zbekiston,1992;

11. Temur tuzuklari. (A.Sog‘uniy va X. Karamatov tarj. B. Ahmedov tahr.) – Toshkent.: Adabiyot va san’at.tashr., 1996. 344 b;

12. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). –Toshkent.: Fan, 1971. 964 b;

13. Hasan Soliy. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. –Toshkent.: O‘qituvchi, 1993. 144 b;

14. Husayn Voiz Koshifiy. Futtuvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati (Pandnoma). –Toshkent.: Xalq merosi, 1994. 122 b.

15. Namangan shahridan yog‘och o‘ymakor Jo‘raev Mahmudjon bilan suhbat. 2006-yil 24-avgust.

O‘QISH MATERIALLARINI TUSHUNISHDA NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARINING TERMINOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MUHIM OMIL SIFATIDA

Kurbanova Husniya Shuhrat qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
husniyakurbanova20@gmail.com

Annotatsiya: Talabalarga ingliz tili nafaqat universitet ta’limi jarayonida kerak, balki kelajakdagi kariyeralari ushbu til bilan uzviy bog‘liq. Xalqaro almashinuv jarayonida yuqori sifatli kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nofilologik oliy o‘quv yurti bitiruvchilari xorijiy til muhitida sohaviy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Talabalarning norasmiy fikr-mulohazalari ham ularning kelajakdagi martaba yoki kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun xorijiy til o‘rganishda rasmiy ko‘rsatmalarga muhtojligi haqidagi pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Ayni vaqtda o‘qishni tamomlagandan so‘ng, talabalar magistratura va Ph.D. uchun ingliz tilini quyi yuqori B2 darajada bilishlari kerak. Respublikamizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi pedagogic faoliyati, akademik martabasi uchun xalqaro GMAT, SAT, GRE imtixonlarini topshirishlarii talab qilinmoqda. Shuningdek, ta’limda STEAM yondashuvi rivojlanayotgan bir davrda, ushbu talablarga munosib kadr bo‘lib yetishishlari uchun bo‘lajak mutaxassislar ingliz tili o‘qish, yozish, gapirish bo‘limlaridan va professional leksikasi bo‘yicha bilimga ega bo‘lishlari zarur. Quyida xorijiy til o‘rganishda terminologiyaning ahamiyati, termin va ularning turlari, kasbiy-sohaviy leksikaning ahamiyati haqida fikr yuritamiz.

Tayanch so‘zlar: nofilologik yo‘nalish, termin, ESP, GMAT, GRE,SAT, B2, kasbiy leksika, lug‘at boyligi, termin guruhlari

Abstract: Students need English not only in the process of university education, but their future careers are inextricably linked with this language. In order to carry out high-quality professional activities in the process of international exchange, graduates of a non-philological higher educational institution should have the opportunity to carry out field activities in a foreign language environment. Informal feedback from students also supports their position that they need formal instruction in foreign language learning to be successful in their future careers or careers. At the same time, after graduation, students can pursue master’s and Ph.D. must know English at the lower or upper B2 level. They are required to pass the international GMAT, SAT, GRE exams for their work and academic career in general secondary schools in our republic. Also, in the era of developing the STEAM approach in education, future professionals need to have knowledge of English reading, writing, speaking and professional lexicon in order to become a suitable staff for these requirements. Below, we will consider the importance of terminology, terms and their types, and the importance of professional lexicon in foreign language learning.

Key words: non-philological direction, term, ESP, GMAT, GRE, SAT, B2, professional lexicon, vocabulary, term groups

Аннотация: Английский язык необходим студентам не только в процессе

университетского образования, их будущая карьера неразрывно связана с этим языком. Для осуществления качественной профессиональной деятельности в процессе международного обмена выпускники нефилологического вуза должны иметь возможность осуществлять профессиональную деятельность в иноязычной среде. Неформальные отзывы студентов также подтверждают их позицию о том, что им необходимо формальное обучение изучению иностранного языка, чтобы добиться успеха в своей будущей карьере или карьере. В то же время после окончания обучения студенты могут получить степень магистра и доктора философии. должен знать английский язык на нижнем или верхнем уровне B2. Для работы и академической карьеры в общеобразовательных школах нашей республики они обязаны сдать международные экзамены GMAT, SAT, GRE. Также в эпоху развития подхода STEAM в образовании будущим специалистам необходимо владеть английским чтением, письмом, устной речью и профессиональной лексикой, чтобы стать подходящим персоналом для этих требований. Ниже мы рассмотрим значение терминологии, терминов и их видов, а также значение профессиональной лексики в изучении иностранного языка.

Ключевые слова: нефилологическое направление, термин, ESP, GMAT, GRE, SAT, B2, профессиональная лексика, лексика, терминологические группы.

Kirish qism. Terminologiya - bu kasbiy faoliyat jarayonida muloqot ishtirokchilari o‘rtasida ma’lumot almashish va o‘zaro tushunish vositasidir. Atamalarning yaratilish tarixi O‘rta asrlarga borib taqaladi, bu davrda ular ilmiy muloqot uchun vosita bo‘lib xizmat qilgan. Garchi terminologik tadqiqotlar yetmish yil oldin paydo bo‘lgan bo‘lsada, so‘nggi qirq yil mobaynida ulardan samarali foydalanilgan. O‘sha davrda maxsus leksik birliklarning asosiy turlari sifatida atamalar, nomlar, terminoidlar, prototermlar, pretermlar va kvaziterminlar alohida ajratilgan va o‘rganilgan. Termin deganda maxsus matnlarda faoliyat yurituvchi u yoki bu bilim sohasini ifodalovchi biz so‘z yoki iborani nazarda tutamiz. Darhaqiqat, 21-asrda atama tushunchasi ustida ko‘plab mualliflar tomonidan ta’riflari paydo bo‘ldi. 1959 yilda atama va uning o‘ziga xos xususiyatlari ta’rifini beruvchi maxsus asarlar da’vo qilingan bo‘lsa-da, aniq ma’lumot "lingvistik adabiyotda deyarli uchramaydi" (Nation, 2001).

Tadqiqot metodi. Nofilologik yo‘nalishlarda xorijiy til o‘rganish jarayonida atamalardan foydalanish va uning til o‘rganish hodisasiga ta’sirini bilish maqsadida ma’lumotlarni to‘plash, saralash, kuzatish, qiyoslash, tajriba-sinov va empirik metodlardan foydalanildi. Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ma’lumotlarni to‘plash natijasida, avvalo terminlar va ularning turlari haqida umumiy ma’lumotga ega bo‘lindi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi o‘n yillikda so‘z boyligi til o‘rgatish/o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishi umumiy qabul qilindi. Richards va Renandya (2002) ta’kidlaganidek, "lug‘at tildagi mukammallikning asosiy tarkibiy qismidir, u tilni bilish va o‘quvchilarning gapirish, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi". Luis lug‘atni o‘rgatish/o‘rganish muhimligini ta’kidlab, "leksika tilning asosi yoki yuragi hisoblanadi" deya

ta’riflaydi (Luis, 1993). Dellar va Xoking “Agar siz ko‘p vaqtingizni grammatikani o‘rganishga bag‘ishlasangiz ingliz tilingiz unchalik yaxshilanmaydi. Agar ko‘proq so‘zlar va iboralarni o‘rgansangiz, eng yaxshi darajada o‘rgangan bo‘lasiz (Tornbury, 2007). ESP tadqiqotchilari va amaliyotchilari so‘z boyligining ahamiyatini birdek anglaydi. Lug‘atni tanlash mos ravishda o‘quvchilarning ehtiyojlari va mavjud vaqt bilan birga amalga oshirilishi kerak. Lug‘at boyligini tashkil etuvchi so‘zlar turli guruhlarga bo‘linadi:

Asosiy va yordamchi lug‘atlar. Asosiy lug‘at turli xil vaziyatlarda eng ko‘p uchraydigan so‘zlarni anglatadi. Vidovson (1983) ga ko‘ra, asosiy lug‘at tarkibiga kiruvchi so‘zlar uzoq tarixga ega bo‘ladi. So‘z sanoqlari bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli ishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, ayrim leksik birikmalar yuqori yig‘indiga ega. ESP sinflarida lug‘atni o‘rgatish nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, quyidagi lug‘at turlarini ajratib ko‘rsatish kerak, ayrim leksik birikmalar yuqori darajali chastotaga ega bo‘lib, matnlararo tez-tez uchrab turadi. Asosiy yadrodagi elementlari sxematik ravishda bog‘lanmagan, shuning uchun turli talqinlarga sabab bo‘ladi (p. 92).

Asosiy bo‘lmagan so‘zlar umumiy emas, balki o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular asosiy so‘zlarga qaraganda kamroq antonimlarga ega bo‘ladi. Bunday so‘zlar kam sonli birikmalarda uchraydi.

Og‘zaki va yozma nutq lug‘atlari. Garchi lug‘at bo‘yicha mavjud adabiyotlarning aksariyati yozma matnlarni o‘rganish natijasida yaratilgan bo‘lsada, yozma va og‘zaki lug‘atning korpus asosidagi so‘nggi tadqiqotlari ularni qiyosiy o‘rganishga imkon berdi. Ular yozma matnlarning lug‘at boyligi bilan kundalik og‘zaki nutq lug‘ati o‘rtasidagi farqni ochib berdi. Kembrij Xalqaro Korpusiga (CIC) ko‘ra yozma ma’lumotlar asosan leksik/ leksik bo‘lmagan so‘zlardan, ya’ni mazmunsiz elementlardan, jumladan olmoshlardan predloglar va bog‘lovchilardan iborat, og‘zaki ro‘yxat esa bilish, o‘ylash, yaxshi, ol kabi leksik ma’noni qamrovchi so‘zlardan iborat. CIC ma’lumotlariga ko‘ra, og‘zaki matnlar lug‘at jihatidan yozma matnlarga qaraganda so‘z zichligi kamroqdir. Bu yozma matnlarga qaraganda og‘zaki nutqda tez-tez sodir bo‘ladigan takroriy va leksik muzokaralar bilan harakatdagi tilli dialog matnlarida sezilishi mumkin. Og‘zaki matnlar odatda noaniq bo‘ladi va umumiy so‘zlar yozma matnlarga qaraganda kundalik nutqda ko‘proq ishlatiladi. Qiyosiy tadqiqotdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, og‘zaki til kommunikativ til bilan aloqaning markaziy manbai, ammo yozma til kma’lumotqabul qilish uchun asosiy manba bo‘lib qolmoqda (Shmitt va Mak karty, 1997:38).

Nolingvistik ta’limda biz ma’lum mavzuga doir so‘zlarga duch kelamiz. Karter bunday so‘zlarni yordamchi so‘zlar deya ta’riflaydi, zero ular ma’lum mavzu bilan bog‘liqligi kam va neytral xususiyatga ega (Karter, 1988:172). Muayyan yoki akademik maqsadlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar ularni ma’lum sohaviy matnlar orqali o‘rganishlari mumkin, ammo muayyan soha vakili bo‘lmagan o‘rganuvchilarga bu zarur emas.

Protsessual lug‘atlar. Protsessual lug‘atlar xarakterli ravishda muloqot paytida murakkabroq so‘zlarning ma’nosi tushuntirish va ularni ifodalash, ularni aniqlash va tartibga solish uchun ishlatiladi. Ular odatda lug‘atlarda ta’rif berish

uchun ishlatiladi, shuning uchun o‘quvchilar so‘z boyligini shakllantirishda boshqa so‘zlarni o‘rganish jarayonida foydali deb topishlari mumkin.

Texnik, yarim-texnik va umumiy so‘zlar. ESP kontekstlarida lug‘atni o‘rgatish nuqtai nazaridan, lug‘atning ikkita toifasi o‘rtasidagi farqni bilish muhimdir: texnik va yarim-texnik. Dudli-Evans va Sent-Jon
(1998:83) bir-biriga o‘xshash toifalarni (Baker, 1988:91) ikkita kengroq guruhga ajratishni taklif qiladi:

a) umumiy tilda qo‘llaniladigan, lekin aniq va texnik tavsiflar va muhokamalarda yuzaga kelish chastotasi yuqori bo‘lgan lug‘atlar;
b) muayyan doiralarda maxsus va cheklangan ma’noga ega bo‘lgan lug‘atlar, fanlar bo‘yicha ma’no jihatidan farq qilishi mumkin.

Texnik lug‘at bir necha sohalardan ko‘proq bir ixtisoslashgan sohada qo‘llaniladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir mavzuda ishlatiladigan alohida so‘zlar mavjud, ya’ni faqat o‘sha mavzu sohasida yoki o‘sha mavzuda ishlatilganda yangi ma’noga ega bo‘lgan umumiy so‘zlardan tashkil topadi. Odatda texnik tilni o‘zlashtirish qiyinroq degan tendensiya mavjud. Sof texnik so‘zlar odatda fan o‘qituvchisi tomonidan talabalarga tanishtiriladi va tushuntiriladi; shuning uchun talabalar ESP darsida ularni uchratganda allaqachon tanish bo‘lishgan bo‘ladi.

Muhokama. Texnik lug‘atni o‘zlashtirish ESP o‘rganishning muhim qismi sifatida tan olingan. Manbalarda nolingvistik talabalarga texnik lug‘atning joriy etilishi ESP o‘qituvchisining javobgarligi deya da’vo qilinadi. Odatda, xorijiy til o‘qituvchisi ta’lim jarayonini soddalashtirish maqsadida, talabalarga texnik so‘zlarni-terminlarni tushuntirishlari va ulardan foydalanishda ko‘nikma hosil qilishlari kerak. Strivens (1972) ko‘rsatganidek, "muayyan sohani biladigan o‘quvchilar texnik so‘zlarni tushunishda ko‘p qiyinchilikga duch kelmaydi, ammo xorijiy til o‘qituvchisi muammolarga duch keladi”. Terminologiya tilning bir qismi sifatida mohiyatan normativ xarakterga ega standartlashtirislgan tizim. “Standartlashtirilgan terminologiya mutaxassislar o‘rtasida kommunikativ munosabatlar jarayonini tezlashtirish orqali o‘zaro samarali hamkorlikka erishishga yordam beradi”. Aniq terminologiyadan foydalanish nafaqat so‘z birikmasi yoki jumla darajasida, balki so‘z darajasida ham muhimdir, shuningdek, u matn ichidagi va matnlararo muvofiqlikni ta’minlaydi. Har qanday normadan chetga chiqish, ya’ni atamalarning noaniq ishlatilishi jiddiy munosabatlararo muammolarga olib kelishi mumkin. Terminologiyadan foydalanish va tushunish qobiliyati professional muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Qarama-qarshi terminologiyani o‘rganayotgan ESP talabalari ko‘pincha muammoga duch kelishadi: ma’lum bir domendagi ingliz terminologiyasi asosan bir xil va standartlashtirilgan bo‘lsa-da, mahalliy o‘qituvchilar va tarjimonlar bir xil tushuncha uchun turli atamalardan foydalanadilar, bu esa terminologik chalkashlikka olib keladi.Til mutaxassislari tillarda yagona atamalardan aniq foydalanish muayyan maqsadlarda muhim ahamiyatga ega ekanligiga rozi bo‘lishadi, chunki u professional muloqotni osonlashtiradi

Ma’lumki, mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoni til bilan shug‘ullanishdan farq qiladi, talabalar maxsus bilim o‘rganishib, fanga oid terminlar xorijiy tilda o‘qitiladi. Ingliz tilini muayyan maqsadlarda o‘rganayotgan talabalar doimo bir

muammoga duch kelishadi, ingliz tili ma’ruzachilari yoki amaliyotchilari bir tushuncha uchun turli atamalarni qo‘llashadi. Ular polisemiya hodisasi bilan chalg‘ishadi, ya’ni bir so‘z ikki yoki undan ko‘p tushunchaga ishora qilishi, yoki sinonimiya hodisasi ya’ni bir tushuncha turli belgilarga ega ekanligi. Polisemiya holatida talabalar kontekstdan noto‘g‘ri ma’noni tushunishlari mumkin. Sinonimiyaga kelsak, ular qaysi atama ko‘proq mos kelishiga ishonchlari komil emas. Bunga inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarda atamalarning qisman va hatto noto‘g‘ri taqdim etilishi ham kuchli ta’sir etadi. Talabalar o‘z ona tilisi (L1) va o‘rganilayotgan xorijiy til o‘rtasida atamalarning ekvivalentligini topishga qiynalishadi. Bunday muammolar nafaqat ma’lumotni tushunmaslikga olib keladi, bundan ham yomoni til o‘rganuvchilarini atamalar bilan ishlashdan bezdiradi. Demak, talabalar odatda atamashunoslik nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha ta’lim olmaydilar, shuning uchun ularning terminologik ongini va terminologik kompetensiyasini oshirish xorijiy til o‘qituvchisining vazifasidir degan xulosaga kelish mumkin.

Natijalar tahlili. Talabalar ma’lum bir bilim sohasining professional terminologiyasidan foydalangan holda turli xil kundalik va professional nutq vaziyatlarida lingvistik, nutqiy va ijtimoiy-madaniy bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Atamalar kasb yoki fanga aloqador axborot komponentidir, so‘z yoki so‘z birikmasini hosil qiluvchi lingvistik birlik sifatida kasb egalari tomonidan qabul qiluvchi va ishlab chiqaruvchi lug‘atning bir qismidir. Atamashunoslik muayyan sohada madaniyatlararo muloqotning zaruriy shartidir. Inson faoliyatining barcha turlarida yangi texnologiyalar va ilmiy ixtirolarning jadal rivojlanishi va uning ta’sirida inson bilimining jadal taraqqiy etishi natijasida yangi tushunchalarni aks ettiruvchi yangi so‘z va atamalar paydo bo‘ladi. Shunday qilib, terminologiyaning alohida leksik quyi tizim sifatidagi ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda, chunki u atamalar va ularni muayyan kontekstda qo‘llashni o‘rganadi va atamalarni yig‘ish, tavsiflash, qayta ishlash va taqdim etish bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, terminologiya fanlararo o‘rganish sohasi bo‘lib, u hujjatlashtirish va to‘g‘ri foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida kontekstdagi atamalarni tadqiq qilish va tahlil qilish orqali inson faoliyatining bir yoki bir nechta predmetlari yoki sohalariga xos bo‘lgan tushunchalarni belgilashni muntazam ravishda o‘rganadi. Aksariyat terminologlar "terminologiya, birinchi navbatda bir tizim, biz yashab turgan dunyoning o‘zi bir sistema, terminologiya esa ushbu dunyoning turli segmentlarini aks ettiradi va ularga g‘amxo‘rlik qiladi" degan fikrni ma’qullashadi. Sager ta’kidlashicha, terminologiya tilshunoslik, mantiq va ontologiya bilan bir qatorda tushunchalar va atamalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni rasmiy tashkil etish bilan shug‘ullanadi. Uning amaliy maqsadi - "muloqotda ko‘proq uyg‘unlik, izchillik va ifoda ravshanligiga erishish".

Bundan tashqari, terminologiya ixtisoslashgan lug‘at sifatida har bir til foydalanuvchisini va uning kognitiv rivojlanish darajasini hisobga oladi. Maxsus terminologiyalar ixtisoslashtirilgan ta’lim uchun muhim ahamiyatga ega. Agar terminologiya tilshunoslikning leksikasini tavsiflovchi qismi bo‘lsa, sohaviy terminologiya muayyan faoliyat turini tavsiflash bilan bog‘liqlikni anglatadi. Professional terminlar ma’lum toifaga tegishli shaxslararo muloqot jarayonida

paydo bo‘lib, kasbiy leksik manbani hosil qiladi. Kasbiy leksik kompetentsiya til o‘rganuvchilarining tegishli lug‘atni, uning asosida shakllangan ko‘nikma va malakalarni, nutq tajribasini kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘liq turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ifodalovchi yaxlit tushunchadir. “Kasbiy leksik kompetensiya talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘liq turli vaziyatlarda kognitiv-nutq tajribasini ifodalovchi, uning asosida shakllangan lug‘at, ko‘nikma va malakalarni qo‘llash qobiliyatini ifodalovchi yaxlit tushunchadir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. (1988). Sub-technical vocabulary and the ESP teacher: An analysis of some rhetorical items in medical journal articles. Reading in a foreign language, 4 (2), 91-105.
2. Dudley-Evans, Tony (1998). Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press.
3. Nation, I.S.P. (2001). Using dictionaries to estimate vocabulary size: Essential, but rarely followed, procedures. Language Testing, 10(1), 27–40.
4. Richards, J. C., Renandya, W.A. (2002). Methodology in language teaching: An anthology of current practice. Cambridge, Cambridge University Press.
5. Strevens, P. (1972). Technical, technological and scientific English. ELT Journal 27, 223-234
6. Schmitt, N., McCarthy, M. (1997). Vocabulary: description, acquisition and pedagogy. Cambridge, Cambridge University Press
7. Widdowson, H. G. (1983). Learning purpose and language use. Oxford, Oxford University Press

KIMYO O‘QUV FANIDA MUSTAQIL TA’LIMDAN ESSE YOZISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Julboyev To‘lqin Abduvaliyevich, Babayev Baxrom Nurillayevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti, kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchi, julboyevt@gmail.com. +998933054156)
O‘zbekiston Milliy Universiteti, kimyo fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mustaqil ta’lim o‘quv jarayonining muhim ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u talabalarda mustaqil bilim olish, mavzuni erkin nazariy - amaliy tahlil qilish, tegishli muammo va masala bo‘yicha o‘zining shaxsiy intelektual fikriga ega bo‘lish, ilmiy tadqiq etish, erkin fikrlash, muammoli masalalar yuzasida xulosa va takliflar ishlab chiqa olish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishga oid zarur bilim, tushuncha va ko‘nikmalar shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Аннотация. Самостоятельное образование является важной и неотъемлемой составляющей образовательного процесса, которая представляет собой возможность учающихся приобретать самостоятельные знания, свободный теоретический и практический анализ предмета, иметь свое личное интеллектуальное мнение по актуальным проблемам и вопросам, научным исследованиям. имеет большое значение в формировании необходимых знаний, понимания и умений, связанных со свободомыслием, умением вырабатывать выводы и предложения по проблемным вопросам и их реализации.

Annotation. Independent education is an important and integral component of the educational process, which represents the opportunity for students to acquire independent knowledge, free theoretical and practical analysis of a subject, and have their own personal intellectual opinion on current problems and issues, scientific research. is of great importance in the formation of the necessary knowledge, understanding and skills related to free-thinking, the ability to develop conclusions and proposals on problematic issues and their implementation.

Tayanch so‘zlar. kredit-modul tizimi, mustaqil ta’lim, esse, tezis, anorganik kimyo, kimyoviy tushuncha, kimyoviy jihozlar, kimyoviy moddalar, bilim, ko‘nikma, malaka, oliy ta’lim

Ключевые слова. Кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, эссе, тезис, неорганическая химия, химическая концепция, химическое оборудование, химические вещества, знания, навыки, квалификация, высшее образование

Key words. Credit-module system, independent education, essay, thesis, inorganic chemistry, chemical concept, chemical equipment, chemicals, knowledge, skills, qualifications, higher education

KIRISH

Kredit-modul tizimi oliy ta’lim muassasalarida bakalavr va magistratura ta’lim yo‘nalishlari o‘quv dasturidagi akademik kurslar yoki fanlardan modullarni tashkil etish va o‘lchash usulidir. Har bir modulga uni bajarish uchun zarur bo‘lgan vaqt va kuch miqdoridan kelib chiqib, ma’lum miqdordagi kreditlar beriladi hamda kreditlarni yig‘ish ta’lim oluvchilarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mustaqil ta’lim olish kompetensiyasi talabalarda mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishga, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[1]. Oliy ta’lim muassasalarida “Anorganik kimyo” fanini kasbga yo‘naltirib o‘qitish, talabalarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’lim olish motivatsiyasini shakllantirish, analitik va tanqidiy fikrlash malakasini rivojlantirishning ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlashning muhim mexanizmi sifatida mustaqil ta’lim olish traektoriyalarini belgilash, akmeologik kompetentlilikni rivojlantirishda talabalar mustaqil ishlarining o‘rni va samaradorligini kuchaytirish, malaka talablarini egallash jarayonida shaxsning sinergetik modelini rivojlantirish masalalari muhim dolzarblik kasb etadi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kredit- modul tizimi talabalarga individual modullarni to‘ldirish uchun kreditlar olish imkonini beradi, keyinchalik ular daraja yoki malaka uchun to‘planishi mumkin[3.4]. Kredit-modul tizimini o‘rganishga moslashuvchan va modulli yondashuvni ta’minlab, talabalarga fan bo‘yicha bir qator modullardan tanlash va o‘z daraja dasturini o‘z qiziqishlari, layoqati va intelektual aqliy qobiliyati hamda maqsadlariga moslashtirish imkonini beradi. Ta’lim olishda shaffoflik asosiy mezon hisoblanadi[5]. Kredit-modul tizimi dunyo bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida keng ko‘lamda qo‘llaniladi va u ta’lim muassasalar bo‘yicha turli kurslar o‘quv yutuqlarini o‘lchash va solishtirishning standartlashtirilgan usulini taqdim etadi.

Kredit-modul tizimidagi mustaqil ta’lim talabalarning an’anaviy akademik muassasalardan tashqarida o‘qishni davom ettirish va daraja yoki malaka olish uchun kredit olish qobiliyatini anglatadi[6]. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta’lim, onlayn kurslar yoki seminarlar yoki o‘quv dasturlarida ishtirok etish kabi turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Ushbu mustaqil ta’lim faoliyati odatda modullarga tuzilgan bo‘lib, ularni bajarish uchun kutilgan vaqt va kuchdan kelib chiqqan holda ma’lum miqdordagi kreditlar beriladi. Mustaqil ta’lim olishni tanlagan talabalar ko‘pincha ma’lum bir fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini ko‘rsatadigan baholash yoki yakuniy nazoratlarni muvaffaqiyatli topshirib, o‘qishlari uchun kredit olishlari mumkin. Keyinchalik bu kreditlar to‘planishi va oliy ta’lim muassasasiga o‘tkaziladi, keyinchlik ular diplom dasturini tugatish uchun ishlatilishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ishlaridan esse yozish - talabalarni dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy kreativ fikrini tanqid, publistik ijodiy va boshqa ko‘rinishda yozma bayon qilishdan iborat. Esse – aniq mavzu yuzasidan o‘zining shaxsiy fikr-mulohazalar asosida yoziladigan ijodiy ish hisoblanib, u kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi [7]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, esseni kimyo o‘quv fanini mavzusi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Essening kirish qismida – mavzuning mantiqiy va uslubiy jihatdan bog‘lab oydinlashtirish, uni yoritish uchun savolni to‘g‘ri qo‘yish kerak. Essega qisqacha tezis qo‘yish eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tezis muallifning shaxsiy

nuqtai nazaridan fikr bildirilib, asosiy qism isbotlanadigan fikrni yo‘naltiruvchi g‘oya hisoblanadi [8.9]. Asosan tezis essening kirish qismidan yoziladi. *Masalan.* kimyo o‘quv fanini o‘qitish talabalarni anorganik moddalarning sinflari va ularning xossalari bilangina emas balki, bu fanning nazariy asoslari bilan ham tanishtirishdan iborat. Bundan tashqari anorganik kimyo o‘quv fanidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish uchun amalda bajarish mumkin bo‘lgan tajribalar, ya’ni, kimyoviy jihozlar va idishlar bilan tanishish, kimyoviy moddalar va ularning xossalarini o‘rganish, zamonaviy tarozilarda tortish, turli laboratoriya tajribalarini o‘tkaza bilish ko‘nikmasini rivojlantirish, shisha naylar va idishlar yordamida turli tajribalar o‘tkazish, qurilmalarini tuza bilish, o‘quv adabiyotlarini tahlil qila bilish, kimyoviy formula va tenglamalar bilan hisoblashlar o‘tkazish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

Essening asosiy qismida - mavzuning nazariy asosi orqali, savolning mazmunini bayon etuvchi bo‘lim hisoblanadi. Bunda mavzuga mos barcha bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiya asosiy fikr va muammoga bog‘liq aniq dalil va faktlar jamlangan bo‘lib, unda dalillar, xabarlar, turli statistik ma’lumotlardan foydalanib, mavzu to‘liq yoritiladi, asosiy ko‘tarilgan muammoning kelib chiqish sabablari oydinlashtiriladi. Dalillar - talaba tomonidan aytilgan fikrni isbotlash uchun keltiriladigan ko‘chirma (maqol, sitata, hikmatli so‘z, g‘oya, ilmiy maqolalar, adabiyotlardan va hokazo). Qo‘yilgan tezisga kamida ikkitadan dalillar keltirilishi kerak. Asosiy qismni yoritish uchun kerakli ma’lumotlarni asoslash jarayonida qo‘yilayotgan masalaga talabaning shaxsiy munosabatini bildiruvchi, shuning bilan birga, menimcha, mening fikrimcha, birinchidan, ikkinchidan, shu kabi, demak, biroq, unday bo‘lsa kabi kirish so‘zlardan foydalanish o‘rinli bo‘ladi. *Masalan.* kimyo o‘quv fanining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlarini, kimyo fanlarining keyingi yutuqlari, kimyoning nazariy masalalari to‘g‘risida, jumladan atom va molekulalar tuzilishining kvant mexanik talqinini, kimyoviy bog‘lanish to‘g‘risidagi tassavurning rivojlanishi va umumiy tavsifi, kimyoviy termodinamika, kimyoviy jarayonlarining kinetik va termodinamik qonuniyatlari, D.I.Mendeleyev davriy qonuni va davriy sistemasi, asosiy va qo‘shimcha guruhi elementlari xossalari, oddiy va murakkab moddalarining tuzilishi, olinishi va xossalarini, nazariy bilimlarini amalda, ya’ni laboratoriya ishlarini bajarshda qo‘llash kabi ma’lumotlar keltiriladi.

Essening xulosa qismida mavzu bo‘yicha chiqariladigan yakuniy jumlalar bo‘lib, unda yangi fikr-mulohazalar bildirilmaydi, balki dalillarga suyangan holda yakun chiqarilib, uni yechish yo‘llari ko‘rsatiladi. Essening yakuniy qismida asosiy qismda berilgan muammoning yechimi tasdiqlanadi va mazmunning mohiyati ochiladi, ya’ni “Esse boshida ko‘tarilgan masala bo‘yicha nima deyish mumkin?” degan savolga aniq va tushunarli javob tarzida yozilishi kerak. Xulosa qismida quyidagi kirish so‘zlardan: men shunday xulosaga keldimki.., qisqasi, asosiy fikrim shuki.., xulosa qilib aytganda... va boshqalar foydalanish mumkin. *Masalan.* kimyo o‘quv fani nazariyalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishadi, kimyoning nazariy asoslarini tajribalar orqali amalda qo‘llay olish, tajribalar qo‘yish, tajriba natijalarini hujjatlashtirish, ularni tahlil qilish, grafik chizish, ilmiy adabiyotlardan foydalana olish, kimyo qonuniyatlari asosida umumiy xulosalar chiqara olishi, kimyo fani

nazariyalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi kerakligi haqida qisqacha xulosa chiqaradi.

Esse yozish jarayonida quyidagilarga e’tibor berish kerak: Kirish va yakuniy qismdagi fikr asosiy masalaga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Masalan, kirish qismida “Men... haqida shuni aytmoqchiman” deb boshlansa, yakuniy qismda “Men ...xulosaga keldim” kabi tugallanadi. Esse yozishda his-hayajonli, ta’sirchan va badiiy bo‘yoqdor so‘zlardan foydalaniladi[10]. Unda birgina fikr o‘rtaga tashlanadi va rivojlantiriladi. Uning bir necha mavzu va bir qancha g‘oyasi bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Esse erkin ijod etish asosida yoziladi. Yaxshi esseni mavzuni yaxshi tushungan, uni har tomonlama idrok eta olgan, o‘z g‘oyalari bilan talabani o‘ylanishga majbur eta oladigan odamgina yoza oladi. Esse yozishda bir qolipdagi so‘zlardan foydalanish, so‘zlarni qisqartirish, yuzaki xulosa chiqarishdan xoli bo‘lish kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, esse yozishda quyidagi talablarga qat’iy rioya qilinadi: shaxsiy munosabatning bildirilishi, tezis - kalit so‘zni to‘g‘ri aniqlash, faktli dalillar, nazariyaga asoslanish, atamalarni o‘z o‘rnida qo‘llash, sitatalar keltirish, mantiqiy qonuniyatning saqlanishi, taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish, savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari), yumor, o‘tkir hajv, nazariy va ilmiy jihatdan asosli, foydalanilgan ilmiy manbalarga havolalarni o‘z o‘rnida foydalanish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, TKTI, 2020. 120-bet.
2. Xudoyberdiyev N.M., Bektoshev O.K. The Role of the Credit-module system in european higher education. Middle European Scientific Bulletin Volume 16 Sep. 2021.76-81.
3. Karimova D.R.Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim. Uslubiy qo‘llanma. D.R.Karimova. -Toshkent: “Complex Print”, 2021. -126 b.
4. Turdiyeva G.S. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini bulutli texnologiyalar orqali tashkil etish usullari. Monografiya. Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.-116 b.
5. Azimova I, Mavlonova K, Jabborova M, Shokir Tursun. O‘zbek adabiy tili. T-2022. 216 b.
6. http://natlib.uz Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

BADIIY ADABIYOTDA ALLEGORIYA VA UNING METAFORADAN FARQI

Eshpulatova O‘g‘iloy
Toshkent Davlat Transport Universiteti tayanch doktoranti
e-mail: ugiloyeshpulatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan allegoriya san’ati haqida keraklicha ma’lumot berib o‘tilgan va misollar orqali tushuntirilgan. Shuningdek maqolada allegoriya san’atining metafaradan farqi keltirib o‘tilgan. Ushbu fikr va xulosalar tadqiqotchilar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: allegoriya, badiiy obraz, metafara, majoziy ma’no, mavhum tushuncha, taqqoslash, g‘oya, san’at.

Annotation: This article emphesizes about allegory and the usage of it in literature. The given information explained with examples. Furthermore, there is given reliable information about the differences of allegory from the metaphor. The article is reliable for researchers Who are working on it.

Key words: allegory, artistic image, metaphor, figurative meaning, abstract concept, comparison, idea, art.

Аннотация: В этой статье особое внимание уделяется аллегории и ее использованию в литературе. Данная информация пояснена примерами. Кроме того, даются достоверные сведения об отличиях аллегории от метафоры. Статья надежна для исследователей, которые над ней работают.

Ключевые слова: аллегория, художественный образ, метафора, переносный смысл, абстрактное понятие, сравнение, идея, искусство.

Allegoriya - badiiy adabiyotning ajralmas qismi hisoblanib, u asosan nasr va she’riyatda g‘oya yoki tamoyilni tasvirlashda qo‘llaniladi. Shuningdek, hikoyalarda ishlatilib bu orqali ijodkor ba’zi axloqiy saboqlarni keltirib o‘tishni maqsad qiladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, allegoriya arxaik atama bo‘lib adabiyotda antik davrdan beri uchraydi. Bunga misol sifatida Gomerning "odisseya" va "Iliada" she’rlarini keltirish mumkin. Bunda odisseyning allegorik qiyofasi qiziquvchanlik, insonning bitmas-tuganmas fikr egasi ekanligi bilan, uning rafiqasi Penelopa esa muhabbat, sadoqat va vafo ayolning ta’sirchan va inkor etib bo‘lmaydigan qiyofasi sifatida gavdalantiriladi. Allegoriya - adabiyotda keng qo‘llaniladigan badiiy troplarning turlaridan biri. Ushbu atama so‘zma-so‘z "allegoriya" deb tarjima qilingan. Allegoriya - mavhum tushunchani reallikning aniq hodisasi yordamida allegorik tasvirlash, uning belgilari ushbu tushunchani, uning asosiy xususiyatlarini aniqroq ifodalashga yordam beradi. Bu ma’lum bir badiiy obraz yoki dialog orqali g‘oyalarni (tushunchalarni) badiiy aks ettirish[24]. Allegoriyada bir narsaning boshqasiga kengaytirilgan assimilyatsiyasi maslahatlar tizimi yordamida sodir bo‘ladi va tasvirning bevosita ma’nosi yo‘qolmaydi, balki uni obrazli talqin qilish imkoniyati bilan to‘ldiriladi.

[24] Fletcher A. Allegori, ramziy rejim nazariyasi. Itaka, 1964;

Allegoriyada mualliflar personaj, syujet va vaziyatni tasvirlashga , va ular orqali chuqur ma’no ifodalaydigan dars, odob - axloq tushunchalarini ifodalaydilari. Allegoriyada odamlar va narsalarning barchasi ramziy ma’noga ega. Biroq, allegoriya ikki narsa o‘rtasidagi taqqoslash yoki kengaytirilgan metaforadir. odatda allegoriyada bir-biriga o‘xshamaydigan ikkita narsa taqqoslangan. Allegoriyalar aniq emas. Buy erda oddiy narsalar ramziy ma’noga ega bo‘ladi.

George orwell tomonidan yozilgan "Animal Farm" adabiyotdagi allegoriyaning ajoyib namunasi hisoblanadi. Bunda hayvonlar rus jamiyatining turli qatlamlarini ifodalaydi. Misol uchun bu yerda cho‘chqalar inqilob davridan keyin hokimiyat tepasiga kelgan odamlarni ifodalaydi. Boshqa tomondan, ot ishchilar sinfini, fermaning egasi esa ag‘darilgan podshoh Nikolay II ni anglatadi. Biroq, Edmund Spenserning "Faerie malikasi" asari allegoriyani ifodalovchi ajoyib asarlardan biridir. Bu erda yomon belgilar yomonlikni, yaxshi belgilar esa bir nechta fazilatlarni ifodalaydi. Bu yerda muqaddaslik "Qizil Xoch Ritsari" tomonidan ifodalanadi va "Xonim Una" haqiqatni tasvirlaydi. Ushbu she’rda "Qizil Xoch Ritsari" papalikni ifodalovchi "Ajdaho" ga qarshi kurashayotgan Angliyaning isloh qilingan cherkovini tasvirlaydi. Yana bir allegoriya tasvirlangan asar - Jon Bunyan tomonidan yozilgan "Pilgrim’s Progress". Bu jannatga boradigan yo‘l oson emasligini, aksincha u to‘siqlarga to‘la ekanligini va u yerga borish uchun odamda iymon bo‘lishi kerakligini anglatadi[25].

Allegoriyalar ko‘p asrlar davomida ko‘plab madaniyatlarda ishlatilgan. Ular saboq berish, axloqni tushuntirish uchun adabiyotning bir qismi bo‘lib qolishgan. Bundan tashqari, u turli vaziyatlarda muallifning nuqtai nazarini ifodalaydi. Allegoriya hikoyaning o‘ziga xos turidir, chunki u haqiqatni aks ettiradi. Allegorik tarzda yaratilgan adabiyot chuqurroq ma’noga ega va ko‘proq kuchga ega. Allegoriyaning tarixiy rivojlanish bosqichini to‘rt turga ajrata olamiz:

1. Literal allegoriya – ya’ni so‘zma so‘z ifodalangan allegoriya. Bunda allegorik vositalar bilan boyitilgan matn tarixiy voqealarga asoslangan bo‘ladi.

2. Tipologik allegoriya – bu turdagi allegoriya, o‘tgan zamon voqealarini bugungi davr bilan bog‘lovchi allegoriya hisoblanadi.

3. Moral allegoriya – bugungi davrning voqealarini ifodalovchi allegorik birliklar.

4. Anagogik yoki polysemous allegoriya – bunday allegoriyalar kelajak allegoriya yoki ko‘p ma’noli allegoriyalar deb ham ataladi.

Bu badiiy tasvir vositasi yordamida berilgan har qanday asar, yozuvchining olamga bo‘lgan fikrlari va qarashlarini namoyon eta oladi. aytib o‘tilgan jihatlarni, biz allegoriyaning funksiyalari deb atashimiz mumkin. Allegoriya – ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib, voqea hodisa yoki narsa buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz)ni qo‘llashdir, ya’ni noaniq bo‘lgan tushunchani (konseptni) ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli. Shuningdek, allegoriya mavhum tushuncha yoki g‘oyani aniq obraz vositasida ifodalaydi. Masalan “bo‘ri” so‘zining – yomonlik, yovuzlik; “tulki” so‘zining – ayyorlik ifodasi uchun qo‘llanilishi allegoriyaning dastlabki misollari

[25] Quilligan M. Allegoriya tili: janrni aniqlash. Itaka, 1979;

bo‘ladi. Simbolizm, allegoriya va mif tushunchalari ko‘p holatlarda yonma yon qo‘yiladi. Chunki bu uch badiiy tasvir vositalari ham yozuvchiga o‘z fikrini aniq, soda va ahloqiy holatda tushuntirishga imkon beradi[26].

Uilyam Golding tomonidan yozilgan "Pashshalar hukmdori" asari axloq, jamiyat, din va boshqalar haqida ko‘plab allegoriyalarni o‘z ichiga oladi.

Nathaniel Hawthornening "Young Goodman Brown" asari Iblisning tayog‘i Xudoga qarshi kurashish uchun ishlatilishini tasvirlaydi. Bu yovuzlikni tan olish haqida va u insoniyatning tabiati sifatida buzuqlikni ko‘rsatadi.[27]

‘Mualliflar, odatda, o‘z asarlarida turli ma’no qatlamlarini kiritish uchun allegoriyadan foydalanadilar. Allegoriya mualliflarga o‘z asarlarida axloqni ifodalash imkonini beradi. Allegorik yozuv, shuningdek, yozuvchining dunyoga qanday qarashini ifodalaydi.

Allergiya faqat adabiy nutqda emas balki, kundalik hayotda ham uchratish mumkin.. Masalan, *"Birinchi qaldirg‘och"*- yaxshi o‘zgarishlarga yaqinlashish belgisi, yangi va uzoq kutilgan voqea belgisi. Hamma uchun tanish bo‘lgan *piyola atrofida o‘ralgan ilon tasviri bu* tibbiyotning ramzidir, yoki *qiz Themis qo‘llarida tarozi ushlab, ko‘zlariga bint bilan* adolatni ifodalaydi. Yurak tasviri sevgi, xoch iymonni anglatadi. Bularning barchasi allegoriya[28].

Allegoriya Qadimgi yunon faylasufi Ezop asarlarida kinoyani ifodalab kelgan. Misol uchun hayvonlar orqali insonlarning ochko‘zligi, aldovi va ahmoqligi tasvirlangan. Keyinchalik uning majoziy asarlari uslubi ezop tili deb nomlangan.

Bundan tashqari, o‘rta asrlar adabiyotida, matnlarda allegoriyadan keng foydalanilgan. Shuningdek, diniy madhiyalar, masallar, ruhoniylarning asarlaridagi ko‘plab tasvirlar allegorik motivga ega.

Verxarn, Ibsen, Fransiya asarlarida, Dantening yorqin "Inson komediyasi" asarida, Shekspir sonetlarida, Shellining she’rlarida ko‘plab allegorik misollarni topish mumkin.

Rus yozuvchilari allegoriya badiiy uslubini o‘z asarlarida juda ko‘p qo‘llaganlar. Jukovskiy balladalari, Saltikov-Shchedrin satirasi, Chexov, Mayakovskiy she’rlari, Krilovning afsonalari - bu aqlli va nozik allegoriyaning bitmas-tuganmas manbai.

Ko‘pincha, allegoriya haqida gapirganda, bizni fantastikaning eng yorqin, esda qolarli misollari qiziqtiradi. Va Krilovning kinoyasi buning yaqqol tasdig‘idir. Uning har bir afsonasida kinoya aks etgan. Bu yerda asosiy belgilar faqat o‘rmon aholisi, ularning xulq - atvori, bo‘lib, o‘quvchiga ibratli qilib ochib beradi . o‘rmon qahramonlarining har bir belgisida biz atrofimizga yaqin o‘xshash narsalarni taniymiz. Muallifning ertak allegoriyasi quyidagicha: tulki hiyla-nayrang, yolg‘on, takabburlik, xizmatkorlikni va o‘z manfaati uchun o‘zini g‘azablantirishni anglatadi. Eshak - bu qaysarlik, ahmoqlik, savodsizlik va johillik tasviridir. Xo‘roz bizga mag‘rurlik, mag‘rurlik va narsisizm modeli sifatida ko‘rinadi. Ayiq kuch, qudrat,

[26] 10.Rajapova Malika Ahmadali qizi, Allegorical means specific to oral speech, Europian Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2, Issue 2, ISSN:2795-8612

[27] *Quilligan M. Allegoriya tili: janrni aniqlash. Itaka, 1979;*

[28] Rollinson fanlari doktori. Allegoriya va xristian madaniyatining klassik nazariyalari. Pitsburg; L., 1981;

xushmuomalalikni, ba’zan esa cheklovni, sustlikni anglatadi. Quyon esa - qo‘rqoqlik va maqtanchoqlik.

Krilovning asarlari ko‘p qirrali. Ba’zilarida muallif qahramonlarni masxara qiladi, boshqalarda - odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, hayot asoslari, ijtimoiy tartibni tasvirlaydi... "Bo‘ri va Qo‘zi" ertak allegoriyasi hukumat va xalq o‘rtasidagi, hamma narsaga ega, hamma narsaga qodir va bo‘ysunuvchi, kuchli va kuchsizlar o‘rtasidagi munosabatlarni Allegoriya - bu allegoriya, mavhum hodisalarning konkret tasvir orqali tasviriy, tasviriy ifodasi, ya’ni allegoriyada konkret obraz mavhum ma’no oladi, umumlashtiriladi, obraz orqali u yoki bu tushuncha o‘ylanadi.

Allegori, ayniqsa, turli didaktik she’riy janrlarda aniq namoyon bo‘ladi, masalan: ertak, masal. Ular odatda to‘liq ushbu texnikada qurilgan. Bu boshqa allegorik asarlarga ham xosdir, ularning asosini mavhum narsalarni konkret bilan tasvirlash yoki tushuntirish niyati yotadi. Shunday qilib, allegoriya to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ishlatilgan so‘z yoki nutqning burilishidir majoziy ma’no bu bizga "metafora" tropini eslatadi. Ammo taqlid metaforadan farqli o‘laroq butun asarni qamrab oladi, buni M.Gorkiyning "Petrel qo‘shig‘i" misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Yana bir misol: "Vagonlar odatdagidek chiziq bo‘ylab yurishdi, titrab-qaqshayib ketdi; sariq va ko‘klar jim turishdi, yashil rangda ular yig‘lab va qo‘shiq aytishdi". A. Blokning ushbu she’riy satrlari nimada ekanligini tushunish uchun tarixga murojaat qilish kerak. o‘tgan asrning boshlarida Rossiyada birinchi va ikkinchi toifadagi avtomobillar sariq va ko‘k rangda, kambag‘allar sayohat qilgan uchinchi toifadagi mashinalarda yashil rang... Blokning zamonaviy jamiyati shoir tomonidan allegoriya - sariq, ko‘k va yashil rangdagi vagonlar yordamida tasvirlangan[29].

Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo‘lgan ko‘chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo‘llanadi. Simvolning allegoriyadan farqi shundaki, u muayyan kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Masalan, Cho‘lpon she’riyatidagi «yulduz», «bulut», «bahor», «qish» obrazlari buning yorqin misoli bo‘la oladi. Jumladan, Cho‘lponning mashhur «Qalandar ishqi» she’rini o‘qiganda uni ishqiy mavzudagi she’r sifatida tushunishimiz mumkin. Biroq bu she’rdagi ramzlar qatida boshqa bir ma’no ham mustaqil holda mavjud bo‘lib, bu ma’noni o‘z vaqtida shoirga ruhan yaqin kishilar tushunganlar. Sababi, ular ramzlaming ma’nosi anglashiladigan kontekstdan — shoiming hayot yo‘li, orzuintilishlari, she’r yozilgan paytdagi ruhiy holati va h.k. omillardan xabardor bo‘lganlar[30]. Demak, hozirda ham she’mi Cho‘lponning hayot yo‘li va ijodiy merosi kontekstida o‘rganilsa, ramziy ma’no anglashilishi mumkin.

Metafora allegoriyadan qanday farq qiladi?

Allegoriyani metafora bilan chalkashtirib yuborish mumkin, chunki ikkala tushuncha ham ma’noga ega ***biror narsa orqali biror narsani ifodalash*** .Ammo allegoriya kengaytirilgan metafora:

[29] Allegoriya va funktsiyalar bo'yicha. Shtutt.1979;

[30] Qosim Y. Yangi o‘zbek she’riyatida ram zlar// 0 ‘zbek tili va adabiyoti.— 1998 № 5. B. 3 - 8 .

Metafora - aniqroq, torroq ifoda, majoziy kengroq, bu majoziy tasvirlarning butun tasviri;

Metafora - o‘xshashlikka asoslangan majoziy ma’no, allegoriya ko‘proq assotsiatsiyalarni qo‘llaydi. Masalan, "tulki kabi ayyor" iborasi metafora bo‘ladi, lekin agar kimnidir "tulki" deb atasangiz, u allaqachon alegoriyaga aylanadi;

Metafora ko‘pincha jonlantirilgan kontseptsiyani ifodalaydi va mavhum tushunchani alegoriya bilan ifodalaydi. Ya’ni, odam haqida siz "sherdek mag‘rur" deb ayta olasiz va bu metafora bo‘ladi, lekin sher tasviri kuch, kuch va mag‘rurlikni anglatadi - bu alegoriyaga misol[31].

Taqqoslash parametri	**Allegori**	**Metafora**
Funktsiya	Allegory bayonotda ko‘rinmaydigan ma’noni o‘z ichiga oladi	Metafora bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikkita narsani yonma-yon qo‘yadi
She’riy vositalardan foydalanish	Fikrlarni ifodalash uchun foydalaniladi	Tasvirni aks ettirish uchun ishlatiladi
Miqyosi yoki g‘oyasi	Allegoriya doirasi keng	Metafora g‘oyasi cheklangan
Ichki ma’no	Siyosat yoki axloq o‘rtasidagi aloqani o‘rnatadi	Buning asosiy ma’nosi yo‘q
Taqqoslash	Allegoriyani farqlash uzoqroq. Shuningdek, u qismlardan iborat	Uning taqqoslashi qisqacha. Unda iboralar yoki so‘zlar mavjud
Haqiqat bilan bog‘liqlik	Haqiqat bilan iddao aloqasi ko‘proq	Haqiqat bilan metafora aloqasi kamroq
Turi	Allegori murakkab	Metafora to‘g‘ridan-to‘g‘ri
Ta’rif	Alohida obrazlar, belgilar va hodisalar ramz sifatida ishlaydigan adabiy atama	Ikki mustaqil narsaning farqlanishini tushuntiradigan adabiy ibora

Allegoriya va metafora - bu ikki xil adabiy vosita. Ularning farqlar ularning ta’rifi, kelib chiqishi va qo‘llanilishiga asoslanib yaxshi bayon etilgan. Ramziy ma’no va foydalanish ikkalasini ajratib olishga yordam beradi. Allegoriyalar, masalan, haykaltaroshlik, rassomchilik va boshqa ko‘plab narsalarni adabiyotning turli jihatlarida ko‘rishadi. Metaforalarni ko‘rib chiqsak, ular adabiyotda ko‘rinadi. Demak, majoz metafora bilan taqqoslaganda keng taqdimotga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Allegoriya va funktsiyalar bo‘yicha. Shtutt.1979;

[31] Quilligan M. Allegoriya tili: janrni aniqlash. Itaka, 1979

Bellot Ch. Allegorese im Mittelalterning "Zu teoriyasi va an’analari". Koln, 1996. Bd
Domaradzki, M. (2017). "The Beginnings of Greek Allegoresis". Classical World 110 (3):30
Винокур Г.О. О язы ке художественной литературы. — М., 1991.
Fletcher A. Allegori, ramziy rejim nazariyasi. Itaka, 1964;
Losev A.F., Shestakov V.P., Estetik toifalar tarixi. M., 1965;
Panofskiy E. Ikonologiyada tadqiqotlar; Uyg‘onish san’atidagi gumanistik mavzular. N. Y. 1939;
Qosim Y. Yangi o‘zbek she’riyatida ram zlar// 0 ‘zbek tili va adabiyoti.— 1998
Quilligan M. Allegoriya tili: janrni aniqlash. Itaka, 1979
Rajapova Malika Ahmadali qizi, Allegorical means specific to oral speech, Europian Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2, Issue 2, ISSN:2795-8612
Roger Perez. Conceptual metaphor theory and Sartre’s philosophy. Universitat Autonoma de Barcelona. Department de Filologiya Catalona. 2001.
Rollinson fanlari doktori. Allegoriya va xristian madaniyatining klassik nazariyalari. Pitsburg; L., 1981;
Stephen A. Barney (1989). "Allegory". Dictionary of the Middle Ages. vol. ISBN 0-684-16760-3 Stephen Browna, Lorna Stevensb and Pauline Maclaran, ―What’s the story, allegory?‖, CONSUMPTION MARKETS & CULTURE. https://doi.org/10.1080/10253866.2021.1948840
O‘rta asr ingliz adabiyotida Popova M.K. Allegori. Voronej, 1993 yil;
O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

INTEGRATIV YONDASHUV – O‘QUVCHILARDA TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Sherjaxon Abdufatayev
Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, E-mail: Sherjahonjon07@gmail.com

Abstract. At the current stage of the development of our society, where profound economic and social changes are taking place, finding ways and means to improve the quality of education for students remains one of the main urgent tasks of modern pedagogy.

Key words: Integration, competence, competent approach, Information communication, didactics, integrative methodology, integrated technologies, STEAM, information-educational environment, interaction, synectics, coherence.

Annotatsiya. Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan hozirgi bosqichida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo‘llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlari: Integratsiya, integrativ metodika, integratsiyalashgan texnologiyalar,kompetensiya, kompetentli yondashuv, Axborot kommunikatsiya, didaktika, STEAM, axborot-ta’lim muhiti, interoektsiya, sinektika, kogerentlik.

Kirish (Introduction): Mamlakat ta’lim tizimini barqaror rivojlanish hamda modernizdtsiyalash jarayonlariga moslashtirish, o‘quv jarayoniga innovatsion g‘oyalar, integratsiyalashgan texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo‘llash orqali o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb qiladi. Chunonchi, ta’lim muassasalarining zamonaviy moddiy-texnik bazasini shakllantirish va yanada mustahkamlash, undan oqilona foydalanish bo‘yicha yuqori samarali o‘quv-laboratoriya, kompyuter texnikasi va boshqa axborot-kommunikltsiya uskunalari bilan jihozlashni o‘z ichiga oladigan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim Davlat ta’lim standartlarining yangi avlodi kompetentli yondashuvga asoslangan bo‘lib, bu bilan bog‘liq holda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini qanday qilib shakllantirish, qanday mexanizm yordamida shakllantirish muammosining amaliy echimini kutmoqda.

Kompetentsiya ta’limdagi yangilik sifatida birdaniga vujudga kelmaydi. Buning uchun nafaqat pedagoglar, balki o‘quvchilarning bilimlarni shunchaki amaliyotda qo‘llashi emas, shaxs sifatida o‘ziga xos qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi, tashqi va ichki to‘siqlarni engishi talab qilinadi. Qulay

strategiyani amalga oshirish uchun uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida tizimlilik va integrltsiyani ta’minlash zarur.

Adabiyotlar tahlili: Ilmiy adabiyotlar tahlili zamonaviy ta’limning turli sohalarida integratsiyalash masalasi pedagogik jarayonning dolzarb muammolaridan biri sifatida e’tirof qilinadi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida, fanlarni integratsiyalab o‘qitish mexanizmlarini yaratish, uning pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq qilish muammolarini hal qilish zamon talabiga aylanmoqda. Shuning uchun biz, birinchi navbatda, “integratsiya” terminining ma’nosi, mohiyati va ta’rifiga to‘xtalishni lozim topdik.

Integratsiya - ayrim bo‘laklar yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi hamda bir butunga aylanishi, demakdir.

“Integratsiya” so‘zi lotincha "integratio" so‘zidan ("integr" - to‘liq, butun, yaxlit) olingan bo‘lib, “qayta qurish, tiklash, to‘ldirish”, "integratsiya" -“o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish”, "integratsiyalash’"- “bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmok” degan ma’nolarni anglatadi.

Didaktikada o‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlash muammosiga jiddiy e’tibor qaratildi. Ushbu muammolar tahlili asosida o‘quv fanlariaro aloqadorlikning metodologik yo‘nalishlari belgilab berildi. Ayniqsa, V.N.Fedorova rahbarligida amalga oshirilgan tadqiqotlar fanlararo aloqadorlikning nazariy asoslarini bayon etganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashning didaktik jihatlari faqatgina muayyan o‘quv fanlari mazmunida turli bilim va tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi deyiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Pivovarova ishlarida integrativ metodikaning ta’limga texnologik yondashuvlar tavsifi quyidagicha bayon qilingan:

- “integrativ metodika” atamasini qo‘llashdan asosiy maqsad ta’limga texnologik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniqlab, ulardan

foydalanishda pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uyg‘unlashtirishni tatbiq qilish modellarini ishlab chiqishdir.

- ta’lim jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarning qo‘llanishi bir qancha didaktik, metodik va kognitiv omillarga bog‘liq. Ta’lim jarayoni, uning sub’ektlari va ob’ekti o‘rtasidagi integrativ jarayonlarni tashkil qilishning o‘zi o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyati natijasidagi kognitiv kategoriyalar asosidagi modellar mavjudligini taqozo qiladi.

O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashga oid pedagogik tadqiqotlarda uni mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati sifatida qarash lozim. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘quv

fanlararo aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘quv fanlariaro aloqadorlik ta’minlangan pedagogik sharoitda o‘qitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda o‘qituvchining tutgan o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatish lozim.

Integrativ yondashuv - turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, tayanish, birlashtirish va kompetentsiyalarni baravar rivojlanishini nazarda tutadi.

Psixologik turkum fanlarida barcha insonlarga xos bo‘lgan fikrlash operatsiyalari bilish faoliyatining yaxlit qismi sifatida fikrlash strategiyalarining ko‘p miqdordagi qismini tashkil qiladi hamda sintez orqali turli darajadagi va tavsifdagi tizimlarni birlashtiradi. Integratsiya bilish mexanizmi asosida yotadigan qismlarni yaxlit sintezlash nuqtai nazaridan bilish strategiyalari kabi farqlanadi va natijada ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Dunyoda fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika fanlarini chuqur o‘rganishga asoslangan (STEAM) ta’limni keng joriy etish asosida tabiiy fanlar, jumladan, texnologiya fanini o‘qitish jarayoniga kompetentsiyaviy yondashuvni tatbiq qilish, o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga doir xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish, “kompyuterli ta’lim”ni ta’lim amaliyotiga joriy qilish biologiya fanini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, axborot-ta’lim muhitida integrativ yondashuvni amalga oshirish vazifasini qo‘ymoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot olib borish jarayonida ta’lim texnologiyalarining integrativ xususiyatlari bir qancha omillarga bog‘liq ekani ma’lum bo‘ldi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-7 - sinflarida texnologiya fanini o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning fan asoslarini o‘rganishida uzviylik printsipiga amal qilish, ta’lim jarayonini tashkil qilish va o‘tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, shuningdek, mazkur fan asoslarining tarbiyaviy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlarga bog‘liq ekanini har tomonlama tahlil qilish zarurati tug‘ildi. Ta’limdagi integrativ texnologik jarayonlarning asosiy mazmunini yaratilgan ilmiy manbalarga tayanib, quyidagicha izohlash mumkin:

- birinchidan, an’anaviy o‘qitish yozma va og‘zaki usullarga tayanib ish ko‘radi, an’anaviy o‘qitishni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda ta’lim jarayonida axborot-ta’lim muhitini shakllantirish zarur; umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompyuterli ta’limni joriy etilmasligi yoshlarimiz kelajagi uchun xavfli holatdir

- ikkinchidan, axborotlar hajmining ko‘payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi yangicha mediata’lim printsiplari asosida yondashuvni taqozo qiladi.

Tahlil va natijalar: Demak, integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni uch yo‘nalishda kognitiv, kontseptual, integrativ model asosida shakllanadi (*jadvalga qarang).*

Integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni yo‘nalishlari

Kognitiv	Kontseptual	Integrativ
Interoektsiya - o‘quvchi individual imkoniyatlari asosida o‘zlashtirayotgan bilimlarini o‘z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi. **Sinektika** - turli fanlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan o‘quv-bilish faoliyatining kontseptual xususiyatlarini umumlashtirish. **Kogerentlik** - integrativ va moslashuvchan didaktik jarayonlarni asosan texnologik turkum fanlaridagi barcha elementar printsiplarning bir-biri bilan ketma-ketlikda ilmiy-kognitiv jihatdan joylashtirish.	Fanning kontseptual-tarixiy aspektlari, evolyutsion rivojlanish bosqichlari, tajribalar, zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari	**Gorizontal** - fanlar aro (fizika, kimyo, geografiya, biyalogiya). **Diagonal** - fan ichida (fizika, bialogiya, kimyo va x.k.). **Vertikal** texnologik: pedagogik, axborot-kommunikatsiya tarmoqlararo: nonotexnologiya, kibernetika,

Interoektsiya – o‘quvchining individual imkoniyatlari asosida o‘zlashtirayotgan bilimlarini o‘z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi sanaladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning tafakkuri muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishda shaxsning tafakkuri muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Tafakkurning sofistik, eklektik, metafizik-dogmatik, dialektik usullari mavjud bo‘lib, inson tafakkuri faoliyatning turli qirralari sifatida bir- biriga qarama-qarshi, ayni vaqtda bir-birlarini to‘ldiradi.

Tafakkur xotirada yig‘ilgan axborotni qayta ishlashi, umumlashtirishi natijasida voqealarning rivojlanishi, takomillashishi to‘g‘risida taxmin qilish, oldindan aytib berish uchun shart-sharoitlar tug‘iladi. Texnologiya fanini o‘qitishda integrativ yondashuv orqali tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishda texnologiya fani ta’lim-tarbiya jarayonida muammoli o‘quv vaziyatlarini hal qilishda tafakkur operatsiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning aqliy faoliyati, aql-zakovatini rivojlantirish, ongli xatti-harakatga yo‘naltirish ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Texnologiya fanini o‘qitishda foydalanilgan keys-stadi, amal va hato, aqliy hujum, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari, fanga oid kompetentsiyalarni baholash maqsadida shakllantirilgan test topshiriqlari axborotni qayta ishlash, tahlil, sintez, qiyoslash, abstraktsiyalash orqali umumlashtirish, xulosalash, o‘quv muammosining echimini topish yangi g‘oyalarni ilgari surish imkonini berdi.

Sinektika - turli fanlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan o‘quv-bilish faoliyatining kontseptual xususiyatlarini umumlashtirish. Ayrim faoliyat turlarida bu jarayon “integratsiya” ham deb ataladi. 5-7- sinflarda texnologiya fanini o‘rganishda turli bilimlar majmui bir ilmiy-kognitiv yo‘nalishga birlashadi. Sinektika - turli rejali (turli sifatli va turli modallikdagi) bilimlarni yangi sifatli sintezlash qobiliyati. U inson qobiliyatlarining hech qanday umumiy bog‘liqlikka ega bo‘lmagan (daryolar oqimi, insonlar oqimi, axborotlar oqimi va h.k.) turli-tuman jarayonlarda simultan fikrlashiga asoslanadi. Psixologiyada an’anaviy bilish faoliyatini faollashtirish mexanizmi, o‘qitishning faol metodlari (masalan, M.A.Granovskaya “aqliy hujum” metodining sinektik modifikyatsiyalashni tavsiflaydi) sifatida qo‘llanadi. O‘quv jarayonini sinektik integratsiyalash sifatida o‘zaro yaqin bo‘lmagan ta’lim sohalari va bloklarini integratsiyalash ko‘rib chiqiladi. Bunday tipdagi integratsiyalashgan kurslar an’anaviy sohaviy o‘qitishda ma’lum metodik chegaralarda bilish to‘siqlarini bartaraf qilishga yo‘naltirilgan.

Texnologiya fanini o‘qitishda o‘rganilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda tabiiy fanlar: fizika, informatika, kimyo, biologiya, geografiya sohalarida o‘zaro aloqador tabiiy-ilmiy g‘oya, qonuniyat va tushunchalar, protsedura va ilmiy bilish metodlaridan foydalaniladi. Masalan, yog‘ochga ishlov verish texnologiyasi mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarning kimyo, uning funktsiyasini o‘rganishda esa fizika fanida o‘rganilgan qonuniyatlardan foydalaniladi. O‘quvchilarning tabiiy fanlardan o‘rgangan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi vaziyatda foydalanish sinektika qoidalariga mos keladi.

Kogerentlik integrativ va moslashuvchan didaktik jarayonlar asosan fanlaridagi barcha elementar printsiplarning bir-biri bilan ketma-ketlikda ilmiy-kognitiv jihatdan joylanishini taqozo qiladi. Texnologiya fanini o‘qitishda yakkalik, xususiylik va umumiylik kabi falsafiy tushunchalar haqida dastlabki tasavvur hosil qilinadi. Masalan, texnologik jarayondagi bajarilishi kerak bo‘lgan va rioya qilinishi kerak bo‘lgan texnik xavfsizlik qoidalari bid umumiylikni aks ettiradi.

Shuningdek, amaliy fanlarning rivojlanishi, fanlar o‘rtasida differentsiatsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi ob’ektiv qonuniyat sifatida texnologiya, biologiya, kimyo va fizika kabi fanlar o‘rtasida fanlararo bog‘lanishni amalga oshirishni talab qiladi.

Kogerentlik -yangi tizimlarning strukturalarini chidamli, tartibli yaratish jarayonida kichik tizimlarning o‘zaro muvofiqlikdagi harakati. O‘qitishda kogerent integratsiya hozirgi davrda o‘quv jarayonida integratsiyalashning eng ko‘p tarqalgan turi hisoblanadi. Kogerent model umumiy o‘rta ta’limda: texnologiya va fizika, fizika va biologiya, fizika va kimyo kabi integratsiyalashgan kurslarda taqdim qilinadi. Bunday integratsiyalash asosida, bir tomondan, tabiat, madaniyat va fan olami haqida yaxlit tasavvurlarning shakllanishiga erishilsa, boshqa tomondan, o‘quv vaqti tejaladi. Bunday integratsiya nafaqat texnologik fanlariaro (vertikal), balki fanlararo (gorizontal) muhim tabiiy-ilmiy va madaniy hodisalarni sinxronlashgan o‘rganish, pedagogik jarayonni yuqori darajada intensifikatsiyalash, mazmunli fanlararo aloqalarni o‘rnatish, o‘quv materialini ko‘chirmaslik imkonini beradi. Kogerent modelni amalga oshirishning quyidagi texnologiyalaridan foydalaniladi: integratsiyalashgan kurs bir ta’lim sohasiga kiradigan fanlar mazmuniga muvofiq yaratiladi. Shuning uchun bir fan mazmuniga tushadigan og‘irlik boshqa fan mazmuniga tushmaydi va “teng” taqsimlanadi.



Ўқувчиларда таянч компетенцияларни ривожлантириш тизими

Texnologiya fanini o‘qitish jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida tatbiq qilish orqali o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish yuqorida qayd qilingan dolzarb muammoning ijobiy echimini topishga xizmat qiladi.

Xulosa. Demak, ta’lim jarayoniga integrativ yondashuv masalasi qandaydir umumiylik xususiyatiga ega. Chunki ta’lim jarayonida foydalanilayotgan integrativ yondashuv texnologiyalarini pedagogik va axborot-kommunitatsiya texnologiyalarga bo‘lishni taqozo qiladi. Bu integratsiyalashgan texnologiyalarning yo‘nalishlari har xil bo‘lgani bilan, ularning uzviylashadigan umumiy tomonlari ham bor. Maktabda texnologiya fanini o‘rganish, integrativ yondashuv asosida axborot-kommunikyatsiya texnologiyalarni qo‘llashning optimal(samarali) yo‘llarini belgilashda

uzviylik printsiplarini tadqiq qilish hamda ularning aniq mezonlarini belgilash muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. .- Toshkent. 2013. - B. 64.

2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.- М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. - С. 336.

3. Галеева Н.Л. Система компетенций как инструмент управления качеством образования // Интернет-журнал “Эйдос”.2007. 30 сентябряhttp://www.eidos.ru/journal/2007/0930.

4. To‘raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fanl. bo‘y. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref.-Toshkent. O‘zMU, 2018. -B. 27.

5. Xasanova Sh.B. Elektron ta’lim resurslari tayyorlash va undan foydalanish tajribalari. Uzluksiz ta’lim. -Toshkent. 2017, №5. - B. 4651

6. Хуторской А.В. Образовательные компетенции и методология дидактики. К 90-летию со дня рождения В.В. Краевского. Электронный ресурс.

7. Sharipov Sh.S, Aripov M, Begimqulov U.Sh. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.

8. AKT yordamida biologiyani o‘qitish. Umumta’lim maktablariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish loyihasi. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. -Toshkent. 2010. - B. 11.

9. ABDUFATAYEV, S. (2024). FANLARARO INTEGRATSIYA–TA’LIM-TARBIYA JARAYONINING ASOSIY OMILI. *News of UzMU journal*, *1*(1.1. 1), 31-35.

10. Boymatov, N. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF IMPROVING THE CONTENT OF CORPORATE CULTURE IN THE PROCESS OF INFORMATIZATION OF EDUCATION. *Science and Innovation*, *1*(8), 538-542.

PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDA DUAL TA’LIM TIZIMINING O‘RNI

Sulaymanov Raxmatilla
Sirdaryo pedagogika kolleji direktori

Annotatsiya
Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarini barqaror ishlash uchun samarali va amaliy tarzda o‘qitish zarurligi ko‘rsatilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini har tomonlama rivojlantirish va buning natijasida jamiyatga katta ta’sir ko‘rsatishi takidlab o‘tilgan. Bu samarali va amaliy ta’limni muvaffaqiyatli nemis dual ta’lim tizimi "Duale Ausbildung" deb nomlangan tizimida topish mumkin. Uning mohiyatida nazariya va amaliyotni bir vaqtda birlashtirganligi yotadi. Maqolada dual ta’lim tizimi qanday bo‘lishi tushuntiriladi va nima uchun bu O‘zbekiston Respublikasida bog‘cha tarbiyachilarini o‘qitishning ishonchli va barqaror usuli ekanligini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: dual ta’lim tizimi, kollej, an’anaviy ta’lim.

Аннотация
В данной статье показана необходимость эффективной и практической подготовки сотрудников организации дошкольного образования к устойчивому труду. Подчеркивается, что всестороннее развитие воспитателей дошкольной организации образования и, как следствие, окажет большое влияние на общество.
Это эффективное и практичное образование можно найти в успешной немецкой системе дуального образования под названием “Duale Ausbildung”. Ее суть заключается в одновременном сочетании теории и практики. В статье объясняется, как выглядит система дуального образования, и показқвает, почему она является надежным и устойчивым способом подготовки воспитателей детских садов в Республике Узбекистан.
Ключевые слова: дуал, дуальная система образования, традиционное образование.

Annotation
This article outlines the need to train preschool employees in an effective and practical way for sustainable work.It was noted that the preschool organization has a comprehensive development of its educators and, as a result, a huge impact on society. This effective and practical training can be found in the successful German dual education system called "Duale Ausbildung". Its essence lies in the fact that it combines theory and practice at the same time. The article explains what the dual education system will be like and shows why it is a reliable and sustainable way to educate kindergarten educators in the Republic of Uzbekistan.
Keywords: dual education system, college, traditional education.

Kirish

O‘zbekistonda ham ko‘plab rivojlangan davlatlar singari ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilgan. Yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham ta’lim tizimining har bir qatlamining maqsad va

vazifalariga keng to‘htalib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29-martdagi 163- sonli qarorida ko‘rsatilgan professional ta’lim tizimidagi dual ta’lim shakli bunga misol bo‘ladi. Ta’lim tizimiga yangi yo‘nalish sifatida kirib kelgan Dual Ta’lim tizimi yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida professional ta’lim tizimida ushbu ta’lim shakli tashkil etildi.

Inson tinglash qatorida o‘qib tushunishdan oldin, ko‘rib tushunish jarayonlarini bosib o‘tadi. Pedagogikada ko‘rish orqali ko‘proq ma’lumot o‘zlashtirish mumkin. Yangi ilmiy asoslangan, ammo ta’limda ko‘rib tushunish masalasi ko‘nikma yoki malaka darajasida tadqiq qilinmay kelinmoqda. Aslida inson vaziyatni, predmetni va jarayonni bir hilda yetarli darajada ko‘rib tushuna olmaydi. Buning uchun maxsus tayyorgarlik jarayonlaridan o‘tish va ta’lim olish zarur.

Dual ta’lim tizimi.

Dual ta’lim tizimi Germaniyada 1870 yildan beri mavjud bo‘lib, xodimlar va ish beruvchilar uchun muvaffaqiyatli ish samaradorligini ko‘rsatib kelmoqda. Uning mohiyati shundan iboratki, shogird nazariy ta’limda va amaliyotda bir vaqtning o‘zida ma’lum bir kasb bo‘yicha tayyorlanadi. Kasb-hunar maktabida haftaning 1-2 kunida nazariy ta’lim olinadi.(Wiesner,2013.) Dual ta’lim jarayonida ustoz shogirdga kasb-hunarning an’anaviy usullarini o‘rgatish deb tushuniladi. Dual ta’limda hukumat buyrug‘i asosida talabalar to‘lov-kontrakt asosida yoki davlat granti asosida o‘qishlari mumkin.To‘lov miqdori va shartnoma O‘zbekiston Respublika Moliya vazirligi va mavjud vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda tizimdagi ta’lim muassasalari tomonidan belgilanadi. Loyihaga ko‘ra, dual ta’limdan ko‘zlangan maqsad iqtisodiyotni rivojlantirishdan, shuningdek, O‘zbekistonda katta va kichik bandlikni tashkil etish orqali korxonalarga malakali kadrlar tayyorlash, ayniqsa, yoshlar va ayollarni mehnat bilan birgalikda qashshoqlikni kamaytirish iboratdir (Ikramov,2021).

Dual tizimning yangiligi quyidagicha:

- o‘quv jarayonini tashkil etishdagi o‘zgarishlar (sinfdagi darslar soni kamayadi, stajirovkalar hajmi o‘quv rejasining 60-70% gacha ko‘tariladi);
- ishlab chiqarish amaliyoti individual shartlari yondashuvga asoslanadi va imkon qadar realga yaqin holda ishlab chiqariladi;
- Kompaniya ikki tomonlama moliyalashtirish choralarini ko‘radi;
- Ishlab chiqarishda murabbiylik instituti rivojlantiriladi.

Kasb-hunar ta’limining bu shakli ijtimoiy sheriklikning mahsuli sifatida paydo bo‘ldi, va bu kadrlar tayyorlashda ta’lim muassasalari hamda ish beruvchilarning yaqin hamkorligi mexanizmi yuqori darajada mehnat bozori talablariga muvofiq malakali kadrlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Sirdaryo pedagogika kollejida ham dual ta’lim joriy etilgan o‘quv yurti hisoblanadi. Kollej o‘quvchilari akademik bilim olish bilan parallel ravishda bolalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Shu maqsadda kollej hududida 300 nafar tarbiyalanuvchiga mo‘ljallangan yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti qurildi. O‘quvchilar o‘rganayotgan narsalariva olgan ma’lumotlarini o‘z ishlariga

qanday tatbiq etish mumkinligini biladilar. Bunday yondashuv natijasida maktabgacha ta’lim tizimi nafaqat pedagogik bilimlarni o‘zlashtirgan, balki bolalar bilan ishlashni biladigan o‘qituvchilarga ham e’tibor berilgan. Dual kasbiy ta’limning ijobiy ta’siri orqali davlat iqtisodiyot va jamiyat uchun siyosiy afzalliklarga ega bo‘ladi.Ta’limning ushbu shakli mutaxassislarni ish joyida o‘qitish orqali talabni qondiradi.Kasb-hunar ta’limida o‘qitishning dual tizimi nafaqat pedagogik tizim sifatida qaraladi, balki bozor sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashtirilgan muqobil ta’lim shakli sifatida kasb-hunar pedagogikasining iqtisodiyot rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Ikki tomonlama ta’lim tizimi o‘quv jarayonlarida ishonchli va samarali natijalarga ega, chunki u nazariya va amaliyotni bir vaqtning o‘zida uyg‘unlashtiradi.. Ishtirokchi haqiqiy muhitdagi ish haqida tushunchaga ega bo‘ladi va muassasada ishlash orqali qimmatli tajriba to‘playdi. Unga ma’lum bir kasb bo‘yicha tegishli ko‘nikmalar o‘rgatiladi. Bundan tashqari, dual ta’lim tizimi o‘quvchisi kundalik hayotda va ish muhitida muhim bo‘lgan umumiy bilimlarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Ikramov Sh.K. Dual Ta’lim tizimi. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 Volume 7

2 .Petrov Yu.N. Muhandislik-pedagogik ta’limning dual tizimi - innovatsion zamonaviy kasbiy ta’lim. Novgorod, 2009. 280 b.

3. Vybornov V.Yu.Yaroslavl viloyatida dual ta’lim: Tashkiliy bosqich: Uslubiy qo‘llanma , 2014. 155 b.

4. Stefan Wiesner. Muvaffaqiyatli nemis Dual Ta’limi (Duale Ausbildung) asosida moslashtirilgan ta’lim usulidan foydalangan holda qayta tiklanadigan energiyaning barqaror rivojlanishining asosiy omili sifatida texnik xodimlarning rivojlanishi. 2013 ISES Solar World Congress

KIMYO FANIDA ZAMONAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHDA FANLARARO BOG‘LIQLIK

Almanova Nigora Abdurashidovna
Sirdaryo viloyati Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi Shirin shahar Ixtisoslashtirilgan maktabning kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Kimyo – tabiiy fanlardan buri bo‘lib, u maddalar moddalarning xossalari va ularni bir-biriga aylanishini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: kimyo, matematika, fizika , biologiya, geografiya, ingliz tili, tasavvur, dunyoqarash, elektroliz, mis, kumush, oltin.

Аннотация: Химия – раздел естествознания, изучающий свойства веществ и их превращение друг в друга.

Ключевые слова: химия, математика, физика, биология, география, английский язык, воображение, мировоззрение, электролиз, медь, серебро, золото.

Abstract: Chemistry is a branch of natural sciences that studies the properties of substances and their transformation into each other.

Key words: chemistry, mathematics, physics, biology, geography, English language, imagination, outlook, electrolysis, copper, silver, gold.

Fanlararo bog‘liqlik o‘quvchini ilmiy dunyo qarashini shakillantirishga asos bo‘lib , tabiatni to‘g‘ri va to‘la anglashga, mantiqiy fikrlashga , kimyo texnologiyalarni rivojlantirishga kimyo qonunlarini qollanilishi bilan tushuntiradi o‘rgatadi.

Fanlararo bog‘liqlik o‘quvchi dunyoni bilishi va tasavvur qulishda bir tamonlama emas balki har tamonlama rivojlanishga erishiladi.

Dastlabki kimyoviy tushunchalar:

MATEMATIKA

Matematika fanini o‘qitishda boshlang‘ich sinflarda bir noma’lum tenglamalar va yuqori sinfda sistema asosida yechiladigan ikki noma’lum tenglamalar hamda , proporsiya tenglamalar tuzish va unga oid masala va misollarning yetarli darajada o‘zlashtirilishi kimyo fanidan masalalar yechishda qiyinchilik tug‘dimaydi.Masalan: Matematikada:

$$\begin{cases} x + y = 5 \ /-(-2) \\ 2x + 3y = 14 \end{cases} \Rightarrow + \begin{cases} -2x - 2y = -10 \\ 2x + 3y = 14 \end{cases}$$

$y=4$

$$x+y=5$$
$$x=1$$

Kimyoda: Temir va Alyuminiydan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 0,9 mol gaz ajralsa, temir (II) xlorid massasini (gr) aniqlang.

$$\left.\begin{array}{c} Fe+ 2HCl= FeCl2 + H2 \\ 2Al+6HCl = 2AlCl3+ 3H2 \\ x+2y= 0,7 \\ x+ 3y=09 \end{array}\right\}$$

0,7 mol 0,9 mo l

y=0,2 x= 0,3 0,3*127=38,1gr

F I Z I K A

Fizika fanida "Eritmalarda elektr toki", "Elektroliz va uning ahamiyati, Faradey qonunlari" fizikada kengroq yoritilgan, Kimyoda Faradey qonuning faqat qoidasigagina e'tibor berib ketilgan, ko'proq elektroliz jarayoni yoritilgan, o'qituvchiga mavzuni yoritish qiyinchilik tug'diradi. Shu nomunosiblikni to'ldirish uchun bu mavzularga fizika va kimyo o'qituvchilari bir-birimizni to'ldirib borashimiz kerak. O'quvchida mavzuni o'zlashtirish yaxshi amalga oshar edi.





BIOLOGIYA

Uglevodlar, yog'lar, aminokislotalar biologiya fanida I-chorakda o'tib ketiladi,ammo kimyo fanida biz bu mavzularnu III –chorakda yoritib beramiz. Agarda shu mavzular bilan kimyo fanidagi mavzular yaqinlashtirilsa mavzu yaxshi yoritiladi, o'quvchilar ham bu mavzuni yaxshi o'zlashitira oladi.



GEOGRAFIYA

Metallarni olish va o'rgatishda ular qaysi viloyatlarda olinishi va qayerlarda ishlatilishi, dunyoda bu qazib olingan qazilmalar nechanchi o'rinda turishi haqida

ma’lumot berib ketamiz. Bu mavzularni o‘tayotganimizda o‘quvchi geografiyadan olgan bilimga tayangan holda yondashadi: Masalan:

Mis, kumush, oltin O‘zbekistonda juda ko‘p uchraydi. Mis zaxiralari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 10–11-o‘rinda, oltin zaxiralari bo‘yicha 4-o‘rinda, qazib olish bo‘yicha esa 7-o‘rinda turadi. Mis rudalari Olmaliqdagi Qalmoqqir konida mavjud bo‘lib, bu ruda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida qayta ishlanadi. Oltin, asosan, Markaziy Qizilqumdagi Muruntov konida, kumush konlari esa Navoiy, Namangan viloyatlarida joylashgan.

INGLIZ TILI

Har bir mavzuni o‘tganimizda kamida 3 ta so‘zni inglizcha nomini aytib o‘tib ketishimiz ham ingliz tilini bilish darajasini aniqlab va ularga o‘rgatish.

Masalan : Asoslar mavzusida asoslarning rangi:

KOH, NaOH, Ca(OH)2 – oq rangli, (White- vayt)

Ni(OH)2 – yashil rangli, (Green- griin)

Fe(OH)3 – qo‘ng‘ir rangli (brown- braun)

IQTISOD. Harid qilish



ADABIYOT (Topishmoq)

1. Oksidlanmas havoda , yer tagida zanglamas
   Oksid hosil qilmasligin balki ko‘plar anglamas .
2. Billur buyumlar yasash , oksidlarigadir xos.
   Shakari bor zaharli, iste’molga emas xos .
3. Barcha tirik mavjudotlar oladi undan nafas
   Toki o‘rmon bor ekan havoda hech tugamas

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. ‘‘Anorganik kimyo‘’ N.A. Parpiyev, X.P. Rahimov, A.G. Muftaxov Toskent’’O‘zbekiston’’-2000

2. 8-sinf Matematika darsligi

3. 9-sinf . Kimyo darsligi I.P.Asqarov, K.G‘opirov, N.X.To‘xtaboyev

3-SHO‘BA. TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KREATIV VA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

INNOVASION TEXNOLOGIYALAR TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

K.Eshquvatov
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Innovasion texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish. Pedagogning innovatsion texnologiyalrni qo‘llash sifatlari haqida gap boradi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalrni, har xil g‘oyalar yaratish, munozaralar o‘tqizib dars samarasini oshirish uchun qilinadigan harakatlar to‘g‘risida. innovatsion texnologiyalrni qo‘llaniladigan metodlar.

Kalit so‘zlar: Innovatsion yondashuv, his-tuyg‘u, kreativ fikrlash, ziddiyatli vaziyatlar, qobilyat, dars samarasini oshirish, texnologiyalar.

Аннотация: Инновационные технологии повышения эффективности обучения. Речь идет о качествах педагога в применении инновационных технологий. Об инновационных технологиях в образовательном процессе, о действиях, направленных на повышение эффективности урока путем создания всевозможных идей, проведения дискуссий. методы применения инновационных технологий.

Ключевые слова: Инновационный подход, эмоции, креативное мышление, конфликтные ситуации, способности, повышение эффективности урока, технологии.

Abstract: Innovation technologies improve the effectiveness of Education. The quality of the educator’s application of innovative technologies is discussed. About innovative technologies in the educational process, about the efforts to create various ideas, increase the effect of the lesson by passing discussions. methods applied to innovative technologies.

Key words: Innovative approach, emotion, creative thinking, conflict situations, ability, increase lesson performance, technologies.

Hozirgi kunda umumta’lim maktablarimizdagi moddiy, texnik va texnologik ta’minot har qanday rivojlangan mamlakatlarnikidan qolishmaydi. O‘qituvchi shaxsi, uning obro‘ nufuzi, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashning ham havas qilsa arzigulik.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning uzviy davomi bo‘lgan maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilly dasturi ijrosi natijasida maktablarimizda farzandlarimizning har tomonlama chuqur va puxta bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Galdagi vazifa esa ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunan takomillashtirish, uni sifat jihatidan tamoman yangi bosqichga ko‘tarishdan iboratdir.

Tarqqiyot shiddai bilan hayot tarzimizga kirib kelayotgan bir-biridan

murakkab texnika va texnologiyalar farzandlarimiz ongi shuuridan ham mustahkam o‘rin egallamoqda. Bunday vaziyatda o‘quvchiga biror yangi bilim berish, uni o‘qish va izlanishga o‘rgatish uchun o‘quvchidan katta mahorat talab qilinishi bor gap. Tabiiyki, bu jarayon kasbini sevgan, ardoqlagan va ta’bir joiz bo‘lsa, o‘zini hurmat qilgan har bir pedagogni izlanishga, yangidan-yangi pedagogik usul va uslublar, texnologiyalarni o‘rganishga , kashf qilishga undamoqda.

Pedagogik texnologiyal va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va intereaktiv metodlar o‘quvchi-talabalarni bilimli,yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Innovasiya- inglizcha so‘z bo‘lib, yangilik kiritish degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya- ijtimoiy madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo‘lib, kutilayotgan natijalarga olib keladigan yangiliklar tizimini tashkil etadi. Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim.
Interfaol usullardan dars tashkil etishda sinfdagi xolat butunlay boshqacha ko‘rinishda bo‘ladi.Bundan asosiy maqsad:
Birinchchidan, o‘quvchilar o‘zlarini erkin tutadi, bemalol harakat qiladi. Dars tashkil qilishdan oldin sinf xonasini jihozlashga e’tibor beriladi. Stol-stullarning joyini o‘zgartisish ham o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi.
Psixologik jihatdan qaraganda faol o‘qitish metodlarida fazoviy joylashuvlarga qarab o‘quvchilarning psixologik mavqei (ya’ni darsga munosabati, faolligi) har hil bo‘ladi. Ruhiy tayyorgarlik va mas’uliyat hissi ham shunga muvofiq ravishda o‘zgaradi.

Masalan:

1.An’anaviy darsda o‘quvchilar bir-birlarining yuzini ko‘rishi imkoniyati cheklangan va doska oldidagi qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchining mavqeilariga mas’uliayati turlicha.

2. “Men o‘yinda” deb ataluvchi xolat: o‘quvchilar doira shaklida stol atrofida joylashadilar va o‘rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim ijtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega.Ishchanlik o‘yinlari va boshqa rolli o‘yinlar va boshqa rolli o‘yinlar ana shunday sharoitda o‘tkazilishi mumkin.

3.”Men-munozarada” deb ataluvchi holat, odatda bahslar to‘rtburchak stol atrofida uyushtiriladiu aynan bahs munozaralar o‘tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o‘z fikrini dadil aytish uchun imkoniyat his qiladi.

4. “Men-hamkorlikdaman” degan holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a’zolari to‘rt-besh kishidan iborta bo‘lib, alohida stollar atrofida o‘tirib, har bir guruh o‘z qarorini chiqaradi. Mana shu shakllarda o‘quvchi o‘zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda,guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozdai, so‘zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo‘yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi.

Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir pedagog xodimlar o‘z

kasbi va yo‘nalishiga mas’uliyat bilan yondoshgan holda o‘quvchi-yoshlarni barkamol, komil insonlar qilib tarbiyalashda yuqorida qayd etilgan ya’ni ta’lim samaradorligini oshirish omili bo‘lgan innovatsion texnologiyalar amaliyotga joriy etilsa o‘zlari ko‘zlagan maqsadlariga albatta erishadilar.

Adabiyotlar:

1.A.A.Abduqodirov, R.Ishmuxamedov, A.Pardayev Ta’limda innovatsion texnologialar (ta’lim muassasalari pedago-o‘qituvchilar chum maliy tavsiyalar) -T .: Istedod, 2008.

2. A.A.Abduqodirov, Q.M.Karimov, I.A.Ydoshv. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiasidan foydalanish uslubiyoti T., “Fan va texnologiya”, 2015-y.

3.Internet saytlari.www.ziyouz.com kutubxonasi -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, - multimediya .uz

4.R. Ishmuxammedov, M.Yldoshev Ta’lim va tarbiyada innovatson pedagogik texnologiyalar T-: “Nihol nashriyoti”, 2013 yil

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISHDA QUROQCHILIK HUNARMANDCHILIGINING O‘RNI

Shamuratova Tamaraxan Jubatkanovna, Mambetiyarova Lalaxan Musatdin qizi
Nukus DPI dotsent v.v.b, Nukus DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga milliy hunarmandchiligimiz bo‘lgan quroqchilik san’atini o‘rgatish, o‘quvchilarning quroqchilikda amaliy ishlarini bajarishda kognitiv qiziqishini rivojlantirish va zamonaviy quroqchilik buyumlarini tayyorlash texnologiyasini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv qiziqish, quroqchilik, hunarmandchilik, gazlama, dizayn, qo‘l mehnati, tadbirkorlik, bezak, naqsh, handasaviy kompozitsiya.

Аннотация. В данной статье даны рекомендации по обучению школьников искусству лоскутной пластики, которое является нашим народным ремеслом, для развития познавательного интереса учащихся к выполнению практической работы в лускутной пластики, а также для дальнейшего совершенствования технологии изготовления современных галантерейных изделий.

Ключевые слова: познавательный интерес, лускутная пластика, ремесло, вышивка, дизайн, ручная работа, предпринимательство, украшение, узор, геометрическая композиция.

Annotation. This article provides recommendations for teaching schoolchildren the art of patchwork sewing, which is our folk craft, to develop students’ cognitive interest in performing practical work in patchwork, as well as to further improve the technology for manufacturing modern haberdashery products.

Key words: educational interest, patchwork sewing, craft, embroiders, design, handmade, entrepreneurship, decoration, pattern, geometric composition.

Mustaqil davlatimiz O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilinishi yangi ta’lim standartlari asosida ta’lim- tarbiya jarayonida qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda. Respublikamizda kelajagimiz bunyodkorlari bo‘lmish yosh avlod tarbiyasiga, ayniqsa, ularning umummadaniy, g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni har tomonlama yetuk shaxs qilib yetishtirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi” deb ta’kidlaydi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Jamiyatimizda yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash muammosi eng asosiy masala hisoblananib, yoshlarning hayotga, kasb-hunarga, mehnatga, ertangi kunga tayyorgarlik darajasi bilan o‘lchanadi. Yangi O‘zbekistonning kelajagi uchun o‘z mutaxasisligini mukammal o‘rganib olgan yoshlar nihoyatda zarur. Bilim malakasi yuqori bo‘lgan yosh kadrlarimiz respublikamiz kelajagini yaratadi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi, har bir mutaxassis o‘z kasbini sevsa, o‘z ustida muntazam ravishda ishlasa, hamisha izlanishda bo‘lsa oldimizga qo‘ygan maqsadga

erishishimiz mumkin. Hozirgi kunda respublikamizda, ko‘p asrlik merosimiz bo‘lgan xalq hunarmandchiligining quroqchilik hunariga e’tibor yanada kuchayib bormoqda.

Maktabdagi 5-7 sinflarda texnologiya fanining xalq hunarmandchilik bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv qiziqishini rivojlantirish orqali, ularga milliy madaniyatimizni singdiramiz. O‘quvchilar ota-bobolarimizdan meros bo‘lgan xalq amaliy san’atini to‘liq egallab olsa, ularning kelajakda shu kasb bilan shug‘ullanib hunarmandchilikni davom ettirish imkoniyati oshadi.

Quroq tikish ko‘plab o‘quvchi yoshlarni o‘ziga tortadi. Bugungi kunda buvilarimizning quroq hunarmandchiligi yuksak san’at hisoblanadi.

Quroqchilik uzoq vaqtdan beri ko‘plab xalqlarga ma’lum. Naqshlar bo‘yicha har xil geometrik shakllarda kesilgan rangli va gulli mato bo‘laklaridan hunarmand ayol-qizlarimiz turli xil kompozitsiyalar - naqshlarni yaratadilar. Biz bu ijod turini quroq deb atashimiz bejiz emas. Bunday kompozitsiyalarning old tomonida ko‘rinadigan choklar bo‘lmaydi. O‘zbek zamonaviy san’at bosqichida quroq san’atini ikki yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchisi - an’anaviy xalq kashtachiligi bilan bog‘liq bo‘lib, quroqdan turmush jihozlarini bezashda foydalaniladi. Ikkinchi yo‘nalish malakali rassomlar faoliyat ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, quroqchilikdan ilhomlanib ajoyib kompozitsiyalar yaratishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda har ikkala yo‘nalishda ham ijodkorlar samarali faoliyat olib borib, o‘z asarlarini yaratishmoqda. Jumladan, xalqimiz orasida quroq san’ati yordamida buyumlar tayyorlash odatiy hol bo‘lib, mahalliy quroq ustalari ko‘pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari ushbu san’at turi yordamida liboslar yaratish yoki bezash ham urfga aylanib, yurtimiz dizaynerlari bu yo‘nalishdagi kolleksiyalarini taqdim etmoqdalar. Quroq san’atining ikkinchi yo‘nalishi ham nihoyatda qiziqarli va sermashaqqat faoliyat turi bo‘lib, bu yo‘nalishda yaratilgan san’at asarlari zamonaviy bo‘lishiga qaramasdan asrlar osha yashab kelayotgan boy madaniy meros bilan boyitilganligi ahamyatga molikdir. Samarqandlik rangtasvirchi rassom, grafik Toir Sharipovning ijodidan o‘rin olgan san’at asarlari shular jumlasidandir.

1-rasm.Toir Sharipov san’at asarlaridagi quroqlardan namunalar.

Har bir quroqni tayyorlash jarayonida ijodkordan o‘ziga xos yondoshuv, did va sabr talab etiladi. Chunki, haqiqiy quroq ushbu omillar vositasida san’at asari

koʻrinishini oladi. Quroq ijodkori asarida oʻzining estetik didini, shu bilan birga oʻlkasining mahalliy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Quroqlarda tabiat koʻrinishi, maishiy sahnalar, handasaviy kompozitsiyalar namoyon boʻladi.

Quroqchilik san'ati orqali xalq ijodiyotidagi qadimiy bezaklar, ramzlar, belgilar jonlanadi. Dekorativ va tasviriy motivlar tiniq, sodda jaranglaydi va ular iliq rangli matolar vositasida bajariladi.

Quroq tikish koʻp asrlik tarixga ega. Har bir millatning quroqchilik borasida oʻz maktabi, uslublari mavjud. Quroq tarixiga e'tibor qaratadigan boʻlsak, ushbu san'at - mayda yoki qiyqim mato boʻlaklarini bir-biriga ulab, roʻzgʻor uchun kerakli buyumlar yaratish - qadimdan jahondagi turli xalqlar orasida keng tarqalgan. Xususan, Yevropaga ushbu usul Sharqdan kirib kelgan boʻlib, patchwork nomi ostida mashhur boʻlib xisoblanadi.

Oʻzbekistonda quroqchilik qadimdan ma'lum boʻlib, oʻziga xos xususiyat va an'analarga boy. Bu san'at qadimiy tarixga ega, xususan, oʻrta asrlarda Alisher Navoiyning "Nasomiy ul-muhabbat" devonida, Imom Gʻazzoliyning (U hijriy 450-505-yillar, melodiy 1058-1111-yillarda yashab oʻtgan. Tus shahrida tugʻilgan.) "Kimyoi saodat" (Ruh haqiqati) hamda Husayn Vois Koshifiy (1440-yil Xurosonda tugʻilib 1505- yil vafot etgan.) asarlarida "muraqqa" (quroq toʻn, janda) avliyo yoki darveshlar kiyimi sifatida eslatib oʻtilgan.

Gazlama qirqimlaridan quroq tikishning gullab-yashnashi XIX-asrning oxirida sodir boʻlgan va u mashina ishlab chiqarishning rivojlanishi, shuningdek, bosma naqshli turli xil arzon paxta matolarining xalq orasida keng tarqalishi bilan bogʻliq edi. Tikilgan buyumlar va koʻylaklar quroq bezaklari bilan bezatilgan. Tejamkor uy bekalari kiyim-kechak bichishdagi gazlama qoldiqlaridan, eskirgan toʻqimachilik buyumlaridan koʻrpa, koʻrpacha, gilam, pardalar, yostiq, dasturxon va boshqa narsalarni quroq shaklida tikishni oʻrganishganlar.



2-rasm. Quroq usulida tikilgan koʻrpa, yostiq jild, gilam, sumka.

Bugungi kungacha chevarlarimiz tomonidan quroqning juda koʻp turlari yaratilgan. Oʻzbekistonda har bir viloyatning va Qaraqalpogʻiston Respublikasining oʻziga xos quroq tikish usullari mavjud. Jumladan, "Qatlama quroq", "Koʻz", "Oq kush", "Turna", "Tegirmon", "Tirnoq", "Quduq" kabi tikish usullaridan foydalaniladilar va ular oʻziga xos ramziylilikka ega.

Hozirgi vaqtda ham yurtimizning deyarli har bir xonadonida quroq san'ati yordamida tayyorlangan buyumlar mavjuddir. Ayniqsa, kelinlarning kelinlik seplarida albatta bunday buyumlar boʻlishi urf hisoblanadi. Bu ramziy ma'noda yosh kelin-kuyovlar turmushi toʻkin - sochin boʻlib, farzandlari-yu avlodlari koʻp boʻlsin degan ma'noni anglatadi.

Quroqlarning barchasi shakli, bezaklariga ko‘ra o‘ziga xos bo‘lgan ma’no, mazmunga ega bo‘lsada, aslida ularning tub negizida xalqimizga xos bo‘lgan yagona ezgu-maqsad yotadi, u ham bo‘lsa momolarimiz ta’biri bilan aytganda, “yurtimiz insonlari ulashib, qurashib, farzandlari esa bir-birini quvlashib yursin” degan niyat bo‘lgan. Demak, quroq yordamida yaratilgan amaliy san’at namunalari shunchaki buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarda har qanday ijodkorlikni rivojlantirish uchun ular o‘rtasida muloqot va tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning tikgan quroq buyumlarini yig‘ib Navruz bayramida yarmarkalar, konkurslar, quroqchilik buyumlari festivalini o‘tkazish, ularda milliy madaniyatimizga bo‘lgan kongitiv qiziqishni rivojlantiradi. Milliy an’analarga, hunarmandchilikga qiziqgan uni davom ettirgan va rivojlantirgan zamonaviy kongitiv qiziqishga ega o‘quvchilar yangi, hayratlanarli naqshlarni ishlab chiqadilar, g‘ayrioddiy rang kombinatsiyalarini topadilar va ta’lim samaradorligini orttirishga imkon yaratiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. T.J.Shamuratova “Maktab o‘quvchilarga quroq tikishni o‘rgatish” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, Nukus 2016 y.

2. Nazirova, N., Ortiqova, O. (2021). Quroqchilik san’atining rivojlanishi. Физико-технологического образование, (5).

Зайцева О. Лоскутное шитье: Практическое руководство. - М.; Астрель-СПб, 2007. - ISBN 978-5-972-51052-8.

KARNO KARTALARI, YECHIMLAR DARAXTI HAMDA MANTIQ TO‘RLARINI MINIMALLASHTIRISH USULLARI

Choriyev O‘rinjon Bayramali o‘g‘li, Allanov Muso Berdiyor o‘g‘li,
Bo‘riyev Ulash XXX
assistent, tayanch doktarant, assistant. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mukammal diz’yunktiv normal shakllarni minimallashtirishda Bul ifodalarida bir-biriga qo‘shni hadlarni topish va bu hadlarni birlashtirish usullari, ularni soddalashtirishning analitik usullarini kamchiliklarini jadval usullari yordamida hal qilish.

Abstract: Methods of finding adjacent terms in Boolean expressions and combining these terms in the minimization of perfect disjunctive normal forms, resolving the shortcomings of analytical methods of their simplification using tabular methods.

Kalit so‘zlar: diz’yunktiv, Karno kartalari, Veych, Venn diagrammalari, Bul ifodalari.

Key words: disjunctive, Carnot cards, Weich, Venn diagrams, Boolean expressions.

Mukammal diz’yunktiv normal shakllarni minimallashtirishda Bul ifodalarida bir-biriga qo‘shni hadlarni topish va bu hadlarni birlashtirish katta mehnat talab qiladi. Bu esa soddalashtirishda analitik usulning kamchiligi hisoblanadi. Amaliyotda mantiq funktsiyalarini minimallashtirish uchun mantiqiy o‘zgaruvchilar soni kamroq bo‘lsa, jadval usuli birmuncha qulay hisoblanadi.

Jadval usulining ustunligi:

1) birlashtiriladigan hadlarni izlash oson;

2) topilgan hadlarni birlashtirish oson;

3) funksiyaning barcha minimal shakllarini topish mumkin.

Jadval usullari quyidagilar: Karno kartalari, Veych, Venn diagrammalari, yechimlar daraxti hisoblanadi. Ushbu maqolada biz Karno kartalari metodni ko‘rib chiqamiz. 1953 yil Moris Karno Bul ifodalarini soddalashtirish va grafik tasvirlash tizimini ishlab chiqqanligi haqida maqola e’lon qilgan. Hozirda bu metod Karno kartalari metodi deb yuritiladi. Karno kartalarining quyidagi turlarini ko‘rib chiqamiz:

Ikki o‘zgaruvchili Karno kartasi: Aytaylik, Bul ifodasi ikkita mulohaza o‘zgaruvchisidan tashkil topgan bo‘lsin va quyidagi rostlik jadvali bilan berilgan bo‘lsin. U holda ikki o‘zgaruvchili Karno kartasini quyidagicha ko‘rinishda ifodalash mumkin bo‘ladi:

A	B	F(A,B)
0	0	1
0	1	2
1	0	3
1	1	4



1-jadval

Agar F(A,B) formula MDNSh da berilgan bo‘lsa, u holda, №1 o‘ringa ¬A&¬B, №2 o‘ringa ¬A&B, №3 o‘ringa A&¬B, №4 o‘ringa A&B hadlar mos kelib, shunday hadlar F(A,B) formulada mavjud bo‘lsa, Karno kartasida bu hadlarga mos o‘rinlarga 1, qolgan o‘rinlarga 0 raqami yoziladi.

Ikki o‘zgaruvchili Karno kartasi to‘ldirilgandan keyin 2 ning darajalaricha birlarni o‘z ichiga oladigan ($2^0, 2^1, 2^2, 2^3, 2^4$ ... .) konturlar chiziladi. Bu konturlar gorizontaliga yoki vertikaliga bir-biriga qo‘shni bo‘lgan birlarni o‘z ichiga olishi kerak. Konturga olish jarayoni barcha birlar kontur ichida qolguncha davom ettiriladi va konturlar iloji boricha maksimal ikkining darajalaricha birlarni o‘z ichiga olishi kerak. Konturga olish jarayoni tugagandan keyin har bir kontur ichida qatnashgan bir-biriga teskari bo‘lgan fikr o‘zgaruvchilari tushirib qoldiriladi va har bir konturda qolgan o‘zgaruvchilarning diz’yunksiyasi olinadi. Hosil bo‘lgan ifoda Karno kartasi bo‘yicha minimallashgan ifoda bo‘lib, undan ortiq minimallashtirish mumkin emas.

(A,B)=¬A&B∨A&¬B∨A&B formulaga mos Karno kartasi quyidagi ko‘rinishni oladi, ya’ni karta MDNSh bo‘yicha tuziladi:

	¬B	B
¬A	**0**	**1**
A	**1**	**1**

2-jadval



3-jadval

Yuqorida keltirilgan sxemaga muvofiq gorizontaliga, vertikaliga bir-biriga qo‘shni bo‘lgan birlar konturlarga birlashtiriladi. Har bir konturda qatnashgan bir-birini to‘ldiruvchi o‘zgaruvchilar tushirib qoldiriladi, har bir konturdan qolgan o‘zgaruvchilarning diz’yunksiyasi olinadi. Natijada formula quyidagi ko‘rinishni oladi: F(A, B)= A∨B.

Uch o‘zgaruvchili Karno kartalari: Aytaylik, Bul ifodasi uchta mulohaza o‘zgaruvchisidan tashkil topgan bo‘lsin va quyidagi rostlik jadvali bilan berilgan bo‘lsin. U holda uch o‘zgaruvchili Karno kartasi quyidagicha bo‘ladi:

A	B	C	F(A, B, C)
0	0	0	№1
0	0	1	№2
0	1	0	№3
0	1	1	№4
1	0	0	№5
1	0	1	№6
1	1	0	№7
1	1	1	№8

4-jadval

	¬C	C
¬A&¬B	№1	№2
¬A&B	№3	№4
A&B	№7	№8
A&¬B	№5	№6

5-jadval

Uch o‘zgaruvchili Karno kartalarida ham ikki o‘zgaruvchili Karno kartalaridagidek gorizontaliga, vertikaliga bir-biriga qo‘shni bo‘lgan birlar konturlarga birlashtiriladi. Har bir kontur iloji boricha ko‘proq ikkini darajalaricha birlarni $(2^0, 2^1, 2^2, 2^3, 2^4 \ldots ....)$ o‘z ichiga olishi va kontur olish jarayoni barcha birlar kontur ichida qolguncha davom ettirilishi lozim. Har bir kontur soddalashtirilgan Bul ifodasining yangi a’zosini bildiradi. Har bir konturda qatnashgan bir-birini to‘ldiruvchi o‘zgaruvchilar tushirib qoldiriladi, har bir konturdan qolgan o‘zgaruvchilarning diz’yunksiyasi olinadi. Bundan tashqari uch o‘zgaruvchili Karno kartalarida 1- va 4-qatorlar bir-biriga qo‘shni hisoblanadi, chunki karta gorizontaliga o‘ralganida 1-va 4-qatorlar bir-biriga qo‘shni bo‘lib qoladi.



F(A,B,C) formula quyidagicha rostlik jadvali bilan berilgan bo‘lsin:

A	B	C	F(A,B,C)
0	0	0	1
0	0	1	0
0	1	0	1
0	1	1	1
1	0	0	1
1	0	1	0
1	1	0	1
1	1	1	1

6-jadval

	¬C	C
¬A&¬B	1	0
¬A&B	1	1
A&B	1	1
A&¬B	1	0

7-jadval



	¬C	C
¬A&¬B	1	0
¬A&B	1	1
A&B	1	1
A&¬B	1	0

8-jadval

To‘rt o‘zgaruvchili Karno kartalarida ikki va uch o‘zgaruvchili Karno kartalaridagi usullar qo‘llaniladi. Faqatgina to‘rt o‘zgaruvchili Karno kartalarida birinchi va to‘rtinchi ustunlar, birinchi va to‘rtinchi qatorlar bir-biriga qo‘shni hisoblanadi, chunki ular mos ravishda vertikal yoki gorizontal silindrlarga o‘ralsa, ushbu ustunlar yoki qatorlar bir-biriga qo‘shni bo‘lib qoladi. To‘rt o‘zgaruvchili Karno kartalarining to‘rtta burchagi ham bir-biriga qo‘shni hisoblanadi, chunki karta burchak bir-biriga qo‘shniga aylanadi. Masalan, F(0,0,0,1)=F(0,0,1,1)=F(1,0,0,1)=F(1,0,1,1)=0

	¬C&¬D	¬C&D	C&D	C&¬D
¬A&¬B	1	0	0	1
¬A&B	1	1	1	1
A&B	1	1	1	1
A&¬B	1	0	0	1

9-jadval

Karno kartasi bo‘yicha formulaning soddalashgan ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi: F(A,B,C)= B∨¬D.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. H.T To‘rayev, I.Azizov Matematik mantiq va diskret matematika “Tafakkur bo‘stoni” Toshkent-2011
2. U.U.Umarova Diskret matematika va matematik mantiq fanidan misol va masalalar to‘plami. O‘quv qo‘llanma Toshkent 2014
3. Sadaddinova S.S., Abduraxmanova Yu.M., Raximova F.S. Diskret matematika O‘quv qo‘llanma Tashkent 2014
4. cyberleninka.ru

10-SINFDA “AROMATIK UGLEVODORODLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Tursunov Bunyod Hamdam o‘g‘li
Kitob tumani ixtisoslashgan maktab-internati kimyo fani o‘qituvchisi

Abstract. This article is dedicated to the forms of methods used in the educational system, the advantages of pedagogical technologies, and existing problems and approaches. Organization of educational activities on the basis of interactive methods expands the possibilities of self-development of students, increases their interest in science, and helps to form creative, critical, creative thinking skills.

Абстрактный. Данная статья посвящена формам методов, используемых в системе образования, преимуществам педагогических технологий, а также существующим проблемам и подходам. Организация учебной деятельности на основе интерактивных методов расширяет возможности саморазвития учащихся, повышает их интерес к науке, способствует формированию навыков творческого, критического, творческого мышления.

Annotatsiya. Mazkur maqola ta’lim tizimida qo‘llaniladigan metodlarning shakllari, pedagogik texnologiyalarning afzalliklari va mavjud muammolar hamda yondashuvlarga bag‘ishlanadi. O‘quv mashg‘ulotlarini interfaol metodlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi va fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib, ijodiy, tanqidiy, kreativ fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: passiv metodlar, faol metodlar, aqliy hujum, kreativ fikrlash, klaster, muammoli ta’lim texnologiyasi, Venn diagrammasi

Bugungi kunda har bir fan kabi “Kimyo” fanini o‘qitish ham o‘quvchilarning ichki motivatsion sohasini, o‘quv faoliyati, kognitiv faolligi va mustaqilligini rivojlantirishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan maktab kimyo ta’limida pedagogik texnologiyalarni izlashga bag‘ishlanishi zarur. 2021-2025-yillarda ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, zamonaviy ta’limning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri raqobatbardosh shaxsni tayyorlashdir.

Maktab kimyo ta’limiga kelsak, ushbu kontseptsiyani amalga oshirishda bir qator muammolarga duch keladi. Kimyo o‘qitishning eng muhim muammolari orasida fanni o‘rganishga ajratilgan soatlarni doimiy ravishda qisqartirish va uni kimyoni ilgari o‘rganish (propedevtika kurslari) yoki o‘qitish orqali tenglashtirish imkoniyatini ajratib ko‘rsatish kerak. Bundan tashqari, kimyo fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi tendentsiyasi va motivatsiyaning etishmasligi kimyo o‘qitishning asosiy bosqichining davlat standartini o‘zlashtirishga yordam bermaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, kimyo eng qiyin umumiy ta’lim fanlaridan biridir. Kimyo bo‘yicha hatto boshlang‘ich maktab kursini ham muvaffaqiyatli o‘zlashtirish oson emas. Shuning uchun o‘qituvchining vazifasi har bir o‘quvchini kognitiv ehtiyojlarning shakllanishi va rivojlanishini ta’minlaydigan faol faoliyatga

jalb qilishdir[1,2,3]. Yuqoridagi muammolarni hal qilish nafaqat barqaror ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradigan, balki kimyoviy ta’lim davlat standartini amalga oshirishni ta’minlaydigan yangi pedagogik texnologiyalarni izlash va ishlab chiqishda ko‘rinadi.

Kimyoviy o‘qitish orqali o‘quvchilarda shaxsiy dunyoqarash va e’tiqod shakllanadi. Kimyoni o‘qitishda belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, faoliyat yo‘nalishidagi qiyinchiliklarni engish, yakka tartibda, juftlikda va guruhlarda ishlash kabi metodlar jarayonida o‘quvchi shaxs sifatida shakllanib boradi. Kimyoviy ta’limda o‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodidan mavzuga muvofiqini tanlay bilishi muhim hisoblanadi.

O‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodidan avvalo oddiydan murakkabga o‘tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog‘i lozim. Ushbu nazariyaga asosan dars jarayonida qo‘llanayotgan oddiy metodlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: kichik guruhlarda ishlash, juftliklarda ishlash, jamoa bilan ishlash, “Aqliy hujum”, “Klaster” usullari.

Murakkab metodlar qatoriga BBB, matnni tahlil qilish, “Muammoli ta’lim texnologiyasi”, Venn diagrammasi, Rezyume kabilarni kiritish mumkin. Bugungi kun o‘qituvchisi XXI asr qiyofasini o‘zida to‘la shakllantirgan, o‘z sohasi emas, balki fanlararo bog‘lanishni ta’minlash uchun butun bir sohaning bilimdon egasi, nutqi ravon, izchil, so‘zi bilan amali bir, jamiyatda barkamol, e’tiqodi ma’naviy mafkurasi, fikri va zikri sog‘lom, barkamol farzandlarni tarbiyalovchi mukammal inson bo‘lmog‘i lozim.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiya, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usulli asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni bilimlarining yaxlit o‘zlashtirilishiga yordam beradi, o‘quvchi tafakkurini o‘stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim va usullarini tahlil qilish, dars jarayoniga tadbiq etish amaliy ahamiyatga egadir. O‘qituvchi o‘quvchilarga dars berish jarayonida “Muammoli ta’lim texnologiyasi” metodidan foydalansa, o‘quvchilarni ko‘proq o‘qishga undaydi va unlarning qiziqishini rivojlantiradi. Ushbu qism uchun o‘qituvchi quyidagi ma’lumotlaridan foydalanishi mumkin:

Muammoli savol: Uglevodorodlar, xususan benzol va ularning hosilalari birikmalari qishloq xo‘jaligi uchun pestitsid (pestitsid) sifatida ishlatiladi. Pestitsidlar dalalar va o‘rmonlarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish uchun ishlatiladi. Pestitsidlar quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi: insektitsidlar (zararli hasharotlardan himoya qiladi), fungitsidlar (patogen mikroblarga qarshi), zootsidlar (kemiruvchilarga qarshi), gerbitsidlar (begona o‘tlarga qarshi). Bir tomondan, pestitsidlar qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini sentineriga 35% gacha oshiradi, ular iqtisodiy jihatdan foydalidir. Boshqa tomondan, ulardan foydalanish kimyoviy zaxarlar yuqori dozalariga chidamli zararkunanda xashorotlarning paydo bo‘lishiga olib keladi zararli hasharotlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, tuproqqa salbiy ta’sir qiladi, tuproq faunasi va mikroorganizmlarni nobud qiladi. Demak, sizningcha qayerdan bunday muammolar paydo bo‘ladi deb o‘ylaysiz va siz bunday muammolarni qanday hal qilgan bo‘lardingiz?-O‘quvchilar muammoni hal qilish variantlarini muhokama qilishadi.

Shunday qilib, kimyo darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning harakatchanligi, ularning ijobiy fikrlash qobiliyati hamda fanni o‘zlashtirish bo‘yicha samaradorligi oshib, ularda ijobiy o‘sish kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чернобельская, Г. М. Методика обучения химии в средней школе / Г. М. Чернобельская. - М.: ВЛАДОС, 2000. - 336 с.

2. Багрова, Н. В. Компьютерные технологии как средство индивидуализации процесса обучения / Н. В. Багрова / Химия в школе, - 2013. - № 8. - С. 31-34

3. Бражникова, А. М. Применение ИКТ в процессе обучения химии / А. М. Бражникова Информационные технологии для Новой школы. - СПб: Региональный центр оценки качества образования и информационных технологий, 2014. Т. 4. 29-31.

4. Atqiyayeva S. I. Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry. Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ», 2021. Выпуск №10 (том 3), 684-692 стр.

5. Badalova S. L.. Komilov Q. U. Kurbanova A J. Case technology in chemistry lessons, Academic Research in Educational Sciences, 2020, Vol. I No, 1. Page 262-265 .

TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KREATIV VA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna, Aliqulov Shukurullo Fayzulla o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi. Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya. Bugungi dunyoda ta‘limning tez suratda o‘zgarayotgan, rivojlanayotgan jarayonida, kreativ va zamonaviy metodlar samaradorligini oshirish, interaktiv o‘qitish vositalaridan foydalanish, texnologiyalarning integratsiyasi, virtual platformalarda o‘quvchilar ishtirokini ta’minlash, masofaviy ta’limning rivojlanishi kabi jarayonlarda samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, jamiyat rivojlanishi uchun foydasi tegadigan ish bilan shug‘ullanishiga yordam beradi, o‘quvchilarning talablariga mos keluvchi shakllarda o‘rganishni ta’minlash orqali ularni o‘rganishni yaxshilaydi hamda o‘quvchilarni bilimni o‘zlashtirish jarayonlarida shaxsiy maslahatlar berish, o‘z fikrlarini ifoda qilish hamda yaratuvchanlik qobiliyatini oshirishga imkoniyat yaratadi. Maqolada kreativ va zamonaviy metodlar ta‘lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va o‘rganish uchun mos keladigan metodlardan dizayn fikrlash, aqliy hujum, intelekt xarita, nusxasini ishlab chiqarish, rassomlik, SWOT tahlili, TRIZ metodi, hamkorlikda yaratish metodlari haqida ma’lumotlar berib o‘tildi. Bundan tashqari, bu metodlarning ta‘lim samaradorligini qanday oshirishi, ularning faoliyati va natijalari ustida tafsilotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, samaradorlik, kreativlik, kreativ va zamonaviy metodlar, innovatsiya, motivatsiya, ijodiy fikrlash, o‘yin texnologiyalari, Dizayn fikrlash, aqliy hujum, intelekt xarita, nusxasini ishlab chiqarish, rassomlik, SWOT tahlili, TRIZ metodi, hamkorlikda yaratish.

Аннотация. В быстро меняющемся и развивающемся процессе образования в современном мире оно играет важную роль в повышении эффективности творческих и современных методов, использовании интерактивных средств обучения, интеграции технологий, обеспечении участия учащихся на виртуальных платформах и развитие дистанционного образования. Эти методы помогают учащимся развивать самостоятельное мышление и творческие способности, заниматься работой, полезной для развития общества, совершенствовать свое обучение, обеспечивая обучение способами, отвечающими потребностям учащихся, а также предоставляют персональные консультации учащимся в процессе приобретения знаний. , выражая свои мысли и творчество, создает возможность для роста. В статье рассматривается важность творческих и современных методов в повышении эффективности образования, методов, подходящих для повышения интереса и обучения учащихся, включая дизайн-мышление, мозговой штурм, интеллектуальное картографирование, копировальное производство, рисование, SWOT-анализ, метод ТРИЗ, совместную работу. были даны методы создания. Кроме того, было подробно рассказано о том, как эти методы повышают эффективность образования, их деятельности и результатов.

***Ключевые слова*:** Образование, эффективность, креативность, креативные и современные методы, инновации, мотивация, творческое мышление, игровые технологии, Дизайн-мышление, мозговой штурм, интеллектуальная карта, репродукция, живопись, SWOT-анализ, метод ТРИЗ, совместное творчество.

Abstract. In the rapidly changing and developing process of education in today's world, it plays an important role in increasing the effectiveness of creative and modern methods, the use of interactive teaching tools, the integration of technologies, ensuring the participation of students on virtual platforms, and the development of distance education. These methods help students to develop independent thinking and creativity, engage in work that is beneficial for the development of society, improve their learning by providing learning in ways that meet the needs of students, and provide personal advice to students in the process of acquiring knowledge, expressing their thoughts and creativity. creates an opportunity to increase. In the article, the importance of creative and modern methods in increasing the effectiveness of education, the methods suitable for increasing students' interest and learning, including design thinking, brainstorming, intellectual mapping, copy production, painting, SWOT analysis, TRIZ method, collaborative creation methods were given. In addition, details were provided on how these methods increase the effectiveness of education, their activities and results.

Key words: Education, efficiency, creativity, creative and modern methods, innovation, motivation, creative thinking, game technologies, Design thinking, brainstorming, intellectual map, reproduction, painting, SWOT analysis, TRIZ method, collaborative creation.

Kirish.O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta‘lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta‘lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatishi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobilyatlarini rivojlantirishda interfaol usullardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishdir. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma’lumotlarni tahlil qilishda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo‘llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kreativ va zamonaviy metodlar ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi adabiyotlar va tadqiqotlar bu mavzuga oid ma‘lumotlar taqdim etadi:

Ken Robinson ta‘lim tizimlarining o‘zgaruvchanlik va rivojlanish jarayonida kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyatini va ularning o‘quvchilarni qiziqishga tortishdagi rolini qanday o‘rganishni ta‘kidlaydi. U o‘zining “Creative Schools: The Grassroots Revolution That's Transforming Education” kitobida, klassik ta‘lim usullarini kamaytirish va ta‘lim jarayonini bir xilligiga qarshi chiqish uchun kreativ va zamonaviy metodlarning muhimligi haqida maslahatlar beriladi.[2]

Dave Burgess o‘quvchilarni qiziqishga tortish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun kreativ va zamonaviy metodlarni qo‘llashini ta‘kidlaydi. Kitob o‘qituvchilarga o‘quvchilarni harakatchan qilish, ularning qiziqishini oshirish va o‘zlashtirish uchun ilg‘or tajribalarni o‘rganishda yordam beradi.[3]

Daniel H. Pink “Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us” o‘z kitobida, motivatsiya tizimlarini tahlil qilish orqali insonlarning ishlash xarakteristikalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Daniel kreativ va zamonaviy metodlarning insonlarning motivatsiyasini oshirishdagi o‘rinlarini ko‘rsatadi va bu metodlarni ta‘lim tizimlarida qanday qo‘llashni maslahat beradi.[4]

Alan Jenkins “Innovative Teaching and Learning in Higher Education” ilmiy tadqiqot ishida, oliy ta‘limning yangiliklar va rivojlanishida kreativ va zamonaviy metodlarni o‘rganishning efektivligini oshirishdagi roli va ularga qanday qilib qo‘llashni o‘rganish uchun ko‘proq ma‘umot taqdim etilgan.[5]

Laura R. Ramirez, Miriam I. Espinosalar “The Impact of Creative and Innovative Teaching Methods on Students‘ Learning Outcomes” nomli ilmiy maqolasida, kreativ va zamonaviy metodlarining o‘quvchilar o‘rganish natijalariga qanday ta‘sir ko‘rsatishi va ularni ta‘lim samaradorligini oshirishga yordam berishi tahlil qilinib, bu metodlar o‘quvchilarning o‘rganish darajalarini oshirish va ularning o‘zlashtirishini yanada oshirishda ahamiyatini ta‘kidlaydi.[6]

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, *“kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta‘sirchanlikni ifodalaydi*”.

Ushbu adabiyotlar va tadqiqotlar kreativ va zamonaviy metodlarning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi rolini, ularni qo‘llanilishini va o‘quvchilarning o‘rganish natijalariga ta‘sir ko‘rsatishi haqida ma‘lumotlar taqdim etildi.

Natijalar. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl hamda vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta‘limning noan‘anaviy metodlari ham muhim o‘rin egallaydi.

An’anaviy ta‘lim usullari va metodlarining o‘zgarishsiz qo‘llanilishi, o‘quvchilarda motivatsiyani kamaytirishi va ta‘lim jarayonini bir xillikda qolib ketshiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilar uchun o‘rganishni qiziqroq va samarali tashkil etish imkoniyatini kamaytiradi. Kreativ va zamonaviy metodlar, masalan, interaktiv o‘qitish vositalaridan foydalanish, texnologiyalarning integratsiyasi, virtual platformalarda o‘quv jarayonini tashkil etish, masofaviy ta‘limning

rivojlanishi kabi jarayonlarda samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini rivojlantirish, yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatga mos keluvchi ish bilan shug‘ullanish va yangiliklar bilan ta‘riflash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Xususan, kreativ metodlar, o‘quvchilarning talablariga mos keluvchi shakllarda o‘rganishni ta‘minlash orqali ularni o‘rganishni yaxshilaydi. Shuningdek, bu metodlar o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonlarida shaxsiy maslahatlar berish, o‘z fikrlarini ifoda qilish va yaratuvchi yondashuvda qatnashishga imkoniyat yaratadi. Natijada, kreativ va zamonaviy metodlar o‘quvchilarning o‘rganishni qiziqroq va ma‘naviy ravishda qabul qilishiga, o‘z fikrlarini yaratishiga va o‘zlarini o‘rganishda o‘zlashtirishiga olib keladi.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o‘tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativ va zamonaviy metodlar muammolarni yaratish, yechish va tasvir etish jarayonida o‘ziga xos usullar va tajribalarda biridir. Bu har qanday sohada innovatsiyalarni yaratish, ishlab chiqish va rivojlantirish uchun keng ko‘lamli va ilg‘or usullar va texnologiyalarni qo‘llashni ta’minlaydi. Quyida kreativ fikrlashni oshirish va zamonaviy metodlarni o‘rganish uchun mos keladigan metodlarni tavsiya etamiz:

1. Dizayn fikrlash (Design Thinking): Bu, muammolar va ularga yechim topish jarayonida odamlarning ijodiy, to‘la fikrlarini ishlab chiqish va rivojlantirishga qaratilgan metod.

2. Aqliy hujum (Brainstorming): Jamoa bo‘lib yoki individual ravishda fikrlar yig‘ish uchun oson va effektiv metod bo‘lib, tajriba bo‘yicha qo‘shimcha, yaqinda izlanayotgan muammolarni har tomonlama o‘rganishga imkoniyat beradi.

3. Intelekt xarita (Mind Mapping): Bir masalaga yoki muammoga tegishli barcha fikrlarni, munozaralarni yoki ko‘rsatkichlarni tasvirlash uchun grafik usul bo‘lib, asosan bir tufayli yordam beradi va yangi aloqalarni aniqlashga yordam beradi.

4. Nusxasini ishlab chiqarish (Prototype production): Bir loyiha yoki mahsulotning o‘zgaruvchan turlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqish va sinovdan o‘tqazish jarayonlarida muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga yordam beradi.

5. Rassomlik (Storyboarding): Hikoya yoki dastur strukturasi uchun qo‘llaniladigan tasvirlar to‘plamining yaratilishi bo‘lib, multimediya mahsuloti yaratuvchilar uchun qo‘llaniladi.

6. SWOT Tahlili: O‘quvchining mavzuga doir muammosini o‘rganish uchun qo‘llaydigan ilg‘or metod bo‘lib, kuchli va zaif, imkoniyat va tayanch tahqiqotlardan iborat bo‘lgan tahlilni anglatadi.

7. TRIZ Metodi: O‘ziga xos muammolarni yechish uchun fikr yoki usullar to‘plamini yaratishni maqsad qilgan jarayon bo‘lib, uning asosiy maqsadi, jiddiy

muammolarni yechish uchun texnikaga asoslangan qo‘llanma hisoblanadi.

8. Hamkorlikda yaratish (Co-Creation): Bir jamoa yoki jamoa a’zolari, mijozlar yoki o‘zaro faoliyatda ishtirok etadigan barcha hamkorlar o‘rtasida ma’lumot, muammo yoki mahsulotlarni birgalikda yaratish usuli.

Bu metodlar faqat bir qismi, kreativ va zamonaviy yondashuvlar uchun mavjud bo‘lgan turli vositalardan iboratdir. Har bir vaqt o‘z maqsadlari va o‘ziga xos muammolari uchun mos keluvchi usullarni tanlash muhimdir.

Muhokama. Yangi fikrlar va innovatsiyalar ta’lim sohasida hamma uchun foydali bo‘lishi mumkinligi sababli, kreativ va zamonaviy metodlarning o‘rganish, o‘zlashtirish jarayonlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan yangi ilmiy tadqiqotlar hamda ma’lumotlarning mavjud bo‘lishi kutiladi.

– O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish: Yangi tadqiqotlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyatini tasdiqlashga yordam berishi mumkin. Bu tahlillar, o‘quvchilar o‘rtasida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirish uchun qanday metodlar va darslarni o‘rganishning o‘quvchi-o‘qituvchilar uchun samarali bo‘lishi haqida ma’lumot berishi mumkin.

– Natijalar tafsilotlari: Kreativ va zamonaviy metodlarning o‘quvchilarning o‘rganish natijalarini qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida ko‘proq ma’lumot berishi mumkin. Bu tahlillar, kreativ va zamonaviy metodlarning o‘quvchilarning o‘rganish darajasini oshirishdagi rolini, ularning ishlash hamda o‘rganish usullarini rivojlantirishdagi muhimligini ta’kidlaydi

– Ta’lim texnologiyalari va innovatsiyalar: Yangi tadqiqotlar kreativ va zamonaviy metodlarning ta’lim texnologiyalarida qanday qo‘llanilishi, virtual ta’lim platformalari, interaktiv o‘qitish vositalari va boshqa yangiliklar orqali o‘quvchilarning o‘rganishini oshirishdagi rolini o‘rganishga yordam berishi mumkin.

– O‘qituvchilar tayyorgarligi va qobiliyatlarining rivojlanishi: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar tayyorgarligi, rivojlanishi, ularning kreativ va zamonaviy metodlarni qanday qo‘llashini o‘rganishga yordam berishi mumkin. Bu, o‘qituvchilar va ta’lim sohasidagi professional taraqqiyotlar uchun muhimdir.

– O‘rganish natijalarini o‘zlashtirish: Tahlil va natijalar o‘rganish jarayonlarini o‘zlashtirish, zamonaviy metodlar o‘quvchilarning kreativ fikrlash, muhokama qilish, yaratuvchanlik va boshqa kognitiv qobiliyatlarini oshirishdagi o‘rinlarini aniqlashga yordam berishi mumkin.

Bu yo‘nalishlardagi tahlillar, kreativ va zamonaviy metodlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tushuntirilishi hamda ta’lim sohasidagi innovatsiyalarni o‘rganishda muhim omillardan biridir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish joizki, kreativ va zamonaviy metodlar, o‘quvchilarning ta’limga qiziqishini oshirish, ularni ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning o‘rganish darajasini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlar samarali bo‘lib, ularning yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, fikrlash va muhokama qilish, va boshqa kognitiv qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning virtual platformalarda ishlashni o‘rganishini, interaktiv o‘qitish vositalaridan

foydalanishini va boshqa texnologik yangiliklarni qo‘llashni ta’minlaydi.

Yuqoridagi muhokama va xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni kiritishni maqsadga muvofiq deb olamiz:

– O‘qituvchilar va ta’lim sohasidagi kadrlar kreativ va zamonaviy metodlarni o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha xususiy ta’limlar hamda dasturlar bilan mustahkamlashlari kerak;

– Ta’lim tizimlari kreativ va zamonaviy metodlarni qo‘llash uchun texnologik vositalarni ta’minlash va ularga investitsiyalarni kiritish kerak;

– O‘quvchilar, ota-onalar kreativ va zamonaviy metodlarni qo‘llashda faol bo‘lishlari uchun maslahatlar hamda qo‘llanmalar taqdim etilishi kerak;

– Mustaqil tadqiqotchilar, akademik institutlar kreativ metodlarning ta’lim samaradorligi va o‘quvchilarning o‘rganish natijalarini o‘zlashtirishdagi rolini yanada oshirish uchun ilmiy tadqiqotlar hamda yaratuvchanlikka e’tobor qaratishlari lozim;

– Davlat tashkilotlari va ta’lim sohasidagi muassasalar kreativ va zamonaviy metodlarning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o‘zlashtirish jarayonlarini yanada rivojlantirish uchun yo‘l xaritalarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, kreativ va zamonaviy metodlarning ta’lim tizimlarida qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonlarini yanada samarali tashkil etishi uchun katta ahamiyatga ega. Bu yo‘l bilan, ta’lim samaradorligini oshirish uchun kreativ va zamonaviy metodlarning rivojlanishi hamda qo‘llanilishi keng ko‘lamli ko‘chirishlar uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Ken Robinson. Creative Schools: The Grassroots Revolution That‘s Transforming Education. // Penguin Books, 2015.

3. Dave Burgess. Teach Like a Pirate: Increase Student Engagement, Boost Your Creativity, and Transform Your Life as an Educator. // Dave Burgess Consulting, Inc., 2012.

4. Daniel H. Pink. Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us. // Riverhead Books, 2009.

5. Alan Jenkins. Innovative Teaching and Learning in Higher Education. // Routledge, 2019.

6. Laura R. Ramirez, Miriam I. Espinosa. The Impact of Creative and Innovative Teaching Methods on Students‘ Learning Outcomes. // Journal of Education and Learning, Vol. 6, No. 3, 2017.

7. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: СПГУТД, 2006.

8. A.A.Ismailov, X.J.Daminov, Z.A.Kosimova, G.A.Pirimov. Kreativ fiklashlarini baholash. // Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi. Toshkent-2021.

9. Yaxiyaxonova, Muhiba, and Marjona Yusupova. "Oliy ta’lim muassasalarida “informatika va at” fanlaridan mustaqil ta’limni tashkil etishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish." International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. 2023.

10. Yaxiyaxonova, Muhiba. "Talabalarning mustaqil topshiriqlar bajarishda intellekt xarita yordamida ijodiy fikrlash ko ‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi." International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. 2023.

11. Yakhiyakhonova, Mukhiba. "The Urgency of Improving the Methods of Developing the Skills of Independent Learning of Future Teachers (on the Example of Information Technology in Education)." Academicia Globe 2.03: 47-51.

12. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." Academicia Globe 2.04 (2021): 206-211.

13. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." Academicia Globe 2.04 (2021): 206-211.

14. Mahmudjonovna, Yaxiyahonova Muhiba. "Technologies of formation of students’ independent work organization skills." (2021).

15. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Mechanisms For Optimization Of Detection And Correction Of Errors In Computer Text Processing Systems. Journal of Engineering And Technology Research, 10(1), 1-7.

16. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. European Journal of Innovation in Nonformal Education,2(2), 369-373.

17. Абдувалиева, Зебинисо Абдулхамидовна, and Луиза Комиловна Турсунова. "Математический аппарат методов принятия решения документооборота в высших учебных." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 296-299.

18. Jurayev, Suxrobjon. "Oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati." Scienceweb academic papers collection (2019).

19. Raxmatov, Sherqo‘zi Olimovich. "Masofaviy ta’lim dasturlarining ta’lim tizimida afzalliklari va amaliy ahamiyati (moodle, scorm, tutor dasturlari misolida)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.11 (2021): 1263-1270.

20. Бердиева, Гульноза. "Boshlangich sinf oqituvchilarini aktdan foydalanish asosida kasbiy faoliyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asoslari." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.6 (2022): 1176-1180.

21. Berdiyeva, Gulnoza. "Informatika va axborot texnologiyalari fanini oqitishda masofaviy talim texnologiyalarining ahamiyati Gulnoza Berdiyeva, Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti oqituvchisi."

22. Saloxiddin o‘g‘li, Jurayev Suxrob, and Botirov Odilbek Xayrullo o‘g‘li. "modern server technologies." научные достижения и открытия 2019: сборник статей X (2019): 53.

KIMYO DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIM

Azamatova Dilafruz Saydig‘aniyevna
Avloniy nomidagi MTI “Tabiiy va iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikalarini takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot bo‘limi, katta ilmiy xodimi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan muammoli ta’lim yoritilgan bo‘lib, muammoli vaziyat va muammoli tajriba misolida namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Muammoli o‘qitish, muammoli ta’lim, muammoli vaziyat, muammoli tajriba.

Аннотация

В данной статье описано проблемное обучение, служащее реализации творческих способностей учащихся, приведены примеры проблемных ситуаций и проблемного опыта.

Ключевые слова: Проблемное обучение, проблемное образование, проблемная ситуация, проблемный опыт.

Annotation

This article describes problem-based education that serves to realize students’ creative abilities, and examples of problem situations and problem experiences are given.

Key words: Problem teaching, problem education, problem situation, problem experience.

Rivojlantiruvchi ta’limning vazifasi – shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo‘ladigan hayotiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish sanaladi.

Rivojlantiruvchi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari – o‘quvchilarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining asosiy bo‘g‘ini muammoli ta’lim yo‘nalishi sanaladi. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o‘qitish g‘oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan. Muammoli o‘qitishni chuqur o‘rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo‘lib, uning asosida “Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi”- degan g‘oya yotadi.

Muammoli o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo‘yicha topshiriqlar beriladi.

Bunda:

- nostandart masalalarni tuzish bo‘yicha;
- shakllantirilmagan savol bilan;
- ortiqcha ma’lumotlar bilan;
- o‘zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;
- yo‘riqnomalardan foydalanmasdan biror ob’ekt mohiyatini bayon etish;
- olingan natijalarni qo‘llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;

- hodisaning namoyon bo‘lish mexanizmini aniqlash;
- “bir lahzada” topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: muammoni qo‘yish, ma’lumotlar fondini to‘plash, qayta ishlash, yechim modelini aniqlash, qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash va ularni tanlangan yechim modelida aks ettirish, yangi ma’lumotlar va yechim modeli o‘rtasidagi zidlikni aniqlash, zidlikni yechimini topish, yangi yechim modelini yaratishdan iboratdir.

“Muammoli vaziyat” usuli - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

“Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmaslik, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” usuli qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

Kimyo darslarida darsning turli bosqichlarida: yangi materialni o‘rganishda, bilimlarni takrorlashda, umumlashtirishda, mustahkamlashda va nazorat qilishda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish mumkin.

9-sinfda “Ishqoriy metallar” mavzusida litiy va natriyning suv bilan o‘zaro ta’siri tajribasini namoyish qilish orqali yangi materialni o‘rganishni boshlash tavsiya qilinadi. O‘quvchilar tajriba natijasini ko‘rishadi va muammoli savol beriladi:

“Nima uchun ishqoriy metallar turli xil faollikdagi suv bilan reaksiyaga kirishadi?

O‘quvchilar javob izlashda faol ishtirok etadilar va dars natijasi o‘qituvchining muammoli savoliga javob sifatida tajriba asosida maktab o‘quvchilari mustaqil ravishda qilgan xulosalari hisoblanadi.

“Metallarning korroziyasi” mavzusini o‘rganishda, quyidagi savollarni muhokama qilish taklif qilinadi:

 Asosi temir bo‘lgan po‘latdan yasalgan qaysi konkilar uzoqroq xizmat qiladi va nima uchun: a) qisqichlari mis bo‘lganimi; b) qisqichlari alyuminiy bo‘lganimi?

 Nima uchun temir bankalardagi konservalar uzoq vaqt buzilmaydi?

10-sinfda “Karbon kislotalar” mavzusini umumlashtirishda muammoli savollar:

 Nima uchun ari chaqishi yoki joyni suv bilan namlash mumkin emas? Suv bilan ho qisqichlari mis bo‘lgan namllash faqat og‘riqni kuchaytiradi. Agar qichitqi o‘tidan kuygan yoki ari chaqqan joyga ammiak eritmasi surilsa, og‘riq kamayadimi?

 Og‘riqni kamaytirish uchun uyda yana nimadan foydalanishingiz mumkin?

Rivojlantiruvchi xarakterdagi muammoli tajribalar zamonaviy kimyo darsini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi, uni o‘qitish jarayoniga tizimli ravishda kiritish zarur.

Muammoli kimyoviy tajribalar o‘quvchilarga oldingi g‘oyalarga zid bo‘lgan

faktlarni taqdim etadi va shuning uchun ta’lim muammolarini qo‘yish va farazlarni qurish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, indikatorlar yordamida natriy xlorid, natriy karbonat va alyuminiy xlorid tuzlari eritmalarining reaksiyasini aniqlash. Ularning tuz eritmalarini neytrallash reaksiyalari mahsuloti sifatidagi kislotali ham, asosli ham xossalari bo‘lmagani haqidagi oldingi fikrlari tajriba davomida lakmus rangining haqiqiy o‘zgarishiga mos kelmaydi. Natijada muammoli vaziyat yuzaga keladi. O‘quvchilarning o‘zlari tadqiqot rejasini tuzadilar: gipotezasini ilgari suradilar (taxminlar qiladilar), uni qanday tekshirish haqida o‘ylashadi, kimyoviy tajriba o‘tkazadilar, kuzatadilar, natijalarni taqqoslab va xulosa chiqaradilar.

O‘quvchilar yetarli bilim va malakaga ega bo‘lgandagina muammoli tajribalarni tashkil qilish mumkin.

Ammiakning xossalarini o‘rganishda o‘quvchilar ammiak ishqorlar kabi ishqoriy tabiatning suvli eritmasini hosil qilishini tushuntira olmaydilar. Ularning ishqorlar haqidagi nazariy bilimi ammiakning erishi paytida ionlarning paydo bo‘lishi mumkinligini o‘z ichiga olmaydi. Ushbu muammoni hal qilib, o‘quvchilari asoslarning umumiy xossalarini izlash nafaqat moddaning tarkibi va tuzilishiga, balki moddaning boshqa moddalar bilan o‘zaro ta’siri xususiyatlari nuqtai nazaridan ham amalga oshirilishi mumkin degan xulosaga kelishadi.

Darslarda muammoli tajribalardan ham amaliy ishlarda, ham laboratoriya ishlarida foydalanish mumkin. Birinchi holda, o‘quvchilarning tadqiqot faoliyati jamoaviy xarakterga ega bo‘lsa, ikkinchisida u individual tarzda amalga oshadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari orasida muammoli ta’lim dolzarb va istiqbolli bo‘lib, u yangilik va o‘ziga xoslik elementlariga ega. Muammoli ta’lim mustahkam bilimlar asosida quriladi. Muammolarni mustaqil ravishda hal qilishda ijodkorlikni oshirish va mantiqiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2016.–279b.

2. Ismatov I.Sh., Omonov H.T. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari. T.: “Yangi nashr” , 2016. .–120b.

ZAMONAVIY TA’LIM METODLARI – TA’LIM SAMARADORLIGI KAFOLATI

Xamudov Mirjalol Olim og‘li
Namangan Davlat Universiteti maqsadli tayanch doktant

ANNOTATSIYA

Maqolada ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv jarayoniga zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilib, keng qamrovli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim metodlari, ta’lim samaradorligi, interfaol metodlar, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbati, ta’lim oluvchilar, ta’lim beruvchilar, bahs-munozara, muammoli vaziyat, o‘quv materiali.*

ABSTRACT

The article discusses the problem of using interactive methods to improve the effectiveness of learning in educational institutions and gives advice and suggestions for their application.

Keywords: *modern teaching methods, teaching efficiency, interactive methods, brainstorming, work in small groups, round table, training, training, disputes, educational material.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается важность использования современных интерактивных методов в процессе обучения для повышения эффективности преподавания и разрабатываются комплексные предложения и рекомендации.

Ключевые слова: *современные методы обучения, эффективность обучения, интерактивные методы, мозговой штурм, работа в малых группах, круглая дискуссия, обучающиеся, преподаватели, дебаты, проблемная ситуация, учебный материал.*

KIRISH

Ta’lim oluvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini ta’minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas’uliyatlidir. Bu vazifani ado etish uchun o‘qituvchilar qaysi turdagi ta’lim muassasasida mehnat qilishidan qat’iy nazar doimiyravishda o‘z ustilarida mustaqil ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari va ilmiy ijodiy izlanishlari zarurdir. Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarish majburiyligi nuqtai nazaridan ham o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi davr talabiga mos kelishi muammo yechimini ijobiy hal etilishini ta’minlashi shubhasiz.

Ana shu maqsadda o‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlarini keng qo‘llash zarurati mavjuddir. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib

keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;

ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;

ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;

o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;

ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;

amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Masalan, “Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir.

“Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklidata’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.

Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi. 2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart. Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan. Muammoli savol beriladi. Fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g‘oyalar guruhlanadi. Aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;

Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;

Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi. “Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;

ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

2. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha birbiriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.

Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi.

Kichik guruhlar shakllantiriladi. Mavzu yoritiladi. 1-guruhga topshiriq; 2-guruhga topshiriq; 3-guruhga topshiriq; 4- guruhga topshiriq beriladi. O‘qituvchi tomonidan ko‘rsatma berish va yo‘naltirish; Muhokama va tahlil qilish; 1- guruh taqdimoti, 2- guruh taqdimoti, 3-guruh taqdimoti, 4- guruh taqdimoti o‘tkazilib baholanadi.

Bunda:

o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi. «Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;

guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;

guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

3. “Davra suhbati” metodi:

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi:

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga soladi va belgilar qo‘yadi.

Belgilar: 1-ta’lim oluvchilar 2-aylana stol solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichigasolib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan. “Davra suhbati” metodining tuzilmasi

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.

Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Suhbatni o‘tkazish shartlari bilan tanishtirish: Konvertlar va “Javoblar varaqalari”ni tarqatish; Konvertlarga savollar yozish; Savollarga javob yozish; Baholash va tahlil qilish. Konvertni yonidagi o‘quvchiga uzatishlarga savollar yozish.

Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”nibaholaydi.

Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

XULOSA

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’limoluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’yektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;

barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;

har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;

o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi. “Davra suhbati” metodining kamchiliklari:

ko‘p vaqt talab etiladi;

ta’lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;

ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi

Ana shunday interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, ularni yangi bilimlarni samaraliroq o‘zlashtirishlariga omil bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Innovasion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2022. – 81-b.

2. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari /O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2021.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2023. – 193 b.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

5. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2021. – 115 b.

6. Musurmonov R. Ta’lim faoliyati sharoitida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidaginizolarning oldini olish – ta’lim samaralidorligi omili. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2023: 5.723

7. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim mazmunini prognostika qilish. Xalq ta’limi” jurnali T.:2021 yil №5

TALABALARGA FALSAFA FANINI OQ'ITISHDA KREATIVLIK MUAMMOSINING UMUMIY TAVSIFI VA METODIKASI

Yazdanov Ulug'bek Toshmurotovich, Raxmanov Bobur Axtamovich
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Intimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, Falsafa fanlari doktori.
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Harqanday fanda kreativlik muammosini dolzarblashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Kreativ yondashuvlarning rivojlanishini belgilovchi omillar, kreativ yondashuvlar haqidagi g'oyalar rivojlanishining tarixiy bosqichlari, falsafiy bilimlar tizimida kreativlik kategoriyasi, falsafa fanini o'qitishda kreativlikning ilmiy bilish sohalari, kreativ nazariyalarini tasniflash asoslari zamon talabi bo'lmoqda. Falsafa fanini o'zlashtirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish tushunchalari va uning xususiyatlari, sub'yektning tafakkuri va kreativkorligi o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy va falsafiy izohi, hamda nomutaxassis yo'nalishlarda falsafa fanini o'qitishda fikrlash va kreativlik, mulohaza va tushunishning muqobil an'analarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *kreativlik, falsafiy bilimlar, sub'yektning tafakkuri va kreativkorligi o'rtasidagi munosabatlar, o'qitishda fikrlash va kreativlik, kreativlik kategoriyasi.*

Annotation. It is important to create the necessary conditions for actualizing the problem of creativity in any discipline. The factors determining the development of creative approaches, the historical stages of the development of ideas about creative approaches, the category of creativity in the system of philosophical knowledge, the scientific knowledge areas of creativity in the teaching of philosophy, the bases of classification of creative theories are the need of the hour. Concepts of improving the creative approach in mastering philosophy and its characteristics, historical and philosophical explanation of the relationship between the subject's thinking and creativity, and the formation of alternative traditions of thinking and creativity, reflection and understanding in the teaching of philosophy in non-specialist areas is important.

Key words: *creativity, philosophical knowledge, the relationship between the subject's thinking and creativity, thinking and creativity in teaching, the category of creativity.*

Аннотация. Важно создать необходимые условия для актуализации проблемы творчества в любой дисциплине. Факторы, определяющие развитие творческих подходов, исторические этапы развития представлений о творческих подходах, категория творчества в системе философского знания, области научного знания творчества в преподавании философии, основания классификации творческих подходов. теории — это потребность времени. Концепции совершенствования творческого подхода в освоении философии и ее особенностей, историко-философское объяснение взаимосвязи мышления субъекта и творчества, формирования альтернативных традиций мышления и творчества, рефлексии и понимания в преподавании философии

неспециалистам. Районы важны.

***Ключевые слова**: творчество, философское знание, соотношение мышления субъекта и творчества, мышление и творчество в обучении, категория творчества.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayoni ham boshqa sohalar kabi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlar oby’ektiv talabga ega, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, bu keng bilimlarning mavjudligi, shuningdek, ma’lum bir sohadagi rivojlanishni oldindan bilish, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyati, tizimli fikrlash qobiliyati bilan izohlanadi. - ya’ni. o‘rganilayotgan masala bilan bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lgan hamma narsani ham mavhum, ham mazmunli shaklda o‘z ichiga oladi va ishlatadi. Jamiyatning ilg‘or rivojlanishiga hissa qo‘shadigan o‘ziga xos insoniy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish zarurati keskin raqobat sharoitida keskin oshdi. Bugungi kunda samarali faoliyatning asosiy va shartsiz belgilari sifatida ratsionalizm, pragmatizm, rejalashtirish va dinamizm birinchi o‘ringa chiqadi. Jamiyat muammolari axborot etishmasligida emas, balki uning haddan tashqari ko‘pligida bo‘lganligi sababli, muvaffaqiyatli rivojlanishga yordam beradigan haqiqatan ham to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun optimal to‘g‘ri tanlovni amalga oshirish juda muhimdir. Azaldan insoniyatning hayot me’yori hisoblangan ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik bugungi kunda behisob islohotlar fonida ko‘pincha turg‘unlik belgisi sifatida ta’riflanadi. Faqat o‘ylash yoki boshqacha fikr yuritish yetarli emas. G‘oyalarni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish, ularni ta’kidlash va tanlangan maqsadlarga erishish uchun mosligini hisobga olgan holda kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi va ushbu talablar asosida o‘qitishda kreativlik yondashuvini ishlab chiqish eng muhim vazifadir. Shuning uchun ham tafakkur strukturasini o‘rganish zarurati hayotning turli sohalarida sodir bo‘layotgan tez o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bir tomondan, zamonaviy dunyo muammolari noan’anaviy fikrlash usullaridan maksimal darajada foydalanishga asoslangan original echimlarni amaliy amalga oshirishni talab qiladi; boshqa tomondan, jamiyat uchun ahamiyatli bo‘lgan yangi kraetiv usullarni yaratish va joriy etish, bunga hissa qo‘shadigan real sharoitlarni tushunmasdan mumkin emas.

Metadologiya. Umumiy yo‘nalishlar orasida bugungi kunda asosiy kapitali o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal eta oladigan mutaxassislar bo‘lgan ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirishga urinishlar alohida ajralib turadi. Axborot texnologiyalarining joriy etilishi fikrlash qobiliyati va istagi bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan mutaxassisliklarga talabni oshiradi. Iqtisodiyotning samaradorligi tobora ko‘proq kasbiy faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlaydigan harakat usullariga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Ta’lim sohasida yangi yondashuvlarni faol joriy etish faqat bilim, ko‘nikma, malaka va tajribani o‘zlashtirishning murakkab jarayonining muhimligini ta’kidlaydi. Modelni tubdan o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan kontseptsiyani amalga oshirish kontekstida talabalarning muhim vakolatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga oid masalalarni hal qilish yanada dolzarb bo‘lib qolmoqda. Yangi texnologiyalarning gullab-yashnashi, madaniyatning iqtisodiy hayotga tobora ortib borayotgan integratsiyalashuvi sharoitida shakllangan zamonaviy jamiyat talablari va istaklari

va ta’lim tizimining real natijalari o‘rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. ta’lim faoliyati sub’ektining dolzarb sifat xususiyatlari sifatida "kreativlik" tushunchasining falsafiy va uslubiy asoslanishining etarli darajada ishlab chiqilmaganligi fonida rivojlanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga falsafa fanini kreativlik asosida o‘qitish muammosining nazariy rivojlanish darajasi sifatida kreativlik ya’ni kreativlik kategoriyasi ko‘plab fan va fanlararo ilmiy yo‘nalishlarda tadqiqot ob’yekti hisoblanadi. Mavzu bo‘yicha xulosalar ro‘yxati birinchi navbatda psixologiya sohasidagi o‘zgarishlarga mos keladi. Bu shaxsning muhim tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda kreativlikning asosiy belgilarini aniqlash bilan ham, ijodiy jarayonni tezlashtirish vositalari va usullarini tarqatish bilan ham bog‘liq. Biroq, ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonini proyeksiyalashda kreativlikni o‘rganishga bo‘lgan mavjud yondashuvlar cheklangan dalillar to‘plamiga ega va universal falsafiy va uslubiy asoslarni rivojlantirishga - fikrlash, tushunish va mulohaza yuritish modelini yaratishga zaif e’tibor beradi. ta’lim faoliyati tarkibida va buning natijasida zamonaviy ta’limning rivojlanish maqsadlarini yangi dasturiy vositalar orqali o‘qitish talabini, hamda o‘qitishning samaradorligini oshirish uchun munosib hissa qo‘sha oladi.Falsafiy kategoriyalar sifatida kreativlik va kreativlik ko‘lami bo‘yicha o‘xshash, ammo mazmuni jihatidan farq qiladi, bu esa ko‘rsatilgan kategoriyalarning mantiqiy funktsiyalari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlashga imkon beradi.

Taqdim etilgan tasnif ijodkorlik fenomeni haqidagi ilmiy bilimlarni tizimlashtirishga imkon beradi va hozirgi zamon muammolarini samarali hal qilishga qaratilgan inson tafakkurini yanada chuqurroq va har tomonlama o‘rganish imkoniyatini taklif qiladi. Insonning dunyo qarshining shakllanishi yoki hech bo‘lmaganda dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlarni o‘zlashtirish shubhasiz haqiqat va dalildir, ammo uni haqiqiy bo‘lmagan, xayoliy, yolg‘on narsa deb hisoblash mumkin. hodisa, va - ahamiyatsiz , inson mavjudligi yoki mavjudligining mohiyatini aks ettirmaydi. Biroq, kundalik ehtiyojlar, amaliy zarurat, odamlar oldidagi burch va mas’uliyat hissi, axloqiy va axloqiy me’yorlar, insonning dunyoga amaliy, haqiqiy daxldorligiga xos bo‘lgan qadriyatlar doimo va, aytish mumkinki, muqarrar ravishda o‘zlarini eslatib turadi, odamlarni rag‘batlantiradi. faol harakat qilish, o‘zini, ongini va belgilangan maqsadlarini, foydalaniladigan vositalarni, atrof-muhitni va atrof-muhitni o‘zgartiradi, va umumiy ta’rifda - ular qandaydir tarzda o‘zlarini topadigan va ko‘paytiradigan dunyo vaziyatlari22.

Mahalliy va g‘arb an’analariga ko‘ra, “kreativlik” toifalarining mazmuni ularning xarakterli navlarini ko‘rsatish va ma’naviy va moddiy komponentlarning umumiy qarama-qarshiligi orqali ochib beriladi. Belgilangan toifalar orasidagi suv havzasi moddiy va ma’naviy faoliyat o‘rtasidagi farq chizig‘i bo‘ylab o‘tmaydi, chunki bu, aksincha, ontologik jihatdan ikkala faoliyat ham moddiy, ham ma’naviy narsalarni o‘z ichiga olishi bilan belgilanadigan birlikdir, lekin bunday asoslarni tahlil qilish orqali. maqsadlar, jumladan, mavhum, ijtimoiy funktsiyalar, shaxslarning tafakkuri orqali shakllangan mahsulotlar. Bu bizga aniqlangan muammoni hal qilish doirasida o‘sish nuqtalarini aniqlash va kreativlik mazmunini etarlicha aniqlik bilan ochish imkonini beradi.

Bakalavrlarni tayyorlash jarayonida tizimli faoliyat, amaliyotga yo‘naltirilgan va kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlar faol qo‘llaniladi, ular bo‘lajak bitiruvchilarning kasbiy sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bir qator mutaxassislarning fikriga ko‘ra, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv izlanish va ijodiy faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, u bitiruvchi uchun kasbiy faoliyat sohasida zarur bo‘lgan fazilatlar va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam berishi kerak. Ishlab chiqilayotgan kurslar doirasida amaliy natijaning mavjudligi standartlarda ko‘rsatilgan va ta’limning turli yo‘nalishlarining bakalavriat modelida ko‘zda tutilgan bir qator vakolatlarning shakllanish darajasini tekshirish imkonini berishi kerak.

Tizimli-faollik yondashuvi nuqtai nazaridan ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayoni ma’lum tamoyillar va shartlarga rioya qilishni nazarda tutadi. Birinchidan, oliy ta’lim bitiruvchilarining o‘ziga xos malakalari faqat harakat orqali shakllanadi. Ikkinchidan, natijalar haqiqatda taqqoslanadigan natija standartining majburiy mavjudligi. Uchinchidan, o‘z xatti-harakatlarining kamchiliklarini ushbu harakatni amalga oshirishning madaniy usuli bilan taqqoslash orqali aks ettirish. Tizimli-faoliyat yondashuvidagi sinflarga qo‘yiladigan asosiy talablar ma’lum tarkibiy qismlarning mavjudligini o‘z ichiga oladi: tezkor va tekshirilishi mumkin bo‘lgan maqsad, muammoli vaziyat, natijaning ma’lum bir tasviri, faoliyatning haqiqiy jarayoni, motivatsiya va aks ettirish. Har bir bunday element o‘ziga xos ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi, shu jumladan umumiy madaniy vakolatlar sohasida, ularning rivojlanishi birinchi navbatda ijtimoiy va gumanitar fanlarga yo‘naltirilgan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki. Ta’lim tizimini o‘zgartirish bo‘yicha ko‘plab munozaralar fonida falsafiy va uslubiy mazmunning fundamental masalalari hal etilmoqda, bu shubhasiz modernizatsiya asosini tashkil etadi. Bular kognitiv faoliyat jarayonlarida ob’yekt, sub’yekt va bilim o‘rtasidagi munosabatlarga, insonning dunyoni bilish imkoniyatlariga, kognitiv faoliyatning tuzilishiga, sub’yektning voqelikka nisbatan bilish shakllariga oid yangi kreativ yondashuv metodlarini ishlab chiqish zarurligini bildiradi. Shuningdek, ta’limning hozirgi yondashuvlari va o‘qitish usullarini yangicha yondashuv asosida amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan kontseptual apparatni shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlar bilan birgalikda bilimlarning takomillashishi va ishonchlilik mezonlarini kreativlik asosida ishlab chiqiladi. Muqobilsiz, pedagogik va falsafiy nuqtai-nazardan o‘quv jarayoniga kompetensiyaga asoslangan kreativ yondashuvni joriy etish bo‘yicha faol siyosat fikrlash bilan bog‘liq ba’zi muammolarni, ya’ni fikrlashning amaliy faoliyati va fikrlash sohasi o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq muammolarni ishlab chiqish zarurligini bildiradi. Umuman olganda, kreativlik haqidagi ilmiy bilimlarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida mahalliy va xorijiy mualliflarning katta qismi kreativlik hodisasini psixologik, pedagogik hamda iqtisodiy nuqtai-nazardan ko‘rib chiqadi, bu esa kreativlik yondashuvlarni sezilarli darajada o‘sishiga va dasturiy vositalarni ishlab chiqish zarurat mavjudligiga olib keladi. Dastur imkoniyatlari juda keng bo‘lib, undan amaliy mashg‘ulotlarda ya’ni testlar va so‘rovnomalar, amaliy bilimlarni o‘zlashtirishda

amaliy topshiriqlarni individual bajarishda keng foydalanish mumkin va falsafa faniga doir bilimlarni mukammal oʻzlashtirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yazdanov U.T. Raqamli texnologiyalar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni “Oʻzbekistonda aqlli qishloq xoʻjaligini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari” xalqaro ilmiy konferensiaysi. 12-13-may 2023-yil. 184 – 187 b.

2. Yazdanov U.T. (2014). Democracy of governing: state, society and public opinion. European science review (3-4), p. 184 – 187

3. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

5. Боровинская Д. Н. Креативность как составляющая развития западной модели образования [Электронный ресурс] / Д. Н. Боровинская // Философия и гуманитарные науки в информационном обществе: электронный журнал. – 2019. – № 1 (23). – URL: http://fikio.ru/?p=3449

BO‘LINISH BELGILARI VA ULARNING ISBOTI

Z. N. Kamilova, B. S. Normonov, D. Shodmonov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali "Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar" fakulteti matematika va informatika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola matematika faniga oid bilimlarga asoslangan bo‘lib, bo‘linish belgilari va uning isboti haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: matematika, bo‘linish, isbot, raqam, juft, toq.

Annotation: This article is based on knowledge related to the mathematical discipline, discussing division indicators and its justification.

Keywords: mathematics, division, justification, number, even, odd.

Аннотация: Данная статья основана на знаниях, связанных с математической дисциплиной, обсуждающих показатели деления и их обоснование.

Ключевые слова: математика, деление, обоснование, число, четное, нечетное.

Kirish: Ushbu maqola o‘quvchida konginitiv kompetensiyani shakllantiradi va misollarni tez va oson yechishda yordam beradi. Maqola muallifning ijodiy fikrlari

mahsulidir. Ko‘p adabiyotlarda deyarli berilmagan ma’lumotlar bo‘lib, bo‘linish belgilariga oid yangi qoidalar bayon qilingan.

23 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamning yettilanganini berilgan sondagi o‘nliklar soniga qo‘shganimizda, hosil bo‘lgan son 23 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 23 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\dots cdef} = 10^n a + 10^{n-1} b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 23 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\dots cde} + 7f = 10^{n-1} a + 10^{n-2} b + \cdots 10^2 c + 10d + e + 7f$ soni 23 ga bo‘linish sharti bajarilsa $10\left(\overline{ab\dots cde} + 7f\right) - \left(\overline{ab\dots cdef}\right) = (10^n a + 10^{n-1} b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + 70f) - (10^n a + 10^{n-1} b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f) = 69f$

Agar $(10^n a + 10^{n-1} b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + 70f) = x$ va $10^n a + 10^{n-1} b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f = y$ deb belgilash kiritib olsak $x - y = z$ ayirma uchun z son 23 ga bo‘linadi va y son uchun yuqoridagi shart bajarilsa, y son 23 ga bo‘linadi. Demak x son ham 23 ga bo‘linadi.

29 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamning uchlanganini berilgan sondagi o‘nliklar soniga qo‘shganimizda, hosil bo‘lgan son 29 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 29 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\dots cdef} = 10^n a + 10^{n-1} b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 29 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde}+3f=10^{n-1}a+10^{n-2}b+\cdots 10^2c+10d+e+3f$ soni 29 ga bo‘linish sharti bajarilsa $10\left(\overline{ab\ldots cde}+3f\right)-\left(\overline{ab\ldots cdef}\right)=(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+30f)-(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f)=29f$

Agar $(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+30f)=x$ va $10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f=y$ deb belgilash kiritib olsak $x-y=z$ ayirma uchun z son 29 ga bo‘linadi va y son uchun yuqoridagi shart bajarilsa, y son 29 ga bo‘linadi. Demak x son ham 29 ga bo‘linadi.

Xulosa qilib aytsak, $\overline{ab\ldots cfe+3f}$ sonni 29 ga bo‘linsa, $\overline{ab\ldots cdef}$son ham 29 ga bo‘linadi.

31 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamning uchlanganini berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 31 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 31 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef}=10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f$ sonni 31 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde}-3f=10^{n-1}a+10^{n-2}b+\cdots 10^2c+10d+e-3f$ soni 31 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right)-10\left(\overline{ab\ldots cde}-3f\right)=(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f)-(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e-30f)=31f$

Demak, bu son 31 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 31 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

37 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 11 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 37 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 37 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef}=10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f$ sonni 37 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde}-11f=10^{n-1}a+10^{n-2}b+\cdots 10^2c+10d+e-11f$ soni 37 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right)-10\left(\overline{ab\ldots cde}-11f\right)=(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f)-(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e-110f)=111f$

Agar $(10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e-110f)=x$ va $10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f=y$ deb belgilash kiritib olsak $y-x=z$ ayirma uchun z son 37 ga bo‘linadi va y son uchun yuqoridagi shart bajarilsa, y son 37 ga bo‘linadi. Demak x son ham 37 ga bo‘linadi.

41 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamning to‘rtlanganini berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 41 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 41 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef}=10^na+10^{n-1}b+\cdots+10^3c+10^2d+10e+f$ sonni 41 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 4f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e - 4f$ soni 41 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 4f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e - 40f) = 41f$

Demak, bu son 41 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 41 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

43 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamning 30 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 43 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 43 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f$ sonni 43 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 30f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e - 30f$ soni 43 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 30f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e - 300f) = 301f$

Demak, bu son 41 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 43 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

47 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 14 ga ko‘paytirib, berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 47 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 47 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f$ sonni 47 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 14f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e - 14f$ soni 47 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 14f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e - 140f) = 141f$

Demak, bu son 47 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 47 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

53 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 37 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 53 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 53 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f$ sonni 53 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 37f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e - 37f$ soni 53 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 37f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e - 370f) = 371f$

Demak, bu son 53 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 53 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

59 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 6 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar soniga qo‘shganimizda, hosil bo‘lgan son 59 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 59 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 59 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} + 6f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2 c + 10d + e + 6f$ soni 59 ga bo‘linish sharti bajarilsa $10\left(\overline{ab\ldots cde} + 6f\right) - \left(\overline{ab\ldots cdef}\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + 60f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f) = 59f$

Demak, bu son 59 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 59 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

61 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 6 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 61 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 61 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 61 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 6f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2 c + 10d + e - 37f$ soni 61 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 6f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e - 60f) = 61f$

Demak, bu son 61 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 61 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

67 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 20 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 67 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 67 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 67 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 20f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2 c + 10d + e - 20f$ soni 67 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 20f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e - 200f) = 201f$

Demak, bu son 67 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 67 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

71 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 7 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 71 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 71 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 71 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 7f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e - 37f$ soni 71 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 70f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e - 70f) = 71f$

Demak, bu son 71 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 71 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

73 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 51 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 73 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 73 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f$ sonni 53 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 51f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e - 51f$ soni 73 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 51f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e - 510f) = 511f$

Demak, bu son 73 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 73 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

79 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 8 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan qo‘shganimizda, hosil bo‘lgan son 79 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 79 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f$ sonni 79 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} + 8f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e + 8f$ soni 79 ga bo‘linish sharti bajarilsa $10\left(\overline{ab\ldots cde} + 8f\right) - \left(\overline{ab\ldots cdef}\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + 80f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) = 79f$

Demak, bu son 79 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 79 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

83 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 58 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 83 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 83 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f$ sonni 83 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 58f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2c + 10d + e - 58f$ soni 83 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 58f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3c + 10^2d + 10e - 580f) = 581f$

Demak, bu son 83 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 83 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

89 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 9 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan qo‘shganimizda, hosil bo‘lgan son 89 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 89 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 79 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} + 9f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2 c + 10d + e + 9f$ soni 89 ga bo‘linish sharti bajarilsa $10\left(\overline{ab\ldots cde} + 9f\right) - \left(\overline{ab\ldots cdef}\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + 90f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f) = 89f$

Demak, bu son 89 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 89 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

97 ga bo‘linish alomati:

Berilgan sonning birlar xonasidagi raqamni 29 ga ko‘paytirib berilgan sondagi o‘nliklar sonidan ayirganimizda, hosil bo‘lgan son 97 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son 97 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Berilgan $\overline{ab\ldots cdef} = 10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f$ sonni 97 ga bo‘linishini tekshiramiz.

$\overline{ab\ldots cde} - 29f = 10^{n-1}a + 10^{n-2}b + \cdots 10^2 c + 10d + e - 29f$ soni 97 ga bo‘linish sharti bajarilsa $\left(\overline{ab\ldots cdef}\right) - 10\left(\overline{ab\ldots cde} - 29f\right) = (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e + f) - (10^n a + 10^{n-1}b + \cdots + 10^3 c + 10^2 d + 10e - 290f) = 291f$

Demak, bu son 97 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 97 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Adabiyotlar:

1. A.U. Abduhamidov, H.A.Nasimova, U.M.Nosirov, J.H.Husanov. “Algebra va matematik analiz asoslari”. I-qism. Darslik
2. Saitov Yo, Saidov S . Bo‘linish belgilariga doir mulohazalar. FMI, 2003, №2, 34-41 betlar
3. Do‘smetov A. Turg‘unboyev R. Bo‘linish belgilari haqida. FMI, 2003, №3 34-41 betlar
4. Rozentuller V.M. Priznaki delimosti.. Kvant, 1973, №4, 11 bet
5. Y. U. Soatov “Oliy matematika” 3-jild Toshkent “O‘zbekiston” 1996
6. А. М. Тер-Крикоров, М. И. Шабунин «Курс математического анализа»
7. Xamedova N.A, Ibragimova Z, Tasetov T. Matematika. Darslik. T.: Turon-iqbol, 2007.
8. D. Rahimov., Oliy matematika. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2006.
9. Rajabov F., Masharipova S. Madrahimov R. Oliy matematika asoslari. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2011.

HARBIY TA’LIM SAMARADORLIGI OSHIRISH VA HARBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KIMYOVIY BILIMLARNI QO‘LLASH ZARURATI

M.SH.Islamova

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhanmdislik bilim yurti, tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD), dotsent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy muhandislarni tayyorlash va kursantlarda harbiy kopmetentlikni kimyoviy bilimlar asosida rivojlantirish masalasi yoritilgan. Unda harbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha so‘nggi yillarda dunyo mamalakatlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning qisqacha sharxi va muallifning shaxsiy ilmiy tadqiqot ishi xulosalari o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar. kompetensiya, harbiy kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kimyo, harbiy kompetentlikni rivojlantirish.

Аннотация. В данной статье описывается подготовка военных инженеров и развитие военной компетентности курсантов на основе химических знаний. Содержит краткий обзор научных исследований, проведенных в последние годы в странах мира по развитию военной компетентности и выводы личной исследовательской работы автора.

Ключевые слова. развитие компетентности, военная компетентность, профессиональная компетентность, химия, военная компетентность.

Abstract. This article describes the training of military engineers and the development of military competence in cadets based on chemical knowledge. It contains a brief overview of the scientific research conducted in recent years in the countries of the world on the development of military competence and the conclusions of the author’s personal research work.

Key words. development of competence, professional competence, chemistry, military competence.

KIRISH. Dunyoda oliy harbiy ta’lim mazmunini takomillashtirish, kimyo fanini harbiy sohaga yo‘naltirib o‘qitish, kimyo ta’limida harbiy-kasbiy aloqadorlikni ta’minlashning integrativ mexanizmlarini takomillashtirishning metodik tizimini ishlab chiqish, kimyo fanining harbiy kompetentlikdagi ahamiyatini ochib berish, hozirgi rivojlanish davri qurol-yaroq texnikasining eng takomillashgan jabhalariga kimyo fani yutuqlarini tatbiq etish, shuningdek, kimyoni umumkasbiy va ixtisoslik hamda maxsus-harbiy tayyorgarlik fanlariga bog‘lab o‘qitish orqali harbiy sohaga keng joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, kimyoni o‘qitishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish, o‘qitishning integrativ metodik ta’minotini rivojlantirib oliy harbiy ta’lim muassasalarida kimyo fani mazmunini takomillashtirish orqali yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlash borasidagi amaliy ishlar kimyo fani va harbiy ta’lim sohasining jadal integratsiyasini ta’minlamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bo‘lajak harbiy kadrlarda harbiy va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik va psixologik masalalari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy hamda oliy harbiy ta’lim muassasalari, jumladan, Vashington Qurolli Kuchlar Milliy Mudofaa Universiteti, Garvard biznes maktabi,

Vestminster kolleji, Auburn universiteti, Amerika Qo‘shma Shtatlari Armiya harbiy kolleji, AQSH dengiz floti va Virjiniya universiteti (AQSH), Gothenburg universiteti (Shvetsiya), Janubi-Sharqiy Norvegiya universiteti, Norvegiya Harbiy Akademiyasi (Norvegiya), Marshal Samora nomidagi Machel harbiy akademiyasi (Mozambik respublikasi), General Xose Mariya Kordova nomidagi harbiy kursantlar bilim yurti (Kolumbiya), Avstraliya Mudofaa Kuchlari Akademiyasi, Nottingem universiteti (Avstraliya), Qurolli kuchlar tibbiyot kolleji (Hindiston), Malayziya Milliy Mudofaa universiteti (Malayziya), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya), Milliy Pedagogika Universitetlari(Qozog‘iston)da olib borilmoqda.

Xususan, AQSH Dengiz floti va Virjiniya universiteti tomonidan bo‘lajak ofitserlarda harbiy-ma’naviy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ahamiyati o‘rganilgan bo‘lsa, Uniformed Services Universitetida kasbiy xulq-atvor va kompetensiyalar ustida tadqiqotlar olib borilgan. AQShning Uniformed Services University of the Helath Sciences tomonidan harbiy boshqaruvchanlik kompetensiyalari, 87 tabiiy ofatlarga javob berish uchun olingan harbiy saboqlar, guruh bilan o‘zaro hamkorlik paytida harbiy kursantlar o‘rtasida kod almashinuvi ko‘nikmalarini shakllantirish ustida ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shvetsiyaning Gothenburg universiteti Amaliy IT (Applied Information Technology) bo‘limi tadqiqotchilari va Janubi-Sharqiy Norvegiya universiteti, Norvegiya ta’lim fanlari bo‘limi (Department of Educational Sciences) tomonidan navigatsiya va stimulyatsiya vositalari asosida professional kompetensiyalarni baholash mexanizmlari yaratilgan. Nampula shahri Marshal Samora nomidagi Machel harbiy akademiyasida harbiy oliy ta’limda o‘qituvchilarning roli Mozambik respublikasi misodida tahlil qilingan. Kolumbiyaning General Xose Mariya Kordova nomidagi harbiy kursantlar bilim yurti, Avstraliya Mudofaa Kuchlari Akademiyasi, Nottingem universiteti Harbiy etika markazi (Center for Military Ethics) bilan hamkorlikda Qurolli Kuchlarda samarali gender integratsiyasi, ayol va erkak harbiy xizmatchilarda harbiy-kasbiy kompetensiyalarni tenglikda rivojlantirish (Kolumbiya armiyasi harbiy akademiyasi misolida) tadqiq etilgan. Qozog‘iston Milliy Pedagogika Universiteti tadqiqotchilari tomonidan kelajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik jihatlari o‘rganilgan[7,8,9].

Oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayonini kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida amalga oshirish, kompetenlik va harbiy, kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish muammosi bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, Respublikamiz olimlari A.A.Vaxobov, A.A.Saidov, G.O.Meliyev, V.Z.Yuldoshev, M.Rasulov, Z.Alimardonov va boshqalarning ilmiy izlanishlari ayni shu muammo bo‘yicha olib borilgan, D.K.Nasriddinov, Sh.A.Pazilova, S.K.Ramonova, A.Sh.Safarov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida esa harbiy sohada tabiiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirish muammolari yoritilgan[4,5].

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida kompetenlik va harbiy, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi O.N.Ovsyanikova, A.I.Shishkov, N.I.Birkun, A.I.Kozachok, M.M.Axmetshin, A.V.Koklevskiy, M.N,Shulga,

L.V.Dolomanyuk, O.V.Paraxina, I.V.Nikolayeva, A.V.Yejogov, O.V.Sakeyeva va boshqalarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Xorijlik olimlardan J.Raven, D.Hersules, D.Callahan, V.Xutmaxer va boshqalarning tadqiqot ishlarida kompetentlik va harbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan[6].

METODLAR. Jahonda kuzatilayotgan siyosiy-strategik holat milliy mudofaa maqsadlariga mos professional harbiy kadrlarni yetishtirishda kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammoga aylanib borayotganini ko‘rsatmoqda. Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy va metodik tadqiqotlarning tahlili, oliy harbiy ta’lim tizimida kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslarini o‘rganish zarurati mavjudligini bildiradi.

Tadqiqotning maqsadi kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarining nazariy va metodik jihatlarini ishlab chiqish hamda uni oliy harbiy ta’lim tizimi o‘quv jarayoniga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalarni tahlil etish orqali, kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish istiqbollarini, kursantlarning harbiy kompetentligi holatini aniqlash;

ilmiy-tadqiqot ishlari va psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish asosida “kimyoviy bilimlar”, “kimyoviy bilimlar asosidagi harbiy kompetentlik” “harbiy kompetentlik”, “kursantlarning kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentligi progressi” tushunchalarining mazmun-mohiyati va ta’rifini aniqlash;

kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlash, kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlanganligini aniqlash uchun o‘lchov me’yorlariga mos mezonlar va ko‘rsatkichlarni tanlash;

kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirish modeli samaradorligini pedagogik tajriba-sinov asosida tekshirib ko‘rish va natijalarni baholash deb belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston - ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatdardosh bo‘lishi shart” degan asosli da’vatlari asosida professional asosdagi armiyani rivojlantirish, uning tarkibini yuqori malakali, kasbiy mahorat va jangovar qobiliyatga ega bo‘lgan, o‘z individual, shaxsiy, ijtimoiy xusiyatlari bilan harbiy kasb talablariga to‘liq javob beraoladigan professional kadrlar bilan ta’minlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun, bo‘lajak ofitseralrning kasbiy kompitentligini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish yechimini kutayotgan muamolardan biri hisoblanadi[1].

Kompetentlik - bu shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilimi, malaka va ko‘nikmalari hamda shakllagan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyatidir [2].

Kompetensiya – (lot. sompeto – loyiqman, munosibman, erishayapman) u yoku bu sohadagi bilimlari va tajribasidir [3].

Harbiy kompetensiya - bu harbiy kasbiy tayyorgarlik va harbiy qisimning, alohida askarning jangovar vazifalarini bajarishi va harbiy xizmat uchun javobgarligi tushuniladi. Harbiy xizmatchilarning harbiy mutaxassis sifatida vakolatlari o‘quv jarayonida rivojlanadi va harbiy faoliyat jarayonida asosiy kompetensiyalar tizimi bilan shakllanadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi deb qabul qilish o‘rinlidir.

Kimyoviy bilimlar asosida intellektual bilimlar, harbiy sohada kimyoga oid mulohazalar; harbiy kimyoviy bilimdonlik; harbiy kimyoviy intellekt; kimyodan harbiy amaliy topshiriqlar, tajribalar, debatlar; kimyoviy izlanuvchanlik va harbiy innovatsion tadqiqotlarning asosida o‘zaro ta’siri natijasida, ongli ravishda fundamental g‘oyalar, tamoyillarni nazariy rivojlantirish orqali harbiy kompetentlikni rivojlantirish mumkinligi asoslandi.

Kimyo - bu moddalar, ularning tuzilishi, tarkibi va xossalarini o‘rganadigan tabiiy fandir. Kimyoviy qonunlar va nazariyalar boshqa bog‘liq tabiiy va texnik fanlarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kimyo ijtimoiy muammolarni hal qilish, har bir inson va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq. Kimyoviy bilimlar umumiy insoniyat madaniyatining muhim qismidir va sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo‘shishi bilan bir qatorda harbiy soha rivoji va mazmunida hos o‘rin tutadi.

Harbiy kompetentlik - bu bilimlar tizimi bo‘lib, u tizimli omillar, harbiy kasbning muayyan ijtimoiy qadriyatlari, harbiy vaziyatlar haqida yaxlit fikrlashning asosi ekanligiga mos ravishda, kursantlarda kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishni samarali amalga oshirish shartlari ishlab chiqildi.

Kursantlarning harbiy kompetentligini rivojlantirishda, kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirishning mazmuni va usullarini harbiy kasbiy va shaxsiy rivojlanish, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari bilan uyg‘unlashtiradigan texnologiya ishlab chiqish, kursantlarning harbiy kompetentlikni rivojlantirish mezonlari nazariy aniqlandi.

Kimyo fanini o‘qitish jarayonini harbiy kompetentlikni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish, pedagogik va psixologik tadqiqotlar, divergent fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish, oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektiv ta’limni joriy etish, darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kursantlarning harbiy kompetentligini rivojlantirish ishlari mazmuni ilmiy jihatdan pedagogik tahlil qilindi.

Harbiy kadrlar uchun kelgusi hayoti va faoliyatida juda katta rol o‘ynovchi tayyorgarlik turlaridan biri ham kimyoviy tayyorgarlik hisoblanib, quyidagi tayyorgarlik turlari va kimyoviy bilimlar bilan bevosita bevosita bog‘liq: kimyoviy preparatlar; ommaviy qirg‘in qurollarining turlari va xususiyatlarini o‘rganish va

ulardan himoyalanish nazariyasi bo‘yicha bilimlar; shaxsiy himoya vostalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy bilimlar; respiratorlardan va gazga qarshi niqoblaridan foydalanish ko‘nikmalari; dushmanning ommaviy qirg‘in qurolidan foydalanish sharoitida yurish, taktik mudofaani ushlash va hujumga o‘tish chog‘ida kimyo va degazatsiyaga oid bilimlar; kimyoviy va radiatsion razvedka o‘tkazish vositalari, ularni o‘rganish, harbiy manyovrlar vaqtida maskirovka maqsadida qo‘llash mumkin bo‘lgan tutun chiqaruvchi moddalar va boshqa kimyoviy bilimlarga asoslangan harbiy tayyorgarlikga doir bilimlarni o‘z ichiga oladi (1-rasm).

1-rasm. Harbiy sohada talab etiluvchi ayrim kimyoviy bilimlar mazmuni

Bundan tashqari oliy harbiy ta’lim muassasalarida tirik qolish ko‘nikmalari darslarida, kimyoviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallash harbiy kadrlarning keyingi faoliyatida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlari elektiv kurslarida kursantlarni harbiy kompetentligini rivojlantirish ishlari mazmunini tanlash mezonlari va uning ustuvor vazifalari, kursantlarni kimyo fanini o‘qitish jarayonida harbiy kompetentligini rivojlantirish ishlarini tashkil etish shartlarining umumiy tuzilmasi ishlab chiqildi.

Harbiy mahorat – harbiy kompetentlikning muhimtarkibiy elementi bo‘lib, har bir jangchi va yalpi harbiy jamoaning, kuchli va texnik jihatdan yaxshi ta’minlangan dushman ustidan g‘alaba qozonish maqsadida, qurol-yarog‘ va texnikadan unumli foydalana olish va eng murakkab vazifalarni bajara olish qobiliyati. Harbiy mahorat - jangovor tayyorgarlik va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi hamda harbiy tarbiya yordamida mustahkamlanadi.

NATIJALAR. Kimyo fanidan izchil va kuchli berilgan bilim va ko‘nikmalar harbiy kadrlarda portlatish ishlari va portlovchi moddalar xarakteristikasini teyran tushunish va shu asosida qaror qabul qilishga yordam beradi. “Portlatish ishlari” mutaxassislik fanida portovchi moddalar, portlash, yonish hodisalarini bilan bir qatorda portlovchi simob (simob fulminati Hg(CNO)2), teneres (TNRS C6H(NO2)3(OPb)2), qo‘rg‘oshin azidi (Pb(N3)2), tetril (C6H2(NO2)3N(CH3)NO2), trotil (C7H5N3O6, S6H2CH3(NO2)3), kapsyul tarkiblariga kiruvchi surma sulfidi (III) (Sb2S3) kabi portlovchilik xususiyatiga ega kimyoviy moddalar tarkibi va ularning fizik va kimyoviy xususiyatlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni talab etiladi.

Harbiy sohada talab etiluvchi kimyoviy bilimlar mazmuni, bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompitentligini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish yechimini kutayotgan muamolardan biri ekanligi, kursantlarda mantiqiy-mustaqillik va vetagen yondashuv asosida divergent fikrlash qobiliyatlarini kamol toptirish uchun ta’limning yangi faollashtiruvchi omil (shart-sharoitlari, shakllari, usul va vosita)larini amaliyotga keng ko‘lamda joriy etish bilan hal etish mumkinligi aniqlandi[10].

Harbiy divergent fikrlash ko‘nikmasining shakllanishi, o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladigan shaxsiy sifatlarga ega quyidagi divergent qobiliyatlar bilan birga kechadi: harbiy texnika va texnologiyalarni

tushunish, qurol-yarog‘ va harbiy texnik jihozlar bilan munosabatga kirishishga, harbiy-kimyoviy (birikmalar, kapsyul moddalar, brizantli portlovchi moddalar, zenit-raketa qurollari va o‘q dorilar)ni qo‘llashga, kimyoviy-innovatsion kashfiyotchilikka doir qobiliyatlar va boshqalar.

MUNOZARA. Olib borilgan izlanishlar va tahlillar, kimyo fanini o‘qitish jarayonida kasbga yo‘naltirib o‘qitish orqali kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida yetarli darajada o‘rganilmaganligini ko‘rsatdi.

1.Harbiy kompetentlik - bu bilimlar tizimi bo‘lib, u tizimli omillar, harbiy kasbning muayyan ijtimoiy qadriyatlari, harbiy vaziyatlar haqida yaxlit fikrlashning asosi ekanligiga mos ravishda, kursantlarda kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishni samarali amalga oshirish shartlari ishlab chiqildi. Kursantlarning harbiy kompetentlikni rivojlantirishda, kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirishning mazmuni va usullarini harbiy kasbiy va shaxsiy rivojlanish, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari bilan uyg‘unlashtiradigan texnologiya ishlab chiqish, kursantlarning harbiy kompetentlikni rivojlantirish mezonlari nazariy aniqlandi.

2.Kimyo fanini o‘qitishda divergent fikrlash, elektiv o‘quv kurslarida kimyoviy bilimlar asosida kasbiy dunyoqarashni shakllantirishning mazmunli-texnologik xususiyatlari (kimyoviy bilimdonlik, kasbiy-texnik, kasbiy-kommunikativ, loyiha-texnologik, ergonomik), harbiy kompetentlikni rivojlantirishda samara beradigan ta’lim metodlari, shakl va vositalari, shuningdek, klaster sharoitida elektiv o‘quv kurslari metodikasi hamda virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishga yo‘naltirilgan elektron o‘quv-uslubiy ta’minot ishlab chiqildi.

3.Kimyo fanini o‘qitishda kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlantirish ning imkoniyatlarini inobatga olinib, ushbu fan mazmunida kursantlarga kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalar, mulohaza, divergent fikrlashni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, mavzularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni tashkil etildi va kimyo fanini o‘qitish jarayonini kasbiy yo‘naltirish bilan uyg‘unlashtirishning faoliyatli-uslubiy mexanizmlarining tashkiliy komponentlari (rejalashtirish, loyihalashtirish, amalga oshirish va baholash) mazmunida kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlantirish modeli takomillashtirildi.

4.Kimyoviy bilimlar asosida kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlanganlik darajalari (kasbiy-moslashuvchanlik, loyihalar-natijaviy, divergent fikrlash) va sifat ko‘rsatkichlarini baholash (aksiologik, ijodiy-kognitiv, operatsion-faoliyatli) mezonlari Blum taksomoniyasiga binoan takomillashtirildi. Kimyo fanini o‘qitish mashg‘ulotlarida harbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi divergent fikrlash ko‘nikmasining tushunchali va obrazli komponentlarini shakllantirish, va uning shakllanganlik darajasini baholash uchun real o‘quv jarayonini tashkil etishda bir-birini to‘ldirishi lozim bo‘lgan uslublardan foydalanish usullari tadqiq etildi.

5.Kimyo fanini kasbga yunaltirib o‘qitish, elektiv o‘quv kurslarida divergent fikrlashni rivojlantirish, kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tajriba sinov ishlari olib borildi. Matematik-statistik hisoblashlar pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasi kursantlarda kimyoviy bilimlar asosida harbiy kompetentlikni rivojlantirishga yordam berishi borasidagi fikrning

haqqoniyligini tasdiqladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, kursantlarda kimyoni kasbga yo‘naltirib o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash, divergent fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlantirish, ularni kasbga tayyorlash jarayonida, fanlar bo‘yicha invariant ta’lim metodlarni qo‘llagan holda elektiv o‘quv kurslarini tashkil etish;

2. Kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun o‘qitish jarayonida kursantlarda divergent fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishning “Ustoz-shogird” tizimini, virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishga yo‘naltirilgan elektron o‘quv-uslubiy ta’minotni takomillashtirish.

3.Kursantlarda harbiy kompetentlikni rivojlantirish divergent fikrlash ko‘nikmasini hosil qilishga oid o‘quv metodik adabiyotlar, qo‘llanmalar va elektron ta’lim resurslarini yaratish va amalda qo‘llash.

Adabitoylar

1. З.Ш.Алимардонов Ҳарбий хизматчиларнинг касбий компетентлигини тарбиялаш механизмларини илмий-педагогик такомиллаштириш //Таълим технологиялари №8 2016, 27-32 б.

2. O‘zbekiston Milliy insiklopediyasi. 4-jild –T.: “O‘zbekiston Milliy insiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti, 2002, 1-son. 93-b.

3. Alimov B.N. Kompetensiyaviy yondashuv-o‘quvchilarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida./ “Uzluksiz ta’lim” ilmiy-uslubiy jurnali, T., 2015, 1-son. -93-b.

4. Islamova M.Sh. “Harbiy tayyorgarlikni oshirishda kimyo va harbiy kasbiy fanlar integratsiyasi: zarurat va natija” // M.Sh. Islamova ChOTQMBYU ilmiy uslubiy seminar materiallari 27 may 2021, 127-132 b.

5. Islamova M.Sh. Harbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari. Monografiya – O‘zb Res. MV. CHOTQMBY bosmaxonasi, 2023. – 152 b.

6. Islamova M. “The possibilities of forming a professional worldview” // M.Islamova Texas Journal of Multidisciplinary Studies// Volume 4 ISSN online /2770-0003 Impact Factor 5.256 / 25.01.2022. –128 b.

7. Islamova M. Development of military competence in cadets based on chemical knowledge// M.Islamova Международный научно-практический журнал “Экономика и социум” ISSN 2225-1545 №3(106)2023. –122-130 b.

8. Islamova M.Sh. “Harbiy kompetentlikni kimyoviy bilimlar asosida rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari” // M.Sh. Islamova “Zirxli qalqon: ilmiy-axborot jurnali 9(22) 2023. 199-210 b.

9. Islamova M. The role of natural sciences of education “divergent personel” // M.Islamova Mug‘allim ilmiy-metodik jurnali ISSN 2181-7138 6/2-2022. 106-108 b.

10. Islamova M. “Kursantlarga kimyoni o‘qitishda ta’limning grafik organayzerlarini qo‘llash”// M.Islamova Международный научно-практический журнал “Экономика и социум” ISSN 2225-1545 №3(106)2023, 115-121 b.

AMALIYOT DARSLARIDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASNING AYRIM MASALALARI

G.Y. Abdullaeva

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Taxiatosh pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi, oliy toifali o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada amaliyot darslarida interfaol texnologiyalarning o‘quvchilarning kreativ va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash jarayonida pedagogning ijodiy yondashuvi, o‘quv amaliyotida o‘quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalari haqida fikrlari keltirilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: o‘quv amaliyoti, professional ta’lim, interfaol texnologiyalar, bilim, kreativ fikrlash, shakllantirish, kattalar ta’limi, Disney strategiyasi.

Abdullaeva G.Ya. Some issues of using interactive technologies in practical classes

Annotation. The article describes the role of interactive technologies in the development of students’ creative and creative thinking in practice classes. Also, the article presents the creative approach of the pedagogue in the process of using teaching technologies, the ideas of educational technologies that serve to develop students’ creativity in educational practice.

Key words: educational practice, professional education, interactive technologies, knowledge, creative thinking, formation, adult education, Disney strategy.

Абдуллаева Г.Я. Некоторые вопросы использования интерактивных технологий на практических занятиях

Аннотация. В статье описывается роль интерактивных технологий в развитии творческого и творческого мышления студентов на практических занятиях. Также в статье представлены творческий подход педагога в процессе использования технологий обучения, идеи образовательных технологий, которые служат развитию творческих способностей учащихся в образовательной практике.

Ключевые слова: образовательная практика, профессиональное образование, интерактивные технологии, знания, творческое мышление, формирование, образование взрослых, стратегия Диснея.

O‘qituvchi uchun, mayli u maktabdami, oliy o‘quv yurtida yoki o‘rta professional ta’lim sohasida ishlaydimi, har doim dars o‘tish metodikasi dolzarb muammo bo‘lib qolaveradi. Chunki, hamma o‘qituvchi yaxshi biladiki, o‘quvchiga nimani o‘rgatish kerak va o‘sha narsani qanday usulda o‘rgatish kerak degan masala doim kun tartibida turadi. Bu masala bo‘yicha qanchadan qancha izlanish va tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham to‘xtagani yo‘q. O‘quvchiga biror bir bilimni berishni, yoki o‘rgatishni hohlar ekanmiz, doimo buni qanday amalga oshirish kerakligi haqida bosh qotirishga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, hamma fan yangilanib, tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan bugungi kunimiz uchun bu masala chuqur ahamiyat kasb etadi. Hattoki, bugunga kelib, o‘qituvchining

o‘quvchiga bilimlarni tushuntirib, etkazib berishi va o‘rgatishi ham etarli bo‘lmay qoldi. Chunki, har bir fan uchun o‘rganiladigan bilim va ma’lumotlar shunchalik ko‘pki, uni o‘qituvchi to‘liq etkazib berishi mushkul bo‘lib qoldi. O‘quvchi kerakli bilim va ma’lumotlarni o‘zi o‘rganib chiqishi, tahlil qila olishi, umumiylashtira olishi va o‘rgangan ilimlarini amalda qo‘llay oladigan darajada bo‘lishi kerak. Bu zamonaviy ta’limda ustivor vazifaga aynaldi. Albatta, bu jarayonni o‘quvchi mustaqil ravishda, yakka o‘zi amalga oshira olmaydi. Tabiyiyki, o‘qituvchi bu jarayonni boshqaruvchi shaxs sifatida yana asosiy o‘rinni egallaydi. Endi zamanoviy pedagogika sohasida o‘qituvchining vazifalari bir necha barobar og‘irlashdi. O‘qituvchi oldin o‘z fanini chuqur egallashi va buni o‘quvchilarga etkazib berishi kifoya bo‘lardi. Endi esa zamonaviy pedagogikada o‘quvchi kerakli bilim va ma’lumotlarni etkazib berib gina qolmasdan o‘sha bilim va ma’lumotlarni o‘quvchi ham o‘zi izlanib o‘rganishiga, o‘sha ma’lumotning ahamiyatini tushunishiga, kerak bo‘lsa boshqalarga o‘rgata olish darajasiga etkazish uchun javobgar bo‘ladi. O‘quvchi oldingidek, o‘qituvchi etkazgan ma’lumotlarni o‘zlashtiirishi uning uchun etarli bilimni bermaydi. O‘qituvchi bergan ma’lumotlar faqat yo‘naltiruvchi vazifani bajaradi xolos. O‘quvchi o‘ziga kerak bilimni ongli ravishda o‘zi o‘rgansa gina to‘laqonli bilimga ega bo‘lishi mumkin. Tabiyiyki, hamma odam o‘zi qiziqqan narsanigina o‘rganishga moyil bo‘ladi. O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘z o‘quvchilarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini o‘stirishdan iborat. O‘qib-o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni paydo qilish va rivojlantirish hamma vaqt ham oson emas. Bu o‘qituvchidan juda ko‘p mehnatni, izlanishni talab qiladi va dars o‘tish metodikasini har safar yangilashni taqazo etadi. Biz so‘nggi texnologiyalardan ozmuncha bo‘lsa ham xabardor bo‘lgan o‘quvchini eski usullarda darsimizga qiziqtirishimiz qiyin. O‘quvchiga nafaqat bilim berish, uning fikrlashi, tasavvurini kengaytiirish masalasi ham oldimizda turibdi. Demak, biz qo‘llanidan metodlarimiz orqali o‘quvchiga kerakli ma’lumotni etkazib berish bilan cheklanib qolmastan, uni fikrlashga undaydigan, o‘ylanishga majbur qiladigan va natijada unda qiziqish o‘yg‘otadigan darajaga etishimiz kerak. Chunki, biz ijrochilarni emas, fikrlaydigon insonlarni tarbiya qilib chiqarishimiz kerak.

Professional talim sohasidagi asosiy ustivor vazifalardan biri zamonaviiy kasb egalarini tayyorlash, xalqaro standartlarga mos tarzda bilim berish hisoblanadi. Bu shu sohada o‘qitish metodikasini uzluksiz qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirib borishni talab qiladi. Chunki, bu kattalar ta’limi, bu sohada faqat bilishga, o‘rganishga ishtiyoqi kuchli, qiziqishi baland yoshlar gina emas, katta yoshli, oilali odamlar, shuningdek, ishlayotgan, o‘z sohasi bo‘yicha ozmi-ko‘pmi tajribaga ega odamlar ham o‘qishi mumkin. Bu albatta, o‘qitishga boshqacha yondashishni taqazo qiladi, Pedagogika kollejlari uchun esa bu ikki baravar ma’suliyat kasb etadi, Chunki, pedagogika kollejlarida oddiy kasb egalari emas, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari etishib chiqadi. Maktabgacha ta’limga insonning asosiy bilim va qiziqishlari shakllanadigan soha sifatida davlatimiz tomonidan asosiy e’tibor qaratilgan va bu borada ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar professional ta’lim tizimida ham chuqur o‘zgarishlarga, yangilanishlarga sabab bo‘ldi. Maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy malakali kadrlarni tayyorlashda ilg‘or o‘qitish texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aynaldi. Professional

ta’lim sohasida Germaniya va Finlyandiya kabi Evropa davlatlarida yaxshigina tajribalar mavjud. Bunda asosan kasbga o‘rgatishda amaliyotga ko‘proq urg‘u berilmoqda. Bu professional ta’lim tizimida asosan o‘quv amaliyotlarining maqsadga muvofiq olib borilishini taqazo etadi. O‘quv amaliyotlari kasb-hunarga o‘qitishda eng asosiy jarayon hisoblanadi. Pedagoglar o‘quv amaliyotlarini tashkil etishda dars metodikasi ustida ko‘proq bosh qotirishiga to‘g‘ri keladi. Chunki, metodika dars uchun hal etuvchi o‘rinni egallaydi. Zamonaviy pedagogikada interfaol o‘qitish texnologiyalari bo‘yicha anchagina yaxshi nazariyalar mavjud, biz faqat tanlay olsak va qo‘llana olsak etarli. Ayniqsa, kreativ fikrlashga undaydigan talaygina metodikalar so‘nggi davrlarda ko‘plab ishlab chiqildi. Hohlagan metodni hohlagan paytda qo‘llanish joiz emas. Shunday metodikalar borki, ularni qo‘llash faqat ayrim fan va sohalar uchun gina mos kelishi mumkin. Lekin, ayrim metodlar borki, ularninng eng afzal tomonlaridan biri hohlagan fan yoki soha uchun qo‘llay olish mumkin. Masalan, Disney kompaniyasi asoschisi Uolt Disney tomonidan ishlab chiqilgan, ko‘pincha Disney strategiyasi deb yuritiladigan «3 stol» metodini ana shunday texnologiyalardan deb hisoblash mumkin. Taniqli multipilikator tomonidan o‘tgan asrda ishlab chiqilgan bu metod kreativ fikrlash, hoan’anaviy g‘oyalar, ixtirochilik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu metodni deyarli barcha fanlar uchun qo‘llash mumkin. Chunki, bu texnologiya oson, murakkab va aniq masalalarni echishda birdek qo‘l keladi. Masalan, pedagogika kollejlaridagi o‘quv amaliyotlaridan biri «Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini tashkil etish» o‘quv amaliyotida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlarni to‘g‘ri tashkil etish va bolalarning markazlardagi faoliyatini amalga oshirish masalalari so‘z etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar xonasidagi markazlardan biri «Nutq o‘stirish markazi» hisoblanadi. Shu markazni tashkil etish bo‘yicha o‘quv amaliyotida «3 stol» texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha ayrim tavsiyalarni keltirish mumkin.

Avvalo, o‘quvchilarga metodning maqsadi va mazmunini tushuntirish muhim va vazifalarni taqsimlashda ularning o‘zaro guruhlarga ixtiyoriy tarzda bo‘linishini tashkil etish lozim. 3 stolni tashkil etishda ayniqsa o‘quvchilarga kerakli jihozlarning mavjudligiga e’tibor qaratish lozim. Hamma stolda qog‘oz, qalam, ruchkalaar bo‘lishi kerak. Stollar shartli ravishda «Xayolparast», «Realist», «Tanqidchi» deb nomlanadi. «Xayolparast» stoliga qo‘shimcha tarzda rangli qalamlar, plakatlar, marker, buyoqlar ham kerak bo‘ladi. Chunki, ular g‘oyalar ustida ishlaydi va loyiha tayyorlashadi. O‘quvchilar qaysi stolda o‘tirishmasin, o‘z fikrlarini yozib borishlarini nazoratga olish kerak.. Demak, bu texnologiya bo‘yicha ishlaydigan bo‘lsak, ishni bir nechta bosqichlarda olib borish kerak bo‘ladi

1. Maqsadni aniqlash.
2. Vazifalarni taqsimlash va tushuntirish.
3. O‘quvchilarning mustaqil faoliyati.
4. Natijalarni ko‘rib chiqish va xulosa.

Aytib o‘tkanimizdek, o‘quvchilar uchta stol atrofida ish olib borishadi. Masalan, «Xayolparast» stolidagilar «Nutq ostirish markazi»ni tashkil etish bo‘yicha o‘z go‘yalari asosida loyiha ishlab chiqadi, ya’ni bu markaz qanday jihozlanishi, qo‘layligi, bolalar bilan ishlashda kerak bo‘ladigan hamma narsalar

bo‘yicha o‘z takliflarini jamlagan holda jamoaviy loyiha tayyorlashadi. «Realist» stolidagilar esa bu loyihani ko‘rib chiqib amalga oshirish mexanizmini, ya’ni amalyotga nechog‘lik yaqinligini tekshirishadi va fikr-va takliflarini yozishadi. Bu stoldagilar loyihani yo ma’qullashadi yoki qayta ishlab chiqish uchun tavsiya berishi mumkin. «Tanqidchi» stoli esa loyihani tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqishadi. Xullas, loyiha ikkinchi va uchinchi stollardan qaytib yana «Xayolparast» stolida qayta ishlanib, takomillashtirilishi mumkin.

Yuqorida ko‘rib o‘tkanimizdek bu texnologiyaning o‘quv amaliyotlari uchun afzalliklari ko‘p. Lekin, shu erda to‘xtab qolmasdan, yanada to‘liqtirishda davom etishimiz kerak. Masalan, g‘oya bor, loyiha tayyor, o‘rganildi, tekshirildi, qabul qilindi. Lekin, hamma vaqt ham hamma loyihani rejadagidek amalga oshirish oson kechmaydi. Ba’zida qo‘limizdagi bor imkoniyatlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarimizga shunday taklif kiritamiz: « Demak, amaliyot darsida «Nutq o‘stirish markazi»ni tashkil etish bo‘yicha judayam yaxshi loyiha ishlab chiqildi. Lekin, bu loyiha kelajak uchun yaratilgan, ya’ni, ayni damda uni amalga oshirish uchun imkoniyatlar etarli emas. Demak, bizga yana bir stol kerak bo‘ladi». Bu stolni shartli ravishda «Amaliyotchi» deb ataymiz. Bu stoldagilar mavjud jihozlardan, moslashtirilgan holda qo‘ldan yaratilgan narsalar bilan bu markazni tashkil etishga harakat qilishadi. Chunki, o‘quvchilar bu markazni tashkil etishni faqat go‘yalarda yoki loyihada ko‘rib qo‘ymasdan, uning amaldagi ko‘rinishi haqida ham tasavvurga ega bo‘lishi kerak. To‘rtinchi stolimiz boshqa stollardah unchalik ajralib ketishi mumkin emas, chunki boshqa stollarning fikrlari, g‘oyalaridan amalda foydalanishi mumkin. Pedagog o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashda ijodiy yondashishga harakat qilsa bu faqat ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Aytilganlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, «3 stol» metodini qo‘llash orqali biz quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin:

- O‘quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashiga imkoniyat beriladi;

-O‘quvchilarning masalaga kreativ yondashuvini keltirib chiqaradi, noan’anaviy fikrlashini shakllantiradi;

-O‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, o‘zaro do‘stona muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi;

-O‘quvchilarning masalaga izchillik bilan yondashiish qobiliyatini rivojlantiradi, rejalashtirish, loyihalashda har tomonlama yondashuvlarni hisobga olishni o‘rgatadi;

-Masalaga tanqidiy qarashni rivojlantiradi, kamchilik va afzalliklarni aniqlashni o‘rgatadi;

-G‘oyalarni amalda sinab ko‘rish, qayta ishlash, takomillashtirish haqida tushunchalari ortadi;

- O‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi;

-Mavzu bo‘yicha aniq tasavvurlarga ega bo‘lishadi, kasbiy bilim va malakalari shakllanadi..

Professional ta’limda o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash masalasi hali ko‘p izlanishni, tahlil qilishni, takomillashtirishni talab etuvchi jarayon hisoblanadi. Buni faqat ayrim metodlar orqali gina tahlil qilib, aniq xulosaga kelish qiyin.

O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatuvchi zamonaviy o‘qitish

texnologiyalarni ko‘plab keltirish mumkin. «Blum taksonomiyasi», «Kyubing», «Torrans metodikasi» kabi texnologiyalar shular jumlasiga kiradi. Bu texnologiyalarni qo‘llash orqali pedagog kattalar ta’limidagi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarning bilim darajalariga mos holda darsni tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv amaliyotlarini tashkil qilishda har bir soha xususiyatlarida kelib chiqqan holda dars mashg‘ulotlarida iloji boricha amaliy ishlarda qo‘l keladigan metodlarga tayangan holda ish olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qitish texnologiyalarini mavzuga moslashtirgan holda qayta ishlab chiqish hamma vaqt yaxshi samara berishi aniq. Muhimi, o‘quvchi o‘zi olgan nazariy bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishiga to‘liq shart-sharoitlar yaratib berish dars maqsadiga erishishimizning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi. Toshkent-2018 yil
2. O.U.Avlayev, S.N.Jo‘rayeva, S.P. Mirzayeva «Ta’lim metodlari» o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2017 yil
3. www.lex.uz

OLIY TA’LIMDA TALABALARNING O‘QUV-BILISH MOBILLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASINING USTUVOR JIXATLARI

Turabov Anvar Mavllankulovich, Aqboev Anvar Akbar o‘g‘li
Jizzax politexnika intituti katta o‘qituvchisi, Jitzzax politexnika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolaning mazmunida loyihalash texnologiyasining ta’limga kirib kelishi, ahamiyati, ya’ni, talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish hamda ularning ushbu jarayonda mobilligini ta’minlashni tizimli rejalashtirish, an’anaviy ta’limdan loyihaviy ta’limning ustuvor jixatlari, loyihalashning jamiyat hayoti hamda ta’lim jarayonlarini tashkil etishdagi natijadorlik hususiyatlari va bunda pedagoglarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: loyiha, pedagogik loyihalash, tizim, rejalashtirish, mobillik, ko‘p funksiyali, integrallashgan, o‘quv-bilish samaradorligi.

Аннотация: В содержании статьи рассмотрено внедрение технологии проектирования в образование, ее значение, то есть системное планирование организации учебной деятельности учащихся и их мобильности в этом процессе, приоритетные аспекты проектного образования от традиционного образования, характеристики эффективности проектирования в организации общественной жизни и образовательных процессов, а также требования к педагогам.

Ключевые слова: проект, педагогический проектирования, система, планирование, мобильность, многофункциональный, интегрированный, эффективность обучения.

Abstract: The content of the article examines the introduction of design technology in education, its significance, that is, systematic planning of the organization of educational activities of students and their mobility in this process, priority aspects of project-based education from traditional education, characteristics of the effectiveness of design in the organization of social life and educational processes, as well as requirements to teachers.

Key words: design, pedagogical design, system, planning, mobility, multifunctional, integrated, learning efficiency.

Jamiyatdagi barcha o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan inqilobiy shaklda sodir bo‘lmaydi, bu ma’lum vaqt davomida, asosli dalillarni talab qiluvchi puxta ishlab chiqilgan loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqari yuz beradi. Uning rivojlanish bosqichi maxsus ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak, bu esa ijtimoiy globallashuv davrida alohida, keng ko‘lamli yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi. Aynan ma’lum tizimlarni rivojlantirish uchun ichki mexanizmlar va shart-sharoitlarni aniqlash bilan bog‘liq omillar ko‘rib chiqilib, jarayonni maqsadli loyihalashni talab etadi.

Pedagogik bilimlarning rivojlanishi, pedagogik faoliyatning turli usullari, vositalari va shakllarining paydo bo‘lishi pedagogik jarayonni tashkil etishning

murakkablashuviga olib keldi. Aynan shu sababli o‘tgan asrda pedagogika texnologik yo‘nalishdagi ta’limotlarga murojaat qilishga majbur bo‘ldi.

O‘tgan asrning 70-yillari boshlarida olimlar pedagogikaning mazmunini keng qamrovda talqin qila boshladilar: “...Bu, birinchidan, ta’lim va tarbiyaning dolzarbligini tadqiq qilish funksiyasi, ikkinchidan, ta’lim va tarbiya tizimlarini yaratish (loyihalash) funksiyasi sifatida integratsiyalashgan faoliyat sohasidir.”

V.V. Kraevskiyning ta’kidlashicha, pedagogika sohasidagi barcha ilmiy ishlarning mazmunida ma’lum ma’noda pedagogik jarayonni loyihalash asoslari yotadi.

XX asrning 80-yillarida pedagog olim V.P.Bespalkoning pedagogik loyihalash bo‘yicha birinchi ilmiy ishi paydo bo‘ldi. Bu pedagogik loyihalashni mustaqil pedagogik faoliyat turi sifatida tan olinishini ta’minlashga xizmat qildi.

Pedagogik jarayonni loyihalash deganda talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishni mustaqil rejalashtirish va bosqichma-bosqich murakkabroq amaliy vazifalar ketma-ketligi (loyiha) ni amalga oshirish jarayonida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, axborot makonida mustaqil harakat qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan ta’lim jrayoni tushuniladi.

Loyihalash texnologiyasi didaktika sohasida, xususiy metodikalarda, ma’lum bir mavzu doirasida qo‘llaniladi, demak bu usul didaktik kategoriyadir. Bu amaliy yoki nazariy bilimlarning ma’lum bir sohasini, u yoki bu faoliyatni o‘zlashtirish usullari, operatsiyalari to‘plamidir. Bu bilish yo‘li, bilish jarayonini tashkil etish usulidir. Shuning uchun, agar loyihalash texnologiyasi haqida gapiradigan bo‘lsak, biz muammoni batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish yo‘lini tushunamiz va buning natijasida u yoki bu tarzda rasmiylashtirilgan puxta, aniq amaliy o‘quv-bilish faoliyati nazarda tutilishi kerak.

Loyihalash texnologiyasi har doim talabalarning mustaqil faoliyatiga yo‘naltirilgan - individual, juftlik, guruhli shakldagi, ma’lum vaqt davomidagi o‘quv-bilish faoliyati demakdir. Bu texnologiya hamkorlikda ishlash (collaborative or cooperative learning) usullari bilan chambarchas bog‘liq tarzda qo‘llaniladi. Loyihalash texnologiyasi har doim qandaydir muammoni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Muammoni hal qilish, bir tomondan, turli usullar va o‘qitish vositalarining kombinatsiyasidan foydalanishni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, bilimlarni integratsiyalash zarurligini, fanning turli sohalari bilimlarini qo‘llash qobiliyatini, texnologiya va ijodiy sohalarda muhandislik texnikasini nazarda tutadi. Tugallangan loyihalarning natijalari, amaliy jixatdan “moddiy” bo‘lishi kerak, ya’ni agar bu nazariy muammo bo‘lsa, unda aniq yechim, agar u amaliy masala bo‘lsa, u holda foydalanishga tayyor bo‘lishi kerak (darsda, oliy ta’limda, hayotda). Agar biz pedagogik texnologiya sifatida loyihalash haqida gapiradigan bo‘lsak, unda bu texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra tadqiqot, izlanish, muammoli usullar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Loyihaga asoslangan ta’limning maqsadi talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish uchun sharoit yaratish va bunda ularning harkatlari natijalari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- turli manbalardan (o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, internet tarmog‘i va h.k.) yetishmayotgan bilimlarni mustaqil va o‘z xohishi bilan egallash;

- o‘quv-bilish va amaliy muammolarni hal qilishda olingan bilimlardan foydalanishni o‘rganish;

- turli guruhlarda ishlash orqali muloqot ko‘nikmalarini egallash;

- tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish (muammolarni aniqlash, ma’lumot to‘plash, kuzatish, eksperimentlar o‘tkazish, tahlil qilish, gipotezalarni tuzish, umumlashtirish);

- tizimli fikrlashni rivojlantirish.

Shunday qilib, loyiha asosida o‘qitish - bu sifat jihatidan ta’limning boshqa usullariga nisbatan farq qiladigan ta’lim amaliyotidir. Ushbu ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish orqali loyiha texnologiyasining boshqa usullardan farqli va samarali jixatlarini tushunish mumkin (1-jadval).

1-jadval

An’anaviy va loyihaviy ta’limda talabalar o‘quv-bilish va tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili

	An’anaviy ta’lim	**Loyihaviy ta’lim**
1. Talabalar uchun maqsadni belgilash	Yaxshi baho olish	O‘z qobiliyatini ishga solish, muhim ishni bajarish
2. Ishning tashkiliy shakllari	Individual	Individual, juftlik va guruhli ishlarning kombinatsiyasi
3. Axborot manbalari	Bitta yoki ikkita manba	Turli xil bilim sohalaridan turli manbalar
4. Fan sohasi	Bitta o‘quv predmeti	Mazmunan ko‘p predmetli
5. Mazmun bo‘yicha ishning harakteri	Mavxumlashtirish	Nazariy va amaliy tadqiqot usullarining kombinatsiyasi
6. Ishning taqdimoti yoki himoyasi	Ixtiyoriy	Majburiy

Loyihaga asoslangan ta’lim quyidagilarni nazarda tutadi:

- o‘qituvchi nafaqat talabalarning fan bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularning fikrlash, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga ham e’tibor qaratadi;

- talabalar loyiha mavzusini shaxsiy muhim muammo sifatida qabul qilishadi, o‘quv-bilish jarayonini rejalashtirish va ish natijalarini o‘zlari bashorat qilishga o‘rganadi;

- loyiha ishtirokchilari maqsadga erishish yo‘lida shaxsiy boshqaruvni tashkil qiladi va qidiruv faoliyatini amalga oshiradi;

- loyihani amalga oshirish uchun zarur vositalarni o‘zlari tanlashadi;

- o‘qituvchi pedagogik jarayonni tabiyat va jamiyat bilan bog‘laydi;

- loyiha ishtirokchilari loyiha ustidagi ishlarning borishi haqida bir-birlarini xabardor qiladilar;

- o‘qituvchi bolalarga loyiha ustida ishlashning barcha bosqichlarida maslahat beradi;

- o‘qituvchi loyiha ustidagi ishlarni tuzatish uchun sharoit yaratadi;

- o‘qituvchi loyiha tashhisini tashkil qiladi;

- o‘qituvchi loyihalarning ommaviy himoyasini tashkil qiladi, talabalar esa loyihani taqdimotga tayyorlaydi, taqdim etadi va himoya qiladi;

- talabalar loyihalash ishlarini tahlil qiladilar.

“Loyiha” atamasi pedagogikaga texnik fanlar sohasidan olingan bo‘lib, zamonaviy talqinda “loyihalash” loyihani ishlab chiqish jarayoni, ya’ni, ko‘rilayotgan jarayon yoki obektning rejasini yoki nusxasini yaratishni anglatadi.

Biroq, ta’limda loyihalash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ijtimoiy amaliyotning boshqa turlari bilan aloqalarni o‘rnatish, ta’lim maqsadlariga yo‘naltirilgan jamoat birlashmalarini yaratish, asoslangan yangi ta’lim resurslarini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega ta’lim siyosatini shakllantirish va amalga oshirilgan tashabbuslarning ijtimoiy oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ta’limni rivojlantirishda loyihaviy yondashuvni amalga oshirish zarurati va bunga sabab sifatida pedagogikada loyihalashning dastlabki kontseptual asoslari va loyiha modellarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini keltirish mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim amaliyotida nazariy loyihalash muammolarini hal qilish ushbu yondashuvni aniqlashtirishni talab qiladi, uni ijtimoiy-pedagogik: qo‘llanilishi bo‘yicha pedagogik (ta’lim sohasi) va oqibatlari bo‘yicha ijtimoiy (jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar) deb atash mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy va pedagogik loyihalash ta’lim tizimining turli darajalarida amalga oshiriladi.

Ta’lim sohasida paydo bo‘lgan loyihalash tushunchasining nazariy va uslubiy asoslari V.N. Averkin, N.V. Bochkina, S.A. Gilmanov, V.Z. Yusupov va bir qancha olimlarning asarlarida ma’lum darajada ishlab chiqilgan.

Pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili ba’zi umumlashtirishlarni amalga oshirishga imkon beradi:

- Bugungi kunda jamiyatdagi jadal o‘zgarishlar va tub rivojlanishlar sharoitida ta’lim samaradorligiga erishish uchun shart-sharoitlar yaratishning ichki mexanizmlarini aniqlashda loyihaviy ta’lim yangi va fundamental taxnologiyaga aylanmoqda. Pedagogik loyihalash - ijtimoiy amaliyot shakli sifatida ta’limni va shaxsni rivojlantirish sohasida ko‘p tarmoqli tadqiqotlar va kompleks ishlanmalarni amalga oshirishga asoslangan maxsus kasbiy faoliyat turidir.

- Pedagogik loyihalash bir vaqtning o‘zida rejalashtirish (loyiha g‘oyasini ishlab chiqish) ning va loyihalash jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmuasini (pedagogik, ilmiy, boshqaruv va boshqalar) o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu faoliyatning integratsiyasi muhim jixat bo‘lib, uning tashkil etuvchilari loyihani ishlab chiquvchilar va amalga oshiruvchilardir.

- Ta’limda paydo bo‘lgan loyihalash tushunchasi ijtimoiy-pedagogik loyihalashdan tashqari, pedagogik loyihalashning shaxsni rivojlantiruvchi o‘quv amaliyoti, ta’lim texnologiyalari, pedagogik faoliyat usullari va vositalari, shuningdek, rivojlanayotgan ta’lim jarayonlarining psixologik-pedagogik loyihasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsni o‘z hayoti va faoliyatining dolzarb subektiga

aylanishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratiladi. Ushbu turdagi loyihalar birgalikda ta’lim jarayonlarining yangi shakllarini qurishga qodir bo‘lgan, amaliyotga yo‘naltirilgan pedagogika fanining zamonaviy qiyofasini belgilaydi.

Ta’lim sohasidagi tadqiqotlar va loyihalash amaliyotining nazariy tahlili loyihalash faoliyatini mustaqil, ko‘p funksiyali, integrallashgan, moslashuvchan faoliyat sifatida o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogika fanini rivojlantirishning yangi yo‘nalishini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ochib beradi, bu orqali ta’limda sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish ta’minlanadi. Bu esa ta’limning yangicha qiyofasini shakllantirish bilan bog‘liq faoliyat bosqichlari sifatida: birinchidan, shaxsning muhim qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning umumiy shakli sifatida, uning umumiy hususiyatlari, qobiliyatlari, ijtimoiy fikrlash va harakatlarning umumiy usullarini o‘zlashtirish. Ikkinchidan, ta’limda tarixiy tajribani yetkazish va yangi ijtimoiy tajribani shakllantirishning universal vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, o‘zgaruvchan axborotlashuv, mintaqalar va butun dunyoning ijtimoiy-madaniy rivojlanish tendensiyalarining talabalar ongida mustahkamlanishini ta’minlaydi. Nihoyat, uchinchidan, ta’lim o‘zining yangi shaklida - ijtimoiy amaliyotning yetarlicha mustaqil shakli, odamlarning ongli, maqsadli kasbiy-pedagogik, ilmiy-uslubiy, ijtimoiy-pedagogik va boshqaruv faoliyatining alohida sohasi sifatida, o‘zaro bog‘liqliq holda o‘zini namoyon qiladi va bu ta’lim muammolarini eng samarali hal qilishni ta’minlaydi (V.I. Slobodchikov).

Umuman olganda, pedagogik loyihalash faoliyatining predmeti - ta’lim jarayonlarida ishlab chiqilgan manbalar ichida ijtimoiy jihatdan ahamiyatli madaniy, ma’rifiy, huquqiy va boshqa hujjatlar (standartlar, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va boshqalar) majmuasi mazmunini tubdan takomillashtirish hamda maxsus tashkil etilgan ta’lim makonida talabalarning faol o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish uchun shart-sharoitlar va vositalarning zamonaviy majmuini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu omillarning ahamiyati ijtimoiy-madaniy muhitning, ta’lim faoliyatining shaxsni o‘ziga jalb qilish ko‘lami va shunga mos ravishda o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каргина Е.М., Метод педагогического проектирования: история и современность: моногр. / Е.М. Каргина. – Пенза: ПГУАС, 2014. 19-21 с.

2. Слободчиков В.И., Леонтович А.В. Антропологический подход к диагностике образовательных результатов в системе научно-практического образования [Anthropological approach to the diagnosis of educational outcomes in the system of scientific and practical education]. *Педагогическое образование и наука* [Pedagogical education and science], 2020 г., 5-в., 107-117 с.

3. Юсупов В.З., Функции проектирования и специфика их проявления в педагогике. Акмеология, № 3, 2005 г., 58-62 с.

4. Turabov A.M., Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatining ahamiyati. Educational Research in Universal Sciences. Vol.2 No.12 Special issue 18 (2023). 312-316 b.

O‘QITISH TIZIMIDA ZAMONAVIY KREATIV METODLARNING AHAMIYATI

U.G‘. Sobirov, Sh.L. Ubaydulloyeva
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi; Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim samaradorligi, ushbu samaradorlikni oshirish yo‘llari, prezident farmonlari, kreativ metodlar va ularni amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari, zamonaviy metodlarning qanchalik ahamiyatga molik ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim samaradorligi, kreativ, zamoviy metodlar, farmon, texnika, innovatsiya

Аннотация: В данной статье представлена информация об эффективности образования, путях повышения этой эффективности, указах президента, творческих методах и процессах их реализации, а также о том, насколько важны современные методы.

Ключевые слова: эффективность образования, креатив, современные методы, указ, методика, инновация.

Abstract: This article provides information about the effectiveness of education, ways to increase this effectiveness, presidential decrees, creative methods and processes for their implementation, as well as the importance of modern methods.

Key words: effectiveness of education, creativity, modern methods, decree, methodology, innovation.

XXI asr texnika va texnologiyalar asri bo‘lganligi sababli, xususan ta’lim sohasida, balki, boshqa sohalarda ham innovatsiyalar ya’ni yangiliklar olib kirilmoqda. Shu jumladan, O‘zbekistonda ham ta’lim samaradorligini oshirish haqida ko‘plab qonunlar chiqarilmoqda va bu qonunlar amalda o‘z ifodasini topib kelayapti. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, obrazli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro

bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi. Ta’lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlar, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning kritik fikrlash, muhokama qilish, yaratuvchanlik va ish birliklari qobiliyatlarini rivojlantirishga ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kreativ metodlar, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda qilish, yangiliklarga qaraganda yechim topish, muhokama qilish va yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu metodlarda o‘quvchilarga ma’lum muammolar beriladi va ular bu muammolarga o‘z fikrlarini qo‘llab-quvvatlash va yechish uchun tahlil qilish kerak bo‘ladi. Bu o‘quv jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining o‘zini tashkil etish, muhokama qilish va yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishi bilan birga, o‘quvning samaradorligini oshirishadi. Zamonaviy metodlar esa texnologiyalar va innovatsion usullar yordamida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish va o‘quv jarayonini ularga qulaylashtirishga qaratilgan. Bu metodlarda interaktiv darsliklar, o‘quv dasturlari, o‘quv o‘yinlari, onlayn resurslar va boshqa texnologik vositalar ishlatiladi. Zamonaviy metodlar o‘quvchilarning ilg‘or fikrlash, muhokama qilish, ijtimoiy ish birliklari qurish va texnologik mahoratni oshirish imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish, motivatsiyalarini yuqori tartibda saqlab qolish va ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishda muhim rol o‘ynaydi. Kreativ va zamonaviy metodlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish va tushunchalarini yanada oshirish, ularning ta’limning amaldagi qiyinchiliklarni hal qilish va yangi fikrlarni qabul qilishga imkoniyat yaratishda muhimdir. Bu metodlar o‘quvchilarning o‘zlarini mutaxassislik sohasida tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki ularni ish bilan bog‘liqlik, yaratuvchanlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlaydi. Jamiyat zamonaviylik va kreativlik talab qilayotgan davrda, ta’lim sohasida ham kreativ va zamonaviy metodlardan foydalanish juda muhimdir. Bu metodlar o‘quvchilarning samarali ta’lim olishini, ularning yaratuvchanlik va ish bilarmonliklari qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlashda katta ahamiyati bilan qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Ularning o‘quvchilarning o‘zlashtirish va o‘z fikrlarini ifoda qilish imkonini berishiga qaramay, ularning o‘zlarini faol qatnashishga, muhokama qilishga va yaratishga intilishadi. Bu metodlar o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga aktiv qatnashishini, o‘z fikrlarini ifoda qilishni, o‘z o‘zini rivojlantirishni va ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishni ta’minlashda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, ular o‘quvchilarni yangiliklarga qaraganda yechim topish, texnologik mahoratni oshirish va o‘quvchilarning o‘zining mutaxassislik sohasida tayyorlashda muhimdir.

Samaradorlikni oshirishda kreativ va zamonaviy metodlar ahamiyatli o‘rinlarga ega. Bu usullar, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish, ularga ilhomlantirish, o‘z fikrlarini ifoda qilish va yaratuvchanliklarini rivojlantirishga

yordam beradi.

1. O‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish: Kreativ va zamonaviy metodlar, o‘quvchilarning darslarda qiziqishlarini oshirish uchun moslashtirilgan. Bu metodlar, o‘quvchilarga qiziqishli mashg‘ulotlar, o‘yinlar, laboratoriya ishlari va hamkorliklarni o‘z ichiga olgan darslar orqali o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu usulda o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda qilish, muammo yechish va yaratishga yo‘naltiriladi.

2. Ilhomlantirish: Kreativ va zamonaviy metodlar, o‘quvchilarni ilhomlanganlikka yo‘naltirish uchun muhimdir. Bu usulda, o‘quvchilarga har qanday mavzu yoki muammo bo‘yicha fikr bildirish, yangi yechimlar qidirish va boshqalar bilan birgalikda ishlash imkoniyati beriladi. Bu tarzda ilhomlantirish, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini o‘rganishga, qo‘llab-quvvatlashga va o‘z fikrlarini boshqalarga ifoda qilishga erishishiga imkon yaratadi.

3. O‘z fikrlarini ifoda qilish: Kreativ va zamonaviy metodlar, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda qilish va ularga qulayliklar yaratishga yordam beradi. Bu metodlar, guruhda ishlash, o‘quvchi prezentatsiyalari, veb-bloglar yoki video darslar tayyorlash, masalalar yoki loyihalar yaratish kabi tajribalar orqali o‘quvchilarni o‘z fikrlarini rivojlantirishga majbur qiladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda qilish orqali ularga o‘zining o‘zini qayd etish va o‘zini ifoda qilish imkoniyati beriladi.

4. Yaratishni rivojlantirish: Kreativ va zamonaviy metodlar, o‘quvchilarning yaratish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usulda o‘quvchilarga yangi masalalar yechish, yangi ideyalar va loyihalar yaratishga ilhom beriladi. Ular, muammo yechishning boshqa usullariga qaraganda yangi, o‘zgacha va yaratuvchan yechimlar topishadi. Bu, ularning o‘z fikrlarini o‘rganish, muammolarni tahlil qilish va yaratishni oshirishga yordam beradi.Kreativ va zamonaviy metodlar, o‘quvchi fikrlashni rivojlantirish va yaratuvchanlikni kuchaytirishga yordam beradi.

Bu usullar o‘quvchilarning o‘z bilimlarini amalga oshirish, harakatlanishni rag‘batlantirish va ularga hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun kerak bo‘lgan qobiliyat va ko‘nikmalarni raylashga imkon beradi. Bu yuzdan, ta’lim muassasalarida kreativ va zamonaviy metodlarga e’tibor berish, o‘quvchilarning eng yaxshi potentsialini chiqarishga yordam beradi.Bundan tashqari, kreativ va zamonaviy ta’lim usullari o‘quvchilarning ijodiy va kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarga o‘z fikrlarini o‘zlashtirish, yangi yechimlar topish va boshqalar bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. Bu usullar o‘quvchilarda yaratishchilikni oshirish va har birning o‘zining unikal talablari va qobiliyatlari bo‘yicha o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.To‘xtaxo‘jayeva “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2010 y

2. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017

3. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

4. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).

5. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).

OLIY TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TASHXIS, MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATI VA INDIVIDUAL YONDASHUV

Xayrov Rasim Zolimxon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika institute Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori, dotsent

Anotatsiya. Maqolada muammo yuzasidan talabarning o‘zlashtirish darajalari, qobiliyat, o‘quv jarayonida tashhislash, talabalarning o‘quv imkoniyatlari, mustaqil fikrlash darajalari, ishchanlik darajalari yoritilgan. Ta’limda talabaga tabaqalashtirilgan va individual yondashuv texnologiyasini amalga oshirishda o‘quvchilarni shartli ravishda guruhlarga ajratish, mashg‘ulotlarda talabalarning topshiriqlarni bajarishda mustaqil ishlash darajasi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: individual yondashuv, avtodidaktika, qobiliyat, tashxislash, o‘quv imkoniyatlari, darajalar, talaba, o‘quv imkoniyatlari, mustaqil fikrlash, darajalar, guruhlar, dars ishlanmalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА, САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Хайров Расим Золимхон угли
Доктор философии педагогических наук, доцент
Гулистанского государственного педагогического института

Аннотация. В статье выделены уровни мастерства, способностей, диагностики в образовательном процессе, возможности обучения студентов, уровни самостоятельного мышления, уровни работоспособности. При реализации технологии дифференцированного и индивидуального подхода к обучающемуся в обучении научно обосновано условное разделение обучающихся на группы, уровень самостоятельной работы обучающихся при выполнении заданий.

Ключевые слова: индивидуальный подход, аутодидактика, способности, диагностика, возможности обучения, уровни, ученик, возможности обучения, самостоятельное мышление, уровни, группы, планы уроков.

PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS, INDEPENDENT LEARNING ACTIVITY AND INDIVIDUAL APPROACH IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Khayrov Rasim Zolimkhon
Doctor of Philosophy of Pedagogical Sciences, Associate Professor
Gulistan State Pedagogical Institute

Annotation. The article highlights the levels of mastery, abilities, diagnostics in the educational process, student learning opportunities, levels of independent thinking, and levels of performance. When implementing the technology of a differentiated and individual approach to the student in training, the conditional division of students into groups and the level of independent work of students when completing tasks are scientifically substantiated.

Key words: individual approach, autodidactics, abilities, diagnostics, learning opportunities, levels, student, learning opportunities, independent thinking, levels, groups, lesson plans.

KIRISH: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish kontseptsiyasida mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kreativ fiklash ko‘nikmalarini shakllantirish asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [1: 1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kreativ fiklash ko‘nikmalarini shakllantirish asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [1: 1-b.]. O‘quv jarayonida mustaqil o‘quv faoliyatidan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash zarurati va muammolari V.I.Andriyanova, Yu.K.Babanskiy, N.A.Vvedenskiy, O‘.Q.Tolipov, V.I. Zagvyazinskiy, U.N.Nishonaliev, O.A.Qo‘ysinov, N.A.Muslimov, D.R.Karimova, L.Zaripov va boshqalar asarlarida o‘z ifodasini topgan [4; 15-b.].

Pedagog olim N.A.Muslimovning “Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida talabalarning mustaqil ta’lim olishiga alohida e’tibor qaratilgan. Unda talabalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqil ta’lim olish, ya’ni avtodidaktika (avtodidaktika - o‘z-o‘zini o‘qitish va avtonomlik) tamoyillari hamda tashkiliy-metodik shartlari o‘rganilgan. [2; 52-b.]

Hamma jamiyat va hamma davrlardagi ta’lim jarayonida shaxsni individual umumiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida talaba-yoshlarni fanlar bo‘yicha har bir darsda turli yo‘nalishdagi qobiliyatlarini shakllantirish ta’lim muassasalarining birinchi galdagi va asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Jamiyatimizga chuqur va keng bilimlar bilan bir qatorga tafakkurli insonlar kerak. Tafakkurli insonlar hamma sohalarda ham kerak va ular jamiyatimiz taraqqiyotini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYaSI: Bilimlarni puxta o‘zlashtirishda ayniqsa, o‘quv vazifalarni yechishda talabalardagi mustaqiligining ahamiyati katta. Bunda tanqidchilik asosiga qurilgan tafakkurning faolligi katta rol o‘ynaydi. O‘quv faoliyatlaridagi aqlliy jarayonlar turli tuman materiallar bilan birgalikda yaxshi samara beradi. Ular rejalashtirish, nazorat, hisoblash, yozish, sanash, tasvirlash qobiliyatlaridir. O‘quv materiallarini o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyat talabarninig qiziqishi qattiyatligi, o‘zi bo‘lgan talabchanligi, mehnatsevarligiga ham bog‘liq.

Yuqorida qayd qilingan mezonlar asosida talabalarni tashxislash orqali ularning o‘quv imkoniyatlarini aniqlaydi [4; 54-b.]. Talabalardagi o‘quv imkoniyatlarni uch toifaga bo‘lish mumkin: 1. Yuqori daraja. 2. O‘rta daraja. 3. Quyi daraja.

O‘quv imkoniyatlarining yuqori darajada bo‘lgan talabalar har qanday sharoitda avvallari o‘zlari o‘zlashtirgan bilimlarni kerakli paytda namoyish etadilar. Zarurat tug‘ilganda ulardan yangi materiallarni o‘zlashtirishda foydalana oladilar.

O‘quv imkoniyatlari o‘rta darajada bo‘lgan talabalarni ko‘pchilik hollarda yangi materiallar tahlilida bilim zahiralarining yetishmasligi kuzatiladi, yangi materiallarni o‘zlashtirish og‘irlik bilan kechadi.

O‘quv imkoniyatilari past darajada bo‘lgan talabalarda amaldagi bilimlar jamg‘armasi yetarli darajada bo‘lsada, ular yangi materiallarni tahlil qila olmaydilar,

tushuncha va qonuniyatlarni oshkor qila olmaydilar [4; 55-b.].

TAHLIL VA NATIJALAR: Pedagogikada mustaqil fikrlashning uch hil darajasi qayd qilinadi. Ular yuqori, o‘rta va past darajalardir.

Mustaqil fikrlashning yuqori darajasi bilim va darajalari bilim va malakalarning shaklanganligi talabalarda, o‘zini-o‘zi nazorat qilish turlicha o‘quv jarayonlarini erkin takomillashtirish qobiliyati kabi mustahkam malakalar mavjudligi bilan belgilanadi.

Mustaqil fikrlashning o‘rtacha darajasida talabalar mustaqil fikrlaydilar, bilim va malakalari sayoz bo‘ladi, o‘z ishlarini maqsadga muovofiq rejalashtira olmaydilar, o‘zlarini o‘zlari nazorat qila olmaydilar.

Mustaqil fikrlashi past darajadagi talabalarda yuqorida qayd qilingan sifatlar, ko‘nikmalar deyarli sust bo‘ladi, talabalardagi qobiliyat ularning ishchangligi bilan ham bog‘lanadi [5; 15-b.].

Talabalarni tabaqalashtirish va ularga individual yondashish uchun ulardagi quyidagi sifatlarni aniqlab olish kerak bo‘ladi: talabalarni o‘qish jarayonida olgan bilim va malakalari hajmi; talabalarda o‘quv materiallarini tahlil qilish, umumlashtirish malakalarining mavjudligi; mustaqillik, o‘quv ko‘nikmalari; talabalarning o‘qishga, o‘rganishga tayyorgarlik darajasi; ularning ishchanlik darajasi; o‘qishga bo‘lgan havasi, qiziqishi; qat’iyatlik darajasi.

XULOSA: Ana shu sifatlar asosida talabalarning o‘quv imkoniyatlari aniqlanadi va shu asosda guruhlarga ajratishga asos bo‘ladi. Ohir oqibatda talabalarni o‘qitishda ko‘rsatilgan natijalarga erishiladi, ularning dinamik rivoji ta’minlanadi.

Ta’lim jarayonida talabalar qobiliyatlarini hisobga olmaslik, ta’limga individual, hech bo‘lmaganda guruhli yondashuvni amalga oshirmaslik o‘qituvchi faoliyati samaradorligini tushirib yuboradi. Bunday salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan eng ma’qul pedagogik texnologiyalardan biri bu individual yondashuvdir. U talabalarining qobiliyatlariga va layoqatlariga yarasha bilim va malakalar berishni nazarda tutadi va akadem guruhdagi har bir talabaning dinamik rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YIXATI:

1. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. - Toshkent: www.lex.uz. 2019.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - Toshkent: Fan. 2004. - 176 b.
3. Qodirov K.B. Tabaqalashtirilgan ta’limda psixologik-pedagogik tashxis. Maktab o‘qituvchilari hamda oliy o‘quv yurt talabalari uchun ilmiy-metodik tavsiyalar. –Toshkent: O‘zPFITI 2005. -27 b.
4. Xayrov R. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashhis va baholash mezonlari. // “FarDU.Ilmiy xabarlar” jurnali. №.6. 2023. -54-65 b. .
5. Xayrov R.Z. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda mustaqil o‘quv faoliyati // “Ilim ham jemiet” jurnali. Nukus davlat pedagogika instituti. 2024. №1/1 -15-16-bet.

INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Jurayeva Umida Rahmatullayevna

Buxoro innovatsiyalar universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada intensiv ta’lim texnologiyalari asosida talabalarni o‘qitish va talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: intensiv, ta’lim, texnologiya, kommunikatsiya, kompetensiya

Abstract: this article talks about teaching students based on intensive educational technologies and the content of developing students’ communication skills.

Key words: intensive, education, technology, communication, competence

Аннотация: В данной статье говорится об обучении студентов на основе интенсивных образовательных технологий и содержании развития коммуникативных навыков студентов.

Ключевые слова: интенсив, образование, технология, коммуникация, компетентность.

“Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib, jamoa bo‘lib shakllanadi. Ayni o‘sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur”

Sh.Mirziyoyev

Rivojlangan oliy ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari amaliyotga tadbiq etilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha Xalqaro ta’lim konsepsiyasida: “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish[32]” strategik vazifa sifatida qabul qilingan va shu borada xorijiy tillarni axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitish va uning sifatini oshirishga xalqaro standartlarni qo‘llash, ta’lim va innovatsiyaning uyg‘unligini ta’minlash, kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora -tadbirlari to‘g‘risida”[33], 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

[32] Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea)

[33] https://lex.uz/docs/-5426736/

11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida intensiv ta’lim haqida so‘z boradi.

Bugungi kunda har bir mutaxassis kadr ilm-fanning deyarli barcha sohalarida bilimlarga ega bo‘lishlari kerak. Xususan, pedagog kadrlar dars jarayonida eng yangi va samarali texnologiyalarni qo‘llay olishlari lozim. Bunday zamonaviy texnologiyalarga intensiv ta’lim texnologiyasini misol qilishimiz mumkin.

Yurtimizda mavjud barcha oliy ta’lim maskanlarida chet tillarni o‘qitishga doir muammolar, fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarga oid ilmiy izlanishlar N.M.Axmedova, J.J.Jalolov, U.U.Jumanazarov, G.T.Mahkamova, F.M.Rashidova, K.J.Rizqulova, ta’lim sifatini ta’minlash masalalari: T.K.Sattarov, S.S.Saydaliev, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari M.X.Gulyamova, N.L.Umarov, N.N.Azizxo‘jaeva, pedagogik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha, innovatsion ta’lim texnologiyalari N.A.Muslimov, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni takomillashtirish jihatlari B.M.O‘razova, M.T.Mirsoliyeva kasbiy faoliyatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha B.S.Abdullaeva, A.A.Abduqodirov, R.X.Djo‘rayev, R.G.Isyanov, A.R.Xojayev, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Intensiv ta’lim texnologiyalari, asosan, o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda jadal, tezkorlik bilan o‘qitish talab qilinganda qo‘llaniladi. Bunda qisqa muddat ichida katta hajmdagi axborotni yetkazib berish, o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshirish zarur vaqtlarda qo‘llaniladi. Bugungi kunda boshlang‘ich va umumuiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim tizimini intensivlashtirish zamon talabidir, chunki jadal va qisqa muddatli ta’limning turli shakllari va dasturlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib, jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa juda katta o‘quv jarayonini o‘rganish uchun qisqartirilgan vaqt sifatida intensivligini ta’minlashdir.

O‘quvchilarni intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitishda tildan foydalanishning amaliy natijalarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar. Ma’lumki, yozish, o‘qish, tinglash, gapirish real hayotda foydalanishning mustaqil turlari sifatida kamdan-kam uchraydi. Ular doimo bir-biri bilan chambarchas holda rivojlantiriladi.

O‘qitishga intensiv ta’lim joriy qilinganda nutq faoliyatining istalgan turi didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar bilan birga olib borilishi mumkin.[34]

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nizamov G‘ofur Mamarasulovich o‘zining “Axborot -kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish” nomli dissertatsiya avtoreferatida axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalariga ta’sirini o‘rganib quyidagicha xulosaga kelgan: “Nofilologik ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirish

[34] Olloqova O‘. M. O‘quv jarayoniga intensiv ta’lim texnologiyalarini joriy qilishning ahamiyati. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. International scientific-online conference Part 9, Issue 1: NOVEMBER 9 Th 2022

imkoniyatlari innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida amalga oshirildi. Jumladan, ta’lim jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlari innovatsion ta’lim texnologiyalar (“Case-study”, “SMART”, “SWOT”, “Insert”) erkin muloqot va umumdidaktik interfaol metodlari hamda texnologiyalar samarali natijalar berdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida xorijiy tillar o‘rganishning reproduktiv turini “Presentation”, “Brainstorming”, “Sluster”, “Case study”, “Task based method” kabilarda rivojlanirish maqsadga muvofiqroq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida xorijiy tillar o‘rganishning variativ turini mutaxassislar bilan uchrashuvlar, “Debate”, “Discussion”, “Questions answer”, “Sinonim va antonimlar” kabi o‘yinlarda takomillashtirish mumkin”.[35]

Xulosa qilib aytganda, intensiv ta’lim texnologiyalari vositasida o‘qitish bu o‘quv-bilish jarayonining sifat va samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitilayotgan o‘quvchilarning hozirda mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlarini harakatga keltirish va uni tezlashtirishning imkoniyatini beradigan texnologik usullar tizimidir. Intensiv ta’lim texnologiyalari yordamida o‘qitish o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, ularning rivojlanishi va individuallashuvini

rag‘batlantirish, hamda muloqot qilish va bilishni ham o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nizamov G‘. M. Axborot -kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
2. Nizamov G‘.M. Chet tilini o‘rganish borasida o‘qitish tizimlarining talabalar kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhum tamoyillari.//Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 2022/11,-B.394-397. (13.00.00. №32).
3. Maxsudova, S. (2019). Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari. *Global ilmiy jarayonda integtatsion ta’limni rivojlantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy an’anaviy on-line konferensiya materiallari*.
4. Maxsudova, S. (2022). Boshlang‘ich sinf matematika darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish. *«Uzluksiz ta’lim tizimida” Boshlang‘ich ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangilash: muammo, yechimlar va istiqbollari» mavzusida xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2022 yil 5-noyabr,–Guliston–2022*.
5. Taniberdiyev, A., & Maxsudova, S. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Modern Science and Research*, *2*(12), 466-472.

[35] Nizamov G‘ofur Mamarasulovich. Axborot -kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati

TALABALARNI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Jurayeva Umida Rahmatullayevna
Buxoro innovatsiyalar universiteti "Pedagogika nazariyasi va tarixi" ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativlik va kommunikativ kompetensiya nima ekanligi va uning ahamiyati, afzallliklari va shakllanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, kompetensiya, kasb, element, mehnat bozori.

Abstract: this article talks about what is communicativeness and communicative competence and its importance, advantages and formation.

Key words: communication, competence, profession, element, labor market.

Аннотация: в данной статье рассказывается о том, что такое коммуникативность и коммуникативная компетентность и ее значение, преимущества и формирование.

Ключевые слова: общение, компетентность, профессия, стихия, рынок труда.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapdi. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etedigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

(Sh.Mirziyoyev)

Bugungi kundagi jadal rivojlanish, insonlarning bir birlari bilan tinimsiz aloqada bo'lishini taqozo etadi. Aloqa madaniyati va undan ko'zlangan maqsadga nechog'lik erishish esa insondagi kommunikativ kompitensiyaning qanchalik samarali tarkib topganligi bilan belgilanadi.

Hozirgi zamonda ta'lim tizimida faoliyat olib borishni niyat qilgan har bir talaba , avvalo, o'zida kommunikativ kompitensiyani shakllantirishi, rivojlantirishi lozim. Chunki atrofdagilar bilan aloqa jarayonida shaxsiy sifatlari, qobiliyati va nutqiy mahoratini ko'rsata olishi va atrofdagilar bilan aloqa o'rnatishda to'siqlarga duch kelmasligi uning kelgusi mehnat faoliyatida bir muncha muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlaydi.

Keling, avvallo, kommunikativlik va kommunikativ kompetensiya nimaligi haqida so'z yuritsak.

Kommunikativ kompetensiya – kasbiy kompetensiyaning elementidir. "Kommunikativ kompetensiya" tushunchasi atrofdagilar bilan o'zaro munosabatda bo'lishni shunday darajada o'rganishni nazarda tutadiki, u o'z qobiliyatlari va ijtimoiy mavqeyi doirasida jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini egallaydigan kasbiga tayyorlashda mehnat bozori mutaxassisning kommunikativ ko'nikma va malakalariga qo'yadigan talablarni hisobga olish, kommunikativ kompetensiyani nazariy va amaliy

o‘zlashtirish hamda rivojlantirishning eng samarali usullarini ta’lim jarayoniga joriy etish kerak.

Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi chet tillarni bilishni taqozo etadi. Mutaxassisni kasbiy faoliyatga tayyorlashda uning kasbiy shakllanishi va rivojlanishi global strategiyasining zarur tarkibiy qismi sifatida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun chet tilining vositalari va imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish zarur. Chet tilini o‘rganish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi, talabaning uni muloqot vositasi sifatida ishlatish qobiliyatini shakllantiradi, bu esa bugungi kunda nofilologik fakultet bitiruvchilari orasida juda qadrlanadi.

Kommunikativ yondashuv talabalarning shaxsiyatiga yo‘naltirilgan bo‘lib, qisqa vaqt ichida chet tilini o‘zlashtirish va zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar talabalar o‘rtasida tushunish madaniyati va til muloqoti madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantirishga, nutq faoliyati har bir turining o‘ziga xos imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanib, og‘zaki va yozma nutq hamda o‘qish ustida ishlashga qaratilgan.

Tayyorgarlik jarayoni talabalarning chet tilining fonetik va grammatik tuzilishi, qoidalari hamda eng ko‘p qo‘llaniladigan leksik birlik doirasidagi dastlabki bilim va ko‘nikmalarni egallashdan boshlanadi. So‘ngra kundalik muloqotda mu uloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ usuldan foydalanish mumkin: tanishish, o‘zini tanishtirish, kechirim so‘rash, suhbatni boshlash va tugatish, suhbat mavzusini o‘zgartirish, hisobot berish va ma’l umot olish kabilar. O‘rgatish mutaxassislik sohasiga oid bo‘lmagan keng doiradagi leksika (kundalik va umumiy bilish), shuningdek, ishdagi vaziyatlarni qamrab olgan zarur terminlarni o‘z ichiga olgan materiallar bo‘yicha olib boriladi. Bu bosqichda grammatikaga katta e’tibor beriladi, chunki u kommunikativ imkoniyatlarning asosi hisoblanadi.

Olingan bilimlar asosida chet tilida kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish boshlanadi. O‘rganishning ushbu bosqichidagi asosiy sharti bu o‘quv va ilmiy faoliyat sohasidagi aniq nutq vaziyatlari doirasida og‘zaki nutqqa e’tibor qaratish bo‘lib, u chet tilida ijtimoiy-madaniy va kasbiy sohalarda to‘g‘ri muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.[36]

Kommunikativlik insonda tushunish, idrok qilish kabi shaxsiy fazilatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu ko‘nikmalar ta’lim jarayonida o‘quvchi tomonidan o‘rganilgan materialni xotirada saqlab qolish, mohiyatini idrok etish va tushunganlikni namoyish qilish, bir darvdan boshqa davrga ko‘chira olish, u yoki bu holatga tanqidiy baho bera olish, munozaralarda ishtirok eta olish, o‘zining fikrini va qarashlarini fanda olgan bilimlari asosida himoya qila olish kabi xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan,

[36] Qudriddinova N. D. Ta’lim jarayonida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. International scientific and practical conference "The time of scientific progress " 2023 Warsaw, (Poland)

❖ jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

❖ o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

❖ ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

❖ muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

❖ turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish kabilar.[37]

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, kommunikativlik kompetensiyasi talabalarda atrofdagilar bilan aloqa o‘rnatishni, muloqotda samaraga erishishni, o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda ravon bayon qila olishni, ijtimoiylashishni, turli konfliktlardan uzoqda yurishni va muloqot madaniyatiga amal qilib o‘zgalar fikrini xurmat qilishni va boshqa ijobiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda faol xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Musayeva A. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida talaba-yoshlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish. International scientific-practical conference “Strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions” october 19-20, 2023
2. Qudriddinova N. D. Ta’lim jarayonida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. International scientific and practical conference "The time of scientific progress " 2023 Warsaw, (Poland)
3. Sharipov X., Muslimov N., Ismoilova M. “Kasbiy ta’lim pedagogikasi” Metodik qo‘llanma. – T. 2005-y.
4. Maxsudova, S. (2019). Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari. *Global ilmiy jarayonda integtatsion ta’limni rivojlantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy an’anaviy on-line konferensiya materiallari*.
5. Maxsudova, S. (2023, January). Boshlang‘ich sinf darslarida xorijiy tajribalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi (Darsliklar misolida). In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM*. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.
6. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *Science and innovation*, *2*(B11), 540-543.

[37] Musayeva A. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida talaba-yoshlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish. International scientific-practical conference “Strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions” october 19-20, 2023

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA TEXNIK VA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Orınbetov Nurılla Turdımuratovich, Amanbaev Muratbay Abdimuratovich
Ajiniyoz nomidagi NDPI Texnologik ta’lim kafedrası dotsenti.
Ajiniyoz nomidagi NDPI Texnologik ta’lim kafedrası **katta o‘qituvchi**

Annotatsiya. Maqolada kompetentsiya yondashuvi asosida talabalarning texnik va texnologik tayyorgarligini shaklandirish haqida fikr yuritilgan bo‘lib, bunda talabalarning texnik va texnologik tayyorgarligini shaklandirishta o‘quv jarayoniga sun’iy intellekt (AI), robototexnika va raqamli texnologiya vositalarini qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari tahlil etilgan hamda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: zamonaviy texnologiya va vositalar, zamonaviy laboratoriyalar, asbob-uskunalar va dasturiy ta’minotlar, texnik-texnologik tayyorgarlik, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, robototexnika, masofaviy ta’lim, onlayn platforma, raqamli texnologiya, virtual laboratoriya va trenajyor, zamonaviy asbob-uskunalar, dasturiy ta’minot va texnologiyalar.

Аннотация. В статье рассматривается формирование технико-технологической готовности обучающихся на основе компетентностного подхода, а также анализируются основные направления применения инструментов искусственного интеллекта (ИИ), робототехники и цифровых технологий в образовательном процессе при формировании технико-технологической готовности обучающихся. и даны рекомендации по эффективному использованию социальных сетей.

Ключевые слова: современные технологии и инструменты, современные лаборатории, оборудование и программное обеспечение, техническая и технологическая подготовка, искусственный интеллект, кибербезопасность, робототехника, дистанционное обучение, онлайн-платформа, цифровые технологии, виртуальная лаборатория и симулятор, современное оборудование, аппаратное обеспечение, программное обеспечение и технологии.

Annotation. The article discusses the formation of technical and technological readiness of students based on the competence approach, and analyzes the main directions of applying artificial intelligence (AI), robotics and digital technology tools to the educational process in the formation of technical and technological readiness of students and recommendations on effective use of social networks are given.

Key words: modern technology and tools, modern laboratories, equipment and software, technical and technological training, artificial intelligence, cyber security, robotics, distance education, online platform, digital technology, virtual laboratory and simulator, modern equipment hardware, software and technology.

Hozirgi davrda zamonaviy ta’lim makonida tez o‘zgaruvchan texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi ayniqsa dolzarbdir. Zamonaviy texnologiya o‘qituvchisidan talab qilinadigan asosiy kompetensiyalardan biri nafaqat o‘z kasbiy faoliyatida

zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalardan foydalana olish, balki o‘quvchilarda ham tegishli kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bu esa bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini institutda tayyorlash jarayonida ularning texnik va texnologik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish va joriy etishni taqozo etadi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quv jarayoni sifatini oshirish, balki bitiruvchilarning kasbiy faoliyat sharoitlariga, shuningdek, doimiy o‘zgaruvchan texnologik landshaftga tezroq moslashishiga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining texnik va texnologik kompetentsiyasini rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqishning dolzarbligi o‘quv jarayonining ehtiyojlari va zamonaviy mehnat bozori talablari bilan belgilanadi.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallashni, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot kontekstida kompetentsiya ma’lum bir sohada kasbiy muammolarni samarali hal qilishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar va qadriyatlarning integratsiyasi sifatida tushuniladi[1].

Texnik va texnologik kompetentsiyani samarali rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillarni hisobga olish kerak:

1. Tizimlilik va izchillik - bilim va ko‘nikmalarning murakkabligi va chuqurligini bosqichma-bosqich oshirishni, shuningdek ularning kasbiy kompetentsiyaga integratsiyalashuvini ta’minlash.

2. Talabalarning faolligi va mustaqilligi - talabalarning tadqiqot va loyiha faoliyatini rag‘batlantirish, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini rivojlantirish.

3. Amaliyotga yo‘naltirilgan - nazariy materialni amaliy faoliyat bilan yaqindan bog‘lash, real holatlar va loyihalardan foydalanish.

4. Fanlararolik - muayyan kasbiy muammolarni hal qilish uchun turli fanlardan bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish.

5. Mulohaza va baholash - doimiy o‘z-o‘zini baholash va ta’lim jarayonini tuzatish, shuningdek erishilgan natijalarni baholash.

Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, nafaqat aniq texnik ko‘nikmalarni, balki jamoada ishlash qobiliyati, ma’lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish, shuningdek, qo‘llash qobiliyati kabi umumiy malakalarni rivojlantirishga yordam beradigan ta’lim muhitini yangi sharoitlarda bilim yaratish muhimdir [3].

Talabalarning texnik va texnologik tayyorgarligi shaklandirishta o‘quv jarayoniga sun’iy intellekt (AI) va robototexnika vositalarining joriy etilishi ta’lim sifati va undan foydalanish imkoniyatini oshirish, shuningdek, talabalarni zamonaviy texnologik jamiyat muammolariga tayyorlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Mazkur texnologiyalarni bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasiga integratsiyalashuvi nafaqat o‘quv jarayonini yangi vositalar va usullar bilan boyitish imkonini beradi, balki talabalarda yuqori texnologiyali muhitda ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va vositalarni joriy etish muhim jihat bo‘lib, bu ta’lim sifati va qulayligini oshirishga

xizmat qilmoqda. Masofaviy ta’lim uchun onlayn platformalar, kasbiy faoliyatni taqlid qilish uchun virtual va kengaytirilgan reallik, shuningdek, loyihalarni boshqarish, ma’lumotlarni tahlil qilish va jarayonlarni modellashtirish uchun turli xil axborot tizimlari va ilovalaridan foydalanish o‘qitishni yanada interaktiv va real ish sharoitlariga yaqinlashtiradi.

O‘quv jarayoniga sun’iy intellekt (AI) va robototexnika vositalarining joriy etilishi ta’lim sifati va undan foydalanish imkoniyatini oshirish, shuningdek, talabalarni zamonaviy texnologik jamiyat muammolariga tayyorlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Mazkur texnologiyalarni bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasiga integratsiyalashuvi nafaqat o‘quv jarayonini yangi vositalar va usullar bilan boyitish imkonini beradi, balki talabalarda yuqori texnologiyali muhitda ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ta’limda sun’iy intellekt (AI) va robototexnikani qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari:

1. Moslashuvchan ta’lim: AI talabaning o‘quv jarayoni haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilishi, o‘quv materiali va o‘rganish tezligini uning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashi mumkin. Bu materialni chuqurroq va samaraliroq assimilyatsiya qilishga yordam beradi.

2. Ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirish: Oddiy ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirish uchun sun’iy intellektdan foydalanish professor-o‘qituvchilarning talabalar bilan yaqinroq muloqot qilish va individual ish uchun vaqtini bo‘shatadi.

3. Virtual yordamchilar va chat-botlar: Sinfdan tashqari talabalarni qo‘llab-quvvatlash uchun sun’iy intellektga asoslangan virtual yordamchilar va chatbotlardan foydalanish ularning savollariga real vaqtda javob berishga yordam beradi va kurs materialini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

4. Robototexnika o‘quv quroli sifatida: Sinf loyihalari orqali robotlarni loyihalash va dasturlash talabalarda muhandislik ko‘nikmalarini, jamoada ishlashni va murakkab texnik muammolarni hal qilishni rivojlantiradi.

5. AI va robototexnika sohasidagi ilmiy loyihalar: Tadqiqot loyihalarida ishtirok etish talabalarga ushbu texnologiyalarni chuqurroq o‘rganishga imkon beradi, tanqidiy fikrlash va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarning texnik va texnologik tayyorgarligida raqamlashtirishning rolini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘quv jarayonida raqamlashtirish texnologiyalari nafaqat o‘qitish vositasi, balki raqamli iqtisodiyotda ishlashga qodir malakali mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish nafaqat masofaviy ta’lim uchun onlayn platformalar va resurslardan foydalanishni, balki o‘qitishni ham o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, dasturlash asoslarini o‘rganish va katta ma’lumotlar bilan ishlash texnologik ta’lim talabalari uchun tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Python, Java, C++ kabi dasturlash tillarini bilish, shuningdek, ma’lumotlar bazalari bilan ishlash va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahliliy qayta ishlash qobiliyati bitiruvchilar

uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, ma’lumotlarni tahlil qilish, mashinalarni o‘rganish sohasida keng istiqbollarni ochadi.

Texnik va texnologik tayyorgarlik sifatini oshirishda virtual laboratoriya va trenajyorlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar xavfsiz va boshqariladigan muhitda turli ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish, tajribalar va sinovlarni o‘tkazish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar murakkab kontseptsiyalar va jarayonlarni namoyish qilish va asbob-uskunalar yoki materiallarga zarar yetkazish xavfisiz amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun idealdir [2].

Ijtimoiy tarmoqlardan ta’lim jarayonida foydalanish ta’lim olish imkoniyatini yaxshilash, faol o‘rganish va talabalar ishtirokini rag‘batlantirish, kasbiy tarmoqlarni kengaytirish kabi qator imtiyozlarni taqdim etadi. Biroq, ta’lim muassasalari kontentni nazorat qilish, maxfiylikni ta’minlash va noto‘g‘ri ma’lumotlardan himoya qilish zarurati kabi muayyan muammolarga duch kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar:

- tarmoqdagi xatti-harakatlar qoidalarini, xavfsizlik va maxfiylikni ta’minlash choralarini belgilovchi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish siyosatini ishlab chiqish.

- talabalar ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash, shu jumladan kiberxavfsizlik va axborotni tanqidiy idrok etish masalalari.

- Ijtimoiy tarmoqlardan nafaqat ma’lumot tarqatish kanali, balki interaktiv ta’lim, loyiha ishlari va professional muloqotni tashkil qilish vositasi sifatida ham foydalanish.

- Talabalarni kelajakda ish qidirishda va professional o‘zini namoyon qilishda yordam beradigan o‘zlarining professional raqamli izlarini yaratishga undash.

Shunday qilib, tavsiya etilyotgan pedagogik shartlarni amalga oshirish kasbning texnologik tarkibiy qismini, maxsus bilim, ko‘nikma va o‘zlashtirish motivlarini rivojlantirish orqali texnik va texnologik kompetentsiyani har tomonlama shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алдияров К.Т. Интеграция обучения информатике и общетехническим дисциплинам в системе технического и профессионального образования в Республике Казахстан: автореферат дисс. ... док. пед. наук. – М., 2013. - 47 с.

2. Борисов, А.В. Повышение качества технико-технологической подготовки будущих учителей технологии (на примере обучения токарной обработке конструкционных материалов) [Текст]: дис. ... канд. пед. наук.- Сыктывкар, 2003. - 133 с

3. Худяков А.Ю. Технологическая компетентность – одно из важнейших качеств учителя трудового обучения// Актуальные проблемы гуманитар и естеств. наук. – 2017. – № 3. с. 101–109.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

To‘rabayev Orif Abdumajid o‘g‘li
Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i.

“Adolat barcha fazilatlardan eng oliysidir”
Sitseron Mark Tulliy

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlar o‘rni beqiyos darajada ko‘tarilib ketdi, bugungi kunda biron bir shaxs yoki jamoaning misqollab yig‘adigan obro‘yini nohaq va dalillarga asoslanmagan tarzda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilishi ko‘p kuzatilmoqda, ayniqsa bu holat pedagoglarning hayotida sodir bo‘lishi achinarli holat. Maqolada siz ta’lim jarayonida asosiy egalari ya’ni pedagoglarning bugungi kundagi maqomi, bola huquqlari va fuqarolik huquqlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: Pedagogning maqomi, bola huquqlari, bola, shaxs, fuqarolik huquqlari, Mutlaq va nisbiy huquqiy munosabatlar.

Abstract. In the modern world, the role of social media is incredibly large. Today, one can often observe that the reputation of an individual or a group of people who have been earned through long and hard work is unfairly and unjustifiably besmirched on social media. It is a sad situation, especially when it affects the lives of educators. This article will provide you with information about the current status of the owners of the educational process - educators, children’s rights, and civil rights.

Key words: Teacher’s status, child’s rights, child, person, civil rights, Absolute and relative legal relations.

Абстракт. В современном мире роль социальных сетей неимоверна велика. Сегодня можно часто наблюдать, что репутация индивидуального человека или группы людей, которые были заработаны долгим и упорным трудом несправедливо и необоснованно очерняется в социальных сетях. Печальная ситуация, особенно когда это затрагивает жизни педагогов. В статье вы получите информацию о современном статусе владельцев образовательного процесса – педагогов, правах детей и гражданских правах.

Ключевые слова: Статус воспитателя, права ребенка, ребенок, личные, гражданские права, Абсолютные и относительные правоотношения.

XXI-asr insoniyat tarixida juda kashfiyotlarga boy va axborot asri bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz. Bugungi kunda zamonamizda bo‘layotgan hodisalarni o‘rta asrda yashagan insonlar tasavvuriga sig‘dirishi qiyin bo‘lgan bo‘lar edi.Bizning cha bu tafovut yani juda katta o‘zgarishlar endi asrlarni talab qilmaydi. O‘n yil ichida

bo‘layotgan kashfiyotlar salmog‘i va sifati bugungi zamon insonlarini ham hayratga solmoqda. Lekin har bir qilinayotgan kashfiyotlar yangiliklar va olib borilayotgan tadqiqotlar inson uchun xizmat qilishi lozim. Insonning qadri, uning huquqi va hayoti birinchi o‘rinda turishi kerak. Shu o‘rinda fidoiy kasb egalari , jamiyatning asosiy bo‘g‘inlaridan bo‘lmish pedagoglarning nufuzi va obro‘si yuqori darajada bo‘lmog‘i lozim. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish har birimizga burch darajasiga ko‘tarilishi darkor. Shuni doim yodda tutish kerakki “**Huquq**-insoniyat uzoq tarixiy tamadduni mobaynida kashf etilgan noyob ijtimoiy qadriyatlardan eng sarasidir”.[38]

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi:

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi deb belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki pedagoglarning sha’ni va qadr-qimmati davlatimiz himoyasida. Lekin jamiyatimizda pedagoglarning ish faoliyatiga asosiz aralashish, yoki ularga nisbatan jismoniy kuch ishlatish holatlari uchrab turibdi. Shu boisdan pedagoglarning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si himoyasi qilish maqsadida Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2023-yil 29-sentabrda ma’qullangan va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 1-fevral kuni 21 moddadan iborat “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun imzolandi. Mazkur qonunga ko‘ra, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish taqiqlanadi. Shuningdek, pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni va boshqa ma’lumotlarni, jumladan, bitiruvchilarning bandligi ta’minlangani haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish man etiladi.

Ushbu qonunning 5-moddasi Pedagogning kasbiy faoliyati amalga oshirilishini ta’minlashda quyidagilar taqiqlanadi:

- ✓ pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek unga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilish;

[38] Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent “Adolat” 2018. 165 b

✓ pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish;

✓ pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni va boshqa ma’lumotlarni, shu jumladan aholining soliqlar, kommunal to‘lovlar, kreditlar va boshqa qarzdorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bitiruvchilarning bandligi ta’minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish;

✓ pedagogni ishga joylashtirilmagan, ta’lim bilan qamrab olinmagan va profilaktika hisobida turgan voyaga yetmaganlar hisobini yuritish hamda ularning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish ishlariga jalb etish;

✓ pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan ish haqidan uning yozma roziligisiz tovar va xizmatlar uchun mablag‘ ushlab qolish.

✓ Davlat umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar davlat tomonidan o‘quv qo‘llanmalar bilan bepul ta’minlanadi.

✓ Davlat ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar ta’lim jarayonida foydalanadigan birlamchi o‘quv-uslubiy materiallar va o‘quv qurollari bilan davlat tomonidan bepul ta’minlanadi.

✓ Pedagogni uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarga (saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarida ishtirok etishga, test sinovlarida auditoriya nazoratchisi vazifasini bajarish, aholini ro‘yxatga olish ishlarida ko‘maklashishga, ta’lim tashkilotlarini tekshirish hamda attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarida ekspert sifatida ishtirok etishga va boshqalarga) jalb qilish uning roziligiga ko‘ra, u bilan tuzilgan shartnomaga asosan, qo‘shimcha haq to‘lash evaziga, ishdan bo‘sh vaqtida yoki ish joyi bo‘yicha o‘rtacha ish haqi saqlangan holda amalga oshiriladi.

✓ Pedagogni biron-bir shaklda mehnatga ma’muriy tarzda majburlash, shuningdek pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.[39]

Pedagog ta’lim oluvchilar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qiluvchi, o‘quvchilarga bilim va tarbiya beruvchi jismoniy shaxslardir. U bir vaqtning o‘zida bolalar bilan ishlaydi demak u bola huquqlarini bilishi lozim, shu bilan birga ota-onalar bilan doimo muloqotda bo‘ladi bu esa fuqarolik huquqi bilimlarini chuqur o‘zlashtirishni taqozo qiladi. Ta’lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ish faoliyatini boshlaydi buning natijasida

[39] https://lex.uz/docs/-6786401

mehnat huquqi ishtirokchisiga aylanadi. Mehnat huquqini bilmaslik xodimlarning ish faoliyatida bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy hol.

Dastlab bola huquqlariga to‘xtaladigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan. Ushbu qonunning 3-moddasida bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar keltirib o‘tilgan. B**ola (bolalar)** — o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar)[40] deb tarif berilgan. Demak biz o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan barcha shaxslarga nisbatan g‘amxo‘rlik qilishimiz, ularga ta’limiy va tarbiyaviy masalalarda qattiq qo‘llik bilan emas balki yuksak pedagogik mahorat bilan yondashishimizni talab etadi. Shu bilan birga pedagoglar ota onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan hamkorlikda bolani kelajakda jamiyat va davlat ichida o‘z o‘rnini topadigan shaxs qilib tarbiyalashligi lozim, bu judayam mas’ulyatli ish hisoblanadi. Bolaning kelajakda yetuk shaxs bo‘lish uchun nimalar qilish kerak? degan savol tug‘ilishi tabiiydir. “Odam ijtimoiy mavjudot sifatidan shaxsga aylanish uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, **muhit va tarbiya** kerak bo‘ladi.[41] Aynan muhit va tarbiya masalalari ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar va pedagoglarga borib taqaladi. Sinf muhitini adolatli va tartibli boshqarish pedagoglardan yuksak bilim va huquqiy savodxonlik va axloqiy me’yorlarga og‘ishmay amal qilishni talab etadi.

Pedagoglar ta’lim samaradorligini oshirish uchun ta’lim oluvchilarning ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan ijobiy va doimiy aloqada bo‘lishi lozim. Amaliyotda aksariyat hollarda ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida mojaroli vaziyatlar yuzaga kelib turadi, bunday holatlarda pedagoglarning huquqiy bilimlari yetari bo‘lmaganligi uchun ko‘p hollarda jabrlanib qoladi va jamoada o‘zini hurmatini tushganligiga guvoh bo‘lishadi. Bu esa ish kayfisentini tushishiga olib keladi va natijada sinfdagi muhit buziladi. Bu holatda biz e’tibor qaratadigan jihat fuqarolik huquqiy munosabatlarning turlari hisoblanadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Mulkiy xarakterdagi va mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar.
2. Mutlaq va nisbiy huquqiy munosabatlar.
3. Mulkiy huquqiy va majburiyat munosabatlari.
4. Korporativ munosabatlar
5. Imtiyozli (afzallik) huquqlari.

Bu holatda biz uchun kerak bo‘lgan huquqiy munosabat **Mutlaq va** nisbiy **huquqiy munosabatlar** hisoblanadi. “Mutlaq huquqiy munosabatlarda subyektiv huquq egalari o‘z huquqlarining buzilmasligini har kimdan va hammadan talab qila

[40] https://lex.uz/uz/docs/-1297315?ONDATE2=18.05.2022&action=compare
[41] J.Hasanboyev, X.A.To‘raqulov, I.Sh.Alqarov,N.O‘.Usmanov PEDAGOGIKA “Moshir” T 2016. 57-58-b

oladilar. Mutlaq huquqlar noma'lum har bir kimsa tomonidan buzilishi mumkin bo‘lgani sababli har kimdan qo‘riqlanadi. Ularga mulk, mualliflik huquqlari, shaxsiy huquq kabilar kiradi"[42]. Bir so‘z bilan aytganda **Fuqarolik huquqi** Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar, mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq manbayi hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, muammoli vaziyatlarda pedagoglar doim jabrlanuvchi sifatida yoki bolalarni kaltaklovchi inson sifatida jamiyat ko‘z oldida gavdalanishi achinarli holat hisoblanadi."Ko‘p hollarda insonlar o‘zlarini insonlardan himoya qilishga to‘g‘ri kelyapti". So‘z o‘rnida buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojibning ajoyib hikmatli so‘zlarini eslatib o‘tmoqchiman.

Olamga odamzod sara mavjudot sifatida keldi, u salohiyat, bilim va zakovatga ega bo‘ldi.

Unga tabiat aql va ong ato qildi, so‘zlash qobiliyatini berdi, uni andisha, xushxulq va go‘zal fe'l bilan ta'minladi.

Unga bilim Hadiya qildi, shu tufayli inson ulug‘likka erishdi, zakovatlar ato qildi, shu tufayli inson chigal jumboqlarni hal qildi.

Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa u ezgu ishlarga qo‘l uradi.

Bilimning buyukligini va zakovatning ulug‘ligini anglagin, bu ikkalasiga ega bo‘lgan sari kishilar ulug‘likka erishadilar.[43]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogning maqomi to‘g‘risida"gi Qonun (O‘RQ–901-son, 01.02.2024 y.)
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO‘G‘RISIDA Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan
3. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent "Adolat" 2018. 165 b
4. J.Hasanboyev, X.A.To‘raqulov, I.Sh.Alqarov,N.O‘.Usmanov PEDAGOGIKA "Moshir" T 2016. 57-58-b
5. R.Dj. RUZIYEV, V.R. TOPILDIYEV F U Q A R O L I K H U Q U Q I "СкоЧроп nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" Toshkent-2011 66-67-b
6. "IBRATLI HIKMATLAR" Tuzuvchi Anvar Sobirjon "O‘zbekiston" T-2007 3-b

[42] R.Dj. RUZIYEV, V.R. TOPILDIYEV F U Q A R O L I K H U Q U Q I "СкоЧроп nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" Toshkent-2011 66-67-b

[43] "IBRATLI HIKMATLAR" Tuzuvchi Anvar Sobirjon "O‘zbekiston" T-2007 3-b

PROMOTING CRITICAL THINKING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING AND LEARNING

Allamuratova Khurliman
National University of Uzbekistan PhD student

Abstract:

This article explores the importance of the art of critical thinking in the field of English language teaching and learning. It discusses how critical thinking contributes to the development of analysis, evaluation, and argumentation skills, which are integral to effective English language use. The article presents strategies and methods that can be employed by educators to stimulate critical thinking among students in the process of learning English. It also emphasizes the significance of creating an environment that encourages students to engage in independent thinking, text analysis, and critical discussions within the context of English language learning. Lastly, the article demonstrates how the application of critical thinking in the educational process facilitates the development of communicative skills in the English language and improves the quality of education.

Аннотация:

Эта статья исследует важность искусства критического мышления в области обучения и изучения английского языка. Она обсуждает, как критическое мышление способствует развитию навыков анализа, оценки и аргументации, которые являются неотъемлемой частью эффективного использования английского языка. Статья предлагает стратегии и методы, которые могут быть использованы педагогами для стимулирования критического мышления среди студентов в процессе изучения английского языка. Также подчеркивается значимость создания среды, которая поощряет студентов к независимому мышлению, анализу текстов и критическим обсуждениям в контексте изучения английского языка. Статья демонстрирует, как применение критического мышления в образовательном процессе способствует развитию коммуникативных навыков на английском языке и улучшает качество образования.

Anotatsiya:

Bu maqolada ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish sohasida tanqidiy fikrlash san’ati muhimligini o‘rganadi. U tanqidiy fikrlashning tahlil, baholash va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qanday hissa qo‘shishini muhokama qiladi, bu ko‘nikmalar ingliz tilidan samarali foydalanishning ajralmas qismidir. Maqola ta’lim beruvchilar tomonidan ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar orasida tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan strategiya va usullarni taqdim etadi. Shuningdek, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, matn tahliliga va ingliz tilini o‘rganish kontekstida tanqidiy muhokamalarga jalb qiladigan muhit yaratishning ahamiyati ta’kidlanadi.Maqolada ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashning qo‘llanilishi ingliz tilida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga va ta’lim sifatini yaxshilashga qanday yordam berishini ko‘rsatiladi.

Keywords: critical thinking, learning English, reading skills, effective communication, problem-solving, cultural understanding, strategies, methods, educators, pupils.

Ключевые слова: критическое мышление, изучение английского языка, навыки чтения, эффективная коммуникация, решение проблем, культурное понимание, стратегии, методы, педагоги, учащиеся.

Kalit so‘zlar : tanqidiy fikrlash, ingliz tilini o‘rganish, o‘qish ko‘nikmalari, samarali kommunikatsiya, muammo yechish, madaniy tushuncha, strategiyalar, usullar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar.

Critical thinking is an essential skill in modern education, and its significance in the field of English language teaching and learning is increasingly gaining attention. In the era of the information society, where access to knowledge and information has become more extensive, the ability to think critically has become a key factor in successfully using the English language. In the context of English language teaching and learning, critical thinking involves students' ability to analyze, evaluate, and articulate information in English. This skill enables students not only to comprehend texts and materials in the English language but also to think critically about them, express their ideas and viewpoints, and make informed decisions based on the analysis of available information. In this article, we will discuss the importance of the art of critical thinking in the field of English language teaching and learning. We will explore how critical thinking contributes to the development of analytical, evaluative, and argumentative skills, which are integral to the effective use of the English language. Additionally, we will present strategies and methods that can be employed by educators to promote critical thinking among students in the process of learning English.

It is crucial to create an environment that encourages students to engage in independent thinking, textual analysis, and critical discussions, as well as fosters the development of communicative skills in the English language. We will also examine the impact of incorporating critical thinking in the educational process on enhancing the quality of learning and the development of communicative skills in English. Ultimately, understanding and applying critical thinking in the context of English language teaching and learning hold significant value for students, as it helps them develop analytical, evaluative, and argumentative skills, as well as effectively utilize the English language in various spheres of life and work.

Strategies and teaching methods can be used to stimulate critical thinking among students in the process of learning the English language. Here are some of them [1]:

- Questioning approach: Foster interactive discussions where students ask and answer questions, as well as discuss ideas and arguments. Encourage their critical thinking by asking open-ended questions that require analysis and reasoned responses. This helps develop their skills in analysis, evaluation, and argumentation in English.
- Group work: Organize group projects or assignments where students have to collaborate and exchange ideas. This stimulates critical thinking as students need to analyze information, develop arguments, and make collective decisions in English. Group work also develops communication and teamwork skills.
- Contextual tasks: Provide students with real-life situations or problems that require analysis and solution. For example, you can have them read an article in

English about a social issue and ask them to express their opinion and propose solutions. This helps develop their skills in analysis, evaluation, and critical thinking.

- Development of critical reading skills: Teach students strategies for active reading, such as scanning, skimming, and critical reading. This will help them develop skills in analyzing English texts, identifying key ideas, evaluating arguments, and expressing their opinions.
- Support for constructive criticism: Encourage students to provide constructive criticism and argue their points of view. Teach them ways to express different perspectives and arguments in written and oral form in English. This helps them develop argumentative skills and confidence in expressing their ideas.
- Use of information sources: Teach students how to search, select, and evaluate information sources in English. This includes critically assessing sources, verifying their reliability, and analyzing the information they provide. This helps students develop critical thinking and literacy in English.
- Development of argumentation skills: Teach students logical methods of argumentation and developing their ideas in written and oral form. Encourage their critical thinking by asking open-ended questions and demanding reasoned answers, so they can develop their argumentative skills and the ability to express their thoughts clearly and logically in English.

It is important to remember that stimulating critical thinking requires a systematic approach and consistent practice. Teachers should create a stimulating learning environment where students can freely express their opinions, argue their ideas, and ask questions. They should also provide feedback and support for the development of critical thinking skills among students. Creating an environment that supports the development of critical thinking skills in students is an important aspect of effective education. Here are some detailed recommendations for creating such an environment[2]:

- Setting goals: Define specific goals related to the development of critical thinking and clearly explain them to the students. Emphasize the importance of developing analytical and evaluative skills in the process of learning the English language.
- Supporting open discussion: Create an atmosphere where students can freely express their thoughts and ideas. Encourage them to ask questions, express different points of view, and discuss issues and topics in English. Stimulate argumentation and debates so that students can learn to think critically and articulate their views.
- Providing diverse materials: Provide students with diverse sources of information in English, such as texts, articles, videos, audio recordings, etc. This will help them develop skills in analyzing and evaluating information, as well as enrich their knowledge and understanding of various topics.
- Posing open-ended questions: Incorporate open-ended questions into your lessons that require students to analyze, evaluate, and provide reasoned answers. This helps develop their critical thinking skills and ability to express their thoughts in English. Encourage students to ask each other questions and engage in discussions so they can learn to listen and argue their viewpoints.

•Organizing group work: Give students opportunities to work in groups where they can collaborate, exchange ideas, and solve problems. Group work fosters the development of critical thinking as students must analyze information, develop arguments, and make collective decisions in English. It's important to ensure equal participation of all members and create structured tasks that require critical thinking.

•Encouraging reflection: After completing assignments or projects, allow students to reflect on their achievements and mistakes. Ask questions about what they have learned, what challenges they encountered, and how they can improve their critical thinking skills. Encourage students to think about their thinking processes and develop strategies for enhancing their skills.

•Feedback and support: Provide students with constructive feedback on their work and thoughts. Pay attention to the development of their argumentation skills and their ability to express their thoughts clearly and logically in English. Encourage their critical thinking and offer strategies for improvement.

•Utilizing technology: Use technology such as interactive online resources, educational apps, and social networks to support students' critical thinking. This can include assignments utilizing interactive tools, discussions on virtual forums, or collaborative creation of digital projects. Technology can expand students' opportunities for research, analysis, and idea exchange in English.

Critical thinking has a significant impact on communicative skills in the English language. Here are some ways in which the development of critical thinking can influence communicative skills[3]:

•Analysis and understanding of information: Critical thinking helps students develop the skill of analyzing information in the English language. They become more critically aware of what they hear and read and are able to assess the accuracy and relevance of information. This enables them to better understand and interpret communicative materials in English.

•Development of argumentation and logical thinking: Critical thinking requires the development of the ability to articulate ideas and opinions. Students who master critical thinking learn to clarify their thoughts, construct logical chains of reasoning, and express their arguments more convincingly in English. This contributes to the development of effective communication skills.

•Development of critical reading and listening skills: Critical thinking helps students become more attentive listeners and readers in the English language. They learn to analyze and evaluate information, seek hidden meanings, identify key arguments, and distinguish facts from opinions. This allows them to better understand and comprehend communication in English.

Современные студенты, ориентированные на онлайн-обучение, предпочитают использовать платформу дистанционного обучения и онлайн-ресурсы. Эти инструменты предоставляют возможность изучать материалы в удобное время, а также получать доступ к разнообразным образовательным материалам, таким как видеолекции, электронные учебники и тесты.

В заключение, применение инновационных технологий в процессе преподавания физической и коллоидной химии обладает потенциалом для трансформации образовательной среды, придавая ей более динамичный и адаптивный характер, соответствующий требованиям современных студентов. Эти передовые технологии не только стимулируют интерес учащихся к учебному материалу, но и способствуют формированию глубокого понимания научных концепций.

Использование электронных лабораторий дает студентам безопасную возможность контролировать химические процессы, что особенно важно при обучении физической и коллоидной химии, где практические навыки играют ключевую роль. Технологии 3D-моделирования и реальности предоставляют уникальные визуальные средства для изучения молекулярных структур, способствуя более глубокому пониманию сложных элементарных процессов.

Мультимедийные презентации и интерактивные доски создают динамичное обучающее окружение, которое учителя эффективно проводят студентам. Это делает учебный процесс более интерактивным и адаптированным к различным стилям обучения.

Онлайн-ресурсы и дистанционное обучение повышают гибкость обучения, позволяя учащимся изучать материалы в удобное для них время и темп. Это особенно актуально в современном обществе, где мобильность и доступность информации становятся все более важными факторами.

Таким образом, интеграция инновационных технологий в обучении физической и коллоидной химии не только повышает качество образования, но и готовит студентов к использованию передовых методов исследований в научной и профессиональной сфере. Развитие технологических возможностей в сфере образования играет ключевую роль для ученых и специалистов будущего поколения в области химии.

Список литературы:

1. У.М.Норкулов, М.Исакулова, И.Х.Рузиев.// “Использование виртуальных лабораторий в образовании” Общество и инновации – Society and innovations Issue – 2 № 5 (2021) / ISSN 2181-1415. 2-7 стр.

2. Хисматова Х.Ф.// О роли самостоятельной работы студентов педагогических вузов. // International conference on learning and teaching. -2022- С. 200-203.

3. Карташова Н.С., Шахмурова Г.А., Халитова Р.А.// Организация самостоятельной работы в процессе изучения инновационных технологий биологического образования. -2021.

O‘QUVCHILARDA TEXNOLOGIK BILIM VA KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Urunov Abduxalil Madjidovich, Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich
SamDU, t.f.n., dotsent, SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali, PhD, dotsent,

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni zamonaviy mutaxassis va kasb egasi qilib tayyorlashda asos bo‘ladigan texnologik ta’lim – tarbiyaga qo‘yiladigan pedogogik talablar, texnologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish omillari yoritilgan.

Annotation: This article highlights the factors of formation of technological knowledge and skills, technological education and upbringing, which are the basis for training young people as modern specialists and to have professions.

Аннотация: В данной статье выделены факторы формирования технологических знаний и умений, технологического образования и воспитания, которые являются основой подготовки молодежи как современных специалистов и иметь профессий.

Kalit so‘zlar: texnologik ta’lim va tarbiya, texnologik ko‘nikma va malaka, ishlab chiqarish, texnologik jarayon va mehnat intizomi, texnologik va texnikaviy talablar.

Key words: technological education and training, technological skills and qualifications, production, technological process and labor discipline, technological and technical requirements.

Ключевые слова: технологическое образование и подготовка, технологические навыки и квалификация, производство, технологический процесс и трудовая дисциплина, технологические и технические требования.

O‘quvchilarga puxta bilim berish bilan birga ularni respublikamiz uchun etuk mutaxassis kadrlar qilib qilib tarbiyalash, xalq maorifi xodimlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu masalani har tomonlama ijobiy hal etishda maktablarda o‘quv ustaxonalarini DTS asosida jihozlash va mashg‘ulotlarni shunga ko‘ra samarali tashkil etishning o‘rni beqiyosdir. Ushbu masalani hal etish eng avvalo texnologiya o‘qituvchilarining zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

O‘quv ustaxonalarida o‘quvchilar nazariy olgan bilimlarini amalda texnologiya o‘qituvchisi yordami va nazorati ostida mustaqil bajarib ko‘radilar. Bu esa o‘quvchilarda ishlab chiqarishga bo‘lgan munosabatni yaxshilaydi, texnologiyasevarligi ortadi, texnologiya malakasi va ko‘nikmasi takomillashib boradi. Ana shunday vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda maktab o‘quv ustaxonalarining etarlicha jihozlanganligi, asbob-uskunalar bilan ta’minlanganligi va mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning yoshi hamda bilim saviyasiga qarab olib borish katta ahamiyatga ega.

Maktablarda o‘quvchilarning davomati, o‘zlashtirishlari, kasb-hunarlarni puxta o‘rganishlarini ta’minlash maqsadida umummaktab miqiyosida, maktab va maktablararo o‘quv ishlab chiqarish kombinati o‘quv ustaxonalarida qat’iy tartib intizom o‘rnatilishi kerak.

Shu boisdan o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarida olib boriladigan texnologiya darslarida ham o‘quvchilar quyidagi tartib-intizomga qat’iy rioya

qilishlari kerak:

- O‘quvchilar texnologiya darslariga muntazam ravishda, kechikmasdan qatnashishlari shart. Chunki o‘quvchilar amaliy mashg‘ulotlarni faqatgina o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalaridagina bajarish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu ishlarni uyga bajarish imkoniyati ularda bo‘lmaydi. Shuni e’tiborga olib ham texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlar yuzasidan uyga vazifa berilmaydi.

- Har bir o‘quvchi mashg‘ulot vaqtida o‘ziga biriktirilgan ish o‘rnida o‘tirishi va ishlashi shart. Buning uchun ish o‘rinlari o‘quvchilar soniga qarab etarli bo‘lishi shart. Bu hol o‘quvchilarning ishsiz qolmasliklari va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishlarini ta’minlashga yordam beradi.

- Dars vaqtida o‘quvchilarning bir joydan boshqa joyga ko‘chib yurishlariga ruxsat berilmaydi. Bu narsa o‘quvchilar xayolining bo‘linishiga va ish vaqtida ko‘ngilsizlik bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

- Har bir o‘quvchi tozalik, sanitariya va gigiena qoidalariga rioya qilgan holda amaliy mashg‘ulotlarga o‘zining maxsus ish kiyimini olib kelishi va shu kiyimda ishlashi kerak. Ustaxonaga maxsus kiyimsiz kelgan o‘quvchilarning ishlashlariga ruxsat berilmaydi.

- O‘quvchilar jadval asosida vaqti-vaqti bilan navbatchilik qiladilar. Ular o‘quvchilarga zagotovkalar, asbob-uskunalar tarqatadilar. Ishdan so‘ng ularni yig‘ishtirib, joy-joyiga qo‘yadilar va o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasini supurib-sidirib tozalaydilar.

- Amaliy mashg‘ulotlarni tanaffussiz o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki qisqa muddatli tanaffus o‘quvchilarning havoyi bo‘lib qolishlariga, undan so‘ng ularni ilgarigidek ishga kirishib ketishlariga salbiy ta’sir etadi. Bu narsa tayyorlanayotgan mahsulotning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning yasalish muddatining uzayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mashg‘ulotlarni tanaffussiz davom ettirib, tanaffus hisobiga mashg‘ulotni bir oz ilgariroq tugatilishiga ruxsat etiladi. Mashg‘ulotdan so‘ng har bir o‘quvchi o‘z ish o‘rnini tozalab, asboblarni tartibga keltirib, ortiqcha materiallarni, chala yoki tayyor ishlarni o‘qituvchiga topshirib, yuz-qo‘llarini yuvib, joy-joylariga o‘tiradilar.

- O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning ishlarini baholab, ishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliknilarini aytib o‘tadi. Kuzatish davomidagi qo‘yilgan baholarni umumlashtirib, o‘qib eshittiradi. So‘ngra o‘quvchilarga javob beriladi.

Bu yuqorida sanab o‘tgan tartib-qoidalarning amalda bajarilishini nazorat qilish va zaruriy choralarni ko‘rish texnologiya o‘qituvchisining zimmasiga yuklatiladi. O‘qituvchi har qanday sharoitda o‘quvchilarning ko‘ngildagidek ishlashi, texnika xavfsizligi va o‘quv ustaxonasining ichki tartib qoidalariga qat’iy rioya qilishlarini va boshqa tashkiliy ishlar umumiy ilmiy asoslariga doir bilimlar shakllanadigan va ular ishlab chiqarish-texnik faoliyatining ko‘p sohalarida qo‘llaniladigan umumlashgan malakalarni egallaydigan yo‘sinda tashkil qilishni talab qiladi. Boshqacha aytganda, o‘quvchilarga ular ustaxonalardagi mashg‘ulotlar jarayonida oladigan texnik bilim va malakalarning universalligini, bu bilim va malakalardan yangi ishlab chiqarish sharoitlarida foydalana olish kerakligini ko‘rsatish zarur.

O‘quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining

muhim tarmoqlari bilan ikki yo‘l orqali tanishtirish mumkin: 1. Ularning birini izchil o‘rganish; 2. Ishlab chiqarish jarayonlarini ularning asosi bo‘lgan tabiiy-ilmiy qonuniyatlarga bog‘liq holda klassifikatsiyalash va mazkur qonuniyatlarni xalq xo‘jaligining bir-ikkita tarmog‘i misolida o‘rganish orqali.

Bundan tashqari, texnologiya usullarini egallash didaktikaning asosiy prinsipiga bo‘ysindirilgan va o‘z mantiqiga ega bo‘lgan ma’lum bir sistema bo‘yicha amalga oshirilishi kerak. Agar texnologiya usullarini egallashni fan asoslari bo‘yicha ayrim predmetlar vazifasiga kiritilsa, ular ana shu predmetlarning tuzilishi mantiqiga bo‘ysunadi.

O‘quvchilar texnologik faoliyatiga qo‘yiladigan pedagogik talablar va ularning o‘qituvchilar tomonidan nazoratga olinishi:

1. Aqliy va jismoniy texnologiyani bir-biri bilan almashlab turish.
2. Oilada uy-ro‘zg‘or ishlariga jalb qilish.
3. Bola texnologiyada bevosita ishtirok etsa va texnologiyaga qanchalik erta jalb etilsa, uning texnologik tarbiyasi shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi.
4. Texnologiya bola uchun zaruriyat, burch va odatga aylanmog‘i kerak. Texnologiya oson va qo‘lidan keladigan bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, tayyorgarligiga mos bo‘lishi kerak.
5. Texnologiya dam olish bilan almashlanib turishi kerak, chunki qattiq texnologiya kishini, ayniqsa o‘quvchini charchatib qo‘yishi mumkin.
6. Bolalarning texnologiya faoliyati ijtimoiy ahamiyatga va iqtisodiy-ma’naviy asosga ega bo‘lishi kerak.
7. Har qanday texnologiya topshirig‘i foydali va imkoni boricha yaqqol natija bilan tugallanishi lozim.
8. Texnologiya faoliyatini tashkil qilish aqliy, estetik, iqtisodiy, ekologik tarbiyalar bilan mustahkam bog‘lanishi foydali.
9. Texnologiya amaliy xarakter kasb etishi, ijtimoiy jihatdan kerakli va foydali bo‘lishi, jamoaning va butun jamiyatning manfaatlariga muvofiq kelishi muhim.
10. Texnologiya o‘quvchilarda ijodiylikni, faollikni, tashabbuskorlik va mustaqillikni hamda manfaatdolikni o‘stirishi kerak.
11. Texnologiya darslarida sanitariya-gigiena, texnika xavfsizligi qoidalarini bilish va unga rioya qilish kerak [1,2,3,4].

Texnologiya ta’limi nuqtai nazaridan har xil kasblarga doir texnologiya usullarining izchilligini ko‘rsatish ham muhimdir. Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishining xarakterli xususiyatlaridan biri texnologiya qurollarining tez almashinuvi, yangi mashinalarning va shunga ko‘ra yangi kasblarning vujudga kelishidir. Zamonaviy ishchi zarur bo‘lib qolganda o‘z kasbini o‘zgartirishi, bir-biriga yaqin kasblarni egallay olishi kerak. Bu, ayniqsa, yog‘och va metalga qirqish bilan ishlov berishda yaqqol ko‘rinadi. Texnologiya o‘qituvchisi o‘quvchilarni metall va yog‘ochga ishlov berishda bajariladigan umumiy texnologik jarayon va ularning xarakterli jihatlarini o‘rgatish bilan yuqoridagi maqsadga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Muslimov, SH.S.SHaripov, M.Qodirov. “Texnik ijodkorlik va dizayn”. - T.: “TDPU”, 2010.

2. A.S.Iskandarov. «Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblar va stanoklar.-T.: “Fan va texnologiya” 2004.
3. M.A.Babajonov Texnologik jarayonlarni loyixalash Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2009
4. G‘.M.Abduqodirov. Kasb ta’limi praktikumi. -T.: “Sharq” 2012.

TEXNOLOGIYA TA’LIMI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

Urunov Abduxalil Madjidovich, Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich

SamDU, t.f.n., dotsent, SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali, PhD, dotsent

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘quvchilarning texnologik, politexnik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish metodlari va ularni baholash mezonlari yoritilgan.

Abstract: the article describes methods for developing technological, polytechnic knowledge and creative abilities of students and criteria for their assessment.

Аннотация: в статье описаны методы развития технологических, политехнических знаний и творческих способностей студентов и критерии их оценки.

Kalit so‘zlar: texnologik va politexnik ta’lim, ijodkorlik, sanitariya – gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalari, texnologik jarayon, texnikaviy talab va vaqt normasi.

Key words: technological and polytechnic education, creativity, sanitary, hygienic and technical safety rules, technological process, technical requirements and time standards.

Ключевые слова: технологическое и политехническое образование, творчество, правила санитарно-гигиенической и технической безопасности, технологический процесс, технические требования и нормы времени.

O‘quvchilarning texnologik, politexnik va ijodkorlik bilimlarini baholashda oqilona yo‘l tutilib, metodik jihatdan to‘g‘ri yondoshilganda u o‘quvchining qiziqishi hamda o‘qishga bo‘lgan hohishini rag‘batlantirish va aksincha, noto‘g‘ri qo‘yilgan baho uning o‘qishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ham baho qo‘yishda o‘qituvchining nihoyatda ob’ektiv bo‘lishi talab qilinadi. Baho sira ham oshirib yuborilmasligi kerak. Chunki bu o‘quvchi va uning ota-onasini noto‘g‘ri fikrga olib keladi. Shuningdek baholarni pasaytirib yuborish ham zararlidir, chunki u o‘quvchini kamsitadi, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi, o‘qishga qiziqishini pasaytiradi.

Ko‘pincha o‘qituvchilar o‘quvchilar intizomiga oid birorta kamchiligi (kechikib kelishi, mashg‘ulotlarga kelmay qolishi, dars vaqtida gaplashib o‘tirishi va hakozo) uchun bahoni kamaytirish kabi xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bu o‘rinda o‘qituvchi tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning boshqa vositalaridan foydalangani ma’qul.

Baho qo‘yishda bahoning ob’ektivligi o‘quv-tarbiyaviy ishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek texnologiya va kasb ta’limi o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarning o‘quv-texnologiya faoliyati vaqtida qo‘yiladigan talablarga rioya qilish ham ancha muhimdir. Bunday talablarga quyidagilar kiradi: o‘quv materialini texnologiya va kasb-hunar ta’limi dasturida belgilangan hajmda bilish, olingan bilim va texnologiya ko‘nikmalarining chuqurligi, javoblarning ko‘rsatilayotgan usullarning to‘g‘riligi, o‘rganilayotgan materialni tahlil qila bilish, umumlashtira

olish, o‘rganilgan, egallangan bilimlardan amaliy faoliyatda qo‘llay olish, ishdagi mustaqillik va olingan bilimlarni amalda qo‘llanishi, ish joyini to‘g‘ri tashkil etish hamda tayyorlanayotgan buyumlarga nisbatan qo‘yiladigan texnikaviy talablarga rioya qilish, belgilangan vaqt normasini bajarish hamda xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish zarurdir. Baho qo‘yishda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- o‘quv materialini butun tafsilotlari bilan bilish va tushunish, materialni izchil, mantiqan bog‘langan holda xatosiz bayon etish, hisob-kitob va grafik ishlarini namunali bajarish, texnologiya topshiriqlarini bajarish vaqtida olingan ilmiy-texnikaviy bilimlarni mustaqil, dadil hamda to‘g‘ri tatbiq etish, texnologiya usullarni to‘g‘ri bajarish (texnologiya va hunar ta’limi dasturining talablari doirasida), texnikaviy talablar doirasida sifat ko‘rsatgichlariga rioya qilish, ishni vaqt normasi doirasida bajarish;

- rejadagi asosiy mavzuni bundan keyingi o‘quv-texnologiya vazifalarini bajarishga imkon beradigan hajmda bilishi va tushunishi, o‘quv materialini birmuncha xato ayrim kamchiliklar bilan, o‘qituvchining ozgina yordami orqali sodda qilib bayon etishi;

- mavzuning ko‘p qismini yaxshi tushunmaslik, uni qo‘pol xatolar bilan bayon qilish, hisob-kitob va grafika ishlarini etarli darajada qunt bilan bajarmaslik, olingan bilimlarni ancha xatolarga yo‘l qo‘yib tatbiq etish, texnologiya texnologik jarayonlarini ko‘p xatolar bilan bajarish, texnologiyani belgilangan sifat ko‘rsatgichlarini ta’minlay olmaslik;

Baholarning tarbiyaviy rolini oshirish masalasi diqqatga sazovordir. Shu munosabat bilan o‘qituvchi qo‘ygan baholarini izohlab berishi muhimdir. Bu hol o‘quvchilarga o‘z bilimlaridagi kamchiliklarni, amaliy ishlardagi nuqsonlarni bilib olishlariga yordam beradi. O‘qituvchi baholarni izohlar ekan, sinf, guruhning diqqat-e’tiborini berilgan javob yoki berilgan topshiriqning ijobiy yoki salbiy tomonlariga qaratishi, buni barcha o‘quvchilar keyingi o‘quv-texnologiya faoliyatlarida hisobga olishlari zarur. Baholarni muntazam izohlab borish ularning ta’limiy rolini oshiradi.

Texnologik jarayonga va o‘quvchilarning texnologiyaga munosabatiga quyidagilar hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi:

1) texnologik jarayon maqsadining aniqligi;

2) topshiriqlarning o‘quvchilardagi qiziqishlarga mosligi;

3) topshiriqlarning mazmun jihatdan ham, miqdor jihatdan ham pedagogik qimmati;

4) asboblar va materiallarning sifati yaxshiligi hamda ularning topshiriqlarni bajarishga mosligi;

5) topshiriqning ijtimoiy ahamiyatliligi;

6) o‘qituvchilarning rejali rahbarligida bolalarning maksimal darajada mustaqilligi;

7) ustaxonada sog‘lom ish sharoitining yaratilishi.

Pedagogikada quyidagi shartlar alohida ifodalanadiki, ularga rioya etish o‘quvchilarning texnologik ko‘nikma va malakalarini egallashlarini belgilaydi:

1. Ish o‘rnida batartiblikka e’tibor berishni va asboblarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatish.

2. Yangi texnologik jarayonlarning vazifasi va mazmunini oldindan batafsil tushuntirish hamda uning bajarilishini ko‘rsatib berish.

3. Texnologik jarayonni tarkibiy qismlarga ajratib, ularning rolini va o‘rnini aniq tushuntirish.

4. Ishni boshlashdan oldin o‘quvchilardan topshiriqni qanday bajarishlariga doir rejalarini bayon qilishlarini va ularni asoslab berishlarini so‘rash.

5. O‘quvchilarga avval o‘rganilayotgan texnologik jarayonni oldin asta-sekin bajarishni uqtirish, ular shu pallada texnologiya jarayonini tezlashtirib yubormasliklarini kuzatib turish (bu muhim shartdir, chunki o‘smirlar bir-biridan o‘zish uchun, shuningdek, ishni tez bajarishga qiziqib ketib, bu qoidani buzadilar).

6. Texnologik jarayonlarning to‘g‘ri bajarilayotganini va bunda yo‘l qo‘yilgan xatolarning o‘z vaqtida tuzatilishini nazorat qilib borish.

7. Turli (ko‘rish, eshitish, his qilish, harakat) analizatorlar ishini pedagogik nuqtai nazardan asosli muvofiqlashtirish, texnologiya faoliyatida ulardan samaraliroq foydalanish.

8. Tegishli texnologik jarayonni bajarishda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan eng muhim ob’ektlarni ko‘rsatish.

9. Ishning muvaffaqiyatli davom etishining maxsus belgilarini ifodalash.

Kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borishda maktab atrofidagi sanoat muhitini, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, texnologiyaga tayyorgarligini, bilim va malakalari darajasini nazarda tutish kerak. V sinfda o‘quvchilarga kasblar haqida umumiy ma’lumotlar beriladi. VI-VII sinflarda o‘quvchilarga kasblar to‘g‘risida beriladigan ma’lumotlar kengaytirilgan tarzda tushuntiriladi. Ana shu sinflarda kasblarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi ahamiyati, ularning rivojlanish tarixi, mazkur kasblar bo‘yicha texnologiyaning mazmuni to‘g‘risida, texnologiya predmetlari va qurollari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar haqida hikoya qilib berish mumkin. VIII-IX sinflarning o‘quvchilariga esa yuqoridagi ma’lumotlardan tashqari, quyidagi ma’lumotlar ham beriladi: texnologiya sharoitlari, turli kasblar egalari o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan maxsus, umumiy texnologiya va umumiy texnik bilimlar, ko‘nikma hamda malakalar, kasblarning gigienik xarakteristikasi, kasblarning kishiga qo‘yadigan talablari, texnologiyaga haq to‘lash sistemasi, imtiyozlar, mazkur kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sistemasi.

Texnologiya darslariga qatnashgan o‘smirlar ancha oddiy detallarni tayyorlashda elektr asboblar, mexanizmlar va hokazolarni ishlatish bo‘yicha birmuncha tajriba orttirgan bo‘ladilar. Shunga ko‘ra o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning qiziqishlarini kerakli yo‘nalishga solish, zarur hollarda ularning shaxsiy tajribasiga tayanishdan iboratdir.

Fan-texnika jadal taraqqiy etayotgan, ishlab chiqarishning ko‘p turlari dasturli boshqariladigan dastgohlar, avtomat liniyalari, hisob-kitoblarni bajaradigan qurilmalar bilan jihozlangan hozirgi sharoitda zamon talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlashda texnologiya o‘qituvchilarining o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Muslimov, SH.S.SHaripov, M.Qodirov. “Texnik ijodkorlik va dizayn”. - T.: “TDPU”, 2010.

2. A.S.Iskandarov. «Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblar va stanoklar.-T.: “Fan va texnologiya” 2004.

3. M.A.Babajonov Texnologik jarayonlarni loyixalash Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2009

4. G‘.M.Abduqodirov. Kasb ta’limi praktikumi. -T.: “Sharq” 2012.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA DARS MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNI SAMARALI QO‘LLASH

Nasiba Yunusmetova
SVPYMO‘MM katta o‘qituvchisi

Annotasiya: ushbu maqolada 11-sinf tarbiya fani darslarida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan “Tug‘ilgan kun” enerjayzeri hamda “Rasmlar orasidagi bog‘liklik” ta’limiy o‘yinlarni samarali qo‘llash texnologiyasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar : tarbiya fani, “Tug‘ilgan kun” enerjayzeri hamda “Rasmlar orasidagi bog‘liklik” ta’limiy o‘yin

Аннотация: В данной статье освещена технология эффективного применения интерактивных методов энержайзера “День рождения” и развивающих игр “Взаимосвязь между картинками” в формировании навыков XXI века у учащихся на уроках воспитательной науки в 11 классе.

Ключевые слова: уроки воспитания, энержайзер “День рождения” и развивающие игры “Связь между картинками”

Annotation : this article covers the technology of effective application of educational games “birthday” enerjazeri and “linkage between pictures” from interactive techniques in the formation of skills of the 21st century in students in the lessons of 11th grade education.

Keywords: educational science,” Birthday " enerjayzeri and educational games “Linkage between pictures”

Rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallayotgan mustaqil davlatimizda yosh, malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifaning samarali bajarilishi ko‘p jihatdan ta’lim-tarbiya mas’uliyati zimmasiga yuklatilgan o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati, ma’naviy-axloqiy fazilatlariga bog‘liq. Shunday ekan, o‘qituvchi-tarbiyachining o‘zini tarbiyalash, ularning yuqori malaka va layoqatlarga, yuksak mahoratga ega bo‘lishlarini ta’minlash davr talabidir.

Ma’lumki, ta’limni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri sinf-dars tizimi bo‘lib, uning nazariy asosi va amaliy texnologiyasini XVII asrda chex pedagogi Ya.A.Komenskiy yaratdi.

Pedagogika inson faoliyati sohasi siftida jarayon sub’ekt va ob’ektlarini qamrab oladi. An’anaviy pedagogika (Ya.A.Komenskiy, I.Gerbart, A.V.Disterveg, I.G.Pestalotsii) ta’lim jarayonini katta yoshlilar, o‘qituvchining sub’ekt sifatida o‘z tajribasini bola (o‘quvchi)ga ko‘chirish deb ta’riflagan. Bunda o‘quvchi harakat yo‘nalgan ob’ekt deb qabul qilingan.Ta’lim tizimining asosiy maqsadi-bolani hayotga tayyorlash, uni o‘qitish mazmuni, metodlarini o‘qituvchi belgilaydi.

XX asrda psixologiya-pedagogika fani bu qarashlarni tubdan o‘zgartirdi. Bola

shaxsini shakllantirishda turli ijtimoiy va psixologik omillarning roli aniqlandi. O‘sish va rivojlanish jarayonida bola har xil ta’sin va munosabatlar ishtirokchisi (sub’ekt va ob’ekti)ga aylanadi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda pedagogika va metodikada darsga nisbatan ikki hil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuvga ko‘ra, dars-bu o‘qituvchining o‘quvchilarga bilim berish va shu asosida ularda ko‘nikma, malaka, kompetensiya shakllantirish, ularni tarbiyalash jarayoni. O‘qituvchining asosiy vazifasi – “o‘quvchi chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunib, o‘zlashtirib borish orqali shaxsning har tomonlama rivojlantirishni ta’minlash”

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra, dars – chegaralangan vaqt ichida belgilangan mavzu va maqsad asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng huquqli hamkorligiga asoslangan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya hosil qilish jarayoni. O‘qituvchining asosiy vazifasi – o‘quvchilarda bilim olish ehtiyojini tarbiyalash.

Ko‘pchilik pedagog olimlar, metodistlar, amaliyotchilar zamonaviy dars deganda shaxsga yo‘naltirilgan darsni tushunadilar. I.S. Yakimanskayaning fikricha “Shaxsga yo‘naltirilgan darsning maqsadi o‘quvchilarning biluv faolligini namoyon etishlari uchun shart-sharoit yaratishdan iborat”. Bugungi kunda o‘qituvchi bilim berish bilan shug‘ullanmaydi, u bilim olish istagini tug‘diradi.

Ta’lim jarayonining sub’ekti –o‘quvchi,

Ob’ekt-o‘quv mavzusi,

O‘qituvchi-o‘quvchi va mavzu o‘rtasidagi ko‘prikdir.

Maktabda samarali ta’lim o‘quvchilarga yangi ko‘nikmalarni shakllantirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini qo‘llash imkonini beradi. O‘qituvchilar maktab ta’limini yanada qiziqarli qilish uchun texnologiyalar va multimedia, taqdimotlar va ko‘rgazmali vositalarning boy tanlovidan foydalangan holda maktabda o‘qitishning shakl va usullarini modernizatsiya qilishlari kerak.

Maktabda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ushbu faoliyatga yordam beradigan o‘qituvchidan e’tiborni tortib oladi. O‘quvchilar o‘quv muhitining markazida bo‘lgan holda bilimlarni egallaydilar, namoyish etadilar va amaliyotda qo‘llaydilar.

Demak bir so‘z bilan aytganda, bugungi kun o‘qituvchisi oddiy o‘qituvchi emas, balki kreativ pedagog bo‘lishi kerak.

Kreativ o‘qituvchi dars strukturasini to‘g‘ri tashkil etib, o‘quvchilarda bugungi mavzuga bo‘lgan qiziqishni kreativ metodlar orqali oshira oladi;

*Ochiq darslari o‘zgacha va energiyaga boy tarzda o‘tadi. Kuzatuvchi o‘qituvchilar bu metodlarni qayerdan o‘rganganini so‘rashi aniq, chunki, o‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yuqori darajaga yetadi. Bu albatta, kuzatuvchilarni hayratga soladi;

*Ota-onalardan samimiy xatlar kela boshlaydi. Kreativ o‘qituvchida passiv va o‘zlashtirishi sust o‘quvchilarda fanga va bilim olishga intilishni oshiradigan metodlar bor. Bu natija beradi va sizga ota-onalarda quvonch hamda minnatdorchilik kayfiyati shakllanadi;

*Yuqori natijalar sari qadamlar. Attestatsiya va darsini ommalashtirishda

Kreativ o‘qituvchilar doim oldinda bo‘lishadi. Shunday usullar borki, natijaviylikni bir necha barobar oshiradi. Yana shunday metodlar borki, o‘z faningiz doirasida ommalashtirish qila olasiz;

*Kasbiy va shaxsiy hayotda doimiy rivojlanish. Onlayn kurslar, kitob va maqolalar, o‘z fikrlash darajasidan yuqori insonlar bilan muloqot sizni rivojlantiradi. Kreativ o‘qituvchilar esa qanday kursda o‘qishni va qanday kitoblarni tanlab o‘qishni juda yaxshi bilishadi.

Darslarda ta’limiy o‘yin texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ta’limiy o‘yinlarning asosiy turlari: intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Darslarning samaradorligini oshirishda o‘yinlar yangi bilimlarni o‘zlashtirishdan tashqari, o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Sinfni ikki-to‘rt kishidan iborat guruhlarga ajrating va o‘quvchilardan ijtimoiy ko‘nikmalarga asoslangan skeytlarni namoyish qilishni so‘rang. Tengdoshlarning bosimi, bezorilar bilan muomala qilish yoki yangi sinfdosh bilan uchrashish kabi vaziyatlarni o‘ynash mumkin.

Darslardagi rolli o‘yinlar ham o‘quvchilarga adabiyotning nozik jihatlarini, personajlar yaratish san’atini tushunishga yordam beradi. Bolalar sinfda muhokama qilingan qahramonlar yordamida o‘qituvchi tomonidan yaratilgan stsenariylarni namoyish qilishlari mumkin. Shunday qilib, bolalar ma’lum bir vaziyatda ba’zi belgilar o‘zini qanday tutishi haqidagi talqinlarini namoyish etadilar.

Ta’limiy o‘yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa unda atrof – muhit, hayotga bo‘lgan qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ta’limiy o‘yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha, turlari bo‘yicha ajratiladi. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi. Ta’limiy o‘yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo‘lgan ta’lim –tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

Hozirda biz siz bilan 11-sinf tarbiya fanida Oilaviy qadriyatlar I bobidagi 3–4-mavzu: Dadıl qadamlar bılan katta hayot sarı mavzusini o‘qitishda “Rasmlar orasidagi bog‘liklik” medoti,“Tug‘ilgan kun” enerjayzeri asosida ko‘rib chiqamiz.

“Tug‘ilgan kun” enerjayzeri qo‘llash orqali sinf o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lib olamiz. Demak, so‘zlashmasdan, ovoz chiqarmasdan kalendar taqvimi asosida kun va oy ketma-ketligida o‘quvchilar o‘z o‘rinlarini egallashlari lozim

bo‘ladi. Har olti o‘quvchi bir guruhga birlashadilar.

Bunday metod sinfda ko‘tarinki hamda ishchanlik kayfiyatini yuzaga keltiradi.

So‘ng har bir guruh uchun o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yilgan rasmlar tarqatiladi. “Rasmlar orasidagi bog‘liklik” medoti asosida topshiriqlar beriladi. Topshiriq berish jarayonida albatta reglament belgilanishi va unga amal qilish tartibi eslatib o‘tiladi. Bu metod amaliy metod hisoblanadi.

1-topshiriq: Rasmlardan foydalangan holda mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar haqida gapirib bering

2-topshiriq: Komil inson bo‘lish uchun qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak? Javobingizni asoslang

Har bir guruh o‘zlariga berilgan suratlarni izohlab berishadi va rasmlar orasidagi bog‘liklik jihatlarini sanab o‘tadilar.

O‘quvchilarning fikr-mulohazalari o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va hulosa yasaladi.

Bu metod o‘quvchiga nima beradi ?

- o‘quvchilarda hayotiy k o‘nikmalarni shakllantirishga, ijodiylik va kreativlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi;

-vaziyatni tahlil qila olish, unda bog‘liklarni topa olish ko‘nikmasi shakllanadi;

-guruhlarda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi;

-og‘zaki nutqi rivojlanadi;

Bu metod o‘qituvchiga nima beradi ?

-dars samaradorligini oshiradi;

-mavzu o‘quvchilar xotirasida yorqin ranglarda, obrazli saqlanib qoladi;

-darsda ijodiy muhit yaratiladi;

-o‘quvchilarda XXI asr (kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritik va kreativ

fikrlash) ko‘nikmalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Mirziyoyev Sh.M. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.:-2016y. 29- dekabr.

Mirziyoyev Sh.M. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 30 sentyabrdagi PF5198-sonli Farmoni

D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov va boshqalar. 11-sinf tarbiya fani darsligi.Toshkent. RTM-2021

D.Xidoyatova. Samarali interaktiv metodlar 1.0. Toshkent.VNESHINVESTPROM-2023

KIMYO FANLARINI O‘QITISHDA IQTIDORLI O‘QUVCHI YOSHLAR BILAN ISHLASH

R.V.Tashmatova, I.X.Ro‘ziyev, Sh.I.Xasanov

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti

Annotasiya. Ushbu ish kimyo darslarida iqtidorli o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonini samarali tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqot a’lo o‘quvchilarning ta’lim ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlashga, ularni rag‘batlantirish va kimyo bo‘yicha akademik salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Ishda ta’limga individual yondashuvlar, turli ta’lim texnologiyalari va usullaridan foydalanish, shuningdek, iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida motivatsiya va ijodkorlikning o‘rni ko‘rib chiqilgan. Topilmalar kimyo bo‘yicha iste’dodni rivojlantirish uchun qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi muhit yaratishga intilayotgan o‘qituvchilar va ta’lim mutaxassislari uchun qimmatli tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: iqtidorli o‘quvchilar, o‘quv jarayoni, individual yondashuv, motivatsiya, ijodkorlik, akademik salohiyat, ta’lim texnologiyalari, iste’dodlarni rag‘batlantirish, ta’lim ehtiyojlarini rivojlantirish, samarali o‘qitish usullari, pedagogik tavsiyalar, iste’dodlarni rivojlantirish uchun muhit, o‘quvchilarning qiziqishlari, kasbiy trening.

Работа с одаренными учениками в преподавании химии

Аннотация. Данная работа посвящена вопросам эффективной организации образовательного процесса для одаренных учеников на уроках химии. Исследование фокусируется на выявлении особенностей учебных потребностей и интересов выдающихся учеников, а также разработке методов, направленных на их стимулирование и максимизацию их академического потенциала в области химии. В работе рассматриваются индивидуализированные подходы к обучению, использование разнообразных образовательных технологий и методов, а также роль мотивации и творчества в процессе обучения одаренных учеников. Полученные результаты предоставляют ценные рекомендации для педагогов и образовательных специалистов, стремящихся создать поддерживающую и стимулирующую среду для развития талантов в области химии.

Ключевые слова: одаренные ученик, образовательный процесс, индивидуализированный подход, мотивация, творчество, академический потенциал, образовательные технологии, стимулирование талантов, развитие учебных потребностей, эффективные методы обучения, педагогические рекомендации, среда для развития талантов, интересы учеников, профессиональное обучение.

Working with gifted students in teaching chemistry

Annotation. This work is devoted to the issues of effective organization of the educational process for gifted students in chemistry lessons. The research focuses on identifying the learning needs and interests of outstanding students and developing methods to stimulate them and maximize their academic potential in chemistry. The work examines individualized approaches to learning, the use of a variety of educational technologies and methods, as well as the role of motivation

and creativity in the process of teaching gifted students. The findings provide valuable recommendations for educators and educational professionals seeking to create a supportive and stimulating environment for the development of chemistry talent.

Keywords: gifted students, educational process, individualized approach, motivation, creativity, academic potential, educational technologies, stimulation of talents, development of educational needs, effective teaching methods, pedagogical recommendations, environment for the development of talents, interests of students, vocational training.

Respublikamiz hukumatining ta’lim jarayoniga qaratilgan, uning sifatini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlashni maktab davridan boshlash muhimligini qayta-qayta ta’kidlab, o‘tilayotgan qator qarorlar bugungi kunda o‘z mevasini bera boshladi. Bunda ayniqsa, iqtidorli o‘quvchilarni maktabda o‘qitayotgan paytidayoq tanlash va ularni iqtidoriga qarab ma’lum mutaxassislik yoki kasbga qiziqishini oshirish o‘z qobilyatini namoyon qilishga imkon yaratish, turli qo‘shimcha adabiyotlar bilan ta’minlash, kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanishga e’tibor berilmog‘i lozim [1]. Shunda o‘quvchi maktabning 9-sinfini tugatgach o‘ziga ma’lum bo‘lgan maxsus litsey yoki texnikumlarda o‘qishni davom ettiradi va eng muhimi o‘z kelajagining yo‘nalishini to‘g‘ri tanlay oladi.

Zamonaviy o‘quv jarayonida iqtidorli o‘quvchilarni, jumladan, kimyo kabi tabiiy fanlar bo‘yicha aniqlash va rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [2]. Mazkur fanni o‘qitishda iqtidorli yoshlar bilan ishlash alohida e’tibor va o‘quvchilarning salohiyatini oshirishga qaratilgan yondashuvni talab etadi. Keling, ushbu masalaning bir nechta muhim jihatlarini ko‘rib chiqaylik.

Ta’limga differentsial yondashuv:

Iqtidorli talabalar ko‘pincha o‘rganish tezligi va mavzuni chuqurroq tushunishadi. Kimyo o‘qituvchilari qo‘shimcha topshiriqlar, murakkabroq laboratoriya mashg‘ulotlari va chuqurlashtirilgan mustaqil o‘rganish mavzularini berish orqali tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanishlari kerak. Bu ularning ijodiy fikrlash va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Laboratoriya tadqiqotlari:

Iqtidorli talabalarning kimyo faniga qiziqishini oshirish uchun murakkab va qiziqarli laboratoriya ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘z tajribalaringizni yaratish, nostandart reaktsiyalarni o‘rganish va kimyo musobaqalarida ishtirok etishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday tadbirlar nafaqat amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki tanqidiy fikrlashni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ilmiy loyihalar va tanlovlar:

Iqtidorli talabalar ko‘pincha ilmiy tadqiqotlarga qiziqish bildiradilar. Kimyoviy tanlovlar va ilmiy loyihalarda ishtirok etish ularga o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash, shuningdek, hamfikrlar bilan muloqot qilish imkonini beradi. O‘qituvchilar bunday loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishda yordam berishi mumkin, bu esa talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’limni individuallashtirish:

Iqtidorli yoshlar bilan ishlashning muhim elementi ta’lim jarayonini

individuallashtirishdir. O‘qituvchilar har bir o‘quvchining shaxsiy talab va qiziqishlarini hisobga olishi, kimyo fanidan mustaqil o‘qishi, iqtidorini rivojlantirishi uchun sharoit yaratishi shart.

Qo‘llab-quvvatlash:

Iqtidorli talabalarga tajribali ustozlar va kimyo mutaxassislari bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratib, ular bilan yaqin munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mentorlik yordami martaba rejalarini ishlab chiqishni osonlashtiradi va talabalarga ushbu fan bo‘yicha qanday imkoniyatlar ochiq ekanligini tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, kimyo o‘qitishda iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimli va moslashuvchan yondashuvni talab qiladi. Rag‘batlantiruvchi va intellektual jihatdan boy ta’lim muhitini yaratish iqtidorli o‘quvchilarning salohiyatini ochib beradi va ularda kimyoga uzoq muddatli ishtiyoqni rivojlantirishga ilhomlantiradi.

Viloyatlarning ba’zi uzoq tumandagi maktablar markazlardan ancha olisda joylashgan bo‘lib, o‘quvchilarimizning xuddi markazdagi maktablari va litseylari o‘quvchi-talabalari kabi oliy ma’lumotli mutahassislar tayyorlaydigan dargohlar bilan doim aloqada bo‘lishlari yuqori malakali dotsentlar, professorlar bilan muloqatlarda bo‘lishi, ishlab chiqarish korxonalariga borib jarayonni kuzatishlari birmuncha qiyinchiliklarni tug‘diradi [3-6]. Lekin maktablarda ham xuddi shu shahar litseylaridagi kabi zamonaviy o‘quv bazasiga ega bo‘lgan kimyo laboratoriyalari mavjud. Kimyo fanini o‘qitishda nazariy olgan bilimlarini o‘quvchilarimiz amaliy laboratoriya ishlari bilan mustahkamlashlariga juda katta e’tibor berishimiz zarur.

Kimyo faniga qiziqish yuqori bo‘lgan o‘quvchilarimiz uchun alohida guruhlar tashkil qilishning imkoniyati mavjud bo‘lmagani uchun haftaning ma’lum kunlari iqtidorli o‘quvchilar uchun qo‘shimcha darslar ayniqsa, kimyodan masalalar yechish darslari va laboratoriya ishlari tashkil qilingan. Kimyo darsliklaridan berilgan turli jarayonlarini kompyuterlarda turli dasturlar asosida tayyorlangan virtual laboratoriya va ovozli animatsiyalardan foydalanib kuzatish imkoniyati mavjud. Kimyo masalalarini tanlash turli masalalar to‘plamlaridan, Rossiya, Polsha, Ruminiya olimpiadalari masalalaridan, har yili tuman, Viloyat va Respublika olimpiadalarida qo‘llanilayotgan turli masalalardan foydalanamiz . Bundan tashqari iste’dodli o‘quvchilarimiz ishtirokida turli kimyo kechalari tashkil qilinadi. Kimyo kechalari ko‘pchilik o‘quvchi-yoshlarni kimyoga qiziqishini oshirish maqsadida maktabmizning majlislar zalida ko‘pchlik tomoshabinlar ishtirokida o‘tkaziladi.

Kimyoda har hil qiziqarli savol- javoblar tarzidagi viktorinalar va tomoshabinlarni ham hayratga soladigan qiziqarli kimyo tajribalari o‘tkaziladi. Tajribalarni tanlashda turli davrlarda chop etilgan “Qiziqarli kimyo” kitoblaridan foydalaniladi. O‘tkazilgan har bir shunday kimyo kechalaridan keyin qo‘shimcha darslarimizda qatnashishni xohlovchi, kimyo faniga qiziqishini e’tirof etuvchi o‘quvchilar soni yanada ko‘payib qoladi. Shunday paytlarda oldindan darslarimizga qatnashib kelayotgan o‘quvchilarimiz ishtirokida qiziquvchilarni tanlov asosida klubimizga qabul uyushtiramiz. Ularga turli topshiriqlar, ya’ni testlar va yengil yechimli masalalar beramiz va ana shu sinovlardan o‘tgan o‘quvchilarni guruhimiz a’zosi sifatida qabul qilamiz.

Istedodli o‘quvchilarimiz orasida esa yana bir tadbir o‘tkazib turamiz-ki, bu ham foydadan holi emas. O‘quvchilar orasida kichik olimpiadalar tashkil etilib, ularga xuddi viloyat yoki Respublika olimpiadalari shartlarida beriladigan murakkab masalalar yechish, yigirma beshtadan testlar yechish va laboratoriya-amaliy ishlarini bajarish shartlari qo‘yiladi. Yil davomida tanlovlardan yuqori ball to‘plagan o‘quvchilar esa tuman olimpiadasida qatnashish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. O‘tkazilayotgan shunday tartibdagi kichik olimpiadalar keyingi yillarda o‘z samarasini bera boshladi. Tuman, viloyat bosqichlarida bizning maktabimiz o‘quvchilari oldingi o‘rinlarni olishga sazovor bo‘lmoqdalar. . Keyingi yillarda ham o‘quvchilarimiz tuman olimpiadalarida doimiy ravishda oldingi o‘rinlarni egallab, viloyat olimpiadalarida faol ishtirok etib kelmoqdalar. Biz esa o‘zimiz tanlagan o‘quv jarayonimiz yuqori samara berayotganidan qoniqish hosil qilmoqdamiz.

Maqolani yakunlashda biz kimyo o‘qitish jarayonida iqtidorli yoshlarga individual yondashish muhimligiga e’tibor qaratamiz. Bu guruh o‘quvchilari bilan ishlash o‘qituvchidan nafaqat chuqur bilimga ega bo‘lishni, balki o‘qitish usulida moslashuvchanlikni ham talab qiladi. Samarali strategiyalar rag‘batlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish, interfaol usullardan foydalanish va mustaqil izlanishni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi.

Iqtidorli talabalar fan va texnologiya rivojiga muhim hissa qo‘shadilar va o‘z iste’dodlarini kimyoviy tadqiqotlarga to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyati ushbu guruh bilan muvaffaqiyatli ishlashning asosiy jihati hisoblanadi. Ularning ijodiy tafakkurini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish kimyo va tegishli fanlar bo‘yicha kelajak yetakchilarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning o‘quv jarayonini to‘g‘ri baholash va qo‘llab-quvvatlash o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga va ilmiy jamiyatga katta hissa qo‘shishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruziev I. X. et al. APPLICATION OF DIDACTIC BUSINESS GAMES IN CHEMISTRY LESSONS THEIR //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 02. – С. 166-171.
2. Kh R. I. et al. USE OF CHEMICAL EXPERIMENTS IN TEACHING ORGANIC CHEMISTRY IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – Т. 24. – С. 1-4.
3. Musurmonov R. Musurmonova M. Umumiy o„rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xucusida. “Xalq ta‟limi” j. T:. 2021. № 2б 20-23.
4. Jabborova Onakhon Mannapovna. (2019). Psycholocial and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 9- 14.
5. Jabborova Onakhon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Mukhiddinovna. (2020, may). Optimation of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.
6. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M.. Objectives of the lessons of visual arts in primary school. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862- 870.

РОЛЬ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Расулова Санобар Маматкуловна
старший преподаватель дошкольного, начального и специального образования Кашкадарьинской области НЦПУНМ

Аннотация

В данной статье даны рассуждения о роли, значении, о дидактических играх на уроках математики.

Ключевые слова: роль,игра, дидактика, учёба.

Annotatsiya

Ushbu maqolada matematika darslarining o‘rni, mazmuni va didaktik o‘yinlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: rol, o‘yin, didaktika, o‘rganish.

Annotation

This article provides discussions about the role, meaning, and didactic games in mathematics lessons.

Key words: role, game, didactics, study.

Роль дидактической игры в процессе обучения является актуальной в связи с противоречиями между требованиями методики преподавания математики в начальной школе и возрастными особенностями усвоения материала детьми младшего школьного возраста.

В школьном возрасте игра является ведущей деятельностью ребенка. В ней происходит развитие важнейших психических новообразований. Через игру дети познают окружающий мир, получают знания о различных предметах и явлениях, овладевают речью в общении с другими людьми.

С приходом ребенка в школу изменяется его социальная позиция. Теперь его основное занятие – учеба. В начальной школе необходимо заложить у учащихся основы учебной деятельности. Однако этот процесс осложняется возрастными особенностями младших школьников: слабой переключаемостью внимания, его неустойчивостью, непроизвольностью памяти и мышления. Для преодоления этих особенностей учебная деятельность младшего школьника должна быть пронизана игровыми моментами. Именно в игре дети чаще проявляют активность, находчивость, сообразительность, инициативу и смекалку.

Игра – это средство, снимающее неприятные для личности ребенка переживания. Поэтому учение должно быть организовано таким образом, чтобы оно выступало как свободная форма активности учащихся. Такой формой, уже освоенной младшими школьниками, является игра.

Многие учителя считают игру панацеей для психического развития ребенка. Ей приписывают самые разнообразные функции, как чисто образовательные, так и воспитательные. Но дидактические игры не могут быть постоянными для детей различного возраста. При их отборе педагогу необходимо учитывать, как ребенок усваивает новые знания. Возрастные особенности школьников предполагают формирование содержания игры.

На уроках математики мы очень часто используем различные дидактические игры. Для младших школьников учение – новое и непривычное дело. Именно игра способствует снятию барьера между “внешним миром знания” и психикой ребенка. Игровое действие позволяет осваивать то, что заранее вызывает у младшего школьника страх неизвестности, что мешает свободному усвоению знаний. У детей еще не сформирована установка на выполнение учебной работы. Поэтому основным видом дидактических игр, используемых на уроках математики, являются те, которые формируют устойчивый интерес к учению и снимают напряжение, которое возникает во время урока.

Интерес к играм, к решению задач, требующих напряжение мысли, появляется не всегда и не у всех детей сразу. Предлагать игры надо постепенно, не оказывая давления на детей. Природа игры такова, что при отсутствии абсолютной добровольности, она перестает быть игрой. Игрой можно увлечь, заставить играть нельзя. Нужно соблюдать принцип от простого к сложному. Но когда ребенку удается осилить задание с помощью игры, преодолеть первые трудности, он испытывает большую радость и готов прейти к более сложной игре. У него появляется вера в свои силы, развивается умственный «аппетит», а это значит, что цель достигнута. Чтобы развить ум, надо овладеть логическими приемами мышления. Этому способствует игра. Игра оказывает большую роль в учебном процессе, так как соответствует активной природе младшего школьника.

Проведение игры требует от учителя большого мастерства, такта, терпения. Он должен доступно изложить сюжет, распределить роли, поставить перед детьми познавательную задачу, подготовить необходимое оборудование ,сделать нужные записи на доске.

В игре должен участвовать каждый ученик класса. Если у доски работает несколько учащихся, то все остальные должны выполнять роль контролеров, судей, учителя, используя при этом средства обратной связи.

Если игра используется при объяснении нового материала, то в ней должны быть продуманы практические действия детей с группами предметов или рисунков.

При закреплении материала нужно использовать игры, где применяются математические законы и вычислительные навыки.

В большинство игр полезно вносить элементы соревнования, что так же повышает активность детей в процессе обучения.

При подведении итогов соревнования следует обращать внимание на дружную работу участников команд.

Учитель должен отнестись с большим тактом к детям, допустившим ошибки. Чтобы не нарушать впечатления от игры, ошибки учащихся нужно анализировать не по ходу игры, а в конце.

Математика – один из наиболее трудных учебных предметов, но включение дидактических игр и упражнений позволяет чаще менять виды деятельности и на уроке, и это создает условия для повышения эмоционального отношения к содержанию учебного материала, обеспечивает

его доступность и осознанность.

Сказка «Теремок»

Всем кто просится пожить в домике, дается задание: взобраться по числовой лесенке, составить примеры с ответом 2, 2, 4, 5. Дети помогают всем, потому что хотят, чтобы все жили дружно под одной крышей

Использование игры, как метод обучения, не означает, что нужно постоянно играть. Нет, необходимо разнообразить форму урока.

Иногда можно провести урок, вводя элементы игры по принятой методике, можно провести урок – играя.

Урок – путешествие

Так, в один из дней ребята отправились на паруснике в морское путешествие. Во время этого путешествия работали над числовым рядом, соотносили картинку с числом, готовились к решению задач. Но что это? Впереди показались пираты. Чтобы их победить надо решить примеры. Решили примеры, отправились дальше. Затем побывали на острове Робинзона Крузо. Выполнили его занимательные задания и довольные вернулись домой.

Как показала практика, на этих уроках отмечается большая активность работы учащихся. Причем работают все: и сильные ученики, воспринимающие все легко, без напряжения, и слабые, которым учеба даётся с большим трудом. Глаза детишек загораются. Поднимается лес рук. И просто удивляешься в эти минуты, куда девается их стеснительность, неуверенность в себе, в своих знаниях, робость. В эти минуты им кажется, что они все могут, все умеют.

Введение в урок игр, игровых упражнений и ситуаций позволяет свести до минимума утомляемость и напряжение ребенка, в течение всего урока поддерживать его внимание. Недаром говорят: «Шутка минутка, а заряжает на час».

Игры на уроках способствуют быстрому выполнению заданий, развивают и повышают интерес к предмету. Изучение табличного умножения и соответствующих случаев деления – центральная тема курса математики в 3 классе. Знанию таблицы умножения всегда придавали большое значение.

Для формирования у учащихся прочных навыков табличного умножения и деления можно использовать такие игры как: «Составь слово», «Математический диктант», «Делится - не делится», «Игра с мячом», «Составь пример», «Проверь незнайку» и другие.

Любимая детьми игра «**Проверь Незнайку**». К доске прикрепляется рисунок Незнайки, и тут же записывается несколько примеров с решениями. Некоторые из них /один – два примера/ решены с ошибками. Учитель показывает на какой-либо пример, ученики проверяют. Если пример решен верно – в классе полная тишина. Если решение неправильное – дети хлопают в ладоши.

Интересная и другая игра «**Живая математика**». У учащихся находятся карточки с цифрами от 0 до 9. Учитель читает пример /3×2/. Встает тот ученик, у которого карточка с цифрой 6. Лучше всего давать примеры на деление, так как в ответах получаются однозначные числа. Если в ответах двухзначное

число, то его показывают двое учеников. Проводить игру желательно в конце урока, так как она требует двигательной активности.

Список изученной литературы

1. Алабина Р. «Игра – веление времени.
2. Вальтрова Ж. «Играем на уроках математики»
3. Вапняр Н.Ф. «Использование математических игр на уроке»
4. Жиколкина Т.К. «Игровые и занимательные задания на математике»

O‘QISH DARSLARIDA BADIIY ASARNI TAHLIL QILISH ORQALI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA TOPSHIRIQ.

Azizova Dilnoz Yo‘ldashevna
Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish PIRLS tadqiqotlarining ta’lim–tarbiya jarayoni sifatiga hamda o‘quvchining o‘qish savodxonligi va badiiy asarlarda bo‘lgan ijobiy ta’siri haqidagi ayrim mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, tadqiqotlar, PIRLS topshiriqlari, kitob o‘qish, badiiy asar, ta’lim sifati, matn o‘qish, axborot, o‘quvchi.

Annotation

In this article, some comments about the positive impact of PIRLS research on the quality of the educational process and the student’s reading literacy and artistic works are given.

Keywords: PIRLS, research, PIRLS assignments, reading, fiction, quality of education, reading, information, reader.

Аннотация

В данной статье даются некоторые комментарии о положительном влиянии исследований PIRLS на качество образовательного процесса и читательскую грамотность и художественные произведения учащихся.

Ключевые слова: PIRLS, исследование, задания PIRLS, чтение, художественная литература, качество образования, чтение, информация, читатель.

KIRISH

Ayni paytda butun dunyo hamjamiyati ta’lim sifati samaradorligini oshirish masalasiga e’tibor qaratgan . Ta’lim sifatining bosh ko‘rsatkichi bilim oluvchining natijasidandir. Bilim bevosita o‘qish ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonda kitob o‘qish va uni tushunish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yangi asr

ostonasida dunyo ta’limining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan umumiyo‘rta ta’limni rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Bu baholash tizimi o‘quvchilarning bilim olishlarini oshirishga katta yordam berdi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori bilan Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida. Quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish

belgilandi: Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

“O‘qish savodxonligi” atamasi o‘qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o‘qish”ni anglatadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o‘z fikrini bayon eta olishi zarur.O‘quvchilarga turli matnlar taqdim etiladi: badiiy asarlardan parchalar, biografiyalar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yo‘riqnomalar, reklama e’lonlari, geografik kartalar va boshqalar. Ularda axborot turli ko‘rinishlarda aks etadi: diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma va hokazolar.

PIRLS - bu turli ta’lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir. Turli davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish sifati va matnni tushunish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodlaridir.

PIRLS - tadqiqotida 57 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o‘xshab, o‘quvchilar, maktab ma’muriyati va o‘qituvchilari orasida qo‘shimcha so‘rovnomalar o‘tkazadi va fan sohasida to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi.

PIRLS tadqiqotlari 2001 yildan boshlab besh yil oralig‘ida boshlang‘ich ta’lim miqyosida o‘tkazib kelinmoqda. U xalqaro tadqiqotlar orasida yuqori o‘ringa ega. Bu dasturga kiruvchi davlatlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. 2001 yildan boshlab 5 marta o‘tkazildi. PIRLS tadqiqotlari 2016 yilda o‘tkazildi. Oxirgi PIRLS tadqiqotlari 2021 yilda o‘tkazildi Shu davrgacha 35 dan 57 gacha bo‘lgan davlatlar ishtirok etishdi. . Oxirgi PIRLS tadqiqotlarida O‘zbekiston ham ishtikok etdi. 57ta davlatlar ishtirok 49- o‘rinda turibmiz .

PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta’lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarning 4-sinf bituvchilarining o‘qish sifati va o‘qilgan matnni tushunish darajasi o‘rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e’tiborliki, aynan o‘qishning to‘rtinchi yilida o‘quvchilar o‘qishning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, ularning keyingi ta’limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida darsda o‘quvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning quyidagi ikki turi o‘rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish.

2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qish. Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qishda o‘qish ko‘nikmalarining quyidagi to‘rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko‘rinishda berilgan ma’lumotni topa olish.

2. Xulosalarni shakllantirish.

3. Ma’lumotlarni umumlashtira olish.

4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

O‘quvchilar matnni o‘qishlari va savollarga javob berishlari lozim. Bunda ba’zi topshiriqlar tavsiya etilgan variantlardan birini tanlashni nazarda tutsa, boshqalari esa mustaqil javob berishni talab etadi.

Tadqiqotda boshlang‘ich sinf bitiruvchilari ishtirok etadi. Aynan shu davrda o‘quvchilarning o‘qish va matn ustida ishlash malakalari shu darajada rivojlanadiki, bu yuqori sinflardagi ta’limning samarali bo‘lishiga zamin yaratadi.

Turli mamalakatlarning maktab dasturlari bir-biridan tubdan farq qilishi hammaga ayon. Shuning uchun turli davlatlardan olingan natijalar o‘zaro taqqoslana oladigan darajada bo‘lishini ta’minlash bunday tadqiqot o‘tkazuvchi tashkilotchilarning muhim vazifalaridan biridir.

Masalan, ko‘pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o‘qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta’lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas 5-sinfdan o‘quvchilar ishtirok etishadi. O‘qish va matnni tushunish sifati tekshiriladigan o‘quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o‘qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o‘quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi.

PIRLS-2001 o‘tkazilgan birinchi tadqiqotda Rossiya davlati 35 mamlakatlar ichida 16-o‘rinni egallagan. 2017 yilning oxirida PIRLS-2016 yilning oxirgi tadqiqotlar natijasi e’lon qilindi. Unda Rossiya davlati birinchi o‘rinni egalladi.

Matnni o‘qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo‘yicha topshiriqlardan namunalar:

KITOBLAR MAZMUNI

Qadim zamonda bir shahzoda bo‘lgan ekan. Unga otasidan katta kutubxona meros bo‘lib qolgan ekan.Shahzoda ilmga chanqoq bo‘lgani uchun kitoblarda nimalar yozilganini bilmoqchi bo‘lib, shu kutubxonaning xodimi bo‘lgan olimni chaqiribdi va:”Bu kitoblar nima haqida?” deb so‘rabdi. Olim: ”Bu kitoblarda insoniyat tarixi bitilgan”, debdi.Shunda shahzoda olimga mana su kitoblarda yozilgan ma’lumotlarni jamlab kelishni buyuribdi. Olim bir necha yillar mehnat qilibdi.Bir kuni saroyga 500 kitob ortilgan aravani olib kirishibdi.Olim kutubxonadagi kitoblar mazmunini mana shu 500 kitobga joylashtirgan ekan. Shahzoda bu paytda ancha ulg‘ayib qolgan ekan.Saroydagi ishlarning ko‘pligidan bu kitoblarni o‘qib chiqishga fursati yetmasligini anglabdi va shu 500 kitob mazmunini jamlab kelishni buyuribdi.Olim yana bir necha yillar mehnat qilib,shohning huzuriga 50 ta kitob olib kelibdi. Bu paytga kelib, shoh ancha qarib

qolgani sababli ushbu kitoblarni o‘qib chiqishga fursati yetmasligini anglab, mana shu 50 ta kitob mazmunini bitta kitobga jamlab kelishni buyuribdi.Olim yana bir necha yil mehnat qilib shohning buyrug‘ini bajaribdi. Lekin bu paytda shoh o‘lim to‘shagida yotgan ekan. Kitobni hatto ochib qaray olmabdi. Shunda olimga kitobning mazmunini qisqa qilib aytib berishini iltimos qilibdi. Olim unga: “Inson dunyoga yaxshilik qilish uchun kelar ekan”,debdi.

MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

Kitoblar mazmuni

1.Shahzodaga otasidan nima meros bo‘lib qolibdi?

To‘g‘ri javob-5 ball

A. Oltin to‘la xazina

B.Kitoblar

C. Katta yer maydoni

D.Katta kutubxona

2.Kutubxona xodimini chaqirib nimani so‘radi?

To‘g‘ri javob-5ball

A.Kitoblarni keltirishni

B.Bu kitoblar nima haqidaligini

C.Kutubxonani kichraytirishni

D.Kitoblarni sotishni

3.Shahzoda kutubxona xodimi bo‘lgan olimdan bu kitoblar nima haqidaligini so‘raganida olim nima deb javob berdi?

To‘g‘ri javob- 10 ball

A.Bu kitoblarda insoniyat tarixi bitilgan

B.Bu kitoblarda dunyo tarixi bitilgan

C.Shahzodalar haqida qiziqarli hikoyalar bitilgan

D.Ibratli doston va g‘azallar bitilgan

4.Olim keltirgan 500 ta kitob qanday kitoblar edi?

To‘g‘ri javob-5ball

A.Eng sara kitoblar edi

B.Keraksiz kitoblar edi

C.Kutubxonadagi barcha kitoblar mazmuni jamlangan kitoblar

D.O‘zi ijod qilib yozgan asarlari

5.Podshoh 500 ta kitobni nima uchun o‘qimadi?

To‘g‘ri javob-5ball

A.Saroydagi ishlarni ko‘pligidan

B.O‘qishga eringanidan
C.Savodi yo‘qligidan
D.Sog‘lig‘i yomonligidan
6.500 ta kitob mazmunini olim nechta kitobda jamladi?
To‘g‘ri javob -10ball

_____
_____

7.500 ta kitob mazmuni jamlangan ellik kitobni podshoh nimaga o‘qimadi?
To‘g‘ri javob -5ball
A.Ko‘zlari xiralashib qolganligi sababli
B.Qarib qolgani uchun o‘qishga fursatim yetmaydi deb
C.Saroyda ishlari ko‘pligidan
D.O‘lim to‘shagida yotgan edi
8.50 ta kitob mazmuni nechta kitobda jamlandi?
To‘gri javob-5ball
A.ikkita kitobda
B.uchta kitobda
C.to‘rtta kitobda
D.bitta kitobda
9.Kutubxonadagi barcha kitoblar mazmunini bitta kitobda jamlab kelganda ham podshoh uni o‘qimadi,nima uchun?
To‘g‘ri javob-5ball
A.Ko‘zlari xiralashganligi uchun
B.Qarib qolganman,endi menga qizig‘I yo‘q deb o‘yladi
C.O‘lim to‘shagida yotgan edi.
D.Safarga ketayotgan edi
10.O‘lim to‘shagida yotgan shoh olimdan kitobning mazmunini qisqa qilib aytib berishini so‘raydi.Olimning javobini yozing.
To‘g‘ri javob-10ball

_____
_____

11.Rivoyatda insonning qaysi fazilati ulug‘langan?Siz qanday xulosa chiqardingiz.
To‘gri javob – 15 ball

_____

12.Kitob va bilim haqida maqollar yozing. To‘gri javob - 10 ball

13.Sizning kitob haqidagi fikrlaringiz .
To‘g‘ri javob - 10 ball

_____
_____

Xullas, O‘qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda turli

ko‘rinishda va usulda ishlash talab etiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini noan’naviy usullardan kichik guruhlarda ishlash, o‘yin shaklida o‘tkazish, yangi texnologiyalar yordamida guruhlar bilan ishlash, dars samaradorligini yanada oshirib, o‘quvchilarning faolligi va qiziqishlarini, umuman badiiy, turli janrdagi asarlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni o‘sishiga xizmat qiladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan asar tahlili ustida turli ko‘rinishda va usulda ishlash talab etiladi. Bunday ish turlari o‘quvchilarni asarni to‘la idrok etish va mazmunini tushunib yetishlarini ta’minlaydi.

O‘qituvchi sinf sharoiti va o‘zidagi imkoniyatlarga asoslanib o‘qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarga tushuntirish usullarini belgilashi lozim.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2.O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnomasining 3-soni .–Toshkent, 2021-yil.– 140 b.

3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) —SHARQ nashriyoti. Toshkent – 2019

4. “Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash” metodik qo‘llanma —SHARQ nashriyoti. Toshkent –2020 –yil fevral.

Xalq ta’limi sohasida axboroit-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Markazi: www.edu.uz.

www.multimedia.uz

www.ziyonet.uz

BOSHLANG‘ICH SINFLARGA BADIIY MATNLARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL USUL VA METODLARDAN FOYDALANISH

Umaraliyeva Iroda Qudrat qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilib, o‘quvchilarga badiiy matnlarni o‘rgatishda bir nechta samarador metodlar tavsiya qilingan.

KALIT SO‘ZLAR: interfaol metodlar, ifodali o‘qish, ongli o‘qish,interaktiv usullar: yakka o‘quvchi faoliyati, student+student faoliyati, sinf jamoasi faoliyati, interaktiv o‘yin faoliyati, Aqliy hujum, muammoli vaziyat, “Bingo”, ”O‘zing davom ettir” o‘yini.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING FICTION TEXTS TO PRIMARY CLASSES

ABSTRACT. The article discusses the importance of using interactive methods in reading lessson of primary school , and recommends several effective methods for teaching fiction texts to pupils.

KEY WORDS: interactive methods, expressive reading, conscious reading, interactive methods: individual student activities , student pair activities, student group activities, interactive game activities, brainstorming, problem situation, “Bingo” ,”Continue yourself” game.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается важность использования интерактивных методов на занятиях по читательской грамоте в начальной школе, а также рекомендуются несколько эффективных методов обучения учащихся художественным текстам.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: интерактивные методы, выразительное чтение, осознанное чтение, интерактивные методы: индивидуальная деятельность учащихся, деятельность учащихся+учеников, коллективная деятельность класса, интерактивная игровая деятельность, мозговой штурм, проблемная ситуация, игра “Бинго”, игра “Продолжай сам”.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ulkan yutuqlarga qanday erishganligi tahlil qilinadigan bo‘lsa, bosh omil sifatida sifatli ta’lim tizimining yaratilganligi masalasi kelib chiqmoqda. Negaki ta’lim tizimi barcha sohalarga kadrlarni yetkazib berish va ularning malakasini oshirish kabi asosiy vazifa bilan shug‘ullanadi.Shu bois yurtimizda amal qilinayotgan “O‘zbekiston -2030” strategiyasida ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish pirovard maqsadlardan biri[1] sifatida belgilandi. Ta’lim samaradorligini oshirish va yosh avlodga jahon talablari darajasida bilim berish borasida pedagog kadrlarning mas’uliyati ortadi. Ular o‘z ustida muntazam ishlashlari, jahon tajribalarini o‘rgangan holda darslarni interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanib o‘tishlari maqsadga muvofiq.Interfaol metodlar o‘qituvchi va o‘quvchida birdek faollikni uyg‘otib, ta’lim jarayonida erkin

ijodiy muhitni yaratishga yordam beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda ulardan samarali foydalanish mustaqil fikrlay oladigan va uni erkin yetkazib bera oladigan shaxs tarbiyalashga asos bo‘la oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darsliklari, asosan, ertak ,hikoya, matn va masallardan iborat bo‘lganligi sababli o‘quvchilarning o‘qish sifatlarini rivojlantirish muhim sanaladi.Berilgan hikoya yoki matnni qanchalik ongli , to‘g‘ri va ifodali o‘qilishi uning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini shunchalik osonlashtiradi. Ongli o‘qish o‘qilgan matnning mazmunini va asardagi yetakchi qarashlarni anglash, undagi muhim bilan nomuhimni farqlash, asardagi voqea – hodisalarga o‘z munosabatini ifoda eta olish bo‘lsa, ifodali o‘qish badiiy- obrazli matnning xususiyatlarini anglagan holda adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilib o‘qish demakdir.[2] Bu maqsadga erishishda xilma-xil interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish mumkin. Belgiyalik yosh pedagog olim Ruben Knapen bu masalada quyidagi interktiv usullarni tavsiya qiladi:

1.Yakka o‘quvchi faoliyati.

2.O‘quvchi+o‘quvchi faoliyati.

3.Sinf jamoasi faoliyati.

4.Interaktiv o‘yin faoliyati.

Birinchi usul o‘quvchi bilan individual ishlash imkoniyatini yaratib, uni mustaqil fikrini bayon etishga , xotirasini ishga solishga undaydi. Zomin tumani 20-umumta’lim maktabi 3-sinf jamoasi bilan “O‘qish savodxonligi”(2-qism) darsligida berilgan “Ustoz va shogird uchrashuvi” rivoyatida bu usuldan foydalangan holda, “Aqliy hujum metodi” ni qo‘llab ko‘rdik.Bunda o‘quvchilarning ma’lumotlarni eslab qolish ko‘rsatkichi 80%ga yaqin natijani ko‘rsatdi. Sinf jamoasidagi eng a’lochi o‘quvchilar berilgan 10ta savoldan barchasiga, past o‘zlashtiruvchilar esa 5-6 tasiga bemalol javob bera oldilar.

O‘quvchi-o‘quvchi interfaol usuli ham ancha samarador ekanligi aniqlangan bo‘lib , bunda o‘quvchilar o‘zaro fikr almashinib, fikrlarini asoslashni o‘rganadilar.”Muammoli vaziyat” metodidan bu jarayonda bemalol foydalanish mumkin. Sinf jamoasi o‘rtasiga biror bir muammoli vaziyat qo‘yilib,ularga o‘quvchilar o‘zlarining yechim va takliflarini beradilar. Ba’zilari bir xil fikrlasalar,boshqalari uni yoqlamasliklari mumkin. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini asoslab berishi zarur bo‘ladi.

Interaktiv o‘yin faoliyatida esa boshqalaridan ko‘ra ko‘proq qiziqarliroq bo‘lib,o‘quvchilarni tez jalb qila oladi. Bunda “Boshqotirma”,”Bingo”, “O‘zing davom ettir” o‘yinlaridan biridan foydalanishni tavsiya qilamiz. Interfaol o‘yinlarda bitta o‘yin orqali darsning bir necha maqsadlariga erishish mumkinligi vaqt tejamkorligi va yuqori sifatni ta’minlaydi. Lekin bu o‘yinlarni tanlashda quyidagi talablarga e’tibor qaratish lozim:

1. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi;

2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo‘lishi;

3.Ta’limiy o‘yinlarning maqsadi, ahamiyati va o‘tkazish vaqti aniq belgilanishi;

4. Ta’limiy o‘yinlar ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi.

Yuqoridagi talablarga rioya qilingan holda interfaol metodlardan foydalanib

dars o‘tish va ularni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘quvchilarga namoyish etish ta’lim samaradorligini bir necha barobarga oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari. Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, topshiriqlarni faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham bajara olishi zarur. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yangi metodlarni axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonlariga tadbiq etishi maqsadga muvofiq sanaladi. Natijada o‘quvchilar kompyuter bilan ishlashda dastlabki ko‘nikmalarni oladilar, o‘zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirib boradilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta’lim- tarbiya sifatini kafolatlaydi. Bu jarayonni boshlang‘ich sinflardayoq tadbiq etish o‘quvchilarda zamonaviy va kreativ fikrlashni shaklllantirishga asos bo‘ladi. “O‘qish savodxonligi” darsligida keltirilgan badiiy asarlarni o‘rgatish darslari yuqorida sanab o‘tilgan samarador metodlar va usullar foydalangan holda o‘tilishi kelajakda jamiyatimizga jismonan va ma’nan sog‘lom , erkin fikrlaydigan, hayotda o‘rni va qadriga ega bo‘lgan mustaqil shaxslarni yetkazib beradi. Chunki o‘quvchilarning ma’naviy olamini shakllantirishda badiiy asrlarning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.”O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, PF-158-son, 11.09.2023.

2. U.B.Aydarova,N.K.Azizova,M.E.Toirova.”O‘qish savodxonligi” darslik(3-sinf,

2-qism).Toshkent:” Novda Edutainment”,2023.

3.Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoliddinova. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. –T: Innovatsiya-ziyo, 2020

4.Yo‘ldashev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T:Fan va texnologiya,-2008.

5.http://www.bookwidgets.com/blog/2018/06/20-interactive-teaching.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA KREATIV VA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

Bekdurdiyev Zufarbek Shodlik o‘g‘li
Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tuman ixtisoslashtirilgan maktabning matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar, turli xil samarali metodlardan foydalanish, darslarni asosan amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lagan holda olib borish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Matematika, zamonaviy metodlar, xalqaro baholash.

Аннотация. В данной статье говорится об использовании новых педагогических технологий, различных эффективных методов в преподавании математики, проведении уроков преимущественно в сочетании с практическими занятиями.

Ключевые слова: Математика, современные методы, международное оценивание.

Annotation. According to this article, new pedagogical technologies are being used to teach mathematics in various effective ways and lessons are primarily conducted using practical exercises to make learning more interesting.

Key words: Mathematics, modern methods, international assessment.

Kirish. Hozirgi kunda matematika fanini o‘qitishda turli xil zamonaviy metodlar, chet el tajribalari o‘rganilib amaliyotga joriy etib kelinmoqda. Matematika fanini o‘qitishda kichik sinflardan boshlab, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni oshirishga, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatishga e’tibor qaratilishi lozim. Xorijiy davlatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar matematika fanini bevosita hayotiy masalalar orqali bog‘lab o‘rganib borsa, juda yaxshi samara beradi. Dars o‘tish jarayonida amaliyotdan nazariyaga qarab mavzuni ochib berish, o‘quvchida darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Hayotiy hamda qiziqarli masalalarni yechish orqali o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasi rivojlanadi. Masalani yechishni bir necha usullar orqali o‘rgatish o‘quvchilarda matematik savodxonlikni oshiradi.

Asosiy qism. Darsni turli xil metodlar orqali tashkil qilish, dars samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarni bilim ko‘rsatkichlariga oshirishga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Zamonaviy hamda interaktiv metodlar orqali dars o‘tish o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi. Metodlar o‘quvchi yosh va fiziologiyasiga qarab tanlanishi lozim.

- **Guruh lideri metodi**

Bu metod o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda fan bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash uchun yaxshi samara beradi. Bu metod orqali bir haftalik darslar mobaynida o‘quvchilarning darsda faolligi hamda uy vazifasini bajarishi tekshirib ball berib boriladi. Dars jarayonida ham turli xil qiziqarli topshiriqlarni bajarganligi uchun ham o‘quvchi o‘z hisobiga ballarni qayd qilib boradi. Bir haftalik natija sinf kesimida aniqlanib, eng yuqori ball olgan o‘quvchi **“guruh lideri”** deb e’lon qilinadi. Bu metodning o‘qituvchi uchun yana

bir yaxshi jihati shundaki, har haftalik hisobotlar to‘plab boriladi. Eng yuqori ball olgan o‘quvchilar rag‘batlantirilib, pastroq natija ko‘rsatgan o‘quvchilarda fan bo‘yicha yuzaga kelgan bo‘shliqlar aniqlanib, o‘quvchi bilan alohida darsdan keyin mashg‘ulotlar olib boriladi. Bo‘sh o‘zlashtirgan o‘quvchilarga qo‘shimcha topshiriqlar berib boriladi.

- **Thinking metodi**

“Thinking” so‘zi ingliz tilidan tarjima qilganda fikrlash degan ma’noni bildiradi. Bu metod orqali o‘quvchilarni turli xil muammoli vaziyatlarda qanday yo‘l tutishlari, muammoli masalalarga qanday yechim topishlari kuzatiladi. Bu metod orqali ish olib boorish asosan rivojlangan davlatlar ta’lim dasturlariga ham kiritilgan. Cambridge ta’lim tizimida ham o‘quvchilarni kichik yoshdan tanqidiy fikrlashlarini oshirish bo‘yicha darsliklar ishlab chiqilgan. Bizda ham bu dastur Prezident maktablari kirish imtihonlarida joriy qilib kelinmoqda. O‘quvchilarga masalani yechishni faqat strukturasini hamda bosqichlarini o‘rgatish bilan cheklanib qolmasdan, balki shu masalani amaliyot bilan bog‘lagan holda tushuntirish juda yaxshi samara beradi. “Thinking” metodini darsda foydalanishda asosan o‘quvchilarga biror muammoli masala beriladi, shu masalaga har bir o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda yechim topishi kerak. So‘ng eng optimal yechim aniqlanadi. Bunda o‘quvchilarni masalani yechishga qaratilgan yechimlari ko‘rib chiqiladi. Bu metodni qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini hamda nutq madaniyatini oshirish uchun juda yaxshi samara beradi.

Bu kabi metodlarni dars jarayonlarida qo‘llash orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, masalaga mustaqil yechim topishini hamda kreativ fikrlashini oshirish mumkin bo‘ladi. Dars jarayonlarini olib borishda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda, turli xil qiziqarli va interaktiv o‘yinlar tashkil qilish darsda ijobiy muhitni shakllantirishda xizmat qiladi.

O‘quvchilarni intelektual salohiyatini oshirish uchun turli xil xorijiy ta’lim tashkilotlari tomonidan tayyorlangan topshiriqlarni bajarib borishlari ham zamon talabidagi asosiy vazifa sanaladi. Xalqaro ta’lim tashkilotlari bunday topshiriqlar natijalarini butun dunyo mamlakatlari orasida tahlil qilib boradi. Bu ko‘rsatkichlarda yuqori natijalarga erishish uchun bizning maktablarda ham xalqaro baholash tizimi joriy qilinmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-2024 o‘quv yilida 500 ta umumuta’lim maktablari Prezident hamda ixitisoslashtirilgan maktablar baholash tizimiga o‘tkazildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yangi xalqaro baholash tizimini, xalqaro ta’lim dasturlarini maktablarda tizimli ravishda joriy etishdan iborat.

Matematika fanini o‘qitishda ham Prezident hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda Xalqaro ta’lim dasturlari keng joriy qilib kelinmoqda. Chet el adabiyotlari tarjima qilinib, darsliklar xalqaro standartlar asosida qaytadan ishlab chiqilmqoda.

Xulosa. Matematika fanini o‘qitishda turli xil kreativ yondashuvlar dars jarayonida yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda asos bo‘ladi. Har bir darsni har xil zamonaviy metodlardan foydalanib o‘tish, o‘quvchilar uchun juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirish hamda muammoli masalalarni yechishda mustaqil qaror qabul qilishini rivojlantiradi. O‘qituvchilar

ham turli xil zamonaviy chet el adabiyotlardan samarali foydalanib, dars jarayonlarini yuqori saviyada tashkil qilsa, ta’lim sifatini oshishiga bevosita xizmat qiladlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusova D. “Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari” (darslik) Toshkent-2007 yil.
2. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metodikasi”. “O‘qituvchi” Toshkent-1992-yil
3. Mirzayev Ch., Sodiqov U., Baxromov J. “Psixik taraqqiyot va ta’lim muammolari” O‘zMU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi ilmiy maqolalar davriy to‘plami. 2013 yil.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Турсунова Жамила Аликуловна
преподаватель Гулистанского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность использования технологии проблемного обучения на уроках биологии. Целью исследования является анализ научных работ и учебных пособий по данной теме с целью выявления факторов, влияющих на эффективность применения проблемного обучения на уроках биологии.

Annotation. This article examines the effectiveness of using problem-based learning technology in biology classes. The research aims to analyze scientific papers and educational resources on this topic to identify factors influencing the effectiveness of implementing problem-based learning in biology classes.

Annotatsiya. Ushbu maqola biologiya darslarida muammoli o‘qitish texnologiyasining samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi ushbu mavzudagi ilmiy ishlar va o‘quv qo‘llanmalarni tahlil qilish orqali biologiya darslarida muammolar asosida o‘qitish texnologiyasini qo‘llash samaradorligiga ta’sir etadigan omillarni aniqlashdan iborat.

Ключевые слова: проблемное обучение, активное обучение, критическое мышление, мотивация, коммуникативные навыки

Key words: problem-based learning, active learning, critical thinking, motivation, communication skills

Проблемное обучение является широко используемым методом в современной образовательной практике, особенно в области естественных наук. В контексте биологического образования, где активное участие студентов в процессе обучения и их способность к анализу и решению проблем имеют важное значение, использование проблемного обучения представляется особенно перспективным. Однако, несмотря на широкое признание этого метода, вопрос его эффективности и оптимальных стратегий реализации остается предметом активных дискуссий и исследований.

Проблемное обучение — это метод, при котором учащиеся сталкиваются с реальными или вымышленными проблемами, которые требуют исследования, анализа и поиска решений. В процессе работы над проблемой ученики развивают навыки поиска информации, критического мышления, коммуникации и сотрудничества.

Проведенный обзор литературы выявил ряд исследований, посвященных анализу эффективности применения проблемного обучения в контексте биологического образования. Среди них работы таких авторов, как Savery (2006), Barrows и Tamblyn (1980), Wood (2003), и других, представляют ценные научные исследования, раскрывающие различные аспекты проблемного обучения и его влияние на процесс обучения и результаты учащихся.

Основываясь на результаты анализа литературы, можно выделить несколько ключевых аспектов эффективности проблемного обучения на уроках биологии.

Стимулирует активное обучение. Учащиеся активно участвуют в

процессе обучения, исследуют интересные для них вопросы и проблемы, что способствует лучшему усвоению материала.

Развивает критическое мышление. Многие учёные считают, что проблемное обучение стимулирует развитие критического мышления у студентов. В процессе анализа и решения проблем учащиеся вынуждены оценивать различные аспекты ситуации, применять знания и навыки, а также вырабатывать стратегии решения, что способствует формированию у них более глубокого понимания предмета [1].

Повышает мотивацию. Исследование реальных или вымышленных проблем в биологии может быть увлекательным и мотивирующим для учеников, поскольку оно позволяет им применять свои знания на практике [2]. Учёные отмечают, что проблемное обучение может значительно повысить мотивацию студентов к изучению биологии. Работа над реальными или вымышленными проблемами позволяет ученикам видеть практическое применение своих знаний и навыков, что делает учебный процесс более интересным и значимым для них.

Способствует развитию коммуникативных навыков. Проблемное обучение часто включает работу в группах, что способствует развитию навыков сотрудничества и коммуникации у студентов. Это важно не только с точки зрения учебного процесса, но и для подготовки к будущей работе в научной среде или в других областях. Работа в группах над решением проблемы требует от учеников общения, обмена идеями и сотрудничества, что способствует развитию их коммуникативных навыков [3].

Продвигает самостоятельность. Учащиеся сами определяют цели и пути достижения решения проблемы, что помогает им стать более самостоятельными и ответственными [1].

Применение в реальной жизни. Проблемное обучение позволяет студентам применять свои знания и навыки в реальных жизненных ситуациях, что способствует их лучшей подготовке к решению реальных проблем в области биологии и связанных с ней областях [4].

Примеры использования проблемного обучения на уроках биологии.

Исследование экосистемы. Ученики могут исследовать экосистему в своем регионе, выявляя проблемы, связанные с загрязнением воды или воздуха, потерей биоразнообразия и другими аспектами. Затем они могут разработать план действий для решения этих проблем.

Изучение генетических болезней. Ученики могут рассмотреть случаи генетических болезней и исследовать их причины, методы диагностики и возможности лечения, представляя решения для улучшения ситуации.

Анализ экологических катастроф. Ученики могут изучить причины экологических катастроф, таких как разливы нефти или разрушение лесов, и выработать стратегии предотвращения подобных ситуаций в будущем.

На основе проведенного анализа можно сделать вывод о том, что применение технологии проблемного обучения на уроках биологии обладает значительным потенциалом для развития ключевых навыков учащихся и повышения эффективности образовательного процесса. Однако для

достижения максимальных результатов необходимо учитывать различные факторы, такие как подготовка учителей, адаптация учебных материалов и организация учебного процесса.

Список использованной литературы:

1. Dolmans, D. H. J. M., & Schmidt, H. G. (1996). What Directs Self-Directed Learning in a Hybrid Problem-Based Curriculum? Advances in Health Sciences Education, 1(3), 241–252.

2. Prince, M. (2004). Does Active Learning Work? A Review of the Research. Journal of Engineering Education, 93(3), 223–231.

3. Hung, W. (2009). Theory to reality: A few issues in implementing problem-based learning. Educational Technology Research and Development, 57(5), 587-600.

4. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235–266.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA KREATIV VA ZAMONAVIY YONDASHUVGA OID MASHG‘ULOT: IJTIMOIY XABARDORLIK, INKLYUZIVLIKNI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Djurayeva Perdegul Saidovna

Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti

Annotatsiya. Kitobxonlik madaniyati orqali bolalar bilan do‘stona munosabat o‘rnatish, malaka oshirish tizimida ijtimoiy-emotsional ta’lim olishga oid mashg‘ulot, ijtimoiy xabardorlik, inklyuzivlik strategiyalar.

Kalit so‘zlar: Kitobxonlik madaniyati, ijtimoiy-emotsional ta’lim, bolalar adabiyoti, muhokama, mulohaza, xabardorlik, inklyuzivlik.

Абстрактный. Установление дружеских отношений с детьми через культуру чтения, социально-эмоциональную подготовку, социальное сознание, стратегии включения в систему профессионального развития.

Ключевые слова: Культура чтения, социально-эмоциональное воспитание, детская литература, дискуссия, рефлексия, осведомленность, инклюзивность.

Abstract. Establishing a friendly relationship with children through the culture of reading, social-emotional training, social awareness, inclusion strategies in the professional development system.

Key words: Reading culture, social-emotional education, children’s literature, discussion, reflection, awareness, inclusiveness.

Kirish

Barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslangan ta’lim - xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlarga tayanib, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, qabul qilish, nazorat qilish va boshqarish tartibi hamda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning bosqichlari, yuzaga keladigan muammo va yechimlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug‘i asosida o‘tkazilgan diagnostik test natijalariga ko‘ra, inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabat, XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish: 4K – tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha kurs tinglovchilarining o‘quv moduli bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan umumiy o‘rta ta’lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, zamonaviy talablar asosida ta’limning zamonaviy tendensiyalari va ularning ta’lim sifatiga ta’siri, ta’lim samaradorligini

ta’minlash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni tahlil qilish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Izlanish materiallari va metodologiyasi.

O‘quvchilarda ijtimoiy xabardorlikni, hamdardlikni rivojlantirish va inklyuzivlikni oshirish uchun bolalar adabiyotidan foydalangan holda natijaga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish istiqbollari va yo‘nalishlarini belgilash maqsadida ijtimoiy-emotsional ta’lim olishga oid mashg‘ulotni tashkil etish – asosiy maqsadimizdir. Sinf darajasi: boshlang‘ich (turli o‘rganish darajalari uchun moslashtirilishi mumkin). Didaktik materiallar: ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzulariga bag‘ishlangan yoshiga mos bolalar adabiyoti kitoblari. Doska yoki oq qog‘oz; markerlar. Mulohaza uchun ish qog‘ozlari (oldindan tayyorlangan). Mashg‘ulotni boshlashdan oldin bir-birimizni qo‘llab-quvvatlovchi sinf jamoasi hamda jamiyatni yaratishda ijtimoiy xabardorlik va inkyuzivlikning ahamiyatini tushuntiring. Inklyuzivlik tushunchasini, u qanday qilib boshaqalarning qarashlari va kechinmalarini tushunish hamda baholashni o‘z ichiga olishini muhokama qiling.

Izlanish natijalari. ***Kitob tanlash va o‘qish -*** ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzusidagi bolalar kitobini tanlang va uni sinfga baland ovozda o‘qib bering. Hikoyani o‘qish davomida kerakli joylarda to‘xtang va o‘quvchilarni qahramonlarning kechinmalari va his-tuyg‘ulari haqida fikr yuritishga undang.. Matnni o‘quvchining mavjud bilimlari bilan bog‘lash orqali o‘qish maqsadini belgilang. Ya’ni, shu mavzuda bolalar qanday bilimlarga ega bo‘lganliklarini savol-javob orqali bilib oling. O‘quvchilardan matn nima haqida ekanligini taxmin qilishlarini so‘rang. Kitobni nima uchun o‘qiyotganingizni va o‘quvchilar qaysi o‘qib tushunish ko‘nikmalarini amalda qo‘llashini tushuntiring. **Tavsiya:** Oldindan qiziqarli va yoshga mos matnni tanlab oling. Qulay mutolaa muhitini yarating. Ishtiyoq bilan o‘qing. O‘quvchilarni o‘qish jarayoniga jalb qilish orqali faol qatnashishga chorlang. Ko‘rgazmali qurollar va tayanch topshiriqlardan foydalaning.

O‘qish davomida. “O‘giriling va gaplashing” srtategiyasidan foydalaning. O‘quvchilardan bir-birlariga o‘girilib, hikoya yuzasidan o‘zaro savol-javob olib borishlarini so‘rang. Ochiq savollar bering (yuqori darajada fikrlashga undaydigan savollar). Ochiq savollarga javob berish uchun o‘quvchilar “Ha”, “Yo‘q” kabi qisqa javobdan qochib, to‘liq mazmunli gaplar gaplar orqali javob beradilar. “Nima uchun?”, “Qanday qilib?” kabi so‘roq so‘zlaridan boshlanadigan savollar ochiq savol hisoblanadi. O‘qib tushunish strategiyalarini modellashtiring va mustahkamlang (ovoz chiqarib fikrlang). Yangi so‘zlar ma’nosini o‘quvchilardan so‘rang, so‘ngra bolalar uchun tushunarli ta’riflar va misollar orqali so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

O‘qishdan keyin: Hikoyaga oid savollar bering va munozaralar o‘tkazing. Shu bilan birga, o‘quvchilardan hikoya mazmuniga nisbatan munosabatini so‘rang. Ulardan hikoyani so‘zlab berish, qahramonlar, voqea-hodisa yoki matndagi ma’lumotlar tog‘risida fikr bildirishlarini so‘rasangiz ham bo‘ladi. o‘zingizga yoqqan qismlarni muhokama qiling. Bolalar hikoyalarni o‘z bilganicha o‘rganishi uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil eting: hikoyaning umumiy mazmuni yoki

bir qismini chizish orqali sharhlash; drama/rolli o‘yin; hikoyaga yangi yakuniy qism yozish; hikoyani tasvirlash uchun san’at va hunarmandchilik buyumlari.

Masalan, “Besh barmoq” usulida 1-vaziyat: badiiy matn tahlili; 2-vaziyat: axborot matni tahlilida ko‘rib chiqmiz. ***Kirish:*** Tinglovchilarni guruhlarga tajribasi va maholartiga mos holda tabaqalashtirish. ***Asosiy qism:*** *1-bosqich* - ***“Besh barmoq” usuli***: ***Badiiy matn tahlili*** – Qahramonlar - Zamon va makon – Muammo - Voqea-hodisa – Yechim; Masalan, 4-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” yangi avlod darsligining 1-qismida 15-16-betida “Mehr ulashgan bog‘” hikoyasi asosida tinglovchilar bilan o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotimda 4 ta guruhga bo‘lingan holda 5 ta bosqich bo‘yicha ushbu usul bilan tahliliy mashg‘ulot o‘tkazdim va 4K modeli ko‘nikmalariga xos ilmiy tasnifiy fikr-mulohazalar mavzu doirasida o‘z mohiyatini ochishga harakat qilingani ularda metodga nisbatan qiziqish shakllantirdi. Hikoya qahramonlari, ularning o‘ziga xosligi, qaysi zamon va makonda bo‘layotganligi, asosoiy muammo kim yoki nimaga qaratilganligi, ustoz, ona, bobo, Dilshod va uning sinfdoshlarining o‘zini tutishi, mehrli nigoh, do‘stona muhit, oila, maktab hamkorligi, boquvchisini yo‘qotgan yoki keksa yoshli insonlarga g‘amxo‘orlik g‘oyasi, maktab hovlisidagi mevali bog‘ va Dilshodning uyi, voqea-hodisalarning uzviy bog‘liqligi, kerativ yondashuv tahlili, tanqidiy fikrlar xilma-xilligi kabi eng kichik epizod, hodisalarga nisbatan har xil qarashlarning mavjudligi ushbu kichik birgina hikoya zamirida to‘laqonli tasniflanishiga e’tibor qaratdim. Albatta bu kabi ijodiy yondashuv tinglovchilar va dars kuzatuvchilari tomonidan iliq kutib olindi va samarali tashkil etilganigi e’tirof etildi. Hikoya asnosida yakuniy xulosalar, yechim sifatida taqdim etilgan fikrlar qabul qilindi. *2-bosqich:* “Besh barmoq” usuli: Axborot matni tahlili – Mavzu - Bosh g‘oya - 1-ma’lumot - 2-ma’lumot - 3-ma’lumot – Yechim.

Alohida ehtiyojli bolalar orasidan ham iqtidorlilarini kashf etish mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishi qiyin. Ammo ularga ham yetarlicha e’tibor berilsa, alohida ehtiyojli bolalar orasidan ham iqtidorlilarini kashf etish mumkin. Poytaxtimizdagi 215-sonli umumta’lim maktabining inklyuziv sinf o‘quvchisi Muhammadxon Daun sindromi bilan dunyoga kelgan. Ota-onasi bor e’tiborini “quyoshli farzand”ni rivojlantirishga qaratdi. Muhammadxonning ham sog‘lom bolalardek o‘z orzulari, rejalari bor. U sportni sevadi. Bo‘sh vaqtlarida qo‘shiq ham kuylab turadi. Muhammadxon Turkiya maxsus sportchilar sport federatsiyasi tomonidan bu yil ilk bor tashkil etilgan “Turk dunyosi” maxsus sportchilar sporti va madaniyat festivalida ishtirok etdi. U Turkiya, Ozarbayjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Vengriya va Qirg‘izistondan tashrif buyurib, tennis va yengil atletika bo‘yicha g‘olib bo‘lgan sportchilar qatoridan joy oldi. Jamiyatda Muhammad singari imkoniyati cheklangan bolalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Aksariyat ota-onalar tengdoshlarining kamsitish va haqoratiga duchor bo‘lmasligi uchun ularning umumta’lim maktablarida ta’lim olishini istamaydi yoki alohida ehtiyojli bola sog‘lom bolalardek bir xil e’tiborda o‘qishi lozim deya hisoblamaydi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ta’lim nogironlar uchun yashash quroli sanaladi. Chunki ularda jismoniy mehnat bilan shug‘ullanish imkoniyati kam bo‘ladi.

Shuning uchun bu kabi bolalarning o‘qishini ta’minlash ularning jamiyatda munosib o‘rin topishiga, o‘z ehtiyojlari uchun daromad topishiga xizmat qiladi.

3-bosqich: Hayoliy go‘zallik” strategiyasi. Tarqatmali materiallar ustida ishlash. Har bir tinglovchi uchun alohida so‘z, gap tuzish, ifodalsh, jamoa bo‘lib matn yaratish, matnga sarlavga berish; Masalan,

4-bosqich: 4K modeli asosida xulosaviy fikr-mulohazalarini taqdim etish.

Xulosa: Blum taksonomiyasi asosida: tafakkurning rivojlanishini bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida mulohaza yuritish; Guruh a’zolari alohida yakka tartibda mushohada bildiradi; Guruh ishi jamoaviy tarzda mushohada bildiradi; 4 ta guruh bitta sarlavha negizida umumiy mushohada yuritishi lozim; Fanlarni o‘qitishda 4K modeli ahamiyati (inklyuziv ta’lim misolida).

Baholash mezoni: Assesment metodi, Keys-stadi metodi, “Esse usuli” da uyga vazifa berish. Mavzuga oid esse yozish va keyingi o‘quv yiliga tayyor mulohazalarini taqdim etishga o‘z oldiga maqsad qo‘yish.

Munozaralar. Frayer modeli (Frayer diagrammasi) - grafik organizator. U birinchi marta Doroti Frayer va uning Viskonsin universitetidagi hamkasblari (Ueyn Fredrik va Gerbert Klausmeyer) tomonidan 1969 yilda ixtiro qilingan. Frayer modelining maqsadi (Frayer, 1969; Buehl, 2001) notanish tushunchalar va lug‘atni aniqlashdir. Frayer modeli so‘zlarning ma’nosi va tuzilishini aniqlash, aniqlashtirish va tahlil qilish uchun to‘rt kvadratli modeldir. Tanlangan diqqat so‘zi varaq yoki qog‘ozning o‘rtasiga oval shaklida yoziladi. Ba’zan gapning bolagi ovalga kiradi.

Ismi _____ **Sana** _____

Nomlanishi: Yo‘nalishlar:

TA’RIF	XUSUSIYATLARI
fr. *Inclusif* – qamrab olaman, lot. *Include* - kiritaman, qo‘shaman. Ing. Inclusive, inclusion – uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirmoq, qamrab olmoq.	inklyuziv ta’lim maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar sinfda oddiy bolalar bilan oqitilganda.
INKLYUZIV TA’LIM ASOSLARI	
bu barcha bolalar, jismoniy, aqliy, intellektual va boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar, umumiy ta’lim tizimiga kiritilgan o‘quv va tarbiya jarayoni. Ular nogiron bo‘lmagan tengdoshlari bilan, ularning maxsus ta’lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, jamiyatdagi asosiy maktablarda o‘qiydilar. **MISOLLAR**	*Imkoniyatlarning teng emas • To‘siqlari mavjud muhit • Noto‘g‘ri tashxis qo‘yish • Tizimlilik yo‘q • Resurs o‘qituvchi mavjudligi inobatga olinmaydi • Jamiyatning xabardorligi shart emas, faqat ta’limga jalb etilsa bo‘lgani **Noto‘g‘ri misol/sinonim-antonim/illyustratsiyalar**

Fikringizni bayon eting_____

Xulosalash.

XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda 4K ko‘nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha kurs tinglovchilari bilan o‘quv moduli bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirishda ***butun sinf bilan munozara -*** tasvirlangan ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzusilari haqida munozara olib boring, muhokama qilingan asosiy g‘oyalar, tushunchalarning vizual ko‘rinishini yaratish uchun doska yoki oq qog‘ozdan foydalaning. O‘quvchilarning fikrlari, munosabati va hikoyaning ularga aloqadar joylarini o‘zaro o‘rtoqlashishga undang. ***Kichik guruh mashg‘ulotida*** – o‘quvchilarni kichk guruhlarga bo‘ling, har bir guruhga ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlikni targ‘ib qiluvchi turli bolalar kitoblarini bering. Guruhlarga o‘zlari uchun tayinlangan kitobni birgalikda o‘qishni va mavzular, qahramonlar va inklyuzivlik g‘oyalarini muhokama qilishlarini ayting. O‘quvchilardan hikoyadagi qahramonlar boshqalarga nisbatan hamdardlik, hamfikrlik va hurmatni qanday namayon qilishiga oid muayyan misollar topishlarini so‘rang. ***“Galereya bo‘ylab sayr” strategiyasi va mulohaza yuritish*** - har bir guruhni kitob muqovasi, qisqacha xulosa hamda ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzulariga oid illyustratsiyalarga ega plakat yoki ko‘rgazma yaratishga yo‘naltiring. Guruhlar aylanib, bir-birlarining ko‘rgazmalarini ko‘zdan kechirishi uchun “Galereya bo‘ylab sayr” o‘tkazing. ***Individual mulohaza yuritish*** – mulohaza uchun ish varaqlarini har bir o‘quvchiga taqsimlang. O‘quvchilardan kitoblarda muhokama qilingan ijtimoiy xabardorlik va inkluzivlikka oid mavzularda hamda

o‘zlarining inklyuzivlik borasidagi tajribalari haqida fikr yuritishlarini so‘rang. Ulardan sinfda va jamiyatda yanada inklyuziv va empatik (o‘zgalarning his-tuyg‘ularini tushunish) muhitni yaratishga qanday qilib hissa qo‘shishlari mumkinligini haqida so‘rang. ***O‘rtoqlashish va yakunlash*** – bir necha o‘quvchilarga fikrlarini sinf bilan bo‘lishish imkonini bering. Mashg‘ulot davomida muhokama qilingan asosiy fikrlarni umumlashtiring, ijtimoiy xabardorlik, hamdardlik va inklyuzivlikning ahamiyatini ta’kidlang. O‘quvchilarni ijtimoiy xabordorlik va inkluzivlik haqidagi tushunchalari o‘zaro munosabatlarida va harakatlarida qo‘llashga, yanada inkluziv va empatik muhitini rivojlantirishga undang. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limning asosiy qismi - bolalarga bilim olish uchun do‘stona munosabat va o‘qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Peyshens Soya, Zuxra Saliyeva, Dilfuza Karimova. T.: 2023.
2. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2021.
3. www.google.kz

TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR "MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI"NI AMALGA OSHIRISH TASNIFI

Elmurodova Dilnoza Shuhrat qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir "Muammoli ta’lim texnologiyalari"ni amalga oshirish tasnifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, "Muammoli ta’lim texnologiyalari", mustaqil fikrlash, algoritm, mustaqil faoliyat, mulohaza yuritish, axborot bilan ishlash, aks ettirish, refleksiya.

Abstract. This article presents the classification of the implementation of "Problematic educational technologies" for the development of students’ critical thinking skills.

Key words: critical thinking, "Problematic educational technologies", independent thinking, algorithm, independent activity, reflection, working with information, reflection, reflection.

Аннотация. В данной статье представлена классификация реализации «Проблематических образовательных технологий» для развития навыков критического мышления учащихся.

Ключевые слова: критическое мышление, «Проблемные образовательные технологии», самостоятельное мышление, алгоритм, самостоятельная деятельность, рефлексия, работа с информацией, рефлексия, рефлексия.

Ma’lumki, talabani shaxs va mutaxassis sifatida mustaqil fikrlashga, izlanishga, fan, texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish va kundalik faoliyatda qo‘llashga, jamiyatdagi fundamental va hayotiy muhim muammolarni hal etish, o‘zgaruvchan hayotning mazmunini tushunish va unga moslashish, turli vaziyat va axborotlarni tanqidiy tahlil qilish asosida baholash va oqilona qarorlarni qabul qilish, birgalikda ishlash va muloqotga kirishishga tayyorlash oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida va ta’lim sifatini ta’minlash sohasida "talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish" masalasi oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar sifatida qayd etilgan. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmonida "…talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi ustuvor etib

belgilangan.

Mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish va kuzatishlarimiz "Muammoli ta’lim texnologiyalari"ni tashkil qiluvchi metodlarning asosiy xarakteristikalarini belgilash hamda talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir mualliflik metodlarini ishlab chiqish imkonini berdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir "Muammoli ta’lim texnologiyalari"ni amalga oshirish tasnifi

Talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish metodlari Usullar O‘qitish shakllari

O‘qituvchi faoliyati Talaba faoliyati

"Tasodifiy so‘zlar", "Tasavvur qiling" Munozara usuli Axborotlar bilan ishlash usuli Mustaqil tadqiqot faoliyati

"Qarang, fikrlang, o‘ylang" Tadqiqot usuli Tadqiqot usuli Talabalar tajribasi, ekskursiya va dalillarni to‘plash, loyihalash va modellashtirish

"Yuqori darajada fikrlash" Bayon qilish usuli Tahlil qilish usuli Suhbat, hikoya, muammoli vaziyat, evristik o‘yin, aqliy hujum (fikriy hujum)

"Ijodiy faoliyatni rivojlantirish" Evristik vazifa usuli Kreativ usuli Hikoya, kichik ma’ruza

"Qo‘llash tartibi" Mantiqiy taqdimot usuli Kognitiv usuli Evristik suhbat, muammoli vaziyat, qisman qidiruv

"Muammoli matn", "O‘zgarishlar integratsiyasi" Monologik taqdimot usuli Integratsiya usuli Evristik suhbatni muammoli masalalar va vazifalarni hal qilish bilan uyg‘unlashtirish

"7M", "Juftlikda o‘qish va jamoada umumlashtirish" Dialogik taqdimot usuli Guruh ishini tashkil etish usuli Guruh bilan ishlash, hamkorlikda ishlash

Quyida talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir metodlar va uni amalga oshirish metodikasini keltiramiz.

1-metod: "Tasodifiy so‘z" metodi. "Tasodifiy so‘z" metodi bilan ishlash algoritmi:

1-usul. Tasodifiy muammoli vaziyat yaratiladi va uni muayyan (badiiy, ilmiy, ommabop va hk.) kitobdan yoki Internet resurslaridan tasodifiy tanlangan biron bir so‘z bilan bog‘lash taklif qilinadi.

2-usul. Talabalardan ixtiyoriy so‘z aytish so‘raladi (xayoliga kelgan birinchi so‘zni aytish yoki tasavvuridagilarni bitta so‘z bilan ifodalash talab etiladi), shundan so‘ng muayyan (badiiy, ilmiy, ommabop va hk.) kitobdan biron bir so‘z tanlanadi. Talabalar aytgan ixtiyoriy so‘zni kitobdan yoki Internet resurslaridan tanlangan tasodifiy so‘z bilan bog‘lash aytiladi. Talabalar kuzatish, taqqoslash, talqin qilish orqali tasodifiy tanlangan ikki tushunchaning o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydilar.

Talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

Siz aytgan ixtiyoriy so‘z kitobdagi yoki Internet resurslaridagi matndan tasodifiy tanlangan so‘z bilan qanday aloqadorlikka ega?

Bu ikki tushunchani nima bog‘lab turadi?

Bu ikki tushuncha hayotda qanday holatlarda birga kelishi mumkin?

2-metod: "Yuqori darajada fikrlash" metodi. Asosiy savollar: Nimaga? Qanday qilib? Qaysi?

Nimaga? savoli hodisalarni bilishning eng sodda vositasidir (konstruktivizm). Qanday qilib? savoli muammolarga yechim topishning asosi hisoblanadi. Bu savol yangi va yaxshiroq variantlar yaratilmaguncha berilaveradi. Qaysi? savoli asoslangan, aniq mezonlar va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishga undaydi.

Amalga oshirish algoritmi: "Nimaga?" savolini berish orqali sabab va oqibatni tahlil qilish talab etiladi → so‘ngra "Qanday qilib?" savolini berish orqali muammolarni yechishga undaladi → "Qaysi?" savoli orqali talabalarni qaror qabul qilishga yetaklanadi.

3-metod: "Ijodiy faoliyatni rivojlantirish" metodi. Metodni amalga oshirish algoritmi quyidagicha:

1-usul: 2 ta "kim?", 2 ta "nima?", 2 ta "qanday?", 2 ta "nima qilyapti?" so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘z, 2 ta mavhum so‘z, jami 10 ta ixtiyoriy so‘z yozish bo‘yicha o‘quv topshirig‘i beriladi.

2-usul: Ikkinchi bosqichda 10 ta so‘z ishtirokida 1 ta gap yozish vazifasi beriladi. Talabalar bir-biriga muvofiq bo‘lmagan so‘zlarni yozadilar va o‘qituvchining 2-bosqichda bergan topshirig‘idan so‘ng nostandart fikrlash, ya’ni alohida-alohida obyekt bo‘lgan so‘zlarni o‘zaro bog‘lab, yaxlit matn yaratish – ijodiy fikr asosida nostandart fikrlash imkoniyati yaratiladi.

3-usul: Eng noodatiy fikr, eng kreativ fikr saralab olinadi. Bunda → maqsad → tushuncha va g‘oyalar → taxminlar → nuqtai nazar → turli ma’lumotlar → xulosalar ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, aniqligi, dolzarbligi, keng qamrovliligi, mantiqiyligi, ahamiyatga egaligiga ko‘ra baholanadi.

4-metod: "Muammoli matn" metodi. Mazkur metod quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

1-usul: Dastlab talabalarga o‘qish uchun matn taqdim qilinadi.

2-usul: O‘qilgan matn quyidagi sxema bo‘yicha tahlil qilinadi:

Matn qaysi maqsadda yozilgan, muallif qaysi auditoriyaga murojaat qilyapti, qanday g‘oyani yetkazmoqchi?

Matnda qanday muammo tasvirlangan, uni hal qilishning yagona usuli mavjudmi yoki turli xil variantlar mavjudmi?

Muallifning muammoga nuqtai nazari qanday, qanday dalillardan foydalaniladi, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki faqat bilvosita ishlab chiqilgan muammo bilan bog‘liqmi?

Muallif o‘z fikrini qanday tuzadi: berilgan har bir faktni isbotlaydimi yoki buni tabiiy deb qabul qilishni taklif qiladimi?

Matnlarda faktlar qaysi qismida, voqeaning talqini qaysi qismida berilganligini tahlil qilish.

Matnda yashirin ma’no mavjudmi, agar shunday bo‘lsa, u matnning umumiy ma’nosiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Matnni tahlil qilishda, faktlarga, dalillarga va mantiqiy fikrlarga asoslanib, muammoga mualliflik munosabatni aniqlab olish.

5-metod: "O‘zgartirish integratsiyasi" metodi. Mazkur metodning algoritmi quyidagicha:

1-usul: Talabalarga matn taqdim etiladi va bu matnni rasm → so‘ngra rasmni jadval → jadvalni esa diagramma ko‘rinishiga o‘tkazish vazifasi beriladi.

2-usul: Yoki rasmni → matnga → matnni jadvalga o‘tkazish vazifasi beriladi.

3-usul: Yoki jadvalni → rasmga → rasmni diagrammaga o‘tkazish vazifasi beriladi.

4-usul: tayyor bo‘lgan kontent yuzasidan talabalar bir-biriga savollar beradi, yechim topadi, bahslashadi.

"Muammoli ta’lim texnologiyalari"ning asosiy metod, usul va shakllarini aniqlashtirish bizga muammoli vaziyatni yaratish texnikasini ishlab chiqish imkonini berdi (2-jadvalga qarang).

2-jadval. Muammoli vaziyatni yaratish texnikasi

Muammoli vaziyatni yaratish texnikasiQarama-qarshilikdan xabardorlikni rag‘batlantirish Induksiya (muammoni shakllantirish uchun)

1. Bir vaqtning o‘zida talabalarga qarama-qarshi faktlar, nazariyalar va fikrlarni taqdim etish - Sizni nima ajablantiradi?

- Qanday qiziqarli ma’lumot, faktlarni syezdingiz?

- Qanday faktlar mavjud? Tegishlisini tanlang:

Savol nima?

Darsning mavzusi nima?

2. Yangi material yuzasidan savol yoki amaliy topshiriqlar orqali talabalarning fikrini aniqlashtirish - Bitta savol bormi? Qancha fikr mavjud? Yoki bitta vazifa bormi? Bu qanday amalga oshirildi?

- Nega bunday bo‘ldi? Biz nimani bilmaymiz?

3. Avvalgi topshiriqlarga o‘xshamaydigan amaliy topshiriqlar berish - Vazifani bajara oldingizmi? Muammo nimada? Bu vazifa oldingilaridan nimasi bilan farq qiladi?

Shunga ko‘ra tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo‘ljallangan muammoli ta’lim texnologiyalari uch bosqichli dars tuzilishiga asoslanadi: I bosqich: aniqlash (mavjud bilimlarni uyg‘otish); II bosqich: amalga oshirish (tushunish); III bosqich: mulohaza yuritish.

Aniqlash bosqichida talabalar avvalo aniqlanishi kerak bo‘lgan ma’lum mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarni faollashtirish uchun yo‘naltiriladi. O‘qituvchi mohirlik bilan savol berish orqali muammoli vaziyatni yaratadi, talaba ushbu mavzu bo‘yicha bilgan ma’lumotlarini eslaydi, taxminlar qiladi va javob olmoqchi bo‘lgan savollarni qayd qiladi. Mazkur bosqichda quyidagi usullar qo‘llaniladi: "To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bayonot" ("tic-tac-toe" o‘yini shaklida); muammoli savollar; kalit so‘zlarni taklif qilish hikoyasi; mantiqiy zanjirlar; tarmoqlar va hokazolar.

Tushunish bosqichida talaba turli shakllardagi (namoyish qilingan kino yoki filmlar, matnlarni o‘qish, o‘qituvchi tomonidan ma’lumot berish jarayonida) ma’lumotlar bilan bevosita ishlaydi. Axborot bilan ishlash jarayonida talabalar aniqlash bosqichida paydo bo‘lgan savollarga javob beradilar, yangi maqsad va vazifalarni qayd etadilar, mavjud bilimlarni yangi bilimlar bilan bog‘laydilar, o‘zlarining pozitsiyalarini shakllantiradilar va olingan bilimlarni tizimlashtiradilar. Tushunish bosqichida ko‘pincha faol o‘qish usullari qo‘llaniladi.

Mulohaza yuritish (fikrlash) bosqichida olingan ma’lumotlarni yakuniy tushunish, mulohaza qilish va umumlashtirish amalga oshiriladi. Aynan fikrlash bosqichida talabalar olingan ma’lumotlarni o‘z so‘zlari bilan ifodalaydilar. Mazkur bosqichning yana bir muhim vazifasi talabalar o‘rtasida fikr almashishdir. Munozara (dialog) jarayonida talabalar o‘z nuqtai nazarini bildiradi va bir-birini to‘ldiradi, shu orqali o‘z fikrlarining to‘g‘riligini aniqlashtiradilar. Shunday qilib, mulohaza yuritish (fikrlash) bosqichida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun individual va guruh bo‘lib ishlash usullarini qo‘llash tavsiya etiladi. Mazkur bosqichda quyidagi texnikalar qo‘llaniladi: aks ettirish (refleksiya), xulosa (men tushundim ...), har xil turdagi munozaralar, ijodiy asarlar yozish, muayyan masalalarning yechimini topish va hokazolar.

Xulosa shuki, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini, ta’lim jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, o‘quvchilarning zamonaviy talablarga asoslangan zaruriy ko‘nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, bugungi globallashuv davrida ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas’ul bo‘lgan o‘qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi. Zero, jahon sivilizatsiyasi davri hozirgi avlodni mumtoz pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o‘quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shunga muvofiq, bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni egallashi, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning o‘quv-biluv faoliyatini takomillashtirishi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi hamda ta’limiy muhitni shakllantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. Akramova G.R. O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: ped.fanl.dokt.diss. …avtoreferati. -T.: 2023. -65 b.

3. Edward M. Glaser. „Defining Critical Thinking“. The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking Community. Qaraldi: 22-mart 2017.

4. Зыков М. А. Реализация проблемного обучения на уроках обществознания / М. А. Зыков // Научное сообщество студентов : материалы VII Междунар. студенч. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 28 февр. 2016 г.) / редкол.: О. Н. Широков [и др.]. — Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2016. — С. 66–68. — Текст: непосредственный

5. Тамме Е.В., Ушаков А.А. Формирование критического мышления обучающихся в условиях интегративной среды общего и дополнительного образования (на примере центра «Точка роста») // Современные проблемы науки и образования. – 2020. – № 6. ;

URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=30270 (дата обращения: 21.10.2023).

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KREATIV VA ZAMONAVIY METODLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Qamarova Nigora Fayzullayevna

Buxoro inovatsiyalar universiteti, magistratura ikkinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning o‘rni va ahamiyati, kreativ va zamonaviy metodlardan foydalanish imkoniyatlari, ijodiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga yordam berishi, kelajakda o‘z kasbiy faoliyati davomida yordam beradigan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash yoritib berilgan. Bundan tashqari kreativlikning mohiyati, kreativlik atamasi, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, ta’lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, tafakkurning egiluvchanligi, kreativlikning mezonlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, pedagogik texnologiya, fikrlash, dars, kasbiy faoliyat, mustaqil ta’lim, didaktika, kreativ yondashuv, innovatsion ko‘nikma, interfaol metodlar, tizimli yondashuv, tafakkur, darslik, ta’lim sifati.

Аннотация: В данной статье освещаются роль и значение креативных и современных методов в повышении эффективности обучения в высших учебных заведениях, возможности использования креативных и современных методов, способствующих развитию творческого мышления и самостоятельности, применению образовательных технологий, которые помогут в дальнейшем в процессе профессиональной деятельности. Далее излагаются сущность креативности, термин креативность, социальные факторы, влияющие на развитие качеств креативности, активности личности, пути и формы формирования критического, креативного мышления у обучающихся, гибкость мышления, критерии креативности.

Ключевые слова: креативность, педагогическая технология, мышление, урок, профессиональная деятельность, самостоятельное обучение, дидактика, креативный подход, инновационные навыки, интерактивные методы, системный подход, мышление, учебник, качество образования.

Annotation: this article highlights the role and importance of creative and modern methods in improving the effectiveness of education in higher education institutions, the possibilities of using creative and modern methods, helping to develop creative thinking and independence, the use of educational technologies that will help in the future during its professional activities. In addition, the essence of creativism, the term creativism, social factors affecting the development of creativism qualities, the activity of the individual, ways and forms of formation of critical, creative thinking in educators, flexibility of thinking, criteria of creativism are described.

Keywords: creativity, pedagogical technology, thinking, lesson, professional activity, independent education, didactics, creative approach, innovative skills, interactive methods, systematic approach, thinking, textbook, quality of education.

KIRISH

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol

usullar, kreativ va zamonaviy metodlarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Jahon mamlakatlari kelajak kadrlarini tayorlashda talabalarni zamonaviy bilimlar bilan o‘qitish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo‘llash zamonaviy ta’limning asosiy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. “Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyatini ko‘rib chiqamiz. Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo’llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi.

O‘qitish kreativi ta’limning faoliyatini ta’minlaydi, bilimlarni mehnat jarayoniga tatbiq etishni ta’minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo‘liga ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarni o‘qitishda kreativ shaxsning intizom, iroda va ixtisoslikka bo‘lgan qiziqishini yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo‘lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta’lim kreativlari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo‘naltiradi[5].

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta’lim oluvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini ta’minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas’uliyatlidir. Bu vazifani ado etish uchun o‘qituvchilar qaysi turdagi ta’lim muassasasida mehnat qilishidan qat’iy nazar doimiy ravishda o‘z ustilarida mustaqil ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari, ilmiy ijodiy izlanishlari hamda kreativ va zamonaviy metodlardan foydalanishlari zarurdir.

Tadqiqotning muammosiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu mavzuni xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Amerikalik olim D.Veksler: “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”, – deb ta’rif beradi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o‘zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi”[6].

Falsafiy nuqtayi nazardan qarasak, kreativlik – (lotincha: creo – ijod qilish, yaratish) – ijodiy qobiliyat, muammo yoki holatni boshqacha o‘rganish ma’nosini bildiradi. Boshqacha aytganda, kreativ qobiliyat – turli holatlarni nostandart dunyoqarashda qabul qilish va ijodiy yaratuvchanlikka moyillikdir. Kreativ qobiliyat

strukturasi bo‘yicha olimlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Masalan, F.Djakson, S.Messika va boshqa olimlar fikriga ko‘ra, kreativlik qobiliyat yuqori motivatsiya (ruhlantirish) hamda boshqa omillar: bilimdonlik, fikrlash uslubi, shaxsning o‘ziga xosligi, kognitiv va hissiy sifatlaridan aniqlanadi. T.B. Shiloning takidlashiga ko‘ra, kreativlik – fikrlashning kognitiv-intellektual ijodiy omili (tezkorlik, egiluvchanlik, originallik, ishlab chiqilganlik) va shaxsning individual omili (tavakkalchilik, murakkablik, qiziquvchanlik, tasavvurga egalik) tashkil etadi. Umumiy qilib aytdigan bo‘lsak, kreativlik strukturasi motivasion (ruhlantiruvchi), samarador, intellektual, estetik, ekzistentsial, kirishuvchanlik, kompetentlik kabi kreativ sifatlarning o‘ziga xos va noyob birlashmasidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning o‘rni va ahamiyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda jahonda ta’lim tizimi hamda ishlab chiqarishda kreativ fikrlashni kuchaytirish va yangi texnik fikrlashni izlashning nazariy asoslari va uslubiy vositalarining rivojlanishi paydo bo‘ldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, texnik ijodkorlikning ilmiy asoslarini rivojlantirish, kreativ jarayonni kuchaytirish usullarini ishlab chiqish, ijodkorlik asoslarini o‘rgatish, ilmiy, loyihalash va konstruktorlik hamda texnologik tashkilotlarda, korxonalar va universitetlarda ijod uchun qulay sharoitlar yaratish dolzarb ehtiyojga aylandi.

Kreativ fikrlashni faollashtirishning evristik texnikasi va usullarini o‘rganish muvaffaqiyatni yaqinlashtiradi, shuningdek, shaxsning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Kreativ boshqarish usullarini, ijodkorlik nazariyasini, yangi texnik yechimlarni izlash va usullarini o‘zlashtirish ijodning ijtimoiy ahamiyatini, uning ijtimoiy zarurligini anglashga, ularning kreativ salohiyatini yanada to‘liq ochib berishga yordam beradi. Shu sababli, jamoaning kollektiv ongini shakllantirish, birgalikdagi tadbirlarni tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqish qiziqroq hisoblanadi.

Kreativ ta’lim konsepsiyasi ko‘pincha bunday murakkab formulaga ega bo‘lgan muammolardan ehtiyot bo‘ladi. Biroq, “kreativ faoliyat”, “kreativ qobiliyatlar”, “kreativ ta’lim” tushunchalari bugungi kunda keng qo‘llanilmoqda, juda aniq va juda muhim amaliy mazmunga ega. Ko‘pgina mamlakatlarda, xususan, Buyuk Britaniyada, ba’zi biznes maktablari menejerlar uchun kreativ boshqaruv dasturi bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazadilar[12].

Oliy ta’lim tizimida o‘qitish kreativlari fundamental va amaliy bilimlarning o‘zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va o‘z kasbiy faoliyatini shakllantiradi. Pedagogik kreativ o‘qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko‘ra pedagogik kreativning tuzilmasi aniqlanadi: konseptual asos, ta’lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayondan iborat bo‘ladi.

Har bir pedagogik kreativ muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi. Pedagogik

kreativning ilmiy konsepsiyasi ta’lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarini qamrab oladi. Texnologik jarayon o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o‘quv jarayonini boshqarish usullari, o‘quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik kreativni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar:

- izchillik pedagogik kreativning mezoni sifatida jarayonning mantiqiyligi, pedagogik kreativning barcha qismlarining o‘zaro bog‘likligi, yaxlitligini o‘z ichiga oladi;
- pedagogik kreativning mezonlaridan biri boshqaruvga asoslanganligidir. U o‘quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o‘qitish metodlari va vositalari bilan o‘zgartirib turishdan iborat bo‘ladi;
- pedagogik kreativning samaradorlik mezoni ta’lim jarayonining aniq sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko‘zda tutadi;
- qayta tiklash pedagogik kreativlar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik kreativlarni boshqa o‘quv yurtlarida qo‘llash imkoniyati tushuniladi”[13].

“Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurti ta’lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik kreativ holatlar quyidagilardan iborat:

- muammoli o‘qitish;
- o‘yinli kreativlar;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi kreativlar;
- o‘qitishning tabaqalashtirilgan va individual kreativi;
- dasturlangan o‘qitish kreativi;
- kompyuter axborot kreativi”.

Muammoli o‘qitish jarayonida kreativ holatlari o‘ziga xos sususiyatga ega. Ulardan biri “Fikrlar hujumi” kreativ holatini ko‘ramiz. “Fikrlar hujumi” – bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan xoli qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yengishdir. Bu metod A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g‘oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibani rag‘batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi – mashg‘ulot rahbariga bog‘liq. “Fikrlar hujumi” ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak, mashg‘ulotning davomiyligi bir soatgacha davom etishi kerak[17].

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Oliy ta’limning zamonaviy tashkiliy shakllarida, ta’limni tashkil etish, dars va unga qo‘yiladigan asosiy talablar, juftlik va kichik guruhlarga bo‘lingan holda darslarni tashkil etish, oliy ta’limning zamonaviy tashkiliy shakllari hamda noan’anaviy ta’lim texnologiyasi an’anaviy ta’lim texnologiyasidan farq qilib, talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e’tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy xarakterga ega bo‘ladi. Dars tuzilmasi o‘zgaruvchan bo‘ladi va an’anaviy pedagogikada metodik ishlanmalar o‘qituvchi dars o‘tishi uchun

tuzilsa, noan’anaviy ta’lim esa o‘quvchini o‘quv-bilish faoliyatining shakllari va mazmunini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini ishlab chiqishni taklif etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’limda kreativ fikrlash va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari yordamida olib boriladigan dars an’anaviy darsdan o‘quv jarayonini tashkil etish va unda ishlatiladigan metodlar bilan ham farqlanadi. Hozirgi kunda o‘qish jarayoni talabalarning mustaqil bilim olishiga asoslanadi. Talabalarning fanlardan mustaqil ta’limini tashkil etishda, avvalo, ularning mustaqil bilim olishlari uchun ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hamda ta’limiy yondashuvlarni hisobga olish zarur. Talabalarning mustaqil ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikmalarini shakllantirishga kreativ yondashuvning mohiyati shundan iboratki, talablarni bilimlarni chuqurroq egalashga, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lishga yordam beradi. Bu tamoyil o‘qitish jarayonida ishtirok etuvchi sub’ektlarning munosabatini va o‘qituvchining jarayondagi rolini aniqlaydi.

Kreativ ta’lim texnologiyasida, kreativ ta’lim jarayonini samarasini oshirish uchun har xil metodlardan foydalanish kerak. Ushbu metodlar orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’yektiv baholashi mumkin.

Shunday qilib, mohiyatan kreativlik – bu asl g‘oyalar tushunchasi va ularni amalga oshirish harakati. Creativity at Work asoschisi Linda Neymanning so‘zlariga ko‘ra, “Agar sizda g‘oyalar bo‘lsa va ular asosida harakat qilmasangiz, demak, siz tasavvurga egasiz, lekin ijodkor emassiz”. Kreativlik shunchaki narsalarni bir-biri bilan bog‘lashdir. Ijodkor odamlardan qanday qilib bir ishni qildingiz, deb so‘rasangiz, ular aslida buni qilmaganliklarini, shunchaki nimanidir ko‘rganlar va o‘sha ishni takror bajarish mobaynida paydo bo‘lgan. Bu ularga birozdan keyin ayon bo‘ladi. Buning sababi, ular boshdan kechirgan tajribalarini bog‘lash va yangi narsalarni sintez qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kansepsiyasini tasqilash to‘g‘risida”gi
3. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni
4. Qurbonova B., Oliy ta’lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta’limni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari // "Ijtimoiy boshqaruv" jurnali - T.: Toshkent “zebo prints” 2023. – Б. 632-637.
5. Karimova B.,Ta’lim jarayoniga pedagogik kreativlikni joriy etishning o‘rni // “Ta’lim, fan va innovatsiya” ilmiy jurnali – T.: Noshirlik-Yog‘dusi. 2023. -Б. 39-41.
6. Eshquvvatov U.A. Talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyati. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Maxsus son. – Buxoro, 2021. B 372.

7. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – Санкт-Петербург: Спгутд, 2006.
8. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. – T., 2007. – 315 b.
9. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. / Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.
10. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T: “Fan”, 2009. – 168.
11. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
12. Аакер Д.А. Стратегическое рыночное управление / Д.А. Аакер; пер. с англ. под ред. Ю.Н. Каптуровского. – СПб: Питер, 2002. – 544 с.
13. Korol A.D. Talabalarning kreativ o‘zini o‘zi anglash texnologiyasida evristik dialog usuli // Eidos. 2002. – No 1. - S. 2. URL: https://eidos.ru/journal/
14. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
15. Innovasion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
16. Mirzayeva, F. (2022). Kredit modul tizimining amaliyotga joriy etilishi. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 479-484
17. Саидова Б. Н. The role of women educators in supporting women’s education //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 1. – С. 12-17.
18. Samieva Sh., Narzulloeva F. Oliy talimda strategik fikrlash va kreativ boshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari // Образование и инноватsионные исследования международный научно-методический журнал.– 2022. – №. 1. – С. 163-177.
http://www. edujournal.uz
http://www.stat.uz
http://www. oliygoh.uz.uz
http://www.edu.uz
https://www.esijournal.uz/

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA TA'LIM SAMARADORLIGI

K.Eshquvatov
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi. Pedagoglarning kreativlik qobilyatini shakllantirish va uning ish faoliyatidagi o'rni. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, har xil g'oyalar yaratish, bahs-munozarali dars samarasini oshirish uchun qilinadigan harakatlar to'g'risida. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llaniladigan metodlar.

Kalit so'zlar: O'yinlar turli xil metodlar qo'llash, kreativ ta'lim jarayonidagi muammolar, innovatsion yondashuv, dars samarasini oshirish, texnologiyalar.

Аннотация: Понятие о современных педагогических технологиях. Формирование творческих способностей педагогов и их роль в трудовой деятельности. О применении современных технологий в образовательном процессе, о создании всевозможных идей, о действиях, предпринимаемых для повышения эффективности дискуссионного урока. Методы, применяемые в современных педагогических технологиях.

Ключевые слова Игры с применением различных методов, задач в творческом образовательном процессе, инновационного подхода, повышения эффективности урока, технологий.

Abstract: The concept of modern pedagogical technologies. The formation of the ability of educators to creativeness and its place in work activities. About the application of modern technologies in the educational process, the creation of various ideas, the efforts to increase the effectiveness of the controversial lesson. Methods in which modern pedagogical technologies are used

Key words: Games apply a variety of methods, problems in the process of creative education, innovative approach, increasing the effect of the lesson, technologies

Hozirgi an'anaviy ta'lim XVII asrda Y.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf-dars tizimidan iborat bo'lgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik texnologiyalar jarayonini takomillashtirish, uni bola shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar hisoblanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qil;ishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: tabaqalashtirilgan, induviduallashtirilgan, dasturlash ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar: bolaning tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonii tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga

asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi talim texnologiyalari: bola shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini ijobiy qobilyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari hususiy (o‘quv fanlari) pedagogik texnologiyalari, alternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari yo‘nalishlari ham mavjud. Shuningdek, hozirgi pedagogik texnologiyalarning boshqa yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrative, adptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardir. Hozirgi kungacha aksariyat tarbiyachilar (halq ta’limi tizimida olib borilayaotgan qator dasturlar) – “Global ta’lim”, “Bolaga nisbatan do‘stona munosabatdagi maktab”, “Maktab ta’limini rivojlantirish ”, “Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim” va boshqalarda ishtirok etgan tarbiyachilar bundan mustasno o‘z faoliyatlariga zamonaviy usullarni ilmiy maqolalar, risolalar, mahalliy ilg‘or tajribalarni o‘rganish orqali stixiyali tatbiq etib kelmoqdalar.

Pedagog bolaga tayyor fikr bermay, uning ongida borliqni anglashga imkon yaratishi va Bolani o‘zini o‘ylashga, fikrlashga yo‘naltirishi zarur.

Jumboqli o‘yinlar orqali mashg‘ulot jarayonida bolalarning qobilyatini o‘stirish bilan birga, ularda jozibadorlikni, qiyin vaziyatdan to‘g‘ri yo‘l topishga yordam berish xususiyatlari tarbiyalanadi. Masalan, “Oq va qora ” o‘yini orqali bolalarga biror jismning yaxshi va yomon, salbiy va ijobiy xusussiyatlarini so‘zlab berishga o‘rgatiladi. Oq rangdagi doirachalarni ko‘rganda, bolalar shu buyumni yaxshi sifatlarini aytadi, qora rangda esa qarama-qarshi jihatlari topiladi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlar umumlashtirilganida, quyidagi xulasaga keltirish mumkin. Ta’lim-tarbiyaning a’’anaviy ish shakllarini taqqoslaganda, ta’limning maqsadi avval bolalarga bilim berish, ularning ko‘nikma, malakalarini shakllantirish bo‘lgan bo‘lsa, endi bilim berish bilan bir qatorda ularning ijobiy qobilyatlarini rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. Ishning umumiy shakli eslab qolishdan mustaqil fikrlash, izlanishga aylanadi.

Pedagogning asosiy maqsadi “Men kabi bajargan”, “Muammolar echimini mustaqil o‘yla"ga aylanadi. Pedagogning o‘rni “Mening so‘zim qonun”dan hamkorlikka intilish bo‘ladi. Pedagog va bola o‘rtasidagi muloqot turi monologdan dialogga aylanadi. Mazkur texnologiya har bir bolaning namunali tahsil olish, guruhga muvafaqiyat olib kelishini anglagan xolda ularni muntazam va sidqidildan aqlioy mehnat qilishga, o‘qib topshiriqlarni sifatli bajarishga, o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib o‘zaro yordam uyushtiurilishiga zamin tayyorladi.

Bolalarning bilimlarini aniqlashda ularning bir biri bilan emas, balki har bir bolaning kundalik muvaffaqiyati avval qo‘lga kiritilgan natijasi bilan taqqoslanadi.Shundagina bola o‘zining mashg‘ulot davomida erishgan ko‘rsatkichi guruhga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarini puxta o‘zlashtirishga intiladi.

Pedagog o‘quv dasturidan o‘rin olgan mavzuni hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining usullaridan foydalanib o‘tishini belgilagandan so‘ng, bolalar guruhi uchun mavzu materialini mustaqil ishlab o‘rganishlariga imkon beradigan topshiriqlarni tuzadi.

Pedagog mashg‘ulotni boshlashdan avval bolalarni ikki guruhga ajratib, mavzu bo‘yicha tuzilgan o‘quv topshiriqlari asosida ularning mustqil va ijodiy ishlarini

tashkil etadi. Har topshiriq bo‘yicha savol-javob o‘tkazilib bolalarning javoblari tegishli ballar bilan boholanib boriladi. Mashg‘ulot so‘ngida golib guruhaniqlanadi va a’zolari rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha joylarda amaliyotchilar, ya’ni tarbiyachilar ishlarini takomillashtirishlari, ijodkor, izlanuvchan tarbiyachilar bilan munozaralar, uchrashuvlar, fikr almashuvlar o‘tkazilib turishlari lozim. Chunki fikrlardan g‘oyalar paydo bo‘ladi. Bu esa yangi ishlarni amalga oshirishda, yangiliklar yaratishda yanada qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Saydaxmedov N.S Yangi pedagogik texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedago-o‘qituvchilar chum maliy tavsiyalar) -T .: Moliya, 2003.

2. Urazova M.B, Eshpulatov SH Bo‘lajak o‘qituvchilrning loyihalash faoliyati Metodik qo‘llanma

T- TDPU Rizografi, 2014-y.

3.Internet saytlari.www.ziyouz.com kutubxonasi -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, - multimediya .uz

4.R.Ishmuxammedov, M.Yuldoshev Ta’lim va tarbiyada innovatson pedagogik texnologiyalar T-: “Nihol nashriyoti”, 2013 yil

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ И МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Амантурдиев Г.Б., Амантурдиева Н.Г., Амантурдиева Д.Г.
доцент кафедры «Водные биоресурсы и технологии» Филиала АГТУ Ташкентской области, ассистент(ка) кафедры «Водные биоресурсы и технологии» Филиала АГТУ Ташкентской области, студент(ка) факультета «Экология и природопользование» Филиала АГТУ.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Инновационные педагогические технологии, интеллектуальной деятельности, интерактивные методы обучения, механизмы инновационной деятельности, мотивация учебной деятельности, научно-исследовательская деятельность, педагогика и процесс обучения.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается возможность разработки и применения различных методов обучения для подготовки студентов технических вузов к инновационной инженерной деятельности. Доказывается перспективность применения активных и интерактивных методов в формировании условий для развития активности учебной деятельности студентов.

Abstract.

The article considers the development and application of various teaching methods aimed at preparing students of technical universities for innovative engineering. The authors prove the effectiveness of active and interactive teaching methods in motivating university students for educational activity.

Keywords: passive teaching methods, active and interactive teaching methods, teaching, motivation of educational activity.

В наше время значительно меняется роль образования в жизни общества и меняются подходы к обучению. Роль педагога уже не является центральной в учебном процессе, новое время выдвигает на первое место личность обучающегося, его интересы и потребности. В соответствии с этим необходимо обновлять содержание и методику преподавания, технологии, используемые в обучении, методы оценки деятельности обучающихся Главной целью инновационных технологий образования является подготовка человека к жизни в постоянно меняющемся мире.

Современное развитие экономики обусловливает потребность общества и предприятий не только в высококвалифицированных специалистах, компетентных в профессии, но и компетентных в инновационной деятельности, обладающих качественными знаниями, способных самостоятельно решать не только профессионально-производственные, но и научные проблемы, готовых к творческой инновационной деятельности, к непрерывному личностному и профессиональному развитию. Сегодня эта

очень актуальная тема порождает изменения в требованиях к подготовке выпускников вузов, а значит изменения стратегии и тактики обучения [1-2].

Образование должно развивать механизмы инновационной деятельности, находить творческие способы решения жизненно важных проблем, способствовать превращению творчества в норму и форму существования человека.

Обучение – это целенаправленное общение субъектов системы обучения (педагогов, студентов, инфраструктуры), реализуемое в соответствии с разработанным проектом, в ходе которого осуществляется изучение и осуществление опыта, выработанного человечеством и наработка собственного опыта деятельности. Поэтому в современном процессе обучения переносятся с преимущественно информативного общения двух субъектов системы обучения «педагог – студент» на сам процесс познания и способы переноса знаний в деятельность. Эффективность этого процесса зависит от множества компонентов, входящих в систему, но центром внимания является студент и его познавательная активность. [5].

Понятие «инновация» означает новшество, новизну, изменение; инновация как средство и процесс предполагает введение чего-либо нового. Применительно к педагогическому процессу инновация означает введение нового в цели, содержание, методы и формы обучения и воспитания, организацию совместной деятельности преподавателя и обучающегося.

Инновационные педагогические технологии взаимосвязаны, взаимообусловлены и составляют определенную дидактическую систему, направленную на воспитание таких ценностей как открытость, честность, доброжелательность, сопереживание, взаимопомощь и обеспечивающую образовательные потребности каждого ученика в соответствии с его индивидуальными особенностями.

Инновационная деятельность предполагает систему взаимосвязанных видов работ, совокупность которых обеспечивает появление действительных инноваций. А именно:

– научно-исследовательская деятельность, направленная на получение нового знания о чем либо;

– проектная деятельность, направленная на разработку особого, инструментально-технологического знания о том, как на основе научного знания в заданных условиях необходимо действовать, чтобы получилось то, что может или должно быть («инновационный проект»);

– образовательная деятельность, направленная на профессиональное развитие субъектов определенной практики, на формирование у каждого личного знания (опыта) о том, что и как они должны делать, чтобы инновационный проект воплотился в практике («реализация»). [1].

Инновационные технологии в образовании – это организация образовательного процесса, построенная на качественно иных принципах,

средствах, методах и технологиях и позволяющая достигнуть образовательных эффектов, характеризуемых:

- усвоением максимального объема знаний;
- максимальной творческой активностью;
- широким спектром практических навыков и умений.

Таким образом, происходит переориентация на гуманистический подход в обучении. Внедряются инновационные педагогические технологии, предусматривающие учёты развитие индивидуальных особенностей обучающихся. Современные образовательные технологии можно рассматривать как ключевое условие повышения качества образования, снижения нагрузки обучающихся, более эффективного использования учебного времени.

Преподаватель должен направлять обучающихся к поиску правильного решения проблемы, предлагая, например, определенные источники необходимой информации. В основе инновационных технологии лежит развитие познавательных, творческих навыков обучающихся и критического мышления, умения самостоятельно конструировать свои знания, ориентироваться в информационном пространстве.

Студенты имеют возможность понять свою роль в деловой игре, оценив свои способности (творческие, исполнительские, критические). Также этот метод позволяет проверить степень умения переноса знаний в деятельность. Создание в процессе игры среды, приближенной к реальным условиям профессиональной деятельности, позволяет научиться самостоятельно выделять проблемы, анализировать их, формулировать задачи, находить возможные для применения методы их решения, правильно управлять результатами интеллектуальной деятельности.

Интерактивные методы ориентированы на активизацию учебно-познавательной деятельности студентов посредством диалогового взаимодействия с преподавателем, между собой, с компьютером.

Интерактивные методы обучения в отличие от предыдущей группы методов, предполагающих плавное подробное изложение материала преподавателем, предполагают активное участие студентов в процессе обретения ими знаний, умений навыков, основанных на информации, найденной самими студентами с подачи преподавателя, т. е. сознательное их усвоение [3-4].

Поэтому активность обучаемых – это их интенсивная учебная деятельность, а педагогов - интенсивная педагогическая деятельность.

Метод моделирования конкретных ситуаций позволяет обсуждать профессиональные, социальные, инновационные, правовые и другие проблемы. Он активно действует на формирование мотивации к конкретной деятельности, в том числе мотивации к поисковой деятельности, в процессе которой находится нужная информация, позволяющая разрешить проблемную ситуацию. В процессе моделирования выделяется проблема, ее участники, связи между ними, цель, которой надо достигнуть, решая проблему, моделируется и решается задача путем использования имеющихся и

трансформированных из вновь найденной информации знаний. Анализ полученных решений, выбор лучшего в процессе общего обсуждения, грамотное его изложение, описание и применение для решения аналогичных ситуаций формируют профессиональные умения. [5].

Таким образом, опыт современной образовательной организации располагает широчайшим арсеналом применения педагогических инноваций в процессе обучения. Эффективность их применения зависит от сложившихся традиций в общеобразовательном учреждении, способности педагогического коллектива воспринимать эти инновации, материально-технической базы учреждения.

Новые образовательные стандарты вводят новое направление оценочной деятельности оценку личных достижений. Для общества становится важным объективировать личные достижения каждого субъекта образовательного процесса: обучающегося, педагога, семьи. В стандартах в итоговую оценку обучающегося включается и накопленная оценка, характеризующая динамику индивидуальных образовательных достижений на протяжении обучения. В качестве оптимального способа организации накопительной системы оценки выступает портфолио. Это способ фиксирования, накопления и оценки работ, результатов обучающегося, свидетельствующих о его усилиях, прогрессе и достижениях в различных областях за определенный период времени. [6].

ЛИТЕРАТУРА

1. Анисимов В.В., Грохольская О.Г., Никандров Н.Д. Общие принципы педагогики и современные инновации. М.: Издательский Дом «Просвещение»; 2016, с. 35.

2. Берденникова Н. Г., Меденцев В. И., Панов Н. И. Организационное и методическое обеспечение учебного процесса в вузе: учебное пособие. Серия: Новое в высшем профессиональном образовании. – СПб.: Д.А.Р.К., 2006. – 208 с.

3. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: Изд-во ИРПО МО РФ, 1995. - 336 с.

4. Братцева Г. Г. Активные методы обучения и их влияние на смену педагогической парадигмы // Философия образования. Серия "Symposium": сб. мат. конф. - Вып. 23. -СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2002. - С.336-340.

5. Ларина В.П., Ходырева Е.А., Окунев А.А. Лекции на занятиях творческой лаборатории «Современные педагогические технологии». – Киров: 1999 – 2002.

6. Тюнников, Ю.С. Анализ инновационной деятельности общеобразовательного учреждения: сценарий, подход/ Ю.С. Тюнников// Стандарты и мониторинг в образовании. – 2015. –№ 5. – с. 10.

FIZIKA KURSINING “O‘ZGARMAS TOK QONUNLARI” BOBINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Alinazarova Maxfuza Alisherovna, Xo‘jamberdiyev Dilmurod Isoqjon o‘g‘li
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedra mudiri, dotsent. Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi, fizika fani metodisti

Annotatsiya

Ushbu ishda fizika kursining “O‘zgarmas tok qonunlari” bobini o‘qitishda o‘quvchilarni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, misol tariqasida o‘quvchilarga elektr tokini hosil bo‘lish shartlariga oid amaliy tajriba ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zgarmas tok qonunlari, kreativ qobiliyat**,** tok kuchi, kuchlanish, qarshilik, tajriba, amaliy mashg‘ulot.

Аннотация

В данной работе описаны вопросы развития творческих способностей студентов при преподавании главы «Законы постоянного тока» курса физики. Также в качестве примера студентам был показан практический эксперимент по условиям генерации электрического тока.

Ключевые слова: законы постоянного тока, творческие способности, сила тока, напряжение, сопротивление, опыт, практическая подготовка.

Annotation

In this work, the issues of developing students’ creative abilities in teaching the "Laws of constant current" chapter of the physics course are described. Also, as an example, the students were shown a practical experiment on the conditions for the generation of electric current.

Key words: constant current laws, creative ability, current strength, voltage, resistance, experience, practical training.

Biz yashayotgan XXI asrda ilm-fan, intellektual salohiyat taraqqiyot mezoniga aylanib, tobora yuksak bosqichga chiqmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, yosh olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni hayotga tatbiq etish borasida yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

O‘quvchilarining kreativ fikrlashlarini rivojlantirishga fanning mazmuni birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek o‘quv materialini tuzilishi va bayon etish metodi ham katta ahamiyatga egadir. Agar mavzu bayoni natijaviy fakt, model, gipoteza mantiqan kelib chiquvchi natijalarni tajribada tekshirish bo‘yicha bayon etilsa ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘quv materialining mazmunini tanlash haqidagi masala o‘qitish maqsadiga bog‘liq holda hal qilishi kerak. Agar biz o‘quvchilarning faqatgina qonunlar bilan tanishtirsak, u holda o‘quvchilarga ular foydalanadigan tayyor nazariy xulosalarni berishning o‘zi kifoya qiladi.

Agar o‘quvchilarning faqatgina xabardor qilish emas, balki o‘qitish jarayonida

ularning kreativqobiliyatlarini rivojlantirish masalasi qo‘yiladigan bo‘lsa, u holda o‘quv materialining bayonini nazariya qaysi natijaviy faktlar asosida yuzaga kelganini va nazariyaning to‘g‘riligi qanday eksperimentda tasdiqlanganini tushuntirmasdan turib, tayor nazariy ma’lumotlar asosida tushuntirish mumkin emas.

Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarni kreativ fikrlashini rivojlantirishni hisobga olinsa, o‘quvchilarning yangi materialini o‘zlashtirishi oson va to‘la holda tushunarli bo‘ladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish o‘qitishning ijobiy asoslashdan va bilimga qiziqish hamda qobiliyatlarini shakllantirishdan va ularni hodisalarni tushuntirish uchun qo‘llay bilishda umumlashgan o‘quv va amaliy bilim va malakalardan, o‘quvchilar mustaqilligining maksimal rivojlantirishdan ajralmasdir. Kreativ qobiliyatlarning asosiy qismi fikrlash va bilish faolligi hisoblanadi.

Qobiliyatlarning kreativ rivojlanishiga o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarining pedagogik muomalasining xarakteri ta’sir qiladi.

Eng yaxshisi, darsda yangi materiallarni bayon etishda muammoli ta’lim texnologioyalaridan foydalanish hisoblanadi. Bunday texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar orasida o‘quvchi tashkil etgan tortishuv vujudga kelib, turli qarashlar bir-biri bilan duch keladi. Bunday holda tushunchalarni qonuniyatlarni o‘quv masalasining hal etish jarayonida o‘quvchilarning o‘zlari keltirib chiqadilar. Tortishuv vujudga keltirish juda katta mehnat va ustalikni talab etadi, ammo samaradorlik sarf etilgan mehnat oqlaydi. Ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda fizika o‘qituvchisining hamma ishi kreativ fikrlashlarini rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Ishni rejalashtirishda o‘quvchilarning kreativ faoliyatlari qayerda, qachon va qanday qilib, amalga oshirilishini oldin o‘ylab qo‘yish zarur. Bunda o‘quvchilarning ijodiyotga tayyorgarligini, ularning bilim, mahorat va malakalarining darajasini, taxminlarini nazariya va eksperemental tekshirish imkoniyatini e’tiborga olish kerak. Kreativ masalalarni hal etishdan oldin zaruriy bilimlar egallangan bo‘lishi kerak. Yangilik kashf etish uchun sharoitlar qanchalik yaxshi yaratilgan bo‘lsa, kreativ aktivlik shunchalik yuqori bo‘ladi. Demak, o‘quvchi sub’ektiv kashfiyot amalga oshirish qanchalik yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsa, uning kreativ faoliyati shunchalik aktiv va jarayon shunchalik qisqa bo‘ladi. Kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradigan boshqa o‘quv shakli bo‘lib, o‘quvchilar hisoblanadi. Bunda fizika o‘qituvchisi o‘zi bilan birga ishlaydigan bir guruh o‘quvchilar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Bu va boshqa samarali o‘quv shakllari va o‘quvchilarning mustaqilligi darslarda amalga oshiriladi. Ammo ular uchun, demak, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quv konferentsiyalari, seminarlari va to‘garaklar ham juda foydalidir.

O‘rta maktabning yuqori sinflaridagi o‘quv seminarlari – umumiy qiziqish tortishuv paydo bo‘ladigan paytlarda jamoa ishlarining eng yaxshi shakllaridan biridir. Har bir o‘quvchi fikrlar to‘qnashuvini kuzatadi, o‘zining nuqtai nazarini aniqlashga harakat qiladi. Yoshga oid psixologiyaning ko‘rsatgichlari va maxsus o‘tkazilgan tekshirishlar o‘quv mashg‘ulotlarini seminar shaklida tashkil etish yuqori sinf o‘quvchilarining talablariga va qiziqishlariga, ularning bilimga

qiziqishlarining va kreativ qobiliyatlarini rivojlanishiga mos keladi. Misol uchun, “Elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va undan foydalanish” degan mavzu bo‘yicha seminar o‘tkazishda umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari elektr bo‘limida o‘qigan ma’lumotlarini bayon etish bilangina cheklanib qolmay, shu bilan bilgan elektr energiyasini uzatish usullari bo‘yicha o‘z nuqtai nazarlarini ifodalab beradilar. Odatda tortishuv paydo bo‘ladi: ayrim o‘quvchilar iqtisodiy nuqtai nazaridan elektr energiyasini o‘zgaruvchan tokda uzatish qulayroq hisoblanadi, deb isbot etadilar, boshqalar esa elektr energiyasining o‘zgarmas tokda uzatish foydasiga keskin dalillar keltirishadi.

Umumiy o‘rta ta’limda O‘zgarmas tok qonunlari bobi dastlab VIII sinfdagi “Tok kuchi, kuchlanish, qarshilik”, “Tokning ishi va quvvati” mavzularida o‘rganiladi. VIII sinfda shakllangan ko‘p tushunchalar va qonuniyatlar X sinfda kengroq rivojlantiriladi va chuqurlashtirilib o‘qitiladi. Bu xususan, o‘tkazgichlarda elektr toki mavjud bo‘lish sharti haqidagi masalaga oiddir.

Elektr toki o‘tkazgichda uzoq vaqt mavjud bo‘lishi uchun unda elektr maydoni tutib turilishini o‘quvchilar bilishadi. Zaryadli zarrachalar o‘zlarining tartibli harakati davomida o‘tkazgichning ionlari, molekulalari yoki atomlari bilan to‘qnashib, bunda o‘z energiyaasining bir qismini yo‘qotishini eslatib o‘tish kerak. Shu sababli ular uzluksiz harakatlanishi uchun har doim ularga kuchlar ta’sir qilib turishi, ya’ni o‘tkazgichda har doim elektr maydoni mavjud bo‘lishi kerak.

Shu boblarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiruvchi amaliy tajribani ko‘rishimiz mumkin.

O‘tkazgichda elektr toki mavjud bo‘lish shartini gidrodinamik model yordamida ham tushuntirish mumkin (1-rasm). Turli sathda qilib suv quyilgan tutash idishlar orasidagi kran ochilsa, bir idishdan ikkinchisiga suv oqa boshlaydi. Bu oqish



ikkala idishda suv sathi bir hil bo‘lib qolguncha davom etadi. Suvning bu oqishi uzoq davom etishi uchun suv oqib tushayotgan idishdagi suvni u og‘irlik kuchi ta’siri ostida oqib o‘tayotgan idishga o‘tkazish kerak. Suvni og‘irlik kuchi bilan bunday ko‘chirish mumkin emas. Buning uchun boshqacha tabiatli kuch ta’sir etishi kerak. Potensiallar ayirmasini doimiy saqlab turishni elektrometrlar bilan qilingan tajribada ham amalga oshirish mumkin edi, bunda biror usul bilan musbat zaryadni ikkinchi elektrometrdan yana birinchi elektrometrga ko‘chirish lozim. O‘quvchilarga bunda ko‘chirilayotgan zaryadga birinchi elektrometrdagi zaryad elektrostatik itarishish kuchi bilan ta’sir qilishini tushuntirib, itarishish kuchlari yo‘nalishiga qarshi yo‘nalgan kuchlar ta’siri zarurligi ya’ni elektrostatik bo‘lmagan tashqi kuchlar ta’siri zarurligi asoslanadi. Bu kuchlar ish bajarishi kerak, bu ish evaziga elektrometrlar orasida potensiallar ayirmasi saqlanib turadi. Bunday ishni odatda tok manbai ichida ta’sir qiladigan kuchlar bajaradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki nazariy olingan bilimlarni amalda qo‘llash orqali o‘quv jarayonida samaradorlikni oshiribgina qolmay, balki o‘quvchilarning ijodiy ishlashiga, fizikadan tashqari boshqa fanlarni ham chuqur egallashga asos bo‘ladi va o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobilyatlarini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Habibullayev va boshqalar. Fizika: umumiy o‘rta ta’lim maktablari 8-sinfi uchun darslik. — T.: “O‘qituvchi”, 2019. — 176 b.

2. Fizika 10, 10-sinf uchun darslik/K. A. Tursunmetov[va boshq.] . – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

3. A.V.Pushkin, V.G.Razumovskiy, V.A.Fabrikant -“O‘rta maktablarda fizika o‘qitish metoidkasi asoslari” –Toshkent- “O‘qituvchi” -1990 yil.

4. 2.V.G.Razumovskiy-“O‘quvchilarning ijodiy qobiliyalarini o‘stirish” Toshkent – 1978 y.

KIMYO DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Bekmatova Umida Toshqulovna
Sirdaryo viloyati PYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, oliy toifa

Annotasiya. Ushbu maqolada kimyo darslarida o‘quvchilarni keativ fikrlashga o‘rgatish va samarali tomonlari misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Konsepsiya, kompetensiya, kreativ, kreativ yondashuv, kreativ fikrlash, didaktik o‘yinlar, Besh daqiqa o‘yini, Aylana o‘yini.

Abstract. In this article, the effective aspects of teaching students to think creatively in chemistry classes are highlighted based on examples.

Key words: Concept, competence, creative, creative approach, creative thinking, didactic games, Five-minute game, Circle game.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning biologiya fani bo‘yicha ilmiy dunyoqarashlarini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, ijtimoiy hayotlari va ta’lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishdan iborat. Konsepsiyaning asosiy maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi rivojlanish strategiyasini va yangi yondashuv tizimini belgilab olishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ilmiy xabardorlik va amaliy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Bugun dunyoda yuz berayotgan jadal suratdagi ilmiy texnologik ozgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch bu kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish. Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o‘laroq yaratilgan

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribagaasoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta’siri butun

jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativlik- bu bir vaqtning o‘zida yangi va qadrli g‘oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so‘zidan olingan bo‘lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli yo‘nalishdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir.

Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishikerak bo‘lgan muhim ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma ularga doimiy tarzdava shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko‘nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuvorqali yangi muammolarni hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab quvvatlaydi. O‘quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlashshu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi.Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalikqiziqish bildirmayotgan o‘quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o‘z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Ta'limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o‘quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish zarur. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni

tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o‘quvchilardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda didaktik, ta’limiy, innovatsion o‘yinlarning o‘rni beqiyos.

Didaktik o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta’sir etib, unda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o‘yinda zo‘r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O‘yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o‘quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi va kreativlik bilan bog‘liq holda uyg‘unlashadi. Ta’kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o‘yinli ta’limni o‘quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta’lim shakli deyish to‘g‘ri emas. U o‘quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish, kreativlik, ya’ni ijodiy faolligini oshiradi, qiziqish uyg‘otadi. Qiziqish bor joyda esa ta’lim sifati yaxshilanadi.

Darslarda o‘quvchilarning qiziqishini, kreativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi didaktik ta’limiy o‘yinlardan misollar keltiramiz.

“Besh daqiqa” o‘yini. Bu o‘yinni kimyoda hohlagan mavzuni o‘rganishda qo‘llash mumkin. O‘quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko‘rmasin. O‘yinni o‘qituvchi yoki a’lochi o‘quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O‘quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O‘quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Masalan, geografiyadan joy nomlari bo‘lsa eng ko‘p nom yozgan va uni izohlab bergan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

“Aylana” o‘yini. O‘yinga ishtirok qiluvchilar doira shaklida turadilar. O‘yin quyidagicha boshlanadi: boshlovchi o‘quvchi “Vodorod” desa, undan o‘ngda turgan o‘quvchi elementning oxirgi harfi ya’ni “d” harfi bilan boshlanuvchi boshqa bir elementni aytadi. Qaysi o‘quvchi 5-10 sekund davomida kimyoviy termin yoki element nomini ayta olmay to‘xtalib qolsa u o‘yindan chiqqan sanaladi. O‘yin bitta o‘quvchi qolguncha davom ettriladi, eng oxirida qolgan o‘quvchi g‘alaba qilgan hisoblanadi.

“Munozara” o‘yini.

Munozara o‘tkazish mavzusi aniq bo‘lishi kerak.

O‘yin texnologiyasi*:* kimyodan “Suvni xavzalarini ifloslanishdan saqlash” muammosi qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o‘quvchilarga berilib, sinf

o‘quvchilari 3-4 kishidan guruhlanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a’zosi qo‘yilgan muammolar haqida o‘z fikrini bayon etish huquqiga ega.

Boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspyert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi.

Kimyo fanini o‘qitishda foydalaniladigan didaktik o‘yinlar

«Uchinchisi ortikra» o‘yini. Mazkur interfaol o‘yinni fanlardan xohlagan mavzuni o‘rganish jarayonida qo‘llash mumkin, bunda bir-biriga mos keladigan 2 ta to‘gri va bitta noto‘g‘ri savol-topshiriq jadvali asosida o‘quvchi e’tiboriga havola etiladi. Buni biz geografik topshiriq misolida keltiramiz:

	Oksidlar	***Asoslar***	***Kislotalar***
1.	NaOH	KOH	HCl
2.	CuO	NaOH	HCN
3.	HgO	NaCl	CaO

Yuqoridagilar ichida qaysi biri ortiqchaligini kim tez topsa, o‘sha g‘alaba qiladi. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kretiv fikrlshni shakllantirish insonning mantiqiy fikrlay olish, ijodkorlikni namoyish etish, yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF –5712-son Farmoni.

2.Ismailov A.A., X.J.Daminov va boshqalar. "O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma" 2-son, Toshkent, 2020-yil

3.Ismatov I.Sh., Omonov H.T., Mahmudov Y.G‘. va boshqalar., Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari. “Yangi nashr” Toshkent-2016.

BIOLGIYA DARSLARIDA RASMIY VA NORASMIY BAHOLASH USULLARIDAN FOYDALANISH

Bekmatova Umida Toshqulovna
Sirdaryo VPYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annoytasiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar bilimini xolis baholashda rasmiy hamda no‘rasmiy usullardan foydalanishning avzalliklari to‘g‘risida fikr yuritilgan va misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Baholash, xolislik,tizimlilik, ko‘rgazmalilik, rasmiy va no‘rasmiy,kuzatuv,o‘z-o‘zini baholash

USE OF FORMAL AND INFORMAL ASSESSMENT METHODS FOR NEUTRAL ASSESSMENT OF STUDENT KNOWLEDGE.

Annotation: This article discusses the advantages of using formal and informal methods in the objective assessment of students’ knowledge and gives examples.

Keywords: Evaluation, objectivity, systematic, visual, formal and informal, observation, self-assessmentıo

Jahonda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o‘zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o‘z navbatida ta’lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda. Natijada eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta’limning barcha bosqichlarida, ta’lim-tarbiya berish va natijalarni baholash samaradorligini oshirish, o‘qitish usullarini takomillashtirish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

O‘quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mavzuni o‘zlashtirganlik darajasiga qarab bilimini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pincha psixologik va ayniqsa pedagogik adabiyotlarda "baholash" va "baho" tushunchalari aniqlanadi. Shu bilan birga, ushbu tushunchalarni farqlash o‘qituvchilarning baholash faoliyatining psixologik, pedagogik, didaktik va tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq anglash uchun o‘ta muhimdir.

Pedagogikada o‘quvchilaming ta iim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob’yektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko‘rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi.

Xolislik (ob’yektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ihniy asoslanganligi, pedagogning barcha ta iim oluvchilarga do‘stona munosabati hamda bilim, ko‘nikma va malakalarni baholashning aniq ko‘rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida-bilimlarni boshlang‘ich idrok

etishdan to amalda qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarida olib borish kerak.

Ko‘rgazmaliIik (oshkoralik) tamoyili aw alo barcha ta’lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo ‘yicha ochiq sinovdan o‘tkazishni anglatadi.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo‘lib kelgan. Chunki u o‘quv adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o‘quvchilaming bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o‘quvchilaming o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Avvalo, baholash - bu shaxs tomonidan amalga oshiriladigan baholash jarayoni, faoliyati (yoki harakati). Bizning taxminiy va umuman har qanday faoliyatimiz baholashga bog‘liq. Baholashning aniqligi va to‘liqligi maqsad sari harakatning ratsionalligini belgilaydi.

Ma’lumki, baholash funktsiyalari faqat tayyorgarlik darajasini tasdiqlash bilan cheklanmaydi. Baholash o‘qituvchini o‘rganish, ijobiy motivatsiya va shaxsga ta’sirini rag‘batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan ob’ektiv baholash ta’siri ostida maktab o‘quvchilarida o‘z-o‘zini baholash, o‘z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun baholashning ahamiyati, uning funktsiyalarining xilma-xilligi maktab o‘quvchilarining ta’lim faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularning identifikatsiyasini ta’minlaydigan ko‘rsatkichlarni izlashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bilim va ko‘nikmalarni baholashning amaldagi tizimi uning diagnostik qiymati va ob’ektivligini oshirish uchun qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Baho (ball) baholash jarayoni, baholash faoliyati yoki harakati, ularning shartli ravishda rasmiy aks etishi natijasidir. Psixologik nuqtai nazardan, baholash va bahoni aniqlash, uning natijasi bilan muammoni hal qilish jarayonini aniqlash bilan baravar bo‘ladi. Baholash asosida belgi uning rasmiy mantiqiy natijasi sifatida ko‘rinishi mumkin.

O‘quvchilarning o ‘quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari, hozirgi davr pedagogik amaiiyotida turli xil usullaridan dan foydalaniladi.Ko‘pgina mamlakatlarda o‘quvchilarning baholari ta’lim samaradorligini baholash uchun asos bo‘lib, ta’lim sifatining muhim parametrlaridan biridir. Bu o‘rinda o‘quvchilar bilimini rasmiy hamda no‘rasmiy baholash yaxshi natija beradi. O‘quvchining taraqqiyoti va tushunchasini baholashning asosiy usullaridan ikkitasi rasmiy va norasmiy baholashdir. Rasmiy baholashda testlar, viktorinalar va loyihalar mavjud. O‘quvchilar ushbu baholarga oldindan tayyorgarlik ko‘rishlari va tayyorlashlari mumkin va ular o‘qituvchilarga o‘quvchilarning bilimlarini o‘lchash va o‘qiyotgan taraqqiyotini baholash uchun muntazam vosita beradi.

Rasmiy - nuqta ko‘rinishida - belgining tabiatidan farqli o‘laroq, baholash tinglovchiga "*katlanmış*" baho - markaning ma’nosini tushuntirib, batafsil og‘zaki hukmlar shaklida berilishi mumkin.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, o‘qituvchining bahosi o‘quvchi ichki ravishda rozi bo‘lgandagina foydali tarbiyaviy samaraga olib keladi. Yaxshi ishlayotgan maktab o‘quvchilari uchun o‘zlarining baholari bilan o‘qituvchi tomonidan berilgan baholarning tasodifligi 46% hollarda bo‘ladi. Va yomon

ishlaydiganlar orasida - 11% hollarda. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga koʻra, oʻqituvchi va oʻquvchining oʻz bahosi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik 50% hollarda uchraydi. Oʻquvchilar oʻqituvchilar talablarini tushunsalar, baholashning tarbiyaviy samarasi ancha yuqori boʻlishi aniq.

Oʻquvchilarning oʻquv-bilish faoliyatini nazorat qilish natijalari uni baholashda ifodalanadi. Baholash - bu biror narsaning darajasi, darajasi yoki sifatini belgilashdir.

Norasmiy baholash odatiy, kuzatishlarga asoslangan vositalardir.

Juda kam tayyorgarlik bilan va natijalarni baholashga hojat yoʻq, bu baholash oʻqituvchilarga oʻquvchilarning taraqqiyoti uchun his-tuygʻu olishlariga va ular koʻproq oʻqishga muhtoj boʻlgan joylarni aniqlashga imkon beradi. Norasmiy baholash oʻqituvchilarga oʻquvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va kelgusidagi darslarga rejalashtirishni yoʻlga qoʻyadi.

Sinf xonasida norasmiy baholash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular potentsial muammolarni aniqlashga yordam berishi va oʻquvchilarning rasmiy baholash boʻyicha tushunishni namoyish etishi uchun kursni toʻgʻrilashga imkon berishlari mumkin.

Koʻpgina uy-roʻzgʻor oilalari norasmiy baholashlarga deyarli umuman tayanishni afzal koʻradilar, chunki ular koʻpincha yaxshi tushunmaydigan oʻquvchilar uchun tushunishning aniq koʻrsatkichidir.

Sizning sinfingiz yoki uy-joylaringiz uchun ijodiy norasmiy baholashning bir nechtasi misol keltiramiz.

Kuzatuv

Kuzatuv - har qanday norasmiy baholash uchun muhim ahamiyatga ega, biroq bu alohida mustaqil uslubdir. Oʻquvchingizni kun boʻyi tomosha qiling. Hayajon, hayajonlanish, zerikish va ishtiyoqni izlang. Ushbu tuygʻularni yuzaga keltiradigan vazifalar va tadbirlar haqida eslatma yozing.

Oʻquvchilarning ishini xronologik tartibda koʻrsatib turing, zaiflik va taraqqiyot darajasini aniqlang.

Ba’zida siz hozirgi ishni oldingi namunalarga solishtirib boʻlmaguningizcha, oʻquvchining qanchalik rivojlanganligini sezmaysiz.

Muallif Joyce Herzog taraqqiyotni kuzatishning oddiy, ammo samarali usuliga ega. Oʻquvchingizdan tushunadigan har bir matematik operatsiyaning misolini yozing, u toʻgʻri talaffuz qilishni biladigan eng murakkab soʻzni yozing yoki jumla yozishni (yoki qisqa xatni) yozing. Oʻsha jarayonni har chorakda yoki semestrda bir marta taraqqiyotni oʻlchash uchun bajaring.

Oʻquvchilarning oʻzini baholash

Oʻz-oʻzini baholashdan foydalanib, oʻquvchilar oʻzlarining rivojlanishini baholashlari va baholashlari kerak. Oddiy self-baholash uchun koʻplab variantlar mavjud. Ulardan biri oʻquvchilarni qoʻllashlarini soʻrashi kerak: "Men mavzuni toʻliq tushunaman", "Men asosan mavzuni tushunaman", "Men biroz chalkashdim" yoki "yordamga muhtojman".Oʻquvchilar qoʻyilgan maqsadga erisha olishlari uchun nimalar kerakligini aniqlay bilishlari kerak, buning uchun ularni oʻz-oʻzini baholashga oʻ rgatish zarur. Oʻz-oʻ zini baholash oʻ qituvchi bilan dialog olib

borishga asoslangan. O‘quvchilarni o‘z-o‘zlarini baholashga tayyorlaganda o‘qituvchi quyidagi savollarni ishlatishi mumkin.

- Siz ushbu topshiriqni yaxshi bajarish uchun nimalar qildingiz?
- Qayerda xatolar bor?
- Boshqa o‘ quvchilarga qaysi bo‘ limlarni tushuntirib berishingiz mumkin?
- Ushbu masalalar bo‘ yicha maktabdan tashqari qanday tajribangiz bor?
- Ushbu mavzu bo‘yicha qanday qo‘shimcha ma’lumotlarni bilasiz? va boshqalar.

Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, o‘quvchilar bilimini baholashda no‘ananviy yondoshuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirishni yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF –5712-son Farmoni.

2.http://markaz.tdi.uz - Talim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb sayti

3.http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi portali.

O‘QUVCHILARNING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA XARITA BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI

Ortiqboyev Fayzulla Qosimovich
IIV Sirdaryo akademik litsey direktori

Annotatsiya: Tarix fani darslarida o‘quv xaritalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tarixiy ong va tafakkurini rivojlantirish maqolada bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: tarix, geografiya, o‘quvchilar, dars, o‘quv xaritalar, tarixiy tasavvur, tarixiy ong, tarixiy tafakkur, tarixiy yodgorliklar, tarixiy voqealar.

Annotation: The article describes the development of students’ historical awareness and thinking through the use of educational maps in history lessons.

Keywords: history, geography, students, lessons, educational maps, historical imagination, historical consciousness, historical thinking, historical monuments, historical events.

Аннотация: В статье описывается развитие исторического сознания и мышления учащихся посредством использования учебных карт на уроках истории.

Ключевые слова: история, география, учащиеся, уроки, учебные карты, историческое воображение, историческое сознание, историческое мышление, исторические памятники, исторические события.

Ma’lumki, tarixiy voqealar bizga faqat ma’lum bir davr haqida ma’lumot berib qolmaydi. Tarixiy voqealar turli davrda sodir bo‘lganligi bois bizning ongimizda mavhum tasavvurlar hosil qilib qolishi mumkin. Ana shu mavhum tasavvurlardan aniqlikka tomon borishimizda xaritalar bizga muhim vosita bo‘la oladi. Xaritalarning o‘quvchilar tasavvurida tarixiy voqyealarning sodir bo‘lgan joyi, taraqqiy etib borishi uchun asos bo‘lgan geografik va ijtimoiy omillar haqida aniq ma’lumotlar paydo qilishi hammamizga yaxshi ma’lum. Tarix darslarida xarita bilan ishlash geografik vositalar tavsifidagi asosiy metod hisoblanadi. Geografik vosita jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanmaydi, balki shu yoki boshqa davrda mazkur yoki boshqa mamlakatdagi tarixiy jarayonning tezlashishi yoki orqaga ketishiga olib kelishi mumkin.
Bundan harakatning birdan bir xarakterli xususiyati tarixiy voqyelikka ta’sir etib, natijada insoniyat faoliyatida o‘zgarishlarga olib keladi. Masalan, bir necha yuz yillar mobaynida Angliyada dengizda suzish sohasida hech qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lmagan edi, XVI asrga kelib yangi savdo yo‘llarini izlab topish ehtiyoji texnikaning rivojiga, keyinchalik mustamlakachilikning keng yoyilishiga olib keldi. Bundan tashqari har qanday tarixiy voqeaning yuzaga kelishi, borishi, yakunini bayon etishda geografik tomonini hisobga olish zarur. Masalan, Qadimgi yunon mustamlakalarining tashkil topishini Yunonistondagi geografik holatni, uni kesib o‘tgan qirg‘oq liniyalarini, Egey dengizidagi ko‘plab orollarni o‘rgatmasdan tushuntirish mumkin emas. Yoki bo‘lmasa, yunon-fors urushlari davrida Salamin jangida Kserks qo‘shini mag‘lubiyatiga uning dengizchilari tomonidan bo‘g‘ozning qayeri chuqur yoki sayoz, qayeri tez oqar yoki sekin oqishini o‘rganilmaganligi sabab bo‘lgan. Xarita darslarda faqatgina geografik muhitni hosil qilishga yordam berib qolmaydi, balki u ko‘rsatmali qurol sifatida ham xizmat qiladi.

Ya’ni tarixiy materialni anglab yetish, tarixiy voqyealar borishini tushunishga, tarixiy aloqalar va qonuniyatlar mohiyatini ochishda yuqori darajada yordam beradi. Xarita nafaqat tarixiy material bayoni davomida, balki tarixiy hodisalarning tahlili va umumlashtirilishida ham yordam beradi.

O‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni tahlil qilishi va umumlashtirishida hamda ularning tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarii ochishlariga yordam beradi: 6-sinf tarix darsligidagi “Qadimgi Misr” xaritasi quyidagi savollarga javob topishga yordam beradi: Qadimgi Misrdagi ilk nomlar qayerlarda paydo bo‘lgan? Mazkur davlatlarning rivojlanishidagi umumiylik nimada bo‘lgan?

Materialni mustahkamlashda tarixiy xarita katta rol o‘ynaydi. Dastlab o‘qituvchi devoriy xaritadan ma’lumotni o‘quvchilarga ko‘rsatadi. O‘quvchilar uni darslik yoki atlas xaritalaridan kuzatib borishadi va uyda daftariga chizib olgan eskiz xaritasi yoki darslik xaritasidan foydalanib materialni tahlil etadi. Nihoyat, o‘zi mustaqil tarzda keyingi darsda og‘zaki javob berish uchun xarita bilan ishlaydi. O‘qitish amaliyotida uch turdagi tarixiy xarita ajratib ko‘rsatiladi:

1) umumiy xaritalar biror mamlakatdagi umumiy tarixiy hodisalarni o‘zida aks ettiradi. Masalan, “Ahamoniylar davlati”, “Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi”;

2) tavsifiy xarakterdagi xaritalarda o‘rganilayotgan davr yoki hodisa taraqqiyotining so‘nggi natijalari ko‘rsatib beriladi. Bunday xaritalarga “Yevropaning o‘rta asrlar madaniyati”, “Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati” kabilarni kiritish mumkin;

3) tematik (mavzuli) xaritalar alohida hodisalar yoki tarixiy jarayonlarni o‘zida mujassam etadi. Masalan, “Muqanna qo‘zg‘oloni”, “O‘rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi”, “Italiyaning birlashtirilishi” va boshqalar; Tarix fani amaliyoti davomida xarita unga doimiy hamroh bo‘lib kelgan. Lekin bugungi kunda tarix darslarida xaritalardan yetarli darajada foydalanmaslik holati kuzatilmoqda. Ana shu jihatni hisobga olgan holda, didaktlar tarix darslarida xarita bilan ishlashda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati katta ekanligini alohida ta’kidlamoqdalar. Biz ham quyida o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishga imkon berish nuqtai nazaridan xarita bilan ishlashning ayrim interfaol metodlarini ko‘rib o‘tamiz.

Ana shunday interfaol metodlardan biri “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” metodidir. Masalan. 6-sinfda o‘qituvchi tarix darsida “Tosh davri yodgorliklari” xaritasiga o‘quvchilar e’tiborini qaratar ekan, “Mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi”
metodidan shunday foydalanishi mumkin: dastlab o‘qituvchi doskaga tosh davri yodgorliklarini aralash holda yozib qo‘yadi. So‘ng ularni qaysi davrga oidligiga qarab xaritadan foydalanib, to‘g‘ri o‘ringa qo‘yib chiqishni so‘raydi.
1.Machay 2.Zarautsoy 3.Qo‘shilish 4.Sopollitepa 5.Ko‘lbuloq
6.Zamonbobo 7.Obishir 8.Kapova 9.Teshiktosh 10.Selungur

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lishgach, so‘ng o‘qituvchi tarixiy yodgorliklarni ketma-ketlikda yozib, ularning har birini varaqqa qayd etadi. Varaqlar aralashtiriladi va o‘quvchilarning biridan ushlab turish so‘raladi. O‘quvchilarga navbat bilan chiqish va bir voqyeani zanjirdagi to‘g‘ri o‘ringa

qo‘yish so‘raladi. Hamma bir qadar yagona fikrga kelgach, o‘qituvchi ulardan o‘zlarining taxminlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirish uchun matnni o‘qish chog‘ida voqealar tartibiga e’tiborni jamlanshi so‘raydi. Mavzuli xaritalar bilan ishlashda “Bir-biridan so‘rash” metodi yaxshi natija beradi.

O‘quvchilarga xaritadan axborotni ajratib olishda yordam talab qilinsa, “Bir-biridan so‘rash”ni taklif qilish mumkin. Ushbu metod quyidagicha qo‘llaniladi: ikki o‘quvchi xaritani o‘rganadi va bir-biriga o‘rganganlari xususida navbat bilan savol berishadi. Dastlab o‘qituvchi o‘z misoli orqali juftliklarda qanday ishlash kerakligini ko‘rsatib, butun sinfni juftliklarga bo‘ladi va ulardan bir-birlariga savol bershini so‘raydi.

Ushbu metodni butun sinf bilan ishlashda ham qo‘llash mumkin. Buning uchun sinfga aniq dalillarni bilishni emas, balki ularning mohiyatidagi “yashirin ma’nosi”ni tushunishni talab etadigan bir nechta savol beriladi. O‘quvchilar xaritadan foydalanib, nafaqat aniq daliliy ma’lumot olishadi, balki o‘rganilayotgan materialni chuqur tahlil etib, o‘zlarining mustaqil fikrlarini ham bayon etib bera oladilar. Ularga bu ishda “Besh minutlik esse” yozish qo‘l kelishi tabiiy. Yozma topshiriqning ushbu turi o‘quvchilar xaritadan foydalangan holda, mavzuga doir o‘z fikrlarini erkin ifodalay olishga yordam berish va o‘qituvchiga o‘z o‘quvchilari xarita bilan ishlaganda, qaysi jihatlariga ko‘proq e’tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi. Aniqroq qilib aytganda, o‘quvchilardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo‘yicha ular xaritadan nimalarni o‘rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berish so‘raladi. Shu tariqa dars davom etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilar xaritalar bilan ishlash orqali tarixiy materialni yuzaki o‘zlashtirmay, uning eng kichik unsurlarigacha tadqiq etiladi, masalaga nuqtai nazardan yondashib, chuqur tahlil qiladi, o‘zining shaxsiy nuqtai nazarini bayon etadi. Eng muhimi, shaxsiy nuqtai-nazarlar o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedov V.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., 1991.
2. Axmedov B.A. Tarixdan saboqlar. T., 1994.
3. Sagdullaev A, Aminov B, Mavlonov O‘, Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat qurish taraqqiyoti. T., 2000.
4. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. T., “Fan”, 1991.
5. Tarix shohidligi va saboqlari. T., “Sharq”, 2001.
6. Shoniyozov K.Sh. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., “Sharq”. 2001.
7. O‘zbekiston tarixi. 1-qism. II-nashri. (mas’ul muharrirlar A. Sagdullaev, B. Eshov) T., “Universitet”, 2017.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA DARS MASHG‘ULOTLARINI QIZIQARLI TASHKIL ETISHDA ENERJAYZERLARNING ROLI

Kudratova Umida Begimovna
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 9-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya : *ushbu maqolada umumta’lim maktablari o‘quv dars mashg‘ulotlarida ijobiy psixologik muhitni yaratishda, dars samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarga motivatsiya berishda zamonaviy enerjayzer usullari va ularning afzalliklari yoritilgan*

Kalit so‘zlar *: dars mashg‘ulotlari, XXI asr ko‘nikmali, kreativlik, o‘qituvchi, o‘quvchi, enerjayzerlar.*

Аннотация: *в данной статье описаны современные методы энерджайзера и их преимущества в создании позитивной психологической среды, повышении эффективности урока, мотивации учащихся на уроках общеобразовательной школы.*

Ключевые слова: *учебная деятельность, навыки XXI века, креативность, учитель, ученик, энерджайзеры.*

Abstract: *this article describes modern energizer methods and their advantages in creating a positive psychological environment, increasing lesson effectiveness, and motivating students in secondary school lessons.*

Key words*: educational activities, 21st century skills, creativity, teacher, student, energizers.*

Bugungi globallashuv jarayonida, axborot texnologiyalari davrida maktablarda o‘quvchilarni odatiy darslar bilan o‘quv mashg‘ulotlariga jalb etish qator muammolarni keltirib chiqaradi. O‘quvchi darsda bir xillikdan tez zerikadi, charchaydi va umuman darsga qiziqmay qo‘yadi. Bu darsda o‘quvchilar davomatni hamda samaradorligini pasayib ketishiga olib keladi. Jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o‘z navbatida o‘quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o‘zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq. Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida tashkil etish, o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining pedagogik mahorati va qobiliyatiga bog‘liq.

Bugungi kungacha an’anaviy dars o‘tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo‘lib kelgan. An’anaviy darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Dars bosqichlari qoliplashgan, an’anaviy 5 ballik tizimda baholash, darslik asosiy didaktik vosita, fanlararo bog‘lanish kam, zerikarli bo‘lganligi sababli dars samaradorligi past ko‘rsatgichlarni tashkil etgan. Bu esa o‘quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga, mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi XXI asr kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritik va kreativ yondashuv

ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Noan’anaviy darslar g‘ayrioddatiy darslar, 20 % o‘qituvchi va 80 % o‘quvchi faolligi, dars bosqichlari mavjud, ammo ketma-ketligi o‘qituvchi tomonidan erkin belgilanishi, muqobil baholash, rag‘batlantirish va jazolash turlarini tanlash, qo‘shimcha vositalarning mavjudligi, integratsiyalashgan darslar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihalar ishlab chiqish tashkil etiladigan mashg‘ulot turidir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. O‘quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog‘onaga ko‘tariladi. O‘qituvchi shu tarzda o‘quvchilarni faollashtiradi, o‘zlashtirishi past o‘quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirib, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlashda enerjayzerlarni samarali, o‘rinli qo‘llash muhim o‘rin tutadi.

Enerjayzerlar – dars samaradorligini oshirishda, o‘quv materiallarini mustahkamlashning yorqin va samarali interaktiv usullaridan biri, energiya ishlab chiqaruvchi usullardir. Enerjayzerlar (ingl.energizer) - bu stressni yengillashtiradigan, qulay, do‘stona va ijodiy muhit yaratadigan, ishtirokchilarni birlashtiradigan, ularni guruhlarga ajratishga yordam beradigan kichik mashqlar hisoblanadi. Bu jarayon odatda 2 daqiqadan 10 daqiqagacha davom etadi.

1. "Noma’lum sur’at" enerjayzeri

Guruh ishtirokchilari 2 yoki 4 jamoaga bo‘linadilar (guruhdagi ishtirokchilar soniga qarab). Har bir guruh o‘zlariga nom va shior tanlaydi, izohlab beradi. Har bir guruh ishtirokchilar bilan kelishgan holda raqib guruhga 4-6 tagacha mavhum tushunchaga ega bo‘lgan so‘zlar aytadilar (quvonch, do‘stlik, muvaffaqiyat, baxt, hayot). Raqib guruh esa aytilgan so‘zlardan 5 daqiqa ichida rasm yaratishlari kerak, keyin uning ma’nosini tushuntirib, rasmni yaratish jarayonida nimani his qilishgani, kimdan qanday fikr chiqqanini va nimaga asoslanib bunday xulosaga kelganini izohlab berishlari kerak bo‘ladi.

2. "Umumiy belgilar" enerjayzeri

O‘qituvchi-trener biror bir umumiy ko‘rinishga yoki xususiyatga ega bo‘lgan belgining nomini aytadi va guruh ishtirokchilari tezda ushbu belgi bo‘yicha kichik guruhlarga birlashishga harakat qiladilar.

- kimning ko‘z ranlari bir xil
- kimning to‘liq ismi bitta harf bilan boshlanadi
- sevimli qo‘shiq uslubi bo‘yicha
- kim darsdan keyin sport bilan shug‘ullanadi
- sevimli ranglar bo‘yicha
- bir faslda tug‘ilganlar
- ertak o‘qishni yaxshi ko‘radiganlar
- sevimli ertak qahramonlari bo‘yicha
- yilning sevimli vaqti bo‘yicha
- soch rangi bo‘yicha
- sevimli hayvonlar yoki qushlar bo‘yicha

3. "Jim-jim" enerjayzeri

Ishtirokchilar o‘rtada harakatlanadigan aylanaga shaklida joylashadilar. Ishtirokchilarning vazifasi – qarama qarshisidan joy olgan sherigi bilan faqat ko‘rish orqali aloqa o‘rnatish yoki ma’lumot almasha olish.

Ishtirokchilar diqqatni jalb qilish uchun tovush chiqarish yoki so‘zlarni talaffuz qilishi mumkin emas.a olmaysiz va harakatlar qila olmaysiz. Ular ko‘zlari orqaligina aloqa o‘rnatgandan yoki ma’lumot almashishganidan so‘ng bir vaqtning o‘zida o‘rtadan o‘tib, joylarni almashtirishlari lozim bo‘ladi.

Guruhga nazoratchi tayinlanadi va nazoratchi guruh ishtirokchilarining egallab turgan o‘rinlarini diqqat bilan ko‘zdan kechiradi, so‘ng ko‘zlari boglanadi.

Nazoratchi ishtirokchilarni diqqat bilan kuzatib boradi va ishtirokchilardan aynan kimlar joylarini almashib olganlarni aniqlab berishi kerak bo‘ladi. Aniqlay olmasa yoki vaqtida topolmasa nazoratchi o‘z o‘rnida qoladi. Aniqlab bersa kuzatuvchi o‘z o‘rnini aniqlangan ishtirokchiga bo‘shatib beradi.

4. ***"Aktyorlik mahorati" enerjayzeri***

Keling, oddiy iborani tanlaymiz, masalan:"qattiq shamol esmoqda". Endi, boshlovchining o‘ng tomonidagi birinchi ishtirokchilardan boshlab bu iborani navbatma-navbat barcha ishtirokchilar aytishlari lozim bo‘ladi. O‘yinning har bir ishtirokchisi iborani yangi intonatsiya, hayajon bilan talaffuz qilishi kerak (so‘roq, undov, hayratlanarli, befarq va boshqalar). Agar ishtirokchilar iborani yangilik kirita olmasa o‘yinni tark etadi va bir nechta (3-4) g‘oliblar qolguncha jarayon davom etadi. Takrorlash mumkin emas.

5. ***“Taxmin qiling” enerjayzeri***

Tanlab olingan ishtirokchi-Spikerning orqa yelka qismiga bir jonivor yoki predmet (jirafa, begemot, burgut, buldozer, pichoq, qog‘oz o‘rami va shunga o‘xshash)ning rasmi yopishtiriladi. Ishtirokchi-Spikerning vazifasi qolgan ishtirokchilardan o‘zining yangi ismini bilishdir. Spiker ishtirokchilarga turli (uning joni bormi?, qanaqa savolga javob beradi?, uning shoxi bormi, g‘ildiragi bormi?....kabi) savollar berish orqali yangi ismini topishi kerak. Ishtirokchilar Spikerning savollarga faqat "Ha" yoki "yo‘q" deb javob berishlari kerak. Jarayon Spiker o‘zining yangi nomini topguniga qadar davom etadi. So‘na yangi spiker tayinlanadi.

Enerjayzerlar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda enerjayzerlar metodlaridan to‘liq foydalaniladi Bunday ususllarning oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lb, ularga quyidagilar kiradi:

-Darslarni qiziqarli va mazmunli tashkillashtirish ;

-Darsdagi o‘quv muhitiga quvnoqlik kayfiyatini ulashish orqali o‘quvchilarni darsdan bezdirish emas aksincha yaqinlashtirish;

-O‘quvchning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijodiy va kreativ yondoshuviga yonaltirilishi;

-Bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilarni darsga qiziqtirish va ishlata olish;

-O‘quvchinilarning o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda qiziqishini ta’minlashi;

-O‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda undashi;

-Pedogog va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini ta’minlanishi;

-Darslarda do‘stona muhitini yaratish;

-O‘quvchiga mativatsiya berish va kun davomida ishchanlik qobiliyatini ushlab turish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, to‘g‘ri motivatsiya berish, o‘uvchini ruhlantirish muvaffaqiyatli o‘qitishning kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Mirziyoyev Sh.M. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.:-2016y. 29- dekabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 30 sentyabrdagi PF5198-sonli Farmoni

3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012.

4. “Umumta’lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018

TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY RIVOJLANISHIDA INTEGRATIV YONDASHUV METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, mustaqil tadqiqotchi

IMPROVING THE METHODOLOGY OF THE INTEGRATIVE APPROACH IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF HISTORY TEACHERS

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

Head of the Department of "Pedagogy and Psychology, Educational Technologies" of the National Center for Training Pedagogues in New Methods of Syrdarya Region, independent researcher

ANNOTATSIY *Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida tarix fani o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish metodikasi takomillshtirishda (malaka oshirish) “hayot davomida o‘qish” (lifelong learning) tamoyili asosida integrativ yondashuv asosida fanlararo aloqalarni kuchaytirishga, turli fanlardan kerakli ma’lumotlarni olish va mavzularga oid axborotlarni to‘plash, ulardan foydalanish, kompetensiyasini individual rivojlanishiga ko‘mak beradi. Tarix fanlarini integratsion asosda o‘qitishga, raqamli texnologiyalar asosida multimediyali ilovalar hamda mustaqil ishlashga o‘rgatish yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy rivojlantirish, “hayot davomida o‘qish” (lifelong learning) tamoyili, integratsion, multimediya, interaktiv usullar, modellashtirish.*

ANNOTATION *In this article, in the method of professional development of history teachers in secondary schools, an integrative approach based on the principle of "lifelong learning" is used to strengthen interdisciplinary relations, to obtain the necessary information from various subjects, and to provide information on topics. collecting, using them, supports the individual development of competence. Teaching history subjects on an integrated basis, teaching multimedia applications based on digital technologies, and* independent work are highlighted.

Key words: *competence development, professional development, "lifelong learning" principle, integrative, multimedia, interactive methods, modeling*

АННОТАЦИЯ *В данной статье методы профессионального развития учителей истории в общеобразовательных школах направлены на укрепление межпредметных связей, основанных на принципе «обучения на протяжении всей жизни», получения необходимой информации по различным предметам и темам, собирает информацию, использует ее, поддерживает. индивидуальное развитие компетентности. Выделены преподавание предметов по истории на комплексной основе, обучение мультимедийным приложениям на основе цифровых технологий, самостоятельная работа.*

Ключевые слова: *развитие компетентности, профессиональное развитие, принцип «обучения на протяжении всей жизни», интегрированные, мультимедийные, интерактивные методы, моделирование.*

KIRISH

Jahon amaliyotida tarix fanlarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha pedagog

kompetentlikni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikni ta’minlashda, integrativ o‘quv dasturlari va darsliklardan foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyaning “Cambridge” o‘quv dasturining talab va standartlari asosida ta’lim tizimida integrativ fanlar joriy qilingan bo‘lsa Avstraliyada integratsiyalashtirilgan fanlar, Vengriyada inson va tabiat integrativ fanlari, Germaniyada ham alohida fanlar Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar, Buyuk Britaniya ta’lim tizimida integrativ fanlar, Bolgariyada tabiiy – fanlarining o‘qitilishini o‘z ichiga olgan, Niderlandiyada alohida o‘quv predmetlari, Gong Kong, Uels, Yaponiya va Shimoliy Irlandiya mamlakatlarda o‘quv fanlarining o‘qitilishida integrativ yondashuvdan foydalanish, omillari va sohalari izohlanadi.

Yangi O‘zbekiston ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlardan biridir, Davlatimizni dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi xalqaro hamjamiyatinining teng huquqli sub’ekti va ajralmas bir qismi sifatida jamiyatning ma’naviy - ma’rifiy yangilanishini, strategik rivojlanish, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishni ta’minlaydigan demokratik kuchli huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishda yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashni eng muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Umumta’lim maktablarida yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, o‘qituvchilar uchun sifatli o‘quv uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta’lim tizimida nazariya bilan amalyot o‘rtasida samarali o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish va qayta tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual shu bilan birga ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq.

Maktab ta’limini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida tashkil qilish, kasbiy faoliyatini rivojlantirish, xodimlarning individual uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturiga muvofiq integrativ yondashuv asosida o‘qitishning yangi metod va texnologiyalarini o‘zlashtirish, kasbiy ehtiyojlarini qondirish mamlakatimizda ta’lim tizimini tom ma’noda sifat jihatdan tubdan o‘zgarish va yangilashlar jarayonlari uchun asos bo‘lmoqda.

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida olib borilayotgan islohatlar O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Milliy o‘quv dasturi” mazmuniga mos XXI asr ko‘nikmalari asosida tarix fanini o‘qitish konsepsiyasi, metodologiyasi va baholash kompetensiyasiga ega har tomonlama yetuk ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarga mos keladi.

Yangi O‘zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida”gi Qonunni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta’kidlab o‘tildi. Bu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan “2022-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya

etildi.[44]

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirish” vazifasi belgilandi.[45]

Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O‘zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz vaqti-soati keldi, deb o‘ylayman. Tarix institutini bu fanni rivojlantirish bo‘yicha tayanch ilmiy muassasa etib belgilash kerak”[3] – deb uqtirdi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 19-yanvar 2021-yil o‘tkazilgan yig‘ilishda.

Ayni paytda integratsiyalashgan ta’lim muhitini yaratish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy–axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning integratsion shakllari va usullarini joriy etish tarix fanini o‘qitish bilan bog‘liq.

MAVZUNING DOLZARBLIGI.

O‘qituvchilar uzluksiz kasbiy rivojlanishi jarayonida tarix fanining o‘qitish metodikasini predmetlararo bog‘liqligini ko‘rmaydilar, usiz tabiat va jamiyatning ko‘plab hodisalarining mohiyatini tushunish hamda to‘liq o‘rganish mumkin emas. “Integratsiya” tushunchasining o‘zi zamonaviy jamiyat rivojlanishida keng qo‘llaniladi. Integratsiya jarayonlari allaqachon o‘rnatilgan tizimlar doirasida sodir bo‘lishi mumkin - bu holda ular uning yaxlitligi va tashkiliy darajasining oshishiga, shuningdek, ilgari bog‘liq bo‘lmagan elementlardan yangi tizimning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini “hayot davomida o‘qish” **(lifelong learning)** tamoyili asosida tashkil qilish, xodimlarning kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ishlab chiqilgan individual rivojlanish dasturiga muvofiq malakasini oshirish tartibi amaliyotga joriy qilindi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori malakali kadrlarni kasbiy rivojlantirish va ularning malakasini oshirish xususan, integrativ yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish, ularning o‘qitish metod va metodikalarini takomillashtirish dolzarb masalalaridan biridir.

Tarix fani o‘qituvchilari kasbiy rivojlanishida yangi avlod darsliklaridagi mavzularni yoritishda tarixiy voqiiyliklarning kelib chiqish sabab va oqibatlarini tushinish va shu asosida ertangi jamiyatning rivojlanish taraqiyotida alohida o‘rin tutishlarini anglamog‘i zarur.

Ijtimoiy-siyosiy rivojlanish istiqbollari tabiat va jamiyatning ko‘plab hodisalari mohiyatini tushunish, aholining ijtimoiylashuvi va madaniylashuvi mamlakatning kelajagini belgilashi, milliy madaniy an’analar, qadriyatlarni saqlashi va rivojlanishi

[44]Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021. 238-B.

[45]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60-son Farmoni.
2022 yil 28 yanvar. https://t.me/Yangi Taraqqiyot Strategiyasi

pedagogik jihatdan nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, uzluksiz kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini tadqiq etishda integrativ yondashuv dolzarb vazifaga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim jarayonlarini ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini, kompetentligini “hayot davomida o‘qish” **(lifelong learning)** tamoyili asosida yanada rivojlantirish, jamiyatda tarix fani samaradorligini oshirishning zaruriyatiga alohida e’tibor qaratilayotganligi, milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yosh pedagog kadrlarlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun katta ahamyat ega bo‘lgan tarix fanlari ham bundan mustasno emas. So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’lim oluvchilari ta’lim va tarbiyasi sifatini oshirishning eng samarali yo‘llari bo‘yicha ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borilmoqda.

Bunda pedagog asosiy e’tiborni ta’lim oluvchining dunyoqarashini kengaytirish maqsadiga qaratadi. Bu ko‘proq integrativ yondashuv asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘qituvchi o‘qitishda fanlararo integratsiyaga xos qator jihatlarni yaxshi o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi.

Birinchi marta integratsiya Ya.A.Komenskiyning “**Buyuk didaktika”** asarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib Ya.A.Komenskiy “Hamma narsa – eng kattasi ham, eng kichigi ham bir-biriga bog‘langan bo‘lishi va bir butunlikni hosil qilish uchun birlashtirilishi kerak” deb ta’kidlaydi.

«Integratsiya» so‘zi lotincha, «integer» butun so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “integratio” − tiklash, to‘ldirish ma’nolarida ham qo‘llanadi. Mazkur tushuncha dastlab XVIII asrda G.Spenser tomonidan ayrim bo‘laklar yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishi sifatida izohlangan.

Xorijiy mamlakatlarda tarix fanlarini integrativ yondashuv asosida o‘qitish masalalariga XIX - XX asrlar falsafasida turli qarashlar asosida integrativ o‘qitish muammolari X.Braun, C.Shivanchi, D.Koyl, A.Valeo, M.Bastias, T.Sinx, N.Moxamar, Kuhn, I. Lakatos, V. Dilthey, G. Rickert, V. Windelband M.Ivenslar kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Ta’lim mazmuniga integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqish asosi sifatida MDH davlatlari olimlari fanlar integratsiyasi muammosining dolzarbligi jihatlariga oid tadqiqotlar V.F.Odoevskiy, K.D.Ushinsky V.V.Davidov, A.V.Zaporojets, Yu.A.Samarin, D.B.Elkonin, B.P.Yusov, D.B.Kabalevskiy, E.B.Abdullin, E.V. Nikolayeva, N.A.Menchinskaya, B.M.Kedrov M.S.Pakning O.M. Sichivitsa, N.T. Kostyuk va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Shu bilan birga ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xususan, integrativ yondashuv asosida tarix fanini o‘qitish metodikasida o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning psixologik jihatlari L.S.Rubinshteyn, A.Maslou, A.Leontev,

M.G.Davletshin, E.G‘oziev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, N.S.Safaev, Z.T.Nishonova[46] kabilar olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fanlar integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni oshirish masalasiga pedagog olimlardan Q.Yo‘ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, R.Mavlyanova, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, B.Abdulaeva, S.Nishonova, U.Mahkamov, E.Turdiqulov, Q.Husanboeva, R.Safarova, B.Adizov, A.Choriev, Sh.Mardonov, D.Ro‘zieva, N.Egamberdieva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isaev, Yu.Shiyanovlarning ilmiy izlanishlarida keltirib o‘tilgan.

Chunonchi, Buyuk Britaniya ta’lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo‘lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida o‘quv predmetlari, Avstraliyada integratsiyalashtirilgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Kong va Germaniyada ham alohida fanlarning integrativ yondashuvi fanlar, Vengriyada madaniyat yo‘nalishidagi o‘quv predmetlari, inson va tabiat integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o‘quv predmetlari, Rossiya Fanlar akademiyasining tarix institutida, Irlandiyada Fan va texnika kabi bloklarda barcha o‘quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o‘qitiladi. Bizda ham integrativ yondashuv asosidagi o‘qitish masalalariga yangi milliy o‘quv dasturi asosida sohada dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda.

Bir qancha pedagogik ilmiy adabiyotlarda integratsiya ta’limning maqsadi va vositasi sifatida ham ko‘rib chiqilgan. Shunday qilib “integratsiya” tushunchasi ma’nosini aniqlashda turli xil yondoshuvlarning metodik tahlili shuni ko‘rsatadiki, olimlar, tadqiqotchilar uning qollanilishini turlicha talqin qilishadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishda (malakasini oshirish) fanlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, fan xususiyatidan kelib chiqib ta’limiy metod va metodikalarini yanada rivojlantirishiga, o‘quv fanlari doirasida o‘ziga xos didaktik tamoyillar asosida ularni amaliyotda qo‘llashni ko‘zda tutib, integrativ aloqadorlik asosida fanlarning o‘zaro yaxlit tizim shaklida har tomonlama uzviy bog‘liqlik munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

NATIJALAR

Integratsiya jarayoni pedagogik g‘oyasining rivojlanishiga, ilmiy bilimlarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Integratsiya jarayoni ta’limning sifat jihatidan yangi bosqichida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning eng asosiy shakli hisoblanadi.

---

[46](Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2013. – 713 с.; Маслоу А. Психология бытия. Пер. с англ. О.О. Чистякова. – Рефл-бук: Ваклер, 1997. – 84 с.; Леонтьев А.А. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). – М.: Смысл, 2001. – 392 с.; Давлетшин М.Г. Кобилият ва унинг диагностикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 134 б.; Гозиев Э.Г. Психологические основы развитие самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов. Автореф. дис. … док.псих.наук. – Т., 1991. – 38 с.; Каримова В. Психология. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 204 б.; Суннатова Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности. Автореф. дис. … док.псих. наук. – Т., 2001. – 41с.; Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи: Автореф. дис. … доктора псих.наук. – Т., ТГПУ, 2006. – 38 с.; Нишонова З.Т. Мустақил ижодий фикрлашни шакллантиришнинг психологик асослари: Псих.фан.док. … дис. – Т., 2005.– 391 б.)

Tarix fani o‘qituvchilarning kasbiy rivojlantirish metodikasidagi integrativ yondashuv asosida teran fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko‘rsatuvchi, malakali mutaxassis pedagoglar shaxsini shakllantirishga imkon beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida milliy o‘quv dasturi asosida fanlarni o‘qitish metodikasi pedagoglardan katta mahorat talab etilmoqda, bu esa o‘z navbatida uzliksuz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) kurslarida o‘qituvchilarning ijodiy-tadqiqotchilik, amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirish metodikasiga hamda Yangi innovatsion yondashuvlarga asoslangan xorijiy davlatlar Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar tajribalari asosida 4K modelini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlanishi (malaka oshirish) ta’lim-tarbiya jarayoniga interfaol ta’lim texnologiyalari va strategiyalarini tadbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish kompetentlik darajasini yanada rivojlantirishga undamoqda.

Tarix fanlarini o‘qitishda o‘qituvchilarini shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda “hayot davomida o‘qish” **(lifelong learning)** tamoyilini qamrab olgan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va integratsion yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy metodikasini takomillashtirish mexanizmi sanaladi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xususan, integrativ yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish, metodikalarini takomillashtirish dolzarb masalalaridan biridir.

Integrativ yondashuv tarix fani o‘qituvchilarning kompetensiyani rivojlantirishning muhim omili sifatida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarix fani o‘qitiuvchilarining kommunikativ yondashuvi bilim, ko‘nikma, malakalarni amalda qo‘llash layoqatini ko‘rsatsa, integrativ yondashuv esa soha yuzasidan egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarni birgalikda, aloqadorlikda qo‘llashni anglatadi. Tarix fani o‘qituvchilarining integrativ yondashuv asosida o‘quv mashg‘ulotlarida fanlararo aloqalarni kuchaytirishga, turli fanlardan kerakli ma’lumotlarni olish va mavzularga oid axborotlarni to‘plash, ulardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga ko‘mak beradi.

Kasbiy rivojlanishida integrativ yondashuv asosidagi o‘qitish metodikasini takomillashtirish tarix fani o‘qitiuvchilarini samarali kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiya va metodlarni tanlash, saralash va qo‘llashga erishadi. Demak, integrativ yondashuvda turli fanlardan egallangan bilimlarni o‘zaro bog‘lashgina emas, balki ulardan amaliy foydalana olish ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Darslarni yangi takomillashgan standart asosida tashkil etish uchun, avvalo, o‘z faniga oid davlat ta’lim standarti va milliy o‘quv dasturini sinchiklab o‘rganishi, yangi avlod darsliklari bilan tanishishi, taqdim etilgan o‘quv dasturi asosida taqvim reja tuzib olishi kerak bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan dars ishlanmalarida ham tegishli o‘zgarishlar qilish lozim. Jumladan: tarix darslarining texnologik xaritasida darsning maqsadi, jihozlari, o‘qitish texnologiyasi va nazariyalar va tamoyillarni tahlil qilish va ongli qo‘llashga erishish bilan birgalikda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni aniq holda belgilab, mazkur kompetensiyalar shakllanganligini aniqlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida tarix fanini o‘qitish metodikasida predmetlar aro bog‘liqligini aniqlash, tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatini tushunish va o‘rganish, integratsiya jarayonlarining darajasini oshirish, integratsiyalashgan darsning chegaraviy muammolarini belgilaydi.

Bunda tarix fanlarini o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) tizimida tinglovchilarning an’anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda masofaviy va boshqa kasbiy rivojlanish turlarini joriy etishning o‘zaro teng huquqli hamkorlik asosidagi integrativ uzviylikni ta’minlashga asoslanadi.

Tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishda (malaka oshirish) milliy o‘quv dasturi asosida tarix fanlarini o‘qitishning integrativ yondashuv kesimida jadvallar, diagrammalar, xaritalar bilan ishlash, illyustrasiyalar tayyorlash multimediyali ilovalar yaratish bo‘yicha o‘ziga xos metodologiyalar asosida kompetensiyalarini yanada rivojlantiradi.

Tarix fanlari o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursi asosida umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablaridan kelib chiqib, tarix fanlarini a’nanaviy o‘qitish metodlaridan voz kechgan holda, tarix fanlarini integrativ ta’lim asosida o‘qitishga, axborot texnologiyalari asosida multimediyali vositalar hamda mustaqil ishlashga o‘rgatishga etibor qaratadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda (malaka oshirish) mutaxassislik va umumkasbiy fanlar o‘zaro uyg‘un holda o‘qitilishini tashkil etish, eng samarali mexanizm bo‘lib, bunda o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, shaxsiy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish orqali tarix fanlarini o‘qitish metodlarini uzviyligi va izchilligini tahlil etadi.

Tarix fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlanishda (malaka oshirish) olgan ko‘nikmalari asosida maktab ta’limi, o‘quv jarayonida foydalanilayotgan metod, metodika va shakllarining turli – tumanligi bilan samaradorlikka erishadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishda integratsion ta’lim asosida tarix fanlarini o‘qitish metodikalarini loyihalashtirish, pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o‘qish" **(lifelong learning)** tamoyili asosida uzliksuz kasbiy rivojlanishi ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan quydagi namunalarni ko‘rsatish mumkin:

- **Ilmiy-metodik materiallar**; O‘qituvchilar uchun tarix va ijtimoiy fanlar mavzusida elektron darsliklar, multimediya materiallar, veb-sahifalar va mavzular bo‘yicha tayyorlangan yordamchi materiallarni taqdim etish.
- **Integrativ yondashuv;** Tarix fanlarida fanlararo va fan mavzulari bo‘yicha integrativ yondashuv asosidagi materiallar.

➢ **Innavatsion o‘qitish texnologiyalari**; Virtual reallik, interaktiv dasturlar, qo‘llash kompyuterlari va boshqa texnologiyalarni o‘rnatish orqali fanlarning mavzularini juda yondosh o‘rganish va o‘qitish.

➢ **Ma’lumot texnologiyalari;** O‘qituvchilar milliy o‘quv dasturi asosida yangi texnologiyalar asosida materiyallar ishlab chiqish, kritik va kreativ tahlil qilish.

Integrativ yondashuv asosida ta’limning uchta darajasi mavjud:

✓ **fan ichidagi** – alohida fanlar doirasida (tarix, tarbiya. Davlat va huquq fanlari);

✓ **fanlararo** – faktlar, tushunchalar, ikki yoki undan ortiq fanlarning tamoyillari sintezi;

✓ **predmetlararo** – ta’limning asosiy va qo‘shimcha mazmuni tarkibiy qismlarining sintezi.

Integratsion yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy metodikasini takomillashtirish kursi asosida malakasini oshirish bo‘yicha umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan metodik talablaridan kelib chiqib, tarix fani o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida kasbiy rivojlanishiga katta ahamiyat qaratilmoqda.

XULOSA

Tarix fani o‘qituvchilarning kompetentlilik darajasini rivojlantirishda integrativ o‘quv materiallarini tanlash mezon va tizimlari ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borildi.

Integrativ yondashuv asosidagi ta’limning maqsadi – ijodiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ijodiy kasbiy metodikalarini shakllantirishdan iborat.

Tarix fani o‘qituvchilarini kasbiy va pedagogik metodikalarini doimiy ravishda o‘sib borishi, ularning ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borilishi asosini ta’minlashdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda pedagogikaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillari asosida integrativ ta’lim asosida uzviylikni ta’minlash orqali ta’lim samaradorligiga erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, integratsion yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy metodikasini takomillashtirish orqali milliy o‘quv dastur asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishida (malaka oshirish) kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi hamda zamonaviy talablarga muvofiq o‘qitish metodikalari yangilanadi.

Integratsion yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishi (malaka oshirish) shuningdek, “Xayot davomida o‘qish” tamoili asosida kasbiy rivojlanishi va iqtidorini namoyon qilishi, o‘z kasbiy faoliyatida, ijodiy yutuqlarga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021. 233 b.

2. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. pedagogika fanlari doktori (DSc) diss..aftoref. T.:

2021. – 70 b.

3. Shonazarov Q.R. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash. liss.ped.f.n. –Toshkent, 2002. -134 b

4. T.Toshpo‘latov, Y.G‘afforov. Tarix o‘qitish metodikasi. T.Turon-Iqbol, 2010. –39-40 b.

5. Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. diss. – T., 1997. – 256 b.;

6. Husanboeva Q.P. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Avtoref. ped.fan.dok. – T., 2007. – 39 b.

7. Shonazarov Q.R. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash. liss.ped.f.n. –Toshkent, 2002. -134 b

8. Jo‘raev N. “Tarix falsafasining nazariy asoslari”.-T.: “Ma’naviyat” 2008. 164 b

9. Pedagogika dopolnitelnogo obrazovaniya. Psixologo-pedagogicheskoe soprovojdenie detey otv. red. L.V.Bayborodova. – M.: “Yurayt”, 2016. – 413 s.

TALABALARDA KIMYO FANIDAN IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Julboyev To‘lqin Abduvaliyevich, Xolboyev Orif Nurmatovich, Sultonov Marat Mirzayevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchi; katta o‘qituvchi kimyo fanlari doktori; professor julboyevt@gmail.com. +998933054156

Annotatsiya. Ushbu maqolada jarayonni kimyo fani o‘quv jarayonini tashkil etishda talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasi oshirishda kimyoviy tushunchalar va qonunlari bilimlarini o‘zlashtirib olishning metodlari va texnologiyalarini hamda aniq maqsadlarga erishishda muammolarni hal etish yo‘llari, kelajakdagi hal qilish uchun muvaffaqiyatli o‘qitish orqali motivatsiyasini oshirish, ular uchun o‘zini-o‘zi anglashi, mustaqil fikrlashiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрены методы и технологии освоения знаний химических понятий и законов, методы и технологии освоения знаний химических понятий и законов в организации учебного процесса по химии, а также способы решения задач по достижению результатов. конкретных целей, для успешных будущих решений, информация о повышении мотивации посредством обучения, самосознания, независимого мышления для них.

Annotation. This article discusses methods and technologies for mastering knowledge of chemical concepts and laws, methods and technologies for mastering knowledge of chemical concepts and laws in organizing the educational process in chemistry, as well as ways to solve problems to achieve results. specific goals for successful future decisions, information about increasing motivation through learning, self-awareness, independent thinking for them.

Tayanch so‘zlar. ta’lim-tarbiya, modulli ta’lim, mustaqil ta’lim, demonstransion eksperiment, ko‘rgazmalilik, og‘zaki ko‘rgazmali, talabaning eksperimenti, amaliy mashg‘ulotlar, instruksiya

Ключевые слова. образование и обучение, модульное обучение, самостоятельное обучение, демонстрационный эксперимент, демонстрация, устная демонстрация, студенческий эксперимент, практическое занятие, инструкция

Key words. education and training, modular education, independent education, demonstration experiment, demonstration, oral demonstration, student’s experiment, practical training, instruction

KIRISH

O‘qituvchining asosiy vazifasi talabalarga nafaqat bilim berish, balki zamonaviy bilimlarni egallashlariga ko‘maklashishdan iborat. Buning uchun esa talabalarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon etishlari va butun kuch-g‘ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur. O‘quv jarayoninig maqsadi uning zaruriy samaradorligini ta’minlash va talabalar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishdir[1]. Ma’lumki, kimyo o‘quv fanlari asoslari bilimlarini o‘zlashtirib olishning metodlari va texnologiyalarini o‘rgatadi. Har qanday fanni

o‘qitishning ta’limiy masalalari bilan birgalikda jamiyatning, rivojlantirishda asosiy tarbiyaviy masalalari ham mavjuddir. Ayniqsa, kimyo o‘qitishda tarbiyaning hamma turlarini talabalar ongida muvafaqqiyat bilan shakllantirish mumkin. Anorganik kimyo ta’limida modulli ta’lim tizimini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, texnologiyasi o‘qitishda interfaol metodlardan samarali foydalanish kerak. Anorganik kimyo fani mavzulari modullarini interfaol metodlar asosida o‘qitish metodikasi mavzusini o‘qitishning nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish; ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali mavzuni o‘qitishning dolzarbligini ochib berish; ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish yo‘llarini yoritish; mavzuni o‘qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ilmiy metodik maqolalar va adabiyotlarning tahlili va o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgacha talabalarning mustaqil ishlashi uchun yagona va barcha uchun maqbul ta’rif yaratilmagan. Talabalarning faolligi bilan uning mustaqil ish faoliyatini aralashtirib anglash hollari mavjud. O‘quvchining bilim olish, o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lish borasidagi barcha sa’y harakati uning faolligini ko‘rsatsa, o‘qituvchi rahbarligi ostida yoki berilgan topshiriq va vazifalarni bajarish mobaynidagi mehnatini mustaqil ish deb e’tirof etish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kimyo darslarida mustaqil ta’limini tashkil etish masalalari bo‘yicha: X.Omonov, G.A.Pichugina, N.G.Raxmatullaev, X.M.Rajabov, P.S.Abdimuratov, M.M.Abdulxayeva, A.Abdusamatov, N.X.Avliyoqulov, N.N.Azizxujayeva, M.B.Ajiyevalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini [2.3], Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida talabalatning elektron ta’lim muhitida mustaqil ta’limini tashkil etish va boshqarish muammosining nazariy, amaliy va metodik aspektlari Kurdyumova T.N., Kudryavsev T.V., Lunin V.V., E.M. Maliyeva Z.K., Maslou A., Minkova N.O. va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Xorijiy chet el davlatlarda mustaqil ta’lmini tashkil etishning samarali metodikalarini takomillashtirish sohasida Walraven R., Volzhenina N.V., Petropoulou O., S.Sethy, Chang Chi-Cheng kabi kimyogar va metodist olimlarning tadqiqotlarida mustaqil ishni bajarish ko‘rinishida o‘z aksini topgan [4.10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kimyo fanini talabalar o‘quv materialini o‘zi bayon etishi, talabalarni ham mustaqil ishlashga o‘rgatish talab etiladi. Kimyo o‘qitishda ko‘rsatiladigan eksperimentlardan foydalanish eng muhim metod sanaladi. Kimyo o‘quv predmetining o‘ziga xos xususiyati ham shu nazariy mazmunning bir vaqtning o‘zida mavhum holda emas, isbotlangan bo‘lishi bilan ahamiyatlidir. Demonstransion eksperimentni talaba, laborant yoki talaba ko‘rsatib turishi va talaba izohlab borishi mumkin. Kurs boshida hali o‘quvchilarda kimyoviy tajribalarni bajarish ko‘nikma va malakalar rivojlanmaganda talaba o‘zi yoki laborant o‘tkazadi. Demonstrasion tajribalar ayniqsa foydali holat kasb etganda katta qiziqish orttiradi [5.6]. Ko‘rgazmalilik - shunday olib borish kerakki bajarilayotgan tajribalarni o‘quvchilar hammasi ko‘ra olsin. Ko‘rgazmalilikdan kadoskop va boshqa vositalardan unumli foydalanish lozim. Talabalarga ko‘rsatiladigan tajribalar

oddiy, xavfsiz, ishonchli tarzda bo‘lishi shart. O‘tkazilayotgan eksperiment tafsilotlarini albatta izohlab borish lozim. Tajribalar o‘tkazilayotganda quyidagi metodlarga amal qilish tavsiya etiladi: 1.Tajribaning maqsadini qo‘ya bilish: talabalar nima sababdan tajriba o‘tkazilishini tushinishi kerak. 2.Tajribalar o‘tkazilayotgan priborlarning chizmalarini chizish; sharoitni belgilash, (reaksiya qanday sharoit va muhitda olib boriladi.) 3.Talabalarni kuzata bilishini tashkil etish. 4.Nazariy xulosalar chiqara bilish; eksperimentning rivojlantiruvchi funksiyasi, o‘qituvchining so‘zi bilan amalga oshadi. Ular: Tajribaning o‘zidan bilimlar paydo bo‘lishi va talaba so‘zi izohlari kuzatishini to‘ldirib borishi.

Talaba o‘qitish jarayonida o‘quv-ko‘rsazmali vositalardan foydalanishi-bu holat kimyo ta’limi sifatida ijobiy ta’sir etadi. Ular: sinf doskasi, har xil jadval va diagrammalar, modellar, maketli, magnitli applikasiyalar, ekran qo‘llanmalari va hokazolardan iborat. Auditoriya doskasi eng muhum vosita rolini bajaradi. Dars mazmuniga doir formula, tenglamalar ayrim yozuvlar doskadan unumli foydalangan holda yozilishi kerakki mavzu mazmunini tushuntirish yakunigacha doskadan o‘chirmaslik kerak. Og‘zaki ko‘rgazmali amaliy metodlar asosida talabalarning amaliy faoliyati yotadi. Bu faoliyatda talabaning rahnomoligi albatta yo‘naltiruvchi faoliyat kasb etadi. O‘quvchilarning mustaqil ishlashlari har xil shaklda amalga oshiriladi[4.7]. Bullar: jamoa, guruh, yakka ko‘rinishlarda bo‘ladi. Ularning turlari ham har xil. Masalan: Talaba eksperiment laboratoriya tajribalari va amaliy mashg‘ulotlar kiradi. Kimyoviy masalalar yechish, adabiyotlar bilan ishlash, ijodiy topshiriqlar bajarish, kimyoviy priborlar tuzilmasini yig‘ish, turli mavzuga oid modellar yasash, turli nazorat ishlarini bajarish, mustaqil ishlar talabalarning yangi bilim egallash ko‘nikma va malakalar shakllanishidagi, fanni o‘rganishdagi eng muhim sohasi bo‘lib hisoblanadi. Olingan bilim, ko‘nikma, malakalar faoliyatga mustaqil ravishda tadbiq etilsa samarali bo‘ladi. Mustaqil ishlar o‘quvchilarga ta’lim- tarbiya berish, rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Talabaning mustaqil ishi olingan bilim ko‘nikma malakalarni faoliyatda tadbiq etish bilan bilimlar manbai bo‘lib hisoblanadi.

Talabaning eksperimenti - mustaqil ish turi bo‘lib hisoblanadi. Shu usul bilan talabalar o‘zidagi bilim ko‘nikma malakalar darajasini ham sinab ko‘radi.

Talaba eksperimenti maqsadi, uni kelgusi mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat. Talaba eksperimenti laboratoriya tajribalari va amaliy mashg‘ulotlarga bo‘linadi. Ular didaktik maqsadlar bilan farq qiladi. Laboratoriya tajribalari yangi bilimlar olish, yangi materialni o‘rganish bo‘lib hisoblanadi. Talaba o‘z oldiga qo‘ygan muammoning yechimini tushunib yetishi kerak. Kimyo fanidan talabalarning laboratoriya tajribalari yakka, guruh, jamoa holda amalga oshadi. Laboratoriya mashg‘ulot joylari oldindan o‘quvchiga ajratib qo‘yiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar – ma’lum mavzular o‘rganilgach, ularning oxirida olingan bilimlarni mustahkamlash, takomillashtirish, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Kimyodan amaliy mashg‘ulotlar talabalarning bilim ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda ko‘nikma va malakalar shakllanishiga katta e’tibor beradi. Har bir amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishda kimyoviy reaktiv, pribor va kimyoviy asbob-

uskunalar bilan ishlashning texnik qoidalari, muomila qilish ko‘nikmalariga alohida ahamiyat berish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish talab etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: berilgan instruksiya asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va eksperimental masalalar yechish bilan bog‘liq tajribalar. Instruksiya bu - berilgan yo‘l-yo‘riq asosida o‘tkaziladigan tajribalar. Unda tajribaning har bir bosqichi yozma holda berilgan bo‘ladi. Ular darslikda yozilgan holda mavjud. Eksperimental masalalar - instruksiya berilmasdan masala sharti beriladi. Shu shartga asosan talaba ijodiy ravishda mustaqil ish bajaradi. Eksperimental masala yechishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilgan holda, kerakli reaktiv priborlar stolga qo‘yiladi. Tajribalar yakunida maxsus daftarga hisobotlar yoziladi. O‘qitish metodiga qo‘yiladigan talablar odatiy tashkil qilingan ta’lim- tarbiya jarayoni biror universal metoddan emas, balki mavjud metodlarning hammasidan kimyoda foydalanishni talab qiladi. Har bir metod o‘quv materialining mazmuni va umumiy xarakteriga, talabalarning saviyasiga va tayyorgarligiga qarab tanlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda kimyo darsida va darsdan tashqarida tabiiy-ilmiy va funksional savodxonliklarni mustaqil hamda ijodiy faoliyatni rivojlantirishining samarali metodikalariga alohida e’tibor qaratish. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining fanga oid kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi komponentlari o‘z ustida mustaqil bilim olish, hamda kimyo ta’limda o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha yangiliklarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvli faoliyatini individuallashtirish asosida takomillashtirishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. В.Ўринов. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модуль тизими: асосий тушунчалар ва қоидалар. Қўлланма. Эл-юрт умиди жамғармаси ва Республика Олий Таълим Кенгаши биланҳамкорликда. 2020 й. -64 б.
2. X.Omonov “Kimyoviy eksperimentning ta’lim tizimidagi o‘rni”, uzluksiz ta’lim jurnali, №5, 2004.
3. M.Nishonov, Sh.Mamajonov, V.Xo‘jayev “Kimyo o‘qitish metodikasi”, Toshkent, “O‘qituvchi”, 2002.
4. N.G.Raxmatullayev, N.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov. Kimyo o‘qitish metodikasi.Toshkent. iqtisod-moliya-2013 y.
5. X.T.Омонов., M.H.Мирвохидова. “Кимё ўқитиш методикаси” маърузалар матни. 2001
6. R.Chang. General Chemistry The Essential consepts. V.Y.Ganken.
7. Shriver and Atkins’ Inorganic Chemistry, Fifth Edition © 2010 P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller, and F.A. Armstrong.
8. Silberberg Martin S., Prinsciples of general chemistry G‘.Martin S.Silberberg-3-ed.Piblished McGraw Hill, New York, 2013. P.792.
9. http://edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.
10. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
11. https://link.springer.com

EFFECTIVENESS OF MODERN EDUCATION IN THE ASPECT OF INNOVATIVE INTEGRATION OF PSYCHOLOGICAL METHODS INTO PEDAGOGICAL ACTIVITY

Sidelnikova Irina Vadimovna

Psychologist, branch of the D.I. Mendeleev University of Chemical Technology in Tashkent

This article discusses the relevance of the introduction of psychological methods in the development of the professional and personal scientific potential of a teacher of public education from the point of view of fulfilling the need of the state in the formation of highly qualified personnel and worthy pupils of the public education system, that is, students who will be able to flexibly compete in the geopolitical space in the changing conditions of development in the territory of the Republic of Uzbekistan (hereinafter referred to as RUz) and not only. The author draws attention to the unadapted professional activity of teaching staff in the education system to introduce psychological competencies into teaching activities, which are initially presented and declared, after graduation, in the socio-psychological portrait of a "real teacher". Particular attention is paid to some problematic issues: the formation and improvement of cognitive functions of the psyche of students in the field of sustainable development of the spiritual and moral potential of the individual during the period of active educational activity; as well as the low orientation of educational organizations in the competencies of a psychologist. The article presents the results of a sociological survey conducted among schoolchildren, lyceum pupils, students, the purpose of which was to identify the active ideological position and the socio-psychological readiness of respondents to innovative psychological approaches in improving the effectiveness of the education system of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: effectiveness of education, professional competencies of educational personnel, management of the quality of education, educational process, innovative psychological mechanisms, humanization of the education system, learning youth.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В АСПЕКТЕ ИННОВАЦИОННОЙ ИНТЕГРАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Сидельникова Ирина Вадимовна

Психолог, филиал РХТУ имени Д.И. Менделеева в г. Ташкенте

В данной статье рассматривается актуальность внедрения психологических методов в развитие профессионального и личностного научного потенциала педагогического работника народного образования с точки зрения осуществления потребности государства в формировании высококвалифицированных кадров и достойных воспитанников системы народного образования, то есть обучающихся, которые смогут гибко конкурировать в геополитическом пространстве в меняющихся условиях развития на территории Республики Узбекистан (далее РУз) и не только.

Автор обращает внимание на неадаптированную профессиональную деятельность педагогических кадров в системе образования по внедрению психологических компетенций в преподавательскую деятельность, которые изначально представлены и заявлены, после окончания вуза, в социально-психологическом портрете «настоящего учителя». Особое внимание уделено некоторым проблемным вопросам: формированию и совершенствованию когнитивных функций психики обучающихся в области устойчивого развития духовно-нравственного потенциала личности в период активной учебной деятельности; а также низкая ориентация образовательных организаций в компетенциях психолога. В статье приведены результаты социологического опроса, среди школьников, учащихся лицеев, студентов, целью которого стало выявить активную деятельную мировоззренческую позицию и социально-психологическую готовность респондентов к инновационным психологическим подходам в совершенствовании эффективности системы образования РУз.

Ключевые слова: эффективность образования, профессиональные компетенции кадров образования, управление качеством образования, учебно-воспитательный процесс, инновационные психологические механизмы, гуманизация системы воспитания, обучающаяся молодёжь.

Введение

В Узбекистане уделяется особое внимание дальнейшему развитию системы образования, организации её на уровне международных стандартов, широкому внедрению современных технологий в учебный процесс [1]. Образование является основным фактором реформирования общества и его трансформации как более открытая для внешнего мира и ориентированная на новые технологии и знания. Общество требует высокой эффективности образования на основе своих социально-политических и экономических потребностей. Сегодня в нашей республике уделяется особое внимание коренному реформированию системы образования и воспитания, проводится огромная работа по овладению нашей молодёжью современными знаниями и профессиями на уровне мировых стандартов, становление физически и духовно зрелыми людьми, раскрытие их способностей и талантов, интеллектуального потенциала и самоутверждённости [2]. В данном аспекте доминирующим и актуальным фактором развития системы является основополагающая работа психологов в образовании. Но стоит отметить, что данная штатная единица является незамеченной в уединённом кабинете, из которого психолог выбирается по собственной инициативе, а не по востребованности со стороны системы образования. Рассмотрим примеры….В детских садах; в школах - не предусмотрены часы с реальным квалифицированным психологом для проведения тренингов как для учащихся, так и для учителей; на классных часах учителя не совершенствуют навыки по психологическим компетенциям, которые получили в педагогических вузах; в вузах – наблюдается та же система, которую мы наблюдаем в школах – традиционное преподавание без инновационной дидактики. В чём состоит проблема сегодня? На образовательной платформе в реальной практике нет

развития в психологическом аспекте, а все рекомендации из научных исследований остаются на бумаге, и молодёжь, в итоге, не имеет возможность строить прочный фундамент психики для освоения новых горизонтов в науке, образовании, культуре и просвещении, так как в уже работающем механизме образования не отрегулировано реле, которое бы дало мощный импульс для реформ в психолого-педагогической деятельности в системе образования!

Ta’lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlar juda muhimdir. Bu metodlar, talabalar uchun ma’lum bir mavzuni o‘rganishni oson va qiziqarli qilishga, talabalarning fikrini ifodalash, maslahatlashish, muammolarga yechim topish va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga o‘tkazish imkoniyatini yaratishga va talabalarning o‘rganishni xayollash, ijodiy fikrlash va muammolarga yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.Buning natijasida, talabalar o‘zlarini rivojlantirish va yangi yondashuvlar topishga qodir bo‘ladi. Shuningdek, bu metodlar, talabalar uchun o‘rganishni qiziqarli va maqsadga yo‘naltiruvchi qiladi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Bu esa, ta’lim samaradorligini oshiradi va talabalarning o‘zlarini rivojlantirishiga yordam beradi. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo’lishi taqozo etadi. So’nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o’quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o’quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o’qituvchilarni kasbiy o’sishlariga yordam beradi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl hamda vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta’limning noan’anaviy metodlari ham muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta’lim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Mustaqil ta’lim olishda talaba o‘zi mustaqil ravishda adabiyotlar, darsliklar, gazeta va jurnallar, radio va televideniye, elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, internet resurslari, Ziyonet materiallari va o‘quv-uslubiy majmualardan foydalanishi nazarda tutiladi.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida,

muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o‘tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Kreativ yondashuv talabalarning bir-birlari bilan, o‘qituvchi, dialog, ta’lim, ishbilarmon va rolli o‘yinlar shaklida turli xil axborot manbalari bilan faol samarali hamkorligi, yangi ijtimoiy va professional tajribani o‘zlashtirish uchun o‘quv (kasbiy) vazifalarni hal etishga asoslangan aniq vaziyatlarni tahlil qilish sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlarni tahlil qilish asosida kreativ o‘qitish usullarining (metodlari) boshqa guruh usullaridan ajralib turadigan xususiyatlari aniqlandi:

1. faoliyatning guruhiy tarkibi;

2. talabalarni guruh faoliyatida o‘quv va kasbiy vazifalarni hal qilishda o‘zaro muloqotga jalb qilish: “talaba-talaba”, “talaba-o‘qituvchi”, “talaba-kompyuter”, “talaba-kitob”; o‘zaro munosabatlar subyektlarining konstruktiv, teng huquqli muloqotiga yo‘naltirilgan;

3. turli madaniy matnlar (diagramma, grafik, formulalar, vazifa, ilmiy, badiiy matnlar, internet va boshqalar) bilan ishlashga yo‘naltirilganligi;

4. o‘zaro hamkorlikning faol ishtirokchilari;

5. natija olish uchun konstruktiv mahsulotni (natijalarni) va guruhlarning o‘z-o‘zini boshqarishini ta’minlaydigan ta’sir doirasini tashkil etish;

6. kreativ yondashuv usullarining gumanitar tabiati, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, muhim kasbiy muammolarni hal qilish, ko‘plab kasbiy pozitsiyalarning paydo bo‘lishi va qabul qilinishi, refleksiya (guruhli va individual).

O’quv mashg’ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g’oyalarni o’ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo’lgan munosabatni o’zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag’batlantirishda asosiy omil bo’lar. O’quv mashg’ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi . Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to’laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Gardner o’z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo’lib, u o’zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo’lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo’yicha o’zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko’nikmalarga ham ega bo’lish” demakdir. Olimlar kreativlikni o‘rganishda amaliyotga yo‘naltiruvchi va interaktiv usullar, masofaviy ta’lim vositalari, onlayn platformalar va boshqa sohalardan foydalanishni tavsiya qilishadi. Ularning fikriga ko‘ra, talabalarning kreativlik darajasini oshirish uchun ularning fikrini ifodalash, ijodiy yondashuvlar topish va muammolarga yechim topish imkoniyatlarini rivojlantirish lozimdir.Shu bilan birga tajribali o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilishni, talabalarga ijodiy topshiriqlar berishni va ularni qiziqarli va maqsadga yo‘naltiruvchi mashqlar bilan mashg‘ul qilishni tavsiya qilishadi. Bunday usullar orqali talabalar kreativlik darajasini oshirish Oliy ta’lim o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada

kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta’lim olish mumkin. Zero an’anaviy ta’lim o‘z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o‘qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Ta’lim jarayonida kreativ va zamonaviy metodlar talabalarning o‘rganishni o‘zlashtirish, fikr ifodalashni rag‘batlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyidagi kreativ va zamonaviy ta’lim metodlari bu maqsadlarga erishishda foydali bo‘ladi:

Ijodiy mashg‘ulotlar: Talabalar uchun ijodiy mashg‘ulotlar tuzish va ularni amaliyotga o‘tkazish, masalan, qimmatbaho muammolar yechish, yangi ideyalar taklif qilish va ularni ijodiy topshiriqlar ustida ishlash kabi jarayonlarda ularning kreativlik darajasini oshiradi.

Guruh ishlari: Guruh ishlari talabalar uchun ijodiy fikrlash va hamkorlikni rivojlantirishda juda foydali bo‘ladi. Guruh a’zolari bir-biriga fikrlarini taqdim etib, birgalikda muammolarga yechim topish va yangi yondashuvlar izlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Interaktiv darslar: Interaktiv darslar texnologiyalardan foydalanib o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida faol munosabatni ta’minlaydi. Bu darslar o‘quv jarayonini qiziqarliroq qilish va talabalar uchun o‘rganishni osonlashtirishda yordam beradi.

Ijodiy dasturlar va vositalar: Ijodiy dasturlar va vositalar talabalar uchun kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu dasturlar orqali talabalar o‘z fikrlarini ifodalash, grafik dizayn, animatsiya yaratish va boshqa ijodiy mashg‘ulotlar amalga oshirishlari mumkin.

Amaliyotga asoslangan ta’lim: Amaliyotga asoslangan ta’lim metodlari talabalar uchun teoridan amaliyotga o‘tish imkoniyatini yaratadi. Bu metodlar orqali talabalar o‘zlarining bilimlarini amaliyotda sinash, ijodiy topshiriqlarni bajarish va muammolarga yechim topish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Bu metodlar kreativlikni o‘rganish va rivojlantirishda muhimdir, chunki ular talabalarga o‘z fikrlarini ifodalash, yangi yondashuvlar topish va ijodiy topshiriqlarni hal qilishda yordam beradi.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Jumladan, kreativ va zamonaviy metodlar ta’lim jarayonini o‘zlashtirish, talabalarning o‘rganishni rag‘batlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar talabalarni o‘z fikrlarini ifodalash, yangi yondashuvlar izlash va muammolarga yechim topishda yordam beradi va ularning o‘rganishning samaradorligini oshiradi.Ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirishda birinchi navbatda interfaol va innovatsion metodlar asosiy o‘rin kasb etadi. Sababi texnalogiya kundan-junga rivojlanib bormoqda. Talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, konsepsiyalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ijtimoiy boshqaruv jurnali “Oliy ta’lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta’limni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari” ilmiy maqola

2. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. – T., 2007. – 315 b.
3. Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022) АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.

4. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.

5. *”TA’LIMDA KREATIV FIKRLASH VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODLARI”* Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(6), June, 2023.

YOSHLARNI INDIVIDUAL TALIMGA JALB QILISH VA TALIM SAMADORLIGI

Odiljon Sirojiddinov Ilhomjonovich
CHDPU pedagogika fakulteti maktabmenejmenti yonalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada yoshlarni individual talimga jalb qilish va shu bilan birga mamlakatimizdagi mazkur talim tizimi borasidagi istiqbolli rejalari haqida bayon etiladi.*

Kalit sozlar:*, UNICEF, psixolo-pedagogika, individual talim, integratsiya, kompentatsiya, YUNESKO, psixologik yondashuv, yakka talim.*

Individual ta’lim - o‘qituvchining o‘quvchiga pedagogik ta’sirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biri. O‘qituvchining o‘quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladitan faoliyati tushuniladi. Individual ta’lim shakllarining eng qadimiysi bo‘lib, u davr va o‘rta yerlarda keng qo‘llanilgan.

O‘zbekiston ta’limi tarixida individual talim shakli keng qo‘llanib kelingan. Uning samarasi, ayniqsa, amaliy san’at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta’limi tarzida namoyon bo‘lgan. Mashhur xalq ustalari Toshpo‘lat Arslonqulov, Shirin Murodov, Qodirjon Xaydarov, Mahmud Usmonov, Hamro Rahimovlar shu tarzda ta’lim olganlar. Individual talimda bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo‘lgan tabiiy moyilliklarini to‘liq e’tiborga olish imkoniyati ta’minlanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Talim togrisida”gi Qonunning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bolgan bolalar, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan talim muassasalarida, umumiy orta talim va orta maxsus yoki oliy talim tashkilotlariga idividual shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda talim oladi, deb belgilab qoyilgan.

UNICEF individual talimni Ozbekiston talim tizimiga kiritish masalalari bilan shugullanadi. Inklyuziv talim tizimi alohida talimga ehtiyoji bolgan bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda talim olishi, ozlashtirishda qiynalayotgan bolsa, oqish va yozishga organish uchun maxsus yordamga ega bolishi, darslarga qatnamay qoygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam korsatilishini kafolatlaydi.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniylarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga talimning tasiri togrisidagi qarashlari individual talim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Talim tizimi shunday bolishi kerakki, deb yozadi L.S.Vigotskiy — “nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompentatsiya qilish va uning integratsiyasini taminlash deb hisoblaydi. Buning uchun esa shunday talim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola oqish jarayonida har tomonlama rivojlansin”. Yani L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus talimni uygunlashtiradigan talim tizimini yaratishni etirof etgan. Ushbu maqsad esa individual va inklyuziv talim tizimida amalga oshiriladi.

2003-yilda Respublikamizda “Talim hamma uchun” milliy dasturi ishlab chiqildi. “Talim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YUNESKOning maslahatlari va komagi bilan 2000-yilgi Dakar shartnomalariga mos bolib, siyosatchilar, talim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari Ozbekiston Respublikasi uzluksiz talim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun moljallangan.

Individual talim goyasini Ozbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vositalari orqali targibot-tashviqot ishlari jadal faollashdi. Jumladan, Ozbekistonda umumtalim maktablarida individual talim joriy etish reja qilindi. 2022-2023-oquv yilida alohida talim ehtiyojlari bor bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda.

Hulosa qilib aytish joizki, har bir imkoniyati cheklangan va alohida talimga ehtiyoji bolgan bolalarning barchasi oz haq-huquqlaridan tolaqonli foydalanishlari hukumat tomonidan bir qator qonun hujjatlari bilan kafolatlangan va ushbu bolalarni individual talim tizimiga jalb qilish hamda ular oz tengdoshlari bilan teng shart-sharoitlarda talim-tarbiya olishi jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishi, oz qadr-qimmati va mavqeiga ega bolishining mustahkam garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomaxmudova R.Sh. Inklyuziv talim (Xalqaro va Ozbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011

2. “Talim hamma uchun” Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003

3. “Talim hamma uchun” Dakar deklaratsiyasi-2002

4. “Talim hamma uchun” milliy dasturini joriy qilish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Toshkent-2005

5. N.A.Egamberdiyeva “Talim klasteri sharoiti — autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida”. INSON FAROVONLIGINI O‘RGANISHDA FANLARARO YONDASHUV xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. II qism. Toshkent-2023

O‘QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASIGA MOS MALAKA OSHIRISH DASTURLARI BO‘YICHA O‘QITISH ZARURATI

Tashtemirova Nargiza Nematovna
Perfect University, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abstract: The article addresses the imperative of implementing tailored training programs for teachers within the framework of advanced professional development. It discusses the criteria and methods essential for ensuring the quality of these programs, emphasizing the alignment with individual trajectories of professional growth. The necessity of aligning teacher training with personalized professional development trajectories is highlighted, aiming to address challenges such as the inadequacy of current mechanisms for program variability, the alignment of educational content with student needs, and the identification of effective pedagogical approaches. Moreover, it underscores the importance of individualization and differentiation in the educational process, aligning with contemporary standards and demands.

Key words: individual professional development, individual trajectory, need, curriculum, professional development, teacher, quality of educational programs.

Kirish. O‘qituvchilarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos o‘quv dasturlari bo‘yicha o‘qitish zarurati malaka oshirish kurslari o‘quv dasturlarini variativ ishlab chiqish mexanizmining mukammal emasligi, ta’lim mazmuni hamda tinglovchilarning aniq ehtiyojlari orasidagi bog‘liqlikni tezkor ta’minlash, pedagogik ta’sir o‘tkazishning produktiv yo‘llari va usullarini belgilash, jarayonni zamonaviy talablar asosida individuallashtirish va tabaqalashtirish kabi muammolarning ham yechimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish ta’lim muassasalarining amaliy faoliyati, undagi o‘quv reja va dasturlarning tahlili hamda bir necha yillik kuzatishlar kurslarda asosiy e’tibor pedagog xodimlarning umumiy tayyorgarligi, kasbiy kompetentligini takomillashtirishga qaratilishi va barcha uchun bir xildagi usul, metodlarning qo‘llanilganligi, ularning kasbiy xususiyatlari individuallashuvi, mahorat darajasi va ehtiyojlari yetarlicha inobatga olinmaganligini ko‘rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish tizimi oldida kechiktirmasdan hal etilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalar turibdi. Ulardan biri pedagogni sust obyektdan faol, mustaqil, intiluvchan, raqobatbardosh, ya’ni faoliyatidan ko‘zlangan maqsad, vazifalarini tushunadigan, qanday va qay darajada kasbiy mahoratga ega bo‘lishi lozimligi, imkoniyati hamda qobiliyatlarini biladigan subyektga aylantirishdir[1].

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos dasturlarini shakllantirish jarayoni olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda ilmiy adabiyotlar tahlili, ilg‘or xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalar, qiyoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Pedagogika fanida “rivojlanishning individual trayektoriyasi” atamasini ilk bor I.S.Yakimanskaya qo‘llagan[2]. U insonning “rivojlanishidagi individual trayektoriyasi” ikki xil yo‘nalishi mavjud, deb hisoblagan. Ular: 1) bolaning kattalar va ijod talablariga moslashishi (moslashuvchanligi) - bu unga yangilikni izlash va topishga imkon beradi; 2) mavjud vaziyatdan chiqish, uni yengib o‘tish yo‘li, individual tajribada mavjud bo‘lgan bilimlarga, usullarga, harakatlarga tayanib o‘zi uchun yangi vaziyatni yaratish. I.S.Yakimanskaya o‘z qarashlarida “rivojlanishning individual trayektoriyasi”ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida shaxsni o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zini anglash mexanizmini shakllantirish bilan bog‘laydi.

Pedagog olim A.V.Xutorskiy talqiniga ko‘ra, “individual ta’lim trayektoriyasi - bu har bir ta’lim subyektining ta’lim jarayonida shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning individual usuli” hisoblanadi[3]. T.P.Korostiyanes individual ta’lim trayektoriyasini nafaqat shaxsiy rivojlanish yo‘li, balki ta’lim subyektining individual faoliyat dasturi sifatida ham ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, individual ta’lim trayektoriyasi bu shaxsning o‘z qarorini ongli ravishda qabul qilishga tayyorligini ham bildiruvchi tushuncha hisoblanadi[4]. A.V.Xutorskiy va T.P.Korostiyaneslarning individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasiga berilgan ta’rifida ko‘proq shaxsning individualligi, uning ongli va ruhiy imkoniyatini nazarda tutishadi. Lekin, mazkur olimlarning ta’riflarida individual ta’lim trayektoriyasi o‘quv faoliyati bilan bog‘liq jarayon ekanligiga kamroq e’tibor qaratilgan.

E.A.Aleksandrova individual ta’lim trayektoriyasi bo‘yicha bergan tahlilida, uni ta’lim subyekti uchun ta’lim beruvchi bilan birgalikda ishlab chiqilgan va ta’lim subyektining hayotidagi ta’lim va ta’limdan tashqari sohalarni qamrab oladigan faoliyati dasturi, deya hisoblagan[5]. Shu bilan birga, tadqiqotchi individual ta’lim trayektoriyasini 1) shaxsga va ijtimoiylashuvga yo‘naltirilgan hamda 2) bilim, ijodiy va amaliyotga yo‘naltirilgan trayektoriya turlariga ajratgan.

A.A.Ibragimov individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini “o‘qituvchining o‘zini ta’lim olish, rivojlanish subyekti sifatida tushunishi, shaxsiy-kasbiy qadriyatlarini anglashi, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirishi asosida salohiyatini qo‘llay olishi, kasbiy takomillashuvi, o‘zini namoyon qilishiga doir belgilagan va refleksiv tajribalariga tayangan o‘ziga xos alohida harakat yo‘li” deya ta’riflaydi [6].

Shuningdek, o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzishda quyidagi algoritmni nazarda tutadi[6]:

- o‘qituvchining anglangan subyektiv kutilmalari negizida kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklar tashxisini o‘tkazish (o‘qituvchi tomonidan mustaqil yoki ta’lim tizimining mas’ul ishtirokchilari tomonidan o‘tkazilishi mumkin. Mustaqil o‘tkazilishi belgilangan maqsadlarga mos keladi, shuning uchun qo‘llab-quvvatlanadi va tavsiya qilinadi);
- uzluksiz kasbiy rivojlanish maqsadi va kutiladigan natijalarni belgilash;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish mazmunini shakllantirish;
- xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi ishtirokchilari bilan o‘zaro ta’sir mexanizmi va harakat yo‘nalishlarini belgilash;
- belgilangan yo‘nalishni amalga oshirish;
- natijalar tahlili va refleksiv baholash.

M.T.Jumaniyozova ilmiy-tadqiqot ishida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga

tayyorlashning asosiy omillaridan biri – individual malaka oshirish dasturi ekanligini asoslab, bu dasturni tuzish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni beradi [7;100-b.]:

1. Individual malaka oshirish dasturining maqsadini aniqlab olish.
2. Individual malaka oshirish dasturini ishlab chiqishdagi asosiy tamoyillarga (uzluksizlik, ilmiylik, dasturni amalga oshirish imkoniyatlarini real bo‘lishi) amal qilish lozim.
3. Individual malaka oshirish dasturining tuzilishi va mazmuni o‘qituvchi faoliyatining tahlili natijalariga asoslanishi, bu dastur o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.
4. Individual malaka oshirish dasturining bajarilishini nazorat qilib borish fan metod birlashmasi yoki rahbariyat tomonidan vaqti-vaqti bilan nazorat qilinib, uning monitoringi olib borilishi kerak.

Ma’lumki, individual ta’lim trayektoriyasi malaka oshirish muhitining chegaralarini, imkoniyatlarini kengaytiradi, pedagoglarda motivlarining mustahkamlanishi, kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratish bilan birga ularning individual xususiyatlari, qiziqishlari, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari, shaxsiy motivlari, tajribasi, malaka darajasi va ijtimoiy imkoniyatlarini inobatga olishga xizmat qiladi.

Pedagog xodimlar malakasini uzluksiz va maqsadli oshirishni tashkil qilish uchun pedagogik faoliyatda aniqlangan yoki tinglovchining o‘zi anglagan kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish hamda ta’limning barcha (formal, noformal, informal) turlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday hollarda pedagoglarga malaka oshirish shakli, vaqti, hajmini erkin tanlash imkoniyatini yaratish, kasbiy kompetentligini rivojlantirishga tashqi ko‘mak ko‘rsatish, ilmiy-metodik kuzatuvni tashkil qilish, loyihalash va refleksiv ko‘nikmalarini chuqurlashtirish amaldagi tizimni takomillashtirishning asosiy vazifasi bo‘lib qoladi. Bu vazifalarni bajarishda innovatsion yondashuvlar “...mutaxassisning butun umri davomida kasbiy kompetentligi va umumiy madaniyatini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi hayot faoliyati usuliga aylanadi. Shu bilan yangi pedagogik va ijtimoiy voqelikning shakllanishini ta’minlaydi” [8; 25-b.].

Malaka oshirish kurslari dasturini yaratishda quyidagi algoritmdan foydalanilgan:

- zarur asosiy tushunchalar va ta’riflarni tanlash;
- o‘quv fanlari mazmunini modullarga taqsimlash;
- fan elementlari (modul, bo‘lim) o‘rtasidagi semantik aloqalarni hisobga olish;
- test topshiriqlarini tayyorlash.

Tadqiqotlarimiz natijasida matematika o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga moslashtirilgan malaka oshirish kurslari o‘quv dasturlarida quyidagi mezonlarni e’tiborga olish lozim deb hisoblaymiz:

1. ***Shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish***: O‘qituvchilar turli darajadagi tajribaga, turli ta’lim asoslariga va turli xil kasbiy rivojlanish ehtiyojlariga ega. Moslashtirilgan dasturlar ushbu individual farqlarni hisobga olgan holda individual kasbiy rivojlanishga tegishli bo‘lgan kontentni taqdim etish imkonini beradi.

2. ***Ta'limdagi o'zgarishlarni hisobga olish***: Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni, maktab dasturlari mazmuniga kiritilgan o'zgarishlar, darsliklardagi yangiliklar va ularni o'qitish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni moslashtirilgan dasturlar mazmuniga singdirish.

3. ***Motivatsiya va mas'uliyat***: O'qituvchining shaxsiy manfaatlari va maqsadlariga moslashtirilgan dasturlar ularda motivatsiya va mas'uliyatni oshiradi. O'qitilayotgan ko'nikma va bilimlarning bevosita o'z amaliyotiga tatbiq etilishini ko'rgan o'qituvchilar o'quv jarayonida faolroq qatnashadilar.

4. ***Moslashuvchanlik va harakatchanlik***: Moslashtirilgan dasturlar o'qituvchilarga ularning ehtiyojlari va jadvaliga mos keladigan maxsus modullar, kurslar yoki yo'nalishlarni tanlashda imkonini beradi. Bu moslashuvchanlikni ta'minlaydi va o'qituvchilarga o'z kasbiy rivojlanish trayektoriyasini yaratish (tanlash) imkon beradi.

5. ***Kasbiy ko'nikmalarga e'tibor qaratish***: Moslashtirilgan dasturlar o'qituvchi kasbiy rivojlanishi uchun eng muhim deb hisoblaydigan aniq kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu o'qitish usullari, texnologiya, sinfni boshqarish va boshqa jihatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

6. ***Baholashning individual yondashuvlari***: Dasturlar nafaqat rasmiy testlarni, balki olingan bilimlarning sinf muhitida amalda qo'llanilishini ham hisobga olgan holda o'qituvchi faoliyatini baholashning individual yondashuvlarini taqdim etishi mumkin.

7. ***Kasbiy rivojlanishga ko'maklashish***: Moslashtirilgan dasturlar o'qituvchilarga o'zlarining ta'lim maqsadlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda individual kasbiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

8. ***Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish***: O'quv dasturlari o'qituvchining liderlik (yetakchilik) qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan elementlarni o'z ichiga olishi bu esa o'qituvchining ta'lim hamjamiyatidagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'qituvchilarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos o'quv dasturlarini tuzish bilan birga uning sifat va samaradorligini aniqlash tadqiq etildi.

O'qituvchilar malakasini oshirishda raqobat muhitining yuzaga kelishi sifatni ta'minlaydi. Bizning fikrimizcha, malaka oshirish dasturlari sifatini aniqlashda ichki ekspertiza va tashqi baholash mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quv dasturi sifatini baholashning ichki ekspertiza mezonlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- dastur tuzilmasining normativ talablarga muvofiqligi;
- dasturning dolzarbligi va maqsadga yo'nalganligi;
- dastur mazmunining sifati;
- dasturni o'zlashtirish samaradorligini baholash.

Ichki ekspertiza kafedra mudirlari, o'quv-tashkiliy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan o'tkaziladi va institut Ilmiy kengashida muhokama qilinadi.

Ta'lim dasturlari sifatini tashqi baholash to'rtta yo'nalishda amalga oshiriladi:

- Tinglovchilardan so'rovnoma olish;

- Malaka oshirish markazi saytida onlayn so‘rovnoma o‘tkazish;
- Ma’lum dasturlarini tashqi ekspertizadan o‘tkazish;
- Malaka oshirish kursi tinglovchilarining fikr-mulohazalari.

Shunday qilib, sifatli ta’lim dasturlarini amaliyotga joriy etish monitoring natijalari va tinglovchilar qoniqishlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu baholash quyidagilarga mezonlarga nisbatan amalga oshiriladi:

- Kasbiy rivojlanish dasturlarini o‘zlashtirish natijalarining belgilangan davlat talablarga muvofiqligi;
- Kasbiy rivojlanish dasturlari mazmunining dolzarbligi;
- Kasbiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish jarayonini tashkil etish samaradorligi;
- O‘quv, uslubiy va moddiy-texnik ta’minotning kasbiy rivojlanish dasturlarni amalga oshirish uchun zamonaviy talablarga muvofiqligi.

Tinglovchilar fikr-mulohazalar bildirishi va ularning murojaatlarini o‘rganish hamda qaytar aloqa maqsadida so‘rovnoma tashkil etiladi. Tinglovchilarning kirish so‘rovnomasi kutilayotgan o‘quv natijalarini tahlil qilish va o‘z kasbiy darajalarini baholash natijalari bilan tanishish imkonini beradi. Yakuniy so‘rovnoma esa ta’lim xizmatlari iste’molchilarining ta’lim dasturlari mazmuni bo‘yicha uning dolzarbligi va amaliy ahamiyati, shuningdek, o‘quv, uslubiy, moddiy-texnik ta'minotdan qoniqish darajasi va ta’lim faoliyatini tashkil etish yuzasidan bahosini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa

Malaka oshirish dasturlari sifatini aniqlash mexanizmini amalga oshirish natijasida pedagog xodimlarning individual kasbiy trayektoriyasi va ehtiyojlarga asoslangan dasturlar ko‘payadi va pedagoglarning ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan maqsadli ta’lim dasturlari hamda tashqi ekspertizadan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘quv dasturlari va ularni samarali amaliyotga joriy etish yo‘llari yuzaga keladi.

Xulosa shuki, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga, ehtiyojlarga, o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga asoslangan malaka oshirish kurslari dasturlarini shakllantirish hamda amaliyotga joriy etish lozim. Zero o‘qituvchilarga malaka oshirish maqsadi, mazmuni, shakli, metodlari, manbalari, vositalari, muddati, vaqti, joyi va natijalarni baholashni tanlashda erkinlikni nazarda tutuvchi individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish imkoniyatining berilishi ta’lim tizimi samaradorligi va sifatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963-son Qarori
2. Якиманская И.С. Требования к учебным программам, оринтированным на личностное развитие школьников // Вопросы психологии. 1994.№2.С.64-67.

3. *Хуторской А.В. Дидактика*. Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. – *Спб.*: *Питер*, 2017. – 720 с.
4. Коростиянец Т.П. Технология формирования профессионально-педагогической компетентности будущих учителей математики по индивидуальным образовательным траекториям // Педагогическое мастерство: материалы V междунар. научн. конф. М. : Буки-Веди, 2014. С. 258–261.
5. Александрова Е.А. Психологическое и педагогическое сопровождение: индивидуальная траектория развития // Народное образование. 2014. № 9. С. 180–187.
6. *Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. dok.. (DSc) diss. – Samarqand, 2022. - 389 b.*
7. *Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari (tarix fani o'qituvchilari misolida): ped.fan.nomz. ... diss. –Toshkent: 2007. – 159b*
8. Вершловский С.Г. От повышения квалификации к постдипломному педагогическому образованию / Андрогогика постдипломного педагогического образования (под. ред С.Г.Вершловского, Г.С.Сухобской). – СПб.: "СПб АППО", 2007. – С. 6-33.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MUAMMOLI TA’LIM VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ORQALI O‘QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna
Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda muammoli ta’lim texnologiyalari , muammoli metodlar, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o‘quvchilarning ko‘nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan . Muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari inobatga olingan holda yondashish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, metod ,vaziyat ,usul,mantiq,

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПУТЕМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Абстрактный. В основе данной статьи лежат технологии проблемного обучения, проблемные методы, проблемные ситуации и активация умений и знаний учащихся начальных классов. Освещены способы подхода учителя и ученика к решению проблемных ситуаций с учетом логических операций мышления.

Ключевые слова: начальный класс, метод, ситуация, способ, логика.

DEVELOPING STUDENTS’ LOGICAL THINKING SKILLS THROUGH THE USE OF PROBLEM-BASED LEARNING AND INFORMATION TECHNOLOGY IN ELEMENTARY EDUCATION.

Abstract. This article is based on problem-based learning technologies, problem-based learning, problematic situations, and the activation of skills and knowledge of elementary school students. The ways of teachers’ and pupils’ approaches to solving problem situations taking into account logical operations of thinking are highlighted.

Keywords: elementary class, method, situation, way, logic.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023–2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-son buyrug‘iga ko‘ra umumiy o‘rta ta’limning 1–4-sinflari uchun ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etildi. Unga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish yolga qo‘yildi. XXI asrda dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasini shakllantirishda informatika va zamonaviy axborot ,muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanmagan holda tasavvur etib bo‘lmasligi hammamizga ma’lum.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning

fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi – o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak.

Muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob’ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish.Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o‘quvchilarning ko‘nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi. Muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo‘naltiradi.

Muammoli ta’lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o‘quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehqtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta’lim va o‘qitishning ilgari ma’lum bo‘lgan usullarini qo‘llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta’lim ko‘proq o‘quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e’tiqodining shakllanishini ta’minlaydi.

“Mantiq” so‘zi grekcha – logike so‘zidan olingan bo‘lib so‘z va fikr, aql ma’nosini anglatadi. Fikr – mulohazalarni asoslash mantiqiy to‘g‘ri fikr yuritish demakdir. Asoslash uchun esa yetarli dalillar bo‘lishi lozim.



Fikrlashni aniq obyektlarini idrok qilishdan boshlash lozim. Fikrlashga chorlovchi topshiriq yoki ma’lumot mustaqil fikrlovchining salohiyatiga mutanosib bo‘lishi kerak.

Mantiqiy fikrlashning asosiy shakli, xulosa chiqarishdan keng foydalanamiz. Bilimlarimizning ko‘p qismi ham xulosa chiqarish shaklida tuzulgan chunki har qanday yangi bilim xulosa chiqarishning natijasidir.

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi maktabga kelganda, keng lug‘at boyligiga ega bo‘lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob’ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so‘zlar bo‘lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o‘rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi.

Duradgorda 9 ta yog‘och taxta bor edi. U bir nechta taxtaning har birini 5 bo‘lakka bo‘lib arraladi. Shunda taxtalar soni 33 taga yetdi. Duradgor nechta taxtani bo‘laklarga bo‘lib arraladi?

Bu narsa insonga 2 marta beriladi. Uchinchisida sotib olinadi.

Dangasa bola bir sutkaning yarmini uxlash va ovqatlanish, choragini maktabda bo‘lish ga, yana bir choragini o‘yin va televizor ko‘rishga sarfladi. Sutkaning qolgan qismida dars tayyorladi. U necha soat dars tayyor lagan?

Qiyin savollarga oson javoblar

G‘o‘la 3 bo‘lakka bo‘lindi. G‘o‘la nechta joyidan arralangan?

(2 ta)

Bir haydovchi o‘zi bilan haydovchilik guvohnomasini olmagan edi. Bir taraflama harakat belgisi turgan joyda qarama-qarshi tomonga harakatlanib borardi. Politsiyachi uni ko‘rdi, lekin to‘xtatmadi. Nima sababdan?

(Haydovchi piyoda ketayotgan edi)

Yomg‘ir ketma-ket ikki kun yog‘ishi mumkinmi?

(Yo‘q, ikki kunning orasida bitta tun bor)

Unga sakrab chiqish mumkin, lekin undan sakrab tushish mumkin emas. U nima? **(Samolyot)**

Ikki marta tug‘iladi, bir marta o‘ladi. U nima?

(Tuxumdan chiquvchi barcha jonzotlar)

Nimani polda turgan vaqti dumidan tortmaymiz?

(Kalava ip)

Kim o‘tirgan holatda yuradi?

(Shaxmatchi)

Nima o‘sib boraveradi, sira kamaymaydi?

(Yosh)

Undan qancha ko‘p olishsa, u shunchalik kattaraveradi. U nima?

(Chuqur)

Qizcha 2-etajdan tushib ketdi va bir oyog‘ini sindirib oldi. Agar u 4-etajdan tushib ketsa, nechta oyog‘i sinadi?

(Ko‘pi bilan bitta. Chunki bitta oyog‘i allaqachon singan)

Chiroq o‘chdi. Men shamni yoqdim. Men shamni yoqqan payt qaerda edim?

(Qorong‘ida)

9 qavatli uyda lift bor. Birinchi qavatda 2 ta odam yashaydi, ikkinchi qavatda 4 ta, uchinchisida 8 ta, to‘rtinchisida 16 ta va hk. Shu uy liftining qaysi tugmasi eng ko‘p bosiladi?

(Birinchi qavat tugmasi)

Nima tog‘ga boradi, tog‘dan keladi, lekin joyida turaveradi?

(Yo‘l)

Yarimta apelsin bo‘lagiga eng ko‘p nima o‘xshaydi?

(Apelsinning ikkinchi bo‘lagi)

Uyingizga mehmonlar kelishdi. Muzlatgichingizda limonad, ananasli sok va mineral suv bor. Birinchi bo‘lib nimani ochasiz?

(Muzlatgichni)

Nimani xomligida yemaydilar, lekin qaynasa, pishgandan so‘ng olib tashlaydilar?

(Lavr yaprog‘i)

Eng qisqa oy qaysi?

(May, unda bor-yo‘g‘i uchta harf bor)

Qizil koptok Qora dengizga tushib ketsa nima bo‘ladi?

(Xo‘l bo‘ladi)

Choyni qaysi qo‘lda aralashtirgan yaxshiroq?

(Umuman olganda choyni qoshiq bilan aralashtirgan yaxshiroq)

Qaysi savolga hech qachon "ha" deb to‘g‘ri javob berib bo‘lmaydi?

(Uxlayapsanmi?)

Qaysi savolga "yo‘q" deb to‘g‘ri javob berib bo‘lmaydi?

(Tirikmisan?)

Och qoringa nechta tuxum yeyish mumkin?

(Bitta. Qolganlari och qoringa yeyilgan hisoblanmaydi)

Qanday idishdan ovqat yeb bo‘lmaydi?

(Bo‘sh idishdan. Chunki unda ovqat yo‘q)

U seniki, lekin sendan ko‘ra boshqalar ko‘proq foydalanadi. Nima u?

(Ism)

Tuyaqush o‘zini qush deb atashi mumkinmi?

(Yo‘q, u gapirishni bilmaydi-ku)

Qanday quloq eshitmaydi?

(Qozonning qulog‘i)

Ko‘zlar yumuq holda nimani ko‘rish mumkin?

(Tush)

Quyon katta tezlik bioan bo‘ridan qochib o‘rmonga kirib ketmoqda. Quyon o‘rmonga qachongacha kirib boradi?

(Yarmigacha, yarmidan uyog‘iga o‘rmondan chiqayotgan hisoblanadi)

Qushlar galasi uchib kelib daraxtga qo‘nishdi. Ikkitadan qo‘nganida bitta daraxt ortib qoldi, bittadan qo‘nganida bitta daraxt yetmadi. Galada nechta qush bor? Nechta daraxt bor?

(4 ta qush, 3 ta daraxt)

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta’kidlangan o‘quvchilarni mantiqiy mashqlar bajarish asosida tafakkur doirasini kengaytirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Buni mantiqiy topshiriqlar, ta’limiy o‘yinlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning amaliy ishlay olish ko‘nikmalari rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zamonaviy dars. Ilmiy-metodik to‘plam. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI.- T., 2007 y.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: T.: «O‘qituvchi», 2004 y.
3. Колеченко А.Э. Энциклопедия педагогических технологий: Пособие для преподавателей. – СПб.: КАРО, 2002.
4. Питюков В.Ю. Основы педагогической технологии.- М.: «Гном-Пресс», 1999

4-SHOʻBA. YANGI AVLOD DARSLIKLARI: ILGʻOR TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI BARPO ETUVCHI MUHIT YARATISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY MEXANIZMI

Musurmankulov Farxod Uralovich
Oʻzbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Rektori yordamchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ta'lim taraqqiyotining istiqbollari, inson hayotida ta'limtarbiyaning muhim ekanligi, eng oliy ne'mat boʻlgan qadriyat tushunchasini yoshlar ongiga singdirish, ularni ma'naviy, jismonan sogʻlom tarbiyalashimiz taraqqiyotimizning asosiy yoʻli boʻlgan "Uchinchi renessans" boʻlishi kerakligi ta'kidlab oʻtilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, sifat, renessans, milliy g'oya, qadriyat.

ABSTRACT: In this article, the perspectives of educational development, the importance of education in human life, the concept of value, which is the highest gift, are inculcated in the minds of young people, and the main way of our development is to raise them spiritually and physically healthy. has been read.

Key words: Education, education, quality, renaissance, national idea, value

АННОТАЦИЯ: В данной статье в сознание молодежи внедряются перспективы развития образования, значение образования в жизни человека, значение образования в жизни человека, понятие ценности, которая является высшим благом, и наше духовное развитие. и физическое воспитание – главный путь нашего развития.

Ключевые слова: Образование, образование, качество, ренессанс, национальная идея, ценность.

Renessans fransuzcha soʻz boʻlib, qayta yuzaga kelmoq, yangidan tugʻilmoq ma'nosini anglatadi Oʻzbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga toʻgʻri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi boʻldi. Ijtimoiy sohaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib-tamoyillar asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy-madaniy rivojlanishi, ilmu ma'rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar oʻrta asrlarda yurtimizda davlatchilikning oʻziga xosligini belgilovchi tamoyillardir.

Ikkinchi Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga toʻgʻri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo oʻlkalari oʻz taraqqiyotining yangi pogʻonasiga koʻtariladi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me'morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallashdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san'at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining: "Xalqimizning ulugʻvor qudrati joʻsh urgan hozirgi zamonda Oʻzbekistonda yangi bir uygʻonish – Uchinchi Renessans

davriga poydevor yaratilmoqda”, - degan so‘zi yangradi. O‘zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindir. O‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy-ma’naviy yutuqlar Yevropadagi ilmu fanga asos bo‘ldi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy-falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o‘z zamonasi, balki keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: Ibn sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, xayot, xayotiy quvvat uch shaklda: o‘simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo‘ladi.Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o‘qituvchining unga bilim, xunar o‘rgatishi zarurligini uqtiradi. Ilm fanga intilish insonning eng oliy ma’naviy yuksaklikka ko‘taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Tarq qil bor narsani, jon barchidin a’lodurur,
Jon kamoli ilmdandir, ilmdandir so‘lu sog’.
Jon agar bir shisha bo‘lsa, ilm sham chirog’.
Xikmati insonin bilgil uch chiroqda misli yog’.
Ul agar ravshan yonar, sen ham salomat ham tirik.
Ul chiroq so‘nsa, sening ham o‘lganingmasmu shu chog’.

Uning fikricha, ta’lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o‘rgatishni, jismoniy tarbiyani (bunga tibbiyot ilmi hizmat qiladi), axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma’lum hunarga o‘rgatish masalalarini o‘z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nixoyatda muhim ahamiyatga ega. Bolaning axloqiy tarbiyasi yoshlikdan, bolalikdan boshlanishi kerak.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta’bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g’risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta’minlovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to‘qqiz-o‘n asr vaqt o‘tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo‘ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma’rifatni rivojlantirishga yo‘naltirish yetakchi o‘rin tutadi. Binobarin, ilm-ma’rifat zulm va bid’atdan forig’ bo‘lish yo‘lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g’oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo‘lgan ilm puxta va mustahkam bo‘ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. SHuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim

qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo‘luvchi ma’naviy-axloqiy sifatlarni ulug’lagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, yo‘llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o‘rni, bilimlarni o‘rganish asosida hosil bo‘lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e’tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy xislatlari xususida so‘z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to‘laqonli ta’rif berib o‘tadi. qanoat, sabr, tavoze (adab), o‘zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko‘ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta’rif berganidan so‘ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to‘ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo‘llari ham bayon etilgan.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi. Odobga ega bo‘lishning inson hayotidagi rolini ko‘rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug’lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki adab, kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi.Biz yoshlar ta’lim tarbiyasiga ajdodlar o‘gitlaridan tajribasidan kelib chiqgan holda yondashsak Uchinchi Renessans davriga poydevorini mustahkam qo‘ygan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2020 yil 30 dekabr.
2. Renan “Dialogues fragments philosophiques” – “Falsafiy dialoglar va parchalar”.
3. Jahon falsafasi qomusi “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent-1916
4. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. Главная редакция Восточной литературы.
5. Ma’naviyat yulduzlari. Mas’ul muharrir: M.M.Xayrullaev. T.: A.Qodiriy nomilagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

YAXSHIROQ O‘RGANISH UCHUN INTELLEKTUAL DARSLIKLARNING SO‘NGGI YUTUQLARI

Jakbarov Odiljon Otamirzayevich, Normatov Aziz Muxammatrizoyevich
Namangan muhandislik-qurilish instituti, texnika fanlari nomzodi, dotsent
E-email: jakbarovodiljon@gmail.com Tel: 93 192 74 00
Namangan muhandislik-qurilish instituti o‘qituvchisi
E-email: ***azizbeknormatov0109@gmail.com***

Об этом хотелось бы рассказать подробнее. Дистанционный курс обучения строится следующим образом: (для начальной школы) в центре процесса обучения находится самостоятельная познавательная деятельность обучаемого (учение, а не преподавание). Важно, чтобы обучаемый научился самостоятельно приобретать знания, пользуясь разнообразными источниками информации; умел с этой информацией работать, используя различные способы познавательной деятельности и имел при этом возможность работать в удобное для него время; самостоятельное приобретение знаний не должно носить пассивный характер, напротив, обучаемый с самого начала должен быть вовлечен в активную познавательную деятельность, не ограничивающуюся овладением знаниями, но непременно предусматривающую их применение для решения разнообразных проблем окружающей действительности; помощь родителей в организации дистанционного образовательного процесса. Из опыта практической работы в дистанционном формате обучения я поняла, что первая обязанность учителя - организовать и вовлечь учащихся в активный процесс решения учебных задач. Познавательную активность формирую у учащихся в ходе проведения разнообразных форм работы на уроках. Эффективными средствами активизации познавательной деятельности ребёнка на уроке являются:

Дидактические игры

Наглядность.

Творческие работы по разным предметам.

Научно-исследовательская деятельность.

Проектная деятельность учащихся.

Внеклассные мероприятия по предметам.

Индивидуализация.

Дифференциация (разноуровневые задания)

Результаты использования игровых методов в процессе дистанционного обучения младших школьников показали, что они учащиеся активно включались в игровую ситуацию, сохраняли учебную мотивацию на

протяжении всего онлайн-урока, успешно коммуницировали с учителем и другими детьми, работали онлайн-группой, проявляли творческую фантазию, настойчиво добивались высоких образовательных результатов.

Программный материал по предметам был успешно усвоен, у младших школьников развивались важнейшие метапредметные универсальные учебные действия, такие как умение использовать знаково-символические средства представления информации для создания моделей изучаемых объектов и процессов, средства информационных и коммуникационных технологий, схемы решения учебных и практических задач для решения коммуникативных и познавательных задач. В процессе применения игровых дистанционных технологий у обучающихся формировались положительные качества личности.

В практике дистанционного обучения возможности игровых методов как способов педагогического воздействия и взаимодействия с обучающимися могут быть применены для раскрытия интеллектуальных и творческих возможностей личности младшего школьника. При адаптации существующих образовательных программ к дистанционной форме обучения каждый педагог разрабатывает собственную уникальную базу дидактических и программно-методических средств. Набор игровых приемов должен быть разнообразным, динамичным, дидактически оправданным, раскрывать содержательно темы дистанционных уроков в соответствии с поставленными учебно-воспитательными задачами.

Список использованной литературы:

1. Шермухамедов А.Т. Развитие информационно-коммуникационных технологий в Узбекистане//Ахборатлашган жамиятнинг шаклланиб бориш тенденциялари ва истикболлари: тезисы Республиканской научнопрактической конференции, ноябрь ТГЭУ, 2007.

2. Шермухамедов А.Т. О подготовке магистров в Ташкентском филиале Российской экономической академии им. Г.В.Плеханова //Обеспечение качества высшего образования: тезисы Международной конференции,12 ноября 2007, Ташкент.

3.В.А. Сухомлинский. О воспитании. Издательство политической литературы.1985г.

4.В.А. Сухомлинский. Сердце отдаю детям. Издательство Концептуал.2016 г.

5.В.А. Сухомлинский. Как воспитывать настоящего человека. Издательство Педагогика.1990 г.

6. Гусев Д.А. Заметки о пользе дистанционного обучения.

7. Гозман Л.Я., Шестопал Е.Б. Дистанционное обучение на пороге XXI века. – Ростов на Дону: «Мысль», 1999. – 368 с.

8. Шахмаев Н.М. Технические средства дистанционного обучения. -М.: «Знание», 2000. – 276 с.

XORIJIY TAJRIBALARDAN KELIB CHIQIB TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV YO'LLARI

Djabborov Dilshod Turdiqulovich, Turdiyeva Mo'tabar Normurod qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti oqituvchisi. Jizzax davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishga innovatsion yondashuv yo'llari, xorijiy tajribalardan tasviriy san'at tizimini takomillashtirishning ijtimoiy pedagogik tarixi va asoslari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar. o'quv qo'llanma, tasviriy san'at rasm, jarayon, Parassiy, san'at xonasi.

Аннотация. В данной статье на основе зарубежного опыта высказаны мнения о путях инновационного подхода к преподаванию изобразительного искусства в общеобразовательной школе, социально-педагогической истории и основах совершенствования системы изобразительного искусства.

Ключевые слова. учебное пособие, художественная роспись, процесс, Парассий, художественный кабинет.

Abstract: In this article, based on foreign experience, opinions are expressed on the ways of an innovative approach to teaching fine arts in secondary schools, socio-pedagogical history and the basics of improving the system of fine arts.

Keywords. textbook, art painting, process, Parasius, art office.

Rivojlangan mamlakatlarda mutaxassislarni tayyorlash va ularga ta'lim berish jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy uslub va vositalaridan samarali foydalanilmoqda. O'qituvchi bilim olishning yagona manbai bo'lib qolishi kerak emas, balki o'quvchilar uchun mustaqil ta'limning tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining boshqaruvchisi bo'lishi lozim.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. U nafaqat bilimdon yoshlarni tarbiyalashi, balki eng avvalo, ana shu bilimlarni o'zi mukammal egallab olgan shaxs bo'lishi zarur. Shu jumladan, tasviriy san'at sohasida bilim olayotgan talabaning ham eng asosiy vazifasi o'qituvchi rassom uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni puxta egallashdir. Shuningdek, ijodkor o'qituvchi oldiga o'sib kelayotgan avlodni badiiy barkamol, yuksak didli, olam va san'at go'zalliklarini to'g'ri tushub, tahlil qila oladigan tarzda tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Tasviriy san'at fanini o'qitishda o'quvchilarning nazariy, amaliy-tasviriy jihatdan puxta bilim olishiga erishish va bu jarayonda o'qituvchining izlanuvchanligi masalasi quyidagicha: Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini shakllantirish uchun bu sohadagi barcha amaliy hamda nazariy bilimlar ta'lim sifatida zarurdir. Bular, asosan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, amaliy bezak san'ati, haykaltaroshlik, san'at tarixi va eng asosiysi, bu bilimlarini o'rgatishning metodik

asoslarini egallash hisoblanadi.[49]

Tasviriy san’atning bu mashg‘ulot turlari o‘ziga xos pedagogik uslublarga, didaktik jihatlarga egadir. Shuningdek, bu mashg‘ulotlarning barchasi yagona maqsad bo‘yicha faoliyat yuritadi. Bu maqsadga erishishda ularning har biri alohida-alohida vazifalami bajarib, darsda barcha o‘quv-tarbiya vositalaridan foydalangan holda oldindan belgilangan maqsadga erishishni kafolatlaydigan pedagogik jarayonning loyihasi bo‘lmish pedagogik usullardan foydalaniladi. Maktabning tasviriy san’at o‘qituvchisi didaktik jihatlarga amal qilishi zarur. Chunki maktabda tasviriy san’atni didaktik jihatlar asosida o‘qitish har bir dars mashg‘uloti samaradorligini oshiradi va belgilangan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Maktabda o‘qitiladigan tasviriy san’atdan grafik bilim-malaka berish o‘quv predmetining asosiy va bosh maqsadi-vazifasi bo‘lib, uning Davlat ta’lim standart va o‘quv dasturi talabida bo‘lishi, berilayotgan bilim-malakalarning o‘quvchi ongiga qay darajada yetkazilishiga bog‘liq.

Tasviriy san’atga o‘rgatish uslublari tog‘risida gap borganda avvalo, Qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Tarix manbalarida yozilishicha Qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o‘rgatilgan. Maktabni tugatgan o‘spirin xona ichki ko‘rinishini tasvirlay olishi, katta maydonning chizmasini chizib, uning o‘lchamlarini qo‘ya bilishi, suv inshootlari tavirini chiza bilishi va bajaradigan tasviriy ishlarini oldindan tasovvur qila oladigan bo‘lishi shart edi. Tasviriy san’at, xususan qalamtasvir bajarishning yangi metodlari bo‘yicha Chellini, Rafael Alberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer kabi ko‘plab buyuk san’atkorlar shug‘ullana boshladilar. Ular tasviriy san’at sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb qaraydilar. Rasm chizishga nisbatan ko‘p bo‘lmagan 4-6 o‘quvchidan iborat guruhlar tashkil qilinib, ular rassomlar ustaxonasida tahsil olar edilar. Qalamda tasvirlash kompozitsiya bilan chambarchas bog‘liq holda olib boriladi. Usta rassomlar qanday qilib qalamchizgi bajarishi, keyin uni materialda ishlash hamda kartonda xomaki rasm tayyorlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni o‘rgatar edilar. Qalamlitasvirlash – bu me’morchilik, haykaltaroshlik, ranglitasvirning haqiqiy asosi sifatida tan olinar edi. Shuning uchun ham uyg‘onish davri buyuk rassomlari rasm chizish usullariga katta e’tibor berganlar.

Kompyuter hamda axborot kommunikatsiya uslublari asosida amaliyotga tatbiq etish, shu sababdan barcha o‘qituvchilarni kompyuter savodxonligi va axborot kommunikatsiya uslublariga oid ko‘nikmalarga ega bo‘lishdir. Yuqorida aytib o‘tilgan ko‘rsatmalarga yondashilgan holda kasbiy mahoratni mustahkamlashdan tashqari tasviriy san’at mashg‘ulotlarini samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni fanga qiziqishlarini oshirish maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratish zarur. Tasviriy san’atni o‘qitishda qiziqarli va sermazmun mavzular tanlash, nazariy mashg‘ulotlar tashkil qilish, kompyuter grafikasidan ham foydalanish o‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Hozirda maktablarda o‘quvchilar rasm daftari, bo‘yoq, grafit qalam va o‘chirg‘ichdan foydalanish bilan chegaralanib

[49] 2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbonova“Tasviriy san'at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari”O’quv uslubiy qo'llanma.

qolmasdan, zamonaviy, xorij uslublaridan foydalanib, ishlab chiqarilgan bir qancha turdagi bo‘yoqlar, rangli qalamlar, dekorativ bezak ishlarini yorqinlik darajasini oshiruvchi turli chizish vositalaridan foydalanmoqdalar. Bunday ashyolar bilan o‘quvchilarda badiiy faoliyatini faollashtiradi. San’atga qiziqish uyg‘otadi. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya sohasida pedagogik uslublarda tasviriy san’atni o‘qitishda foydalanish va uning samaradorligiga erishish uchun ham o‘ziga xos didaktik jarayonni o‘rganib chiqishi zarur bo‘ladi. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitishda pedagogik uslubiyat masalasi bilan hozirgacha biror-bir o‘rinliroq ilmiy asar yoki metodik – didaktik qo‘llanma chop etilani yo‘q. Shuning uchun bu masalada mulozamat yuritishda masala kengroq o‘rganilib, pedagogik uslubiyat va so‘ngra tasviriy san’atni o‘qitishda pedagogik uslublardan foydalanish masalasi tahlil qilinishini lozim deb topdik. Ma’lumki, tasviriy san’atni dars mashg‘ulotlari besh turdagi mashg‘ulot shaklida yoki usulida amalga oshiriladi. Shu o‘rinda yana bir shaklini – kompyuter grafikasi ham qo‘shishni o‘ylab ko‘rishimiz zarirdir.

1. Naturaga qarab rasm ishlash.
2. Mavzuli kompozitsiya ustida ishlash.
3. Dekorativ-amaliy san’ati.
4. Haykaltaroshlik ishlari.
5. Tasviriy va xalq amaliy san’at asarlarini tahlil qilish.

Bu darslarning uslubiyati bir mazmunda bo‘lsada, ulardagi ta’lim berish uslublari albatta bir – biridan farqlanadi. Ya’ni narsani o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida naturadan, buyumning o‘zini ko‘rib, undan shaklning imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi. Mavzuli kompozitsiyada esa o‘quvchilar o‘ylab-o‘ylab, fikr qilib, xotiralarni ishga solish asosida rasm chizadilar. Haykaltaroshlarda esa, qalam bo‘yoq bilan emas, loy plastilin bilan, oz bo‘lsada, jismoniy va aqliy mehnat vositalari birgalikda harakatlar uslubi mashg‘ulotlariga asoslanadi. Shuning uchun tasviriy san’at darslaridagi pedagogik uslublar ta’rifini keltirish va ularni “Dars uslubiyati” turlariga ajratishda ham alohida e’tibor zarur bo‘ladi.

Xo‘sh, maktabda tasviriy san’atni o‘qitishda pedagogik uslublarni umumiy holda qanday tushunamiz? Tasviriy san’atni pedagogik uslubi – bu tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘quvchilarga ma’lum darajada va sharoitda san’at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon. Ya’ni, o‘qituvchining 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo‘ljallangan maqsadga erishish uchun ta’lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning didaktik, tanlab olingan uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta’minlaydigan pedagogik jarayonidir. Maktabda tasviriy san’at fanini o‘qitishda ham pedagogik uslubning “dars uslubiyati”, “o‘qitish uslublari” va “ta’lim uslubi” kabi ko‘rinishlardan foydalaniladi.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Turg‘unboyev K., Rizayev A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar». Andijon 2008.

2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbonova“Tasviriy san’at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari”O‘quv uslubiy qo‘llanma.

3. Nabiev M., Azimova B. «Rasm chizishga o‘rgatish metodikasi». T.: O‘qituvchi, 1976.

4. Xasanov R. «Tasviriy san’at o‘qitishning zamonaviy texnologiyasi» Fan dasturi. TDPU– 2007.

5. Qo‘ziev T., Egamov A., Qanoatov T., Nurqobilov A., «Rangtasvir». «San’at». T., 2003.

6. Xasanov R. «Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi». T: «FAN», 2004.

7. Mirzahamdamovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

8. Mirzahamdamovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

MAKTAB O‘QUVCHILARNING KITOBGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHI VA KUTUBXONACHILARNING HAMKORLIGINING ROLI

Shavkat Bazarov
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish millliy markazi ARM bosh mutaxassisi

“Yoshlarni kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim”.

Sh.Mirziyoev

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarda kitobxonlikni oshirishda maktab kutubxonachisi va ona tili va adabiyoti o‘qituvchisining hamkorligi roli keltirilgan bo‘lib, adabiyot darslarida o‘rgangan materiallarni o‘quvchilar Power Point dasturi asosida “Viktorina-savol-javob” o‘yinlari ko‘rinishida o‘tkazish o‘quvchida shu asarga qiziqish uyg‘otish hisobiga kutubxonaga a’zo bo‘lishga undashi. Adib yoki shoir asarlariga ham qiziqtirishi va o‘quvchida kitob mutolaasini *oshirish*, maktab kutubxonachisi o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash va tashkillashtirish qobiliyatini oshirish keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, oila, tarbiyachi, o‘qituvchi, kutubxonachi, kitobxonlik, hikoya qilish, nutq.

Аннотация: В данной статье представлена роль сотрудничества школьного библиотекаря и учителя родного языка и литературы в совершенствовании навыков чтения школьников. Организация игр «Викторина-вопрос-ответ» на основе материалов, изученных на уроках литературы с использованием программы Power Point, пробудит интерес учащихся к произведению, и может привести к членству в библиотеке за счет пробуждения интереса к литературе. В статье отмечены случаи повышения интереса к произведениям писателей и поэтов, а также к литературному чтению школьников за счет умения школьного библиотекаря работать и организовывать сотрудничество с учениками и учителями.

Ключевые слова: образование, семья, воспитатель, читатель, библиотекарь, чтение, рассказывание, речь.

Abstract: The article presents the role of cooperation between a school librarian and a mother tongue and literature teacher in improving students’ reading skills. The organization of "Quiz-question-answer" games based on the materials studied in literature lessons using PowerPoint software will awaken students’ interest in the work and may lead to library membership by awakening interest in literature. The article notes cases of increased interest in the works of writers and poets, and in literary reading of students due to the ability of the school librarian to work and organize cooperation with students and teachers.

Keywords: education, family, educator, reader, librarian, reading, storytelling, speech

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda ta’lim maskanlarida ta’lim va tarbiya ishlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilganligiga qaramasdan, hozirgi texnika asrida turli telefon, internet, kompyuter o‘yinlari bolani chalg‘ituvchi vositalarga aylanib ulgurgan. Oilada ota-onalar, ta’lim maskanlarida pedagoglar farzandlarimizni mazkur vositalardan maqsadli foydalanishga o‘rgatishi hamda har bir ota-onalar farzandlari oldida o‘z mas’uliyatlarini his qilgan holda kitob mutolaasi uchun alohida vaqt ajratishlari, ular qiziqqan mavzularda suhbatlashishlari maqsadga muvofiqdir. Bu qiziqishni o‘quvchilarga uyg‘otishda maktab kutubxonachisi fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi yaxshi samara beradi.

Bugungi kun yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yuksaltirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirish maqsadida 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4354-son qarorlari, shuningdek, Prezidentimiz tomonidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusdan biri-yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish borasida kutubxona xodimlarining o‘rni katta va ularning har bir ishlarida dasturi amal bo‘lmog‘i kerak .

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab kutubxona xodimlari sohaning rivojlanishiga va yuqoridagi huquqiy me’yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarini ijrosiga qaratilgan axborot-kutubxona markazida o‘zining maxsus yillik reja ishlab chiqilgan holda faoliyat olib bormog‘i lozim. Ular o‘z rejalarida aholi, ayniqsa yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, intellektual saviyasini o‘stirish, ma’naviy olamini boyitishga oid ilmiy-ma’rifiy, badiiy adabiyotlar, jumladan, elektron shaklda o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti hamda jahon adabiyotining buyuk badiiy namunalarining audio va video variantini yaratish va ijtimoiy tarmoqlarga sahifalariga joylashtirish ishlari muntazam amalga oshirilishi kitob o‘qishga, mutolaa madaniyatini oshirishda mustahkam zamin yaratadi.

Har bir maktab kutubxonachisi o‘z faoliyati davomida fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda ishlashi talab etiladi. Buning uchun kitobxonlar bilan yaqindan suhbat olib borish bilan birga ular bilan har xil kitobxonlik kechalarini tashkil etish ssenariysi ishlab chiqiladi. Bunda kitobxonlar asarni tanlab o‘qib chiqib bo‘lgandan so‘ng, ikkita guruhga bo‘linadi va o‘z guruhlarini nomlaydi, o‘tkazish vaqti va hakamlar hay’ati bilan tanishtiriladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Sayid Axmadning hayoti va ijodiga bag‘ishlanib kecha tashkil etildi. Yozuvchining “ Ufq” trilogiyasi o‘qib o‘rganildi.

Birinchi shartda kitobxonlar dastlab Said Ahmad ijodiy merosi o‘zbek nasri – romanchiligi, hikoyanavisligi, kulgi adabiyot tarixida alohida tutgan o‘rini haqida fikr mulohazalar bildiradi.

Ikkinchi shartda Romannavis sifatida yozuvchi ko‘plab asarlar yaratganligi va 1964-1974 yillarda **“Ufq” trilogiyasini** yozib tugatib o‘zbek adabiyotida trilogiya janriga asos solganligi. Asar uchta – **“Qirq besh kun”, “Hijron kunlarida”, “Ufq bo‘sag‘asida”** romanlaridan iborat bo‘lib, o‘tgan asrning eng yirik voqeligi – ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillardan hikoya qiladi. Ushbu romanlarda adib mahorat bilan o‘zbek xalqiga xos oliyjanoblik, mehnatkashlik, to‘g‘ri so‘zlikni yorqin bo‘yoqlarda, sodda, samimiy qahramonlar hayotida ko‘rsatib berganligi. “Ufq” trilogiyasi tufayli Said Ahmad 1978 yili Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lganligi haqida boshlovchi tomonidan aytib o‘tiladi va guruhlarga asar syujeti, unda ishtirok etgan qahramonlar haqida savol beriladi. Savollar viktorina shaklida bo‘lib Power Point dasturi asosida yaratildi va ishtirokchilarga berildi.



Uchinchi shartda adibning “Ufq” trilogiyasidan “Hijron kunlari”, “Ufq bo‘sag‘asida”, “Qirq besh kun” deb nomlangan romanlardan qiziqarli va diqqatni tortgan syujetlaridan parcha qo‘yiladi. Tadbir so‘ngida guruhlar savol-javobda ishtiroki va ijro mahoratlari baholanib e’lon qilinadi.

Darhaqiqat, kitob-tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo‘lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi. Kitobga bo‘lgan qiziqish o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitish uchun xizmat qiladi. Har bir inson kitoblar orqali uning ma’naviy xazinasidan, cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko‘proq foydalanib, o‘zining, o‘zgalarning hayotini mazmunan boyitishi mumkin deb hisoblash mumkin. Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish nafaqat bizni

ma’nan yuksaltiradi, balki jahonga tanitadi, ezgulikka yetaklaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kitobxon avlodni tarbiyalashda oila muhim va mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilar ekan, jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish borasida, albatta, pedagog-tarbiyachilarimiz bilan birga kutubxona xodimlarining ham hamkorlikda ish tashkil qilishi, hamfikrlikda ish yuritishi ko‘zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bunday kechalarni muntazam olib borish o‘quvchilar o‘rtasida kitobga bo‘lgan mehrini qiziqishini oshiradi. Bu esa o‘quvchining fanga qiziqishini ham oshiradi. Adabiyot darslarida har bir o‘tgan mavzusida tanishgan yozuvchi va shoirlarning asarlarini sevib o‘qishga va ular haqida ko‘proq ma’lumot olishga undaydi.

Maktab kutubxonachisida o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash va tashkillashtirish qobiliyatini oshiradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi PQ-3271-son, *qarori.*

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ-4354-son qarori.

3. G‘aniyeva D.A, Ratner R.I. “Ta’lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish”.-T., Yangi asr avlodi, 2013.

4. G‘aniyeva D.A.“Ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli” -T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

YANGI OVLAD DARSLIKLAR MAZMUNINI TAHLIL QILISHDA “AKVARIUM” METODIDAN FOYDALANISH

Yusupova Gulshiraxan Zinatdinovna
Qoraqolpoǵiston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha, boshlanǵich va maxsus tálim metodikalari” kafedrasi dotsenti., (PhD).

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kurs tinglovchilari bilan Finlyandiya tajribasi asosida yaratilgan 1-4 sinf darsliklarining mazmunini tahlil qilishda “Akvaryum” metodi va uni samarali foydalanish texnologiyasi ko‘rsatib berilgan.*
Tayanch so‘zlar: *Yangi ovlad darsliklari, Finlyandiya tajribasi, XXI asr ko‘nikmasi, “Informatika” darsligi, “Akvaryum” metodi “4K” modeli.*
Аннотация: *В данной статье показан метод «Аквариум» и технология его эффективного использования при имитации содержания учебников 1-4 классов, созданных на основе финского опыта с участниками курса.*
Ключевые слова: *Учебники нового поколения, опыт Финляндии, навыки XXI века, учебник информатики, метод «Аквариум», модель «4К».*
Abstract: *This article shows the “Aquarium” method and the technology for its effective use in simulating the content of textbooks for grades 1-4, created on the basis of Finnish experience with course participants.*
Key words: *New generation textbooks, Finnish experience, 21st century skills, computer science textbook, Aquarium method, 4K model.*

Tálim bu har bir jamiyatda yosh avlodning mamlakatdagi yangi muvafaqiyatlarga erishishga tayyorgarligini aniqlab, muntazam rivojlanishning kafaloti sifatida xizmat qiladi. Bu borada 2018 yil 5-sentabrdagi “Xalq tálimin boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qoshimcha choralari haqida”gi PF-5538-sonli Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xalq tálimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi [1] tastiqlandi.

Bunga chora tadbir sifatida sifatli tálimni amalga oshirishda umumta’lim maktablarinning áynan boshlang‘ich ta’limda yangiliklar, o‘zgarishlar, hal bo‘lishi zarur muammolar ham mavdud. Yoshlarning sifatli ta’lim olishi ko‘p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog‘liq.

Bu borada katta yangiliklardan Finlyandiya tálim tajribalar asosida yaratilgan hozirgi vazirlikning 280-sonli buyrug‘i bilan o‘quv dasturi takomillashtirilgan holda 2023-o‘quv yilidan 1-4-sinflarga yangi darsliklari joriy qilindi [2].

Jumladan jamiyatimizda raxamli texnologiyalar bong urayotgan bugungi kunda 1-sinflarga ilg‘or tajribalar asosida yaratilgan “Informatika” darsligining joriy qilinganligi barchani xayratga soldi. Yangi darsliklar shakl va mazmun jihatidan butunlay o‘zgargan. Bu borada o‘qituvchilarimiz XX asr metodikasidan voz kechib, XXI asr metodikalaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Xop, ushbu darsliklar quruq ma’lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanmaydi. Ular orqali o‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Shu borada tákidlash joyizki, mamlakatimizda tálim yeti ta (o‘zbek, qoraqolpoq, rus, qozoq,

turkman, tojik va qirgiz) tillarda olib boriladi. Yangi ovlad darsliklari esa 2023-o‘qish yilidan o‘zbek va rus tilida olib boriladigan boshlang‘ich sinflarda joriy qilindi. Qolgan besh ta tilda olib boriladigan 1-3 sinlarda milliy dastur asosida yaratilgan darsliklardan, 4-sinflarda esa, 2017-yilgi kompetentsiyaga asoslangan dastur asosida yaratilgan darsliklardan tálim olayapti. Yangi darsliklar qolgan beshta tidagi maktablarga 2024-o‘qish yilida kelishi kutilmoqda. Bu mamlakatimizning tálim tizimidagi tafabutni ko‘rsatadi.

Ushbu tafabutni yengillashtirishda pedagogik markazimizga kelgan yangi darsliklardan dars bermaydigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi darslik mazmunidan baxbor bo‘lishida mutaxassislik fanlar mudulida “Ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan yangi avlod o‘quv dasturlari ustida ishlash” mavzusini o‘tishda “Akvaryum” metodini qo‘llash bir qancha samara beradi. Quyida metod haqida qisqa málumot beramiz.

Akvarium (ingliz tilidagi asl nomi: Fishbowl muhokamasi, so‘zma-so‘z "akvarium muhokamasi") bu ishtrokchilardan muammoni "jamoatchilik oldida" muhokama qilishning suhbat shakli.

Metodni foydalanish maqsadi:

Ishtrokchilarga yangi materialni o‘zlashtirish va munozarali masalalar bo‘yicha fikrlarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Rivojlantirilishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar:

- Savollar berish;
- Tahlil va sintez;
- Axborot ekspertizasi;
- Tadqiqot natijalarini baholash;
- G‘oyalarni yaratish;
- Argument va qarorni taqdim etish;
- Axborot almashinuvi;
- Birgalikda qaror qabul qilish;
- Nizolarni boshqarish;
- Hamkorlik;
- Etakchilik;
- Ijtimoiy moslashuv;
- Hissiy tartibga solish va o‘z-o‘zini nazorat qilish.

O‘tkazish jarayoni:

Asosiy bosqich 20 daqiqa davom etishi mumkin:

Kursilarni ikkita aylanaga joylashtirish: tashqi va ichki. Ichki doiradagi stullar soni - akvarium - guruhlar soniga mos kelishi kerak. Har bir kichik guruhning vakillari - "baliq" - bu stullarda o‘tirishadi. Kuzatuvchilar tashqi doirada o‘tirishadi.

K



Ichki doiradagi "baliq" ning vazifasi - bu masalani muhokama qilish va yechimni ishlab chiqish. Kuzatuvchilarning vazifasi muvaffaqiyatli dalillarni belgilashdir.

Muhokama 20 daqiqa davom etishi mumkin:

Kuzatuvchilardan ularga muhim bo‘lgan dalillar haqida so‘rash. Endi baliqchalarga qaysi pozitsiya yaqinligini, muhokama davomida o‘zlari uchun qanday yangi narsalarni o‘rganganliklarini muhokama qilish.

Kurs ishtrokchilari ichidan yangi darsliklardan dars beradiganlarni qo‘l ko‘tarish asosida ajiratib olinadi. Bazida guruhda yangi darslikdan dars bermaydiganlar soni dars beradiganlar soni bilan sal kam barobar chiqadi. Endi akvaryumning ichki qismidagi kursilarga yangi darslikdan dars beradiganlar o‘tirib, baliqlar rolini bajaradi. Aylananing tashqi kursilarida eski darslikdan dars beradiganlar o‘tirishadi va kuzatuvchilar rolini bajaradi.

Baliqlar rolini bajaruvchilar uchun topshiriq: 3 chorak mavoynida yangi darsliklarning yutuqlari va kamchiliklari haqida muqokama qilish.

Bajarish uchun: 20 daqiqa.

Bu davrda kuzatuvchilar jim bo‘lib muqakamalarni kuzatadi va o‘zlariga muhum joylarini daftarlariga yozib oladilar.

Vaqt tugagach baliq rolini bajarganlardan refleksiya savollar o‘tkaziladi.

- Topshiriqni bajarish qiyin bo‘ldimi?
- Nima sabab?
- Agar yengil bo‘lsa, nima sabab?
- Kimning fikri yoqdi?
- Qanday xulosaga keldingiz?

Endi navbat kuzatuvchi tomashabinlarga.

- Kuzatuvchilik roli sizga yoqdimi?
- Siz uchun yangi darsliklar muqakamasidagi qaysi fikrlar muhim bo‘ldi?
- Qanday xulosaga keldingiz?

Ushbu “Akvaryum” metodini foydalanib o‘tkazilgan mashg‘ulot asosida ishtrokchilar bir-birlaridan o‘zlariga yangi darsliklarning shakl va mazmuni haqida bir qancha málumotlarni va tavsiyalarni olishadi. Ayrim joylarini fasilitator toldiradi. Baliqlar rolini bajarganlar muommaning yechimini topishda o‘zlaridagi bar bilim va

tajribalarni ishlatib muqakama qilishadi va bir qarorga kelishadi. Kuzatuvchilar esa ularni diqqat bilan tinglaydi, kuzatadi, o‘zlarigi muhim bo‘lgan joylarini yozib oladi. Ularga so‘z berganda baliqlarning qanday qilib muammoning yechimlarini topkanligini, kimdan qanday fikir va qaror chiqqanligini batafsil aytib beradilar. Baliq rolidagilar o‘zlarining harakatlarining kuzatilganligidan qayratda qolishadilar.

Xulosa qilib aytganda o‘quv fanlarining nazariyasi va amaliyoti uyg‘unligini ta’minlashda “Akvaryum” metodini foydalanish yaxshi samara beradi. Ishtrokchilarning darsda faolligini oshiradi. Fikir va tavsiyalarga ega bo‘ladi. Ushbu metodni boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi”, “Tabiiy fan”, “Tarbiya” va to‘garak ishlarida ham foydalanilsa o‘quvchilarimizda XXI asr k,nikmalari shakillanib boradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev rahbarligidagi 2023-yil 23-avgust kuni kengaytirilgan videoselektor yig‘ilish qarori.

3. G.Yusupova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantiruvchi metodlar // Metodik qo‘llanma “Tafakkur qanoti” Toshkent – 2021

4. https://idum.uz/

Muallif(lar)ning F.I.SH.	Yusupova Gulshiraxan Zinatdinovna
Lavozimi, ilmiy darajasi, unvoni	Dotsent., (PhD).
Ish joyi	Qoraqolpoǵiston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha, boshlanǵich va maxsus tálim metodikalari” kafedrasi
Telefoni (kodi bilan)	93. 360 82 82
E-mail	
Sho‘ba nomi	
Maqolaning mavzusi	YANGI OVLAD DARSLIKLAR MAZMUNINI TAHLIL QILISHDA “AKVARIUM” METODIDAN FOYDALANISH

MATBAA SANOATINING BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLARI

D.R.Safayeva, I.A.Bulanov

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi”kafedrasi t.f.f.n., dots. (e-mail: dilafruzsafaeva@mail.ru). Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” kafedrasi t.f.n., dots.

Annotatsiya: *Tadqiqot ishida matbaa sanoati mahsulotlari va hizmatlari bozoridagi mavjud muammolarida axborot yetkazuvchi kompleks sifatida xizmat qiluvchi nashriyot-matbaa sohasining muhim o‘rni aniqlangan. Matbaa sanoatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan mavjud muammolarning asosiylari tanlab olindi. Bu sohada ko‘rsatilgan muammolarni hal qilishda davlatning roli belgilab olindi.*

Kalit so‘zlar*: matbaa mahsulotlari, matbaa sohasi, raqamli chop etish usuli, muammolar,istiqbollar, nashriyot, narx, texnologiya, rentabellik.*

Аннотация: *В исследовательской работе определена важная роль издательско-полиграфической отрасли, которая выполняет функции комплекса распространения информации, в современных рынках продукции и услуг полиграфической отрасли. Выделены основные проблемы, которые препятствуют развитие полиграфической отрасли. Определена роль государства в решении проблем в этой сфере.*

Ключевые слова: *полиграфическая продукция, полиграфическая отрасль, метод цифровой печати, проблемы, перспективы, издательское-полиграфическое дело, цена, технология, рентабельность.*

Abstract: *The research work identifies the important role of the publishing and printing industry, which performs the functions of a complex of information dissemination, in modern markets for products and services of the printing industry. The main problems that hinder the development of the printing industry are highlighted. The role of the state in solving problems in this area is defined.*

Key words: *printing products, printing industry, digital printing method, problems, prospects, publishing and printing, price, technology, profitability.*

Zamonaviy jamiyatning innovatsion rivojlanishiga bo‘lgan talablar axborot va uni yetkazish muhim ekanligini ko‘rsatuvchi bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday rivojlanish yo‘lida turli sanoat sohalar ichida ulkan o‘rinni matbaa sanoati egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 fevraldagi PF-5653-son «Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni va 2020 yil 16 martdagi PQ-4640-son «Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayan darajada xizmat qiladi [1]. Bunda makroekonomik holatni normallashtirish va barqaror iqtisodiy traektoriyaga chiqishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi

hukumati tadbirkorlik faoliyati hamda xususiy investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beruvchi qator choratadbirlar amalga oshirishi zarur.

Zamonaviy matbaa sanoatining rivojlanishi asosan barcha turdagi biznes va jamiyat xayotiga kirib kelgan reklama sanoati hisobiga ta'minlanadi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining dinamik rivojlanishi matbaa korxonalari uchun qator muammolarni vujudga keltirdi. 90-yillarning boshlarida respublika hududida yuqori rentabellikda foliyat yuritadigan matbaa korxonalari faoliyatida katta o'zgarishlar vujudga keldi. Mahsulot adadlari deyarli 10 baravar qisqardi.

Zamonaviy yuqori texnologiyali bosmaxonalar bozorda o'z o'rnini egalladi. Bunday yangi korxonalarda yuqori ish unumdorlikka yangi texnologiya hisobiga erishiladi, ular bilan yuqori sifatli mahsulot olinadi. Bunday zamonaviy korxonalarning aksariyat qismi mayda va o'rta korxonalar hisoblanadi. Ulardan 65% mayda matbaa korxonalari bo'lib, ularda 20 kishiga yaqin ishchilar foliyat yuritadi. 25% ixtisoslashtirilgan korxonlarda 20 dan 50 tagacha, 15 foizida esa xodimlar soni 50 kishidan oshadi(1-rasm).



1-rasm. Korxonalarning xodimlar soniga nisbatan taqsimlanishi

Matbaa bozorining xozirgi iqtisodiy sharoitdagi holati matbaa mahsulotlari turlari va xajmining izchil kamayishini ko'rsatmoqda. Matbaa mahsulotlari va xizmatlari turlaring bozor strukturasi o'zgarishi bilan norentabel yoki rentabelligi past bo'lgan korxonalar soni keskin ko'paydi.

Diagrammada ko'rsatilgandek matbaa bozorining asosiy muammosi bu ommaviy axborot vositalaring chop etiladigan turlaring kamayib ketish tendensiyasidir (2-rasm).

Matbaa xizmat ko'rsatish bozorining hususiyatlarini belgilab olamiz:

-Murakkab va ko'p bosqichli texnologik jarayonlar;

-Bir xil texnologik jarayonlar bilan tayyorlanadigan mahsulotlarning katta hajmi;

-Matbaa mahsulotlari sifatiga qo'yilgan talablar asosida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnik jarayonlarning ko'pligi;

-Bosma mahsulotlari buyurmachisi bilan bosmaxonaning bevosita hamkorlik qilmasligi, ya’ni o‘rtada boshqa nashriyot yoki reklama agentligining borligi;

-Yirik va o‘rta bosmaxonalarda doimiy yetkazib beruvchi va buyurtmachilarning mavjudligi.



2-rasm. Matbaa mahsulotlari bozorining strukturasi

Katta adadlarda matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish uning tannarxiga teskari proporsional bo‘lib, bunda birlik mahsulot narxi tushadi. Ammo hozirgi sharoitda bunday yuklama yirik matbaa korxonalari uchun juda murakkab holatdir.

Yuqorilardagidan kelib chiqib, matbaa mahsulotlari bozorida turli xildagi moslanuvchan ishlab-chiqarish turlarini rivojlanishini kuzatish mumkin: texnik innovatsiyalarga asoslangan matbaa ishlab chiqarishni avtomatlashtirish. Nashriyot va kitob ishlab chiqarish sohasida esa axborotni raqamlashtirish hamda multimediya sistemasining rivojlanishi va axborot vositalaring qog‘oz ko‘rinishidan elektron ko‘rinishga o‘tishi bilan izohlash mumkin[2].

Bundan tashqari matbaa sanoatining turli sohalarida raqamli va boshqa turdagi texnologiyalarning rivojining notekis nisbatini ham aytib o‘tish lozim. Yangi texnologiyalar asosan matbaa sonoatining reklama va tijorat ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilmoqda, tahminan 40%, 2% - etiketka va qadoqlar dizaynida qo‘llanilmoqda [3]. Nashriyot ishida esa raqamli texnologiyalarning faqat 6% qo‘llanilmoqda. Bunga sabab kichik tirajli matbaa mahsulotlarining raqamli chop etilgan nusxalari narxlaring balandligidir, chunki kichik adadlarda raqamli chop etish usuli unumdor emas[4,5].

Bundan tashqari yirik muammolardan biri bu mamlakatimizda nafaqat chop etish va post press uskunalaring ishlab chiqarilishi, hattoki bu jarayonlarda qo‘llaniladigan materiallar: bosma qoliplar, bo‘yoqlar, maxsus yelimlar, lak va plyonkalar ham import qilinadi. O‘z o‘zidan mahalliy matbaa sanoatining rivojlanishi importga bog‘liqligi muhim masala bo‘lib qolmoqda. Qog‘oz narxining xar yili o‘sishi esa, o‘zi shundoq ham yuqori bo‘lgan matbaa mahsulotining birlik tannarxini yana oshiradi.

Mamlakatimizning zamonaviy matbaa sanoatining rivojlanishi davlat tomonidan qullab-quvvatlanishi va nazorat qilinishi zarur. Xozirda mamlakatimiz tomonidan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilmoqda, afsuski, matbaa sanoatida nashriyot-matbaa sohasi esa chetda qolib ketmoqda. Boshqa soxalardan o‘laroq matbaa chop etish jarayonlari o‘z ichiga real axborot komponentlarini oladi. Matbaa sanoati ommaviy axborot kommunikatsiyalari-radio, televidenie va internet orasida asosiy axborot tarqatish vositasi bo‘lib, u ommaviy kommunikatsiyalarning axborot talablari uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matbaa sanoatining rivojlanish istiqbollari uchun bir qator omillariga ahamiyat berish zarur. Bunga matbaa sanoatini raqamlashtirishda yangi texnologiyalar va xizmatlar uchun investitsiyalar xarakatini faollashtirish, fuqarolar orasida bosma nashrlarni ommalashtirish, mahalliy sarf homashyo materiallari va uskunalar ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yish kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
2.PF-5653-son. Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2019.02.02.
3. D.R.Safayeva. O‘rash qadoqlash materiallari/Toshkent:. Noshir. 2021.96 b.
4. «Xalq ho‘jaligiga yangi texnika, yangiliklar va rasionalizatorlik takliflarini joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uslubiyati». - Toshkent: Mehnat, 2009. – 18b.
5.D.R.Safayeva. Chuqur bosma usulida qadoqlash materiallari (polipropilen)ning bosma-texnik xossalarini tadqiq qilish /t.f.f.n. diss. Avtoreferati:05.02.03.TTESI.-T.:TTESI,2022 y.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI PIRLS TADQIQOTLARIGA TAYYORLASH METODIKASI

Shaxmurodova Diljahon Almardonovna
QVPYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya*:* Maqola PIRLS xalqaro tadqiqot dasturi xususida bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash uchun to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish maqsadida matn yuzasidan topshiriqlar bilan ishlash yo‘llari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, mezon, baho, baholash mezoni, o‘quv, nazorat, qisman, mustaqil fikr, tushunish, to‘liq tushunish, qisman tushunish.

Аннотация: статья посвящена международной исследовательской программе PIRLS, в которой описаны способы работы с заданиями по тексту с целью их использования на занятиях кружка для подготовки учащихся начальных классов к исследованиям PIRLS.

Ключевые слова: PIRLS, критерий, оценка, критерий оценки, обучение, контроль, частичное, независимое мнение, понимание, полное понимание, частичное понимание.

Annotation: The article is devoted to the PIRLS international research program, which describes ways to work with text assignments in order to use them in the classroom of the circle to prepare primary school students for PIRLS research.

Keywords: PIRLS, criterion, assessment, evaluation criterion, training, control, partial, independent opinion, understanding, full understanding, partial understanding.

RIRLS turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunush darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Bugun har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi xalqaro baholash dasturlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va o‘quvchilarni RIRLS xalqaro tadqiqotlariga tayyorlashi muhim vazifa hisoblanadi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o‘qituvchidan ta’limga yangicha yondashuvni, faollikni talab etadi.

RIRLS tadqiqotida ishtirok etish asnosida o‘quvchilar ikkita matn ustida ishlashi kerak. Birinchi matn badiiy matn, ikkinchisi axborot matn. Har bir matn yuzasidan 12-16 ta torshiriqqa javob berishi lozim bo‘ladi. Test topshiriqlarni bajarishga, har bir matn bilan ishlashiga 40 daqiqa, ikkita matnga 80 daqiqa vaqt ajratiladi. Orada 5-10 daqiqalik tanaffus belgilanadi. O‘quvchi matn bilan tanishib chiqishi, so‘ngra matnga doir keltirilgan savol va topshiriqlarga javob yozishi kerak. Javoblar uch turli bo‘ladi:

Tanlanadigan javob turi

Qisqa javob turi

Batafsil javob turi

Baholash jarayonida “0”, “1”, “2”, “3” ballik tizimdan foydalaniladi.

BIR BALLIK SAVOLLARNI BAHOLASH MEZONI

1 ball – berilgan javobning qabul qilinganligini anglatadi hamda ushbu javoblar savolning matn jihatidan o‘quvchi tomonidan tushunilganini namoyon etadi.

0 ball – qabul qilinmaydigan javob. O‘quvchi tomonidan berilgan javoblar mazmuniga ko‘ra javoblar savolning matn jihatidan tushunilganini namoyon etmaydi.

IKKI BALLIK SAVOLLARNI BAHOLASH MEZONI

To‘liq tushunish – 2 ball. Ushbu turdagi javoblar savol yuzasidan o‘quvchining matnni to‘liq tushunganligini namoyon etadi.

Qisman tushunish – 1 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qisman tushunilganligini ko‘rsatadi. Ular savolda talab qilinadigan elementlarning barchasini emas, balki bir nechtasini o‘z ichiga olishi mumkin.

Mutlaqo tushunmaslik – 0 ball. Ushbu turdagi javoblar savol yuzasidan matnni tushunilmaganligini ko‘rsatadi.

UCH BALLIK SAVOLLARNI BAHOLASH MEZONI

Keng tushunish – 3 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni keng tushunilganligini namoyon etadi.

Qoniqarli tushunish – 2 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qoniqarli tushunilganligini namoyon etadi.

Minimal tushunish – 1 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni minimal darajada tushunilganligini namoyon etadi.

Qoniqarsiz tushunish – 0 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qoniqarsiz tushunilganligini namoyon etadi.

PIRLS tadqiqoti topshiriqlariga ko‘ra asosan kitobxonlikning 2 ta malaka darajasi aniqlanadi:

- badiiy matn orqali badiiy asar matnidan ma’lumot olish va shu asosda oddiy mulohaza yuritish;
- axborotli matn orqali matndagi axborotni izohlash va baholay olish.

PIRLSga tizimli tayyorlashda sinfdan tashqari o‘qish, mustahkamlash, takrorlash darslari hamda to‘garaklarning o‘rni juda muhim. Bunda o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashi, obrazli tafakkurini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi.

Ayniqsa PIRLSga tayyorgarlik ko‘rishda to‘garak darslarining o‘rni beqiyos. To‘garak darslarida turli adabiyotlardan o‘quvchilarning o‘qish savodxonligiga qo‘yilgan talablardan, ya’ni o‘qish savodxonligining maqsadi va tushunish jarayonlaridan kelib chiqqan holda matnlar tanlab, PIRLS tadqiqotlari topshiriqlari uchun belgilangan mezonlarga amal qilgan holda ishlangan topshiriqlar tayyorlash va o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish mumkin.

Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va ijodi (Axborot matn)

Ibn Sino jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk siymolardan bo‘lib, uning ilmiy ishlari o‘sha davr fani taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisini tashkil etadi. Uning to‘liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Hasan ibn Ali ibn Sino bo‘lib, ko‘pincha qisqartirib Abu Ali ibn Sino yoki Ibn Sino deb yuritiladi.

Ibn Sino 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt Buxoroga ko‘chib keladi va uni shu yerda o‘qishga beradilar. Ibn Sino avval Qur’on va adab darslarini o‘qiydi

va 10 yoshga yetar-yetmas bu darslarni to‘la o‘zlashtirib oladi. Ayni vaqtda u arifmetika va algebra fanlari bilan ham shug‘ullanadi. Bulardan tashqari, uyida Abu Abdulloh an-Notiliydan mantiq, geometriya va astronomiya fanlaridan saboq oladi.

Shu bilan birga Abu Ali ibn Sino tabiiy fanlar bilan ham jiddiy shug‘ullanadi, xususan tabobatni sevib o‘rganadi. U o‘zining o‘tkir zehni tug‘ma iste’dodi va mehnatsevarligi bilan darslarni tezda o‘zlashtirar va hatto muallimlariga noma’lum narsalarni ham kitobdan mustaqil o‘qib-o‘rganib olardi.

Ayniqsa, tib ilmida u juda tez kamol topa boshlaydi. „Tib ilmi, — deb yozadi Ibn Sino o‘z tarjimai holida, – qiyin ilmlardan emas, shu sababli qisqa muddat ichida bu fandan juda ilg‘orlab ketdim, endi hatto bilimdon tabiblar ham huzurimga kelib tib ilmidan dars oladigan bo‘ldilar. Bemorlarni ham ko‘rib turardim va shu yo‘sinda orttirgan tajribalarim natijasida muolaja eshiklari menga shu qadar keng ochilib ketdiki, uni ta’riflab berish qiyin”.

Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqaradi. O‘sha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig‘i Nuh ibn Mansur kasal bo‘lib, saroy tabiblari uni davolashga ojiz edilar. Buxoroda yangi chiqqan yosh tabibning ovozasi saroyga ham yetib borgan edi, uni amirni davolashga taklif qiladilar va u davolagach amir tez fursatda oyoqqa turadi. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu kutubxona o‘sha vaqtda butun o‘rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o‘z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirdiki, u davrda shu qadar bilimga ega bo‘lgan boshqa bir kishini topish mushkul edi.

U o‘zining birinchi yirik ilmiy asarlarini ham Buxoroda 1000-1001 – yillarda yozadi. O‘z qo‘shnisi va do‘sti Abul Husayn al-Aruziyning iltimosiga ko‘ra riyozatdan boshqa barcha fanlarni o‘z ichiga olgan „ Al-hikmat al-aruziya” nomli asarini yozadi.

999- yili Qoraxoniylar Buxoroni zabt etib Somoniylar davlatini yiqitadilar. Bundan tashqari, ayrim feodal hukmdorlar orasidagi o‘zaro urushlar hamon tinmay davom etar va bu voqealar Buxoroda tinch va xotirjamlikda ilmiy ishlarni davom ettirishga imkoniyat bermaydi. Buning ustiga 1002- yili Ibn Sinoning otasi vafot etadi. Oqibatda Ibn Sino o‘z yurti Buxoroni tark etib Xorazm (Urganch) ga ketadi.

Shundan so‘ng ko‘p o‘tmay tabobatga oid mashhur asari „Kitob al-qonun fit tib” („Tib qonunlari”) ning 1-kitobini va ba’zi bir boshqa asarlarini yozishga kirishadi.

1014- yili Ibn Sino Hamadonga keladi va o‘zining mashhur falsafiy ensiklopediyasi „Kitob ash-shifo”ni shu yerda yozishga kirishadi.

1023- yili Isfahonga ko‘chadi va „Kitob ash-shifo”ning qolgan qismlarini yozishda davom etadi. Boshqa bir qancha asarlar bilan bir qatorda fors tilidagi falsafiy kitobi „Donishnoma”ni yozishni yakunlaydi.

Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino jismoniy jihatdan ham juda baquvvat kishi bo‘lgan. Biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kechalari uxlamasdan uzluksiz ishlash va bir necha bor ta’qib ostiga olinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga ta’sir etmay qolmaydi. U qulanj (kolit) kasalligiga chalinib qolgan edi.

Kasallik zo‘raygach, shu darddan 1037- yilning iyunida 57 yoshida Hamadonda vafot etdi. Uning qabri hozirgacha saqlanib qolgan.

MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

Выступление группы учащихся по теме «Одежда греков».

Выступление группы учащихся по теме «Одежда египтян».

Выступление группы учащихся по теме «Русский костюм». Выступление группы учащихся «Одежда хакасов»

Вопрос: Как вы думаете, что такое силуэт одежды?

Силуэт - плоскостное, контурное изображение объёмных форм одежды. Слайд. На слайде показано как менялся силуэт женского платья в течении XX века.

Вопрос: Какая закономерность в развитии силуэта женского платья прослеживается

УЭ-3 Виды силуэта. Цель: Характеристика и виды силуэтов

При всем многообразии одежды по степени прилегания к фигуре силуэты делятся на: прямой, полуприлегающий, приталенный, трапециевидный. Для точной характеристики силуэта его сравнивают с геометрическими фигурами.

Прямой силуэт- ширина изделия одинакова по линии груди, талии, бедер, лишь обозначаются части фигуры.

Зарисовка плоской проекции прямого силуэта.

Такое изделие по своим пропорциям приближается к узкому вытянутому (при большой длине) прямоугольнику или квадрату. Прямой силуэт подходит практически для всех фигур.

Полуприлегающий силуэт - изделия плавно скользят вдоль фигуры, слегка подчеркивая формы фигуры, не затягивают её и расширяется книзу.

Зарисовка плоской проекции полуприлегающего силуэта.

Притенный сиалуэт - изделия такого силуэта плотно облегают фигуру. В данном силуэте можно выделить два вида:

Приталенный «Х» - силуэт - имеет тонкую талию, широкие плечи и расширенную юбку;

Приталенный силуэт «песочные часы» - малообъемный, облегающий фигуру.

Зарисовка плоской проекции приталенного «Х» - силуэта. Зарисовка

Плоской проекции силуэта «песочные часы»

Силуэт «Трапеция» - это силуэт, в котором расширение происходит от линии плеча или проймы. Расширение может быть спокойным или более значительным.

Зарисовка плоской проекции силуэта «трапеция».

Вопрос: Какая бывает одежда по своему характеру?

УЭ-4 Стиль одежды. Цель: Изучить стили одежды

Характер одежды зависит от стиля. Стили составляют основу знаний о моде. На сегодняшний день в чистом виде каждый стиль встречается не так часто. Мода отличается смешением элементов разных стилей.

Вопрос: Какие стили одежды вы знаете? Какие изделия одежды входит в классический стиль?

Классический стиль (слайд) - сдержанная простота в линиях, строгость, деловитость, элегантность, практичность, безукоризненность линий. К данному стилю относится жакет, кардиган (удлиненный жакет без воротника), блейзер (женский жакет, выполненный по образцу мужского пиджака классического стиля), брюки, платья рубашечного покроя, блуза типа мужская сорочка, юбки (прямые, узкие, и широкие (в складку, плиссе), жилет.

Частью классического стиля является деловой стиль (для работы и учёбы). Деловой стиль визитная карточка делового человека.

Вопрос: 1. Какие изделия одежды входят в спортивный стиль? 2. И для каких целей данный стиль предусмотрен?

Спортивный стиль (Слайд) - одежда данного стиля удобна и практична. Для этого стиля характерно наличие молний, кнопок, пуговиц, погон, накладные карманы, отделочная строчка, чёткое расположение деталей. Спортивный стиль сегодня это множество микростилей:

А) стиль сафари - чаще всего летняя одежда из льна, хлопка, смесовых тканей в бело-песочно-хаки-коричневой гамме;

Б) джинсовый стиль - наличие отделочной строчки, накладных карманов, металлический заклёпок, молний;

В) военизированный стиль - с решениями, взятыми из форменной одежды;

Г) униформа - городская одежда по мотивам рабочей спецодежды: комбинезоны, полукомбинезоны, куртки.

Д) матросский стиль с решениями, взятыми из форменной одежды матросов, морских офицеров (эмблемы, тельняшки, полоски).

Вопрос: А какие изделия относятся к романтическому стилю?

Романтический стиль (фантазийный) (слайд) - представляет одежда нарядная, экстравагантная, подчёркивающая женственность и обаятельность. Этому стилю присущи различного рода отделки: воланы, рюши, оборки, кружева, вышивка. Здесь же могут, использованы и элементы национального (фольклорного) костюма. Одежда тонко дополняется бижутерией. Ткани воздушные, блестящие, бархатные, струящиеся. Гардероб девушки может состоять из одежды разных стилей, но выбор одежды должен соответствовать её назначению.

Рассматривая различные современные технологии преподавания, мы сделали вывод, что именно модульное обучение является наиболее эффективным и привлекательным с образовательной точки зрения направлением, в силу своих отличительных особенностей.

Так, благодаря свободному выбору альтернативных модулей, учащиеся могут усвоить ученый материал в индивидуальном темпе.

Литература

1. Лушников В.Д. Традиционное и новаторское в современном образовании // Педагогика, 2000-С.20-25.

2. Романова И.А. Диалектика инноваций в отечественной педагогике (в теории и практике общеобразовательной школы XX века): Дис. ...канд. пед. наук. -М., 1996.-160 с.

3. Юцявичене П.А. Теория и практика модульного обучения. - М., 1990

4. Жанпеисова М.М. Модульное обучение как средство развития учащихся. Алматы: 2002.-140 с.

HAYDOVCHILARNING CHARCHOQ ALOMATLARINI ANIQLASH USULLARI VA MEXANIZMLARI TAHLILI

Nazarov F. M., Xamidov M. M.

Samarkand State University, 140104, Uzbekistan. Samarkand, University Blvd, 15 house. Email:fayzulla-samsu@mail.ru, samsungmunis@gmail.com

Abstract

The field of theses fatigue detection systems will help develop and transform methodologies around products that are sensitive to subjective measurements and physiological data. Acknowledging the importance of driver alertness on the road, this paper critically reviews the existing literature and methodologies used in the field. The analysis comprehensively covered the strengths of two popular methods for measuring user fatigue, and comparative and comparative methods. Emphasizing the importance of subjective reporting indicators and physiological data collection, the studies carefully examined the reliability, accuracy, and practicality of each production. This thesis presents the ongoing debate on the project's software fatigue and offers suggestions for developing and delivering software that prioritizes user acquisition and physiological accuracy.

Keywords: *Fatigue and drowsiness detection methods, physiological data, self-reporting methods, eye-tracking.*

Annotatsiya

Ushbu tezis haydovchilarning charchoq alomatlarini aniqlash tizimi sohasini o‘rganadi, bunda asosiy e’tibor foydalanuvchilar tomonidan bildiriladigan subyektiv o‘lchovlar va fiziologik ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlar atrofidagi metodologiyalarni baholash va taqqoslashga qaratilgan. Haydovchilarning hushyorligi yo‘l harakati xavfsizligi uchun muhimligini e’tirof etgan holda, ushbu maqolada mavjud adabiyotlar va sohada qo‘llaniladigan metodologiyalarni tanqidiy ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijasi haydovchilarning charchoqlarini o‘lchashda ikki mashhur usulning kuchli tomonlari, cheklovlari va qiyosiy samaradorligini har tomonlama yoritib bergan. Subyektiv hisobot berish indikatorlari va fiziologik ma’lumotlarni yig‘ishning ahamiyatini ta’kidlab, tadqiqotda har bir yondashuvning ishonchliligi, aniqligi va amaliyligini sinchkovlik bilan o‘rganildi. Ushbu tezisning natijalari haydovchilarning charchoqlarini aniqlash bo‘yicha davom etayotgan munozaraga qimmatli tushunchalar beradi va foydalanuvchi tajribasi va fiziologik aniqlikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan kelajakdagi tizimlarni ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi.

1.Kirish

Professional haydovchilar uchun uzoq masofaga haydashning mashaqqatli ekani bu haqiqat. Uzoq safarlar davomida diqqatni jamlash katta iroda, sabr va chidamlilikni talab qiladi. Afsuski, haydovchilarning charchoqlari har yili son-sanoqsiz odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarida hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlari bu muammoning dolzarbligini ochib beradi, millionlab odamlar keraksiz ravishda nobud bo‘ladi. Amerika avtomobil assotsiatsiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, haydovchilarning charchoqlari barcha to‘qnashuvlarning 7 foiziga va halokatlarning 21 foiziga sababchi ekanligini

ko‘rsatadi. Hozirgi jadal rivojlanayotgan jamiyatda uyqusizlik tobora keng tarqalgan bo‘lib, muammoni yanada kuchaytirmoqda. Yo‘lda transport vositalarining soni ortib borayotganligi sababli, haydovchilarning charchoqlari baxtsiz hodisalarning asosiy omili sifatida baholanmoqda. Milliy Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (NHTSA) buni hayot va iqtisodiyot uchun jiddiy tahdid sifatida tan oladi. Ushbu keskin haqiqatlarni hisobga olgan holda, haydovchilarning charchoqlarini aniqlashning samarali tizimlarini ishlab chiqish avariyalarning oldini olish va insonlar hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

2. Metodologiyalar

So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda charchoqni aniqlash uchun ko‘plab texnika va texnologiyalar ishlab chiqildi. Hozirgi vaqtda charchoqni aniqlash usullari quyidagilarga bo‘linadi:

- Foydalanuvchilar (haydovchilar) xabar qilgan subyektiv indikatorlarga tayanadigan yondashuvlar
- Fiziologik ma’lumotlardan foydalanish usullari
- Avtomobil holatiga qaratilgan yondashuvlar
- Mashinaviy o‘qitish, chuqur o‘qitish va kompyuterli nigohdan foydalanadigan yondashuvlar [2].

Subyektiv indikatorlarga asoslangan usullar

Epvort uyquchanlik shkalasi (ESS) [3], yetti balli Stenford uyquchanlik shkalasi (SSS) [4], vizual analog shkalasi (VAS) [5] va og‘zaki uyquni aniqlaydigan to‘qqiz ballli Karolinska uyquchanlik shkalasi (KSS) 1-rasmda ko‘rsatilganidek, har bir uyquchanlik bosqichi uchun mos yozuvlar o‘z-o‘zidan bildirilgan subyektiv o‘lchovlarning bir nechta misolidir. Uyquchanlik haqida real vaqtda fikr-mulohazalarni olish juda qiyin. Haydovchining uyquchanlik yoki hushyorlik ko‘rsatkichlarini to‘plash uchun uning javobiga tayanish noo‘rin va xavflidir, chunki bu haydashga putur yetkazishi va haydovchining haqiqiy ish faoliyatini kam baholab berishi mumkin.



1-rasm. Karolinska uyquchanlik shkalasi (KSS) yordamida uyquchanlik reytingi

Amaldagi usul haqiqiy avtomobil haydash holatlari uchun mos kelmaydi. Ba’zi muqobil usullar so‘rovlar orqali haydovchilarning uyquchanligini subyektiv baholashlarini, shuningdek, transport vositasi va haydovchining xatti-harakati yoki

fiziologiyasidan ob’ektiv ma’lumotlarni ajratib olishga imkoniyat yaratadi. Masalan, OSS usuli uyquchanlikning to‘rtta darajasini tasniflash uchun EEG va ko‘z harakati xususiyatlaridan (masalan, yuz qovoqlarining yopilgan vaqt nisbatini hisoblaydigan PERCLOS o‘lchovi) foydalanadi. Biroq, bu usulda vaqt aniqligi, fazoviy ma’lumotlarning yetishmasligi, darajalar sonining yetarli emasligi va miya faoliyati va uyquchanlik bosqichlari o‘rtasidagi zaif aloqa borligi kabi ba’zi cheklovlar mavjud [6].

Fiziologik ma’lumotlarga asoslangan usullar

Fiziologik signallar 2-rasmda ko‘rsatilganidek, miya, ko‘z, mushaklari va yurak kabi inson organlaridan kelib chiqqanligi sababli, ular haydovchilar tomonidan namoyish etilgan hushyorlik darajasini o‘lchash uchun ishlatilishi mumkin. Bu charchoq va uyquchanlik kabi holatlarni erta aniqlash imkonini beradi. Haydovchining uyquchanligi bilan bog‘liq bo‘lgan organ fiziologik signallari yozilishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

- Miya faoliyati: EEG yoki NIRS buni aniqlay oladi.
- Ko‘z faoliyati: EOG buni o‘lchashi mumkin.
- Mushak tonusi: EMG signali uni yozib olishi mumkin.
- Yurak faoliyati: EKG va Qon bosimi signallari buni kuzatishi mumkin.
- Nafas olish: nafas olish harakatlari, burun va og‘iz havo oqimi, qon gazi va uxlash paytidagi shovqinlarni buni o‘lchashi mumkin.
- Oshqozon-ichak traktining parametrlari: qizilo‘ngachning pH ro‘yxati uni olishi mumkin.
- Elektrodermal faollik: terining galvanik reaktsiyasi va terining qarshiligi va o‘tkazuvchanligi uni o‘lchashi mumkin.
- Asosiy harorat: Bu odamning haqiqiy teri haroratini aniqlanishi.

2-Rasm. Charchoqni aniqlash uchun haydovchining fiziologik signallari o‘lchash holati

Tadqiqotchilar haydovchining charchoq va uyquchanligini aniqlash uchun EEG, EOG, EMG va EKG kabi turli xil fiziologik signallarni keng o‘rganishgan. Ushbu signallar erta ogohlantirishlarni ta’minlashda samarali ekanligini isbotlandi [7]. Qizig‘i shundaki, bu signallarning ba’zilari (masalan, EEG) tabiatan murakkab va siyrak bo‘lmasa ham, Discrete Cosine Transform (DCT) va Discrete Wavelet

Transform (DWT) kabi transformatsiyalar ularni siyrakroq tasvirlarga aylantirishi mumkin. Bu transformatsiya qilingan signallarni tahlil qilish Compressed Sensing nazariyasini qo‘llashning ajoyib imkoniyatini ochadi , garchi ular dastlab siyrak bo‘lmagan bo‘lsa ham, agar o‘zgartirilgan versiya yetarli darajada siyraklikni namoyish qilsa. Tegishli $X \in R^N$ mos ravishda $\Phi \in R^{MxN}$ kirish signali va o‘lchov matritsasi sifatida siqilgan chiqish $Y \in R^M$ quyidagicha olinadi:

$$Y = \Phi X \tag{1}$$

Cheklangan izometriya xususiyatiga (RIP) ega bo‘lgan matritsa hosil bo‘ladi, bu asl signalga qaraganda past o‘lchamli kuzatish vektorini anglatadi. RIP shuni anglatadiki, bir nechta nolga teng bo‘lmagan yozuvlari bo‘lgan har qanday vektor uchun matritsa quyidagilarga bo‘ysunishi kerak:

$$1-\delta \le \frac{\left\|Y = \Phi X\right\|_2^2}{\left\|X\right\|_2^2} \le 1+\delta \tag{2}$$

Bu yerda d 0 va 1 oralig‘idagi qiymatga ega bo‘lgan RIP doimiysi. Siqish nisbati (CR) signallarning siqilish darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$CR = \frac{N-M}{N} \times 100\% \tag{3}$$

Shunday qilib, bu yuqori CRga olib keladi va o‘lchov matritsasining o‘lchamini sozlash orqali (RIP sharti bajarilgan taqdirda) turli darajadagi siqilgan sensorlarga erishiladi. Nihoyat, X ni aniq rekonstruksiya qilish turli xil algoritmlar yordamida amalga oshirilishi mumkin, masalan, L1 normasini minimallashtirish va ortogonal moslashuv izlash (OMP) [10].

3. Xulosa

Charchagan haydovchilar yo‘lda katta xavf tug‘diradi. Yangi aqlli transport tizimlari haydovchilarning real vaqt rejimida ogohlantirishlarini kuzatish va ko‘plab baxtsiz hodisalarni to‘xtatish orqali yordam beradi. Ushbu maqola haydovchining uyqusiragan yoki hushyorligini aniqlashning turli usullarini ko‘rib chiqdi va ulardan ikkitasini batafsil yoritdi. U tadqiqot va tijorat mahsulotlarida qo‘llaniladigan to‘rtta keng tarqalgan usulni ko‘rib chiqdi: haydovchilardan so‘rovnomalar yordamida so‘rash, ular qanday haydashini kuzatish (avtomobil tizimlari orqali), ularning tanasini kuzatish va mashinaviy o‘qitishdan foydalanish.Ushbu tezisda, yuqorida sanab o‘tilgan usullardan ikkitasi qanday ishlashi va uyquchanlikni qanchalik yaxshi o‘lchay olishi tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu usullarning haydovchilar bilan o‘zaro ta’siri, ularning qanchalik to‘g‘riligi va ulardan foydalanish qanchalik qulayligi ko‘rib chiqildi. Xulosa qilib aytilganda, ushbu ikki usullardan ko‘proq samara beradigan usul bu fiziologik ma’lumotlarga tayangan usuldir va o‘z navbatida ushbu turdagi ma’lumotlarni haydovchilardan olish uchun ishlatiladigan qurilmalar ularga noqulayliklar yaratadi va charchoq alomatlarini aniqroq o‘lchashda halaqit berishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. L. M. King, H. T. Nguyen, and S. K. L. Lal, “Early driver fatigue detection from electroencephalography signals using artificial neural networks,” in Proc. 28th

Annu. Int. Conf. IEEE Eng. Med. Biol. Soc. (EMBS), New York, NY, USA, Aug. 2006, pp. 2187–2190

2. V. M. Y. Mervyn, X. Li, K. Shen, and E. P. V. Wilder-Smith, “Can SVM be used for automatic EEG detection of drowsiness during car driving?” Saf. Sci., vol. 47, no. 1, pp. 115–124, 2009

3. S. Hu and G. Zheng, “Driver drowsiness detection with eyelid related parameters by support vector machine,” Expert Syst. Appl., vol. 36, no. 4, pp. 7651–7658, 2009

4. K. Dwivedi, K. Biswaranjan, and A. Sethi, “Drowsy driver detection using representation learning,” in Proc. IEEE Int. Adv. Comput. Conf. (IACC), Gurgaon, India, Feb. 2014, pp. 995–999

5. M. Hajinoroozi, Z. Mao, and Y. Huang, “Prediction of driver’s drowsy and alert states from EEG signals with deep learning,” in Proc. 6th IEEE Int. Workshop Comput. Adv. Multi-Sensor Adapt. Process. (CAMSAP), Cancun, Mexico, Dec. 2015, pp. 493–496

6. R. Chai et al., “Improving EEG-based driver fatigue classification using sparse-deep belief networks,” Frontiers Neurosci., vol. 11, no. 103, pp. 1–14, Mar. 2017.

7. G. Yang, Y. Lin, and P. Bhattacharya, “A driver fatigue recognition model based on information fusion and dynamic Bayesian network,” Inf. Sci., vol. 180, no. 10, pp. 1942–1954, May 2010

8. R. Fu, H. Wang, and W. Zhao, “Dynamic driver fatigue detection using hidden Markov model in real driving condition,” Expert Syst. Appl., vol. 63, pp. 397–411, Nov. 2016

9. Marinello, F., Pezzuolo, A., Gasparini, F., Sartori, L., 2014. Ergonomics analyses through motion capture in a vehicle cabin by means of Kinect sensor. In: International Conference of Agricultural Engineering, Vol. 253. Citeseer, pp. 1–5

10. Craye, C., Karray, F., 2015. Driver distraction detection and recognition using RGB-D sensor. arXiv preprint arXiv:1502.00250

NODAVLAT TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA’LIM SIFATINI O‘RNI

Berdikulova Nasiba Jurakulovna
Guliston davlat universiteti 1-kurs tayanch doktaranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nodavlat ta’lim muassasalarini faoliyati samaradorligini oshirishdagi eng muhim omil bo‘lib hisoblangan ta’lim sifatini oshirish va uni baholashga oid tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zi: Nodavlat ta’lim muassasasi, raqamli ta’lim, boshqaruv funksiyasi, ta’lim faoliyatni tashkillashtirish, monitoring, reyting, rahbariyat, boshqarish tizimi.

THE ROLE OF EDUCATION QUALITY IN INCREASING THE EFFICIENCY OF NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Berdikulova Nasiba Jurakulovna
Gulistan State University 1st year basic doctoral student

ANNOTATION

This article provides recommendations and conclusions on improving the quality of education and evaluating it, which is considered the most important factor in increasing the efficiency of non-state educational institutions.

Key word: Non-state educational institution, digital education, management function, organization of educational activities, monitoring, rating, leadership, management system.

РОЛЬ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Бердикулова Насиба Журакуловна
Гулистанский государственный университет, 1 курс базового докторантуры

АННОТАЦИЯ

В данной статье даны рекомендации и выводы по повышению качества образования и его оценке, что считается важнейшим фактором повышения эффективности негосударственных образовательных учреждений.

Ключевые слова: Негосударственное образовательное учреждение, цифровое образование, функция управления, организация образовательной деятельности, мониторинг, рейтинг, лидерство, система управления.

KIRISH

Raqamli ta’lim sharoitida nodavlat ta’lim muassasalari o‘z faoliyatida boshqaruv funksiyalarini joriy etgan holda bozor munosabatlarining to‘liq ishtirokchilariga aylanib bormoqda. Boshqarish funksiyalari tarkibida mutaxassis kadrni tanlash va uni ish faoliyati davrida tinimsiz o‘z ustida ishlashini nazorat qilish alohida o‘rin tutadi. Ta’lim muassasasi faoliyatini tahlil qilish quyidagilar uchun zarur: nodavlat ta’lim muassasasining samarali faoliyati va uni tashkil etish, rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va qarama-qarshiliklarni aniqlash, ularning paydo bo‘lish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llarni aniqlash. Bugungi ishbilarmonlik dunyosida samarali raqobatlashish uchun ta’lim muassasalari doimiy ravishda ta’lim sohasi, mehnat bozori va ta’lim xizmatlari,

raqobat va boshqa omillar to‘g‘risida juda ko‘p ma’lumotlarni to‘plashlari va tahlil qilishlari kerak. Prezidentimiz yoshlar bilimiga, nodavlat ta’lim xizmatlari sifatiga e’tibor berar ekan: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”,-deya ta’kidlaydi[1]. Respublikamizda oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlardan biri ta’lim xizmatlarini jadal sur’atlar bilan rivojlantirish va jahon oliy ta’lim tizimiga, shu jumladan, mamlakatimiz ta’lim tizimiga ham yangidan-yangi, talab darajasidagi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratishdan iboratdir. Shunday ekan, mutaxassis kadrlar salohiyati va bilimi jihatdan jahon andozalariga mos bilimlarni bera oladigan darajaga yetkazamiz va ta’lim sifatini tubdan o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamalakatimizda olib borilayotgan islohatlarga nazar tashlasak, ushbu yilni 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash” yili deb e’lon qilinganligi ham bu yoshlarimiz va biznesni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlardan biri sanaladi. Bundan tashqari, 6 yil muqaddam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931- sonli qarori bo‘yicha ta’lim muassasasiga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari turini kengaytirishga yordam beradi[8].) Bu esa ko‘plab xususiy maktabgacha va maktab tashkilotlari ochilib faoliyat yuritish uchun boshlang‘ich qadam bo‘lgan edi. Hozirgi kunga kelib, xususiy maktabda o‘qitmoqchi bo‘lgan ota-onalar uchun ham bir qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Tadbirkorlar uchun esa biznesini rivojlantirish uchun qulay takliflar ishlab chiqilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarni nodavlat ta’lim xizmatlari jumladan Yevropa mamlakatlaridan Germaniya, Buyuk Britaniya va Osiyo mamlakatlaridan Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya tizimi turlicha tashkil etilgan bo‘lsada, ulardagi o‘quv, o‘quv uslubiy ishlari tashkil etilishi ham o‘zlarini turlicha ijobiy tomonlari bilan ajiralib turadi. Ta’limning xizmat xususiyatlari, ta’lim xizmatlariga oid ilmiy tadqiqotlar, nodavlat ta’lim xizmatlarining menejment va marketing masalalari, Ye.V.Burdenko[2], Sh.M.Aliyev[3] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ta’lim xizmatlariga oid tizimli tadqiqotlar Altbach P.G., Kelly G.P[4] kabi xorijiy olimlar va mamlakatimiz olimlaridan M.Q.Pardayevning[5] ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

NATIJALAR

Nodavlat ta’lim tashkilotlarini boshqarish va ta’lim faoliyatini tashkil etish bir necha xil bo‘lishi mumkin. Bu faoliyatni tashkil etish ota-onalar takliflari va o‘quvchilar qiziqishlari, orzu-maqsadlarini inobatga olgan holda tashkillashtirish mumkin. Chunki, xususiy maktablarga ota-onalar turli maqsadlarda berishadi. Kimdir ertadan kechgacha farzandini nazorati va vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchungina bersa, yana kimdir sifatli ta’lim va yaxshi natija uchun beradi. Birinchi turga kiruvchi ota-onalar uchun xususiy maktabda turli tadbirlar va to‘garaklar

tashkil etiladigan holda faoliyatni tashkil etish lozim bo‘ladi. Sifatli ta’limni va natijani kutgan ota-onalar va bilimga chanqoq o‘quvchilar uchun ta’lim sifatini tinimsiz ravishda nazoratga olgan holda o‘quvchilar bilimlari monitoring qilib boriladi va o‘sish reytinglari ishlab chiqariladi. Agar joiz bo‘lsa, o‘quvchilar natijalari ota-onalarga taqdim etiladi. Natijalar o‘qituvchi tomonida o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Bo‘liqlari to‘ldirilib, xato va kamchiliklari ustida ishlanadi.

XULOSA

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, nodavlat ta’lim muassasasi faoliyati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish asosida, har oy muntazam ravishda olib boriladigan monitoring natijalari muassasasi faoliyati rivojiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar belgilarini aniqlaydi. Monitoring natijalarini tahlil qilish jarayoni rahbariyat tomonidan maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va ta’limni boshqarish kabi bir qancha funksiyalarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib hizmat qiladi. U ta’lim muassasasi rivojlanishining zarur shartlari va cheklovchi faktlarini ochib beradi va natijada o‘quv jarayonini pedagogik, moddiy va tashkiliy jihatdan ta’minlashdagi zarur o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Boshqarish tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilish yo‘llarini aniqlash uchun imkon beradi. Bularning barchasi ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931- sonli qarori
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. 14-b.
3. Бурденко Е.В. Рынок образовательных услуг в трансформируемой экономике:Дис...канд. экон. наук. - М.: РЭА, 2014.
4. Алиев Ш.М. Рынок образовательных услуг и вопросы его регулирования : Дис... канд. экон. наук. - М.: РЭА, 2012.
5. Altbach P.G., Kelly G.P. New Approaches to Comparative Education. Chicago and London: The University of Chicago Press, 2006. 228 p.
6. www.uzlidep.uz/news-of-party/128

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH

Xolboyev Umrbek Dilmuratovich
Guliston davlat universiteti E-mail: umrbekxolboyev2024@gmail.com

Annotation. The following article enlightens the creating of automated systems based on electronic teaching-methodological complex and issues of their usage in teaching process.

Key words: electronic teaching-methodical complex, electronic education, educational process, computer technologies, automation, software.

KIRISH. Kredit-modul tizimida o‘quv jarayoniga ta’limning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Masofali o‘qitish - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shaklidir. O‘qitishning bu shaklida o‘quvchilarga mos ta’lim predmetini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan muloqat qilish sharoitlarini ta’minlaydigan an’anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchining qaerdaligi va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi. Masofali o‘qitishda o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o‘qitish vositalari va hokazo) Internet texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi [1].

METODLAR. Tadqiqotning maqsadi o‘quv jarayonida avtomatlashtirilgan tizimlarning o‘rni, ahamiyati, ularni yaratishga qo‘yiladigan talablar va ulardan samarali foydalanish masalalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. O‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterlardan foydalanilsa jarayon avtomatlashtirilgan tizim ositida faoliyat olib boradi. Bunda kompyuter o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda pedagogik xodimlarga ko‘makchi vazifasini bajaradi. Tadqiqot ob’ekti sifatida universitet o‘quv jarayonida kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, talabalarning ta’lim tizimida olgan bilimlarini baholash va nazorat qilish tizimidan foydalanish jarayoni olindi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, to‘plangan ma’lumotlarni taqqoslash va solishtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Kredit-modul tizimida zamonaviy o‘quv jarayonini shu jumladan, masofali o‘qitishni tashkil qilishda ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot makonining o‘rni juda katta. Ta’lim muassasalarida fanlardan axborot makonini yaratish Internet va Intranet tarmoqlarida ta’lim portallari, elektron o‘quv-uslubiy majmualar tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualar asosida o‘qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlari yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlariga elektron o‘quv-uslubiy majmualarda joylashtirilgan o‘quv dasturlari, rejalar,

darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualar masofali ta’lim tizimining rivojlanishiga, shu bilan birga uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta’limning tashkiliy-uslubiy va me’yoriy-huquqiy bazasining rivojlanishiga, ta’lim oluvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi vositalar bilan ta’minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualar asosida masofali o‘qitish amalga oshiriladigan ta’lim muassasalarida majmuaga o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo‘jalik ishlarini yuritish, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv materiallari, testlar va boshqalar haqida ma’lumotlar joylashtiriladi.

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualarning asosiy o‘quv-uslubiy qismi elektron darslik tizimiga asoslangan. Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi [2].

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualar o‘quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg‘ulotlarida repititor, mustaqil ta’lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta’minlovchidir.

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualar o‘quvchilarga axborotni o‘qish, ma’ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan vazifalarni bajarish, o‘z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to‘ldirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualar o‘z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o‘zida bilim berish va ularni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta’minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o‘quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo‘ljallangan mashqlar, o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi [3].

Kredit-modul tizimida elektron o‘quv-uslubiy majmualardagi mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari uchun yaratilgan elektron o‘quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy materiallar ta’lim oluvchilarga kerakli mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta’lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy ta’lim vositalari yordamida ta’lim oluvchilar o‘qituvchining yordamisiz ham o‘z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin [3].

Kredit-modul tizimi o‘quv jarayonida mustaqil ta’limini tashkil etish uchun

elektron o‘quv-uslubiy majmualar yaratish va joriy etishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi [4]:

- talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olish va uni amalga oshirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berish;
- ta’lim tizimining turli yo‘nalishlarida talabalarning faol ta’lim olish shakllariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va uni joriy qilish;
- talabalar tomonidan ta’lim mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasi bilan mukammal tanishtirish va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish;
- oliy ta’lim muassasalarining elektron axborot-ta’lim muhiti va integrallashgan o‘quv-ilmiy resurslarini yaratish;
- ta’lim jarayonini axborotlashtirish borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish imkonini beruvchi elektron o‘quv-metodik majmualar yaratish;
- talabalar mustaqil ta’lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o‘quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar ishlab chiqish va boshqalar.

Kredit-modul tizimi o‘quv jarayoni uchun elektron o‘quv-uslubiy majmualar yaratishning asosiy maqsadi – ta’lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillari asosida tashkil etishni ta’minlash, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan etakchi professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatlariga tayangan holda, ta’lim sifatini oshirish, talabalar uchun uzluksiz ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ta’limning turli shakllarini o‘zaro bir-biriga muvofiqlashtirishdan iborat.

Kredit-modul tizimi o‘quv jarayoni uchun elektron o‘quv-uslubiy majmualar asosida mustaqil ta’limni tashkil etish an’anaviy ta’lim shaklidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi [4]:

- talabalar mustaqil ishlash imkoniyatining kattaligi;
- o‘quv-metodik ta’minotning rang-barangligi;
- ta’lim olishni individuallashtirish;
- etakchi oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda faoliyat ko‘rsatayotgan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar hamda olimlar salohiyatidan keng foydalanish;
- talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga sharoit yaratish;
- talabalarning keng auditoriyasini qamrab olish va uning natijasi sifatida o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish;
- o‘quv jarayonida talabalar guruhini faollashtirish va muvofiqlashtirish;
- talabalarni kuzatish, yordam ko‘rsatish hamda ular bilan ishlashni individuallashtirish va tabaqalashtirishga qaratilgan axborot muhitini yaratish;
- multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarda o‘qishga qiziqishni orttirish;
- ta’limning interfaol xususiyati asosida talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantish va o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning samaradorligini oshirish;

- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatlarini yaratish;

- an’anaviy hamda masofali ta’lim o‘quv-metodik ta’minotining samarali integratsiyasini ta’minlash;

- talabalarga mustaqil izlanish orqali o‘quv materiallarini topish, o‘rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma’lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- talabalarning amaliy kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda o‘quv trenajer vazifasini bajarish;

- o‘quv jarayonida nazorat tahlilini sifatli tashkil etish;

- talabalarning kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, turli ma’lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirish.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini takomillashtirishning asosiy omillari sifatida kompyuter bilan muloqotni, elektron ta’lim resurslari orqali o‘quv-metodik ta’minotni yaratish, o‘quv jarayonini kompyuterli axborot-ta’lim muhiti va zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish, ta’lim berishda gipermatn, multimedia, axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanish kabilarni qayd etish mumkin [4].

Kredit-modul tizimi o‘quv jarayonida elektron o‘quv-uslubiy majmualardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar [5].

XULOSA. Kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini kompyuterlashtirish, masofali o‘qitishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan elektron o‘quv-uslubiy ta’minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan, 2009. -146 b.

2. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi. Toshkent: Sharq, 2002.- 20 b.

3. Toshtemirov D.E. Masofali o‘qitishning uslubiy vositalari. G‘G‘ Kasb-hunar ta’limi,2008. № 5. - 23 b.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
5. Toshtemirov D.E. Ta’lim portalining tarkibiy tuzilishi va uslubiy ta’minoti. G‘G‘ Kasb-hunar ta’limi, 2010. № 2. –B. 10-11.

YANGI AVLOD DARSLIKLARI: ILG‘OR TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: (“MUHANDISLIK GRAFIKASI FANI MISOLIDA”).

Dadaboeva Dilnoza Irkinovna
Toshkent Kimyo texnologiya instituti, dilnoza@031971gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada an’anaviy bosma nashrlardan raqamli darsliklarga o‘tish jarayoni har tomonlama o‘rganilgan. Unda ta’lim tizimlarida darsliklarning asosiy o‘rni ko‘rsatilgan hamda yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish va joriy etishdagi muhim muammolar va istiqbollar belgilab berilgan. Bunga keng foydalanishni ta’minlash, inklyuziv ta’lim muhitini yaratish va ilg‘or texnologiyalarni integratsiyalash kiradi. Maqola bosma nashrdan raqamli formatga evolyutsiyada integratsiyalashgan yondashuv tarafdori bo‘lib, ta’lim natijalari va ta’lim amaliyotini yaxshilash uchun doimiy izlanishlar va texnologik yutuqlarga moslashish zarurligini ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: raqamli darslik, ilg‘or texnologiyalar, integratsiya,pedagogik paradigmalar, raqamli bo‘linish, texnologik moslashuv, interaktiv, immersive.

Аннотация: В данной статье всесторонне исследован процесс перехода от традиционных печатных изданий к цифровым учебникам. Показана основная роль учебников в образовательных системах, обозначены важные проблемы и перспективы разработки и внедрения учебников нового поколения. Это включает в себя обеспечение широкого доступа, создание инклюзивной среды обучения и интеграцию передовых технологий. В документе приводятся доводы в пользу комплексного подхода к переходу от печатных форматов к цифровым, подчеркивая необходимость непрерывных исследований и адаптации к технологическим достижениям для улучшения образовательных результатов и образовательной практики.

Ключевые слова: цифровой учебник, передовые технологии, интеграция, педагогические парадигмы, цифровой разрыв, технологическая адаптация, интерактив, иммерсив.

Abstract: This article comprehensively examines the process of transition from traditional printed publications to digital textbooks. The main role of textbooks in educational systems is shown, important problems and prospects for the development and implementation of new generation textbooks are outlined. This includes ensuring broad access, creating inclusive learning environments and integrating cutting-edge technology. The paper argues for a comprehensive approach to the transition from print to digital formats, emphasizing the need for continuous research and adaptation to technological advances to improve educational outcomes and educational practice.

Keywords: digital textbook, advanced technologies, integration, pedagogical paradigms, digital divide, technological adaptation, interactive, immersive.

Darsliklarning bosma materiallar sifatida paydo bo‘lishidan hozirgi raqamli mujassamlanishigacha bo‘lgan transformatsion sayohatini o‘rganing, bu manbalarning ta’lim tizimlarida o‘ynaydigan asosiy rolini ko‘rsating. Darsliklarning asosiy o‘quv qurollari sifatidagi muhim vazifasini turli sinflarda ta’lim asoslari

tuzilishiga asos bo‘lishi mumkin.

Ta’lim resurslarining rivojlanayotgan dunyosida an’anaviy bosma shaklda ham, zamonaviy raqamli versiyalarida ham darsliklar pedagogik vositalar sifatidagi samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab murakkab muammolarga duch kelmoqda. Bularning markazida keng foydalanishni ta’minlash zarur. Bu nafaqat darsliklarning jismoniy mavjudligini, balki ularning har xil ta’lim sharoitlariga mos kelishi va ijtimoiy mavqei yoki geografik joylashuvi tufayli hech bir o‘quvchining noqulay ahvolga tushib qolmasligini ta’minlashni ham talab qiladi.

Bunda,inklyuziv ta’lim tajribasini yaratish majburiyati ham juda muhimdir. Bu talabalarning kelib chiqishi, qobiliyatlari va istiqbollari xilma-xilligini aks ettirish va hurmat qilish uchun darsliklarni maqsadli ravishda loyihalash va o‘quv dasturlariga kiritishni o‘z ichiga oladi. Bunday inklyuzivlik darsliklarning mazmuni, tili va taqdimotiga kiritilishi va shu orqali ta’lim amaliyotida tenglik, xilma-xillik va vakillik tamoyillarini mustahkamlashi kerak. Bu tabaqalashtirilgan ta’lim va ta’lim uchun universal dizayn (UDL), individual ta’lim farqlaridan qat’i nazar, barcha talabalar kirishi, tushunilishi va ishlatilishi mumkin bo‘lgan o‘quv materiallarini yaratishni qo‘llab-quvvatlovchi tushunchalarni chuqur tushunishni talab qiladi.

Bundan tashqari, rivojlanayotgan texnologiyalarning darsliklarga uzluksiz integratsiyalashuvi o‘quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lgan pedagogik innovatsiyalar chegarasini ifodalaydi. Bu nafaqat multimedia elementlari, interfaol modullar va moslashtirilgan o‘quv yo‘llarini joriy etish, balki bunday texnologik takomillashtirishni kognitiv ta’lim nazariyalari bilan uyg‘unlashtirishni ham anglatadi. Maqsad - texnologiya va pedagogika o‘rtasida simbiotik aloqani yaratish, bu faollikni kuchaytiradi, chuqurroq tushunishni osonlashtiradi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, bu ulkan rejaga hamroh bo‘lib, texnologiya to‘siq bo‘lmay, balki ta’lim olish yo‘lida ko‘prik vazifasini o‘tashini ta’minlash zarur, bu esa o‘qituvchilarning texnologik jihatdan takomillashtirilgan darsliklarni samarali tatbiq etishda doimiy malakasini oshirishni talab qiladi.

Ushbu murakkabliklarni hal qilish ko‘plab manfaatdor tomonlarning, jumladan o‘qituvchilar, o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar, siyosatchilar va texnologiya provayderlarining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Bu mavjudlik, inklyuzivlik va texnologiya integratsiyasini periferik muammolar sifatida emas, balki ta’lim resurslarini rivojlantirish jarayonining markaziy komponentlari sifatida qadrlaydigan pedagogik paradigmani talab qiladi. Ushbu yaxlit yondashuv orqali darsliklar oddiy bilimlar ombori sifatidagi an’anaviy rollaridan oshib, o‘rganishni katalizlaydigan, qiziqishni uyg‘otadigan va talabalarni XXI asr bilim landshaftining murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantiradigan dinamik platformaga aylanishi mumkin.

Ta’lim resurslari sohasida an’anaviy bosma materiallardan raqamli darsliklarga samarali o‘tish uchun ilmiy izlanishlarni talab qiluvchi bir qator pedagogik muammolar va imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu nutq analog va raqamli darslik formatlariga xos bo‘lgan ko‘p qirrali muammolarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, asosiy e’tiborni uchta asosiy yo‘nalishga qaratadi: universal foydalanishni ta’minlash, inklyuziv ta’lim muhitini yaratish va ilg‘or

texnologiyalarni ushbu muhim ta’lim vositalariga muammosiz integratsiya qilish. Ushbu tahliliy tadqiqotning umumiy maqsadi ikki xil: yangi avlod darsliklarini yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni aniqlash va ularning ta’lim landshaftida rivojlanish traektoriyasini bashorat qilish.

Umumjahon foydalanish muammosini hal qilish darsliklarning jismoniy mavjudligidan tashqari tadqiqotni ham talab qiladi. Buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy to‘siqlar, raqamli tafovutlar, darsliklar moliyaviy jihatdan qulay va turli ta’lim muhitiga pedagogik jihatdan mos bo‘lishi zarurligini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Bu jihat o‘quv materialini ishlab chiqish jarayonida tenglik va ulardan foydalanish tamoyillarini qo‘llashni, ijtimoiy-iqtisodiy yoki geografik cheklovlardan qat’i nazar, har bir talabaning sifatli ta’lim resurslaridan teng foydalanishini ta’minlashni taqozo etadi.

Darsliklar orqali inklyuziv ta’lim muhitini yaratish maqsadiga erishish ushbu materiallar ta’lim tengligini qanday o‘zida mujassamlashtira olishi va rag‘batlantirishi haqida har tomonlama tushunishni talab qiladi. Bu o‘quvchilarning o‘ziga xosligi va tajribalarining xilma-xilligini aks ettirish va hurmat qilishga qaratilgan inklyuziv pedagogika ob’ektivi orqali darsliklarning mazmuni, tili va ta’limiy tasvirlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Differentsial ta’lim va ta’lim uchun universal dizayn (UDL) kabi tizimlardan foydalangan holda, ushbu segment tabiatan moslashuvchan bo‘lgan, o‘rganish uslublari, ehtiyojlari va afzalliklarining keng doirasini o‘z ichiga olgan darsliklarni yaratish uchun innovatsion strategiyalarni ta’kidlashga intiladi va shu bilan turli xillikka hurmatli ta’lim amaliyotini targ‘ib qiladi.

Nihoyat, pedagogik innovatsiyalar uchun katalizator sifatida rivojlanayotgan texnologiyalarning darsliklarga uzluksiz integratsiyalashuvi o‘rganiladi. Ushbu bo‘lim texnologik yutuqlar va ta’lim nazariyalari o‘rtasidagi sinergiyani o‘rganadi, multimedia, interfaol va adaptiv ta’lim texnologiyalari ishtirok etish, tushunish va tanqidiy fikrlashni yaxshilash uchun kognitiv va konstruktiv ta’lim nazariyalari bilan qanday mos kelishi mumkinligini baholaydi. Muhokama darsliklardagi texnologik takomillashtirishlardan o‘rganishga to‘sqinlik qilishdan ko‘ra ko‘maklashish maqsadida qo‘llanilishini ta’minlash zarurligini ta’kidlab, texnologiyaga boy ta’lim resurslarini joriy etishda pedagoglarning doimiy malakasini oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Ushbu masalalarni batafsil o‘rganish orqali ushbu maqola yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishning istiqbolli ko‘rinishini taqdim etishga intiladi. U ilg‘or tajribalar bo‘yicha dalillarga asoslangan tavsiyalarni taqdim etish va darslik evolyutsiyasining kelajakdagi konturlarini oldindan ko‘rish orqali pedagogik nutqqa hissa qo‘shishga intiladi, shu bilan o‘qituvchilar, siyosatchilar va o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilarni zamonaviy ta’lim resurslarini rivojlantirishning murakkabliklarida harakat qilish uchun ma’lumotlar bilan jihozlaydi.

Darslik dizaynining tarixi va evolyutsiyasi va uning ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi kengroq ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, texnologik yutuqlar va pedagogik tendentsiyalarni aks ettiruvchi hikoyadir. Ushbu adabiyot sharhi an’anaviy bosma darsliklardan zamonaviy raqamli formatlargacha bo‘lgan yo‘lni

kuzatib, ta’lim nazariyalarining darsliklarni ishlab chiqishga ta’sirini yoritib, sohaga qo‘shilgan asosiy hissalarni umumlashtiradi.

Matbaa va darsliklarning ilk shakllarining paydo bo‘lishi XV asrda matbaa ixtirosi darsliklarni ishlab chiqarish va tarqatishda inqilobiy sakrashni ko‘rsatdi, ta’limga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, bilimlarni yanada qulayroq qildi va butun dunyo bo‘ylab o‘quv materiallarini standartlashtirdi. Dastlabki darsliklar, birinchi navbatda , o‘z davrining ta’lim paradigmalarini aks ettiruvchi , yodlash va didaktik o‘rganishga urg‘u berib, nufuzli bilim manbalari sifatida ishlab chiqilgan.

Progressiv ta’lim va pedagogik o‘zgarishlarga XX-asr boshlarida Jon Dyui kabi arboblar boshchiligidagi Progressiv ta’lim harakati darsliklarning an’anaviy didaktik roliga qarshi chiqdi, faol o‘rganish va tanqidiy fikrlashni ta’kidlaydigan ko‘proq o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni yoqlab chiqdi. Ushbu harakat darsliklarning dizayniga o‘quvchilarni mazmunni chuqurroq o‘rganishga jalb qilishga qaratilgan muhokama savollari va topshiriqlari kabi ko‘proq interfaol elementlarni o‘z ichiga olgan holda ta’sir ko‘rsatdi.

Urushdan keyingi innovatsiyalar va inklyuziyaga esa ikkinchi Jahon Urushidan beri darsliklar vizual va o‘quv dizaynida sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Ranglar, grafikalar va turli xil hikoya ovozlari kabi elementlarni birlashtirib, turli xil ta’lim uslublarini qondirish va kengroq nuqtai nazarni aks ettirish uchun [1]. Bu davr, shuningdek, ta’limdagi xilma-xillikni tan olishga qaratilgan jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos ravishda multikulturalizm va inklyuziyaga bag‘ishlangan darsliklar paydo bo‘ldi.

Raqamli asrga o‘tish multimedia integratsiyasi va interaktiv imkoniyatlar orqali dinamik tarkibni taklif qiluvchi elektron darsliklar va onlayn o‘quv platformalarini joriy qildi. Ushbu evolyutsiya ishtirok etishning yangi shakllarini, moslashuvchan o‘rganishni va an’anaviy darslikdan tashqari boy resurslarga kirishni osonlashtirdi. Biroq, bu siljish, shuningdek, raqamli bo‘linish va ekranda va qog‘ozda o‘qish o‘rtasidagi kognitiv farqlar haqida munozaralarni keltirib chiqardi [2].

Ta’lim nazariyalari darslik dizayniga chuqur ta’sir ko‘rsatdi, konstruktivistik yondashuvlar izlanish va bilimlarni qurishni qo‘llab-quvvatlaydigan darsliklarni targ‘ib qiladi va kognitiv yuk nazariyasi tushunish va xotiraga yordam berish uchun dizayn qarorlariga ta’sir ko‘rsatdi.

So‘nggi tendentsiyalar va kelajak yo‘nalishlariga nazar tashlasak zamonaviy adabiyotlar ta’lim mazmunini talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirish uchun sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalardan foydalangan holda darslik dizaynini moslashtirish va shaxsiylashtirish tendentsiyasiga ishora qiladi. Ochiq ta’lim resurslarining (OER) o‘sishi ham muhim rivojlanish bo‘lib, bepul va mavjud o‘quv materiallarini taklif qiladi va an’anaviy darslik modellarini qiyinlashtiradi.

Darslik dizayni va ta’lim muassasalarida foydalanish tarixi va evolyutsiyasi texnologik innovatsiyalar, ta’lim nazariyasi va ijtimoiy-madaniy tendentsiyalar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sirni ochib beradi. Oldinga borar ekanmiz, texnologik yutuqlarni pedagogik samaradorlik bilan muvozanatlash, bosma yoki raqamli shaklda bo‘lgan darsliklar ta’lim jarayonida qimmatli manba sifatida xizmat qilishda

davom etishini ta’minlash muammosi qolmoqda.

O‘quv materiallari manzarasi tez o‘zgarmoqda, raqamli va interaktiv darsliklar bu o‘zgarishlarning boshida turibdi. Ushbu texnologiyalar o‘rganish tajribasini yanada qiziqarli, shaxsiylashtirilgan va immersiv qilish orqali boyitishga va’da beradi. Ushbu adabiyot sharhi raqamli va interfaol darsliklardagi mavjud tendentsiyalarni, jumladan, kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) ilovalarining integratsiyasini o‘rganib, ularning ta’lim amaliyotini inqilob qilish potentsialini ta’kidlaydi.

Raqamli darsliklar tobora keng tarqalgan bo‘lib, an’anaviy bosma matnlardan ustun bo‘lgan funksionallikni taklif qiladi. Bularga tashqi manbalarga giperhavolalar, tushunishni kuchaytirish uchun o‘rnatilgan multimedia va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etuvchi interaktiv baholashlar kiradi. Raqamli darsliklarning moslashuvchanligi o‘quvchilarning eng dolzarb ma’lumotlarga kirishini ta’minlab, tarkibni yangilashni osonlashtiradi. Bundan tashqari, raqamli platformalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun tarkibni sozlash imkonini berish orqali tabaqalashtirilgan o‘rganishni osonlashtiradi.

Darsliklardagi kengaytirilgan haqiqat (AR) AR-mos keluvchi qurilmalar orqali kirish mumkin bo‘lgan jismoniy matn ustiga raqamli ma’lumotlar, jumladan, tasvirlar, videolar va 3D modellar qatlamini taqdim etadi. Jismoniy va raqamli tarkibning bu kombinatsiyasi o‘quvchilarga bilimlarni kontekstlashtiruvchi interfaol, multimodal tajribalar bilan ta’minlash orqali ishtirokni yaxshilaydi va tushunishga yordam beradi. Darsliklardagi AR ilovalari mavhum tushunchalarni aniq va tushunarli qilish orqali motivatsiyani oshiradi va o‘quv natijalarini yaxshilaydi.

Virtual haqiqat (VR) talabalarni to‘liq raqamli muhitga cho‘mdirish orqali interaktivlikni ta’minlashda yanada oldinga boradi. Darsliklardagi VR ilovalari talabalarni tarixiy joylarga, uzoq sayyoralarga yoki mikroskopik olamlarga olib borishi mumkin, bu esa imkonsiz bo‘lgan o‘rganish tajribasini taklif qiladi. Ushbu immersiv texnologiya faol o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi va murakkab mavzularni tushunish va saqlashni sezilarli darajada yaxshilaydi. Biroq, ta’lim muassasalarida VRni qabul qilish yuqori xarajatlar va maxsus jihozlarga bo‘lgan ehtiyoj kabi to‘siqlarni bartaraf etishga bog‘liq.

Raqamli va interaktiv darsliklarning istiqbolli imkoniyatlariga qaramay, ularni amaliyotga tatbiq etish muammolardan holi emas. Raqamli tenglik va kirish muammolari muhimligicha qolmoqda, qurilma mavjudligi va internetga kirishdagi farqlar talabalarning ushbu resurslardan foydalanish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, ta’limda AR va VR ilovalarining samaradorligi o‘ylangan pedagogik integratsiyaga bog‘liq bo‘lib, bu texnologiyalar an’anaviy o‘qitish usullarini almashtirish emas, balki to‘ldirishni ta’minlaydi.

Raqamli va interaktiv darsliklarning joriy tendentsiyalari, ayniqsa AR va VR ilovalarining integratsiyasi orqali ta’limni yaxshilash uchun ajoyib istiqbollarni taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladigan va chuqurroq tushunishga yordam beradigan immersiv, shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini taqdim etishi mumkin. Biroq ularning o‘quv dasturlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi texnologik va pedagogik muammolarni hal qilishni, ushbu

dinamik sohada doimiy izlanishlar va ishlanmalar zarurligini ko‘rsatishni talab qiladi.

Darsliklarning isbotlangan usullariga sho‘ng‘igan ko‘plab ilmiy adabiyotlar va keng qamrovli tadqiqotlarni ko‘rib chiqish, ularning qo‘llanilishi va ta’lim yutuqlariga keyingi ta’sirini tahlil qilishga Muhandislik grafikasi fanidan o‘quv qo‘llanma bo‘lib , barcha ixtisosliklarning bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan. U bo‘lajak muhandislarni chizmalarni tayyorlash, o‘qish va chop etish ko‘nikmalari bilan qurollantirish maqsadida texnik chizmachilikning nazariy va amaliy asoslarini, jumladan proyeksiya va texnik eskizni qamrab oladi. Tarkib mualliflarning katta uslubiy tajribasi bilan boyitilgan an’anaviy geometrik chizmachilik va muhandislik grafikasi dasturlariga asoslangan. Bu yangi avlod darsliklari tendentsiyalariga mos keladi, amaliy qo‘llashga urg‘u beradi va fundamental bilimlarni ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan integratsiya qiladi, garchi unda tobora dolzarb bo‘lib borayotgan raqamli yoki interaktiv elementlardan, masalan, kengaytirilgan yoki virtual haqiqatdan foydalanish haqida aniq aytilmagan. o‘quv materiallari[3].

Bu hujjatlashtirilgan strategiyalarni sinchkovlik bilan tahlil qilishni va ularning ta’limni rag‘batlantirishdagi samaradorligini, shuningdek, ushbu yondashuvlar o‘quvchilar faoliyatini va fanlar bo‘yicha tushunishni yaxshilashda “Kompyuter grafikasi” darsligi talabalarga zamonaviy kompyuter muharrirlari va dasturiy paketlar, xususan SolidWorks haqida har tomonlama tushuncha berishga qaratilgan texnik ta’lim o‘quv dasturiga SAPR tizimlarini chuqur integratsiyalashga qaratilgan. Kimyoviy va oziq-ovqat jarayonlarini loyihalash va avtomatlashtirilgan uskunalarning kompyuter modellarini yaratishning nazariy asoslari va amaliy ko‘nikmalariga urg‘u beradi. Ushbu yondashuv ilg‘or tajriba va yangi avlod darsliklarining kelajakdagi ishlanmalarini aks ettiradi, qat’iy o‘quv mazmunini amaliy ilovalar bilan uyg‘unlashtiradi, talabalarni kelajak kasbining texnologik talablariga tayyorlaydi[4].

Chizma geometriya va muhandislik grafikasining nazariy va amaliy asoslariga yo‘naltirilgan “Kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun chizma geometriya va muhandislik grafikasi” nomli o‘quv qo‘llanma .U talabalarni muhandislik jarayonlarida mashina mexanizmlari va ularning tarkibiy qismlarini loyihalash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar bilan to‘liq qurollantirishga qaratilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanma nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash bilan uzviy bog‘lash, mustaqil bilim olishga rag‘batlantirish va zamonaviy ta’lim metodikalaridan foydalanish orqali yangi avlod darsliklarining yangi yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan. Biroq, matnda so‘nggi o‘quv materiallarini rivojlantirish istiqbollarining asosiy jihatlari bo‘lgan raqamli texnologiyalar yoki interaktiv elementlardan foydalanish to‘g‘risida aniq aytilmagan[5].

Muallif sifatida men yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish va joriy etishdagi muammolarni, raqamli texnologiyalar integratsiyasini asosiy masala sifatida ta’kidlagan bo‘lardim. Bunga infratuzilmaga katta sarmoya kiritish, o‘qituvchilarning ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishi uchun malaka oshirish, qiziqarli va pedagogik jihatdan asosli kontent yaratish zarur. Bundan tashqari, mavjudlik va tenglikni ta’minlash katta qiyinchilik tug‘diradi, chunki

talabalar raqamli darsliklar uchun zarur bo‘lgan texnologiyadan teng foydalanishlari kerak. Bundan tashqari, texnologik o‘zgarishlarning jadal sur’ati tarkib va usullarni doimiy ravishda yangilashni talab qiladi, bu resurslarni ishlab chiqish va saqlashni qiyinlashtiradi. Va nihoyat, innovatsion raqamli xususiyatlarni kognitiv yuk bilan muvozanatlash muammosi bor, bu o‘rganishga to‘sqinlik qilmasdan, texnologiyani yaxshilashni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Billinghurst, Kato, & Poupyrev, 2001 MagicBook: Transitioning between Reality and Virtuality

2.Di Serio, Ibáñez, & Kloos, 2013Trends in Educational Augmented Reality Studies: A Systematic Review

3. Dadaboyeva D.I. Muhandislik grafikasi, darslik, Toshkent-2022, 280 bet.

4.B.Sh. Usmonov, D.I. Dadaboyeva, A.N. Shernayev, Kompyuter grafikasi (cad tizimi) fanidan o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2023 y, 303 bet.

5. B.Sh. Usmonov, D.I. Dadaboyeva, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2022 y, 158 bet.

BIOLOGIYA DARSLIKLARIDA UCHRAYDIGAN XATOLIKLAR

Abdurasulov Akbar Shavkat o‘g‘li, Bazarova Ruzigul Shakarovna, Qahhorova Nilufar O‘ktam qizi

GulDPI “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi. GulDU katta o‘qituvchisi. GulDPI “Biologiya” yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab biologiya darsliklarida uchraydigan xato kamchiliklar va bu xatoliklarni bartaraf etish choralari ko‘rsatilgan. Maqolada bugungi biologiya darsliklarini o‘quvchilar bilim saviyasiga ta’siri yoritilgan.

Abstract: In this article shortcomings and errors encountered in biology textbooks used in schools are discussed, along with strategies for addressing and rectifying these mistakes. The article highlights the impact of current biology textbooks on students’ academic proficiency.

Аннотация: В данной статье рассматриваются недостатки и ошибки, которые возникают в учебниках по биологии, используемых в школах, а также предлагаются стратегии по их устранению. В статье подчеркивается влияние современных учебников по биологии на академическую компетентность студентов.

Kalitlar so‘zlar: genetika, jins, krossingover, geterogameta, xramasoma, ontogenez.

Key words: genetics, sex, crossover, heterogamete, chromosome, ontogenesis

Ключевые слова: генетика, пол, кроссинговер, гетерогамета, хромосома, онтогенез

Davlatimizning asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan umumta’lim maktablari uchun yaratilayotgan darsliklari, barkamol avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashga yetaklaydi. O‘quvchilarimizning mukammal bilim olishi uchun xato va kamchiliklardan holi bo‘lgan, sifatli fan darsliklar ishlab chiqilgan. Fan va texnikaning rivojlanishi hisobiga bugungi kunda har sohada ildam natijalarga olib kelmoqda, shunga binoan Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5-apreldagi 281-sonli “Umumta’lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish” to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab tajriba tariqasida har bir sinf kesimi asosida yangi darsliklar ishlab chiqildi va Respublikamizning barcha maktablariga tarqatildi [1].

Ushbu yangi darsliklar o‘zining sifati, darslik tarkibida mustaqil bajarish uchun topshiriq borligi, testlarga javob yozish va javobini tekshirish imkoniyatiga ega ekanligi, laboratoriya mashg‘ulotiga boyligi, amaliy mashg‘ulotlar o‘rin olganligini alohida takidlash lozim. Biroq bu darsliklarni barchasi sinov tariqsida ishlab chiqilganligini inobatga olishimiz ham zarur. Chunki, darsliklar qisqa muddat ichida yaratildi va nashr etildi. Natijada darsliklarda xato va kamchiliklar dars jarayonida ko‘zga tashlana boshladi.

Bunday kamchiliklardan bir qanchasini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Masalan, 9-sinf Biologiya darsligidagi 50-§. Di-poliduragay chatishtirish. Mendelning uchinchi qonuni mavzudagi 50- no‘xat o‘simligida don rangi va shaklining ifodalanishi deb nomlangan rasmda xatolikni ko‘rishimiz mumkin. Rasmda aks ettirilgan birinchi bo‘g‘in (F_1) da hosil bo‘lgan sariq silliq no‘xat o‘simliklarini o‘zaro chatishtirilishi natijasida hosil bo‘lgan ikkinchi bo‘g‘inda (F_2)

da Pennet katagini to‘ldirishda xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Natijada ikkinchi bo‘g‘inda (F_2) da genotipik nisbatda ham xatolik yuzga kelgan [2].

Diduragay chatishtirishda F_2 bo‘g‘inda fenotip jihatdan nisbat 9:3:3:1, genotip jihatdan nisbat 1:2:2:4:1:2:1:2:1 bo‘ladi.



Aslida genotipik nisbat yozilishi va Pennet katagi mana bunday holatda to‘ldirilishi kerak edi.

Diduragay chatishtirishda F_2 bo‘g‘inda fenotip jihatdan nisbat 9:3:3:1, genotip jihatdan nisbat **1:2:1:2:4:2:1:2:1** bo‘ladi.



Genetikadan uzoqlashmagan holda 10-sinf Biologiya darsligining 19-§. Irsiyatning xromosoma nazariyasi mavzusida 47-rasm. Chala birikishga oid aks ettirilgan rasm ko‘rinishidagi jadvalda ham xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Mavzuning nazariy qismida: “Agar urg‘ochi digeterozigota pashshani tahliliy duragaylash usulida tekshirsak, avvalgi tajribaga nisbatan boshqacharoq natijani kuzatamiz. Bunda 4 xil variantda belgilarga ega bo‘lgan avlod hosil bo‘ladi. Lekin G. Mendel tajribalarida kuzatilgan 1:1:1:1 nisbatdan farq qilib, ota-onalarinikiga o‘xshagan belgilar ko‘proq (kulrang tanali, uzun qanotli - 41,5%, qora tanali, kalta qanotli - 41,5%), yangi hosil bo‘lgan belgilar esa ancha kam (kulrang tanali, kalta qanotli - 8,5%, qora tanali, normal qanotli - 8,5%) uchraydi. Genlar birikishining bu xili chala birikish deb ataladi”, deb ifodalangan [3].

Agar urg‘ochi digeterozigota pash-
shani tahliliy duragaylash usulida tekshirsak, avvalgi tajribaga nisbatan boshqacharoq natijani kuzatamiz. Bunda 4 xil variantda belgilarga ega bo‘lgan avlod hosil bo‘ladi. Lekin G. Mendel tajribalarida kuzatilgan 1:1:1:1 nisbatdan farq qilib, ota-onalarinikiga o‘xshagan belgilar ko‘proq (kulrang tanali, uzun qanotli – 41,5%, qora tanali, kalta qanotli – 41,5%), yangi hosil bo‘lgan belgilar esa ancha kam (kulrang tanali, kalta qanotli – 8,5%, qora tanali, normal qanotli – 8,5%) uchraydi. Genlar birikishining bu xili **chala birikish** deb ataladi (47-rasm).

Lekin jadval quyidagicha:



47-rasm. Chala birikish.

Jadvaldagi kamchilikni bartaraf etgan holda, quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq bo‘ladi [4].



47-rasm. Chala birikish.

Yana xatoliklarga murojat etsak 10-sinf Biologiya darsligining 20-§. Jins genetikasi mavzusida ko‘zga tashlanadi. Ushbu mavzuda “Hayvonlarda jinsiy xromosomalarning o‘zaro nisbati” aks ettirilgan jadvalda qo‘llanilgan belgilar, organizmlar uchun moslanmagan va mavzuning nazariy qismida yozilgan jumlalarga mos kelmagan. Aksincha xatolikni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Mavzuning nazariy qismida: “Ba’zi organizmlarda geterogametalilik bir jinsiy xromosomani yo‘qolishi bilan aloqador. Shunga ko‘ra gomogametali organizm XX, geterogametali organizm XO bo‘ladi. Qandalalar va ninachilarning urg‘ochi organizmda XX, erkagida XO, kuyakapalagida esa aksincha urg‘ochilarida XO, erkaklarida XX jinsiy xromosomalar mavjud. Shunga ko‘ra qandala erkagida 13 ta xromosoma, urg‘ochisida 14 ta xromosoma bo‘ladi. Undan 12 tasi autosoma xromosomalari hisoblanadi” deb yozilgan. Lekin jadvalda aks ettirilgan organizmlar va ularga qo‘llanilgan belgilar butunlay teskari mazmunni keltirib chiqargan.

Mavzu nazariy tushunchasiga ko’ra:

Ba’zi organizmlarda geterogametalilik bir jinsiy xromosomani yo‘qolishi bilan aloqador. Shunga ko‘ra gomogametali organizm XX, geterogametali organizm XO bo‘ladi. Qandalalar va ninachilarning urg‘ochi organizmda XX, erkagida XO, kuyakapalagida esa aksincha urg‘ochilarida XO, erkaklarida XX jinsiy xromosomalar mavjud. Shunga ko‘ra qandala erkagida 13 ta xromosoma, urg‘ochisida 14 ta xromosoma bo‘ladi. Undan 12 tasi autosoma xromosomalari hisoblanadi.

Lekin jadvalda aks ettirilgan organizmlar va ularga qo‘llanilgan belgilar butunlay teskari mazmunni keltirib chiqargan.

Hayvonlarda jinsiy xromosomalarning o‘zaro nisbati

Organizm-lar	Geteroga-metali jins	Sperma-tozoid	Tuxum hujayra	Zigotalar	
Odam, drozofila va boshqalar	Erkak	X va Y	X va X	XX ♀	XY ♂
Qandala (protenor)	Urg‘ochi	X va X	X va O	XO ♀	XX ♂
Chigirtka	Erkak	X va O	X va X	XX ♀	XO ♂
Qushlar, kapalaklar	Urg‘ochi	Z va Z	Z va W	ZW ♀	ZZ ♂

Hayvonlarda jinsiy xromosomalarning o‘zaro nisbati jadvalidagi kamchiliklarni ko‘rib turibsiz. Bu jadvalga tegishlicha o‘zgartirilishlar kiritilishi kerak.

Hayvonlarda jinsiy xromosomalarning o‘zaro nisbati

Organizm-lar	Geteroga-metali jins	Sperma-tozoid	Tuxum hujayra	Zigotalar	
Odam, drozofila va boshqalar	Erkak	X va Y	X va X	XX ♀	XY ♂
Qandala (protenor)	Erkak	X va O	X va X	XX ♀	XO ♂
Chigirtka	Erkak	X va O	X va X	XX ♀	XO ♂
Qushlar, kapalaklar	Urg‘ochi	Z va Z	Z va W	ZW ♀	ZZ ♂

Yoki yanada mukammal bo‘lishi uchun quyidagicha jadval qilinishi kerak.

Hayvonlarda jinsiy xromosomalarning o‘zaro nisbati

Organizm-lar	Geteroga-metali jins	Sperma-tozoid	Tuxum hujayra	Zigotalar	
Odam, drozofila va boshqalar	Erkak	X va Y	X va X	XX ♀	XY ♂
Kuyakapalagi	Urg‘ochi	X va X	X va O	XO ♀	XX ♂
Qandala (protenor) Chigirtka **Ninachi**	Erkak	X va O	X va X	XX ♀	XO ♂
Qushlar, kapalaklar	Urg‘ochi	Z va Z	Z va W	ZW ♀	ZZ ♂

Shunga o‘xshash darsliklarning matnlari, jadvallari, topshiriqlari javobida xato va kamchiliklar uchrab turmoqda. Bu esa o‘quvchilar o‘rtasida kitobda bunday yozilganku? O‘qituvchimiz nega bunday deyapti? O‘qituvchimizni o‘zi ham mavzuni bilmas ekan degan e’tirozlarga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, darsliklar akademiklar tilida emas, o‘quvchi tushunarli tilda yozilishi kerak. Maktablarimiz uchun taqdim etilayotgan darsliklar sifatli. Biroq, xato va kamchiliklardan holi emas. Har bir darslik bosmadan chiqarilishidan oldin, ekspert guruhi tomonidan darslikdagi xatolar va kamchiliklar to‘g‘irlanib bartaraf etilishi kerak. Bu faqat ekspert guruhlarini muammosi bo‘lmasdan, Respublika bo‘yicha mutaxasislar fikri ham inobatga olinishini talab etiladi. Chunki, mutaxasis pedagoglargina dars jarayoni ichida bevosita ishtirok etadi va muammolarga birinchilardan bo‘lib duch keladi. Har tamonlama sifatli darslik yarata olsakgina, ertangi kunimiz hisoblangan o‘quvchi yoshlarimiz biz kutgan ulkan marralarni qo‘lga kirita oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 apreldagi 281-sonli “Umumta’lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish” to‘g‘risidagi qarori
2. A. Zikiryayev, A. To‘xtayev, I. Azimov, N. Sonin 9-sinf Biologiya 5-nashr Toshkent 2019, 139 b.
3. A. G‘afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O. Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova 10-sinf Biologiya 1-nashr Toshkent 2017, 89-93 b.
4. A. Abdukarimov, A. G‘ofurov, K. Nishonboyev, J. Hamidov, B. Toshmuhammedov, O. Eshonqulov Biologiya Akademik litsey va Kasb-hunar kollejlari uchun darslik Toshkent 2014, 24 b.

USTRUSHONA VA UNING TARKIBIGA KIRGAN HUDUDLARNING MINTAQA TARIXIDA TUTGAN O‘RNI (miloddan avvalgi I mingyilliklar va ilk o‘rta asrlar)

O.Begiyev

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi va antik davrdayoq Ustrushonada Nurtepa, Xontepa, Sag‘anaktepa kabi aholi mavzelari shakllanganligi, O‘rta Osiyoning barcha qadimiy vohalari, karvonsaroylar faoliyati, VII asrda Arabiston yarimoroli haqida so‘z yuritilgan.

Abstract. This article talks about the formation of settlements such as Nurtepa, Khontepa, Saganaktepa in Ustrushona in the ancient and ancient times, all the ancient oases of Central Asia, the activity of caravanserais, the Arabian Peninsula in the 7th century.

Аннотация. В данной статье рассказывается об образовании таких поселений, как Нуртепа, Хонтепа, Саганактепа в Уструшоне в древности и глубокой древности, всех древних оазисах Средней Азии, деятельности караван-сараев, Аравийского полуострова в VII веке.

Kalit so‘zlar. Ustrushona, qadimgi va antik davr, Nurtepa, Xontepa, Sag‘anaktepa, O‘rta Osiyo, Dizak, Sabot, Zomin

Key words. Ustrushona, ancient and ancient times, Nurtepa, Khontepa, Saganaktepa, Central Asia, Dizak, Sabot, Zomin

Ключевые слова. Уструшона, древние и древние времена, Нуртепа, Хонтепа, Саганактепа, Средняя Азия, Дизак, Сабо, Зомин

Mustaqiligimizga erishganimizdan so‘ng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holicha o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Sobiq sovet davrida tariximizga haqqoniylik bilan yondashilmadi sovet tizimiga mos qilib o‘zbek fuqarolariga o‘rgatilgan bo‘lsada, ota – bobolarimiz o‘zligini, o‘z tarixini unutmasdan bizgacha qoldirishga harakat qildilar. Zero tarix bugun va kelajakning ko‘zgusi. Mustaqil hayotimizda buyuk maqsadlar sari intilishimiz uchun sharoyitlarning yaratilganligi hamda buyuk kelajak uchun madaniy – ma’naviy merosga ega bo‘lishimiz darkor.

Bugungi kunda ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tarix ilmini o‘rganishga xalqimizning moddiy va ma’naviy merosini boyitishga qaratilgan sayi harakatlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2021-yil 19-yanvar kuni «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish” ga bag‘ishlangan videoselektorda “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur….” degan edi. Mana shu haqiqatdan kelib chiqib tarixiy davrda yashab o‘tgan ajdodlarimizdan qolgan manbalarni atroflicha o‘rganib kelajak avlodga yetkazishdir. Shuningdek davlatimizning har bir go‘shasi ming yillik tarixga ega ekanligini hisobga olgan holda tarixiy mintaqalarni to‘liq va batavsil yoritish hamdir. Mustaqillikdan so‘ng olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar natijasida yurtimizning dunyo sivilizatsiyasidagi o‘rni mustahkamlanib bormoqda. Biz alohida to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lganimiz Ustrushona va uning tarkibiga kirgan hududlarning

Vatanimiz tarixida tutgan ulkan o‘rnini yoritish. Ayni biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan XVI-XIX asrlarda xonliklar o‘rtasidagi munosabatlarning tarangligi, bu munosabatlarda Zomin, Jizzax, Xovos, Mirzacho‘l, O‘ratepa, Xo‘jand kabi tarixiy o‘lkalarning o‘rnini o‘rganishdir. Mil. avv. I ming yillikning o‘rtalariga kelib Ustrushona[50] va Shosh (Toshkent vohasi)da ham urbanizatsiya jarayoni boshlanib, shaharlar paydo bo‘la boshlaydi[1]. Sivilizatsiya jarayonining keyingi bosqichi mil. I ming yillik o‘rtalarida Buyuk ipak yo‘lining shimoliy yo‘nalishi rivojiga bog‘liq holda Ettisuvda va Janubiy Qozog‘iston hududida ham boshlandi[51]. Umuman olganda O‘rta Osiyoda urbanizatsiya va shaharsozlik madaniyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi qadimgi aloqa yo‘llarining bu hududlarga kirib kelishi va rivojiga mos ravishda bordi. Qadimgi va antik davrdayoq Ustrushonada Nurtepa, Xontepa, Sag‘anaktepa kabi 20 dan ortiq aholi mavzelari shakllanganligi aniqlangan[52]. Bu esa miloddan avvalgi I ming yillikning oxiri va milodiy IV asrlarda Shimoliy Ustrushonada aholi zich yashaganidan dalolat beradi. Ushbu mavzelar yashash uchun qulay bo‘lgan hududlarda shakllangan bo‘lib, ularning deyarlik barchasi dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan daryolarning quyi va o‘rta oqimida joylashgan. Ilk o‘rta asrlarda nafaqat Ustrushona balki O‘rta Osiyoning barcha qadimiy vohalarida hayot faollashganligi kuzatilgan. Tekislik va tog‘ oldi hududlarda aholining ko‘payib borishi Ustrushonani kesib o‘tgan qadimgi tranzit karvon savdo yo‘llarining jonlanishiga, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishiga olib keldi. Yozma manbalarda Shimoliy Ustrushonada IX-XIII asrlarda ko‘plab karvonsaroylar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Zomin va Dizakda joylashganlish haqida ma’lumot berilgan. Arablar bosqini davrida Shimoliy Ustrushonaning Dizak, Sabot, Zomin kabi shaharlari buzib tashlangan, ular xarobazorlarga aylantirilganligi tufayli, aholi boshqa hududlarga ko‘chgan. Keyinchalik ushbu aholi yashash joylarida ark, shahristonlar paydo bo‘lib, yangi shaharlar shakllanganligi ko‘hna tarixdan ma’lum.

Sabat Zominga yaqin aholi punkti bo‘lib, So‘g‘ddan Xo‘jand va Farg‘onaga va undan Xitoyga o‘tib ketadigan katta tranzit savdo yo‘lida joylashgan yirik mavze bo‘lgan.

VII asrda Arabiston yarimorolida Islom bayrog‘i ostida arab qabilalari yagona davlatga birlashdilar. Arablar qo‘shni hududlarga yurishlar olib bordi. Ular Movarounnahr va Xuroson hududlariga ham o‘z yurishlarini amalga oshirdilar. Arab qo‘shinlari 713-yilda Ustrushona, Choch va Farg‘ona vodiysi tomon yurish boshlaydi. 713-yilda Ustrushona hududlari, jumladan, Jizzax, Xo‘jand, Choch viloyati, so‘ngra Farg‘ona vodiysi, arablar tomonidan ishg‘ol qilinadi. Jizzaxdagi

[50] Ustrushana **atamasi** yozma manbalarda ilk **O‘rta as**rlardan boshlab qo‘llanila **boshlayd**i. O‘rta Osiyoning bu muhim tarixiy-madanin viloyati Turkiston tog‘ tizmalarining shimolidagi hududlarni - Xo‘janddan Jizzaxgacha va Xisor tog‘ tizmalarigacha bo‘lgan joylarni o‘z ichiga olgan. Bu tarixiy viloyatdagi urbanizatsiya jarayonlari haqida qarang: Negmatov N.N. Tadjikistan na puti s urbanizatsii. // Kultura pervobытnoy epoxi Tadjikistana. -Dushanbe., 1982.; Belyaeva T.B. K istoricheskoy topografii gorodov Ustrushanы //Drevnyaya i srednevekovaya arxeologiya Sredney Azii. -Tashkent., 1990. S.82-83.; Gritsina A.A. Arxeologicheskie pamyatniki Sырdarыnskoy oblasti. -Tashkent.:Fan, 1992. Ustrushana Fergana, Tashkentskiy oazis. //Drevneyshie gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. -M.: Nauka, 1985. S.200.

[51] Po Velikomu Shelkovomu puti. -Alma-Ata., 1991. S.8.

[52] Buryakov Yu.F., Gritsina A.A. Maverannaxr na Velikom, shelkovom puti / Otv. red. K.I.Tashbaeva. Samarkand, Bishkek. 2006. S. 92.

zardushtiylik dini - otashparastlar sig‘ingan toshsanamlar va muqaddas joylar yo‘q qilinadi. Arab xalifaligi, eng avvalo, o‘lka hukmdorlari oldiga Islom dinini qabul qilishini shart qilib qo‘yadilar. Arablar Ustrushona xalqiga Islom dinini singdirishga erishdilar. Bu Ustrushona hokimi - afshin Haydar ibn Kovus davrida to‘liq amalga oshirildi. Xalifa Horun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun xalifaligi davrida (813-833 yillar) Haydar ibn Kovus Bag‘dodga xalifa saroyiga taklif qilinadi va unga katta shohona siylovlar qilinadi. Haydarga xalifaning farmoyishi bilan Islom lashkarboshilari qatoridan o‘rin beriladi. Shundan so‘ng Haydar ibn Kovus uchun shuhrat va qayg‘ularga to‘la suronli yillar boshlanadi. Bu paytda Ustrushonada Haydarning o‘g‘li Hasan noib-hokim etib ta yinlangan edi. Haydar ibn Kovus 831-yilda Vizantiya bilan bo‘layotgan urushda hamda Misrdagi qo‘zg‘olonlarni bostirishda eng nufuzli lashkarboshilardan biriga aylanadi. 806-yili xalifalikka qarshi Rofe ibn Lays boshchiligida qo‘zg‘olon yuz berdi. Bu paytda Marvda, Ma’mun saroyida xizmatda bo‘lgan Asad ibn Somonxudotning o‘g‘illari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos qo‘zg‘olonning bostirilishida yordam beradi. Buning evaziga Ma’mun ularni Movarounnahrning bir necha viloyatlariga amir etib tayinlaydi. Nuh - Samarqand amiri, Ahmad - Farg‘ona amiri, Yahyo - Ustrushona va Shosh amiri, Ilyos esa Hirot amiri etib tayinlanadi. Keyinchalik IX asrning ikkinchi yarmidan butun Movarounnahrda hokimiyat Somoniylar qo‘l ostiga o‘tadi. Bu davrda Sangzor vodiysi, Jizzax va butun Ustrushona Somoniylar davlati tasarrufida bo‘ladi. XIII asr boshlarida Mo‘g‘uliston hududida Chingizxon boshchiligidagi yangi tuzilgan davlat o‘z hududini g‘arbga tomon kengaytirmoqda edi. 1219-1221-yillarda mo‘g‘ullar Xorazmshohlar davlatini ham o‘z tatkibiga qo‘shib oladilar. 1219-yil Chingizxon qo‘shini Movarounnahrga bostirib kirib, birin-ketin shaharlarni zabt eta boshladi. Chingizxon o‘z qo‘shinini O‘trorda to‘rt qismga bo‘lib, o‘zi boshchiligidagi asosiy qo‘shin bilan Jizzax, Samarqand va Buxoro tomon yurish qildi. Jizzax Buxoro-O‘tror yo‘lidagi muhim mudofaa shaharlaridan biri edi. Shuning uchun ham Chingizxon Jizzaxni bosib olishga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘radi. Chingizxon qo‘shinlari Buyuk Ipak yo‘lidan o‘rin olgan Zomin, Xudoyjir, Hasan, Ravot qal’a-qo‘rg‘onlariga hujum boshlab, bosib oladi. Tursunqul Turdiqulovning “Xovos - ko‘hna diyor” nomli kitobida va mahalliy tarixchilar Pirimqul Do‘stmatov, Xudoyqul Karimovlarning matbuot sahifalarida chop qilingan maqolalarida O‘ratepa, Xovos, Zomin, Jizzax aholisining bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari haqida tarixiy ma’lumotlar bayon qilinadi. Mamlakatimiz hududida mo‘gullar istilosidan keyin siyosiy jarayonlar bir muncha izdan chiqqan bo‘lsada ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishda davom etdi. Hududlarning ma’daniy aloqalari va savdo-sotiq rivojlanishda davom etdi. Bugungi kunda yoshlarimizga tarixiy ma’lumotlarni to‘gri yetkazib berishda Raqamli ta’limdan foydalanish,fanlararo integratsiyani qo‘llash alohida e’tibor qaratish lozim. Fanlararo integratsiyani qo‘llashda ta’lim samaradorligiga erishish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish muhum ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Негматов Н.Н. Таджикистан на пути с урбанизации. // Культура первобытной эпохи Таджикистана. -Душанбе., 1982.

2. Беляева Т.В. К исторической топографии городов Уструшаны //Древняя и средневековая археология Средней Азии. -Ташкент., 1990. С.82-83.
3. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарынской области. -Ташкент.:Фан, 1992.
4. Грицина А.А. Уструшана Фергана, Ташкентский оазис. //Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. -М.: Наука, 1985. С.200.
5. Буряков Ю.Ф. По Великому Шелковому пути. -Алма-Ата., 1991. С.8.
6. Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Мавераннахр на Великом, шелковом пути / Отв. ред. К.И.Ташбаева. Самарканд, Бишкек. 2006. С. 92.

USTRUSHONA MINTAQASINING BUXORO VA QO‘QON XONLIKLARINING MUNOSABATLARIDA TUTGAN O‘RNI

Xoliqulov Shohruh, Yuldashev Ulug‘bek
IIV Sirdaryo akademiy litseyi tarix fani o‘qituvchilari

Anatatsiya

O‘zbekiston Tarixida muhim o‘rin tutgan Ustrushona va uning tarkibiga kirgan hududlarning XVI-XIX asrlarda Buxoro va Qoqon xonliklar munosabatlariga ta’siri hususida to‘xtalib o‘tilgan. Mintaqaning XVI-XIX asrlardagi tarixi va unda kechgan sivilizatsion jarayonlar haqida so‘z boradi. Hududda kechgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar o‘zaro bo‘g‘liqlikda yoritishga harakat qilindi. Ustrushonadagi xarbiy harakatlar, ularning sabablari va xarbiy yurishlarning borishini yoritilgan. XVI-XIX asrlarda hududlar o‘rtasidagi aloqalar rivojlanishi natijasida Ustrushona va uning tarkibiga kirgan: Xovos, Zomin, O‘ratepa,Xo‘jand, Jizzax kabi hududlar, Achchi,Peshog‘ar, Sovot,Istaravshan kabi qal’alarning ahamiyati alohida.

Kalit so‘zlar: Xovos, Zomin, O‘ratepa,Xo‘jand, Jizzax, XVI-XIX xonliklar munosabatlari, Karvansaroylar, Achchi,Peshog‘ar, Sovot,Istaravshan.

Anatisation

The influence of Ustrushona, which played an important role in the history of Uzbekistan, and the regions included in it on the relations between the Bukhara and Kakan khanates in the 16th-19th centuries was discussed. The history of the region in the 16th-19th centuries and the civilizational processes that took place in it are discussed. An attempt was made to shed light on the political and social processes that took place in the region. The military operations in Ustrushona, their reasons and the progress of the military campaigns are covered. In the 16th-19th centuries, as a result of the development of relations between the regions, Ustrushona and the regions included in it: Khovos, Zomin, Oratepa, Khojand, Jizzakh, and fortresses such as Achchi, Peshoghar, Sovot, and Istaravshan are of particular importance.

Key words: Khavos, Zomin, Oratepa, Khojand, Jizzakh, relations of the 16th-19th khanates, Caravanserai, Achchi, Peshoghar, Sovot, Istaravshan.

Анататция

Обсуждается влияние Уструшоны, сыгравшей важную роль в истории Узбекистана, и входящих в нее регионов на отношения Бухарского и Каканского ханств в XVI-XIX веках. Обсуждается история региона в XVI-XIX веках и происходившие в нем цивилизационные процессы. Была предпринята попытка пролить свет на политические и социальные процессы, происходившие в регионе. Освещены военные действия в Уструшоне, их причины и ход военных кампаний. В XVI-XIX веках в результате развития связей между областями Уструшона и входящие в нее регионы: Ховос, Зомин, Оратепа, Ходженд, Джизак, а также такие крепости, как Аччи, Пешогар, Совот, Истаравшан, становятся особое значение.

Ключевые слова: Хавос, Зомин, Оратепа, Ходжент, Джизак, отношения 16-19 ханств, Караван-сарай, Аччи, Пешогар, Совот, Истаравшан.

Mustaqiligimizga erishganimizdan so‘ng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holaticha o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Tarixni o‘rganish esa tarixiy

manbalarni tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tarixiy manbalarning katta qismini qo‘lyozma asarlar tashkil etib, ularning tadqiq etilishi yurtimiz tarixini haqqoniy aks ettirishga imkon beradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1998-yil 26-iyunda bir guruh tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda xalqning bebaho milliy boyligi hisoblangan minglab qo‘lyozmalarni ilmiy asosda o‘rganishga da’vat etib: “Hech qaysi bir xalq o‘tmishini o‘rganmay, o‘zining zamon va makondagi o‘rnini aniq belgilab olmasdan, nasl-nasabini, kimligini bilmasdan turib rivojlanishi mumkin emasligini ta’kidlaydi[53]”. Shuningdek, I.A Karimov ushbu uchrashuvda davlatchilik tarixini o‘rganish va qayta tiklash davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardan biri ekanligini quyidagicha bayon etgan edi: «Davlatchilik bugungi kunda o‘ta siyosiy masala bo‘lib turibdi. O‘zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasidir. Asosiy maqsad asoslangan tarixini yaratishdir»[54]. - degan edi. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev aytganlariday: “Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz”[55]. Chunonchi, buning uchun boy tariximiz guvohi, manbalarni chuqur o‘rganmog‘imiz lozim. Darhaqiqat, tarix ilmining rivojlanishi ko‘p jihatdan yozma manbalarning o‘rganilishi va ularning ilmiy muomalaga kiritilishi bilan bog‘liqdir. Yurtimiz davlatchiligining muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan xonliklar davrini o‘rganish ham hozirgi davr tadqiqotchilarining diqqati markazida turibdi. Bunga Qo‘qon xonligi tarixiga doir qilinayotgan ishlarni misol keltirsak bo‘ladi. Qo‘qon va Buxoro tarixnavislik maktabi namoyandalarining asarlari O‘rta Osiyo xonliklarida eng boy tarixiy asarlar turkumini tashkil qiladi. Bugungi kunda tarjima va tabdil qilingan Buxoro va Xiva tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlar (“Tarixi Abulfazyxon”, “Zafarnomayi Xusraviy”, “Buxoro Turkiston beshigi” va boshqa)dan Qo‘qon xonligi tarixchilari tomonidan yozilgan asarlardagi mavjud siyosiy voqealar va ular orasidagi munosabatlarga alohida to‘talib o‘tilgan.

Ma’lumki XVI asrda Buxoro xonligi mintaqadagi real kuch sifatida maydonga chiqdi. Xonlik hududiga Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Ustrishona, Xorazm, Balx, Badaxshon, Xuroson kabi hududlarni birlashtirgan ulkan davlat vujudga kelgan. XVI asr oxriga kelib shayboniylar hokimyati Abdullaxon II(1556-1598) vafotidan keyin boshlangan siyosiy inqirozdan keyin mamlakat tanazzulga yuz tutdi. Shayboniylar xonadoniga qarindosh bo‘lgan Astraxandan kelgan Jonibek va uning farzandlari Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammadlar yurt boshqaruvini o‘z qo‘liga oladilar. Ashtarxoniylar sulolasi davri shayboniylar davrida boshlangan parokandalikni bartaraf etish va mamlakat sarhadlariga bostirib kirgan Eron Safaviylari, ko‘chmanchi qozoqlar hujumini bartaraf etish bilan kechdi. Buxoro xoni Ubaydullaxon II (1702-1711) davrida Balx, Badaxshon, Farg‘ona va hatto Samarqand xonlikdan ajralib chiqdi. Jur’atsiz hudumdor Abulfayzxon (1711-1747) davrida Farg‘onaning mustaqilligi tan olinib Qo‘qon xoni Shohruhbiyga Otaliq unvoni berildi. Biz yuqorida to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lganimiz Ustrushona va uning tarkibiga kirgan hududlarning yosh Qo‘qon va Buxoro xonliklari o‘rtasida

[53] Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” T. 7. – Toshkent. O’zbekiston. 1999. b. 135.
[54] Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” T. 7. – Toshkent. O’zbekiston. . 1999. Б. 139.
[55] Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.: “O‘zbekiston”, 2017.4 b.

uzoq davom etgan nizolarga sabab bo‘ldi. XVIII asrda bu nizolar jiddiy tus oldi, chunki Buxoroda hokimyat o‘zbeklarning mang‘it urug‘iga o‘tganligi hokimyatni makazlashtirish siyosatini amalga oshirganligi bilan izohlanadi. Jizzax, Zomin, Xovos, O‘ratepa, Xo‘jand hududlari va ularning tarkibiga kirgan qal’a qo‘rg‘onlar birinchidan,asosiy savdo yo‘lida joylashganligi bilan izohlanadi. Chunki mintaqaga kim egalik qilsa Sirdaryo o‘rta havzasidan to Zarafshon vodiysigacha bo‘lgan hududlardagi savdoni nazorat qilar va undan tushadigan bojga ham egalik qilar edi. Ikkinchidan, ushbu hudud aholisi dehqonchilik va chorvachilikda mashg‘ulligi bilan harakterlanadi. Tarixan Ustrushona hududida dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi bilan bir qatorda chorvador aholi istiqomat qilgan. Bunga mintaqaning geografik tuzilishi dehqonchilikda ham, chorvachilikda ham faoliyat yuritish uchun qulayligidadir. Xonliklar xazinasiga keladigan asosiy daromad bu soliqlardan ekanligi hech kimga sir emas. Mang‘itlar sulolasi hukumdori Muhammad Rahimbiy hokimyatini tan olmagan Shaxrisabz urug‘ining 32 muhrdor qabila boshliqlarini hiyla bilan bir yerga to‘plab ularni o‘ldirtirgandan so‘ng asosiy etiborini Xo‘jand va O‘ratepaga qaratadi. “O‘sha paytda Ho‘qandda Erdonabiy valina’miy hukmronlik qilardi. O‘ratepada Fozilbiy valina’miy ibn Sodiqbiy ibn Sayyidbiy ibn Xushika otaliq ibn Qulika biy hukm yurgizardi”[56]. Bir narsaga alohida to‘xtalib o‘tish kerak O‘ratepa yurishida Erdonabiy va Muhammad Rahimbiylar birgalikda O‘ratepaga yurish qilishni rejalshtirishgan. Bundan ko‘rinadiki O‘ratepa ushbu davrda 1756-yilda na Buxoro amirligi, na Qo‘qon xonligiga bo‘ysunmagan. “Rahimxon o‘zining O‘ratepaga lashkar tortishidan burunroq Erdonabiy valina’mini o‘zining qiyomatlik farzandi atab, uni bu bo‘lajak yurish borasida ogohlantirgan edi. Shunga ko‘ra harbiy safardan oldin Erdonabiy oldiga bir chopar yuborib, yurishda hamkorlik qilish uchun taklif qildi. Erdonabiy Rahimxonning so‘zini qabul qilib, butun Farg‘ona lashkarini yig‘gancha Rahimxon sari oshiqdi”.[57]

Mazkur vaziyatda O‘ratepa hokimi Fozilbiy o‘ziga ittifoqchi sifatida Hisori Shodmon hokimi Muhammad Aminbiyni yordamga chaqiradi. Yordamga kelgan Muhammad Aminbiy O‘ratepa mudofasiga kirishadi. Bu orada Erdonabiy va Muhammad Rahimbiy Zomin (Samarqand-Xo‘jand yo‘lining o‘ng tomoni) mavzeyida bir-birlari bilan uchrashadilar. Ertasi kuni O‘ratepaga bir farsahlik yo‘lda qo‘nim topishadi. Tong otganda O‘ratepaning markaziy qal’asi Istaravshanni qamal qilishadi va qamal uzoq davom etadi. Muhammad Aminbiy hiyla ishlatib Buxoro va Qo‘qon qo‘shinini ortga qaytishini taminlaydi. Jang san’atida dushmanga qarshi qilingan eng maqbul yechim sifatida hiyla vosita bo‘lib xizmat qilgan, davr nuqtayi nazaridan, aholining ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib bu oqilona tadbir edi. Bir xil mazmundagi xatni Erdonabiyning qalbaki muxrini bosib Muhammad Rahim nomiga, Muhammad Rahimning qalbaki muxrini bosib Erdonabiyning huzuriga jo‘natadi. Kutilganidek Buxoro va Qoqon qo‘shinlari ortga qaytib ketadi. Xo‘sh

[56] Muhammad Hakimxon To’ra . Muntahab at – tavorix. (Xo’qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.19 b.

[57] Muhammad Hakimxon To’ra . Muntahab at – tavorix. (Xo’qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 21 b.

qamal qilayotgan qo‘shinni qamalni to‘xtatib ortga qaytishga sabab bo‘lgulik nima bor edi bu maktubda.

“ Az on sard omad in koxi dilovez,
«Ki chun jo garm kardi» guyad «xez»
Mazmuni:
(Bu chiroyli saroyning sovuq ekaniga sabab,
«O‘rinni qizitdingmi, tur joyni bo‘shat» qonunidir)”[58].

Bu o‘rinda tarixchi Muhammad Hakimxon maktubda nima yozilganini menimcha bilmagan. Vaziyatdan kelib chiqadigan bo‘lsak, qamal uzoq muddat davom etgan jarayonda qo‘shin holdan toygan. Bu yerda masala O‘ratepa egallansa mulk kimniki bo‘lishi masalasida ketadi va oraga ishonchsizlik tushadi. Qo‘shinlar qamalni to‘xtatib ortga qaytib ketishadi. Fozilbiy va Muhammadaminbiy maslahatlashib, Buxoro lashkarini o‘z holiga qo‘yib, Ho‘qand qo‘shini ketidan borib hujum qilishadi. Umarxon katta qiyinchilik bilan Qo‘qonga yetib boradi. Ammo Muhammad Rahimxonning askarlariga ortdan qilingan hujum O‘ratepaliklarning mag‘lubiyatga uchrab qal’aga chekindilar. Shundan so‘ng Rahimxon qasos ilinjida Hisor tomon bostirib bordi va urushda Muhammadaminbiyni yengdi va Buxoro sarbozlari Muhammadaminbiy xazinasining barini talon-taroj qilishadi. Va Rahimxon barcha Hisor viloyatini egalladi. Ikki-uch kundan so‘ng Muhammadaminbiyni xoinlar ushlab, Rahimxon huzuriga olib bordilar. Rahimxonga Muhammadamin sira boshini egmas va hech kimni tan olmasdi. Uning bu ishidan Rahimxon juda hayratda yurardi. “Falak bu qismat o‘yinini ko‘rsatganda, Rahimxon uchun ayni muddao bo‘lib, shu tufayli bundan keyin biy izzat va ikromimni albatta o‘z o‘rniga qo‘yadi, degan umidda edi. Binobarin, darhol o‘z huzuriga chorladi. Aytishlaricha, o‘sha suhbatda juda ko‘p sayyid, ulamo va amirlar to‘planishgan ekan. Muhammadaminbiyni bu ko‘runush yig‘iniga boshi ochiq, oyoq yalang holda kiritishgan. Shunda ham Muhammadaminbiy Rahimxonni nazar-pisandiga ilmay, ulamo tomonga qaragancha «assalomu alaykum, ey ulamo» debdi va bu turkiy baytni o‘qibdi, bayt esa ushbudir:

Chu bildim rizq erur matssadim, chekmam dustdin minnat,
Qazodin xorij ermas ish, aduvga inqiyod etmam.

Rahimxon bu kabi muomala so‘zlarini Muhammadaminbiydan eshitgach: - Tilinga axlat, bu so‘zlarni deganing bilan bari-bir sen hech hachon musulmon bo‘lib qolmaysan, - debdi va qatlga hukm qilibdi. Shunda biyni sudrab-sudrab, qal’a bozori boshiga olib chiqishibdi. U ancha yillar shu viloyatda erkin hukm yurgizgan va hech bir sohibi davlatga bosh egmagan edi. Mana endi necha bir xorlik bilan o‘sha boshini tanidan judo kilib, dorga osishdi”[59]. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib quydagicha xulosaga kelish mumkinki, Ustrushona hududi siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishga intilgan va bunga qaysidir ma’noda erishganlar ham. Mintaqada

[58] Muhammad Hakimxon To’ra . Muntahab at – tavorix. (Xo’qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 23 b.

[59] Muhammad Hakimxon To’ra . Muntahab at – tavorix. (Xo’qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 26.b

o‘zbeklarning yuz urug‘i yetakchilik qilgan aholiga ta’sir ko‘rsata olgan xo‘ja, shayx, eshonlar ham yuzlarni qo‘llab quvvatlagan. Harbiy mahorati ham alohida tahsinga loyiq ikki dushman qamalida qolishiga qaramay tadbir bilan g‘alaba erishganliklari harbiy san’at va mahoratidan darak beradi. Mintaqa aholisining hattoki harakterini ham ochib berish mumkin bu o‘rinda Muhammadaminbiyning o‘lim oldida ham bosh egmagani oriyat va g‘ururning balandligi va albatta din vakillariga e’tiborning yuqoriligi misol bo‘la oladi. Tarixiy voqea va hodisalarni o‘quvchilarga to‘g‘ri va to‘laqonli,albatta, obektiv yetkazib berish muhimdir. Va bunda raqamli ta’limdan foydalanish, fanlararo integratsiyani qo‘llash albatta samarali yechim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T. 7. – Toshkent. O‘zbekiston. 1999.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Muhammad Hakimxon To‘ra . Muntahab at – tavorix. (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.
4. Sangirov Jumaniyoz. “Qo‘qon xonligi tarixiga doir yozma yodgorliklar germenevtikasi”. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti -2021

YANGI AVLOD DARSLIKLARI-XXI ASR O‘QUVCHISI UCHUN ZARUR KO‘NIKMALARNI O‘RGATUVCHI KITOB

Ergasheva Nigora Erkinovna

Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kefedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi avlod darsliklari, ularni joriy qilishning maqsad va vazifalari, ushbu maqsad hamda vazifalarni amalga oshirishning samarali usul, vosita, metodlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada XXI asr ko‘nikmalari hisoblangan 4K modeli haqidagi ma’lumotlar maqola mazmunining yanada oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari boshlang‘ich ta’lim darsliklariga kiritilgan yangilik va o‘zgarishlar haqiga ham fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, XXI asr ko‘nikmalari, 4K modeli, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativ fikrlash, kritik fikrlash.

УЧЕБНИКИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ-КНИГА, ОБУЧАЮЩАЯ НЕОБХОДИМЫМ НАВЫКАМ ДЛЯ УЧЕНИКА XXI ВЕКА

Абстрактный

В данной статье представлена информация об учебниках нового поколения, целях и задачах их внедрения, а также эффективных методах, средствах и способах реализации этих целей и задач. В статье информация о модели 4К, считающейся навыками XXI века, служит дальнейшему увеличению содержания статьи. Кроме того, были высказаны мнения о нововведениях и изменениях, внесенных в учебники начального образования.

Ключевые слова: учебник, навыки XXI века, модель 4К, коммуникативность, сотрудничество, творческое мышление, критическое мышление.

TEXTBOOKS OF THE NEW GENERATION-A BOOK THAT TEACHES THE NECESSARY SKILLS FOR A STUDENT OF THE XXI CENTURY

Abstract

This article provides information about the textbooks of the new generation, the goals and objectives of their implementation, as well as effective methods, tools and ways to implement these goals and objectives. In the article, information about the 4K model, considered the skills of the XXI century, serves to further increase the content of the article. In addition, opinions were expressed on innovations and changes made to primary education textbooks.

Keywords: textbook, skills of the XXI century, 4K model, communication, collaboration, creative thinking, critical thinking.

KIRISH. Bugungi kunda yurimizda ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim, ayniqsa ta’limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Umumiy o‘rta ta’limda davlat ta’lim standartlari o‘rnini bosadigan va ta’limga o‘zgarishlar kirita oladigan o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq “Boshlang‘ich sinflarda yozish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ona tili va o‘qish fanlarini yangicha dastur asosida o‘qitib borish” kompleks chora-tadbirlar dasturiga kiritilishi ham bejiz emas, albatta. Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyati hamda badiiy matnni tushunish, uning mazmunini anglash va idrok etishning nazariy asoslari ilmiy, ilmiy-metodik jihatdan yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

NATIJALAR: Hammamizga ma’lumki, ta’lim sohasi shunday sohaki, u doimiy yangilanish, doimo takomillashtirilib borilishini ta’lab etadi. Shuning uchun ham har bir davrda takomillashtirishning o‘z talablari bo‘ladi.

XXI asrda deyarli butun o‘quv natijalarini o‘rganish reproduktiv modeli hukmronligi ostida rejalashtiriladi, bu hodisani diqqat bilan o‘rganish o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan bo‘lsa va shunga ko‘ra bitiruvchilarni tayyorlash sifati amalda faqat uning bilimiga va uni yetkaza olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lsa, bugungi kunda u qobiliyatiga qo‘shimcha ravishda kompetentli yondashuvni, ta’lim mustaqilligini, hamkorlik va raqobat ko‘nikmalarini, virtual muhitda ishlashni, tadqiqot va loyihalash qobiliyatini rivojlantirish talab etilmoqda.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me’yoriy hujjatlarda o‘qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo‘yilgan. Xususan, boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga alohida e’tibor qaratilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas muammolaridan biri sanaladi. Shuni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydi: “Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur.

Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo‘la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishini rivojlantirish tarafdorimiz.

MUHOKAMA: Mamlakatimiz Prezidentining 2023-yilga oid Davlat dasturi to‘g‘risidagi farmoni loyihasida “2023-2024-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi o‘quv dasturlarini amaliyotga kiritilish” vazifasi belgilangan edi. Buning uchun esa 1−4-sinflarni “ilg‘or xorijiy tajribalar” asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish, 5−11 sinflar uchun esa “STEAM fanlari darsliklarini ixtisoslashgan ta’lim muassasalari darsliklari va o‘quv-metodik majmualari asosida, shu jumladan xorijiy tajribani inobatga olgan holda joriy etish bo‘yicha aniq choralarni belgilash” singari vazifalar qo‘yilgan.

Belagilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-2024-o‘quv yilida

umumiy o‘rta ta’lim maktablari 1-4-sinf o‘quvchilari uchun yangi avlod darsliklari va ularga asos bo‘lgan standartlar tajribali milliy va xalqaro ekspertlar guruhi tomonidan O‘zbekistondagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan hamkorlikda ishlab chiqildi.

Yangi avlod darsliklari – fanlarni va sinflarni bog‘laydi, rang-barang va yorqin.

Мактаб, оила, маҳалла ва ҳокимликлар ҳамкорлигининг асоси педагогик жараённинг барча иштирокчилари ўртасида ҳамкорлик муносабатларини шакллантиришни таъминлаш, болаларни ижтимоий ривожлантириш, тарбиялаш ва ўқитиш учун қулай шарт-шароитларни яратиш каби қуйидаги умумий мақсадларда белгиланади.

Мактаб, оила, маҳалла ва ҳокимликлар ҳамкорлиги қуйидаги умумий муаммоларини ҳал қилишга қаратилган:

- сифатли таълимни таъминлаш;

- касбий қизиқишларни ривожлантириш ва болаларни онгли равишда касб танлашга тайёрлаш;

- ўқувчиларда ахлоқ ва хулқ-атвор маданиятини шакллантириш;

- мактаб ўқувчиларини оилавий ҳаётга тайёрлаш;

- соғлом турмуш тарзига бўлган эҳтиёжни шакллантириш.

Ушбу мақсад ва таълимнинг умумий мақсадларига эришиш учун муайян педагогик муаммолар мажмуасини ҳал қилиш керак.

Болалар билан ишлашда:

- Мактаб, оила, маҳалла ва ҳокимликларга ҳурматли, ғамхўр муносабатни тарбиялаш;

- ўз ҳаракатлари учун мактаб, оила, маҳалла ва ҳокимликлар олдидаги жавобгарликни шакллантириш;

- Ўқувчиларда ғурур туйғусини, энг яхши оилавий анъаналарни сақлаш ва ривожлантириш истагини тарбиялаш.

Ота-оналар билан ишлашда:

- ота-оналарда болани тарбиялашда уларнинг роли, мактаб ва синфнинг ўқув жараёнида иштирок этиш зарурлиги ҳақида тўғри ғояларни шакллантириш;

- оила ва болалар билан ишлашнинг турли шаклларини амалга оширишда мактаб ва синф ишида ота-оналарнинг субъектив позициясини шакллантириш;

- ота-оналарнинг психологик ва педагогик маданиятини шакллантириш;

- ота-оналар ва болалар ўртасида ҳурмат ва ишонч муносабатларини ривожлантириш.

Ўқитувчилар билан ишлашда:

- Мактаб, оила, маҳалла ва ҳокимликлар билан ҳамкорликнинг аҳамияти, ота-оналар ва болалар ўртасида инсонпарвар, ўзаро ҳурматли муносабатларни шакллантиришда ўқитувчиларнинг роли ҳақида тушунчани ривожлантириш;

- ўқитувчиларда ота-оналар билан биргаликда манфаатдор мулоқот асосида ҳар бир боланинг муаммоларини ҳал қилиш зарурати ва қобилиятини ривожлантириш;

- ўқитувчиларнинг оилани ўрганиш усулларини, ота-оналар билан мулоқот ва ҳамкорлик шаклларини, ота-оналар ва болаларнинг биргаликдаги фаолиятини ташкил этиш шаклларини ўзлаштириш ва бошқалар.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гуров, В. Н. Социальная работа школы с семьей [Текст]. – М. : Пед. общ-во России, 2008.

2. Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: “Маънавият”, 1999. – 24 б.

3. Оила этикаси ва психологияси: Умумий таълим мактаблари, ўрта махсус ҳамда ҳунар-техника билим юртлари ўқитувчилари учун қўлл. /Ҳ.Узоқов, Э.Ғозиев, А.Тожиев. –Т.: Ўқитувчи, 1992.-98 б.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASIDA XORIJIY YONDOSHUVLAR

Akbarova Sadoqat Asadullayevna
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi akbarovasadoqat16@mail.com
+998935128516

Anotatsiya: Mazkur maqolada turli mamlakatlarning ta’lim tizimidagi ekologik tashabbuslar, dasturlarning asosiy mazmuni va oliy ta’lim tizimida ekologik ta’limni integratsiyalash yo‘llari yoritilgan. Mamlakatlar ekologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi va tartiblanadi, bu bizga ta’lim sohasidagi asosiy ekologik muammolar va tashabbuslar bilan bog‘liq holda mavjud vaziyatni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zi: ekologik ta’lim, malakaga asoslangan yondashuv, ekologik kompetensiyalar, ekologik shaxs, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, tarbiya, ekologik tarbiya, ekologik amaliyot, ekotizim, tejamkorlik, tabiat, yer va yerosti boyliklari, suv manbalari, hayvonot dunyosi, strategiya, ekologik vazitat, metod, tafakkur, kompetentlik.

ЗАРУБЕЖНЫЕ ПОДХОДЫ В ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ.

Аннотация: В данной статье освещается основное содержание экологических инициатив, программ в системе образования различных стран и пути интеграции экологического образования в систему высшего образования. Страны оцениваются и ранжируются по их экологическим показателям, что позволяет нам определить текущую ситуацию в отношении основных экологических проблем и инициатив в области образования.

Ключевое слово: экологическое образование, компетентностный подход, экологические компетенции, экологическая личность, профессиональная подготовка педагогов, воспитание, экологическое воспитание, экологическая практика, экосистема, бережливость, природа, земельные и недра, источники воды, животный мир, стратегия, экологическая ситуация, метод, мышление, компетентность.

FOREIGN APPROACHES TO THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING ENVIRONMENTAL COMPETENCE AMONG FUTURE TEACHERS.

Annotation:: This article highlights the main content of environmental initiatives, programs in the education system of various countries and ways to integrate environmental education into the higher education system. Countries are assessed and ranked according to their environmental indicators, which allows us to determine the current situation with regard to major environmental issues and education initiatives.

Keywords: environmental education, competence approach, environmental competencies, environmental personality, professional training of teachers, education, environmental education, environmental practice, ecosystem, thrift, nature, land and subsoil, water sources, wildlife, strategy, environmental situation, method, thinking, competence

Tabiat taraqqiyoti va insoniyat sivilizatsiyasining, shuningdek O‘zbekiston tabiati va jamiyatining buguni va kelajagi ko‘p jihatdan ekologik muammolarning hal etilishiga, barqaror rivojlanish dasturlari amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” , deb ko‘rsatilganki, bu har bir fuqaroning tabiat oldidagi burchini hayot tarziga aylantirishi lozimligi anglatadi. Shu sababli mamlakatimizda oxirga yillarda samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ayniqsa, ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi 2017– 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, respublika hududidagi ekologik muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu o‘quv jarayonining barcha sohalarini ko‘kalamzorlashtirish bo‘lib, uni amalga oshirish uzluksiz ekologik ta’lim va ma’rifat sharoitida mumkin. Har yili maktablarga yosh o‘qituvchilarning ishga kelishini inobatga olgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish butun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish omillaridan biridir.

Shuningdek, ekologik muommolarni hal qilishni, uni yechimi ishlab chiqish oldimizda turgan muhim masalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Shu o‘rinda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2017 yil 12 iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’rurzasida, “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur”, deb ta’kidlagan edi.[1]

Insoniyatning butun tarixi davomida jamiyatning tabiatga munosabati chuqur qarama-qarshi bo‘lib kelgan: insoniyat, bir tomondan, Yerning evolyutsiyasi jarayonida paydo bo‘lgan va yer tabiatining ajralmas qismidir, ikkinchi tomondan, inson. O‘z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish, o‘zini atrof-muhitdan ajratib turadi.

Mamlakatimizda oliy pedagogik ta’lim tizimini isloh qilish, malakali kadrlar bilan ta’minlash, milliy, kasbiy talablarni xalqaro andozalarga moslashtirish asosida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash d*olzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.* Shu bois fan-texnika va ishlab chiqarishning yangicha talablariga mos ravishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligining muhim yo‘nalishi sifatida ekologik kompetensiyani rivojlantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ekologik ta’lim bizning zamonamizning ixtirosi emas. Har qanday ta’limning maqsadi yosh avlodni tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga eng yaxshi tayyorlashdir. Zamonaviy ekologik ta’lim o‘tgan yillardagi ekologik ta’limdan farq qiladi, chunki u global ekologik inqiroz sharoitida yuzaga keladi

va insoniyat oldida turgan ekologik muammolarning murakkabligiga javob berishi kerak.

Jamiyatda ekologik ta’limning asosiy maqsadi – yuksak ekologik madaniyatga ega, uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, nafaqat tez o‘zgarib turadigan ijtimoiy-ekologik sharoitlarga moslasha oladigan, balki uning oqibatlarini ham aniq his eta oladigan ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishdir. Amalga oshirilgan harakatlar va zamondoshlarning o‘z avlodlari oldidagi ekologik xatti-harakatlari uchun mas’uliyat hissiga ega bo‘lishlari [4].

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha o‘tkazilgan barcha konferentsiyalar natijasida global ekologik muammolarni hal qilish uchun aholida ekologik kompetentlikni rivojlantirish zarurligi ma’lum bo‘ldi. Atrof-muhit masalalari mutlaqo barcha o‘quv dasturlari markazida bo‘lishi va ta’lim tizimining barcha jabhalarini qamrab olishi kerak - maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib to universitetlargacha, boshqaruv apparati va pedagogik kadrlar tayyorlashda [6].

Ushbu yo‘nalishdagi birinchi qadam 1972-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha “Стокгольмская” konferentsiyasi bo‘lib, unda ekologiya sohasida ta’lim bo‘yicha xalqaro dastur yaratish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Ekologik ta’lim sohasidagi xalqaro siyosat insonning yoshligidan boshlab butun hayoti davomida uzluksizligini nazarda tutadi: ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan barcha fanlar mazmunini ko‘kalamzorlashtirish, ekologiyani iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘lash. Ekologik ta’lim mazmuni va uni amalga oshirish usullari global, milliy-mintaqaviy va mahalliy darajada o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.[7]

Rossiyada 2030-yilgacha bo‘lgan davrda ekologik ta’lim va ta’limni rivojlantirish, ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha atrof-muhitni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining asoslari ishlab chiqilgan.

Ekologik ta’lim doirasida shaxsning ekologik kompetentsiyasini shakllantirish jarayoni ijtimoiy-madaniy yo‘nalishni egallaydi, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy tartibga soluvchi tarkibiy qismiga aylanadigan shaxsning ekologik ongi asosida rivojlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish doirasida chet el tajribasidan mahalliy ta’lim tizimini takomillashtirishda foydalana olish uchun uni o‘rganish zarur. Ingliz yozuvchisi Jon Galsvorsi shunday degan edi: “Agar siz kelajak haqida o‘ylamasangiz, sizda kelajakka ega bo‘lmaysiz”. Bugungi kunda ekologiya insonni saqlash va rivojlantirish va inson tashkilotini davom ettirishning o‘ziga xos vositasidir.[3]

Zamonaviy G‘arb ta’lim modelida oila rolining ortib borishi Yevropa ekologik pedagogikasining rivojlanishidagi yetakchi tendentsiyalardan biridir. Turli birlashmalar – oilaviy tarbiya guruhlari, ota-onalar uyushmalari, xotin-qizlar uyushmalari, ijtimoiy-madaniy animatsiya muassasalari o‘z ishlarini shunday tuzadilarki, maktabgacha yoshdan boshlab, atrof-muhit bolaning rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatadi.

Misol uchun, Finlyandiyadagi Mannerheim bolalarni himoya qilish ligasi ota-onalar, shifokorlar va o‘qituvchilarni birlashtiradi. U bolalarning manfaatlarini hisobga olgan holda shahar muhitini o‘zgartirish haqida qayg‘uradi.

Liga bo‘limlarining ishi shu qadar samaraliki, mahalliy hokimiyat organlari atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatida doimiy ravishda bolalar manfaatlarini hisobga olishga majbur. Agar kerak bo‘lsa, Liga atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini tashkil qiladi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi va shu tariqa hukumatga ta’sir qiladi.[4]

Bu maqsadlarga erishish uchun, ya’ni yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashda ekologik kompetentlikning barcha imkoniyatlarini faollashtirish, uning barcha qadriyatlar tizimini tubdan, insonparvarlikka yo‘naltirish, tabiatning inson uchun o‘tmaydigan ahamiyatini to‘liq ochib berish zarur. Talabalarga ekologik ta’lim berishda biz tabiat bilan jamiyat orasidagi munosabatlarni ilmiy asoslab tushuntirib birgalikda olib borishimiz, ekologik muammolarni tahlil etish haqida kelajak avlodga bilim berishimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimni takomillashtirishimizni talab etadi.

Adabiyot ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. 2017 yil 12 iyul. http://uza.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2020 yil 25 yanvar. № 19 (7521). 1-2 betlar.

3. M.E.Vayndorf-Sysoeva. Pedagogika. 2005 yil.

4. H.Haydarova, Z.Bahodirova, Sh.Yakubjonova. “Ekologiya o‘qitish metodikasi” T;2009. 7-b

5. Татур Ю.Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования. М., 2004.

6. Топор А.В., Иващенко О.В. Зарубежный опыт и мировые тенденции в организации экологического образования // Молодой ученый. – 2013. 539-542с.

7. Ахмадиев А.К. О некоторых особенностях экологического образования и просвещения в США // Образовательный процесс. – 2018. 5-9 с.

ЎТМИШДАН САБОҚ ОЛИБ

Кубаев Кабил Умарович
филология фанлари номзоди, доцент, Ренессанс таълим университети

Аннотация

Мазкур мақолада бугунги ўзбек прозасида самарали ижод қилаётган адибларимизнинг асарларида тарихийлик масалалари талқини ва ёш авлод тарбияси, шунингдек, инсон маънавияти билан боғлиқ жиҳатлар ҳақида сўз боради.

Аннотация

В данной статье речь идёт о трактовке исторических вопросов и воспитания молодого поколения, а также некоторых чертах духовности человека в произведениях передовых писателей современной узбекской прозы.

Summary

The article is devoted to the discussion of interpretation of historicism, moral education of younger generation, and human morality in the works of prose writers in Uzbek literature.

Калит сўзлар: қисса, тарихий қисса, эссе, сюжет, характер, тарихий шахс, бадиий тўқима, персонаж

Ключевые слова: повесть, исторический повесть, эссе, сюжет, характер, историческая личность, художественный вымысель, персонаж

Keywords: story, historical story, essay, plot, personality, historical figure, artistic text, character

Кириш. Сўнгги даврда тарихий мавзуда асар ёзишда бой тажрибага эга бўлган ёзувчимиз М.Осим ижодий анъаналарини давом эттириб, ўтмиш фан ва маданиятимизнинг ёруғ юлдузлари ҳақида яратилаётган тарихий қиссаларнинг кўпчилигида анча мукаммал бадиий характерлар яратилганлигининг гувоҳи бўламиз. Бу асарларнинг эътиборли томони шундаки, унда ўтмишдаги буюк аждодларимизнинг илм йўлидаги мураккаб, руҳий кечинмаларга бой, жўшқин ҳаёти кўрсатилади. Шунинг баробарида уларнинг ҳаёти ёш авлодга ибрат намунаси қилиб кўрсатилади.

Бу борада истеъдодли адиб Хайриддин Султоновнинг Бобур умрининг сўнгги даврига бағишланган “Саодат соҳили”[60] тарихий қиссаси диққатга сазовордир. Адиб Бобур Мирзо ҳаёти ва ижодига бағишланган яна талай асарлар яратган. “Ой ботган паллада”, “Нуқта” ҳикоялари, “Бобурнинг тушлари”, “Тавба” каби эссе-бадиалари шулар жумласидандир. Адиб мазкур асарларда Бобурнинг буюк мақсадлар йўлида кечган оғир, машаққатли ҳаётини шоирона бўёқлар билан тиниқ манзараларда кўрсатиб беради.

“Соадат соҳили” қиссасида ёзувчининг олис тарихини жуда яхши билиши, Заҳириддин Муҳаммад Бобур умрининг сўнгги давридаги мураккаб

[60]Х.Султонов. “Бобурнинг тушлари”. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент 1993 й.

ҳаёт йўлини, руҳий кечинмаларини аниқ тасвирлашида яққол кўзга ташланади. Шунингдек, ёзувчи мазкур қиссани ёзишда ўз олдига улуғ ўзбек шоири, давлат арбоби, олим ва мутафаккир сиймосини чизишдек масъулиятли вазифани ҳам қўяди.

Ёзувчи Примқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” тарихий романи ҳам шу мавзуга бағишланган бўлиб, унда бош қаҳрамон ҳаёти билан боғлиқ Мовароуннахр ва Хуросонда XV аср охири ва XVI аср бошларида содир бўлган қатор тарихий воқеалар хронологик тартибда кўрсатилади. Бундай воқеалар ривожи Бобурнинг мураккаб ҳаёти ва ижод йўлини кўрсатиш билан чамбарчас боғлиқдир. Романнинг имконият доираси анча кенглиги сабабли унда Бобурнинг тахтга ўтирган давридан, то умрининг охиригача бўлган давр босқичма-босқич тасвирланади. Романда Бобурнинг шахсий кечинмалари, инсоний эзгу ниятлари ва сиёсий қарашлари ўзининг чуқур ифодасини топади. Х. Султонов эса қисса жанрининг имкониятларидан келиб чиқиб, “Саодат соҳили”га Бобур умрининг сўнги 6 ойини асос қилиб олади. Роман ҳам, қисса ҳам Бобурнинг ўлими воқеаси билан якун топади. Ҳар иккала асарда ҳам ўхшаш тарихий фактлар анчагина. Бироқ уларнинг бадиий талқини турлича. Бобурнинг кейинги пайтда бетоб бўлиб қолиши, уни Юсуфий исмли табиб даволаганлиги ва Бобур қалбида кечган руҳий жараёнлар икки асарда ҳам ўзининг яхши ифодасини топган. Ҳар иккала асарда ҳам Бобур олим сифатида қиёфаси, мураккаб характери тасвири илм аҳллари билан муносабати орқали, чунончи: “Юлдузли тунлар”да Бобур ва Хондамир, “Саодат соҳиллари”да Бобур ва Ҳофиз Кўйкий ўртасида бўлиб ўтган суҳбатларда ўз аксини топади. Романда ҳам, қиссада ҳам тасвирланишича, Бобур олимлар билан бўлган мунозараларда ўз қалбидаги муаммоларнинг ечимини топгандай бўлади. Шу сабабдан уларга иззат икром кўрсатади. Қиссада руҳият таҳлили романдагига нисбатан анча устун эканлигини кўрамиз. Қиссада адиб қаҳрамоннинг инсоний сиймосини, она юрт ҳажрида чеккан изтиробларини бадиий лавҳаларда янада ишончли ва ҳаққоний ёритиб беради. Муаллиф асарда мураккаб муҳит ва чигал вазиятдаги қаҳрамоннинг руҳий ҳолатини, уни бундай ишларга бошлаган омилларни, энг муҳим, Бобур руҳиятидаги зиддиятли ҳолатларни анча чуқур ва таъсирчан баён этади. Дастлаб асар фазилатлари ҳақида адабиётшунос Санжар Содиқ куйидаги мулоҳазаларни билдирган эди: “Х.Султонов деярли бутун ижодида, хусусан, “Саодат соҳили” асарида Бобоқул деган кимсанинг бир вақтлар Бобур билан ўз юртидан кетганлиги, энди эса ўзга ўлка бозорларидан жинни бўлиб, қўшиқ айтиб юрганлиги кўрсатилган. Уни қидириб сафарга чиққан Бинокул исмли ўғли эса йўлда ҳалок бўлади. бу воқеага хеч бир изоҳ берилмайди. Образли кўрсатилган мазкур воқеа устида жиддий ўйлаб кўрилгандагина, китобхон унинг воситасида Бобурнинг ўз юртидан кетиши фақат ўзи учунгина эмас, балки бошқа кўплаб кишилар учун ҳам даҳшатли қисмат бўлганлигини англаб етади. Ҳ.Султонов катта истеъдод соҳиби эканлигидан далолат берадига бундай образли тасвир, афсуски, ҳозир яратилаётган кўп асарларимизда етишмаяпти”.

Ёзувчи Бобур образини унга замондош тарихий шахслар ва бадиий тўқиманинг маҳсули бўлган образлар билан чамбарчас боғланган ҳолда акс

эттиради. Шу билан бирга, ёзувчи образлар ҳаракат қилаётган XVI асарнинг муҳити, руҳи ва ижтимоий ҳаёт йўналишини ҳам ҳаққоний лавҳаларда ёритди. Қиссадаги образларнинг ҳаммаси ўз замонасидаги тарихий шарпоитга узвий боғлиқ ва сингиб кетгандек, уларни ўз муҳитида узиб олиб бўлмайди. Қисса ўз даврининг машҳур алломаси Ҳофиз Куйкий ва ёш олим Бинокулнинг Ҳимндистонга, Бобур саройига сафари билан бошланади. Йўлда ёш олим ҳалок бўлади. Куйкий кўп машаққатлар билан Бобур ҳузурига етиб келади. Дастлаб шубҳа билан кутиб олинган Куйкининг мақсадларини билгач, Бобурнинг кўнгли ёришиб кетади. Унга саройдаги илм ҳазиналарининг ҳамма эшикларини очиб беради.

Ҳофиз Куйкий унга ўз қадрдон она юрти тимсоли бўлиб кўринади. Инсон қадр қимматини, адабиёт ва санъатни қадрловчи шоҳ Куйкийнинг илм йўлидаги изланишларига кўмак беради. Бобур уни тез-тез ҳузурига чорлаб, сухбат қуради. Ва ўзининг қалб яраларига малҳам топгандек бўлади: “Бобур илк учрашувдаёқ мусофир аллома (Куйкий) сиймосида она юртидан дуои салом келтирган меҳмонни эмас, балки улкан тафаккур соҳибини кўрди, аҳли дониш билан суҳбатни ҳар қандай вақти чоғликдан афзал билгани сабабли, уни ҳар оқшом ҳузурига чорлаб, дўстона иззат-икром ва лутф карамлар кўрсата бошлади”[61]

Тарихий мавзуда ёзилган бадиий асарда воқеа ходисаларга ҳолис баҳо бериш, тарихий шахс образини китобхонга ишонарли ҳолатда, реал ҳаёт фонида кўрсатиш ва тадқиқ этиб бериш муҳимдир. Бундай пайтда тасвирдаги катта хизмати руҳий таҳлил бажаради. Шу жиҳатдан “Саодат соҳили” қиссасида Бобур образини қай тарзда бадиий характер даражасига ўсиб чиқиш жараёнини кўздан кечириш алоҳида эътиборга лойиқ. Чунки асарда шоирнинг сўнгги даврдаги ҳаёт йўли тасвири батафсил кўрсатилган, руҳий кечинмалари анча чуқур очилган.

Бизга маълумки, Бобур Ҳиндистонда тўрт йил ҳукмронлик қилган. Бу давр мобайнида катта давлатни ўзи орттирган обрў ва қурол кучи билан сақлаб қолган. Адиб асарда мана шу йиллар давомида Бобур ўз юртини қўмсаб, изтиробда умр кечирганини, ўз тақдирининг нақадар фожеали аҳволга тушганини англаб етиши, “ўзга юртда шоҳ бўлгунча, ўз юртингда гадо бўлгил” деган мақолни эслаб туриш каби ҳолатлар орқали тасвирлаб беради. Шундай вазиятда муаллиф ўз қаҳрамонининг характеридаги етакчи хусусиятларни баъзан унинг нутқи орқали очишга ҳам ҳаракат қилади.

Ёзувчи қаҳрамоннинг ҳам дилини, ҳам тилини сўзлато олган ва бу орқали шоир қалбининг кўпчиликка номаълум томонларини очишга муваффақ бўлган. Бунда, албатта, адиб фантазияси алоҳида аҳамият касб этади. Асарда бундай ҳолатлар шундай жонли уюштирилганки, натижада қаҳрамон китобхон кўз ўнгида ўз қиёфаси, характери билан худди тирик одам сифатида гавдаланади.

Қиссада Бобур неча замонлардан бери ота-боболари ва ўзининг даврида обод бўлган она юртининг эндиликда душманлар ва нопок кимсалар қўлида

[61]Х. Султонов. “Саодат соҳили”, 94-95 бетлар.

эканлигидан қаттиқ қайғуради. Бу ўйлар унга бир дақиқа бўлса ҳам унга ором бермайди. Мана шу ўринда ёзувчи Ҳофиз Куйкийнинг ўйлари, Бобур Мирзонинг ҳасрат ва қайғулари орқали Ватан, она юрт ҳақидаги жуда муҳим муаммони ўртага қўяди: “Ҳофиз Куйкий ҳиндлар Бобурга “Қаландар шоҳ”дея ном берганликлари дафъатан англади. – У юртлар энди бизга ҳаром...- Бобур қўлидаги пиёладан пайдар-пай бода сипқорди. – Олманинг сархилини қурт ермиш. Юрт бузғунчи, бадфеъл, бойқуш шоҳларга қолди у вилоятлар. Аларнинг ақли бошидаги тожидан ҳаргиз ташқари чиқмағай. Йўқса барининг этини бири еб, юртини ғанимга берармиди”[62].

Қисса қаҳрамон характерининг янги қирралари оша кўрсатилган маънавий олами образнинг тарихийлигини таъминлай олган. Персонажнинг фикр-ва мулоҳазалари, мураккаб ҳаёт йўли, тақдири, теварак атрофдаги кишилар тўғрисидаги ўйлари мазкур асарда бадиий тасвирнинг асосини ташкил этади.

Ёзувчи тасвир объектининг ташқи ва ички ҳолатларини, образ руҳий оламини атрофлича ифодалаш йўлидан борганлигининг, уларга чуқур маъно бағишлаб, тарихий шахс характери ва тарихий ҳақиқатини жонли гавдалантирганлигининг гувоҳи бўламиз. Шунингдек, адиб қиссада Бобурнинг рубоийларини келтириш орқали ҳам унинг руҳий ҳолатини чуқур очиб бера олган.

Х.Султонов Бобур дунёқарашининг моҳиятини монолог, диалог, тавсиф ва бошқа тасвирий воситалар орқали очишга интилиб, унинг ватанпарварлигини, инсонпарварлигини, бой ички маънавий дунёсини атрофлича ёритишга муваффақ бўлади.Бобур образининг жонлилигини таъминлаш мақсадида адиб лирик чекиниш тарзида асарга қаҳрамоннинг характерини очишга яқиндан ёрдам берувчи ўз мулоҳазалари ва баҳоларини ҳам тасвир жараёнига киритади. Ёзувчи бундай усул ёрдамида Бобур характерининг у ёки бу томонини очиб беришга муваффақ бўлади. Тасвирда унинг бир қатор фазилатлари билан бирга, одамийлик хусусиятлари ҳам давр нуқтаи назаридан ёритилиб борилади.

Қиссадаги шоир Кўйкий ҳам реал тарихий шахсдир. Унинг асл исми шарифи Султон Муҳаммад Ҳофиз Тошкандий бўлиб, XVI асрда яшаб ижод этган тарихчи, ҳуқуқшунос, таржимон, олимдир. Али Қушчининг авлодидан. У бир қанча мамлакатда саёҳатда бўлади. Ҳиндистонга икки маротаба борган. Бир сафар Бобур
ҳаётлигида бўлади. Мана шу тарихий фактлар асарда ўзининг бадиий ифодасини топган.

Қиссанинг китобхонни ҳаяжонга соладиган, энг таъсирчан лавҳалари Куйкий ва Бобур ўртасида бўлиб ўтган суҳбатларда кўринади. Ҳофиз Куйкий ўзининг еамтарлиги, андишалилиги ва билимдонлиги билан шоҳни ҳайратда қолдиради. Шу боис Бобур уни ҳар доим суҳбатга чорлаб, суҳбат асносида қалбида пайдо бўлган кўплаб чигалликларга жавоб топгандай бўлади. Бобур

[62]Х. Султонов. “Саодат соҳили”, 94-95 бетлар.

руҳиятидаги узоқ вақт давом этган ички курашнинг ечими, Куйкий томон бурилиш психологик жиҳатдан яхши асосланган. Бобур суҳбатларининг бирида саодат соҳилини топганини ва у қаердалиги ҳақидаги саволга шу вақтгача ҳеч кимдан жавоб ололмаганини айтганда Куйкий: “Саодат соҳили Ватанда олампаноҳ”- деб юборади. Бу жавобдан Бобурнинг битмас ярасига туз урилишини, ҳатто, бу қисқа жавоб унинг ўлим билан баробар эканини китобхон англаб етади.

Мазкур қиссада яна бир қанча персонажлар иштирок этадики, уларнинг ҳам ҳар бири ўзига хос ўринга эгадир. Ёзувчи булар ҳақида қуруқ баён қилиб қолмай, балки улар ўртасидаги умумий мантиқий боғланишни ҳам таъминлайди. Асарда образларнинг табиий чиқиши, тарихий шароит тасвири, тарихий шахс образининг бадиий талқини, давр тилининг тўлақонли ўз аксини топиши, тўқима образларнинг асар ғоясига сингдирилиши каби фазилатлар асарнинг бадиий қимматини оширган.

Хулоса. Юқорида номи зикр этилиб, бир оз таҳлил этилган ва шу каби тарихий мавзудаги қиссаларнинг кўплаб яратилаётганлиги ижобий ҳолдир. Чунки бугунги авлодни ўз ўтмишидан хабардор этиш, уларда аждодларимизга бўлган фахр туйғусини уйғотиш ва юрт мустақиллигини мустаҳкамлашнинг асосий омилларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Х.Султонов. “Бобурнинг тушлари”. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент 1993 й.
2. Н. Раҳимжонов, Қ. Кўбаев. “Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди”. Адолат нашриёти. Тошкент 2005 й.
3. Санжар Содиқ. Ёшлар қиссачилиги ҳақида ўйлар // Шарқ юлдузи. 1993 й. 12-сон.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIMNING O‘RNI

Gaffarova Nilufar
Toshkent shahri Yunusobod tumani, 258-umumta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola umumta’lim maktablarida matematikani o‘qitishda raqamli ta’limning muhim rolini o‘rganib, uning afzalliklari, muammolari va kelajak istiqbollarini yoritadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается важная роль цифрового образования в математическом образовании в средних школах, подчеркиваются его преимущества, проблемы и перспективы на будущее.

Abstract. This article explores the pivotal role of digital education in teaching mathematics in secondary schools, highlighting its benefits, challenges, and future prospects.

Kalit so‘zlar. Raqamli ta’lim, interaktivlik, platforma, simulyatsiya, matematika, resurs, vizual.

Ключевые слова. Цифровое обучение, интерактивность, платформа, симуляция, математика, ресурс, наглядность.

Keywords. Digital learning, interactivity, platform, simulation, mathematics, resource, visual

Kirish:

Tez texnologik taraqqiyot bilan tavsiflangan davrda raqamli ta’lim o‘qitish va o‘rganish sohasida o‘zgartiruvchi kuch sifatida paydo bo‘ldi. Ko‘pincha ta’limning asosi sifatida qaraladigan matematika bu tendensiyadan mustasno emas. O‘quvchilar murakkab matematik tushunchalar bilan kurashadigan o‘rta maktablarda raqamli vositalardan foydalanish o‘qitish va o‘rganish tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Kengaytirilgan aloqa va interaktivlik:

Raqamli ta’limning matematikani o‘qitishdagi asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligi va interaktivligini oshirish qobiliyatidir. Interfaol ta’lim platformalari, simulyatsiyalar va o‘quv o‘yinlari mavhum matematik tushunchalarni o‘quvchilar uchun yanada aniqroq va ochiq qiladi. Raqamli vositalar orqali talabalar algebra, geometriya va hisob kabi tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan dinamik usullarda matematik tamoyillarni o‘rganishlari mumkin. Bundan tashqari, video va animatsiyalar kabi multimediya resurslari vizual, eshitish va kinestetik o‘quvchilarni birdek o‘z ichiga olgan turli xil o‘quv uslublariga mos kelishi mumkin.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim va farqlash:

Raqamli ta’lim o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab o‘rganish tajribasini shaxsiylashtirishga imkon beradi. Moslashuvchan ta’lim tizimlari o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini real vaqt rejimida baholay oladi, moslashtirilgan o‘rganish yo‘llari va maqsadli tadbirlarni ta’minlaydi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv talabalarga moslashtirilgan yordam va qiyinchiliklarni olishlarini ta’minlaydi, bu esa matematik tushunchalarni ko‘proq o‘zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli platformalar tabaqalashtirilgan o‘qitish imkoniyatlarini taklif etadi, bu o‘qituvchilarga bitta sinfda turli xil mahorat darajalarini samarali ta’minlashga imkon beradi.

Foydalanish mumkin bo‘lgan manbalar va hamkorlik:

Raqamli resurslarning ko‘payishi o‘quv materiallariga, xususan, matematikaga kirishni demokratlashtirdi. Onlayn darsliklar, o‘quv videolari va interfaol o‘quv qo‘llanmalari talabalarga mustaqil ravishda sinfda o‘qishni to‘ldirishga imkon beradi. Bundan tashqari, raqamli platformalar hamkorlikda o‘rganish tajribasini osonlashtiradi, bu o‘quvchilarga guruh loyihalarida, tengdoshlarning repetitorligida va onlayn munozaralarda qatnashish imkonini beradi. Virtual hamkorlik vositalari orqali talabalar geografik chegaralar va vaqt cheklovlaridan oshib, muammolarni hal qilish, tushunchalar almashish va matematik tushunchalarni chuqur tushunish uchun birgalikda ishlashlari mumkin.

Haqiqiy dunyo ilovasi va haqiqiy o‘rganish:

Raqamli ta’lim matematik tushunchalarni real dunyo ilovalari bilan bog‘lash, o‘rganish tajribasining dolzarbligi va haqiqiyligini oshirish yo‘llarini taqdim etadi. Simulyatsiya dasturlari, modellashtirish vositalari va ma’lumotlarni tahlil qilish platformalari talabalarga muhandislik, moliya va fan kabi turli sohalarda duch keladigan amaliy muammolarni hal qilish uchun matematik tamoyillarni qo‘llash imkonini beradi. Haqiqiy topshiriqlar va loyihalar bilan shug‘ullanish orqali talabalar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar va kundalik hayotda matematikaning foydaliligini chuqurroq tushunishadi.

Qiyinchiliklar va mulohazalar:

Raqamli ta’lim ko‘plab afzalliklarni taqdim etsa-da, u o‘qituvchilar samarali harakat qilishlari kerak bo‘lgan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Texnologiyalarga kirish va raqamli savodxonlik ko‘nikmalari talabalar orasida farq qilishi mumkin, bu esa teng huquqli foydalanish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini talab qiladi. Bundan tashqari, raqamli vositalarni matematika darsiga integratsiya qilish o‘qituvchilardan ularning samaradorligini oshirish uchun etarli tayyorgarlik va kasbiy rivojlanishni talab qiladi. Bundan tashqari, muvozanatli

va xavfsiz o‘quv muhitini ta’minlash uchun ekran vaqti, raqamli chalg‘ituvchi omillar va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolarni hal qilish kerak.

Kelajakdagi yo‘nalishlar va oqibatlari:

Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, matematikani o‘qitishda raqamli ta’limning roli kengayib boradi va rivojlanadi. Sun’iy intellekt, kengaytirilgan reallik va mashinani o‘rganish kabi rivojlanayotgan texnologiyalar matematika ta’limini yanada inqilob qilish potensialiga ega bo‘lib, tadqiqot va innovatsiyalar uchun yangi yo‘llarni taklif qiladi. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi raqamli ta’lim usullarini qo‘llashni tezlashtirdi, bu esa o‘qituvchilarni an’anaviy o‘qitish amaliyotlarini qayta ko‘rib chiqishga va raqamli vositalarni yanada kengroq qamrab olishga undadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli ta’lim umumta’lim maktablarida matematikani o‘qitishda muhim rol o‘ynab, faollikni oshirish, shaxsiylashtirilgan o‘rganish, hamkorlik va real hayotda qo‘llash imkoniyatlarini taklif etadi. Raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga 21-asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, matematikani o‘qitishda raqamli ta’limni qo‘llash matematik savodxon va texnologiyani yaxshi biladigan o‘quvchilar avlodini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – 2016. Sh.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – 2016.
2. Sh.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – 2016
3. S.S.Jumanazarov, M.Masharipov va boshqalar “Talim jarayoniga AKT”. T.:2019-yil
4. A.Mahkamov, M.Masharipov “Talim jarayoniga AKT qo‘llash”. T.:2021-yil
5. https://chat.openai.com/c/9dc41367-9679-4b24-a252-c6b07bc41efb

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: АКТУАЛЬНОСТЬ И ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Хакимова Г.Т.

Ташкентский Международный университет финансового управления и технологий Начальник управления по надзору качества образования, старший преподаватель. xakimovagulmira001@gmail.com

Аннотация: Статья рассматривает вопросы о повышении качества образования в общеобразовательных школах, подробно описываются важные факторы, которые играют важную роль в повышении современного качества образования. Развитие качества образования обучающихся является постоянным процессом, который предполагает усовершенствование трех необходимых ключевых элементов: организация образовательного процесса, результаты обучения, квалификация работников педагогической сферы. Одним из главных ресурсов человека является качественное образование, которое обеспечивает ему возможность свободно и эффективно действовать при изменяющихся условиях. Качество жизни человека и общества зависит от качества образования. Задача всего общества – искать пути улучшения качества образования, так как это является результатом работы не только школы, но и каждого из нас.

Ключевые слова: качество образования, образовательный процесс, квалификация, педагог, уровень знаний, педагогика.

Abstract: The article examines issues of improving the quality of education in secondary schools; important factors that play an important role in improving the modern quality of education are described in detail. The development of the quality of education for students is a constant process that involves the improvement of three necessary key elements: the organization of the educational process, learning outcomes, and the qualifications of teaching staff.

One of the main resources of a person is quality education, which provides him with the opportunity to act freely and effectively under changing conditions. The quality of life of an individual and society depends on the quality of education. The task of the whole society is to look for ways to improve the quality of education, since this is the result of the work not only of the school, but of each of us.

Key words: quality of education, educational process, qualifications, teacher, level of knowledge, pedagogy.

Annotatsiya: Maqolada umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish masalalari ko‘rib chiqilib, zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydigan muhim omillar atroflicha bayon etilgan. Talabalar uchun ta’lim sifatini rivojlantirish doimiy jarayon bo‘lib, uchta zarur asosiy elementni takomillashtirishni o‘z ichiga oladi: o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quv natijalari va pedagogik xodimlarning malakasi.Insonning asosiy resurslaridan biri sifatli ta’lim bo‘lib, unga o‘zgaruvchan sharoitlarda erkin va samarali harakat qilish imkoniyatini beradi. Inson va jamiyat hayotining sifati ta’lim sifatiga bog‘liq. Butun jamiyatning vazifasi ta’lim sifatini oshirish yo‘llarini izlashdan iborat, chunki bu nafaqat maktab, balki har birimizning mehnatimiz natijasidir.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, o‘quv jarayoni, malaka, o‘qituvchi, bilim darajasi, pedagogika.

Повышение качества образования – постоянная задача учебных учреждений Узбекистана. Считается, что сегодня результаты обучения в Республике не вполне удовлетворительны, а по сравнению с более ранними периодами даже плохие. Впрочем, при этом не учитываются многие факторы, которые приводят к такому выводу.

Как бы то ни было, на повышение уровня знаний направлено много сил. Но без желания учеников учиться, а педагогов – учить достичь необходимого эффекта очень сложно. Поэтому в первую очередь нужно искать современные способы создать условий, при которых все стороны будут заинтересованы в повышении качества образования.

Нет сомнений в том, что обеспечение высокого уровня качества образования в школе всегда было важным вопросом. Но поскольку образование постоянно эволюционирует, возникает необходимость регулярного переосмысления ценностей и целей с учетом новых реалий. Качество образования определяется уровнем удовлетворенности ожиданий разных участников образовательного процесса: учеников и их родителей, администрации школы, других членов педагогического коллектива и внешних организаций, с которыми образовательное учреждение взаимодействует для достижения поставленных целей.

Результаты повышения качества образования зависят от следующих факторов:

- **квалификации** педагогов и их высокого профессионализма;
- **создания комфортной образовательной среды** для школьников;
- **уровня знаний** и обучаемости школьников;
- **соблюдения санитарно-гигиенических норм** в школе;
- **наличия материально-технического обеспечения** в школе.

Качество образования оценивается по тому, насколько востребованы знания в конкретных условиях и областях применения для достижения определенной цели и повышения качества жизни выпускника.

Существует ряд факторов, которые играют важную роль в повышении современного качества образования:

- **роль учителя** как проводника в активную деятельность учащихся;
- **рациональная организация учебного труда школьника**, которая способствует более эффективному усвоению материала;
- **информационные технологии при обучении:** компьютеры, интерактивные доски и другие электронные устройства;
- **мотивация** – помощь ученикам в нахождении интереса в учебном процессе;
- **личностно ориентированный подход** с учетом индивидуальных особенностей каждого ученика;
- **работа со слабоуспевающими учащимися** и особое внимание отстающим ученикам;

- **контроль за уровнем образования**, достижениями и развитием каждого учащегося в отдельности, а также коррекция знаний на основе результатов мониторинга обученности;
- **Уделить внимание к работе с одарёнными учениками;**

Развитие качества образования обучающихся является постоянным процессом, который предполагает усовершенствование трех ключевых элементов:

- *Организация образовательного процесса.*
- *Результаты обучения.*
- *Квалификация работников педагогической сферы.*

Образование может считаться качественным в том случае, если его достижения отражаются не только на учащихся, но и на педагогах, являющихся участниками образовательного процесса.

По завершении каждой четверти и учебного года учитель должен проводить тщательный анализ учебных достижений учащихся. Анализируя, сколько учеников достигли низкого, удовлетворительного, среднего, достаточного и высокого уровня по данному предмету, педагог определяет пути дальнейшего сотрудничества с учащимися в целях получения лучших результатов.

По мнению современных, имеющих многолетний опыт работы педагогов, качество образования определяется тем, насколько удовлетворены ожидания всех участников образовательного процесса и насколько цели соответствуют результатам. Иначе говоря, качество образования можно измерить тем, насколько цель достигнута.

Какие условия повышения качества образования необходимы в нынешнем положении:

- **Способность учеников** самостоятельно мыслить, анализировать и работать над своими учебными задачами.
- **Возможность школы** учитывать индивидуальные особенности и потребности каждого ученика.
- **Возможность повышать квалификацию педагогов**, использовать активные методы обучения в дополнение к традиционным.

Почему происходит снижение качества образования:

Причины снижения качества образования зависят от ученика, учителя и контроля родителей:

- **Недостаточный контроль за посещаемостью** со стороны родителей и школы может привести к пропускам занятий как по болезни, так и без уважительных причин.
- **Отсутствие единства требований** к ответу обучающихся со стороны учителей может привести к путанице во время уроков.
- **Недостаточное владение знаниями особенностей возрастной психологии** ребенка может привести к неэффективному обучению.
- **Отсутствие мотивации у ребят** и слишком большая опека со стороны учителей могут снизить интерес и результативность обучения.
- **Отсутствие у учеников перспективы** для применения своих знаний может

привести к потере интереса к учебе.

- **Преобладание пассивных форм обучения**, таких как фронтальная и коллективная, над активными формами (групповой, проектной, системно-деятельностной, лабораторной работой на предметах гуманитарного цикла, дискуссией, интерактивным и интегрированным обучением) может снизить интерес учеников к учению.
- **Потеря связи с родительской общественностью** может привести к уменьшению контроля над обучением и невозможности родителей оказывать поддержку и помощь детям в учебе.
- **Повышение качества преподавания**

Одна из важнейших задач, связанных с повышением качества образования, заключается в том, чтобы учителя овладели различными образовательными технологиями. Какие методы обучения использует педагог, насколько гибок он в изменении своих методов в зависимости от особенностей учеников, определяет качество их обучения и обучаемости в школе.

Педагоги активно используют информационные технологии в обучении, воспитании и развитии учеников, так как одной из основных задач современного школьного образования является подготовка обучающихся к быстрому восприятию и обработке больших объемов информации и формирование у них информационной культуры.

Достижения необходимо отслеживать не только у учеников, но и у учителей, так как они являются первопричиной улучшения качества образовательного процесса. Для поддержки профессионального роста педагогов, в том числе финансовой, используются профессиональные конкурсы на федеральном, региональном и муниципальном уровнях, а также стимулирующие выплаты, связанные с достижением определенных показателей, разработанных школой.

В то же время администрация школы управляет процессом освоения современных образовательных технологий и отслеживает их эффективность, признавая свободу учителя в выборе методов и педагогических технологий для достижения образовательных результатов. Педагоги постоянно улучшают свое мастерство и осознают свою ответственность в решении задач, стоящих перед современной школой.

Качество преподавания зависит от ряда факторов:

- **уровня знаний** в теоретической, профессиональной и интеллектуальной области;
- **методической подготовки**;
- **уровня мастерства** преподавания;
- **качества психолого-педагогических отношений** с коллегами, учениками и родителями;
- **инновационной деятельности**, участия в общешкольных проектах, опытно-экспериментальной и научно-исследовательской работе;
- **научной работы** учителя и учащихся;
- **состояния** учебно-методической базы.

Основной задачей учителя является обнаружение новых и неизвестных ученикам элементов в учебном материале и организации учебного процесса. Успешный педагог должен быть опытным профессионалом в своей области, который заинтересовывает учеников и способен доступно объяснять материал. Кроме того, он должен уметь объективно оценивать результаты и, если необходимо, находить индивидуальный подход к каждому.

Повышение качества образования обучающихся

Организация учебного процесса является одним из эффективных методов улучшения качества знаний учеников. Современные уроки требуют высокого уровня подготовки и профессионализма. Если мы будем относиться к уроку как к несерьезному моменту жизни, который проходит без контроля, то никогда не достигнем желаемых результатов.

Чтобы обеспечить хороший учебный процесс, важно начинать уроки вовремя, грамотно организовывать пространство в классе, чётко структурировать этапы урока, активно взаимодействовать, а также адекватно реагировать на поступки обучающихся.

Кроме того, правильный подбор учебного материала и методов его преподавания, а также использование новейших технологий и средств обучения, таких как наглядность и компьютерные программы, существенно влияют на качество знаний, полученных учащимися.

Повышение качества усвоения учащимися знаний зависит от следующих факторов:

- **Уровня индивидуальных характеристик** (интересов, мотивации, склонностей, способностей, психологического типа и т.д.).
- **Уровня подготовки** к получению знаний.
- **Нововведений** и устоявшихся практик в образовании (содержание, объем, технологии и методы обучения).
- **Состояния учебно-методического обеспечения** (качество учебников, учебно-методических комплектов для учителя и ученика).
- **Воздействий извне** (семьи, взрослых, друзей, одноклассников и т. п.).
- **Оценочной системы** знаний.
- **Уровня педагогического взаимодействия** учащихся и преподавателя: коммуникативных отношений.

В условиях современной реальности повышение качества получаемого образования не ограничивается лишь качеством обучения. В наше время, когда информационные технологии развиваются настолько быстро, задача воспитания учеников включает в себя не только формирование навыков и знаний, но и развитие их личности в качестве гражданина-патриота, который готов к умелому и быстрому адаптированию к изменяющимся условиям жизни.

Достижение этого образовательного результата возможно через освоение универсальных учебных действий.

Мониторинг и контроль повышения качества образования

Система контроля качества обучения активно применяется для определения его эффективности. После введения новых государственных стандартов каждая школа разработала свою систему контроля, однако необходимо использовать единые принципы и критерии, чтобы обеспечить единообразие процесса и использовать его для принятия управленческих решений.

Кроме оценки учебных результатов (в баллах), также предполагается оценка метапредметных навыков (в форме комплексных работ) и личностных характеристик учеников (с помощью различных методов, таких как диагностика и анкетирование).

Чтобы улучшить качество образования в школе, необходимо проводить работу по созданию развивающей среды в классе. Задача учителя заключается в формировании такой среды, которая будет стимулировать интерес и развитие учеников. Для успешного обучения необходимо, чтобы учитель постоянно улучшал свой урок, находил новые методы и подходы к обучению, которые помогут повысить качество знаний и интерес учеников к изучаемому предмету.

Использование методов обучения, которые подразумевают активное участие учащихся, включая групповую работу, работу в парах и взаимообучение, помогает ученикам развивать умение анализировать, рассуждать, планировать, комбинировать и создавать новое.

Новые стандарты образования требуют, чтобы учителя проводили занятия в интересной форме, и это может быть достигнуто с помощью применения современных методов обучения, которые создаются преподавателями, например, путем создания проблемных заданий, кроссвордов, учебно-познавательных задач, презентаций и проектов.

Образовательный процесс, включающий в себя не только учебу, но и воспитание учащихся, может и быть оценен по различным показателям знаний, умений и навыков, а также по соответствию нормам ценностно-эмоционального отношения к окружающему миру и другим людям. Именно такая система позволяет оценить эффективность работы школы на основе её конечных результатов, в числе которых можно выделить следующие показатели:

- **уровень знаний** учащихся;
- **готовность учащихся** к дальнейшему обучению;
- **уровень воспитанности** школьников;
- **состояние здоровья** учащихся;
- **уровень социальной адаптации** выпускников в обществе;
- **степень соответствия** стандартам образования.

Представленные показатели активно дополняют друг друга и не могут быть качественно определены в отдельности.

Однако в настоящее время показатель успешности обучения учащихся является главным и основным при оценке работы школы и продолжает оставаться таким же.

Контроль результатов обучения, который является формой контроля качества знаний, имеет три функции: образовательную, воспитательную и развивающую, что характерно для процесса обучения в целом. Его обучающее значение заключается в возможности учащегося проверить свои знания и умения.

Постоянная проверка стимулирует работать систематически, демонстрировать классу качество своих знаний и навыков. Это способствует формированию у обучающихся чувства ответственности и стремления к лучшим результатам. Результаты обучения должны соответствовать общим целям предмета и требованиям к его освоению.

Одним из главных ресурсов человека является качественное образование, которое обеспечивает ему возможность свободно и эффективно действовать при изменяющихся условиях. Качество жизни человека и общества зависит от качества образования. Задача всего общества – искать пути улучшения качества образования, так как это является результатом работы не только школы, но и каждого из нас.

Литература:

1. Ханазарова С., Султонова С. Х. Мотивация На Уроках Русского Языка //Sustainability Of Education, Socio-Economic Science Theory. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 8-12.
2. Султонова С. Х. Обучение Научным Терминам На Занятиях По Русскому Языку Как Иностранному //Finland International Scientific Journal Of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 777-784.
3. Султонова С. Х. Русский Язык В Узбекистане: Вчера И Сегодня //Гуманитарный Трактат. – 2018. – №. 25. – С. 8-10.
4. Султонова С. Х. Особенности Коммуникативного Подхода В Работе С Текстом На Уроках Русского Языка Как Иностранного В Узбекских Группах //Central Asian Journal Of Literature, Philosophy And Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 10. – С. 1-12.
5. Султонова С. Х. Икт Как Средство Повышения Мотивации На Уроках Русского Языка //Вопросы Педагогики. – 2018. – №. 3. – С. 98-101.
6. Сайёра Холмирзаевна Султонова. (2023). Методы Обучения Русскому Языку В Узбекской Аудитории На Материале Художественных Текстов. Международный Журнал Образования, Социальных И Гуманитарных Наук. Издательство Академических Исследований Финляндии, 11 (9), 326–338. Https://Doi.Org/10.5281/Zenodo.8358195
7. Kakhkhorova, G. (2021). Objectives Of Particles In The Uzbek And English Languages. Philology Matters, 2021(3), 52-82.
8. 16.Kakhkhorova, G. S. (2021). The Allocation Of Particles In Translation Dictionaries And Ways To Express Them In Translation. Scientific Reports Of Bukhara State University, 5(2), 84-95.

9. Kakhkharova, G. S. (2020). Problems Of Translation Of Particles In The English And Uzbek Languages. Scientific Reports Of Bukhara State University, 4(4), 149-153.
10. Karimova U., Sayyora S. Роль Языка В Процессе Перевода //3rd Eurasian Conference On Language And Social Sciences. – 2018. – С. 68.
11. Султонова С. Х. Коммуникативные Аспекты В Методике Преподавании Рки В Школах Узбекистана //International Journal Of Conference Series On Education And Social Sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 3.
12. Sayyora Xolmirzaevna Sultanova. (2023). Features Of The Communicative Approach To Working With Text In The Lessons Of Russian As A Foreign Language In Uzbek Groups. *Current Research Journal Of Pedagogics*, *4*(09), 30–40. Https://Doi.Org/10.37547/Pedagogics-Crjp-04-09-06

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING BOSHQARUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xolmurodova Shoxsanam Mamatkarim qizi
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti.
shoxsanam8893@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruviga oid nazariy va amaliy g‘oyalar bayon etilgan. Boshqaruv va menejment tushunchalariga oid fikrlar tahlil etilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining boshqaruv bo‘yicha malaka va tajribasini oshirishga oid tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, menejer, menejment, innovatsiya, metod, texnologik, sog‘lom psixologik muhit.*

MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT SKILLS OF HEADS OF SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS

Annotation. *The article describes theoretical and practical ideas on the management of preschool education organization leaders. Opinions on the concepts of administration and management were analyzed. Recommendations are given on improving the management skills and experience of the director of the preschool education organization.*

Key words: *management, manager, management, innovation, method, technological, healthy psychological environment.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi davrida ilm-fanning barcha sohalari qatorida maktabgacha ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlarga zamin yaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “...maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi yo‘nalishlar belgilangan. Bu esa o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tizimining integrallashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, mutaxassislarni malaka oshirish jarayonida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan hududiy hamda xorijiy maktabgacha ta’lim malaka oshirish tashkilotlari o‘rtasida uzluksiz hamkorlikni kuchaytirishni ustuvor prinsiplar asosida ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Boshqaruv amaliyotidan ma’lumki, rahbarlik murakkab jarayon bo‘lib, u rahbardan nafaqat oliy ma’lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, boshqaruv yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va kompetensiyaga, shuningdek, ma’lum tajribaga ham ega bo‘lishni taqozo etadi. Ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonida rahbarlarning eng asosiy va muhim funksiyalaridan biri - bu mustaqil qaror chiqarish

funksiyasi bo‘lib, ularning sifati ta’lim muassasasi salohiyatiga, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligiga, pedagog-pedagoglar faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruv faoliyatini tashkil etuvchi direktor nafaqat pedagogik tajribaga, balki boshqaruv funksiyalari, metodlari va ulardan foydalanish, boshqaruv algoritmi va uning mohiyati, boshqaruv qarorlari va ularni ijro etish hamda liderlik uslublarini qo‘llash kabi qator ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti murakkab tarmoq bo‘lib, rahbarning undagi roli, faoliyati ko‘p qirralidir. Direktor esa maktabgacha ta’lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to‘laqonli hal etishga qaratilgan. U maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi moddiy-texnik bazasini shakllantirishda, ta’lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigienik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydi. O‘z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi, ularga umumiy rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni modeli mazmunli, motivatsion maqsadli, metodologik va texnologik yondashuvlar asosida rivojlantiriladi va amaliyotga tadbiq etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining boshqaruv madaniyatlarini shakllantirishning monitoring tizimi, ta’lim dasturlarini tabaqalashtirish hamda ta’lim mazmunini boyitish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilgan.

So‘ngi paytlarda rahbarlar va mutaxassislarning malakasini oshirish menejmentda eng zarur va muhim muammo sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyatini samarali boshqarish uning faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish va uni to‘g‘ri amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirish – muassasadagi zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlarini ko‘rsatib, faoliyatni amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta’lim muassasasi ishini rejalashtirish mumkinligini va zarurligini ta’kidlab, bunda u inson shaxsini shakllanishida ijtimoiy omillar, muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqida asosiy qoidalarga tayanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ma’muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o‘z-o‘zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo‘lgan turg‘un mehnat jamoasini shakllantirish, kadrlarni o‘zini muntazam takomillashtirib borish, pedagog va hizmat ko‘rsatish, mehnat samaradorligini oshirish ruxida tarbiyalash, o‘z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish hissini shakllantirida rahbarning boshqaruv salohiyati muxim ahamiyat kasb etadi.

Menejmentda ham, pedagogik menejmentda ham kasbiy rivojlanish nafaqat nazariy va amaliy tajribaning o‘zgarishiga, balki mutaxassis shaxsiy fazilatlariga ham bog‘liqdir.

Bundan tashqari, xulosa sifatida biz uchta muhim xulosani ko‘rib chiqamiz.

Birinchidan, o‘qitishning turli shakllarida malaka oshirish jarayonida kadrlar malakasini oshirish g‘oyasi shubha ostiga qo‘yilmaydi. Ko‘pgina tadqiqotchilar “kasbiy rivojlanish” va “o‘qitish” tushunchalarini teng deb bilishadi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining malakasini oshirish jarayonida ularning kasbiy rivojlanishini ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Ikkinchidan, menejment tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, kasbiy rivojlanish, mazmuni mutaxassislarning kasbiy o‘sishiga yordam beradigan tegishli dasturlarni yaratish sharti bilan amalga oshiriladi. Malaka oshirishning tarkibiy modeli bizning maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy rivojlanishi shartlari to‘g‘risidagi tasavvurlarimizga mos keladi.

Uchinchidan, T.Yu.Bazarov tomonidan xodimlar martaba tuzilishida aniqlangan refleksiv komponent, bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, rahbarning malaka oshirish sharoitida nima sodir bo‘layotganini va shaxsiy hamda faoliyat o‘zgarishi imkoniyatini anglash qobiliyati sifatida, rahbarlik faoliyati tarkibidagi muhim element bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan- texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali, innovatsion metodlaridan foydalanishni, boshqaruv yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va malakalarni, yangi shaxsiy va kasbiy sifatlarni talab qiladi, bu o‘z navbatida pedagoglar orasidan menejerlik ko‘nikmasini rivojlantirishning zaruriyatini belgilab beradi. Shundan kelib chiqib, ta’lim menejmentini rivojlantirish yo‘nalishidagi islohotlar barcha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni metodik tashkil etish va boshqaruv mexanizmlarini fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali, innovatsion metodlardan foydalangan holda takomillashtirish hamda boshqaruvga xos bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3107036

2. Абдуллаев С.Х., Турғунов С.Т. Таълим муассасалари раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари. // «Касб-хунар таълими» журнали, Т., 2006 йил, 1-сон.

3. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Ўқув қўлланма. – Т.: «Ворис», 3. 2006.

4. Ғуломов С.С.. Менежмент бошқарув санъати, назарияси ва амалиёти Тошкент 2003 286 б.

5. Турғунов С.Т., Абдуллаев С.Х. Таълим муассасаларида бошқарув фаолиятини 4. лойиҳалаштириш. // «Халқ таълими» журнали, Т., 2008, 6-сон.

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASH

Islomjon Solijonov
Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Kreativlik tushunchasi. Pedagoglarning kreativlik qobilyatini shakllantirish va uning ish faoliyatidagi o‘rni. Pedagogning kreativ sifatlari haqida gap boradi. Ta’lim jarayonida kreativ fikrlash, har xil g‘oyalar yaratish, munozaralar o‘tqizib dars samarasini oshirish uchun qilinadigan harakatlar to‘g‘ risida. Kreativ ta’limni rivojlantirish qo‘llaniladigan metodlar.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, his-tuyg‘u, kreativ fikrlash, ziddiyatli vaziyatlar, qobilyat, kreativ ta’lim jarayonidagi muammolar, innovatsion yondashuv, dars samarasini oshirish, texnologiyalar.

Аннотация: Понятие творчества. Формирование творчества педагогов и его роль в рабочем процессе. Это говорит о творческих качествах учителя. О творческом мышлении в учебном процессе, создании различных идей, действиях по повышению эффективности урока путем проведения дискуссий. Методы, используемые для развития творческого образования.

Ключевые слова: Мышление, чувство, творческое мышление, конфликтные ситуации, способность, проблемы творческого образовательного процесса, инновационный подход, повышение эффективности урока, технологии.

Abstract: The concept of creativity. Formation teachers‘ creativity and its role in work process. This speaks to the creative qualities of the teacher. About creative thinking in the educational process, the creation of various ideas, actions to improve the effectiveness of the lesson through discussions. Methods used to develop creative education.

Key words: Thinking, feeling, creative thinking, conflict situations, ability, problems of the creative educational process, innovative approach, increasing the effectiveness of the lesson, technology.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Jahon mamlakatlari kelajak kadrlarni tayorlashda talabalarni zamonaviy bilimlar bilan o‘qitish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo‘llash zamonaviy ta’limning asosiy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. “Kreativ” fikrlash tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo’lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim

texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi.

Maktabdagi o‘quv jarayonning sifati ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida o‘qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o‘zlashtrishda o‘quvchilardan mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga tasir ko‘rsatadi. Pedagogika amaliyotida o‘qitish usullari va metodlariga juda kata boylik to‘plangan. Ularni tanlash daturli sharoitlar o‘qitilayotgan fanning xarakteri bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozalar hisobga olinadi. Burhoniddin Zarkujiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql - faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo‘lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy, kuzatish va tajriba yo‘li bilan tarkib topadi. Inson hissiy idrokni boyitish bilangina o‘zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta’limda o‘quvchilarning o‘zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o‘qituvchi darsda hal qilishi mo‘ljallangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo‘llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtrishda ya’nada boshqa xil metodlar qo‘llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o‘ylash samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir.

O‘qitish metodlarining juda ko‘p turlari mavjud va ularning sonini aniqlab belgilab bo‘lmaydi. Metodlar o‘qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o‘qitish metodlarining yagona tasnifi yo‘q. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi. Umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o‘qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

“Muammo” texnologiyasi. Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchi (yoki o‘quvchi)larga predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishni o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba’zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos ta’lim texnologiyalarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoning kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi. O‘quvchi yoki o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni mos o‘rinlariga joylashtirgandan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya’ni u mashg‘ulotning bosqichli bo‘lishini va har bir bosqich o‘quvchi (yoki o‘quvchi)lardan maksimum diqqat-e’tibor talab qilishini, mashg‘ulot davomida ular yakka va jamoa bo‘lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o‘quvchi (yoki o‘quvchi)larning berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg‘otadi. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg‘ulot boshlanadi:

- o‘quvchi (yoki o‘quvchi)lar tomonidan mashg‘ulot uchun tayyorlangan kino lavxa diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariga belgilab qo‘yish (agar kinofilm ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lmasa u holda o‘qituvchi predmetining mavzusi

bo‘yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi materialdan foydalanishi mumkin);

• har bir a’zo ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi qog‘ozga flomaster bilan yozib chiqadi;

• berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ish guruh vakili tomonidan o‘qib eshittiriladi;

• o‘qituvchilar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog‘ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi;

• tarqatilgan qog‘ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir a’zosi o‘zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;

• o‘qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir a’zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

Namuna:

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqishi sabablari	Muammoni yechish yullari va Sizning harakatlaringiz
Toza ichimlik suvining kamligi	Suvni toza saqlashga e’tiborning kamligi	Tabiat va suvni saqlashga oid tadbirlar o‘tkazish

yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so‘ng har bir o‘quvchi (yoki o‘quvchi) bajargan taxliliy ishini barchaga o‘qib eshittiradi;

• muammolar va ularning yechimi bo‘yicha jamoaviy fikr almashiladi;

• himoyadan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlarga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Bunday texnologiya bilan o‘tkazilgan mashg‘ulot natijasida har bir o‘quvchi (yoki o‘quvchi) qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababi aniqlanishi kerakligini, keyin esa o‘ziga zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyasi va usullarni tanlashi hamda uning harakatlarini aniq belgilab olishi kerakligini bilib oladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish ilm-fan sohasi rivojining muhim omili ekan, bugungi kunda buyuk ajdodlarimizning munosib avlodi bo‘lishimiz lozim. Uug‘onish davri-Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda tahlim sohasi vakillari sifatida o‘z ijodiy va ilmiy ishlarimiz bilan hissamizni qo‘shishni maqsad qilib olishimiz hamda davlatimiz tomonidan qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda yetakchilar safida bo‘lishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika. O‘quv-qo‘llanma.T .: O‘zR FA “Fan”. 2006.

2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-y.

3. Internet saytlari.www.ziyouz.com kutubxonasi -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, - multimediya .uz

4. Shayxislamov, N. Z. (2020). Pxisolingvistikada assotsiativ metod asosida nutq-ning o‘rganilishi. O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqodlar va metodlar, 37- 42.

5. file:///C:/Users/User/Downloads/700-Article%20Text-1583-1-10-20201108.pdf

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DOLZARBLIGI

Salieva P.A.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi. Tel: 907368295

Annotatsiya. Ta’lim tizimini axborotlashtirish sharoitida pedagoglarning innovatsion faoliyatini xalqaro talablar asosida yangilab borish, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarning ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga motivatsiyasini oshirish, innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini yaratish hamda takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borish zaruriyati ta’limi tizimida malakali mutaxassislar tayyorlashda ijtimoiy talablar asosida ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirib borishda malaka oshirish tizimi barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innnovatsion faoliyatini, metodik tayyorgarlik darajasini oshirish uchun ilg‘or xorijiy tajribalar asosida malaka oshirish jarayonini tashkil etish, ularning ijodiy-pedagogik tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimining takomillashgan o‘quv jarayonini ta’minlash imkoniyatini nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, o‘qituvchining innnovatsion faoliyati, kasbiy konfetentsiya, pedagogik kompetensiya, o‘qitishning zamonaviy shakli, o‘qitish jarayoni, shaxsiy va kasbiy rivojlanish

Ta’lim tizimini axborotlashtirish sharoitida pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatini xalqaro talablar asosida yangilab borish, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarning ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga motivatsiyasini oshirish, innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini yaratish hamda takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud. Shu zaruriyatlardan kelib chiqadigan vazifalarni hal qilishda kurslarning o‘quv-uslubiy resurslarini ishlab chiqish va ularni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirib borish, pedagogik shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratish va o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish jarayonlarida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy-metodik asoslarini yaratish hamda jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda ularni takomillashtirib borish pedagogika fani uchun dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Ta’lim tizimini mazmun jihatidan yangilash, shuningdek malakali professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish” masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berildi. Shunga muvofiq kadrlar tayyorlash, o‘qituvchilarning pedagog kasbiy konfetensiyasi sifat darajasini oshirish hamda ularning raqobatbardoshligini ta’minlash, malaka oshirish tizimining ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish dolzarb vazifalar sanalib, jahon

tajribasiga asoslangan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining o‘quv-uslubiy ta’minotini bugungi kun talablari asosida ishlab chiqish va takomillashtirib borish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda barcha jabhalarda yangiliklar, izlanish va yangicha fikrlar va zamon talablariga mos ravishda faoliyat olib borish eng muhim masaladir. Innovatsiya – ilmiy-tadqiqot ishlarining, tajriba-konstruktorlik va texnologik faoliyatning natijasida jamiyatning ehtiyojlari yoki boshqa ijobiy ta‘sir uchun yaratilgan yangidan yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni (tovar, ish, xizmat va boshqalar), ishlab chiqarish jarayoni, yangi marketing usullari, yangi ish o‘rinlari yoki tashqi aloqalar tushuniladi. Bu o‘rinda - davlat va jamiyat hayotidagi mavjud barcha sohalarni tubdan isloh etish, yangilashga qaratilgan ishlarni olib borish natijasida ilmiy tadqiqot va innovatsiyon faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratish, bu jarayonga yoshlarni keng jalb etib, yangi ijodiy va ilmiy izlanishlar, turli ishlanmalar ishlab chiqish ishlarini har jihatdan qo‘llab-quvvatlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda innovatsiyon faoliyatning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida ishlab chiqilib, Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida muhokamaga qo‘yilgan O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsiyon faoliyat to‘g‘risida”gi qonun loyihasi har tomonlama, atroflicha o‘rganilib, keng jamoatchilik takliflari asosida takomillashtirilib, bugungi kunda soha faoliyatini tartibga soluvchi qonun normasi ishlab chiqildi. 2020-yilning 24-iyul sanasida imzolangan “Innovatsiyon faoliyat to‘g‘risida”gi O‘PQ-630-sonli qonuni bilan innovatsiyon faoliyat olib borish ushun zamon talablariga mos ravishda huquqiy asos yaratildi [1].

So‘ngi yillarda pedagog kadrlarning kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Malaka oshirish kurslari o‘quv jarayoniga o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari joriy etilmoqda. Pedagog kadrlar malakasini oshirishning amaldagi tartibi samarasi past bo‘lganligi, ko‘p resurs sarflashni talab etayotgani hamda zamonaviy talablarga javob bermayotganligi ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni hamda kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini qo‘llashni talab etmoqda.

Jahon ta’limi tizimida malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda jamiyatning o‘sib borayotgan ijtimoiy talablari asosida ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirib borishda malaka oshirish tizimi barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innnovatsion faoliyatini, metodik tayyorgarlik darajasini oshirish uchun ilg‘or xorijiy tajribalar asosida malaka oshirish jarayonini tashkil etish, ularning ijodiy-pedagogik tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimining takomillashgan o‘quv jarayonini ta’minlash imkoniyatini kengaytiradi.

“Malaka oshirishning ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarning mustaqil o‘zini - o‘zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirishga qiziqishlarini rag‘batlantirish, o‘qituvchilarning o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-metodik darajada tashkil etishlarini ta’minlaydi. Ilmiy-metodik jihatdan yuqori darajada

tashkil etilgan ta’limiy jarayonning muhim komponentlaridan biri o‘qituvchilarning innovatsion faoliyati bo‘lib, uning bu yo‘nalishdagi faoliyatini muntazam tarzda takomillashtirib borish pedagogika fanining dolzarb muammolari sirasiga kiradi” [3],.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’limida o‘qitish jarayoni ob’ekt-sub’ekt tarzida tashkil etilishi lozim. Zero, boshlang‘ich sinf o‘quvchisida doimiy muloqotga nisbatan ehtiyoj bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi bunday faoliyatga tayyor bo‘lishi kerak. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aksariyat o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatlarini yangi standartga rioya qilgan holda qura olmaydilar. O‘qituvchining innovatsion faoliyati bilan bog‘liqli yangi ta’limiy vazifalar, o‘quv faoliyatining zamonaviy talablari o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, uning kasbiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlariga bir qator vazifalarni yuklaydi. Ta’lim muassasasining innovatsion faoliyati va o‘qituvchining pedagogik innovatsiyalarni (yangiliklarni) ishlab chiqishi hamda amalga oshirishga tayyorgarligi o‘quv jarayonida bir-biri bilan bevosita bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatini kuzatish hamda natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pchiligi o‘zlarining tajribasi va malaka darajasidan qat’iy nazar, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki ularda pedagogik faoliyatning ushbu yo‘nalishi uchun yetarli tayyorgarlik mavjud emas. Pedagogik kompetensiyadagi mazkur bo‘shliqni to‘ldirishning eng samarali yo‘li, shubhasiz, malaka oshirish jarayonidir.

I.A.Bogdanova, “innovatsiya tushunchasi nafaqat innovatsiyalarni yaratish va tarqatish, balki umuman umumiy ta’lim muassasalari faoliyatidagi o‘zgarishlar bilan birga ta’lim jarayoniga tatbiq etiladigan o‘zgarishlarni ham anglatishini e’tirof etadi” [2].

V.S.Lazarevning ta’kidlashicha, “pedagogikada innovatsiyalar uch bosqichda amalga oshiriladigan yangilikdir: birinchidan, innovatsiyalar butun ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga ta’sir qiladi va uning paradigmasining o‘zgarishiga olib keladi, ikkinchidan, innovatsiyalar ma’lum bir ta’lim muassasasi faoliyatini o‘zgartirishga qaratilgan va, uchinchidan, innovatsiyalar ta’lim faoliyatida qo‘llaniladigan yangi shakllar, usullar va vositalarni o‘zgartirish yoki yaratishga qaratilgan bo‘ladi” [4].

Innovatsiyalarning asosiy mezoni yangiliklar bo‘lib, avvalo ilmiy pedagogik tadqiqot va ilg‘or pedagogik tajribalarning qiyosiy-statistik tahlillar asosida ishlab chiqiladigan hamda amalda ijobiy jarayonlarni yangiliklar bilan to‘ldirgan holatda samarali ta’limiy natijalarni kafolatlovchi muhitni yuzaga keltirishni maqsad qiladi. Shuning uchun, innovatsiyalar bilan shug‘ullanishni istagan o‘qituvchi uchun avval ta’lim jarayoniga tatbiq qilinayotgan yangiliklarning mohiyati, darajasi va albatta, mazkur yangilikning ta’limiy samarasini bashorat qila bilishi lozim. Ayni paytda alohida ta’kidlash joizki, taklif etilayotgan innovatsion yondashuv barcha o‘qituvchilar uchun birdek yangilik bo‘lmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham innovatsiyalar muayyan ta’lim muassasasi, muayyan o‘qituvchining innovatsion faoliyat ko‘rsatishga tayyorgarlik darajasiga ko‘ra tavsiya etiladi, ya’ni innovatsiyalarni joriy etish quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: ta’lim muassasasidagi mavjud muammolarning yechimini faol izlash zaruriyati; o‘qituvchilar tarkibining ta’lim oluvchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati

natijalarini bosqichma-bosqich yangilab borish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyatining mohiyati, bu jarayonga tayyorlashning xususiyatlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqar ekan, S.G.Grigoreva “innovatsion pedagogik faoliyat tushunchasini yaxlit tushunsha sifatida tizim-faoliyat yondashuv tarzida amalga oshirish uchun ko‘proq mos kelishini e’tirof etadi”[5]. Uning fikricha, “ushbu yondashuv o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatining rivojlanish bosqichlarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va amalda tatbiq etilishini to‘liq ochib berishga va tasvirlashga imkon beradi” [5].

Ta’limda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar muhimligi pedagogika fanida turli darajada tatbiq etib kelinishida ham namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchining innovatsion faoliyati mohiyatini tavsifiga oid, shuningdek, innovatsion faoliyatni tasniflashning turli xil mezonlari ishlab chiqilgan. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion faoliyatning komponentlari V.A. Slastenin va L.S. Podimovalar [6] tomonidan quyidagi tarqibiy qismlardan iboratligi e’tirof etiladi: motivatsion (o‘qituvchi tomonidan boshqa turdagi tizimda professional faoliyatning yetarlicha shaxsiy hissasini egallash); ijodiy (ijodiy taqlid va taqlidiy ijod orqali haqiqiy ijodkorlikka taqlid qilish orqali ijobiy amaliyotlar andazasi asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish); operatsion (yangilik bilan vaqtida tanishishni, uni o‘z pedagogik faoliyatiga tatbiq etishning optimal variantlari to‘g‘risida qaror qabul qilish, ta’lim natijalarini kuzatish va baholashni o‘z ichiga oladi); refleksiv (kasbiy faoliyatni bilish va tahlil qilish). Yuqoridagi komponentlar innovatsion faoliyatni tizimli jarayonlar sifatida tashkil etishni ta’minlaydi. Shunday qilib, g‘oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta’minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini tashkil etadigan faoliyat innovatsion faoliyatdir va bu faoliyat ham ekzogen, ham endogen omillar to‘laqonli ishlagandagina samarali kechadi. Ayni paytda alohida ta’kidlash joizki, o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi uning shaxsiy faoliyat (ijodiy yutuqlarga intilish, tashabbuskorlik, ijodiy faoliyatdagi samaradorlik, shu jumladan innovatsion xususiyat) va maxsus fazilatlarni (zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini bilish, zamonaviy pedagogik vositalarni bilish, o‘zining kasbiy kompetensiyasini muntazam oshirib borishga intilish) ayniqsa, mustaqil tarzda innovatsiyalarni rivojlantirish qobiliyati, jarayonlar va natijalarni tahlil qilish ham da kamchiliklarning sabablarini aniqlash mahorati bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyatga tayyorgarlik o‘qituvchilarning o‘quv texnologiyalarini o‘zlashtirishga psixologik tayyorgarligining o‘zgarishiga olib keladi va bu o‘z navbatida, ularning pedagogik mahoratiga bo‘lgan ishonch darajasiga ta’sir qiladi.Yuqorida aytilganlarga asoslanib yangilikka psixologik tayyorgarlikni eng muhim omil sifatida hisobga olish va tushunish kerak .

O‘z pedagogik faoliyatida pedagogik texnologiyalarni qo‘llayotgan o‘qituvchining asosiy vazifasi ta’limiy innovatsion jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta’sirini ta’minlashini ham taqozo etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, agar innovatsiya tashkilotchisi innovatsiyalarni tarqatadigan va amalga oshiradigan jamoaning a’zosi bo‘lsa, innovatsion jarayon yanada samarali bo‘ladi. Chunki bunday vaziyatda innovatsion faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchining har bir

harakati, faoliyat bosqichlari uning hamkasblari ko‘z o‘ngida sodir bo‘ladi. Shunday qilib, innovatsion jarayonning har bir ishtirokchisi innovator bo‘lishi uchun qulay pedagogik shart-sharoit yuzaga keladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyatini belgilovchi mezonlar ta’limda innovatsion yondashuvlar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyati va kasbiylikni baholash mezonlari, o‘qituvchining innovatsion salohiyati pedagogik hamda axborot texnologiyalari AKT dan foydalanishda talim samaradorligini oshirish masalalari, zamonaviy sharoitlarda nafaqat axborot va ma’lumotlardan, balki fandagi eng yangi qarashlardan foydalanish darajalari, ijodkorligi,bilimlar banki, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, mustaqil ishlash global internet tizimi, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim turlari inobatga olinishi zarur boladi.

Yuqori darajadagi professionallikka erishish o‘qituvchining o‘zini takomillashtirish va uni rivojlantirish jarayonining maqsadi bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining professionalligi natijasi- bu uning pedagogik faoliyatidagi, o‘qituvchi shaxsida va o‘quvchining shaxsiyatidagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, o‘qituvchining professionallik darajasini aniqlash uchun uning kasbiy salohiyati va o‘qitish natijalarining mahsulotlarini har tomonlama baholash kerak. O‘qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayonida biz tarkibiy qismdagi miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlar jarayonini tushunamiz, bu kasbiy mahoratni integratsiyalashgan shaxs tarbiyasi sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonuni, T,- 24.07.2020. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020-y., 03/20/630/1101-son.
2. Boqiev R.R. Elektron o‘quv-metodik materiallarini ishlab chiqish va qo‘llashning didaktik va psixofizologik jixatlari//Pedagogik mahorat Toshkent – 2005. - №2.
3. Курманова Э.А. Инновационная стратегия развития колледжа [Текст] / Э.А. Курманова // Среднее профессионалное образование. – 2011. –№ 3.
4. Лазарева Т.И. Технологии мотивационного управления инновационной деятелностю учителей / Т.И. Лаздина // Началная школа. – 2006. – № 2.
5. Гулбоев А.Т. Педагогик ташхис воситасида ўқитувчилар малакасини узлуксиз ошириш. Пед. фан. номз. ... дис. – Тошкент: ТДПУ, 2010. – 155 б.
6. Сластенин В.А. Готовност педагога к инновационной деятелности / Сибирский педагогический журнал.2007. – №1. С. 42–49.

FANLARARO INTEGRATSIYANI QO‘LLASHNING TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KUTUBXONANING O‘RNI

Sh.H.Haydarova

Buxoro pedagogika kolleji “Umumkasbiy fanlar kafedrasi” o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘quvchilarda kitobxonlik o‘quv jarayonining kasbiy qiziqishlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi o‘quvchilarning kasbiy faoliyatlarini muayyan maqsadga yo‘naltirish bilan bevosita bog‘laydi.

Kalit so`zlar: o‘quvchi, o‘quv, kasbiy, faoliyat, maqsad, ta’lim,texnologiyasi, o‘qituvchi, kompetensiya, kutubxona ,axborot

Annotation: Abstract: The organization of the educational process of reading in students taking into account professional interests directly connects the professional activities of students with directing them to a specific goal.

Key words: student, educational, professional, activity, goal, education, technology, teacher, competence, library, information

Аннотация: Организация учебного процесса чтения у студентов с учетом профессиональных интересов напрямую связывает профессиональную деятельность студентов с направлением ее к определенной цели.

Ключевые слова: студент, учебный, профессиональный, деятельность, цель, образование, технология, преподаватель, компетентность, библиотека, информация.

Respublikamizda axborot asrida yuz berayotgan o‘zgarishlar, insonlarning dunyo axborot olamiga kirishga bo‘lgan intilishlari, qiziqish va talablarining tobora ortib borishi ta’sirida milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, axborotga bo‘lgan talab va ehtiyojlarni qondirish jarayonini sifat jihatidan yanada takomiliashtirish borasida davlatimizning bir qator qonuniy hujjatlari e’lon qilindi va hayotga tatbiq etildi. O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi, «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi va «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi, «Elektron raqamli yoziivlar to‘g‘risida»gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida»gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarini shular jumlasiga kiritish mumkin. Kitob insoniyat va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismi bo‘lib, insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida kishilarni tarbiyalash, ularning aqliy rivojlanish vositasi bo‘lib keldi. Kitob barcha sohaga oid bilimlarni to‘plash, saqlash usuli sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, barcha integratsiyalarning almashinuvida va taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Inson tafakkurining rivojlanishida kitob va yozuv doimo hamroh bo‘lgan. Ba’zi madaniyat va ma’rifat shakllari og‘zaki aloqa munosabatlariga asoslangan bo‘lsa-da, yozuv paydo bo‘lgandan so‘nggina hozirgi kungacha yetib keldi va voqelikka aylandi. Insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchlisi, eng qulayi kitobdir. Barkamol inson tarbiyasi, odamlar ma’naviyati, madaniyati, odob-axloqi, bilim saviyasi, jamiyatda o‘ziga xos o‘rinni egallashi faqat kitobdan olgan bilimiga bog‘liq, chunki

u inson aql-zakovati va bilimlarini saqlash hamda keng yoyishning eng mukammal qurolidir. Kitob kishilarga insoniyat erishgan yutuqlarni bilish imkonini beradi, xalqlar o‘rtasidagi munosabatni, hamjihatlikni, o‘zaro mehr-oqibatni tiklaydi. Dunyoda tinchlikni o‘rnatishga, mustahkamlashga xizmat qiladi. Insoniyat yaratgan yozuvlar, kitoblar bo‘lmaganda odamzod o‘zining o‘tmishini, bilim, donolik va hikmatlarini ham bilmagan, ilm-fanni ham taraqqiy ettira olmagan bo‘lardi. Jami ixtirolar, kashflyotlar, taraqqiyot darajasi ham kitoblar tufaylidir. «Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir», degan edi nemis yozuvchisi S. Sveyg. Kitoblar barcha zamonlar uchun eng zarur narsa, qalblar malhami, bilimlar xazinasi, donishmandlik chashmasi bo‘lgan va bo‘lib qolaveradi. Kitoblar tufayli qadim davrlardagi kutubxonalar, ulardagi fondning mazmuni, katalog va kartotekalar tizimi, kutubxona xizmati ko‘rsatishning sifati haqidagi ma’lumotlami bilish bilan o‘sha davr kishilarining qiziqishlari, intilishlari, hayot darajasi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz

Ta’limni integratsiyalash fikri xalq ta’limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar professional ta’limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda professional ta’ yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba’zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta’limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad professional ta’limda kasbiy kompitensiyalar haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham professional ta’lim o‘quvchisi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘lkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari darsliklar bilan ta’minlanishi kerak. Integratsiyalashgan darslar – interaktiv ta’lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta’lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari Axborot resurs markazi tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta’lim rejasidagi o‘qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to‘la o‘zlashtrish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ko‘p maqsadli va rang-barangliligi bilan tavsiflanadi. Har bir

o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan darslik bilan ta’minlanishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Integratsiya – bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog‘liqlikdir.

Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan. Ulug‘didaktik Yan Amos Komenskiy ta’kidlashicha: "Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o‘rganilishi kerak".Shunday qilib,yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan,tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin.Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar,boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga,yaxlit,mantiqan ketma-ket, o‘ziga xos o‘tishi metodikasiga ega bo‘ladi. O‘qitishning zamonaviy texnologiyalari sirasiga quyidagilar kiradi: Kompyuter axborot texnologiyalari, masofadan o‘qitish, modulli o‘qitish, o‘yin texnologiyalari, loyiha texnologiyasi, hozirgi kundagi ta’lim jarayonini tashkillashtirishning eng samarali texnologiyalar bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi kunda integrativ o‘qitish texnologiyalari turli texnologiyalarning ko‘plab belgilarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bunday texnologiyalar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: Integrativlik- bu o‘rinda o‘quv jarayoni va uning tarkibiy qismlari integrativ xarakter kasb etadi. Modullilik- bu texnologiyaning barcha elementlari integrativ xarakter kasb etadi. Muammolilik-muammoli o‘qitish metodlarini qo‘llash asosida muammoli topshiriqlar va savollar vujudga keltiriladi va ular yordamida esa muammoli vaziyatlar yaratiladi. O‘quvchilarning savol va topshiriqlarni yechimini izlashga keng imkoniyatlarni ochishga yo‘naltirilgan izlanishlarni undash orqali amalga oshiriladi. Ma’lumki, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etiladigan o‘quv jarayoni albatta o‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va layoqatlarini hisobga olish orqali mikrosotsium talablari doirasida loyihalashtiriladi. Ushbu jarayonda integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Demak taqdim etilgan bilim, ko‘nikma, malakalar o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, betakror jihatlari, layoqatlari, kasbiy yo‘nalishlarini ham hisobga olishlarini nazarda tutadi. O‘quvchilarda o‘quv jarayonining kasbiy qiziqishlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi o‘quvchilarning kasbiy faoliyatlarini muayyan maqsadga yo‘naltirish bilan bevosita bog‘laydi. Chunki bu jarayonda o‘quvchilarning faolliklari va mustaqil fikirlash qobliyatlari rivojlantiriladi. O‘quvchilar o‘quv faoliyatining faol sub’ekti sifatida namoyon bo‘lib, ushbu jarayonda o‘quvchilarning bilimlarni egallash usullarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Integrativ yondashuvga asoslangan o‘quv jarayonining tizimlilik xarakteri o‘quv jarayonining tizimli xarkterga egaligi bilan ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Hechkimga sir emaski,

ta’lim jarayoni o‘zi mazmunida gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy bilimlarning integratsiyalashtirilgan holatda amalga oshiriladi. Har bir o‘quv fanining mazmuni esa muayyan bir axborotlarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda o‘quv faoliyatining individual hamda guruhli shakllari uyg‘unlashadi. Bu esa o‘z navbatida o‘rganilayotgan o‘quv predmeti mazmunidan kelib chiqqan holda ayniqsa o‘quv jarayonida topshiriqlari va muammolarni yechishga yo‘naltiriladi. Natijada o‘quvchilar axborotning turli manbalari bilan ishlash imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Demak o‘quv jarayonida hozirgi kunda integrativ xarakterdagi pedagogik texnologiyalarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. O‘quvchilar o‘zlashtira oladigan yaxlit darslik ta’lim mazmunining transformatsiyalashuvini ta’minlash;
2. loyihalashtirilayotgan faoliyatni jarayon sifatida tasavvur qilish;
3. Muayyan ta’lim sohasiga xos bo‘lgan topshiriqlar va ularni bajarish usullarini electron darsliklar orqali taqdim etish;

Hozirgi kunda ayniqsa, integrativ xarakterdagi texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv jarayoni muayyan prinsiplarga tayangan holda tashkil etiladi. Integrativ yondashuvga asoslangan ta’lim jarayoni va qo‘llaniladigan texnologiyalar umumiy qonuniyatlarga asoslanadi, bu qonuniyatlar ayni bir vaqtning o‘zida xususiy qonuniyatlar sifatida xam e’tirof etiladi.

Yozma axborot manbalari bo‘lgan kitob, gazeta, jurnal va boshqalar jamiyat taraqqiyotini, ma’naviy, ijtimoiy-maishiy talabehtiyojlarini to‘la qondirishga qaratilgan va butun insoniyat taraqqiyoti davomida shu vazifani ham bajarib kelgan. Yozma hujjatlar kishilarning o‘zaro fikr almashuv imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, kutubxonalar yozma asarlar umrini uzaytirish vositasi hisoblangan. Boshqa ijtimoiy muassasalar kabi kutubxonalar ham jamiyatning eng zaruriy ehtiyojlari asosida vujudga keldi va turli davrlarda turlicha shaklda rivojlanib keldi. Buning sababi, ma’lumotlarni qayd qilish, uzatish vositasi sifatida ijtimoiy talabga javob beradigan yozuvning paydo bo‘lishi bilan o‘z-o‘zidan tabiiy holda ana shu yozuvlarni saqlay oladigan muassasalarni vujudga keltirishga ehtiyoj paydo bo‘lgan edi. Shu tufayli ham kutubxonalar avval-boshdanoq jamiyatning mo‘tadil mavjudligini ta’minlaydigan ajralmas qismi hisoblangan.

Xulosa

Muayyan o‘quv vositalari va metodlarini tanlash o‘rganilayotgan o‘quv fanining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. O‘quv jarayonining moddiy-texnik, metodik, axborot ta’minoti, o‘quvchilarning ta’lim va aqliy rivojlanish darajalari, o‘qituvchilarning kasbiy mahorati kabi omillarga bevosita bog‘liq. O‘quv jarayoni mazmunini individuallashtirish uchun birinchi navbatda o‘quvchilarda hosil bo‘lgan bilimlar va shakllangan kompetensiyalarni boshlang‘ich darajalarini diagnostika qilish asosida o‘quvchilarning shaxsiy-ta’limiy traektoriyalarini belgilash, ularda integrativ xarakterdagi ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallari, ta’limiy topshiriqlar tizimini belgilab berishdan iborat. Demak, moslashuvchanlik prinsipi o‘quv dasturlarida ta’lim mazmunining o‘quvchilar tomonidan oson o‘zlashtirilishini ta’minlashi, taqdim etilgan bilimlarning

kompetensiyalarga aylanishi uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilarning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv materiallarini taqdim etishga alohida e’tibor qaratish talab qilinadi. Ushbu prinsip o‘quvchilarda ijtimoiy kompetentlilikning shakllanishiga ko‘maklashib, ularning jadal o‘zgarayotgan jamiyat hayotiga osongina moslashishlariga, turmush-tarzida duch keladigan muammolarni oson hal qila olishlariga, o‘z Vataniga sadoqatli insonlar bo‘lib shakillanishlariga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarniga e’tiqodli shaxslar sifatida kamol topishlariga va shaxs sifatida milliy o‘zligini anglashga ko‘maklashadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
Жамият ривожланиши мураккаб ва кўп омилли жараён бўлиб, бу жараённи иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва маданий жиҳатларда кўриб чиқиш мумкин. Лекин жамият тарихини қайси жиҳатда кўриб чиқмайлик, унинг ривожланишининг асосий омилларидан бири ахборот, олиш, таҳлил қилиш ва фойдаланишдир. А.И.Ракитовнинг ёзишича, – “Тарихий жараённи бундай тушуниш қабул қилиниши биланоқ, тарихнинг ахборот таркиби ва яратувчиси унда тизимни ташкил этувчи асосий аҳамиятга эга эканлиги аён бўлади” [4].

Демак, ахборот инсон ҳаётининг барча жабҳаларига таъсир кўрсатади ва шу нуқтаи назардан жамиятнинг энг муҳим ижтимоий ҳодисаси сифатида баҳоланади, бу борада уни ахборот жамияти деб аташ табиийдир.

Н.Н.Моисеев ахборот жамиятига қуйидагича таъриф беради: бу “Жамоавий интеллект (Жамоавий онг) унинг фаолиятида инсон онги ўз организмидаги аҳамиятига ўхшаш аҳамиятга эга, яъни жамият тараққиётига ва ундаги тобора ортиб бораётган қийинчиликларни енгиб ўтишга ҳисса қўшади... Ва янги гомеостазни шакллантириб, инсоният манфаати учун ҳаракат қилади” [5]. Муаллифнинг фикрича, бу жамоавий онг био ижтимоий қонунларни шакллантириб, инсон ва табиат ўртасида тубдан янги муносабатларни қуради.

Ю.С.Затуливетер ўзининг “Ижтимоий ўзгаришларнинг ахборот табиати” асарида келажакда ижтимоий ривожланиш қонунлари ижтимоий жараёнларнинг ўзини ўзи бошқариш функциясини белгилайдиган янги ахборот қонунлари билан алмаштирилишини таъкидлайди. Олимнинг фикрича, “инсон ахборот объектив равишда асосий ижтимоий тартибга солувчи бўладиган дунёни ўзлаштиради ва яратади”. Муаллиф ахборот жамиятини “оммавий онгда жамиятнинг ахборот тараққиёти қонуниятларига бевосита боғлиқлиги тушуниладиган ва ижтимоий менталитетларда мустаҳкамланган жамият” деб таърифлайди [6].

Шундай қилиб, жамият тақдири ҳамиша ахборот тараққиёти билан чамбарчас боғлиқ бўлади, аста-секин ахборотнинг роли ошиб боради ва у энг муҳим ижтимоий аҳамиятга эга омилга айланади.

Шунинг учун ахборот жамиятининг ривожланиши ва фаолият кўрсатиш қонуниятларини ўзлаштириш касбий стандартларда акс эттирилиши керак.

Ахборот жамиятининг ривожланиши ахборот ҳақиқатининг янги турини шакллантириш ғоясини шакллантиради. Жамият ҳаётининг турли соҳаларида ахборотдан фойдаланиш ижтимоий воқеликнинг асосий омилига айланди. Ахборотнинг ҳаётнинг барча жабҳаларида кенг қўлланилиши жамиятнинг глобаллашуви, бегоналашув ва ахборот тенгсизлигининг янги шаклининг пайдо бўлиши каби шаклларда намоён бўладиган сезиларли ижтимоий силжишларга олиб келди. Бундай ўзгаришлар жамиятнинг маданий салоҳиятига сезиларли таъсир кўрсатади.

Айрим салбий жиҳатларга қарамай, жамият тараққиёти жараёни ахборотни сақлаш, тўплаш ва узатиш жараёнларининг ўсиши билан боғлиқ. Бир қатор авлодларнинг моддий ва маънавий қадриятларини жамлаш қобилиятига эга бўлган маданият дунёнинг тузилиши тўғрисида тобора кўпроқ билимларни тўплашга ёрдам беради, шу билан бирга унинг ривожланиши учун янги имкониятлар яратади.

Маданиятнинг замонавий тадқиқотчилари унинг кўп функциялилиги ва мураккаб тузилишини тушунишдан келиб чиқадилар. Илмий адабиётларда маданиятнинг бошқа функциялари қаторида ахборот функцияси ҳам ажралиб туради, бу мураккаб белгилар тизимини ифодаловчи маданият кўпинча ижтимоий тажрибани авлоддан-авлодга ўтказишнинг ягона воситаси бўлиб хизмат қилади. Когнитив ва аксиологик функциялар ахборот билан чамбарчас боғлиқ, шунинг учун маданият инсониятнинг ижтимоий хотираси деб ҳисобланиши бежиз эмас.

Файласуф ва маданиятшунос Э.В.Соколов таъкидлаганидек, “маданият бир хил ҳодисани белгилашнинг бир нечта ўхшаш усулларига эга бўлган тил каби сезиларли ортиқчаликка эга. Маданиятда мумкин бўлган фаолиятнинг турли хил вариантлари билимлар, меъёрлар, қадриятлар шаклида белгиланади. Маданиятнинг ортиқчалиги ортиқча эмас... Маданий маълумотларнинг тўпланган захираси қанчалик кўп бўлса, жамият шунчалик барқарор ва ҳаётий бўлади” [7].

Маданиятни ахборот жараёни сифатида тушуниш ижодкорлик, ахборот узатиш, уни ўзлаштириш ёки қайта ишлаш каби элементларни ўз ичига олади.

Юқорида айтилганлар бизга маълумотни шахс томонидан ўзлаштирилиши шахсни тарбиялашда энг муҳим масала эканлигини таъкидлашга имкон беради. Инсон томонидан янги билимларни яратиш, ижтимоий аҳамиятга эга интеллектуал ёки моддий маҳсулотларни ишлаб чиқиш – бу шахснинг ахборот маконига кириш жараёни бўлиб, у шахснинг кейинги ижоди ва ривожланиши ва замонавий жамиятнинг ахборот маданиятига мос маданиятнинг ишлаши учун кенг имкониятлар очади.

Замонавий илмий адабиётларни таҳлили ахборот маданиятига ягона таърифи йўқлигини кўрсатади. Баъзи тадқиқотчиларнинг ишларида у

шахснинг ахборот сифатлари, бошқаларида ахборот фаолияти ёки аксиологик характердаги ахборот фаолияти сифатида белгиланади.

Баъзи асарларда ахборот маданияти шахсга ахборот маконида эркин ҳаракат қилиш имконини берувчи маълум даражадаги билимлар ёки янги турдаги мулоқот билан боғлиқ.

Таърифларнинг бундай хилма хиллиги тушунчанинг мураккаблиги ва турличалиги билан боғлиқ.

Биз ахборот маданиятини нафақат ижтимоий-маданий, балки техник-технологик ҳодиса сифатида ҳисобга олиш керак, деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Амосов Н.М. Мышление и информация / Н.М. Амосов // Проблемы мышления в современной науке. М.: Инфо-М, 1964. 164 с.

2. Нишоналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Ташкент: Фан, 1990. – 88 с.

3. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 314 б.

4. Ракитов А.И. Информация, наука, технология в глобальных исторических изменениях. М., 1998. 104 с.

5. Моисеев Н.Н. Судьба цивилизации. Путь разума / Н.Н. Моисеев. М.: Языки русской культуры. 2000. 224 с. с.87.

6. Затуливетер Ю.С. Информационная природа социальных перемен / Ю.С.Затуливетер. М.: СИНТЕГ. 2001. 132 с.

7. Соколов Э. В. Понятие, сущность и основные функции культуры / Э.В. Соколов. Л.: ЛГУ, 1989. С. 58-61.

TARBIYA DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASH VA IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Isroyiljon Toshpulatov

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Tanqidiy fikrlashga xos xususiyatlar, ochiqlik, moslashuvchanlik, hozirjavoblik, nuqtayi nazarning ichki noaniqligini aniqlash, qabul qilingan muqobil qarorlar bilan ajralib turadigan yangi fikrlash uslubini shakllantirish.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, tanqidiy fikrlash, his-tuyg‘u, kreativ fikrlash, ziddiyatli vaziyatlar, qobilyat, moslashuvchanlik, innovatsion yondashuv.

Аннотация: Характерные черты критического мышления: открытость, гибкость, отзывчивость, определение внутренней неопределенности точки зрения, формирование нового образа мышления, характеризующегося альтернативностью решений.

Ключевые слова: Мышление, критическое мышление, эмоции, творческое мышление, конфликтные ситуации, способности, гибкость, инновационный подход.

Abstract: Characteristics of critical thinking: openness, flexibility, openness, identification of the internal indeterminacy of a point of view, the formation of a new way of thinking that characterizes alternative solutions.

Key words: Thinking, critical thinking, emotions, creative thinking, conflict situations, abilities, flexibility, innovative approach.

Tanqidiy fikrlash-bu inson intellektual faoliyatining turlaridan biri bo‘lib, u yuqori darajadagi idrok, tushunish, atrofidagi axborot maydoniga yondashuvning obyektivligi bilan ajralib turadi. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi XX asr oxirlarida AQShda S.Templ, D.Stil va K.Meredit kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya bo‘lib, u ta’limdagi hamkorlikda o‘qitish va umumiy pedagogikaning umumlashgan nuqtasida hosil bo‘lgan ta’limot hisoblanadi. O‘qish va uqishning samarali usullari deganda maktabdagi o‘qishni emas, balki berilgan ma’lumotga munosabat bildirish, uni tahlil qilish kabi holatlar tushuniladi. Tanqidiy fikrlash ma’lumotlar o‘zlashtirishning o‘ziga xos yuqori bosqichidir.

Tanqidiy fikrlashga xos xususiyatlar: Ochiqlik, moslashuvchanlik, hozirjavoblik, nuqtayi nazarning ichki noaniqligini aniqlash, qabul qilingan muqobil qarorlar bilan ajralib turadigan yangi fikrlash uslubini shakllantirish. Tanqidiy fikrlash-hozirjavoblik, muloqot, ijodkorlik, harakatchanlik, mustaqillik, bag‘rikenglik, o‘z tanlovi va o‘z faoliyatining natijalari uchun javobgarlik kabi shaxsning asosiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi xarakterga ega tushuncha hisoblanadi.

Maktab o‘quvchisida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun u bilan muloqotda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- Sabab-oqibat munosabatlarini ajratib ko'rsatish;

- Yangi g‘oyalar va bilimlarni mavjud bo'lganlarlari bilan taqqoslagan holda ko'rib chiqish;
- Keraksiz yoki noto‘g‘ri ma'lumotni rad etish ko‘nikmasini shakllantirish;
- Turli xil ma’lumotlar bir-biri bilan qanday bog'liqligini topish;
- Fikrlashda xatolarni ajratib ko‘rsatish;
- Har kimning o‘ziga xos qadriyat yo‘nalishlari, qiziqishlari, mafkuraviy munosabati mavjudligini tushuntirish;
- Keskin fikrlar bildirmaslik;
- Fikringizni xolis holatda bildirish;
- Noto‘g‘ri xulosalarga olib keladigan stereotiplarni aniqlash;
- Qarama-qarshi munosabat, fikr va hukmlarni aniqlash;
- Har doim taxmin qilish mumkin bo'lgan haqiqat va shaxsiy fikrni ajrata bilish;
- Nutq yoki yozishning mantiqiy nomuvofiqligiga shubha qiling;
- Matnda yoki nutqda asosiy fikrni ajratish va uni ta'kidlash.

Yuqoridagi qoidalarning barchasi tafakkurga ta’sir qiladiva bevosita tanqidiy fikrlashning shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Darslar davomida ijodiy fikrlashni rivojlantirish omillariga quyidagi bir qancha usullarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

“Qarang — fikrlang — xulosa qiling” usuli

O‘quvchiga muayyan tasvir yoki voqea-hodisa ko‘rsatiladi va unga quyidagi savollar beriladi:

1. Nimani ko‘ryapsan?
2. Bu haqda nima deb o‘ylaysan?
3. Bu tasvirdan qanday xulosa qilish mumkin?

Ko‘rayotgan tafsilotlarni muhokama qilishni davom eting. Kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantira turib, “Yana nima?” deb so‘rang.

“Bu haqida nima deb o‘ylaysan?”, “Qanday xulosa chiqarish mumkin?”.

Miya xulosalarni ishlab chiqarishi kerak. “Demak, … qilish kerakmas”,

“Demak, shunday… yo‘l tutish kerak”.

Bolada qanday savollar tug‘iladi? “Nega???”, “Bularning barchasi qancha davom etadi?”, “Agar qoidalar buzilsa, nima bo‘ladi?”, “Buni qanday qilib yaxshiroq qilish mumkin?”

Mana shunday savollar berish jarayonida o‘quvchida ijodkorlik xususiyatlari bilan birga tanqidiy tafakkur ham rivojlanadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning yana bir usuli quyidagicha:

Oddiy plastik shishani tavsiflovchi uch xil so‘z ,iborani ayting. Aniq so‘zning o‘zini ishlatmang: *suv,* shisha idish, yozuv, *plastmassa,* ko‘k, *oq.*

Har safar topshiriq berganingizda, darhol hamma biladigan, ijodiy bo‘lmagan so‘zlar va nomlarni chiqarib tashlang. Bola boshqalar ko‘rgan va boshqalar ko‘rmaydigan narsalarni ko‘rishni o‘rganishi kerak.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”, degan fikrlari ayniqsa, hozirgi zamonamiz uchun nihoyatda dolzarbdir.

Ayniqsa, Tarbiya fani mavzulari o‘quvchida tanqidiy fikrlash rivojlanishiga alohida e’tibor berishi bilan xarakterlidir.

Tanqidiy fikrlash quyidagi ko’nikmalarda namoyon bo‘ladi:

Muayyan voqelikni har tomonlama ko‘ra olish.

Mavjudlikning yutuq va kamchiliklarini o‘rganish.

Umumiy holatda xulosa chiqara olish.

Har bir fikrga qarshi fikr topa olish.

Tarbiya darslarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun dars jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;
- O‘quvchi-yoshlarlarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- Turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish;
- Har bir o‘quvchning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘zida ishonch hissini uyg‘otish.

Bu qoidalarga amal qilish darslarda o‘quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga sabab bo‘ladi. Bunday topshiriqlar, matnlar Tarbiya darsligida anchagina. Jumladan 7-sinf Tarbiya darsligida keltirilgan quyidagi matn bilan tanishamiz.

Maqsadga nima olib boradi?

Aql-zakovatda tengsiz ustoz Zohid kamonbozlikda ham beqiyos edi. Bir kuni tongda u mahoratiga bepisandlik bilan qaraydigan shogirdi hamrohligida uyi atrofni o‘rab olgan quyuq o‘rmonzorda kamondan o‘q uzish mashqlarini bajarar edi. Bunday mashg‘ulotlarga bir necha marotaba guvoh bo‘lgan izdoshi esa o‘zini mashqlarga befarqdek tutardi.

Ustoz eman daraxti ostida o‘sgan yovvoyi atirgul g‘unchasini uzib, daraxtning baland shoxiga ildi-da, undan yuz qadam uzoqlashdi. Uning harakatlaridan taajjubga tushgan shogird jarayonni diqqat bilan kuzata boshladi. Ustoz sadog‘idan o‘q olib, noyob yog‘ochdan tayyorlangan yoyiga ildi. Shogirdiga ro‘molcha uzatib, “ko‘zimni bog‘la” dedi, keyin:

– Mardlik timsoli bo‘lgan kamonbozlik bilan shug‘ullanganimni ko‘p ko‘rgansan, to‘g‘rimi? – dedi.

– Har kuni va yana atirgul g‘unchasini 300 qadam uzoqlikdan turib urishingizni ham, – dedi shogird.

Ustoz qaddini rostladi, oyoqlarini qulay joylashtirib, o‘ng yelkasi bilan orqaroq tisarildi, kamonni tarang tortib, o‘qni nishonga to‘g‘riladi. Vaziyatdan karaxt bo‘lgan shogird vizillab uchgan o‘qning ovozidan sergak tortdi. O‘q gul tugul daraxtga ham tegmaganini ko‘rgach, miyig‘ida kuldi.

– Xo‘sh, o‘qni tekkiza oldimmi? – so‘radi ustoz bog‘langan ko‘zlaridan ro‘molchani yechar ekan.

– Yo‘q! Taassufki, o‘q tamomila boshqa yoqqa qarab uchdi. Men inson idrokining qudrati bilan bog‘liq mo‘jizaviy hodisaga guvoh bo‘lamanmi, deb o‘ylab turgan edim. Afsus!.. – dedi shogird.

– Hozirgina senga inson idrokiga daxldor muhim saboqni berdim, – deya xotirjamlik bilan javob berdi ustoz. – Ko‘zim ochiqligida g‘unchani 300 qadamdan ura olaman. Garchi, bugun unga 2 barobar yaqin tursam-da, nishonga ololmadim.

Unutma, maqsadingga ko‘zing yetsagina erishasan. Aks holda, unga qanchalar yaqinliging ahamiyatsiz. Bu dunyoda o‘zi ko‘ra olmagan nishonga o‘qni urish hech kimga nasib qilmagan.

Ushbu matn orqali o‘quvchi har bir qahramonga tanqidiy fikr bildirishi, voqealar rivojini o‘zi tasavvur etganchalik o‘zgartirishi mumkin. Bunda o‘qituvchidan yo‘naltiruvchi savollar berib borish talab etiladi. Masalan, “Shogirdning xatti-harakatini qanday baholaysiz?” yoki “Ustoz to‘gri ish qildimi?” kabi savollar o‘quvchini o‘ylashga, har bir voqelikka tanqidiy yondashishga undaydi.

Yoki 10-sinf Tarbiya darsligida “Mahallada duv-duv gap” filmi haqida savollar keltirilgan. “Mahallada duv-duv gap” filmidagi Mehri ayaning o‘g‘li xato qildimi? Fikringizni asoslang” savoli o‘quvchi uchun tanqidiy tafakkur borasida yaxshigina mashq bo‘lishi mumkin.

Tarbiya darslarida ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- O‘quvchining individualligini hech qanday tarzda bo‘g‘maslik;
- O‘quvchining maqsad, vazifalarni mustaqil tanlashini har tomonlama rag‘batlantirish;
- O‘quvchilarda o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni shakllantirish;
- Tasavvurni rivojlantirish va xayolparastlikka moyillikni bostirmaslik.

Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ijodiy qobiliyatning shartli guruhlanishini ham bilish lozim bo‘ladi:

qiziqishlar va moyilliklar, ya’ni motivatsiya bilan bog‘liq qobiliyatlar.

1. emotsionallik, ya'ni temperament bilan bog‘liq qobiliyatlar
2. intellektual qobiliyatlar.

Tarbiya darsligidagi topshiriqlar, matnlar va suratlarning barchasi o‘quvchida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ixtisoslashgan. Jumladan, 10-sinf tarbiya darsligidagi ayrim topshiriqlarni ko‘rib o‘tamiz:

1. Oiladagi burch va vazifalaringiz ro‘yxatini tuzing. Fikrlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

2. Oila oldidagi burchlaringizni bajarishda shaxsiy manfaatlaringizdan voz kecha olasizmi? Nima uchun?

3. Oila oldida mas’uliyatli bo‘lish haqida 10 ta fakt keltiring.

4. Taqdimot shaklida quyidagi daraxt shoxlariga o‘z shajarangizni joylashtiring. Shajarangizni sharaf bilan davom ettirish uchun qanday burch va mas’uliyatingiz bor? Oila daraxtingiz chuqur ildiz otishi uchun nimalarga e’tibor berishingiz kerak?

5. Yigit kishining oila oldidagi asosiy mas’uliyati nimada deb hisoblaysiz?

6. “Haromga qarama, halolingga ko‘z tegadi” degan maqolning oila tinchligi bilan qanday aloqasi bor? Bu hikmatda aytilgan fikrning oila oldidagi mas’uliyat bilan qanday bog‘liqligi bor?

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda o‘ylash, tasavvur qilish, yaratuvchanlik xususiyatlarini shakllantiradi.

Tarbiya darslarida tanqidiy fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish natijasida:

- O‘quvchi atrofidagi voqea-hodisalarga nisbatan xolis munosabatda bo‘ladi;
- Axborotlarni saralash va tasniflashni o‘rganadi;
- Yaratuvchanlik qobiliyatini hayotning har jabhasida namoyon qila oladi;
- Har qanday voqelikning yaxshi va yomon tomonlarini ko‘ra oladi;
- Mustaqil loyihalar tuza oladi, o‘z faoliyatiga ijodiy yondashadi;
- Masalaga kreativ yondashib, uning yangi yechimlarini taklif qila oladi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov F. M. Kasbiy stress, emotsional so‘nish holatlari profilaktikasi va korreksiyasiga qaratilgan korreksion dastur. – Toshkent:... 2022.
2. Baratov Sh. Ta’limda psixologik xizmat asoslari. Monografiya. – Toshkent: Ma’naviyat”, 1999. – 302 b.
3. Hojiboyev I. Umumiy psixodiagnostika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: 2023. – 235 bet.
4. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G., Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. Axborotnoma 1-son. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 22 b.
5. Ishmuhamedov R. J, Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.
6. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.
7. Jabborov X. X. O‘qituvchining kasbiy faoliyatga psixologik tayyorligi va kasbiy stress, kasbiy (emotsional so‘nish) holatlari diagnostika test to‘plami. – Toshkent:2022.
8. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b.
9. Nishonova Z. T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Oliy pedagogik o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent:.2013. – 364 b.
10. Nishonova Z. T., Abdullayeva D., Baykunusova G. O‘smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent:... 2015.

ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

Ботирова Шахло Исамиддиновна, Омонова Мухлиса Дўстназар қизи
педагогика фанлари доктори, профессор ўқитувчи; Чирчиқ давлат педагогика университети

Аннотация. Индивидуал ёндашув асосида талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш муаммоси муҳим ижтимоий-педагогик муаммодир.

Мақолада педагогик муаммоларни ҳал этиш, педагогик вазиятларни умумлаштириш ва ўзгартириш, педагогик қарорлар қабул қилиш ва амалга ошириш, ўз фаолияти натижаларини талабанинг ривожланиш мезонига кўра тушуниш ва баҳолашга қодир бўлган битирувчини тайёрлаш масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Технология, тизим, ёрдам, кўникма, малака, фикрлаш, мотивация, қобилият, иқтидор.

Замонавий олий таълим муассасаларида таълим, биринчи навбатда, талабаларнинг билиш фаолиятини бошқариш жараёнидир. Билиш фаолияти таркибида танқидий фикрлашнинг ўрнини аниқлаш учун хорижий ва маҳаллий тадқиқотчиларнинг концепцияларида шакллантирилган ушбу турдаги фикрлашнинг асосий хусусиятларини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга.

Фикрлаш нарса ва ҳодисаларнинг моҳияти, улар орасидаги мунтазам алоқа ва муносабатларни билиш билан ифодаланган воқеликнинг воситалаштирилган ва умумлаштирилган акси, ақлий фаолият туридан иборат.

Фикрлашнинг биринчи хусусияти унинг воситачилик характеридир. Киши бевосита, тўғридан-тўғри била олмайдиган нарсани билвосита ўрганади: баъзи хусусиятларни бошқалар орқали, номаълумни маълум орқали билади. Фикрлаш ҳар доим ҳислар, туйғулар, ғоялар ва илгари олинган назарий билимлар каби ҳиссий тажриба маълумотларига асосланади.

Фикрлашнинг иккинчи хусусияти унинг умумлаштирилишидир. Объектларнинг барча хусусиятлари бир-бири билан боғлиқлиги сабабли воқелик объектларида умумий ва асосийни билиш сифатида умумлаштириш мумкин. Умумийлик фақат алоҳида, конкретликда мавжуд ва намоён бўлади [2].

Индивидуал ёндашув асосида талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш муаммоси муҳим ижтимоий-педагогик муаммодир. Унинг ечими педагогик муаммоларни ҳал этишга, педагогик вазиятларни умумлаштиришга ва ўзгартиришга, педагогик қарорлар қабул қилишга ва амалга оширишга, ўз фаолияти натижаларини талабанинг ривожланиш мезонига кўра тушуниш ва баҳолашга қодир бўлган битирувчини тайёрлаш билан боғлиқ.

Принцип сифатида индивидуал ёндашув барча мавжуд технологияларда у ёки бу даражада амалга оширилади, шунинг учун таълимни

индивидуаллаштириш ҳам “кириш технологияси” деб ҳисобланиши мумкин.

Шу билан бирга, индивидуал ёндашувни ўқув мақсадларига эришишнинг асосий воситасига айлантирадиган технологияларни алоҳида, яхлит педагогик технологиянинг барча сифат ва хусусиятларига эга бўлган мустақил тизим сифатида кўриб чиқиш мумкин.

Технологияни амалга оширишнинг умумий хусусиятлари:

1. Ҳар бир талабага индивидуал педагогик ёрдам кўрсатиш.

2. Билим, кўникма ва малакалардаги, фикрлаш жараёнида индивидуал камчиликларни бартараф этиш.

3. Оила тарбиясидаги камчиликларни, шунингдек мотивация соҳасининг ривожланмаганлиги ва ирода заифлигини ҳисобга олиш ва бартараф этиш.

4. Қобилиятли ва иқтидорли талабаларга нисбатан ўқув жараёнини оптималлаштириш (ижодий фаолият, дарс ва дарсдан ташқари машғулотларнинг уйғунлиги).

5. Ўқув жараёнининг элементларини танлаш эркинлигини таъминлаш.

6. Умумий таълим кўникмаларини шакллантириш.

7. Талабаларда ўзини адекват баҳолашни шакллантириш.

8. Ўқитишнинг техник воситаларидан, жумладан, компьютердан фойдаланиш.

9. Қобилиятли ва иқтидорли талабаларни қўллаб-қувватлаш.

Индивидуал ёндашув асосида талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантиришдан кутилаётган натижалар талаба ғоялари, унинг қарашлари, амалий кўникмаларини ривожлантириш, талаба тафаккурини ривожлантиришда кўринади.

Талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш муаммосини ўрганиш ўқитувчи фаолияти стратегиясини асослаш билан боғлиқ. Педагогик стратегия қуйидагилар боғлиқ:

а) талабаларни тарбиялаш ва ўқитишда амалий фаолият натижаларини тушуниш мезонига айланган тафаккурнинг категорик тузилмаларини шакллантириш;

б) талабаларнинг яхлит педагогик фикрлаш қобилиятини ривожлантириш;

в) талабаларнинг қабул қилинган ва амалга оширилган педагогик қарорларни баҳолаш ва уларни танқидий таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантириш.

Индивидуал ёндашув асосида талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш учун ўқув жараёнида тегишли шароитлар яратилганда ушбу муаммоларни ҳал қилиш ҳақиқатга айланади. Ушбу шарт-шароитларни яратиш талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш муаммосини ҳал қилиш учун индивидуал ёндашувларни амалга оширишни талаб қилади.

Э.Г.Юдин таъкидлаганидек, “ёндашув” тушунчаси тадқиқотнинг фундаментал услубий йўналишини, ўрганиш объекти кўриб чиқилаётган нуқтаи назарни (объектни аниқлаш усули), умумий тадқиқот стратегиясини бошқарадиган тушунча ёки тамойилни англатади [3].

Унинг фикрига кўра ҳодисалар, объектлар ва бошқаларни ўрганишнинг

ўзига хос ёндашувларидан фойдаланиш, индивидуал ёндашув услубий таъминот ва илмий таъминотнинг илмий қоидаларини амалга ошириш заруриятини ўз ичига олади. У тадқиқот, у умумий фалсафий тамойиллар билан бир қаторда, умумий илмий ва махсус илмий методология даражасида ишлаб чиқилган билимлар билан, муайян назарияларга нисбатан методологик функцияни бажарадиган махсус илмий назарияларни ўз ичига олиши керак [3].

Индивидуал ёндашув асосида талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш муаммоли-услубий, муаммоли-диалогик, фаолиятга асосланган, шахсга йўналтирилган ва муаммоли-рефлектив ёндашувлар билан ифодаланади. У фикрлашнинг категорик тузилмаларини ривожлантиришга имкон беради.

Фаолиятнинг умумлаштирилган намуналари асосида қурилган танқидий фикрлаш аниқ, тизимли ва изчил ҳаракатлар шаклида давом этади. Бунинг учун ўқитувчи муайян амалий вазиятларни тушунишда тўғри хулосалар ёки алгоритмлар тузиши ва уларга қатъий риоя қилиши керак.

Тизимли танқидий фикрлаш қуйидагиларда намоён бўлади:

- педагогик воқелик ҳодиса ва жараёнларини таҳлил қилишда фалсафа, педагогика, психология, физиология, хусусий методлар ва бошқалардаги илмий билимларга таяниш қобилиятида;

- объектлар ва ҳодисаларнинг тузилишини, улар ўртасидаги муносабатларни, алоқаларни ва уларнинг энг муҳимларини ажратиб кўрсатиш қобилиятини кўришда;

- фаолият, хулқ-атвор ва бошқалар таркибидаги ҳар бир таркибий қисмнинг ролини, унинг талаба фаоллигини ривожлантиришга таъсирини тушунишда;

- педагогик ҳодисаларнинг турли даражалари, ривожланиш босқичлари, жараёнлари, сифатлари ва ривожланиш динамикасини кўришда;

- талабанинг муайян ҳаракатлари, ҳаракатлари, унинг фаолияти мотивларини тушунтирувчи сабаблар ва ҳолатларнинг бутун мажмуасини аниқлаш ва баҳолаш қобилиятида.

Талабаларнинг танқидий фикрлаши - бу яхлитлик, чунки бу унга педагогик ҳодисаларни уларнинг номувофиқлигида қамраб олишга, фаолиятда, мулоқотда дуч келадиган қийинчиликларини аниқлашга имкон беради ва ўқитувчини талабалар билан ўзаро муносабатларда ривожланадиган когнитив ва амалий вазиятларга киритади. Яхлитлик, И.В.Блауберг таъкидлаганидек, “педагогик воқеликда бошланғич нуқта, воқеликнинг маълум бир соҳасини тушунтириш учун координаталар тизимининг бошланишидир” [1].

Фикрлашда, ҳар қандай ўзига хосликдан қатъи назар, фаолиятни ҳисобга олиш мавжуд. Буларнинг барчаси танқидий фикрлашнинг кўп қиррали эканлигига олиб келади, чунки у ҳар қандай вазиятга тушунтирилиши мумкин бўлган умумлаштирилган фаолият моделларини ўз ичига олади. Аммо, кўп истиқболли бўлишига қарамай, танқидий фикрлаш мураккабдир, чунки ўқитувчи амалий муаммоларга стандарт ечимларни ишлаб чиқади. Қўйилган муаммоларнинг мураккаблигига қараб, танқидий фикрлаш турли хил

ечимларни таклиф қилади. Шунинг учун бундай фикрлаш метакогнитив бўлиши керак, яъни стандарт ечимларнинг ишлаб чиқилган схемаларининг алгоритмик мураккаблигига мувофиқ бир неча даражага эга бўлиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Блауберг, И.В. Становление и сущность системного подхода / И.В.Блауберг, Э.Г.Юдин. -М. : Наука, 1993. - 270 с.
2. Ноэл-Цигульская Т.Ф. Танқидий фикрлаш ҳақида. М., 2000. Р.295
3. Юдин, Э.Г. Системный подход и принцип деятельности / Э.Г.Юдин. -М.: Наука, 1978.-176 с.

TOMAS HARRIS ASARLARIDA MAKON VA ZAMONNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI

Samandarova Sojida Furqat qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tomas Harris asarlarida makon va vaqt tasvirining o’ziga xos jihatlari tadqiq etilib, bunda u yaratgan Gannibal Lekter obrazi olgan mashhur romanlariga e’tibor beradi. Xarrisning hikoya qilish usullarini, jumladan, vaziyat, vaqtinchalik siljishlar va tematik motivlarning tavsifini sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot muallifning kayfiyatni uyg‘otish, keskinlikni oshirish va xarakter rivojlanishini chuqurlashtirish uchun makon va vaqt o‘lchamlarini qanday qurishi va boshqarishini o‘rganadi.

Аннотация. В этой статье исследуются нюансы изображения пространства и времени в литературных произведениях Томаса Харриса, уделяя особое внимание его романам с участием Ганнибала Лектера. Благодаря тщательному анализу повествовательных техник Харриса, включая описания места, временные сдвиги и тематические мотивы, в этом исследовании рассматривается, как автор конструирует и манипулирует измерениями пространства и времени, чтобы вызвать настроение, усилить напряжение и углубить развитие персонажей.

Abstract. This paper explores the nuanced portrayal of space and time in the literary works of Thomas Harris, particularly focusing on his renowned novels featuring the iconic character Hannibal Lecter. Through a close analysis of Harris’s narrative techniques, including setting descriptions, temporal shifts, and thematic motifs, this study examines how the author constructs and manipulates the dimensions of space and time to evoke mood, enhance suspense, and deepen character development.

Kalit so‘zlar: xronotop, xronotop shakllari, badiiy va tarixiy haqiqat, makon, zamon, psixologik triller.

Ключевые слова: хронотоп, формы хронотопа, художественная реальность и историческая реальност, пространство, время, психологический триллер.

Key words: chronotope, forms of chronotope, fictional reality and historical reality, space, time, psychological thriller.

Inson aqli bilan o‘lchanuvchi zamon, ya’ni vaqt ming yilliklar, asrlar, yillar, fasllar, oylar, haftalar, kunlar, soatlar, daqiqalar va soniyalar kabi yaxlit astronomik qatorni, makon – fazo esa osmon, yer, dengiz, sahro, tog‘ singari geografik yaxlitlikni o‘zida mujassamlashtiradi. Badiiy adabiyotda yozuvchilar o‘zlari tasvirlab berayotgan voqealarning ishonchlilik darajasini oshirish maqsadida mazkur astronomik vaqt va geografik fazodan o‘zlarining dunyoqarashi, bilimi hamda mahoratiga qarab har xil yo‘sinlarda foydalanishadi. Ular yaratgan badiiy ijod namunalarida zamon – vaqt va makon – fazo fiziklikdan adabiylik hamda falsafiylikka ko‘chadi. Hech bir hodisa badiiy zamon va makonning qismlaridan tashqarida sodir bo‘lmaydi. Ushbu unsurlar asarning badiiyatida qo‘shilib, aniq bir

davrga xos manzarani hosil qiladi. Qolaversa, ular asar qahramonlarining qalb dialektikasi, ruhiy hamda ma'naviy dunyosiga xos jihatlarni suratlashda katta ahamiyatga ega. Bir qarashda zamonning ma'lum bir makonda bog'liqligi, unda aks etishi o'z-o'zidan tushunarlidek taassurot uyg'otadi. Biroq, unga adabiyot nuqtayi nazaridan chuqurroq qaralganda zamon va makonning o'zaro munosabatlari badiiy asarda juda muhim ekanligini ko'rish mumkin. M.Baxtin aytganidek, *"Janr va janriy tarmoqlar aynan xronotop orqali belgilanadi, Xronotop adabiy asarning badiiy yaxlitligini, uning aniq voqelikka munosabatini ochib beradi"* [2; 43-44].

Jahon adabiyotshunosligida badiiy xronotop, uning janr strukturasini yuzaga keltirishdagi ahamiyati, badiiy zamon va badiiy makonning epik matn syujet-kompozitsion hududini vujudga keltirishdagi vazifalari haqida muayyan ishlar mavjud. Xronotop muammosi bilan H.Meyerhof, A.Jeyms, U.Heffernan, M.Vukanovichand, M.Atkins, A.A.Uxtomskiy, L.A.Gogotoshvili, S.A.Azarenko, Yu.G.Xazankovich, N.Gey kabi tadqiqotchilar shug'ullanishgan. Shuningdek, san'at va adabiyotdagi makon, zamon muammolari M.S.Kogan. B.S.Meylax, V.B.Ivanov, M.A.Saparov, T.L.Motileva, D.S.Lixachev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jahon va rus adabiyotshunosligida xronotop poetikasiga oid barcha tadqiqotlarning mohiyatida rus olimi Baxtinning bir qator fundamental tadqiqotlarida asoslangan nazariy konsepsiyalar turadi [3; 284] O'zbek adabiyotshunosligida bu borada qilingan ishlar salmog'i nisbatan kam bo'lib, badiiy vaqt tizimi, roman xronotopi, xronotop nazariyasi tarixi, xronotop poetikasi va o'zbek mumtoz dostonchiligiga oid tadqiqotlarni qayd etish mumkin.

Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida xronotop muammosi bo'yicha ilk bor keng miqyosli va teran tadqiqot olib borgan U. Jo'raqulov o'zining doktorlik dissertatsiyasida ushbu muammoga munosabat bildirish asnosida shunday yozadi: "*Badiiy adabiyot xronotopning barcha tip va shakllarini ma'lum ma'noda qamrab oladi. Bunda, albatta, badiiy asarning mazmun va shakl ko'lami muhim ahamiyat kasb etadi*" [6;14-15]. So'ngi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida so'z san'atidagi badiiy xronotop masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchi U.Jo'raqulovning bu boradagi ishlari e'tirofga sazovordir. Alisher Navoiy "Xamsa"sini xronotop nazariyasi asosida kompleks o'rgangan olim Jo'raqulov M.Baxtinning "Romanda zamon va xronotop shakllari" kitobi asliyatdan o'zbek tiliga o'g'rilgan. Uning "Nazariy poetika masalalari. Muallif. Janr. Xronotop" monografiyasi nashr etilgan. Ko'p yillik izlanishlarini umumlashtirib, "Alisher Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi" filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan. Jo'raqulov garchi ilmiy-nazariy jihatdan Navoiy "Xamsa"sidagi xrontop muammosini oydinlashtirishda Baxtin ta'limotiga murojaat qilgan bo'lsa ham, milliy badiiy material mohiyatini yoritishda birinchi galda Sharq, ayniqsa, islomiy-tasavvufiy tafakkur zaxirasiga asoslangan. Uning fikricha, "Xamsa" jahon badiiy tafakkuri, xususan, Sharq-islom adabiyotiga xos sintetizm hodisasining mukammal namunasi hisoblanadi" [6;29] U. Jo'raqulov Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasini tadqiq eta turib, cheksiz koinot xronotopi Navoiy nazdida zarra ekanligini quyidagicha ifodalaydi: "*Unda aylanayotgan zamon (mushk –tun, kofur – kun) va makon (burjlar, sayyoralar, quyosh, oy)ning naqadar mahobatli va qadimiy, ayni paytda go'zal ekanini ta'rif etadi. Ammo*

bularning barchasi Ollohning "sun'i bisoti" (san'ati)dagi ikki "taxta nard" ekanini eslatar ekan, insonga cheksiz bo'lib tuyuladigan koinot Yaratguvchi oldida kichik bir zarra ekanini ta'kidlaydi. Shu tariqa Ollohning buyukligi va qudratiga iymon keltirishga chorlaydi. Ayni nuqtada badiiy tasvir obyekti koinot bilan parallel ravishda insonga ko'chadi. Aniqrog'i, tasvir obyekti bir paytning o'zida koinot va inson fenomenini bitta kartinada tasvirlashga kirishadi"[7;61].

A.Nosirov Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar"ida tarixiy sharoitning badiiy talqini, tarixiy va badiiy haqiqatning romandagi mushtarakligi, badiiy makon va zamonning kompozitsiyasidagi o'rni xususida tadqiqot olib borgan. Olim badiiy asarda zamonning ifodalanish yo'llarini tushuntira turib, uni nafaqat to'g'ridan-to'g'ri vaqtni ko'rsatish, yil fasllarini, oy, kun,soatlarni tasvirlash, balki boshqa ajoziy belgilar (suv, yo'l, buloq, tush, soyalar) va so'zlar (so'ng, keyin, birdan, kutilmaganda) orqali ko'rsatilganini isbotlab bergan. Tarixiy xarakterga ega badiiy asarda tarixiy haqiqatni tasvirlash usullarini sanash asnosida Nosirov badiiy adabiyotda ularning hammasi uchun taalluqli bo'lgan bir talabini, ya'ni badiiyat qonunlariga amal qilishni alohida ajratib ko'rsatadi. Badiiyat qonunlari tarixni inson taqdiri, ruhiyati, uning moziydagi o'rni, umuman aytganda, qahramonning zamon va makonga munosabati orqali ma'lum davrdagi tarixiy sharoitni, obrazlarning xarakterini, ichki dunyolarini yoritishlari zarur, deydi. Tarixiy hujjatlar esa ushbu vazifani bekam-u ko'st ado etishda eng muhim manba rolini o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абуталиева Э. Пространства и время в русской прозе Средней Азии: Автореф. Дисс. Канд.филол.наук.–Ташкент, 1993.

2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari–Toshkent: "Akademnashr", 2015.

3. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского.–М.: Сов.писател, 1963.//Вопросы литературы и эстетики. –М.:Худ.лит., 1975. Литературно-критические статьи.–М.: Худ. Лт, 1986. Эстетика словесного творчество.–М.: Исскуство, 1986.

4. Nosirov A.Badiiy asarda epik vaqt tasviri// Xorijiy filologiya, 2003. N4.

5. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.

6. Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi: Filol.fan.dok.diss.avtoref. Toshkent, 2017.

7. Jo'raqulov U. Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi. Monografiya. – Toshkent: Turon-iqbol nashriyoti, 2017

8. Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini ("Yulduzli tunlar" romani misolida).Filol.fan.nomz.diss. –Toshkent, 1999.

9. Toirova D. XIX asr fransuz adabiyotida tarixiy roman janri tadriji (V.Gyugo prozasi misolida). FIlol.fan.dok.diss. –Toshkent, 2018.

10. Umarova M. Tarixiy dramada badiiy vaqt konsepsiyasi (sh va Fitrat dramalri asosida): Filol.fan.nomz.diss.avtoref.–Toshkent, 2011.

11. Shodiyev N., To'rayeva B. Tarixiy vaqt va uning sistemasi. –Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2012.

12. Шодиев Н. Горизонти эпоса.–Ташкент: из-во лит. и искусства, 1986.

DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF FUTURE MATHEMATICS TEACHERS IN A CREDIT-MODULAR SETTING

Nafasov Ganisher Abdurashidovich, Eshmuratov Abdimannab
Associate Professor of the Department of Mathematics, Doctor of Philosophical (PhD) Pedagogical Sciences, Gulistan State University.
E-mail: gnafasov87@gmail.com,
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of Mathematics of Gulistan State University
E-mail: eshmuratovabdimannab@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda kredit-modul sharoitida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi yoritilib ayni vaqtda ta’limning zamonaviy tendentsiyalar jarayonida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarning mantiqiy tafakkurini mazmuni bayon etlgan hamda tajriba sinov asosida olingan natijalarning samaradorlik darajasi anqlangan.*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy tafakkurini, ko‘nikma, pedagogik kompetentsiya, iste’dod, innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish.*

Аннотация: *В данной статье освещена методика развития логического мышления будущих учителей математики в кредитно-модульных условиях на сегодняшний день, изложено содержание логического мышления будущих учителей математики в современных тенденциях образования и определен уровень эффективности результатов, полученных на основе экспериментального тестирования.*

Ключевые слова: *логическое мышление, умение, педагогическая компетентность, талант, новаторство, креативность, критическое мышление, решение проблем.*

Abstract: *This article highlights the methodology for the development of logical thinking of future mathematics teachers in credit-modular conditions today, outlines the content of logical thinking of future mathematics teachers in modern educational trends and determines the level of effectiveness of the results obtained on the basis of experimental testing.*

Keywords: *logical thinking, skill, pedagogical competence, talent, innovation, creativity, critical thinking, problem solving.*

Introduction: Today, logical reasoning is important in the teaching of Mathematics and plays a large role in the development of analytical and discussion skills of students. The importance and need for the development of logical thinking for teachers of mathematics in the conditions of the loan-module has been recognized in the higher. This article will show you the importance of teaching logic and mathematics together and how to combine them.

Sacred sources of teaching logic and Mathematics

Logical reasoning and sacred sources of teaching mathematics are based on the analysis of students ' logical abilities and problems arising from mathematics. In the process of teaching students, skills are developed to express, analyze and discuss their own ideas on solving logical problems, visualizing and solving tasks derived

from mathematics.

Logical thinking and the impact of teaching mathematics on practice

The impact of logical reasoning and mathematics teaching on practice assimilates students in logical learning, imagination, analysis and discussion. Practical exercises, projects, games and discussion processes that require students to express their opinions will help develop logical thinking. These techniques develop skills in students that focus on working with and solving logical problems.

Approaches to teaching logical thinking and Mathematics

The following approaches can be useful for a good study of logical thinking and teaching mathematics:

Teaching the analysis and solution of logical problems through practical skills. Providing students with logical questions related to problems arising from mathematics.

Strengthening students through exercises aimed at Discussion, Analysis and expression of their thoughts.

In the educational process, it is necessary to link logical problems to the current life and show ways to solve them.

Directing students to participate in Group Work, Project Preparation, and math-based learning activities.

In a large article on the topic of developing the logical background of future mathematics teachers in the conditions of manticredit-module, I am writing as follows:

Logical thinking and teaching mathematics is an important topic for teachers in a credit-module setting. Logical reasoning is a key aspect in developing students ' logical abilities, analytical and discussion skills. Mathematics, on the other hand, allows students to use logical views, solve problems, and learn in auxiliary group work and analytically.

There are several important tips for teaching logic and mathematics together:

Linking logical problems to logical processes: allowing students to learn logical processes to solve logical problems. They can be associated with problems arising from mathematics, and this will help develop their logical reflexes. Practical exercises and projects: practical exercises and projects are essential for the development of logical thinking. They train students to engage in logical question solving, analysis, and discussion processes. These exercises increase students ' ability to solve logical problems and answer questions from mathematics. Directing students to analyze and express their thoughts: when teaching logical thinking and mathematics, it is very important to direct students to analyze and record their thoughts. This develops their ability to express logical views, analyze results from mathematics, and communicate their thoughts to others.

Discussion and group work: Discussion and group work are also important in teaching logical thinking and mathematics. It is very important to require students to participate in group work and discussion processes in order to ask each other questions, analyze logical problems and interpret their thoughts to others. This allows them to strengthen their logical views and use their ideas to communicate to others. Connecting logical problems with current life: in teaching logical thinking

and mathematics, it is important to direct students to connecting logical problems with current life. For them, mathematics will be associated with solving problems that are transferred to practice and their problems in current life.

Individual learning paths: in Logical Reasoning and mathematics teaching, it is important to provide individual learning paths for each student. All students can have a logical level of comprehension and differ in the development of their skills in mathematics. Therefore, teachers need to draw up and perform educational materials, taking into account the individual abilities of students and the need for additional vacation. Frequent practice: in the teaching of logical thinking and mathematics, it is often recommended to use a practice-based style. Practical exercises, games, working with concepts and solving math tasks increase students ' mastery abilities. Practice helps students learn techniques aimed at working with and solving logical problems.

Using news: it is very important to use logical reasoning and mathematics teaching as well as entertainment news. New mathematical concepts, applications, analytical assignments, and problems increase students ' interests and support them to understand the connection with mathematics. Focusing readers on news and directing them to express their thoughts will be of great importance in the development of logical thinking. Cooperative learning: cooperative learning methods are also effective in teaching logical thinking and mathematics. It is important to guide students to participate in group work, Inter-student collaboration, or intensive analysis processes. They allow students to assist each other and provide additional views of each other in solving logical problems.

Assessment of learning outcomes: logical thinking and mathematics an important part of teaching is the assessment and valuations of learning outcomes. When solving logical questions and tasks, it is important to use it in advice, taking into account the assessment of students, their participation in the processes of analysis and discussion. This allows students to understand and develop their own level of logical thinking.

Personal approach to students: each student differs in their individual characteristics and specific reading methods. For this reason, it is important for teachers to define reading techniques, taking into account the familiar and acquired abilities of students, their need for additional vacation.

Cooperative learning: it is very important to allow students to help each other, think and express their thoughts. Group work, participation in inter-student collaborative task solving, logical problem solving, and analysis processes develop student mastery and analysis skills. Real - life examples: the use of real-life examples in Logical Reasoning and mathematics lessons increases students ' interests and gives them additional motivation in solving logical problems. Examples will help students understand how to relate to logical thinking and mathematics.

Complex problems and concepts: it is important to train students to learn techniques aimed at solving and analyzing complex logical problems. Complex problems will be of great importance in the development of students ' logical thinking and discussion skills.

Display of educational materials: display and visualization of educational

materials increases the level of understanding of students. The use of graphs, diagrams, models, animations and other visual tools in Logical Reasoning and mathematics lessons reinforces students ' understanding of logical reasoning and mathematics. The use of innovations: the use of innovations in the field of logical thinking and mathematics interests students and allows them to understand the connection between logical thinking and mathematics. You can use these news items to guide readers to be interested in the News, Express and discuss their opinions.

Assessment of learning outcomes: assessment and valuations of learning outcomes help students understand how they make themselves assimilated in the process of evaluation, logical problem solving, and analysis. You can use it in tips to help students increase their logical level of awareness.

You can implement the following recommendations when teaching logical thinking and mathematics:

Individual approach: each student will have their own way of reading and their own methods of mastering. For this reason, it is important for teachers to define reading techniques, taking into account the familiarity of students and their need for additional leave.

Complex problems and examples: teaching students to learn methods aimed at solving and analyzing complex logical problems will be of great importance. Complex problems play an important role in developing students ' logical thinking and discussion skills. Also, examples related to logical reasoning and mathematics increase students ' interests and give them additional motivation in solving logical problems. Practice-based teaching: Logical Reasoning and mathematics are recommended to use a practice-based style in teaching. In the process of solving, analyzing and discussing logical problems, it is important to direct students to work with practical exercises, games and concepts. This method helps to increase the ability of students to practice and master their skills related to logical thinking and mathematics. Cooperative learning: it is important to direct students to participate in group work, Inter-student collaborative task solving or intensive analysis processes. They allow students to help each other, think and express their thoughts. This method will be of great importance in improving students ' ability to solve and analyze logical problems.

Conclusion:

Visualization: visualization of learning materials increases the level of understanding of students. The use of graphs, diagrams, models, animations and other visual tools enhances students ' understanding of logic and mathematics in logic and mathematics classes.

The use of innovations: it is very important to also use innovations in the field of logical thinking and mathematics. New mathematical concepts, applications, analytical assignments and problems increase the interests of students and support them to understand logical thinking and connection with mathematics.

REFERENCES

1. Nafasov, G., Kalandarov, A., & Xudoyqulov, R. (2023). DEVELOPING STUDENTS’COGNITIVE COMPETENCE THROUGH TEACHING

ELEMENTARY MATHEMATICS. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 218-224.

2. Umarov, X., Nafasov, G. A., & Mustafoyev, R. (2023). TAQSIMOT FUNKSIYA VA UNING XOSSALARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).

3. Kengash, J., & Nafasov, G. A. (2023). On the Self-Similar Solution of The Problem of Unsteady Movement of Groundwater Near a Reservoir in the Presence of Nonlinear Evaporation. Genius Repository, 22, 37-41.

4. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 229-233.

5. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. Genius Repository, 25, 28-32.

6. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. Genius Repository, 25, 28-32.

7. Nafasov, G. (2019). Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics. Eastern European Scientific Journal, (1).

8. Abdurashidovich, N. G., Tagayevich, D. U., & Mirkomilovich, K. M. (2023). The Use of Technology in The Approximation of Didactic Units in The Training of Future Mathematics Shooters on The Basis of Innovative Education. Genius Repository, 24, 34-38.

9. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. Bulletin of Gulistan State University, 2020(2), 12-17.

10. Abdurashidovich, N. G. (2021). Theoretical Basis Of Development Of Cognitive Competence Of Students Of Higher Education Institutions In The Process Of Teaching Elementary Mathematics. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 8(1), 789-806.

11. Abdurashidovich, N. G., Muzaffarovich, U. N., Qosim o‘g‘li, N. Q., & Olimjon, D. (2023). Design in the process of teaching mathematics and its teaching methodology. Genius Repository, 25, 23-27.

12. Zulunovich, M. A., Xamidovich, T. D., Tagayevich, N. G. A. D. U., & Mirkomilovich, K. M. (2022). On The Stability of the Approximate Solution of the Galerkin Method for A Parabolic Boundary Problem with Divergent Main Part. Texas Journal of Engineering and Technology, 14, 92-97.

13. Abdurashidovich, N. G. REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF CONTENT FOR HEURISTIC TASKS IN THE TEACHING OF ELEMENTARY MATHEMATICS TO FUTURE MATHEMATICS TEACHERS.

14. Nishanovich, R. I. (2022). Method of Matrix Solution of System of Linear Algebraic Equations Using Programming Language. Texas Journal of Engineering and Technology, 14, 106-111.

15. Narbayev, F. S., & Abdurashidovich, N. G. (2023). Pedagogical Potential Of" Event" Technology In Personal Formation. Genius Repository, 24, 39-41.

16. Нафасов, Г. А., & Мирхайдаров, М. Х. (2022). ИЗУЧЕНИЕ

ИНТЕГРИРОВАНИЯ БИНОМИАЛЬНЫХ. RESEARCH AND EDUCATION, 205.

17. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. Genius Repository, 25, 28-32.

18. Nafasova, G., & Pardaveva, E. (2023). BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING MANTIQIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI FIZIKA O'QITISH METODLARI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(4), 50-53.

19. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. Genius Repository, 25, 28-32.

20. Abdurashidovich, N. G. REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF CONTENT FOR HEURISTIC TASKS IN THE TEACHING OF ELEMENTARY MATHEMATICS TO FUTURE MATHEMATICS TEACHERS.

EFFECTIVENESS OF WORKING WITH SIMULATORS AND VIRTUAL LABORATORIES IN TEACHING AGRICULTURAL SCIENCES

Sulaymonov Mirobid Abduxalikovich, Ravshanov Sanjar Tolibjonovich
Samarkand State Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology University, Assistant teacher of Informatics and IT scienses
mirobidsulaymonov8686@gmail.com. Samarkand State Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology University, Assistant teacher of Informatics and IT scienses sanjar2023@gmail.com

Annotation. In the process of using simulators in the subjects related to agriculture, students apply the knowledge they have learned during lectures to life, even if it is virtual. In the process of these studies, they will directly contribute to the development of theory and life studies, as well as strengthening their knowledge. In this research work, the effectiveness of the method of using simulator programs is highlighted. Training through simulation programs is the safest method and the results are significantly better. Therefore, the effectiveness of education is brought with the help of Farming Simulyaotor and ASPIM programs.

Key words: *agriculture, simulator, Farming simulator, ASPIM, virtual laboratory, plant growth process modeling.*

Аннотация. В процессе использования тренажеров по предметам, связанным с сельским хозяйством, студенты применяют полученные на лекциях знания в жизнь, даже если она виртуальная. В процессе этих занятий они будут непосредственно способствовать развитию теории и жизневедения, а также укреплению своих знаний. В данной исследовательской работе подчеркивается эффективность метода использования программ-тренажеров. Обучение с помощью симуляционных программ является самым безопасным методом, и результаты значительно лучше. Поэтому эффективность обучения достигается с помощью программ « Farming Simulyaotor » и ASPIM.

Ключевые слова: *сельское хозяйство, симулятор, Farming Simulator, ASPIM, виртуальная лаборатория, моделирование процесса роста растений.*

Annotatsiya. Qishloq xo‘jaligiga oid fanlarda simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar ma’ruza davomida olgan bilimlarini virtual bo‘lsa ham hayotda qo‘llaydilar. Bu o‘quvlar jarayonida ular nazariya va hayotshunoslik fanining rivojlanishiga, bilimlarini mustahkamlashga bevosita hissa qo‘shadilar. Ushbu tadqiqot ishida simulyator dasturlarini qo'llash usulining samaradorligi yoritilgan. Simulyatsiya dasturlari orqali o'qitish eng xavfsiz usul bo'lib, natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi. Shuning uchun ta'lim samaradorligi Farming Simulyaotor va ASPIM dasturlari yordamida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar*: qishloq xo'jaligi, simulyator, fermerlik simulyatori, ASPIM, virtual laboratoriya, o'simliklarning o'sish jarayonini modellashtirish.*

Intraduction. The use of models in the educational process is not a new method. Models have been used in education since ancient times. Simulators can be used in almost all aspects of the educational process: from primary education to higher educational institutions. In recent times, simulators are used even in the field of medicine. One of the main reasons for using simulators is that they are a much

cheaper alternative to real objects. Simulators provide an opportunity to model the growth and development of a plant in a virtual state without such real equipment and facilities, as well as conduct virtual laboratory work. This by itself not only saves large amounts of money, but also does not create a need for them at all. The fact that simulators require almost no financial resources makes it possible for certain studies to be carried out by students hundreds, if necessary, thousands of times [1].

Methods. Another advantage of using simulators is that they are safe. In this research work, the effectiveness of the method of using simulator programs is highlighted. Training through simulation programs is the safest method and the results are significantly better. Therefore, the effectiveness of education is brought with the help of Farming Simulyaotor and ASPIM programs. The Farming Simulator program was created in 2001 in the field of natural sciences. It is also available through farmingsimulyator.com, which has models on various topics, created in Python and Java (fig-1).

Figure-1. Overview interface of the Farming simulator program.

The models offered on the Farming simulator site are Open Source and can be used by any user for free. The number of models in Farming simulator is more than 100. They have the ability to conduct demonstration experiments related to physics, mathematics, chemistry, organize and model virtual laboratory work. This Farming simulator program corresponds to the state education standards of Uzbekistan and the literature used in educational institutions. The models in the Farming simulator program can be widely used as demonstration experiments in classes in agriculture, agronomy, veterinary science, chemistry and biology, and in the organization of virtual laboratory training [2]. In particular, there are more than 90 models related to agriculture and agrarian sciences, more than 10 models related to biological science, and more than 20 models related to chemical science. The models presented in the program are not only in English. If you want to translate the models presented in the program into Uzbek, you can do this without any difficulty. For this, there is a "Translated Sims" section on the official website of the program, and you can go there and select the appropriate model and translate it into Uzbek by filling out a special account.

In the Farming simulator program, you can see the appearance of models of various disciplines in the following pictures 2 and 3.



Figure-2. View of models available in the Farming simulator program



Figure-3. Models related to the "Low-frequency electromagnetic simulation for electric machines" section of the Farming simulator program

There is also APSIM program, which is close to the Farming simulator program, in which the leading software for modeling and simulation of agricultural systems is created for teachers and students (students) to use for free. It should be noted that now the APSIM company's software has been developed under the name of ESSS. Currently, these programs are released under the name ESSS, but the functionality of the programs is almost the same as that of APSIM. The use of the APSIM software environment in agricultural science has been very effective**.**



Figure-4. APSIM simulation software environment login window

The APSIM simulation platform Agricultural Production Systems Simulator

(APSIM) is internationally recognized as a highly advanced simulator of agricultural systems. It includes more than 80 modules that allow simulation of systems covering plant, animal, soil, climate and management interactions. APSIM is used by scientists as a decision support tool in research, education and agriculture. APSIM users can easily create virtual farms on their computers using the model's easy-to-use user interface (no need to write code) and then fully predict multiple soil and vegetation variables on a daily time step. imagine [3]. Users can then evaluate and explore different combinations of management practices or cropping sequences to increase farm profitability and reduce environmental degradation. The model needs climate, soil and management information to run the simulation.

Results. These programs aim to teach the use of the model, explain the science behind the crop and environment modules, present data requirements, and introduce participants to simulations, the results are also 45-50% better than normal experiments. Time, land space, and financial costs are saved in order to save time in growing plants and get effective results. Also, the quality of teaching will increase by 14%. This simulator program consists of presentations and simulation exercises, focusing on Midwestern production systems that include corn, soybeans, wheat, and crop rotation [4]. Users can analyze various aspects of the soil-plant-atmosphere system, such as plant growth and development, yield response to management practices (e.g., planting date, variety, N ratio, evaporation), crop rotation, soil water processes ((e.g., drainage), soil carbon, nitrogen, and above-ground organic matter dynamics (e.g., N mineralization and residue decomposition), CO2 and N2O emissions, and climate change impacts. Participants will also be introduced to scenario risk analyzes to inform decision making.

This program is intended for students, professors and agronomists who are interested in using simulation models in their work. The program is mainly intended for beginners, as well as for users who have developed simulations and need special technical support. The unique features of the program include the optimal program that demonstrates physical phenomena, more than 50 step-by-step teaching lessons, ready-made models of more than 150 branches of the industry, the possibility of computer modeling of agrarian processes, and the possibility of independent modeling. interface, implementation and observation of experiments that are difficult to conduct in Earth conditions, powerful instrumentation of the program, allows to calculate the value of the physical quantities participating in the experiment with very good accuracy, graphical connection between the physical quantity participating in the physical event and other physical quantities it is possible to create, save created models and print them on paper.

Discussion. In conclusion, we can say that. These programs, regardless of their profession, teach the user to be inquisitive, think creatively, and analyze work results. If the study process is organized using the above-mentioned programs, pupils (students) will approach science with interest, it is no secret that it is very difficult to interest young people in natural sciences and agricultural sciences. If the educational process is organized using the above-recommended programs, it will cause the pupils (students) to study their specialty, agricultural sciences, physics, computer science and chemistry in depth. The possibilities of the program are very

wide, it can be widely used in practical training, especially in performing virtual laboratory work, and it allows perfect mastering of English terms related to physics.

References

1. Nakasone, Eduardo, ed. (2013). The Role of Price Information in Agricultural Markets: Experimental Evidence from Rural Peru. IFPRI.
2. И.И. Рахматов, Р.М.Саидова. “Активатсия мышления учащихся при обучении школному курсу физики”. ООО «Издателство Молодой ученый», Международный научный журнал «Молодой ученый», Казан, №4 (138), январ-И/2017. Част ИВ, -С.382-383.
3. Wolfert, Sjaak; Ge, Lan; Verdouw, Cor; Bogaardt, Marc-Jeroen (1 May 2017). "Big Data in Smart Farming – A review". Agricultural Systems. 153: 69–80. Bibcode:2017AgSys.153...69W. doi:10.1016/j.agsy.2017.01.023. ISSN 0308-521X.
4. Bronson (2018). "Smart Farming: Including Rights Holders for Responsible Agricultural Innovation". Technology Innovation Management Review. 8 (2). doi:10.1007/s13593-017-0445-7.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING BOSHQARUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xolmurodova Shoxsanam Mamatkarim qizi
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti
shoxsanam8893@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruviga oid nazariy va amaliy g‘oyalar bayon etilgan. Boshqaruv va menejment tushunchalariga oid fikrlar tahlil etilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining boshqaruv bo‘yicha malaka va tajribasini oshirishga oid tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, menejer, menejment, innovatsiya, metod, texnologik, sog‘lom psixologik muhit.*

MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT SKILLS OF HEADS OF SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS

Annotation. *The article describes theoretical and practical ideas on the management of preschool education organization leaders. Opinions on the concepts of administration and management were analyzed. Recommendations are given on improving the management skills and experience of the director of the preschool education organization.*

Key words: *management, manager, management, innovation, method, technological, healthy psychological environment.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi davrida ilm-fanning barcha sohalari qatorida maktabgacha ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlarga zamin yaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “...maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi yo‘nalishlar belgilangan. Bu esa o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tizimining integrallashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, mutaxassislarni malaka oshirish jarayonida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan hududiy hamda xorijiy maktabgacha ta’lim malaka oshirish tashkilotlari o‘rtasida uzluksiz hamkorlikni kuchaytirishni ustuvor prinsiplar asosida ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Boshqaruv amaliyotidan ma’lumki, rahbarlik murakkab jarayon bo‘lib, u rahbardan nafaqat oliy ma’lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, boshqaruv yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va kompetensiyaga, shuningdek, ma’lum tajribaga ham ega bo‘lishni taqozo etadi. Ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonida rahbarlarning eng asosiy va muhim funksiyalaridan biri - bu mustaqil qaror chiqarish funksiyasi bo‘lib, ularning sifati ta’lim muassasasi salohiyatiga, o‘quv-tarbiya

jarayonining samaradorligiga, pedagog-pedagoglar faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruv faoliyatini tashkil etuvchi direktor nafaqat pedagogik tajribaga, balki boshqaruv funksiyalari, metodlari va ulardan foydalanish, boshqaruv algoritmi va uning mohiyati, boshqaruv qarorlari va ularni ijro etish hamda liderlik uslublarini qo‘llash kabi qator ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti murakkab tarmoq bo‘lib, rahbarning undagi roli, faoliyati ko‘p qirralidir. Direktor esa maktabgacha ta’lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to‘laqonli hal etishga qaratilgan. U maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi moddiy-texnik bazasini shakllantirishda, ta’lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigienik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydi. O‘z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi, ularga umumiy rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni modeli mazmunli, motivatsion maqsadli, metodologik va texnologik yondashuvlar asosida rivojlantiriladi va amaliyotga tadbiq etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining boshqaruv madaniyatlarini shakllantirishning monitoring tizimi, ta’lim dasturlarini tabaqalashtirish hamda ta’lim mazmunini boyitish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilgan.

So‘ngi paytlarda rahbarlar va mutaxassislarning malakasini oshirish menejmentda eng zarur va muhim muammo sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyatini samarali boshqarish uning faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish va uni to‘g‘ri amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirish – muassasadagi zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlarini ko‘rsatib, faoliyatni amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta’lim muassasasi ishini rejalashtirish mumkinligini va zarurligini ta’kidlab, bunda u inson shaxsini shakllanishida ijtimoiy omillar, muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqida asosiy qoidalarga tayanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ma’muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o‘z-o‘zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo‘lgan turg‘un mehnat jamoasini shakllantirish, kadrlarni o‘zini muntazam takomillashtirib borish, pedagog va hizmat ko‘rsatish, mehnat samaradorligini oshirish ruxida tarbiyalash, o‘z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish hissini shakllantirida rahbarning boshqaruv salohiyati muxim ahamiyat kasb etadi.

Menejmentda ham, pedagogik menejmentda ham kasbiy rivojlanish nafaqat nazariy va amaliy tajribaning o‘zgarishiga, balki mutaxassis shaxsiy fazilatlariga ham bog‘liqdir.

Bundan tashqari, xulosa sifatida biz uchta muhim xulosani ko‘rib chiqamiz.

Birinchidan, o‘qitishning turli shakllarida malaka oshirish jarayonida kadrlar malakasini oshirish g‘oyasi shubha ostiga qo‘yilmaydi. Ko‘pgina tadqiqotchilar “kasbiy rivojlanish” va “o‘qitish” tushunchalarini teng deb bilishadi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining malakasini oshirish jarayonida ularning kasbiy rivojlanishini ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Ikkinchidan, menejment tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, kasbiy rivojlanish, mazmuni mutaxassislarning kasbiy o‘sishiga yordam beradigan tegishli dasturlarni yaratish sharti bilan amalga oshiriladi. Malaka oshirishning tarkibiy modeli bizning maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy rivojlanishi shartlari to‘g‘risidagi tasavvurlarimizga mos keladi.

Uchinchidan, T.Yu.Bazarov tomonidan xodimlar martaba tuzilishida aniqlangan refleksiv komponent, bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, rahbarning malaka oshirish sharoitida nima sodir bo‘layotganini va shaxsiy hamda faoliyat o‘zgarishi imkoniyatini anglash qobiliyati sifatida, rahbarlik faoliyati tarkibidagi muhim element bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan- texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali, innovatsion metodlaridan foydalanishni, boshqaruv yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va malakalarni, yangi shaxsiy va kasbiy sifatlarni talab qiladi, bu o‘z navbatida pedagoglar orasidan menejerlik ko‘nikmasini rivojlantirishning zaruriyatini belgilab beradi. Shundan kelib chiqib, ta’lim menejmentini rivojlantirish yo‘nalishidagi islohotlar barcha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni metodik tashkil etish va boshqaruv mexanizmlarini fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali, innovatsion metodlardan foydalangan holda takomillashtirish hamda boshqaruvga xos bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3107036

2. Абдуллаев С.Х., Турғунов С.Т. Таълим муассасалари раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари. // «Касб-хунар таълими» журнали, Т., 2006 йил, 1-сон.

3. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Ўқув қўлланма. – Т.: «Ворис», 3. 2006.

4. Ғуломов С.С.. Менежмент бошқарув санъати, назарияси ва амалиёти Тошкент 2003 286 б.

5. Турғунов С.Т., Абдуллаев С.Х. Таълим муассасаларида бошқарув фаолиятини 4. лойиҳалаштириш. // «Халқ таълими» журнали, Т., 2008, 6-сон.

O‘QISH SAVODXONLIGI DARAJASINI O‘RGANISH BO‘YICHA XALQARO TADQIQOT TOPSHIRIQLARI MAQSADI VA MAZMUNI

Sh.S.Boychayeva

Sirdaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini o‘rganish bo‘yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS, IEA

Abstract. In this article, the general overview about the aim and the content of the assessment for studying reading literacy of the primary class children in the scope of the PIRLS- Progress in International Reading Literacy Study has been analyzed.

Key words: Reading literacy, critical thinking, PIRLS, IEA

PIRLS – o‘qish savodxonligi darajasini o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqot. Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-(International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning asosiy tadqiqotlaridan biridir. Boston kolleji qoshidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o‘quv markazi tomonidan boshqariladigan va 2001-yildan beri har besh yilda bir marta o‘tkaziladigan PIRLS to‘rtinchi sinfda o‘qish savodxonligini baholashning global standarti sifatida tan olingan.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston ham ilk bora qatnashdi. 2001-yildan beri har besh yilda bir marotaba o‘tkazib kelinayotgan ushbu tadqiqotlarda mamlakatimiz ilk marotaba, dunyoning 60 dan ortiq davlatlari qatorida ishtirok etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda respublikamizdagi **180 ta** maktabda tahsil oluvchi **5 948** nafar 4-sinf o‘quvchilari hamda ularning ota onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etishshdi. Tadqiqotda ishtirok etuvchi maktablar va o‘quvchilar tasodifiylik tamoyillari asosida tanlandi. 2021 yil 5-14 aprel kunlari O‘zbekiston maktablaridagi 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha (PIRLS) xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishdi.

Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqot o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinfida to‘rt yil mobaynida qay darajada bilimga ega bo‘lganliklarini aniqlab, butun dunyo bo‘ylab qiyosiy tahlil o‘tkazadi.

Shuningdek, PIRLS, yosh o‘quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta’lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya’ni badiiy tajriba orttirish, ma’lumot olish va undan foydalanish ko‘nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

O‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar ularni mantiqiy tafakkurini kengaytirish maqsadida, hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tuzilsa yanada yaxshi natijalarni beradi.

Endi shu tadqiqotlarga tayyorlash jarayonida foydalangan bitta mavzu yuzsidan to‘xtalib o‘tsak.

KO‘PRIK USTIDAGI DO‘ST

Ulug‘bek Hamdam

Har gal dala hovlidan qaytayotganimda, yo‘lda ikki yalangoyoq bolakayni uchratar edim. Birining oti – Nikita, ikkinchisiniki esa Umidjon. „Ismlarini qayerdan bila qoldingiz?“ demoqchimisiz? O‘zlaridan-da. Voqea bunday bo‘ldi: hovlimdagi chog‘roq bog‘da ishlab, kechga tomon torgina yo‘ldan shaharga qaytayotsam, muyulishda qo‘qqisdan ro‘paramdan bir mashina chiqib qoldi. Yo‘l chetida bolalar o‘ynab o‘tirishardi. Shitob bilan kelayotgan mashinani o‘tkazib yuborish uchun shartta tormozni bosib, mashinani bolakaylarning shundoq tumshug‘iga tirab to‘xtatdim. Ular yalt etib menga qarashdi.

Jilmayib qo‘yishdi. Jilmayib deganim juda yumshoq chiqdi, „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!“ desam, ularning sevinchlarini aniqroq ifodalagan bo‘laman.

– Salom! – dedim men ham bolalarning sevinchidan ta’sirlanib.

– Salom! – deya mashinaning ochiq oynasidan qo‘lini suqdi ularning mallatobi.

– Oting nima seni? – so‘radim men.

– Nikita, – deb javob berdi bola.

– Seniki-chi? – deb so‘radim nariroqda iymanibroq turgan qoramag‘izdan.

-Umidjon!

– Yoshing nechada, Nikita?

– To‘qqizda.

– Seniki-chi, Umidjon?

– O‘n ikkida.

– Bo‘ylaring teng-ku.

Ular javob o‘rniga yana jilmayishdi.

– Xayr, bolalar!

– Xayr, amaki!

Men mashinani yurg‘izib, yo‘limda davom etdim. Odatda, dam olish kunlarim dala hovlida kechadi. Bu yerga kelib-ketarkanman, deyarli har safar Umidjon-u Nikitaga ro‘para keladigan bo‘ldim. Ular ham uzoqdan mening mashinamga ko‘zlari tushishi bilan o‘yinlarini tashlab, ko‘rishish uchun hozirlik ko‘rishardi.

O‘z navbatida, men ham beg‘ubor bolalarning shugina istagiga peshvoz chiqmasdan o‘tolmayman: tormozni bosaman, ular chopib kelib, biri sarg‘ish-qizil, boshqasi qoramag‘iz yuzlarida menga tanish, menga qadrdon bo‘lib borayotgan quyoshchalarni porlatgancha birin-ketin qo‘llarini oynadan uzatishadi.

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan, muyulishdagi ko‘prik ustida ko‘rib qoldim. U yo‘lga ikki ko‘zini tikkancha oftobda javdirab turardi.

To‘xtadim. Bolakayning kayfiyati yo‘q edi. Kiyimi rosa kirlangan, yuzida ham quyoshcha aks etmasdi negadir. U mashinaning ochiq oynasidan indamaygina qo‘lini uzatdi.

–Salom! – dedim men.

–Salom! – dedi u.

–Umidjon qani?

–Umidjon mashg‘ulotga ketdi.
–Qachon keladi?
–O‘n ikki-yu o‘ttizda.
Soatga qaradim: mil o‘n ikki-yu o‘ttiz beshni ko‘rsatardi.
–Keladigan vaqti allaqachon bo‘libdi-ku.
–Ha.
–Qachondan beri kutyapsan?
–Ertalabdan beri.
–Qayerda, shu yerda, ko‘prikning ustidami?
–Ha.
–O‘ynagani boshqa bolalar yo‘qmi?
–Bor.
–Nega o‘ynamayapsan?
–Umidjonni kutyapman.

Men Nikitaga boshqa savol bermadim. Berolmadim. Chunki tomog‘imga bir nima kelib tiqildi. Asta qo‘zg‘alib yo‘limda davom etdim...

Mening Nikitadek biron do‘stim bormi, deyman xayolan. O‘zim ham biron Umidjonni do‘st tutib, quyoshning tig‘ida Nikita kabi kutdimmi?..

Mavzu bo‘yicha savollar.

1. Yozuvchi Nikita va Umidjon bilan qanday tanishdi?

2. Yalangoyoq deganda nimani tushunasiz? Fikringizni bayon qiling.

3. Bolalarning ismlari nima edi?

A) Nikita Umidjon
B) Umidjon Vova
C) Nurxon Nikita
D) Maykl Umidjon

4. Ushbu berilgan rasm matndagi qaysi so‘zga nisbatan berilgan deb o‘ylaysiz?

5. Nikita bilan Umidjonning yoshlari nechada edi?

A) Umidjon 12 yoshda Nikita 8 yoshda
B) Umidjon 10 yoshda Nikita 8 yoshda
C) Umidjon 12 yoshda Nikita 9 yoshda
D) Umidjon 10 yoshda Nikita 9 yoshda

6. Yozuvchining dam olish kunlari asosan qayerda o‘tar edi?

A) Tog‘ yon bag‘irlarida
B) Qishlaoqda
C) Shahar chetidagi uyda
D) Dala hovlida

7. Ro‘para so‘zini tushuntirib bering, yoki ro‘para deganda nimani tushunasiz?

8. “Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!” degan gapni siz qanday tushundingiz? Yozuvchi nima uchun bolalarga quyosh yuzli deb murojaat qiladi. Nima bolalarning yuzlari quyoshga o‘xshaydimi?

9. Muyulish so‘zining ma'nodoshini topib matnni o‘qing.

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan, ... ko‘prik ustida ko‘rib qoldim.

10. Nikita nima uchun g‘amgin edi?

11. Siz Nikitaning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz? O‘z fikringizni bayon qilishingiz mumkin.

12. Ayting-chi, sizning ham shunday do‘stingiz bormi? Agar do‘stingiz bo‘lsa uning ismini yozing.

13. Do‘stlik mavzusiga oid maqollar keltiring.

O‘quvchilar o‘zlari bilgan do‘stlik haqidagi maqollarni keltirishlari mumkin. Misol uchun:

Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.
Bilagi alp birni yiqar,
Do‘sti ko‘p — mingni.

Ushbu tartibdagi savollarni berishimiz o‘quvchilarni mavzuni yanada qunt bilan o‘qib tushunishga, fikrlar qobiliyatini rivojlanishiga ularni bilimli va nutqini ravon bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki sh savodxonligi darslarida ham badiiy matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday darslarni tashkil etishda o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko‘rishlari, har bir matnning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishlari lozim. Bu kabi innovatsion darslarda PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos test va topshiriqlarni tuzish hamda ulardan unumli foydalanish mumkin deb o‘ylayman

Foydalangan adabiyotlar:

1. U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash.

2. http://www.pedagog.uz - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb-sayti

3. M.Umarova va boshqalar. 3-sinf. O‘qish darsligi. Toshkent-2019-y

O‘QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLARNING AHAMIYATI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida ta’limiy o‘yinlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, o‘quvchilar bilim saviyasini oshirishda undan foydalanish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limiy, tafakkur, qobiliyat, masad, natija

Abstract: This article discusses the educational value of educational games in primary school classes, ways of using them to improve students' knowledge.

Key words: educational, thinking, ability, purpose, result

Kichik maktab o‘quvchilarini shakllanish jarayonini ularning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta’ lim- tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkul. Maktab ostonasiga qadam qo‘ygan bola o‘yinqaraoq bo‘ladi. Unda hali sinf xonasida 45 minut darsda o‘tirish, dars tinglash shakllanmagan bo‘ladi. Ularni dars jarayoniga asta sekinlik bilan o‘rgatib borishda bizga o‘yinlardan foydalanish juda katta samara beradi.

O‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillatish va o‘yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan hamda bu o`yinlar orqali ularning tafakkuri rivojlanib kelajak hayotga tayyorlanib boradi

Bolalarga o‘yinni o‘rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O‘yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir, qiyin o‘tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi. O‘yin - bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang‘ich ta'lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega.

«Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o‘quvchiga o‘zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat’iylik, o‘quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko‘pincha, ta’limiy o‘yinlar orqali amalga oshiriladi»

O‘yinlar ikki xil ahamiyatga egadir: ta’limiy va tarbiyaviy.

Ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, bolalarda o‘qituvchi tomonidan bilim, ko‘nikma, malakalar o‘yin orqali o‘zlashtiriladi va o‘yinda bolalarga berilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar orqali ularda axloqiy, hamkorlik, mustaqillik, o‘ziga ishonch sifatlari shakllanadi. Bu esa muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ijodkor, tajribali o‘qituvchilar o‘quv va bilish faoliyati

takomillashtirishda ta’lim jarayonini didaktik o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar aslida mavzularni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va o‘quv orqali samarali bilim berish maqsadida yuritilgan bo‘lib, o‘quvchi faolligini oshirishda o‘ziga xos o‘ringa egadir.

Misol uchun 1-sinfda birinchi yarim yillik yoki ikkinchi yarim yillikda boshqacha qilib aytganda alifbe yoki alifbedan keying davrda quyidagicha topshiriqlardan foydalanish ham ularni yanada zehinli qilib tarbiyalashga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

A	**Tovushi erkin talaffuz qilinadi shuning uchun unli**
A harfi bilan boshlanadigan rasmlarni belgilang	

O‘quvchilar berilgan rasmlar orqali gaplar ham tuzishi mumkin bu esa o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish imkoniyatiga ham ega bo‘lamiz.

“So‘z tuzish“ o‘yini. O‘yin savod o‘rgatish davrida o‘tkaziladi. Bu o‘yinlarni bajarish o‘quvchilarga tovushning so‘z hosil qilishidagi ahamiyatini to‘laroq tushunib olish imkonini beradi. O‘quvchilar ushbu o‘yinda ishtirok etar ekan, so‘zlarning turli- tuman usullar bilan hosil bo‘lishi katta qiziqish uyg‘otadi. O‘zlari hosil qilgan yangi so‘zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo‘ladi. So‘z tuzish o‘yini savod o‘rgatishning tarkib – tahrir (analitik –sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish, birlashtirish singari ma`nolarni bildiradi. So‘z tuzish o‘yini ham aynan so‘zga hilma-hil tovushlarni, bo‘g‘inlarni qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Bu o‘yinni bajarishda so‘zga turli hil usullar bilan tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qiladi.

Xulosa qilb shuni aytishimiz mumkinki boshlang‘ich sinf darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, mustahkam bilim hosil qilish, jamiyatning hamma sohalarida ijodiy faoliyat ko‘rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir. Bularni amalga oshirishda turli ta'limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Toshkent – 2023
2. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 www.openscience.uz 746 tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.
3. U.A.Aydarova. O‘qish savodxonligi: Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 2-sinf uchun darslik –Toshkent 2023.Novda

ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ ПУТЕЙ ОТНОСИТЕЛЬНО ДЕЙСТВИЯ ГРУППЫ ГАЛИЛЕЕГО-СИМПЛЕКТИЧЕСКОЙ

Муминов К.К.[1] , Султонова Б.Р.[2]

[1]Национального университета Узбекистана, Ташкент, Узбекистана ф-м.д.,проф. ***qobiljonmuminov2023@gmail.com***

[2]Гулистон государственный университета, Гулистан, Узбекистана ***barnosultonova444@gmail.com***

Аннотация: В настоящей работе дается необходимые и достаточные условия для $\Gamma Sp(6,R)$– эквивалентности путей.

Ключевые слова: действие группы, путь, эквивалентность путей, Галилея симплектическая группа.

Annotatsiya: Ushbu maqolada $GSp(6,R)$ – yo‘l ekvivalentligi uchun zarur va yetarli shartlar berilgan.

Kalit so‘zlar: guruh ta’siri, yo‘l, ekvivalent yo‘llar, Galiley simplektik guruh.

Abstract: This article presents necessary and sufficient conditions for $GSp(6,R)$-path equivalence.

Key words: group effect, path, equivalent paths, Galilean symplectic group.

Пусть $V=R^6$, $6-$мерное действительное линейное пространство. Элементы из V представляем в виде $6-$мерных вектор столбцов $x=\{x_i\}_{i=1}^6$, где $x_i\in R, i=1,..,6$. Обозначим через $GL(6,R)$ группу всех обратимых линейных преобразований V, и элементы из $GL(6,R)$ отождествляем с обратимыми $6*6$ матрицами $g=\{g_{ij}\}_{i,j=1}^6$. Обычное умножение матрицы g на вектор столбец $x=\{x_i\}_{i=1}^6$ рассматривается как левое действие $(g,x)\to gx$ группы $GL(6,R)$ в пространстве V.

Обозначим через $Sp(6,R)=\{g\in GL(6,R): gIg^T=g^TIg=I\}$ симплектическую подгруппу в $GL(6,R)$, где g^T транспонированная матрица для матрицы g, и I есть $6*6$ матрица следующего вида

$$I=\begin{pmatrix} 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0\\ -1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0\\ 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0\\ 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & 0\\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1\\ 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 0 \end{pmatrix}$$

Путем в V называется вектор-функция $x:(0,1)\to V, x(t)=\{x_i\}_{i=1}^6$, у которой все координатные отображения $x_i:(0,1)\to R$ является бесконечно дифференцируемыми функциями.

Производной r-го порядка от пути $x(t)=\{x_i\}_{i=1}^6$, назовем вектор-функцию $x^{(r)}(t)=\left\{x_i^{(r)}(t)\right\}_{i=1}^6$, где $x_i^{(r)}(t)$ $r-$ая производная координатной функции

$x_i(t), i=1,..,6, r\in N$. Ясно, что $x_i^{(r)}(t)$ также является путем для всех r ([2]).

Пусть G- подгруппа группы $GL(6,R)$. Два пути $x(t)$ и $y(t)$ называются G-эквивалентными, если существует такой элемент $g \in G$, что $y(t) = gx(t)$ для всех $t \in (0,1)$.

Рассмотрим множество всех путей в V, т.е. множество всех векторов $x(t) = \big(x_1(t), x_2(t), \dots, x_6(t)\big)$, где $x_i(t)$ есть бесконечно дифференцируемые функции на интервале $t \in (0,1)$, $i = 1, \dots, 6$

Для каждого пути $x(t) = \{x_i\}_{i=1}^{6}$ через $M\big(x(t)\big)$ обозначим $6 * 6$ матрицу $(x_i^{(j-1)}(t))_{i=1}^{6}$ где j–ый столбец имеет координаты $x_i^{(j-1)}(t\ )$, $x_i^{(0)}(t\ ) = x_i(t), i, j = 1, \dots, 6$. Через $M`(x)$ обозначается матрица $(x_i^{(j)}(t))_{i,j=1}^{6}$. Путь $x(t)$ называется регулярным, если определитель матрицы $M\big(x(t)\big)$ не равен нулю при всех $t \in (0,1)$. Заметим, что два пути $x(t)$ и $y(t)$ являются G–эквивалентными в том и только в том случае, когда $M\big(y(t)\big) = gM\big(x(t)\big)$ для некоторого $g \in G$.

Известны следующие необходимые и достаточные условия $Sp(6,R)$ эквивалентности регулярных путей и описываемые с помощью матриц $M\big(x(t)\big)$ и $M\big(y(t)\big)$ ([1]).

Теорема1. Два регулярных пути $x(t)$ и $y(t)$ являются $Sp(6,R)$ −эквивалентными тогда и только тогда , когда выполнены следующие равенства

$$\Big(M\big(x(t)\big)\Big)^{-1} M`(x(t)) = \Big(M\big(y(t)\big)\Big)^{-1} M`(y(t))$$

$$M^T(x(t))IM\big(x(t)\big) = M^T(y(t))IM\big(y(t)\big)$$

Основные результаты.

Рассмотрим следующий симплектический вариант группы Галилея. Пусть, как и ранее e_i есть канонический базис в R^6, где $i = 2, .., 6$. Положим $U_6 = \{\alpha e_1 : \alpha \in R\}, V_6 = \sum_2^5 \alpha_i e_i :\ \alpha_i \in R$ и $W_6 = \{\alpha e_6 : \alpha \in R\}$. Как и при определении группы Галилея рассмотрим подгруппу $\Gamma Sp(6,R)$ в $GL(6,R)$ всех таких $g = (g_{ij})_{i,j=1}^{6} \in GL(6,R)$ для которых $g(U_6) = U_6, g_{11} = \pm 1, g(W_6) = W_6$; $g_{66} = \pm 1$ и служение g на подпространство V_6 есть элемент симплектической группы $Sp(4,R)$. Очевидно, что $U_6 \oplus V_6 \oplus W_6 = R^6$ и $(x,y) = 0$ для всех $x \in U_6$, $y \in .V_6$, $(y,z) = 0$ для всех $y \in V_6, z \in W_6$ [3].

Рассмотрим в симплектической группе $Sp(6,R)$ следующую подгруппу: $\Gamma Sp(6,R) = \{g \in Sp(6,R) : g(U_6) = U_6, g_{11} = \pm 1, g(W_6) = W_6\ ;\ g_{66} = \pm 1\}$.

Поэтому матрица $g \in \Gamma Sp(6,R)$имеет следующий вид:

$$g = \begin{pmatrix} g_{11} & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & g_{22} & g_{23} & g_{24} & g_{25} & 0 \\ 0 & g_{32} & g_{33} & g_{34} & g_{35} & 0 \\ 0 & g_{42} & g_{43} & g_{44} & g_{45} & 0 \\ 0 & g_{52} & g_{53} & g_{54} & g_{55} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & g_{66} \end{pmatrix}$$

Взяв в V_6 базис $e_2, \dots, e_5$ и отождествив V_6 с R^4, получим, что для любого $\Gamma Sp(6,R)$ сужение g/V_6 преобразования g на подпространство V_6 является

элементом группы $Sp(4,R)$, при этом , для $h=(h_{ij})_{i,j=2}^{5}=g/V_6$ имеем $h_{ij}=\left(he_i,e_j\right)=\left(ge_i,e_j\right)=g_{ij}$ для всех $i,j=2,..,5$. Таким образом , служение

$$g/V_6=\begin{pmatrix} g_{22} & g_{23} & g_{24} & g_{25} \\ g_{32} & g_{33} & g_{34} & g_{35} \\ g_{42} & g_{43} & g_{44} & g_{45} \\ g_{52} & g_{53} & g_{54} & g_{55} \end{pmatrix} \in Sp(4,R)$$

Эту подгруппу естественно называть *группой Галилея симплектических линейных преобразований в* R^6.

Следующая теорема дает критерий для $\Gamma Sp(6,R)$-эквивалентности $\Gamma Sp(6,R)$- регулярных путей в пространстве R^6.

Теорема 2. $\Gamma Sp(6,R)$- регулярные пути $x(t)$ и $y(t)$ $\Gamma Sp(6,R)$-эквивалентны тогда и только тогда, когда выполнены следующие равенства (для всех $t\in(0,1)$):

$y_1(t)=\pm x_1(t)$

$y_6(t)=\pm x_6(t)$

$M_4^{-1}\left(x(t)\right)M_4^{-1}\left(x(t)\right)=M_4^{-1}(y(t))M_4^{-1}(y(t))$

$M_4^T\left(x(t)\right)IM_4\left(x(t)\right)=M_4^T(y(t))IM_4(y(t))$.

Список использованной Литературы

1. Муминов К.К. Эквивалентность путей относительно действия симплектической группы. Известия ВУЗов. Математика, 2002, № 7, 27-38.

2. Хаджиев Дж. Приложение теории инвариантов к дифференциальной геометрии кривых. Ташкент. ФАН, 1988.

3. Муминов К.К., Чилин В.И. Эквивалентность путей в геометрии Галилея. Итоги науки и техники. Современная математика и ее приложения. Тематические обзоры. Том 144 (2018). С. 3-16.

MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH KURSLARINI INFORMAL TA’LIM ASOSIDA O‘QITISH ORQALI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xurramov Bahodir Sapparovich
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada masofaviy malaka oshirish kursi tinglovchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda informal ta’limning ahamiyati va uni tashkil etish huquqiy asoslari hamda yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar*:* kompetensiya, masofaviy o‘qitish, informal ta’lim, o‘quv ta’lim, kattalar ta’limi.

Абстрактный. В статье говорится о значении неформального образования, а также о правовых основах и способах его организации в повышении профессиональной компетентности студентов дистанционного обучения.

Ключевые слова: компетентность, дистанционное образование, неформальное образование, академическое образование, образование взрослых.

Abstract. The article talks about the importance of non-formal education, as well as the legal basis and methods of its organization in improving the professional competence of distance learning students.

Key words: competence, distance education, non-formal education, academic education, adult education.

Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar va o‘zgarishlarni samarali amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatimiz, butun hayot tarzimiz shunchalik rivojlanib, jadallashib bormoqdaki, uni hattoki ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan hodisa sifatida ham qarash mumkin. Hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni nafaqat ishlab chiqarish yoki boshqa sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida ham o‘z o‘rni va mavqega ega bo‘lib bormoqda.

Jumladan, o‘quv-tarbiya jarayonida tranzaksion munosabatni o‘rnatish, o‘quv faoliyati natijalarini baholash va ta’lim oluvchilar muloqot qilish hamda qayta aloqani o‘rnatishda masofaviy ta’lim o‘quv resurslaridan foydalanish yuqori samaradorlikka olib kelish hech kimga sir emas.

Masofaviy o‘qitish tizining ta’lim jarayoni olib borishdagi yuqori samaradorligidan biri bu, ta’lim oluvchining uzluksiz kasbiy ko‘nikmasi rivojlantirib boruvchi tizimli o‘qitish mexanizmi hisoblanadi. Qolaversa, masofaviy ta’lim jarayoni uchun maxsus mezon va me'yorlar ishlab chiqilib, kurslarga qo‘yiladigan talablar to‘liq va mukammal bajarilganda ko‘zlangan natijalarga erishish imkoni ortadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan salmoqli islohotlar tufayli yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda, masofaviy ta’lim shaklida o‘qitish ham o‘rin olgan. Jumladan, 16-modda “Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan” – ta’kidlab o‘tilgan.

Hozir mamlakatimizdagi ko‘plab ta’lim muassasalari masofadan turib dars jarayonini olib bormoqda. Biroq tahlillar ayrim professor-o‘qituvchilarning tajriba va ko‘nikmasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish darajasi talabga to‘liq javob bermayotganini ko‘rsatyapti. Shuningdek, ayrim ta’lim oluvchilarda ham masofaviy ta’lim olish ko‘nikmasi mavjud emas. Albatta, bu borada hali ko‘proq ishlar amalga oshirilishi talab etiladi.

Masofaviy ta’lim an'anaviy ta’lim tizimidek to‘g‘ri ishlashi va kutilgan samarani berishi uchun, avvalo, ta’lim oluvchilarning dunyoqarashini o‘zgartirish lozim. Shu o‘rinda, masofaviy ta’limdagi imtihon jarayonining shaffof o‘tishi, onlayn o‘quv kurslari orqali zaruriy malaka va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish ta’lim oluvchilar tushunib yetishilari kerak.

Galdagi vazifalar esa, ushbu masofaviy ta’lim tizimini yuqori samaradorligini oshiruvchi o‘qitishning zamonaviy metodlardan foydalanishga ehtiyoj sezilayotganligidan dalolat beradi.

Masofaviy o‘qitish, pedagoglarni uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari respublikada A.Aminov, D.Abduraximov, A.D.Asqarov, U.Begimqulov, M.A.Batirov, O.Bobomurodov, R.Boqiev, N.Yeldasheva, S.Jumanazarov X.Ibrayimov, M.Novikov, Sh.Olimov, N.Shodiev, A.Ibragimov, A.Radjiev kabi olimlarning tadqiqot ishlarida atroflicha o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda, masofaviy o‘qitishning ilmiy tahlillari, uzluksiz kasbiy rivojlanish, pedagogning “hayot davomida” o‘qish tamoyillari aniq maqsadga yo‘naltirilgan ilmiy-pedagogik tahliliy ma’lumotlar o‘rganilgan.

Jumladan, A.A.Ibragimov tadqiqot ishida malakasini oshirishning belgilangan davriylikka asoslangan tizimini diversifikatsiyalash va raqamlashtirilgan pedagogik dizayn vositalari, formal, noformal, informal, tasodifiy tizimsiz) shakllaridan unumli foydalanish, o‘qituvchi individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalash shart-sharoitlari, muayyan pedagogik vaziyatlarda tezkor yechim topish, elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqishga qo‘yiladigan didaktik, psixologik, ergonomik talablar, tinglovchilarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda asinxron rejimda elektron ta’lim resurslarini o‘zlashtirish, sinxron rejimda interfaol, analitik-refleksiv mashg‘ulotlarda ishtirok etish hamda ish joyidan qisman ajralgan holda yo‘naltiruvchi, mustahkamlovchi, umumlashtiruvchi mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasini takomillashtirishga doir pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan.

A.Radjiyev tadqiqot ishida ham malaka oshirishda kasbiy ehtiyojlarini aniqlash mexanizmlari, xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” (lifelong learning) tamoyili, uzluksiz rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilish modeli, ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishini tashkil etish mexanizmi

individual malaka oshirish trayektoriyasini shakllantirish hamda kredit ballarini akkreditatsiyalangan ta’lim muassasalarida jamg‘arish tizimini joriy etish asosida takomillashtirish bo‘yicha samaralari natijalar olingan.

Malaka oshirish o‘quv jarayonlari dunyo tajribalarida ta’limning formal va noformal turlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lsada, informal ta’lim bo‘yicha juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda masofaviy o‘qitish orqali, aynan ta’lim oluvchining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda uzluksiz kasbiy malakasini oshirishda informal ta’lim yuqori samaradorlikka erishilayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ham katta yoshdagi aholisining deyarli 60 foizida zarur bilim va malaka yetishmasligi seziladi. Bu ko‘p yillar davomida aholi uchun oliy ma’lumot olish imkoniyati cheklangani bilan izohlanadi. Katta yoshdagilarga ta’lim berish rivojlantirish ushbu bo‘shliqni to‘ldirish imkonini berib, ish kuchi malakasini oshirishga xizmat qilardi.

Bu jarayon esa, Yevropada o‘tgan asrda ko‘tarilgan. Jumladan, 1953 yilda Yevropa katta yoshdagilar ta’limi assotsiatsiyasi tashkil etilib, bugungi kunda u 34 mamlakatdagi 100 dan ortiq filiallarni birlashtirgan va butun Yevropa bo‘ylab 50 milliondan ziyod erkak va ayollardan iborat katta yoshdagilar ta’limini qamrab olgan.

2. Islomjon Solijonov. Zamonaviy ta’lim jarayonida kreativ fikrlash.
3. Xurshida Fayziyeva. Ta’lim-tarbiya jarayonida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish
4. https://chatgpt.com/c/44d02a97-0f76-4474-b47e-4fd87e93560a

TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Biybalayev Islombek Abdunazarovich
Guliston Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Sirdaryo viloyati pedagogika markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmunida O‘zbekiston Respublikasining talim tizimida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonining Oliy ta’lm tizimiga tadbiq etish va ushbu raqamlashtirish jarayonining bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy konpetensiyasiga tasir etadigan ijobiy mulohazalar keltirilgan. Ta’limni raqamlashtirishga oid tizimning asosiy kompenentlari yoritilgan va tahlil etilgan.

Аннотация: В содержании данной статьи содержатся положительные комментарии о внедрении процесса цифровизации, реализуемого в системе образования Республики Узбекистан, в систему высшего образования и влиянии этого процесса цифровизации на профессиональную компетентность будущих учителей. Выделены и проанализированы основные компоненты системы, связанные с цифровизацией образования.

Annotation: In the content of this article, there are positive comments on the implementation of the digitalization process implemented in the education system of the Republic of Uzbekistan to the higher education system and the impact of this digitalization process on the professional competence of future teachers. The main components of the system related to digitization of education are highlighted and analyzed.

Kalit so‘zlar: Personalizatsiya, kasbiy kompetensiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy ta’lim, raqamli ta’lim vositalari, platforma.

Key words: Personalization, professional competencies, information and communication technologies, distance education, digital educational tools, platform.

Ключевые слова: Персонализация, профессиональные компетенции, информационно-коммуникационные технологии, дистанционное образование, цифровые образовательные инструменты, платформа.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ta’lim sohasida raqamlashtirish jarayonlari tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, ta’lim sifatini oshirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada ta’limni raqamlashtirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

1. Ta’limni raqamlashtirishning ahamiyati

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

Axborotga tezkor kirish: O‘quvchilar va o‘qituvchilar har qanday vaqtda va joyda zaruriy ma’lumotlarni topishlari mumkin.

Interaktivlik va faol ishtirok: Raqamli vositalar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi, bu esa o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Personalizatsiya: Raqamli texnologiyalar individual o‘quv dasturlarini yaratish va har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari

Kasbiy kompetensiyalar – bu o‘qituvchilarning o‘z kasbida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar majmuasidir. Raqamli ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarni quyidagi jihatlar bo‘yicha rivojlantirishga yordam beradi:

- Pedagogik texnologiyalarni bilish

Raqamli vositalardan samarali foydalanish o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu jarayon interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish, onlayn resurslar bilan ishlash va virtual sinflarni boshqarish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

- Masofaviy ta’limni tashkil etish

Raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy ta’limni tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim kompetensiyadir. Bu ularga o‘quvchilarga uzoqdan ta’lim berish, virtual darslar o‘tkazish va onlayn baholash tizimlarini boshqarish imkonini beradi.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar o‘qituvchilar uchun zarurdir. Bu qobiliyat o‘quv materiallarini yaratish, taqdimotlar tayyorlash va o‘quv jarayonini raqamli formatda tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

3. Raqamlashtirishning bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’siri

Raqamli ta’lim vositalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi:

- Raqamli savodxonlik

Bo‘lajak o‘qituvchilar raqamli savodxonlikni rivojlantirish orqali turli raqamli vositalar va platformalardan foydalanish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularga ta’lim jarayonini samarali va zamonaviy usullar bilan olib borish imkonini beradi.

- Innovatsion yondashuvlar

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular yangi pedagogik usullar va

texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi va ta’lim samaradorligini yaxshilashi mumkin.

- O‘zaro hamkorlik va tajriba almashish

Raqamli muhitda o‘qituvchilar o‘zaro hamkorlik qilish va tajriba almashish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Bu ular uchun professional rivojlanish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun muhimdir.

4. Raqamli ta’lim vositalari va platformalari.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun mavjud raqamli ta’lim vositalari va platformalari:

- Ta’lim platformalari:

Moodle, Google Classroom, Blackboard kabi ta’lim platformalari o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini tashkil etish, topshiriqlarni baholash va o‘quvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

- Interaktiv dars vositalari

Kahoot!, Quizlet, Nearpod kabi interaktiv dars vositalari o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va bilimlarini baholash uchun foydalaniladi.

- Virtual reallik va simulyatsiyalar

Virtual reallik (VR) va simulyatsiyalar o‘quvchilarga real hayotga yaqin tajriba olish imkonini beradi. Bu usullar ayniqsa fan va texnologiyalar sohasida samarali hisoblanadi.

XULOSA

Ta’limni raqamlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtiradilar, masofaviy ta’limni tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘rganadilar. Shu sababli, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish va ularni keng joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

БЎЛАЖАК ОНА ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Каримов Равшанбек Ризоматович
Чирчиқ давлат педагогика университети ўқитувчиси

Аннотация. Бугунги кунда ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш тушунчаси ҳозирда жуда кенг қўлланилмоқда. У жамиятда фаолият юрита олиш, жамият муаммоларини билиш, унинг фаолият механизмини тушуниш қобилияти, ижтимоий фаол фаолият ва ижтимоий йўналтирилган лойиҳаларни амалга ошириш кўникмаси, шахснинг жамиятда ижтимоий мослашиш қобилияти, ижтимоий ҳаёт қоидалари, меъёрлари, қонунларини қабул қилиш ва шу билан бирга - ўзини ноёб шахс сифатида англаш, ўзи ва жамият учун мақбул танлов қилиш, қадриятлар тизимини шакллантириш қобилияти ва бошқаларни ўз ичига олади.

Мақолада бўлажак она тили ўқитувчиларида ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Хусусият, ҳолат, самарадорлик, компетентлик, билим, кўникма, тажриба, тайёргарлик, қонуният, маҳорат, имконият.

Турли ихтисосликдаги ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлиги муаммоси педагогик таълимдаги энг муҳим масалалардан биридир. Мамлакатимизда таълим сифатини ошириш, таълим-тарбия ўртасидаги алоқани мустаҳкамлаш зарурлиги ҳамда мактаб ўқувчиларини ижтимоий фойдали меҳнатга тайёрлашни такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Бу масалалар ечимини топишда ўқитувчининг муҳим роли ҳисобга олиниб, олий таълим муассасаларида ўқиш даврида уларнинг касбий компетентлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мамлакатимиз педагог-олимларидан Р.Исянов [3], Н.Муслимов, М.Усмонбоева, М.Мирсолиева [5] ва бошқалар бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини такомиллаштиришнинг турли жиҳатларини тадқиқ қилганлар.

Бўлажак она тили ўқитувчиларида ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш уларнинг касбий тайёргарлик ва тажриба, ўзини-ўзи англаш, ўз кучига ишониш, ўзга инсонлар томонидан кўрсатилган камчиликларни тўғри қабул қилиш ва бошқа касбий камолотни белгилаб берувчи шахс хусусиятларини ўз ичига олади.

Ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш тушунчаси ҳозирда жуда кенг қўлланилмоқда. У қуйидагилардан иборат:

• жамиятда фаолият юрита олиш, жамият муаммоларини билиш, унинг фаолият механизмини тушуниш қобилияти;

• ижтимоий фаол фаолият ва ижтимоий йўналтирилган лойиҳаларни амалга ошириш кўникмаси;

• шахснинг жамиятда ижтимоий мослашиш қобилияти, ижтимоий ҳаёт қоидалари, меъёрлари, қонунларини қабул қилиш ва шу билан бирга - ўзини ноёб шахс сифатида англаш, ўзи ва жамият учун мақбул танлов қилиш, қадриятлар тизимини шакллантириш қобилияти;

• жамиятда фаолият юритиш, масъулиятни ўз зиммасига олиш ва ижтимоий институтларнинг фаолияти ва ривожланишида биргаликда қарорлар қабул қилишда иштирок этиш қобилияти [6].

Ижтимоий-педагогик компетентлик тушунчаси билан бир қаторда ижтимоий-психологик компетенция ва ижтимоий коммуникатив компетенция тушунчалари қўлланилади. Бундан ташқари, ушбу атамаларнинг ишлатилиши кўпинча бир хил семантик маънода учрайди.

Бундай ҳолда, ижтимоий-педагогик компетентлик қуйидагича талқин қилинади:

• ишбилармонлик ва шахслараро муносабатлар тизимида бўйсунувчилар билан ўзаро муносабатларининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда самарали ҳамкорликни ташкил этиш қобилияти (А.В.Петровский, М.Г.Ярошевский);

• тузилиши, мазмуни ва сифат белгиларининг ўзига хослиги билан ажралиб турадиган мураккаб шаклланиш (А.А.Бодалев);

• жамият, сиёсат, иқтисод, муайян жамоалар, мулоқот услуби, маданият ва бошқалар ҳақидаги махсус билимлар мажмуаси (яъни, бир пайтлар дунёқараш деб аталган);

• шахсга ҳар қандай ижтимоий вазиятда ҳаракат қилиш, тўғри қарор қабул қилиш ва мақсадга эришиш имконини берадиган ижтимоий идрок этиш қобилияти.

Бўлажак она тили ўқитувчиларининг ижтимоий-педагогик компетентлигини ривожлантиришда халқ оғзаки ижодида, мақолларда, маталларда, урф-одатларда, турмуш тарзида, кузатишларда бу компетентликнинг миллат, жамоа менталитетида белгилар шаклида ўз ифодасини топганлигини таъкидлаш зарур. Кундалик ижтимоий-педагогик компетентлик оилада, кундалик ҳаётда, хизмат кўрсатиш соҳасида, ижтимоий ва миллий муносабатларда намоён бўлади.

Бўлажак она тили ўқитувчиларида ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш қуйидаги омиллар билан белгиланади:

• шахснинг индивидуал хусусиятлари (интроверт ёки экстроверт тип, аутистик ёки аутистик бўлмаган шахс типи);

• шахснинг психологик ҳолати ва тузилиши;

• ижтимоийлашув самарадорлиги;

• маданий асослар ва шахснинг маданий фарқлари;

• шахснинг махсус ижтимоий-психологик тайёргарлиги.

Бўлажак она тили ўқитувчиларининг ижтимоий-педагогик компетентлигини ривожлантиришда уларнинг касбий билим, кўникма, ўз-ўзини билиш тажрибаси, болаларнинг хулқ-атвор хусусиятлари ва ҳиссий ҳолати тўғрисидаги билимларнинг уйғунлигини эътиборга олиш муҳим. Шунингдек, уларни ижтимоий-сиёсий, лингвистик ва касбий-педагогик жиҳатдан тайёрлаш зарур.

Ўқитувчининг касбий-педагогик тайёргарлигининг муҳим элементи унинг методик билимидир, чунки унинг ишининг муваффақияти кўп жиҳатдан ўқув жараёнини ташкил этиш, ўзлаштиришнинг психологик қонуниятларини ҳисобга олган ҳолда ишлашнинг мақбул усуллари ва методларини танлаш қобилиятига боғлиқ. Педагогика, психология, замонавий она тили ва уни ўқитиш методикаси дарсларида зарур касбий педагогик маҳорат ва ўқитувчилик маҳорати шаклланади ва ўқув амалиёти жараёнида мустаҳкамланади. Ўқув жараёнининг барча қисмлари ўқитишдаги касбий йўналишни ҳисобга олган ҳолда тузилиши керак. Филология факультетлари ўқув режасига киритилган она тили фанларини ўқитишнинг касбий маҳоратини оширишга хизмат қиладиган энг муҳим талаб мактаб дастурларини ҳисобга олган ҳолда тузилган ўқув машғулотларини ташкил этиш бўлиб, у педагогика олий ўқув таълим муассасалари олдига қўйилган муаммони ҳал қилиш жараёнида ўқув имкониятларидан самаралироқ фойдаланиш имконини беради.

Бўлажак она тили ўқитувчиларида ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш зарурати она тили курсини ўқитишда асосан назарий материални ўзлаштириш ва таҳлил қилишга қаратилганлиқ, унинг мактабда амалий қўлланилишига етарлича эътибор бермаслигидан келиб чиқади. Мустақил иш жараёнида талабаларнинг ўқув фаолиятининг асосий турлари ихтисослаштирилган адабиётларни ўқиш ва умумлаштириш ҳамда дарсда ўқиганларини такрорлаш билан чекланиб қолмоқда.

Она тилини ўқитиш методикаси бўйича амалий машғулотларда талабалар мактаб дастурлари ва дарсликларининг тузилиши билан танишадилар, дарснинг баъзи жиҳатларини ишлаб чиқадилар, мактаб курсининг турли грамматик мавзулари бўйича схематик дарс ишланмаларини ўқитувчи таклиф қилган моделга мувофиқ тузадилар, мактаб ўқитувчиларининг дарсларида қатнашадилар ва бошқа турдаги ишларни бажарадилар. Бундай дарслар, албатта, талабаларда лингвистик материални таҳлил қилиш бўйича зарур кўникмаларни ва шаблон ёрдамида дарс режасини тузишда баъзи услубий

кўникмаларни шакллантириш учун маълум амалий аҳамиятга эга. Бироқ, бу бошқа асосий фанлар ўртасидаги алоқадорликни таъминламайди ва миллий мактабларда она тили ўқитувчиларини янада самарали тайёрлашга тўсқинлик қилмоқда.

Кейинги йилларда асосий фанлар бўйича назарий ва амалий машғулотларнинг касбий йўналиши масаласи қайта-қайта кўтарилиб келинмоқда, лекин, афсуски, бу масала ҳали услубий адабиётларда етарлича ёритилмаган. Бўлажак она тили ўқитувчиларида ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш учун танланган мутахассисликка мос келадиган таълим жараёни зарур. Бўлажак ўқитувчиларнинг ижтимоий-педагогик компетентлигини ошириш коммуникатив, фаол, интерактив ва ижтимоий характерга эга бўлиши керак. Бундай ижтимоий-таълим жараёни бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга. Хусусан, таълим жараёнида унинг барча субъектларининг фаол фаолияти билан боғлиқ қоидалар бажарилиши керак. Бу дарслар давомида тадқиқот позициясини шакллантириш ва ривожлантиришга, ҳар бир иштирокчини интерактив фаолиятга ва фаол ўзаро таъсирга жалб қилишга ёрдам берадиган шароитларни яратишга имкон беради.

Таълим ҳолати ва ҳақиқий касбий тажриба билан боғлиқ вазият муҳим ҳисобланади. Бундай ҳолда, таълим жараёнининг ҳиссий жиҳатдан бой муҳитини моделлаштириш учун махсус усул ва методларидан фойдаланилади. Бу тегишли касбий билимларни шакллантиришга ва ўқитувчилик фаолиятининг хусусиятларини тушунишга ёрдам беради.

Ижтимоий ривожланиш механизмларини кўпайтириш, алоқа соҳаларини, ижтимоийлаштириш институтлари ва воситаларини кенгайтириш бўлажак ўқитувчининг ҳар томонлама ривожланишини фаоллаштиради, таълим фаолияти доирасида чекланиб қолмасдан, бўш вақтни ўтказиш, оммавий тадбирларда қатнашиш ва бошқа турли хил синфдан ташқари, маданий ва ижтимоий тадбирларни режалаштиришга имкон беради.

Ўзаро ривожланиш муҳим бўлиб, бу ўзаро когнитив фаолиятни назарда тутади. Бу биргаликда ижодий фаолият билан ҳамкорликни ривожлантиришга ёрдам берадиган тегишли шакллар, техникалар, технологиялар ва ўқитиш методларидан фойдаланишни англатади. Натижада, педагогик жараённинг иккала иштирокчиси - ўқитувчи ва талаба - маълумот ва тажриба билан бойитилади.

Таълим жараёнида индивидуал ёндашувдан фойдаланиш алоҳида эътиборни талаб қилади. Бу ўрганилаётган фанлар мазмунининг ҳамда ўқитувчи ва талаба ўртасидаги шахслараро мулоқот даражасининг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тузатишларни ўз ичига олади. Ушбу ёндашув педагогик жараённинг барча иштирокчилари ўртасида мазмунли

шахслараро мулоқотни таъминлайди, ўзаро ҳурмат ва турли фикрларни қабул қилишни шакллантиришга ёрдам беради.

Шундай қилиб, бўлажак она тили ўқитувчиларида ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантириш учун ижтимоий тажрибани ўқув жараёнига интеграциялаш ва унинг самарадорлигини сезиларли даражада ошириш, талабаларнинг шаклланаётган компетенциялари кўламини кенгайтириш ва унинг барча иштирокчилари ўртасидаги муносабатларни янада мустаҳкамлаш зарур бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 40 с.

2. Иванов Д.А., Митрофанов К.Г., Соколова О.В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий: учебно-методическое пособие. М.: АПК и ПРО, 2003. 101 с.

3. Исянов Р.Г. Кластерный подход к формировании компетентности преподавателей высших образовательных учреждений.-Т.: ТГПУ, 2014.-69 с.

4. Курбанов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Управление качеством образования.- Т.: Шарк, 2004.-592 с.

5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Мирсолиева М. "Инно-вацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик" модули буйича укув-услубий мажмуа. - Т: 2016. -147 б.

6. Растянников А. В., Степанов С. Ю., Ушаков Д. В. Рефлексивное развитие компетентности в совместном творчестве. М., 2002.

TA’LIMDA RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR, AFZALLIKLAR. JAXON TAJRIBASINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TA’LIM MAZMUNINI OSHIRISH YO‘LLARI

Yunusova S.Z., Hasanova G.X., Abduraxmonova X.Q.
Namangan viloyati Yangi Namangan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 63-umumiy o‘rta maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda inson hayotida zamonaviy texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining ko‘p jabhalariga kirib bormoqda. Ta’lim ham bu jarayondan istisno emas. Maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, ularning afzalliklari va tahdidlarini ko‘rib chiqishdir. Maqolada elektron ta’limning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinib, ta’lim tizimidan yangi maqsadlarni qo‘yadigan, ta’lim jarayonining tuzilishi va mazmunini o‘zgartiradigan kompleks yondashuvni talab qiladigan raqamlashtirish shakllari ko‘rsatilgan. Muallif ularni oliy va kasb-hunar ta’limi tashkilotlari faoliyatiga ilmiy asoslangan tatbiq etish zarurligi to‘g‘risida gipotezani shakllantirdi.
Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, raqobatbardosh ta‟lim modeli, elektron ta‟lim tizimi, ta‟lim muhitini raqamlashtirish shakllari, elektron ta‟limning afzalliklari va kamchiliklari.

Аннотация: организация воспитательных занятий в начальных классах на основе изучения опыта азиатских стран (Китая, Японии, Южной Кореи) по организации воспитательных занятий
Ключевые слова: образование, область образования, образовательное право, формирование образования, школа, обязательное образование, «кандзи», «хиракана», «катакана», сэнсэй, дошкольный лим, колледж.

Abstract: Organization of educational classes in primary grades by studying the experience of Asian countries (China, Japan, South Korea) in organizing educational classes
Key words: education, field of education, educational law, formation of education, school, compulsory education, "kanji", "hirakana", "katakana", Sensei, preschool ‘lim, college.

Xitoy qadimiy va novqiron mamlakat. Hozirda Xitoy Xalq Respublikasida 56 millat vakillari yashaydi. XXIda milliy ta’limni rivojlantirish 50-60 yillik Tarbiyani qamrab oladi. 1952- yilda Sin Szyan hukumati uchta tilda: uyg‘ur, qozoq, mo‘g‘ul tillaridagi darsliklarni chop etuvchi “Sin Szyan xalq nashriyoti”ni tashkil etdi. 1955-yilda Sin Szyan ma’rifiy nashriyoti darsliklarni besh tilda: : uyg‘ur, qozoq, mo‘g‘ul, qirg‘iz va sibo tillarida nashr eta boshladi. Maorif vazirligi qoshida milliy ta’lim departamenti tashkil etilgan. Uning vazifasi xan va kichik millatlar ta’limini nazorat qilish, joylarda ikki tillikni taraqqiy ettirish, milliy ta’lim moliyaviy ta’minotini

nazorat qilishdan iborat[63].

XXI da Ta’lim vazirligi va Davlat qo‘mitasi qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim departamenti kichik millatlar ta’limida kechayotgan mana shu jarayonlarni boshqarish, nazorat qilish, tartiblashtirish ishlarini amalga oshiradi. XXIda ta’limni takomillashtirish maqsadida hozirgacha 6 ta qonun qabul qilingan. Bular: XXIda ilmiy daraja haqidagi qonun (1980-y); XXIda majburiy ta’lim to‘g‘risidagi qonun; (1986-y); XXIda Murabbiylar haqida qonun (1993-y); XXIda Ta’lim to‘g‘risida qonun (1995-y); XXIning kasbiy ta’lim to‘g‘risidagi qonuni (1998-y); XXIda oliy ta’lim to‘g‘risidagi qonun(1998-y) XXIda 9 yillik majburiy ta’lim tizimiga amal qilinmoqda. Maktabgacha asosiy ta’limga-boshlang‘ich va oddiy o‘rta ta’lim (quyi va oliy bosqich) kiradi. 1999- yilda hukumat umumta’lim maktablar saviyasini oshirish maqsadida maorif sohasi bilan bog‘liq islohotlarni chuqurlashtirish haqida qaror qabul qildi. 2007- yildan boshlab, pedagog -o‘qituvchilarni tayyorlovchi universitet va institutlarda bepul talim olish yo‘lga qo‘yildi.

Yaponlarning aksariyat qismi uchun ta’lim olish juda muhim. Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867—1868- yillarda boshlangan[64].

Yaponiya o‘z oldiga ikki vazifani:

l. Boyish.

2. G‘arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish.

1872- yilda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bunda Yapon ta’limi g‘arb ta’limi bilan uyg‘unlashtiriladi.

1908-yil Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollej tashkil etildi. Bular:

• Maktabgacha ta’lim muassasalari
• Boshlang‘ich maktab,
• Kichik o‘rta maktab,
• Yuqori o‘rta maktab,
• Oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlari.

Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadi.

Majburiy ta’lim. Ta’limning pog‘onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘z ichiga oladi. 6 yillik boshlang‘ich ta’lim va 3 yillik kichik o‘rta maktab, 9 yillik majburiy ta’limni tashkil etadi va u bepuldir. Yuqori bosqich o‘rta maktab 10, 11, 12- sinflarni o‘zichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo‘limlari mavjud. O‘quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o‘qiydilar. Bitiruvchilarning 25,3% ga yaqini odatda kollej yoki universitetlarga, yana boshqa qismi esa 240 kun (AQSh 180). O‘quvyili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi ta’til iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o‘tiladi.

Yaponiya maktablarida sinf xonalari 40 va undan ko‘proq o‘quvchiga mo‘ljallanadi. Deyarli barcha maktab o‘quvchilari ingliz tilini o‘rganishadi. Ular 6 yoshdan boshlab ingliz tilida gaplashadilar. Yapon tilida yozishni o‘rganish juda

[63] Koreya va Xitoyda ta’lim-tarbiya jarayonlari. https://hozir.org/1-mavzu-xorijda-maktabgacha-talim-fanining-predmeti-jahon-maml.html?page=7

[64] Isaqulova N.J, Qosimova Z.H. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim (ma’ruza). T., 2011

mushkul va uzoq vaqt talab etadi. Yaponlarda 3 xil alfavit mavjud va ularning o‘z kelib chiqish Tarbiyasi bor:

Birinchisi “kanji” bo‘lib, u VI asrda Xitoydan kelgan va yapon tiliga kiritilgan iyerogliflardir. Bu alfavit juda murakkab bo‘lgani uchun yaponlar yana ikkita alfavitni yaratishgan. **Ikkinchisi**, “hirakana” deb ataladi. Unda 46 ta harf bo‘lib, undan sof yapon so‘zlarini yozishda foydalanishadi. Uchinchisi “katakana”dir. Unda ham 46 ta “katakana” harf bo‘lib, chetdan o‘zlashgan so‘zlar yoziladi.

Maktablarda “hirakana” va “katakana”dan foydalanishadi. Kanji 2000 ga yaqin iyeroglifdan iborat. Maktabning boshlang‘ich sinfni tugayotgan o‘quvchilari 1000 ta kanjini bilishlari va o‘qiy olishlari kerak. Maktablarda asosiy fanlar: yapon tili, ijtimoiy fanlar, matematika, musiqa san’ati, fizika va laboratoriya ishlaridan iborat. So‘nggi yillarda Yaponiya maktablarida “robot-pedagog” yaratildi[65].

Bunday robot o‘qituvchilar barcha maktablarga tarqatilishi mumkin emas ekan. Chunki uning imkoniyatlari, tabiiyki, o‘qituvchinikidan ko‘ra ancha yuqori. Kollejlar:

• 1 -kichik kollej;
• 2-texnik kollej
• 3-maxsus kollejlarga bo‘linadi.

Uni bitirgan tinglovchilar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3- yoki 4-kurslariga qabul qilinadi.

Yaponiya maktablarida o‘qituvchilar nihoyatda hurmat qilinadi. “O‘qituvchi - millat iftixori” yoki, “O‘qituvchidan uch qadam tashla, lekin soyasiga qadam tashlama” deb javob berishadi yapon o‘quvchilari. Maktabda o‘qish 8.05 da ertalabki badantarbiyadan boshlanadi. U 20 minut davom etadi. So‘ngra yuvinishadi va ertalabki nonushta qilishadi. 8.45 da esa dars boshlanadi. Sensey (o‘qituvchi) dars o‘tadi. 4 soatdan keyin esa o‘quvchilar tushki ovqatga chiqishadi[66].

Binobarin, o‘qitish jarayonida o‘ziga xoslik tomoni mavjudki, undan nusxa olish, bizning mentalitetimizga, qadriyatimizga to‘g‘ri kelmaydi. Bular:

1.Maktabgacha ta’lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Bizda esa diniy tashkilotlar ta’lim tizimi ishiga aralashmaydi.

2.Umumta’limtizimida Xitoyda, boshlang‘ich maktab masalasigakelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig‘izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o‘qiydi. Dars yuklamalari ham ko‘proq.

3.Yaponiya maktablarida esa sinf xonalari 40 va undan ko‘proq o‘quvchiga mo‘ljallangan. Bizda esa 25-30 nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan.

4. Yaponiyada o‘quv yili 240 kun (AQShda 180 kun). O‘quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda

---

[65] Узбекистан-Япония: образовательный обмен совершенствуется. 16 декабря 2011 //veb- sayti. www. jahonnews.uz

[66] Uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiyjurnal. 2012 yil, 3-son, 102-108 betlar //А.Кусаинов. Японский феномен образования//.

tugaydi. Darslar 7 soatdan o‘tiladi. Bizda: 1-sentyabrda boshlanib, 25-mayda tugaydi[67].

Janubiy Koreyadagi odamlar ta’limga kelajakda jamiyatda o‘z mavqeini egallash vositasida qarashadi. Mamlakatning hozirgi ko‘rinishidagi o‘rta ta’lim maktablari 1880- yilda paydo bo‘lgan bo‘lsa, Janubiy Koreya Respublikasi tashkil topishi bilan hukumat ta’lim sohasini qayta isloh qilishga kirishdi. Ta’lim haqidagi Qonun 1948- yilda qabul qilingan. Ta’lim tizimiga asos qilib an’anaviy g‘arb modeli olingan:

• 6 yil — quyi maktab,
• 3 yil — o‘rta,
• 3 yil — oliy maktab;
• 4 yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi;
• 2 yil chuqur o‘rganilgandan so‘ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo‘lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Boshlang‘ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig‘izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o‘qiydi. Dars yuklamalari ham ko‘proq. O‘yinlar, dam olish o‘quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang‘ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O‘rta maktabda esa darslar 45 minut. Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minut.

Boshlang‘ich maktabda 9 ta fan o‘qitiladi. Koreys tilini o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o‘qitiladi. O‘rta maktabda fanlar yana 4 taga ko‘paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o‘rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e’tibor kuchli. Koreyslar yana bir tilni-klassik xitoy tilini majburiy ravishda o‘rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy Tarbiyasi o‘rganiladi. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo‘lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo‘jalik ixtisosliklari o‘zlashtiriladi.

• Hunar maktablariga korxonalar otaliq qiladilar. Ta’lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir.
• Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e’tibor kuchli. So‘nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta’sir ko‘rsatgan.
• Davlat maktablarida diniy ta’limot o‘qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab “Odobnoma” kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o‘qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan.
• Maktablar uchun o‘qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e’tibor beriladi.
• Koreyadagi barcha tinglovchilarning 6,5 foizi bo‘lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o‘qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o‘z kollejiga ega.
• Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi bo‘lish uchun 2 yil o‘qish kerak. Fan o‘qituvchisi birmuncha ko‘proq o‘qiydi.

[67] Abdullayev Yo. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T.,2001

• Soliqlar tizimida ta’limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma’lum foizini maorifga yuboradilar.
• Davlat byudjetining 24 foizi ta’limga sarflanadi.
• Mamlakat prezidenti (u xalq ta’limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta’lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta’limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. 2005- yil 9- dekabrda Janubiy Koreya Milliy kengashi xususiy maktablar ta’limi haqidagi qonunning yangi tahririni qabul qildi[68].

Yevropa (Finlandiya, Germaniya) mamlakatlarida ma’naviy -axloqiy ta’limni tahlil qilish

Finlyandiya bolalari ta’limni boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda kechroq boshlaydilar.Ular 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinishadi.«Bolalarni haddan ziyod erta maktabga berish ilmiy jihatdan foydali emasligi tasdiqlangan», deyiladi fin tizimida.

7 yoshgacha bo‘lgan bolalar kunduzgi bolalar bog‘chalariga qatnaydilar, ammo u yerda darslar o‘rniga ijodiy o‘yinlarga e’tibor berishadi. Finlar bu yoshdagi bolalarga o‘ynash va jismoniy faol bo‘lish uchun vaqt kerak, chunki bu yosh ijodkorlik davri, deb hisoblashadi.

O‘qishninghar 45-daqiqasida o‘quvchilar 15 daqiqa tanaffus qilib, turli o‘yinlar o‘ynashadi.

Finlandiyada majburiy ta’lim 9 yil davom etadi, o‘quvchilar 16 yoshdan o‘qishni tark etishlari mumkin. Finlyandiyada o‘quvchilar faqat 16 yoshida markazlashtirilgan imtihon (Milliy Matriculation Test) dan o‘tishlari talab qilinadi.

Finlyandiya o‘quvchilari rivojlangan mamlakatlarichida eng kam dars soatlarini o‘qiydilar (darslar 8-9 oralig‘ida boshlanib, kunduzgi 2 gacha yakunlanadi), shunga qaramay juda yaxshi natijalar qayd etadilar. Finlyandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o‘qituvchilar va hatto o‘quvchilar o‘rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlik muvaffaqiyat kalitidir, deb hisoblashadi. Fin o‘qituvchilarining bu qadar ulkan mavqega egaliklari o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan talabning yuqoriligi hamda malaka imtixonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlyandiyada ular o‘z o‘qituvchilarini doimiy ravishda baholash va baholab borish zaruratini sezmaydilar. Agar o‘qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o‘tadigan bo‘lsa, u bilan maktab direktorining o‘zi shug‘ullanib qo‘ya qoladi.

Finlandiyada maktablar tekshirilmaydi. 1990 yillarning boshlarida Finlyandiyada maktablarni maxsus komissiyalar tomonidan tekshirilish amaliyoti bekor qilindi. Finlandiyaliklar o‘qituvchilar va maktab rahbarlarining kasbiy mahoratiga ishonadilar. Maktablar o‘z-o‘zini baholashga da’vat etiladi.

Finlandiyada xususiy maktablar mavjud emas. Fin maktablari o‘rtasida raqobat yo‘qligining sabablaridan biri shundaki, barcha maktablar davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bois qayerdadir yaxshi, qayerdadir sustroq ta’lim berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Finlyandiya maktablarida barcha o‘quvchilarning tushlig idavlat tomonidan qoplab beriladi. 1943 yildan buyon mazkur amaliyotga amal qilib kelinmoqda.

[68] Abdullayev Yo. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T.,2001

Finlyandiya ta’lim tizimi test natijalarini ko‘paytirish va matematika, tabiiy fanlar va ingliz tillarig austuvorlik berish o‘rniga, o‘qish uchun sog‘lom va uyg‘un muhit yaratishga e’tibor qaratilgan. Bunda ta’lim «ijtimoiy tengsizlikni muvozanatlash vositasi bo‘lishi kerak», degan mafkuraga amal qilinadi. Finlyandiya o‘quvchilari ko‘proq horij tillarini o‘rganishadi. Ular fin tilini maktabdagi birinchi kunidan o‘rganishadi.9 yoshida ular shved tilini o‘rganishni boshlaydilar.11 yoshida ular uchinchi tilni (odatda ingliz tilini) o‘rganishga yo‘naltiriladi.Ko‘plab o‘quvchilar 13 yoshida to‘rtinchi tilnio‘rganayatgan bo‘ladi.

O‘rta maktab o‘quvchilarining 66% qo‘shimcha ta’limga (kollej yoki kasb-hunar kurslariga) qatnaydilar. Finlyandiya har bir o‘quvchilarga AQSh, BuyukBritaniya, Yaponiya va Germaniyaga qaraganda taxminan 30% kamroq mablag‘ sarflaydi (OECD statistikasi)[69].

Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e’tibor beriladi. Onalar o‘z farzandlarini boshlangi’ch bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo‘lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Bog‘chada bolaga o‘z huquqlarini, ularni hech kim xafa qilishi mumkin emasligini o‘rgatishadi. Bu nafaqat bolalarga qo‘l ko‘tarish, balki kattalar tomonidan ularga ovozni balandlatish, xafa qilishning oldini olish ham demakdir.

Nemislar o‘z farzandlariga yoshligidanoq tejamkorlik, intizomli bo‘lishni, atrof-muhitni muhofaza etishni, odob-axloqni o‘rgatishadi. Ota-onalarning o‘z farzandlariga yordam bermasliklari, bolalar bog‘chalarining to‘liq kun ishlamasligi, enaga xizmatining qimmat turishi hisobiga ayollar farzand ko‘rishga shoshilishmaydi va shu sababli Evropa davlatlari ichida mamlakatda tug‘ilish eng kam hisoblanadi. Bolalarga kichik yoshida televizor ko‘rishga ruxsat berilmaydi va iloji boricha soat 20.00 da uxlashga yotqizishadi, chunki kichkintoyni erta uyg‘onishga, kichik yoshidanoq o‘z kunini rejalashtirish, muhim sanalar (qarindoshlarning tug‘ilgan kunlari)ni yodda saqlash, o‘z xarajatlarini nazorat qilishga o‘rgatishadi.

Farzandlarida kommunikabellikni rivojlantirish maqsadida onalar ularni rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Bolalar bog‘chalari asosan kichkintoylarni jamoada o‘zini tutish, muloqotda bo‘lishga o‘rgatadi, yozish va o‘qish faqatgina maktabdan boshlab o‘qitiladi. Bola go‘dakligidanoq enaga nazoratida o‘zi istagan ishni qiladi, o‘qish kichkintoy uchun foydali va yoqimli bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi, har bir bolaning iqtidoriga qarab fanlarni tanlashga harakat qilinadi.

Boshlang‘ich sinflardagi barcha fanlar o‘yin tarzida o‘tiladi. Maktab 9 yillik bo‘lib, o‘quvchining sha’niga hech kim putur etkazmasligi uchun hattoki nazorat ishlar baholari sinfda e’lon qilinmay, alohida ota-onaga aytiladi. Bola bir kun dars qoldirsa, ta’lim politsiyasi darhol buning sabablarini aniqlashga harakat qilib, sababsiz holatda ota-onaga jarima solishi mumkin. Jismoniy kamchiligi mavjud o‘quvchilar oddiy maktablarga borishadi, aqliy jihatdan kamchiligi mavjud bolalar maxsus maktablarda o‘qitiladi. O‘qish puli ijtimoiy xizmat tomonidan to‘lanadi.

[69] Abdullayev Yo. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T.,2001

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T., O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr, № 276 (7778).

II. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni, 20.04.2021-y.
3. O‘zbekiston Respublikasining“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni,23.09.2020-y.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Узбекистан-Япония: образовательный обмен совершенствуется. 16 декабря 2011 //veb- sayti. www. jahonnews.uz
2. Tarbiya. Jurnal. Yaponiyada maktab ta’lim tizimi. 2007 yil, 1- son, 46-47 betlar.
3. Uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiyjurnal. 2012 yil, 3-son, 102-108 betlar //А.Кусаинов. Японский феномен образования//.
4. Jamiyat va boshqaruv. //Shoazm Shazamanov. XXI: ta’limni rivojlantirishning siyosiy-huquqiy asoslari//
5. Abdullayev Yo. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T.,2001
6. Isaqulova N.J, Qosimova Z.H. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim (ma’ruza). T., 2011
7. Koreya va Xitoyda ta’lim-tarbiya jarayonlari. https://hozir.org/1-mavzu-xorijda-maktabgacha-talim-fanining-predmeti-jahon-maml.html?page=7

IV. Elektron ta’lim resurslari

1.https://lex.uz/docs/-3107036
2. https://www.lex.uz/ru/docs/-4885018
3. t.me/edurtm_uz
4. tarbiyam.uz

TARIX FANINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xolboyev Sardor Uyg‘un o‘g‘li
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Tarix yo‘nalishi magistranti
e-mail: xolboyevsardor250@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarga tarix fanini o‘rgatishning yo‘llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e’tibor tarix darslarida zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish hamda, o‘quvchilarga tarix fanini oson o‘zlashtirishlariga yordam berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, axborot kommunikatsiya, animatsiyalar, internet ma’lumot, videofilm, illyustratsiyalar, kinofilm.

Abstract. The article discusses ways to teach history to students using modern information technologies. The main focus is on the use of modern information and communication tools in history lessons and on helping students learn history easily.

Key words: educational process, information communication, animations, Internet information, video film, illustrations, motion picture.

Абстрактный. В статье рассматриваются способы преподавания истории школьникам с использованием современных информационных технологий. Основное внимание уделяется использованию современных информационных и коммуникационных инструментов на уроках истории, а также тому, чтобы помочь учащимся легко изучать историю.

Ключевые слова: учебный процесс, информационная коммуникация, анимация, информация в Интернете, видеофильм, иллюстрации, кинофильм.

Ilm dargohida kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf – odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko‘zlikni quli bo‘lishdan ozod bo‘lmog‘i darkor.
Abu Rayhon Beruniy

Tarix o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida taqdim qilinadigan ko‘rgazmali vositalar tarixiy bilimlarning o‘quvchilar ongiga etkazish va singdirishda muhim vosita hisoblanadi. Ko‘rgazmalilik eng avvalo o‘qitish va o‘rganishning ko‘rgazmali usuli, o‘qituvchi bayonining ko‘rgazmali bo‘lishi, uning o‘quvchilardagi tayyor obrazlarga suyana bilishi, o‘quv materialini bayon qilish vaqtida zamonaviy ko‘rgazmali qurollardan foydalanish va ko‘rgazmali qurollar vositasida o‘quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish

hamda ularning o‘rganilayotgan tarixiy jarayonlarni, voqea va hodisalarni aynan o‘zini yoki ularning tasvirlarini ko‘rish yordamida o‘rganishlari tushuniladi.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o‘qituvchining muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: “O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o‘qituvchidan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi”. Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal ravishda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog‘i keskin oshayotgan bir davrda o‘qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o‘qitish shakllarida foydalaniladigan o‘qitish qonuniyatlari, printsiplarini ijodiy qo‘llashda, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo‘lib kelgan O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o‘zgacha ma’no kasb etishi muqarrar. O‘qituvchi – O‘zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo‘lgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, tarix fani o‘qituvchisining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasidagi obro‘-e’tibori hozirgi zamon talablariga mos bo‘lishi shart.

Tarixiy xujjatlar va badiiy adabiyotlardan foydalanish o‘qituvchi bayonini obrazli qilib konkretlashtirsa, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamidagi ko‘rgazmali qurollar vositasida o‘quvchilarda o‘tmish to‘g‘risida yorqin va aniq tasavvur hosil bo‘ladi, o‘quvchilarning eshitish faoliyatiga ko‘rish va sezish organlarining faoliyati ham qo‘shiladi. Shu bilan ularning bilimi yanada chuqurlashadi va mustahkamlanadi. Ko‘rgazmali qurollar o‘quvchilarning bilim olishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi hamda o‘quvchilarning tarixiy tasavvurlariga aniqlik kiritadi va bu tasavvurlarni konkretlashtirishga yordam beradi.

Taqdimot yoki multimediya ko‘rinishidagi ko‘rgazmali qurollar o‘quvchilarning murakkab tarixiy xodisalarning, tarixiy tushunchalarni ma’nosini osonroq tushunishga yordam beradi. Tarix o‘qitishda qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollar o‘zining mazmuni, tarixiy obrazlarining xarakteri, ularni tayyorlanish va foydalanish usullariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Buyum ko‘rsatmalilik tarixiy yodgorliklar, esdalik joylari; arxitektura yodgorliklari, ho‘jalikka doir va boshqa qurilishlar; mehnat qurollari; qurol-yarog‘lar, ro‘zg‘or buyumlari, shu jumladan arxeologik topilmalar.

2. Tasviriy ko‘rgazmalar; o‘qitishda foydalanish uchun ishlangan tarixiy kartinalar va albomlar, san’at asarlari, portretlar, rasmlar, fotoxujjatlar va fotosuratlar, darsliklardagi illyustratsiyalar, o‘quv diapozitivlari, diafilmlar va kinofilmlar, maketlar, mulyajlar, har- xil modellar, multimedialar, internet materiallari va boshqalar.

3. Shartli ko‘rsatmali qurollar. Tarixiy va kontur kartalar, tarixiy atlaslar, sxemalar, grafika, diagramma va kartogrammalar, applikatsiyalar va pedagogik rasmlar. Buyum ko‘rsatmalilik ta’limda aloxida kasb etadi. Fizika, ximiya yoki botanika o‘qituvchilari o‘rganilayotgan mavzuni talabalarga formula, shakl va boshqalarda ko‘rsatib tushuntirsalar tarix o‘qituvchisi unday imkoniyatlardan mahrumdir.

Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarga ibtidoiy odamlar hayoti va faoliyatining aynan o‘zini ko‘rsatib bera olmaydi, faqat gapirib beradi, ko‘rsatsa faqat ibtidoiy kishilar ishlatgan qurollarni, yashagan joylarini, yoki aytaylik o‘rta asrlardagi xukmdorlarni o‘zaro urushlarini emas, urushda ishlatilgan qurollarni va boshka ba’zi bir buyumlarni, ayrim sarkardalar boshliq askarlarning janglarda ko‘rsatgan jasorat va qahramonliklarini emas, balki ular to‘g‘risidagi rassomlar chizgan ayrim rasm - kartinalarni ko‘rsatish mumkin, xolos, lekin zamonaviy axborot komunikatsiya vositalari yordamida o‘tilgan darslar talabalarda tarixiy voqealar tug‘risida real tasavvur kilishga so‘zsiz yordam beradi.

O‘quvchilar oradan bir necha asrlar, xatto necha-necha ming yillar o‘tib ketgan zamondagi voqealar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi haqiqiy buyum va narsalarni juda qiziqish va xayajon bilan o‘rganadilar. Shuning uchun xam o‘quv mashg‘ulotida tarixiy o‘tmishni o‘rganishning asosiy manbalaridan biri bo‘lgan bu yodgorliklarni to‘plash va ulardan foydalanishga juda katta e’tibor beriladi.

Tasviriy ko‘rgazmali qurollar ta’lim tizimi tajribasida hammadan ko‘p qo‘llanildi. Tasviriy ko‘rgazmalar bir necha xil bo‘ladi;

a) o‘tmishdan qolgan xaqiqiy asl nusxa xujjatlar asosida yaratilgan tasviriy ko‘rgazmalar; hujjatli fotosuratlar va xujjatli kinofilmlar, predmet yodgorliklarining tasvirlari, mehnat qurollari, madaniy yodgorliklarining tasvirlari va shu kabilar;

b) ilmiy jihatdan asoslab ta’mir qilingan arxitektura va boshqa yodgorliklar tasviri, ro‘zg‘or buyumlari yoki ular tasviri;

v) rassomning ijodiy faoliyati bilan qilingan tasviriy ko‘rgazmalar; tarixiy san’at asarlari darsda berilgan illyustratsiyalar, maketlar, modellar va boshqalar.

Ko‘rgazmali qurollarni tanlash va ulardan foydalanishda o‘qituvchi quyidagilarni e’tiborga olishi lozim:

1. O‘quvchilarning yoshi, bilimi va malakasi o‘sib borgan sari ularning predmet va tasviriy ko‘rgazmalarga qiziqishi ortib boradi.

2. Har bir mashg‘ulot uchun tanlangan ko‘rgazmali qurol mazmuni, g‘oyaviyligi, ilmiyligi jihatdan talabga javob beradigan bo‘lishi, o‘quvchilarga mos bo‘lishi, soni ko‘paytirib yuborilmasligi lozim. Agarda ko‘rgazmali qurollar ko‘payib ketsa, o‘qituvchi va o‘quvchilar shu qurollar bilan ovora bo‘lib qolib, o‘quvchilarning dars materialini o‘zlashtirishiga xalaqit berishi mumkin. O‘quv mashg‘ulotida eng muxim 2-3 ta ko‘rgazmali qurolni tahlil qilish va o‘rganish kifoya.

3. O‘quvchilarning ko‘rgazmali qurollarni ongli ravishda puxta o‘zlashtirib olishlariga erishish kerak.

4. Ko‘rgazmali qurollar o‘quvchilarlarning bayoni jarayonida ko‘rsatib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babanskiy Yu.K. «Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktablarida o‘qitish metodlari» Toshkent. «O‘zbekiston», 1990.

2. T.Toshpulatov, Ya.G‘afforov Tarix o‘qitish metodikasi Toshkent. «Universitet», 2002.

3. Kurbonov Sh. va boshqalar «Barkamol avlod orzusi» Toshkent. «Shark», 1998.

4. Internet ma’lumotlar

BO‘LAJAK ADABIYOT FANI O‘QITUVCHILARINI AKT BO‘YICHA KASBIY NUTQINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ta’limni axborotlashtirishning zamonaviy rivojlanish davri pedagogik tarmoqlar hamjamiyatlarining yoki ular o‘qituvchilar tarmog‘ining jadal o‘sishi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchilar ushbu tarmoq hamjamiyatlari maktabda, mintaqada, bir nechta viloyatlarda, fan yo‘nalishlari va ta’limning turli muammolarini hal etish tamoyili asosida tashkil etilgan.*

Kalit so‘zlar. *kasbiy nutq, axborot texnologiyalar, kompetensiya, adabiyot, matn, usul.*

Abstract. The period of modern development of educational informatization is characterized by the rapid growth of communities of pedagogical networks or networks of teachers. These network communities of teachers are organized on the basis of the principle of solving various problems of science and education in the school, region, several regions.

Key words. professional speech, information technology, competence, literature, text, method.

Аннотация. Период современного развития информатизации образования характеризуется быстрым ростом сообществ педагогических сетей или сетей учителей. Эти сетевые сообщества учителей организованы по принципу решения различных проблем науки и образования в школе, регионе, нескольких регионах.

Ключевые слова. профессиональная речь, информационные технологии, компетентность, литература, текст, метод.

Bo‘lajak adabiyot fani o‘qituvchilar multimediya texnologiyalari asosida taqdimotlarning mualliflariga alohida o‘rin ajratadilar, bu aslida rasmlarning, ovozning, grafikaning, matnning dinamikasini uyg‘unlashtirgan holda, eng sevimli o‘qitish vositasiga aylanadi, sizga rasmlarni qo‘shish imkonini beradi, ya’ni ular bir vaqtning o‘zida eshitish va ko‘rish organlariga ta’sir qilish bilan birga, bolaning e’tiborini jalb qilish va ushlab turishga imkon beradi. Bu sinfda qulay hissiy muhitni yaratadi, o‘quvchining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Afsuski, taqdimotda axborot texnologiyalarining interfaol imkoniyatlari amalga oshirilmayapti, bu esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirish to‘g‘risida gapirishga imkon bermaydi. Taqdimotlar o‘qituvchilar tomonidan darsning barcha bosqichlarida (bilimlarni yangilashda, yangi materialni tushuntirishda, suhbat qurishda va tuzatishda) va asosan dars davomida emas, balki qismlarga ajratilgan holda, yanada murakkab masalalarni yechishda qo‘llaniladi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tajribasini tahlil qilish quyidagi yo‘nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

1. Elektron hujjat aylanishini yuritish, shu jumladan boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha ish dasturlarini tayyorlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

foydalangan holda darslarni o‘tkazish uchun uslubiy ishlanmalar, elektron shaklda hisobotlarni tayyorlash va turli o‘quv-uslubiy hujjatlarni tayyorlash. Ta’kidlash joizki, o‘qituvchi, o‘quvchi, maktab ma’muriyati va ota-onalar o‘rtasidagi epizodik yoki tizimli axborot o‘zaro bog‘liqligi amalga oshirilmaydi, chunki vazifa ma’lum bir ta’lim muassasasida kasbiy nutqni takomillashtirishning axborot va ta’lim muhitini sozlash emas, ammo atrof-muhitning tarkibiy qismlari har qanday maktabda mavjud bo‘lsa ham (elektron resurslar, boshlang‘ich sinflar uchun tayyor amaliy dasturiy ta’minot, moddiy va texnik baza).

